

International scientific journal

# MODERN SCIENCE AND RESEARCH

**2023**

ISSN: 2181-3906

**Modernscience.uz**

---

- **Exact Sciences**
- **Natural Sciences**
- **Medical Sciences**
- **Technical Science**
- **Pedagogical Sciences**
- **Social and Humanitarian Sciences**

[www.modernscience.uz](http://www.modernscience.uz)

# «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOLUME 2/ ISSUE 5**

**MAY**

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.



**TOSHKENT-2023**

«MODERN SCIENCE AND  
RESEARCH»

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

**XALQARO ILMIY  
JURNAL**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ  
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ**

**INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**BOSH MUHARRIR:  
G'.T.Boymurodov**

**MAS'UL MUHARRIR:  
S.Ergashova**

**JURNAL BIR OYDA BIR  
MARTA NASHR QILINADI.**

**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI  
HUZURIDAGI AXBOROT  
VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYA  
AGENTLIGI**

**TOMONIDAN BERILGAN  
№ 042359 RAQAMLI  
RUXSATNOMAGA EGA.**

**ISSN: 2181-3906**

**Pardayev Qo'ldosh Uzoqovich**

Filologiya fanlari doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professori v.b.

**Hamrayeva Muhayyo Ahmadovna**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti. Turon fanlar akademiyasi faxriy akademigi.

**Khamdamov Ulugbek Abduvakhobovich**

O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri, prof., f.f.d.

**Khaydarov Mamat Eshkulovich**

Pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti "Uzluksiz talim pedagogika va menejment" kafedrasida professori.

**Eshmuminov Askar Allamurodovich**

Filologiya fanlari doktori, dotsent. Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri.

**Khodjaev Begzod Khudoyberdievich**

Pedagogika fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasida mudiri.

**Yo'ldashov Murodjon Ravshanovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o'qituvchisi.

**Artikov Askar Akbarovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Futbol nazariyasi va metodikasi" kafedrasida dotsenti.

*Jurnaldan maqola ko'chirib  
bosilganda manba  
ko'rsatilishi shart.*

*Jurnal rasmiy sayti:*

[www.modernscience.uz](http://www.modernscience.uz)

**Botirov Mirzokhid Ismonkhojayevich**


*Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

**Abidov Shavkat Usmanovich**

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**Hamrokulov Mahmud Gofurjonovich**

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti sifat menejmenti va  
mahsulotlar xavfsizligi kafedrasida dotsenti*



**@MODERNSCIEN  
CE RESEARCH**

«Modern Science and Research» international scientific journal, 2023. 1388 pages.

© Modern Science and Research, 2023

© Authors, 2023



## SIGIRLARNI SUTDAN CHIQRARISH USULLARI VA TEXNIKASI

Qo'ziboyeva O'g'ilbu Imomaliyevna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti

Sobirova Iroda Xalilla qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886262>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sigirlar bo'g'ozligi 7-oylikdan oshgan sut yo'nalishidagi hamda nasldor sigirlarni sutdan chiqarish usullari, sutdan chiqarish vaqti, sutdan chiqarish texnologiyalari, sutdan chiqarish vaqti davomida ularga beriladigan ozuqalar, sigirlarni to'g'ri sutdan chiqarilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Bo'g'oz sigirlarni hamda g'unajinlarni tug'ishga tayyorlash talablari haqida ham qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sut sog'uvchilar, shirali oziqalar, omixta oziqalar, sutdan chiqarish, bug'oz sigirlar.

## МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОТЪЕМА КОРОВ

**Аннотация.** В данной статье описаны методы отъема молочных и племенных коров, сроки отъема, технологии отъема, корма, даваемые им во время отъема, и правильное отъем от коров. Также дана краткая информация о требованиях к подготовке коров и телок к отелу.

**Ключевые слова:** доярки, сочный корм, сладкий корм, отъемы, беременные коровы.

## METHODS AND TECHNIQUES OF WEANING COWS

**Abstract.** This article describes the methods of weaning dairy and breeding cows, the timing of weaning, weaning technologies, the feed given to them at the time of weaning, and the correct weaning from cows. Brief information about the requirements for preparing cows and heifers for calving is also given.

**Key words:** milkmaids, succulent feed, sweet feed, weaning, pregnant cows.

Hozirgi zamon qoramolchilik tajribasida sigirlarni sutdan chiqarishning bir necha xil usullari bor. Bulardan oddiy, ya'ni asta-sekin sutdan chiqarish usuli 15-20 kun davom etib, bir kunda bir sog'imni qoldirish bilan sog'imlar o'rtasidagi muddatni uzaytirishga ya'ni sog'ish sonini kamaytirishga asoslangan. Bilamizki, o'z vaqtida sutdan chiqarish sigirlarda mastit kasalligining kelib chiqishini oldini olishda xizmat qiladi.

Sigirni sutdan chiqarishni boshlashdan oldin, avvalo, uning sut miqdorini saqlashga imkon beradigan yem-xashak turlarini ratsiondan asta-sekin chetlashtirib oziqlantirishni o'zgartirish lozim. Bunday yem-xashaklarga silos, ildizmevalar kiradi. Ular sutdan chiqarish davrida mollarga berilmaydi. Shu paytning o'zida kuchli omixta oziqalar berishni ham kamaytirish lozim.

Agarda xo'jalikda sigir ikki marta sog'ilsa, sutdan chiqarishning oddiy usuli quyidagicha o'tkaziladi: 5-7 kun mobaynida ikki martali sog'imdan bir martaga, (6-8 kun), o'tiladi. Keyinchalik sigir bir kundan keyin, so'ngra ikki, uch kunlardan so'ng va shunday qilib sutni batamom to'xtatilishiga qadar sog'iladi. Oxirgi sog'ilgandan 3-5 kun o'tkazib, yelinning holati tekshiriladi, (oxirgi sut sog'ib olinadi), bundan keyin esa sigir sutdan chiqqan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan sutdan chiqarish tartibi umumiydir, shuning uchun ham uni hamma

sigirlarda o'zgartirmasdan qo'llash mumkin. Har bir sigirning o'ziga xos holatini batafsil o'rganib, keyingina bu tadbirni qo'llash lozim. Sigir uzoq vaqt sutdan chiqmasa, biroq vaqt ratsiondan kuchli va shirali oziqalarni butunlay chiqarib, faqat dag'al ozuqalar bilan boqiladi. Ayrim vaqtda suv ichirishdan ham qisman chegaralash kerak.

Sigirlarni sutdan chiqarishni boshqa usuli — hayvonning turgan holatini va oziqlantirishni o'zgartirish bilan bog'liqdir. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda sog'iladigan sigirlar o'zlarining og'ildagi joylariga shunchalik o'rganib qolar ekan-ki, boshqa joyga o'tkazish ularni xatti-harakatini o'zgarishiga, sog'imni kamayishiga olib kelarkan. Bu holat nerv sistemasi bilan bog'liq. Bundan kelib chiqadi-ki nerv sistemasining har doimgi faoliyatini buzilishi sut hosil bo'lish jarayonining buzilishiga, sigirlarning tezroq sutdan chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham ayrim sut sog'uvchilar bug'oz sigirlarni sutdan chiqarishdan oldin ularni o'z joylaridan molxonadagi boshqa joylarga o'tkazadilar.

Bundan tashqari, ular bu yerda sog'iladigan sigirlarni sog'ish va oziqlantirish bilan bog'liq, bo'lgan molxonadagi harakatlarga kamroq, ta'sirlanadilar. Bundan sut sog'uvchi ularni oziqlantirish sonini ham o'zgartiradi. Sutdan chiqarishning ushbu usullarini davomiyli bo'yicha uchinchi va to'rtinchi turga kiradigan sigirlarda qo'llash mumkin.

Sutdan chiqarishning oddiy usulidan tashqari, har tomonlama qulay-tezlashtirilgan usuli ham bor. Bunday usulda sutdan chiqqan davr boshlanishidan 6-8 kun oldin shirali va omixta oziqalar berish butunlay to'xtatiladi, sigir saqlanayotgan joy, sog'in vaqti va soni o'zgartiriladi. Ikki-uch kun o'tganidan so'ng kuniga sigir bir marta sog'iladi. Yana ikki-uch kundan keyin sog'ish bir kun o'tkazib amalga oshiriladi va undan so'ng esa butunlay to'xtatiladi. Shunday qilib, sigir 6-8 kunda sutdan chiqadi. Shuni ham aytish kerakki, sigir xususiyatlariga qarab ratsionni kamaytirish har doim ham shart emas. Sog'ish soni kamaytirilsa va sigir odatdagi vaqtdan boshqa vaqtda sog'ilsa, sutdan chiqarish yengillashadi.

Sutdan chiqarishning tezlashtirilgan usuli foydasiga quyidagi vaziyatlar sabab bo'ladi. Birinchidan, yelinning bezsimon qismida buzilish jarayoni sog'ishni to'xtatgandan keyin tezroq, tamom buladi. Ikkinchidan, asta-sekin sutdan chiqarilganda sigirga uzoq davom etgan vaqt ichida, (10-12 kun), shirali va omuxta ozuqalar berish chegaralanadi, natijada sut ishlab chiqarish to'xtashi bilan bir paytda mollar juda ozib ketadilar, shundan so'ng ularni tug'ishga qarab kerakli semizlikka yetkazish uchun, ayniqsa, yaxshi boqishga to'g'ri keladi; bu esa har doim va hamma xo'jaliklarda qilinmaydi. Lekin shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, tezlashtirilgan usulni faqat yelini sog'lom bo'lgan sigirlardagina qo'llash mumkin.

Sigirlar to'liq sutdan chiqqandan so'ng yelinining holatiga diqqat bilan qarash lozim. Agarda yelin shishmasa, sut yig'ilmasa, sigirni sutdan chiqqan deb amaliy ravishda hisoblash mumkin. Lekin sog'ishni to'xtatgandan bir necha kundan keyin yelin zichlansa, to'lishsa yoki tekshirib sog'ganda sariq rangli sut, ba'zan yoqimsiz hidli bo'lib ajralsa, sutdan chiqarish jarayonini yana bir necha kunga uzaytirish kerak.

Ayrim hollarda sigir yetarli darajada kuzatilmagan bo'lsa, yelinining bir yoki bir necha pallalari yallig'lanadi. Organizmning himoya kuchlari juda ham kuchsizlangan bir paytda bu og'ir kasallikni davolash ancha qiyinlashadi va ko'pincha sigirlarning sut ishlab chiqarish qobiliyatini butunlay yo'qolishiga ham olib keladi. Shuning uchun ham sigirlarni sutdan chiqarish usullarini mukammal o'rganish lozim. Agarda sigirning yelini mastit yoki boshqa kasallik bilan kasallangan bo'lmasa va kuniga atigi 2-3 litr sut berayotgan bo'lsa, sog'ishni xohlagan vaqtda to'xtatish

mumkin, bundan hech bir zarar bo'lmaydi. Bir necha kun mobaynida yelin to'lib, keyinchalik sut organizmda zararsiz, asta-sekin so'rilib ketadi. Agarda sut miqdori ko'proq, bo'lsa, yuqorida ta'riflab o'tilgan usullarni qo'llash tavsiya etiladi.

Sigirni muvaffaqiyatli sutdan chiqarishdek muhim tadbir sut sog'uvchilarning malaka darajasiga ko'pdan bog'liqdir. Ayrim hollarda esa sut sog'uvchidek mas'uliyatli kasbga yetarli tajribasi bo'lmagan shaxs qabul qilinadi va ularga sigirlar guruhi ishoniladi. Bunday qilish albatta yaramaydi. Tajribasi yetarli bo'lmagan sut sog'uvchilar ilg'or sut sog'uvchiga berkitilib, malakasi oshgandan so'nggina unga sigirlar guruhini ishonish mumkindir.

Sigirni sutdan chiqarishni boshlash to'g'risidagi tegishli ko'rsatmalar sut sog'uvchiga veterinariya xodimi tomonidan berilishi tavsiya etiladi. Lekin veterinariya xodimi har bir sigirning holatini yaxshi biladigan sut sog'uvchi bilan albatta maslahatlashishi, zootexnik esa — sigirning haqiqatdan sutdan chiqqan kunini sog'implarning hisobot jurnaliga aniq qilib yozib qo'yishi kerak.

Muvaffaqiyatli sutdan chiqarilgandan keyin sigirni tug'ishga tayyorlashning eng mas'uliyatli payti boshlanadi.

Bug'oz sigirlarni saqlash sharoitiga ham alohida e'tibor berilishi kerak. Hayvon saqlanayotgan molxona zoogigiyenik talablarga to'liq javob berishi kerak. Ularni quruq, toza, yelvizaksiz xonalarda saqlash lozim. Bo'g'oz sigirlar matsioni ayniqsa, qishda, yo'lga qo'yilgani ma'qul, bunda havo harorati 10-15° C dan past bo'lmasligi lozim. G'unajinlarni tug'ishga tayyorlash talablari sigirlarnikiga o'xshash, faqat ularni asrashda qo'shimcha choralar qo'llaniladi. Jumladan, 5-6 oylik bo'g'ozlik davridan g'unajinlar yelinini uqalash kerak. Uqalash asta-sekinlik bilan, xushmuomilalikda amalga oshiriladi. Tug'ishga bir oy qolganda g'unajinlar yelinini uqalash to'xtatiladi.

Tug'ishga 2-3 hafta qolganida sigirning yelini kattalashadi, qorni osiladi, tug'ishga bir necha kun qolganida dumining ildizi, yon tomonidagi bog'lamlar kuchsizlanadi, yumshoqlashadi, tashqi jinsiy a'zolar shishadi. Tug'ishga bir necha soat qolganida so'rg'ichlarda sut paydo bo'ladi, qindan shilimshiq, ajraladi. Sigir bezovtalana boshlaydi.

#### REFERENCES

1. Abdalniyozov BA. — Vliyaniye nekotorykh faktorov na molochnyuyu produktivnost korov i ves novorojdennykh telyat krasnoy stepnoy porody v usloviyax O'zbekistana, kandidat, dissertatsiya, Alma-Ata, 1969.
2. Abdolnizozov B.O. — Xorazm chorvachiligi. Qizil cho'l zotli Qoramolning nasl va maxsuldorlik sifatlarini yaxshilashning ilmiy va amaliy asoslari, doktor, dissertatsiya, Toshkent, 1999.
3. Abdolnizozov B.O. — Qoramolning qizil cho'l zoti O'zbekistonda, Urganch, 2010.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PYTHON DASTURINI O'QITISH

Kozimjon Xusanov Yusubjon o'g'li

Namangan viloyati Kosonsoy tumani Namangan davlat universteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886461>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Python dasturlash tili yordamida o'quvchilarga o'quv-didaktik materiallar yaratish va ulardan foydalanish metodikasi, didaktik materiallarning o'quv jarayonida qo'llanishi, didaktik vosita turlari haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** didaktika, komponentlar, didaktik vositalar, ko'nikma, malaka, model, maket, ko'rgazma, texnik vositalar, komponentlar, texnologik xaritalar, kompetentsiya.

## TEACHING PYTHON PROGRAMMING IN SECONDARY SCHOOLS

**Abstract.** This article told about the methodology for creating and using educational-didactic materials for students using the Python programming language, the application of didactic materials in the educational process, the types of didactic tools.

**Keywords:** didactics, components, didactics, skills, qualifications, model, layout, exhibition, technical tools, components, technological maps, competence.

## ОБУЧЕНИЕ ПРОГРАММИРОВАНИЮ НА PYTHON В СРЕДНИХ ШКОЛАХ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о методике создания и использования дидактических материалов для учащихся с использованием языка программирования Python, использованию дидактических материалов в учебном процессе, видах дидактических средств.

**Ключевые слова:** дидактика, компоненты, дидактические средства, умения, навыки, модель, макет, выставка, технические средства, компоненты, технологические карты, компетенции.

Hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish qamrab olgan bo'lib, bu hodisa har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli maktabning fan o'quv dasturlari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan fanlar bilan to'ldirishlari zarur.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga



o'rgatish ta'lim sifatini oshishiga olib keladi.

Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo'lib, bularga Paskal, Delphi, C++, C#, Python, Java va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo'nalishdagi masalalarni hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, ularni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin. Dasturlash tillari haqida so'z yuritishdan oldin "dastur", "dasturlash", "dasturlash muhiti" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Dastur – oldindan tayyorlangan algoritm va hisoblash texnikasi vositalariga asoslangan holda bajariladigan ishning shart-sharoiti, maqsadi va vazifasini e'tiborga olib, uning biror bir formal (shartli) algoritmik tildagi aniq va to'liq ifodalanishi [2;46-b.].

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi. Dastur – biror masalani yechishda kompyuterda bajarishi lozim bo'lgan amallarning izchil tartibi [4;17-b.].

Dasturlash tili – kompyuterlar uchun dasturlar (ko'rsatmalar yig'indisi) yoziladigan, uni u yoki bu harakatlarni bajarishga majbur qiladigan rasmiy til [4;53-b.].

Bizning fikrimizcha dasturlash bu – kompyuterlar va boshqa mikroprotsessorli elektron mashinalar uchun mo'ljallangan dasturlarni yaratish, tajriba orqali sinovdan o'tkazish hamda xatolarni tuzatib borish jarayonidan iboratdir. Boshqacha aytganda, kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dastur tuzadigan kishi dasturchi deyiladi. Kompyuter tushunadigan til dasturlash tili deb ataladi.

Dasturlash muhiti bu – dasturchi yozadigan kodlarni aynan qanday tilda va muhitda yozishi tushuniladi. Masalan: keng tarqalgan va ko'plab foydalanuvchiga ega muhitlarni misol qilish mumkin. PHPStorm — asosan PHP dasturchilarga, VisualStudio — .Net dasturchilarga, NetBeans —Java, PHP dasturchilarga, PHPDesigner — asosan veb (PHP) dasturchilarga mo'ljallangan. Hozirgi kunda dastur tuzish yuqori darajadagi dasturlash tillari (Delphi, Java, C++, S#, Python) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi inson tiliga yaqinligi bois dastur tuzish jarayonini osonlashtiradi.

Python dasturi, yuqori darajali dasturlash tili. Amaliy dasturlarni yozish va web dasturlash uchun foydalaniladi. Python dasturlash tilining sintaksisi maksimal darajada yengillashtirilgan. Ancha kuchli, lekin shu bilan birga o'rganish uchun oson dasturlash tili.

Python dasturlash tilini o'qitishda quyidagi asosiy tushunchalar muhim sanaladi. Funksiya - ma'lum bir vazifani bajaruvchi, qandaydir nomga ega, bir yoki bir necha qiymatni qabul qiluvchi, ishni tugatganidan keyin esa asosiy dasturga bir yoki bir necha natija qiymatlarni qaytaruvchi qism dastur.

Qism dastur- zarurat tug'ilganda chaqiriladi. U ayni bir kodni bir necha marta yozish zaruratini bartaraf qilib, butun dastur davomida ko'p marta foydalanilishi mumkin. Bu kodning blokliligini oshiradi, tushunishni osonlashtiradi va xatolarni topishda yordam beradi. Xato bor yoki yo'qligini bitta kod blokining o'zida tekshirsa bo'ladi. Agar xato qism dasturda bo'lsa, faqat qism dasturning o'zini tuzatishga zarurat tug'iladi. Agar qism dasturdan foydalanmasdan, kod bir necha joyda takror-takror yozilsa, u holda butun dastur bo'ylab xatolarni qidirishga to'g'ri keladi.

- kodni faqat bitta joyda yangilash kerak bo'ladi: Kiritilgan barcha tuzatishlar qism dastur chaqirilishi bilan amal qila boshlaydi.

- protsedura- funksiyaga o'xshash ko'p marta foydalanilishi mumkin bo'lgan qism

dastur bo‘lib, yagona farqli jihati hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Python dasturlash tilining har xil masalalarni yechishga mo‘ljallangan bir necha foydali standart funksiyalari mavjud:

Har bir funksiya hamda protseduraga albatta nom berish kerak va bu nom Pythonda define (ing. define – aniqlash) so‘zidan olingan def kalit so‘zi bilan boshlanadi.

**def** - funksiyani e‘lon qiluvchi kalit so‘z.

**funksiya\_nomi** - funksiya nomi.

**parametrlar ro‘yxati** - ushbu ro‘yxat bir necha parametrdan iborat bo‘lishi mumkin va ular vergul bilan ajratib yoziladi.

**buyruqlar\_bloki** - funksiya tanasi boshqa operatorlar kabi bitta xat boshi tashlab yozilishi shart.

Funksiya nomi orqali chaqirilganda uning tarkibidagi buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Shundan so‘ng dastur funksiya chaqirilgan satrga qaytadi va shu satrdan keyingi buyruqlarga o‘tadi.

Pythonda protseduralar deyarli funksiyalardek yoziladi. Farqi shundaki, protseduralar hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Funksiyaning o‘zini o‘zi chaqirishiga rekursiya deyiladi va bunday funksiyalar rekursiv funksiyalar deb ataladi.

Rekursiv funksiyalar dasturlashning kuchli mexanizmi hisoblanadi, lekin ular har doim ham samarali emas. Chunki aksariyat hollarda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolar ichidan eng ko‘p tarqalgani – cheksiz rekursiya. Unda funksiyaning chaqiruv zanjiri cheksiz bo‘lib, kompyuter bo‘sh xotirasi tugamaguncha davom etaveradi. Cheksiz rekursiya ro‘y berishining sabablari:

**Python dasturlash tili** – obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili bo‘lib, o‘quvchilar uchun tushinarli va sodda dasturlash tili hisoblanadi. Python dasturlash tilining afzallik tomonlari shundaki,

birinchidan: bu dasturlash tilida tuzilgan dastur boshqa platforma hamda operatsion tizimlarda ishlaydi;

ikkinchidan: bitta platforma yoki operatsion tizimda yozilgan kod boshqa platforma yoki operatsion tizimga o‘tkazilganda turli xil xotirani egallashi mumkin. Bu esa ba‘zi bir xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bunday dasturlar qatoriga C dasturlash tilini misol keltirish mumkin. Python dasturlash tilida esa bunday kamchilik bartaraf etilgan;

Umumiy o‘rta maktabda zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitilishi o‘quvchilarda dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

## REFERENCES

1. Н.Н. Зарипов “Компьютер grafikasi yordamida talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish” // Образование и инновационные исследования <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.015>
2. И.Ш. Садуллаев, Н.Н. Зарипов “Персональная учебная среда учащегося в режиме дистанционного обучения” - Международна научна школа «Парадигма». Лято, 2015.
3. N.N. Zaripov Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. - Theoretical & Applied Science, 2020

## TIBBIY FIZIKA VA KIMYO FANLARINI O'QITISHDA VIRTUAL KIMYO LABORATORIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Uraqov Shokir Ulashovich

Qo'ldoshev Ferizjon Zohid o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886512>

**Annotatsiya.** Simulyatsiyalar ta'limda muhim rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat talabalar real dunyoni boshdan kechirishlari uchun o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan real modellarni taqdim etadi, balki ular talabalar jarayonlarni hech qanday xavf-xatarsiz takrorlashlari, sodda tushunchalar va nazariyalarni idrok etishlari uchun xavfsiz muhit yaratadi.[1] Virtual reallik immersiv va interaktiv xususiyatlarni qo'llabquvvatlaydigan yuqori realistik 3D simulyatsiyalarni ishlab chiqish orqali o'quv jarayonini osonlashtiradigan muhim texnologik yutuq sifatida keng e'tirof etilgan. Ushbu maqolaning maqsadi Tibbiy fizika va kimyo fanlarini o'qitishda virtual reallikdan foydalanish ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, fizikaviy va kimyoviy tajribalarni simulyatsiya qilish uchun integratsiyalashgan veb-ta'lim muhitini taqdim etishdir.

**Kalit so'zlar:** Virtual laboratoriya, Tibbiy fizika, Tibbiy kimyo, PheT simulations, PraxiLabs, Royal Society of Chemistry's Virtual laboratory, titrimetrik analiz, kislota asosli titrlash.

### THE IMPORTANCE OF USING VIRTUAL CHEMISTRY LABORATORIES IN TEACHING MEDICAL PHYSICS AND CHEMISTRY

**Abstract.** Simulations play an important role in education because they not only provide real models in which students can interact to experience the real world, but they also allow students to repeat processes without any risk, simple concepts and creates a safe environment for them to understand theories. Virtual reality is widely recognized as an important technological breakthrough that simplifies the learning process by developing highly realistic 3D simulations that support immersive and interactive features. The purpose of this article is to analyze the impact of the use of virtual reality in the teaching of medical physics and chemistry, as well as to provide an integrated web learning environment for simulating physical and chemical experiments.

**Keywords:** Virtual lab, Medical physics, Medical Chemistry, PraxiLab, Royal Society of Chemistry's Virtual laboratory, Phet simulations, titrimetric analysis, acid-base titration, MBBS students.

### ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНЫХ ХИМИЧЕСКИХ ЛАБОРАТОРИЙ В ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКОЙ ФИЗИКЕ И ХИМИИ

**Аннотация.** Симуляции играют важную роль в образовании, потому что они не только предоставляют реальные модели, в которых учащиеся могут взаимодействовать, чтобы познать реальный мир, но также позволяют учащимся повторять процессы без какого-либо риска, простые концепции и создают безопасную среду для их понимания. теории [1] Виртуальная реальность широко признана важным технологическим прорывом, который упрощает процесс обучения за счет разработки высокореалистичных 3D симуляций, поддерживающих иммерсивные и интерактивные функции. Цель этой статьи — проанализировать влияние использования виртуальной реальности на



*преподавание медицинской химии, а также предоставить интегрированную среду веб-обучения для моделирования химических экспериментов.*

**Ключевые слова:** виртуальная лаборатория, медицинская физика, медицинская химия, моделирование PheT, PraxiLabs, виртуальная лаборатория Королевского химического общества, титриметрический анализ, кислотное титрование.

**KIRISH.** Ma'lumki Oliy yoki o'rta maxsus ta'limida bo'ladimi Kimyo fanlarini o'qitish o'z navbatida kimyoviy jarayonlarni tushuntirishda chuqur nazariy bilim hamda amaliy laboratoriya ko'nikmalarini ham o'tkaza olishni talab qiladi. [2- 5] Ammo ta'lim muassalarida bajarilishi kerak bo'lgan laboratoriya mashg'ulotlarining ko'pgina qismi laboratoriyada xavfsizlik talablari talab darajasida emasligi, kerakli zamonaviy jihozlarning yetarli emasligi, vaqt va joy borasidagi bir qancha kamchiliklar sababli muhim tajribalarda natijalarining xato chiqishi yoki amaliy mashg'ulotning kutilgandek bajarilmasligiga sabab bo'ladi. Shunga qaramasdan, tajribalar kimyo ta'limida nazariy jarayonlar mohiyatini tushunishda hamda turli malaka va ko'nikmalarni egallashda kimyo ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari talabalarining fan yuzasidan masalalarni yechishida yoki ularning ilmiy ishlarida sintezlangan moddalarni kvant kimyoviy xossalarni, moddalarining biologik aktivliklari kabi ko'rsatkichlarini oldindan hisoblash ham bir muncha maxsus jihozlangan laboratoriya hamda uzoq vaqt ham talab qilishi mumkin. [6-8] Shunga ko'ra yuqorida sanab o'tilgan muammolarni yechish muqobil ta'limiy yondashuvni ya'ni virtual laboratoriyalarni, kompyuterga asoslangan xossalarni oldindan aytish imkonini beruvchi dasturlarni talab qiladi va bu o'z navbatida talabalar uchun qo'shimcha to'ldiruvchi yoki pandemiya davridagi kabi holatlarda onlayn ta'lim, virtual laboratoriyalar talabalarining nazariy bilimlarni birmuncha mustahkamlashda qo'l kelganidek qulay masofaviy ta'lim resursi bo'lib ham xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Virtual reallik texnologiyasi ta'limning yangi shaklini taqdim eta oladigan ilg'or texnologik yutuqlaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa Kimyo fanida virtual laboratoriyaning potentsiali o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqqan holda an'anaviy ta'lim metodlari qo'yadigan chegaralarni yengib o'tishi mumkin. Virtual kimyoviy laboratoriya dasturi animatsion tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo'lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to'plamiga ega. Virtual laboratoriya 19- asr o'rtalaridan boshlab ta'lim jarayonida Yevropa va AQSH universitetlarining ta'lim muassasalari tomonidan qo'llanila boshlangan. Virtual Reallik asosida yaratilgan laboratoriya dasturi turli moddalar bilan tajribalarni vizual (ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan qilib) o'tkazish imkonini beradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Turli dasturlar - virtual laboratoriyaning dasturiy ta'minoti qo'shimcha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun uchun "assistant" tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o'zgartirigichlar majmui, tajribalarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud. Virtual tajribalar kontsepsiyasi taxminan 20 yil oldin paydo bo'lgan, bunda interfeysdan faol foydalanilganda dasturiy ta'minotga o'qituvchi o'zi qo'l bilan ko'proq kimyoviy modda va reaksiyalar qo'shishlari mumkin va shu bilan Talabalar tajribasi oshiriladi. Shunday qilib, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini "interaktiv modellashtirilishini" ta'minlaydi. Virtual laboratoriyalarni kimyo ta'limida qo'llashning effektivligi, kamchilik va yutuqlari bo'yicha tadqiqotlar ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan o'tkazilgan tadqiqodlar natijalariga ko'ra VL (virtual laboratoriya) ilovalaridan foydalanish talabalarning fanda yutuqlarini oshiradi. Bundan tashqari VL lardan foydalangan o'qituvchi va talabalar multimedia orqali ta'limni foydali deb hisoblashadi (Bakar&Zaman, 2007), Virtual laboratoriyalardan foydalangan talabalar laboratoriya ishi bajarish bilan bog'liq barcha texnik va nazariy jarayonlar bilan bog'liq savollarga aksariyati to'g'ri javob erishga hamda tajribaning mohiyatini to'liq tushunishgani haqida xulosalar olingan (Harrison, 2009).[9] Ushbu Pedagogik tadqiqotda talabalarning Tibbiy kimyo bo'yicha bilimni baholash maqsadida hamda talabalarda laboratoriya mashg'ulotini bajarishdan oldingi ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida xorijiy fakultetning MBBS yo'nalishda tahsil olayotgan har biri 15 nafar talabadan iborat bo'lgan 4 ta guruh sinov tariqasida olindi. Guruhlarning ikkitasida amaliy mashg'uloti onlayn virtual laboratoriya orqali, qolgan ikkitasi esa an'anaviy usulda dars jarayoni tashkil etildi. Tadqiqot uchun quyidagi virtual laboratoriyalardan foydalanildi: Royal Society of Chemistry's Virtual laboratory (<https://virtual.edu.rsc.org/titration/experiment/2/5>) va PraxiLab (<https://praxilabs.com>) a b 1-rasm. Virtual laboratoriyalarning interfeys oynasi: a- PraxiLab b – RSC Ushbu turdagi dasturlar asosan Ingliz tilidagi bo'lganligi bois pedagogik tadqiqot uchun sinov tariqasida xorijiy guruh talabalari olindi. Virtual reallik jihatidan PraxiLab kabi dasturlar bir qancha ustunliklarga ega bo'ladi. Negaki deganda foydalanuvchi talaba o'zini haqiqiy laboratoriya muhitida his qilishi uchun jihozlar va asbob uskunalar 3D o'lchamda tasvirlangan. Dastur foydalanuvchi oynasi ochilganda virtual assistent talabaga har ishning har bir bosqichi bajarish tartibi bo'yicha ko'rsatma berib boradi. Dasturni dars jarayonida qo'llagan guruh talabalaridan anonim tarzda online darslar uchun mo'ljallangan telegram guruhida so'rovnomalar yaratildi. Bundan tashqari qo'llanilgan metodning effektivligini solishtirish maqsadida an'anaviy tarzda amaliy mashg'ulot olib borilgan guruh talabalari hamda online virtual laboratoriya qo'llangan guruh talabalariga amaliy mashg'ulotlardan oldin hamda keyin mavzuga oid nazorat savollari berilib, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari olindi. Talabalar tajriba davomida Tibbiy kimyo fani modulidagi Titrimetrik tahlil metodlaridan biri bo'lgan kislota - asosli titrlash mavzusida atsetat kislota miqdorini aniqlashni ekvivalent nuqtani aniqlash orqali kislota konsentratsiyasini hisoblab topish bajardilar. Dasturning nazorat savolli bo'limlaridagi savollarga javob berish orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar. Talabalarning baholari bo'yicha statistik ma'lumotlarini qayta ishlash uchun MS Excel 2019 dasturidan foydalanildi. Virtual dasturiy ta'minot vositalarini joriy etish talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Interaktiv laboratoriya dasturlari jarayonni nafaqat ko'rinishini oshirish, balki talabalarni tushunish qulay bo'lgan ma'lumotlar bilan ham ta'minlaydi. Shuningdek ularda tegishli kompetensiyalar shakllanishiga aloqador bo'lgan hamda fanni o'qitish soatlarini kamayishi, mustaqil ta'lim tashkillashtirish, baholash, mustahkamlash kabi didaktik muammolarni yechishda ham muhim rol o'ynaydi.[10] Virtual laboratoriya ishlarini qo'llashning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda laboratoriya tajribalarini tashkil qilish uchun murakkab qurilmalarni yasash, qurilmalarni va reaktivlarni saqlash, almashtirish shart yemasligi bilan bir qatorda ta'mirlash ishlari, kimyoviy idishlarni yuvish kabi ishlar bajarilishi shart yemas. Hamma laboratoriya ishlari kompyuter xotirasida yoki tashqi xotirada elektron variantda va bir joyda saqlanadi. Kompyuter qurilmasi xavfsiz, ishlatish qiyin yemas va shu bilan birga foydalanuvchidan faqatgina belgilangan mahsus dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini talab qiladi. Talabalar shartli ravishda 2 ga ya'ni nazorat va tajriba guruhiga bo'lindi. Nazorat guruhidagilar mavzuni an'anaviy usulda o'qidilar. Tajriba

guruhida esa virtual laboratoriyalar va qisqa animatsion video orqali mashg'ulot olib borildi. 2-rasm. Guruhlar kesimida Laboratoriya mashg'ulotidan oldingi va keying nazorat savollarga berilgan to'g'ri javoblar o'rtacha ko'rsatkichi Ushbu diagrammadan ma'lumki guruhlarda "pre-lab" nazorat savollariga berilgan to'g'ri javoblar umumiy guruhlar kesimida nisbatan oliganda qariyb bir xil natija qayt etishgan (68%,70%,70% va 67%). Nazorat savollari o'z ichiga mavzuga oid masalalar, nazariy ma'lumotlar hamda ishning bajarilishi bilan bog'liq savollar qamrab olingan. Tadqiqotning keyingi qismlarida tajriba guruhi sifatida olingan MBBS -1 va MBBS -2 guruhlar talabalari mobil telefonlari orqali kirib amaliy mashg'ulotni virtual laboratoriyada bajarishdi. Qolgan 2 ta MBBS -3 va MBBS -4 guruhlarida an'anaviy holda barcha uchun umumiy holda o'qituvchi tomonidan haqiqiy tajribani bajarib ko'rsatilib va 2-3 ta talaba bilan ish takrorlandi. Amaliy mashg'ulot yakunida ikkala guruhdan ham yozma tarzda "post-lab" nazorat savollari olindi. Bunda olingan natijalar ijobiyligiga ko'ra tadqiqot guruhidagi talabalar ko'rsatkichlari (78% va 80%) nazorat guruhidagi talabalarning ko'rsatkichlari (71% va 72%) ga qaraganda birmuncha yuqori bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari so'rovnoma natijalariga ko'ra ham so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning fikriga ko'ra ham "Virtual laboratoriya ularning mavzuni o'zlashtirish jarayonini ancha osonlashtirganligi" hamda kelgusi amaliy mashg'ulotlar davomida shu kabi interaktiv vositalardan qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida fikrlar ham bildirishdi. Bundan kelib chiqib Virtual laboratoriyani quyidagi holatlarda ishlatish tavsiya qilish mumkin: •Talabalarni bajariladigan tajriba texnikasi bilan tanishtirish uchun; •Tajriba vaqtida qo'llaniladigan asboblardan tanishtirish uchun; •Hisobotlar qilish va kuzatish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida; Bu kabi ishlar uch o'lchamli animatsiya va tasvirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ular mahsus dasturlashtirilgan va ovoz bilan ta'minlangan bo'ladi. Bunda ayni mavzuning mazmuni ma'lumotlar, nazorat savollari va turli xil illyustratsiyalardan iborat bo'ladi. Virtual laboratoriyaning imkoniyatlari •Qimmat laboratoriya asboblari sotib olishga yehtiyojning yo'qligi • Laboratoriya shart-sharoitlarida bajarilishi printsiplial mumkin bo'lmagan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati • Xavfsizlik • Vaqt va resurslarning tejallishi •Bajarilgan laboratoriya natijalarining avtomatik tarzda hisoblanishi •Virtual laboratoriyalarni masofaviy ta'limda qo'llash imkoniyatining mavjudligi •Virtual jarayonni boshqarish kompyuterning zimmasiga tushishini hisobga olib, kiritilayotgan parametrlarni o'zgartirib, tajribalar seriyasini o'tkazish imkoniyati mavjudligi •O'tkazilayotgan laboratoriya tajribasini vaqtning boshqa masshtablarida kuzatish mumkinligi. •Bundan tashqari, virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi sharoitida o'quv modellashtirish orqali bilimning yangi sohalarini o'rganishda Talabalarning Tibbiy kimyo fani doirasida qamrab olingan, polifunksional, geterosiklik birikmalar metabolitlar sifatida kabi moddalarning biologik, farmakologik biokimyoviy ta'sir mexanizmlarini atroflicha tushunish imkonini beradi.[11-12] Natijada olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlik shakllanadi.

**XULOSA.** Ushbu yuqorida o'tkazilgan kichik tadqiqotning natijalaridan xamda xorijiy va respublikamiz olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalarini xisobga olgan xolda virtual laboratoriyalarini tibbiy kimyo mashg'ulotlarida qo'llashning samarasi to'g'risida quyidagilarni xulosa qilish mumkin. 1. Tibbiy kimyo ta'limi jarayonida Virtual laboratoriyalardan foydalanish inson salomatligi uchun zarali bo'lgan kimyoviy moddalar bilan bog'liq tajribalarni bajarish va bunday tajribalar xaqida tasavvur paydo bo'lishiga yordam beradi. 2. Moddiy texnik bazasi etarli bo'lmagan yoki noyob,qimmat reaktivlarni bilan bog'liq laboratoriya ishlarini virtual bajarib

ko'rish imkonini beradi. 3. Virtual laboratoriyaning axborot nazoratli turlaridan talabalar bilimi nazorat qilishda foydalanish o'qituvchiga ortiqcha vaqt va resurs sarflashni oldini olib, baxolash jarayoning ob'ektiv bo'lishiga xam olib keladi. Interfaol pedagogik texnologiyalar talim sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalaridir.

#### REFERENCES

1. Georgiou, J., Dimitropoulos, K., & Manitsaris, A. (2007). A virtual reality laboratory for distance education in chemistry. *International Journal of Social Sciences*, 2(1), 34-41.
2. Safarova N. S., G'afurov U. U., Omonov X. T. VENN GRAFIK USLUBIDAN KIMYO DARSLARIDA FOYDALANISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 134-138.( USE OF VENN GRAPHIC METHOD IN CHEMISTRY CLASSES)
3. Sulaymonovna, S. N., & Sobirzoda, K. J. (2022). GENERALITY AND DIFFERENCES BETWEEN SITUATION PROBLEMS AND CASE METHODS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH*
4. Abdusamatovich K. S., Olimjonovna T. F. Application of web applications in medicine //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 46-50.
5. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 674-677.
6. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
7. Olimjonovna, T. F. (2023). SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF INTEREST IN THE PROFESSION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION.
8. Olimjonovna T. F. Pedagogical Communication and its Role and Significance in Developing the Professional Thinking of Students //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 16. – C. 82-86.



## МУАССАСАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШНИ ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИХАТЛАРИ

Сагадова Муборак

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқ таълими” кафедраси ўқитувчиси Почта индекси: 100174, Университет кўчаси, 4

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886614>

**Аннотация.** Муаллиф мазкур мақолада қадимги Рим давлатида муассасаларни вужудга келиш тарихи ва уларнинг фаолиятини илмий - назарий жиҳатдан таҳлил этган. Шунингдек, муассасаларнинг асосий мақсади ва вазифалари аҳолининг қашшоқ, қийин аҳволда ҳаёт кечирувчи қатламига ёрдам бериш, уларни бир оила сифатида бирлаштириш ҳамда уларга ҳар томонлама муруват кўрсатиш тузилмаси бўлганлигини ёритиб берган.

**Калим сўзлар:** муассаса, алимент муассасалари, дафн маросимларини ўтказувчи коллегиялар, ҳайрия муассасалари, оммавий муассаса, хусусий муассаса, юридик шахс.

### ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ СОЗДАНИЯ ИНСТИТУТОВ

**Аннотация.** В данной статье автор проанализировал историю создания институтов в древнеримском государстве и их деятельность с научно-теоретической точки зрения. Также он пояснил, что основной целью и задачами учреждений является помощь бедным и малообеспеченным слоям населения, объединение их в семью и оказание им всесторонней доброты.

**Ключевые слова:** учреждение, алиментные учреждения, похоронные коллегии, благотворительные учреждения, государственное учреждение, частное учреждение, юридическое лицо.

### HISTORICAL AND LEGAL ASPECTS OF THE ESTABLISHMENT OF INSTITUTIONS

**Abstract.** In this article, the author analyzed the history of the creation of institutions in the ancient Roman state and their activities from a scientific and theoretical point of view. He also explained that the main goal and objectives of the institutions is to help the poor and low-income segments of the population, unite them in a family and support them.

**Key words:** institution, maintenance institutions, funeral colleges, charitable institutions, public institution, private institution, legal entity.

Муассасалар бундан икки ярим минг йил аввал қадимги Рим давлатида вужудга келган. Улар ўзининг вужудга келиш вақтидан бошлаб деярли беш аср ўтгунга қадар жудаям секинлик билан ривожланиб борган. Рим ҳуқуқига оид манбаларда юридик шахс мақомига эга бўлган кўпгина ҳайрия муассасалар ҳақида таъкидланади. Бундай муассасаларга черковлар, касалхоналар, мактаблар, меҳрибонлик уйлари, ҳарбийлар учун маҳсус касалхоналар каби ташкилотлар кирар эди<sup>1</sup>. Милоддан аввалги II асрга келиб Рим императорларининг ҳайрихоҳлиги натижасида муассасаларнинг сони ва турлари кўпайиб борди.

Қадимги Римда ҳайрия муассасалари орасида етим қолган болалар ва жудаям қашшоқ ҳаёт кечирувчи оилалардаги фарзандларни ўз бағрига олган ва уларга ҳар томонлама ёрдам кўрсатган “**alimenta**” деб аталган муассасалар мавжуд бўлган. Алимент муассасалари м.а. I

<sup>1</sup> Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. –Тошкент.: 2013. Янги аср авлоди., 263 б.

асрда Рим императори Нерва (м.а. 33 йил) ҳукмронлиги даврида вужудга келган. Бу муассасалар кейинчалик шахсан императорлар томонидан вужудга келтирила бошланган. Улар императорларнинг буйруғи билан шаҳарнинг мансабдор шахслари томонидан моддий жиҳатдан таъминлаб турилган. Бу жараёнда шахсан квестор (консулнинг судлов ва молиявий ишлар бўйича ёрдамчиси) ҳам қатнашган.

Алимент муассасалари фақатгина инсонпарварлик мақсадида фаолият юритиб, кўрсатилган ёрдамларнинг барчаси беғараз ҳисобланган. Алиментдан нафақат етим болалар ва оғир шароитдаги оилаларнинг фарзандлари, балки вояга етган бўлса-да, сиёсий жараёнларда қатнаша олмайдиган болалар ҳам, етим қолган ва ёлғиз қизлар ҳам фойдаланганлар. Жумладан, 82-161 йилларда Римда етим қолган қизлар учун алоҳида стипендиялар (**stipendium**) ажратилар эди.

Алимент муассасаларининг кўпайишида ва ривожланишида Плиний, Антонин Пий, Септимий Север (222-235й.) каби императорларнинг фаолияти катта роль ўйнаган. Бу муассасаларнинг ҳуқуқий мақоми ҳақида шуни айтиш мумкинки, улар фуқаролик ҳуқуқий муносабатларда юридик шахс сифатида қатнаша оладиган, аниқ бир хайрия мақсадларида фаолият олиб борадиган ва ўзининг жамғармасига эга бўлган ташкилотлар эди.

Қадимги Римда вужудга келган муассасаларнинг яна бири тури бу дафн маросимларини ўтказувчи коллегиялар (**collegia tenuiorum, collegia funeraticia**) бўлиб, улар милодий I асрнинг иккинчи ярмида ташкил топган. Бундай муассасаларнинг вужудга келишига эҳтиёж шунда эдики, қадимги римликлар ўз таналарининг нафақат тириклик пайтидаги ҳолатига, балки унинг вафот этганларидан кейин қандай аҳволда бўлиши ҳақида ҳам қайғурганлар. Яъни, I-IV асрларга оид манбаларда кўрсатилишича, ўша даврдаги жамиятнинг бой одамлари шаҳар ташқарисидан ўзлари ва ўз яқинлари учун оилавий мазор учун ерлар сотиб олганлар.

Бундан фарқли равишда аҳолининг қашшоқ қатлами бундай имкониятга эга бўлмаганлар ва дафн маросимини ўтказувчи коллегия – (**collegia teniorium**) га аъзо бўлганлар. Бу коллегиянинг аъзолари ҳар ойда унинг ҳисобига маълум миқдорда пул ўтказиб туришлари натижасида ўзлари учун дафн этиладиган жой сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлганлар. Лекин, улар ўзларига тегишли ерга эга бўлганларидан кейин ҳам коллегия билан бўлган алоқаларини узиб қўймаганлар. **Collegia teniorium** ўзининг аъзоларига ер ажратиб бериш билан бирга улар вафот этганларидан сўнг тегишли диний расм-русумларнинг ўтказилишини ҳам таъминлаган. Шундай экан, бу коллегияга, асосан, жамиятнинг куйи қатламига мансуб шахслар, озод қилинган шахслар (**libertini**), ўз хўжайинининг руҳсати билан қуллар ва шу каби шахслар аъзо бўлганлар (**tenuis** – лотинча “камбағал” деган маънони билдиради). Мазкур ташкилотнинг характерли жиҳати шунда эдики, улар ҳам жамоат муассасаларига ҳамда муассасага хос хусусиятларга эга эди.

Унинг жамоат ташкилотига хос хусусиятини қуйидагиларда кўриш мумкин:

**биринчидан**, (**collegia teniorium**) нинг асосида жамоат ташкилотчилиги ётарди;

**иккинчидан**, унинг аъзолари ҳуқуқ ва мажбуриятларда тенг бўлганлар ва уни бошқарганлар, умумий келишув асосида унинг фаолиятини тўхтатиб қўйиш ҳуқуқига ҳам эга бўлганлар;

учинчидан, *collegia teniorium* нинг олдига қўйилган мақсад ва вазифалар унинг фаол аъзоларининг шахсий хоҳиш-истаги орқали амалга оширилган<sup>2</sup>.

Шу билан бирга ***collegia teniorium*** кўпгина Рим ҳуқуқига оид адабиётларда ҳайрия муассасаси сифатида талқин қилинади<sup>3</sup>. Чунки, илк коллегияларнинг ташкил топиш давридан бошлаб у билан мустаҳкам алоқалар ўрнатиб борган христиан черкови вақт ўтиши билан уни маблағ билан тўлиқ ёки қисман таъминлаб тура бошлади ва унинг бош асосчисига айланди. Энди мазкур муассасанинг асосий ишчи ва бошқарувчиларини христиан черкови вакиллари ташкил этиб, бу муассасанинг ҳайрия ва бошқа мақсадларни кўзловчи фаолияти улар томонидан бошқарилиб туриладиган бўлди. Бир сўз билан айтганда, ***collegia teniorium*** жамоат ташкилоти сифатида талқин қилинганда ҳам, муассаса сифатида талқин қилинганда ҳам шуни кўриш мумкинки, унинг бош мақсади ва вазифалари аҳолининг қашшоқ ва қийин аҳволда ҳаёт кечирувчи қатламига ёрдам бериш, уларни бир оила сифатида бирлаштириш ҳамда уларга ҳар томонлама мурувват кўрсатиш эди.

Қадимги Римда (***ad pia causa***) деб аталган ҳайрия муассасалари ҳам мавжуд бўлиб, улар император Константин (306 – 337 й.) ҳукмронлиги даврида вужудга келган. Умумий ном билан (***ad pia causa***) деб аталган мазкур ҳайрия муассасалари таркибига касалхоналар (***nosocomia***); қариялар уйлари (***gerontocomia***), янги туғилган чақалоқларни боқувчи уйлар (***brephotrophia***), етим қолганлар учун яшаш жойлари (***orphanotrophia***), қашшоқлар учун яшаш жойлари (***ptochotrophia***), уйсиз бечоралар ва мусофирлар учун яшаш жойлари (***xenodochia*** ёки ***xenones***) ҳамда бева аёллар учун яшаш жойлари кирган<sup>4</sup>.

Ҳайрия муассасаларидаги бундай хилма-хиллик уларнинг турли хил йўналишларда ривож топганидан далолат беради. ***Ad pia causa*** ларнинг ўзига хос жиҳати шундаки, уларнинг фаолияти маълум бир белгилаб қўйилган мақсадни амалга ошириш билангина чегаралаб қўйилмаган. Яъни, аниқ бир ҳайрия мақсадини кўзлаб вужудга келтирилган муассаса бошқа бир ҳайрия мақсадидаги фаолиятни ҳам амалга оширган. Масалан, беморларни даволаш мақсадида қурилган касалхоналардан беморлардан ташқари яшаш жойга муҳтож, ночор аҳволда бўлган бошқа шахслар ҳам ўзларига бошпана топганлар. Лотин манбаларида ***xenodochia***, ***xenones*** тарзида тилга олинган уйсиз бечоралар ва дарвешона ҳаёт кечирувчиларни ўз бағрига олган ҳайрия муассасаларининг орқасидан эрамининг IV асри ўрталаридан бошлаб шунга ўхшаш бошқа турдаги муассасалар сони ва тури жиҳатдан ҳам кўпайиб борди. Жумладан, ушбу даврда биргина Константинопол шаҳрида уларнинг сони 35 тани ташкил этар эди. Кейинчалик бундай муассасалар Ғарбий Европада ҳам ташкил топа бошлаган.

Қадимги Рим жамиятининг турли хил йўналишларида фаолият кўрсатган муассасаларнинг ҳуқуқий мақомини умумлаштирган ҳолда шуни айтиш мумкинки, уларга ўзининг илк ташкил топиш давларида император ҳазинасининг мурувват ва ҳайр-эҳсон мақсадида сарф қилинадиган бир қисми сифатида қаралган. Лекин, христиан динининг кенг ёйилиши ва давлат дини сифатида қабул қилиниши билан мустақил фаолият юритиш ҳуқуқига, яъни юридик шахс мақомига эга бўлган муассасалар вужудга кела бошлаган. Бу

<sup>2</sup> Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. –Тошкент.: 2013. Янги аср авлоди., 263 б.

<sup>3</sup> Римское право: учебное пособие / А. И. Бортенев, О. А. Сергачева, Е. Н. Коваленко; – Волгоград.: Издательство Волгоградского института управления. 2017.

<sup>4</sup> Вологдин А.А. Римское право. – Москва.: Юстиция., 2019. 256 с.

муассасалар (асосан, алоҳида черковлар) мулк сотиб олиш ёки васият бўйича унга эгалик қилиш, кредитор бўлиш, судда иштирок этиш каби ҳуқуқларга эга эди. Бундай ҳуқуқларга вақт ўтиши билан черков назорати остида бўлган бошқа муассасалар ҳам эга бўла бошлаган.

Мустақил юридик шахс ҳисобланган мазкур ҳайрия муассасалари умумий ном билан “*pieae causae*”, “*pieae corpora*”, “*venerabiles domus*” деб аталган. Бу муассасаларнинг фаолиятини юритиб турувчи ва назорат қилиб турувчи шахслар “*oeconomus*” деб аталар эди. Лекин, рим ҳуқуқи барча юридик шахслар сингари жамиятда мавжуд бўлган мазкур муассасаларнинг ҳуқуқий мақоми тўғрисида муфассал бирор бир таъриф қолдирмаган.

Бугунги кунда муассасалар деб номланган корпорациялар айрим тадқиқотчиларнинг фикрича юридик шахсларнинг айрим турларидан анча кейин пайдо бўлган.

Муассасалар тарихини таҳлил қилар эканмиз, уларнинг вужудга келиши, турлари ва ривожланиб бориши вақт ўтиши билан цивилизация алмашиб турганидек ўзгариб борган. Яъни, илк муассасалар (*alimenta, collegia tenuiorum*) Рим империясининг Ғарбий қисмида – Ғарбий Европада вужудга келган ва бир хил йўналишда ривожланиб борган бўлса, улар эрамизнинг IV асрига келиб Шарқий Рим империяси – Византияда сони ва тури жиҳатдан Ғарбга қараганда анча юқорилаб кетди. Чунки, Ғарбий Рим империяси инқирозга юз тутаётган бир даврда Византия ҳар томонлама ривожланиб бораётган давлат эди<sup>5</sup>.

Эрамизнинг VII асридан бошлаб славян халқларининг ҳам ўз давлатларига асос сола бошлаши билан Византия империяси билан турли жабҳалардаги сиёсий, иқтисодий, ижтимоий алоқалар йўлга қўйилган ва бу алоқаларнинг ривожланиб бориши билан 10-12 аср олдин қадимги Рим давлатида ташкил топган муассасалар энди славян давлатларида ҳам вужудга кела бошлади. Айниқса, X асрда (988 й.) славянларнинг Византиядан христианликни қабул қилиши бу жараённинг янада жадаллашувига асосий туртки бўлди. Шу аснода турли хил муассасалар тўғрисидаги тушунчалар халқлар ўртасидаги маданий, савдо-иқтисодий, диний, сиёсий алоқалар орқали дунёнинг турли мамлакатларига тарқалган. Бу эса муассасаларнинг бошқа давлатларда ҳам ташкил топишига олиб келган.

Ҳозирги замон ҳуқуқ назариясида муассаса деб, фуқаролик муносабатларида ҳуқуқнинг мустақил субъекти сифатида қатнаша оладиган ва аниқ бир мақсад йўлида тижоратга оид бўлмаган фаолият юритадиган ташкилот тушунилади<sup>6</sup>. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 1 мартдан амалга киритилган Фуқаролик кодексининг 76-моддасида: “Бошқарув, ижтимоий-маданий ёки тижоратчиликдан иборат бўлмаган вазифаларни амалга ошириш учун мулкдор томонидан ташкил этилган ва тўла ёки қисман таъминлаб туриладиган ташкилот муассаса ҳисобланади<sup>7</sup>” деб таъкидланган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонунни 13-моддасида “Ижтимоий, маданий ва бошқа нотижорат тусдаги вазифаларни амалга ошириш учун жисмоний ва (ёки) юридик шахслар томонидан тузилган нодавлат нотижорат ташкилоти муассаса деб эътироф этилади<sup>8</sup>” деб белгиланган.

<sup>5</sup> Топилдиев В.Р. Rim huquqi. –Т., Yridik adabiyotlar publish., 2022. 201 б.

<sup>6</sup> Топилдиев В.Р. (2011). Фуқаролик ҳуқуқи (Ўқув қўлланма). -Т.: Чўлпон номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 624.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Расмий нашр. – Т., Адолат., 2018. – Б. 547.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикасининг 14.04.1999 йилдаги “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда)

Муассасалар қаторига давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари, таълим, фан, маданият, соғлиқни сақлаш, спортни бошқариб турувчи ташкилотлар – мактаблар, олий таълим муассасалари, институтлар, касалхоналар, музейлар, кутубхоналар, суд-прокуратура органлари ва бошқалар киради. Муассасалар уларни вужудга келтирувчи субъектларга қараб оммавий (давлат ва маҳаллий ҳокимиятга тегишли) ва хусусий (жисмоний ва юридик шахслар томонидан асос солинган) бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, деярли икки ярим минг йиллик тарихга эга бўлган муассасалар ҳозирги кунга қадар мавжуд бўлган жамият ва давлатларнинг шаклланиши ва ривожланишида ўз таъсир кучига эга бўлган асосий омиллардан бири бўлиб келмоқда. Чунки муассасалар, асосан айнан давлатнинг уларга бўлган эҳтиёжи натижасида вужудга келади. Давлатда мавжуд бўлган муассасаларнинг турлари, фаолияти, ҳуқуқий мақоми ва давлатнинг уларга бўлган муносабати орқали мазкур давлатнинг ижтимоий-сиёсий тузумини ҳамда давлатда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликлари қанчалик даражада амалга оширилишини билиб олиш мумкин бўлади.

#### REFERENCES

1. Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. –Тошкент.: 2013. Янги аср авлоди, 263 б.
2. Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. –Тошкент.: 2013. Янги аср авлоди, 263 б.
3. Римское право: учебное пособие / А.И. Бортенев, О.А. Сергачева, Е.Н. Коваленко; – Волгоград .: 2017.
4. Вологдин А.А. Римское право. – Москва .: Юстиция, 2019. 256 с.
5. Топилдиев В.Р. Rim huquqi. –Т., Yridik adabiyotlar publish, 2022. 201 б.
6. Топилдиев В.Р. (2011). Фуқаролик ҳуқуқи (Ўқув қўлланма). -Т.:Чўлпон номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 624 б.
7. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Расмий нашр. – Т.: Адолат., 2018. – Б. 547.
8. Ўзбекистон Республикасининг 14.04.1999 йилдаги “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда)



O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIR SEMALI VA KO‘P SEMALI SO‘ZLARNING  
LUG‘AVIY, SEMANTIK VALENTLIK ASOSIDA BIRIKISH USULLARINING  
LINGVISTIK TAHLILI

Shermo‘minova Mahliyo

Termiz davlat universiteti talabasi

D.Ergasheva

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886689>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida valentlik nazariyasi hamda uning nutq sharoitida qo‘llanilish uslubi, ichki qatlamlarga bo‘lib o‘rganilishi haqida va shu o‘rinda taniqli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov asarlarida valentlik asosida birikkan bir semali va ko‘p semali so‘zlarning ifodalanishi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bir semali, ko‘p semali, tilshunoslik, leksema, lug‘aviy, semantika, sintaktik, valentlik.

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE METHODS OF COMBINATION OF SINGLE-  
SEMBLE AND MULTI-SEMBLE WORDS IN THE WORKS OF OTKIR HASHIMOV  
ON THE BASIS OF THE LEXICAL AND SEMANTIC VALENCE

**Abstract.** In this article, the theory of valence in Uzbek linguistics and the method of its application in speech situations, its study into internal layers, and here, in the works of our well-known writer O‘tkir Hoshimov, single-semal and multi-semal words combined on the basis of valence are discussed. Brief information on the representation of z is given.

**Key words:** monosemous, multisemous, linguistics, lexeme, lexical, semantics, syntactic, valence.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СПОСОБОВ СОЕДИНЕНИЯ  
ОДНОСЕМОННЫХ И МНОГОСЕМОННЫХ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ  
ОТКИРА ГАШИМОВА НА ОСНОВЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ И СЕМАНТИЧЕСКОЙ  
ВАЛЕНТНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье теория валентности в узбекском языкознании и способ ее применения в контексте речи, ее изучение во внутренние пласты, а здесь, в произведениях нашего известного писателя О‘ткира Хошимова, односеменные и многосеменные-семальные, объединены по валентному признаку, даны краткие сведения о выражении слов.

**Ключевые слова:** однозначность, многозначность, лингвистика, лексема, лексика, семантика, синтаксис, валентность.

Tilshunoslikda valentlik nazariyasi o‘tgan asrning 40-yillarida kirib kelgan. Valentlik tushunchasi lisoniy birliklarning ma‘no va mazmun hamda grammatik jihatdan birikish va biriktirish imkoniyatlarini ifodalaydi. Valentlik – ichki imkoniyat, sintaktik aloqa esa uning namoyon bo‘lishidir. Shuningdek, valentlik – til birligimiz, mohiyat, sabab va umumiylikka ega bo‘lsa, sintaktik aloqa – nutq birligi, aloqasi, natija hamda xususiylik imkoniyatidir. Masalan: “ezmoq” leksemasi ko‘p semali valentlik bo‘lib u o‘ziga ma‘no va grammatik jihatdan bug‘doy hamda yurak leksemalarini o‘ziga torta olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘ramiz. Valentlik so‘z birikmalarida hokim va tobe so‘zlarning ishtirokida yuzaga chiqadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan

“bug‘doyni ezmoq” so‘z birikmasida ham tobe va hokim munosabati yetakchi mavqega ega. “ezmoq” leksemasi tortuvchi mavqega ega bo‘lganligi uchun uning valentligi hokim valentlik, unga birikuvchi leksemaning valentligi esa tobe valentlik deb yuritiladi. Lisoniy birliklarda ham ma‘no ham grammatika bo‘lishi kerak. Har bir so‘z birikmasi valentligida ikkisi bir-birini taqozo etib keladi. Shunga asoslanib, valentlik lug‘aviy hamda sintaktik kabi kichik guruhlariga bo‘linadi. Lug‘aviy valentlik – biriktiruvchi hokim qismdagi leksemaning ma‘noviy jihatdan o‘ziga

mos birikuvchi tobe leksemalarini tanlay olishidir. Masalan, “uchmoq” leksemasi “mushuk” leksemasini qabul qila olmaydi. “mushuk uchdi” so‘z birikmasida grammatik jihatdan noqislik bo‘lmas-da, ammo ma‘no va mazmun jihatdan talabga javob bermaydi. Chunki “uchmoq” faqatgina qushlarga xosdir va bu bir semali leksema hisoblanadi.

Semantik valentlik – leksemalarning semantik bog‘lanishi bevosita so‘z turkumlari doirasida mantiqan hamda grammatik jihatdan bog‘lanishni yuzaga chiqaradi. Shundan kelib chiqadiki, muayyan so‘zning o‘z so‘z turkum doirasidagi yoki boshqa so‘z turkumlariga aloqador leksemalar bilan birikishi uning semantik imkoniyatiga ko‘ra sodir bo‘lsa, birikuvchi va biriktiruvchi so‘zlarning o‘zaro munosabati kelib chiqadi. Masalan: qizil olma, qora ruchka, tez yurmoq, beshta bola. Bundan kelib chiqadiki, sintaktik munosabat asosida semantik munosabat yotadi. Shunday qilib, so‘zning semantik valentligi nutqda so‘zlarning kommunikativ birliklarni hosil qilinishida paydo bo‘lmaydi, balki u so‘zda, uning ichki substansiyasida azaldan mavjud bo‘lib yuzaga chiqishga tayyor turgan zaxira maydonida bo‘ladi.

Tilshunosligimizda leksemalar bir semali hamda birdan ortiq semali (ko‘p semali) leksemalarga bo‘linadi. Leksema faqatgina bir ma‘noni ifodalasa u bir semali leksema deyiladi (quyosh, daraxt, qalam) Agarda leksema ko‘p semali bo‘lsa bitta so‘z ikki gapda ikki yoki undan ko‘proq tushunchani ifodalashi mumkin. Masalan: “qoyil” so‘zi doirasida ko‘rib chiqamiz. (Qoyil dars, qoyil ayol) bu yerda “qoyil” leksemasi “ajoyib, zo‘r, tasanno” ma‘nolarida kelsa, unga “bo‘lmoq, qolmoq” fe‘llarini qo‘shib qo‘shma fe‘l yasab yangicha bir ma‘no hosil qilish qobiliyatiga ega. (Do‘stimning ishiga qoyil qoldim).

O‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi, barchamiz uchun sevimli bo‘lgan, o‘zining sermahsul asarlari bilan qalbimizdan joy olgan, taniqli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida kitobxonda emotsion ruhni kuchaytirish hamda baddiy ta’sirchanlikni yuzaga chiqarish uchun bir semali va ko‘p semali so‘zlardan atroflicha foydalangan. Xususan, uning “Daftar hoshiyasida bitiklar” asaridagi bir semali va ko‘p semali so‘zlarning birikish jarayonini lingvistik tahlil metodiga asoslanib ko‘rib chiqdik.

“Har kim o‘z aravasini o‘zi tortsa” sarlavhasi bilan boshlanuvchi mikromatnda “Etikdo‘zni sartarosh qilsangiz, odamning boshiga mix qoqadi” (43-bet) gapida “qoqmoq” leksemasi ko‘p semali ( boshiga mix qoqmoq – ko‘chma ma‘no, gilam qoqmoq – o‘z ma‘nosida ).

“Dastxat” nomi bilan boshlanuvchi sarlavhada “Dasturxon to‘kin edi. Shirinliklar... Bolalarning o‘zi pishirgan kulchalar... Tomog‘im xippa bo‘g‘ilib, suv ham o‘tmay qoldi. Keyin konsert qo‘yishdi” (43-44-betlar) misrasidagi “qo‘ymoq” leksemasi ko‘p semali (tuxum qo‘ymoq – o‘z ma‘nosida, konsert qo‘ymoq – ko‘chma ma‘no).

“Haqiqat sinmaydi...mi?” sarlavhasi bilan boshlanuvchi “Uning hech nimani ifodalamaydigan yuzida bir soniya, atigi bir soniya tabassum paydo bo‘ldi” (47-48-betlar) gapida

“tabassum paydo bo‘ldi” leksemasi bir semalidir, chunki kulmoq, tabassum qilmoq faqatgina insoniyatga xos.

“Burch” sarlavhasi bilan boshlanuvchi matnda “Hatto bulbul ham bola ochganidan keyin sayrashni bas qilib, polaponlariga yemish tashiydi” misralarida ham bir semali, ham ko‘p semali leksemalar mavjud. Bu yerda “sayramoq leksemasi faqatgina qushlar va ularning turlarini o‘ziga tobelantirib kela oladi, boshqa jonli mavjudotlarga va jonsiz predmetlarga mazmun jihatdan birikish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun, “sayramoq” leksemasini bir semali leksemalar qatoriga qo‘shamiz. Ushbu gapdagi “tashimoq” leksemasi ko‘p semali (yemishni tashimoq – o‘z ma‘nosida, gapni tashimoq – ko‘chma ma‘noda). “Asl aynimas” sarlavhasidagi “It tumshug‘ini suqqani bilan daryo xarom bo‘lib qolmaydi. Nomard tosh otgani bilan tog‘ qulab tushmaydi” satrida “tumshuq” so‘zi ko‘p semali (qushning tumshug‘i – o‘z ma‘nosida, itning tumshug‘i – ko‘chma ma‘noda).

“Deylik konsertga tushdingiz. Sozanda soz chalyapti, xonanda qo‘shiq aytyapti.” (222-bet). Ushbu misralarda ham bir semali va ko‘p semali leksemalar mavjud. Xususan, “tushmoq” leksemasi ko‘p semali (konsertga tushmoq – ko‘chma ma‘no, pastga tushmoq – o‘z ma‘nosida). Yana chalyapti hamda qo‘shiq aytmoq leksemalari bir semalidir. Chunki soz chalmoq, kuylamoq leksemalari insonlarning shu so‘zlarga oid kasb egalarinigina mazmuniy jihatdan tobelantirib keladi. “Talantsiz yozuvchi tovuqqa o‘xshaydi! Yong‘oqdek tuxum tug‘adi-da, qaqog‘lab olamni buzadi” (226-bet). Keltirilgan gapda “qaqog‘lamoq” leksemasi faqat tovuq va xo‘rozga mansubligi uchun bir semali hisoblanadi. “Ammo o‘zbek tilida “muhabbat” degan so‘z shu qadar rango-rang ma‘nolarga egaki, hayratda qolasiz!” (228-bet). “hayratda qolmoq” leksemasi faqat ongli mavjudot insoniyatga xos holat hisoblanadi. Shu sababli yuqoridagi gapimizda ham bir semali leksemani uchratishimiz mumkin.

Xulosa o‘rinda shuni keltirib o‘tishimiz kerakki, so‘zning nutqda o‘rganilishi, uning boshqa so‘zlar bilan birikish imkoniyati, semantik jihatdan tuzilishi hamda birikish semantikasini yuzaga chiqarish uchun muayyan so‘z va so‘z qoliplarini talab etishi valentlik nazariyasining o‘zagidir. Shu o‘rinda, ushbu hosil qilingan so‘z birikmalarida bir semali va ko‘p semali so‘zlarning ifodalanishi sintagmalarning ta‘sirchanligini oshiradi. Ushbu fikrimizning isboti sifatida yuqorida mikromatnlarda so‘zlarning birikish jarayonlarini lingvistik tahlil asosida ko‘rib chiqdik.

#### REFERENCES

1. R.Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent – 2020. 2. B.Mengliyev “Hozirgi o‘zbek tili” Toshkent – 2018.
2. O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiysidgi bitiklar” Toshkent – 2018.
3. Ergasheva D.A. “Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали Тошкент, 2020 . №1, 2-јилд. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – В. 99-103. (10.00.00 № 31)

TO'G'AY MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" ASARIDAGI BARQAROR  
BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI (FRAZEOLOGIZM VA MAQOLLAR  
MISOLIDA)

**Ergasheva Mahliyoxon Shavkatjon qizi**

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

**Ergasheva Dilrabo**

Ilmiy rahbar:

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi (Phd)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7886733>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida keltirilgan iboralar va maqollarning lingvistik tahlili berib o'tiladi.

*Kalit so'z:* barqaror birikmalarning, maqol, ibora, To'g'ay Murod, lingvistik tahlil.

LINGUISTIC ANALYSIS OF STABLE COMPOUNDS IN TOGAY MURAD'S WORK  
"OT KISHNAGAN AKSHOM" (AS EXAMPLES OF PHRASEOLOGY AND  
PROVERBS)

*Abstract.* In this article, a linguistic analysis of phrases and proverbs from Togay Murad's work "The Night of the Night of the Horse" is given.

*Key word:* stable combinations, proverb, phrase, Togay Murad, linguistic analysis.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ СОЕДИНЕНИЙ В  
ПРОИЗВЕДЕНИИ ТОГАЯ МУРАДА «ОТ КИШНАГАН АКШОМ» (НА  
ПРИМЕРАХ ФРАЗЕОЛОГИИ И ПОСЛОВИЦ)

*Аннотация.* В данной статье проводится лингвистический анализ фраз и пословиц из произведения Тогая Мурада «Ночь, когда чихнула лошадь».

*Ключевые слова:* устойчивые сочетания, пословица, словосочетание, Тогай Мурад, лингвистический анализ.

O'zbek yozuvchisi Tog'ay "Ot kishnagan oqshom" asarini lingvistik tahlil qilar ekanmiz unda qo'llanilgan barqaror birikmalar albatta, e'tiborimizni tortadi. Yozuvchi o'zining bu asarida ibora va maqollardan o'z o'rnida va unumli foydalangan bu esa asarning yanada badiiyliginiva serqirraligini oshirishga yordam bergan.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janrdir.

Millatga har bir qaytarilgan ruh kitobxonga "yuqadi". Shu jumaladan, "Ot kishnagan oqshom" asarida ham sevgi, yurt, millat tushunchalari qoliplangan so'zlar shaklida emas, tabiiy, oddiy, kamtarona, ming yillar mobaynida shakllangan madaniyat qanday bo'lsa, sof tuyg'ular ham shunday singdirilishi maqol va iboralar orqali o'z aksini topadi. Aynan kommunikativ niyatning maqollar orqali yetkazib berilishini ushbu asarda ko'rishimiz mumkin. Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma maqol deyiladi. Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Faqat shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatlarga ega deyiladi. Misol: To'g'ri o'zadi, egri ozadi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til

birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Koʻpincha maʼnosi bir soʻzga teng va koʻchma maʼnoda boʻladi. Soʻzning bunday barqaror bogʻlanmasi ibora (frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologizm)dir.

Barqaror birikmalarining eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Maʼno butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan oʻrinli foydalanish nutq goʻzalligini taʼminlaydi, shuning uchun ular nutqimiz koʻrki hisoblanadi. Barqaror birikmalarni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi paremiologiya (lot. Parema- barqaror, logos- taʼlimot), barqaror birikmalar lugʻatini tuzish muammolarini oʻrganuvchi boʻlimi esa paremiografiya (lot. Parema-barqaror, grapho – yozaman) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga koʻra umumiylikni tashkil etsa ham, maʼno butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga koʻra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1. Frazeologizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Qismlari qatʼiy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, koʻchma maʼno anglatib, gapda butunligicha bir boʻlak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma, frazeologik birikma (ibora) deyiladi:

Eshon mayizning tagiga turna ekibdi (“tugatmoq”). “Ot kishnagan oqshom” asarida keltirilgan iboralar: 1. Parvoyi falak boʻlmoq–xayol surmoq, beparvo.

Parvoyim falak boʻldi yuraverdim, onamga aytmadim.(104-bet). Millitsionerlar parvoyi falak boʻldi. Begʻam–begʻam choy ichdi.(163-bet). 2. Hafsalasi pir boʻlmoq–umidsizlikka tushmoq.

Ayniqsa, pochtachidan hafsalam pir boʻldi.(105-bet).

3. Koʻngilni keng qilmoq–har narsaga siqilavermaydigan, tashvish tortmaydigan. Koʻngilni keng qiling, ot tepkisi ot koʻtaradi.(117-bet).

4. Oyogʻi yerdan uzilmoq–ketishni toʻxtatmoq.

Koʻzlarim otilib chiqib ketayotganday boʻldi, oyogʻim yerdan uzildi.(122-bet).

5. Koʻngli gʻash boʻlmoq–tashvishli, bezovta, notinch.

Koʻnglim gʻash boʻlib yuradi.(123-bet).

6. Qildan qiyiq chiqarmoq–aybi yoʻq odamdan ayb qidirmoq. Biror bir bahona izlayman. Qildan qiyiq chiqaraman.(123-bet).

7. Tishini tishiga qoʻymoq–sabr qilmaslik, zoʻrgʻa chidab turmoq.

Boshim gʻuvillab qoldi. Tishimni tishimga qoʻyib chidadim.(130-bet). Tishimni tishimga qoʻydim, yuzlarim lovullab ketdi.(208-bet).

8. Yuragi tovoniga tushmoq–qoʻrqib ketmoq. Samolyot bir pasaydi, bir koʻtarildi, yuragim tovonimga tushib ketgaday boʻldi. (149-bet). 9. Toqati toq boʻlmoq–sabr kosasi toʻtoʻlmoq.

Toqatim toq boʻldi. Zardam qaynadi.(180-bet).

10. Otni suvga olib borib, quruq qaytarib kelish–aldab ketmoq.

Bunday vaqtda otni yoʻldan qayirish insofdan boʻlmaydi. Otni suvga olib borib, quruq qaytarib kelish boʻladi.(190-bet).



“Ot kishnagan oqshom” asarida keltirilgan maqollar: 1. Kambag‘alni tuyaning ustida it qopar. Ich-ichidan kuydi. Aytib yig‘yig‘ladi. Kambag‘alni tuyaningustidaitqopadi, degani shudadedi.(104-bet).

2. Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq.

Otangani ko‘rdim-ahmadi forig‘, onangni ko‘rdim-tovoni yo‘riq, ko‘ko‘rpangga qarab oyoq uzat-dedi. (109-bet).

3. El og‘ziga elak tutib bo‘lmas.

Birodarlar, el shunday! El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi.(109-bet).

Chinniday gapni tuyaday qilib gapiradi. El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi. (200-bet).

4. Otni boqsang qo‘shib boq, suvini tashib boq.

“Otni boqsang qo‘shib boq, suvini tashib boq!” Xo‘sh nima bo‘pti?.(114-bet). 5. Ot tepkisini ot ko‘tarar.

Ko‘ngilni keng qiling, ot tepkisini ot ko‘taradi.(117-bet).

6. Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas.

Birodarlar, yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa-da dong‘i chiqmaydi!.(136-bet).

7. Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan.

Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan. Tording aslingga! Ket!-dedim.(180-bet). 9. Osmon olis, yer qattiq.

Ko‘zim osmondaligicha qoldi. Osmon olis, yer qattiq bo‘ldi...(209-bet).

Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom ” qissasidagi bir necha misollarni tahlil qildik. Asarda ishlatilgan iboralar va maqollar bugungi kunda ham xalq tilida sermahsul ishlatilini b kelinmoqda. Lekin ba‘zi birlari borki, ular xalq tilida kam ishlatiladi. Masalan, kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi maqoli bugungi kunda xalq tilida kam qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, ibora va maqollarni o‘z ichiga olgan badiiy asarlarni tahlil qilish kitobxonlarni badiiy asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi va asardagi g‘oyani yanada yaqqol ochib berishga yordam beradi. Shuningdek, ibora va maqollarni o‘rganish kitobxonlarning savodxonligini shu bilan birgalikda so‘z boyligini ham oshirishda muhim vazifa bajaradi.

## REFERENCES

1. B. Mengliyev. ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T:”Tafakkur bo‘stoni”2018
2. T. Murod. ”Ot kishnagan oqshom” T: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent–20009.
3. Sh. Rahmatullayev. ”O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”.

**FARTLEK USULINI QO‘LLASH ORQALI O‘RTA MASOFAGA  
YUGURUVCHILARNI INNOVATSION TEXNALOGIYA YORDAMIDA  
TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**F.Ch.Ziyayev**

O‘ZDJTSU O‘qituvchi

**A. M.Sapayeva**

O‘ZDJTSU II-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894329>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda ularning maxsus tezkor-kuch sifatlarini, ularni rivojlantirish usuliyatini aniqlashda o‘quv-trenirovkalardagi mashq yuklamalarini ishlab chiqish va ularni rivojlantirish usuliyati bo‘yicha trenirovka jarayoni o‘rganish yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tezkor-kuch, sifat, usuliyat, rivojlantirish, trenirovka, Antropometrik o‘lchovlar.*

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРЕНИРОВОК БЕГУНОВ НА  
СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ ПО ИННОВАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ МЕТОДОМ  
ФАРТЛЕК**

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы развития скоростно-силовых качеств у спортсменов на длинные дистанции, их специальные скоростно-силовые качества, методика их развития, разработка физических нагрузок в тренировочных занятиях, изучение тренировочного процесса по методике их развитие.*

***Ключевые слова:** Быстродействие, качество, методология, разработка, обучение, Антропометрические измерения.*

**IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING MIDDLE DISTANCE  
RUNNERS USING INNOVATIVE TECHNOLOGY USING THE FARTLEK METHOD**

***Abstract.***

***Key words:** Speed, quality, methodology, development, training, Anthropometric measurements.*

***Dolzarbliigi:** Bugungi kun sport amaliyotida iste’dodli sportchilarni tayyorlash masalasiga yangicha nazar bilan yondashish zaruriyatini tug’dirmoqda. Ushbu zaruriyat ayniqsa yugurishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuguruvchilarimiz jahon sport maydonlarida muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Ammo erishilgan yuksak o‘rinlarni saqlab qolish uchun trenirovka jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirish zarur bo‘ladi. Yuguruvchilar va zahira tayyorgarligini takomillashtirishning yangi mashg‘ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish, nazorat qilish muammosini hal etish bilan bog‘liq.*

*Sport fani sohasining taniqli olimlari ta’rificha, sport tayyorgarligi jarayonida mashg‘ulotlarni rejalashtirishda, ayniqsa, sport yugurishida mahoratli sportchilar zahiralarni va malakali sportchilarni tayyorlashda mashg‘ulotlar shiddatini, mashq samaradorligini kuchaytirish mazmuni bo‘yicha har xil nuqtai nazardagi fikrlar farki kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazarlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-uslubiy yondashish natijasida sportchilarning xalkaro musobaqalardagi ishtirokini va yuqori natijalarga erishishlarini ta’minlashda sport tayyorgarligi mashgulotlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda sport*

amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik mashg'ulotlari yuklamalari kattaligi va yo'nalishi ilmiy asoslangan mashg'ulotlarga bo'lgan etiyojni ko'rsatmoqda. Sport mashg'ulotlari jarayonida rasional yuklamalarni bajarish, ish hajmini oshirish borasida mikrosikllarga asoslangan optimal dasturlar tuzilishi, har bir mashg'ulot vazifasi samaradorligini takomillashtirish masalasi sport amaliyotida katta o'rin tutadi. Shu singari, malakali yuguruvchilar guruhlariga rejalashtirilgan mashg'ulotlarni, turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rasional darajada muvofiqlashtirish, kuniga bir yoki ikki marta mashg'ulot o'tkaziladigan mashg'ulotlar bosqichlarining asosiy uslubiy tamoyillarini rejalashtirish usullari va tuzilishi yetarlicha aniqlanmagan.

Dunyo miqyosida yengil atletika turlarining sur'ati jadal oshib bormoqda. Zero bu yengil atletikalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini doimiy o'sib borishi bilan bog'liq bo'lib, shu orqali sport yutuqlari ko'lami ortib bormoqda. Ushbu omil yengil atletika bo'yicha zaxiralarni ta'minlash bilan birga yosh yengil atletikalarning jismoniy tayyorgarligiga ham yuqori talablarni qo'yadi, bu esa yosh yengil atletikalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning o'quv mashg'ulotlari sifatini yaxshilash talabini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablarida yengil atletika to'garaklarini tashkil etish va ularda shug'ullanuvchi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish ham dolzarb masalalardandir. Tashkil etilgan yengil atletika to'garaklarida shug'ullanuvchi o'quvchilarining harakat samardorligi ularning jismoniy tayyorgarligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy yengil atletikada jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam nazorat qilish umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishi uchun ham xizmat qilishi zarur va bunda ularning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi zamon talablariga mos bo'lishi asosiy omillardan hisoblanadi.

#### **O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARDA FARTLEK USULINI QO'LLASH**

Chet el Murabbiylari Fartlek, bu tezkor o'ynash degan manoni anglatadi doimiy mashgulotlar bilan intervalli mashgulotlar fartlek yugurish bu uzoq masofaga yugurishning juda odiiy shakli .Fartlek mashgulotlari shunchakiy sekin yugurish davrlari bilan aralashtirilgan tez yugurish davrlari deb ta'riflanadi Sportchining tayyorgarligi beshga bo'linadi: jismoniy, texnik, taktik ruxiy va fartlek tayyorgarlikdir. Xar bir bo'limda ikki tomon (umumiy va maxsus) ajralib turadi, ularda tayyorgarlik va sistemalarning qo'llanilishi nazariy va amaliy yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin.

Jismoniy tayyorgarlik xarakatli sifatlarini tarbiyalashga bog'liq bo'lib, u sportchiga zarur tezlik, kuch xar tomonlama rivojlanishga va sog'likni mustaxkamlashga yordam beradi. Shuning uchun biz quyida UJT-umumjismoniy tayyorgarlik, MJT- maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik, taktik, nazarit sifatlarini va forma (jismoniy tayyorgarlikning yuqori cho'qqisi) xaqida fikr yuritimiz:

Fartlekslar yuguruvchilarning tanasi yuqori darajada ushlab turushadi , shunda ular musobaqada belashishlari mumkin fartlek yugurish mashqlarini odatiy tartibda bajarishi mumkin yugurishda maksimal darajada foydalanishda maksimal darajada foydalanishda ishlatiladigan muskullar tendonlar nervlar va boshqalarni ushlab turadi ,boshqacha qilib aytganda fartlekslarni muntazam ravishda amalga oshirishda tananggizni musobaqaga qadar o'z fo'masini saqlab qolishi uchun yetarlicha kuchli qiladi .Yugurish paytida yuguruvchilarning tanasi uglevod va yog'

birikmasidan foydalanadi tezroq fetabalizimga nisbatan ko'proq uglevod va mashqlar qancha uzoq davom etsa ,nisbatan ko'p yog'lar.Fartlek mashqlari har ikkala energiya manbalaridan foydalanishga moslashishga imkon beradi va yog almashuviga kerakli moslashuv sekinroq vaqtlarda sodir bo'ladi bundan tashqari o'zgaruvchan tezlik yurak-qon tomirlarining chidamliligini bir xil vaqt va umumiy masofada bir maromda yugurishdan ko'ra yaxshiroq yaxshilaydi.

Faetlekslar har xil turdagi sportchilar ehtiyojlariga mos ravishda maxsus tayyorlangan bo'liishi mumkin masalan basketbolni o'z ichiga oladi bu yerda tez tanaffuz paytida maksimal kuch sarflash kerak fartlek turlari va vaqtini o'gartirish mumkin va futbol kabi boshqa sport turlari uchun ham amalga oshirilishi mumkin .Interval qisqa shidatli harakatlar so'ngra tiklanish vaqti teng yoki biroz ko'proq vaqtga to'ri keladi ,qisqa tezlikda portlash tugagach yuguruvchi bu tempni zo'rg'a ushlab turadi .Fartlekslar farqli o'laroq intervalli yugurishlar ancha tuzilgan odatda aniq va uzoq masofalarda tez va sekin harakatlanishlarni yugurish , intervalli yugurish va templi yugurishlar shundan iboratki temp yugurishlari belgilangan vaqt davomida biroz tez suratni saqlab turadi individuall yugurishlar bita tezlikni ushlab turish o'rniga sprintlar va sekin uchastkalarini almashtirishdan iborat . Ushbu mashq tezkor undan tezkor qisimlar uzunligi turlicha bo'ladi asosan sportchilar oz miqdordagi mashg'ulotni og'ir tempda olib boradilar

Umumiy jismoniy tayyorgarlik UJT(xar tomonlama) tog'ridan-to'g'ri musoboqa patensialiga kirmaydigan xarakterli sifatlar majmuini tarbiyalashga xizmat qiladi. Biroq UJT evaziga sportchi keyingi texnik tayyorgarlik uchun zarur xarakterli bilim va uquvlar zaxirasiga ega bo'lgan hamda maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikning samarali olib borishi uchun yordam beradigan maxsus bosqichni o'ziga ta'minlaydi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – MJT sportchiga musoboqa sharoitida samarali qatnashish imkoniyatini ta'minlovchi xarakterli MJT to'g'ridan-to'g'ri sport imkoniyatiga tegishli va tabiiyki, sport tayyorgarlik natijasiga ta'sir etadi. Tayyorgarlikning bu turi maxsus tayyorgarlik va musoboqali mashqlar yordamida olib boriladi.

**Chidamlilikni rivojlantirish.** Chidamli bo'lish yengil atletikachilarga faqat musoboqalarda qatnashish vaqtida emas, balki katta hajmdagi musoboqalar ishini bajarish uchun xam kerak. U organ sistemalarining (ayniqsa markaziy nerv sistemalari va musqul apparatlarining) tayyorganlik darajasiga sport texnikasining takomillashtirish darajasiga va xarakterlarni tejamli bajara bilishga bog'liqdir. .Fartlek mashqlari yuqori intensiv intervallik mashg'ulotlardan farq qiladi,chunki ular vaqt bo'yich tuzilmagan shuning uchun siz o'zingizning mashg'ulotlaringizga turli xil tezkor tezliklarni qo'shishingiz mumkin yuguruvchilar turli xil fartlek mashqlarni bajarishdan zavq olishlari mumkin uzoqdan ko'rgan to'xtash belgisiga yoki daraxtga yugurish kiradi ,yoki yaqinlashib kelayotgan tepalikka qanchalik tez yugurishingizni ko'rish kabi o'zingizga qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan fartlek mashqlari sizning tezligingiz va chidamliligingizni yaxshilashga yordam beradi. Maqsad butun mashq davomida ishlashni davom ettirish bo'shqa mashg'ulotlarda topishingiz mumkin bo'lgan vaqt oraliq'ida yurish yoki to'xtash yo'q ammo ko'proq mslashuvchanlik mavjud bo'ladi.Masalan siz butun mashqni 30 soniya davomida bajarish o'rniga turli xil masofalarga yugursangiz yoli har bir oraliqa yugurishingiz mumkin ushbu doimiy mashg'ulotlar yuguruvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin chunki bu sizning tezligingizni yaxshilashga yordam beradi 2015-yilda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan

sportchilar o'rtasida o'tkazilgan bir tadqiqotshuni ko'rsatadiki 6 haftalik fartlek mashg'ulotlari ularning yaxshilanishiga yordam berdi.

- chidamlilik
- chaqonlik
- qadam chastotasi
- kuch
- mushaklarning elastikligi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatidiki siz o'zingiz yoqtirgan mashqlar bilan shug'ullanishingiz mumkin fartlek mashqlari odatdagi yugurish tartibini almashtirishning qiziqarli usuli bo'lishi mumkinligi sababli siz odatdagidan ko'ra ko'proq yugurayotganingizni sezishingiz mumkun fartlek mashqlarida siz yugurishingizga qisqa tezlikni qo'shasiz keyin navbatdagi tezligingizga qadar qulay tepda yugurasiz

Belgilangan joylarga yugurish individual fartlek

- Isitish uchun 5-10 daqiqada yugurish yoki yugurish tezligidan boshlang.
- Oldinda turgan to'xtash belgisi yoki bino kabi masofani bosib o'tib tezlikni ko'taring 20-60 soniya tezlikni maqsad qiling lekin har bir portlash aniq vaqtga to'g'ri kelmasligi kerak.

- Bundan kabi tashqari, siz o'zingiz kutib turgan tepalikka yugurish yoki pastga tushush qiyinchiliklarni ham berishingiz mumkun

- Tezligingizdan so'ng nafsingizni tinglangunicha yana bir necha daqiqaga qadar yugurib yuring.

- Taxminan 20 daqiqa o'zgaruvchan tezlikni va harakatni takrorlang agar siz uzoqroq masofaga yugurish bo'yicha ko'proq tajribaga ega bo'lsangiz uzoqroq yugurishingiz mumkin.

- 5 daqiqali yugurish bilan sovub turing.

Rahbarga ergashing guruh fartlek

- Isitish uchun 5-10 daqiqada yugurish yoki yugurish tezligidan boshlang.
- Bitta yuguruvchi tezlikni oshirib yetakchi o'rinni egallaydi boshqalari esa orqalarida bitta fayil qatorida yuguradilar

- Yetakchi yugurish ushbu tezlikni hohlagan vaqtgacha ushlab turishi mumkin ammo bu bir necha daqiqadan oshmasligi kerak.

- Yetakchi yugurish bir necha daqiqaga yugurish yoki qulay tezlikni pasaytiradi.
- Chiziq orqasidagi yuguruvchi oldinga yuguradi va tezlik yetakchisi vazifasini bajaradi.
- Yuguruvchilar 20-30 minut davomida tezlikni sakrash va yugurish usulini qollashda davom etmoqdalar /

- 5-10 daqiqalik oson yugurish bilan sovush.

Fartlek yugurish bo'yicha maslahatlar

Fartlek moslashuvchan va tuzilmasiz ishlab chiqilgan barcha darajadagi sportchilar yuguruvchilar fartlek mashqlarida qatnashishlari mumkun.

Yagi boshlovchilar uchun tezlik bilan mashq qilishniboshlashni istagan yuguruvchilar uchun fartlek yaxshi imkoniyadir.

- Tezlikni ko'taring tezlik oraliq'ida to'liq ishlaydigan sprintda chopish shart emas buning o'rniga tezlikni qisqa masofaga ko'tarishni maqsad qiling



- Masofadan diqqatga sazovor joyni tanlang. Oldingizda daraxt yoki po‘chta qutisini qidirib toping va unga tezroq yuring

- Vaqtingizni belgilash uchun musiqadan foydalaning. Siz fartlek mashqingizni tinglayotgan musiqangiz bilan birlashtirishga harakat qilishingiz mumkin. Masalan, qo‘shiqning xo‘r qismida tezlikni oshirishni maqsad qiling agar siz eshitish vositasi bilan yugurish yo‘lakchasida ishlayotgan bo‘lsangiz bu yaxshi variant .

Ko‘proq tajribali yuguruvchilar uchun fartlek haliham tezlikni oshirishning ajoyib usuli bo‘lishi mumkin

- 80 foiz tezlikni maqsad qiling tezlik qismida musobaqa tezligingizni kamida 80 foizini bajarishga harakat qiling

- Masofadan foydalaning yoki vaqtdan foydalaning fartlek yugurishda o‘zingizni qulay his qilsangiz siz to‘liq tezlikda yugurayotgan masofani yoki vaqtni ko‘paytirib o‘ynashingiz mumkin.

- Juftlashing va navbat beringsiz do‘stingiz yoki guruhingiz bilan mashq qilishingiz va navbatma-navbat bir-biringizga tezlikni oshirishingiz mumkin.

Fartlek va boshqa tezkor mashg‘ulotlar fartlek tezlikni mashq qilishning tepli yugurish va intervalli mashqlar kabi boshqa turlaridan farq qiladi. Tempo mashqlari ular malum bir poyga vaqtini yoki tezligini yaxshilashni xohlaydigan yuguruvchilar uchun mo‘ljalangan . Intervalli mashq jismoniy mashqlar paytida yuguruvchilar belgilangan vaqt davomida kuchli harakatlarda (80-90 foiz harakatlarda) yugurishni maqsad qilishadi so‘ngra yugurish yurish yoki nafas olish uchun to‘xtash masalan 2 minut tezlikda yugurish keyin 2 minut tiklanish siz buni malum bir necha marta yoki jami 20 daqiqa davomida takrorlaysiz.

Fartlek qanday taqoslanadi, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki ,fartlek mashg‘ulotlari vaqt oraliqidagi yoki vaqt teplari bilan taqoslanganda ayniqsa muvofiqlashtirishni yaxshilash uchun yaxshi sinovdan o‘tgan.2014 yilda o‘tkazilgan bir tadqiqotda fartlek mashg‘ulotlari ko‘llejkararo erkaklar futbolchilari gurihi bilan doimiy yugurish va intervalli mashg‘ulotlar kabi mashq mashg‘ulotlar bilan taqqoslangan.12 hafta davomida fartlek mashg‘ulotlarida qatnashgan sportchilar doimiy yuguruvchilarga va mashq qilmaganlarga qaraganda tezlik va muvofiqlashtirish bo‘yicha yaxshiroq sinov o‘tkazdilar fartlek guruhiga ham intervalli mashg‘ulotlar guruhiga o‘xshash sinov o‘tkazdi.Qaysi turdagi mashg‘ulotlarni eng yaxshi deb aytish qiyin bo‘lsada haftalik mashg‘ulotingizda turli xil mashqlarni bajarishga harakat qiling bu sizni barkamol yuguruvchiga aylantiradi va umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi bundan tashqari xilma xillik sizni rag‘batlantirishi mumkin.

Chidamlilik deb - qaysidir bir faoliyat davomida charchashni yengish qobiliyatiga aytiladi.

Chidamlilik umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy chidamlilik xar qanday sportchining umumiy jismoniy rivojlanishining tarkibiy qismi bo‘lib, avvalo markaziy nerv sistemasidagi yurak –qon tomir, nafas olish va boshqa sistemalardagi jiddiy ijobiy o‘zgarishlarning natijasidir. Yengil atletika ayrim turlarining xususiyatiga qarab sportchiga maxsus chidamlilik kerak. Ma’lumki qisqa masofaga yuguruvchi marafoncha yugurishda, marafonchi esa 400 m yugurishda chidamsizdir. Ko‘p soatli musoboqaga bardosh bera oladigan langarcho‘p bilan sakrovchi 1500 m ga yugurishda chidamsiz bo‘lib chiqishi mumkin. Yengil atletikaning xar bir turida maxsus chidamlilikni o‘ziga xosligi shu qadar zo‘rki, uning xar biri uchun o‘z uslubi bo‘lishi zarur.

Tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan yuguruvchilar umumiy chidamlilikni oshirish uchun yugurish masofalari 20-30 km gacha yetishi mumkin, ayrim vaqtlarda undan xam ko‘proq, bunda

tezlik katta bo'lmashliki kerak albatta. Bunday yugurishlari bor mashg'ulotlari haftada 3 marta, eng kuchli stayerlarda esa tayyorlov davrining haftada 6-7 marta o'tkaziladi.

Katta tezlikdagi yugurish paytida energetic moddalar juda tez parchalanib, muskullardagi xamma biokimyoviy proseslar qariyb kislorodsiz sharoitda o'tganligi uchun 100 -200 mga yugurishdagi chidamlilikni osiradigan organ va sistemalari faqat shu sharoitning o'zidagina rivojlantrish mumkin. Demak sprinda zarur bulgan chidamlilikni kichik tezlikda yugurish bilan to'liq taraqqiy ettirish mumkin emas.

Bundan ko'rinib turibtki qisqa yoki o'rta masofalarda mashg'ulot o'tkazib marafonchining chidamliligini oshirib bo'lmaydi. Marafonda zarur bo'lgan chidamlilikni katta tezlikda kichik masofalarga yugurish bilan to'liq taraqqiy ettirish mumkin emas. Demak o'rta masofaga yuguruvchining chidamliligini oshiradigan organ va sistemalari faqat shu sharoitning o'zidagina rivojlantirish mumkin.

1. O'rta masofaga yuguruvchining umumiy jismoniy tayyorligini xosil qilish va uni yanada oshira borish.

2. O'rta masofaga yugurish (start, startdan keyingi yugurish, masofa bo'ylab yugurish, marraga kelish xamda estafetali yugurish) texnikasini bilib olish.

3. Boshka yengil atletika turlari va jismoniy mashqlarning (uzunlikka, balandlikka sakrash, g'ovlar osha yugurish, uloqtirish, turli xil umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar va xokaza)oddiy texnikasini bilib olish.

4.O'rta masofaga yuguruvchining tezlik kuch fazilatini (xarakat tezligini o'rta masofalarga yugurishga moslab) va muskullar (oyoqlarni yozuvchi muskullar, son ko'taruvchi muskullar, son orkasidagi muskullar, qorin muskullari, yelka kamaridagi muskullar) kuchini rivoj toptirish.

5.O'rta masofaga yuguruvchining chidamliligini oshirish.

6.Irodaviy tayyorgarlikni yaxshilash va axlokiy fazilatlarni tarbiyalash

7.Taqtik tayyorgarlik va musobaqalarda katnashish tajribasini xosil qilish.

8.Nazariy tayyorgarlik qurish.

Fartlekslar yuguruvchilarning tanasi yuqori darajada ushlab turushadi , shunda ular musobaqada belashishlari mumkin fartlek yugurish mashqlarini odatiy tartibda bajarishi mumkin yugurishda maksimal darajada foydalanishda maksimal darajada foydalanishda ishlatiladigan muskullar tendonlar nervlar va boshqalarni ushlab turadi ,boshqacha qilib aytganda fartlekslarni muntazam ravishda amalga oshirishda tanangizni musobaqaga qadar o'z fo'masini saqlab qolishi uchun yetarlicha kuchli qiladi,raqobatbardosh yuguruvchilar uchun fartleks va boshqa barcha intervalli yugurishlar musobaqa kuniga tayyor bolishning kalitidir.

Fartlekslarni belgilovchi nuqtasi bo'lgan o'zgaruvchan tezliklar yuguruvchilarga raqobatbardosh yugurish jarayonini va jarayoni aerob va anaerob mashq tizimlarini ishlashiga imkon beradi. Fartlekslar yuguruvchilarning tanasi yuqori darajada ushlab turushadi, shunda ular musobaqada belashishlari mumkin fartlek yugurish mashqlarini odatiy tartibda bajarishi mumkin yugurishda maksimal darajada foydalanishda maksimal darajada foydalanishda ishlatiladigan muskullar tendonlar nervlar va boshqalarni ushlab turadi ,boshqacha qilib aytganda fartlekslarni muntazam ravishda amalga oshirishda tanangizni musobaqaga qadar o'z fo'masini saqlab qolishi

uchun yetarlicha kuchli qiladi. Jismoniy mashqlar intensivligini almashtirib siz barqaror tepni ushlab turgandan ko'ra koproq kalorya sarflaydi, yugurish paytida Fartlekslar yuguruvchilarning tanasi yuqori darajada ushlab turushadi, shunda ular musobaqada belashishlari mumkin fartlek yugurish mashqlarini odatiy tartibda bajarishi mumkin yugurishda maksimal darajada foydalanishda maksimal darajada foydalanishda ishlatiladigan muskullar tendonlar nervlar va boshqalarni ushlab turadi, boshqacha qilib aytganda fartlekslarni muntazam ravishda amalga oshirishda tananggizni musobaqaga qadar o'z fo'masini saqlab qolishi uchun yetarlicha kuchli qiladi.

Yugurish paytida yuguruvchilarning tanasi uglevod va yog' birikmasidan foydalanadi tezroq fetabalizimga nisbatan ko'proq uglevod va mashqlar qancha uzoq davom etsa, nisbatan ko'p yog'lar. Fartlek mashqlari har ikkala energiya manbalaridan foydalanishga moslashishga imkon beradi va yog almashuviga kerakli moslashuv sekinroq vaqtlarda sodir bo'ladi bundan tashqari o'zgaruvchan tezlik yurak-qon tomirlarining chidamliligini bir xil vaqt va umumiy masofada bir maromda yugurishdan ko'ra yaxshiroq yaxshilaydi.

Fartlekslar har xil turdagi sportchilar ehtiyojlariga mos ravishda maxsus tayyorlangan bo'lishi mumkin masalan basketbolni o'z ichiga oladi bu yerda tez tanaffuz paytida maksimal kuch sarflash kerak fartlek turlari va vaqtini o'gartirish mumkin va futbol kabi boshqa sport turlari uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Interval qisqa shidatli harakatlar so'ngra tiklanish vaqti teng yoki biroz ko'proq vaqtga to'ri keladi, qisqa tezlikda portlash tugagach yuguruvchi bu tempni zo'rg'a ushlab turadi. Fartlekslar farqli o'laroq intervalli yugurishlar ancha tuzilgan odatda aniq va uzoq masofalarda tez va sekin harakatlanishlarni yugurish, intervalli yugurish va templi yugurishlar shundan iboratki temp yugurishlari belgilangan vaqt davomida biroz tez suratni saqlab turadi individualli yugurishlar bita tezlikni ushlab turish o'rniga sprintlar va sekin uchastkalarni almashtirishdan iborat. Ushbu mashq tezkor undan tezkor qismlar uzunligi turlicha bo'ladi asosan sportchilar oz miqdordagi mashg'ulotni og'ir tepda olib boradilar.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони —Жисмоний тарбия
2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони —Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги. Фармони
6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори —Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисидаги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of

10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 05, 2020,
11. <http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/> 46-50 бетлар.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O'RTA T'ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 348-355.
13. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O'RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-90.
15. Каримов Ф. М. и др. БОШЛАНГИЧ ИХТИСОСЛИК ГУРУҲИДАГИ УЗУНЛИККА САКРОВЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ДЕПСИНИШ КУЧИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.

SO'Z TURKUMLARINING O'ZBEK TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN  
TURLICHA TASNIFI

To'laganova Mehriniso Musurmonovna

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti 2- bosqich talabasi

Iroda Xidirova

Ilmiy rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894374>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqil so'z turkumlarining o'zaro farqlanishi va tasniflanishi haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** So'z turkumlari, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish.

DIFFERENT CLASSIFICATION OF WORD GROUPS BY UZBEK LINGUISTS

**Abstract.** This article talks about mutual differentiation and classification of independent word groups. During the article, reasonable opinions and considerations are mentioned.

**Key words:** Phrases, noun, adjective, number, verb, pronoun, adverb.

РАЗЛИЧНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ГРУПП СЛОВ УЗБЕКСКИМИ  
ЛИНГВИСТАМИ

**Аннотация.** В данной статье речь идет о взаимном разграничении и классификации самостоятельных групп слов. В статье упоминаются обоснованные мнения и соображения.

**Ключевые слова:** Словосочетания, существительное, прилагательное, число, глагол, местоимение, наречие.

O'zbek tilida mustaqil so'z turkumlarini a'lohida guruhlarga ajratib o'rganamiz. Avvalo so'z turkumi nima? Degan savol tug'ulishi mumkun. Shu boisdan ham so'zlarning so'rog'I va qanday umumlashma ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi.

So'z turkumlari ma'no vazifasiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi,

1. Mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.
2. Yordamshi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
3. A'lohida olingan so'zlar: undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar.

Ra'no Sayfullayeva o'zining "Hozirgi o'zbek adabit tili" asarida so'z turkumlarini quyidagicha izohlaydi. Ya'ni so'z turkumlari mazkur belgilar asosida quyidagi ko'rinishda tartiblanadi.

1. Mutaqil so'zlar: Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l va taqlid so'zlar
2. Yordamchi so'zlar: Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
3. Oraliq so'zlar: So'z-gaplar

Yuqorida keltirilgan tasnif ya'ni so'z turkumlarining a'lohida bir jihati shundaki, biz darslikda taqlid so'zlarni a'lohida olingan so'z turkumi guruhiga kiritgan edik va bugungi kunda Tilshunos olimi Ra'no Sayfullayeva bu fanga yangicha o'zgartirish kiritdi ya'ni taqlid so'zlarni Mustaqil so'z turkumlar guruhiga kiritdi.

B.Umirquloq ustozimiz esa o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik va qo'llanma asarida, O'zbek tilida so'z turkumlari 12 ta bo'lib ular quyidagi guruhlarga bo'lgan.



1. Mustaqil soʻzlar.
2. Yordamchi soʻzlar.
3. Modal soʻzlar.
4. Undov soʻzlar.
5. Taqlid soʻzlar.

Ustozimiz B. Umurqulov ham bu fanga nisbatan turlicha yangiliklar kiritganini koʻzishimiz mumkin. Bundan tashqari. Soʻz turkumlarining barcha Grammatik shaklga ega, biroq lugʻaviy Grammatik, maʼnosi va vazifasiga koʻra turlichadir.

1. Soʻz turkumlari maʼno ifodasiga koʻra quyidagichadir.

- a) Nomlovchi soʻzlar: ot, sifat, son, feʼl, ravish.
- b) Ifodalovchi soʻzlar: undov, modal soʻz, yuklama, taqlidiy soʻzlar.
- c) Koʻrsatuvchi soʻzlar: olmosh, bogʻlovchi, koʻmakchi.

2. Morfologik jihatdan oʻzgarishiga koʻra quyidagicha.

- a) morfologik jihatdan oʻzgaradigan soʻzlar: ot, sifat, son, olmosh, feʼl.
- b) morfologik jihatdan oʻzmaydigan soʻzlar: ravish, bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama soʻzlari

3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga koʻra quyidagicha.

- a) sintaktik vazifa bajaradigan soʻzlar: ot, sifat, son olmosh, ravish.
- b) sintaktik vazifa bajaradigan soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, undov soʻzlar.

Raʼno Sayfullayeva esa soʻzlarning semantic tasnifi. Bunday soʻzlar quyidagi guruhlarga ajraladi.

- a) mustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻzlar: ot, sifat, son, feʼl, ravish, taqlid.
- b) nomustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻzlar: olmosh va soʻz-gaplar
- c) lugʻaviy maʼnosiz soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.

Har bitta tilshunos olimning oʻz qarashlari va oʻz fikrlariga ega shu boisdan ham Oʻzbek tilshunos olimlari tomonidan bugungi kunda turli izlanishlar olib borilmoqda.

## REFERENCES

1. B.Umurqulov “ Hozirgi oʻzbek adabiy tili”
2. Raʼno Sayfullayeva “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”
3. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
4. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family). *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 1(2), 196-199.
**Abstract.** This article will focus on the organization in the Republican Educational Center, together with the territorial departments of public education, of a wide explanatory work on the content of the basic curriculum and documents related to its implementation, at the August councils and directly in the pedagogical community, on the development by various international organizations of regulatory documents in areas of standardization, metrology, certification.

**Key words:** Republic, education, organizations, documentation, metrology, specialist, content-essence.

В настоящее время каждому специалисту необходимо знать параметры своей сферы деятельности и методы их измерения, средства измерений, их технические характеристики. Кроме того, специалисты в области техники должны знать средства контроля измеряемых и оцениваемых величин, а также вопросы, связанные с их использованием.

В соответствии с постановлениями Кабинета Министров от 15 марта 2017 г. N 140 "Об утверждении Положения о среднем общем образовании" и от 6 апреля 2017 г. N 187 "Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего и среднего специального, профессионального образования", 27 июля текущего года приказом министра народного образования Принят приказ № 191 "Об утверждении базового учебного плана на 2018-2019 учебный год для I-XI классов общеобразовательных школ". В соответствии с ним утвержден базовый учебный план для общеобразовательных учреждений Республики Узбекистан на 2018-2019 учебный год.

Распоряжением установлено, что в 2018-2019 учебном году во 2-м и 6-м (только иностранный язык в 6-м классе) и 11-м классах будут внедрены образовательные программы, составленные в соответствии с требованиями государственных образовательных стандартов, утвержденных постановлением Кабинета Министров от 6



апреля 2017 года № 187. Республиканскому образовательному центру совместно с территориальными управлениями народного образования поручено организовать широкую разъяснительную работу по содержанию базового учебного плана и документов, связанных с его исполнением, на августовских советах и непосредственно в педагогических коллективах.

1. "Государственный образовательный стандарт высшего образования. Основные положения" (далее-государственные образовательные стандарты) устанавливают: общие требования к качеству подготовки кадров, содержанию образования; необходимый и достаточный уровень подготовки обучающихся и общие квалификационные требования к выпускникам высших учебных заведений; объем учебной нагрузки; порядок и механизм оценки деятельности образовательных учреждений и качества подготовки кадров.

2. Государственные образовательные стандарты являются основой для разработки соответствующих документов, регламентирующих образовательный процесс, деятельность образовательных учреждений, оценку качества подготовки кадров, учебников и учебных пособий (квалификационные требования к специальностям бакалавриата и магистратуры, учебные планы, учебные программы и др.).

3. Государственные образовательные стандарты являются обязательными для всех высших учебных заведений, осуществляющих подготовку кадров на основе государственных образовательных стандартов Республики Узбекистан, независимо от ведомственной подчиненности и форм собственности при подготовке кадров с высшим образованием. Негосударственные образовательные организации могут осуществлять образовательную деятельность на основе самостоятельно разработанных и указанных в лицензии учебных программ.

Слово Standard происходит от английского слова «Standard», что означает норма, размер, шаблон. Стандарт-это нормативный документ, разработанный на основе соглашения большинства заинтересованных сторон и направленный на оптимальную сортировку в определенных областях, а также утвержденный органом, в котором установлены и признаны общие и многократно применяемые общие правила, описания, требования и методы, применимые к различным видам или результатам деятельности. Стандарты должны основываться на обобщенных результатах науки, технологий и экспериментов и должны быть направлены на достижение высокого уровня выгоды для общества. Стандарты действуют на международном, региональном, межгосударственном, национальном и корпоративном уровнях в зависимости от их уровня. Государственные стандарты направлены на ускорение создания и освоения высококачественных видов новой продукции на этапе разработки изделия и его внедрения в производство, улучшение взаимоотношений между производителем, изготовителем и потребителем. Система стандартизации предусматривает своевременную выдачу качественной проектно-конструкторской документации на новую продукцию, подготовку новой продукции предприятия по заданным показателям качества и, при необходимости, снятие продукции с производства.

Слово "метрология" происходит от греческого metros-чтение о широте, означающее чтение широты и Логоса, а в более конкретном смысле-наука об измерениях. Задача современной исторической метрологической науки-осветить историю единиц измерения,

применявшихся в разные периоды исторического развития человечества, и их соответствие единицам измерения настоящего времени, донести до будущих поколений бесценное наследие наших предков. Историческая метрология необходима при изучении социально-экономической, хозяйственной, правовой, культурной истории. Развитие измерений связано прежде всего с производственными ситуациями общества.

Некоторые источники отмечают появление термина метрология в книгах и трактатах с конца XIX века. В то время как основы измерительной науки были заложены нашими предками очень давно.

Ряд сведений об измерениях и единицах измерения приводится в трудах великого ученого Абу Абдаллаха Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми, а великий ученый Ахмад Фергани первым в мире (в 861 году) открыл прибор, измеряющий уровень воды, изготовил и применил его на практике.

С помощью различных международных организаций, разрабатывающих нормативные документы в области стандартизации, метрологии, сертификации, обобщающих передовые достижения стран мира в этих областях и оказывающих различную помощь в этих областях, международная организация по стандартизации, международная электротехническая комиссия, международная организация по легализации в области метрологии, европейская организация по качеству, международная конференция по аккредитации испытательных лабораторий, западноевропейская региональная и региональная экономические организации, активно действует арабская организация по стандартизации и метрологии и др.

Первая национальная организация по стандартизации – Британская ассоциация (British engineering Standards association) была создана в 1901 году, чуть позже, во время Первой мировой войны, были созданы датское бюро, немецкое бюро (1918 г.), американское бюро (1918 г.) и другие.

Работа в области стандартизации потребовала создания Международного центра. С этой целью в 1926 году возникла Международная Ассоциация национальных организаций по стандартизации (ISA). В состав МСА вошли представители 20 стран.

В 1938 году в Берлине открылся Международный съезд по стандартизации. В нем было создано 32 организации и подразделения по различным отраслям техники. Начавшаяся в 1939 году Вторая мировая война приостановила деятельность ИСА.

Нынешняя международная организация по стандартизации (International Standards Organization) была создана в 1946-1947 годах, ее кратко называют ISO. Эта влиятельная организация работает и развивается в рамках Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций.

Основной целью создания ISO является содействие развитию Всемирной стандартизации для содействия международному обмену товарами и взаимопомощи, а также содействие развитию сотрудничества в области умственной, научной, технической и экономической деятельности.

Для достижения этих целей:

- принять меры для содействия гармонизации стандартов во всем мире и в смежных областях;

- разработка и публикация международных стандартов (стандарт может быть одобрен, если за каждый стандарт проголосуют от двух до трех процентов его активных организационных и подкомитетов и если за него проголосуют три четверти от общего числа голосующих);

- организация обмена информацией о работе членов своей организации и технических организаций;

- предусматривается сотрудничество с другими международными организациями, заинтересованными в отраслевых вопросах.

На международном уровне существует также международная организация, которая легализует метрологию. В сокращенном виде она называется МОЗМ (международная организация законодательной метрологии). Основная цель этой организации-координация деятельности государственных метрологических служб и других национальных учреждений на международном уровне.

#### **REFERENCES**

1. Saydaliyev S. S., Gulomova N. X. DAVLAT STANDARTI ASOSIDA CHIZMALARNI TAXT QILISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 10. – С. 734-745.
2. Eshmuradov D. et al. STANDARTILASHTIRISH, SERTIFIKATLASH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARI SOHASIDAGI ME’YORIY HUJJATLAR //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A8. – С. 595-600.

TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDAGI  
BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI (FRAZEOLOGIZM VA  
MAQOLLAR MISOLIDA)

Noryigitova Mohinur

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

Qobilov Mirziyo

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7901965>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida keltirilgan iboralar va maqollarning lingvistik tahlili berib o‘tiladi.

*Kalit so‘zlar:* barqaror birikmalar, frazeologizm, maqol, lingvistik tahlil, Tog‘ay Murod.

LINGUISTIC ANALYSIS OF STABLE COMPOUNDS IN TOGAI MURAD'S  
WORK "PEOPLE WALKING ON THE MOON" (AS EXAMPLES OF PHRASEOLOGY  
AND PROVERBS)

*Abstract.* this article gives a linguistic analysis of the phrases and proverbs presented in the work of Tog‘ay Murad “People walking in moonlight”(Oydinda yurgan odamlar).

*Keywords:* stable compounds, phraseologism, proverb, linguistic analysis, Tog‘ay Murad.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ СОЕДИНЕНИЙ В  
ПРОИЗВЕДЕНИИ ТОГАЯ МУРАДА «ЛЮДИ, ИДУЩИЕ ПО ЛУНЕ» (НА  
ПРИМЕРАХ ФРАЗЕОЛОГИИ И ПОСЛОВИЦ)

*Аннотация.* В данной статье проводится лингвистический анализ фраз и пословиц в произведении Тогая Мурада «Люди на Луне».

*Ключевые слова:* устойчивые сочетания, фразеологизм, пословица, лингвистический анализ, дядя Мурад.

O‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarini lingvistik tahlil qilar ekanmiz unda qo‘llanilgan barqaror birikmalar albatta, e‘tiborimizni tortadi. Yozuvchi o‘zining bu asarida ibora va maqollardan o‘z o‘rnida va unumli foydalangan bu esa asarning yanada badiiyligini oshirishga yordam bergan.

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janri-dir<sup>25</sup>[4: 1.].

Bilamizki, yolg‘izlik faqat yaratgangagina xosdir. Xalqimizda azal-azaldan oila muqaddas hisoblanadi. Tog‘ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida jamiyatning bir bo‘lagi oila va uning tayanchi farzand ekanligi haqida ko‘plab ma-qollar uchraydi. Aynan kommunikativ niyatning maqollar orqali yetkazib berili-shini ushbu asarda ko‘rishimiz mumkin. Grammatik jihatdan gap holda shakl-langan, xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan barqaror birikma maqol deyiladi. Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma‘naviy boyligi hisoblanadi. Faqat shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatlarga ega deyiladi. Misol: To‘g‘ri o‘zadi, egri ozadi.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil top-gan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til

<sup>25</sup> Tuzuvchilar: f.f.d, prof To‘ra MIRZAYEV, f.f.d, prof Asqar MUSOQULOV, f.f.d, prof Bahodir SARIMSOQOV ”O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI” «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi. Bosh tahririyati, 2005. I-bet.

birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birik-maning bir guruhi tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yax-litlikni vujudga keltiradi. Koʻpincha maʼnosi bir soʻzga teng va koʻchma maʼnoda boʻladi. Soʻzning bunday barqaror bogʻlanmasi ibora (frazeo-logik birlik, frazeolo-gik birlikma, frazeologizm)dir.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

- 1.Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
- 2.Maʼno butunligi.
- 3.Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan oʻrinli foydalanish nutq goʻzalligini taʼminlaydi, shuning uchun ular nutqimiz koʻrki hisoblanadi. Barqaror birikmalarni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi paremiologiya (lot. parema- barqaror, logos- taʼlimot), barqaror birikmalar lugʻatini tuzish muammolarini oʻrganuvchi boʻlimi esa paremiografiya (lot. parema-barqaror, grapho – yozaman) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga koʻra umumiylikni tashkil etsa ham, maʼno butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga koʻra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

- 1.Frazeologizmlar.
- 2.Maqqol va matallar.
- 3.Aforizmlar.

Qismlari qatʼiy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, koʻchma maʼno anglatib, gapda butunligicha bir boʻlak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birlikma, frazeologik birlikma (ibora)deyiladi:

Eshon mayizning tagiga **turna ekibdi** (“tugatmoq”).

“Oydingda yurgan odamlar” asarida keltirilgan iboralar:

- 1.Boshiga baxt qushi qoʻnmoq-omadi kelmoq

Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin, maqsadga oʻtdi.

- Singlingning **boshiga baxt qushi qoʻnib** turibdi, qassob, uchirib yubormasang boʻldi,- dedi.

(5-bet)

- 2.Mijozi xush koʻrmoq –yaxshi munosabatda boʻlmoq, yaxshi koʻrmoq, yoqtirmoq

U **mijozi xush kelmish** odamlar bilan salom-alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin dildan gapirishadi. Ochilib gurunglashadi. (5-bet)

- 3.Quyib qoʻyganday tortmoq-juda ham oʻxshamoq

-Esonboy otasiga tortmabdi...

-Noshukur boʻlmang, Esonboy otasiga **quyib qoʻyganday tortadi**. (8-bet)

- 4.Koʻzlari olma termoq-alanglamoq, qoʻrqmoq.

Yanga boʻlmish qoboq uydi...

Shunda... shunda, sagʻir nafas olmadi! Sagʻir koʻzlari pir-pir etdi. Sagʻir **koʻzlari olma terdi**. (8-bet)

- 5.Qoʻli kalta –moddiy ahvoli yomon, kambagʻal

**Qoʻli kalta** moʻminlar qassobdan goʻsht oldi. Ahli moʻminlar hayitlik kiydi. Bisotida borlar ohorli kiyim kiydi. Bisotida yoʻqlar koʻhna boʻlsa-da ,ozoda kiyim kiydi. (28-bet)

- 6.Qildan qiyiq qidirmoq-kamchiligini topmoq.



Oqibat, **qildan qiyiq qidiradi**. Qandayin yo‘l bilan bo‘lsa-da, o‘z galar muvaffaqiyatini kamsitadi. O‘z galar muvaffaqiyatini yerga uradi. (69-bet)

**“Oydinda yurgan odamlar” asarida keltirilgan maqollar:**

1. Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar.

- **Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar**, - dedi qassob. - Kim ekan, u? (5-bet)

2. Bolali uy xandon, bolasiz uy zindon.

**Bolali uy xandon bo‘ldi, bolasiz uy zindon bo‘ldi!**

Oymomo ko‘z qirida Qoplonga qaradi. Kiprikleri piriqiradi. Ko‘z qirini olib qochdi. (43-bet)

3. Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t.

- Sen qatorilar bolali bo‘ldi, - dedi otasi. - O‘g‘li borning o‘zi bor, qizi borning izi bor.

- Umr o‘tyapti. **Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t**. (44-bet)

4. Olisdagi palovdan yaqindagi sho‘rva yaxshi.

Yo‘l olis bo‘lsa, yana tag‘in to‘qson so‘mlik qorovullik bo‘lsa, nimasiga orzumand bo‘lasiz, demaydimi? **Olisdagi palovdan yaqindagi sho‘rva yaxshi**, demaydimi? (45-bet)

5. Elakka borgan ayolni ellik og‘iz gapi bor.

Keyin, eshitmish-bilmish ig‘volardan gapirdi. Ta‘bi xushlamovchi ayollar g‘iybatini qildi.

**Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor**, bo‘ldi! (78-bet)

6. Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi.

- dedi. **Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi!** Qo‘ying, do‘stim, shunga teng bo‘lmasin! (110-bet)

Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi bir necha misollarni tahlil qildik. Asarda ishlatilgan iboralar va maqollar bugungi kunda ham xalq tilida sermahsul ishlatilini b kelinmoqda. Lekin bazi birlari borki, ular xalq tilida kam ishlatiladi. Masalan: **Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi** maqoli bugungi kunda xalq tilida kam qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ibora va maqollarni o‘z ichiga olgan badiiy asarlarni tahlil qilish kitobxonlarni badiiy asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi va asardagi g‘oyani yanada yaqqol ochib berishga yordam beradi. Shuningdek, ibora va maqollarni o‘rganish kitobxonlarning savodxonligini shu bilan birgalikda so‘z boyligini ham oshirishda muhim vazifa bajaradi.

**REFERENCES**

1. B.Mengliyev. ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T:”Tafakkur bo‘stoni”2018
2. T.Murod. ”Oydinda yurgan odamlar” T: “Nurafshon-Kitob-Ta’minot”
3. Sh. Rahatullayev. ”O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”.
4. Tuzuvchilar: f.f.d, prof To‘ra Mirzayev, f.f.d, prof Asqar Musoqulov, f.f.d, prof Bahodir Sarimsoqov”O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI”«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi. Bosh tahririyati, 2005.

**YOSH FUTBOLCHILAR TEXNIK TAYYORGARLIGINING MUSOBAQA  
FAOLIYATIGA TA'SIRI**

**O.R.Igamberdiyev**

O'zDJTSU P.f.b.f.d.

**Toshpulatov Abbos Saidmurodovich**

O'zDJTSU 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902024>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada yosh futbolchilar texnik tayyorgarligining musobaqa faoliyatiga ta'siri haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* yosh futbolchilar, texnik tayyorgarlik, asosiy mezon.

**THE EFFECT OF TECHNICAL TRAINING OF YOUNG PLAYERS ON  
COMPETITION ACTIVITY**

*Abstract.* This article talks about the influence of the technical training of young players on the activity of the competition. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

*Key words:* young players, technical training, main criteria.

**ВЛИЯНИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ИГРОКОВ НА  
СОРЕВНОВАТЕЛЬНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ**

*Аннотация.* В данной статье говорится о влиянии технической подготовки юных игроков на конкуренцию. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* юные игроки, техническая подготовка, главный критерий.

Futbolchilar tayyorgarligining asosiy mezoni musobaqa faoliyati bo'lib, u o'yin natijasi va murabbiyning ekspert bahosi bilan bir qatorda tezkor ish hajmi, shuningdek, texnik-taktik harakatlar miqdori va aniqligi bilan tavsiflanadi. O'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligining joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Musobaqa faoliyatini qayd etish mamlakatimiz va chet el sportchilarining har bir muayyan o'yinida o'yinchilarning faoliyatlari haqida juda ko'p materiallar yig'ishga imkon berdi. Lekin yosh futbolchilarda bu tadqiqotlar epizodik xususiyatga ega bo'ldi, shuning oqibatida mazkur muammo deyarli o'rganilmaganicha qolmoqda. Masalan, A.V.Petuxov (104) malakali hamda 11-12 yoshli futbolchilar musobaqa faoliyatini taqqoslar ekan, texnik-taktik harakatlarning ko'pgina miqdoriy-sifat o'lchamlari borasida mohir futbolchilar ishonchli ustunlikka ega ekanliklarini aniqladi. Texnik-taktik harakatlarni bajarish ishonchliligi malakali futbolchilarda – 70 %, yoshlarda – 52 %. Bu yosh futbolchilar texnik-taktik tayyorgarlik darajasini past deb baholashga asos bo'ladi. Bunda bolalar-o'smirlar futboli rivojiga to'siq bo'layotgan ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatli shart-sharoitlarning butun bir majmuasi ajratib ko'rsatiladi.

Olingan natijalar yosh futbolchilarning sport natijalariga erishuvda jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishni tashkil etuvchi sifatlar yetakchi ahamiyatga ega ekanligidan, texnik-taktik imkoniyatlar esa sport natijasiga hal etuvchi ta'sir ko'rsata olmasligidan dalolat beradi. Musobaqalar o'tkazishning ko'rib chiqilgan shartlari yosh futbolchilarning imkoniyatlariga to'la javob bermaydi. Bunday sharoitda o'yinlar qattiq tezkorlik-kuch xususiyatlariga ega bo'lib, ularda uzoq masofaga noaniq uzatishlar va yakkama-yakka ko'rashlar ko'payib ketadi, bu erta yetilgan,

ya'ni texnik-taktik jihatdan yutqizsa ham yaxshiroq jismoniy rivojlanish hisobiga ustunlikka ega bo'lgan o'g'il bolalardan foydalanishni taqozo etadi. Musobaqa o'tkazish shartlariga kiritilgan tahrirlardan so'ng yakama-yakka kurashlar miqdorining 18,7 ta usulgacha ishonchli kamayishi yuz berdi. Uzoq masofaga uzatishlar miqdori birmuncha kamaydi, qisqa va o'rta masofaga uzatishlar soni esa ortdi. Aldab o'tish hamda to'pni olib qo'yish kabi texnik-taktik harakatlarning 1,5 barobardan ortiqroqqa keskin ko'payishi alohida kuchli o'yinchilar qiymati oshishiga olib keladi hamda ulardan o'yinda unumli foydalanishni ko'zda tutadi, bu esa sport natijasida ham aks etadi. Shu tariqa golli vaziyatlar miqdori 82,5 % ga oshadi.

Funksional holatni aniqlash, jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadida 15-17 yoshli futbolchilar ustida tadqiqotlar o'tkazildi. Musobaqa faoliyati tahlilining ko'rsatishicha, (TSHFBDIMI) Toshkent shahar futbol bo'yicha Davlat ixtisoslashtirilgan maktab internati 15-17 yoshli futbolchilari bir o'yinda o'rtacha 478-526 ta texnik-taktik harakatni amalga oshiradilar, xatolar esa 34-36 %. Agar qisqa uzatishlar hisobga olinmasa, u holda 312-372 texnik-taktik harakat va 39-40 % xato, ya'ni yosh futbolchilar qisqa uzatishlarni ko'proq qo'llaydilar.

Bu yoshda o'yinda texnik-usullarni ko'proq qo'llash xususiyati qayd etiladi: Himoyachilar - qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, to'pni olib qo'yish, bosh bilan o'ynash, to'pni yo'l-yo'lakay tutib qolish, uzoq masofaga uzatishlarni eng yuqori - 47-51 % xatolar bilan, to'pni olib qo'yishni -33-35 %, bosh bilan o'ynashni -34-47 %, aldab o'tishni -31-39 % xato bilan bajarishi aniqlandi. Yarim himoyachilar -qisqa, o'rta, uzoq masofaga to'p uzatishlar, to'pni olib yurish va raqibni aldab o'tish, uzoq masofaga uzatishlarni bajarish vaqtida xatolar foizining eng yuqori darajasi -47-48 %, aldab o'tishda -36-37 %, bosh bilan o'ynashda -36-40 %, darvozaga zarba berishda -47-51 % bilan bajarishi aniqlandi. Hujumchilar -qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, darvozaga zarba berish, uzoq masofaga to'p uzatishlarni bajarishda xatolar foizi 46-47 %, darvozaga zarba berishda -53-66 %, to'pni olib qo'yishda -34-41 %. To'pni olib yurish va aldab o'tishdan kamroq foydalanishlari ma'lum bo'ldi.

1) Yosh futbolchilar faoliyati samaradorligi yuqori hujum faolligi hamda hujum va himoya harakatlarining aniqligini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Faoliyatning eng muhim xususiyatlari umumiy aniqlik, tashabbus, himoya faolligi ko'rsatkichlari sanaladi. Ular yordamida muayyan yoshlar jamoalarining samaradorligi darajasiga qiyosiy baho berish, shuningdek, alohida o'yinchilarning jamoa faoliyati samaradorligiga qo'shgan hissasini baholash mumkin.

2) Musobaqa faoliyati ishonchliligi: hujum harakatlari yuksak darajadagi faolligi hamda aniqligi, mudofa faolligining eng maqbul darajadagi ifodaliligi, mudofa harakatlarining aniqligi yordamida ta'minlanadi. Ekstremal sharoitlardagi faoliyatni tashkil qilishda xatoliklar va tashabbus ko'rsatkichlari jiddiy ahamiyatga ega.

3) Yosh futbolchilar musobaqa faoliyati va shaxsiy xususiyatlari tahlili aniqlikning turli xillari bilan tavsiflanuvchi uch guruhni farqlab ko'rsatishga imkon beradi: ishonchli yoki ishonchsiz. Tayyorgarlikning aniqlangan turlarini qayd etish o'yinchilar texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirishga ko'maklashadi.

Yosh futbolchilar tayyorgarligi tizimining eng muhim elementlaridan biri majmualari nazoratdir.

Pedagogik kuzatuv ma'lumotlarini o'rganish natijasida ayon bo'ldiki, kichik yoshli maktab o'quvchilari tashkil etgan to'pli o'yinlar bir vaqtda ishtirok etuvchilar miqdori kam bo'lgan sharoitda, kichkina o'yin maydonchalarida o'tkaziladi. Bir vaqtda ishtirok etuvchilar soni ikki kishidan o'n kishigacha bo'lishi mumkin. Ularning soniga qarab maydonchalarning o'lchami (m):

10x5; 10x10; 15x15; 20x15; 30x20; 40x30 ni tashkil etadi. O‘yin elementlaridan darvozaga zarba berish elementi ustida alohida to‘xtash lozim. Yosh futbolchilarning ko‘rib chiqilayotgan barcha yosh guruhlari mazkur texnik usul musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar umumiy miqdorining ko‘pi bilan 5%ni tashkil etadi. Bu, o‘quv-mashg‘ulot jarayonida darvozaga zarba berishga u qadar ahamiyat bermasa ham bo‘ladi, degani emas. Shuni yodda tutish kerakki, musobaqa faoliyati tizimini shunga o‘xshash tarzda qurish yuqori malakali futbolchilarga ham xos.

Musobaqa faoliyati xususiyatlarini o‘rganish yosh futbolchilar tayyorgarligining deyarli o‘rganilmagan jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu sohadagi yangi ma‘lumotlar yosh sportchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish hamda mamlakat terma jamoasiga malakali zahira tarbiyalab berish uchun imkoniyat yaratadi.

### REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов, Ш. У. "Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш." *Fan-Sportga* 6 (2020): 17-19.
3. Абидов, Шавкат. "Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш." *O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari* 1.7 (2022).
4. Abidov Sh. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg‘ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o‘zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta‘sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
5. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
6. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
7. Артиқов АА Футболчиларнинг, техник усуллари аниқлигини. "такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили." *Фан-Спортга.–2020* 3 (2020): 16-18.
8. Бозоров С. Р., Олимжонов Б. Дастлабки тайёрлов гуруҳи босқичида шуғулланувчи болларни машғулотларини ташкил этиш //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 13-17.
9. Бозоров, Сирожиддин Рустам Ўғли. "Спортчиларни шуғулланганлик даражасини аниқлашнинг замонавий усуллари таҳлили (футбол спорт тури мисолида)." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.2 (2022): 410-419.
10. Igamberdiyev, Obidjon. "YOSH FUTBOLCHILARNI TANLAB OLISH VA SELEKSIYALASHDA YANGI TADQIQ QILISH USLUBIYATLARI." *Академические исследования в современной науке* 1.17 (2022): 159-165.

11. Igamberdiyev, Obidjan. "THE EFFECTIVENESS OF USING TESTS FOR ASSESSING THEIR MOTOR SKILLS IN THE SELECTION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.4 (2023): 451-456.
12. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." *Автореф. дисс. н. ф. б. ф. д (PhD)–Чирчиқ* 58 (2022).
13. Игамбердиев О.Р. Кўп йиллик тайёргарликнинг дастлабки босқичларида футболчиларни саралаб олишнинг илмий – назарий асослари. // *Fan – sportga* • №8/2022.
14. Игамбердиев О., Бозоров Ф. ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ // *Академические исследования в современной науке.* – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 169-173.



## 10-12 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI TADQIQ QILISH

N.M.Yusupov

O'zDJTSU dotsenti

**Toshpulatov Abbas Saidmurodovich**

O'zDJTSU 2-bosqich, M 56-21 guruh magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902091>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada 10-12 yoshli futbolchilarning texnik tayyorgarligini tadqiq qilish haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* yosh futbolchilar, texnik tayyorgarlik, asosiy mezon.

### RESEARCH OF TECHNICAL TRAINING OF 10-12-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS

*Abstract.* This article is about researching the technical training of 10-12-year-old football players. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

*Key words:* young players, technical training, main criteria.

### ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ 10-12 ЛЕТ

*Аннотация.* Данная статья посвящена исследованию технической подготовки футболистов 10-12 лет. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* юные игроки, техническая подготовка, главный критерий.

Bolalar-o'smirlar sport sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar olimlar diqqatining dasturiy-usuliy hujjatlarda asosiy bo'limlar mazmunini takomillashtirishga qaratilayotganligi bilan tavsiflanadi. Olimlar bugungi kunda mamlakatimiz futbolchilari to'pni boshqarish texnikasi bobida eng kuchli chet el o'yinchilaridan orta qolayotganliklarini qayd etmoqdalar, bu esa amaliyotga ko'p yillik tayyorgarlikning dastlabki bosqichlaridanoq mashg'ulotlarni tashkil etishning yangicha asoslangan usularini tatbiq etishni talab qilmoqda.

Mamlakatimizdagi qator futbol mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'zbek futbolchilarining eng yaxshi chet ellik futbolchilardan ortda qolayotganligini, eng avvalo yosh futbolchilarning tayyorgarligida eng dastlabki bosqichlardanoq nuqsonlar mavjudligi bilan izohlash mumkin. Yosh futbolchilarni tayyorlash – ilmiy - tadqiqot ma'lumotlariga hamda mamlakatimiz va horij mutaxassislarining ilg'or tajribalariga tayanadigan uzoq muddatli, serqirra jarayondir. Biroq hozirgi paytgacha yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatiga xos yosh xususiyatlari muammosi deyarli o'rganilmagan. Afsuski, BO'SM va OZIBO'SM uchun amaldagi o'quv dasturlarida o'z aksini topgan ushbu holat futbolchilarning texnik tayyorgarligi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam bermaydi.

Yosh futbolchilar musobaqa faoliyati tuzilishining yosh dinamikasi xususidagi ilmiy ma'lumotlarning yo'qligi, ayniqsa, to'pni boshqarish texnikasini o'rgatishning dastlabki bosqichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Oqibatda, boshlang'ich bosqich usuliyatidagi bir qator masalalar, xususan, o'yin texnikasining alohida elementlarini o'rgatish izchilligi to'g'risidagi masala ochiq qolmoqda, bu esa keyinchalik, ma'lum ma'noda umuman texnik mahorat darajasini

chegaralab qo‘yadigan omilga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham futbolchilarning texnik takomillashuviga yangi usuliy yondashuv yo‘llarini izlash muammosi dolzarb hisoblanadi.

Futbolchilar sport mahoratining asosi texnik tayyorgarlik bo‘lib, uning darajasini ko‘p jihatdan o‘yinning samaradorligi va tomoshabopligi bilan belgilaydi. Boshqa tomondan, futbol mutaxassislari o‘zbek futbolchilarining to‘pni boshqarish texnikasi borasida eng kuchli chet el futbolchilaridan muayyan darajada ortda qolayotganliklarini qayd etmoqdalar. Yaqin vaqtgacha bu yuqori malakali jamoalarning muammosi edi, endilikda u yosh futbolchilarga ham taalluqli. O‘rta qolishning alohida tarkibiy qismlaridan biri sifatida, xususan, to‘pni qabul qilish va uning nazorati bilan bog‘liq harakatlarni tezkor faoliyatlarda samarali bajarish qobiliyati ko‘rsatiladi. Birinchi navbatda, bu sport maktablarida o‘rgatish jarayoni va mashg‘ulotlarning uncha yuqori bo‘lmagan darajasi, texnik tayyorgarlik usuliyatidagi xatolar, murabbiylarning ma‘lum bir qismida bolalar va o‘smirlar bilan ishlashga ijodiy yondashuvning yo‘qligi tufaylidir. O‘zbek futbolida ijrochilarning cheklangan imkoniyatlari – zahira tayyorlashda ko‘p yillar davomida atletizmning ustuvor bo‘lganligi natijasi. Futbol taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘yin shiddati o‘zib boryapti, bu o‘yinchidan, eng avvalo, kutilmaganda o‘zgaradigan vaziyat, chegaralangan vaqt va makon sharoitida texnik-taktik usullarni tez va samarali bajara bilishni talab etadi.

Bugungi kunda muvaffaqiyatlarga erishishni istagan jamoa tez o‘ynashi, ya‘ni oqilona texnikaga ega bo‘lgan va uni tezkor harakatlar bilan uyg‘unlashtira oladigan o‘yinchilardan iborat bo‘lishi lozim. Shunga ko‘ra ayrim futbol mutaxassislari “tezkor texnika” degan atamani qo‘llaydilar. Hujum va himoya orasidagi kurashlar o‘z zaminida fintlar, dribling va tez hamda aniq yashirin uzatishlar yotadigan o‘tkir texnika yordamidagina hujum foydasiga hal bo‘lishi mumkin. Mamlakatimiz va chet el mutaxassislarning fikricha, ommaviy mudofa chog‘ida golli holatlar faqat to‘pni oqilona, tez va aniq qabul qilish orqali yuzaga keltiriladi. Bunday sharoitda, odatda, to‘pli o‘yinchi yoki uning sheriklari ikki-uch raqibni ishonch bilan aylanib o‘tish ko‘magidagina zarba berish mumkin bo‘lgan vaziyatga chiqa oladilar. Biroq bu, ayniqsa, fintlar, aldab o‘tishlar bobidagi alohida mahorati g‘ayri-oddiy darajada yuksak bo‘lgan futbolchilarninggina qo‘lidan keladi.

Texnik ko‘nikmalar oddiy, tezkor va maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Ilgari juda muhim sanalgan texnik usullar, masalan, to‘pni butunlay to‘xtatish o‘yinda juda kam qo‘llanadigan bo‘ldi, zero, zamonaviy oqilona o‘yinda to‘pni to‘xtovsiz ravishda harakatga uzatishga o‘tib borilyapti. Ikkinchi tomondan, ayrim texnik usullar katta ahamiyatga ega bo‘lib qoldi. Bu yerda gap fintlar, aylanib o‘tish, yashirin uzatish ustida ketyapti. Ammo aylanib o‘tishni o‘yinchilar juda yaxshi o‘zlashtirib olganlaridagina u muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Shuning uchun texnik tayyorgarlik ko‘p yillik jarayonning mantiqiy bir halqasi hisoblanadi va uning har bir bosqichi o‘z muayyan maqsadlari, vazifalariga ega. Axir, dastlabki o‘rgatish bosqichida o‘yin usullarini o‘zlashtirib olishdagi qayd etilgan orqada qolishlar futbolchilarning keyingi tayyorgarligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Texnik tayyorgarlik turli mashg‘ulot vositalarining tasodifiy yig‘indisi bo‘la olmaydi. Muhimi, shunday vositalarni tanlab olish kerakki, ular ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining har bir bosqichida o‘yin texnikasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga zarur ijobiy ta‘sir o‘tkazsin. Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligida tizimli yondashuv tasodifiy hol emas. Uni texnik tayyorgarlikning yetilgan muammosini hal etish va muayyan usuliyat yordamida boshqariladigan o‘rgatish jarayonini yaratish zarurati taqozo etadi. Tizimli yondashuv tayyorgarlikning barcha

elementlarini yagona dinamik tuzilmaga birlashtirish va hisobga olishni nazarda tutadiki, bunda har bir element u yoki bu texnik usulning dinamikasi va mukammalligi darajasini ajratishga imkon beradigan tizimli sifatga ega.

Ma'lumki, texnik mahorat futbolchi biladigan texnik usullarning hajmi va serqirraligi, shuningdek, ularni o'yin sharoitida samarali qo'llash malakasi bilan tavsiflanadi. Futbol texnikasi to'p bilan muomala qilish uslublari va usullarlarining katta guruhi yig'indisidan iborat ekan, uni o'rganish murakkab va uzoq jarayonga aylanadi.

Kam vaqt va kuch sarflab o'rgatish masalalarini hal etishda o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish va texnikaga o'rgatishning oqilona izchilligini aniqlash katta ahamiyatga ega.

## REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов, Ш. У. "Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш." *Fan-Sportga* 6 (2020): 17-19.
3. Абидов, Шавкат. "Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш." *O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari* 1.7 (2022).
4. Абидов Ш. У., Уматқулов Ж. А. Соғлом турмуш тарзи–машғулотларни асосий мақсади сифатида //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 4-8.
5. Abidov Sh. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg 'ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o 'zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta'sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
6. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
7. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
8. Артиқов, АА. "Футболчиларнинг техник усуллари аниқлигини такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили." *Фан-спортга* 3 (2020): 16-18.
9. Артиқов АА Футболчиларнинг, техник усуллари аниқлигини. "такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили." *Фан-Спортга.–2020* 3 (2020): 16-18.
10. Бозоров С. Р., Олимжонов Б. Дастлабки тайёрлов гуруҳи босқичида шуғулланувчи болларни машғулотларини ташкил этиш //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 13-17.
11. Бозоров, Сирожиддин Рустам Ўғли. "Спортчиларни шуғулланганлик даражасини аниқлашнинг замонавий усуллари таҳлили (футбол спорт тури

- мисолида)." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.2 (2022): 410-419.
12. Igamberdiyev, Obidjon. "YOSH FUTBOLCHILARNI TANLAB OLISH VA SELEKSIYALASHDA YANGI TADQIQ QILISH USLUBIYATLARI." *Академические исследования в современной науке* 1.17 (2022): 159-165.
  13. Igamberdiyev, Obidjan. "THE EFFECTIVENESS OF USING TESTS FOR ASSESSING THEIR MOTOR SKILLS IN THE SELECTION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.4 (2023): 451-456.
  14. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." *Автореф. дисс. н. ф. б. ф. д (PhD)–Чирчиқ* 58 (2022).
  15. Игамбердиев О., Бозоров Ф. ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 169-173.

## O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHI FUTBOLCHILARINI TEZKORLIK SIFATINI TARBIYALASH

O.R.Igamberdiyev

O‘zDJTSU. P.f.b.f.d

Kenjayev Dilmurod Jo‘lli o‘g‘li

O‘zDJTSU. 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7901979>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhi futbolchilarini tezkorlik sifatini tarbiyalash haqida so‘z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* yosh futbolchilar, texnik tayyorgarlik, asosiy mezon.

## EDUCATING THE QUALITY OF QUICKNESS OF PLAYERS OF THE TRAINING GROUP

*Abstract.* This article talks about training the quality of agility of players of the training group. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

*Key words:* young players, technical training, main criteria.

## ВОСПИТАНИЕ КАЧЕСТВА БЫСТРОТЫ У ИГРОКОВ ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ

*Аннотация.* Данная статья посвящена тренировке качества ловкости игроков тренировочной группы. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* юные игроки, техническая подготовка, главный критерий.

**Tezlik qobiliyatlari, bu – harakatli holatlarni bajarish tezligini ifodalovchi individual (yakka) xususiyatlar yig‘indisidir.** Asosiy tezlik qobiliyatlari sirasiga quyidagilar kiradi: oddiy va murakkab harakatli holatlarning tezligi; tashqi qarshilikka ega bo‘lmagan alohida harakatlar tezligi; harakat sur‘ati (chastotasi)da aks etadigan tezlik.

Oddiy **harakatli holat** tezligi qaysi bir holatga bo‘lgan reaksiya vaqti bilan xarakterlanadi. Agar reaksiya oldindan aniq, kutilmaganda paydo bo‘ladigan signalga ma‘lum harakat orqali amalga oshsa, unda bu reaksiya oddiy reaksiya hisoblanadi. Bunga misol tariqasida start olayotgan sportchining tovush yoki muxlislar ta‘siriga bo‘lgan reaksiyasini olishimiz mumkin.

Harakatli reaksiyaning latent vaqti quyidagi fiziologik jarayonlarning reaksiyasi davrining tezkor o‘tish vaqti bilan ifodalanadi:

- retseptorda his-hayajonning paydo bo‘lishi;
- his-hayajonning markaziy asab sistemasiga o‘tishi;
- his-hayajonning asab yo‘llariga o‘tishi va effektor signalning shakl-lanishi;
- signalning markaziy asab sistemasidan mushaklarga o‘tishi;
- mushaklarning his-hayajonlanishi va unda mexanik faollikning paydo bo‘lishi.

Oddiy harakatli reaksiyasi yetarli darajada rivojlangan sportchilar ancha murakkab harakatli holatlarni, vazifalarni boshqalarga nisbatan osonroq o‘zlashtiradilar. Reaksiyaga bo‘lgan qobiliyat tegishli mashqlarni bajarishda mustahkamlanadi. Mustahkamlashning birinchi bosqichida kutilmaganda paydo bo‘ladigan signalga qayta javob berish ancha samaralidir (yugurishda start olish, signalga ko‘ra harakatning boshlanishi va o‘zgarishi, hujumkor va himoyaviy harakatlar). Ayniqsa, juda foydali usullardan – sportchining oxirgi bo‘lib reaksiya ko‘rsatganligi uchun



musobaqadan chiqib ketishi bilan bog'liq musobaqa usuli hamda ruhiy konsentratsiyani yarata oladigan o'yin usuli hisoblanadi. Ushbu uslublar bo'yicha 4-6 hafta mashg'ulotlar bajarilsa, qoniqarli natijalarga erishiladi. Keyinchalik esa reaksiya tezligi barqarorlashadi va uni mustahkamlash muammoga aylanadi.

Mustahkamlashning ikkinchi bosqichida texnik vositalardan – elektro-sekundomer va sportchining alohida vaziyatlarda harakat reaksiyasi to'g'risida ma'lumot beruvchi turli kontakt maydonchalardan foydalanish zarur. Bu ma'lumot sportchining vaqtni aniq sezishini rivojlantirishga qaratiladi hamda uning reaksiya tezligini yaxshilaydi. Sportchi boshlang'ich signalga juda tez javob qaytaradi. So'ng, mashqning keyingi qismida o'zi reaksiya tezligini baholashga harakat qiladi, undan keyin murabbiy unga vaqtni aytadi. Agar o'zi taxmin qilgan subyektiv baholar tezlik ko'rsatkichi bo'yicha obyektivga to'g'ri kelsa, sportchi oldindan shartlangan reaksiya tezligi bo'yicha mashq bajaradi. Natijada, sportchi harakat reaksiyasi tezligini boshqara bilishni o'rganib oladi, bu esa uning samarali natijalarga erishishiga yordam beradi.

Uchinchi bosqichda harakat reaksiyasi ruhiy nazoratlovchi va ideomotor (obrazli) mashg'ulotlar hisobiga mustahkamlanadi.

**Murakkab harakat reaksiyasi tezligi** noaniq holat va javob harakati bilan ifodalanadi. Murakkab harakat reaksiyalarining ko'pi o'ziga xos vaziyatli sport turlarida ko'rinish beradi (sport o'yinlarida, yakkakurashlarda va boshqalarda). Bu holda qoidaga ko'ra, sportchining oldiga harakatlanayotgan obyektga (to'p, raqib, qurol) javob qaytarish va bir qancha mavjud harakatlardan yagonasini, eng maqbulini tanlash vazifasi qo'yiladi. Masalan, darvozabon to'p darvozaga tepilayotgan paytda to'rtta vazifani bajarishi lozim: to'pni ko'rishi, to'p yo'nalishi va uchish tezligini aniq baholashi, harakat rejasini tanlashi va nihoyat, o'sha rejani amalga oshirishi. Kutilmaganda paydo bo'lgan harakatlanayotgan obyektga javob qaytarish (reaksiya) tezligiga 0,25 dan to 1 soniyagacha vaqt ketadi. Bu yerda ketadigan vaqtning ko'p qismi harakatlanayotgan obyektga ko'z orqali kuzatishga sarflanadi. Katta tezlikda harakatlanayotgan narsani ko'rish ham alohida mashg'ulot talab qiladi va shu maqsadda maxsus mashqlar qo'llaniladi, ya'ni sekin-asta tezlikni oshirib, kutilmaganda paydo bo'ladigan narsalarni ko'paytirib, to'p hajmini kamaytirib, masofani o'zgartirib, texnik vositalardan va trenajyorlardan foydalanib, mashqlarni bajarish tavsiya qilinadi.

Murakkab harakat reaksiyasida bir qancha variantlardan raqib harakatiga va o'yin jarayoniga qarab kerakli javobni aniq tanlashda asosiy qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Yakkakurashlarda hujum qilishning bir qancha variantlaridan javob qaytarish (reaksiya) vaqti ma'lum (1-rasm).



1-rasm

Turli hujumkor harakatlarning qanchalik ortishi bilan himoyalanuvchi shuncha ko'p noaniqlikka duch keladi, bu murakkab harakat reaksiyasi tezligining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun murakkab reaksiyani rivojlantirish uslubida saralash bilan mavjud holatlar sonini sekin-asta oshirish lozim. Masalan, sportchini ikkita mavjud hujumdan bittasiga javob qaytarishga (reaksiya qilishga) o'rgatishadi, keyin uchtdan, so'ng to'rttdan va h.k. Sekin-asta uni yakkakurashning haqiqiy holatiga olib chiqishadi. Mazkur uslub samaradorligining zarurligi shundan iboratki, bir vaqtning o'zida h xam sport-texnik uquvlar, ham koordinatsion (muvozanat) qobiliyatlar hamda taktik fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi. Undan tashqari, murakkab reaksiya trenajyor uskunalaridan foydalanish oqibatida mustahkamlanadi. Yakkalik harakat tezkorligi va harakat chastotasi ham tezlik ko'rinishining biridir.

## REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов, Ш. У. "Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш." *Fan-Sportga* 6 (2020): 17-19.
3. Абидов, Шавкат. "Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш." *О 'zbekiston milliy universiteti xabarlari* 1.7 (2022).
4. Абидов Ш. У., Уматқулов Ж. А. Соғлом турмуш тарзи–машғулотларни асосий мақсади сифатида //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 4-8.
5. Abidov Sh. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg 'ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o 'zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta'sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
6. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
7. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
8. Артиқов, АА. "Футболчиларнинг техник усуллари аниқлигини такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили." *Фан-спортга* 3 (2020): 16-18.
9. Артиқов АА Футболчиларнинг, техник усуллари аниқлигини. "такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили." *Фан-Спортга.–2020* 3 (2020): 16-18.
10. Бозоров С. Р., Олимжонов Б. Дастлабки тайёрлов гуруҳи босқичида шуғулланувчи болларни машғулотларини ташкил этиш //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 13-17.
11. Бозоров, Сирожиддин Рустам Ўғли. "Спортчиларни шуғулланганлик даражасини аниқлашнинг замонавий усуллари таҳлили (футбол спорт тури

- мисолида)." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.2 (2022): 410-419.
12. Igamberdiyev, Obidjon. "YOSH FUTBOLCHILARNI TANLAB OLISH VA SELEKSIYALASHDA YANGI TADQIQ QILISH USLUBIYATLARI." *Академические исследования в современной науке* 1.17 (2022): 159-165.
13. Igamberdiyev, Obidjan. "THE EFFECTIVENESS OF USING TESTS FOR ASSESSING THEIR MOTOR SKILLS IN THE SELECTION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.4 (2023): 451-456.
14. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." *Автореф. дисс. п. ф. б. ф. д (PhD)–Чирчиқ* 58 (2022).
15. Игамбердиев О., Бозоров Ф. ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 169-173.

## BOSHLANG'ICH O'RGATISH – SPORT TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH BAZASI SIFATIDA

N.M.Yusupov

O'zDJTSU dotsenti

Toshpulatov Abbos Saidmurodovich

O'zDJTSU. 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902026>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada boshlang'ich o'rgatish – sport texnikasini shakllantirish va tezkorlik sifatini tarbiyalash haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* yosh futbolchilar, texnik tayyorgarlik, asosiy mezon.

## PRIMARY TRAINING AS A BASIS FOR THE FORMATION OF SPORTS TECHNIQUES

*Abstract.* This article talks about basic training - formation of sports technique and education of the quality of agility. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

*Key words:* young players, technical training, main criteria.

## НАЧАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ СПОРТИВНОЙ ТЕХНИКИ

*Аннотация.* В статье речь идет о начальной тренировке - формировании спортивной техники и воспитании качества быстроты. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* юные игроки, техническая подготовка, главный критерий.

Mamlakatimiz futbolchilarining mahorati darajasini oshirish zahiralar tayyorlash sifatini uzluksiz ravishda yaxshilash bilan chambarchas bog'liq. Butun o'quv-mashq jarayonini yosh futbolchilar tayyorgarligining serqirraligini ta'minlovchi mezonlar bo'yicha dasturlashtirish zarur. Yosh sportchilarni tayyorlashda o'yin texnikasini o'zlashtirish hamda o'yin sharoitlariga yaqin variativ sharoitlarda texnik usullarning keng "assortiment"ini bajarish ko'nikmalarini takomillashtirish ustidagi ish samaradorligini oshirish ham juda muhim.

Yosh futbolchilar va yuqori malakali jamoalar uchun o'ynaydigan sportchilarning texnik-taktik harakatlari aniqligi ko'rsatkichlarini taqqoslaganda, salbiy izchillik ko'zga tashlanadi: bolalik yoshida ko'p xatolar bilan bajarilgan usullar sportdagi yetuklik davrida ham shunday nuqsonlar bilan bajariladi. Texnik-taktik tayyorgarlikning uncha yuqori bo'lmagan darajasini bolalik va o'smirlik davridagi o'quv-mashg'ulot jarayoni muammolari bilan bog'laydilar.

Bu, ayrim tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, yosh futbolchilarning mashq va musobaqa faoliyatlari orasidagi nomuvofiqlik natijasidir. Lekin hozirgi vaqtda bu muammo deyarli o'rganilmagan sanaladi. Balki, shunday holat harakat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha rejali va maqsadga yo'naltirilgan ish olib borilayotgan vaqtda bo'lajak sportchilarga o'rgatish davrining dastlabki bosqichlarida, amalda yuz berganidek, sport texnikasi asoslarining yuzaga kelishiga sabab bo'lar.

Ma'lumki, harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi qoidalariga asoslangan futbol texnikasiga dastlabki o'rgatish jarayonini tashkil etish uni boshqarish

Это заставляет искать пути ускорения внедрения новейших технологий не только для выявления ранних признаков болезни, но и для разработки мер их предупреждения. РМЖ, диагностированный на ранних стадиях, характеризуется благоприятным прогнозом и высокими показателями безрецидивной и общей выживаемости: при I стадии пятилетний срок переживают 95–100% больных. Ранняя диагностика и адекватное лечение РМЖ с учетом биологических особенностей опухоли обеспечивают полноценную социальную реабилитацию больных.

Скрининг в настоящее время является основным методом доклинической диагностики рака и вторичной профилактикой РМЖ.

Цель скрининга РМЖ – сократить смертность за счет обнаружения опухоли до клинического проявления.

Для качественного проведения маммографического скрининга по данным ВОЗ необходимо:

1. наличие парка современного диагностического оборудования: маммографов, в том числе цифровых маммографов, комплексов для стереотаксической биопсии непальпируемых опухолей, ультразвуковых аппаратов с высоким разрешением;

2. активное участие в скрининге женского населения (не менее 70% от подлежащих обследованию);

3. направление на скрининговое обследование только здоровых женщин, не предъявляющих жалоб на наличие опухоли в молочной железе;

4. возраст обследуемых – 50–69 лет;

5. наличие канцер-регистра для точного учета показателей заболеваемости и смертности. С разных стран проведено 8 рандомизированных исследований скрининга РМЖ. Результаты исследований показали значение маммографии, клинического обследования (CBE – Clinical Breast Examination) и самообследования (BSE – Breast Self Examination) молочных желез и их влияние на показатели смертности от РМЖ.

Метод самообследования молочных желез привлекателен своей доступностью. Чувствительность методики около 26%, что ниже эффективности клинического осмотра и маммографии. Эффективность данных программ зависит от качества выполнения методики женщинами.

Самообследование более результативно в комплексе с маммографическим обследованием. Его использование целесообразно в регионах, где отсутствуют маммографический скрининг и регулярные физикальные осмотры. Внедрение самообследования (BSE – Breast Self Examination) молочных желез базируется на мотивации женщин на регулярные самообследования и обучении. К сожалению, регулярные ежемесячные самообследования проводят только 8% женщин, а 36% – нерегулярные.

Самым распространенным является клиническое (физикальное) обследование молочных желез (CBE – Clinical Breast Examination) медицинским персоналом. По данным канадских исследователей метод CBE может иметь высокую специфичность (95–99%) и чувствительность в пределах 47–80%. Ciatto с соавторами на основании 2740 исследований установили, что чувствительность CBE варьирует в зависимости от стадии заболевания: 48% – рак in situ, 70% – I стадия, 90% – II стадия, 89% – III стадия, 93% – IV стадия РМЖ, составляет 77% в возрастной категории 20–29 лет, 58% – 30–39 лет, 75% – 40–49 лет, 84% – 50–59 лет, 90% – 60–69 лет, 94% – старше 69 лет (Ciatto et al.) Чувствительность клинического обследования молочных желез при ранних стадиях и в молодом возрасте снижается.

В настоящее время безальтернативный скрининговый тест, приводящий к снижению смертности от РМЖ – маммография (МАИР, Лион). Впервые концепция массового рентгенологического скрининга здоровых женщин в целях обнаружения ранних форм РМЖ была предложена в G.J. Cohen с соавт. Научно обоснованный подход к проведению скрининга с учетом планового физикального обследования был внедрен в клиническую



практику врачами P. S. Frame и S.J. Carlson. Их предложения были узаконены Канадской комиссией по периодическим профилактическим обследованиям.

По мнению экспертов ВОЗ, только государства с высоким уровнем экономического развития могут позволить себе проведение маммографического скрининга в масштабах страны. К примеру, даже в США процент охвата маммографическим скринингом женщин 40 лет и старше в 2000 году составил 70%, а маммографией и клиническим обследованием молочных желез – 55,5%. Самый высокий процент охвата населения скринингом рака молочной железы в скандинавских странах: в Финляндии в скрининге принимает участие 89%, а в Швеции 81% женщин. По данным вышеуказанных источников маммография позволяет снизить смертность от РМЖ у женщин в возрасте 40–49 лет на 17%, у женщин в возрасте 50–69 лет на 30% через 5–7 лет и на 20% через 15–20 лет после начала скрининга.

Активное внедрение скрининговых программ связано с началом исследования НРР (Health Insurance Plan of Greater New York Trial) в Нью-Йорке. Были обследованы 62 000 женщин, которые, по результатам обследования, были разделены на 2 группы. Основной группе из 31 000 женщины применяли комбинацию маммографии и клинического обследования молочных желез, что способствовало снижению смертности до 70%. Женщинам в группе контроля предлагалось придерживаться обычной практики получения медицинской помощи. В первые 5 лет смертность снизилась у женщин старше 50 лет, а в возрасте 40–49 лет отличий по данному показателю в исследуемой и контрольной группах не было. Последующее 18-летнее изучение результатов показало, что для женщин 50–59 лет сокращение смертности от РМЖ наблюдалось, начиная с третьего года от начала исследования, и достигало значительных результатов к 5 годам. Для женщин в возрасте 45–49 лет эффект от скрининга оставался незаметным до 5 лет, а для женщин 40–44 лет – отсутствовал до 8 лет от начала исследования (Bland K. I., Copeland (eds).

Важнейшим условием эффективного скрининга является подготовка специалистов, владеющих современными технологиями. Поскольку молочная железа также индивидуальна, как и лицо женщины, необходима большая практика в описании маммограмм для поиска самых начальных нетипичных многообразных проявлений болезни, что требует специального тематического усовершенствования рентгенолога.

Важным условием эффективного скрининга является активность и добровольное участие самих женщин. В странах с хорошо организованными скрининговыми программами этому вопросу уделяется большое внимание со стороны государственных, медицинских и общественных структур. Следует отметить существенные различия в психологии обследуемых в странах Западной Европы и Северной Америки, сравнительно с «установками» пациенток в России, в частности, в Москве. В отличие от прагматичного отношения к своему здоровью на Западе, наш контингент обследуемых женщин не уделяет должного внимания состоянию здоровья, не осознает значимости своевременной диагностики и лечения. Важнейшая мотивация активного и добровольного участия в профилактических обследованиях – сохранение собственной жизни и здоровья – не укрепляется в сознании граждан средствами массовой информации (телевидение, радио, пресса) . В этом направлении работу следует активизировать.

За исследуемый период у 38,2% женщин, прошедших скрининг, выявлены изменения на маммограммах. Все они были направлены в окружные маммологические



отделения КДЦ для уточняющей диагностики. Среди них лишь 83,8% женщин пришли на дообследование в окружные маммологические отделения. Данный показатель увеличился до 89,4% в 2012 году. Из числа женщин, обратившихся в маммологические отделения, патология была подтверждена в среднем в 89,3% случаев.

Одним из достоинств скрининга является своевременное выявление доброкачественных заболеваний молочных желез, поскольку их своевременное лечение является профилактикой РМЖ. Так, в 10,3% случаев были обнаружены узловые доброкачественные образования. РМЖ был выявлен у 0,7% женщин и у 5,5% обнаружена другая патология. Всего за девятилетний период проведения скрининга РМЖ в Бухаре было выявлено 7992 случая РМЖ. В 2021–2022 гг. с помощью скрининга выявлено 96 больных с раком *in situ* (1,2%), 3276 больных с I стадией РМЖ (41%), II стадия РМЖ обнаружена у 4313 человек (54%), III стадия РМЖ – 279 (3,5%), с IV стадией РМЖ – 28 (0,3%). Показатель выявления РМЖ при скрининге в Москве составил в среднем 2,2 на 1000 обследованных женщин.

Чувствительность скрининговой маммографии составила 88%.

Одним из ключевых моментов в реализации программы для повышения охвата женского населения обследованием, ранней диагностики РМЖ является адекватное финансирование, которое можно реализовывать за счет:

- регионального и федерального бюджетов;
- территориального и федерального фондов ОМС;
- средств добровольного медицинского страхования;
- средств отечественных и зарубежных инвесторов;
- благотворительных фондов;
- средств юридических и частных лиц.

**Заключение.** Цели маммографического скрининга могут быть достигнуты только при его должной организации, высоком качестве проведения, активном участии населения в скрининге, применении современной высокочувствительной техники, точной последующей дифференциальной диагностике выявленных опухолей, проведении своевременного лечения.

Качественно проведенный маммографический скрининг приводит в конечном итоге к существенному (до 30%) сокращению смертности от РМЖ. Женщины, которые по различным причинам не принимают участия в маммографическом скрининге, должны быть информированы о том, что такие методы скрининга, как физикальное обследование, самообследование необходимы. Однако данные методы не позволяют эффективно распознавать самые начальные проявления болезни и выполнять органосберегающее лечение, что не способствует улучшению качества жизни и увеличению ее продолжительности.

## REFERENCES

1. Zaharova N.A., Semiglazov V.F., Duffy S.W. Skrining raka molochnoj zhelezy: problemy i reshenija [Kniga]. - M : GJeOTAR-Media, 2011. - str. 176.
2. Zlokachestvennye novoobrazovanija v Rossii v 2012 godu (zabolevaemost' i smertnost') [Kniga] / red. Kaprin A.D. Starinskij V.V., Petrova G.V. - M : FGBU "MNIOI im. P.A. Gercena" Minzdrava Rossii, 2014. - str. 250.
3. Krylov V.V., Cyb A.F. Radionuklidnaja terapija v Rossii: uspehi, problemy i perspektivy [Zhurnal] // Radiacionnaja onkologija i jadernaja medicina. - 2011 g. - T. 1. - str. 68-77.
4. Levshin V.F. Skrining raka molochnoj zhelezy [Zhurnal] // Vestnik RONC im. N.N. Blohina. - 1999 g. - T. 4. - str. 60-67.
5. Levshin V.F., Mihajlov Je.A. Samoobsledovanie kak metod skrininga raka molochnoj zhelezy [Zhurnal] // Voprosy onkologii. - 2000 g. - str. 627-629.
6. Mihajlov Je.A. Provedenie programmy RF/VOZ po obucheniju zhenshin samoobsledovaniju molochnyh zhelez v Moskve [Razdel knigi] // Aktual'nye problemy profilaktiki neinfekcionnyh zabojevanij. - 1995.
7. Pak D.D., Rasskazova E.A., Ermoshhenkova M.V. Rak molochnoj zhelezy [Kniga]. - M : Triada-H, 2010. - str. 160.
8. Petrova G.V., Kaprin A.D., Starinskij V.V., Grecova O.P. Zabolevaemost' zlokachestvennymi novoobrazovanijami naselenija Rossii [Zhurnal] // Onkologija. - 2014g. - T. 5. - str. 5-10.
9. Prizova N.S. Metodologicheskie aspekty, rezul'taty i perspektivy skrininga raka molochnoj zhelezy v krupnom administrativnom regione // Dis. ... kand. med.nauk. - M : , 2014 g. - str. 114.
10. Putyrskij Ju.L. Metody skrininga raka molochnoj zhelezy [Zhurnal] // Medicinskie novosti. - 2007 g. - T. 11. - str. 20-24.
11. Semiglazov V.F. Skrining na rak molochnoj zhelezy: dejstvennaja mera spasenija zhizni [Zhurnal] // Medicinskij vestnik. - 2008 g. - T. 462. - str. 7-8.
12. Semiglazov V.F., Semiglazov V.V. Skrining raka molochnoj zhelezy [Zhurnal] // Prakticheskaja onkologija. - 2010 g. - T. 11. - str. 60- 65.

## VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN JINOYATLAR SODIR ETILISHINING AYRIM TOMONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

**Haydarov Zufar Olim o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi  
Tezkor qidiruv faoliyati yo'nalishi 3-bosqich kursanti

**Abralova Feruza Farhod qizi**

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi  
Tezkor qidiruv faoliyati yo'nalishi 2-bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902336>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligining umumiy holati, dinamikasi va sabablari, voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifi va voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olishni tashkil etish chora-tadbirlari haqida so'z boradi. Maqola so'nggida xulosa va takliflar berib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* voyaga yetmagan shaxslar, jinoyat, siyosat, kurash, huquq.

### ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СОВЕРШЕННЫЕ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ

*Аннотация.* В данной статье говорится об общем состоянии, динамике и причинах правонарушений несовершеннолетних, криминологической характеристике несовершеннолетних правонарушителей, мерах профилактики преступлений, совершаемых несовершеннолетними правонарушителями. Выводы и предложения даны в конце статьи.

*Ключевые слова:* несовершеннолетние, преступление, политика, борьба, право.

### OFFENSES COMMITTED BY MINORS

*Abstract.* This article talks about the general situation, dynamics and causes of juvenile delinquency, criminological description of juvenile delinquents, and measures to prevent juvenile delinquency. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

*Key words:* minors, crime, politics, struggle, law.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning tarkibiy qismi bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik davlatning jinoiy-huquqiy yo'nalishdagi siyosatida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bu muammoni davlat siyosati darajasida hal etishga alohida e'tibor qaratilgan. Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish to'g'ri ma'nodagi ijtimoiy-siyosiy muammodir.

To'g'ri, O'zbekistonda voyaga yetmaganlar sodir etayotgan jinoyatlar umumiy miqdorda kamayishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, barcha toifadagi jinoyatlarning umumiy miqdorida esa bu ko'rsatkich o'zgarmay qolayotganligini ko'rish mumkin. Demak, voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish muammosi mavjud va ularning oldini olishda ilmiy- nazariy tadqiqotlar olib borish hamda amaliy jihatdan zarur profilaktik chora- tadbirlarni qo'llash bugungi kunning talabidir.

Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlar dinamikasining umumiy holatini tahlil etishda, birinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligiga, ikkinchidan, voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning kriminologiya nuqtai nazaridan tarkibiga, g'arazli maqsadlari nimalarga qaratilganligiga alohida e'tibor berish lozim.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligi va har birini aniq ifodalash kriminologiyada katta ahamiyatga ega. Chunki voyaga yetmaganlar (14-17 yoshlilar) va yoshlar (18-29 yoshdagi shaxslar)ning ijtimoiy-ruhiy holatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. O'z navbatida, har ikki guruhga mansub shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning tahlili ham jinoyatchilikning umumiy «manzarasini» aniqlash va to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi.

Masalan, hozirgi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida sodir etilayotgan barcha jinoyatlarning sal kam 57% 14-29 yoshgacha bo'lgan shaxslar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu achinarli hol, albatta, biroq jinoyat olamining «yosharishi» nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida yuzaga kelayotgan illat ekanligini ham nazardan chetda qoldir- maslik lozim.

Shu o'rinda katta yoshdagi shaxslarning jinoyat sodir etish «tajribasi» yoshlar o'rtasida yoyilishini ham e'tiborga olish kerak. Zotan, bu muammoni yechishda kriminologiyada mavjud bo'lgan ilmiy tavsiyalar va nazariy xulosalarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Kriminologiya nuqtai nazaridan va nazariy jihatdan e'tirof etilishicha, voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning boshlanish bosqichidir. Yosh jihatidan boshqa turdagi jinoyatchilar shaxsiga xos xususiyatlarning mavjudligi alohida xavfli bo'lgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini keltirib chiqaradi.

Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning katta yoshdagilar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan ta'sir doirasi jinoiy tajovuz yo'nalishining turlariga ko'ra o'zgarib turish xususiyatiga ega. Masalan, voyaga yetmaganlar qasddan sodir etadigan umumiy turdagi jinoyatlarning yoshlar va katta yoshdagi jinoyatchi shaxslar qasddan sodir etadigan jinoyatlar bilan yaqin bo'lib, kuch ishlatish yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlardan farqli ravishda, kuchli bog'lanishga ega. Aksincha, voyaga yetmaganlar tomonidan kuch ishlatish bilan sodir etiladigan jinoyatlar katta yoshdagilar tomonidan sodir etiladigan shu turdagi jinoyatlar bilan sust bog'lanishda bo'ladi, buning sababi kuch ishlatish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir bo'lishi turmushning turli yo'nalishlarida ro'y berishi mumkin.

Kuch ishlatish yoki zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etilishi voyaga yetmaganlar ichida asosan dam olish paytlarida sodir etilsa, katta yoshdagi shaxslarda maishiy turmushda yoki jinoyatchilikni kasb qilib olgan shaxslar o'rtasida uchrashi kuzatiladi.

Yaqin besh-o'n yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlardan ko'zlangan asosiy maqsad - o'z intilishlari va ehtiyojlarini (ayniqsa, moddiy manfaatdorlik) qondirish, katta yoshdagilar qaramog'ida bo'lmaslik, mustaqil hayot kechirishlarini ta'minlash uchun sodir etilayotganligini ham yaqqol ko'rish mumkin. Keyingi yillarda voyaga yetmaganlar katta yoshdagi jinoyatchilar ta'siridan chiqib, o'zlari mustaqil va jamiyat uchun o'ta og'ir jinoyatlar qilishga qodir jinoiy guruhlariga bir- lashayotganligining miqdori oshganligi ham kuzatilmokda.

Eng xavflisi, voyaga yetmaganlar va yoshlarning jinoyat sodir etishda birlashishi jinoyatchilikning ko'payishiga olib kelmoqda. Jinoyatchilikning «yosharishi» jinoyatlarni sodir etilishida yosh bolalar va o'spirinlar ishtiroki- ning ortganligidadir.

Jinoyat sodir etishda «tavakkal qiluvchi» guruhlar toifasidagi yoshlarda ashaddiylik kuchaymoqda, deyish mumkin. Tavakkalchi guruhlar safi asosan ishsizlar, mayda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi o'spirin yoshlar, jazoni o'tab qaytgan voyaga yetmaganlar, harbiy

xizmatdan qaytgan yoshlar yoki kam ta'minlangan va hayotda o'z o'rnini topa olmagan kimsalar hisobiga kengaymoqda.

Voyaga yetmaganlar va yoshlarni jinoyat yo'liga kirishida xufiyona ishlab chiqarish ham salbiy ta'sir etayotgani achinarli hol. Biroq xufiyona ishlab chiqarishda voyaga yetmaganlar va yoshlar eng quyi ijrochilar sifatida jalb qilinadilar. Katta yoshdagi jinoyatchilar bunday vaziyatlarda yosh jinoyatchilarni doimiy ravishda kuzatadilar va «yetilgan yoshlarni» o'z jinoiy guruhlariga qo'shib olishga harakat qiladilar. Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning tarkibi va g'arazli maqsadlari nimalarga qaratilganligini bilish hamda ularni kriminologiya nuqtai nazaridan tavsiflash katta ahamiyatga ega.

Kriminologiyada voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning tarkibiga ko'ra tahlil etish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, asosan sakkiz turdagi, ya'ni qasddan odam o'ldirish, qasddan tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, talonchilik, bosqinchilik, o'zgalar mulkini o'g'irlash, giyoh- vandlik bilan bog'liq jinoyatlar va bezorilik jinoyatlari bo'yicha tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Ilgari faqat katta yoshdagi jinoyatchilarga xos bo'lgan qonunga xilof ravishda qurol-yarog' va narkotik moddalarni sotish, fohishaxonalar saqlash, qo'shmachilik qilish, chet el fuqarolari va tadbirkorlarga talonchilik hujumlarini uyushtirish, garovga olish, tamagirlik qilish, turli qiynoq usullari bilan jabrdiydalarning hayoti va salomatligiga tajovuz qilish, firibgarlik orqali valuta va qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga kiritish, kompyuterlardan axborot olish, o'g'irlangan mulkni sotish, qimorbozlik kabi jinoyatlarning voyaga yetmaganlar sodir etishlari oshgan.

Hozirgi sharoitda kuch ishlatish va g'arazli maqsadlarda qasddan jinoyat sodir etilishini kriminologiya nuqtai nazaridan qanday baholash mumkin va bunda ushbu jinoyatlarning nafaqat turlari, balki qasdiga ko'ra muvozanatini aniqlashda nimalar inobatga olinishi lozim, degan savolga javob topish g'oyat muhimdir. Ushbu muvozanatni aniqlash uchun kriminologiyada barcha statistik ko'rsatkichlar uchta guruhga bo'lingan holda tahlil etiladi.

Bular kuch ishlatish asosida sodir etiladigan jinoyatlar, g'arazli maqsadlarda sodir etiluvchi va g'arazli maqsadlar hamda kuch ishlatish orqasida sodir etiladigan jinoyatlarga xos guruhlardir. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni qasdning shakliga qarab bir tizimga kiritishga bo'lgan urinishlarni keltirish mumkin. Masalan, qasddan g'arazli maqsadda, qasddan rahmsizlarcha, jinsiy vosvoslik (manyaklik), o'z manfaatlaridan kelib chiqish, o'ziga bino qo'yish kabi holatlar shular jumlasidandir. Biroq sud statistikasida qasd shakllarining qayd etilmasligi inobatga olinadigan bo'lsa, bunday tizimni yaratish qiyinchilik tug'diradi.

Shuning uchun ham qasdni shakliga ko'ra tizimga kiritish orqali jinoyatchilikni baholash alohida va ma'lum bir holatlarda o'tkazilsagina yaxshi natija berishi mumkinligini e'tiborga olish kerak.

Ma'lumki, o'smirlar tomonidan o'g'irlik jinoyatlarini sodir etilishida g'arazli maqsadlar har uch yoki to'rt ishda takrorlanadi. Qolgan holatlarda esa g'arazli maqsadlar o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, guruh a'zolari bilan bog'liqligi bois o'zini majburlash yoki yoshlik tufayli o'z harakatlariga yuzaki qarash orqali amalga oshiriladi.

G'arazli maqsadlarda qotillik qilish va tan jarohati yetkazish XX asrning so'nggi yillarida (80-yillarida 15-20 % gacha bo'lsa, 90-yillarida 2540 % gacha oshgan) o'sib borganligini ham tadqiqotlarda uchratish mumkin.



**O'tkazilgan tadqiqotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

**a)** voyaga yetmaganlar tomonidan g'arazli maqsadlarda jinoyat sodir etilishi avvalgi yillarga nisbatan ko'paymoqda;

**b)** ushbu jinoyatlar boshqa maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlardan ortganligini ko'rish mumkin va umumiy ko'rsatkichlarning 35-40 % ni tashkil etadi;

**d)** qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda g'arazli maqsadlar, asosan, buyumlar, xorij va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan texnika vositalari, kamyob kiyim-kechaklar, valuta, qimmatbaho qog'ozlar, oltin, kumush kabilarga yo'naltirilgan bo'ladi.

G'arazli maqsadlarda va, umuman, qasddan sodir etiladigan jinoyatlarning aniq turlari ham mavjud va ular iqtisodiy qiynchiliklar, aholining moddiy tomondan kam ta'minlangan qatlamining ko'payishi va shaxs o'zi-ning doimiy maishiy qulayliklari yo'qolishiga ishonch hosil qilgan hollarda yuzaga keladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ishtirokchilik asosida, guruh bo'lib sodir etiladi. Bu voyaga yetmaganlarni tabiatiga xos holat hisoblanadi.

Ba'zi hollarda yosh o'smirlar tomonidan yakka tarzda faol amalga oshiriladigan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar ham jamiyat uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Agar jinoyatlarga qarshi kurash olib borish nuqtai nazaridan yondashilsa, guruh yoki uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdan ko'ra, yakka tarzda jinoyat sodir etuvchilarni aniqlash va zarur choralarni qo'llash oson kechadn. Shunday bo'lsa-da, guruh yoki jinoyatlardan jamiyatga ko'proq zarar kelishini ham yodda tutish lozim.

Voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo'lib jinoyat sodir etilishiga xos bo'lgan shafqatsizlik, rahmsizlik oqibatida jamiyatga katta ma'naviy zarar yetkaziladi. Zero, jinoyat sodir etishdagi norasmiy uyushishning tez va oson kechishi, guruh munosabatlardagi ko'nikma, janjal chiqarishga monelik, o'z xohishiga ko'ra ish tutish (o'zboshimchalik), betakror va o'ziga xos qiliqlar qilishga intilish, alohida vaziyatlarda g'oyaviy, ma'naviy va huquqiy jihatdan voyaga yetmaganlarda ishonchning yo'qligi holatlari qisqa davr ichida jamiyat uchun xavfli qilmishlarni beqiyos darajada bo'lishiga olib keladi. O'z navbatida, katta yoshdagilar tomonidan jinoyat sodir etilishida bunday holatlar kuzatilmaydi.

Jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichlarida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar katta yoshdagilarga nisbatan bir yarimdan besh martagacha ko'p ekanligini (jinoyatlarning turi va ularning hududiy tarqalganlik holatlariga ko'ra) ko'rish mumkin.

Shuningdek, 14 yoshlilar tomonidan guruh yoki jinoyatlarni sodir etish, 17 yoshlilarga nisbatan ko'pdir. Voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo'lib jinoyat sodir etish o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, nomusga tegish kabi jinoyatlarda ko'proq uchrasa, qasddan odam o'ldirish va qasddan og'ir tar jarohati yetkazilishda kamroq bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning guruh yoki birlashuvi beqarordir va shuning uchun ham ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatadi va o'z faoliyatini to'xtatadi.

Ba'zida voyaga yetmaganlar tomonidan guruhga uyushganlik o'z maqsadiga ko'ra, uzoq muddatga faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangani bois zarur profilaktika chora ta'sirida barham topishi mumkinligini unutmazlik zarur.



Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlarning jinoiy guruhlariga birlashishi sezilarli darajada oshganligi kuzatilmoqda. Bunday guruhlarining qariyb beshdan uchtasida turli yoshdagi kimsalarning ishtirok etishi ularning xavfliligini oshirmoqda. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan umumiy jinoyatlarning yarmidan ko'pi bir necha bor jinoyat qilib, tajriba orttirganini ham ko'rish mumkin. Eng muhimi, ushbu jinoyatlarning sodir etilishi residiv sifatida mulkka nisbatan qaratil- gandır. Shuning uchun ham ularga qarshi kurashni yo'lga qo'yish o'z- o'zidan eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

#### REFERENCES

1. Rustambayev M.X., 2018. O'zbekiston respublikasi jinoyat huquqi kursi Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik (2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan). «Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018
2. X.P.ОЧИЛОВ, Ш.Д.ХАЙДАРОВ, З.З.ШАМСИДИНОВ  
Жиноят\_хуқуқи\_Умумий\_қисм\_ўқув\_қўлланма\_2021
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
4. Международный пакт о гражданских и политических правах. Международная защита прав и свобод человека. Сборник документов. М.: Юрид.лит., 1990 г.
5. Основные принципы независимости судебных органов. Международные права и свобода человека: Сборник документов. М: Юрид.лит., 1990 г.
6. Всеобщая декларация прав человека. – Права человека. Основные международные документы: Сборник документов. М.: Международные отношения. 1989 г. – С. 134-142.
7. Конвенция о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам. (Хўжалик ва ҳуқуқ – Хозияство и право. – Tashkent. 1997, №1-2. S. 58-76).
8. Ugolovno-protsessualniy kodeks Respubliki Uzbekistan. – T.: Adolat, 1999.
9. «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 7 dekabrdaqi Qonuni.

## AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Berdibayev Aydos**

Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902385>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taraqqiyotning yangi bosqichida axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi va bu jarayonning ayrim jihatlari muallif tomonidan chuqur tahlil qilib o'tilgan va natijalar bo'yicha umumiy xulosaalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, qayta ishlangan axborot, Toffler nazariyasi, axborotlashgan jamiyat, ommaviy madaniyat, kibermakon, virtual borliq, virtual madaniyat.

## SPECIFIC ASPECTS OF THE FORMATION OF THE INFORMATION SOCIETY

**Abstract.** In this article, development of the informational society at the new stage of development and the specific aspects of this process have been thoroughly analyzed by author and general conclusions have been given based on the results.

**Key words:** information, processed information, Toffler's theory, information society, mass culture, cyberspace, virtual existence, virtual culture.

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В данной статье автором подробно проанализированы развитие информационного общества на новом этапе развития и особенности этого процесса, а по результатам сделаны общие выводы.

**Ключевые слова:** информация, переработанная информация, теория Тоффлера, информационное общество, массовая культура, киберпространство, виртуальное существование, виртуальная культура.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichining muhim ajralib turadigan xususiyati uning axborotlashtirishning kuchayishi bo'lib, u manfaatdor sub'ektlarni inson faoliyatining barcha turlari bo'yicha ishonchli, har tomonlama va o'z vaqtida bilimlar bilan ta'minlash bilan bog'liq. Sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning murakkablashishi, inson faoliyatining barcha sohalaridagi jarayonlar dinamikasining o'zgarishi, bir tomondan, bilimga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi, ikkinchi tomondan bu ehtiyojlarni qondirishning yangi vositalari va usullarini yaratish.

Axborot odamlar hayotidagi asosiy qadriyatlardan biriga aylangan rivojlanish bosqichiga kirdik. Shu sababli, zamonaviy jamiyatning axborotlashtirish fenomeniga o'tishdan oldin, "axborot" tushunchasini tushunish kerak ko'rinadi. Hozirgi vaqtda juda ko'p murakkab va qarama-qarshi ta'riflar mavjud. Shunday qilib, iqtisodchilar uchun ma'lumot "aniq odamlar, muammolar, maqsadlar va vaziyatlar uchun saralangan ma'lumotlardir". Qaror qabul qilishning bir qismi sifatida axborot "muayyan muammoni hal qilishga yordam beradigan barcha ma'lumotlar, bilimlar, xabarlar". Kibernetika nuqtai nazaridan, axborot «xilma-xillikni yo'q qiladi, xilma-xillikni kamaytirish esa tartibga solishning asosiy usullaridan biri bo'lib, u boshqariladigan tizimni soddalashtirgani uchun emas, balki tizimning xatti-harakatlarini oldindan aytish mumkin bo'lganligi uchundir». Semiotika uchun ma'lumot "ob'ektning holati yoki biron bir hodisa haqidagi xabarni qabul qiluvchining bilish noaniqligini bartaraf etish o'lchovidir". "Eng yangi falsafiy

lug'at"da ma'lumot "fanning eng umumiy tushunchalaridan biri bo'lib, ba'zi ma'lumotlarni, har qanday ma'lumotlar, bilimlar to'plamini va boshqalarni bildiradi" deb tushuniladi. Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda, biz axborot deganda odamlar, inson va odamlar o'rtasida og'zaki, yozma yoki boshqa yo'l bilan (shartli signallar, texnik vositalar va boshqalar) uzatiladigan ma'lumotlar almashinuvini tushunamiz. mashina, mashina va mashina.

Kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi odamlar hayoti va kasbiy faoliyatining barcha sohalarida: madaniyat, fan, ta'lim, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda turli xil ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi. maishiy soha. Bunday jamiyatda boshqaruvning asosiy ob'ekti moddiy ob'ektlar emas, balki ramzlar, g'oyalar, tasvirlar, intellekt, bilimdir. Ushbu tendentsiyalar nafaqat ijtimoiy, balki zamonaviy jamiyat rivojlanishining madaniy va ilmiy jihatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni madaniyat va jamiyatdagi mavjud vaziyat madaniyat falsafasining o'zgarishiga, tadqiqot paradigmasining o'zgarishiga olib keldi. Bu yerda zamonaviy klassik bo'lmagan metodologiyaning ma'no va obrazga alohida e'tibor berishini nazarda tutamiz.

Hozirgi vaqtda axborotlashtirish jarayoni nafaqat jahon hamjamiyatining barcha rivojlangan mamlakatlarini, balki ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarni ham qamrab oldi. Binobarin, axborot jamiyatining shakllanishi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining madaniyat, ijtimoiy tuzilma, iqtisodiyot, huquq va davlatga ta'siri natijasida yuzaga keladigan tsivilizatsiya rivojlanishining tabiiy bosqichidir. Zamonaviy tsivilizatsiyaning keyingi rivojlanishidagi ustun tendentsiya - bu sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o'tish bo'lib, unda axborot resurslari va ilmiy bilimlar band bo'lgan aholining katta qismi mehnatining ob'ekti va natijalariga aylanadi.

Mutlaqo "texnik" va "axborotlashgan" dunyoda insonning mavjudligi va mavjudligi muammosi faylasuflarni o'tgan asrning o'rtalarida band qilib qo'yishi mumkin emas edi va zamonaviy tadqiqotchilar uchun axborot jamiyati muammosi. juda muhim. Amerika texnokratik futurologlari D.Bell, N.Viner va boshqalar birinchi marta 20-asr o'rtalarida axborot jamiyatining shakllanishi haqida gapira boshladilar. "Aloqa" va "kibernetika"ning otasi deb atalgan Norbert Viner 1940-yillar oxiridagi asarlarida "aloqa jamiyati", ya'ni kommunikatsiyaga asoslangan jamiyat haqida yozgan. Kanadalik tadqiqotchi marshal Maklyuhan 1960-yillarda yangi jamiyatni "global qishloq" sifatida yozgan edi, unda axborot texnologiyalari yangi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar yangi jamiyatning juda ko'p turli nomlari va ta'riflarini keltirib chiqardi, bu haqda V.Dizard o'zining "Axborot asrining kelishi" maqolasida gapiradi: "Yangi axborot asrining mohiyatini ifoda etish istagi paydo bo'ldi. ta'riflarning butun bir kaleydoskopiga olib keldi. J.Lixtaxaym burjuaziyadan keyingi jamiyat, R.Darendorf – postkapitalistik jamiyat, A.Etsioni – postmodern, K.Boulding – tsivilizatsiya posti, G.Kan – iqtisodiy post, S.Ahlstrom haqida gapiradi. - protestant posti, R. Seidenberg - tarixiy post, R. Barnet "neftdan keyingi jamiyat" atamasini taklif qilib, ushbu kaleydoskopga pragmatik teginish keltiradi. Bu epitetlarning aksariyati Garvard sotsiologi D.Bell tomonidan o'n yil oldin (XX asrning 60-70-yillari – men ta'kidlagan – E.M.) ommalashgan "postindustrial jamiyat" tushunchasiga borib taqaladi. Ushbu atamalarning umumiy prefiksi bizning asrimizga xos bo'lgan qandaydir kuzgi tuyg'uni - oxir tuyg'usini beradi. Darhaqiqat, barcha taklif qilingan nomlar lotincha "post-", ya'ni "keyin" prefiksiga ega, go'yo ularning yaratuvchilari qandaydir global

kataklizmni, odamlar ongida global g'alayonni kutmoqdalar, shundan so'ng to'satdan yangi davr boshlanadi. boshlanadi, yangi davr, yangi jamiyat vujudga keladi. Shuning uchun ham, kelajak jamiyatning davomiyligi va asosiy yangiligini ko'rsatadigan, tubdan yangi nom topish juda muhim edi. Bu nom Alvin Toffler o'zining "Uchinchi to'lqin" kitobida aytib o'tgan "axborot jamiyati" ga aylandi. Tadqiqotchi bu tushunchaga ta'rif bermagan bo'lsa-da, bugungi kun hayoti uchun tubdan yangi bo'lgan, hozirgi yoki keyingi avlod hayotini tubdan o'zgartiruvchi elementlarni sanab o'tish orqali tavsifiy ta'rif berdi. Uchinchi to'lqin o'zi bilan diversifikatsiyalangan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan chinakam yangi turmush tarzini olib keladi; ko'pchilik zavod yig'ish liniyalarini eskirgan ishlab chiqarish usullari bo'yicha; yangi "yadrosiz" oilada; "elektron kottej" deb atash mumkin bo'lgan yangi institutda; tubdan o'zgartirilgan maktablar va kelajak korporatsiyalari haqida.

"Axborot jamiyati" tushunchasiga ta'rif 60-yillarning oxiri - 70-yillarning boshlarida berilgan. XX asr. Biroq, ushbu atamaning turli xil zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan muallifligi turli olimlarga tegishli: masalan, E.G. Solovyov «axborot jamiyati» atamasini yapon nazariyotchisi K.Koyama taklif qilgan», deb yozadi va L.D. Reymanning qayd etishicha, «atama muallifligi Tokio texnologiya instituti professori Yu.Hayashiga, shuningdek, Yaponiya hukumati uchun ishlagan bir qator tashkilotlarga tegishli. Ushbu tashkilotlarning 1969 - 1971 yillardagi hisobotida. Axborot jamiyati - bu kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradigan, ularni oddiy ishlardan qutqaradigan va ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan jamiyat sifatida belgilanadi. "Axborot jamiyati" atamasi 1960-yillarning boshlarida bir vaqtning o'zida AQSh va Yaponiyada ilmiy muomalaga kiritilgan. F. Maklupa va T. Umyasao. "Axborot jamiyati" nazariyasi ham T.Stoner, I.Masuda, P.Druker, M.Kastels va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ma'lum darajada o'ziga ko'p e'tibor qaratmagan tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Axborot texnologiyalari jarayonining o'zi, texnologik yoki texnetronik (technetronic - yunoncha. techne) jamiyatning shakllanishi qanchalik davom etmoqda yoki ular bilimning ortib borayotgan va tobora ortib borayotgan rolidan boshlab, zamonaviy jamiyatni ifodalagan, " bilimli jamiyat", "bilimlar jamiyati" yoki "bilim-qiyamat jamiyati".

"Axborot jamiyati" (boshqacha "postindustrial jamiyat" deb ataladi) tushunchasining asoschilaridan biri D.Bell uning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatdi. U o'zining "Axborot jamiyatining ijtimoiy asosi" asarida hozirgi jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar orqali yangi jamiyatning mohiyatini belgilaydi va shu bilan "inqilobdan keyingi" jamiyatni bugungi jamiyatdan ajratib turadigan xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi va ta'kidlaydi. . "Kelgusi asrda telekommunikatsiyaga asoslangan yangi ijtimoiy tuzilmaning shakllanishi iqtisodiy va ijtimoiy hayot, bilimlarni ishlab chiqarish usullari, shuningdek, inson mehnat faoliyatining tabiati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kompyuter markaziy rol o'ynaydigan axborot va bilimlarni tashkil etish va qayta ishlash sohasidagi inqilob postindustrial jamiyatning shakllanishi bilan bir vaqtda sodir bo'lmoqda. Telekommunikatsiya inqilobini tushunish uchun postindustrial jamiyatning uchta jihati ayniqsa muhim: 1) sanoat jamiyatidan xizmat ko'rsatish jamiyatiga o'tish; 2) texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish uchun kodlashtirilgan nazariy bilimlarning hal qiluvchi ahamiyati; 3) yangi "intellektual texnologiya"ni tizim tahlili va qarorlar nazariyasi uchun asosiy vositaga aylantirish".

Umuman olganda, D.Bell postindustrial jamiyatni diskret va doimiy yangilanib turuvchi jarayon sifatidagi ishlab chiqarish atrof-muhitga uzluksiz ta'sir ko'rsatish bilan almashinadigan, inson faoliyatining har bir sohasi boshqalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jamiyat deb ta'riflaydi. Bunday sharoitda axborot asosiy resursga aylanadi, birinchi navbatda yarim malakali ishchilardan muhandis va olimlarga o'tadi, insonning dunyo haqidagi bilimlarini yanada takomillashtirish birinchi navbatda mavhum modellar va tizimli tahlillardan foydalanish orqali amalga oshiriladi, nazariy bilimlarni kodlashtirish markaziy ahamiyatga ega, va eng muhim vazifa iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni istiqbolli prognozlash bo'ladi.

Ko'rib turganingizdek, D.Bell o'z asarlarida yangi jamiyatni informatsion emas, postindustrial deb ataydi. Qolaversa, tadqiqotchi 1976 yildagi "Kelajak post-industrial jamiyat" jurnalining muqaddimasida shunday yozadi: "... Men bu rivojlanayotgan jamiyatni "xizmat ko'rsatish jamiyati", "axborot jamiyati" yoki "bilim" kabi atamalar bilan belgilash vasvasasini rad etdim. jamiyat". Agar barcha tegishli belgilar mavjud bo'lsa ham, bunday tushunchalar bir tomonlama yoki moda modasi tomonidan yaratilgan va buning uchun ular hodisaning mohiyatini buzadi. Ammo 1999 yil ruscha nashrining so'zboshisida u shunga qaramay zamonaviy jamiyatni axborot jamiyati, kelgusi asrni esa postindustrial yoki axborot davri deb ataydi.

#### REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. —Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. - Toshkent: : "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. Ózbekstan Respublikasi prezidentiniń pármani 2022-2026-jıllarǵa mólsherlengen jańa Ózbekstanniń rawajlanıw strategiyasi haqqındaǵı mámleketlik dásturi
5. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.
6. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. 3- жилд,-Т.: Ўзбекистон, 1996.
7. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. —М. 1993.
8. Clarc C. The conditions of economic progress. L., 1957.
9. Перспективы информатизации общества. В 2-х ч. —М., 1990.
10. Bell D. The coming of post-industrial society. —N. —Y., 1973.
11. Masuda Y. Information Society as Postindustrial Society. — Wash., 1983.
12. Суханов А. Информация и прогресс. Новосибирск, 1988;
13. Семенюк Э. Информатика: достижения, перспективы, возможности. —М., 1988.
14. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. —Т.: «Movarounnahr»,
15. Mustaqillik: Izohli ilmiy — ommabop lug'at. —Т.: «Sharq», 2006.
16. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Т., 2003 yil, 5 jild.

17..Imomnazarov M Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Toshkent Islom universiteti. 2006



## БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА БОҒЛАНИШЛИ МАТН ЯРАТИШ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИЛМИЙ ЁНДАШИШ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902412>

**Аннотация.** Мақолада бошланғич синф ўқувчиларида боғланишли нутқ ҳосил қилишнинг илмий назарий асослари таҳлил қилинган, хорижий ва маҳаллий олимларнинг фикр мулоҳазалари қиёсий ўрганилган. Шунингдек, матн танлаш, матн яратиш, матн яратишда грамматик, лексик воситалардан фойдаланиш бўйича йўл-йўриқлар таклиф қилинган.

**Калим сўзлар:** боғланишли нутқ, грамматика, лексик бирликлар, синонимсемантик, прагматика, тил бирликлари, матн тилишунослиги, матн яратиш механизми.

### A SCIENTIFIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF CONNECTED TEXT CREATION SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS

**Abstract.** The article analyzes the scientific and theoretical foundations of the formation of coherent speech in younger schoolchildren, comparatively studied the opinions of foreign and domestic scientists. It also offers ways to select text, create text, use grammatical, lexical means to create text.

**Keywords:** coherent speech, grammar, lexical units, semantics of synonyms, pragmatics, Linguistic units, Linguistics of the text, the mechanism of text creation.

### НАУЧНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ НАВЫКОВ СОЗДАНИЯ СВЯЗНОГО ТЕКСТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** В статье анализируются научно-теоретические основы формирования связной речи у учащихся начальной школы, сопоставляются мнения зарубежных и отечественных ученых. Также предлагаются рекомендации по выделению текста, созданию текста и использованию грамматических и лексических средств при создании текста.

**Ключевые слова:** связная речь, грамматика, лексические единицы, синонимическая семантика, прагматика, языковые единицы, лингвистика текста, механизм текстообразования.

Боғланишли нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш бўйича кўплаб тадқиқотлар амалга оширилган. Тилишуносликда матн назариясининг пайдо бўлиши ва ривожланиши, қолаверса, методикада матнга яхлит ёндашиш зарурлигини англашга алоҳида эътибор берилди. Нутқ уйғунлиги адабиёт ўқитувчиси нуктаи назаридан келиб чиқиши керак бўлган муҳим талаблардан бири сифатиданамоён бўлиши керак. Чунки у сўзларни, ибораларни боғланишли нутқда таҳлил қилишни талаб қилди, болаларни ўз она тилида фикрларни ифода этишнинг турли усулларини тўғри, аниқ ташкил қилиш ва бир вақтнинг ўзида сўзларнинг алоқаларини тўғри ажратиш қобилиятини ривожлантиришни назарда тутди<sup>26</sup>.

<sup>26</sup>Срезневский И.И. Об изучении родного языка вообще и особенно в детском возрасте // Русское слово. Избранные труды. М., 1986. С. 4

А.В. Текучевнинг таърифига кўра, боғли нутқ, фақат ички (семантик) ва ташқи (лингвистик), конструктив (структуравий) алоқанинг мавжудлигини назарда тутадиган ёки камроқ муҳим қисмларга бўлинган нутқ, эканлигини таъкидлайди<sup>27</sup>

Бугунги бошланғич синф ўқув дастурларида ўқувчиларнинг боғланишли нутқини ривожлантиришга янги талаблар қўйилган. Нутққа бўлган эътиборнинг ортиши болаларни ижодий ривожлантириш ва уларнинг билиш фаоллигини ошириш вазифаларига монанд бўлиши назарда тутилмоқда. Фикрлаш кўникмаси барча инсон фаолияти билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, яхши ривожланган нутқ қобилиятлари унинг ақлийҳамда умумий маданий даражасининг асосий мезонидир. Ўқувчиларнинг диққатини бир вақтнинг ўзида бир неча фаолият турларига йўналтиришпрагматик қобилиятини ривожлантирувчи боғланишли нутқ устидаги машғулотларга чамбарчас боғлиқдир.

Бошланғич мактабда болалар воқелик ҳодисалари ўртасидаги объектив муносабатларни акс эттирувчи катта ҳажмли ва мураккаб гапларни яратишга мойилдирлар. Бу матнларнинг асосий камчиликлари кўпинча матн тайёрлашда фикрни баён қилгандаёзма нутқда болалар кўпинча гапларни бир-бири билан боғлай олмайдилар, шунинг учун уларнинг мослиги фикрларни гапдан гапга кўчириш йўлини таъминлайди. Бошланғич мактабда ўрганилган содда гап синтаксисининг элементлари ўқувчиларга мазмуний контекст ва вазият билан боғланган ҳолда гапга реал нутқ ҳосил қилиш ва нутқни идрок этиш бирлиги сифатида қараш имконини бермайди.

Ўқувчиларнинг боғли ёзма нутқини ўрганиш методистларни матн таҳлилининг назарий асосларини ўрганиш билан таништириш керак деган хулосага олиб келди. Мураккаб синтактик бутунликни қуриш матннинг узвийлик ва яхлитлик каби характерли хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жумлани қуриш билан бир хил тарзда ўргатилишини тақозоэтади.Бошланғичсинфларучундарсликлардагимашқларнингаксариятиматннингмазм ун-композиционтомониустидаишлашниўз ичига олади.

Жуда ҳам кам миқдордаги вазифалар ўқувчиларнинг матндаги гаплар устида ишлаш қонуниятларини ўзлаштиришга қаратилган. Шунинг учун матн таркибига гапни киритиш йўллари билан боғлиқ хатоларни бартараф этиш мураккаб жараёнга айланиб қолмоқда.

Сўзнинг яратилишини ўргатадиган энг муҳим коммуникатив кўникмалардан бири матннинг таркибий қисмлари сифатида жумлалар ўртасида структуравий ва семантик алоқалар тизимини яратиш қобилиятидир. Ушбу ишнинг лингвистик асослари, нутқни ривожлантириш методикаси учун амалий фойдаланиш имконияти И. Огуровский, Л. Величко, Л. Лосева, Е.Никитина ва бошқалар томонидан кўрсатилган.

Ҳозирги замон тилшунослигининг энг муҳим тармоқларидан бири бўлган матн назарияси 1960-1970 йилларда ишлаб чиқилган ва тан олинган. Ушбу янги лингвистик таълимотнинг хорижда ҳам, мамлакатимизда ҳам жадал ривожланиши лингвистик тадқиқотлар соҳасини кенгайтириш билан боғлиқ. Узоқ вақт мобайнида тилшунослик тилнинг икки ўзаро боғлиқ жиҳатларидан бири – тил тизимини, грамматикани ўрганишга қаратилган, аммо 60-йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб тилшуносларнинг диққат маркази иккинчи томонга силжийди ва бу бирлик – нутқ фаолияти тушунчаси ва унинг

<sup>27</sup>Текучев, А.В. Методика русского языка в средней школе / А.В. Текучев. - М., 1980. - 462 с.

махсули –боғланишли матн, нутқдир.“Матн, – деб ёзади Г.А.Золотова – матн энг муҳим лингвистик категориялардан бири сифатида эътироф этилади, чунки мулоқот жараёнида тил тизими ажратилган жумлада эмас, балки турли хил ва мақсадлардаги матнларда амалга оширилади<sup>28</sup>.

Ҳозирги кунда матнга, умуман, ўрганиш объекти сифатида ёндашилиб, матн қурилишининг умумий қолипларини аниқлашда ўрганиш вазифаси кўрилади. Тушунчанинг мазмуни доимий равишда ойдинлашиб боради, унинг кўлами чекланган, бу тушунчанинг бошқа шу каби ҳодисалардан фарқ қилиши билан зарур белгилар сони ортиб боради. Матннинг артикулятивлик, семантик бутунлик ва структур боғлиқлик каби хусусиятлари барча тадқиқотчилар томонидан эътироф этилган.

Энг муҳим муаммо тилшунослик маълумотларига асосланиб, ўқувчиларнинг нутқ кўникма ва малакаларини, шу жумладан, тил воситаларидан коммуникатив ва мақсадга мувофиқ тарзда фойдалана олиш кўникмасини янада муваффақиятли шакллантиришни таъминлайдиган тушунчаларни ажратишдир.

Профессор Б. Йўлдошев матн тилшунослиги, матн яратиш тизим ҳақидаги мулоҳазаларини баён қилар экан, маънодош сўзлар бадиий матн компонентларининг синтактик муносабатини ифодалашда ҳам муҳим аҳамият касб этишини алоҳида таъкидлайди. Бунда бир компонентнинг сатҳида келаётган маълум бир сўзнинг иккинчи, учинчи ва ҳ.к. компонентларда синонимлари ёки синонимик маъноли унсурлари иштирок этади: Қиш совуқлари ҳам Гавҳаршодбегимнинг ҳаётидан узоқлашиб кетди. Улуғбек . . . икки қаватли кўшқда онаси шарафига катта қабул маросими ўтказди. Маросимда Гавҳаршодбегимнинг барча келинлари шаҳарнинг аслзода аёллари ҳам иштирок этдилар. Зиёфатдансўнгхаммаларигасаруполарулашилди. (П.Қодиров.Она лочинвидоси). Келтирилган матнда синонимик маъноли қуйидаги сўзлар мавжудлигини кўрамиз: Гавҳаршод бегим – она (си), қабул маросими – зиёфат, келинлар (и), аслзода аёллар – ҳаммалари(га),барча – ҳамма.<sup>29</sup> Айни пайтда матн компонентлари (гаплар)нинг сони тўртта бўлиб, синонимик маъноли сўзлар уларнинг барчасида қатнашмоқда ва компонентларнинг ўзаро синтактик алоқасини таъминлайди<sup>30</sup>.

Тўғри, келтирилган мисоллар бошланғич синф ўқувчиларига мос келмаслиги мумкин, ammo матн яратиш концепцияси турли нутқ вазиятлари учун қўл келади.

Матн таркибида гапларнинг ўзаро семантик муносабатларихусусида сўз юритилганда, тафаккуримизда ҳукмлар мажмуасиқандай боғланишини тасаввур этиб кўрмоғимиз лозим, зотан, матнкомпонентларининг боғланишли эканлигини ўрганиш тил ватафаккур бирлиги диалектик қонуниятидан келиб чиқади. Шунинг учун мустақил гапларнинг ўзаро муносабати шаклланувчи гапдан катта ҳар қандай нутқ бирлиги ўзинингумумий мазмуни

<sup>28</sup>Золотова Г. А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. М., «Наука», 1973, с. 335.

<sup>29</sup>Йўлдошев Б., Ражабова К. “Матн тилшунослиги” фани бўйичауслужбий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012 – 110 б.

<sup>30</sup>Сильман Т.И. Синтактико – стилистические особенности местоимений // Вопросы языкознания, 1970, №4 – С. 23-24.

салмоғи жиҳатидан тафаккур маҳсулининг тилунсурлари воситасида ифодаланишини тақозо этади<sup>31</sup>.

23. Hoshimovich GS, Duszhanov BM, Abdumavlanovich TU IMPROVEMENT OF THE TRAINING PROCESS OF FLIGHT AND ATHLETES IN THE INITIAL TRAINING GROUP OF YOUTH // ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. - 2022. - T. 11. – no. 12. - S. 163-176.
24. GOFUROV Sh. X. IMPROVING TRAINING OF ATHLETES ENGAGED IN PRIMARY PREPARING GROUPS IN SPORTS SCHOOLS FOR CHILDREN AND ADOLESCENTS //Fan-Cportga. - 2020. - No. 5. - S. 38-40.
25. Sherali Khoshimovich Gofurov, Bakhodir Khoshimovich Gofurov ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE WITH SPINE INJURIES USING A WHEELCHAIR // Scientific progress. 2022. #6. URL : <https://cyberleninka.ru/article>

- / n / adaptive - physical - education of disabled - wheelchair - injured - young people - spine - pog - mother ( data obrashcheniya: 09.01.2023) .
26. Gofurov, SX, Berdiyeva, CA, Berdiyev, SD, & Atabayev, AN (2022). A STRATIFIED APPROACH IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF GIRLS WITH DISABILITIES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 , 11 (12), 179-189.
27. Hoshimovich, GS, Hoshimovich, GB, & Ibrahim Oglu, KS (2022). Differentiated Approach to Improving the Physical Qualities of Students With Disabilities. *Eurasian Research Bulletin* , 15 , 213-223.
28. Sherali Hoshimovich Gofurov METHODS OF DEVELOPING TRAINING OF SHORT DISTANCE RUNNERS // Scientific progress. 2021. #8. URL : <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-training-development-of-short-distance-runners-athletes> (data obrashcheniya: 09.01.2023).
29. Sherali Hashimovich G. Ofurov , Dilshad \_ Happily O'G'Lee \_ \_ \_ \_ Bakhtiyarov , Umid Abdugaforovich Saidov PRIOR TO SCHOOL AGE CHILDREN LIGHTWEIGHT ATHLETICS EXERCISES THROUGH EXERCISE TOOLS \_ ORGANIZATION ACHIEVEMENT // Scientific progress . 2022. #1. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/organization-of-pre-school-children's-training-through-athletics-exercises](https://cyberleninka.ru/article/n/organization-of-pre-school-children-s-training-through-athletics-exercises) ( data obrascheniya : 15.11.2022 ) \_ \_ \_ \_ \_
30. Sherali Hoshimovich Gofurov METHODS OF DEVELOPING SPORTS TRAINING OF SKILLED SPRINTERS // Academic research in educational sciences. 2021. #4. URL : <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-development-of-sports-training-of-qualified-sprinters> (data obrashcheniya: 04.05.2023).
31. Sherali Hoshimovich Gofurov METHODS OF DEVELOPING TRAINING OF SHORT DISTANCE RUNNERS // Scientific progress. 2021. #8. URL : <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-of-training-development-of-short-distance-runners-athletes> (data obrashcheniya: 04.05.2023).
32. Sherali Hashimovich G. Ofurov , Dilshad \_ Happily O'G'Lee \_ \_ \_ \_ Bakhtiyarov , Umid Abdugaforovich Saidov PRIOR TO SCHOOL AGE CHILDREN LIGHTWEIGHT ATHLETICS EXERCISES THROUGH EXERCISE TOOLS \_ ORGANIZATION ACHIEVEMENT // Scientific progress . 2022. #1. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/organization-of-pre-school-children's-training-through-athletics](https://cyberleninka.ru/article/n/organization-of-pre-school-children-s-training-through-athletics) ( data obrascheniya : 04.05.2023 ) . \_ \_ \_ \_ \_
33. Gofurov SX et al. A STRATIFIED APPROACH IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF GIRLS WITH DISABILITIES // *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. - 2022. - T. 11. – no. 12. - S. 179-189.
34. Hoshimovich GS, Duszhanov BM, Abdumavlanovich TU IMPROVEMENT OF THE TRAINING PROCESS OF FLIGHT AND ATHLETES IN THE INITIAL TRAINING GROUP OF YOUTH // *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. - 2022. - T. 11. – no. 12. - S. 163-176.

35. Hoshimovich GS et al. Differentiated Approach to Improving the Physical Qualities of Students With Disabilities //Eurasian Research Bulletin. - 2022. - T. 15. - S. 213-223.
36. Sherali Khoshimovich Gafurov, Bahadir Khoshimovich Gafurov DEVELOPMENT OF MOVEMENT ACTIVITY OF PERSONS WITH VISUAL DEFECTS BY PROMOTING 5X5 FOOTBALL SPORTS IN UZBEKISTAN // Scientific progress. 2022. #6. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/in-Uzbekistan,-there-is-a-large-number-of-people-who-are-able-to-popularize-the-sport-of-5-x-5-football-\(data-obrascheniya:04.05.2023\)](https://cyberleninka.ru/article/n/in-Uzbekistan,-there-is-a-large-number-of-people-who-are-able-to-popularize-the-sport-of-5-x-5-football-(data-obrascheniya:04.05.2023))).
37. Gofurov S. SPECIALIZES IN ORGANIZING ATHLETIC EXERCISE GROUPS APPLICATION OF EXERCISES //Modern Science and Research. - 2023. - T. 2. – no. 4. – S. 659-662.
38. Khoshimovich GS Rowing With the Help of Special Equipment and Methods of Balance Development in Canoeing //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. - 2023. - T. 2. – no. 1. – S. 26-30.
39. Gofurov SH, Tashpolatova KG, Ollaberganov SE University Students Methods of Preparation for Sport of Powerlifting //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. - 2023. - T. 2. – no. 1. – S. 31-35.
40. Teacher, Gafurov Sherali Khoshimovich. "ROWING WITH THE HELP OF SPECIAL EQUIPMENT AND METHODS OF BALANCE DEVELOPMENT IN CANOEING." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.1 (2023).
41. Makhammadjonovich, Giyasov Temur, Gofurov Sherali Hoshimovich, and Palvanov Avazkhan Abdullaevich. "PHYSICAL FITNESS OF LONG JUMPER 14-15 YEAR OLD ATHLETES ENGAGED IN TRAINING GROUP INCREASING EFFICIENCY." *International journal of advanced research in education, technology and management* 1.1 (2022).
42. Sherzod Abdurakhmonovich Abdiev, Rukhiddin Fakhridinovich Odilov, Sherali Khoshimovich Gafurov, N. Sh. Bobomurodov PLANNING OF TRAINING LOADS OF DISABLED ATHLETES THROWERS // Scientific progress. 2022. #10. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/the-possibility-of-limited-light-athlete-ulo-living-mesh-ulot-downloads-rezha-\(data-obrascheniya:04.05.2023\)](https://cyberleninka.ru/article/n/the-possibility-of-limited-light-athlete-ulo-living-mesh-ulot-downloads-rezha-(data-obrascheniya:04.05.2023))).
43. Sherali Khoshimovich G. Ofurov , Sherzod \_ Abdurakhmonovich Abdiyev , Bahadir Khoshimovich G. Ofurov , Azizbek \_ Hoshimjon O'G'Lee \_ \_ \_ \_ Uzokov OPPORTUNITY RESTRICTED CHILDREN IN LIFE ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATE O ' RNI // Scientific progress . 2022. #10. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-adaptive-physical-education-in-the-life-of-children-with-limited-opportunities-\(data-obrascheniya:04.05.2023\)](https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-adaptive-physical-education-in-the-life-of-children-with-limited-opportunities-(data-obrascheniya:04.05.2023)) ).
44. Sherali Khoshimovich G. Ofurov , Bakhodir \_ Khoshimovich G. Ofurov \_ PEOPLE WITH DISABILITIES FROM A CARRIAGE USED SPINE GRANDMOTHER \_ \_ DAMAGED YOUNG PEOPLE ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION // Scientific progress . 2022. #6. URL : [https://cyberleninka.ru/article/n/adaptive-physical-education-of-disabled-wheelchair-users-spine-pog-mother-damaged-youth-\(data-obrascheniya:04.05.2023\)](https://cyberleninka.ru/article/n/adaptive-physical-education-of-disabled-wheelchair-users-spine-pog-mother-damaged-youth-(data-obrascheniya:04.05.2023)) ).



**ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАР  
КАСБИЙ СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ДИДАКТИК  
ТАЪМИНОТИ**

**Ибрагимова Шоира Косимовна**

Гулистон давлат университети  
Педагогика факултети ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7903177>

**Аннотация.** Мазкур мақолада инновацион таълим технологиялари асосида талабаларнинг касбий сифатларини такомиллаштиришнинг дидактик таъминоти ва ечимлари тўғрисида қимматли маълумотлар келтирилган.

**Калим сўзлар:** таълим, тараққиёт, методика, ҳужжат, муаммо, педагог, жараён, мустақил иш, амалиёт.

**ДИДАКТИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ШКОЛЕ  
ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**Аннотация.** В данной статье представлена ценная информация о дидактическом сопровождении и решениях по совершенствованию профессиональных качеств студентов на основе инновационных образовательных технологий.

**Ключевые слова:** образование, разработка, методика, документ, проблема, педагог, процесс, самостоятельная работа, практика.

**DIDACTIC SUPPORT OF IMPROVING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF  
STUDENTS IN THE SCHOOL OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES**

**Abstract.** This article provides valuable information about didactic support and solutions for improving students professional qualities based on innovative educational technologies.

**Key words:** education, development, methodology, document, problem, pedagogue, process, independent work, practice.

Талабани ривожлантирувчи мақсад – таълим жараёни таъсирида шахсинг ақлий камолоти, билиш қобилияти, ўқишга, меҳнатга бўлган муносабатини ривожлантиришдан иборат. Бу мақсадларни амалга ошириш натижасида таълим олувчида мустақил ишлаш кўникмаси пайдо бўлади, ўйлашга ўрганади, шунингдек, жараёнда тафаккур ҳукмронлик қилади. Ушбу жараённинг самарали амалга ошишида таълимдаги замонавийлик, интеллектуал, эмоционал соҳаларни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

А.Ш.Яруллина ва С.Р.Никишиналарнинг таълим соҳасидаги ўзгаришлар ва тенденциялар таҳлил қилинган изланишларида замонавий ўқитувчининг тайёргарлиги, асосан, бутун таълим тизимини ривожлантириш, реал истиқболлар ва келажак салоҳияти, имкониятларга боғлиқлиги хусусида сўз юритилади. Талабанинг фаолият субъекти сифатида шахсий сифатлари касбий сифатларини шакллантиришга асос бўлишига эътибор қаратилади.

Кўринадики, талабаларни ижодий ва замонавий фикр билдиришга, интеллектуал имкониятларидан тўғри, оқилна фойдаланишга ўргатиш ҳозирги кун талабига мос касбий сифатларни жамият тараққиёти, ижтимоий-иқтисодий, илмий-маданий тараққиётга уйғунликда ривожлантириш айна муддаодир.



Ж.О.Толипова шахсни ривожлантирувчи инновацион таълим технологияларининг дидактик мақсади қуйидагича изоҳлайди: “Талабаларда танқидий, таҳлилий, боғланишли, мустақил, мантиқий, тизимли, ижодий фикр юритиш кўникмаларини таркиб топтириш, ўқув баҳси ва мунозараларни ўтказиш имконини бериши; ўқув баҳси ва мунозараларни ўтказиш йўллариини белгилаш; аввал ўзлаштирилган билим ва кўникмаларни янги ва қутилмаган вазиятларда қўллаб янги билим ва кўникмаларни эгаллаш”.

Касбий фаолиятда шахснинг хусусиятлари ва сифатлари рефракцияланади, бироқ барча хусусиятлар ва фазилатлар муваффақиятли касбий фаолият учун тенг аҳамиятга эга эмас. Шунинг учун шахс касбий фаолият билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ўрганилиши керак”, деб белгиланади.

Г.В.Акопов касбий фаолиятда муҳим бўлган психологик хусусиятларнинг уч даражасини белгилайди:

1) субъектив хусусиятлар синфи, профессионал онг (функционал компонентлар) ривожланиш даражасининг ифодаси, хусусиятлари ва бешта гуруҳни ўз ичига олувчи: касбий мақсадлар, касбий билиш, касбий фаолиятни дастурлаш, касбий муносабат ва касбий идентификация;

2) субъектнинг мазмун хусусиятлари даражасини ифода этувчи шахсий хусусиятлари синфи: у меҳнатга, одамларга, ўз-ўзига муносабатларни ўз ичига олади;

3) психик жараёнларнинг динамик хусусиятларини ифодаловчи шахсий хусусиятлар синфи: диққат, хотира, таъсир, идрок, тафаккур, ирода ва бошқалар.

Шахсни фаолият субъекти сифатида ўрганишда, А.Г.Асмоловнинг қарашлари эътиборга лойиқ. Олимнинг таъкидлашича, улар шахснинг қандай ўзгараётганини, объектив ҳақиқатни, шу жумладан, ўз-ўзини, тажрибасини, потенциал мотивларига, унинг характериға, қобилиятиға ва фаолияти маҳсулотларига фаол муносабатда бўлишни ўрганадилар. Бу функцияларнинг бир-бири билан чамбарчас боғлиқлигини махсус исботлаш керак эмас, чунки инсон аслида объектив воқеликни ўзгартириш орқали ўзини ўзгартиради. Бошқа томондан, у касбий фаолият доирасида бўлиб, кўпинча предметда касбий ривожланишнинг маълум шакллариға рағбатлантирувчи сабаблар мавжуд ва унинг натижалари фаолиятни янада самарали бажариш учун асос бўлади.

Маълумки, шахснинг касбий шаклланиш жараёни психологияда касбни пухта эгаллаш дейилади. Касбий шаклланиш яхлит жараён бўлиб, касб танлашдан бошлаб шахснинг бутун умрини қамраб олади. Касбий шаклланишнинг тўрт босқичи мавжуд:

- 1) касбни излаш ва касб танлаш;
- 2) касбни ўзлаштириш;
- 3) ижтимоий ва касбий мослашув;
- 4) касбий фаолиятни амалға ошириш.

Ушбу босқичларнинг ҳар бирида фаолият механизми детерминатлари ва мақсадлари ўзгариб туради. Хусусан, агар дастлабки босқичда субъект касбий хусусиятларни унга қўйиладиган талаблар асосида ўрганишни мақсад қилиб олса, кейинги босқичларда унинг ривожланиши муайян касбни ўзлаштиришдан бошланиб, аниқ бир фаолиятни мустақил бажариш босқичи билан якунланади.

Қайд этилган фикрларға таяниб, биз томонимиздан таклиф этилаётган касбий сифатларни ривожлантириш технологияси қуйидагилар ҳисобланади:

– глобаллашув шароитида талабаларнинг касбий сифатини самарали фаолиятга йўналтириш, тайёрлаш бўйича жамиятнинг ижтимоий буюртмаси;

– талабаларда педагогик билим, кўникма ва малакалар ҳамда шахсий сифатларни ривожлантириш ўз олдига мақсад қилиб қўйиши ;

– умуммаданий, психологик-педагогик ва мутахассислик фанлари асосларини қамраб олувчи таълим мазмуни ўргатиш;

– касбий сифатларни шакллантириш даражаси ривожлантириш;

- касбий сифатларни шакллантириш тизимининг амалий натижасини амалга ошириш ишларини режалаштириш.

Касбий мўҳим сифатларни ривожлантириш муаммоларини таҳлил этиш зарурати, биринчидан, ахборот-таълим муҳити шароитида талабаларнинг янги маълумотларни излаш, таҳлил қилиш, саралаш, тизимлаштириш, эслаб қолиш ва сақлаш билан боғлиқ қобилиятлари келгусидаги фаолиятида алоҳида аҳамият касб этса, иккинчидан, таълим олувчиларнинг билиш фаоллигини ташкил эта олиши билан белгиланади.

Психологияда шахс ривожланишида фаолиятнинг ўрни кўп бора тадқиқ этилган. Қолаверса, фаолият инсоннинг ижтимоий муҳитда мавжудлиги ифодаси, дунёни англашнинг ўзига хос томонидир. Бу эса шахс фаолиятида муносабатлар тизимининг етарлича динамик характерга эга эканлигини англатади.

Талабаларнинг касбий компетентлигини шакллантириш, олий таълим муассасаларида уларнинг касбий ва шахсий камолотини таъминлаш учун зарур педагогик шарт-шароитларни яратиш кераклигини тақозо этади. Талабалар касбий компетентлигини шакллантиришнинг педагогик асосларини ишлаб чиқиш, психологик-педагогик шароитларини аниқлаш ва уларда касбий компетентликнинг шаклланганлик даражасини аниқловчи мезонларни асослаш муҳим аҳамиятга эга”.

Алоҳида қайд этиш ўринлики, талабаларда касбий сифатларни ривожлантириш тизимининг мақсадга мувофиқлиги муайян самарани кафолатлаши билан ўлчанади. Шунинг учун ҳам унинг мақсади тизим яратувчи компонент тарзида ўз инъикосини топади. Олий таълим муассасалари талабаларида умумпедагогик таълимнинг муҳим вазифаси унинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда белгиланади. Хусусан:

а) *ўқитиш соҳасида*: тезкор асрда ўзи танлаган ва қизиққан соҳадаги фанлар асосларини ўзлаштириш, билим эгаллаш;

б) *ўз-ўзини англаш соҳасида*: индивидуал фаолиятини ижодий потенциали даражасида йўлга қўйиш;

в) *мотивация соҳасида*: касбига қизиқиши, интилиши, изланиши, билим олишга эҳтиёжини ривожлантириши, давр талабларига мослашиши ва ҳ.к.

Муаммо доирасида изланиш олиб борган олимларнинг қарашларига эътибор қилинса, уларда педагог шахсига хос муҳим жиҳатлар ўз ифодасини топганлиги аёндашади. Хусусан, А.К.Маркова томонидан таклиф этилган педагог шахси тузилмаси қуйидагиларни ўз ичига олади.

- шахс мотивацияси (шахсга йўналганлик ва унинг турлари);
- шахс хусусиятлари (педагогик қобилиятлар);
- шахснинг интеграл тавсифномалари (педагогик ўзини-ўзи англаш, ижодий

салоҳият)

“Шахс мотивацияси унинг йўналганлиги билан асосланиб, қадриятлар йўналиши, мотивлар, мақсадлар, мазмунлар ва идеалларни ўз ичига олади. Шахс йўналганлиги инсоннинг дунёга ва ўзига нисбатан базавий муносабатлар тизимини, унинг хулқ-атвори ва фаолияти мазмуний бирлигини белгилаб беради, ташқаридан ва ичкаридан хуш келмайдиган таъсирга қаршилик кўрсатишга имкон бериб, шахс барқарорлигини вужудга келтиради, касбий ва ўзини ўзи ривожлантиришнинг асоси, хулқ-атвор воситалари ва мақсадларини ахлоқий баҳолаш учун бошланғич нуқта ҳисобланади”.

В.И.Байденконинг фикрича, “компетенция бу – белгиланган қатламда олий таълим битирувчиси профессионалик фаолиятини бажара оладиган шахсий сифат характеридан таркиб топган қобилиятдир. Компетентлилик белгиланган вазиятларда профессионалик фаолиятини намоён қилишга тайёрлигини кўрсатади”.

Е.А.Климов профессионализм ғоясини фақат юқори даражадаги касбий маҳорат ғоясига туширмаслик керак, деб ҳисоблайди. Профессионализм бу соҳада инсоннинг билим, кўникма ва натижаларининг энг юқори даражаси эмас, балки онгнинг муайян тизимини ташкил қилиш, инсон психикаси сифатида тушунилади.

Ўқитувчининг касбий сифатлари ҳам педагогик билим, ҳам педагогик тажрибанинг кўлами ва хусусиятига қараб ўзгаради. Ўқитувчи шахсидаги муайян касбий муҳим сифатларнинг субъектив аҳамияти талабаларнинг олий таълим жараёнигача бўлган маълум муддатдаги тажрибасига, уларнинг ҳозирги ва келгусидаги фаолиятини назарий жиҳатдан англай олиш қобилиятига боғлиқ.

Бизнинг фикримизча, талабанинг касбий сифатларининг индивидуал-шахсий хусусиятлари мураккаб бўлиб, у томонидан амалга ошириладиган ҳар қандай касбий фаолиятнинг муваффақиятини таъминлайди.

Таркибий қисмлар турли шахс хусусиятлари ва шахснинг индивидуал хусусиятларидир. Касбий сифатларнинг тузилиши икки асосий тузилмадан иборат:

а) касбий фаолиятга мотивацион-қиймат муносабати (меҳнат мотивлари, қадриятлар ва йўналишларни ўз ичига олади) ва қуйи тузилма қобилиятлари (бу умумий қобилиятларни, касбий ўсиш учун потенциал имкониятларни аниқлайдиган махсус қобилиятларни ўз ичига олади);

б) ўз фазилатлари ва имкониятларини етарлича баҳолаш қобилияти; билим ва кўникмалар, инсоннинг имкониятларига мос келадиган оқилона касб танловини тарғиб қилиш.

Педагогика университети талабаларида касбий муҳим сифатларни ривожлантириш касбий коррексия ва ўз-ўзини такомиллаштиришнинг муҳим омили сифатида қуйидаги рағбатлантирувчи шарт-шароитларни ўз ичига олади:

1) шахснинг ўз-ўзини тарбиялашга бўлган муносабатини шакллантириш ва ўқув-амалий вазибаларни бажариш жараёнида уларнинг индивидуал психологик сифатларини ҳисобга олиш, ўзларига фаолият субъекти сифатида қаратиш;

2) билиш фаолиятининг жамоавий шаклларида фойдаланиш, ролли топшириқлар, унда гуруҳли апперкция туфайли зарур касбий стандартлар ва намуналар фаол ўзлаштирилади;

3) ўқувчиларни баҳолаш фаолиятини ташкил этиш (ўзида касбий аҳамиятли сифатларни баҳолаш ва гуруҳли баҳолаш).

Бизнингча, педагогик касбини ўзлаштира бошлаган педагогика университети талабалари индивидуал психологик сифатларга эга бўлиб, улар орасида касбий фаолиятни ўзлаштириш муваффақиятини белгиловчи касбий муҳим сифатлар ва касбий аҳамиятли сифатлар мавжуд. Касб эгаллашнинг кейинги босқичларида фаолият мазмуни ва шарт-шароитларининг мураккаблиги билан касбий тайёргарлик касбий муҳим сифатларга нисбатан юқори даражада ривожланиши мумкин.

Касбий сифатлар касбий маҳоратнинг нотекис ва гетерохрон ривожланишини ҳисобга олган ҳолда қурилса самарали бўлади. Бу тамойил педагогика университетларида алоҳида табақалаштирилган таълимни ташкил этиш учун асос бўлиб қолди. Унда индивидуаллаштириш касбий тайёргарликнинг мақсади бўлиб, дифференциация муваффақиятли профессиография воситаси ва талабанинг касбий сифатларини ривожлантиришда субектив иштирокини шакллантириш шартидир. Талабани шакллантириш самарадорлиги фаолиятининг касбий ўсиши жиҳатидан турли функцияларидан қай даражада хабардор бўлиши ва назарий даражада қандай интеграциялашганлигига боғлиқ.

Талабалар касбий сифатларини такомиллаштиришда қуйидаги баҳолаш мезонларидан фойдаланиш мумкин:

1. Ахлоқий ва касбга йўналтириш, қарашлар, тамойиллар, маданият даражаси, юксак маънавий-ахлоқий даража.
2. Талаба шахсини касбий-педагогик йўналтириш.
3. Касбий заковатнинг юқори даражаси.
4. Ҳиссий ва иродавий фазилатлар, барқарор касбий меҳнат, стрессга чидамли фазилатлар, қувватлилик.
5. Ўзи ҳақидаги фикрларнинг барқарорлиги, ўз-ўзини баҳолашда касбий тайёргарлиги ва ижтимоий мослашувининг етарлилиги.

Бундай тахминий таркибий модель талабада касбий сифатларни шакллантириш самарадорлигини сезиларли даражада ошириши мумкин.

Таъкидлаш жоизки, талабанинг касбий сифатлари бир-бири билан мувофиқлаштирилган, ўзаро алоқада бўлган сифатлар ва шахс хусусиятлари тизими ҳамда уларнинг фаол ва мустақил ривожланиши учун зарур бўлган ташкилий-педагогик шарт-шароитлардир.

Педагогика университети талабаси ўқув-педагогик фаолиятнинг субъекти сифатида объектсиз мавжуд эмас, унга нисбатан у мақсадга мувофиқ фаолият ва мустақилликка ундайди. Объект – педагогнинг касбий муҳим шахсий сифатлари. Педагогика университети талабасининг ўқув-педагогик субъективлигини шакллантириш ўқув-академик ва ўқув-касбий фаолиятда амалга оширилиб, унда касбий сифатларни ривожлантиришга фаол ташаббус кўрсатади. Педагогика университети талабаси ўқув-педагогик фаолият субъекти сифатида ўқитувчининг касбий сифатларини ўз-ўзини ривожлантиришда шахсий ташаббус даражасини кўрсатиши керак.

Тадқиқот муаммосини назарий жиҳатдан ўрганиш, таҳлил этиш ва ижтимоий долзарблигини асослашда мавзу доирасидаги аҳамиятли тушунчалар, категориялар

мазмунини ёритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шу боис, изланишларимиз давомида касбий сифатларни такомиллаштиришнинг педагогик-психологик аспектларини: мотив, касб танлаш мотивлари, касбий йўналганлик, педагогик касбга йўналганлик, педагогик фаолият, касбий билим, кўникма ва малакалар, мутахассислик каби тушунчаларнинг моҳиятини аниқлаштириш орқали ёритишга ҳаракат қилдик.

Касб тушунчаси – бу махсус тайёргарликни талаб этувчи, инсон доим тажрибадан ўтказувчи ва унга яшаш учун манба бўлиб хизмат қилувчи машғулот. Касб бир хил фаолият билан шуғулланувчи кишиларни бирлаштиради ва бу фаолият ичида маълум алоқалар ва ахлоқ нормалари ўрнатилади.

Е.А.Климовнинг фикрича, “Касб – жамият учун зарур ва қадриятли соҳа бўлиб, бунда инсондан жисмоний ва руҳий куч талаб этади”.

В.Г.Макушин эса, “касб – бу шундай фаолиятки, унинг ёрдамида шахс жамият ҳаётида иштирок этади ва унинг яшаши учун моддий воситалар асосий манба бўлиб хизмат қилади”, дея таъкидлайди.

Мавжуд таърифларни умумлаштириб, қуйидаги хулосани шакллантириш мумкин: Касб меҳнат фаолиятининг асосий шакли бўлиб, уни бажариш учун инсон, албатта, маълум билим, малака ва кўникмаларга, махсус қобилиятлар ва ривожланган муҳим касбий сифатларга эга бўлиши керак.

Мутахассислик – касбий таълим, тайёргарлик йўли билан ўзлаштирилган иш жараёнидаги махсус билимлар, кўникма ва малакалар мажмуи бўлиб, улар у ёки бу касб доирасида маълум фаолият турини бажариш учун зарурий ҳисобланади.

Шундай қилиб, мутахассислик – касб ичидаги фаолият тури бўлиб, у талабаларни шахсий ютуқларга ёки ўзига хос вазиятлар орқали умумий натижаларга эришишга йўналтиради. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий фаолиятини самарадорлиги кўп жиҳатдан уларнинг касбий муҳим сифатларини ривожланганлигига боғлиқ.

Э.Сейтхалилов касбий сифатларни “шахснинг аниқ касбий фаолият тури билан шуғулланишига имкон берувчи назарий билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш жараёнидир”, деб изоҳлайди.

Р.Ишмухамедов касбий сифатлар негизида “бўлажак мутахассиснинг психологик, психофизиологик, жисмоний ҳамда илмий-назарий ва амалий тайёргарлиги” акс этиши кераклигини таъкидлайди.

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда “касбий тайёргарлик” тушунчасининг қуйидаги таърифини келтириш жоиз топилди:

Касбий тайёргарлик деб махсус назарий билим, амалий кўникма ва малакалар, ҳамда, маънавий-ахлоқий сифатларни ўзлаштириш асосида шахснинг касбий фаолиятни олиб боришга нисбатан физиологик, психологик ва жисмоний тайёргарлик даражаси.

Талабаларда касбий сифатларни ривожлантириш ДТС талаблари асосида фанга доир назарий билим ва компетенцияларни ҳамда шахсий сифатларни ривожлантириш, касбий фаолиятни муваффақиятли олиб боришга нисбатан физиологик, психологик ва жисмоний тайёрлаш жараёнидир.

Ж.О.Толипованинг фикрича, “биология йўналиши талабаларининг билиш фаолиятини фаоллаштириш ва таълим самарадорлигини оширишга имкон берадиган технологиялар ўзига хос хусусиятларга эга бўлиши билан бирга, таълим жараёнида таълим

берувчи, ривожлантирувчи, тарбияловчи, ижодий фаолиятга йўлловчи, коммуникатив, мантикий фикрлаш, ақлий фаолият усулларини шакллантириш, ўз фаолиятини таҳлил қилиш, касбга йўллаш, мўлжални тўғри олишга ўргатиш, ҳамкорликни вужудга келтириш каби функцияларни бажаради. Бироқ, педагогик технологияларнинг функцияларини таққослаганда бу функциялар бир хил даражада ўрин эгалламаслиги маълум бўлди»[149].

Н.А.Муслимов ва М.М.Қодиров томонидан бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг касбий-педагогик фаолияти функционал вазифаларини муваффақиятли бажаришга оид касбий сифатлар таркибий тузилмаси ишлаб чиқилди. Бу таркибий тузилма ўз ичига гностик (академик билим даражасига эга бўлиш, фанларни интеграциялаш, моделлаштириш, лойиҳалаш, башорат қилиш), умумкасбий муҳим сифатлар (конструктивлик, коммуникативлик, ташкилотчилик, бошқарувчанлик, меҳнатсеварлик, интизомлилик, ишлаб чиқариш-технологик), индивидуал-психологик хислатлар (ирода, ҳиссий, қобилиятли, ўз-ўзини такомиллаштириш)ни қамраб олади. Бўлажак технологик таълим ўқитувчилари касбий педагогик фаолиятида бу сифат ва хислатларнинг ривожланганлик даражаси педагогик фаолиятни муваффақиятли амалга ошириш гарови ҳисобланади.

Демак, касбий сифатларни ривожлантирувчи таълим назариясида шахсий сифатларни ривожланишига катта аҳамият берилади. Талаба, бўлажак биология ўқитувчиси касбий фаолиятини амалга ошириш учун ҳаракатларни бажара олиши уни шу фаолиятни амалга оширишга тайёрлаш тизимини ишлаб чиқишни тақозо этади.

## REFERENCES

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993-й. – 224 б. 185-бет. 84
2. Азизхўжайева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ. 2003-йил. 174 б. 92-бет.
3. Азизхўжайева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат (Ўқув қўлланма). – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006-й. – 160 б. 66-бет.
4. Голубева Э.А “Инсон ақлининг индивидуал хусусиятлари” (психологик изланиш) Москва 1980- йил.
5. Рахимов С., Тўрақулов Э. Абу Райҳон Беруний руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. – Тошкент, 1992.
6. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. -Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 99 б.
7. Рубинштейн С.Л “Умумий психология” (ўқув қўлланма) Тошкент.1979 -йил.



INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING  
KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA

**Jonzoqova Sayyora Anvarovna**

Guliston davlat universiteti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7903200>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishning dolzarb muammolari va yechimlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, taraqqiyot, metodika, hujjat, muammo, pedagog.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ  
ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ - КАК  
АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

**Аннотация.** Данная статья содержит ценную информацию об актуальных проблемах и решениях развития профессиональных качеств студентов на основе инновационных образовательных технологий.

**Ключевые слова:** образование, разработка, методика, документ, проблема, педагог.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES OF STUDENTS ON  
THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES - AS AN  
URGENT PEDAGOGICAL PROBLEM

**Abstract.** This article contains valuable information about current problems and solutions of developing students' professional qualities based on innovative educational technologies.

**Key words:** education, development, methodology, document, problem, pedagogy.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish asosida intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi dolzarb masalaligi ta'kidlangan. Ushbu xujjatlarda o'zbek xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar xamda fan va texnologiyalarning yutuqlari asosida yosh kadrlar tayyorlashning zamonaviy tizimini shakllantirish dolzarb masala ekanligi alohida qayd etilgan. Bu esa, kuchli va yuqori darajadagi bilimlarni egallagan malakali pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning faoliyatida o'zaro raqobatga asoslangan muhitni yaratish, o'quv, ilmiy adabiyotlarining mazmuni, shakli, ko'rinishini zamonaviy talablarga muvofiq sifatli yaratish va ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish kabi qator vazifalar ijrosini ta'minlash bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim muassasalari, jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikacini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogika ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarorida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etilgan, jumladan:

-talabalarining o‘zida shakllangan pedagogik kasbga bo‘lgan qiziqishi va intilishi yuqori darajada bo‘lgan ta’lim sub’ektlarini aniqlash va ularni ko‘zlangan natija beradigan darajada tarbiya qilib va tayyorlab borishning uzluksizligini ta’minlash;

- soha bo‘yicha ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan uyg‘un bo‘lishini asoslash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy hayotda o‘rniga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy nazariyaga yo‘naltirilgan ilmiy va innovasion faoliyatni samara beradigan tarzda tashkil etish;

-pedagog kadrlar buyurtmachilari talab hamda ehtiyojlarini doimiy o‘rganish, ular bilan muntazam ravishda interaktiv hamkorlikni rivojlantirish va bilimli va salohiyatli pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiylik xususiyati mujassamlashgan istiqbolli rejalarini tuzish va mazkur rejalarini amalga oshirish;

- oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va ta’lim texnologiyalarining fanlararo integrasiyasini ta’minlash, shuningdek, pedagog kadrlarning kasbiy qobiliyati, mahoratini izchil, tizim asosida rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish muhimdir.

Ta’kidlash joizki, hozirgi globallashtirish sharoitidagi dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini o‘rganish bo‘lib, u bo‘ljak mutaxassislarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu tariqa mehnat bozorida faoliyat olib borayotgan yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojni chuqur o‘rganish, ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini amalga oshirish, talabalarni kasbiy salohiyatga ega jamoalarda tarbiyalash, innovasion texnologiyalar rivojlanishining yangi usullarini o‘rganishga yo‘naltirish, malakali, iqtidorli mutaxassislarni ta’lim jarayoni va pedagogik faoliyatga jalb etish hamda amaliyotni aniq maqsadlar asosida tashkil etish masalalariga e’tibor qaratish asosiy o‘rin egallaydi.

Malakali kadrlarni tayyorlashga oid ilmiy adabiyotlarda “yo‘naltirilgan”, “kasbiy yo‘nalganlik”, “shaxsning kasbiy yo‘nalganligi”, “ta’limning kasbiy yo‘nalganligi” kabi tushunchalar alohida ta’riflanadi.

Kasbiy yo‘nalganlik tushunchasi shaxsning o‘z faoliyatini muayyan sohaga yo‘naltiruvchi va mavjud vaziyatlarga bog‘liq bo‘lmagan motivlar yig‘indisi hisoblanib, bilim, tajriba va layoqatini mohirlik bilan qo‘llashga intilishidir. Bu jihatlarda bevosita shaxsning ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ta’limning kasbga yo‘nalganligi talabaning kasbiy ahamiyatga molik bilimlarni qo‘llash imkoniyatini ifoda etadi.

Shaxsning kasbiy ahamiyatga ega sifatlariga diqqat qilinganda, avvalo, bu jihat faoliyat sub’ektlarining individual xususiyatlarini tushunishni talab etadi. Bu sifatlar muvaffaqiyatli faoliyat garovi bo‘lib, o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir qiladi. Kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat o‘z ishidan qoniqish hosil qilishga bog‘liq holda individual sifatlar va kasbiy talablarning o‘zaro mos kelishini taqozo etadi. Demak, shaxsning kasbiy ahamiyatga molik sifatleri muayyan aniq faoliyat davomida insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqara olishidir.

Shu jihatni inobatga olib, talabalar kasbiy sifatlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun “rivojlantirish” tushunchacining

mazmun-mohiyati izoh berish o‘rinli. U ko‘proq miqdoriy xarakterga ega tushuncha bo‘lib, individning shaxsga xos yangi xususiyatlarni butun umri mobaynida egallab borish jarayonini o‘zida aks ettiradi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida miqdoriy jihatlarga nisbatan sifat ko‘rnatkichlari ahamiyatliroqdir.

Lug‘aviy jihatdan qaralganda, “rivojlanish” so‘zi arab tilida “bir holatdan ikkinchi yuqori holatga o‘tish, o‘shish, yuksalish, taraqqiyot, ravnaq” kabi ma‘nolarni anglatadi. Rivojlanish inson tug‘ilganidan faoliyatining so‘ngigacha davom etadigan uzluksiz jarayondir. Dars jarayoni doimiy rivojlanish omili bo‘lib, bu o‘qituvchi bilan birga o‘quvchining ham passiv, ham aktiv o‘zaro doimiy harakatlari mahsulidir. Ta‘lim jarayoni aynan mana shunday omillar orqali tashkil etilmas ekan, unda ishtirok etuvchi sub‘ektlarning faoliyati sust bo‘lib qoladi. Rivojlantiruvchi ta‘limda o‘quv jarayoni talabalarning ichki imkoniyatlari va ularni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltiriladi. Seminar-treninglarni samarali tashkil qilish ta‘lim oluvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish barobarida imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga yordam beradi.

Talabalarda bo‘ljak o‘qituvchi sifatida innovasion pedagogik faoliyat ko‘nikmalari o‘zlashtirilishiga oid bir qancha omillar mavjud. Bizningcha, bu omillarning tarkibiy qismiga quyidagi kaloritlarni kiritish maqsadga muvofiq:

1) innovasion pedagogik faoliyatni olib borishga asoslangan oshirish harakat rejacini tuzib chiqish, ularning mazmuniga muayyan vaqt mobaynida zaruriy o‘zgartirishlar va yangi yo‘nalishlarni kiritish;

2) innovasion pedagogik faoliyatda kasbiy mahoratni oshirish, o‘z ustida muntazam ishlash orqali amaliy ko‘nikmalarini o‘stirib borish;

3) kelgusi faoliyatda kuchli mutaxassis sifatida e‘tirof etilishi uchun o‘zining intellektual imkoniyatlarini ishga solish;

4) milliy va xorijiy mamalakatlar ta‘lim tizimida tan olingan innovasiyalar bilan tanishish hamda ularni o‘z faoliyatiga tatbiq etib borish;

5) pedagogik innovasiyalarni tahlil qilish asosida ularning samaradorligini xolis baholash.

Talabalarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishda yangi pedagogik g‘oyalarni singdirish, zamonaviy metodik ilmiy qarashlarni asoslash ijodiylik sanalib, bu ularning kreativligi, ijodkorligi, nutq madaniyatiga erishishning samaradorligini ta‘minlaydi. Demak, ijodkorlik sifatlariga ega bo‘lmagan holda innovasion mazmundagi ta‘lim jarayonini tashkil etish mumkin emas. Bu jihatlar bevosita ta‘lim-tarbiya jarayonining uzviyligi masalasiga borib taqaladi. Bugungi kunga kelib ta‘limdan ko‘zlangan maqsad faqat bilim berish bilan cheklanmagan holda tarbiyaviy maqsadlarning ustuvorligiga ham tayanadi.

V.I.Andreev “ta‘lim”ni “madaniyat”da o‘z aksini topuvchi, o‘qitish va tarbiya orqali amalga oshiriluvchi hodisa sifatida talqin qiladi. O‘z navbatida, “o‘qitish” kategoriyaci insonning o‘ziga xosligini uning “ta‘limi”, “tarbiyachi” va “rivojlanishi” tushunchalari orqali ochib beradi. Ba‘zi adabiyotlarda “rivojlanish” “shakllanish” orqali amalga oshishi xususida fikr bildirilsa, boshqalarida “shakllanish” “rivojlanish” asosida tarkib toptirilishi ta‘kidlanadi. Shunga qaramasdan, ko‘plab mualliflar “rivojlanish” tushunchasining keng qamrovli ekanligini hamda shaxncning asosiy motivasion ehtiyojlari kognitiv va irodaviy rivojlanish sohasidagi o‘zgarishlar dinamikasini ifodalashida ko‘proq qo‘llanilishini e‘tirof etadilar.

G.K.Selevko, V.P.Bespalko, N.N.Azixodjaeva, O‘.Q.Tolipov, B.X.Xodjaev kabi olimlarning “texnologiya” tushunchasi mohiyatini aniqlashga doir yondashuvlari tahlili uning

mazmun-mohiyatini tushunish va qabul qilish imkonini beradi. Tadqiqotning o'rganilishi bilan bog'liq bo'lgan G.K.Selevkoning "pedagogik texnologiya" tushunchasi mohiyatiga izoh berishidagi ta'rifi mos kelishi mumkinligi xulosa qilindi: "Pedagogik texnologiya – bu ilmiy asosda tashkil etiladigan, aniq vaqt va makon doirasida dasturlashtiriladigan va kutiladigan natijalarga olib keladigan pedagogik jarayonning barcha komponentlarini harakatga keltirish tizimi".

Ko'pgina olimlarni shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash masalasi qiziqtirgan. Talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb etish orqali o'qitishni faollashtirish masalalari E.Yu.Girfanova, L.A.Kazanseva, A.A.Kircanov, asarlaridan joy egallagan. O'qitishning psixologik konsepsiyasi acocini sermahsul jarayon sifatida C.L.Rubinshteyn tomonidan ilgari surilgan fikrlash nazariyasi tashkil etadi.

Talaba shaxsini ta'lim maqsadi ta'lim oluvchining shaxsiga xos sifatlarni tarkib toptirishni o'z ifodasini topadi. Shuning uchun innovasion ta'lim sharoitida yuqori kasbiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy masaladir. Ko'pgina xorij ta'lim tizimida bilim berishga asoslanilgan yondashuvdan ko'ra kompetentlik yondashuviga o'tish samarasi kuzatiladi. Mazkur yondashuv egallangan ilmiy, nazariy bilimlardan shaxsning rivojlanishi, ijtimoiylashishi va iqtidorining qay yo'sinda takomillashtirishni ko'rsatishga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunga kelib ta'lim mazmuni tez-tez yangilanishga ehtiyoj sezmoqda. Bu innovasion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kacbiy cifatlarini rivojlantirishga oid ta'lim texnologiyalarini qo'llashni talab etadi.

O'qituvchi tomonidan shaxcga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish masalasini tadqiq qilgan A.X.Yugayning fikricha, "shaxsni rivojlantiruvchi texnologiyalar – bu o'qitishni rivojlantiruvchi xarakteri, ob'ektiv ravishda o'zining tabiatidan kelib chiqadigan ijtimoiy jarayon. To'g'ri etkazilgan ta'lim har doim rivojlanadi, ammo innovasion texnologiyalar shaxcni har tomonlama rivojlantirishda o'qituvchilar va talabalarning o'zaro munosabatiga alohida yo'naltirilgan holda yanada samarali amalga oshiriladi. Talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning ushbu alohida yo'nalishi "innovasion ta'lim" atamacida mustahkamlangan"[164].

Talabada kasbiy sifatlari rivoji bevosita o'qitish ishlari samaradorligi bilan belgilanadi. Masalaga A.K.Rahimov tomonidan quyidagicha yondashiladi: "O'qitishni rivojlantirish talabalarning har tomonlama rivojlanishi, faol yondashuvni rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallashi. Bu yerda o'qituvchi axborot beruvchi, bilim va haqiqat yetkazuvchi emas, balki talabalar faoliyatining faolligini oshiruvchi, izlanish jarayonining tashkilotchisi hisoblanadi".

Olimlar va pedagoglar tomonidan berilgan ta'riflarning turlichaligidan kelib chiqib, shaxcga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari pedagogik shart-sharoit va ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhitni talabadagi shaxsiy imkoniyatlarga muvofiq ravishda tashkillashtirishni nazarda tutadi. Bunda har bir talaba shaxsini tushunish, hurmat qilish, unga ishonch bildirish alohida o'rin egallaydi va ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Shuningdek, shaxcga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi kommunikativ metodlarga tayanishini ta'kidlagan holda quyidagilarga amal qilinishini qayd etish mumkin:

a) yaratilgan muhit shunday bo'lishi kerakki, unga qaratilayotgan e'tibordan talaba o'zini shaxc sifatida sezsin;

b) ta'limdagi muhit uning muvaffaqiyatlariga zamin yaratishi, o'z imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlashi, jamoaga mas'ullik hissini uyg'otishi;

v) boshqalarning hurmati va ishonchini qozonishi va h.k.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda "rivojlantirish" atamasi individga, uning psixikasiga munosabat nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ya'ni, rivojlanish – bu individning ichki zaruriy xatti-harakati, "o'zini o'zi harakatlantirish" bo'lib, tashqi ta'sir doimiy ravishda ichki yo'nalganlik asosida harakatlanadi. Rivojlanish bu insonning jismoniy va ma'naviy rivojlanishining ketma-ketlikda amalga oshadigan miqdor va sifat o'zgarishlarining ob'ektiv jarayoni.

N.A.Yuldasheva tomonidan shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasida o'yin elementlarini maqsadli yo'naltirish ahamiyati quyidagilarda ko'rsatiladi:

1. Didaktik maqsadlar: dunyoqarashni kengaytirish, bilish faoliyati; bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash, amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan alohida ko'nikma va malakalarni shakllantirish; mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Tarbiyalovchi maqsadlar: mustaqillikni, erkinlikni tarbiyalash, muayyan yondashuvlarni, mavqelarni, axloqiy, estetik va dunyoqarashga oid ko'rsatmalarni shakllantirish; hamkorlikni, jamoatchilikni kommunikativlikni, muomalalikni tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsadlar: diqqat, xotira, nutq, tafakkur, taqqoslash, solishtirish ko'nikmasi, o'xshashini topish, mulohazalashni, ijodiy qobiliyatlar, refleksiya, empatiya, maqbul yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish, o'quv faoliyati motivasiyasini o'stirish.

4. Ijtimoiylashtiruvchi maqsadlar: jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga aralashuv; muhit sharoitlariga ko'nikish; kuchli nazorat, o'z-o'zini yo'naltirish; muloqotga o'rgatish; psixoterapiya.

D.B.Yakubjanova tomonidan shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish maqsadga muvofiqligi qayd etiladi:

- talabaning muayyan faoliyatga kirishishi ixtiyoriy ekanligi;
- qo'yilgan maqsadga erishish vositasini tanlashda har bir talabaning imkoniyatlariga ishonish, vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlariga xayrixohlik bildirish;
- ta'lim vazifalarini belgilashda samarali va oqilona strategiya tanlash;
- pedagogik ta'sir etish jarayonida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olish;
- talabalarning qiziqishlari, ularning individual ishtiyoqi, xohish-istaklarini hisobga olish va ularda yangi qiziqishlarni uyg'otish".

Talabalarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuvning uch muhim jihatini o'zida aks ettirishini ko'rsatdi: faoliyatga yo'naltirilgan, kommunikativ va shaxsiy. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabalarda ijodkorlik bilimlari, ijodiy faoliyat usullari va vositalarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Kommunikativ jihat pedagogik muloqotni ijodiy tarzda amalga oshirishga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shaxsiy jihat ijodiy tafakkur yuritish, kasbiy refleksiya, kasbiy-pedagogik yo'nalganlikni o'zida aks ettiradi.

So'nggi paytlarda talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasi o'qitish jarayonida ta'lim mazmunini o'zlashtirishning standart bo'yicha natijasi qandayligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarni aks ettirishi va shaxsiy faoliyat davomida madaniy va umumbashariy xususiyatlarning effektida o'z aksini topadi. Shuning uchun bu vazifa talaba yoshlarning o'z tanlagan kasbi bo'yicha faoliyat olib borishida, jamiyatda ijtimoiy faol shaxs sifatida o'z mavqeini egallashiga oid muhim masalalarni hal etish dolzarb sanalmoqda. Buning uchun mutaxassisda turli yo'llar bilan, xususan, mustaqil bilim olish: ta'lim muassasasidan tashqarida ham bilim olish;



ijtimoiy-mehnat sifatlari: o'z sohasiga tegishli mehnat bozoridagi holatlarni tahlil qila bilish, professional potensialini munosib baholash, ijtimoiy munosabatlardagi axloq me'yorlariga rioya qilish kabi faoliyati turlari belgilangan.

A.K.Markova kasbiy sifat tarkibi nafaqat aqliy va shaxsiy xususiyatlarni, balki somatik, morfologik, neyrodinamik kabi boshqa biologik xususiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkinligini ta'kidlaydi. Xuddi shu fikrni B.A.Dushkov qo'llab-quvvatlaydi va kasbiy sifatlar tarkibiga jismoniy fazilatlarni ham qo'shadi.

“Kasbiy sifatlar” tushunchasi “qobiliyatlar” tushunchasiga nisbatan kengroq. Yuqoridagi fikrlar M.A.Bendyukov va I.L.Colominlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va bu borada sog'liq, tayyorgarlik va qobiliyat kabi sifatning o'rni belgilanadi. Demak, kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida har bir qobiliyat aniq harakatlarda ro'yobga chiqib, o'z kesimini topadi, kasbiy muhim sifatga aylanadi.

Yu.V.Kotelova kasbiy sifatning yana bir sinonimini oldinga qo'yadi – “kasbiy muhim belgilar”. Ular orasiga muallif sensor, aqliy va vosita faoliyatining xususiyatlarini, shuningdek, diqqat, xotira xususiyatlari va hissiy-irodaviy sohani kiritadi.

Kasbiy sifatning to'liq ta'rifi A.V.Karpov tomonidan berilgan: “kasbiy sifatlar standart darajada amalga oshirilishi uchun zarur va yetarli bo'lgan, uning asosiy samarali parametrlari – sifat, samaradorlik, ishonchlik”ning kamida bitta (yoki bir nechta) bilan sezilarli darajada va ijobiy bog'liq bo'lgan sub'ekt faoliyatining shaxsiy xususiyatidir. Biroq, u muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun muayyan minimal yoki yetarli vakolatni anglatadigan muayyan me'yoriy darajani birinchi bo'lib aniqlaydi”.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, talaba bo'lajak o'qituvchi sifatida kasbiy-pedagogik faoliyat qirralari: o'zi o'qitadigan fan asoslarini mukammal o'rganishi, bilganlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, o'zini tutishi, o'quvchilar jamoasini boshqara olishi, nutqiy ko'nikmalarni puxta egallashi kabi xususiyatlarni o'zlashtirishi muhim sanaladi.

Xullas, talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish ulardagi muayyan bir soha bo'yicha faoliyat olib borishga bo'lgan motivasion xususiyatlarini rivoj toptirib kuchaytiradi, ularda shakllangan ilmiy salohiyati, potensialidan o'rinni, samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185-bet. 84
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003-yil. 174 b. 92-bet.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
4. Golubeva E.A “Inson aqlining individual xususiyatlari” (psixologik izlanish) Moskva 1980- yil.
5. Raximov S., To'raqulov E. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent, 1992.
6. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida. -Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 99 b.



7. Rubinshteyn S.L “Umumiy psixologiya” (o’quv qo’llanma) Toshkent.1979 -yil.
8. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). Science and innovation, 2(B3), 30-33.

ИНСОННИНГ ШАЪНИ ВА ҚАДР-ҚИММАТИ БАРЧА НЕЪМАТДАН  
УСТУН ЁҲУД ОЛИЙ ҚАДРИЯТ: ИНСОН ШАЪНИ ВА ҚАДР-ҚИММАТИ -  
ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА МУҲИМ ИНСТИТУТ

Алишер Пўлатов

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги

Судьялар олий мактаби тингловчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7903216>

**Аннотация.** Мазкур мақолада инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати барча неъматдан устун эканлиги, давлат ва фуқаро ўртасидаги турли муносабатлар ҳақида алоҳида тўхталиб ўтилган. Мақола давомида асосли фикр ва мулоҳазалар келтирилган.

**Калим сўзлар:** инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати, қонун устуворлигини таъминлаш, инсон тафаккури.

THE HONOR AND DIGNITY OF A PERSON IS ABOVE ALL BLESSINGS OR  
THE HIGHEST VALUE: THE HONOR AND DIGNITY OF A PERSON IS AN  
IMPORTANT INSTITUTION IN CIVIL LAW.

**Abstract.** In this article, the fact that the honor and dignity of a person is superior to all blessings, and the various relations between the state and the citizen are discussed. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

**Key words:** human dignity and dignity, ensuring the rule of law, human thinking.

ЧЕСТЬ И ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА ВЫШЕ ВСЕХ БЛАГ ИЛИ  
ВЫСШЕЙ ЦЕННОСТИ: ЧЕСТЬ И ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА - ВАЖНЫЙ  
ИНСТИТУТ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается тот факт, что честь и достоинство человека выше всех благ, рассматриваются различные отношения между государством и гражданином. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

**Ключевые слова:** человеческое достоинство и достоинство, обеспечение законности, человеческое мышление.

Бугун биз янги давлат, янги жамиятда яшаб, фаолият юритаяпмиз. Бунда ижтимоий-иқтисодий, маънавий, сиёсий муносабатлар одамларнинг онги ва тафаккури ҳам ўзига хос равишда кундан кунга ривожланиб бормоқда. Бу жараёнларнинг энг муҳим жиҳати шундан иборатки, жамиятда, давлатда қонун устуворлигини таъминлаш, давлат ва фуқаро ўртасидаги турли янги муносабатлар шаклланиши, қолаверса, инсон, унинг ҳаёти, манфаатлари, ҳуқуқ ва эркинлиги, шаъни ва қадр-қимматини юқори даражага қўйилиши муҳим ўрин эгаллайди.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Жамиятда инсон ва унинг шаъни, қадр-қиммати устуворлигини ўрнатиш ва ҳар доим адолатни таъминлаб бериладиган одил судлов тизимини шакллантириш ҳамиша бизнинг устувор вазифамиз бўлиб қолаверади. Биз жамиятимизда шундай ҳуқуқий маданиятни шакллантиришимиз керакки, унга мувофиқ Конституция ва қонунларга амал қилиш, бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш мажбурият эмас, балки кундалик қоида ва одатга айланиши шарт.”

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13-моддасида белгиланганидек, Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади.

16. Dilshod Baxtiyorovich Baxtiyorov AMPUNTANT FUTBOLCHILARNI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI VA USLUBIYATI // Scientific progress. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ampuntant-futbolchilarni-jismoniy-tarbiya-vositalari-va-uslubiyati> (дата обращения: 16.12.2022).
17. Hoshimovich G. S., Duzhanov B. M., Abdumavlanovich T. U. IMPROVEMENT OF THE TRAINING PROCESS OF FLIGHT AND ATHLETS IN THE INITIAL TRAINING GROUP OF YOUTH //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 163-176.
18. ҒОҒУРОВ Ш. Х. БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР СПОРТ МАКТАБЛАРИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЙЁРЛОВ ГУРУҲИДА ШУҒУЛЛАНУВЧИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАР МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Фан-Спортга. – 2020. – №. 5. – С. 38-40.
19. Sherali Xoshimovich G'Ofurov, Bahodir Xoshimovich G'Ofurov NOGIRONLAR ARAVACHASIDAN FOYDALANADIGAN UMURTQA POG'ONASI SHIKASTLANGAN YOSHLARNING ADAPTIV JISMONIY TARBIYASI // Scientific progress. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nogironlar-aravachasidan-foydalanadigan-umurtqa-pog-onasi-shikastlangan-yoshlarning-adaptiv-jismoniy-tarbiyasi> (дата обращения: 09.01.2023).
20. Gofurov, S. X., Berdiyeva, C. A., Berdiyev, S. D., & Atabayev, A. N. (2022). A STRATIFIED APPROACH IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF GIRLS WITH DISABILITIES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 179-189.
21. Hoshimovich, G. S., Hoshimovich, G. B., & Ibragim o'g'li, K. S. (2022). Differentiated Approach to Improving the Physical Qualities of Students With Disabilities. *Eurasian Research Bulletin*, 15, 213-223.
22. Sherali Hoshimovich G'Ofurov QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNI MASHG'ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qisqa-masofaga-yuguruvchi-sportchilarni-mashg-ulotlarini-rivojlantirishning-usullari> (дата обращения: 09.01.2023).



23. Sherali Hoshimovich G'Ofurov, Dilshod Baxtiyor O'G'Li Baxtiyorov, Umid Abdugaforovich Saidov MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH // Scientific progress. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish> (дата обращения: 15.11.2022)
24. Sherali Hoshimovich G'Ofurov MALAKALI SPRINTERCHILARNING SPORT MASHG'ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/malakali-sprinterchilarning-sport-mashg-ulotlarini-rivojlantirishning-usullari> (дата обращения: 04.05.2023).
25. Sherali Hoshimovich G'Ofurov QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNI MASHG'ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qisqa-masofaga-yuguruvchi-sportchilarni-mashg-ulotlarini-rivojlantirishning-usullari> (дата обращения: 04.05.2023).
26. Sherali Hoshimovich G'Ofurov, Dilshod Baxtiyor O'G'Li Baxtiyorov, Umid Abdugaforovich Saidov MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH // Scientific progress. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish> (дата обращения: 04.05.2023).
27. Gofurov S. X. et al. A STRATIFIED APPROACH IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF GIRLS WITH DISABILITIES //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 179-189.
28. Hoshimovich G. S., Duszhanov B. M., Abdumavlanovich T. U. IMPROVEMENT OF THE TRAINING PROCESS OF FLIGHT AND ATHLETS IN THE INITIAL TRAINING GROUP OF YOUTH //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 163-176.
29. Hoshimovich G. S. et al. Differentiated Approach to Improving the Physical Qualities of Students With Disabilities //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 213-223.
30. Шерали Хошимович Гофуров, Баходир Хошимович Гофуров ЎЗБЕКИСТОНДА 5Х5 ФУТБОЛ СПОРТ ТУРИНИ ОММАЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ КЎРИШ ҚОБИЛИЯТИДА НУҚСОНИ БОР ШАХСЛАР ҲАРАКАТ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ // Scientific progress. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-5x5-futbol-sport-turini-ommalashtirish-or-ali-k-rish-obiliyatida-nu-soni-bor-shahslar-arakat-faolligini-rivozhlantirish> (дата обращения: 04.05.2023).
31. Gofurov S. SPECIALIZES IN ORGANIZING ATHLETIC EXERCISE GROUPS APPLICATION OF EXERCISES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 659-662.



32. Khoshimovich G. S. Rowing With the Help of Special Equipment and Methods of Balance Development in Canoeing //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 26-30.
33. Gofurov S. H., Tashpolatova K. G., Ollaberganov S. E. University Students Methods of Preparation for Sport of Powerlifting //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 31-35.
34. Teacher, Gafurov Sherali Khoshimovich. "ROWING WITH THE HELP OF SPECIAL EQUIPMENT AND METHODS OF BALANCE DEVELOPMENT IN CANOEING." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.1 (2023).
35. Makhhammadjonovich, Giyasov Temur, Gofurov Sherali Hoshimovich, and Palvanov Avazkhan Abdullaevich. "PHYSICAL FITNESS OF LONG JUMPER 14-15 YEAR OLD ATHLETES ENGAGED IN TRAINING GROUP INCREASING EFFICIENCY." *International journal of advanced research in education, technology and management* 1.1 (2022).
36. Шерзод Абдурахмонович Абдиев, Рухиддин Фахриддинович Одилов, Шерали Хошимович Гофуров, Н. Ш. Бобомуродов ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИ УЛОҚТИРУВЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ // Scientific progress. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/imkoniyati-cheklangan-engil-atletikachi-ulo-tiruvchilarning-mash-ulot-yuklamalarini-rezhalashtirish> (дата обращения: 04.05.2023).
37. Sherali Xoshimovich G'Ofurov, Sherzod Abdurahmonovich Abdiyev, Bahodir Xoshimovich G'Ofurov, Azizbek Xoshimjon O'G'Li Uzoqov ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР ХАЙОТИДА АДАПТИВИЙ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ О'РНИ // Scientific progress. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/imkoniyati-cheklangan-bolalar-hayotida-adaptiviy-jismoniy-tarbiyaning-o-rni> (дата обращения: 04.05.2023).
38. Sherali Xoshimovich G'Ofurov, Bahodir Xoshimovich G'Ofurov NOGIRONLAR ARAVACHASIDAN FOYDALANADIGAN UMURTQA POG'ONASI SHIKASTLANGAN YOSHLARNING АДАПТИВ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯСИ // Scientific progress. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nogironlar-aravachasidan-foydalanadigan-umurtqa-pog-onasi-shikastlangan-yoshlarning-adaptiv-jismoniy-tarbiyasi> (дата обращения: 04.05.2023).

## O'XSHATISH VOSITALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI (O'LMAS UMARBEKOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARI MISOLIDA)

**Karimova Xonzoda**

Termiz davlat universiteti talabasi

**Ergasheva Dilrabo**

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7904037>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari badiiy matnda o'rganilgan, misollar keltirilgan va izohlangan.

**Kalit so'z:** o'xshatish, o'xshatish komponentlari, turg'un o'xshatish, individuall o'xshatish, o'xshatish to'g'risida olimlar fikri, o'xshatishni hosil qiluvchi birikmalar.

### LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF SIMILE TOOLS (IN THE EXAMPLE OF OLMAS UMARBEKOV'S WORK "IT IS DIFFICULT TO BE HUMAN")

**Abstract.** In this article, the linguistic features of similes in the literary text are studied, examples are presented and explained.

**Key words:** simile, simile components, stable simile, individual simile, scientists' opinion about simile, simile-forming compounds.

### ЯЗЫКОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СХОДНЫХ СРЕДСТВ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ОЛМАСА УМАРБЕКОВА «ТРУДНО БЫТЬ ЧЕЛОВЕКОМ»)

**Аннотация.** В данной статье изучаются языковые особенности сравнений в художественных текстах, приводятся примеры и поясняются.

**Ключевые слова:** сравнение, компоненты сравнения, устойчивое сравнение, индивидуальное сравнение, мнение ученых о подобии, подобиеобразующие соединения.

O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bir o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin. Prof. R.Qo'ng'urov o'xshatish haqida o'zining "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida shunday degan: "Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qimmatini yo'qotgandir. Bu tipdagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak".

O'xshatish tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.

Tilshunoslikda o'xshatish munosabati sodda va qo'shma gap doirasida tadqiq etib kelinadi. O'xshatish sodda gaplarni falsafiy va nazariy nuqtai nazardan tadqiq etib chiqqan Nizomiddin Mahmudov: "... o'xshatish sodda gaplarda hamisha murakkab semantik struktura, kamida ikkita semantik propozitsiya ifodalangan bo'ladi", - deb qayd etadi. O'xshatishning sintaktik qurilishi haqida gap ketganda, eng avvalo uning to'rt komponentli qurilma ekanligini unutmaslik kerak.

O'xshatishlarning ikki turi,

Ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar;

2) umumxalq Yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.

Erkin o'xshatishlar muallifning o'ziga xos original o'xshatishlari bo'lib, u yozuvchining mahoratini belgilaydi. Bu fikr misoli sifatida O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin"

asaridan parcha ko'ramiz: "Olma shoxlaridagi sarg'aya boshlagan yaproqlar oltin tangalardek yaraqlardi" (4-bet). Ya'ni bu parchada O'lmas Umarbekov sarg'aya boshlagan yaproqlarni oltin tangaga o'xshatgan. Bu ijodkorning uslubidan kelib chiqib, individuallashtirilgan holda predmetni o'xshatishidir.

Turg'un o'xshatishlar individual o'xshatishlardan farqlanadi. Sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi.

Turg'un o'xshatishlar tilda avvaldan mavjud bo'ladi va nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Dastavval erkin ya'ni individual tarzda vujudga kelgan o'xshatishlar yillar davomida keng iste'molda bo'lganligi bois turg'unlashib qoladi.

Shu sabab o'xshatishlar tilshunosligimizda Komprativ iboralar deb ham yuritiladi. Masalan, "Uning bu xislati ham hammaga o'tning qashqasiday ma'lum", "baqadek qotib qolishdi" gaplaridagi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlardir. Turg'un o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

O'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar turlicha:

1. Affikslar: -day(-dek), -simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan;
2. So'zlar vositasida, sifat (o'xshash, teng), ko'makchi (kabi, singari, qadar), bog'lovchi (go'yo, go'yoki), olmosh (o'zi), ravish (aynan);
3. Izohlovchi izohlanmish munosabatida.

-dek affiksi bilan o'xshatishga misol: Uning ko'z oldidan hozir osmonda charaqlab turgan yulduzlardek oltin medal ketmadi (40-b); Shu kungacha erishgan yutuqlari tushdek, o'zi esa dahshatli bir spektaklda rol o'ynagandek ko'rinadi (95-b).

Kabi so'zi yordamida o'xshatish. Grammatikaga oid adabiyotlarda kabi singari yordamchi so'zlarning o'xshatish qiyoslash ma'nolarini anglatishi qayd qilingan. O'xshatish munosabatlarida kabi yordamchi so'zi o'xshatishning asosiy komponentlaridan biri – o'xshovchi obraz dan keyin qo'llanadi. Masalan: Ikki-uch yil ichida bu yer katta shaharga aylanadi, yoshlik kabi go'zal bo'ladi(101-b).

Xuddi so'zi bilan o'xshatish. Xuddi yordamchi so'zi o'xshatish ma'nosini ifodalagan asosiy va yordamchi vosita bo'lib kela oladi. Ular ko'pincha yordamchi vazifasini bajarib, o'xshatishni bo'rtirishga, konkretlashtirishga xizmat qiladi, ayrim holatlarda o'zlari ham o'xshatish munosabatini ifodalay oladi. Misol uchun: Gulchehrani ko'rdi-yu, xuddi yosh boladek sakrab o'rnidan turdi (100-bet).

## REFERENCES

1. Абдурахмонов Ф., Мамажонов Н. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, Ўзбекистон. 1985.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент, Фан, 1983, 88 б.
3. Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. -Т.; 1966
4. O'lmas Umarbekov. Odam bo'lish qiyin. Sharq, Toshkent, 2007.
5. Umurqulov B. An essential feature of artistik discourse //scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 242-246.

6. Умуркулов, Б. “Бадий адабиётда суз.” (1993).
7. Эргашева Д. А. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi //международный журнал искусство слова. – 2020. – т. 3. – №. 1.

## TERRORIZM VA DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHNING SAMARALI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Ismatillayev Sulton Ilhom o'g'li

O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi 3 - o'quv kursi 302 - guruh kursanti

Boymuradov Ismoil Ismatulla o'g'li

O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi 3 - o'quv kursi 303 -guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7904165>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada bugungi globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi samarali kurashish masalalari keng ilmiy yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* diniy ekstremizm, terrorizm, globallashuv, vijdon erkinligi.

## ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ЭФФЕКТИВНОЙ СИСТЕМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ТЕРРОРИЗМУ И РЕЛИГИОЗНОМУ ЭКСТРЕМИЗМУ

*Аннотация.* В данной статье в условиях современной глобализации и в условиях, когда продолжается трансформация международных и региональных конфликтов, научно освещаются вопросы эффективной борьбы с терроризмом и религиозным экстремизмом.

*Ключевые слова:* религиозный экстремизм, терроризм, глобализация, свобода совести.

## ISSUES OF DEVELOPING AN EFFECTIVE SYSTEM OF COMBATING TERRORISM AND RELIGIOUS EXTREMISM

*Abstract.* In this article, in today's globalization and at a time when the transformation of international and regional conflicts continues, the issues of effective fight against terrorism and religious extremism are scientifically covered.

*Key words:* religious extremism, terrorism, globalization, freedom of conscience.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT bosh ansambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "Biz butun jahon hamjamiyatiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz" deb ta'kidlagan. Vatanimiz uzoq tarixiga nazar tashlasak, zaminimizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixni ko'ramiz. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qilgan xalqlar hamjihatlikda, hamdo'stlikda yashaganlar. Bu esa xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil etadi.

Bugun ham yurtimizda diniy bag'rikenglik va osoyishtalikni ta'minlash Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlar doirasida diniy e'tiqod erkinligi sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining diniy sohada davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari fuqarolarning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi kafolatlash, konfessiyalararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashtirish jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashtirish dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, geosiyosiy maqsadlarga bo'ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko'plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda.

So'nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "Internet" orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolari, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhiga tortish, yashirin "hujralar" tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarining fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jehod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta'bir joiz bo'lsa, "g'oyaviy laboratoriya"lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim.

Diniy-ekstremistik oqimlarning jamiyatimiz barqarorligiga tahdidi respublikamizdagi ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish, fuqarlarni, ayniqsa, yoshlarni qurolli to'qnashuvlar ro'y berayotgan hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruhlariga jalb qilish kabi harakatlarda, shuningdek, mamlakatimizda terrorchilik harakatlari sodir etish uchun suqilib kirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar hushyorlikni qo'ldan boy bermaslik, hamisha ogoh bo'lib yashash zaruratini yana bir marta ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro maydonda ko'p va ikki yoqlama hamkorlikni kuchaytirish, BMT, Shanhay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning faoliyatini samaradorligini oshirish masalasini qat'iy qilib kun tartibiga qo'yimoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan.



Hozirda O‘zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni “terrorchilik”, “ayirmachilik” (separatizm) va “ekstremizm”ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. 2004 yildan beri Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

2010 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo‘yicha oliy darajadagi yalpi majlisida yurtboshimiz Islom Karimov nutq so‘zlab, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikka qarshi birgalikda kurashish hamda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish mavzusiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Shuningdek, O‘zbekiston AQSh, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O‘z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta’sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga zid ravishda konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarning faoliyatini aniqlaydi va ularga chek qo‘yadi.

Davlatimiz Rahbari tomonidan jamiyatimizning ma’naviyatini yuksaltirish, aholini yot va soxta diniy g‘oyalar ta’siridan saqlash, hushyorlik va ogohlikni da’vat etishda diniy soha xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuksak baholanganiga barchamiz guvohmiz. Mazkur e’tirof diniy soxa xodimlarini jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni avaylab-asrash yo‘lida yanada fidokorona faoliyat yuritishlariga undaydi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, shuningdek, yurtimizda ijtimoiy-ma’naviy va diniy vaziyatning barqarorligini ta’minlash, turli diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashni yanada faollashtirish hamda yoshlarni yot g‘oyalarga qo‘shilib ketishining oldini olish maqsadida diniy soha xodimlari quyidagilarga ahamiyat qaratishi zarur hisoblanadi:

- joylarda fuqarolar ichida din bilan bog‘liq jarayonlardan doimiy ravishda boxabar bo‘lib yurish, vaziyatning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha mutasaddi tashkilot va idoralar bilan amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash;

- o‘quv muassasalari, mahalla yig‘inlari, korxonalar va tashkilotlarda yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish;

- ta’lim muassasalarida «Tinchlik eng oliy ne’mat», «Islomda ekstremizm va terrorizmga o‘rin yo‘q», «Diniy-ekstremistik oqimlar – davlat va jamiyatga tahdid» kabi mavzularda davra suhbatlari va seminar-mashg‘ulotlar son va sifatini oshirish, tadbirlarda diniy ekstremistik va terroristik guruhlarning asl qiyofasini fosh etuvchi, jinoyatlari aks etgan videotasvirlardan foydalanish;

- joylarda masjid va alohida uylarda(hujralarda) noqonuniy diniy ta’lim berish holatlariga barham berish yuzasidan tushuntirish ishlari tizimli o‘tkazish;

- mahalliy OAVda diniy ekstremizm va missionerlik g'oyalarning jamiyatga tahdidi haqida davra suhbatlarida ishtirok etish, xalqaro terrorizm hamda diniy ekstremizm g'oyalari zahirida g'arazli geosiyosiy maqsadlar yotganligi, aqidaparastlar islomni buzib talqin qilishlarini asosli tarzda fosh etuvchi chiqishlarni ko'paytirish;

- Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent islom instituti, Imom Buxoriy xalqaro markazi, O'Mning joylardagi vakilliklarining internet saytlariga sof islom ta'limotlarini yoritishga bag'ishlangan hamda turli norasmiy, g'arazli oqimlar tomonidan da'vo qilinayotgan g'oyalarga (xususan, mazhabsizlik, takfir, hijrat, jihod) haqqoniy ilmiy raddiya mazmunidagi maqolalarni muntazam berib borish;

- mahallalarda hushyorlik va ogohlikni ta'minlash, yoshlarning tarbiyasida oila ma'suliyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar uyushtirish va bu kabi ishlarda faol ishtirok etish, mehnat migrantlari bilan ularni jihodiy jamoalar ta'siriga tushib qolishi oldini olishga qaratilgan suhbatlarda ishtirok etish;

- hokimiyat, korxonalar, tashkilot, "Mahalla" va "Nuroni" jamg'armalari bilan hamkorlikda xayriya faoliyatini kuchaytirish orqali ekstremistlar uchun «faoliyat maydonini» toraytirish va yo'qqa chiqarishga alohida e'tibor qaratish;

- diniy-ekstremistik oqimlar tarkibida sodir etgan jinoyati uchun jazo o'tagan, hozirda tuzalish yo'liga kirgan va amnistiya tufayli ozodlikka chiqqan shaxslar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda qatnashish, ularga aqidaparastlikning asl mohiyati va zararli oqibatlarini tushuntirish bilan ijobiy ta'sir o'tkazishga urg'u berish.

#### **XULOSA**

Tinchlikni asrash hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Shu nuqtai-nazardan, globallashtirish jarayonlari shiddatli tus olgan hozirgi zamonda xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy g'urur, iftixor, tuyg'usini, yanada chuqurroq shakllantirish, yot g'oyalardan saqlovchi mafkuraviy immunitet shakllantirish O'zbekistonda buyuk Vanatimiz kelajagiga o'zini ma'sul hisoblovchi barcha yurtdoshlarimizning, shu jumladan, diniy soha xodimlarining muhim vazifasi bo'lib qoladi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent "O'zbekiston".-2020. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://www.lex.uz/acts/111453>.
2. A.U.Anorboyev. Kiberjinoyatchilik, unga qarshi kurashish muammolari va kibernetika xavfsizlikni ta'minlash istiqbollari; monografiya, toshkent 2020 y.
3. Extiyot bo'ling, ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik\ <http://www.qoshrabot.uz/oz/node/661>
4. Sh.M.Mirziyoyevni O'zLDPning X qurultoyida so'zlagan nutqi. <https://uznews.uz/posts/2030-iilgaca-savkat-mirziyoev>.
5. Sh.M.Mirziyoyevni Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz>,30.12.2020.

## ROLE OF ACTUALIZING AGENT IN SPEECH

Olimova (Sobirova) Bahoroy Orifjon kizi

Andijan State University Graduate School of linguistics (Uzbek language)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905596>

**Abstract.** *This article discusses and analyzes the role of the actualizing agent in speech and the development of its speech.*

**Keywords:** *actualization, speech, functional, pronunciation, phonetic, native language.*

## РОЛЬ АКТУАЛИЗИРУЮЩЕГО АГЕНТА В РЕЧИ

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается и анализируется роль актуализирующего агента в речи и развитии ее речи.*

**Ключевые слова:** *актуализация, речь, функционал, произношение, фонетика, родной язык.*

Development of each style in standard English and Uzbek languages predetermined by the change in their norms. This is also greatly influenced by changes in social conditions, scientific progress and the development of cultural life.

Traditional distinguishing functional styles are scientific (Popular Science), formal, publicistic (popular), colloquial, artistic — language subsystems, each of which is unique at five main levels: phonetic, morphological, lexical, syntactic and it has features in terms of text content.

Functional styles are characterized by the fact that it is possible or impossible to use one or another elements and structures, as well as their communication systems. For example, phonetic tools are important for the oratory style: adherence to pronunciation standards, wide use of intonation; syntactic for the scientific style: clear syntactic structure, direct word order, wide application of words, wide application from various specific and specific systems, at the text level: logical, clear presentation structure (newspaper or magazine article). The text of the formal style is characterized by the presence of special terms (commercial, legal, etc.), stamps, specialized foreign expressions, abbreviations, mixed words, the absence of figurative means at the lexical level; complex structures at the syntactic level are formed using the widespread use of sentences in the majhul ratio of the verb. Functional styles are found in both written and oral form. The colloquial style is characterized by the presence of short sentences, two-syllable words, phonetic and syntactic abbreviations. The artistic style combines three subordinate styles: the poetic style of language, the emotional (artistic) prose style, and the dramatic style. Each of these sub-styles and for a separate sub-style also have common features. Artistic texts also have a number of difficulties, since they combine logical-intellectual information with figurative-emotional information.

Reading texts in a popular style can be a challenge. It should be noted that the peculiarity of this style: one part of the texts is scientific, the other part — stands close to texts in other styles. Journalistic texts are characterized by covering political vocabulary, phraseological units, abbreviations, realities, newspaper prints, phrases and various topics. Newspaper and magazine publications have a variety of titles, including promotional and emotionally compelling. Two types of popular style are manifested in oral speech: the oratory style and the text of radio and television programs, as well as the newspaper style in written speech. Written forms of the popular style are essays (philosophical, literary, moral) and journalistic articles (political, social, economic, etc. The

general purpose of the publicistic style is to influence public opinion, convince the reader or audience that the comment made by the author is the only real one, and encourage it to accept the stated opinion. The popular style is classified by its clear and logical syntactic structure with the widespread use of conjunctive words and the fragmentation of the text into parts. Oratory style is an oral form of publicist style. Direct communication with the audience allows you to use the syntactic, lexical and phonetic features of written and oral speech. The peculiarities of this style are the direct appeal to the people; sometimes — characterized by the use of words related to the colloquial style. Stylistic means involved in the style of public speaking are determined by the communicative situation. The speaker often uses analogy and metaphors, but usually employs traditional methods, as individual stylistic devices can be difficult to perceive. Texts in the scientific style are aimed at promoting the achievements of Science and technology to a wide range of readers.

Usually materials are presented in an interesting and convenient way, using a certain amount of numerical data, formulas, diagrams and terms. To attract attention, repetition, rhetorical questions, appeal to the reader are widely used. Scientific text is usually characterized by an informative title, features that characterize the history of the issue or introduce the topic. The peculiarities of the scientific text are characterized by emphasized logic, repetition with additional arguments, complex syntax and professionally oriented topics.

The formal style is represented by different sub-styles or types: the language of business documents; the language of legal documents; the language of diplomacy; the language of military documents. The main purpose of these types of communication tools is to identify the conditions that connect the two parties and to reach mutual agreement between the two contracting parties. Another distinctive feature of this style is the direct use of words in their own sense. Figurative meaning does not apply in it.

Readers' speech is usually explained by the fact that they do not seek to beautifully express their opinion, their oratory thinking and lack of vocabulary. It is no secret that they make many mistakes in expressing their thoughts, whether in written or oral form, and also do not adhere to the culture of speech at all. K.I. Chukovsky's opinion: "...not only the reader, but in many people thoughts come to the surface in a messy, semi-sloppy, sleepy way".

Nowadays, it is considered necessary tasks for every native language teacher to form speech thinking in students, to comprehend the meaning of each pronounced word. Of course, the formation of speech thinking in students requires a long and hard work from the teacher, as well as methodological skill, practical experience and the ability to organize the lesson well. It is known that texts typical of the Uzbek people, many phraseological units are found in stories, readers understand their mere meanings, of course, in the context of the text. However, the head and moveable meanings of words in phrasemas are understood by them only through assignments based on lexicological analysis. In this process, it is necessary to use more phraseological units in the formation of speech thinking of students.

All units in the language have the property of multiple meanings. Examples of this include suffixes, words, and phrases. Before automating a language, it is necessary to convert all units in it as electronically as possible so that a solution to this problem is found. This work is not a process that increases in itself to practice. A lot of time and money is spent on automation. It is necessary to start the work by replacing the units that have initially assimilated into our language from

foreign languages with an alternative. This work has been tried in practice by scientists before, but has had an impact. The reason is that the tongue will never take the barely tucked units. This should be done as a result of a thorough analysis of the work slowly. Only then can the intended result be achieved.

In the plan to improve the effectiveness of speech development, it is important to conduct walks, trips not only for simple observations (observations) on surrounding objects, but also for their study.

At this point, we will have to figure out what can be achieved in the study of surrounding objects.

In the study of the environment (by educators or parents), children should not just observe, but also go to see the objects in their parts, elements and perceive processes, phenomena, and reflect on them. To achieve this, the educator is tasked with comparing, comparing, separating, generalizing, analyzing and using other similar methods. In addition, in the process of learning) it is important to attract preschool older children to the types of labor that are convenient for them (cleaning ditches, loosening the base of trees, caring for flowers). Such an approach is associated with the fact that when a person does something with his own hands, he will remember it more and more fully. With this method, shortcomings in the connecting speech of preschool older children are complemented by verbatim and recollection of the names of objects-objects.

The development of speech of preschool adults largely depends on the correct solution of the following things:

- didactic materials on the development of speech (speech of educators and parents aimed at a certain purpose, fairy tales, songs, stories that are read or told to children);
- methods and methods of Education used to master didactic materials;
- it is necessary that, relying on the content of the educational material, some methods of its study and the principles related to them, the educator plans all the work related to the cultivation of speech.

We came to the conclusion that in the process of conducting research work on the same problem, it is better to work on speech growth, relying on the following didactic principles:

- understanding the speech material for the teaching of the organs of speech as well as the hand;
- understanding the importance of speech and developing lexical and grammatical skills;
- assessment of speech expressiveness. To do this, it is advisable to choose didactic materials that develop a certain feeling in older preschool children;
- the gradual enrichment of speech.

#### **REFERENCES**

1. Arushanova A.G. Razvitie rechi doshkolnika (grammatika). Metodicheskoe posobie dlya vospitateley. –M., 1997.
2. Anna Freyd. Detskiy psixoanaliz. –SPb.: Piter, 2003. (Seriya «Xristomatiya po psixologii»).
3. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. –T., 2001.



## GOTIKA DAWIRINIŃ ARHITEKTURASI HÁM TARÍYXÍ

Berdaq atindađı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti  
kórkem-óner fakulteti oqitiwshisi

**Muxammedyar Alliyarov**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905661>

**Annotatsiya.** Bul maqlada Gotika dáwiriniń arxitekturası sonıń menen birge onıń rawajlanıw basqıshları, sol dáwirdegi súwretlew kórkem-óneri jánede gotika usılında qurılğan imaratlar haqqında sóz etilgen.

**Gilt so'z:** gotika, feodlizm, ónermentshilik, usil, arxitektura, do'retpe, o'ner, bezew.

### THE ARCHITECTURE OF THE GOTHIC PERIOD IS ALSO HISTORICAL

**Abstract.** In this article, the architecture of the Gothic period, along with the progress of its development, the buildings built in the Gothic style, are described in the left period.

**Gilt words:** Gothic, feudalism, entertainment, style, architecture, do'retpe, oner, bezew.

### АРХИТЕКТУРА ГОТИЧЕСКОГО ПЕРИОДА ТАКЖЕ ИСТОРИЧЕСКАЯ

**Аннотация.** В данной статье описывается архитектура готического периода, наряду с ходом его развития, здания, построенные в готическом стиле, в левый период.

**Ключевые слова:** готика, феодализм, развлечения, стиль, архитектура, до'ретпе, онер, безев.

XII ásirde baslap feodalizm formatsiyası ishinde jańa social kúshlerdiń payda bolıwı hám rawajlanıp barıwı klassik orta ásir dástúrleri krizisine sebep boldı. Bul jańa kúshler qalaǵa keń tarqalıwı menen baylanisli halda óz kúshin asırıp bardı. Qalalarda sawdagerler korporatsiyaları hám ónermentshilik tsexları róliniń artıp barıwı social basqarıw princpı xarakterine tásir ete basladı.

Feodal basshilarida azatlıqqa, gárezsizligine erisiwge umtılıw artıp bardı. Bul dáwirde dinge sıyınıw ele elde húkindarlıq qılatuǵın edi, shirkew bolsa arxitekturaǵa óz talabın qoyıp atırǵan bolsa da biraq qaladaǵı ónerment hám sawdagerlerdiń bilimine, ómiriniń jańa táreplerin ashıwǵa umtılıw artıp bardı. Evropa qalalarında dáslepki pán orayları universitetleriniń dúziliwi bolsa, bul umtılıwǵa orin jaratıp bardı.

Dúnyaǵa sin múnasábette bolıw tendentsiyası arttı. Xalıq sanasınıń artıp barıwı bolsa jámiyet aldında teńlik, biradarlıq máseleleriniń unamlı sheshiliwin talap ete basladı. Turmıshlıq temadaǵı dóretpeler júzege kele basladı. Bul dáwirlerde súwretlew kórkem óner hám arxitekturada da saldamlı ózgerisler júz berdi. Batıs Evropa mádeniyatınan Vizantiya kórkem óneri dástúrlerine úzil-kesil shıǵarıp taslandı. Dáwir ózinde ańlatıwshı realistik forma hám mazmunındaǵı dóretpeler, funksional tárepi orta baslaǵan arxitekturalıq imaratları júzege kela basladı. Evropada feodalizm gúllegen XII — XV ásirler arxitekturası «gotika» arxitekturası dep júritiledi, «gotika» sóz dizbegi de shártli alınǵan onıń luǵattaǵı mánisi italyansha sózden alınǵan bolıp, «gotlardiki» degen mazmundı ańlatadı. (gotlar german qawimleriniń biri).

Bul sóz dizbegi oyanıw dáwirinde kiritilgen bolıp, kórkem ónerde got qawimleri kórkem ónerdiń táseri kúshli bolǵanlıǵı ańlatadı. Gotika usılı XII ásirde ekinshi yarımında Frantsiyada payda boladı hám rawajlanadı. XIII — XIV ásirlerde bolsa batıs Evropada jetekshi usılına aylandı hám ayırım mámleketlerde bul usıl XV ásirge shekem dawam etdi. Gotika usılı XII ásir ortalarından baslap XIII ásirde eń gúllegen dáwirde basınan keshirdi. Bul usıl túrli mámleketlerde ózine tán



kórinislerge iye, biraq bul onıń ishki dúzilisi hám ulıwma tárepin biykar etpeydi. Arxitektórlıq gotika usılın belgilewde zárúrli orındı iyeleydi. Gotika usılında qurılğan imaratlardı roman usılında qurılğan imaratlarǵa salıstırǵanda ataqlı, úlken hám bezegi kóp. Olarda isletilingen arxitektórlıq formalar jeńil joqarıǵa iyiliwshen hám túrli túsli.

Bul dáwir soboriniń funktsional mazmunı da ózgeredi. Ol qalanıń social orayına aylanadı. Bul jerde sıymıwdan tısqarı qala jıynalısları ótkeriledi, tartıslar uyımlestirilatuǵın hám de universitet leksiylari oqılar edi. Keleside sobor imaratın qurıwda tek ǵana diniy ideyalardan emes, bálkim sociallıq ómir sezimi, úlken kollektiv qúdireti de úgit nasiyat etiledi. Gotika soborlariniń aldinga umtiliwshi formasında bolsa dáwir adamlarınıń azatlıqqa hám jaqtılıqqa umtılıwları óz kórinisin taptı. Bunday tásirler beriwde soboriniń imaratları zárúrli orındı iyeleydi. Ol soboriniń jáne de biyik, jeńil bolıp kóriniwine xızmet etedi. Usınıń menen birge, bul minarlarda funktsional áhmiyetine iye bolǵan, yaǵnıy olar qalanı gúzetip turıw ushın hám de órt óshiriwshiler ushın da qolaylastirilǵan.

Ayrim minarlardıń úsh bólegi qoraz súwreti menen pitkenligi de sol mazmundı ziyrek bolıp turıw kerekligin bildirgen. Arxitekturalıq gotika usılıniń jaratılıwı dáwir ziyrekligi, texnika rawajlanıwı jetiskenligi tiykarında júzege keldi. Buniń áhmiyeti roman arxitekturalıq qollanılǵan arka hám qıysıq ravoxlardıń jańasha ayılıwı hám eń áhmiyetlisi, bulardıń bekkem sıyıqlar (karkaslar) sistemasınıń nayza siyaqlı qorǵan-saray, ishki ústin hám kontroforlar tiykarında sheshiliwi edi. Arxitektórkem bekkem sıyıqlar sistemasınan paydalanıp, ilaji bolǵanınsha diywal hám ásirese, ravoxlardıǵı salmaqlılıqtı kemeytiwge háreket etedi. Sol maqsette ravoxlardan túsetuǵın salmaqlılıq bólistiriwge beredi. Tiykarǵı nef bir qatar tórtmúyeshlikler ajıratıp, olardıń hár - biri bir biri menen kesilisen nayza siyaqlı arkalar menen jawiladi. Bul ravoxlardan túsetuǵın hám qaptal tárepke tartiwshı salmaq kúshin kemeytiwge xızmet etedi. Nervyurdan paydalanıw bolsa ravox salmaǵın jáne de azayıwın támiyinleydi. Nervyuralı ravoxlarnı bekkem etip islengen ústinlerge ornatiladi. Bunday konstruksiyalarda diywallar óz funkciyasın joǵaltadı. Onıń wazıypası sıyıqlar salmaǵıdǵı bosliqtı toltırıw menen shegaralanadı. Bunday ashıq bólimlerdi áynek túńlikler menen toltırıw múmkinligi de bul usıldıń múmkinshiliklerin kórsetedi. Arxitekturalıq júz bergin bul jańalıqlar keleside biyik hám keń kólemdegi imaratlardı da qurıw múmkinshiligin jarattı.

Diywallardıń tayansh funkciyasın orınlawdan qutiliw bolsa keń kólemde ayna, áynek, peshtaxta, galereya, áywanlardan paydalanıp imaratıń ishki bólegin nurǵa toltiriw imkaniyatın beredi. Qurılǵan imaratlardıń jeńil hám elegant bolıp kóriniwini támiyinleydi. Gotika arxitekturalıq nayza siyaqlı arka zárúrli orındı iyeleydi. Bul forma iymek áynek, ravox hám galereya, áywan hám teris aywanlarda qaytarılıp, gotika arxitektórlıǵında ózine tán qaytarılmas jeńillik kiritedi. Arkalar tartıp shıǵıp ketiwshidey kórinedi. Bul qásiyetti gotika arxitektórlıǵında keń isletilingen vertikal tuwri sıyıqlar (kontrast) jáne de asıradı.

Arxitekturalıq konstruksiyasında júz bergin bul ózgerisler imaratıń ishki hám áynek tárepini kórinisinde da óz ańlatpasın taptı. Gotika intererleri keń, biybaha, jariq. Transept hám tiykarǵı nef arasındǵı keskin shegarası kórgezbesi de bul qásiyetin jáne de asıradı. Soboriniń aldingi tárepini tıǵıs, keń maydanǵa qaratıp quriladı. Onıń bezetiwine bolsa bólek itibar beriledi. Músinshilik hám de arxitektórlıqtıń dekorativ elimentleri jay aldi tárepiniń jáne de hár qiyli hám elegant bolıp kórinisne xızmet etedi. Gotika inter'erleri diywallarında pútin tegis üstlerdiń kemligi, monumental diywaliy súwretshiliktiń rawajlanıwına sebep boldı. Onıń ornına vitraj kórkem óneri iyeledi.

Gotika imaratlardin ulken — ulken anyeklerin vitraj kompozitsiyalari iyeledi. Bul dawirde musinshilik eli jetekshi orinda bolip, insaniylik, adamgershilik, sheriklik ullilanip, oz ornin tawadi. Donatorlarga atap estelikler ornatiw, haykeller qoyiliw adeti payda bolganligi da korkem onerding ugit nasiyatlawshi roli artip baratirganligin korseledi. XII —Xv asirlerde gotika usilin derlik hamma mamleketler oz basinan keshirdi, lekin bul usil jergilikli sharayat ham dawir talabinan kelip shigip, ozine tan koriniste janaliq ashti.

Frantsiya. Gotika watanı esaplangan Frantsiyada bul usilda islengen doretpeler qatnasinin elegantligi menen xarakterlenedi. Parijdagi Bibi Mariyam sobori (notrdam, deperi, 1163 jili baslanip ayırım bölimleri 1314 jilda pitken) daslepki gotikaga tiyisli bolip tabiladi. Bes nefli, kishi transepli ayrim waqitlari tipidagi bul binaning oldi tarepinde eki minar bar. Ol sobordin biyik ham «joqariga umtilatugin» bulip korinisine xizmet etedi. Bosaga, ayna, anyek ham qapilar joqarsina nayzaga uqsas arkalar onin jencil ham dinamikalik korinisin tamiyinleydi.

Reyemdagi sobor (XIII asirde baslanip, XIV asirde pitken) gotikaning en rawajlangan dawirine tiyisli. Onin uzunligi 150 m, minardin biyikligi 80 m. Bul sobor oz waqtında xaliq birligin jirlaw etiwshi ramziy belgi retinde qabil etilgen. Bul binada gotika usili uzinin klassik korinisinde korinetugin etti. Amendagi sobor gotikaga tan koefficientler gozzalligi, uliwma korinisi putinligi buzila baslaydi. Dekorativ bezewlerdin molligi bolsa binaning, konstruktiv aniqhigina unamsiz tasir etken.

Germaniya. Mamlekette gotika usili frantsuzlar tasirinde rawajlandi, lekin nemis gotikasida putinlik jetispeydi ham ogan tan bolgan dramatism, roman arxitektorligi dasturleri menen qosilip ketedi. Bunnan tısqari, nemis gotikasida bir minarli soborlar da ken ushraydi. Imaratlardin tayney tarepi apiwayi kem bezetilgen. Kelndagi sobor (1248 — 1880) amen soborina uqsatip qurilgan. Italiya, arxitektorshiligida gotika usili XIII asirdin aqirida kirip keles basladi, lekin daslepki payitlarda roman arxitektorligi principlerine tasir etpedi. XIV asirde gotika usili principleri toliq korine basladi. Ispaniya gotikasi musulman arxitektorligi principlerinen bayigan. Angliya gotikasi salmaqli, konstruksiyada bolsa detallar kobeyip ketkenligi ham arxitektura bezeginin molligi menen xarakterlenedi.

### **Paydalanilg'an a'debiyatlar**

1. Баммес Г. Изображение фигуры человека: пособие для художников, преподавателей и учащихся (Одам фигурасини тасвирлаш: рассомлар, ўқитувчилар ва ўқувчилар учун қўлланма) / Баммес Г. – Берлин: Изд-воФольк унд Виссен (нашриёти), 1984.
2. Барчан Е. Анатомия для художников (Рассомлар учун анатомия) /
3. Барчан Е. – Будапешт: Корвина, 1959.
4. Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок. М.: Просвещение (Маориф), 1976. –286 с (б).
5. Тихонов С.В. ДемьяновВ.Г., Подрезков В.Б. “Рисунок”–М.:Стройиздат, 1983. – С. 222 – 232.
6. Барш А.О. Наброски и зарисовки (Хомаки расмлар ва чизгилар) / БаршА.О. – М.: Искусство (Санъат), 1970. – 166 с (б).
7. Ли Н.Г. Основы академического рисунка / Н.Г.Ли – М.: ЭКСМО, 2003
8. Батраев З.С. Рисунок (Расм): метод, указания для 3-го курса спец. 1201 (1201 мутахассилиги бўйича 3-курслар учун услубий кўсатма)/ З.С.Батраев – Казань, 1987.

## O'TKIR HOSHIMOVNING ASARLARIDA O'XSHATISH VOSITALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Abdimo'minova Dildora Oybekovna

TerDU talabasi

Ergasheva Dilrabo

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905736>

**Annotatsiya.** Maqolada o'xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari badiiy matn doirasida o'rganildi, misollar keltirildi va izohlandi. O'xshatishlar haqida bir qancha olimlarning ilmiy qarashlari muhokama qilindi. Metafora hamda o'xshatish bir-biriga taqqoslanib, misollar keltirilib farqlari ko'rsatildi. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarlaridan namunalar ko'rildi.

**Kalit so'zlar:** poeziya, o'xshatish san'ati, leksik vositalar, go'yo, xuddi, singari, misli, bamisli, baayni, xususiy o'xshatish.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СРАВНЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЎТКИРА ҲАШИМОВА

**Аннотация.** В статье изучались языковые особенности сравнений в рамках художественного текста, приводились и пояснялись примеры. Были обсуждены научные взгляды нескольких ученых на сравнения. Метафора и сравнение были сопоставлены, приведены примеры и показаны различия. Были просмотрены образцы произведений Откира Гашимова «Между двумя дверями» и «Надписи на границе тетради».

**Ключевые слова:** поэзия, искусство сравнения, лексические приемы, как бы, будто, будто бы, похожий на, похожий на, специальное сравнение.

## LINGUISTIC FEATURES OF SIMILES IN THE WORKS OF O'TKIR HASHIMOV

**Abstract.** In the article, the linguistic features of similes were studied in the framework of the literary text, examples were given and explained. The scientific views of several scientists about similes were discussed. Metaphor and simile were compared, examples were given and differences were shown. Samples of O'tkir Hashimov's works "Between Two Doors" and "Inscriptions on the Border of a Notebook" were seen.

**Key words:** poetry, art of simile, lexical devices, as if, as if, as if, similar to, similar to, special simile.

O'xshatish badiiy tilning tasviriy vositalaridan biri bo'ib, u obrazlilik, tasviriylikni kuchaytirish, favqulotda poetik xususiyati mavjudligi bilan ajralib turadi va kutilmagan ifodadorlik, obrazli ta'sirchan fikr ifodalash uning muhim belgilaridan sanaladi. O'xshatish-ikki xil narsani qiziqarli tarzda taqqoslydigan nutq figurasi hisoblanib, o'quvchining yoki tinglovchining ongida qiziqarli aloqani boshlash uning maqsadidir. O'xshatish majoziy tilning keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, uning misollarini she'rlardan tortib qo'shiq so'zlariga qadar uchratish mumkin.

Aristotel poeziyani o'xshatish san'ati deb ataydi va uning fikricha inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi. XV asr badiiy san'atlar ilmining donishmandi Atoulllo Husayniy

ta'rifiga ko'ra "Tashbeh vasfta bir nimani bir nimaga o'xshatmoqdin iboratur. Anikim, tashbeh qilurlar mushabbah derlar va anikim, anga tashbeh qilurlar mushabbah bih derlar va ul vasfni vajh-i-shibh derlar".

Professor N.Mahmudov o'zbek tilida o'xshatishlarning to'rt unsuridan tashkil topishini, ular o'xshatishning shakily ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi va "...o'xshatish sodda gaplarda hamisha murakkab semantik struktura, kamida ikkita semantik propozitsiya ifodalangan bo'ladi", - deya qayd etadi. Demak o'xshatish hosil bo'lish o'rniga ko'ra to'rt asos - o'xshatiluvchi predmet (o'xshatish obyekt),

o'xshatuvchi predmet (o'xshatish etaloni)

o'xshatma belgi (o'xshatish asosi)

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, кўпчилик санъатшунослик, тасвирий санъат, умуман, маданиятшунослик фанлари амалий машғулотлардан иборат деб, ҳисоблайди. Аслида талабалар ижро, амалий машғулотдан ташқари дастлабки босқичларда назарий маълумотлар билан кўпроқ ишлаб ўз тасаввур ва тафакурларини имкон қадар бойитиб борадилар.

Бугунги таълим аввалгиларидан анча фарқ қилади. Ахборот технологиялари, илм-фан шиддат билан ривожланиб кетгани туфайли таълим жараёнида маълумот олиш ва бериш муаммо бўлмай қолди. Ўқиувчи ўз устида ишламас, янги методикаларни кашф қилмас, талабадан ортда қолади. Шу маънода, ўқитувчи учун модуль-кредит таълим тизими қулайлик туғдиради. Бунда талабаларни мустақил фаолиятга ўргатиб олиш муаммоларнинг ечими ҳисобланади. Талаба мустақил таълимини самарали ташкил этишнинг бош мезони – ўқув топшириқларни пухта тузиб олишдир.

## REFERENCES

1. Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма, тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент: 2015.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусств Узбекистана. С древнейших времен до середины девятнадцатого века. –Москва: Искусство, 1965.
3. Тўраев Ф. Бухоро муғаннийлари. –Тошкент: Фан, 2009.
4. Шахермайр Ф. Александр Македонский. –Москва: Terra-Книжный клуб, 1999.
5. Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Алматы-2003. — 150 С.
6. Ефимов А. В. Олей беккув юртлар как математик притчаалар дхалплами. 2006. - 250 п.
7. Высший преподаватель кредит тизими. - М.: Известия. — № 24 (57).
8. Кубея Или. К. классик университет кредит обучение тизмин жорил Илиш характермари. - Олма-Ота, 2004. — 150 С.
9. Буслук Г. Е., Андреев Р. Е., Колеченок А. А. модуль обучения. Minsk: 2007. — 176 п.
10. Кузнецова Или. И., Кравец А. Г. спрси individual обучение траекториясининг кредит-модельныйпредложение. Известия-2009. Вол. 6. - 6-сон.
11. Курина, В. А. Universithlarda Credential-модельный ряд инженерных специальностей. Harold.bn Серия: психология и педагогика фанлари. - 2011. - 1-сон. - 67-75 бетлар.
12. Гарга, В. В. кредит-модуль поддержки идеи: Умида и поражения. Дисциплина, культура, образование дунези. - 2010. - 6-сон. - с.
13. Хоботова, Е. В. управление кредитом-модульная технология по совершенствованию возможностей информационного бюллетеня — 2009. - 45 С. - с. 7-9.

## ELEKTROLITIK DISSOTSIYALANISH NAZARIYASI

Omonov Jahongir Rahmonqul o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti 3 - kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7907178>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* azot, kislorod, Dissotsiyalanish, kationlar, anionlar.

## ТЕОРИЯ ЭЛЕКТРОЛИТИЧЕСКОЙ ДИССОЦИАЦИИ

*Аннотация.* Эта статья о теории электролитической диссоциации.

*Ключевые слова:* азот, кислород, диссоциация, катионы, анионы.


## THEORY OF ELECTROLYTIC DISSOCIATION

*Abstract.* This article is about the theory of electrolytic dissociation.

*Key words:* nitrogen, oxygen, dissociation, cations, anions.

Turmushda biz toza suvni hech uchratmaymiz. Tabiiy suvlarning hammasi eritmalaridan iborat. Toza shisha ustiga bir tomchi vodoprovod suvini bug'latib, unga ishonch hosil qilish mumkin. Yani shishada xira dog' hosil bo'ladi. Bu suvda erigan tuzlarning ajralib chiqqanini ko'rsatadi. Yomg'ir va qor suvlari bug'latilganida dog' hosil bo'lmaydi, bu suvlar toza tabiiy suv hisoblanadi, ammo ularning tarkibida azot, kislorod va boshqalar erigan holda bo'ladi.


Eritmalar tabiatda katta ahamiyatga ega. Tabiiy shifobaxsh suvlar ko'pgina tog' jinslarining qatlamlari paydo bo'ladi. O'simliklarning o'sishi uchun zarur tuzlarni tuproqdan eritmalar holda oladi. Agar doimiy suvlarda erigan tuzlarning miqdori keragidan ortiq bo'lsa, bunday suvlar ekinlarni sug'orish uchun yaroqsiz bo'ladi. Odam va hayvonlarda ham ovqatni singdirish jarayonlari ham suvda erigan holda amalga oshadi.



### Suv eritmasida ion bog'lanish dissotsiyalanish sxemasi

Barcha moddalar elektr toki ta'siriga munosabatiga ko'ra ikki guruhga: elektr tokini o'tkazadigan va elektr tokini o'tkazmaydigan moddalarga bo'linadi. Keyinchalik ayrim murakkab moddalarning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazishi aniqlandi. Bu hodisalar mukammal o'rganilib, eritmaları elektr tokini o'tkazadigan moddalarni **elektrolitlar**, eritmaları elektr tokini o'tkazmaydigan moddalar **noelektrolitlar** deb ataladigan bo'ldi.






### Eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini o'lchash asbobi

Nima uchun ayrim moddalarning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazadiyu, boshqa moddalar har holatda ham elektr tokini o'tkazmaydi degan savol tug'iladi. Bu savolga 1887-yil S. Arrenius javob topdi va shunga ko'ra o'z nazariyasini yaratdi:


1. Elektrolitlar suvda eriganda musbat va manfiy ionlarga ajraladi.
2. Elektrolitlarning suvda erib ionlarga ajralish hodisasi **elektrolitik dissotsiatsiya** deyiladi. Qand, efir, spirt va boshqa suvda eriganda ionlarga dissotsiyalanmaydi, ajralmaydi.
3. Elektr toki ta'sirida musbat zaryadlangan ionlar katodga, manfiy zaryadlangan ionlar anodga tomon harakatlanadi.
4. Musbat zaryadlangan ionlar **kationlar**, manfiy zaryadlangan ionlar **anionlar** deyiladi.
5. Dissotsiyalanish – qaytar jarayon, molekullarning ionlarga ajralishi bilan bir vaqtda ionlarning birikish jarayoni ham sodir bo'ladi.



### Suv eritmasida elektrolitik dissotsiyalanish

Elektrolit moddalar eritmalarining elektr tokini o'tkazishini tushunish uchun avvalo moddalarning tuzilishini va ulardagi kimyoviy bog'lanish tabiatini eslash zarur. Qattiq holdagi osh tuzi elektr tokini o'tkazmaydi, lekin uning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazadi, chunki eritmada zaryadlangan zarrachalar – ionlar hosil bo'ladi. Eritmalarga elektr toki ulangan elektrodlar tushirilganida musbat zaryadli ionlar elektr manbayining manfiy qutibi (katod) tomon



tortiladi, manfiy zaryadli ionlar esa elektr manbayining manfiy qutibi (anod) tomon tortiladi. Shunga ko'ra ular kationlar, anionlar deyiladi.



### Ionlarning elektr maydonidagi harakati

Kislota, ishqor va tuzlarning dissotsiyalanishi

**Kislotalar.** Suvda yaxshi eriydigan kislotalar kuchli elektrolit hisoblanadi. Elektrolitik dissotsiya nuqtai nazaridan: **kislotalar – murakkab modda bo'lib dissotsiyalanadigan kation sifatida vodorod ionlari, anion sifatida turli kislota qoldiqlari hosil qiladigan ekektrolitlardir.** Kislota tarkibidagi vodorodning miqdoriga qarab, vodorod ioni bitta bo'lsa dissotsiyalanish bir bosqichda, vodorodning miqdori ikta bo'lsa dissotsiyalanish ikki bosqichda, vodorodning miqdori uchta bo'lsa dissotsiyalanish uch bosqichda boradi. Vodorod ionlari eritmaga kislotali muhit beradi.




Kislotalarning nordon mazasi, indikatrlar rangini o'zgarishi eritmalarda vodorod ionlarining mavjudligi va unung konsentrasiyasiga bog'liq.

Elektrolitik dissotsiyalanish nuqtai nazaridan **asoslar-murakkab modda bo'lib dissotsiyalanganida kation sifatida metall ionlari, anion sifatida gidroksil ionlari hosil qiladigan elektrolitlardir.** Gidroksil ionlari eritmada ishqoriy muhit hosil qiladi.




Suvda yaxshi eriydigan asoslar-ishqorlarning eritmaları ionlarga to'liq disosasiyalanadi, dissotsiyalanganida anion sifatida faqat gidroksil ionlari hosil bo'ladi.

Elektrolitik dissotsiya nuqtai nazaridan **tuzlar-murakkab modda bo'lib,** dissotsiyalanganida metall kationi va kislota qoldig'i anionini hosil qiladigan elektrolitlardir. Ular tarkibiga ko'ra ionlarga turlicha disotsiatsiyalanadi. Elektrolitik dissotsiya mexanizmi, dissotsiya darajasi, kuchli, kuchsiz elektrolitlarga) Agar tuz o'rta tuz bo'lsa disosatsiya quyidagicha bo'ladi:



b) Nordon tuzlar dissotsiyalangan metal kationi bilan vodorod ioni ham hosil bo'ladi.



v) Agar asosli tuzlar bo'lsa, dissotsiyalanish quyidagicha bo'ladi.




Tuzlar elektrolitik dissotsiyalanish jihatdan ancha murakkab modda. Dissotsiyalanganida metal kationi va kislota qoldig'i anioninidan tashqari kislota qoldig'i anionida tashqari tarkibida vodorod va gidrooksid ionlari xam bo'lishi mumkin.

Elektrolitik dissotsiya mexanizmi, dissotsiyalanish darajasi, kuchli, kuchsiz elektrolitlar

Moddalar suvda erib elektr tokini o'tkazishiga sabab, suv molekulari qutbli bo'ladi, biror tuzning kislotali suvga tushganida uning kislotadagi ionlar kislotali suvga tushganida uning sirtidagi ionlar suvning qutubli molekularni o'ziga toptadi.

Natijada suvning tortilib turgan molekularini harakatda bo'lgan boshqa molekular tortib turadi. Shu tufayli suvga tushgan kristallar asta-sekin suvda eriydi va erkin xarakat qiladigan ionlar hosil bo'ladi. Bu ionlar tartibsiz xarakatda bo'ladi, ular bir-biri bilan to'qnashib, birikishi va molekularlar hosil qilishi mumkin.



### Osh tuzining dissotsiyalanish sxemasi

Eritma konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa ionlar shuncha tez to'qnashadi. Eritmadagi moddalarni ionlarga qanchalik ko'p yoki kam ajralaganini ko'rsatadigan kattalik bor. Bu kattalik dissotsiya darajasi deyiladi va u  $\alpha$  harfi bilan belgilanadi. U  $m$  ionlarga ajralgan molekularlar sonini,  $M$  butun molekularlar soniga nisbati bilan o'lchanadigan kattalikdir.

$$\alpha = \frac{dms}{bms}; \alpha = \frac{m}{M}$$

Bu formulada  $dms$  – dissotsiyalangan molekular soni –  $m$ ,  $bms$  – butun molekular soni. Moddaning dissotsiyalanish doimiysi qancha kata bo'lsa, uning dissotsiyalanish xususiyati shuncha yuqori bo'ladi. Elektrolitlar dissotsiyalanganida ionlarga ko'p yoki kam ajralishi mumkin, elektrolitlar 3 guruxga bo'linadi: dissotsiyalanish darajasining qiymati 30% dan yuqori bo'lsa kuchli, 3-30% oralig'ida bo'lsa o'rtacha kuchli, 3% dan kam bo'lsa kuchsiz elektrolitlar deyiladi.

Konsentratsiyaning o'zgarishi, hamda temperaturaning ko'tarilishi dissotsiya qiymatini o'zgartiradi. Suvda yaxshi eriydigan tuzlar va asoslar kuchli elektrolitlardir, ularning eritmalari to'liq ionlarga ajraladi. Kuchsiz elektrolitlarning dissotsiyalanishi eritmadagi moddaning konsentratsiyasi kamayganda ortib boradi.

#### REFERENCES

1. Raymond Chang. General Chemistry: The Essential Concepts. 5 edition, England 2013. 280-293- betlar.
2. Парпиев Н.А., Рахимов Х.Р., Муфтахов А.Г. Аноганик кимё назарий асослари. Т.: Ўзбекистон. 2000. 134-162 бетлар.
3. Тошпўлатов Ю.Т., Исҳоқов Ш.С. Аноганик кимё. Т.: Ўқитувчи. 1992. 53-56-бетлар.
4. Toshpulatov Yu.T., Rahmatullayev N.G. Anorganik kimyo (nazariy asoslari). Т.: TDPU. 2005. 82-90-betlar.
5. Аҳмеров Қ., Жалилов А., Сайфутдинов Р. Умумий ва аноганик кимё. Т.: Ўзбекистон. 2003. 92-131 бетлар.

## ТАЖРИБАДА ЎТКИР ВА СУРУНКАЛИ НУРЛАНИШ ТАЪСИРИДА ОШҚОЗОН ОСТИ БЕЗИДАГИ МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРНИ БАҲОЛАШ

Султонова Лола Джахонкуловна

Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти, Онкология ва тиббий радиология кафедраси доценти, DSc.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7911989>

**Аннотация.** Ўткир нур касаллиги - бу клиник синдромлар гуруҳи бўлиб, танага рухсат этилган дозалардан 1 Гр (100 рад) ортиқ дозаларда давомли бўлмаган вақт давомида (бир неча секунддан 3-суткагача) сингувчи нурланиш таъсири натижасида келиб чиқадиган клиник синдромлар гуруҳидир. Ўткир нур касаллиги - бу танага ўртача рухсат этилган 1 Гр (100 рад) дозадан ортиқ нурланишнинг қисқа муддатли (бир неча сониядан 3 суткагача) таъсиридан кейин юзага келадиган клиник синдромлар гуруҳи бўлиб ҳисобланади. Дозаларнинг умумий даражаси, кучи ва танада тарқалишига кўра, у қон ҳосил қилувчи органларнинг (1-10 Гр), ичакларнинг (10-20 Гр), умумий гемодинамик ва токсемик (20-100 Гр) ва миёдаги бузилишлар (100 Гр) устунлиги билан кечиши мумкин.

**Калим сўзлар.** Ўткир нур касаллиги, дозалаш, ошқозон ости бези, Фатер-Пачини таначалари.

### MORPHOLOGICAL CHANGES OF FOSSILS UNDER IRRADIATION WERE STUDIED IN EXPERIMENTS AND JOURNALS.

**Abstract.** Clinical syndromes of radiation sickness are clinical syndromes characterized by prolonged (from a few seconds to 3 days) exposure to radiation on the body in doses of 1 gy (100 rad). The clinical picture of radiation sickness is clinical syndromes resulting from irradiation of the body at a dose of 1 gy (100 rad) for a long time (from a few seconds to 3 days). Doses may vary depending on the severity, severity and severity of the lesion, the degree of damage to the respiratory system (1-10 gy), intestines (10-20 gy), the degree of hemodynamic and toxicology disorders (20-100 gy) and brain (100 gy).

**Key words:** In acute radiation sickness, a dose exceeding the permissible dose, Vater-Pacini is prescribed intravenously.

### В ОПЫТАХ И ЖУРНАЛАХ ИЗУЧАЛИСЬ МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ОКАМЕНЕЛОСТЕЙ ПРИ ОБЛУЧЕНИИ.

**Аннотация.** Клинические синдромы лучевой болезни-это клинические синдромы, характеризующиеся длительным (от нескольких секунд до 3-х суток) воздействием радиации на организм в дозах от 1 гр (100 рад). Клиническая картина лучевой болезни - это клинические синдромы, возникающие в результате облучения организма в дозе 1 гр (100 рад) в течение длительного времени (от нескольких секунд до 3 суток). Дозы могут варьироваться в зависимости от степени тяжести, степени тяжести и тяжести поражения, степени поражения органов дыхания (1-10 гр), кишечника (10-20 гр), степени нарушения гемодинамики и токсикологии (20-100 гр) и мозга (100 гр).

**Ключевые слова:** При остром лучевом заболевании, дозе, превышающей допустимую, Фатер-Пачини назначают внутривенно.

Ўткир нур касаллигининг сабаби ядровий портлашда, ядровий-энергетик стационарлар курилмаларни эксплуатация қилиш қоидаларини бузиш ёки режимни ўзгаришида юзага



келувчи  $\gamma$ -нейтронли, рентгенли ва  $\gamma$ -,  $\beta$ -нурланиш ҳисобланади. Ионлантирувчи нурланишнинг таъсири натижасида хужайравий тузилмалар генетик аппарати, суяк кўмиги қон яратувчи тузилмалари, лимфатик тракт, ошқозон-ичак тракти эпителийси, тери, ўпка ва бошқа аъзоларнинг ўткир зарарланиши учрайди.

Организмда ошқозон ости безининг (лат. - pancreas) ўрни муҳим, чунки у аралаш секреция беи ҳисобланади. Бу аъзо эндокрин беи сифатида гормонларни синтезлайди ва углевод, ёғ ва оксил алмашинувини регуляция қилишда иштирок этади, ташқи секреция беи сифатида панкреатик сок ишлаб чиқаради ва овқат ҳазм қилишда иштирок этади. Шу муносабат билан, унинг икки қисми бор: экзокрин ва эндокрин.

Клиникагача бўлган тадқиқотларда, турли хил лаборатория ҳайвонларидан фойдаланилган бўлиб, уларнинг ошқозон ости безининг тузилиши ва функциялари инсоннигига ўхшаш. Бироқ, тафовутлар ҳам мавжуд бўлиб улар тажриба натижасига таъсир қилиши мумкин. Адабиётлар маълумотларининг таҳлилларига кўра, инсоннинг ошқозон ости беи ва лаборатория ҳайвонлари тузилиши ўхшашлигининг асосий хусусиятлари аниқланди. Без ривожланишининг манбаи орғано ва гистогенез бир хиллиги қонуниятларига эга. Безнинг анатомик тузилиши яққол ифодаланган фарқларга эга: одамда компакт турдаги, лаборатория ҳайвонларида тутқич кўринишида. Ҳар бир турдаги турли хил формаларга қарамасдан безлар, бош, тана ва дум қисмларига ажратилади. Турли ҳайвонлардаги йўлларнинг сони турлича, ҳайвонлардаги йўллар тизимининг бир нечта вариантлардаги тавифларини топиш мумкин. Безнинг гистологик тузилиши ҳам бир хил. Экзокрин қисм турли турларда сезиларли хусусиятларга эга эмас ва оролчалар аппарати тузилишида биз Лангерганс оролчаларидаги инсулиноцитларнинг сифат ва миқдорий таркибидеги фарқларни турлар бўйича ажрата оламиз.


Ушбу тажрибанинг мақсади тажрибада ўткир ва сурункали нурланиш таъсирида ошқозон ости беидаги морфологик ўзгаришларни қиёсий жиҳатдан баҳолаш усулини аниқлаш эди.

Ўткир ва сурункали нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушларнинг морфологик текшируви учун олинган материалларни қиёсий баҳолашнинг қулайлиги мақсадида биз аввал интакт лаборатор ҳайвонларнинг ушбу органининг гистологик кўринишининг тавсифини беришни ўринли деб ҳисобладик.

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, назорат гуруҳига киритилган ва нурланиш қабул қилмаган оқ зотсиз каламушларнинг ошқозон ости беи макроскопик текширувда, кўринадиган патологик ўзгаришларсиз.

Бу аъзо найсимон-алвеоляр тузилишга эга бўлиб, кўриб чиқилганда ҳайвоннинг 12-бармоқли ичакнинг С-симон эрилиги тутқичида ошқозонга нисбатан каудал жойлашган. Без ташқи томонидан бўш толали бириктирувчи тўқимадан ташкил топган ингика қобик билан қопланган бўлиб, у мазкур аъзони бўлакчаларга ажратади. Аъзонинг боши, танаси ва думи аниқ кўринади.

Микроскоп остида кўрув майдонида, бўлаклараро чиқарувчи оқим, бириктирувчи тўқимали тўсиқлар кўринади, бу эса, ошқозон ости беини бўлакчаларга, панкреатик ацинусларга, Лангерганс оролчаларига ажратади (1-расм).




**1-расм. Интакт зотсиз оқ каламушнинг ошқозон ости безининг гистологик кўриниши** (патологик ўзгаришларсиз, бўлаклараро чиқарув йўли (1), бириктирувчи тўқимали тўсиқлар (2), панкреатик ацинуслар (3), Лангерганс оролчалари (4) кўринди. Гематоксилин-эозин билан бўялган).

Маълумки, панкреатик ацинус ошқозон ости бези экзокрин қисмининг структур-функционал бирлиги ҳисобланади. У якуний бўлак ва қўйма оқимдан иборат бўлиб, ацинуслар бир-биридан бўш бириктирувчи тўқимали қатламлар билан ажралиб туради. Қатламлардан капиллярлар, нерв толалари ўтади ва интрамурал ганглиялар жойлашади. Ацинусларнинг марказида, қўйма оқимнинг хужайралари жойлашган. Ациноцитлар пирамидалар шаклига эга бўлиб, кенг охирлари билан базал мембранада ётади ва тор апикал учи билан ацинус юзасига қараган. Ушбу ациноцитларнинг функцияси овқат ҳазм қилиш жараёнида иштирок этадиган овқат ҳазм қилиш, ферментларини (трипсин, липаза, амилаза ва бошқалар) синтезлашдан иборат. Ациноцитлар синтези маҳсулотлари қўйма оқимга, ундан эса ацинуслараро оқимга тушади. Тузилишга кўра оқ зотсиз каламушларининг тасвирланаётган кўриниши адабиётларда келтирилган маълумотлардан деярли фарқ қилмайди.

Панкреатик Лангерганс оролчалари-безнинг эндокрин қисми, бўлакчалар ичида секретор бўлимлар орасида жойлашган. Панкреатик оролчалар инсулиноцитлар томонидан ҳосил қилинади. Уларнинг чегаралари аниқ ифодаланмаган бўлиб, кўп сонли капилляр тўрли чигаллар ҳосил қилган.

Катта ёшдаги одамнинг ошқозон ости безида 1 млн. атрофида умумий оғирлиги 1 г дан 1,5 г гача бўлган оролчаларни кўриш мумкин.

Лаборатория ҳайвонларининг ошқозон ости безидан тайёрланган бошқа бир гистологик препаратда микроскоп остида кўрув майдонида Фатер-Пачини таначалари, қон томирлари, панкреатик ацинуслар, Лангерганс оролчаларини кўриш мумкин (2-расм).



**2-расм. Интакт оқ зотсиз каламушнинг ошқозон ости безининг гистологик кўриниши** (патологик ўзгаришларсиз, Фатер-Пачини таначалари, қон томирлари, панкреатик ацинуслар, Лангерганс оролчалари. Гематоксилин-эозин билан бўялган).

Фатер-Пачини таначалари (пластинкали танача) мураккаб инкапсуляцияланган асаб рецептори эканлиги кўп сонли тадқиқотларда исботланган бўлиб, илк бор 1835 йилда Италиялик анатом Филиппо Пачини (1812-1883) томонидан тавсифланган ва унинг номи билан номланган. Пластинкасимон танача киприкчали эпителийнинг ўзгарган хужайраларидан иборат иккиламчи-сезувчи киприкчаларга эга бўлиб, нерв ўсиғининг охиридаги цитолемма билан алоқада бўлади. Хужайралар таналари контакт зонасидан глияннинг бир нечта бўйлама ориентацияланган хужайралари капсуласи билан ажратилган.


Иккиламчи-сезувчи хужайраларнинг киприкчалари ташқи ва ички капсулалар орасида ташқи капсулани ички юзаси билан контактли жойлашган. Ташқи капсула ички капсулага ўхшаш тузилишга эга. Капсула ўлчами 0,5-3 мм.

Тадқиқотимизда Фатер-Пачини таначаларининг тавсифлари келтирилган тавсифларга тўла мос келди.

Тадқиқотнинг кейинги босқичи, ўткир нурланиш (биринчи гуруҳ) қабул қилган каламушларнинг ошқозон ости безининг гистологик тузилишини ўрганиш бўлди.

Ўткир нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушларнинг ошқозон ости безидан тайёрланган гистологик препаратлардан олинган натижалар, назорат гуруҳининг материалларидан фарқли ўлароқ, тўқималараро шиш ва қон томирлар деворининг плазматик тўлишиши (плазморрагия), строманинг табақаланиши, бўлақлараро чиқарув йўлининг атрофик ўзгаришлари, қон томирларининг нотекис тўлақонлиги ва мазкур аъзо эпителицитларининг дистрофик ўзгаришларини кўриш мумкин (3-расм).






3-расм. Ўткир нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушнинг гистологик кўриниши (тўқималараро шиш ва қон томирлар деворлари плазматик тўлишиши, бўлакчалараро чиқарув йўли атрофик ўзгаришлари (3), томирларнинг нотекис тўлақонлиги ва эпителиоцитларнинг дистрофик ўзгаришлари (4). Гематоксилін-эозин билан бўялган).


Нурланиш қабул қилган каламушларнинг ошқозон ости безидан тайёрланган бир гистологик препаратда, олдинги гистологик препаратдаги тўқималараро шиш ва томирлар деворларининг плазматик тўлишиши, строманинг табақаланиши, паренхиманинг атрофик ўзгариши, томирларнинг нотекис тўлақонлиги ва мазкур аъзо томирларининг склеротик ўзгаришлари билан бир қаторда, ушбу аъзо стромасининг лимфоцитар инфильтрацияси, шунингдек Лангерганс оролчалари атрофиясини кўринди (4-расм). Ушбу атрофия ошқозон ости беzi массаси ва ацинар хужайралар атрофиясида ифодаланувчи ҳолат бўлиб, секретор етишмовчилик билан бирга келади.

Ўрганилган лаборатор ҳайвонларнинг ошқозон ости безининг бошқа бир гистологик препаратиди, тўқималараро шиш ва плазморрагия, строманинг табақаланиши, веноз тўлақонлик ва аъзо томирларининг склеротик ўзгариши, эпителиоцитлар дистрофик ўзгаришлари, паренхима атрофик ўзгаришлари, стромал лимфоцитар инфильтрация, Лангерганс оролчаларининг атрофияси билан бирга ўрганилаётган аъзонинг стромал ёғли дистрофияси – аъзо ичида липидлар тўпланиши қайд этилди (5-расм).






4-расм. Ўткир нурланиш олган оқ зотсиз каламушнинг ошқозон ости безининг гистологик кўриниши (тўқималараро шиш ва томирлар девори плазматик тўлишиши (1), строманинг табақаланиши, паренхиманинг атрофик ўзгаришлари (2), томирлар нотекис тўлақонлиги (3) ва томирлар склеротик ўзгаришлари, строма лимфоцитар инфильтрацияси (4), Лангерганс оролчалари атрофияси (5). Гематоксилин-эозин билан бўялган).



5-расм. Ўткир нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушнинг ошқозон ости безининг гистологик кўриниши (тўқималараро шиш ва томирлар плазматик тўлишиши (1), строманинг табақаланиши, веноз тўлақонлик (2) ва томирларнинг склеротик ўзгариши, эпителиоцитлар дистрофик ўзгаришлари (3), паренхиманинг атрофик ўзгаришлари, стромал лимфоцитар инфильтрация (4), Лангерганс оролчаларининг атрофияси, стромал ёғли дистрофия (5). Гематоксилин-эозин билан бўялган).

Юқорида келтирилган ҳолатлар ўрганилаётган биринчи гуруҳ (ўткир нурланиш) лаборатор хайвонларинг ошқозон ости беzi стромасининг патологик ўзгаришларнинг асосий морфологик белгилари ҳисобланади.





**6-расм. Ўткир нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушнинг ошқозон ости безининг гистологик кўриниши** (тўқималараро шиш (1) ва плазмораггия, строманинг табақаланиши, венот тўлақонлик (2) ва томирларнинг склеротик ўзгаришлари (3), паренхиманинг атрофик ўзгаришлари (4), эпителиоцитлар дистрофияси, стромал лимфоцитар инфильтрация (5), Лангерганс оролчалари атрофияси (6). Гематоксилин-эозин билан бўялган).

Ўткир нурланиш қабул қилган бошқа лаборатория ҳайвонларининг ошқозон ости бези гистологик препаратларида ҳам худди шу кўриниш кузатилди. Мисол учун, биринчи гуруҳга тегишли лаборатория ҳайвонларига тегишли бўлган ушбу органнинг яна бир гистологик препарати тавсифлашни ўринли деб ҳисобладик.

Микроскоп остида кўрув майдонида тўқималараро шиш ва томирлар деворининг плазматик тўлишиши ёки плазмораггия, строманинг табақаланиши, томирларнинг венот тўлақонлиги ва склеротик ўзгаришлари, мазкур аъзо паренхимасининг атрофик ўзгаришлари, эпителиоцитлар дистрофияси, стромал лимфоцитар инфильтрация, Лангерганс оролчаларининг атрофиясини кўриш мумкин (6-расм).


Ушбу морфологик ўзгаришларнинг барчаси тажрибадаги лаборатория ҳайвонларининг ўткир нурланиши билан боғлиқ деб ҳисобланди.

Шундай қилиб, 5 Грей (ўткир нурланиш) дозада оқ зотсиз каламушларнинг бир марталик нурланиши ошқозон ости безида турли хилдаги морфологик ўзгаришларга олиб келди. Ушбу ўзгаришлар қуйидагилар билан визуализацияланди: тўқималараро шиш; томирлар деворининг плазматик тўлишиши (плазмораггия), строманинг табақаланиши, венот тўлақонлик, томирларнинг склеротик ўзгаришлари, стромал ёғли дистрофия, эпителиоцитларнинг дистрофик ўзгаришлари, паренхиманинг атрофик ўзгаришлари, стромал лимфоцитар инфильтрация, Лангерганс оролчалари атрофияси. Интакт ҳайвонлар маълумотлари билан морфологик кўрсаткичларининг қиёсий тавсифи, патологик оғишлар кузатилганлигини кўрсатди. Шу муносабат билан ушбу ўзгаришларнинг сабаби тажрибага жалб қилинган лаборатор ҳайвонларнинг ўткир нурланиши деб ҳисобланди.

Тадқиқотнинг навбатдаги босқичи 20 кун давомида 0,2 Грей дозасида сурункали нурланиш қабул қилган каламушлардаги морфологик тадқиқотлар ўтказиш эди (умумий, нурланиш 4 Грейни ташкил этади).

Сурункали нур касаллиги – бу мураккаб клиник синдром бўлиб, нурланишнинг рухсат этилган дозалардан юқори бўлган дозаларда узоқ вақт давомида таъсир қилишида ривожланади. Характерли намоён бўлиш белгилари - бу кечининг давомийлиги ва тўлқинсимонлиги; клиник симптоматикада ҳам тананинг нурланиш таъсиридан зарарланиш белгилари ҳам тикланиш ва мослашувчанлик реакцияларнинг намоён бўлиши белгиларининг мавжудлиги. Сурункали нурланиш касаллигининг ривожланиш давлари: шаклланиш даври (сурункали нурланиш касаллиги); тикланиш даври; оқибатлар даври.

Олинган натижалар расмлар кўринишда келтирилган (7-расм), бунда оқ рангли зотсиз каламушларнинг ошқозон ости безининг гистологик кўринишларини тасвирланган. Гистологик препаратларни микроскопик текширишда ушбу аъзода қуйидаги морфологик ўзгаришлар аниқланди: тўқималараро шиш, баъзи жойларда аъзо паренхимасида атрофик ўзгаришлар, ўчоқли лимфоцитар инфильтрация (7-расм).



**7-расм. Сурункали нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламуш ошқозон ости безининг гистологик кўриниши** (тўқималараро шиш (1), баъзи жойларда паренхиманинг атрофик ўзгаришлари (2), ўчоқли лимфоцитар инфильтрация (3). Гематоксилин-эозин билан бўялган).

Сурункали нурланиш қабул қилган оқ зотсиз каламушларнинг бошқа гистологик препаратида, юқорида келтирилган микроскопик ўзгаришлардан ташқари (тўқималараро шиш, паренхиманинг локал атрофик ўзгаришлари, ўчоқли лимфоцитар инфильтрация), шунингдек аъзонинг томирлари деворининг плазматик тўлишиши, строманинг табақаланиши, эпителиоцитларнинг дистрофик ўзгаришлари, томирларнинг тўлақонлиги ва склеротик ўзгаришлари кўринади.

Нурланиш қабул қилмаган назорат гуруҳининг лаборатория ҳайвонлари билан таққослаганда, аъзо паренхимасининг мазкур ўзгаришлари сезилади, айниқса плазморрагия (томирлар деворининг плазматик тўлишиши) ва гемостази (томирлар тўлақонлиги) кўриш мумкин.

Ошқозон ости бези тўқимасидан тақдим этилган материалда кўрув майдонида тўқималараро шиш, аъзо стромасининг табақаланиши, баъзи жойларда паренхиманинг атрофик ўзгаришларини кўринади, томирлар тўлақонлиги кўринади, шунингдек, ўчоқли лимфоцитар инфильтрация, Лангерганс оролчаларининг атрофияси аниқланган.

## REFERENCES

1. Султонова Л.Дж. Результаты изучения и оценки морфологических изменений поджелудочной железы при остром облучении в эксперименте // Биология ва тиббиёт муаммолари. - Самарканд, 2022. - №4 (137). - С. 242-248. (14.00.00; №19)
2. Sultanova L.D. Features of the Dynamics of Morphological Changes in the Liver of Laboratory Animals Under Experimental Acute Irradiation // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022. - Volume 3, Issue 2. - 1217-1235 p. (Impact Factor - 7,565).

3. Sultanova L.D., Teshayev Sh.J. Morphological Features of the Effect of Acute Radiation on the Thymus of Experimental Animals Results of Study in Dynamics // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. - 2022. - Volume 01, Issue 05. - 70-78 p. (Impact Factor - 8,7).
4. Султонова Л.Д., Нуралиев Н.А. Тажрибада ўткир нурланиш таъсирида йўғон ичакдан ички аъзоларга ўтган микроорганизмлар штамmlарининг униш хусусиятлари // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. - 2020. - №4. - 43-48 б. (14.00.00; №13)
5. Sulstonova L.D., Nuraliev N.A., Narzullaev Yu.S. Tajribani o'tkir nurlanish tasirida yo'g'on ichakdan ichki a'zolarga o'tgan mikro organizmlar shtamlarining unish xususiyatlari va immun tizimga ta'siri // Tibbiyotda yangi kun. - Buxoro, 2020. - № 4 (32). - 581-586 б. (14.00.00; № 22)
6. Sharipova Gulnihol Idiyevna. DISCUSSION OF RESULTS OF
7. PERSONAL STUDIES IN THE USE OF MIL THERAPY IN THE TREATMENT OF TRAUMA TO THE ORAL MUCOSA// European Journal of Molecular medicine Volume 2, No.2, March 2022 Published by ejournals PVT LTDDOI prefix: 10.52325 Issued Bimonthly Requirements for the authors.
8. Султонова Л.Д. Характеристика морфологических изменений поджелудочной железы при хроническом облучении в эксперименте // Nazariy va klinik tibbiyot jurnali. - Toshkent, 2022. - №1. - 21-25 б. (14.00.00; №3)
9. Sulstonova L.D., Nuraliev N.A., Narzullaev Yu.S. Tajribani o'tkir nurlanish tasirida yo'g'on ichakdan ichki a'zolarga o'tgan mikro organizmlar shtamlarining unish xususiyatlari va immun tizimga ta'siri // Tibbiyotda yangi kun. - Buxoro, 2020. - № 4 (32). - 581-586 б. (14.00.00; № 22)
10. Султонова Л.Д., Нуралиев Н.А. Тажрибада ўткир нурланиш таъсирида йўғон ичакдан ички аъзоларга транслокация бўлган микроорганизмлар униш кўрсаткичлари // Nazariy va klinik tibbiyot jurnali. - Toshkent, 2020. - № 4. - 14-19 б. (14.00.00; №3)
11. Sharipova Gulnihol Idiyevna. THE USE OF FLAVONOID BASED
12. MEDICATIONS IN THE TREATMENT OF INFLAMMATORY DISEASES IN ORAL MUCUS// Asian journal of Pharmaceutical and biological research 2231-2218 SJIF 2022:4.465 Volume 11 Issue 1 JAN-APR 2022. P-98-101
13. Sulstonova L.D. Description of the Dynamics of Morphological Changes in the Liver and Intestines of Laboratory Animals Under Acute Radiation // International Journal of Early Childhood Special Education. - 2022. - Volume 14, Issue 05. - 2726-2741 p. (Scopus).
14. Sulstonova L.Dj., Nuraliev N.A. Comparative characteristics of morphological changes in the pancreas under different types of irradiation in the experiment // International Journal of Health Sciences. - 2022. - Volume 5, Number 1. - 4167-4176 p. (Scopus).
15. Sulstonova L.Dj., Nuraliev N.A. Indicators of Seeding of Microorganisms Translocated from the Large Intestine to Internal Organs under the Influence of Acute Radiation in the Experiment // American Journal of Medicine and Medical Sciences. - 2020. - № 10(12). - P. 929-933. (14.00.00; №2)
16. Sultanova L.D., Teshayev Sh.J. Study of Morphological Manifestations of the Effect of Acute Radiation on the Spleen of Experimental Animals // Middle European Scientific Bulletin. - 2022. - Volume 28. - 24-31 p. (Impact Factor - 5,499).

## TORCH-СИНДРОМ: КЛИНИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА И ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ

Шукуров Бахтиёр Кодирович

Ачилова Донохон Нутфуллаевна

Бухарская городская поликлиника № 6 врач дерматовенеролог. Узбекистан.

Бухарский государственный медицинский институт. Узбекистан.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7912034>

**Аннотация.** TORCH-синдром, или TORCH-инфекции, – это обобщенное название, используемое для обозначения группы внутриутробных инфекций (ВУИ). В основе термина, который предложил Andre J. Nahmias в 1971 г., лежит сокращение (по первым буквам) латинских названий наиболее часто верифицируемых врожденных инфекций:

T – токсоплазмоз (*Toxoplasmosis*)

O – другие инфекции (*Other*)

R – краснуха (*Rubella*)

C – цитомегалия (*Cytomegalia*)

H – инфекции, вызванные вирусом простого герпеса (*Herpes*).

**Ключевые слова.** «TORCH-инфекции», цитомегаловирус, вирус краснухи, Коксаки и ЕСНО-вирусы.

## TORCH SYNDROME: CLINICAL DIAGNOSIS AND ETIOLOGICAL VERIFICATION

**Abstract.** TORCH syndrome, or TORCH infections, is a generic name used to refer to a group of intrauterine infections (IUI). The term proposed by Andre J. Nahmias in 1971 is based on the abbreviation (by the first letters) of the Latin names of the most frequently verified congenital infections:

T – toxoplasmosis

O – other infections (*Other*)

R – Rubella (*Rubella*)

C – Cytomegalia (*Cytomegalia*)

H – infections caused by *Herpes simplex virus* (*Herpes*).

**Keywords:** "TORCH infections", cytomegalovirus, rubella virus, Coxsackie and ESNO viruses.

В отечественной педиатрической практике наиболее часто используют термин «внутриутробные инфекции», что является синонимом термина «TORCH-инфекции». ВУИ – инфекционно-воспалительные заболевания плода и новорожденного. Несмотря на то, что ВУИ имеют различную этиологию, их объединяют общие эпидемиологические закономерности и сходные клинические проявления. ВУИ возникают в результате антенатального или интранатального инфицирования плода.

ВУИ считаются одной из наиболее острых проблем современной медицины, решение которой возможно только при междисциплинарном подходе и совместной работе специалистов-медиков различных профилей (акушеры-гинекологи, инфекционисты, неонатологи, педиатры, эпидемиологи). Актуальность ВУИ обусловлена целым рядом факторов, главными среди которых являются:



- широкая распространенность потенциальных возбудителей среди всех групп населения;
- бессимптомное течение или отсутствие патогномичных клинических симптомов;
- высокий риск развития патологии у плода или новорожденного при первичном инфицировании женщины во время беременности;
- возможность обострения латентной инфекции у иммунокомпрометированных женщин во время беременности с потенциальным риском внутриутробного заражения плода;
- существенное место ВУИ в структуре неблагоприятных исходов беременности (выкидыши, мертворождение, преждевременные роды);
- тератогенное влияние возбудителей ВУИ на эмбриогенез и ранний фетогенез, приводящее к развитию у плода врожденных пороков. Неблагоприятное влияние внутриутробного инфекционно-воспалительного процесса с поражением ЦНС, сердца, печени, почек и других органов и систем;
- высокий уровень летальности среди новорожденных и грудных детей с манифестными формами ВУИ;
- неблагоприятное воздействие ВУИ на состояние здоровья детей в последующие периоды постнатального развития, в ряде случаев приводящее к инвалидизации и снижению качества жизни в целом.

Истинная частота врожденных инфекций до настоящего времени не установлена, хотя, по данным ряда авторов, распространенность внутриутробного инфицирования в некоторых случаях может достигать 10–15%.

ВУИ во многом определяют уровень перинатальной и младенческой смертности, а также инвалидизацию выживших детей. В подавляющем большинстве случаев источником инфекции для плода является мать. Механизм передачи инфекции – вертикальный. В антенатальный период передача инфекции может происходить трансвариальным, трансплацентарным и восходящим путями, в интранатальный период – контактным, алиментарным. Ятрогенное инфицирование плода встречается крайне редко и только в тех случаях, когда нарушены правила асептики при проведении инвазивных методов пренатальной диагностики (амниоцентез, кордоцентез и др.) и лечения (введение лекарственных средств и препаратов крови через сосуды пуповины и др.).

При антенатальном инфицировании этиология ВУИ представлена, как правило, различными вирусами (цитомегаловирус, вирус краснухи, Коксаки и ЕСНО-вирусы и др.), токсоплазмой и микоплазмой. Интранатальное заражение характеризуется более широким спектром возбудителей и зависит от особенностей микробного пейзажа слизистых оболочек родовых путей матери. Наиболее часто в этот период происходит инфицирование плода такими микроорганизмами, как стрептококки группы В, различные энтеробактерии, стафилококки, герпес-вирусы, ВИЧ, микоплазмы, уреаплазмы, хламидии, грибы и др.

Помимо «классических» возбудителей TORCH-инфекции установлено патогенное влияние на плод энтеровирусов, ВИЧ, хламидий (*Chlamydia trachomatis*), микоплазм (*Mycoplasma hominis*, *Mycoplasma genitalium*), уреаплазмы (*Ureaplasma urealyticum*), вирусов гриппа, парагриппа, аденовирусов, парвовируса В19, вирусов герпеса человека 4 и 6 типов и других микроорганизмов.



Фактором риска внутриутробного инфицирования плода является отягощенный соматический, акушерско-гинекологический и инфекционный анамнез. При этом риск инфицирования значительно повышается при воспалительных заболеваниях урогенитального тракта, неблагоприятном течении беременности (инфекционные заболевания, тяжелый гестоз, угроза прерывания, патологическое состояние маточно-плацентарного барьера) и патологических родах.

Прогноз при ВУИ зависит от срока гестации, в котором произошло инфицирование, особенностей возбудителя (патогенные свойства, тропность и т. д.), функционального состояния иммунной системы матери, состояния маточно-плацентарного барьера и др. Наиболее часто инфицирование плода и развитие тяжелых форм ВУИ отмечают в тех случаях, когда во время беременности женщина переносит первичную инфекцию.

Инфицирование в период эмбриогенеза приводит к самопроизвольному выкидышу или возникновению тяжелых, несовместимых с жизнью пороков развития. Проникновение возбудителя в организм плода в ранний фетальный период ведет к развитию инфекционно-воспалительного процесса, который характеризуют преобладание альтернативного компонента и формирование в поврежденных органах фиброзно-склеротических деформаций. Инфицирование плода в поздний фетальный период может приводить как к поражению отдельных органов и систем, так и к генерализованному воспалению (гепатит, кардит, менингоэнцефалит, хориоретинит, поражение органов кровотока и др.). При интранатальном инфицировании клиническая манифестация ВУИ в подавляющем большинстве случаев происходит в ранний неонатальный период, но может отмечаться и в последующие недели жизни.

В МКБ-10 ВУИ представлены в классе XVI «Отдельные состояния, возникающие в перинатальном периоде» в блоках P35–P39 «Инфекционные болезни, специфичные для перинатального периода». В зависимости от этиологии выделяют ВУИ вирусного, бактериального и паразитарного генеза.

Клинические проявления TORCH-синдрома в подавляющем большинстве случаев зависят не только от этиологии, но и от сроков беременности, когда произошло инфицирование. Манифестные формы ВУИ у новорожденных имеют сходные клинические проявления. При этом очень часто дети рождаются раньше срока или с признаками задержки внутриутробного развития, гепатоспленомегалией. Нередко у детей с ВУИ отмечаются желтуха, экзантемы, дыхательные и разнообразные неврологические нарушения, геморрагические синдромы, анемия. При этом необходимо особо подчеркнуть крайне низкую достоверность диагноза, если используется анализ только клинических особенностей заболевания. В то же время достоверную верификацию этиологии ВУИ следует провести как можно раньше, учитывая, что в настоящее время возможно применение эффективных этиотропных лекарственных препаратов для целого ряда ВУИ (ацикловир – при врожденном герпесе, бензилпенициллин – при врожденных сифилисе и стрептококковой В инфекции, ампициллин – при врожденном листериозе, макролиды – при внутриутробных микоплазмозе, хламидиозе и уреаплазмозе, пириметамин + сульфаниламид или спирамицин – при врожденном токсоплазмозе и др.).

Лабораторная верификация этиологии TORCH-синдрома является ключевым звеном диагностики и определяет возможность своевременного назначения специфической

терапии. При этом однотипность клинических проявлений ВУИ обосновывает необходимость безотлагательного проведения лабораторной расшифровки этиологии заболевания. Для этиологической верификации врожденных инфекций используют 2 основные группы методов, условно обозначаемых как «прямые» и «непрямые».

К «прямым» лабораторным тестам относятся методы, направленные на обнаружение самого возбудителя (классические микробиологические, вирусологические), его ДНК или РНК (молекулярно-биологические) или антигенов (иммунохимические). «Непрямые» тесты – методы, позволяющие обнаружить в сыворотке крови пациента специфические антитела к антигенам возбудителя. В последние годы для этого наиболее часто используют иммуноферментный анализ (ИФА).

«Золотым стандартом» лабораторной диагностики ВУИ считается комбинация «прямых» и «непрямых» методов диагностики, что позволяет существенно повысить диагностические возможности лабораторной верификации этиологии ВУИ. При этом наиболее часто из «прямых» методов используют полимеразную цепную реакцию (ПЦР) (специфичность и чувствительность – более 90%), а из «непрямых» – ИФА (специфичность и чувствительность – более 75%).

Применяя ПЦР, целесообразно использовать современные методики количественного определения ДНК или РНК инфекционных агентов, основанные на амплификации с гибридационно-флуоресцентной детекцией продуктов анализа в режиме реального времени, а также параллельно тестировать несколько биологических сред (кровь, спинномозговая жидкость, моча, назофарингеальные мазки, эндотрахеальные аспираты и др.). Подобный подход достоверно увеличивает клиническую информативность проводимых исследований, позволяет оценить динамику развития инфекционного процесса и эффективность этиотропной терапии.

ИФА должен проводиться до введения плазмы и иммуноглобулинов. При этом диагностическое значение ИФА существенно повышается, если обследование новорожденного проводится одновременно с обследованием матери с обязательным определением индекса авидности специфических IgG. Использование «парных сывороток» для определения нарастания концентрации антител в динамике возможно только в тех случаях, если новорожденный не получал препаратов крови (плазмы, иммуноглобулинов и др.).

Критериями верификации этиологии ВУИ является выявление у новорожденного ребенка специфических IgM и/или генома (ДНК, РНК) возбудителя. Косвенным лабораторным признаком ВУИ определенной этиологии является детекция специфических IgG с низким индексом авидности при отсутствии специфических IgM. Диагностическое значение низкоавидных специфических IgG существенно повышается, если при параллельном серологическом обследовании матери у нее выявляют высокоавидные специфические IgG.

Таким образом, в настоящее время имеются высокочувствительные и высокоспецифичные методы лабораторной диагностики, которые позволяют быстро и с высокой степенью достоверности верифицировать этиологию заболевания, что определяет возможность раннего начала этиотропной терапии для улучшения прогноза ВУИ.

## REFERENCES

1. Ачилова Д.Н. Клинический анализ морфофизиологических изменений иммунных органов у детей после перенесенных заболеваний // *Tibbiyotda yangi kun.* - Бухара, 2021. - № 5 (37). - С. 111 - 114. (14.00.00; 22)
2. Achilova.D.N. Specific course of allergic reactions in children // *Web of scientist international scientific research journal.* ISSN: 2776-0979 Vol. 2 No. 09 (2021), Indonesia. – P. 10 – 17. (Impact factor 7,565)
3. Achilova.D.N. Modern assays for the treatment of allergic skin diseases in children // *International journal of formal education.* Polsha, 2021. Volume: 01 Issue: 04. – P. 6 – 17. (14.00.00; 17)
4. Achilova D.N., Amonov R. A., Sharipova L. Kh., Yomgurova O. R., Rustamov B. B. Clinical, Immunological and Medico-Social Aspects of Allergic Diseases in Children // *Annals of the Romanian Society for Cell Biology.* Romania, 2021: Vol 25: Issue 3. – P. 6736 – 6740.(Scopus)
5. Achilova D.N., Yomgurova O.R. Clinical-immunological and medico-Social aspects of allergic diseases in children, development of criteria for early diagnosis and prognosis of the course of the disease (literature review) // *British medical journal.* London, 2022. Vol-2, No 2. – P. 46 – 53. (14.00.00; 6)
6. Achilova D.N. Current issues of food allergy diagnostics in pediatric practice // *International Journal of Early Childhood Special Education.* Warsaw. Issue 02 2022. (INT-JECSE) DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I2.677 ISSN: 1308-5581 Vol 14,– P. 5991 – 5995.(Scopus)
7. Achilova D.N., Khushvaktova M.F. Clinical-Immunological Methods of Clinical-Immunological Research of Atopic Dermatitis in Children Permanently Residing in the Area of Oil Refining Enterprises // *American Journal of Medicine and Medical Sciences.* USA, 2022, 12(10): DOI: 10.5923/j.ajmms. 20221210.05. – P. 1034-1038. (14.00.00; 2)
8. Ачилова Д.Н., Нуралиев Н.А. Изучение клинико-диагностических особенностей различных проявлений аллергических заболеваний у детей // *Медицина и инновации.* - Ташкент, 2022. - №4(8). - С. 297 - 303. (14.00.00; ).
9. Ачилова Д.Н., Нуралиев Н.А. Изучение эффективности длительного наблюдения, лечения и профилактики бронхиальной астмы и аллергических заболеваний у детей // *Медицина и инновации.* - Ташкент, 2022. - №4(8). - С. 261 - 267. (14.00.00; ).

## **AUTOMATION SYSTEMS OF PRODUCTION PROCESSES**

**Muxiyatdinov Jamalatdin Asamatdin uli**

2nd year master's student of Muhammad al-Khorazmi Tashkent  
University of Information Technologies,  
Faculty of "Computer Engineering" in computer systems design, Uzbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7912620>

***Abstract.** In this article, we will talk about automation systems of production processes and their importance in the development of society.*

***Key words:** systems, processes, production, automation, level, mechanism.*

## **СИСТЕМЫ АВТОМАТИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРОЦЕССОВ**

***Аннотация.** В этой статье мы поговорим о системах автоматизации производственных процессов и их значении в развитии общества.*

***Ключевые слова:** системы, процессы, производство, автоматизация, уровень, механизм.*

## **INTRODUCTION**

Production automation — mechanized entrusting control and management work to automatic devices; high level of mechanization. One of the main directions of science and technology development: labor productivity, product quality, work culture, factors allows to raise its indicators to a higher level. There are partial (local), gross (complex) and full automation stages. In the stage of partial automation, adjustment of individual work types (liquid level height, temperature, pressure, etc.) is automated. At the stage of gross automation, several partially automated work types are interconnected at the department, workshop, enterprise scale.

## **MATERIALS AND DISCUSSION**

Some automation tools have been around for a long time. However, such devices were practically not used in small-scale craft fairs (until the 18th century). As a result of the improvement of labor tools and equipment, the creation of new machines and mechanisms (19th century) its size and level have changed dramatically.

This situation created the necessary conditions for the mechanization of production (for example, in spinning, weaving, metal and wood processing enterprises). Since the invention of the voltage regulator at the beginning of the 20th century, electricity from it used in; multi-operation aggregate-machines and automatic lines are created. Automation concept appeared during this period.

Automated control devices and mastering processes began simultaneously with the establishment of heavy industry and machine-building (in the 1930s). Automated devices began to be used in heavy, light and food industries, and transport automation became more sophisticated. Automation labs were established in energy, metallurgy, chemistry, mechanical engineering, utilities, scientific research institutes. 50's By the 1960s, automation was used in almost all branches of the national economy.

Full automatic control of hydroelectric power units was switched over, water supply systems and fields were automated. [3.21] The scientific basis of production automation has developed mainly in three directions. First, effective methods of studying the laws, dynamics, stability and influence of external factors of management objects were developed. Researchers, designers,

technologists solve these issues together. Secondly, the effectiveness of management methods, the purpose of the management function was determined. Based on this, the decision-making rules for management were defined. Thirdly, thorough, simple and effective engineering methods of harmonizing the structure of automation tools that perform measurement, result processing and control functions have been developed.

But work on improvement and development of production automation continues continuously. In workshops, warehouses and other places of production, the compilation and preliminary processing of information (information) is carried out by means of keyboard devices, the collected information is transferred to processing. [4.109]

Sensors are used for automatic recording of information. Information transmission equipment consists of signal converters, telemechanics equipment, signal distribution switches and a section. Logical and mathematical information processing devices - functional converters that change the character and form of signals, include devices (including computers) that process information according to a given algorithm and it.

It includes information display devices (including computers) and the like. Information display devices - signal boards, mnemonic schemes, spindle and digital tools, electron-beam tube, letter and digital printing machines show the progress of production processes to the operator and record important parameters. [3.62]

Devices that produce control effects convert weak information signals into strong pulses. These impulses act on the actuators of protection, adjustment or control devices and activate them. A set of information gathering and preliminary processing tools allows to automate the management of national economic networks. [1.89]

In the automation of the management of production processes, control and adjustment circuits, analytical techniques and software control systems that allow production to be carried out in an optimal (optimal) mode are also very important. For example, in hydroelectric plants, the water from the reservoir continuously passes through the turbines of the hydro aggregate.

Automatic adjusters adjust the number of revolutions of the turbines, the frequency and voltage of the generated current, active (active) and reactive powers. Safety devices prevent accidents. The auto operator starts and stops the units according to the schedule. The dispatcher of the energy system controls the HPP remotely (from the central control panel) using a telemechanic devices. Almost all hydroelectric power stations in Uzbekistan work in this order.

"Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" hamda "Kelurnoma" asarlarida yozuvchilar tomonidan yig'ilib lug'at tarkibiga kiritilgan non mahsulotlarining tahlili jarayonida ularning aksariyati Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchrashi, shuningdek, qay usulda va hatto qayerlarda tayyorlanishi kabi qimmatli ma'lumotlarga, muallifi no'malum bo'lgan "At-tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" va "Kelurnoma" asarlarida bunday to'liq ta'riflarning deyarli uchramasligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, **üspiri (успирн)** — *issiq kulda pishirilib, yoqqa to'g'rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non* (1;71-bet), **kömäč (күрмаç)** — *ko'moch. O'choqdagi cho'qqa ko'mib pishiriladigan non* (1;145-bet), **Büskäç (бускаç)** — *yuqa non* (1;180-bet), **Qaqurg'an (какурған)** — *xamirga moy quyib, qo'shib tandirda va o'choqda pishirilgan non* (1;204-bet), **Quyma (куйма)** — *bir turli yo'li non. Uni šarbat bilan qorilgan xamirdan yupqa qilib kesiladi. So'ng qozonda qaynayotgan yoqqa solib, toblab olinadi, keyin ustiga shakar sepib yeyiladi* (1;383-bet) kabi leksemalarning qolgan ikki lug'at ya'ni "At-tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" hamda "Kelurnoma"larda uchramasligini kuzatilsa, *lochira*—*yupqa nonning har uchala lug'atda qo'llangani, masalan, Käläsh — lochira*(2;62-bet) "At-tuhfat" kelgan uning muqolibii sifatida "MK"da **sinčü (синчу)** — *lochiradek, juda yupqa ham, qalin ham bo'lmagan bir turli non.* (1;167-bet), **čüqmīn (чүқмин)** — *lochiraga o'xshash bir non. Uni qozonda suv bug'i bilan pishiriladi, bu oson hazm bo'ladigan non* (1;177-bet) yoki qatlamaning lug'atlarda aynanligi ko'rinadi. Xususan, "Kelurnoma"da u **Katlama** *yog'da qovurilgan* (3;33a5. 92-bet) shaklida "MK"da esa **qatma (қатма) qatma yug'u** — *yog'da pishiriladigan qat-qat non (qatlama)* (1;173-bet) ko'rinishida berib o'tilgan.

Fikrlarga xulosa qilib shuni aytish o'rinliki, yuqorida keltirilgan lug'atlar tarkibida uchraydigan ayrim non va non mahsulotlarining har uchala lug'atlardagi o'rinlariga, xususiyligi va umumiy bo'lgan jihatlari leksemalar ma'nosi va shu kabi ko'rinishlariga ahamiyat qaratildi va maqola yuzasidan fikr-mulohazalar yuritildi.



#### REFERENCES

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963. – B. 175.
2. Muhammad Yaqub Chingiy. Kulurnoma. T. O'zbekiston SSR muhlis nazorati. 1982
3. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. nash. Tafakkur bo'stoni. T. 2018
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 391-b.
5. Nematov X., Rasulov P. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995.
6. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – T., 2020.
7. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## XI-XX ASRLARDA YARATILGAN LUG'ATLARDA QO'LLANILGAN BA'ZI QARINDOSHLIK NOMLARINING FARQI

**Xidirova Iroda**

Ilmiy rahbar

**Abdushukurova Sevara**

**Berdikobilova Dilbar**

Termiz davlat universiteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7916157>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XI–XX asrlardan buyon yaratilgan ayrim lug'atlarda qo'llanilgan ba'zi qarindoshlik nomlarining farqi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya", qaz'in, avag'a, aba, volida, acha, baba.

### THE DIFFERENCE IN SOME KINSHIP NAMES USED IN DICTIONARIES OF THE 11TH AND 20TH CENTURIES

**Abstract.** This article discusses the differences between some kinship names used in some dictionaries from the 11th to the 20th centuries.

**Key words:** "Devonu lug'otit turk", "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya", qaz'in, avaga, aba, volida, acha, baba.

### ОТЛИЧИЕ НЕКОТОРЫХ РОДСТВЕННЫХ ИМЕН, УПОТРЕБЛЯЕМЫХ В СЛОВАРЯХ, СОЗДАНЫХ В XI-XX ВЕКАХ

**Аннотация.** В этой статье рассматривается различие некоторых родственных имен, используемых в некоторых словарях, созданных с одиннадцатого по двадцатый века.

**Ключевые слова:** «Девону луготит турк», «Ат-тухфатуз закияту филлуг'отит туркия», кажин, авага, аба, волида, ача, баба.

Turkiy tillardagi qarindoshlik nomlarini ifodalovchi leksemalar boshqa tillarga qaraganda ancha boy. Hatto qarindosh leksemasining etimologiyasi ham turkiy tillar bilan bog'liq. Dastlab "qa" o'zagi "idish" ma'nosini keyinchalik yaqinlik va qarindoshlik ma'nolarini ifodalagan. "Qondosh" leksemasining etimologiyasi bugungi kunda qonga asoslangan bog'liqlik tarzida tushunildi. Ammo tilshunoslarimiz bu so'zning etimologiyasini qang – ota so'zi bilan bog'laydilar.

Qarindoshlikka oid leksemalar qadimgi turli davrlarda yaratilgan turli lug'atlarda ham o'z aksini topgan. Bunga misol qilib, XI asrda yozilgan Mahmud Koshg'ariy qalamiga mansub "Devonu lug'otit turk" asari, muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya", Alisher Navoiy qalamiga mansub "Muhokamat ul lug'atayn", "Древнетюркская словарь" lug'atlarini keltirishimiz mumkin.

Ushbu tadqiqot ishi doirasida XI–XX asrlar oralig'ida yaratilgan asarlar ya'ni, Mahmud Koshg'ariy qalamiga mansub "Devonu lug'otit turk" (keyingi o'rinlarda MK shaklida), "At tuhfatur zakiyatu fillug'otit turkiya" (keyingi o'rinlarda At-tuhfat), Alisher Navoiy qalamiga mansub "Muhokamat ul lug'atayn" (keyingi o'rinlardan ML), "Древнетюркская словарь" (Qadimgi turkiy lug'at, keyingi barcha o'rinlarda DTS) lug'atlar obyekt qilib olingan. Mavzuyimizning asosiy masalasi bugungi kunda qo'llaniladigan qarindoshlikka oid leksemalarning qadimgi davrda qanaqa nom bilan yoritilganligi farqlarini ochib berishdir.

Biz bugungi kunda qo'llaydigan dada leksemasi MKda Дәдә – dada, ota o'g'uzcha (239), Аба – ota (tubutlar tilida) (113), Ата – ota (114) shaklida; At–tuhfatda Ада – ada, ota (11a – 9), Ата – ota ( 3b – 11) shaklida; ML kitobida Volid – ota (32), Abutturk – turk otasi (29), Abulfurs – fors otasi (29), Abullhind – hind otasi (29) shaklida; DTSda Baba – ota, (76b), Hata – ota (197b), Dedä – ota, (160b) shaklida qo'llanilgan.

Qaynana - erning onasi xotiga, xotinning onasi erga nisbatan. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi erning tug'ishganlari xotiga nisbatan, "xotinning tug'ishganlari erga nisbatan" ishlatiluvchi *qayin* so'ziga "ayolning o'z tuqqan bolasiga nisbatan" ma'nosini anglatuvchi *ana* so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Qayin+ana = *qayinana* so'z qo'shilmasida dastlab i unlisi talaffuzda tushib qolgan, keyinchalik yozuvda ham i unlisi ishlatilmagan va qaynana holiga kelgan (Shavkat Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati" 1-jild. 509-bet). Turkiy tillardagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlarni o'rgangan olim Pokrovskaya qayin so'zi faqat "xotinning tug'ishganlari erga nisbatan" ma'nosini anglatishini, erning tug'ishganlari ma'nosida keyinchalik qo'llanganini aytadi. Shunga ko'ra qaynana so'zi dastlab faqat xotinning onasiga nisbatan qo'llanilgan deyish mumkin. Bu so'z M. Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida *qaz'in* holida keltirilgan (1-tom, 383-bet). *Qaz'in* so'zi qayin ona, qayin ota, qayin ma'nolarini anglatgan.

Obog'a (amaki) - bu so'z qadimgi turkiy tilda *ota* ma'nosini anglatgan *aba* (ota so'zi devonda *aba* (1-tom. 113-bet) shaklida keltirilgan) so'zi bilan *aka* ma'nosini anglatgan *ag'a* so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan. Aba+ag'a so'zlari oralig'idagi a unilari singishib bir unliga aylangan. So'zdagi birinchi va ikkinchi a unilari o unlisiga almashgan. Obog'a so'zi dastlab faqat otaning akasiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu so'z ma'nosi kengayib otaning akasi, ukasi va ularning o'g'illari ma'nolarini anglatgan (Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati 1-jild. 246-bet). Devonda bu so'zning yana bir *tag'aj* varianti ham keltirilgan va bu so'z ham aynan amaki ma'nosida qo'llanilgan (3-tom. 256-bet). O'zbek tilining izohli lug'atida *avag'a* so'zi keltirilgan va bu so'z chevare ma'nosini anglatishi ta'kidlangan. Lekin devonda ham, etimologik lug'atda ham obog'a so'zining *avag'a* shakli keltirilmagan.

Ona – "ayol kishi o'z tuqqan bolasiga nisbatan". Qadimgi turkiy tilda bu so'z *ana* tarzida qo'llanilgan va hozirda ona so'zi anglatgan ma'noni anglatgan. Keyinchalik ana so'zidagi birinchi a unlisi o unlisiga almashgan va biz ko'rib turgan ona holiga keltirilgan. Devonda ham bu so'z *ana* ko'rinishida berilgan (1-tom. 119-bet). Muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfat" asarida ham ona so'zi ana holida keltirilgan (169-bet). Alisher Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida esa ona so'zining boshqa bir *volid* ko'rinishi keltirilgan (32-bet).

Aka – bu so'z o'zbek tilining etimologik lug'atida *og'a* ko'rinishida berilgan va *eng katta aka* ma'nosini anglatgan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi uzoq yasha, ko'p yasha ma'nolarini anglatuvchi *aq* fe'liga -a qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Aq+a=aqa so'zidagi q undoshi keyinchalik g' undoshiga so'z boshidagi a unlisi o unlisiga almashgan (1- jild. 26 - bet). "At - tuhfat" asarida esa so'zning *akā* ko'rinishi uchraydi. Biroq bu biz bilgan aka ma'nosida emas *amma* ma'nosida qo'llanilganligi aytilgan (174 - bet). Devonda aka so'zi o'rniga *acha* va *ich'i* so'zlari keltirilgan (1-tom. 114-bet). Bundan ko'tinib turibdiki, qadimda akaga nisbatan *acha* yoki *ich'i* deb murojat qilingan. Bundan tashqari *acha* so'zi faqat akaga emas balki opaga nisbatan ham ishlatilgan va katta qiz ma'nosini anglatgan. "At - tuhfat" opa yoki singil so'zlari o'rnida *qiz qardash* so'zi qo'llanilganligi aytiladi.

Opa – “qiz farzand o‘zidan keyin tug‘ilgan farzandlarga nisbatan” ma’nosida keladi. Bu so‘z asli turkcha so‘z bo‘lib, qadimgi turkiy tilda *yoshi katta bo‘l* ma’nosini anglatuvchi ab fe’liga a unlisini qo‘shish orqali yasalgan, keyinchalik b undoshi p ga va birinchi a unlisi o ga almashishi natijasida hozirgi ko‘rinishga kelgan (1- jild. 255 - bet). O‘zbek tilining izohli lug‘ati ham opa so‘zi berilgan va “bir ota - onadan tug‘ilgan farzandlarning ichida o‘zidan kichiklarga nisbatan katta qiz” ma’nosini anglatishi aytib o‘tilgan. Uka – “bir ota- onadan tug‘ilgan farzandlar ichidagi o‘g‘ilning o‘zidan katta farzandlarga nisbatan” qo‘llaniladi. Bu so‘z qadimgi turkiy tilda *ökə* tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik ö unlisi u ga, ə unlisi ä ga almashgan va *ukä* deya talaffuz qilingan. Bu so‘z dastlab kichik farzand mag‘nosini anglatgan. Shuning uchun qiz uka, o‘g‘il uka deya ishlatilgan. Vaqtlar o‘tishi bilan ma’noda torayish yuz berib faqat o‘g‘il uka ma’nosida ishlatila boshlagan.(Sh. Rahmatullayev. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” 1- jild, 386 - bet).

Bobo – “otaning yoki onaning otasi” ma’nosida ishlatiladi. So‘zning buva tarzida talaffuz qilinadigan varianti ham mavjud. Qadimgi turkiy tilda bu so‘z *ba:ba* tarzida talaffuz qilingan va faqat onaning otasiga nisbatan qo‘llanilgan. Keyinchalik ma’noda kengayish yuz berib otaning otasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan (Sh. Rahmatullayev "O‘zbek tilining etimologik lug‘ati" 1-jild, 55 - bet). At-tuhfat asarida bobo so‘zi o‘rniga *opka* so‘zi qo‘llanilgan (238-bet) va bu so‘z aynan *buva* ma’nosini anglatgani aytib o‘tilgan.

Kelin - turmushga chiqayotgan yoki yaqindagina chiqqan ayol. So‘z asli turkiy so‘z bo‘lib qadimgi turkiy tilda kel fe’liga -i(n) ot yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan(Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1- jild, 201-bet). "At-tuhfat" asarida ham kelin so‘zi keltirilgan (215 - bet).

Kuyov - qizining eri ota - onasiga yoki qarindoshlariga nisbatan. Bu asli turkiy so‘z bo‘lib, qadimgi turkiy tildagi qizning eri ma’nosini anglatuvchi *küd* yoki *küz* otlariga -ä, -gü qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasalgan (*küdägü, küzägü*). Keyinchalik d, ž undoshlari y ga, so‘z oxiridagi ü unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan va ä unlisi â ga, g esa v ga almashgan (Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-jild, 214-bet). At-tuhfat asarida ham *kuyov* so‘zi keltirilgan (223-bet).

## REFERENCES

1. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Shavkat Rahmatullayev. "O‘zbek tilining etimologik lug‘ati". 1-jild. – Toshkent. Universitet, 2000.
3. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn.
5. Ismoilov I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: Fan, 1966.
6. Madaliyevna I. S., Qizi J. R. N. B. “Majolis un-nafois” asarida qo ‘llanilgan qarindoshlik nomlari hamda ularning semantik tahlili //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – T. 22. – №. 7. – C.

## INGLIZ VA RUS TILIDAGI MAQOLLARNING O'ZBEK TILIDAGI MUQOBILI BO'YICHA LINGVISTIK TAHLILI

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

Ilmiy rahbar

Abdushukurova Sevvara

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7916207>

**Annotatsiya.** Bilamizki adabiy til shevalardan so'z olish hamda chetdan yangi so'zlarni o'zlashtirish, ya'ni Yevropa so'zlarini tilimizga kirib kelishi bilan boyiydi. Biz ushbu maqolam orqali maqollarimizni yevropada xususan, ingliz hamda rus tilidagi o'xshash hamda farqli tomonlarni tahlil etib beramiz. Maqollarimiz Yevropa tillaridan mentalitetimiz doirasida ham o'z tilimizga tarjima qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Maqol, tarjima, leksik tahlil, Yevropa xususan Ingliz tilidagi hamda rus tilidagi maqollar.

### LINGUISTIC ANALYSIS OF ENGLISH AND RUSSIAN PROVERBS IN UZBEK

**Abstract.** We know that literature is enriched by borrowing words from dialects and acquiring new words from abroad, by introducing new European words into our language. In this article, we will analyze the similarities and differences between our proverbs in Europe, English and Russian. Our proverbs are translated from European languages into our own language for our mentality.

**Key words:** Proverbs, translation, lexical analysis, Europe, especially English and Russian proverbs.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ ПОСЛОВИЦ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** Мы знаем, что литературный язык обогащается за счет заимствования слов из диалектов и приобретения новых слов из-за границы, т. е. европейских слов, поступающих в наш язык. В этой статье мы проанализируем сходства и различия между нашими пословицами в Европе, особенно на английском и русском языках. Наши пословицы переводятся с европейских языков на наш язык в рамках нашего менталитета.

**Ключевые слова:** пословицы, перевод, лексический анализ, Европа, особенности английских и русских пословиц.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollarda xalqimizning milliy urf odatlari, va milliy mentalitetimiz asos qilib olinadi.

Shuningdek bizning mentalitetimizda uchraydigan ba'zi maqollar Yevropa davlatlari, xususan Ingliz hamda rus tillarida ham uchraydi. Ammo biz bu maqollarni mentalitetimiz doirasidan kelib chiqib tarjima qilamiz hamda tahlil qilamiz. Masalan, O'zbek xalqimizda "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan maqol bor. Bu maqollar Ingliz tilida "Live and learn" shaklida, rus tilida esa "Век живи-век учиц" shaklida uchraydi. Ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjimada "Yasha va o'rgan" degan tarjima, Rus tilidan tarjima qilsak "Yashang va o'rganing"



ma'nosi kelib chiqadi. O'zbek xalqimiz mentalitet jihatidan tug'ilganimizdan toki vafotimizga qadar ilm izlashimiz kerakligini "beshik"leksemasi orqali ochib beradi. Ingliz hamda rus adabiyotida ham "beshik" leksemasini uchratishimiz mumkin, ammo bu leksemalar Ingliz hamda rus mentalitetida tug'ilganidan bilim olishi kerakligi ma'nosini anglatmaydi.

O'zbek xalqimizda "Hechdan ko'ra kech" maqoli bor. Ushbu maqol ingliz tilida "Better late than never" shaklida, rus tilida esa "Лучше поздно, чем никогда" shaklida uchraydi. O'zbek tilshunosligida "hech" bo'lishsizlik olmosi bo'lib, ushbu olmosh ma'no jihatidan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi. Bizda bu maqol "Umuman qilmagandan ko'ra kech bo'lsa ham qilgan yaxshi namunasida berilgan. Bu maqollar Ingliz hamda rus tilida ham shu ma'noga yaqin holatda berilgan. Bu ma'noni Ingliz tilidan "late-kech" ravish leksemasi, rus tilidan esa "Поздно-kech" leksemalari orqali ifodalab berilgan. Bundan kelib chiqadiki o'zbek tilshunosligida gumon ma'nosi "Gumon olmoshi" yordamida ochilib berilgan. Ammo Ingliz hamda rus tilshunosliklarida esa ravish orqali ma'no ochib berilgan. Biz bu holatga "O'z uying-o'lan to'shaging" maqolida ham duch kelishimiz mumkin. Bu maqol ingliz tilida - "East or west, home is best" tarzida rus tilida esa "В гостях хорошо, а дома лучше" shaklida uchraydi. Ingliz tilidan ushbu maqolni so'zma- so'z tarjima qilinganda - "Sharq yoki g'arb uy yaxshi" deya, rus tilidan tarjima qilinganda esa "Mehmon bo'lish yaxshi, lekin uyda bo'lish yaxshiroq" deya tarjima qilinadi. Bu yerda O'zbek tilidagi tahlilda eng yaxshi joy o'zimizning uyimiz ekanligi "o'z" olmoshi leksemasi orqali ma'no izohlab beriladi. Ammo Ingliz tilida "East or west-Sharq yoki G'arb" birikmasi orqali, rus tilida esa "а дома лучше -uy yaxshiroq" birikmasi orqali ma'no ochib berilayapti. Ingliz hamda rus tilshunosligidagi birikmalar o'zbek tilshunosligida bittagina "o'z" olmoshi orqali ifodalab berilayapti.

Keyingi "Yaxshi boshlangan ish, yaxshi tugallangan ishdir" maqolidagi ingliz tilida "A good beginning makes a good ending" shaklida, rus tilida esa "Лиха бед начало" shaklida uchraydi. O'zbek tilidagi maqol hamda ingliz tilidagi ushbu maqollar ma'no doirasidan bir biriga juda yaqin. Ya'ni ingliz tilidan ushbu maqolni tarjima qiladigan bo'lsak "Yaxshi boshlanish-yaxshi tugash" tarzida tarjima qilinadi. Ushbu maqollar o'zida qo'llangan fonemalar jihatidan birozgina farq qilishi mumkin. Ammo ushbu maqolning rus tilidagi shaklini so'zma- so'z tarjima qiladigan bo'lsak "Hammasi yaxshi bu yaxshi tugaydi" degan ma'no paydo bo'ladi. Bu yerda faqat qandaydir ish doirasidan kelib chiqib emas balki umumiy holatda hammasi yaxshi bo'lsa bu yaxshi tugaydi degan ma'no kelib chiqadi.

Rus tilida hamda ingliz tilida shunday maqollar borki ularda faqat tor doirada ma'nosi izohlangan, biz u maqollardan katta ma'no yasab tarjima qilib olganmiz. Masalan O'zbek tilida uchraydigan "Zaharli til qilichdan yomon" maqolini misol qilib olsak bo'ladi. Bu maqol ingliz tilida "Words cut more than words" shaklida, rus tilida esa "Зле языке острый меч" shaklida uchraydi. Bu maqollarni ingliz tilida so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak "So'zlar so'zlardan ko'ra ko'proq kesiladi" tarzida, rus tilida esa "Yomon til o'tkir qilich" shaklida tarjima qilinadi. Ushbu maqolning asosiy ma'nosi "Zahar"leksemasi orqali ochilib "Zaharli til, ya'ni yomon so'z qilichdan ham o'tkirligi bilan asoslangan. Qolgan ikki tilda esa shunchaki yomon so'z yomon deya aytilib ketilgan.

Bizning o'zbek tilimizni shunday maqollar borki ular ajoyib o'xshatmalar asosida, ta'rifu-tavsifi ochib berilgan. Masalan, "Ishlamagan tishlamas, ishyoqmasga kun kulmas" maqolini keltiradigan bo'lsak, ishlamagan odam tishlamaydi, ya'ni maqsadiga erisha olmaydi degan birikmani bittagina "tishlamas" leksemasi orqali ochib beriladi. Keyingi "Ishyoqmasga kun

kulmas"satriga keladigan bo'lsak ishlashni hohlamaydigan inson maqsadiga yetishaolmaydi ma'nosi "ishyoqmas kun kulmas" birikmasi orqali ma'no izohlab berilganini tahlil qila olamiz. Bu maqollar Ingliz hamda rus tillarida birgina "ishlamagan yemaydi" birikmasi orqali ma'no tahlil qilinadi.

Rus tilida "Tinmay mehnat qilish" degan birikmani mavjud. Biz ushbu iborani o'zbek tilida "Qo'li qo'lga tegmay ishlamoq" iborasi shaklida shlatamiz. Rus tilidagi oddiy birikmalar o'zbek tilshunosligida iborat shaklida uchraydi. To'g'ri ikkisida ham ma'no bir xil bo'lishi mumkin, ammo o'zbek tilshunoslarimiz ajoyib o'xshatmalar asosida ibora ma'nosida qo'llab tilimizga kiritgan.

Ingliz tilida shunday maqollar borki ularni so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak umuman boshqa ma'no kelib chiqadi. Shuning uchun ham biz ularni mentalitetimiz hamda til qoidalarimizga moslab tarjima qilib olamiz. Masalan, "To be born with a silver spoon in one's mouth" ingliz tilidagi maqolini oladigan bo'lsak, o'zbek tilidagi "Yaxshi inson bo'lib dunyoga kelmoq" iborasiga teng keladi. Ammo ushbu maqolni biz so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak "Og'zida kumush qoshiq bilan tug'ilish" degan ma'no kelib chiqadi.

O'zbek xalq maqollarimizda "Yolg'on yetmish yil yerda yotsa ham, yashig'ini oshkor qiladi" degan maqol mavjud. Ushbu maqollarni biz ingliz hamda rus tilida ham uchratamiz. Ushbu maqol ingliz tilida " He that lies upon the ground can fall no lower" shaklida rus tilida esa " Кто лжет, тот и крадет" shaklida uchraydi. Ushbu maqol Ingliz tilidan so'zma-so'z tarjima qilinganda "Yerda yotgan odam pastroqqa tusha olmaydi" shaklida, rus tilidan esa "Kim yolg'on gapiradi va o'girlaydi" shaklida tarjima qilinadi.

Yuqorida uchraydigan holatlar sababli biz boshqa tillaridagi maqollarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib tilimizga olib kira olmaymiz. Biz maqollarni mentalitetimiz doirasidan, xalqimiz urf odatlari doirasidan kelib chiqib tarjima qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### REFERENCES

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi ozbek adabiy tili. Toshkent. 2020.
2. B.Mengliyev . Hozirgi ozbek tili. Toshkent. 2018.
3. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)
4. O'zbek xalq maqollari. Maqollar.uz sayti
5. Cyberleninka.ru internet sayti.

**GAPNING LISONIY SINTAKTIK QOLIP VA UNING TIKLANISHI. SODDA  
GAPNING TARKIBIY QISMLARI**

**Ergasheva Dilrabo Allanazarovna**

Ilmiy rahbar

**Abdushukurova Sevara**

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7916234>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nazariy ma'lumotlarga asoslanib, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asarining lingvistik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Lisoniy sintaktik qolip, Wpm, gap bo'laklari, Wpmning ikki tomoni, ya'ni chap va o'ng tomonlari, modus, propozitsiya.

**THE LINGUISTIC SYNTACTIC FORM OF THE SENTENCE AND ITS  
RESTORATION. COMPONENT PARTS OF A SIMPLE SENTENCE**

**Abstract.** In this article, based on theoretical data, a linguistic analysis of Khudoyberdi Tokhtaboev's work "Besh bolali yigitcha" is carried out.

**Key words:** Linguistic syntactic pattern, Wpm, clauses, two sides of Wpm, left and right sides, mode, proposition.

**ЯЗЫКОВО-СИНТАКСИЧЕСКАЯ ФОРМА ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ЕЕ  
ВОССТАНОВЛЕНИЕ. СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ ПРОСТОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье на основе теоретических данных проводится лингвистический анализ произведения Худойберди Тохтабаева «Мальчик с пятью детьми».

**Ключевые слова:** языковая синтаксическая модель, РПМ, фрагменты предложений, две стороны РПМ, т.е. левая и правая стороны, модус, пропозиция.

Lisoniy sintaktik birlik so'z birikmasi va gap hosil qilish qolipidir. Lisoniy sathga tegishli bo'lganligi uchun ham ularni **lisoniy sintaktik qolip** (qisqacha LSQ) deb ataymiz. Ra'no Sayfullayeva hamda Bahtiyor Mengliyevlarning fikricha "LSQ g'isht qolipiga o'xshaydi. Inson o'ngida ham so'zlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksemalarni so'z birikmasi shaklida keltirish, gap hosil qilish qolipi mavjud. Ular LSQ, model, konstruksiya, qurilma deb nomlansada, Aslida bir tushunchani ifodalaydi" deb hisoblaydilar.

Biz gaplarning lisoniy sintaktik qolipi sifatida **Wpm** ni olishimiz mumkin. Wpm ning mazmuni: Gapning eng kichik atov birligi ekanligi. Wpm ning 2 ta tomoni mavjud: Birinchi tomoni, ya'ni chap tomoni- uning formula ya'ni qolipi ekanligi bo'lsa; Ikkinchi tomoni ya'ni o'ng tomoni uning mazmun tomoni. Mazmun bu o'sha Wpm ni gapning eng kichik atov birligi ekanligi. Biz bilamizki gapning eng kichik atov birligi kesimdir.

Gapning lisoniy sintaktik qolipida shakl va mazmun munosabati mavjud. Shakl va mazmun munosabati - gapdagi kesim tarkibida shaxs-son hamda zamon qo'shimchalarining qo'llanishi. Shakl va mazmun munosabati shaxs son va zamon qo'shimchalarining noto'g'ri qo'llanishida buziladi.

Substansial tilshunoslikda gapning asosiy belgilari mavjud:

1. Gap tugal ohangga ega bo'lishi kerak. Masalan: Men opamni yaxshi ko'raman, juda, juda ham yaxshi ko'raman. Hech ham xafa qilmasam, hech ham yig'latmasam deyman. (X.To'xtaboyev. Besh bolali yigitcha .5-bet)

2. Gap albatta grammatik shakllangan bo'lishi kerak. Masalan: Makkani qopga solib, pastga olib tushdim-da, eshakni to'qimlab, dalaga - opamning oldiga qarab chopib ketdim. (X.To'xtaboyev. Besh bolali yigitcha. 8-bet). Ushbu gapimizni egalik, kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari grammatik shaklni hosil qilib gapni grammatik shakllantirib kelmoqda.

3. Tugal fikr va sintaktik shaklga muvofiq tugallangan ohangga egaligi. Biz buni "Gaplar sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni olib tugal fikr ifodalashi" deb tushunamiz. Masalan: Ayollar chopaymi-chopmaymi deb, darmonsiz ketmon urib, yer tekislashadi. Bu yerda tugal ohang mavjud.

4. Kommunikatsiya (aloqa) axborot berish vositasi ekanligi. Masalan: - Iye tentak nega yig'layapsan?

- Ona!

- Nima gap o'zi ?

- Xafa bo'lmaysizmi ?

- Nega xafa bo'lar ekanman!

- Yig'lamayman, deb so'z bering!

- Avval ayt-chi !

- Yo'q, avval so'z bering.

- Ha, ana so'z berdim.

- Otamni...- dedim-u, yana yig'lab yubordim, -urushga olib ketar ekan.

( X. To'xtaboyev. Besh bolali yigitcha. 13-bet)

Biz gaplarni lisoniy sintaktik qolipga ajratayotganimizda modus va propozitsiya tushunchalariga ham duch kelamiz.

Sintaktik birlik (so'z birikmasi va gap) da ifodalangan, borliq bo'lagi, voqelik, vaziyat sintaksisda propozitsiya deyiladi. propozitsiyani biz diktum deb ham ataymiz. Modus – gapning subyekt tomonidan ifodalangan mazmun tomoni.

Quyida Xudoyberdi To'xtaboyevning Besh bolali yigitcha"asarida qo'llab o'tilgan modus hamda diktum birliklari mavjud. Masalan, Otamning oldiga, qirga jo'neydigan bo'ldim. Diktum-Otamning oldiga, Modus-qirga jo'neydigan bo'ldim; (13-bet) Opam marzaga, qalin tuproq ustiga o'tirib, huzur qilib esladi. Diktum-opam marzaga, qalin tuproq ustiga o'tirib; Diktum - huzur qilib esladi; (12-bet) Menga ko'zi tushgach, kulimsirab qo'ydi. Diktum - menga ko'zi tushgach; Modus-kulimsirab qo'ydi; (14-bet) Otam, men kelguncha o'tindan qiynalib qolmanglar deb, tuni bilan uxlamay bog'dagi katta o'rikni kesib, o'tin tayyorladi. Diktum - otam, men kelguncha o'tindan qiynalib qolmanglar deb; Modus- tuni bilan uxlamay, bog'dagi katta o'rikni kesib, o'tin tayyorladi; (15-bet) Kechqurun uyimizga erkak, ayollar to'planishdi, nega desangiz, o'sha kuni qishlog'imizdan yana 4 kishi armiyaga ketayotgan ekan. Diktum - kechqurun uyimizga erkak, ayollar toplanishdi; Modus- o'sha kuni qishlog'imizdan yana 4 kishi armiyaga ketayotgan ekan; (15-bet) Ruslarning yonida bo'lishga harakat qil, ulardan o'rganasan. Diktum - ruslarning yonida bo'lishga harakat qil; Modus - ulardan o'rganasan; (20-bet) Otam o'zi aslida kam gap odam, so'rasang javob beradi, bo'lmasa, haftalab ham jim yuraveradi. Diktum - otam aslida kam gap odam; Modus - haftalab ham jim yuraveradi. Aslida biz ushbu asarni boshidan oxirigacha tahlil qiladigan bo'lsak, yozuvchining mahoratiga tan bermasdan ilojimiz yo'q. Chunki yozuvchi ushbu asarida Lisoniy sintaktik qolipdan ham, Diktum hamda Moduslardan ham yetarlicha, kerakli

o'rinlarda mahorat bilan foydalangan. Diktum va modus birliklari gaplarni lisoniy sintaktik qoliplarida muhim ahamiyatga ega.

#### **REFERENCES**

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. - 2020.
2. B.Mengliyev . Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. - 2018.
3. X.To`xtaboyev. Besh bolali yigitcha. Toshkent. - .
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – В. 99-103. (10.00.00 № 31)



O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA XUSUSIY O'XSHATISHLARNING  
LINGVISTIK TAHLILI.  
("DUNYONING ISHLARI" ASARI TALQINIDA)

Ergasheva Dilrabo

Ilmiy rahbar

Choriyeva Laziza Anvar qizi

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7919595>

*Annotatsiya.* Maqolada iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari tahlilida uchraydigan xususiy o'xshatishlarning lingvistik tahlili bilan birgalikda ushbu gaplarning ma'nolari kabi bir qancha masalalar xususi bayon qilinadi.

*Kalit so'zlar:* O'xshatish, an'anaviy o'xshatish, xususiy-muallif o'xshatish, lingvistik tahlil.

LINGUISTIC ANALYSIS OF SPECIFIC SIMILES IN THE WORKS OF O'TKIR  
HASHIMOV.

(IN THE INTERPRETATION OF THE WORK "WORKS OF THE WORLD")

*Abstract.* The article describes several issues, such as the meanings of these sentences, together with the linguistic analysis of the special similes created in the analysis of the work of the talented writer O'tkir Hashimov "The Affairs of the World".

*Key words:* Simile, traditional simile, private-author simile, linguistic analysis.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВИДОВЫХ СРАВНЕНИЙ В  
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ОТКИРА ГАШИМОВА.

(В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ПРОИЗВЕДЕНИЯ МИРА»)

*Аннотация.* В статье рассматривается ряд вопросов, таких как значения этих предложений, вместе с лингвистическим анализом специальных сравнений, встречающихся в анализе произведения «Дела мира» талантливого писателя О'ткира Гашимова.

*Ключевые слова:* сравнение, традиционное сравнение, частноавторское сравнение, лингвистический анализ.

KIRISH

O'xshatishda biz asosan bir narsani boshqa narsaga shakli, sifati, rangi, xususiyati va yana qaysidir jihati bir-biriga muvofiq kelsa biz uni o'xshatish deymiz. A.Shomaqsudov o'xshatishga shunday ta'rif beradi: " ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash"

Ma'rufjon Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matning lisoniy tahlili" asarida o'xshatish unsurlarini sanab o'tadi: a) o'xshatish sub'yekti; b) o'xshatish etaloni; c) o'xshatish asosi; d) o'xshatishning shakli ko'rsatkichlari.

Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar an'anaviy va xususiy muallif o'xshatishlariga bo'lamiz. An'anaviy o'xshatishda asosan kundalik turmushimizda har kun ishlatiladigan o'xshatishlardir. M.Yo'ldoshev bunday o'xshatishni "siyqasi chiqqan" deya ta'rif beradi. Masalan: tulkiday ayyor, sherdek kuchlik, yuzlari oydek, qoshlari yoydek, kipriklari kamondek va hokazo.

Xususiy-mualliflik o'xshatishari yozuvchining o'z qarashi, kuzatuvchanligi, badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan holda yaratiladi. Bunday o'xshatish qo'llangan asar

obrazlilikka boy, ekspressivlik yorqin ifodalangan bo'ladi. Masalan: O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" asaridan "Oq oydin kechalar" hikoyasi. "Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

Oymamaxon xulla

Qanotlari tilla.

Subxon allo izga,

Umr bersin bizga.

Bu misolda O'tkir Hoshimov yangi chiqqan oyni qizlarning tillaqoshiga o'xshatayapti. Biz odatda oyni o'roqqa o'xshatardik.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Quyida ushbu asarda xususiy o'xshatishlarga oid bo'lgan misollar keltiriladi.

1. "Qabrison jimjit. Faqat yo'lakning ikki chetidasaf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolarig qo'shilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi ("Tasalli" hikoyasi 7-bet). Hikoyada yo'l chetidagi mirzateraklarning egilib qolishini qabr ustiga bosh eggan insonlarga qiyoslaydi.

2. "Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan go'rkov yuziga fotiha tortib o'rnidan turadi:

– Bo'ldi endi, bolam! Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz ("Tasalli" 7-bet). Go'rkovning soqolini mosh-guruchga o'xshatadi. Bunday xususiy o'xshatishlar asarga estetik ruh bag'ushlaydi.

3. "Ha, xuddi o'sha Toyning o'zi. Faqat shuncha bo'y, bunaqa uzun qo'l-oyoqlarni qayoqdan oldi ekan! Yaqindagina buloqdek oqib turadigan burnini eplolmay mashaqqat chekadigan bola edi ("Toy" 34-b). Bu yerda yosh bolaning burni oqishini tog'dan oqib keladigan buloqqa o'xshatadi.

4. "Etik kichkina akamga o'tadi. Kichkina akamning oyog'igayam bir joyda turavermaydi o'asi, etik sig'maydi. Ana endi etik bizniki! Faqat bizga yetib kelguncha etikning tagi Naim sartaroshning iyagidek sip-silliq bo'lib ketadi ("Bozor" 108-bet). Hikoyadagi etikning kiyilaverib tagining silliq qolganini insonning iyagiga o'xshatish ham bir mahorat.

5. "Qishda kuya yegan telpak, mushtdekkina gavdasiga yarashmagan uzun kamzul, oyog'iga kalish-maxsi kiyib yuradi. Yozda bo'lsa dumaloq, qozon nusxa baxmal do'ppisini bostirib oladi. Qo'lidagi xo'jalik sumkasi ham kamida yigirma yil sidqidildan xizmat qilgan (Po'stdumbali moshkichiri" 12-bet). Bu yerda do'ppini qozonning tagiga o'xshatilyapti.

6. "Ammam juda chiroyli, yuzida xoli bor, qosh ko'zi chaqmoqdek xoti. Ammo juda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqandek tarsillatib gapiradi ("Oltin baldoq" 13-bet). Bu matnda ayolning qosh ko'zini chaqmoqqa, gapirishini esa mixning qoqilishiga o'xshatilyapti.

7. Zebi xoladan hayiqmaydigan bola yo'q edi. Erkaklardek barvasta g'ovdali, qop-qora bu xotinning yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlagancha etik kiyib g'oz yurishi ham boshqa ayollarga o'xshamas, hatto qoramtir siyrak mo'ylovigacha bor edi. U qachon qarasa qulog'iga rayhon taqib yurar, Darhan arig'I bo'yidagi hovlisida yoz bo'yi rayhonlar barq urib yotardi ("O'ris bolaning oyisi" 145-bet). Bu hikoyada ayol kishining gavdasi erkaklarga, qadam taahlab yurishi esa g'ozning yurishiga o'xshatilyapti.

8. "Zebi xola sap-sariq jingalak sochli, ko'm ko'z "o'ris bola"sini – Valini jonidan yaxshi ko'rardi. Qaysi to'yga borsa, ko'ylagining yenviga popukqand, monpasi jiyda solib kelardi ("O'ris bolaning oyisi" 145-bet). Bu yerda bolaning tashqi ko'rinishi rus millatiga o'xshatilyapti.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mashhur yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari tahlil olib borildi. Ushbu jarayonda asardagi hikoyalardan xususiy-muallif o'xshatishlari ko'rib chiqildi va aniqlandi. Umumiy va xususiy-muallif o'xshatish gaplar haqida ma'lumot berildi, asar yuzasidan tahlil qilindi.

### **REFERENCES**

1. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T:2005.
2. Ma'rufjon Yo'ldishev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T: 2007.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. T:"Oqituvchi" 1983. 246-bet.

## O‘SIMLIK VA UNGA OID NOMLARNING LEKSIK VA MORFOLOGIK TAHLILI

Xidirova Iroda

Ilmiy rahbar.

Boyqulova Sevara

G'affarova Gulbahor

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7919643>

**Annotatsiya.** Maqolada XI–XV asrlardagi lug'atlardagi o'simlik va unga oid nomlarning leksik va morfologik jihatdan tahlili yoritib berildi. Shuningdek, ba'zi so'zlarning ma'nolari leksik jihatdan boshqa so'zga teng ekanligi aniqlashtiriladi. Morfologiyada ba'zi so'zlarning ma'nolari turli xil so'z turkumlarida ekanligiga duch kelamiz.

**Kalit so'zlar:** Morfologik tahlil, leksik tahlil, bitik, baqla, momiq, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Devonu lug'oti-t-turk”, “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit”.

### LEXICAL AND MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF PLANT AND RELATED NAMES

**Abstract.** This In the article, the lexical and morphological analysis of the Plant and related nouns in the dictionaries of the 11<sup>th</sup>–15<sup>th</sup> centuries was highlighted. It is also determined that the meanings of some words are lexically equivalent to other words. In morphology, we come across that the meanings of some words are in different word groups.

**Key words:** Morphological analysis, lexical analysis, bitik, bagla, fluff, “Muhokamat ul-lughatayn”, “Devonu lug'oti-t-turk”, “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit”.

### ЛЕКСИЧЕСКИЙ И MORFOЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАСТИТЕЛЬНЫХ И РОДСТВЕННЫХ НАЗВАНИЙ

**Аннотация.** В статье дан лексико-морфологический анализ названий растений и родственных им названий в словарях XI–XV вв. Также уточняется, что значения некоторых слов лексически эквивалентны другому слову. В морфологии мы сталкиваемся с тем, что значения некоторых слов находятся в разных словосочетаниях.

**Ключевые слова:** Морфологический анализ, лексический анализ, битик, бака, пух, «Мухокамаат ул-лугъатайн», «Девону лугъоти-т-тюрк», «Ат-тухфатуз закияту фил лугъотит».

O'rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Koshg'ariy XI asrda yashab ijod etdi. Uning bebaho “Devonu lugotit turk” asari u davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. “Devonu lugotit turk” da shaharlar, qishloqlar, dengiz, suv, uy-rozgor buyumlari qushlar, hayvonlar astronomik malumotlar, qabila va urug nomlari keltirilgan. Ayniqsa, o'simlik nomlari lingvistik jihatdan batafsil keltirilgan.

Bunda har so'zning manolari, polisemiya, omonomiya, sinonim, antonim sozlar chuqur tahlil qilinadi. Tovushlar fonemalarning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, choziq va qisqa unlilar, ularning talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan.

Yana bir ikkinchi asarimiz “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya” asari. Bu asar XIV asrda Misrda yozilgan bolib uni yozgan muallifning ismi malum emas. Asar mamluk-qipchoq

tilida yozilgan. Bu til XIII–XV asrlarda Misr va Suriya savdogarlari, davlat xizmatchilari foydalanilgan til edi. Navbatdagi asar "Muhokamat ul-lug'atayn" Alisher Navoiyning asarida o'zbek tilining boyligini, qudratini, o'sha zamonning adabiy tillari qatoridan o'rin olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Asarda o'zbek (turkiy) va fors tillari unli tovushlar, leksika va morfologiya doirasida o'zaro qiyoslanadi.

Ushbu asarlar asosida ayrim lug'atlarning leksik va morfologik tahliliga to'xtalib o'tish mumkin. Asarlarda keltirilgan o'simlik nomlarini leksik jihatdan tahlil qilsak, masalan: "**o'simlik**" so'zi "Devonu lug'oti-t-turk" asarida **ot** (o't) so'zi shaklida qo'llanilgan (28-bet).

At-tuhfa asarida esa **javshan** (73-bet), bundan tashqari **baqla** so'zi shaklida ham keltirilgan (95-bet). Devonu lug'oti-t-turk asarida osimlik manosida keltirilgan **ot** so'zi (28-bet) At-tuhfa asarida achchiq o't ma'nosida kelgan (236-bet). At-tuhfa asarida o'simlik ma'nosida qo'llanilgan "**bitik**" so'zi Qadimgi turkiy tilda kitob ma'nosi ham anglatgan. Devonu lug'oti-t-turk asarida keltirilgan "**momiq**" so'zi (233-bet) paxta so'zi ma'nosida qo'llangan.

Bu so'zni morfologik jihatdan tahlil qilsak Devonu lug'oti-t-turk asarida ot so'z turkumidagi qo'llangan, ammo bu so'z hozirgi adabiy tilimizda sifat so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi.

**Tariq** o'simligi Devonu lug'oti-t-turk asarida **ugur** shaklida (34-bet) At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya asarida esa **tari** shaklida (55-bet) keltirilgan leksik jihatdan bu so'zlar bir xil ma'noga ega. Shuningdek, "**arpa**" o'simligi ham shaklan ushbu ikki asarda berilgan lug'atlardan farq qiladi. Xususan, At-tuhfatda "**arpa**" shaklida (170-bet) Devonda esa **ortgun** (o'rtgun) (465-bet) shaklida keltirilgan. Bundan ko'rinadiki, o'sha davrda shaklan har xil bo'lgan so'zlar ma'no jihatdan bir xil ma'noga ega ekanligini ko'rdik. O'sha davr leksikografiyasi uchun ham bu so'zlar olimlar nutqida aynan kerakli manba bo'lib xizmat qilgan.

Devonu lug'oti-t-turk asarida keltirilgan "**yaš**" so'zi (326-bet) ko'kat, sabza ma'nosida kelgan bu so'zni morfologik jihatdan tahliliga e'tibor bersak, bu so'z asarda ot so'z turkumi ma'nosida qo'llanilgan, hozirgi o'zbek adabiy tilimizda esa bu so'z ham ot, ham sifat so'z turkumi ma'nosida qo'llanadi.

Negaki yosh – insonning yoshi ma'nosida ot so'z turkumida, tashqi ko'rinish ma'nosida sifat so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi. Alisher Navoiyning Muhokamat ul-lug'atayn asarida keltirilgan "**rayohin**" so'zi (44-bet) biz yuqorida keltirib o'tgan "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi "**yaš**" so'zi bilan leksik jihatdan bir xil ma'noga ega.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holatda shuni aytish mumkinki, har bir lug'atni leksik va morfologik jihatdan tahlil qilganimizda lug'atlardagi har bir so'z turli xil ma'nolarga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Lug'atlar har bir davrdagi o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Bu lug'atlarni ko'rib o'tish jarayonida biz o'sha davrdagi XI–XV asrlardagi urug'-qabilalarning har birida lug'atlar leksikasi o'zgacha ekanligi hamda lug'at boyligining keng ekanligiga amin bo'ldik.

## REFERENCES

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent:
2. At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 123.
3. Devonu lug'oti-t-turk. G'afur G'ulom nomidagi matbaa -nashriyot uyi, Toshkent, 2017 yil, 488 bet.
4. Norboyevna Q. S., Shohista M. O. 'ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING HOSIL BO'LISH BOSQICHLARI //E Conference Zone. – 2022. – C. 48-50.



5. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
6. O'.Xoliyorov, B. Mengliyev O'zbek tilining so'z yasaliş lug'ati — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

## AMALIY LEKSIKOGRAFIYA

Xidirova Iroda

Ilmiy rahbar.

Rabbimqulova Go'zal

Abdurahmonova Gulorom

Termiz davlat universiteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7919699>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada amaliy leksikografiyaning umuman leksikografiyaning vazifalari, ahamiyati hamda lug'atlarning fanga insonlarga foydasi haqida so'z yuritilgan bo'lib, lug'at yaratishdagi o'ziga xos mashaqqatlar, tartib qoidalar keng yoritilgan. Lug'atlarning didaktik qobiliyati hamda tarixi e'tiborga olingan.

**Kalit so'zlar:** amaliy leksikografiya, leksikografiya, lug'atchilik, nazariy leksikografiya, lug'at, leksikograf.

## PRACTICAL LEXICOGRAPHY

**Abstract.** This article talks about the tasks and importance of lexicography in general, as well as the benefits of dictionaries to science and people. Didactic ability and history of dictionaries are taken into account.

**Key words:** practical lexicography, lexicography, lexicography, theoretical lexicography, dictionary, lexicographer.

## ПРАКТИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКОГРАФИЯ

**Аннотация.** В данной статье говорится о задачах и значении практической лексикографии, а также о пользе словарей для науки и человека. Учитываются дидактические способности и история словарей.

**Ключевые слова:** практическая лексикография, лексикография, лексикография, теоретическая лексикография, словарь, лексикограф.

Barchamizga ma'lumki, tilshunoslikning leksikografiya bo'limi alohida e'tiborga molik. Sababi leksikografiya ya'ni lug'atchilik yaratgan asarlar shu jumladan lug'atlar barchamizga, yoshimiz, kasb-hunarimiz, qiziqishimizdan qat'i nazar hamisha kerakli kitoblar deb, bugungi kunda rivojlanib, kengayib borayotganligi fikrimning dalili bo'la oladi.

Avvalambor leksikografiya bu lug'atlarni va lug'atshunoslikni o'rganuvchi hamda turli xalqlarning milliy boyligi, so'zlari va iboralarini o'rganuvchi fandır. Lug'atshunoslik, qanday lug'at bo'lishidan qat'i nazar, izohli lug'atmi, imlo lug'atmi, fraziologik lug'atmi, tarjima lug'at bo'ladimi, har bir xalqning tarixi, madaniyati, ijtimoiy vaziyati haqda ma'lumot beradi.

E'tibor qaratsak, har bir uyda ziyoli oila bo'ladimi yo oddiy dehqon iolasi bo'ladimi eng kamida bitta lug'at uchratamiz, masalan uy-ro'zg'or buyumlari lug'ati, ism manolari lug'ati hech bo'lmaganda tarjima lug'atlari. Lug'atshunoslik, lug'at tuzishishi uning mashaqqati anchayin ko'pligi, lug'at tuzuvchilarning qanchalik sabrli, sinchkov, zukko bo'lishlari kerakligini bilamiz.

Buni professor M.E.Umarxo'jayev Berlin akademiyasida kuzatgan. Sultonbek Normatovning "Leksikografiya asoslari" o'quv - qo'llanmasida "Leksikografiya (lug'at tuzish nazariyasi va amaliyoti) eramizdan oldingi davrlarda paydo bo'lgan va boshlanishidanoq, ta'lim-tarbiya sohasi uchun xizmat qilgan ekan, yaratiladigan har bir lug'atning asosini didaktik tamoyil belgilaydi", deb aytgan. Yozuvchining fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, ajdodlarimiz kelajak

ning ta'lim-tarbiyasiga, ilmiga, madaniyatiga har sohada e'tibor berilishini, yoshlarimizning ma'naviyatida hamda tarbiyasida nafaqat badiiy asarlar balki, lug'atlarning ham o'ziga xos o'rni borligi namoyon bo'ladi.

Amaliy lug'atchilik nafaqat lug'atlar tuzadi, shu bilan birga bir qancha ijtimoiy muhim vazifalarni ham zimmasiga oladi. Bular esa ona tilimizni chuqur o'rganish va boshqa tillar bilan tanishish, imlo va izohli lug'atlar yordamida tilimizni me'yorlashtirish, ikki va ko'p tilli ya'ni tarjima lug'atlar orqali tillararo munosabatlarni yo'lga qo'yish. Tarjima lug'atlarni nazarda tutsak, chet tilida yangi o'rgangan so'zimizni lug'atdan izlab ko'rganimizda uning qanday talaffuz qilinishini, qanday o'rinlarda qo'llanilishini keltirib o'tiladi.

Masalan, Miss honim turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan, misis ham honim degani farqi misis turmushga chiqqan ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bizda o'zbek mentalitetida bunday murojat turi yo'q. Bundan ham yuqoridagi fikrimizning guvohi bo'lishimiz mumkin. Amaliy leksikografiya yo'nilgan so'zlardan lug'at tuzish. Bugungi kunda amaliy leksikografiya zamon talabi bilan elektronlashtirilyapti. Qadimgi davrda so'zlar uyma-uy, qishloqma-qishloq yurib yig'ilgan va kitob holiga keltirilgan. Lug'at uchun so'z yig'ishda kartochkalardan va kartotekadan foydalaniladi.

Kartoteka bu — yo'nilgan so'zlar. Bu kartochkalar (qog'oz bo'lakchasi) ga so'z va unga badiiy asarlardan misollar kiritiladi. Bunday kartotekalar bugungi kunda kutubxona fondlarida saqlanmoqda. Avvalgi lug'atlar kitob ko'rinishida bo'lsa bugungi kundagi lug'atlar esa elektron shaklda. Yana aytib o'tish kerakki, Charles Brovn Amaliy leksikografiyaga quyidagicha izoh beradi: amaliy leksikografiya — bu to'g'ri lug'atlarni yartishdir. Ya'ni bu jihat nazariy leksikografiyadan olingan barcha narsalarni amalda qo'llaydi. Buning uchun u boshqa tilshunosliklardan, masalan, amaliy lingvistikadan foydalanadi.

Bundan tashqari olim har bir leksikografga kerak bo'lgan ushbu maslahatni beradi. "Lug'atni tilni o'rgatish vositasi sifida tasavvur qiling, ammo ma'lum bir so'zga nisbatan baholi fikrlarni qo'shmang". Aytib o'tish joizki, yozuvchi lug'at tuzishda aniq faktlarga, ishonchli ma'lumotlarga tayaning hamda har bir so'zni shu xalqning ma'naviyatida, an'analariidan kelib chiqib tariflang unga individual yondoshib o'quvchini chalkashtirmang degan.

Xulosa sifatida leksikografiya barchamiz uchun, millati, yashash manzili, tili, dinidan qat'i nazar eng muhim, zaruriy fan desak adashmagan bo'lamiz. Leksikografiyaning o'rganish obyekti so'zlarning ta'rixan kelib chiqishi, ma'nosi imlosi va shaklini bilish ekanligi barchamizga ayon. Leksikografiya shunchaki so'zlarni bir yeg jamlab ma'nolarini yigib chiqish emas ya'ni leksiko'nalishga ega emas, ilmiyografiya ilmiy fan bo'la olmaydi degani emas. Leksikografiya leksik ma'lumotlarning hammasini bir xil e'tiborga loyuh deb hisoblasak bu fan ilmiy manbalardan foydalanadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, leksikografiya jiddiy ilmiy fandır. Tarixga nazar solsak ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek leksikografiyasi tarixiga boqsak Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridan boshlanganligini ko'ramiz. Ishonch bilan ayishimiz kerakki, ushbu lug'at keying barcha lug'atlarga mustahkam hamda asosiy poydevor bo'la oldi. Bu lug'atda nafaqat so'zlar va ularning ma'nolarini tasniflanganligini ko'ramiz, balki, millatimiz va turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar va marosimlar, geografik joylashuv ma'lumotlari singari keng hamda muhim ma'lumotlaeni guvohi bo'lamiz. Shuni aytib o'tish joizki, amaliy leksikografiya o'z ichiga tarjima, lingvo-poetika va nutq madaniyatini oladi.

**REFERENCES**

1. Sul-tonbek Normatov. Leksikografiya asoslari / o'quv-qo'llanma. – Toshkent, 2020.
2. Charles Brovn. Leksikografiya: kelib chiqishi, u nimani o'rganadi, nazariy va amaliy leksikografiya, 2020.
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi, 2004.

## ENDI ROHAT TATIMAS

Kamol Hakimov

Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7921264>

**Annotatsiya.** O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan O'tkir Hoshimovning har bir asari adabiyotimiz uchun ulkan tuhfadir. Yozuvchining hikoya, qissa-yu romanlarida bir umumiy mushtaraklik mavjud-bu ham bo'lsa, Inson Qadri.

"Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ham ayni shu jihat yoritiladi; adib go'yo insonlik burchlari hamda vazifalari haqida kitobxon bilan so'ylashadi, sirlashadi.

Mazkur maqolada ushbu hikoyaning turlicha yondashuvlarga sabab bo'la oluvchi muhim lavhalaridan biri haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** urush mavzusi, noan'anaviy yondashuv, davr fojiasi, maishiy muammo, realistik hikoya, peripetiya.

## NO ENJOYMENT ANYMORE

**Abstract.** Every work of O'tkir Hashimov, one of the great representatives of Uzbek literature, is a great gift for our literature. The writer's stories, short stories and novels have one thing in common - human dignity.

The same aspect is highlighted in the story "The Last Victim of War"; It is as if the writer talks to the reader about human duties and responsibilities.

This article tells about one of the important scenes of this story, which can cause different approaches.

**Key words:** war theme, unconventional approach, period tragedy, domestic problem, realistic story, peripetia.

## НИКАКОГО УДОВОЛЬСТВИЯ БОЛЬШЕ

Mahmud Shabustariy XIV asrning so'fiy shoirlaridan biri bo'lgan hamda “Gulshani Roz” uning asarlari ichidan eng mashhuri sanalgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, Amir Temur tasavvuf adabiyotiga ham muhabbat qo'ygan. U davlat boshqaruvi ishlarida islom dini qonun-qoidalariga tayangan, o'z saltanati binosini islom dini asosida barpo etgan hamda mustahkamlagan. Uning Qur'oni Karim va Hadisi shariflarga munosabati juda yuqori bo'lgan. Din vakillari va shayxlarga nisbatan hurmati cheksiz bo'lgan. Mamlakat ishlarida shariatga tayangan holda qonun va farmoyishlar chiqargan. Temur o'z asari sanalmish “Temur tuzuklari”da shunday yozadi: “Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinini yoyib, Muhammad, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, shariatini quvvatladim. Jahonning turli mamlakatlari, katta-kichik shaharlarida islom dinini va odamlarning eng xayrlisi (hazrati Muhammad payg'ambar) ning to'g'ri yo'llarini tartib etdim. O'z saltanatimni shariat bilan bezadim”.

Amir Temur diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallagan hamda uning islom diniga yuksak darajada e'tiqod qo'yganiga guvoh bo'lamiz. Bunga dalil sifatida hikoyadan olingan quyidagi jumalalarda ham ko'rishimiz mumkin:

“1387 yil 20 dekabr. Sohibqiron Amir Temur juma namozidan Ruknobod kanoridagi qarorgohiga qaytib kelib, amirlarning chodirlaridan nariroqqa tikilgan xirgohga kirdi”.

Yozuvchi hikoyada Sohibqironni baland bo'yli, xushqomat, chehrasidan nur yog'ilib turadigan hukmdor sifatida tasvirlagan:

“Shu onda arzan yog'ochidan qilingan asoga tayangan, barvasta qaddi sal bukilgan, oppoq soqolli nuroniy Shamsiddin Muhammad Hofiz argachaning muattar isi kelib turgan xirgohga kirdi va kuzatib kelgan Nosiriddin Umarga hassasini berdi. Amir Temur biror muddat shoirga tikilib turdi-da, uning istiqboliga qarab yurdi. Hofiz ta'zimdan bosh ko'tardi. Qarshisida to'rt-besh qadam narida baland bo'yli, xushqomat, chehrasidan nur yog'ilib turgan Amir Temur turardi”.

Bu o'rinlarda yozuvchi Amir Temurni naqadar oliyjanob, himmatli, saxovatpesha hukmdor sifatida tasvirlaydi. Amir Temur Xofiz Sheroziyni suhbatga taklif qilish hamda uning xizmati uchun ikki navkarini uning huzuriga yuboradi, u xirgohga kirib kelgach esa shoir istiqboliga tomon yurib boradi. Amir Temur qanchalik qat'iyatli hukmdor bo'lmasin, Xofiz Sheroziy Amir Temur haqida xayolidan o'tkazgan qahr, g'azab nuqtalarini asardagi Temur obrazida uchratmaymiz. Asarda yozuvchi Amir Temurni kuchli tafakkur sohibi, dinga putur yetkazuvchi omillardan yaxshigina xabardor, she'riyatning eng murakkab, nozik jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirgan hukmdor sifatida aks ettirgan:

“– Tashakkur, Mavlono. Bir narsaga taajjubdaman, Sizday buyuk iste'dod sohibi nega dinga putur yetkazuvchi baytlar yozursiz? Yoxud biz xato tushunadurmizmu? Misol bul bayt:

Xudoro, muxtasib, moro ba faryodi dafu nay baxsh,  
Ki sozi shar az in afsona beqonun nahohad shud\*.

\*(Ma'nosi: Xudo haqqi, ey muxtasib, bizni dafu nay faryodiga qoldir, chunki shariat sozi bu afsonadan qonunsiz bo'lib qolmaydi.)

• Bu ixonat emasmu, mavlono?



• Bale, fotehi amir, bul baytni men yozmishmen. Bunda “dafu nay faryodi” shariatga also putur yetkaza olmaydi, deb aytmoqchi bo’lganmen.

• Mavlono, mening nazarimda siz o’ylagan ma’no chiqmaganga o’xshaydur.

• Oliyhazrat, bizday ojiz bandalarning gunohimiz ko’p, shuning uchun doimo Allohdan mag’firat tilaymiz, - Hofiz yoshlangan ko’zini dastro’mol bilan artdi...”

Hofiz bu yerda o’z xatosini anglab yetadi hamda xayolida Amir Temurning naqadar zukko, teran mushohadali ekanligiga qoyil qoladi. Amir Temur Hofizni Samarqand-u Buxoroga taklif qiladi, u yerning go’zalliklarini ta’riflab, tinchgina ijod bilan mashg’ul bo’lishini, Temurning o’zi tartib bergan bog’lar, gulzorlardan ilhom olishini aytadi. Hofiz keksaligini aytib taklifini qabul qilolmagach, Temur ranjisa ham tabassumi bilan ranjiganini sezdirmaydi. Asarda Amir Temur hamda Hofiz Sheroziy suhbatlari qanchalik nazokat bilan, mohirona tasvirlanganiga guvoh bo’lamiz. Amir Temurdagi oliyjanoblikning yuqori cho’qqisi, Hofizga ko’rsatgan lutf-u karomati yaqqol ko’zga tashlanadi. Hofiz o’zi kitobat qilgan Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”sini Temurga tuhfa qilganida juda ham mamnun bo’ladi. Amir Temur qaysi mamlakatni qo’lga kiritmasin, birinchi navbatda u yerda imoratlar barpo etgan, bog’lar, gulzorlar bilan shaharni bezagan. Samarqandni poytaxt qilar ekan, u yerni go’zal mamlakatga aylantiradi. Bundan tashqari qo’l ostidagi mamlakatlar aholisi ahvolidan xabardor bo’lib, din peshvolari va avliyolarning mozori ustida maqbaralar bunyod ettirgan. Uning bu harakatlarini hikoyadagi ko’pgina o’rinlardan ham anglashimiz mumkin.

#### REFERENCES

1. Amir Temur. «Temur tuzuklari» (forschadan Alixonto’ra Sog’uniy va Habibullo Karomatov tarjimai). - Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 144 b
2. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1995. – 184 b.
3. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin//Tafakkur. – Toshkent, 1996. - 1-son. - B.68-72.
4. Urfon Otajon. Humoyun qabul. // Dilkusho bog’lar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - B.44-57.

## THE IMPORTANCE OF FLEXIBILITY IN PHYSICAL EDUCATION

Nurmedov Nurmuhammed Axmet uli

Baymuratova Ramila Allamurat qizi

Theory and methodology of physical training and sports training

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7929600>

**Abstract.** Flexibility is a crucial component of physical education that is often overlooked. This article aims to emphasize the significance of incorporating flexibility training into physical education curricula. Flexibility plays a vital role in improving overall health, preventing injuries, enhancing sports performance, and promoting an active lifestyle. Through a comprehensive review of relevant scientific literature, this article highlights the numerous benefits of flexibility training and provides recommendations for implementing effective flexibility programs in physical education settings.

**Key words:** safety, flexibility, PI, health, actions, dynamic strength, effect, vital role.

## ВАЖНОСТЬ ГИБКОСТИ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

**Аннотация.** Гибкость является важнейшим компонентом физического воспитания, которым часто пренебрегают. Эта статья призвана подчеркнуть важность включения упражнений на гибкость в учебные программы по физическому воспитанию. Гибкость играет жизненно важную роль в улучшении общего состояния здоровья, предотвращении травм, повышении спортивных результатов и пропаганде активного образа жизни. Благодаря всестороннему обзору соответствующей научной литературы в этой статье освещаются многочисленные преимущества тренировок гибкости и даются рекомендации по внедрению эффективных программ гибкости в условиях физического воспитания.

**Ключевые слова:** безопасность, гибкость, ЛП, здоровье, действия, динамическая сила, эффект, жизненная роль.

## INTRODUCTION

Flexibility refers to the ability of a joint or a group of joints to move through a full range of motion. It encompasses both static and dynamic flexibility and is influenced by various factors such as joint structure, muscle elasticity, and connective tissue adaptability.

Physical education programs have traditionally focused on cardiovascular endurance, muscular strength, and skill development, often neglecting flexibility. However, the importance of flexibility in promoting overall physical fitness and well-being cannot be overstated.

## MATERIALS AND DISCUSSION

#### Health Benefits of Flexibility:

**Improved Joint Health:** Regular flexibility exercises promote joint health by increasing synovial fluid circulation, enhancing nutrient supply, and reducing joint stiffness. This can help prevent or manage conditions such as arthritis and osteoporosis.

**Injury Prevention:** Adequate flexibility reduces the risk of musculoskeletal injuries by improving joint stability and muscle elasticity. It allows individuals to move efficiently and maintain proper alignment during physical activities, reducing the strain on muscles and connective tissues.

**Enhanced Posture and Balance:** Flexibility exercises contribute to good posture and balance by maintaining the optimal length-tension relationships of muscles. Improved postural alignment reduces the risk of chronic pain and injuries related to poor posture.

#### Performance Benefits of Flexibility:

**Increased Range of Motion:** Flexibility training increases the range of motion around joints, enabling individuals to perform movements with greater ease and efficiency. This is particularly beneficial for athletes, as it can improve performance in sports requiring high levels of flexibility, such as gymnastics, dance, and martial arts.

**Enhanced Athletic Performance:** Improved flexibility positively impacts athletic performance by facilitating movements that require agility, coordination, and power. Flexibility training can optimize performance in activities such as sprinting, jumping, and changing direction, thus providing athletes with a competitive edge.

**Injury Rehabilitation and Recovery:** Flexibility exercises play a crucial role in injury rehabilitation, aiding in the restoration of normal joint range of motion and muscle function. They also promote faster recovery by increasing blood flow to the injured area, facilitating nutrient delivery and waste removal.

#### Promoting an Active Lifestyle:

**Long-Term Physical Fitness:** Incorporating flexibility training into physical education programs instills lifelong habits of physical activity. Flexibility exercises can be enjoyable and accessible to individuals of all ages and fitness levels, making them an ideal component of physical education aimed at promoting long-term health and well-being.

**Psychological Well-being:** Flexibility training, often included in mind-body practices like yoga and Pilates, can reduce stress, improve mood, and enhance overall mental well-being. It provides an opportunity for individuals to relax, focus on their bodies, and develop a mind-body connection.

### Implementing Effective Flexibility Programs in Physical Education:

**Integration into Curriculum:** Flexibility exercises should be integrated into the physical education curriculum as a regular component. Educators should allocate dedicated time for flexibility training and incorporate a variety of exercises targeting major muscle groups and joints.

**Proper Technique and Progression:** Educators must provide instruction on proper technique and emphasize the importance of gradual progression to prevent injury. Exercises should be tailored to meet the specific needs and abilities of students, ensuring safety and effectiveness.

**Variety and Enjoyment:** Incorporating diverse flexibility exercises

#### Types of Flexibility Training:

**Static Stretching:** This involves holding a stretch position for a prolonged period, typically between 15 and 60 seconds. Static stretching is effective for increasing flexibility and should be performed after a warm-up or physical activity.

**Dynamic Stretching:** Dynamic stretching involves moving parts of the body through a full range of motion, gradually increasing the speed and intensity of the movements. Dynamic stretching is commonly used as part of a warm-up routine before physical activity, as it helps improve joint mobility and prepares the body for movement.

**Proprioceptive Neuromuscular Facilitation (PNF):** PNF techniques involve a combination of stretching and muscle contraction to improve flexibility. These techniques typically involve a partner or equipment and are highly effective in increasing range of motion. **Yoga and Pilates:** Yoga and Pilates are mind-body practices that focus on flexibility, strength, and body awareness. These disciplines often incorporate static and dynamic stretching, along with postural alignment and core strengthening exercises, providing holistic benefits for physical and mental well-being.

#### Safety Considerations:

**Proper Warm-up:** Before engaging in flexibility exercises, it is essential to warm up the body through light aerobic activities such as jogging or cycling. A warm-up increases blood flow to the muscles, elevates body temperature, and prepares the body for stretching.

**Gradual Progression:** Flexibility training should progress gradually, allowing the body to adapt and avoid overstretching or straining muscles and connective tissues. Starting with gentle stretches and gradually increasing the intensity and duration of the exercises will promote safety and prevent injuries.

**Individualization:** Flexibility programs should consider the individual needs and abilities of students. Students with pre-existing conditions, injuries, or limited flexibility may require modified exercises or alternative techniques to ensure their safety and progress. Avoiding

Bouncing or Jerking Movements: Ballistic movements, such as bouncing or jerking during stretching, should be avoided as they can lead to muscle strains and tears. All stretches should be performed in a controlled and smooth manner.

#### Assessing Flexibility:

**Sit-and-Reach Test:** The sit-and-reach test is a common assessment tool used to measure hamstring and lower back flexibility. It involves sitting on the floor with legs extended and reaching forward as far as possible, with the distance reached indicating flexibility levels.

**Joint Range of Motion:** Assessing joint range of motion through specific measurements and functional tests can provide valuable information about flexibility in various body regions. Educators can utilize goniometers or other measurement tools to evaluate joint flexibility accurately.

**Integrating Flexibility with Other Components of Physical Education:** Flexibility should be integrated with other components of physical education to create a comprehensive and well-rounded program. It can be combined with cardiovascular endurance, muscular strength and endurance, and skill development exercises to promote overall fitness and athletic performance.

### **CONCLUSION**

Flexibility training plays a vital role in physical education by promoting health, preventing injuries, enhancing athletic performance, and fostering an active lifestyle. Incorporating effective flexibility programs in physical education curricula can provide students with lifelong benefits and a foundation for optimal physical well-being.

Educators should prioritize the inclusion of flexibility exercises, ensuring proper technique, progression, and individualization to create safe and engaging learning environments. By recognizing the importance of flexibility, physical education can empower students to embrace physical activity, achieve their potential, and maintain lifelong fitness.

### **REFERENCES**

1. American College of Sports Medicine (ACSM): The ACSM is a leading authority in the field of sports medicine and exercise science. Their website provides resources and guidelines on various aspects of sport and exercise, including flexibility training. Visit their website at: <https://www.acsm.org/>
2. National Strength and Conditioning Association (NSCA): The NSCA is an organization dedicated to advancing the strength and conditioning profession. They provide research, education, and certification opportunities for fitness professionals. Their website offers



- resources on topics such as flexibility training and athletic performance. Visit their website at: <https://www.nsga.com/>
3. PubMed: PubMed is a database of scientific literature that includes a vast collection of articles related to sport, health, and flexibility. It is an excellent resource for finding research papers, reviews, and studies on specific topics. Access PubMed at: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/>
  4. The Journal of Strength and Conditioning Research (JSCR): JSCR is a peer-reviewed scientific journal that publishes research related to strength and conditioning, exercise physiology, and sports performance. It covers a wide range of topics, including flexibility training. You can find articles from JSCR on their official website: <https://journals.lww.com/nsga-jscr/pages/default.aspx>
  5. International Journal of Sports Physical Therapy (IJSPT): The IJSPT is a scholarly journal focusing on sports physical therapy and related topics. It publishes research articles, case reports, and reviews that are relevant to sports medicine, injury prevention, and rehabilitation. Access their website here: <https://www.ijspt.org/>
  6. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.
  7. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
  8. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

UDK:619+636.3+591.14:616.(575.15)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDAGI USTUVOR ENDEMIK  
KASALLIKLAR VA ULARNI JADALLASHTIRUVCHI OMILLAR**

**Bakirov B.**

professor, SamDVMCHBU

**Boboyev O.R.**

falsafa doktori, PhD, SamDVMCHBU

**Abdullayev B.**

mustaqil izlanuvchi, Termiz ATIRI

**Nurullayev N.**

magistrant, SamDVMCHBU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7926273>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sharoitidagi ustuvor endemik kasalliklar va ularni jadallashtiruvchi omillar to'g'risida malumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yod yetishmovchiligi. Mis yetishmovchiligi. Rux yetishmovchiligi. Marganets yetishmovchiligi. Tireostatik moddalar. Texnogen omillar. Ftorning ortiqchaligi. Qo'rg'oshinning ortiqchaligi. Vodorod sulfid va boshqa zaharli gazlarning ortiqchaligi. Endemik bo'qoq. Diffuz toksik bo'qoq. Qalqonsimon bez saratoni. Gipokuproz. Gipokobaltoz. Osteodistrofiya. Raxit. Flyuoroz. Gipovitaminozlar. Aplastik kamqonlik. Gemolitik kamqonlik. Gepatodistrofiya. Alimentar distrofiya. Bepushtlik. Yod saqlovchi preparatlar. Radiaktiv yod. Yodlangan osh tuzi. To'qima terapiyasi. Nur terapiya. Kimyoviy terapiya. Guruhli profilaktik davolash. Dispanserlash. To'yimli oziqlantirish.

**PRIORITY ENDEMIC DISEASES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND  
FACTORS THAT ACCELERATE THEM**

**Abstract.** This article provides information on priority endemic diseases in the conditions of the Republic of Uzbekistan and their accelerating factors.

**Key words:** Iodine deficiency. Copper deficiency. Zinc deficiency. Manganese deficiency. Tyreostatic agents. Man-made factors. Fluorine excess. Lead redundancy. Excess of hydrogen sulfide and other toxic gases. Endemic bog. Diffuse toxic bog. Thyroid cancer. Hypocuprosis. Hypocobaltosis. Osteodystrophy. Rachid. Fluorosis. Hypovitaminoses. Aplastic anemia. Hemolytic anemia. Hepatodystrophy. Alimentary dystrophy. Infertility. Iodine-containing preparations. Radioactive iodine. Iodized table salt. Tissue therapy. Light therapy. Chemical therapy. Group preventive treatment. Dispensary. Nutritious feeding.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ ЭНДЕМИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ  
УЗБЕКИСТАН И ФАКТОРЫ, ИХ УСКОРЯЮЩИЕ**

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о приоритетных эндемических заболеваниях и их ускоряющих факторах в условиях Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Дефицит йода. Дефицит меди. Дефицит цинка. Дефицит марганца. Тиреостатические вещества. Техногенные факторы. Избыток фтора. Избыток свинца. Избыток сероводорода и других ядовитых газов. Эндемический зоб. Диффузный токсический зоб. Рак щитовидной железы. Гипокупроз. Гипокобальтоз. Osteodistrofiya. Raxit. Флюороз. Гиповитаминозы. Апластическая анемия. Гемолитическая анемия. Гепатодистрофия. Алиментарная дистрофия. Бесплодие. Йодсберегающие препараты.

*Радиоактивный йод. Йодированная поваренная соль. Тканевая терапия. Светотерапия. Химическая терапия. Групповая профилактическая обработка. Дозирование. Питательное питание.*

**Mavzuning dolzabligi.** Respublika chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yilga mo'lgallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni hamda 2017 yil 16 martdagi «Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida» gi PQ – 4841 sonli, 2020 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvallashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ -4576-sonli, 2022 yil 8 fevraldagi «Chorvachilikni yana rivojlantirish va ozuqa bazsini mstahkamlash chora tadbirlari to'g'risida» gi PQ -121-sonli qarorlarida chorva mollarining bosh soni va mahsuldorlik ko'satkichlarini respublikamiz aholisining muntazam oshib borayotgan talablariga mos holda oshirib borish borasida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlashda chorva mollari, shu jumladan, sigirlar orasida tasqi muhitdagi ekstremal endemik holat va texnogen ifloslanishlar bilan bevosita bog'liq holda paydo bo'ladigan modda almashinuvining buzilishi kasalliklarining yildan-yilga oshib borishi katta to'siqlardan biri hisoblanadi (Кузнецов, С.Г.,1989).

Chorva mollarining endemik kasalliklari hududning tuprog'i, suvi va o'simliklari tarkibida, eng birinchi navbatda, yod, kobalt, mis, rux, marganets, temir va boshqa mikro'elementlar, kaltsiy, fosfor, magniy va boshqa makroelementlar miqdorlarining kamligi yoki ortiqchaligi oqibatida paydo bo'ladigan endemik bo'qoq, kamqonlik, alimentar va enzootik osteodisrofiya, ataktsiya va boshqa kasalliklar, tashqi muhitning texnogen ifloslanishlari oqibatida paydo bo'ladigan kasalliklariga hududning tuprog'i, suvi va o'simliklari tarkibida ftor, vodorod ftorid, oltingugurt angidridi, azot oksidlari hamda uglerod oksidi miqdorlarining ortiqchaligi, shuningdek, suv tarkibidagi sulfatlar, fenollar va mis miqdorining me'yorida yuqoriligi hamda oziga xos radiaktiv nurlanishlar ta'sirida paydo bo'ladigan flyuoroz, o'ziga xos radiaktiv buzilishlar ko'rinishidagi hayvon hayoti uchun o'ta xavfli hisoblanadigan kasalliklar kiradi (Г.Г, Щербачков, А.В.Коробов, Б.М. Анохин и др,2003).

Ta'kidlab o'tilgan bunday endemik va texnogen kasalliklarning o'ziga xos xavfli tomoni shundan iboratki, bunday kasalliklar hayvon oganizmida birlamchi patologik jarayondan tashqari, jigar, buyrak, qon ishlab chiqaruvchi a'zolar, bosh miya va boshqa hayotiy zarur a'zolar funksional holatlarining buzilishlari ko'rinishidagi gepatoz, jigar tsirrozi, aplastik kamqonlik, gidronefroz, nevroz, har xil tabiatli yurak - qon tomir yetishmovchiliklari, o'tkir jigar yetishmovchiligi, o'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir buyrak yetishmovchiligi va hayvon hayoti uchun o'ta xavfli hisoblanadigan shunga o'xshash boshqa har xil og'ir ikkilamchi patolgialarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunday kasalliklarga eng birinchi navbatda mahsuldor qoramollar o'ta beriluvchan bo'ladi (Кузнецов, С.Г., Левченко Н.И.,1992, West, H. J., 1990).

Buning ustiga, bunday endemik hamda texnogen kasalliklar o'ziga xos endemik hududlardan tashqari, zavod va fabrikalarga boy texnogen hududlarda ko'p uchrashi bilan birgalikda ularning birgalikda rivojlanishi tiroidal patologiyaning yanada ogir o'tishiga sabab

bo`ladi. Natijada qalqonsimn bez faoliyatining chuqur buzilishari evaziga chorva mollarining sut va go`sht mahsuldorligining intensiv kamayishi bilan birgalikda, ularning pushtdorlik ko`rsatkichlari ham yomonlashadi va natijada fermerlar hamda xususiy tadbirkor chorvadorlarning katta iqtisodiy zarar ko`rishiga sabab bo`ladi (Шербаков Г.Г., Копобов А.Б., 2002).

Ta`kidlash lozimki, XSSJ ning ma`lumotlariga ko`ra 2001 yildan e`tiboran, O`zbekiston respublikasining barcha hududlari yod yetishmaydigan hududlar qatoriga kiritilgan. Buning ustiga, Respublikamizning Qahqadaryo, Jizzax va sirdaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog`iston respublikasining orolbo`yi hududlari kuchli sho`rlanishga sosangan ekologik xavfli hududlarga, Surxondaryo viloyati hududlari bir tomondan tolig`icha sho`rlangan hududlar hisoblansa, ikkinchidan, viloyatning Uzun va Saroisiyo tumanlari hududlari esa ham sho`rlangan ham texnogen xavfli hududlar hisoblanadi (Bakirov B., Boboyev O.R., 2022).

Farg`ona vodiysi qoramolchilik xo`jaliklari sharoitida chetdan keltirilayotgan simmental zotli sigirlarda yod va rux yetishmovchiligining mavjudligi va bunday yetishmovchiliklar oqibatida sigirarning o`rtacha 40-50% ning bepustlik kasaliga duchor bo`layotganligi aniqlangan (Soliev B.Ch., Eshburiev B.M., 2022).

Shu boisdan, O`zbekiston Respublikasining o`ziga xos turli-tuman endemik hududlari sharoitlaridagi mahsuldor qoramollarda yildan-yilga ko`payib kelayotgan texnogen-ekologik tabiatli endemik kasalliklar, shu jumladan, endemik bo`qoq kasalligining aniq hududlar kesimida tarqalishi va bu paytda hayvon organizmida kechayotgan asosiy metabolik jarayonlarni aniqlash va mos antitiroid va antitksik vositalarni tanlash va yaratish asosida mazkur kasallikning ertachi tashxis, samarali davolash hamda guruhli oldini olish chora-tadbirlari majmuini ishlab chiqish bugungi kunda veterinariya im fani va amaliyatidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotlar ob`ekti va usullari.** Mahsuldor qoramollarda endemik bo`qoqning tarqalishi, sabablari, tashxis usullari, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar 2016-2023 yillarda Uzbekiston Respublikasining Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sharoitlaridagi qoramolchilik fermer xo`jaliklarida olib borildi. Zotli sigirlar umum qabul qilingan klinik hamda laborator ekshirish usullaridan foydalanilgan holda endemic bo`qoqning klinik belgileri aniqlandi, davolash-profilaktik usul va vosilalari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalari va ularning tahlil.** Tadqiqot natijalari shuni korsatdiki, endemik bo`qoq kasaligi Samarqand viloyati sharoitidagi mahsuldor sigirlar orasida 50,0-57,3%, Qashqadaryo viloyati sharoitlarida 35,2-50,0%, Buxoro viloyati sharoitlaridagi sigirlar orasida 58,0-62,5% gacha, 6-oylikkacha yoshdagi buzoqlar orasida, mos holda, 45,4-66,6%, 46,0-54,5 va 51,0-77,6% gacha arqalgan bo`lib, asosan surunkali endemik tarza kechadi.

O`rganilgan hududlarda bu kasallik sigirarda gipoterioz shaklida nomayon bo`ladi va hayvon gavdasining o`ziga xos ovalsimon shaklga kirishi, mushak tolalarining o`ziga xos noziklashishi va o`sishtan qolishi, terida qattiq burmalarning paydo bo`lishi, qalqonsimon bezning aksariat holatlarda novizual (morfometrik) kattalashishi, jun qoplaminig xiraashishi, ag`allashishi va allopetsiyaari, «yolg`on kokil» va «yolg`n yol» larning paydo bo`lishi belgilari bilan namoyon boladi. Bu paytda ondagi gemogloblin, eritrotsitlar, glyukza, umumiy kaltsiy, anorganik fosfor miqdorlari va Tiroksin gormoni faolligining pasayishi, shuningdek, EChT, T<sup>3</sup> va TTG gormonlari faolligining oshishi kuzatiladi.

Jigardagi sintezlanish va detoksikatsion jarayonlarning buzilishi oqibatida qondagi umumiy oqsil va fosfolipidlar miqdorining pasayishi, AsAT va ALAT femenlari faolliklarining statistik ishonchli tarzda oshishi kuzatilishi aniqlandi.

Olib borilgan dastlabki tadqiqot natijalarining e`tiborga molik jihatlardan biri shundan iboratki, muhitning sho`rlanish hamda texnogen iflosanish darajasining oshib borish bilan tiroid patologiyaning ham chuqurlik darajasi oshib bordi.

**Xulosa.** Mahsudor qoramllarda endemik bo`qoq kasalligining sabablarini atroflicha tadqiq etish hamda kasallik tabiatiga mos davolash-profilaktik tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish uchun hayvonning yod elementiga bo`lgan talabining uning mahsuldorlik imkoniyatlariga mos holda qondiilish darajasining holatini aniqlash bilan birgalikda albatta kasallikning jadallashtiruvchi omillari hisoblanuvchi hududning o`ziga xos texnogen hamda ekologik xususiyatlarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq.

#### REFERENCES

1. Бакиров Б., Рузикулов Н.Б., Бобоев О.Р., Улугмуродов Ю. Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. // Международной научно-практической конференции посвященной к 90-летию академика НАН КР Ботбаева Иляса Махмудовича «Актуальные проблемы естественных и сельскохозяйственных наук». 2021. -С. 215-220.
2. Bakirov B.B., Boboyev O.R., Nurullayev N.I. O`zbekiston sharoitidagi yirik shoxli hayvonlarda yod tanqisligi. // Qishloq xo`jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I-Qism. Samarqand, 2022. -B. 22-24.
3. Bakirov B., Boboyev O., Ergashev M. Surxondaryo viloyati sharoitidagi mayda shoxli hayvonlarning tiroidal statusi. // Qishloq xo`jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I-Qism. Samarqand, 2022. -B. 9-10.
4. Bakirov B., Ruzikulov N.B., Boboev O.R., Ergashev M. Endocrine properties of metabolic disorders in productive cattle in Uzbekistan. // LXIV Международной научно-практической конференции «World science: problems and innovations», состоявшейся 30 апреля 2022 г. в г. Пенза.-С. 250-252.
5. Кузнецов С.Г. Йод в питании животных/С.Г.Кузнецов//Материалы Всероссийской научно-производственной конференции.—Чебоксары, 1989.—с.64.
6. Кузнецов, С.Г., Левченко Н.И. Биологическая доступность минеральных веществ для животных — М.: Агропромиздат, 1992. — С.40-50.
7. Oybek Rayimovich Boboev, Bakhtiyar Bakirov, Nuriddin Bolliievich Ruzikulov, Salokhiddin Saitazimovich. Peculiarities of metabolic disorders in endemic cows. // ACADEMICIA: Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 An International Multidisciplinary Research Journal, Issue 3, March 2021. -P. 2196-2200. DOI:10.5958/2249-7137.2021.00988.5.
8. Щербаков Г.Г. Зобная болезнь. В кн.: Внутренние болезни животных/под ред. Г.Г.Щербакова, А.В.Коробова.-М.:«Лань», 2002.-С.603-605



9. Щербаков, Г.Г. Внутренние болезни животных / Г.Г, Щербаков, А.В.Коробов, Б.М. Анохин и др.; под общ. ред. Г.Г.Щербаков, А.В.Коробова. СПб.: Лань, 2003. - 544с.
10. West, H. J. Effect on liver function of acetonemia and the fat cow syndrome in cattle // *Res in Veter. Sc.* - 1990. - Т. 48, №2. - P. 221-227.
11. Norbek o'g'li, X. B., & Baxtiyar, B. (2022, April). OSHQOZON OLDI BO'LIMLARIDA HAZMLANISH JARAYONLARI NAZORATI. In *E Conference Zone* (pp. 147-148).
12. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
13. Бакиров, Б., Бобоев, О. Р., & Хайитов, Б. Н. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДАГИ МАХСУЛДОР ҚОРАМОЛЛАРДА МЕТАБОЛИЗМ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ АЛИМЕНТАР-МИКРОБИАЛ ТАБИАТИ ВА ГЕПАТОГЕН ХАМДА ЭНДОКРЕН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
14. Бакиров, Б., Хайитов, Б. Н., & Улуғмуродов, Ю. (2021). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АЦИДОЗА РУБЦА У ВЫСОКОПРОДУКТИВНЫХ КОРОВ. *Вестник Омского государственного университета*, (1-2), 210-214.

UDK:54:615.9

**SURXONDARYO VA NAVOIY VILOYATLARI SHAROITLARIDAGI FITOTOKSIK  
HAMDA TEXNOGEN - EKOLOGIK OMILLARNING YIRIK VA MAYDA SHOHLI  
HAYVONLAR ORGANIZMIGA TA`SIRI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI**

**Bakirov B.**

professor, SamDVMCHBU

**Xayitov B.**

falsafa doktori PhD, SamDVMCHBU

**Abdullayev B.**

mustaqil izlanuvchi, Termiz ATIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7926542>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Surxondaryo va Navoiy viloyatlari sharoitlaridagi fitotoksik hamda texnogen - ekologik omillarning yirik va mayda shoxli hayvonlar organizmiga ta`siri va unga qarshi kurash choralari haqida so`z boradi.

*Kalit sozlar:* Endemik omillar. Fitotoksik omillar. Uchma o`tlar. Texnogen-ekologik omillar. Zavod chiqindilari. Tuproq, suv va ozuqalar arkibidagi zaharli moddalar. Flyuoroz. Gastroenterit. Qaltiroqlar. Gipoksiya. Metgemoglobinemiya. Antitoksik terapiya.

**EFFECTS OF PHYTOTOXIC AND MAN-MADE ENVIRONMENTAL  
FACTORS ON THE ORGANISM OF LARGE AND SMALL HORNED ANIMALS IN  
THE CONDITIONS OF SURKHANDARYA AND NAVOI REGIONS AND MEASURES  
TO COMBAT IT**

*Abstract.* This article talks about the effects of phytotoxic and man-made ecological factors on the organism of large and small horned animals in the conditions of Surkhandarya and Navoi regions and measures to combat it.

*Key words:* Endemic factors. Phytotoxic factors. Herbs. Man-made environmental factors. Factory waste. Toxic substances in soil, water and nutrients. Fluorosis. Gastroenteritis. Shivers. Hypoxia. Methemoglobinemia. Antitoxic therapy.

**ВЛИЯНИЕ ФИТОТОКСИЧЕСКИХ И ТЕХНОГЕННЫХ ФАКТОРОВ  
ВНЕШНЕЙ СРЕДЫ НА ОРГАНИЗМ КРУПНЫХ И МЕЛКИХ РОГАТЫХ  
ЖИВОТНЫХ В УСЛОВИЯХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ И НАВОЙСКОЙ  
ОБЛАСТЕЙ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМ**

*Аннотация.* В статье рассмотрено влияние фитотоксических и техногенных факторов внешней среды на организм крупных и мелких рогатых животных в условиях Сурхандарьинской и Навоийской областей и меры борьбы с ним.

*Ключевые слова:* Эндемические факторы. Фитотоксические факторы. Травы. Техногенные факторы окружающей среды. Промышленные отходы. Токсичные вещества в почве, воде и питательных веществах. Флюороз. Гастроэнтерит. Дрожь. Гипоксия. Метгемоглобинемия. Антитоксическая терапия.

**Mavzuning dolzabligi.** Respublikada chorvachilikni jadal rivojlantirishga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O`zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yilrga mo`lgallangan yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida»gi PF-60-sonli farmoni

hamda 2020 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog`ini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ -4576-sonli va 2022 yil 8 fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazsini mstahkamlash chora tadbirlari to`g`risida» gi PQ -121-sonli qarorlarida chorva mollarining bosh soni va mahsuldorlik ko`rsatkichlarini respublikamiz aholisining muntazam oshib borayotgan talablariga mos holda oshirib borishga qaratilgan bo`lib, bu borada chorva mollari, shu jumladan, sigirlar va qorakol sovliqlarning, yod tanqisligi, zaharli osimliklar va texnogen-ekologik omilardan zaharlanish hollarining yildan-yilga oshib borayotganligi asosiy tosiqlardan biri bo`lib qomoqda.

Xorijiy hamda vatanimiz olimlari tomonidan qator yillar davomida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni korsatdiki, zotli sigirlar va qorako`l sovliqarning endemic kasalliklari va zaharlanish kasalliklari orasida ularning uchma o`tlar hamda texnogen-ekologik omillar bilan zaharlanishlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunday zaharanishlar respublikamizning texnogen hudud hisoblangan Surxondaryo viloyati hamda qo`ychilik yaylovlari hamda zavod va fabrikalar zich joylashgan hududlari (Navoiy, Tallimarjon, Muborak va h.zo) yoki ularning ta`siri ostidagi hududlari (surxondaryo viloyatining Uzun vz Sariosiyo umarlari) sharoitlarida parvarishlanayotgan chrvva mollari, shu jumladan sigirlar va qorakol qo`ylar, orasida hu biisan, Navoiy viloyati sharoitlaridagi qorako`l qo`ylari organizmiga fititoksik va texnogen-eklogik omillarning a`sirinio`rganishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb tadqiqotlar hisoblanadi.

**Tadqiqotlar ob`ekti va uslublari.** Tajribalar 2021-2023 yillar davomida U`zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati sharoitlaridagi qo`ychilik xo`jalikari va Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlarida olib borildi. Sigir va qorakol qo`ylar organizmiga yod tanqisligi, uchma o`tlar va texnogen omillarning salbiy ta`sirlari o`rganildi va ularga qarshi davoash-profilaktik tadbirlar bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning natijalari va ularning tahlili.** Tadqiqot natijalari shuni korsadiki, Navoiy viloyati yaylovlarida uchma o`tlar juda ko`p uchraydi va ularning bir-nechta turlari (uchma o`t, temiratki o`t, tugmabosh, o`rmalab o`suvchi ayiqtovon va boshqalar) mavjud bo`lib, ularning yashil paytidaligida iste`mol qilishi oqibatida paydo bo`ladigan kasallik bo`lib, zaharlanish asosan yaylovda kuzatiladi.

Ayiqtovonlilar oilasiga mansub o`simliklar tarkibida o`tkir hid va achchiq ta`mga ega bo`lgan raninkulin alkaloidi mavjud bo`lib u qon oqsillari bilan birikib juda zaharlilik xususiyatiga ega bo`lgan protoanemoning aylanadi. Zaharlanish qo`ylarda O`zbekistonda «uchma», Qirg`izistonda «chirrik» nomlari bilan ma`lum bo`lib, zaharlanish oqibatida hayvonlarning deyarli hammasi o`ladi.

Raninkulin oshqozon oldi bo`limlari, me`da va ichak shilliq pardasini kuchli ta`sirlantirib, kataral-gemorragik yallig`lanishga sabab bo`ladi. Qonda proteanemonin shaklida markaziy asab tizimini shikastlaydi, qon tomirlarga toraytiruvchi ta`sir ko`rsatadi gemodinamikani izdan chiqaradi. Yurak ishi qiyinlashadi va buyraklar yallig`lanishga uchraydi. Protoanemonin sut bilan ham ajraladi va shu sababli sut emadigan yosh hayvonlarning ham zaharlanishi kuzatilishi mumkin.

Zaharlanish belgilari kutilmaganda yaylovda paydo bo`ladi. Hayvonning harakat muvozanatining buzilishi (gandiraklash, uzoq vaqt bir joyda turib qolish, aylanma yoki faqat to`g`riga harakat qilish), so`lak oqishi, ko`z olmasining aylanma harakati kuzatiladi. Keyinchalik tana muskullarining qaltirashi, ta`sirotlarga befarqlik, inqillash, sanchiq belgilari, kuchli qon

aralash ich ketishi, tez-tez og'riqli siydik ajratish belgilari qayd etilib, siydik tarkibida oqsil va eritrositlar paydo bo'ladi. Kasallik 15 daqiqadan 1 soatgacha, davom etib, klonik va tetanik qaltiroqlar natijasida ko'pincha o'lim bilan tugaydi.

Patologoanatomik yorib ko'rilganda hazm yo'li bo'ylab shilliq pardalarning kataral-gemorragik yallig'lanishi, ichak massasining qon aralash, jigarning sariq rangda va tez eziluvchan bo'lishi qayd etiladi. Buyraklar kattalashgan, qonga to'lishgan, kapsulasi tez ajraluvchan, uning kapsula osti va parenxima qismlarida ko'p sonli qon quyilish o'choqlari paydo bo'lgan bo'ladi. Bosh miya qonga to'lishgan, shishgan, yumshoq parda ostiga qon quyilgan bo'ladi.

Texnogen omillardan Navoiy viloyati hududlarida asosan Navoiyazot korxonasi atrofida ftor moddasining juda kop saqlanishi oqibatida havonarda flyuorz, kamqonlik, nevrozlar va bepustlik belgiarining qayd etishi aniqlandi. Chunki, ftorli zaharlanish bilan yuqori energiyali fosforli birikmalar hosil bo'lishining ikkala yo'li ham buzilishi mumkin; anaerob va aerob. Suyak to'qimasidagi patologik o'zgarishlarning sabablaridan biri bu ishqoriy fosfatiza faolligini ftor bilan ingibitsiya qilishdir, bu skelet uchun ishlatiladigan fosfor-kalsiy tuzlarini hosil qilish uchun qonda organik fosfatlarni parchalaydi (1- va 2-jadvallar).

**1-jadval. Texnogen omillar bilan zaharlangan qo'ylarni klinik tekshirish natijalari**

Klinik kursoratkichlar	Navoiy viloyati tumanlari								
	Karmana			Qiziltepa			Konimex		
	TH	BKH	%	TH	BKH	%	TH	BKH	%
Oriqlik	50	30	60	50	20	40	50	15	30
Ishtaha pasayishi	50	25	50	50	10	20	50	10	20
Kesuvchi tishlarning qimirlashi	40	20	50	40	10	25	40	10	25
Oxirgi dum umurtqalarining so'rilishi	40	20	50	40	12	30	40	8	20
Jun rangining xiralashishi	40	20	50	40	10	25	40	8	20
Jun to'kilishi	40	10	25	40	5	12,5	40	3	7,5
Bepustlik	40	6	15	40	3	7,5	40	2	5,0

**2-jadval. Texnogen omillar bilan zaharlangan qo'ylar qonini mofobiokimyoviy tekshirish natijalari**

Qon ko'rsatkichlari	Statistik ko'rsatkichlar		
	M	±m	%
Eritrotsitlar ( $10^{12}/l$ )	4.8	0.11	75
Leykotsitlar ( $10^9/l$ )	14.38	3.70	147
Gemoglobin (g/l)	148.1	6.0	105
Met gemoglobin(%)	21.7	5.0	207

As AT faolligi (mmol /soat /litr)	0.85	0.03	150
AlAT faolligi (mmol/soat/litr)	1.25	0.19	155
Umumiy oqsil(g%)	7.89	0.21	101
Umumiy kaltsiy (mg%)	7.50	0.25	65
Anorganik fosfor (mg%)	3.50	0.16	70
Hayvonlar bosh soni	5	5	5

Tajribalar bavamida qo`ylarning ftorli zaharlanishlariga qarshi davolash-prfilaktik vosialar aniqlandi, ularning zaharlanish paytlarida qo`ylar organizmiga ko`satadigan patogenetik a`sirlari o`rganildi.

Xuddi shunday texnogen omillarning Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlari sharoitlaridagi zotli sigirlar organizmiga salbiy ta`sir ko`rsatishi tajribalarda asoslandi.

**Xulosa.** 1. Navoiy viloyati aylovlari sharoitlaridagi qorakol qo`ylarda asosan uchma o`tlarlar ahatlanishlarga qarshi kurash choralarini majmuyini ishlab chiqish zarur.

2. Navoiy viloyati hududlarida texnogen zaharlanishlardan hayvonlarning ftor saqllovchi moddalardan zaharlanishlariga qarshi kurash chora-adbirari majmuyini ishlab chiqis maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Surxondaryo viloyati hududlarida texnogen omillardan hayvonlarning ftor saqllovchi moddalardan zaharlanishlariga qarshi kurash chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqis maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### REFERENCES

1. Bakirov B.B, Norboev Q.N., Eshbo`riev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, 2021.
2. Raxmonov A.J. Texnogen omillarning masofaga qarab sigirlar osteodistrofiyasi etiopatogenezi holatiga ta`siri. Hayvonlar va parrandalarning o`ta xavfli kasalliklarini tarqalishi va oldini olishning monitoringi. Xalqaro konferensiya. Samarqand, 2006 y., 270-273 betlar.
3. Raxmonov A.J. Surxondaryo viloyati trans chegaraviy hududlardagi ekologik vaziyatni qishloq xo`jalik hayvonlari qonining biokimyoviy ko`rsatkichlariga ta`siri. Chorvachilik hamda veterinariya fani yutuqlari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand, 2010 y., 82-85 betlar.
4. Raxmonov A.J. Texnogen omillar ta`siridagi hududiy kasalliklarning simptomatikasi. Veterinariya hamda chorvachilik ilmi va amaliyotining dolzarb vazifalari mavzusidagi ilmiy anjuman. Samarqand, 6 dekabr, 2013 yil, 58-59 betlar.
5. Xaitov V.R., Salimov Yu. va b. Pestitsidlar va boshqa kimyoviy toksikantlar ta`siridan hayvonlar ko`payish organlarida sodir bo`layotgan patologiyalar va ularni oldini olish choralarini bo`yicha tavsiyanoma. Samarqand 2019.
6. Yunusov.X.B., Sovershenstvovanie texnologii elektroximicheskoy ochistki vody ot rastvorenykh organicheskix veshchestv// Uspexi v ximicheskoy texnologii. – T.XXII. – 2008, № 10(90). – S. 58-60.



7. Yunusov.X.B., Polikarpova L.V., Droганova T.S. Vliyanie zagryazneniya vodnoy sredy na izmeneniya fermentativnoy aktivnosti presnovodnogo mollyuska jivorodka rechnaya // AgroEkoInfo, №4. 2016.
8. Norbek o'g'li, X. B., & Baxtiyar, B. (2022, April). OSHQOZON OLDI BO'LIMLARIDA HAZMLANISH JARAYONLARI NAZORATI. In *E Conference Zone* (pp. 147-148).
9. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
10. Бакиров, Б., Бобоев, О. Р., & Хайитов, Б. Н. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДАГИ МАХСУЛДОР ҚОРАМОЛЛАРДА МЕТАБОЛИЗМ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ АЛИМЕНТАР-МИКРОБИАЛ ТАБИАТИ ВА ГЕПАТОГЕН ХАМДА ЭНДОКРЕН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
11. Бакиров, Б., Хайитов, Б. Н., & Улуғмуродов, Ю. (2021). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АЦИДОЗА РУБЦА У ВЫСОКОПРОДУКТИВНЫХ КОРОВ. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 210-214.

ASAR EMOTSIYASINI OSHIRISHDA O'XSHATISHLARNING O'RNI (ODIL YOQUBOVNING "BILLUR QANDILLAR" ASARI MISOLIDA)

Rajabova Mo'jiza

Termiz davlat universiteti talabasi

Ergasheva Dilrabo Allanazarova

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7927680>

**Annotatsiya.** Bu maqolada o'xshatishlar haqida umumiy ma'lumotlar, shuningdek o'xshatishlarning Aristotel hamda hozirgi tilshunos olimlarimiz nazdida o'rganilishi haqida fikrlar berib o'tildi. O'xshatishlar Odil Yoqubovning "Billur qandillar" asari asosida tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish san'ati, o'xshatishning leksik xususiyatlari, Odil Yoqubovning "Billur qandillar" asari, o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz, ko'chim, metafora, istiora.

THE ROLE OF SIMILES IN INCREASING THE EMOTION OF THE WORK  
(IN THE EXAMPLE OF ODIL YAKUBOV'S WORK "CRYSTAL CHANDELIERS")

**Abstract.** This article provides general information about similes, as well as the study of similes by Aristotle and our modern linguists. Analogies were analyzed based on Odil Yaqubov's work "Crystal Chandeliers".

**Key words:** the art of simile, lexical features of simile, Odil Yakubov's work "Crystal chandeliers", simile object, simile image, metaphor, metaphor, allegory.

РОЛЬ СРАВНЕНИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ  
ПРОИЗВЕДЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ОДИЛА ЯКУБОВА  
«ХРУСТАЛЬНЫЕ ЛЮСТРЫ»)

**Аннотация.** В этой статье даны общие сведения о сравнениях, а также об изучении сравнений Аристотелем и нашими нынешними лингвистами. Аналогии проанализированы на основе произведения Одила Якубова «Хрустальные люстры».

**Ключевые слова:** искусство сравнения, лексические признаки сравнения, произведение Одила Якубова «Хрустальные люстры», объект сравнения, образ сравнения, метафора, метафора, аллегория.

Oshni tuzsiz tasavvur etib bo'lmagani kabi badiiy adabiyotni ham o'xshatish, maqol, matal, tasviriy vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Asar emotsiyasini oshirishda o'xshatish va iboralarning o'rni beqiyos. Biror bir badiiy asarni o'qir ekanmiz, undagi o'xshatishlarni ko'rib yozuvchi salohiyati, saviyasi qay darajada yuqoriligiga guvoh bo'lamiz. Deyarli barcha yozuvchilarning roman, hikoya, qissalarni o'qish jarayonida ko'plab o'xshatishlarni uchratamiz. Shunday yozuvchilarimizdan biri Odil Yoqubov. U o'zining barcha asarlarida o'xshatishlarni mahorat bilan qo'llagan. O'xshatish o'zi nima? O'xshatish–ikki narsa yoki voqea hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi ya'ni ko'chimning sodda turi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni ayniqsa badiiy adabiyot tilini bezashda tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalaniladi. "Inson o'xshatish qobilyatiga ega ekanligi bilan boshqa mavjudotlardan farq qiladi"– deydi mashhur yunon faylasufi Aristotel. Hatto u dastlabki bilimlarini o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur

bağishlaydi. O'zbek tilshunosligida o'xshatish haqida ilk tadqiqot olib borgan M. Mukarramov o'xshatishning uch asosdan iborat ekanligini, o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligini ta'kidlaydi. Odil Yoqubov ijodi inson his-tuyg'ularini to'liqlantiradigan, hayajonga soladigan tasvirlarga boy. "Hikmatillaning qalbi toshqinday jilovsiz, bir quvonchga to'lib, ko'zlaridan yosh qalqib ketgan edi". ("Billur qandillar"). Mazkur parchada inson qalbi jilovsiz to'liqiga o'xshatiladi, to'liqlarni jilovlab bo'lmagani kabi inson bir nimadan qattiq hayajonlansa qalbidagi his-tuyg'ularini, hayajonini, sevinchini jilovlay olmaydi. O'xshatishning har qanday turida ham obrazlilik mavjud. Adib qalamiga mansub "Singan oyna parchalari yomg'irday yog'ilib, xona qiy chuv bo'lib ketdi" jumlasida oyna parchalari yomg'ir parchalariga mengzalmoqda. "Go'yo o'z polizidan yovvoyi o'tlarni yulib tashlagan dehqonday, u ham Nilufarni o'z ko'nglidan allaqachon o'zib tashlagan emasmi?" Bu satrlarda muqaddas tuyg'u muhabbat toptalganini, yigit qizni qanchalar og'ir bo'lsada, polizdagi yovvoyi o'tlarni yulib tashlagan kabi uni ham o'z ko'nglidan chiqaradi. O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet, boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin. Masalan: "Begimqul ayiqday chayqalib vazmin odimlab chiqib ketdi." (Odil Yoqubov "Billur qandillar"). Bu yerda Ayiq vazni og'ir hayvon bo'lganligi uchun ham Sambo kurashchisi Begimqul vazn jihatdan ayiqqa o'xshatilgan. Yozuvchi yozgan deyarli barcha asarlaridagi obrazlarni o'quvchi tez va oson tushuna oladi. Chunki har bir obraz o'ziga xos xarakter xususiyati bilan ajralib turadi. Shubhasiz o'quvchi ongida yaqqol namoyon bo'la oladigan obrazlarni yaratish anchagina mehnat talab qiladi. Odil Yoqubov o'z qahramonlarining metaforik tasviriga alohida urg'u berish yo'li bilan buning uddasidan chiqa olgan yozuvchi. Nutq jarayonida, xususan badiiy nutqda so'zlar o'z ma'nosida ham ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi mumkin. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'zlarning umumiy nomi ko'chim deb ataladi. Adabiyotshunoslikda bunga sinonim sifatida trop (yunoncha "ko'chim") termini ham ishlatiladi. Ko'chimning badiiy nutqdagi eng ko'p va samarali qo'llaniluvchi turi istiora, yani metafora hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu ikki termin sinonim sifatida qo'llaniladi. Masalan: "dehqonlarning qoramtir qo'llarini eslatuvchi o'rik va o'rikzorlar" tasviri atrofdagi manzarani yorqinroq tasavvur etishimizga imkon beradi. Adib asarida o'zi keltirgan istioralarni mahorat bilan qo'llagan holda tabiat go'zalligini nafaqat asar qahramonlarining ichki ruhiyatini undagi o'zgarishlarni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi, "muloyim yuzi gulxan taptida qiziganday lov-lov yondi" birikmasida Nilufarning sobiq sevgilisi Hikmatilloning oldida uyalgan va yuzi qizargan holatini tasvirlab beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'xshatishlar badiiy asarni tahlil qilish, asarda yoritilgan mazmunga, shakl va hajmga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Badiiy asarda o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida biz har bir adibning so'z qo'llash mahorati, yozgan asarining o'quvchiga qay darajada ta'sir etishini ko'ra olamiz. Bu o'z navbatida asar tilini yaxshi tushunib yetishimizga yordam beradi.

Кўк кўсақлар сонини аниқлаш алгоритмининг I босқичида контур чизиқларини ажратиб олиш учун қуйидаги 3 та кадамдан ташкил топган Канни алгоритмидан фойдаланилади:

Гаусс филтрини қўллаш йўли билан берилган тасвирни текислаш амалга оширилади, бу шовқиннинг таъсирини пасайтиришга имкон беради. Икки ўлчамли ҳолат учун Гаусс функцияси қуйидаги кўринишга эга:

Филтр параметрларини шундай танлаб олиш керакки, улар шовқин (ноаниқлик)ларни энг кўп даражада пасайтиришни таъминласин. Гаусс асосида филтрлашда пикселларнинг бир-бирларига таъсири улар ўртасидаги масофа квадратига тескари пропорционал: пропорционаллик коэффициенти ва бунинг натижасида чаплаганлик даражаси  $\sigma$  параметри билан аниқланади. Бу коэффицентни хаддан ташқари ошириб юбориш ўртачалаштиришни барча пикселларнинг бир текис қора рангда бўлишигача олиб келади. Амалда қуйидаги биринчи ҳосилавий гауссианга яхши яқинлаштирилган ва параметр қиймати  $\sigma = 1.4$  бўлган филтрдан фойдаланилади:

Олинган тасвирга Собел оператори қўлланилади. Ушбу оператор тасвир ёрқинлик градиентининг яқинлаштирилган қийматини ҳисобловчи дискрет дифференциал оператор ҳисобланади. Тасвирнинг ҳар бир нуктасида Собел оператори қўлланилишининг натижаси бўлиб бу нуктадаги ёрқинлик градиенти вектори ёки унинг нормаси ҳисобланади. Биринчи ҳосилалар вертикал ва горизонтал йўналишлар бўйича ҳисобланади, кейин эса йўналиш бўйича тўртта ҳосила комбинация қилинади. Бу ҳосилалар локал максимумга эришадиган нукталар кейин қирра нукталарига номзодлар сифатида кўриб чиқилади. Вектор бурчаги

Эҳтимолий қирра нукталари тўпламидан иккита бўсағавий қиймат асосида тасвирдаги контур чизиқлар ажратиб олинади. Бу контурлар пикселларга гистерезисли бўсағавий функцияни қўллаш йўли билан олинади.

Яъни иккита бўсағавий қиймат мавжуд: юқори ва қуйи. Агар пиксел градиенти юқори бўсағавий қийматдан каттароқ қийматга эга бўлса, у контурга киритилади. Агар градиент қуйи бўсағавий қийматдан кичик бўлса, бу пиксел ташлаб юборилади.

Агар пиксел градиенти бўсағавий қийматлар орасида бўлса, у юқори бўсағавий қийматдан юқорида ётган пиксел билан боғланган ҳолларда контур сифатида қаралади. [6] даги тавсияларга кўра юқори/қуйи бўсағавий қийматлар нисбати 2:1 ва 3:1 ўртасида бўлиши керак.

-расмда ушбу алгоритмнинг биринчи босқичининг бажарилиши натижаси келтирилган.



а




б

-расм. Берилган тасвир (а) ва унда ажратиб олинган контур чизиқлари (б)

Алгоритмнинг II-босқичида тасвирлардан эллипссимон объектларни ажратиб олишди. Тасвирдаги параметрик эгри чизиқлар кўринишида берилган объектни ажратиб олишнинг энг самарали усулларида бири бўлиб Хаф алмаштириши ҳисобланади [7].

Бу усулнинг ғояси шундан иборатки, параметрик берилган эгри чизиқлар ҳар бир нуқтаси маълум эгри чизиққа мос келувчи фазавий фазони ҳосил қилади. Бу тасвирда энг кўп сондаги қизиқтираётган нуқталар ётувчи эгри чизиқларни топишга имкон беради. Тасвирда кўк кўсақларни қидириш учун параметрлар сифатида эллипс тенгламаси параметрларидан фойдаланамиз:

2-расмда ушбу алгоритмнинг мисол тасвирда бажарилиши натижаси келтирилган.



2-расм. Тасвирдаги ажратиб олинган эллипссимон объектлар

Сўнгги III босқичда участканинг уччала тасвирининг барчаси бўйича аввалги босқичда ажратиб олинган эллипссимон объектлар сонини ҳисоблаш ҳамда бу объектлар соҳалари рангларини таҳлил қилиш йўли билан кўк кўсақлар сонини аниқлаштириш амалга оширилади. Тасвирлардаги ажратиб олинган объектни кўк кўсақларга тегишлилиги тўғрисидаги якуний қарорни қабул қилиш учун ҳар бир ракурснинг информативлигини ҳисобга олувчи қуйидаги қондани киритамиз:

$$T(x, y) = k_1 \cdot L(x, y) + k_2 \cdot R(w - x, y) + k_3 \cdot U(x, y_k)$$


$$T(x, y) = k_1 \cdot L(x, y) + k_2 \cdot R(w - x, y) + k_3 \cdot U(x, y_k)$$

$$\alpha_i = \begin{cases} 0, & T(x, y) < thresh \\ 1, & T(x, y) \geq thresh \end{cases}$$

$\sum_{i=1}^t \alpha_i$  – пахта майдонининг кўриб чиқиладиган участкасидаги кўк кўсақлар сони;  $t$  –

тасвирдаги Хаф алмаштириши билан ажратиб олинган эллипслар сони.

3-расмда бир участка тасвирида ушбу алгоритмнинг учинчи босқичининг бажарилиш натижаси келтирилган.



-расм. Ишлаб чиқилган алгоритм ёрдамида бир участка тасвирида ажратиб олинган кўк кўсақлар

Ушбу алгоритмнинг учинчи босқичининг бажарилиши натижасида мисол тасвирдан (2-расм) ажратиб олинган 21 та эллипсимон объектлардан н 13 тасининг кўк кўсақлар эканлиги аниқланди. 3-расмда қизил тўғри тўртбурчаклар билан кўк кўсақлар тасвирлари соҳалари ажратиб кўрсатилган.

Кўк кўсақлар сонини аниқлашнинг ҳисоб участкасини турли ракурслардан олинган тасвирларини таҳлил қилишга асосланган алгоритми асосида Delphi дастурлаш тилида дастур яратилди.

Хулоса қилиб айтганда янги услубиятнинг самарадорлиги машиналарни синовдан ўтказишга сарфланадиган вақт ва маблағларни сезиларли даражада қисқартириш, кўрсаткичларни синов вақтида тезкорлик билан баҳолаш имконияти, субъектив омилларнинг ўлчашлар натижаларига таъсирларини истисно қилинишидан иборатдир. Бунда ишлаб чиқилган дастурий ва аппарат воситаларни синовларни автоматлаштиришда, ПТМ технологик жараёнлари ва режимларини назорат қилиш ва бошқариш автоматик тизимларида қўллаш мумкин.

## REFERENCES

1. Способ оценки агротехнических показателей хлопкоуборочных машин. Патент на изобретение № IAP 05123// Абдазимов А.Д., Садриддинов А.С. и др. Зарегистрирован в гос. регистре изобретений РУз, г. Ташкент, 20.11.2015.
2. Оценка и анализ на ЭВМ полноты сбора урожая хлопкоуборочной машиной //Свидетельство о регистрации программного продукта для ЭВМ №DGU 02063.
3. Программа оценки качества работы хлопкоуборочной машины //Свидетельство о регистрации программного продукта для ЭВМ №DGU 03446.
4. Абдазимов А.Д., Раджабов С.С. Ускоренная компьютерная оценка агротехнических показателей на примере хлопкоуборочных машин. – Lambert Academy Publishing, 2019. – 64 с.

5. TSt 63.06:2001 “Отраслевой стандарт. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины для уборки хлопка-сырца и стеблей хлопчатника. Программа и методы испытаний”.
6. Яне Б. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2007.– 584 с.
7. Hough P. Machine Analysis of Bubble Chamber Pictures // In Proc. Int. Conf. High Energy Accelerators and Instrumentation, 1959. – pp 153–163.

## MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR HAMDA ULARNING BOG'LANISH (TENGLANISH) YO'LI BILAN TUZILISHI

**Shopo'latova Gulhayo Shuhrat qizi**

Termiz davlat universiteti

Òzbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933443>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada murakkab qo'shma gaplar haqida umumiy tushunchalar berib o'tilgan bo'lib, ularning semantik xususiyatlari hamda bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilishi ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** murakkab qo'shma gap, yuklamalar, ko'makchili biriktiruvchi vositalar, fe'l shakllari ko'rsatkichlari, ohang, ilmiy manbalar, ikki komponentli va ko'p komponentli qo'shma gaplar, tenglanish, tobelanish.*

## COMPOUND COMPOUND SENTENCES AND THEIR STRUCTURE THROUGH CONNECTION (EQUATION)

***Abstract.** In this article, general concepts of complex sentences are given, and their semantic features and their structure by connection (equation) are considered.*

***Key words:** complex sentence, prepositions, auxiliary connectives, indicators of verb forms, tone, scientific sources, two-component and multi-component sentences, equalization, subordination.*

## СЛОЖНЫЕ СЛОЖНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ИХ СТРОЕНИЕ ЧЕРЕЗ СОЕДИНЕНИЕ (УРАВНЕНИЕ)



**Аннотация.** В данной статье даются общие понятия сложных предложений, а также рассматриваются их семантические особенности и их строение по связи (уравнению).

**Ключевые слова:** сложное предложение, предлоги, вспомогательные связи, показатели глагольных форм, тон, научные источники, двухсоставные и многосоставные предложения, приравнивание, подчинение.

Ikkitadan ortiq soda gaplardan tuzilgan qo'shma gap murakkab qo'shma gap deyiladi. Masalan: Shunday bir vaqt bo'larki, lochinlar havoga uchajaklar, xalq ozod bo'lajak. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi soda o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar. Shunga ko'ra murakkab qo'shma gaplar quyidagicha ko'rinishlarga ega.

An'anaviy sintaktik ta'limotda qo'shma gaplar qismlarining miqdoriga ko'ra ikki va ko'p komponentli qo'shma gaplarga ajratiladi.[1] Ilmiy manbalarda ko'p komponentli qo'shma gaplar murakkab qo'shma gaplar deb ham yuritiladi. Qo'shma gaplarning bu ikki turi quyidagicha farqlanadi:

1. Ikki komponentli va ko'p komponentli qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining miqdoriga ko'ra farqlanadi.

2. Bog'lanish usulining sodda yoki murakkabligi bilan farqlanadi.

Ikki komponentli qo'shma gaplar ikki sodda gapning tenglanish yoki tobelanish asosida bog'lanishidan tashkil topsa, murakkab qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining miqdori hamda uch va undan ortiq bog'lanish usuli (tenglanish, tobelanish, aralash usul) asosida shakllanishi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang:

1. Ikki komponentli qo'shma gap: *Uning ham ko'zi qattiq, ham tili tez edi.* (O.)

2. Murakkab qo'shma gap (ko'p komponentli qo'shma gap): *O'tar kunlar, kechar yillar, yurakda muttasil xanda.* (G'.G'.)

Murakkab qo'shma gaplar sintaktik tuzilishi, qismlarini bog'lovchi vositalariga ko'ra bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga o'xshaydi. Bunday tuzilishdagi qo'shma gap tarkibiy qismlarini bog'lashda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar, ko'makchili biriktiruvchi vositalar, fe'l shakllari ko'rsatkichlari, ohang muhim o'rin tutadi.

Murakkab qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari faqat tenglanish yoki faqat tobelanish, shuningdek, ham tenglanish, ham tobelanish asosida bog'lana oladi. Bu belgilari asosida M.Asqarova murakkab qo'shma gaplarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.

2. Ergashish (tobelanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar. (Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar)

3. Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan (aralash tur) murakkab qo'shma gaplar.[2]

G'.Abdurahmonov esa murakkab qo'shma gaplarning quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar. (Ketma-ket yoki birgalik ergashuv asosida tuzilgan tur)

2. Aralash turli bir necha ergash gapli qo'shma gaplar. (Ketma-ket va birgalik ergashuv asosida tuzilgan tur)


3. Ergashgan-bog'langan qo'shma gaplar. (Ergashgan va bog'langan qo'shma gaplardan tuzilgan tur)

4. Period. [3] (Ergashgan, bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan tuzilgan tur)

Quyida murakkab qo‘shma gaplarning M.Asqarova tomonidan qayd etilgan hamda o‘quv darsliklaridan o‘rin olgan turlarini tahlil qilamiz va bu masala bo‘yicha olimaning ilmiy xulosalarini umumlashtiramiz.

Bog‘lanish (tenglanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar

Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan tenglanish asosida birikuvidan tashkil topgan gaplar bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar deyiladi. Bunday tuzilishdagi murakkab qo‘shma gaplarning qurilish chizmasi quyidagicha:



Bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar qismlarining birikuviga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

1. Tarkibiy qismlari teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan tur. Masalan: *Sobir O‘ktamni kabinaga o‘tirishga qistadi, lekin u unamadi, ikkovlari... bosh qoplarga o‘tirdilar.* (O.)

Tarkibiy qismlari bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida bog‘langan murakkab qo‘shma gaplarda bog‘lovchilarning qo‘llanishi 2 xil:

- a) bog‘lovchilar murakkab qo‘shma gapning har bir tarkibiy qismi orasida qo‘llanadi;
- b) bog‘lovchilar faqat ikki sodda gap orasida qo‘llanadi.

Ularni qiyoslab chiqamiz:

1. *Goh qo‘shiq yangraydi, goh sho‘x kulgi eshitiladi, goh baqiriq-chaqiriq eshitiladi.* («Yoshlik».)

2. *Adirlari yam-yashil o‘t-o‘lanlar bilan qoplangan, soylarda suvlar toshib hayqiradi, ammo hali lolalar ochilmagan.* («Yoshlik».)

2. Tarkibiy qismlari ohang yordamida birikkan tur. Masalan: *Ko‘p o‘tmay yana qo‘ng‘iroq jarangladi, yana hamma eshiklar ochildi, yana atrof xushchaqchaq g‘ala-g‘ovurga to‘ldi.* (P.Q.)

3. Tarkibiy qismlari teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi vositalar hamda ohang yordamida birikkan aralash tur. Masalan: *Otini bilolmadim, ammo qamishday qomati bor, husnini ta‘rif qilolmayman.* (O.)

Bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap qismlari kesimlarining shakllanishida ikki holat kuzatiladi:

a) murakkab qo‘shma gap qismlarining kesimlari har doim ham to‘liq shakllanavermaydi: kesimlik ko‘rsatkichlari shaxs-son, kesimlik bog‘lamalari oxirgi gapning kesimida qo‘llanadi va har bir kesimga tegishli bo‘ladi. Masalan: *U meni qolishga undar, men qolishni istamas, hamma bu holatdan hayron edi.* («Yoshlik».)

b) murakkab qo‘shma gap qismlarida hatto kesim yoki uning biror qismi qo‘llanmasligi mumkin, bunda ham so‘nggi gapning kesimi oldingi gaplar uchun umumiy hisoblanadi. Masalan: *Shijoatli va kuchli botirlar urushda; xotin va farzandlar – kambag‘allikda; do‘st va birodarlar boshga kulfat tushganda taniladilar.* ("K.D".)


Ergashish (tobelanish) yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar

Bir necha ergash gaplarning bir bosh gap bilan tobelanish asosida bog‘lanishidan tashkil topgan murakkab qo‘shma gaplar *ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar* deyiladi. Ergashish yo‘i bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining sintaktik tuzilishi, ergash gap kesimlarining shakllanishi quyidagicha:

Ergash gapning kesimi mustaqil fe‘llardan tashkil topib, mustaqil qo‘llana oladi. Bunday ergash gaplar bosh gapga *-ki, chunki, negaki, sababki* kabi yordamchilar orqali birikadi Masalan: *Saida mana shunday masalalar to‘g‘risida... odamlar fikrini uyutishga harakat qildi, chunki bo‘larning har biri odamlarning zehninga, kokxoz hayotiga o‘rnashib qolgan, chunki Qalandarov nima qilgan bo‘lsa, yaxshi niyat bilan qilgan edi va xalq ham shunday deb bilgan* (A. Q.)

Ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap tarkibiy qismlari bosh gapga ikki xil bog‘lanadi: 1. Birgalik ergashish. (To‘g‘ridan- to‘g‘ri ergashish) 2. Ketma-ket ergashish.

1. Birgalik ergashish. (To‘g‘ridan- to‘g‘ri ergashish). Ergash gaplarning bosh gapga alohida-alohida bog‘lanishi birgalik ergashish deyiladi. Bunday gaplarning qurilish chizmasi quyidagicha:



Birgalik ergashuvli murakkab qo‘shma gaplarda ergash gaplar uyushgan yoki uyushmagan ergash gaplardan tashkil topadi. Ergash gaplarning quyidagi turlari uyushib kelib, bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarni hosil qiladi:

1. Ega ergash gap uyushib keladi: *Kimki o‘z vatanini sevsa, kimki xalqi uchun jonini fido qilsa, u qahramon bo‘ladi*. Ushbu gapning qurilish chizmasi quyidagicha:

2. Kesim ergash gap uyushadi: *Tilagim shuki, biringiz olim bo‘lib, tarix yozing; biringiz shoir bo‘lib, yurtini kuylang*. ("Yoshlik")

3. Aniqovchi ergash gaplar uyushib keladi. Masalan: *Men shunday chamanzor yaratayki, kishilar zavqlansin, bulbullar xonish qilib, dillarni yayratsin*. (So‘zl.)

4. To‘ldiruvchi ergash gaplar uyushadi. Masalan: *Shuni yodda tutishing lozimki, qiz qalbi guldek nozik, uning yarasi hech vaqt tuzalmaydi*. («Yoshlik».)

5. O‘lchov-daraja ergash gaplar uyushib qo‘llanadi. Masalan: *Fikri qanchalik aniq, dalillari qanchalik ishonarli bo‘lsa, kelishuv shunchalik oson kechadi*. (So‘zl.)

7. Maqsad ergash gaplar uyushib keladi. Masalan: *Pilla tuting, bo‘lsin deb, shartnomamiz to‘lsin deb*. (Qo‘shiq.)


8. O‘rin ergash gaplar uyushadi. Masalan: *Qayerda zulm bo‘lsa, qayerda dilozorlik bo‘lsa, o‘sha yerda notinchlik hukm suradi*. (So‘zl.)

9. Shart ergash gap uyushadi. Masalan: *Agar yerga o‘z vaqtida ishlov berilmasa, urug‘ o‘z vaqtida yerga qadalmasa, hosilning unumi past bo‘ladi*. («Yoshlik».)

10. To‘siqsiz ergash gaplar uyushiq holda qo‘llanadi. Masalan: *Er-xotin o‘rtasida qanaqa kelishmovchilik bo‘lmasin, qanaqa gap qochmasin, kampir oraga tushib, hamma vaqt kuyovining tarafini olar edi*. (A. Q.)

Har xil turdagi bir necha ergash gaplar ham bosh gapga alohida-alohida bog‘lanib, *birgalik ergashuvni* tashkil qiladi. Bunday ergash gaplar uyushmagan hisoblanadi. Masalan: *U qaytsa, ishni jo‘lga qo‘yadigan bo‘lsak, biror natija chiqar.* (So‘zl.)

2. Ketma-ket ergashish. Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga tobelanib, keyin bosh gapga bog‘lanishidan hosil bo‘lgan gaplar ketma-ket ergashuv yo‘li bilan tuzilgan murakkab ko‘shma gap hisoblanadi. Bunday tuzilishdagi gaplarning qurilish chizmasi quyidagicha:



Ergash gaplarning quyidagi turlari bosh gapga ketma-ket ergashuv yo‘li bilan bog‘lanadi:

1. Shart ergash gap+ to‘siqsiz ergash gap+ bosh gap: *Bordi-yu, rost bo‘lsa, hammasi emas, yarmi rost bo‘lganda ham, juda xunuk gap-ku.* (A.Q.)

2. Payt ergash gap+ shart ergash gap+ bosh gap: *Dastlabki vaqtlarda yordam bersangiz, ishlar jo‘nashib ketgandan keyin, uncha og‘irligim tushmas.* (A.Q.)

3. To‘siqsiz ergash gap+ natija ergash gap+ bosh gap: *Qish fasli bo‘lsa-da, uy shu darajada issiq ediki, yuzlarimdan ter quyila boshladi.*

4. Shart ergash gap+ ravish ergash gap+ bosh gap: *Janobi oliyning ruxsatlari bo‘lib, rahbarlik uchun kishi tayin qilsalar, mamlakat obodonligiga sabab bo‘ladilar.* (O.)

Anglashiladiki, murakkab qo‘shma gaplarda ravish, payt, shart, to‘siqsiz, maqsad ergash gaplar bosh gapga birdan ortiq holda bog‘lanib kelib, ketma-ket va birgalik bog‘lanishni hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, murakkab qo‘shma gaplar semantik-sintaktik tuzilishi jihatdan o‘ziga xos qurilishga ega bo‘lgan gaplardir. Nutqda murakkab qo‘shma gaplarning rang-barang ko‘rinishlari voqelanadi. Bunday gaplar qismlari orasidagi sintaktik munosabat turi – bog‘lanish usuli asosida o‘zaro farqlanadi. Murakkab qo‘shma gap qismlari faqat tenglanish asosida yoki faqat tobelanish usulida, shuningdek aralash turda - ham tenglanish, ham tobelanish munosabati asosida shakllana oladi. Bu belgilar murakkab qo‘shma gaplarning tasnifida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### REFERENCES

1. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1987. –B. 161.
2. G‘ulomov A., Asqarova M. Ko‘rsatilgan darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 1987. –B. 229.
3. G‘.Abdurahmonov. O‘zbek tili grammatikasi. –Toshkent: O‘qituvchi. 1996. –B. 220 – 241; Shu muallif. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent: O‘zFA, 1958. – B.212 – 234; 312 – 318.
4. O‘zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun ) qayta ishlangan 2-nashr T. «O‘zbekiston» 1992y
5. A Nurmatov va boshqalar o‘zbek tilining nazariy sintaksisi T.
6. R.Rasulov so‘z valentligi va sintaktik aloqa “O‘zbek tili va adabiyoti(oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik)T.O‘zbekiston 1995 y

7. A.Aliyev , K Sodiqov , "O'zbek adabiy tili tarixidan" . (Universitet talabalari uchun darslik ) Toshkent "O'zbekiston" 1995y
8. M.Mirtojiev mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi . "O'zbek tili va adabiyoti jurnali. № 2 1995y
9. A.Xo'jiev So'zning morfem tarkibiga oid jurnal "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998y.
10. F.Ubaeva , R.Saydullayeva to'liqsiz gaplar haqida ba'zi bir mulohazalar. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali"
11. B. Abdurahmonov , S Mamajonov "O'zbek tili va adabiyoti" (Oliy o'quv yurti talabalari uchun) T. "O'zbekiston" 1995y.
12. www.ziyonet.uz

## TILSHUNOSLIKDA GENDERNING GRAMMATIK TAHLILI O'ZBEK, RUS, INGLIZ TILI HAMDA ARAB TILI MISOLIDA

**Safarova Zarnigor**

O'zDJTU talabasi

[safarova.zarnigor@list.ru](mailto:safarova.zarnigor@list.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933451>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender tilshunosligi muammosi ko'rib chiqiladi va uning paydo bo'lishi va shakllanishi, birinchi navbatda, ingliz tilidagi lingvistik adabiyotda, ilmiy adabiyotlarga sharh, uning tahlili va qisqacha tavsifi, arab tili materiali bo'yicha gender nutqining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Keltirilgan to'rt til yuzasidan grammatik gender tahlili asosida jins kategoriyalari ot, sifat va boshqa nutqning ba'zi xarakterli diskursiv tendentsiyalarini aniqlash bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** jins, grammatik tushuncha, diskursiv tendentsiya, gender muammolari, erkak va ayol nutqi, kommunikativ uslub, lug'at, lingvistik ong.

## ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РОДА В ЛИНГВИСТИКЕ УЗБЕКСКОГО, РУССКОГО, АНГЛИЙСКИЙ И АРАБСКИЙ В КАЧЕСТВЕ ПРИМЕРА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема гендерной лингвистики и ее возникновения и развития, прежде всего в лингвистической литературе на английском языке, обзор научной литературы, ее анализ и краткая характеристика, особенности



гендерной речи на материале. Анализируется арабский язык. На основе анализа грамматического рода четырех языков описываются общие категории существительных, прилагательных и некоторые характерные дискурсивные тенденции речи.

**Ключевые слова:** род, грамматический концепт, дискурсивная тенденция, гендерные проблемы, мужская и женская речь, коммуникативный стиль, лексика, языковое сознание.

### **GRAMMATICAL ANALYSIS OF GENDER IN LINGUISTICS UZBEK, RUSSIAN, ENGLISH AND ARABIC AS AN EXAMPLE**

**Abstract.** This article examines the problem of gender linguistics and its emergence and formation, primarily in linguistic literature in English, a review of scientific literature, its analysis and brief description, specific features of gender speech. The characteristics of the Arabic language are analyzed. Based on the grammatical gender analysis of the four mentioned languages, the gender categories of nouns, adjectives and some characteristic discursive tendencies of speech are described.

**Key words:** gender, grammatical concept, discursive tendency, gender problems, male and female speech, communicative style, vocabulary, linguistic consciousness.

#### **Kirish**

So‘nggi paytlarda tilshunoslikda tilning gender tabaqalanishini o‘rganish muammosiga katta e‘tibor berilmoqda. Olimlar tobora ko‘proq nutqda gender va gender muammolarini eng samarali lingvistik o‘rganishni faol foydalanish aspektida, dolzarb suhbatni yaxlit tahlil qilish doirasida amalga oshirish kerak degan xulosaga kelishmoqda. Shu sababli, erkak va ayol tilining xususiyatlarini ularning nutq xatti-harakatining strategiyasi va taktikasi yoki tipik diskursiv tendentsiyalari nuqtai nazaridan obyektiv ravishda o‘rganish dolzarb ko‘rinadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til birliklarining gender xususiyatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, “Fan sohasida aynan fundamental tadqiqotlar doirasida ijobiy natijalarga erishilayotgani bejiz emas”. Bu jarayonda rejalashtirilgan vazifalar ingliz, rus va o‘zbek va boshqa tillarning frazeologiyasi materialida gender tushunchalarini shakllantirish omillarini qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Til shunchaki muloqot vositasi emas. Til atrofdagi dunyo va madaniyatni aks ettiradi va shu bilan birga undan foydalanadigan odamda bu dunyo qanday ishlashi va qanday bo‘lishi kerakligi haqida ma‘lum bir tasavvurni shakllantiradi. Tilni har kuni ishlatib, biz shunchaki gapirmaymiz, biz erkaklar va ayollar, atrofimizdagi jamiyat qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyalarimizni o‘rgatamiz, takrorlaymiz va mustahkamlaymiz. Jins kategoriyasi erkak, ayol va betaraf grammatik ma‘nolari orqali hosil bo‘ladi. Bu grammatik ma‘nolar otning sifatlar va boshqa undoshlar bilan belgilanish qobiliyatini ifodalaydi.

Gender masalalariga qiziqish o‘tgan asrning 60-yillarida feministik oqimlar ta‘sirida G‘arb tilshunosligida paydo bo‘lgan va tahlil asosan ingliz tili materiali bo‘yicha olib borilgan. Rus tilshunosligida jinsning lingvistik ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish nisbatan yaqinda boshlangan. Mahalliy gender tilshunosligining paydo bo‘lishi XX asrning 90-yillari o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Hozirgi vaqtda tadqiqotning bir nechta yo‘nalishlari mavjud: ijtimoiy va psixolingvistik, kommunikativ-diskursiv. Hozirgi vaqtda erkak va ayol nutqini o‘rganishning eng istiqbolli yo‘nalishi jamiyatning madaniy an‘analarini hisobga olgan holda turli xil kommunikativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning nutq xatti-harakatlari strategiyasi va taktikasini tahlil qilish

hisoblanadi. Gender parametrining zamonaviy tadqiqotlari turli janrlardagi og‘zaki va yozma nutq asarlari materiallari bo‘yicha amalga oshiriladi: grammatik, texnik, siyosiy, she‘riy, reklama matnlari va boshqalar. Gender tadqiqotlariga bag‘ishlangan ba‘zi asarlarni tahlil qilish rus tilida ham, ingliz tilida ham jinsiy kategoriyaning namoyon bo‘lishi haqida xulosaga keladi.

Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarning ilmiy yo‘nalishlarini almashinishi bilan bog‘liq holda XX asrning oxirgi 10 yilliklariga to‘g‘ri keladi. Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki guruh savollarni o‘rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi: leksika, sintaksis, rod kategoriyasi va qator bo‘limlarda namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuvning maqsadi tilda turli jinsdagi odamlarning tilini ifodalanishi, erkak va ayollarga qanday baho berilishi hamda qaysi semantik oblastlarda ularning ko‘proq tarqalganligi, buning asosida qanday lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

2. Genderning nutqda yuzaga chiqishi: gender qanday vositalar va qanday kontekstlar yordamida ifodalanayotganligi, bu protsessga ijtimoiy faktorlar va kommunikativ vositalar qanday ta‘sir ko‘rsatayotganligi o‘rganiladi. Hozirgi vaqtgacha bu sohada ijtimoiy determinizm nazariyasi va biodeterminizm nazariyalari raqobat qilib kelmoqda.

G‘arb tillaridagi gender omili keng o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. MDH xalqlari tillari misolida ham keyingi yillari muayyan materiallar to‘plandi. Bu borada rus tilshunoslarining tadqiqotlari ko‘p. K.Kirilina, A.Popov, M.Kolesnikova, I.Zikova, O.Vaskova kabilar gender belgili til birliklari lug‘atini tuzish, turli tillarda gender munosabatlarining aks etishi, tijorat va boshqa maqsadlarda gender leksikadan foydalanish borasida tadqiqotlar olib borganlar. Gender tadqiqotlarda qo‘lga kiritilgan natijalar hozirgi davrda o‘ta dolzarb madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga keluvchi muammolarni hal qilishda qo‘l kelishi aniq. Shiddat bilan yangilanayotgan ilmfan kundan kunga yangi izlanishlar qilishga chorlaydi. Shu jihatdan gender lingvistikasini o‘rganish va chuqurroq tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, jahon tilshunoslarining e‘tiborini tortgan gendrologiya o‘zbek lingvistikasida ham alohida dolzarblik kasb etadi. O‘zbek tilida faqatgina ayollarga yoki erkaklarga xos bo‘lgan so‘zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilining gender xususiyatlarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar kelgusida ushbu fikrni batafsil dalillab, chuqurroq tahlil etadilar shu jumladan men ham aynan shu mavzu ostida izlanishlarimni davom ettirib, gender lingvistikasini rivojiga o‘z xissamni qo‘shish maqsadida qiyosiy izlanishlar olib bormoqdaman. Zero, nutqimizdagi so‘zlarni gender tilshunosligi tamoyillari asosida tahlil qilish, jins nuqtai nazaridan o‘rganish gender tilshunosligining yangi qirralarini ochishda muayyan ilmiy ahamiyatga egadir.

Birinchidan, keltirib o‘tilgan ya‘ni o‘zbek, rus, arab hamda ingliz tilida ham gender tushunchasi mavjud. Faqat o‘zbek tili grammatikasi bundan mustasno. Ya‘ni biz erkak hamda ayolga ham bir xil olmosh, sifat va fe‘l ishlata olishimiz bilan qolgan tahlil qilinayotgan uch tildan farq qiladi. O‘zbek tilida gender tushunchasi asosan kontekstdagina namoyon bo‘lishi mumkin. Biz buni erkak va ayolning nutqidan farqlab olishimiz va ularning emotsiya qiziqishlaridan, ishlatgan so‘zlaridan ajratib olishimiz lozim. Chunki o‘zbek tilidagi so‘zlarni dastlabki shakllaridanoq qaysi turkumga mansub ekanligini aniqlash, shuningdek, mustaqil holda qo‘llash mumkin. Masalan, ot, oq, ol, oz, oh kabi bir xil konstruksiyadan iborat bo‘lgan so‘zlar ularning ma‘nosiga qarab ot, sifat, fe‘l, ravish, undov kabi ma‘lum turkumga kiritiladi.

Dastlab, bu sohadagi ishlar G'arbda paydo bo'ldi va nutq va tilning erkak va ayol xususiyatlarining birinchi tizimli tavsifi german va roman tillari guruhlari tillari asosida amalga oshirildi. Rus tilshunosligiga kelsak, bu mavzu bo'yicha birinchi muntazam tadqiqotlar faqat 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida amalga oshirila boshlandi. 90-yillarning o'rtalarida ular tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Gender tilshunosligining tadqiqot obyekti til va jins o'rtasidagi munosabat, ya'ni jinsning tilda qanday namoyon bo'lishi masalasidir. Genderologiya insonning biologik jinsining uning madaniy o'ziga xosligi, ijtimoiy mavqei, ruhiy xususiyatlari, xatti-harakati, shu jumladan nutqi bilan bog'liqligini o'rganadi. Rossiyada lingvistik gender tadqiqotlari sohasida Moskva davlat lingvistik universiteti tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. XX asrning oxirida Rossiyada til va jins o'rtasidagi munosabatlar muammolari bilan shug'ullanadigan gender tilshunosligi sohasidagi tadqiqotlar jadal rivojlana boshladi. Gender tilshunosligi kasbiy terminologiyada erkak jinsining ustuvorligi sabablarini tushuntirishga harakat qiladi va narsalarning mavjud tartibini o'zgartirishga harakat qiladi. Gender - rus tilida otlar, olmoshlar, sifatlar va ma'lum fe'l shakllarini uchta sinfga ajratish uchun ishlatiladigan grammatik kategoriyadir: erkak, ayol va neytral. Jins asosan otlarga tegishli, chunki u har bir otning ajralmas grammatik xususiyati hisoblanadi. Har bir ot dastlab uchta sinfdan biriga tegishli va bu sinflarning har biri so'zlarning oxiri va o'zgartiruvchi shakllari (sifatlar, olmoshlar va boshqalar) bilan bog'liq o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega. Ot o'zining barcha shakllarida grammatik jinsini saqlab qoladi va uni hech qachon o'zgartirmaydi. Rus tilidagi otlarning aksariyati lug'atda berilgan iqtibos shaklining oxiridagi ko'rinishiga ko'ra jinsga ega va ularning ma'nosi bu yerda hech qanday rol o'ynamaydi. Rus tilida biz avvalo rodga ya'ni jins kategoriyasiga qarab erkak-ayol yoki neytral tarzda grammatik qo'shimcha yoki harf qo'shish orqali ifodalaymiz. Rus tilida barcha so'zlar rodga ajratiladi rodlar esa uch turli bo'ladi.

1. мужской род

2. женский род

3. средний род

1. Мужской род (а,я,ь,й) harflari orqali ya'ni so'zlarning oxiriga qarab rodlarni ajratish mumkin. Faqat atoqli shaxslar uchungina ishlatiladi masalan:

Папа, дядя, kabi,

(ь) harfi faqatgina kasb hunar nomlarigagina ishlaydi masalan:

Предприниматель, воспитатель;

(й) harfi kamdan kam keladigan so'zlarga ishlaydi buni chuqurroq o'qiganimizdan so'ng bilib olamiz masalan: музей, трамвай, kabi.

2. Женский род ( а, я, ь, ) Ko'rib turganimizdek bu harflar yuqoridagi мужской родда ham mavjud, bular barchasi istisno ya'ni yodlab olibgina tushunib ishlatishingiz kerak. Мужской роддаги qoidalardan tashqari holdagi so'zlarda kelsa женский род hisoblanadi.

3. Средний род ( о,е,) Masalan: яблоко, дверь, kabi

Har bir tilda so'zlar ma'lum belgi va xususiyatlariga ko'ra ayrim guruhlarga, ya'ni turkumlarga ajratiladi. O'zbek tilida so'zlarni turkumlar bo'yicha tasniflash rus tilidagiga nisbatan qiyinroq, chunki turli turkumlarga mansub bo'lgan o'zbekcha so'zlar rus tilidagi kabi maxsus morfologik ko'rsatkichga ega emas. Rus tilidagi sifatlar –ий, –ый, –ая, –яя, –ое, –ее; ravishlar –о, –е, fe'llar –ать, –ять, –ить, –ться kabi maxsus tugalmalarga ega, binobarin so'z o'zaklari ana shu qo'shimchalarsiz qo'llanmaydi. Ya'ni jins kategoriyasiga qarab foydalaniladi. Masalan biz o'zbek

tilida bemaolol ayol jinsi uchun “baland bo‘yli ayol” “ baland bo‘yli erkak” deb bemaolol hech qanday qo‘shimchalarsiz va hattoki bir xil sifatni ishlata olamiz. Lekin rus tilida esa biz erkak jinsini ifodalash uchun “высокий мужчина” ayol jinsini ifodalash uchun esa “высокая женщина” sifatida murojaat qilamiz.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasiga, arab tili esa somiy tillari oilasiga kiradi. Ular turli tillar oilasiga mansub, ammo ularda gender kelishuvlarida ba’zi o‘xshashliklar va farqlar mavjud. Ingliz tilida ayollik va erkaklik o‘rtasida bir nechta gender farqlari mavjud. Biologik kategoriya “jins” bilan “jins” grammatik kategoriyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik juda yaqin. Tabiiy jinsiy farqlar uchun ingliz jinsi farqlarini aniqlaydi. Ingliz tilida uchta jins mavjud: erkak, ayol va neytral, arab tilida esa ikki xil: erkak va ayol jinsi. Raqam jihatidan arab tili uchta turga ega: birlik, ikkilik va ko‘plik, ingliz tilida esa ikki xil: birlik va ko‘plik. Ma’lumki, ingliz tilidan foydalanishda gender farqlari mavjud. Misol uchun, ingliz tilidagi ayollarning til uslubi ko‘proq shaxsiydir va u obyektarga ko‘proq e’tibor qaratadigan erkaklar uslubiga qaraganda ko‘proq ijtimoiy dinamikaga e’tibor qaratadi. Arab tilidan foydalanishda ham gender farqlari aniqlangan. Misol uchun, ayollar ko‘proq rasmiy tildan foydalanadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarjimonlar ko‘pincha qarama-qarshi jinsdagi tilni tushunish va oxir oqibat tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Jins jonli va jonsiz otlarni ham farqlaydi. Bundan tashqari, umumiy jins va jamoaviy jins mavjud. Dunyoning ko‘pgina tillarida barcha otlarni jins toifalariga ajratadigan grammatik jins tizimi mavjud. Berilgan otga tayinlangan jins jumladagi bog‘langan narsalar bilan jins kelishuvini talab qiladi, masalan: aniqlovchilar, sifatlar va ko‘rsatuvchi olmoshlar. So‘nggi paytlarda ikkinchi til o‘rganuvchi o‘quvchilarning grammatik jinsni o‘zlashtirishga qiziqishi ortib borayotgani aniqlandi. Gender farqlari tufayli arab tilida o‘nga yaqin ko‘rsatuvchi olmosh mavjud bo‘lsa, ingliz tilida to‘rtta ko‘rsatuvchi olmosh mavjud. Xulosamdagi eng aniq fikrlar, birinchidan, ingliz jinsi tabiiy, arab jinsi esa grammatik ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ingliz tilidagi gender olmoshlarga ko‘proq mos keladi, arab tilidagi gender esa otlar, olmoshlar, fe’llar va sifatlarga tegishli. Uchinchidan, jins bir tildan boshqa tilga nafaqat ingliz va arab tillarida farq qiladi va bu madaniyat bilan bog‘liq. Grammatik jins birinchi bo‘lib o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan eng qadimgi xususiyatlardan biridir.

Tadqiqotlarga ko‘ra, "grammatik jins" tizimiga ega tillar otlarni morfologik yoki fonologik xususiyatlariga ko‘ra jinslar sinfiga ajratadi. Grammatik jins tarjimonlarga maqsad tilga nisbatan jinsi boshqacha grammatiklashtirilgan manba tillaridan tarjima qilganda ba’zi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ingliz tilida A.Z Guiora (1983) fikricha, biologik jins faqat “he”, “she” va “it” shaxs olmoshlarini tanlashda qandaydir ahamiyatga ega; u morfologiyaning boshqa hech bir joyida ko‘rsatilmaydi. Arab tili esa jins kategoriyasiga ko‘proq e’tibor beradi, chunki u grammatik shakllarni tanlashni belgilaydi. Bu jihat genderni o‘rganishda juda muhim, chunki tarjima talabalari boshqa lingvistik jihatlar kabi ikki til o‘rtasidagi morfologik farqlarga ham e’tibor berishlari kerak. Ingliz tilida faqat shaxsiy egalik va reflektiv uchunchi shaxs olmoshlarida aks ettiriladigan semantik mezonlarga asoslangan pronominal jins tizimi mavjud va undan foydalanish oddiy tamoyillar bilan belgilanadi. Arab tilida esa ikkita jins mavjud: erkak va ayol. Birinchisi erkak mavjudotlar va jonsiz narsalarga nisbatan rasmiy belgilanmagan otlar uchun ishlatiladi; ikkinchisi ayol mavjudotlar uchun va jonsiz narsalarga ishora qiluvchi rasmiy belgilangan otlar uchun ishlatiladi. Arab tilida so‘zlar ikki xil: 1) muannas (ayol) 2) muzakkar (erkak) jinsini

ifodalaydi. Soʻzning muannas yaʼni ayol jinsida ekanligini bildiradigan yozilishdagi tashqi (morfoloqik) belgilaridan biri bu soʻzning taʼmarbuta (ة) bilan tugagan boʻlishidir. Ikkinchisi esa alif va hamza (اء) bilan tugashi bunday soʻzlar kam uchraydi:

davo: دَاءٌ

kasallik : دَوَاءٌ

Uchinchidan, soʻzning alif maqsura (ى) bilan tugashi. Bunday soʻzlar ham juda kam uchraydi bular:

xushxabar: بُشْرَى

kasalxona: مُسْتَشْفَى

qolgan muannas jinsdagi soʻzlar ular anglatgan mazmuniga qarab aniqlanadi. Misol uchun ayol kishini misol uchun:

إِمْرَأَةٌ woman - ayol

أُخْتٌ sister - singil/opa

مُؤْتَمَرٌ mother - ona

yoki ularning ismini bildiruvchi soʻzlar, tananing juft aʼzolarini bildiruvchi soʻzlar, xalqlar, davlatlar, shaharlarning nomlari, yaratilishiga koʻra yagona boʻlgan narsalarning nomlaridir. Qolgan soʻzlar muzakkar yaʼni erkak jinsiga taaluqli soʻzlardir. Baʼzi soʻzlar esa ikkita jinsga ham tegishlidir. Ularni biz lugʻat kitoblaridan topib bilib olishimiz mumkin. Ranglar misolida koʻrishimiz mumkin ikkala jinsda oʻzgarishini ingliz tilida oʻzgarishsiz yaʼni ikkala jins uchun bir xil ishlatiladi ranglar.

Ayollar uchun:

Oq-white-بيضاء

Qora-black-سوداء

Koʻk-blue-زرقاء

Sariq-yellow-صفراء

Yashil-green-خضراء

Erkaklar uchun :

white-ابيض

black-اسود

blue-ازرق

yellow-اصفر

green-اخضر

Leksik jihatdan ingliz tilida uch xil jins koʻrsatilgan; erkaklik, ayollik va betaraflik, yaʼni erkak jinsini ifodalovchi barcha soʻzlar uchun erkak jinsi: bola, qirol, amaki, ota, shahzoda... va hokazo. Ayol jinsini ifodalovchi barcha soʻzlar uchun ayol jinsi: qiz, opa, malika, xola, malika... va hokazo. Jonsiz narsalar uchun neytral jinsi: kitob, uy, qalam, stol... va hokazo. Arab tilida esa faqat ikki xil jins, erkak va ayol jinsi mavjud. Ikkala tilda ham erkak jinsi belgilanmagan, arab tilida esa ayol jinsi belgilangan. Arab tilida neytral jins yoʻq, shuning uchun bunday turning yoʻqligi tilni oʻrganayotgan talabalar uchun muammo tugʻdirishi mumkin. Ikkinchidan, ikkala til ham koʻplik va birlik shaklga ega. Birinchidan, inglizcha otlar ikkita son farqiga ega (birlik va koʻplik), birlik bittani bildiradi va koʻplik ikki va undan ortigʻini bildiradi. Holbuki, arabcha otlar uchta sanoq sistemasiga ega. Birlikni bildiruvchi birlik, ikkilikni bildiruvchi qoʻsh shakl va koʻplikni bildiruvchi koʻplik shakli. Ingliz tilidagi birlik belgilanmagan, arab tilida esa ayollik birligi belgilar bilan belgilanadi.

Ingliz tilida muntazam koʻplik shakli birlikka -lar qoʻshimchasini qoʻshish bilan belgilanadi, arab tilida esa erkak tovushi koʻplik maʼnosi nominativ holatda / -u:n/, tuslovchida esa /-in/ qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasaladi. dativ holatlar. Ayol tovushining koʻpligi birlikka /-a:t/ qoʻshimchasini qoʻshish bilan belgilanadi. Koʻplik shakli orasidagi farq arab tilini ingliz tilini oʻrganuvchilar uchun ham, arab tilini oʻrganuvchilar uchun ham muammo tugʻdirishi mumkin.



Ta'marbuta bilan tugagan otga qo'shiladigan qo'shimchasi qo'shilsa, ta'marbuta so'zdagi so'nggi harf bo'lmay qoladi va u oddiy misolga aylanadi. (tolibatun) talaba qiz degan ma'noni anglatadi: (tolibatan) ikki talaba qiz degan ma'noni anglatadi. Arab tilida ikki xil ko'plik shakli mavjud: erkak va ayol otlarining tovushli ko'pligi va erkak va ayol otlarining siniq ko'pligi. Erkak ovozi ko'plik morfemalarni (-u:n) nominativ holatda, (-i:n) qo'shish orqali yasaladi. Ism barcha tillarning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Biz tilning mavjudligini otsiz tasavvur qila olmaymiz. Ushbu maqolada arab tili va ingliz tilidagi otlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi, bu esa gender tillari o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlaydi. Ingliz tilida grammatik jins va raqam ikki jins uchun bir xil ishlatiladi, arab tilida esa jins kategoriyasiga qarab raqam ohriga qo'shish orqali ifodalanadi.

### Muannas jinsi

### Muzakkar jinsi

Ayolustoz - معلمة	Erkak ustoz- معلم
Qiz bola talaba- طالبة	O'g'il bola talaba- طالب
Qiz bola o'quvchi- تلميذة	O'g'il bola o'quvchi- تلميذ
Ko'rsatish olmoshi bu- هذه	Ko'rsatish olmoshi bu- هذا
Ko'zoynak- نظارة	Kompyuter- حاسوب
Hamyon- محفظة	Uy telefoni- هاتف
Oq rang- بيضاء	ابيض
Qora rang- سوداء	اسود
Ko'k rang- زرقاء	ازرق

Isming nima? - ما اسمك؟

Ismim Muhammad- اسمي محمد

Qayerdansen? - من اين انت؟

Albaniyalikman- انا من البانيا

Isming nima? - ما اسمك؟

Ismim Omina- اسمي امينة

Qayerdansen? - من اين انت؟

Misrdanman- انا من مصر

Bu yerda birinchi savolda shuni ko'rishimiz mumkinki, erkak va ayol nutqida isming nima deb so'ralgan savolda erkak nutqida savolda "masmuka?" Ayol nutqida esa "masmuki?" ko'rinishida berilmoqda ya'ni ularning foydalanayotgan so'zlaridagi asosiy grammatik farq bu qo'shimchalarda va har bir so'z ularda jinsga qarab tanlab ishlatiladi. Ikkinchi savolda ham qayerdansen? deb so'ralgan erkak nutqidagi savolga e'tibor bersak, "min ayna anta?" Ayol nutqida esa huddi shu savol "min ayna anti?" ko'rinishida berilgan bundan ko'rinib turibdiki gender tushunchasi ya'ni jins kategoriyasi arab tili grammatikasida juda muhim va ahamiyatga ega.

Ko'rib turganingizdek, arab tilida gender ya'ni jins tushunchasi juda kuchli bo'lib, hamma narsa, ismlar, ranglar, hafta kunlari, hatto fe'llarning ham talaffuzi va yozilishi boshqacha. Xulosa qilib aytish mumkinki, har ikkala tilda ham gender tizimi mavjud. Ingliz tili tabiiy jinsga ega, arab tili esa grammatikdir. Ikkalasida ham erkak jinsi belgilanmagan, arab tilida esa ayol jinsi

belgilangan. Ingliz tili umumiy yoki ikki jinsli jinsni ko'rsatadi, masalan, erkak yoki ayol jinsi uchun ishlatiladigan otlar, boshqa tomondan, arab tilida bu otlarni erkak yoki ayol otlari sifatida ajratib turadi. Arab va ingliz tillari sonlar tizimida birlik va ko'plik ma'lumotlarini taqsimlaydi, arab tilida esa ingliz tilida mavjud bo'lmagan ikkilik ya'ni ikki taraflama mavjud. Arab tilidagi ko'plikning turlari bor: tovush erkak ko'plik, tovush ayol ko'plik va singan ko'plik. Gender tushunchasi ya'ni jins kategoriyasi arabcha otlarda keng tarqalgan bo'lib, aksariyat ayol otlarida jins qo'shimchasi mavjud. Ingliz tilida ham, arab tilida ham ot nutqning bir qismi sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Ingliz tilidagi otning maydoni cheklangan, ammo arab tilida uning maydoni kengdir. Ikkinchi tilni o'zlashtirish sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grammatik jins hatto yuqori darajadagi arab tili o'rganuvchilari egalari uchun eng qiyin tuzilmalardan biridir. Ingliz va arab tillari gender kelishuviga ega tillardir. Tildagi jins grammatik jins deb ataladi. Ingliz va arab tillarining grammatik jinsi muhokama mavzusidir. Ushbu maqoladagi gender kelishuvining tavsiflari gender haqida ingliz va arab tillarida ko'proq tushunish uchun o'rganiladi. Bundan tashqari, ingliz va arabcha tavsiflarni taqqoslash orqali o'xshashlik va farqlar topiladi. Tahlil tavsiflash usuliga tegishli. Har ikki til tushunchasini jins nuqtai nazaridan tavsiflash va ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan boshlanadi. Ingliz va arab tillarini solishtirgandan so'ng, ikkala tilning o'xshash tomonlari borligi aniqlandi. Birinchi o'xshashlik turli so'zlardan foydalanish va otlar oxiriga qo'shimchalar qo'shish. Ikkinchi o'xshashlik - erkak va ayolni ajratib turadigan uchinchi birlik olmoshlar. O'xshashliklardan tashqari, ular orasida farqlar ham mavjud. Farqlar fe'l va sifatdosh kelishigida. Ingliz tilida fe'l va sifat kelishigi mavjud emas, arab tilida esa ular mavjud.

#### REFERENCES

1. ALHAWARY, M. (2009). Arabic second language acquisition of morphosyntax. Yale University Press.
2. Cain, J., Weber-Olsen, M., & Smith, R. (1987). Acquisition strategies in a first and second language: Are they the same? *Journal of Child Language*, 14(2),
3. Carroll, S. E. (1989). Second language acquisition and the computational paradigm. *Language Learning*, 39(4),
4. Loos, Eugene. Et al 2003. Glossary of linguistic terms; what is noun?
5. Merriam – Webster Dictionary (online) Merriam – Webster, Incorporated 2014
6. Chomsky, N. (2002). *Syntactic Structures*. Walter de Gruyter: Berlin.

## МАШИНА ДЕТАЛАРИ ФАНИ ВА ФАНЛАРАРО АЛОҚАЛАР

Каримов Бахромали Тожиматович

ТошДТУ “ЕУТТ” кафедраси катта ўқитувчиси п.ф.ф.д., (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933661>

*Аннотация.* Ушбу мақолада сиёсий етук, малакали, ижодий фаол, ташаббускор, тизимли фикрловчи, ташилотчилик кўникмаларга эга бўлган, дунёқараши кенг мутахассисларни тарбиялашда “Машина деталлари” фани ва бошқа умумтехник фанлар орасидаги фанлараро алоқаларнинг амалий аҳамиятини ўрганиши долзарб масала эканлиги баён этилган.

Шунингдек фанлараро алоқалар “Машина деталлари” фани негизида барча умумтехник фанлардан олинган билимларни амалда қўллаши орқали тизимлаштирувчи, умумлаштирувчи ва интеграциясини таъминлаб, ишлаб чиқариши муаммоларини оқилона ҳал қилиши учун моҳирлик ҳамда криатив ёндошувни таъминловчи тизимли фикрлаш кўникмасини шакиллантирувчи дидактик тамойил эканлиги такидланган.

**Калит сўзлар:** фанлараро алоқалар, тизимлаштириши, умумлаштириши, интеграция, фикрлаш, кўникма, малака, шакиллантириши.

## ПРЕДМЕТ ДЕТАЛИ МАШИН И МЕЖПРЕДМЕТНЫЕ СВЯЗИ

*Аннотация.* В данной статье излагается актуальность, исследование практического значения межпредметных связей между предметом «Детали машин» и

другими общетехническими дисциплинами в воспитании политически зрелых, квалифицированных, творчески активных, инициативных, систематически мыслящих специалистов, имеющих организаторских умений и широких кругозоров.

Также подчеркивается, что межпредметное связи представляет собой дидактическим принципом, который систематизирует, обобщает и интегрирует знания, полученные из всех общетехнических дисциплин на основе предмета «Детали машин» с применением на практике и обеспечивает навыки системного мышления, которые обеспечивают умелый и креативный подход к решению производственные проблемы.

**Ключевые слова:** межпредметные связи, систематизация, обобщение, интеграция, мышление, умение, навык, формирование.

#### SUBJECT MACHINE PARTS AND INTER-SUBJECT LINKS

**Abstract.** This article outlines the relevance, research of the practical value of interdisciplinary connections between the subject "Machine parts" and other general technical disciplines in the education of politically mature, qualified, creatively active, proactive, systematically thinking specialists with organizational skills and broad horizons.

It is also emphasized that interdisciplinary communication is a didactic principle that systematizes, summarizes and integrates knowledge gained from all general technical disciplines on the basis of the subject "Machine parts" with practical application and provides system thinking skills that provide a skillful and creative approach to solving production problems.

**Key words:** interdisciplinary connections, systemsatization, generalization, integration, thinking, skill, skill, formation.

#### Кириш

Ҳозирги босқичда олий таълимнинг энг муҳим вазифаларидан бири, бу ғоявий сиёсий етук, малакали, ижодий фаол, ташаббускор, тизимли фикрловчи, ташкилотчилик кўникмаларга эга бўлган, дунёқараши кенг мутахассисларни тарбиялашдир. Ҳар қандай битирувчи моддий дунёда, жамоат ҳаётида, ишлаб чиқаришда вужудга келган воқеа, ҳодисаларни таҳлил қила олишлари ва энг муҳими, ишлаб чиқариш муаммоларини ҳал қилиш учун моҳирлик ҳамда криативлик билан ёндашиши лозим.

Шу билан бирга, ўқитиш амалиёти шуни кўрсатадики, кўплаб талабалар олинган билимларни бошқа фанларда янги билимлар ўзлаштиришга, ҳамда ўрганилаётган жараёнларни таҳлил қилиш ва тушунтириш учун қандай қўллашни билмайдилар, бу олий таълимдаги бутун ўқув жараёнининг самарадорлигига, яъни таълим сифатига салбий таъсир кўрсатади.

Бундан келиб чиқадики, таълимда машғулотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан талабалар хотирасида илгари олинган билимларни тез ва аниқ активлаштириш қобилятини ривожлантиришга ёрдам берадиган зарурий ўзаро боғлиқ фактлар, воқеа, ҳодисаларнинг сонига боғлиқ. Ушбу қобилятни шакллантиришда фанлараро алоқалар муҳим рол ўйнайди [4].

Олий таълим тизимида ўқитиш мазмуни ва услубларининг сезиларли ўзгариши зарурати туфайли фанлараро алоқалар муаммоси долзарбдир [6].

Юқорида келтирилган фикрларга таянган ҳолда айтиш мумкинки малакали, криатив ва тизимли фикрловчи етук мутахассисларни тайёрлашда, таълим жараёнида фанлараро алоқалар қўлланилишининг амалий аҳамиятини ўрганиш долзарб аҳамият касб этади.

### **Методология**

“Фанлараро билимлар” ўқувчиларнинг дунёни яхлит тасаввур қилиш билан тавсифланадиган концептуал фикрлаш услубини ривожлантиришга имкон беради [2].

Шунинг учун биз тадқиқотимиз давомида машина деталлари фанининг бошқа фанлар билан ўзаро алоқасини ўргандик. Машина деталлар фани мазмунини анализ қилиб, фаннинг тематик чизиғи кўп ўқув фанлари билан кесишади деган хулосага келиш мумкин масалан: чизмачилик, материаллар қаршилиги, материалшунослик, машина ва механизмлар назарияси, ўзаро алмашувчанлик ва техник ўлчамлар ва бошқалар. Чунки фаннинг вазифасига кўра кўзда тутилган компетенцияларни шакллантирувчи ва ривожлантирувчи мазмунда юқорида келтирилган фанлар мазмуни ўз аксини топган.

Ю.А. Самариннинг фикрига кўра фанлараро билимлар тизими, самарали билиш фаолиятга кодир инсоннинг ақлий ривожланиши кўрсаткичи деб ҳисобланиши мумкин [8].

Шундай қилиб, фанлараро алоқалар, ўрганилаётган мавзу масаласини ҳал этувчи мазмунни, уни тўлақонли ҳал этиш учун зарур бўлган мазмун билан тўлдириш, уларни бир бирини мантикий давоми сифатида интеграциясини таъминлаш, талабаларда ўрганилаётган объект, ходиса ёки ҳал этилаётган масала ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилишга олиб келади.

Улар, биринчидан, базавий фан негизидаги янги билимни тушуниши ва ўзлаштириш учун тўлақонли фундамент, малакалар шакллантириш ва компетенцияларни ривожлантиришга таянч бўлади; иккинчидан олинган билимларни умумлаштириш ва тизимлаштиришга имкон беради; учинчидан билимларнинг яхлитлигини, мажмуийлигини таъминлайди.

Талабаларни билим ва интизомга эмас, фикрлаш фаолиятига ўргатиш керак [10, 11].

“Машина деталлари” фани масаласи негизидаги фанлараро алоқалар, талабаларни аввалги билимларни активлаштириш, лойиҳалаш бўйича тизимли ва ижодий фикрлаш, билиш активлигини шакллантириш, мустақиллиги ва билиш жараёнига қизиқиши ривожланишини таъминлайди.

Бунда фанлараро характерга эга бўлган топшириқдан фойдаланган ҳолда билиш фаолиятини активлаштириш катта натижа беради.

Машина деталлари фанидаги барча машиналар учун умумий бўлган деталларни лойиҳалаш ва ҳисоблаш жараёнидаги фанлараро алоқаларни кўриб чиқамиз. Масалан вални ишчи чизмаси тайёр ҳолатга келтиргунча бўлган жараённи олайлик, бу жараён лойиҳа ҳисобини бажариб валнинг габарит ўлчамларини аниқлашдан бошланади. Ўлчамлар эса вални тайёрлашда ишлатилиши кўзда тутилган материалнинг механик хоссаларига боғлиқ. Сўнгра валнинг текширув ҳисоби бажарилиб энг хавфли кесим деб топилган кесимдаги мустақамлик захираси коэффициенти аниқланади.

Талабалар олинган билимлар асосида машина деталлари бирикмаларини мустақамлик ҳисобини бажаришни, турли узатмаларни лойиҳа ва текширув ҳисобларини амалга оширишни, вал ва ўқлар, таянчларини ҳисоблаш ва танлашни, детал ва узелларни конструкциялашни фанлараро маълумотлардан фойдаланиб ўрганишлари керак [1].



Валнинг дастлабки ўлчамларини аниқлаш формуласи, кейинги ўлчамларини аниқлаш бўйича тавсиялар машина деталлари фанига, материалнинг механик хоссалари эса материалшунослик фанига, уни чизиш чизмачилик фани қонун қоидаларга оид. Чизиш давомида ҳар бир юзанинг тозалиги, бошқа юзаларга нисбатан жойлашуви талабларини ўрнатиш ўзаро алмашувчанлик ва техник ўлчашлар фани қоидаларига оид бўлади. Натижавий тайёр чизма эса, машинасозлик технологияси фани меъёрларига мос келиши зарур. Демак бу жараёнда математика, чизмачилик, материалшунослик, материаллар қаршилиги, ўзаро алмашувчанлик ва техник ўлчашлар ҳамда машинасозлик технологияси фанларидаги мазмунлар, яъни ўрганилган билимлар, базавий фан ҳисобланган машина деталлари фани мазмуни негизида, ўзаро алоқага киришади. Умумийдан хусусий ҳолатга ўтади. Натижада рефлексив топшириқ ечими сифатида валнинг ишчи чизмаси ва унинг таркибига кирувчи ҳисоблашларда намоён бўлади.

Олий техник таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни, профессионални шакллантиришнинг самарали усуллари излаш, бўлажак бакалаврда олинган назарий ва амалий билимларни онгли равишда яхлит қўллаш кўникмаларини ривожлантириш зарурлигига олиб келади.

Демак техника олий ўқув юртларида бўлажак мутахассисларни техник тайёргарлигини такомиллаштириш ҳақида гап борганда, биз, фанлараро алоқалар умумтехник тайёргарликнинг якунловчи қисми бўлган “Машина деталлари” фанида алоҳида аҳамиятга эгаллигини, ва унинг мазмунига сингиб кетганлигини таъкидлай оламиз. Чунки бу фан ўз мавзуси масалаларини ҳал этишда тегишли таълим курслари мазмунида келтирилган маълумотларига (“Чизмачилик” “Материаллар қаршилиги”, “Материалшунослик”, “Машина ва механизмлар назарияси”, “Ўзаро алмашувчанлик ва техник ўлчашлар” ва бошқалар) таянади, шунинг учун у нафақат билим манбаи, балки маълум бир манода уларнинг истеъмолчиси ҳам саналади, .

Ян Амос Коменскийнинг такидлашича “Ўзаро алоқада бўлган ҳар нима, худди шу алоқа билан ўқитилиши керак” [5].

Демак, таълим жараёнида “Машина деталлари” фанини ўрганишда фанлараро алоқалар асосидаги ўқув жараёни ташкилий жиҳатларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Машина деталлари фанини мавзулари ўрганилишида фанлараро алоқалар иштирокидаги машғулотларни ташкил этишда, интеграциялашувчи фанлар ўқитувчилари бинар ва интеграциялашган фанлараро алоқалар шаклига эга бўлган дарслардан фойдаланишлари мумкин. Бинар дарслар-бу ўтказиш ва амалга оширишда ўрганилаётган мавзу мазмунида, мазмуни мужассамлашган бошқа фанлар сонига мос ҳолда икки ва ундан кўп фан ўқитувчилари қатнашувчи ўқув фанлари интеграцияси тури ҳисобланади.

Интеграциялашган маъруза ёки амалий машғулот мавзуси, фан ўқитувчилари томонидан турли хил нуқтаи назардан кўриб чиқилади. Бу дарсда икки ва ундан кўп ўқитувчилар қатнашади [3]. Фанлараро алоқалар қўлланадиган дарсларда ўқитишнинг электрон, техник, кўргазмали ва дастурий воситаларидан фойдаланиш, муаммоли вазиятлардан, фанлараро алоқаларни назарда тутган топшириқларни ечишидан, ишлашнинг гуруҳий шаклидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Юқорида такидланганларга таянган ҳолда куйидагича хулоса қилиш мумкин, машина деталлари фанида фанлараро алоқаларни тўғри амалга ошириш учун ўқитувчи:

– базавий ўқув фани мақсад ва вазифасига алоқадор мазмунга эга бўлган фанлар таркибини билиши;

– алоқадор фанларнинг фанлар кетма-кетлиги тизимида жойлашган ўрнини билиши;

– алоқадор фанларнинг базавий фан мақсад ва вазифаларига мос ҳолдаги таркибий ўрни ва ролини билиши;

– алоқадор фанларнинг базавий фан таркибига кирадиган назарий ва амалий мазмунини билиши;

– таълим тизимида фанлараро алоқалар қўлланилиши жихатлари, роли, мақсади аҳамияти ва долзарблигини тушиниши;

– фанлараро алоқалар қўлланилиши натижасида эришилиши мумкин бўлган натижалар ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш лозим.

Фанлараро алоқалар ўқитишнинг илмийлигини ва талабаларда илмий дунёқараш шаклланишини янги даражага олиб чиқади. Машина деталлари фанида фанлараро алоқаларнинг қуйидаги турлари амалга ошириши аниқланди:

– алоқадор ўқув фанлари орасида формулалар ва катталикларнинг белгиланиши бўйича фактик алоқалар;

– алоқадор фанлар доирасига кирувчи фанлар учун умумий бўлган тушинчалар шакллантирувчи тушунчавий алоқалар;

– алоқадор фанлар доирасига кирувчи фанлар илмий билимлари тизими- назарий алоқалар;

– алоқадор фанлар доирасига кирувчи фанлар амалий билимлари тизими- амалий алоқалар.

Фанлараро алоқаларни амалга оширилиши, бир хил ўқув материали турли фанлар мазмунида такрорланишини олдини олади, вақтни тежайди ва талабаларда кўникма ва малакалар шаклланишига қулай шароит яратади, таълимнинг амалий йўналиши самарадорлигини оширади.

Кўпгина муаллифларнинг таъкидлашича фанлараро алоқанинг амалга оширилиши, ўқитишнинг таълим берувчи, ривожлантирувчи ва тарбияловчи барча функцияларини амалга оширишга ёрдам беради.

Фанлараро алоқаларнинг муҳим функцияларидан бири, ўқувчиларнинг тизимли фикирлашини шакллантиришдир [7].

Машина деталлари фанида фанлараро алоқалар қуйидаги функцияларни бажариши мумкин:

– методологик функцияси, таълимни барча босқичларида юқори даражага кўтариш, мазмунинг мажмуийлиги ва уйғунлиги даражасини ошириш орқали техник жиҳатдан мажмуий ва тизимли фикирлашни шакллантириш ва ривожлантиришда намоён бўлади;

– таълим берувчи функцияси, кўпфанлилиқ асосида мажмуий билимлар тизимини шакллантириш, ва уларни техник топшириқларни ҳал этишда амалда қўллаш кўникмаларини шакллантиришида ифодаланади;

– ривожланиш функцияси, шаклланган мажмуий билимлар тизими асосида ассоциатив<sup>67</sup> ва тизимли фикрлаш қобилиятини шакллантириш ҳамда ривожлантиришда намоён бўлади;

– тарбиявий функцияси, меҳнаткашлик, сабр билан мақсадга интилиш, тоқатлилик каби барча инсонийлик фазилатлари ҳамда илмий дунёқарашини, шакллантиришда, тарбиянинг барча турлари бирлигини амалга оширилишида намоён бўлади.

–конструктив функцияси, мазмунни умумлаштириш, уйғунлаштириш ва амалийлаштириш фониди янги билимлар ўзлаштирилишини яхшилайдди, мажмуий асосга эга малакалар шакллантириб, билимларни мажмуий қўллаш компетенцияларини ривожлантиради.

Методологик функцияси асосида талабаларда техник қарашлар шакллантириш, техник объектга уйғунлашган мазмун нуқтаи назардан таъсир этиш, ўқитувчиларни ўзаро алоқага чорлаш, таълимни барча босқичларида юқори даражага кўтариш имкониятини яратади.

Таълим функцияси йўналишида фанлараро алоқаларни амалга ошириш учун, ўзаро алоқадор фанлар мазмунидаги қонуниятларини базавий фан негизида фактлар, тушунчалар, назариялар ва амалиёт даражасида синтез қилиш зарур.

Фанлараро алоқалар ўқув фанларини тизимга бирлаштириб, фақат ўзига хос функцияни бажаради – билимларни умумлаштиради ва шу асосда яхлит дунёқараш ва яхлит шахсни шакллантиради [9].

Ривожланиш функциялари бўйича фанлараро алоқаларни ассоциатив ва тизимли фикрлаш, кўникмалари ва малакалари ёрдамида амалга ошириш мумкин. Масалан, чизиш фаолияти, бу талабанинг барча техник фанларини ўрганишда одатий фаолиятидир. Шунингдек, ривожланиш функцияси талабалар ассоциатив ва тизимли фикрлашини ривожлантиришни назарда тутди.

Тарбиявий функцияси бўйича фанлараро алоқалар бир қатор фанлар учун умумий бўлган меҳнаткашлик, сабр билан мақсадга интилиш, тоқатлилик каби барча инсонийлик фазилатлари ҳамда илмий дунёқарашини, шакллантириш каби тарбиявий муаммоларини илгари суриш ва уларни турли фанлардаги ўзаро боғлиқ дарслар тизимида изчил ҳал этиш орқали амалга оширилади. Шундай қилиб, ўқув жараёнининг барча босқичларида, таълим муассасаси фаолиятининг барча турларида (дарслар ва мустақил таълимда) фанлараро алоқалардан фойдаланиш талабаларда ассоциатив ва тизимли фикрлашни шакллантириш ва ривожлантиришга ёрдам беради, деб таъкидлаш мумкин.

Конструктив функцияси асосида ўқув материали мазмуни, ўқув жараёни усули ва шакли такомиллаштирилади, фанлараро алоқаларнинг амалга оширилиши ўқитувчилардан ёндош фанлар бўйича биргаликда ўқитишнинг мажмуий мазмунга эга бўлган шаклини планлаштиришни талаб этади.

### **Натижа ва мулоҳазалар**

Ҳозирги кунда сиёсий етук, малакали, ижодий фаол, ташаббускор, тизимли фикрловчи, ташкилотчилик кўникмаларга эга бўлган, дунёқарашини кенг мутахассисларни

<sup>67</sup> Нерв-мия фаолияти билан боғлиқ бўлган алоҳида психик актлар, яъни тасаввурлар, фикрлар, ҳис-туйғулар орасидаги боғланиш ва шу боғланишга асосланган идрок.

тарбиялаш, талабалар хотирасидаги илгари олинган билимларни тез ва аниқ активлаштириш қобилиятини ривожлантирувчи зарурий ўзаро боғлиқ масалалар фактлар, воқеа, ҳодиса ва жараёнлар, фанлараро алоқалар қўлланилиши билан ўз ечимини топади.

Бир базавий фан негизида, талабанинг аллақачон шаклланган дастлабки билимлар тизимидаги элементлар, қисмлар, тушунчалар, тамойиллар, назарий ва амалий билимлардан унумли фойдаланиши натижада, билимларнинг уйғун ажралмас тизими, янги фанлараро билимлар дунёга келади.

### **Хулоса**

Фанлараро алоқалар, ўрганилаётган мавзу масаласини ҳал этувчи мазмунни, уни тўлақонли ҳал этиш учун зарур бўлган мазмун билан тўлдириш, уларни бир бирини мантикий давоми сифатида интеграциясини таъминлаш, талабаларда ўрганилаётган объект, ходиса ёки ҳал этилаётган масала ҳақида тўлиқ тасаввур хосил қилишга олиб келади. Улар, биринчидан, базавий фан негизидаги янги билимни тушиниши ва ўзлаштириш учун тўлақонли фундамент, малакалар шакиллантириш ва компетенцияларни ривожлантиришга таянч бўлади; иккинчидан олинган билимларни умумлаштириш ва тизимлаштиришга имкон беради; учинчидан билимларнинг яхлитлигини, мажмуийлигини таъминлайди.

Фанлараро алоқаларни самарали амалга ошириш учун ўқитувчи алоқадор мазмунга эга бўлган фанлар таркибини, фанлар кетма-кетлиги тизимида жойлашган ўрнинини, базавий фан мақсад ва вазибаларига мос ҳолдаги таркибий ўрни ва ролини, алоқадор фанларнинг базавий фан таркибига кирадиган назарий ва амалий мазмунини, таълим тизимида фанлараро алоқалар қўлланилиши жихатлари, роли, мақсади, ахамияти ва долзарблигини тушуниши, функцияларини билиши лозим.

### **REFERENCES**

1. Алексеева Н.А. Основы проектирования и конструирования узлов и деталей машин и механизмов [Текст] // Учебное пособие к расчетной работе для студентов экономических и других немашиностроительных специальностей технических вузов, изучающих курсы «Детали машин и механизмов» и «Основы проектирования и конструирования деталей машин» М.: МАИ, 2006. - 104 с.
2. Гурьев А. И. Межпредметные связи – теория и практика // Наука и образование. – 1998. – № 11. – С. 204. Тамберг Ю. Г. Развитие мышления ребёнка с использованием методик ТРИЗ // ТРИЗ интернет-школа. URL: <http://triz.natm.ru/scool.htm> (дата обращения: 21.04.2021).
3. Интегрированные и бинарные уроки [Электронный ресурс] // Интегрированные и бинарные уроки. URL: <https://multiurok.ru/files/intieghrirovannyie-i-binarnyye-uroki-что-обshchieго-iv-chiom-raznitsa.html>
4. Кулагин П.Г. Межпредметные связи в процессе обучения. – М.: Просвещение, 1981. 96 с.
5. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. Учпедгиз, Москва, 1955 г. 651с. стр. 287

6. Минур Нассер. Ретроспективный взгляд на межпредметные связи в обучении и их роль в профессиональной подготовке. Вестник РУДН, серия Психология и педагогика, 2008, № 2 с. 96-101.
7. Муромцева, О. В. Роль межпредметных связей в формировании и развитии системного мышления младших школьников / О. В. Муромцева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 6 (110). – С. 803-805. – URL: <https://moluch.ru/archive/110/26684/> (дата обращения: 21.04.2021).
8. Самарин Ю.А. Очерки психологии ума. М.: Высшая школа. Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1962 г. 504 с. с. 58.
9. Хасанов, А. А. Межпредметные связи как дидактическое условие повышения эффективности учебного процесса / А. А. Хасанов, К. З. Маматкаримов. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 20 (124). – С. 738-741.
10. Шукшунов В. Е., Взятыхшев В. Ф., Романкова Л. И. Взгляд в XXI век / /Высшее образование в России. – 1993. – № 4.
11. Шукшунов В. Е., Взятыхшев В. Ф., Романкова Л. И. Через развитие образования – к новой России. – М., 1993.

## CHOLG'U IJROCHILIK TARIXI VA QASHQAR RUBOB IJROCHILIK AMALIYOTI

**Soyibov Tohir**

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi  
xalq cholg'ulari bo'limi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7934237>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada cholg'u ijrochilik tarixi va qashqar rubob ijrochilik amaliyoti haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirilgan. Mavzu mazmunini ochib berishda rasmlardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* cholg'u ijrochilik tarixi, qashqar rubob, ijrochilik san'ati.

## THE HISTORY OF MUSICAL INSTRUMENT PERFORMANCE AND THE PERFORMANCE PRACTICE OF KASHKAR RUBOB

*Abstract.* This article talks about the history of musical instrument performance and the performance practice of kashkar rubob. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are presented throughout the article. Pictures are used to reveal the content of the topic.

*Key words:* history of musical instrument performance, kashkar rubob, performance art.

## ИСТОРИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА НА МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ И ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ПРАКТИКА КАШКАРНОГО РУБОБА



*Аннотация.* В данной статье рассказывается об истории исполнительства на музыкальных инструментах и исполнительской практике на кашкар рубобе. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы представлены на протяжении всей статьи. Картинки используются для раскрытия содержания темы.

**Ключевые слова:** история музыкально-инструментального исполнительства, кашкар рубоб, исполнительское искусство.

Bir qancha yozma manbaalarda ming yillar mobaynida musiqa va musiqa cholg'ulari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik san'ati, hamda, mohir sozandalar haqidagi qimmatli ma'lumotlar cholg'u ijrochiligining boy tarixidan darak beradi.

Tarixiy manbaalardan ma'lumki, boshqa ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi Markaziy Osiyo xalqlarida ham musiqa ijrochiligi qadimdan xalqning to'yutantalarida, xalq sayillari va bayramlarida yakka holda, turli katta-kichik guruhlar ko'rinishida shakllanib, keyinchalik hukmdorlar saroylarida maxsus jamoalar shaklida rivojlanib, takomillashib uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda bizgacha o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida yetib kelgan.

XX-asr boshlarida O'zbekistonda bir qancha folklor etnografik ansambllar, xalq teatrlarining tuzilishi, Turkiston xalq konservatoriyasi va ko'plab turli ijodiy jamoalarning shakllanishi, o'zbek musiqasining tadqiq qilinishi, ularning yozib olinishi kabi ko'plab ishlar, musiqa va ijrochilik san'atining yanada rivojlanishiga, taraqqiy topishiga turtki bo'ldi.<sup>1</sup>

Keyinchalik O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida birin-ketin tuzilgan "Shodlik", "Lazgi", "Go'zal", "Zarafshon" va "Bahor" kabi ashula va raqs ansambllari, "T.Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri" shuningdek, O'zteleradiokompaniyasi qoshidagi "Y.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli", "D.Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri", hamda so'nggi yillarda cholg'u ijrochiligi san'atiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan "So'g'diyona" xalq cholg'ulari davlat kamer orkestri va viloyatlardagi ko'plab ashula va raqs ansambllarining O'zbekistonda va horijiy mamlakatlardagi konsert faoliyatlarida ijrochilik san'ati, xususan, qashqar rubobi ijrochiligi ham targ'ibot qililib, rivojlantirib kelinmoqda. Bu jamoalar tarkibida mashhur rubobchi sozandalar ijod qilishgan va ijod qilmoqdalar.

1936-yilda Farg'ona vodiysining so'lim Shohimardon qishlog'ida bo'lib o'tgan xalq saylida ustoz M.Mirzayev bir uyg'ur sozandasidan qashqar rubob cholg'usini xarid qiladi va Toshkentga olib kelib usta Usmon Zufarov bilan bu cholg'uni takomillashtiradi, ya'ni uning menzurasi uzaytirilib, dastasiga latun qalamchalari o'rnatiladi. Natijada bugungi ko'rinishdagi rubob cholg'usini yaratadilar. Tez orada bu cholg'u ustoz M.Mirzayev ijrosi orqali o'zbek musiqa ijrochiligida o'z o'rniga ega bo'lib, cholg'uning mohir sozandalari ham yetishib chiqqa boshlaydi. O'z navbatida qashqar rubob ijrochilik san'ati shakllanib, rivojlanib bordi. Bugungi musiqa ijrochilik san'ati, shuningdek musiqiy ta'limda qashqar rubob cholg'usi yetakchi cholg'ulardan biriga aylanib ulgurgan. Bu cholg'u bo'yicha mashhur ustoz, O'zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Qobiljon Usmonov, Shavkat Mirzayev, Tohir Rajabiy, Zamira Rahmatullayeva, Odiljon Nazarov kabi taniqli sozanda va san'atkorlar, ko'plab Respublika va Xalqaro tanlovlar g'oliblari yetishib chiqdilar. Oliy ta'lim va o'rta- maxsus ta'lim muassasalarida hamda, "Bolalar musiqa va san'at" maktablarida ushbu cholg'u bo'yicha ta'lim yo'lga qo'yilgan.



Cholg' u ijrochilik san'atini kompozitorlar va bastakorlar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa M.Bafoyev, S.Jaliln, M.Sautovning, A.Mansurov, R.Abdullayev, H.Rahimov, M.Otajonovn, O.Abdullayeva, J.Charshemov kabi kompozitorlarni qashqar rubob, tanbur, ud, dutor, g'ijjak, afg'on rubob, doyra va xalq cholg'ulari orkestri uchun yaratgan asarlari o'zining yorqinligi, mazmunliligi, cholg'uga mosligi, cholg'u imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishi, ayniqsa, muayyan cholg'uda ijrochilikni rivoshlantirishga xizmat qilishi bilan yaqqol ajralib turadi.

Shuningdek, O'zbekiston kompozitorlari qashqar rubobi uchun yaratgan maxsus asarlari rubob ijrochiliginng yangi-yangi ufqlarini ochib bermoqda. So'nggi yillarda yaratilayotgan maxsus asarlar ijro hamda o'quv dasturlarini boyitib kelmoqda. Kompozitorlar ijodida qashqar rubob cholg'usi uchun yaratilayotgan asarlarda milliylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvini kuzatishimiz mumkin. Mualliflardan S. Hayitboyevning "Ballada", T.Azimovning "Durdona", M.Bafoyevning "Afsona", Q.Komilovning "Fantaziya", "Mohim" poemasi, M.Otajonovning Qashqar rubob va orkestr uchun Konsert, O.Abdullayevaning Qashqar rubob va orkestr uchun Konsert, R.Abdullayevning Qashqar rubob va simfonik orkestr uchun Konsert, J.Charshemovning "Tarix sadosi", N.Safarovning "Sharqona fantaziya" kabi asarlarda milliy ohanglar zamonaviy garmoniyalar bilan yo'g'rilgan holda yaratilganligi bilan ijrochilar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Qashqar rubob ijrochiligi mohir sozanda va bastakorlar ijodi bilan chambarchas bog'liq. Bastakor va mashhur sozanda, O'zbekiston xalq artisti *M.Mirzayev* o'tgan asrning 50-60 yillarida juda sermazmun ijod qildi. Uning qashqar rubobi uchun yaratgan har bir asari xalq orasida tez ommalashdi. Ustozning ham bastakor sifatida, ham sozanda sifatida sermahsul ijodi qashqar rubobi sozini o'zbekning har bir xonadoniga olib kirdi. Qashqar rubobida o'z farzandi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sh.Mirzayev bilan birgalikda ijro etgan duetlari o'zining takrorlanmas jozibasiga ega.

Bastakorning aynan qashqar rubobi uchun bastalagan “Shodlik”, “Marg’ilon qizlari”, “Intizor etma”, “Gulrux”, “Orzu dil”, “Dil kuylasin”, “Lirik kuy” kabi o’nlab musiqalari, nafaqat qashqar rubobi uchun yozilgan asarlar repertuarini boyitdi, balki, qashqar rubobi ijrochiligining rivojlanishiga, ijrochilik madaniyatining yuksalishiga, qashqar rubobining yangidan yangi ijro imkoniyatlarini ochilishiga sabab bo’ldi.

Qashqar rubobchi sozandalardan *E.Shukrullayev* va *A. Bahromovlar* ijodi ayniqsa tahsinga sazovordir. Bu sozandalar qashqar rubobida ikki yo’nalishda ijro etgan va jahon festivali g’oliblari bo’lish bilan birga, o’zbek san’atini boshqa mamlakatlarda namoyish qilgan dastlabki rubobchilardandir.

M.Mirzayevning taniqli shogirdlaridan biri O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist *Qobiljon Usmonov* o’zining ko’p yillik ijodiy faoliyati davomida ijrochilik san’ati rivojiga katta hissa qo’shgan. Uning dastlabki yaratgan “Boshlang’ich rubob darsligi” kitobi keyingi avlod rubobchilari uchun asosiy o’quv qo’llanma bo’lib xizmat qildi. D.Zokirov nomidagi xalq cholg’ulari orkestrida qariyb 40 yillik faoliyati davrida ko’plab kuylarni, turli xil konsertlarda, televideniya va radio to’lqinlarida ijro etgan.

Qashqar rubobi ijrochiligida o’z o’rniga ega bo’lgan mohir sozandalardan biri bu – *Adham Xudoyqulov*dir. O’ziga xos ijro uslubiga ega bo’lgan bu sozanda ijro etgan har bir kuy texnik jihatidan murakkabligi, jozibasi va to’laqonliligi bilan sozandalar va tinglovchilar diqqatiga sazovor bo’lgan. Respublika radiosi fondiga ushbu sozanda ijrosida ko’plab kuylar yozib olingan.

O’zbekistonda mashhur qashqar rubobchi sozandalardan yana biri *Ariel Boboxonov*dir. U M.Ashrafiy nomidagi Buxoro san’at bilim yurtidagi o’zining ko’p yillik o’qituvchilik faoliyati davomida ko’plab yetuk rubobchi sozandalarni tarbiyalash bilan birga, doimiy ijrochilik faoliyatini ham olib borgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek jahon yoshlar festivali g’olibi, Respublika yosh ijrochilar tanlovi g’olibi, ko’plab musiqa anjumanlarida, san’at dekadalarida tinglovchilar hamda mutaxassislarining olqishlariga sazovor bo’lgan bu san’atkor, shashmaqom ijrochiligini mukammal egallash bilan birga, zamonaviy kompozitorlar asarlarini ham ijro etgan sozandalardandir. Ustozning qashqar rubobi uchun bastalangan “Xurram”, “Feruza”, “Buxoro go’zali” kabi kuylari juda mashhur bo’lib, rubobchilarning eng sevimli asarlaridan biriga aylandi. Bir necha bor Germaniyada ijodiy gastrollarda bo’lib, nemis tinglovchilari olqishlarini olgan A.Boboxonov ijrosida yozib olingan ko’plab kuylar O’zbekiston radiosi oltin fondida saqlanmoqda.





Respublikamizdagi ko'plab sozandalar ustози, Toshkent Davlat konservatoriyasining sobiq professori *Sulaymon Taxalov*ning cholg'u ijrochiligi san'atiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. S.Taxalov ijrochilik faoliyati bilan birga o'zining o'qituvchilik faoliyati davomida T.Rajabiy, R.Qosimov, I.Ertoyev, Sh.Nuritdinov, B.Ergashev, R.Karimov, O.Nazarov kabi o'nlab etuk ijrochi- sozandalarni tarbiyaladi. S.Taxalov ikki yo'nalish, ya'ni ham an'anaviy ijro yo'nalishi, ham akademik yo'nalishini mukammal egallagan san'atkordir. Uning ijrosidagi kuylar gramplastinkalarga va O'zbekiston radiosi oltin fondiga yozib olingan.

Ustoz san'atkor M.Mirzayevning farzandi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor, mashhur rubobchi sozanda *Shavkat Mirzayev* qashqar rubob ijrochiligini tinimsiz rivojlantirib, targ'ib qilib kelmoqda. Ustozning ishlarini davom ettirib ko'plab kuy va qo'shiqlar bastalash bilan birga, el suygan xonandalar bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Dunyoning o'nlab mamlakatlarida o'z san'atlarini namoyish etgan.

Taniqli rubobchi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist *Tohir Rajabiy*ning ijro uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. U akademik yo'nalish bilan bir qatorda, an'anaviy ijro yo'nalishlarini puxta egallagan san'atkorlardan biridir. Uning ijrosida 100 dan ortiq kuy va qo'shiqlar hamda, kompozitorlar asarlari yakka rubob ijrosida ansambllar, xalq cholg'ulari orkestri va estrada simfonik orkestri jo'rligida magnit tasmalariga yozilib, O'zbekiston radiosi oltin fondida saqlanmoqda. T.Rajabiy Vengriya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda gastrollarda bo'lib, o'zining mohirona ijrosi bilan tinglovchilar olqishlariga sazovor bo'lgan.

#### REFERENCES

1. Y.Rajabiy "O'zbek xalq musiqasi" I jild T., 1955
2. I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T., 1963
3. A.Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" "Fan". T.,1993
4. A.Odilov "O'zbek cholg'ularida ijrochilik tarixi". T. "O'qituvchi", 1995.

5. Ne'matillo Mo'jazy "Tavorixi musiqiy" Pekin millatlar nashriyoti. Pekin. 1982.

**SEHRLI FORTEPIANO TOVUSHLARI**

**Bekmurodova Gavhar Bahodir qizi**

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

Aktyorlik va xoreografiya bo'limi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7934274>



*Annotatsiya.* Mazkur maqolada fortepiano cholg'usi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirilgan. Mavzu mazmunini ochib berishda rasmlardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* kuyning eng kichik ifodali bo'lagi, fortepiano tovushlari, ijrochilik san'ati.

### MAGIC PIANO SOUNDS

*Abstract.* This article talks about the piano and its features. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are presented throughout the article. Pictures are used to reveal the content of the topic.

*Key words:* the smallest expressive part of the melody, piano sounds, performance art.

### ВОЛШЕБНЫЕ ЗВУКИ ФОРТЕПИАНО

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о фортепианном инструменте и его характеристиках. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы представлены на протяжении всей статьи. Картинки используются для раскрытия содержания темы.

*Ключевые слова:* наименьшая выразительная часть мелодии, звуки фортепиано, исполнительское искусство.

Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg'u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg'ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg'usi o'zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o'rin tutadi. Forteplano musiqiy tadbirlarning har qanday sharoitlarida yetakchi hamda ko'makchi cholg'u sifatida ishlatilishi mumkin. Shu bois fortepiano cholg'usi ixtisosligi bo'yicha saboq oluvchilar boshqa cholg'ularga nisbatan ko'p.

Musiqa asarining ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obraz ta'sirini boyitib, tinglovchilarga eshittirish, tovushning qanday kengaytirilishini ko'rsatish uchun musiqada maxsus belgilar qo'llaniladi. Ushbu belgilar nomlari italyanchadan olingan bo'lib, ular dinamik belgilar deb ataladi.

Ritm (usul) – musiqiy tovushlarni muayyan qancha vaqt davomida kelishiga aytamiz. Metr (vazn) – ritmning o'lchov vositasiga kiradi. U bir xil cho'zimdagi muayyan ritmik bo'laklarning to'xtovsiz takrorlanishidir.

Ohang (melodiya) – kuyning eng kichik ifodali bo'lagi bo'lib, bir necha ketma-ket olingan tovushlardan hosil bo'ladi.

Temp (sur'at) Musiqa asarining ijro etilish sur'atiga - temp deb ataladi. Templar asosan uch xil ko'rinishda bo'ladi: oid templar, o'rtacha templar va tez templar. Og'ir templar Largo

(largo) – juda vazmin, juda cho‘zib. Lento (lento) – vazmin, cho‘zib. Adajio (adajio) – og‘ir. Grave (grave) – juda og‘ir. O‘rtacha templar Andante (andante) – shoshilmasdan, o‘rtacha og‘ir. Moderato (moderato) – o‘rtacha tez. Sostenuto (sotsenuto) – salobatli. Allegretto (allegretto) – jonlanib. Tez templar Allegro (allegro) – tez. Vivo (vivo) – jonli, chaqqon. Vivace (vivache) – jadal. Presto (presto) – tez, oshiqib. Prestissimo (prestissimo) – juda tez.



Fortepiano cholg‘usi o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda ijro etishda tovushni tiniq, ravon ijro etish uchun ularning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan bilish hamda ularda ijro etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talab etiladi. Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning aniq ijro etishga erishiladi. Bir nechta musiqiy jumladan esa asarning qismi paydo bo‘ladi. Yangi asarlarni o‘zlashtirish jarayonida har bitta fraza, jumla uchun alohida tovush kuchi talab etilishi mumkin. Ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mashq va kichik kuylar Taklif etilayotgan mashqlarni turli shtrixlarda va har xil harakatlarda qo‘llab, barmoqlar texnikasining fikrlash tezligini birinchi darslardan boshlab rivojlantirish zarur.

1)

2)

3)

4)

Ko'p miqdorda turli balandlikdagi tovushlarni ikki qo'lda ijro etish uchun birbiriga chiziq bilan bo'lingan ikkita nota yo'ldan foydalaniladi: yuqoridagi qator o'ng qo'lda, pastdagi qator esa chap qo'lda ijro etish uchun mo'ljallangan. Ularning "akkolada" deb nomlanuvchi yoy birlashtirib turadi. O'quvchilar o'rganishlari lozim bo'lgan eng birinchi kichik asarlar – bir ovozli qo'shiqlar bo'lib, ular navbatma-navbat ikki qo'l bilan chalish uchun mo'ljallangan.

### Qo'zichoq

Polyak xalq qo'shig'i

Andante-shoshilmasdan

Qo - ra ko'z - li

Qo - ra ko'z - dan

Uch - ta qo' - shiq

-man.

Fortepiano ijrochiligining boshlang'ich davrida ijro repertuarining ko'lemi nihoyatda kengdir. Jahon kompozitorlarining musiqiy namunalari bilan birga, O'zbekiston

kompozitorlarining milliy ruh bilan sugʻorilgan koʻplab namunalari, oʻzbek xalq kuylarining fortepiano uchun moslashtirilgan variantlari mavjuddir. Talabalarning badiiy ijrochilik tafakkurini boyitish, texnik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun turli xarakterdagi asarlarni tanlash, zamonaviy kompozitorlarning asarlari bilan birga, Oʻzbekiston va jahon musiqa madaniyati durdonalaridan namunalar bilan tanishib borish muhim ahamiyatga ega. Oʻquvchilar oʻrganishi kerak boʻlgan ilk asarlar bir ovozli qoʻshiq namunalari boʻlib, ular asta sekin ikki qoʻl bilan chalish uchun moʻljallanadi. Ikki qoʻl orasida taqsimlangan cholgʻu kuyini yanada aniq tushunish uchun sekin tempda kuyning sheʼriy matnini qoʻshiq qilib kuylash juda foydalidir.

### REFERENCES

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, oʻquv qoʻllanma. Gʻ.Gʻulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. Kisel E., Natanson B., Nikolayev A., Erejenskaya N. “Shkola igri na fortepiano”, Izdatelstvo “Muzika”, Moskva, 1975.
3. Azimov X.. Fortepiano darsligi. – T., “Oʻqituvchi”, 1997.
4. Shteynpress B., Yampolskiy I. “Enstiklopedicheskiy muzikalniy slovar”, Moskva, 1959.
5. Hayitboyeva D. Notani varoqdan oʻqish va fortepiano ansambli. – T., “Uzbekiston”, 2010.
6. Ташпулатова Д. Работа над этюдами Г.Мушеля в фортепианном классе. -Т. 2011.
7. Jahon va Oʻzbekiston kompozitorlarinig asarlari. Turli yillar nashrlari.

### FORTEPIANO CHOLGʻUSIDA TEXNIK MAHORATNI OʻSTIRISH

**Turaqulova Kamola Rustam qizi**

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7934300>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Fortepiano cholg'usida texnik mahoratni o'stirish haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirilgan. Mavzu mazmunini ochib berishda rasmlardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* Fortepiano sinfidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, matn ustida savodli ishlash, ijrochilik san'ati.

### DEVELOPING TECHNICAL SKILLS IN THE PIANO

*Abstract.* This article is about developing technical skills in the piano. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are presented throughout the article. Pictures are used to reveal the content of the topic.

*Keywords:* education and upbringing of students in the piano class, literate work on the text, performance art.

### РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНО.

*Аннотация.* Данная статья посвящена развитию технических навыков игры на фортепиано. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы представлены на протяжении всей статьи. Картинки используются для раскрытия содержания темы.

*Ключевые слова:* обучение и воспитание учащихся по классу фортепиано, грамотная работа над текстом, исполнительское искусство.

Fortepiano sinfidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonining asosi turli musiqa asarlari ustida ishlashdan iborat bo'lib, ular ana shu jarayonda har xil jamlar va uslublar bilan tanishadilar, asarlarning musiqiy tilini o'zlashtiradilar, matn ustida savodli ishlash malakalarini egallaydilar, texnikaviy qiyinchiliklarni yengish yo'llarini o'rganadilar va hokazo. O'quvchilar umumiy musiqiy kamol topish, pianinotchiga xos bilim, ko'nikma va malaka orttirish bilan birga asta-sekin nazariy ma'lumotlar ham to'playdilar, musiqa asarlarini tahlil qilishni o'rganadilar, O'zlarining ichki eshitishlarini, diqqat va nazorat qilishni, tasavvur va ijodiy fantaziyalarini rivojlantiradilar hamda takomillashtiradilar. Pedagog fortepiano sinfidagi yoshi va xarakter xislatlari, musiqiy qobiliyati, moyilligi va qiziqish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar bilan shug'ullanishda badiiypedagogik ta'sir ko'rsatishning juda ko'p usullari hamda vositalaridan foydalanishi kerak. Shu bilan birga, har bir o'quvchi uchun o'ziga xos

Jahon musiqa tarixining muhim sohalaridan hisoblangan fortepiano musiqasi ijrochiligi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yakkaxon ijrochilik uslubiga asoslangan bo'lsa-da u ansambl holdagi



ijroni ham taqozo etadi. Shu bois, musiqiy ta'lim muassasalarining fortepiano mutaxassisligini o'qitish bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va rejalarida fortepiano ansambli ham muhim o'rin egallaydi. Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi fortepiano ansambli sinfida o'quvchi musiqa savodining boshlang'ich bosqichini ado etibgina qolmay, balki, ilk bor hamkorlikda ijro etish ko'nikmasini ham o'zlashtiradi. Binobarin, aynan hamkorlikda ijro etish ko'nikmasi orqali yosh pianinochi jo'rlik san'ati bilan yaqindan tanishishi mumkin. Zero, aksariyat pianinochilar yakkaxon ijrochilik bilan birga, jo'rlik san'ati orqali ham o'z san'atini ifoda eta oladi. O'zbekistondagi musiqiy ta'lim muassasalarida fortepiano ansamblini o'qitish ko'p yillar mobaynida izchil ravishda olib borilgan bo'lsa-da, ushbu sohaning uslubiyaatini aks ettiruvchi qo'llanmalar amaliyotda mavjud bo'lmagan. Ammo ushbu sohaga tegishli bo'lgan musiqiy namunalar etarli bo'lgani bois, ustozlar o'z shogirdlarining ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda musiqiy asarlarni tanlab olib, ijro mahorati ustida ish olib borganlar.

Fortepiano ansambli janri qadim davrlarda Evropada mavjud bo'lgan. Mazkur janr XVIII asming ikkinchi yarmiga kelib rivojlana boshladi va ulkan mashhurlikka erishib, musiqiy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Tabiiyki, bu janr boy va xilma-xil musiqiy adabiyotning ham vujudga kelishiga sabab bo'ldi. To'rt qo'l bo'lib ijro etish uchun mo'ljallangan asarlarni yaratishga XIX asming deyarli barcha kompozitorlari alohida hissa qo'shganlar. XX asrga kelib ushbu janr yanada taraqqiy etib bordi., Shu o'rinda savol tug'iladi. Fortepiano duetining shu qadar tez gullabyashnashining sababi nimada bo'lishi mumkin? Awalambor, bu janr tenghuquqlik imkoniyatlarini yaratadi, uy sharoitida musiqa ijro etish an'alarini keng targ'ib etadi. Bundan tashqari, XVIII asming oxiri va XIX asr boshlarida yaratilgan to'rt qo'llik asarlar pianistik mahorati o'rta darajada bo'lgan ijrochilar uchun mo'ljallangan bo'lib, aksariyat havaskorlar uchun qo'l kelardi. Pedagogik amaliyotda ham bu asarlardan muvaffaqiyatli foydalanilgan. To'rt qo'llik ijro katta va kichik yoshdagi ijrochilarda ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirar edi. Fortepiano duetini janrining mashhur bo'lishiga yana bir sabab shundaki, to'rt qo'llik ijro orkestr effektlarini ifodalay olishga imkon yaratdi. XVIII asming oxiri va XIX asr boshida vujudga kelgan orkestr asarlarining to'rt qo'llik talqini fortepiano duetining musiqiy-ma'rifiy vazifasini belgilab berdi. Tez orada opera, simfonik, kamer-ansambl asarlari o'zining to'rt qo'llik talqini bilan birgalikda chop etila boshladi va bu hoi an'ana tarziga kirib qoldi. Shunday qilib, XIX asrda tinglovchilar turli xildagi janrlar bilan aynan shu tarzda tanisha boshlaganlar. Qanchadan-qancha buyuk asarlar to'rt qo'llik talqin bois mashhurlikni q'lga kiritdi. Musiqiy ta'lim jarayonida barcha musiqachilar fortepiano sinfl (umumiy va maxsus)dan o'tadilar. To'rt qo'llik ijro ansambli esa o'quv

muassasasida ham, uy sharoitida ham qo‘l keladigan janr bo‘lib, uning musiqasi san‘atidagi o‘rni beqiyosdir.

Ma‘lumki, har qanday cholg‘uni ijro etishni o‘rganishda avval cholg‘u oldida to‘g‘ri o‘tirib, gavnani, oyoq-qo‘llarni erkin tutish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish muhimdir. Bu ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi ijrochilik holatining to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi. Fortepiano ijrochiligida 3 ta tayanch nuqtalari mavjud bo‘lib, bular oyoq holati, o‘rindiqla (stulda) o‘tirish holati va “qo‘l holati” (barmoqlar)dir.

1. Oyoq holati — bir oz oldinga surilgan holda yerga yoki maxsus taxtachaga tayangan bo‘lishi lozim.



2. O‘rindiqla (stulda) o‘tirganda, butun o‘rindiqla emas, balki uning yarmiga mustahkam o‘tirish kerak. O‘rindiqla balandligi esa maxsus burama moslama yoki taxtachalar bilan shogirdga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Uning balandligi shunday qo‘yilgan bo‘lishi kerakki, unda tirsaklar klavishdan pastda emas, balki ular bir tekis balandlikda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.



3. Barmoqlar uchinchi - eng muhim tayanch nuqtalardan biri sanaladi. Gavdani tik tutgan holda qomatni biroz oldinga, cholg'uga yaqin tutib, "qo'l holati" (barmoqlar)ni qo'yganda bilak tepaga ko'tarilmagan, tirsak tanadan 300 burchak ostida bo'lishi maqsadga muvofiq. Yelkalar erkin holatda hamda o'quvchining qaddi rostlangan bo'lishi lozim. Qo'llar yumaloq va klavishni bosganda barmoqlar uchiga tayangan bo'lishi kerak.



## REFERENCES

1. Djamalova D., Utayeva N.. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016. 2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н. “Школа игры на фортепиано”. Издательство “Музыка”, Москва, 1975.
2. A.Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” “Fan”. T.,1993
3. A.Odilov “O‘zbek cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T. “O‘qituvchi”, 1995.
4. Ne‘matillo Mo‘‘jaziy “Tavorixi musiqiy” Pekin millatlar nashriyoti. Pekin. 1982.

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Baltamuratova Aksingul

Tulaganova Sevara

Nurmuratova Iroda

Sharovitdinova Maftuna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7934330>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada boshlang'ich sinfi o'qituvchilarida kreativlikni shakllantirishning pedagogic masalalari va ahamiyatlari haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* boshlang'ich sinfi o'qituvchilari, kreativlik, ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi.

## IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

*Abstract.* This article talks about the pedagogical issues and importance of creativity formation in primary school teachers. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic were used throughout the article.

*Key words:* primary school teachers, creativity, today's development of scientific knowledge.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Аннотация.* В данной статье говорится о педагогических проблемах и важности формирования творческих способностей у учителей начальных классов. На протяжении всей статьи использовались обоснованные мнения и комментарии в рамках темы.

*Ключевые слова:* учителя начальных классов, творчество, современное развитие научных знаний.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chukur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa umumta'lim maktablarida o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi maqolamiz mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinshi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko'plab G'arb mamlakatlarida hamda Rossiya davlatlarida turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan. Masalan, N.N. Nechaev, Ya.A. Ponomarev, B.M. Teplov, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda o'rgangan bo'lsalar, N.A. Berdyaev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiyalar kreativlikning ma'naviy,



psixologik jihatlarini tahlil etgan. E.Yu.Artem`eva, A.Yu. Agafonov, M.M. Baxtin, A.N. Leont`evlarning ilmiy ishlarda kreativlik shaxsning sifati sifatida tahlil etilib, kreativlikni tashxis qilish masalalari tahlil etilgan. Ayniqsa kreativlikni tashxis qilish metodlarini ishlab chiqish ilmfan sohasidagi asosiy muammolarning biri hisoblanadi. XXI asrga kelib O`zbekiston Respublikasining ta`lim soxasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa pedagogika fanining alohida va yosh tarmog`i sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada Ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. J.G`.Yo`ldoshev, R.A.Mavlanova singari ko`plab pedagog 4 olimlarimizning ilmiy ishlarida kreativlik – bu innovatsion faoliyatning alohida ko`rsatkichi sifatida tahlil etilgan. R.A.Mavlanova o`zining «Boshlang`ich ta`limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o`quv qo`llanmasida kreativlikning o`zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to`xtab o`tgan. Qo`llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jixatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob`ekti sifatida tatqiq etilmagan. Ayniqsa boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagogo`qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi.



Bizga ma`lumki, «intergratsiya» so`zi lotincha «integratio»-«tiklash», «to`ldirish», «integer» - «butun» ma`nolarini bildiradi. Ta`limga integrativ yondoshish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob`ektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo`lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog`liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog`liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o`rganish ob`ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta`limida qo`llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta`kidlanishicha, o`quvchilarni o`qitish, rivojlanishi va tarbiyasining

muvoftaqlatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o`z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo`lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog`liq. Ta`limdaga integratsiya o`quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko`rib chiqiladi. O`qituvchilarning kreativlik faoliyati ham alohida o`rganishni talab etadi. E`tirof etilishicha, kreativlik ma`lum masalaning echimini topishdagi axborotlarni tez sur`atda foydalanish qobiliyatiga bog`liq. Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog`liq bo`lmagan holatda - individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o`rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko`rsatkichlari bilan belgilanadi. Kreativlikni o`rganish asosan ikki yo`nalishda olib boriladi:

**1-yo`nalish.** Kreativlikni intellekt bilan bog`liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog`liq ta`limiy jarayonlarni belgilashni o`rganadi.

**2-yo`nalish.** Shaxs va uning psixologik o`ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg`u berilishi bilan tasniflanadi. Intellektual faktorlarni ta`limiy yo`nalishlarda qo`llanilishida, kreativlikni o`rganish, baholashda 1950-yillarda J.Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko`rsatadilar. Ular orasida:

- fikrning turiligi (ma`lum vaqt oralig`idagi g`oyalarning miqdori),
- fikrning (bir g`oyadan ikkinchisiga ko`cha olishi) originalligi (o`ziga xoslik),
- umume`tirof etilgan qarashlardan farq qiluvchi g`oyani yaratish qobiliyati),
- qiziquvchanlik (o`zini o`rab turgan olamdagi muammolarga ta`sirchanlik),
- gipoteza qilish qobiliyati (reaktsiyaning stimuldanda mantiqiy mustaqilligi),
- fantastikali (stimul va reaksiya orasidagi mantiqiy bog`liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi).

Shu tariqa fikr yuritadigan, sunggi yangiliklardan boxabar uqituvchilar bugungi kunda juda dolzarb va bolaning rivojlanishi uchun muhim sanalgan integrallashgan darslarni tashkil etishga qodir buladilar. Integrallashgan darslarni tashkil etish birinchi navbatda o`qituvchidan kreativlikni talab etadi. Biz shu kabi olimlar va pedagoglar tavsiya etgan darslardan namunalar keltirmoqchimiz.



**«Bozorda» o`yini.**

Sabzavot va mevalarning rasmlari ishlangan kartonlar yozuv taxtasiga osib qo`yiladi. Bu erda karam, kartoshka, uzum, nok, olxo`ri, piyoz va hokazolarning rasmlari bor.

**O`qituvchi:-** 1 kg piyoz 4 so`m tursa, 2 kg qancha turadi, 3 kg-chi? - deb so`raydi. 3 kg olxo`ri 9 so`m tursa, 1 kg olxo`ri qancha turadi? Shunga o`xshash boshqa savollar beriladi. O`yindan keyin bolalardan so`rash kerak:

**O`qituvchi: -** Siz hovlida o`ynayapsiz. Birdan oyingiz bozordan to`rxalta to`la meva va sabzavotlar olib kelayotganini ko`rib qoldingiz. Shunda siz nima qilasiz?

**Bolalar:** «To`rxaltani ko`tarishda oyimizga yordam beramiz», - deb javob qilishadi. Ularning fikrlari ma`qullanadi.

**O`qituvchi:-** Sizlar meva va sabzavotlarni etishtirishda ishtirok etasizlarmi? Pedagogika sohasidagi shu kabi innovatsion yangiliklar bilan uzoq qishloq o`qituvchilarining xam tanish bo`lishi va ularni amalda qo`llashi ishlari amalga oshirilgan ekan, demak olim M.G`ulomovning tavsiyalari o`qituvchilarning kreativ faoliyatini yanada rivojlantirishda foydadan xoli bo`lmaydi.

Shu bilan qatorda olim R.A.Mavlanova bolalarni ijodiy tasavvur mexanizmlariga qanday o`rgatish keraligi buyicha qo`yidagi takliflarni tavsiya etadi. Ular biz haqiqatan ham bolalarni ijod zavqiga erishtirmoqchi bo`lsak, u holda uchta asosiy maqsadga diqqat - e`tiborni qaratishimiz kerakligini e`tirof etadilar:

– bolalarni ochilmagan sir va jumboqlarni o`z kuchlari bilan ochish mumkinligiga ishonitirish;

– bu sirlarni topish va ochishga imkon beruvchi ijodiy tasavvurning asosiy yo`llarini o`rgatish;

– idrok qilish, diqqat-e`tiborni, xotirani, his-tuyg`u va fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur mexanizmlaridan foydalanish Bu bobdagi fikrlarimizni umumlashtirib aytadigan bo`lsak, pedagog –tarbiyachi bo`lib bolalar bilan ishlaydigan o`qituvchidan tinmay izlanishlar olib borishni va yangiliklarni kreativ tarzda o`z faoliyatida qo`llashni talab etadi. Kreativlik faoliyat yuritish o`qituvchilarda talabalik yillaridayoq shallantirilishi va bu sifat maktabda yanada rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir. Kreativlik pedagogika fanida qabul qilingan yangi materiallarni o`qituvchilarning o`z faoliyatida mohirona, o`z o`rnida, o`rinli qo`llay olish bilan ham belgilanadi. Zero maktab o`qituvchilarining kreativ faoliyati shunday darajada faollashsinki, ularning akmeologik (pedagogik faoliyatning oliy cho`qqisi) faoliyati mualliflik metodlar va texnologiyalarni taqdim etish darajasiga ko`tarilsin.

Ta`limning zamonaviy globallashtirish va axborotlashuv sharoitida o`qituvchining ijodkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta`lim-tarbiya sohasiga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar pedagogika faniga yangi tushunchalarni ham olib kirmoqda. Shunday tushunchalarning biri «kreativlik» tushunchasidir. Bu tushuncha kuproq psixologiya fanida kengroq rivojlangan. Ammo pedagogika fani bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tadqiq etish talab etiladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog`liq. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo`lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o`sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo`lsa-da, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug`atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida etarlicha aniqlanmagan. O`nlab ilmiy

ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an'analari inson faktorining hal qiluvchi o'rnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi. Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo'ladigan yuksak ko'rinishi bo'lishiga qaramasdan, u eng kam o'rganilgan soha bo'lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avvalboshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o'rganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to'liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas.

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning maxsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

**Abstract.** In this article, the artistic work of Mengziyo Safarov, one of the mature representatives of Uzbek literature, is analyzed. Mengziyo Safarov is considered a skilled penman, and his works are composed of various subjects. Especially, his creations written about nature are significant because they have many fans. Mengziyo Safarov is a skilled artist who paid attention to the essence of the subject covered in his works and tried to reveal its subtle aspects.

**Keywords:** Mengziyo Safarov, creative example, artistic work, Uzbek literature, theme of nature, diversity.

## ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ МЕНГЗИЁ САФАРОВА

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественное творчество Менгзиё Сафарова, одного из зрелых представителей узбекской литературы. Менгзиё Сафаров считается искусным писателем, и его произведения состоят из самых разных сюжетов. Особенно значимы его творения, написанные о природе, потому что у них много поклонников. Менгзиё Сафаров – искусный художник, обращавший внимание на суть предмета, освещаемого в его работах, и пытавшийся раскрыть его тонкие стороны.

**Ключевые слова:** Менгзиё Сафаров, творческий пример, художественное произведение, узбекская литература, тема природы, разнообразие.

Barchamizga ma`lumki, badiiy adabiyotda yaratilgan asarlar o`zining ma`no-mazmuni, mohiyatiga ko`ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Shunday asarlar borki, ularda yashiringan ma`no olam-olam. Ana shunday kichik asarlari bag`riga ulkan ma`no sig`dira olgan, katta asarlari mazmuniga o`z qalbidan chiqqan sadolarni jo aylagan ijodkor bu Mengziyo Safarovdir.

Mengziyo Safarov Surxon elining atoqli va ardoqli ijodkor-yozuvchilaridan biri sanaladi. 1938-yilda tavallud topgan Mengziyo Safarov umr yo`li davomida qator ishlarda faoliyat yuritdi: Xayrobod paxta tozalash zavodida ishchi; Oydin nomli o`rta maktabda o`qituvchi; O`zbekiston xalqlari tarixi muzeyida ilmiy xodim va hokazo[3]. Mengziyo Safarov adabiyotni sevishi bilan bir qatorda tarixni, o`tmishni ham qadrlay olgan inson edi, uni ijodkorning quyidagi so`zlari orqali anglashimiz mumkin bo`ladi: “Qadimshunos o`tmishga sayohat qiladi... Tuproq qadimshunos uchun ajdodlar tarixining buyuk kitobidir. U o`tmish ajdodlar hayotini shu topildiqlar orqali tiriltiradi. Tarix manzaralarini kashf etadi...”

O`z ijodiy faoliyatini 1965-yildan boshlagan ijodkor “Sharq yulduzi”da o`zining ilk “Turnalar uchadi” deb nomlangan qissasini e`lon qiladi. So`ng uning ketma-ket “Olis qirlar ortida”, “Ona yer qo`shig`i” kabi asarlari nashr etila boshlaydi[5].

№	Asar nomi	Nashr etilgan yili
1	“Ona yer qo`shig`i”	1969
2	“Turnalar uchadi”	1972
3	“Olis qirlar ortida”	1974
4	“Bobotog`”	1980
5	“Tabiat ehromi”	1985
6	“Ona tuproq qo`shig`i”	1989
7	“Payg`ambarlar oroli”	2008
8	“Ayrishox”	2008

Yuqorida qayd etib o`tganimizdek, Mengziyo Safarov tarixni ham mukammal anglashga harakat qilgan inson va bu uning asarlarida ham bevosita o`zining aksini topgandir. Xususan, uning “Ona tuproq qo`shig`i”(ikkinchi nomi “Ona yer qo`shig`i”) deb nomlanuvchi asari tarixiy mavzuda hisoblanadi[1]. Ushbu asarda Termiz va Chag`aniyonning ko`hna tarixi va unga Iskandarning olib borgan tarixiy yurishlari, go`zallikda tengi yo`q Roxshanak tarixi, buyuk Kushonlar davlati va shu kabi qator tarixiy voqeliklar o`rin olgandir. Asardan olingan ushbu parchaga e`tibor bering: “*Surxondaryo vohasi eramizdan avvalgi V asrda mavjud bo`lgan va Amudaryoning yuqori irmoqlarini o`z ichiga olgan qudratli Baqtriya davlati tarkibida edi*”. Bundan tashqari, asarda ijodkorning boshqa yozuvchilar bilan o`tgan voqeliklari, xotiralari ham o`rin olgan. Xususan, adib Shukur Xolmirzayev bilan olib borgan suhbat ham asarda qayd etilgan: “*Bir paytlar Termizga kelganimda Mengziyo meni turli yodgorliklar bilan tanishtirdi, Eski Termizdagi buddaviylik obidalarini ko`rsatdi. Bular nimaga kerak deganimda – U sen bilan men kechagi musulmonimiz, deya ohista javob bergan edi. Chog`im u Vatanimiz tarixining qadimiyligiga vas hu muqaddas tarixning Termiz va Chag`aniyon ham bir uzviy bo`lagi ekaniga shama qilgan edi. Yana bir gap, u bizlarga o`xshamas edi*”[4].

Mengziyo Safarov ichki dunyosiga ko`ra tabiatga mehr qo`ygan atoqli qalamkash ham edi. Ijodkorning aynan “Sarbasta Surxon” essesida uning tabiatga bo`lgan muhabbatini yaqqol anglash mumkin bo`ladi. Inson va tabiatning o`zaro bir-biriga bog`liq ekanligi, uning tabiatsiz yashay olmasligi ijodkorning ushbu asarida yaqqol aks etgan. “Sarbasta Surxon” essesi odamzot va tabiatning bir-biriga qay tarzda bog`liq ekanligini, tabiat jumboqlarini inson qay tarzda yechishi mumkin ekanligi xususidadir[2].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mengziyo Safarov o`zbek adabiyotining zabardast vakilidir. Ijodkor tomonidan yaratilgan asarlar asrlarosha kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinishi shubhasizdir. Ijodkorning tarix va tabiat mavzusida yaratilgan asarlari hamisha el ardog`ida va e`tirofidadir. ekanliklaridan dalolat beradi.

#### REFERENCES

1. “Жаҳон адабиёти”, 2016 йил, №12, 129-б.
2. Karimov N. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –544 b.
3. Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.
4. Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. – 272 B.
5. Normatov U. Ijod sehri. –T.: “Sharq”, 2007. –352 b.
6. Отаев Р. Дилрабо кўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162.



## O'ZBEK NASRIDA TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZINING BADIY TALQINLARI

Almanov Ro'zimhammad

Termiz davlat universiteti adabiyotshunoslik mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7941844>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotida, xususan, nasrida vujudga kelgan diniy-ma'rifiy yo'nalishda yaratilgan asarlarning ba'zilari haqida so'z boradi. Sa'dulla Siyoyev qalamiga mansub "Ahmad Yassaviy" romani hamda Abdumutal Abdullayev tomonidan yaratilgan "Hazrati Attor" ma'rifiy qissasiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** diniy-ma'rifiy yo'nalish, tasavvuf allomalari, Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor, ma'rifiy qissa.

### ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE IMAGES OF MYSTICS IN UZBEK PROSE

**Abstract.** This article describes some of the religious and educational works created in Uzbek literature, especially prose, during the years of independence. Attention will be paid to the novel by Sadulla Siyoyev "Ahmad Yassavi" and the instructive story by Abdumutal Abdullayev "Khazrati Attar".

**Keywords:** Religious-educational direction, Allamas of Sufism, Ahmed Yassavi, Fariduddin Attar, Educational story.

### ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗОВ МИСТИКОВ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о некоторых религиозно-просветительских произведениях, созданных в узбекской литературе, особенно прозе, за годы независимости. Будет уделено внимание роману Саъдуллы Сиёева «Ахмад Яссави» и поучительному рассказу Абдумутал Абдуллаева «Хазрати Аттार».

**Ключевые слова:** Религиозно-просветительское направление, Алламы суфизм, Ахмед Яссави, Фаридуудин Аттार, Образовательная история.

Barchamizga ma'lumki, tasavvuf adabiyoti o'zida islom ruhi, uning qonun-qoidalarini targ'ib qiluvchi alohida yo'nalish sanaladi. Tarixan uzoq davrlardan adabiyotda bo'y ko'rsata boshlagan tasavvuf adabiyoti insonni haq yo'lga chorchashga, dunyoning asl haqiqatini anglashga ko'maklashadi. Ta'kidlash lozimki, tasavvuf adabiyotining o'ziga xos yo'l-yo'rig'i, atamalari mavjud bo'lib, ularning har biri majoziy ma'no kasb etadi. Tasavvuf adabiyotida ko'plab ijodkorlar qalam tebratgan bo'lib, xususan, Ahmad Yasaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Huvaydo, Haziniy kabi yetuk ijodkorlar asarlari bugungi kunda ham o'zining dolzarb ahamiyatiga ega ekanligi bilan qimmatlidir.

Mustaqillik yillariga kelib badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish, unga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. "Mustaqillik epkinlari esa boshlagan ilk davrlardan boshlab, mumtoz ma'naviy me'rosimizga e'tibor orta boshladi. Badiiy adabiyotda ochiq-oshkora so'z aytish imkoniyati paydo bo'ldi"[1,46]. Mustabid tuzum davrlarida nomlari qoralanagan qator ijodkorlar, tasavvuf vakillari oqlanib, ismlari tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ayniqsa, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandalari haqida qator asarlar yaratilib, ular adabiyotimizning eng go'zal namunalariga aylandi. Xususan, Sa'dulla Siyoyev qalamiga mansub "Ahmad Yassaviy" romanini olaylik.

"...inson kamolotini ta'minlashda o'tmishdgi valiy zotlarimiz yo'llarini tutish, yurgan yo'llariga ergashish, hikmatlariga suyanib ish tutishning ahamiyati ham nisbatan tezroq anglab etildi. Bu hol ham sulton ul orifin Xoja Ahmad Yassaviy shaxsiyati va merosi sa'dulla Siyoyevning e'tiborini tortishi, uning to'laqonli baddiy siymosini yaratishga intilishining sabablaridan biridir"[2,16].

Ushbu asarda Ahmad Yassaviyning tariqat kishisi sifatida turli jihatlar yoritilib, romanga Alisher Navoiyning Yassaviy haqidagi quyidagi fikrlari epigraf sifatida tanlab olinadi: "Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayx-ul mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g'oyatsiz va shohu gado aning irodot va ixlos ostonida nihoyatsiz ermish"[3,5]. Asar syujetidan joy olgan voqealilar Ahmad Yassaviy siymosining adolatsevar shaxs ekanligi, nohaqliklarga bo'lgan ochiqdan ochiq munosabati bevosita Ahmad Yassaviyning asl siymosi bilan hamohanglik hosil qiladi. "Roman-dilogiyaning ilk kitobi voqealari shayx hazratlarining Ka'ba ziyoratini ixtiyor etganlari xabari bilan boshlanib, Marvdan Turkiston tomon yuzlanishlari bilan tugaydi. Ikkinchi kitob shayx karvonining otamakonga qaytishi voqealari bilan boshlanib, oltmish uchga yetgach, yer ostida hujra yasatib, "chillaga kirishi bilan tugaydi. Demak, romanda Yassaviyning oltmish ikki va oltmish uch yasharlik davri - ikki yillik hayot yo'li yoritilgan"[4,92]. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy tasavvuf adabiyotining yirik vakili bo'lib, asarlarida ilohiy ishqni ilgari surgan. Asl ishqqa loyiq zot Alloh ekanligini ta'kidlagan ijodkor ishq dardining davosi yo'q ekanligini, ishqqa tushgan odam o'tga tushgan bilan barobar ekanligini asarlari orqali aks ettiradi:

*Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,  
Parvonadek jondan kechib axgar bo'lding.  
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,  
Ishq dardini so'rsang, hargiz darmoni yo'q.[3]*

Bundan tashqari, Ahmad Yassaviy hikmatlarida aks etgan tasavvufiy g'oyalar, jumladan, uning :

*Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.  
Yetsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur,  
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor,[4]- satri mazmuni bevosita Sa'dulla*

Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanidagi obrazning asl jihatlariga hamohang tarzda shakllangan.

"Mantiq ut-tayr", "Pandnoma" asarlari bilan ellararo mashhur bo'lgan Farididdin Attor esa yaxshilik va yomonlikning bir-biridan farqi, ilmli bo'lishning samarali va shu kabi axloqiy mavzularni asarlari orqali ilgari suradi. Istiqloq yillarida ushbu muborak zot haqida turfa asarlar – roman, qissa, badia va hokazolar – yaratildi. Ularning har biri ma'no-mazmun jihatidan bir-birini takrorlamas, bir-biriga o'xshamas. Xususan, mustaqillik yillarida Abdumutal Abdullayev tomonidan yaratilgan "Hazrati Attor" ma'rifiy qissasida Attor hayotining betakror jihatlarini ochib berishga, uni tasavvuf kishisi sifatida gavdalantirishga harakat qilingan[9]. Ayniqsa, Farididdin Attorning nafsga qarshi chorlovi ushbu asarda yaqqol aks etgan, o'z shogirdiga qarata quyidagi keltirilgan fikrlarida Attorning asl tasavvuf kishisi ekanligini anglashimiz qiyin emas: **"Payg'ambarimiz rasululloh(s.a.v) marhamatiga ko'ra, mo'min kishida bitta chuchvaraga loyiq ortiqcha et qolmasligi kerak", "Goho ojiz banda bilib-bilmay, nafsning aldoviga ko'naman. Holbuki, Saxl Tustariydek buyuk zot nafsni hamisha xumda qamaganday saqlagan, lekin uning yetoviga yurmagan, dod-faryodiga quloq solmagan edi"...**

Ha, Farididdin Attor – ulug` tasavvufiy aloma. Abdumutal Abdullayevning “Hazrati Attor” ma`rifiy qissasida uning ana shunday ulug`vor jihatlariga e`tibor berilganligi, Farididdin Attor badiiy obrazi orqali Attorning asl qiyofasini ochib berishga harakat qilganligi yozuvchining buyuk mahoratidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mustaqillik davri adabiyoti o`z bag`rida hozirgi kunga qadar yaratilgan badiiy adabiy yo`nalishlarning barchasini jo aylagan adabiyot hisoblanadi. Badiiy obrazlar genezisining asl holatini ochib berishga harakat qilgan qator adiblar o`z asarlari bilan nafaqat ijodkorlarning badiiy holatini, balki ularning ijodiy tafakkurini, ijodiy g`oyalarini ham yoritishga harakat qilganlar.

#### REFERENCES

1. Raimova S. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida diniy-ma'rifiy mavzuning badiiy talqini. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... . – Toshkent, 2021.
2. Omanova M. Istiqlol davri o'zbek romanlarida shayx valiylar obrazining badiiy talqinlari. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Jizzax, 2022.
3. Omanova M. Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romani haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2021. - №2.
4. Hoja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat. (Yangi topilgan namunalari). Toshkent, 2005. 188 bet.
5. Hoja Ahmad Yassaviy: hayoti, ijodi va an'analari. Toshkent, 2001.336 bet.
6. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent, 1991.184 b.
7. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.
8. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. Toshkent, 2001. 64 bet.
9. Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. Toshkent, 2007. 228 bet.
10. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2008.224 bet.
11. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. Toshkent, 2009. 388 bet.
12. Hasan Komil Yilmaz. Turkiyada yassaviyshunoslik. Toshkent, 1999. 68 bet.
13. Sa`dulla Siyoyev. Ahmad Yassaviy. Toshkent, 2012 y.
14. Abdumutal Abdullayev. “Hazrati Attor” ma`rifiy qissa. “Sharq yulduzi” jurnali,5-6-sonlar. 2011 y.

## AHMAD YASSAVIY TARIQATI: ZIKR MASALASI VA ZOKIR MAQOMI

Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti

E-mail: [nilufarabdullayeva789@gmail.com](mailto:nilufarabdullayeva789@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7941917>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy va uning tariqati, Yassaviy tariqatida zikr masalasi, Zokir maqomi haqida so'z yuritiladi, hikmatlarning tahlili, hikmatlarda zikr talqini, hikmatlarda Zokir masalasi haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat asari, tasavvuf, tariqat, nafs, Haqqa yetish, Zokir obrazi, zikr usullari, arab tili.

## AHMAD YASSAWI SECT: THE ISSUE OF ZIKR AND THE STATUS OF ZAKIR

**Abstract.** This article discusses the issue of dhikr in Ahmad Yassavi and his sect, yassavi sect, Zakir status, analyzes of Proverbs, interpretation of dhikr in Proverbs, opinions on Zakir issue in Proverbs.

**Keywords:** Ahmad Yassavi, Devani Hikmat's work, Sufism, sect, lust, truthfulness, Zakir image, methods of remembrance, Arabic language.

## СЕКТА АХМАДА ЯСАВИ: ПРОБЛЕМА ЗИКРА И СТАТУС ЗАКИРА

**Аннотация.** В этой статье рассматривается вопрос Ахмада Яссави и его секты, вопрос о зикре в суре Яссави, вопрос о статусе Закира, анализ пословиц, толкование зикра в притчах, размышления о Закире в притчах.

**Ключевые слова:** Ахмед Яссави, труд мудрости Девони, суфизм, тарикат, нафс, достижение истины, образ Закира, методы зикра, арабский язык.

O'zbet mumtoz adabiyoti hamda islom adabiyotining katta bir ustuni bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan XI asrning 2-yarmida yashab ijod etgan. Yassaviy chig'atoy tilida ijod qilgan. Yassaviy tug'ilgach, ko'p o'tmay onasi — Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnnoz mashg'ul bo'ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko'chib borgach, ustozi Arslon bobo bilan uchrashadi va undan tahsil oladi ("Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim..."). Yassaviy Yassida botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtirgan. O'sha zamonlarda ilm-ma'rifatning Movorounnahrda markazlaridan bo'lgan Buxoroda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig'ilishgan. Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sofisi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o'rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, Yusuf Hamadoniy muridlari qatoridan o'rin oladi. Xoja Ahmad Yassaviyning bizgacha yetib kelgan asari "Devoni hikmat" bo'lib, "Devoni hikmat"da ilohiy ishq va oshiqlik, Haqqa yetish sirlari, Zokir va uning ma'naviy martabasi, ma'rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta'sirli ohanglarda yoritib berilgan. "Devoni hikmat"dagi barcha she'rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma'lum

o'zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o'nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g'oyaviy, axloqiy, ma'naviy ma'rifiy va mafkuraviy yo'nalishni o'zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs yuritilgan o'nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning "Javohir ul-abror min amvojil bihor" asari ham to'la tasdiqlaydi.

Ahmad Yassaviy Allohga bo'lgan ishqni haqiqiy sanaydi. Chin oshiqning sifatlariga diqqat qaratadi. Xo'sh, chin oshiq kim? Shoir nazdida chin oshiq bo'lish uchun "Alloh debon ichga nur"ni to'ldirish, butun tanadagi tomir-u suyaklar larzaga kelgan holda "Haq zikri"ni qilish, rohat farog'atdan kechish lozim bo'ladi. Shoir ishqni bebaho dur-gavharga o'xshatadi. Biroq bunday gavharni ishqsiz, nafs qutqusiga uchragan "har nomardga sotib" bo'lmaydi. Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bu – nafsqa qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsini jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rinli bo'ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini o'qtiradi. Shuning uchun ham "Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmas", "Tariqatga shariatsiz kirganlarni, Shayton kelib imonini olur ermish" yoki "So'finaqsh bo'lding valek hargiz musulmon bo'lmading" kabi misralarni yozadi. Insonning so'zi amaliga, tashqi ko'rinishi ichki olamiga mos kelishi lozim. Tashqaridan qaraganda odam taqvodor so'figa o'xshash – so'finaqsh bo'lishi, lekin u amalsiz bo'lishi mumkin, bundaylarga Yassaviy tanbeh berib "hargiz musulmon" bo'lmading deydi.

Ahmad Yassaviy tasavvufga inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida qaraydi. Tasavvuf negizida ruhiy tarbiya turadi. Ruhiy tarbiya bashariyatning to'g'ri yo'ldan yurishiga yordam beradi. To'g'ri yo'l esa haqiqatni anglashga olib kelishi lozim. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishish uchun odam shariat hukmlarini to'la bajarishi va qalbida Yaratguvchiga muhabbat bo'lishi kerak. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsqa "shum" sifati beriladi. Shuningdek, shoir "nafsi bad", "nafs yo'li", "nafs ilgi" singari istioralarni ham qo'llaydi. Adib to'g'ridan to'g'ri nafsqa qarshi kurashni, uning yo'rig'iga yurmaslikni targ'ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko'rsatib beradi.

Yassaviy o'z hikmatlarida Zokir kim va u qanday tarbiyalanishi, uning Alloh uchun qilishi kerak bo'lgan zikrlarini ham shoirlik yo'li bilan chiroyli tavsiflab bera oladi o'z hikmatlarida.

Xulosa, Ahmad Yassaviy hayoti va ijodini o'rganar ekanman, u shaxsning islom olamida, tasavvuf tarixida o'rni beqiyos ekanligiga yana birbor guvoh bo'ldim. Hikmatlarni tahlil qilish davomida har bir hikmatning xulosasida Allohga yetish, Haqni tanish, zikr etish, imon keltirish va taqdirga ishonish kabi g'oyalarning ilgari surulganini bildim. Har bir hikmatning o'zgacha bir hikmati bor, bir-birini



takrorlamagan holda yangi va yangi g'oyalarni ilgari suradi bu misralar, Yassaviy ijodini qancha o'rgag'sak shuncha kam, hali bu baytlar qanchadan qancha oltinga teng g'oya va fikrlarni o'zlarida yashirib turishibdi.

#### **REFERENCES**

1. A.Sa'diy. Yasaviy kim edi? (nashrga tayyorl. B. Do'stqoraev) -T.: 1994.  
E. Rustamov. Ahmad Yasaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi. «O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1972, № 4-5;
2. Fitrat. Ahmad Yasaviy. «Tanlangan asarlar» (nashrga tayyorl.H.Boltaboev). 2-jild. —T.: Ma'naviyat, 2000;
3. I.Haqqul. Ahmad Yasaviy. Hayoti va ijod yo'li. — T.: 2001.
4. N.Hasanov. Turkiyada yassaviyshunoslik. -T.:1999.
5. Saviya.Uz.  
Arxiv.Uz

### ADABIYOT DARSLIKLARI TARIXIDAN

Vohidova Nilufar Abdumalik qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

Murtazayev Babanazar Xurramovich

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7941990>

**Annotatsiya.** Maqolada “O‘zbek adabiyoti tarixi” maktab darsliklari tahlil nazaridan o‘tkazilib, ma‘lum miqdorda taalluqli xulosalar chiqariladi. Maqola mualliflari Natan Mallayevning kechki smenali maktablar uchun 1979-yilda yaratilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligining mundarijasini imkon qadar qarab chiqishgan. Bu darsliklar tarixiga bir nazar bo‘lib, darsliklar tarixini o‘rganish muhim jihatlarni namoyon etadi.

**Kalit so‘zlar:** Oliygo‘h, maktab, darslik, tarix, poydevor, adabiyot, muallif, mo‘ljal, tahlil, nashr, bob, qism, jamiyat, sinfiy, sho‘ro, siyosat, xarakter, adabiy, mundarija, hodisa, qamrov.

### FROM THE HISTORY OF LITERATURE TEXTBOOKS

**Abstract.** In the article, the "History of Uzbek literature" school textbooks are analyzed and some relevant conclusions are drawn. The authors of the article looked as much as possible at the contents of the textbook "History of Uzbek Literature" created in 1979 for evening shift schools by Natan Mallayev. This is a glimpse into the history of textbooks, and the study of textbook history reveals important aspects.

**Key words:** University, school, textbook, history, foundation, literature, author, target, analysis, publication, chapter, part, society, class, council, policy, character, literary, content, event, coverage.

### ИЗ УЧЕБНИКОВ ПО ИСТОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ

**Аннотация** В статье анализируются школьные учебники «История узбекской литературы» и делаются соответствующие выводы. Авторы статьи максимально ознакомились с содержанием учебника «История узбекской литературы», созданного в 1979 году для вечерних школ Натаном Маллаевым. Это беглый взгляд на историю учебников, а изучение истории учебников раскрывает важные аспекты.

**Ключевые слова:** вуз, школа, учебник, история, основа, литература, автор, цель, анализ, издание, глава, часть, общество, класс, совет, политика, персонаж, литературный, содержание, событие, размах.

Oliygo‘hlar va o‘rta maktablar uchun yaratilgan o‘zbek adabiyoti darsliklari o‘zining uzoq yillik o‘tmishiga ega, to‘g‘ri bu darsliklar hozirda eskirdi, ular o‘z xizmatini ado etib bo‘lgan. Lekin ayni shu darsliklar hozirda yaratilayotgan darsliklar poydevori ekanini ham zinhor unutmasligimiz lozim. O‘rta ta‘lim maktablarining 8–9 sinflari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsliklarining yaratilishida olimlarimizdan Natan Mallayev, Sa‘dulla Ismatov va G‘ulom Karimovning xizmatlari o‘ta katta. Zikr etilgan olimlarimizdan Natan Mallayevning maktablar uchun darsliklari 1953-yildan boshlab nashrlari amalga oshirillan. Bu hodisa oz emas, ko‘p emas qariyb 40 yillik jarayonni qamrab olishi bilan g‘oyat e‘tibordir. Natan Mallayevning nafaqat kunduzgi maktablar, balki kechki maktablar uchun yozgan darsliklari ham o‘zining ma‘lum tarixiga egaligi ila ajralib turadi. To‘g‘ri hozir kechki maktablar yo‘q, shu tarixni o‘rganish nuqtayi

nazardan ayni kechki maktablarning 8-sinfiga mo'ljallangan ixtiyorimizdagi "O'zbek adabiyoti tarixi"ning 1979-yilgi nashrini qarab chiqib tahlil etishga jazm etdik! (2)

Darslikning "Kirish" qismidan so'ng keluvchi mundarijasi ushbu xilda: "Eng qadimgi adabiy yodgorliklar" (-B. 13-35) "XIV-XVI asrlar adabiyoti" (-B.36-115); XVII-XVIII asrlar va XIX asrning birinchi yarmi adabiyoti (-B. 116-144); "XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari adabiyoti" (-B. 145-208). Kitobning mo'jaz kirish qismida "Adabiyot - so'z san'ati" (-B. 3-4); "So'z san'atining ikki turi: xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyoti" (-B. 4-5); "Sinfy jamiyatda adabiyotning sinfiy xarakteri" (-B. 5-6) mavzulari sharhlanib so'ngra o'sha davr uchun yetakchi maqomga molik sho'ro mafkurasiga mos qarashlar doirasida fikr bayoni izhor etiladi. Mazkur darslikning "Eng qadimgi adabiyot yodgorliklar" bobidagi "Xalq og'zaki ijodi" qismida Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) "Devonu lug'otit turk" (turkiy so'zlar to'plami) qomusiy asari misolida ma'lum miqdorda nazariy qarashlar aytib o'tiladi. So'ngra "To'maris" va "Sharq" tarixiy afsonalari mavzui ila tahlil davom ettirilib, ularga oid fikrlar tizimi izhori aytilib, taalluqli xulosalar yasaladi. "To'maris" va "Shiroq tarixiy afsonalari bizning zamonamizgacha yunon tarixchilari Gerodotning (484-425) "Tarix" va Poliennning (eramizdan avvalgi II asr), "Harbiy hiylalar" asarlari vositasida yetib kelgan. Har ikki tarixiy afsonalarning tafsilotlari ajdodlarmizning ahamoniylar shohi eramizdan avvalgi Kir (Kirovush, 529-yil) va Doro I (521-486)ga qarshi kurash voqealarida namoyon bo'ladi. To'maris va Shiroq o'z qabilalarining baxtu saodati yo'lida bosqinchi dushmanlarga keskin zarbalar berishdi. Jang halokatsiz bo'lmaganidek To'maris sevimli o'g'lidan judo etilsa, Shiroq yurti va eli uchun ongli ravishda jonini fido etishga shay turadi. "Oysuluv" ertagida Oysuluv va uning Kunbotir o'g'li Shiroq kabi Doro hamlasiga qaqshatgich zarba beradi. Ona va o'g'il Oysuluv hamda Kunbotirning harakatlari To'maris va o'g'lining Kirga qarshi turish voqealarga ko'p jihatdan mushtaraklik kasb etadi.

Keyingi sahifalar muhabbat va sadoqatni, do'stlik va mardlikni, yurtparvarlik va elparvarlikni tarannum etuvchi mashhur "Alpomish" dostoni qadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya", armanlarning "Sosunlik Dovud", qirg'izlarning "Manas" singari qaxramonlik eposlari qatorida turadi. "Alpomish" dostonining g'oyaviy motivlari ijobiy qahramonlari Alpomish, Barchin, Qorajon, Qaldirg'och, shuningdek, salbiy obrazlardan Boybo'ri, Ko'kaldosh, Surxayil kampir, zolim podsho Toychaxon, xoin Ultontoz orqali asarning badiiy qimmatini ham nazardan soqit etilmagan holda muallif tarafidan ixcham izohlanadi.

Umuman olganda "Qadimiy adabiy yodgorliklar" bobining mavzulari olami o'z xususiyatlari jihatidan uning "Yozma adabiyot" qismi ancha muxtasar. Unda tarixiy sharoit, o'lkamizning arab xalifaligi tomonidan ishg'ol qilinishi, Islom dinining kirib kelishi hodisalari tilga olib o'tiladi. O'rta Osiyoda IX-XII asrlar madaniyat va ilm-fan rivoji bilan bir qatorda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Saodatga olib boruvchi bilim), Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" (Haqiqatlar armug'oni) asarlari dunyo yuzini ko'rdi. "Qutadg'u bilig" va "Hibatul haqoyiq" asarlari turkiy tilli xalqlar adabiyotining yuksalishiga munosib hissa qo'shdi.

"O'zbek adabiyoti tarixi" darsligining "XIX-XVI asrlar adabiyoti" bobi hajman katta bo'lib, uning muqaddimasida tarixiy muxit, ayniqsa, Chingizxon istilosi keltirgan shikastlar, Amir Temur davlatining paydo bo'lishi qisqacha eslatib o'tiladi. Bundan tashqari Samarqand, Hirot, Andijon, Buxoro va Balx shaharlarining yiriklashuvi hamda madaniy markazlarga aylanish jarayoni qaydini topadi. Ayniqsa, Sulton Ulug'bek Mirzo (1394-1449)ning hukmronlik yillari (1409-1449) sodir etilgan va ro'y bergan ilm-fan inkishofi behad ardoqqa sazovordir. Shoirlardan Nizomiy Ganjaviy

(1441–1209), Lutfiy (1366–1465), Jomiy (1414–1492) va Fuzuliy (1498–1556) ijodiy bisotiga kichik chizgilar beriladi. Shu tarzda Alisher Navoiy (1441–1501) ijodiy faoliyatiga keng qamrovli tahlil nazardan o'tkiziladi. Alesher Navoiyning bolalik chog'lari, tahsil yillari, Samarqandlik kezlari, Sulton Husayn Boyqaro (1438–1506)ning taxt tepasiga kelishi munosabati bilan uning muhdorlik, nihoyat amirlik faoliyati g'oyat siqiq tarzda ifodalanadi. Ammo muallif Natan Mallayevning Alisher Navoiy haqidagi moddiy qiyinchilik masalasiga muvofiqlasha olmaymiz, buning o'z sabablari bor. Biz bu bilan darslik muallifini tanqid etish fikridan yiroqmiz, boisi ushbu o'rinda ham sho'ro mafkurasining ta'siri kuchlilik qilgan. Vaholanki, "Boburnoma"da zikr etilishicha "Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi." (1–B.22).

Alisher Navoiyning Samarqandda bo'lgan kezlari xususida tag'in "Boburnoma"ning 153-sahifasida o'qiymiz: "Samarqandg'a bordi, necha yilkim, Samarqandta edi, murabbiy (ustoz) va muqavviy (qo'llab-quvvatlovchi)si edi", Ahmad Hojibek haqida "Boburnoma"da yana quyidagilar bitiladi: "Hiriy hukumatini Sulton Abusaid Mirzo necha mahal munga berib edi. Obog'asi (amakisi) Jonibek o'lgandin so'ng aning muchasi (hisob-kitobi)ni berib, Samarqandg'a yubordi. Xushtab' va mardona kishi edi. "Vafoiy" taxallus qilur edi. Sohibi devon erdi, she'ri yamon emas edi..." (1–B.21–22). Demak Ahmad Hojibek avvaliga Hirotda keyin esa Samarqandda hokimlik qilgan edi va Sulton Abusaid Mirzo (1424–1469)ning to'ng'ich o'g'li Sulton Ahmad Mirzo (1450–1494) amirlari safida bo'lgan. Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Samarqanddagi tahsil yillari shahar hokimi Ahmad Hojibekning himoyasi va homiyligida bo'lgan, ortiqcha izohga zarurat yo'q. Ochig'ini aytganda bu ma'lumotlarni Natan Mallayev bilgan, bunga shubha yo'q, faqat sho'ro hukumati zo'g'imi bularni aytishga imkon bermagan.

Alisher Navoiy borasida ustoz Natan Mallayev o'z fikrlarini davom ettirar ekan Navoiyning obodonchilik sohasidagi xizmatlarini sanab o'tadi. Navoiy mamlakat poytaxti Hirotda va boshqa shaharlarda ham ko'plab inshoot, ravot, hovuz, hammom, ko'prik va madrasalar bunyod etdi. Alisher Navoiy o'z atrofliga ilm ahli – olimlarni, ahli nazm va nasr – shoir va adiblarni, ahli navo – xonanda va sozandalarni, ahli muarrix – tarxnavislarni, ahli musiqiy ahli – bastakorlarni xullas ahli ayyom – zamonasining peshqadam kishilarini uyushtiradi. Shu zaylda Navoiy she'riyati va "Xazoyinul –maoniy" (Ma'nolar xazinasini)ning yaratilish tarixi, kulliyot tarkibidagi to'rt devon tufayli, keyinchalik "Chor devon" nomini oladi. "Xazoyinul maoniy" tarkibidagi devonlar sahifasidan joy olgan g'azal yetakchi janrlardandir. G'azallardan "Soda shayx" va "Mehribone topmadim" maxsus qarab chiqilib atroflicha tahlilga jalb etiladi. Yana janrlardan ruboiylar va tuyuqlarning falsafiy ifodasi bilan birga, ularda ilgari surilgan g'oyalar olami izohlab beriladi. "Xamsa" va xamsanavislik an'anasida Alisher Navoiyning o'rni, ushbu an'ananing talablari va o'ziga xos ikkishofi, ahamiyati masalalariga atroflicha munosabat izhor etiladi. Navoiy "Xamsa"sining ilk dostoni "Hayratul abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy - irfoniy va axloqiy - ta'limiy mavzular olamidan iborat. Asarning asosini yigirma maqolat o'zida tajassum etadi va maqolotlarda ilgari surilgan g'oyalar, hikoyatlar mazmuni ila quvvatlanadi.

Qolgan "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" (Yetti sayyor), "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori) dostonlari ila qisqacha tanishtiruv amalga oshiriladi. "Farhod va Shirin" dostoni maxsus nazardan o'tkizilib, keng mulohaza va chuqur mushohadalar xulosalarning asosli ekanini to'kis va to'liq tasdiqlaydi. "Farhod va Shirin" ning ikkinchi bir nomi "Mehnatnoma"dir, bu asar g'oyasiga hamohang bo'lib, uning mafkuraviy yo'nalishini belgilashda behad muhimdir. Darslikda "Savol

va topshiriqlar” alohida qimmatga ega, chunki ana shu vosita orqali o‘quvchi mavzuning ichki tizimiga kirishga intilishi tabiiy hodisadir. Bu esa har bir o‘tilgan mavzuni mustahkamlashdagi ahamiyati cheksiz ekani bilan bir qatorda o‘quvchining qiziqishini ta’minlashda shoyista xizmat qiladi. Bu xil “Savol va topshiriqlar” darslikdagi mavzular olamining qimmatini va ahamiyatini belgilashda muhimdir. Biz ana shu xil “Savol va topshiriqlar”ning darslik kitobida yigirma beshta ekanini aniqladik, ularning Navoiy qismida beshta, Bobur qismida uchta ekanini kuzatdik. Ochig‘ini aytganda darslik kitob doirasidagi “Savol va topshiriqlar” qismining o‘zini maxsus o‘rganish ko‘plab uslubiy jihatlarni hal etishda, xulosalar yasashda beqiyosligi muqarrardir.

Darslikning qolgan mavzulari Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530), Maxmur (vafoti 1844), Munis (1778–1829), Ogahiy (1809–1874), Turdi (1641), Gulxaniy, Zavqiy (1853–1921), Avaz (1884–1919), Muqimiy (1850–1903), Furqat (1858–1909) ijodlarini hozircha to‘xtatish ma’qul topildi, zotan uning davom ettirilishi maqola hajmining kattalashuviga olib kelishi tabiiy. Bu hol anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaririshi va mavzuning yoritilishi darajasiga putur yetkazishi hisobga olinib, uning davomini keyingi maqolalarda va kuzatuvlarda davom ettirishini ma’qul topdik.

#### REFERENCES

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma: nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. –368 b.
2. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Kechki (smenali) ishchi yoshlar maktablarining 8-sinf uchun darslik. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1979. – 208 bet.
3. Mallayev N.M, Karimov G‘.K., Ismatov S.I. O‘zbek adabiyoti tarixi. 9-sinf uchun darslik. O‘n uchinchi nashri. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990. –272 b.
4. Homidiy Hamidjon. Sulaymonov Mo‘minjon. Matonat –Toshkent: “Kafolat print company”, 2022. – 64 b.



JAHON ADABIYOTINING ILG'OR TAMOYILLARI O'ZBEK ADABIYOTIDA,  
XUSUSAN, HIKOYACHILIKDA NAMOYON BO'LISHI

**Qilicheva Nodira**

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti adabiyot yo'nalishi  
1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942066>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri, ayniqsa, hikoyachilikda aks etishi haqida so'z boradi. Bu boradagi nozik jihatlar, jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotining hikoya janridagi qiyosi, o'ziga xos sifatlariga alohida urg'u berilgan. Xayriddin Sulstonov asarlari namuna sifatida talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** jahon adabiyoti, hikoyachilik, o'zbek adabiyoti, tahlil, Xayriddin Sulstonov, o'ttiz bitta hikoya, tamoyillar, milliylik, tarixiy ildiz, sayyor voqealar.

MANIFESTATION OF ADVANCED PRINCIPLES OF WORLD LITERATURE  
IN UZBEK LITERATURE, ESPECIALLY IN STORYTELLING

**Abstract.** This article discusses the impact of world literature on Uzbek literature, especially in stories. Particular emphasis is placed on the subtleties of this, the comparison of world literature and Uzbek literature in the genre of stories, their unique qualities. The works of Khayriddin Sultanov have been interpreted as examples.

**Keywords:** world literature, stories, Uzbek literature, analysis, Khayriddin Sultanov, thirty-one stories, principles, nationality, historical roots, planetary events.

ПРОЯВЛЕНИЕ ПЕРЕДОВЫХ ПРИНЦИПОВ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В  
УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ, ОСОБЕННО В ПОВЕСТВОВАНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние мировой литературы на узбекскую литературу, особенно на рассказы. Особый акцент сделан на тонкостях этого, сопоставлении мировой литературы и узбекской литературы в жанре рассказа, их уникальных качествах. В качестве примеров интерпретированы произведения Хайриiddина Султанова.

**Ключевые слова:** мировая литература, рассказы, узбекская литература, анализ, Хайриiddин Султанов, тридцать одна история, принципы, национальность, исторические корни, планетарные события.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek adabiyoti o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lib, ushbu jarayonda turfa xil bosqichlarni boshdan kechirgan: jahon adabiyoti ta'siriga uchragan, o'z tarmog'i doirasida shakllangan. Aytish mumkinki, jahon adabiyotining ta'siri hozirgi adabiy jarayonda ham o'z aksini topsa-da, biroq u qadim-qadimdanoq adabiy holatda o'zining ilk kurtaklarini namoyish eta boshlagan, xususan, ko'chib yuruvchi kompozitsiyalar, jumladan, "Ming bir kecha" ertagi syujetining turfa xalqlar adabiyotiga ko'chishi yoxud Dantening "Ilohiy komediya" asaridagi sayyor voqealar, Ibn Sino asarlaridagi asos bo'lgan jarayonlar adabiyotda ko'chma voqealarning naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, adabiyotda janr doirasida ham (ya'ni uning xususiyatlari, sifatleri, qurilishi doirasida) ko'chish kuzatilib, ushbu maqolamizda jahon adabiyoti ilg'or xususiyatlarining hikoya janrida aks etishini ko'rib chiqamiz.

Hikoya janri genezisi, ya'ni tarixiy ildizlari turkiy xalqlarga borib taqaladi, G'arbiy Yevropa va Amerikada ham hikoya janri azaldan rivojlanib kelgan, biroq novella deb ataluvchi adabiy janr

qissaga o'xshab ketadi, albatta, ular o'rtasida birmuncha farqlar mavjudligi barchamizga ma'lum. Bundan tashqari, rus adabiyotidagi hikoya janri ham adabiyotimizdagi hikoya janri bilan bir qadar o'xshash. Aytish joizki, jahon adabiyotining hikoyachilikka oid turfa tamoyillari o'zbek adabiyotida ham o'zining aksini topgan, jumladan, umuminsoniy tamoyillarning ikki adabiyotda – o'zbek va jahon adabiyotida – ham barobar aks etishi hikoyachiligimizning ulkan yutuqlaridan biridir. Bundan tashqari, jahon adabiyotidagi quyidagi tamoyillar ham o'zbek adabiyotida o'zining yaqqol ifodasini topganligi ma'lumdir:

- milliylikni asragan holda jahon adabiyoti nozik qirralarining o'zbek adabiyotiga singishi;
- makon va zamon munosabatlariga ko'ra bir-biriga bog'liq bo'lmagan adabiyotlarga murojaat etish;
- umumbashariy qadriyatlarni, inson azizligini asar asosiga kiritish;
- adabiyotning asosi sifatida milliy qadriyatlarni tushunish;
- badiiy tahlil va sintez jarayonlarini asar tarkibiy qismi sifatida ilg'ash.

Ushbu tamoyillardan milliylikning jahon adabiyotidan o'zbek adabiyotiga singishi tamoyiliga to'xtaladigan bo'lsak, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jahon adabiyotiga xos bo'lgan milliy ruh aynan ko'chishi yuz bermaydi, ya'ni ma'lum qismlarigina – o'zbek adabiyotidagi mavjud milliylikka monandlari – ko'chadi yoki bo'lmasa, aynan ko'chishning nozik qirralari bir sifatda o'zlashadi, jumladan, chet el madaniyatida asar tasvirida “ryumka”(ichkilik ichiladigan idish) aks etsa, bu bizning adabiyotda “piyola” yanglig' yoritiladi, demak, har bir adabiyot o'z milliy ruhidan kelib chiqib, voqea detallarini aks ettiradi.

Yuqoridagi qayd etilgan tamoyillardan biri makon va zamon munosabatlariga ko'ra bir-biriga bog'liq bo'lmagan adabiyotlarga murojaat etishdir, bunda yozuvchi badiiy asar yozishga shaylanganda – “asar xamirini qorish uchun” - asarlarga yuzlanishiga to'g'ri keladi. Ana shu asos bo'luvchi asarlarning vaqt va joylashuv nuqtayi nazaridan bir-biriga bog'liq emasligi jahon adabiyotidan o'zbek adabiyotidagi hikoyachilikka ko'chgan tamoyil hisoblanadi.

Umumbashariy qadriyatlarni, inson azizligini asar asosiga kiritish va adabiyotning asosisifatida milliy qadriyatlarni tushunish tamoyillari aynan o'zbek adabiyotida ham yorqinlik kasb etgan. Sababi, qaysi hikoyachilik namunasiga boqmang, voqea detallari, milliy ruh, badiiy asar pafosiga bog'liq bo'lgan har bir detal umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash, bashar e'zozliligini aks ettirishga yo'naltirilgan. Inson qadri, sha'ni har narsadan aziz ekanligining yoritilishi o'zbek hikoyachiligining ulkan yutug'idir.

Jahon adabiyotidan o'zbek hikoyachiligiga o'tgan yana bir tamoyil sifatida badiiy tahlil va sintez jarayonlarini asar tarkibiy qismi sifatida nazarda tutishdir. Bugungi kunda asar tahlili va badiiy sintez nafaqat hikoya janrining, balki boshqa janrlarning ham birdek tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Aynan adabiyotsevarlar tomonidan hikoyaning badiiy jihatdan kichik detallarigacha olib borilgan tahlili mutolaasevarlarning asar mohiyatini tezroq anglashlariga yordam beradi.

Demak, yuqorida ko'rib o'tganlarimiz jahon adabiyotining hikoyachilikdagi ilg'or tamoyillari hisoblanib, u hozirgi kunda o'zbek adabiyotida ham o'zining teran aksini ko'rsatmoqda. Aytish joizki, istiqlol davri yozuvchilari o'zlari irod etgan badiiy asarlarida, xususan, hikoyalarida jahon adabiyoti hikoyachiligiga xos bo'lgan sifatlarni aks ettirishga harakat

qilishmoqda. Ushbu fikrlarimizni Xayriddin Sultonov hikoyalari orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Adabiyotimizning yetuk vakili Xayriddin Sultonov ham adabiyotning ko'plab janrlarida qalam tebratgani bilan taniqlidir. Uning "Odamlardan tinglab hikoya" asarida o'ttiz bitta hikoya jo bo'lgan. O'ttiz bitta hikoyada bir-birini takrorlamaydigan, bir-biriga o'xshamaydigan yorqin xarakterlar, qahramonlarning ichki dunyosi, qalb tug'yonlarini ularning bevosita o'z tili va o'z nutqi orqali ochib beriladi. Bu esa yozuvchining bir qarashda juda oddiy, sodda bo'lib tuyuladigan, ammo aslida nihoyatda murakkab bir ijodiy uslubni tanlab ish ko'rganidan dalolat beradi.

Nasrda faqat bir kishining aytganiga, ya'ni monologga tayanib to'laqonli badiiy asar yaratish albatta oson ish emas. Bunday usul qahramonning ruhiy olamini borligicha, yaxshi-yu yomon barcha jihatlari bilan haqqoniy aks ettirishga monelik qilishi, ma'lum darajada yozuvchining ijodiy xayolotini cheklab qo'yishi mumkin. Bunday ifoda usuli adibdan zargarona mahoratni talab qiladi.

Xayriddin Sultonov - dunyoning juda ko'p mamlakatlarini goh rasmiy, goh norasmiy tarzda kezib chiqqan jahongashta adib. Eng muhimi, ko'rgan- kechirganlariga mohirlik bilan badiiy jilo berib, ularni go'zal, ta'sirchan asarlarga aylantira oladigan ijodkor.

Xayriddin Sultonov hikoyalarda muallif vaqt nuqtayi nazaridan bolalik davrlarida yashayotgan obraz yo'siniga murojaat qiladi, bu esa makon va vaqt uyg'unligining asarda aks etishidir. "Onamning yurti" hikoyalar to'plamida umuminsoniy madaniyatlar birlashmasini uyg'unlashtira olgan ijodkor haqiqiy ma'nodagi o'zbek va jahon adabiyoti birlashmasini o'z qalami ila chiza oladi. Ona-Vatan ruhi, qishloq odamlari ruhiyati, o'ziga xos xarakterlari chizmasi berilgan ushbu hikoyalari muallifni haqiqiy ijodkor sifatida kashf etdi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, hikoyachilik davrlar osha shakllanib, o'zining go'zal cho'qqisiga erishayotgan o'zbek adabiyoti nafaqat o'z ichida, balki jahon adabiyoti ta'sirida ham rivojlanib, ikki adabiyot uyg'unligi mujassam bo'lgan go'zal badiiyatga aylandi. Shuni ta'kidlash lozimki, Xayriddin Sultonov hikoyalari ana shu badiiyatning ajib namunalari.

#### REFERENCES

4. Abrorov A., O'zbek povesti, T., 1973;
5. Timofeyev L.I., Osnovm teorii literaturi, 5-izd., M., 1976;
6. Normatov U., Go'zallik bilan uchrashuv, T, 1976.
7. Adabiyot nazariyasi 1-, 2-tomlar. 1979.
8. H.Homidov va bosh. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati.1983
9. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. 1980 yil
10. Kh-davron.uz
11. Wikipedia.org
12. Ziyouz.com
13. Google.com

## “BEPOYON OSMON” HIKOYASIDA SYUJET ELEMENTLARI

Nosirova Setora Narzulla qizi

Termiz davlat universiteti, 121-guruh talabasi

Hafizova Feruza

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942159>

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyotshunoslik ilmida uchraydigan syujet va fabula terminlarining o'zaro farqli jihatlari hamda badiiy asarda syujetni tashkil etuvchi tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi istilohlar Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasi misolida o'rganib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** syujet, fabula, tugun, ekspozitsiya, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim.

### PLOT ELEMENTS IN THE STORY "THE VAST SKY".

**Abstract.** The article examines the different aspects of the terms plot and fabula found in the science of literature, as well as terms that make up the plot in a work of art, such as the knot, development of events, culmination, solution, on the example of Nazar Eshanqul's story "The Endless Sky".

**Key words:** plot, fable, knot, exposition, development of events, climax, solution.

### СЮЖЕТНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В РАССКАЗЕ «БЕЗБРЕЖНОЕ НЕБО».

**Аннотация.** В статье рассматриваются различные аспекты терминов сюжет и фабула, встречающихся в науке о литературе, а также терминов, составляющих сюжет в художественном произведении, таких как завязка, развитие событий, кульминация, завязка. решение, на примере рассказа Назара Эшанкула «Бесконечное небо».

**Ключевые слова:** сюжет, басня, узел, экспозиция, развитие событий, кульминация, завязка.

Avvalo, har bir badiiy asar ma'lum bir voqealar tizimi, ya'ni syujetdan tashkil topadi. Syujetlilik badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida tushuniladi. Syujet (fran. predmet, asosga qo'yilgan narsa) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.<sup>68</sup> Adabiyotshunoslikda syujet bilan bir qatorda fabula istilohi ham borki, bu ikki atama XIX asr oxirigacha bir-biriga ma'nodosh holda qo'llanilgan. Keyinchalik XXasr boshlaridan syujetning kengroq o'rganilishi va chuqurroq tatbiq etilishi natijasida bu ikki atamaning bir-biridan farqli tomonlari borligi isbotlandi va fanga olib kirildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, syujet bu asardagi ma'lum voqealarning ijodkor tomonidan o'zaro joylashtirish tartibidir. Fabula esa asardagi voqealarning shunchaki hayotda yuz berish ketma-ketligidir. Shu ma'lumotlarga tayanib biz syujet va fabulani farqlar ekanmiz, avvalo, voqealarning hayotda yuz berish tartibi bilan uning badiiy asarda yuz berish tartibining farqini anglab olishimiz lozimdir.

Misol tariqasida o'zbek modernizm adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasini olsak. Hikoya asar qahramoniga qisqa va zardali xat kelishi bilan boshlanadi: “Xat qisqa va zardali edi. Oyto'ldi enang og'ir yotibdi. Joni uzilmasdan

<sup>68</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.—Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.

kel! – bunaqa dag'al jummalarni faqat ammam yozdirishi mumkin, boshqa hech kim. Pashshsaning qanotiday keladigan shu bir parcha qog'ozda ham Oyto'ldi enamga nisbatan bir umr tark etmagan tana-yu dashnomini, o'zining azaliy munosabatini bildirish uchun Oyto'ldi enang deya istehzo qilgani va bunday piching-u kinoyalar faqatgina ammamning qo'lidan kelishini xatni o'qigandayoq tushungan edim<sup>69</sup>. Asar mana shunday boshlanadi. Qahramon avvaliga xatni o'qiydi., vaziyat qanchalar murakkab ekanligini, tug'ilib o'sgan qishlog'iga tezroq qaytishi kerak ekanligini tahlil qilar ekan, shu o'rinda u ortga, o'tmishga nazar tashlaydi. Bu o'rinda biz asar syujet asosida qurilganini anglab olamiz.

Hikoyaga yaxshiroq e'tibor beradigan bo'lsak, asar voqealar tugunidan boshlanadi. Keling, avvalo, asarda voqealar tuguni nima ekanligiga atroflicha tahlil qilamiz. "Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflekti qo'yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o'laroq, tugun syujetning zarur elementi sanaladi, ya'ni u syuzetda har vaqt hozirdir"<sup>70</sup>. Tugun, odatda, asarning boshida, ekspozitsiyadan keyin beriladi. Ba'zan muayyan badiiy estetik maqsadni ko'zda tutgan holda uning o'rni o'zgartirilishi mumkin. "Bepoyon osmon" hikoyasini o'qishni boshlar ekanmiz, jummalarni birin-ketin o'qiganimiz sari tugun ham birin-ketin namoyon bo'laveradi. Yuqorida keltirilgan hikoyaning boshlanmasi bizda turli xil savollar tug'diradi: Aslida qahramon "ammam" deya ta'riflayotgan obraz kim, nega qahramon o'z ammasiga nisbatan bu qadar salbiy munosabat bildiryapti? Oyto'ldi ena obrazi qanday obraz? Nega qahramon uni shunchaki ena demasdan Oyto'di ena deb murojaat qilyapti? Oyto'ldi ena qanday yomonlik qilganki amma obrazi Oyto'ldi enaga nisbatan bir umr tark etmagan ta'na-yu dashnomlarning egasi sifatida ta'riflanadi?! Manashu pallada tugun yuzaga keladi va biz asarni o'qishni davom ettirar ekanmiz, har bir voqealar tuguni birma-bir o'z yechimini topib boraveradi.

Tugundan keying voqealar zanjiri voqealar rivoji deyiladi. Hikoyadagi qahramonning amakisi va amakisining ayoli (muallif tili bilan aytganda yangasi) ning farzand dog'ida kuyishlari, akasining umri besamar o'tayotganligidan achinib kelinoyisiga kun bermaydigan "amma" obrazi tasviri, uning sha'ni, g'ururi sabab bor aybni o'z bo'yniga olib, ta'na-yu dashnomlarga ko'milib yashagan xokisor ayol qismati asar voqealar zanjirini tashkil etadi. Syujet voqealari bosqichma-bosqich, darajama-daraja rivojlanib boraverar ekan, natijada, asar voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi – asar kulminatsiyasi vujudga keladi. Ushbu hikoyadagi kulminatsiya bu qahramonning Oyto'ldi enasining vafotidan so'ng uning sandiqlari orasidagi turli xil qog'ozlar ichidan topilgan tashxis varaqasi bo'ladi. Qahramon kasbi taqazosi bilan ushbu varaqada gap nima haqida ketyotganini yaxshi angelaydi. Asar kulminatsiya va yechimning hamohangligida yakunlanadi: "...Oniy lahzalarda yorishgan xotira siniqlari ichida ammamning bir umr begiz qilingan qo'llari, butun qishloq yangamga yog'diirgan dashnomlar, ...tashxisdan o'tib kelishgan kuni xuddi yangamning—enamning yuzidan sil kabi oqib tushgan ko'zyoshlari—hammasi bor edi. Men endi hammmasini tushungan va anglagan edim: yangam, mening tutingan enam bepusht yashash qismatini o'ziniki deb bilgan, bilgani uchun ham tashxis qog'ozlarini yashirib qo'ygan, el-yurt oldida amakimning boshi egilmasligi, erkaklik g'ururi toptalmasligi uchun bu sirni hammamizdan

<sup>69</sup> Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam.— Toshkent: Yangi nashr, 2019.

<sup>70</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.—Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.



yashirgan ammamning va butun qishloqning bir umrlik xo'rlik va nadomatlariga chidab kelgan..."<sup>71</sup>.

Yuqorida tasvirlangan tugun voqealar rivoji va kulminatsiya syujetni tutib turuvchi asosiy unsurlar sanaladi va ular har qanday syujetda mavjud bo'ladi. Shunday ekan o'quvchi har bir badiiy asarni o'qir ekan, uning voqealar rivoji ortidan quvish shart emas, balki asarning tub mag'zini chaqib, uni ilmiy va badiiy jihatdan ham tadqiq eta olishi lozimdir.

#### **REFERENCES**

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.—Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
2. Umurov H, Nasirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. SamDU nashri, 2021. – 252b.
3. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam.— Toshkent: Yangi nashr, 2019.

---

<sup>71</sup> Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam.— Toshkent: Yangi nashr, 2019.

## MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISHDA SOLIQLARNING ROLINI OSHIRISH HAQIDA

**Turayeva Xusnobod Xolmurod qizi**

Toshkent Moliya Instituti Magistratura kechki ta'lim Iqtisodiyot kafedra  
I -5"K" 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942222>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish, davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga har tomonlama faol ta'sir ko'rsatish mumkin.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti sharoiti, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish, soliq siyosatining o'rni, soliqlarning obyektiv zarurligi, O'zbekiston soliq siyosatining mazmuni, strategiya va taktikasi, O'zbekiston soliq tizimi, uning tartibi, vazifalari, soliqlarning tasnifi.

### ABOUT INCREASING THE ROLE OF TAXES IN STABILIZING LOCAL BUDGET REVENUES

**Abstract.** This article discusses the possibility of increasing the role of taxes in stabilizing local budget revenues, providing a comprehensive active impact on the stabilization and development of the republic's economy through State tax policy.

**Keywords:** conditions of market economy, development of financial relations, role of tax policy, objective necessity of taxes, content, strategy and tactics of tax policy of Uzbekistan, tax system of Uzbekistan, its order, tasks, classification of taxes.

### О ПОВЫШЕНИИ РОЛИ НАЛОГОВ В СТАБИЛИЗАЦИИ ДОХОДОВ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается возможность повышения роли налогов в стабилизации доходов местного бюджета, оказания всестороннего активного воздействия на стабилизацию и развитие экономики республики посредством Государственной налоговой политики.

**Ключевые слова:** условия рыночной экономики, развитие финансовых отношений, роль налоговой политики, объективная необходимость налогов, содержание, стратегия и тактика налоговой политики Узбекистана, налоговая система Узбекистана, ее порядок, задачи, классификация налогов.

Mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududlardagi moliyaviy muammolarining keskinlashuvi sharoitida hamda bugungi kundagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Mahalliy byudjetlar - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi. Mahalliy byudjetlarda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig'imlar hamda to'lovlardan tashkil topadi. Mahalliy byudjetlarning mablag'lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar har bir mamlakat davlat byudjetining ajralmas qismidir.

Vazirlar Mahkamasining e'lon qilingan 29.06.2017 yildagi 445-son qarorida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish rezervlarini aniqlashning batafsil mexanizmlari

mustahkamlangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida ko‘plab insonlarning bandligi va daromadi masalasi bevosita tadbirkorlik tuzilmalari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tdi. «Agar biz tadbirkorlarni qo‘llabquvvatlamasak, ularga sharoit yaratib bermasak, shahar va tumanlarning mahalliy byudjeti nochor ahvolda qolaveradi», — dedi u. Davlat rahbarining qayd etishicha, so‘nggi yillarda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ikki barobar ortgan. Sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining 50 foizdan ortig‘i so‘nggi uch yillikda tashkil etilgan. Sohada amalga oshirilgan bu kabi ishlar jamiyatda o‘rta sinfning kuchayishi uchun zamin yaratadi. «Tadbirkorlar ularni qo‘llab-quvvatlash haqidagi chiroyli so‘zlarni ko‘p eshitgan, endi bu gaplarning amaliy ta’siri va natijasini o‘z kundalik faoliyatida his etishi kerak», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlarini tashkil qilishdagi choratadbirlari, faoliyatlar yig‘indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o‘z mustaqil soliq siyosatiga ega bo‘la oladi.

Soliq – bu davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta’minlash maqsadida davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar (tashkilotlar)dan yig‘ib olinadigan to‘lov. Davlat budjetining asosiy qismi soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy turkum jihatidan nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu to‘lov sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Ko‘plab olimlar va mutaxassislar soliqlarning umumiy hamda iqtisodiy mazmunmohiyatini ochib berish maqsadida o‘zlarining turli fikrlarini bildirib o‘tishgan. Soliqlarning mohiyatini aniqlashda esa ularning rivojlanish tarixiga nazar tashlash va uni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq majburiyati tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, u yoki bu shakldagi soliqlar hatto ibtidoiy va qadimgi jamoalarda ham undirilganligi haqidagi ma’lumotlarga duch kelamiz. Shubhasiz, soliqlarning vujudga kelishi eng dastlabki ijtimoiy ehtiyojlarga zaruratning tug‘ilishi bilan bog‘liq. Davlat paydo bo‘lib, rivojlanib borishi bilan birga soliq tizimi ham takomillashib borgan. Soliq tizimi yordamida hukumat mamlakatdagi moliyaviy oqimlarni (tartibga solish, taqsimlash va qayta taqsimlash), shuningdek, butun milliy iqtisodiyotni boshqarish funksiyalarini amalga oshiradi. Demak, soliqlar paydo bo‘lgandan buyon jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning zaruriy butunligiga aylangan deyishimiz mumkin.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga har tomonlama faol ta’sir ko‘rsatish mumkin. Soliqlar pul munosabatlari bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Soliq tizimi deganda mohiyati jihatidan bir xil bo‘lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig‘indisi tushuniladi.

Tizim - bu yig‘ma tushunchadir. Bu tushunchada soliqlarning bir-biri bilan bog‘liqligi ham ifoda etilgan. Soliq tizimini quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

Soliq tizimini soliq obyektiga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin: oborotdan, daromaddan va mulklar qiymatidan olinadigan soliqlar. Oborotdan olinadigan soliqlarga ko‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, konlardan foydalanganligi uchun soliq, bojxona boji kiradi. Daromaddan olinadigan soliqlarga foyda solig‘i va daromad solig‘lari kiradi. Mulklardan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig‘i va yer soliqlari kiradi. Iqtisodiy moxiyatga qarab to‘g‘ri va egri soliqlarga bo‘lish

mumkin. To'g'ri soliqlar bevosita daromad oluvchi mulk egasining daromadlaridan (foydalaridan) olinadi. Bunday soliqlar huquqiy va xaqiqiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Soliq ilgari aniq belgilangan bo'ladi. Uning manbai bo'lib korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati natijasida erishilgan moliyaviy yakun xisoblanadi. Axoli soliqlarida esa soliq manbai bo'lib to'g'ridan-to'g'ri axolining daromadi xisoblanadi. Foyda (daromad) solig'i, yer solig'i va daromad solig'i to'g'ri soliqlarning eng yirik daromaddir.

Egri soliqlar korxonalar va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy yakuniga bog'liq bo'lmaydi. Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar oborotiga (baxosiga) ustama tarzda belgilanadi. Ular so'zsiz tovar qiymati va xizmat summasini oshiradi va iste'mol ni kamytiriladi. Bu soliqlarni ba'zan iste'mol soliqlari deb xam ataladi. Bundan qaraganda ularni guyo maxsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'layotgan bo'ladi. Aslida esa ularning xaqiqiy to'lovchisi tovar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar bo'ladi. Egri soliqlar guruhiga ko'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Biz avvalo soliq tizimi va soliq solish tizimi tushunchalarni bir-biridan farqini bilishimiz zarur. Bu yerda nazariy jihatdan soliq tizimi soliqlar yig'indisi tushuniladi. Soliq solish tizimi esa tashkiliy jihatdan, tuzilish usullari yig'indisi tushuniladi. Ya'ni soliq solish tizimi amaliy usul yig'indisidir. Shunday qilib, soliq solish tizimi deb, Oliy majlis tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tuzilish usullari va tamoyillari yig'indisiga aytiladi. Bu tizimning urni jamiyatning ijtimoioy-iqtisodiy tizimi bilan aniqlanadi. Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Soliq subyekti bu soliq munosabatlarni tashkil qiluvchilar. Bularga asosan soliq to'lovchilar:

Yuridik shaxslar korxonalar, tashkilot, firma va jismoniy shaxslar-axoli kiradi. Ikkinchi tomondan soliq subyektiga davlat kiradi, ya'ni soliq oluvchi.

Soliq obyekt - bu soliq solinadigan daromad, narsa (buyum), mulk, qiymati, tovar, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar. Ko'pincha soliq nomi obyekt nomi bilan ataladi. Masalan, yer solig'ida yoki daromad solig'ida.

Byudjetga o'tkazish nuqtai nazardan soliqlar umumdavlat soliqlari va maxalliy soliqlarga bo'linadi.

Soliq qonunchiligida soliqlarning qaysi turlari to'g'ri davlat byudjetiga, qaysilari esa maxalliy byudjetga tushishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Ammo shu aniqki davlat byudjetiga tushgan mablag'larning bir qismi maxalliy byudjetlarga ajratib beriladi.

Soliq turlariga qarab bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bunday guruxlanish Soliqqa tortish oboektiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bog'liq buladi. Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va molmulkka belgilanadi. Tovarning baxosida to'lanadigan yoki taxrifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar bilvosita soliqlarga kiradi.

Bevosita soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi. Real soliqlar soliq to'lovchining molmulkining ayrim turlaridan kadastr asosida undiriladi.

Xar qanday tadbir, ish va faoliyat ilgari belgilanib, aniqlanib ishlab chiqilgan siyosat bilan amalga oshiriladi. Siyosat deganda davlatning ilgari belgilab, aniqlab qo'ygan chora-

tadbirlari yig'indisi tushuniladi. Soliq ishlarini tashkil qilishda xam shu siyosat bilan ish yuritiladi. Soliq siyosati davlatning moliya siyosatini eng muhim, tarkibiy ajralmas qismidir.

Nazorat funksiyalari mavjuddir. Ayrim iqtisodchilar fikrlari bo'yicha taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solishlarni xam ko'shadilar. Lyokin bizni fikrimizga kura soliqlar asosan 3 ta funksiyani bajaradi, taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solish asosan uchta funksiyani ichiga kirib ketadi. Xazina (fiskal) funksiyasi. Fiskal (lotincha Fiscus so'zidan olingan bo'lib, g'azna degan mahnoni anglatadi) xususiyatiga ega ekanligidir.

Soliqlarning nazorat funksiyasiga kelsak, bu funksiya orqali soliqlar ijtimoiy maxsulot qiymatini qanchaga tushganligi, milliy daromadning salmogini nazorat qilib bilib olgandan so'ng undan qancha qismini soliqlar orqali byudjetga tuplash zarurligi, ularning obyektlarini, soliq to'lovchilarini, soliq stavkalarini to'g'ri belgalish hamda soliqlarni o'z vaqtida to'g'ri xisoblab byudjetga o'tkazish jarayonini nazorat qilib boradi. Bu nazorat doimo taqsimlash funksiyasi bilan yonma-yon olib boriladi. Soliqlarning nazorat funksiyasi ba'zan taqsimlash funksiyasidan ham kengayib ketadi. Chunki taqsimlashda faqat pul munosabatlari bilan chegaralanib qolinsa, soliqlarning nazorat funksiyasi pul munosabatlari orqali taqsimlashdan tashqari soliq obyektlarini buyum shaklida xam to'liqligi, mahsulotlar qoldiqlari xomashyo va yoqilg'ildan boshqa manbalardan foydalanish ustidan ham nazoratga aylanadi. Demak, soliqlarning nazorat funksiyasi soliq idoralarini xodimlarining kundalik olib boradigan umumiy iqtisodiy nazoratining nazariy asosini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq idoralarining nazorati asosan yagona iqtisodiy qonunlar talabiga javob beradigan nazoratga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq ma'muriyatchiligini izchil takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish sohasida islohotlarni davom ettirish uzoq muddatli davrda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish va davlat byudjeti daromadlarini oshirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi

#### REFERENCES

1. Алиев Б.Х. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Финансы и статистика”, 2018
2. Alimardonov M., Kuziyeva N. “Soliqlar va soliqqa tortish” o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2007
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya Darslik. –T.: “Noshir”, 2011
4. Jo'raev T. Soliqsiyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini vatamoyillari. //Soliqlar va boj xonaxabarlari. – 2018



## ONA TILI O'QITISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Bobojonova Muhayyo Alisherovna**

Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi M.M.T.B ga qarashli 101-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942434>

*Annotatsiya.* Maqolada ona tili o'qitishda o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlarini amalda qo'llash jarayonlari namunalari keltirilgan. O'quvchilar iqtidorini oshirishda, ularning nutqi, fikrlashi, mavjud axborot manbalaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch kompetensiyalarni qo'llash tavsiyalari berilgan.

*Tayanch so'zlar:* kompetensiya, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ruhiy va intellectual kamolotga intilish, ijodiy fikrlash malakasini oshirish.

### METHODOLOGY OF USING STUDY TASKS BASED ON THE COMPETENCY APPROACH IN THE MOTHER LANGUAGE TEACHING PROCESS

*Abstract.* The article presents examples of the processes of practical application of the elements of basic competences formed in students in the teaching of the mother tongue. Recommendations are given for the use of basic competencies in the development of students' abilities, in the formation of their speech, thinking, and the ability to use available information sources.

*Key words:* competence, the competence of self-development as a person, striving for mental and intellectual perfection, improving the skill of creative thinking.

### МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

*Аннотация.* В статье представлены примеры процессов практического применения элементов базовых компетенций, формируемых у учащихся при обучении родному языку. Даны рекомендации по использованию базовых компетенций в развитии способностей учащихся, в формировании у них речи, мышления, умения пользоваться доступными источниками информации.

*Ключевые слова:* компетентность, компетентность саморазвития как личности, стремление к умственному и интеллектуальному совершенству, совершенствование навыка творческого мышления.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi-o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi – o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologoya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan

holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanidan o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'limda – ona tili imkoniyatlari asosida ta'lim oluvchida mustaqil va ijodiy fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq muhiti, sharoiti va vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. 5-9- sinflarda ona tili fonetikasi, leksikasi, morfologiya va sintaksisini tizimli va amaliy samarali o'rganish natijasida ta'lim oluvchiga tilshunoslik fani asoslarini berish emas, balki ayni bir narsa- hodisani atash, fikrni ifodalash uchun ona tilida o'nlab imkoniyatlarning har birining o'z ifoda va ta'sir xususiyatini o'quvchiga yetkazish, unda mana shu jihatlarni ilg'ay olish, bunda axborot resurslariga murojaat qilishmadaniyatini shakllantirish, har bir shakl va imkoniyatdan o'z o'rnida foydalana olish malakalarini rivojlantirishdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida tayanch kompetensiyalar quyidagicha nomlanadi:

1. Kommunikativ kompetensiya.
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi.
3. Shaxs sifatida o'z- o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.
5. Umummadaniy kompetensiya.
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Bizningcha “kompetensiya” deganda, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda amaliy qo'llay olish layoqati tushuniladi. Ilmiy tadqiqotchi sifatida darslarimda tayanch kompetensiyalarning barcha turlaridan unimli foydalanishga harakat qilaman.

1. Kommunikativ kompetensiyasi: Mavzudan kelib chiqib to'g'ri javob bera olish;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: mavjud aborot manbalaridan (internet, televizor, radio(audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektronpochta va boshqalar) foydalana oladi;
3. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini- o'zi rivojlantirib, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellectual kamolotga intila oladi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: mehnat qonunchiligida o'z haq huquqlarini biladi, jamiyat va oilasi manfaati uchun xizmat qila oladi.
5. Umummadaniy kompetensiyalar: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish.

Bugun sizlarga 3- tayanch kompetensiya: Shaxs sifatida o'z- o'zini rivojlantirish kompetensiyasi bo'yicha olib borilgan ishlar, erishilgan yutuqlar haqida o'z tadqiqotim

natijalarini o'rtog'lashmoqchiman.

Darslardagi qatra va ijodiy matn yarata olish ko'nikmasi o'z-ozini rivojlantirish, jismoniy, madaniy, ruhiy va intellectual komolotga intilishga undaydi, o'z hatti – harakatini nazorat qila bilishga, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarda ega bo'lishga chorlaydi. Quyida o'quvchilar tomonidan yaratilgan qatra va ijodiy matnlar shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasiga yaqqol misol bo'la oladi.

**Bolalikning beg'ubor tongi**

Bolalik bu - beg'uborlik. Bizning quvonchli kunlarimiz, shirin allamiz. Zavqqa to'la baxtli onlarimiz. Kulgu gullarining g'uncha ochish davri. Zamon torlarining yoqimli misiqasi. Tabiatning jilmayishi. Ilohiy kuch, ilk qadam, ilk sevinch tuyg'usi. İlk so'z va albatta hayot. Bu bolalikning beg'ubor tongi emasmi? Bizga ayon, har bir bola o'zgacha. O'ziga xon, o'ziga bek... G'ayri tabiiy qarash. Boshqacha xususiyat. Har gapida sokinlik, jo'shqinlik o'ynaydi. Uning munchoq – munchoq ko'zlari qalbingga xotirjamlik keltiradi. Har kulishida o'zing bilmagan holda osmonlarga uchasan, bulutlarni quchasan. Har so'zin tinglab, uzoq vaqt yashaganday bo'lasan. Uni ilk bor qo'lingga olsang, bag'ringga bossang, bolaligingni eslaysan. Sen ham dala – qirni sevganing, qalbingdagi baxt nima ekanligini tuyganing yodingga tushadi. Ana shunday tarzda bolalikning beg'ubor tongi seni qarshilaydi. Hayotingning eng nish urgan faslini topasan. Bolalik bozorining xaridori bo'lasan. U yerdan bolalik davri, bolalik ko'ngli, bolalik bag'ri, bolalik nozi kabi mevalarni sotib olasan. Ularning sevinch ila ta'mini totib ko'rasan. Vaqt o'tib, qiymati ko'tarilgach, yana sotib olish uchun yelib - yugurasan. Ammo bu bozorning xaridori bo'lolmaysan. O'rningni boshqasi egallaydi. Qayg'urma! Sen uchun esa o'smirlik bozori poyezdi uchun chipta beriladi.

**Bahor tabassumi**

Bahorning ilk tongida o'zgacha uyg'ondim. Derazadan qaradim. Kayfiyatim ko'tarilib ketdi. Negadir o'zimni qushdek yengil his qila boshladim. O'zgacha yoqimli hid taraldi. Bu bahorning yoqimli ifori edi. Bunchalar ham yoqimlisan, bunchalar ham go'zalsan, bahorim! Sening yoqimli shabadang ham daraxtlarni asta uyg'otadi. Ular ham o'z tuhfasini senga hadya qilishadi. Ular gullaydi. Bu sovg'ani ko'rib sen yana ham atrofga o'zgacha boqasan, hamma yerni gulga burkaysan. Bundan shodlangan quyosh esa o'z nurlarini o'zgacha taratadi. Bahor, sening sening tabassumingni ko'rdik. Hammayoq gulga burkandi, bu sening tabassuming emasmi?

**Taqdir**

O'shanda kichkina edim. Men uni yaratishim kerak edi. Men uni yaratdim, xuddi bolalardek! U mening qo'limda qo'g'irchoq edi go'yo. Yillar o'tib, men o'smir bo'ldim. Endi men o'zimga sig'may ketardim, xuddi butun dunyo menga qarshi chiqayotgandek ko'rinar edi. O'zimga qandaydir tuyg'ularni his etardim. Negadir endi o'zimni uning qo'lidagi qo'g'irchoqdek his qilardim. Katta bo'ldim, endi men o'zimni eplay olardim. Endi u menga ba'zida do'st, ba'zida esa raqib edi. U meni oyog'imga har qadamda bolta urib, yiqitishga harakat qilardi. Ba'zida u qo'ygan tuzoqlarida ancha qolib ketardim, ba'zida tuzog'ini chetllabo'tardim. Ba'zida uni deb yig'lar, ba'zida kulardim. Endi yanayam kattaroq bo'ldim, endi men xulosa chiqardim. Odamlarning taqdiri o'z qo'lida ekan. Taqdir tuzoq qo'ymas ekan, aslida u bizga imkon berar ekan. Ammo biz insonlar o'zimiz qo'ygan tuzoqqa, o'zimiz tushar ekanmiz!

Bugungi kun

Hayot bir ko'chaga o'xshaydi. Unda qanday qadam bosish o'zimizga bog'liq. Hadeb, o'tmishga alanglasak, hayotda ko'p qoqilamiz. Xotiralar unda chalg'ishga olib keladi. Kelajakka intilaversak, bugungi kun yo'qoladi, bugungi maqsad yo'qoladi. Biz bugungi kun, mana shu soniya bilan yashashimiz kerak. Hayotda bugungi rejalar bo'lmay turib, bir yildan keyin nima qilaman, nima qilishim kerak, deb emas, balki hozir nima qilaman, bugun nima qilishim kerak, deb savol berishimiz kerak. Agar har bir inson bugungi kun bilan yashaganida edi, orzular va maqsadlardan ko'ra, g'alabalar va yutuqlar ko'proq bo'lardi. Kim biladi, yana kimlardir: "Buguning bilan yashasang, xor bo'lasan, ertangni o'yla!"- deb qo'yishadi Nima bo'lganda ham, har bir inson hayoti davomida o'z umr daftariga taqdir qalami bilan o'z bitigini bitishi kerak. Niyatim esa har bir insonning umr daftaridagi orzu-maqsadlari va yutuq, g'alabalari o'rtasida doimo tenglik bo'lsin! Har bir insonning taqdir qalami doimo o'tkir bo'lsin!

Yuqoridagi ijodiy matnlarni yaratishdan tashqari, nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni ham shakllantirib, tahlil jarayonlarini o'tkazilsa ham maqsadga muvofiq. O'zbek tili o'qitish metodikasi fani hozirgi kungacha boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rganishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarni ishlab chiqishdir.

Ona tili darslarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlaridan foydalanilsa, har bir dars qiziqarli o'tishiga, badiiy so'z qudratini anglashga, vatanga sadoqatli insonlarga mehr- oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatga e'tiqodli bo'lishga zamin yaratiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi Respublika Ta'lim Markazining "O'quv dasturi" 2017- yil
2. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari" Andijon viloyati, Baliqchi tumani 15 – umumta'lim maktabi oily toifali o'qituvchisi Foziljon Anapiyayev ma'ruzasi.2017- yil.
3. Nozimaxon A'lamova. "Hayot oynasidan mo'ralaganda" "Istiqlol nuri" nashriyoti 2019- yil. Xalq Ta'limi vazirligi tasarrufidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi.
4. "Bahor tabassumi" Malikxo'jayeva Mumtoza. "Istiqlol nuri" nashriyoti. 2019- yil. Xalq Ta'limi vazirligi tasarrufidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi.

5. “Haqiqat tilsimlari” Zeboxon Saydaxmedova.“Sharq” nashriyoti.2012-yil Xalq Ta’limi vazirligi tasarrufidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot o’qituvchisi



## TABIAT HODISALARIGA MANSUB SO'Z VA BIRIKMALARNING LEKSIK, MORFOLOGIK TAHLILI

Abdurahmonova Dilafro'z

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti  
2-bosqich 421-guruh talabasi

Xidirova Iroda

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942487>

**Annotatsiya.** Maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari, "At tuhfat uz zakiyatu fil lug'otit turkiya" lug'ati hamda Muhammad Yaqub Chingining "Kelurnoma" lug'at asarlari asosida tabiat hodisalariga oid so'z va birikmalar o'rganildi, solishtirildi va so'zlar leksik morfologik jihatdan muqoyasa qilindi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, leksika, morfologiya, "Devoni lug'otit turk", "At tuhfat uz zakiyatu fil lug'otit turkiya", "Kelurnoma", lug'at, termin.

### LEXICAL AND MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF WORDS AND PHRASES RELATED TO NATURAL PHENOMENA

**Abstract.** The article contains words and phrases related to natural phenomena based on Mahmud Koshgari's "Devoni lug'otit turk", "At tuhfat uz zakiyatu fil lug'otit turkiya" dictionary and "Kelurnoma" dictionary by Muhammad Yaqub Chingi. studied, compared and compared words lexically morphologically.

**Key words:** linguistics, lexicon, morphology, "Devoni lug'otit turk", "At tuhfat uz zakiyatu fil lug'otit turkiya", "Kelurnoma", dictionary, term.

### ЛЕКСИЧЕСКИЙ И MORFOЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВ И СЛОВСОЧЕТАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПРИРОДНЫМИ ЯВЛЕНИЯМИ

**Аннотация.** В статье на основе труда Махмуда Кошгари «Девони луг'отит турк», словаря «Ат тухфат уз закияту фил луг'отит туркия» и словаря «Келурнома» Мухаммада Якуба Чинги представлены слова и словосочетания, связанные с природными явлениями. изучали, сравнивали и сопоставляли слова лексически морфологически.

**Ключевые слова:** языкознание, лексика, морфология, «Девони луг'отит турк», «Ат тухфат уз закияту филь луг'отит туркия», «Келурнома», словарь, термин.

O'zbek, aniqrog'i, turkiy tilning umumturk adabiy til sifatida shakllanilishi VI – VII asrlarga borib taqalar ekan, uning hozirgi davrgacha bo'lgan faoliyati – o'zining qo'shni qabilalar tomonidan tazyiqlarga uchrab, til manbalarining yo'qotib yuborilishi kabi jiddiy to'siqlarga yuz tutib kelgan bo'lsada, tez orada mustaqil til shaklida rivojlanib chiqqanligi o'zining qay darajada yuksak til ekanligining asosidir. Bu esa to'g'ridan – to'g'ri, o'z tili taraqqiyoti yo'lida ter to'kib, xizmat qilgan, buyuk taraqqiyparvar namoyondalarimiz faoliyatiga borib taqaladi. Ana shunday taraqqiyparvar namoyondalardan biri bobomiz Mahmud Koshg'ariy edi. U o'zining "Devoni lug'otit turk" asari bilan turkiy tilimiz takomillashuvidagi ilk vositachilaridan biri bo'ldi. Uning X – XI asrlarda yaratilgan bu asari o'sha davr hayot tarzi, madaniyatidan tashqari, til shevasi, tilshunoslikka oid leksika, morfologiya, fonetika kabi uslubiyatlarini o'z ichiga oladi.

"Devoni lug'otit turk" – o'z davrining har qaysi soha terminlarini o'rganishdagi noyob qo'llanma bo'lganligi sabab turli guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Shu o'rinda biz ham, asarda

keltirilgan “tabiat hodisalariga oid” soʻz va birikmalarni tahlil qilib chiqmoqqa bel bogʻladik. Lekin tilshunoslik asari birgina “Devoni lugʻotit turk” emasligi yuzasidan XIII – XIV asrlarni oʻz ichiga oluvchi, muallifi aniqlanmay qolgan “At tuhfat” lugʻati hamda XVII asr namunasi hisoblanuvchi, Muhammad Yaqub Chingyining “Kelurnoma” kitoblari tarkibida qoʻllanilgan “tabiat hodisalariga mansub” soʻz va birikmalarni ham oʻrganib chiqishni maqsad qildikki, bu uch asar asosida turkiy til tabiat hodisalarini terminlari davrlashuvi, oʻxshash va farqli jihatlari oʻzaro muqoyasalashuvini koʻzda tutdik. Negaki, bu uch asar yozilishi jihatidan, birin – ketin yaratilgan boʻlib, turkiy tilning oʻgʻuz, qipchoq, qarluq shevalarida tarkibiy almashinilib ishlatiladi. Masalan, “Devoni lugʻotit turk”da koʻproq oʻgʻuz lahjasidagi soʻzlar qoʻllanilgan boʻlsa, “At tuhfat”da, asosan, qipchoq shevasi soʻzlari qoʻllanilgan.

“Kelurnoma”da boʻlsa, qarluq shevasidagi soʻzlardan keng foydalaniladi. “Devoni lugʻotit turk” asarining I tomida kelgan “shamol, shabada” soʻzini anglatuvchi **эсін** (38) va II tomida kelgan **тубі** (4) soʻzlari, “At tuhfat”da **жәл** (201) shaklida, “Kelurnoma”da esa **йәл** (88) shaklida qoʻllaniladi. Koshgʻariy asari II tomida “yomgʻir” soʻzini **јағмур** (36), I tomida birikma tarzida: **эркин јағмур** (51) yaʼni “kunlab davom etuvchi, bir necha kun toʻxtovsiz yogʻuvchi yomgʻir” maʼnosida keltirilgan. “At tuhfat”da **јамғур** (196), Chingdiy asarida bu soʻz **йамғур** (87) koʻrinishida qoʻllangan. “At tuhfat”dagi **јилдїрїм** (202) va **көкрәк** (59) shakllarida berilgan “chaqmoq” soʻzi “Kelurnoma”da **йашын** (88) tarzida, “Devoni lugʻotit turk”ning II- III tomida **чак,мак**, (191) va **јашїн** (28) koʻrinishida qoʻllaniladi. Aylanma chang koʻrinishidagi qisqa muddatli kichik shamol yaʼni “quyun” “Kelurnoma”da **к,уїун** (93) shaklida, “At tuhfat”da **којун** (86), “Devoni lugʻotit turk”da bu soʻz qoʻllanilmaydi. Keyingi soʻzimiz “toʻzon” soʻzi boʻlib, uning kuchli shamol koʻtarilishi natijasida havoning changlanish hodisasi ekanligini yaxshi bilamiz. Bu soʻz Koshgʻariy asarining III tomida **тоз** (134) shaklida, “Kelurnoma”da **чак,ын** (109) va “At tuhfat”da ham “Devoni lugʻotit turk”dagi kabi **тоз** (90) koʻrinishida qoʻllangan. Demak, oʻgʻuz va qipchoq shevasida “toʻzon” soʻzi ham leksik, ham grafik jihatdan bir xil koʻrinishda ishlatilgan. Havoga nisbatan qoʻllaniluvchi “sovuq” soʻzi “Devoni lugʻotit turk” asari I tomida **тум** yoki **тумлуғ** (258), II tomida **үшүк** (24) – “mevalarni uruvchi, ularni oʻsishdan toʻxtatib qoʻyuvchi sovuq” maʼnosida berilsa, “Kelurnoma”da bu soʻz **савук**, (99) holicha keltiriladi. “At tuhfat”da boʻlsa, aynan “sovuq” soʻzining oʻzi emas balki, “qattiq sovuq” maʼnosini ifodalovchi **ажаз** (76) tarzida beriladi. Va shuningdek, “At tuhfat”dagi “sovuq shamol” birikmasi maʼnosida qoʻllangan **чїк,їн** (77) soʻzi Koshgʻariy asari III tomida **тан** (172) soʻzi bilan qoʻllanilgan va “tongdagi va kechki sovuq shamol” maʼnosini ifodalab kelgan. “Kelurnoma”da esa “tabiat hodisalariga oid” soʻzlar jami 6 tagina qoʻllanilganligi bois, koʻplab soʻzlarning solishtirilishi imkoni boʻlmadi.

“At tuhfat”da qoʻllanilgan, maʼnosi hozirgacha oʻzgarishsiz qoʻllanilib kelinayotgan **туман** (79) soʻzi “Devoni lugʻotit turk”ning I tomida **эмир** (11) koʻrinishida, II tomida **бусардї** (81-82) – “tumanladi” yaʼni “havoni tuman bosdi” maʼnosida (feʼl soʻz turkumi doirasida), III tomidagi **тујук**, (181) soʻzi bilan “tumanli” (sifat soʻz turkumi doirasida) maʼnolarini ifodalaydi. Keyingi soʻz, “At tuhfat”da keltirilgan **көкрак** (222) “momaqaldiroq” soʻzi boʻlib, bu soʻz “Devoni lugʻotit turk” asarida ayni oʻzi, bir soʻz shaklida qoʻllanilmay, **көк күрландї** (293) – “osmon guldiradi” va **булитлар к,амуғ көкрәшди** (259) – “bulutlar guldirashdi” kabi birliklar shaklida keltirilgan. Koshgʻariy lugʻati I tomida qoʻllanilgan **сарк,їм** (448) – “qirov” soʻzi “At tuhfat” asarida **к,їрав** (225) shaklida keltiriladi. Sovuq havo natijasida, tong payti yerlarga inuvchi

kichik, qorga o‘xshash parcha – qirovdir. “Devoni lug‘otit turk”ning I tomida qo‘llanilgan **ачук көк** (4) – “ochiq havo”, **ісің күн** (8) – “issiq kun” hamda **эмик күн** (8) – “iliq kun” kabi birikmalar “At tuhfat” kitobida uchramaydi. “Sel” ma‘nosini bildiruvchi **ак,ин**(46), “qalin soya” ma‘nosidagi **көлікä** (49), **к,ар** (162) shaklidagi “qor” so‘zi, “havo” ma‘nosini anglatuvchi **сөгүк** (377) va “osmondan yog‘uvchi jala, do‘l” ma‘nolarini ifodalovchi **толї** (251) so‘zlari ham faqatgina Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridagina uchraydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turkiy til imkoniyati bag‘oyatda katta. Tahlil qilib o‘tganimiz, birgina “chaqmoq” so‘zi “Devoni lug‘otit turk” asarida 2 – 3 xil shakl – ko‘rinishda uchrashi yoki bo‘lmasa, lug‘atlarda so‘zlar faqat so‘zliklar bilan cheklanib qolmay birikma, ibora, frazaviy birlik ko‘rinishida ham ifoda etilganligi buning yorqin dalili bo‘la oladi. Shu o‘rinda, “tabiat hodisalariga mansub” bizga notanish so‘zlar yoki biz bilgan so‘zlarning boshqa bir sinonimiyasini shaxsiy lug‘atimizda kashf etishimizda ham bu uch lug‘at katta ahamiyat kasb etdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

## REFERENCES

1. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
2. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family). *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 1(2), 196-199.
3. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 188-189.
4. Jo‘rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG‘LAYDI” ASARIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(2), 42-48.
5. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
6. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). SHOYIM BO ‘TAYEVNING “SHO ‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARIDA NOADABIY QATLAM SO ‘ZLARINING QO ‘LLANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 487-491).
7. Xidirova, I. ., & Jo‘rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142–144.
8. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. *Modern Science and Research*, 2(3), 138–141.
9. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk”. O‘zbekiston fanlar akademiyasi, Toshkent – 1963.

10. “At tuhfat us zakiyatu fil lug‘otit turk turkiya”. O‘zbekiston “Fan” nashriyoti, Toshkent – 1968 Muhammad Yaqub Chingi “Kelurnoma”. O‘zbekiston, “Fan” nashriyoti, Toshkent – 1982.
11. M.Jo‘rayeva, I.Xidirova “Qoyalar ham yig‘laydi” asarida qo‘llanilgan dialektizmlarning leksik-semantik tahlili. Development of pedagogical technologies in modern sciences. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7625018>
12. G.Raxmonjonova, I.Xidirova “Chortoq so‘zining kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar. Eurasian journal of academic research. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7157531>

## ШОИР ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ

М.Ҳамраева

ф.ф.н,доц. ТерДУ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943364>

**Аннотация.** Ушбу мақола замонавий ўзбек адабиётида ўз йўлини топган ва ўз овозига эга бўлган умидли ижодкорлардан бири Мирзоҳид Ботировнинг "Бу йўллар бегона..." номли шеърининг таҳлилига бағишланган. Шоир шеърятини ўрганиш, ижодининг ўзига хослиги, оҳорли ифодалар, гўзал ташибеҳлар асносида текиширилди. Мирзоҳид Ботиров ўзбек шеърятини "Ҳайрат чоҳлари", "Деразангни оч", "Ҳаёт симфонияси", "Энг ёруғ хат" каби шеърини тўпламлар яратиш, самарали ижод қилаётган бетакрор шеърят тухфа этган ижодкор саналади. Унинг қаламига мансуб бўлган ушбу шеърда ҳам ўзлигини топишга интилаётган қаҳрамон сийрати, қаҳрамон изтироблари, қалб иқрорномаларидай таассурот қолдириши, узвийлик касб этиши, умумийлик принципида берилганлиги билан боғлиқ масалалар таҳлилга тортилгани ҳам аҳамиятлидир.

**Калим сўзлар:** шоир шеърятини, лирик қаҳрамон руҳияти, қаҳрамон сийрати, қаҳрамон табиати, сўнгсиз туйғулар, дардга қоришиқ ва бошқалар.

### A CHARACTERISTIC FEATURE OF THE POET'S POETRY

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the poem "Bu yollar begona..." by Mirzohid Botirov, one of the promising artists who has found his way and has his own voice in modern Uzbek literature. Studying the poet's poetry, the originality of his work, poetic expressions, and beautiful allusions were examined. In Uzbek poetry, Mirzohid Botirov is considered to be a creator of unique poetry, who created poetry collections such as "Hirat Chohlari", "Derazangni Ach", "Symphony of Life", "The Brightest Letter". It is also important that in this poem, which belongs to his pen, the issues related to the character of the hero trying to find his identity, the sufferings of the hero, leaving an impression like confessions of the heart, gaining coherence, and being given in the principle of generality are analyzed.

**Key words:** poet's poetry, lyrical hero's spirit, hero's poetry, hero's nature, endless feelings, mixed with pain, etc.

### ХАРАКТЕРНАЯ ЧЕРТА ПОЭЗИИ ПОЭТА

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу поэмы «Бу йоллар бегона...» Мирзохида Ботирова, одного из перспективных художников, нашего времени, который нашел свой путь и имеющего свой голос в современной узбекской литературе. При изучении поэзии поэта



*рассматривались оригинальность его творчества, поэтические выражения, красивые аллюзии. В узбекской поэзии Мирзохид Ботиров считается творцом уникальной поэзии, создавшим такие поэтические сборники, как «Хират Чохлари», «Деразангны ач», «Симфония жизни», «Самая яркая буква». Немаловажно и то, что в этом стихотворении, принадлежащем его перу, вопросы, связанные с характером героя, пытающимся обрести свою личность, страданиями героя, оставляющими впечатление, как исповеди сердца, приобретающая связность, приведенные в принципе общности.*

**Ключевые слова:** поэзия поэта, дух лирического героя, поэзия героя, характер героя, бесконечные чувства, смешанные с болью и др.

Мирзохид Ботиров ўзбек адабиётида ўз йўлини топишга интиланган ва ўз овозига эга ижодкорлардан бири саналади. Унинг бетакрор шеърятини кузата туриб, "Шеър қандай ёзилади?" деган илохий саволга беихтиёр жавоб топандек бўласиз. Шоир шеърятини кузата туриб, ижодни ўзига қисмат деб билган кўнгилнинг дардлари, изтироблари, ғамлари Сизни безътибор қолдирмаслигига амин бўласиз. Шоир содда ва самимий сўзлари билан кўнгилларни безайди. Инсон дардини англай олади. Бошқача айтганда, кўнгил неъмат бўлган гўзал ижоди билан юракларни забт эта олган. Унинг "Бу йўллар бегона..." шеърини ўқиб ҳам юракни безовта этган сўнгсиз туйғулар, дардга қоришиқ ҳолда тасвирланганини сезасиз. Айниқса унинг "Ҳамма нарса бугун, телба-тескари, Ҳатто фаслларда ранглар қоришиқ" мисрасига диққат қиладиган бўлсак, бу турфа дунёнинг ўйинларидан ҳориган лирик қаҳрамоннинг руҳияти ярқ этиб кўзга ташланади. Демокчиманки, лирик қаҳрамон шунчалик ғам қозонида қайнаганидан ҳеч нарсанинг қизиғи қолмаган, гўё, барчаси ўз рангини йўқотиб, аралашиб кетгандек туюлади. Яна ҳам чуқурроқ назар ташлайдиган бўлсак, ўзлигини топишга интилаётган қаҳрамон сийратини кўргандек бўласиз. Шоирнинг "Дарахтлар кузатар кўллари бигиз, Эслатиб тургандек хато кечмишим. Қовжираб қуриган сўнгаларимни, Қайта-қайта уради яшин." мисраларида ҳам улкан дард яширинганини сезиш қийин эмас. Агар чуқурроқ ёндашадиган бўлсак, халқимизнинг кечаги куни, эрк, мустақиллик, озодлик учун қанча жонлар фидо бўлгани, бугунги тинч ва осойишта кунларининг қадрига етиш учун яшин каби чакнаб яшаётгани ифода этилади. Бошқача айтганда, мисраларда лирик қаҳрамоннинг табиати учун бегона бўлсада, дардга, изтиробга тўла бу йўлни шараф билан босиб ўта олишига ишончи юқорилиги акс этган. Шоирнинг ушбу шеърда яна бир сўз эътиборингизни беихтиёр жалб қилади. Бир ўринда шоирнинг "Охирига етиб бўлмади ҳайхот, Шу Худойим унутиб юборган йўлни" деган мисраси

учрайди. Аслида, ғам изтиробга қорилган бу йўл, курашлар эвазига эришиладиган улкан натижалар қўлга киритиладиган бу залворли йўлни босиб ўтиш осон эмас. Лирик қаҳрамон бу йўлни охирига етишда биргина Худойимдан нажот кутган. Шу ўринда эса, қаҳрамон кўнгил сарҳадида Худойим ҳам унутиб юбордими деган ҳадик пайдо бўлганини тушунган ҳолда, умумий равишда айтганини ҳис қиласиз. Шеър жуда ҳам таъсирли. Шоир оҳорли ифодалар, чиройли ташбеҳлар топа олган. Умуман олганда, шеър ўзлигини топишга интилаётган қалб иқрорномаларидай таассурот қолдиради.

#### **REFERENCES**

1. М.Ботиров.Ҳайрат чоҳлари(Шеърлар,ғазаллар, дostonдан парчалар,манзумалар, учликлар).Андижон-2020.-"Наманган" 130-бет
2. М.Ботиров.Деразангни оч.-Тошкент.,-Янги аср авлоди, 2021 йил, 144-б.
3. М.Ботиров.Ҳаёт симфонияси.-Тошкент.,-Янги аср авлоди, 2021 йил,208-б
4. М.Ботиров.Энг ёруғ хат.-Тошкент.,-Фарғона, 2022 йил,156-б.

## QADIMGI TURKIY LUG'ATLARDA OZIQ-OVQAT NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Xongeldiyeva Sevvara Shuxrat qizi

TerDU, O'zbek filologiyasi  
fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943469>

*Annotatsiya.* Bu maqolada qadimgi turkiy lug'atlarda keltirilgan oziq-ovqat nomlari qiyosiy va leksik-semantik tahlil ostiga olingan. Lug'atlardagi ayrim leksemalarga qiyoslash metodi orqali mulohazalar bildirilgan.

*Kalit so'zlar:* Oziq-ovqat nomlari, non va go'sht leksemalarining leksik-semantik xususiyati, qiyoslash metodi.

## LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS OF FOOD NAMES IN OLD TURKISH DICTIONARIES

*Abstract.* In this article, the food names given in the old Turkish dictionaries are subjected to a comparative and lexical-semantic analysis.

*Key words:* Food names, lexical-semantic features of bread and meat lexemes, comparison method.

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В СТАРЫХ ТУРЕЦКИХ СЛОВАРЯХ

*Аннотация.* В данной статье были подвергнуты сравнительному и лексико-семантическому анализу названия продуктов питания, приведенные в старотурецких словарях.

*Ключевые слова:* названия продуктов питания, лексико-семантические особенности лексем хлеба и мяса, метод сравнения.

Qadimgi turkiy lug'atlarda qo'llanilgan oziq-ovqat nomlarining ayrimlari bugungi kunda ham faol qo'llanadigan so'zlar sirasiga kiradi. Ushbu lug'atlarda uchrovchi oziq-ovqat nomlari bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qancha ishlar amalga oshirilgan va hali ham tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bitta leksema bir qancha lug'atda bir xil ma'noda kelishi yoki aksincha, bitta so'zning bir nechta lug'atda har xil ma'noda kelishi ham mumkin. Va ayrim so'zlarning etimologiyasi hamda hozirgi kundagi muqobili ham mavjud. Ayrimlari esa hozirgi kunda muloqot jarayonida ko'p qo'llanilmaydigan qatlamni tashkil etadi. Bunday so'zlar XI–XIV asrlarda yaratilgan qadimgi lug'atlar “Devonu lug'otit turk” (keying o'rinlarda MK), “At-tuhfatuz zakiyati fil lug'atit turkiya” (keying o'rinlarda “At-tuhfat”), “Древнетюркский словарь” (“Qadimgi turkiy lug'at”, keyingi barcha o'rinlarda DTS), “Kelurnoma” tarkibida uchraydi. Oziq-ovqat nomlaridan ushbu lug'atlarda qo'llanilgan *non* leksemasiga e'tibor qaratsak. Non bu – o'zi aslida un va suvdan tayyorlanadigan, qadim-qadimdan ulug'lanib, insonning kundalik iste'molida muqaddas, aziz hisoblangan ne'mat. Biz uchun non leksemasi bitta va oddiy tushunchdek tuyuladi, ammo uning qadimgi turkiy lug'atlarda uchraydigan har bir turiga (shakl, hajm, paronimlik xususiyatlariga) alohida-alohida nom berilgan. Quyida buni qiyoslash orqali ko'rib chiqamiz. Birgina “Devoni lug'otit turk” asarining 1-jildida non leksemasiga doir 10 ta so'z mavjud:

- 1) увуш ётмăк – ushatilgan non, burdalangan non (93-bet)
- 2) ёбмăк – non (126-bet)

- 3) ӧтмӧк – non (127-bet)
- 4) ӧбӧпӧ – issiq qo'lda pishirilib, yoqqa to'g'rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non.
- 5) чоп – tutmoch (non) parchasi, burdasi (309-bet)
- 6) бӧр кӧс ӧтмӧк – bir bo'lak non (317-bet)
- 7) кӧмӧч – ko'moch, o'choqda cho'qqa qo'yib pishiriladigan non (341-bet)
- 8) қатма – yog'da pishiriladigan qat-qat non (qatlama) (407-bet)
- 9) бускӧч – yurqa non (422-bet)
- 10) кӧwwӧк – yaxshi xamirdan bo'lgan non (442-bet)

Yuqorida berilgan so'zlardan ko'rinib turibdiki, o'sha paytda ham nonlarning xilma-xilligi bo'lgan; o'choqqa qo'yib pishiriladigan, yog'da pishiriladigan, qat-qat non kabi turlarga ajratilgan. "Devoni lu'otit turk" asarining 3-jildida ham non turlari berilgan: *жyга* – qat-qat non (34-bet), *кyжма* – bir xil yog'li non nomi (188-bet), *кyжма* – bir xil yog'li non nomi (188-bet), *қара ӧтмӧк* – bu bir xil nondir (241-bet). "At-tuhfat" asarida esa bo'g'irsoq hamda maxsus non leksemalari keltirilgan: *бyрсақ* – bo'g'irsoq non (191-bet), *ӧршӧк* – maxsus non (210-bet). O'sha paytlar termin va so'zlar, har bir ma'noni ifodalash uchun va nonning sifatini izohlash uchun turkiy tilda nonning har xil leksemalari keltirilib o'tilgan. Hozirgi kunda bo'g'irsoq (*бyрсақ*), qat-qat (*жyга* – qat-qat non (34-bet) (*қатма* – yog'da pishiriladigan qat-qat non qatlama (407-bet), yog'da qovuriladigan hamda sariyog' bilan iste'mol qilinadigan non turlari mavjud.

Shuningdek, qadimgi turkiy lug'atlarda **olma** leksemasi ham shakli va xususiyatiga ko'ra farqli ravishda berilgan:

- 1) ӧlmӧ – olma (o'g'uzcha, MK – 1-jild, 150 b)
- 2) алмӧла – olma (MK – 1-jild, 156 b)
- 3) кӧмӧз алмӧла – qimizak olma (MK – 1-jild, nordon, 346 b)
- 4) а:лма – olma (At-t, 31 b)
- 5) алмӧ – olma (Kl, 78 b)
- 6) Alma – olma (DTS, 36 b)
- 7) Alimla – yarimta olma (DTS, 74 b)

Yuqorida keltirilgan so'zliklar bir qaraganda shakli birdek ham bo'lib ko'rinadi, ammo ayrim tovush va harflarda tafovutlar yetarlicha. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, qadimgi davrda nomlangan oziq-ovqat nomlari vaqt, vaziyat, mohiyatdan kelib chiqib ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lishi mumkin.

Demak, har bir davrda ijtimoiy jihatdan ham, so'zlarning kelib chiqishi va qo'llanilishi uning lug'at tarkibiga kiritilishi asosan, vaziyat va mohiyatga bog'liq bo'lib boraveradi.

#### REFERENCES

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Издательство “наука” ленинградское отделение, 1969.
4. Sadoqat R., Umurqulov B. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING ISHLATILISHI. – 2022.
5. Temirova K. “PALOV OSH” ETIMOLOGIYASI XALQ AFSONASIDA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 10. – С. 242-246.
6. Xidirova, I. ., &Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *ModernScienceandResearch*, 2(3), 142–144.



## HAYVON NOMLARI VA UNGA OID SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Xidirova Iroda

Ilmiy rahbar

Choriyeva Laziza

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943513>

**Annotatsiya.** Maqolada XI-XV asrlardagi lug'atlardagi hayvon nomlari va unga oid so'zlarning leksik-semantik va fonetik jihatdan tahlil yoritildi. Shuningdek, ba'zi so'zlarning leksik jihatidan boshqa so'zga teng ekanligi aniqlashtirildi.

**Kalit so'zlar:** Leksik-semantik tahlil, fonetik tahlil, "Devonu lug'otit turk", "At tuhfatu zakiyatu fil lug'otayn", "Muhokamat ul lug'atayn".

### LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF ANIMAL NAMES AND RELATED WORDS

**Abstract.** In the article, the lexical-semantic and phonetic analysis of animal names and related words in the dictionaries of the XI-XV centuries was covered. It was also clarified that some words are lexically equivalent to other words.

**Keywords:** lexical-semantic analysis, phonetic analysis, "Devonu lug'otit turk", "At tuhfatu zakiyatu fil lug'otayn", "Muhokamat ul lug'atayn".

### ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ЖИВОТНЫХ И РОДСТВЕННЫХ ИМ СЛОВ

**Аннотация.** В статье проведен лексико-семантический и фонетический анализ названий животных и родственных им слов в словарях XI-XV веков. Также было выяснено, что некоторые слова лексически эквивалентны другим словам.

**Ключевые слова:** лексико-семантический анализ, фонетический анализ, «Девону лугъотит турк», «Ат тухфату закияту фил лугъотайн», «Мухокамат ул лугъотайн».

#### Kirish

«Devonu lug'otit-turk» («Turkiy so'zlar devoni») — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-a. ning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, tabiati, hayvolari, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Ikkinchi lug'atimiz turkiy tilga bagishlangan muallifi nomalumi «At - tuhfatu zakiyatu fillug'atit turkiya» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asari ham bolib, u XIV asrga oid deb taxmin qilinadi. Arab tilida yozilgan bu manba prof. S.Mutallibov tarjimasida ozbek tilida 1968-yilda Toshkentda nashr qilingan.

Uchinchi lug'atimiz Alisher Navoiyning "Muhoakamat ul-lug'atayn" asari. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da o'zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, ona tilidagi ustunliklarini, uning adabiyot, sanat, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi rolini ashyoviy matreallar misolida namoyish etadi.

#### Muhokama va natijalar.

Ushbu uch lug'atdan hayvon nomlari ko'rib chiqilganda tafovutlar paydo bo'ldi. Hayvon nomlari leksik-semantik va fonetik tamoyil asosida tahlil qilindi.

Hayvon nomlari ushbu lug'atlarda fonetik tahlil qilinganda Devonu lug'otit turk asarida *tulki* so'zi **tīlkū** shaklida keltirilgan bo'lsa (171-bet), At tuhfada asarida **tōlkī** shaklida kelyapti (38-bet). Bu yerda so'zlarni fonetik jihatdan o'zgarganini ya'ni **ī ni ō** ga o'zgarganini kōrdik. Devonu lug'otit turkda *echki* so'zining ikki xil variantini ham ko'rish mumkin: **keči (o'g'uzcha)** (399-bet), **ečku** (65-bet). Bu so'zlarda **i** unlisini **u** unlisiga o'zgarganini va birida **k** tovishini yoqligiga guvoh bo'lamiz. *Xachir* so'zi Devonu lug'otit turkda **qatīr** (146-bet). At tuhfada esa fonetik hodisaga uchrab **atīr** tarzida keladi (26-bet). *Eshak* so'zining Devonu lug'otit turkda **eškak** (57-bet) va **ešyāk** (58-bet) variantlari uchrasa, At tuhfada **ē:šak** shaklida keladi (46-bet). Huddi shu tarzda qolgan so'zlarni tahlil qilsak *ayiq* so'zi Devonu lug'otit turkda **ayīg** (47-bet) shaklida kelsa, At tuhfada **ayū** (55-bet) shaklida keladi. Bilamizki *sigir* so'zini shevada har xil varianti bor: **īnāk, uy** va hokazo. *Sigir* so'zi At tuhfada kitobida fonetik jihatdan o'zgargan 3 shakli berilgan **ēnāk, sīrgīr, sīgīr** (26-bet). Devonu lug'otit turkda esa **sīgīr** shaklida keladi (14-bet). Ko'rib turganimizdek ikkita kitobda fonetik jihatdan farq qiluvchi so'zlar ko'p. *To'ng'iz* so'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak Devonu lug'otit turkda **toņuz** shaklida kelsa (141-bet), At tuhfada **tonğoz** shaklida uchraydi (51-bet), Alisher Navoiyning *Muhokamat ul lug'atayn* asarida esa **xuk** shaklida keladi (50-bet). Ko'rinib turganidek uchta asarda hayvon nomlarini fonetik jihatdan farq qilishini tahlil qilindi. Hayvon nomlarini Devonu lug'otit turk va At tuhfadagi so'zlarni leksik-semantik jihatdan ham tahlil qilganda tafovutlar topildi. Masalan, At tuhfada *erkak tuya* ma'nosida **bāsrāk** so'zi kelgan bo'lsa, Devonu lug'otit turkda esa **buğra** (168-bet) shaklida keladi. Echkining erkagi ya'ni *taka* At tuhfada **tākā** (31-bet), Devonu lug'otit turkda **erkač** (51-bet). Hayvonlarning xususiyatiga ko'ra ham tafovut aniqlandi. *Qora ot* At tuhfada **qara** (14-bet), Devonu lug'otit turkda **oy at (o'y at)** (34-bet). *Urg'ochi tuya* so'zining Devonu lug'otit turkda 2 xil varianti keltirilgan **tetir** (146-bet), **iñān** (20-bet). *Chiyabo'ri* Devonu lug'otit turkda **bōri** (400-bet), **ajru** (64-bet), At tuhfada **qarsaq, shaqal** (26-bet). *Otning yoli* Devonu lug'otit turkda **yaliğ** (327-bet), At tuhfada **a:l** (14-bet). *Ikki yoshli qo'y* Devonu lug'otit turkda **tišak** (156-bet), At tuhfada **quyun** (38-bet). *Bars* so'zi Devonu lug'otit turkda **bars, qoplōn** ma'nosida (140-bet), At tuhfada **ov iti** ma'nosida (95-bet) uchraydi. *Maymun* Devonu lug'otit turkda **bičīn** (141-bet), At tuhfada **majmun** (100-bet). *Buzoq* so'zi Devonu lug'otit turkda **buzğū** (178-bet), At tuhfada **tana** (87-bet) shaklida keladi. *Kaltakesak* Devonu lug'otit turkda **kēlār** (147-bet), At tuhfada **kasaltirgi** (68-bet), *mushuk* Devonu lug'otit turkda **mūš (chigilcha)**, At tuhfada **machi, chatok** (68-bet) shakllarida uchraydi.

#### Xulosa

Davrlar o'tgan sayin lug'atlardagi so'zlar fonetik, leksik, grammatik jihatdan o'zgarib boradi va bu lug'atlardagi so'zlar yangilanib boyishiga sabab bo'ladi. Har bir davrda yashagan insonlar hayvon nomlarini uning turiga, jinsiga, yoshiga, xususiyatiga ko'ra nomlagan.

#### REFERENCES

1. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk"(Turkiy so'zlar devoni)/Mahmud Koshg'ariy.- Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2017
2. "At -tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1968
3. Alisher Navoiy "Muhokamat ul lug'atayn" nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev

4. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
5. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family). *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 1(2), 196-199.
6. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 188-189.
7. Jo‘rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG‘LAYDI” ASARIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(2), 42-48.
8. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
9. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). SHOYIM BO ‘TAYEVNING “SHO ‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARIDA NOADABIY QATLAM SO ‘ZLARINING QO ‘LLANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 487-491).
10. Xidirova, I. ., & Jo‘rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142–144.
11. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. *Modern Science and Research*, 2(3), 138–141.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK  
TALQINI

Amiriddinova Mohinur Ma'sidovna

Termiz davlat universiteti talabasi

D.A.Ergasheva

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943592>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada murakkab sintaktik butunlikning ifodalanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Anaforik, kataforik, parselyatsiya, dislakatsiya.

INTERPRETATION OF COMPLEX SYNTACTIC INTEGRITY IN MODERN UZBEK  
LITERARY LANGUAGE

**Abstract.** This article provides information on the representation of complex syntactic integrity.

**Key words:** Anaphoric, cataphoric, parcellation, dislocation.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОЖНОЙ СИНТАКСИЧЕСКОЙ ЦЕЛОСТНОСТИ В  
СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о представлении сложной синтаксической целостности.

**Ключевые слова:** анафорический, катафорический, парцелляция, дислокация.

Matnning yirik sintaktik birliklaridan biri murakkab sintaktik butunlikdir. Murakkab sintaktik butunlikning struktural qurilishida asosiy rolni, ko'pincha, birinchi gap o'ynaydi. Birinchi gap mavzuni belgilaydi. Bu mavzu keyin joylashadigan gaplarning mazmuni yordamida oydinlashadi. Birinchi gap murakkab sintaktik butunlikning mazmuniy va sintaktik markazini tashkil etadi, fikrning yana davomi borligini eslatadi, shu bilan birga, uning tuzilishini belgilaydi.

Matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi.

Matn - qismlarini bog'lovchi vositalar harakterga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Anaforik;
2. Kataforik.

Matn-semantik yaxlit, mazmunan bog'liqlik, sintaktik aloqaga bog'lanish asosida shakllangan butunlikdir.

Anaforik vositalarga quyidagilar kôradi:

1. Almashish;
2. Takror;
3. Tushish;
4. Muvofiqlashish.

Kataforik vositalar 2 ga:

1. Parselyatsiya;
2. Dislakatsiya.

Parsellyatsiyada- ifodalanayotgan gaplarning joyini almashtira olamaymi,, ma'no o'zgarib ketishi mumkin. Kommunikativ, ekspressiv sintaksisda, xususan, badiiy matnda benihoya muhim ahamiyatga ega bo'lgan sintaktik-kommunikativ hodisa bo'lib, uning mohiyati yaxlit butunlik bo'lgan gapni mantiqiy ta'kid va ekspressiyani kuchaytirish maqsadida ikki (yoki undan ortiq) kommunikativ birlikka ajratib gapdan tashqariga chiqarishdan iborat. Bu hodisa sodda, qo'shma

gaplarda, murakkab sintaktik butunliklarda namoyon bo'ladi. "Parsellyatsiya" terminining lingvistik adabiyotlarda qo'llanila boshlaganiga ham yarim asrdan oshganligi bizga ma'lum.

Dislakatsiyada esa - ifodalanayotgan gaplarimizning joyini almashtirsak ham ma'no o'zgarmaydi, joyini almashtirib foydalansak bo'ladi.

Bularga quyidagilarni misol qilib keltiramiz:

- Nodira institutda o'qiydi. Toshkentda. (Parselyatsiya-)
- Bu yoqda keling! Tezroq! (Dislakatsiya)
- Menga mevani olib bering. Olmani. (Parselyatsiya)
- Saida yakuniydan yiqildi. Sessiyadan. (Parselyatsiya)
- Men aylanishga ketyabman. Toshkentga. (Parselyatsiya)
- Ovozingni o'chir! Ko'p gapirma! (Dislakatsiya)
- Anavu sumkani olib berib yubor. Oqini. (Parselyatsiya)
- Biz Toqqa chiqdik. Shalqonga. (Parselyatsiya)
- Bu mening opam. Gavdalisi. (Parselyatsiya)
- Marraga boring! Yugurib! (Dislakatsiya)

#### REFERENCES

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-2020.
2. B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent-2018.
3. Tohir Malik. Shaytanat. Toshkent – 2013.
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – В. 99-103. (10.00.00 № 31)



XI-XIV ASRDAGI BA'ZI TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANGAN KASB  
NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Amiriddinova Mohinur

Xonmurotova Munisa

Termiz davlat universiteti talabalari

Xidirova Iroda

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943641>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ayrim lug'atlarda qo'llanilgan kasb nomlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* Lug'atshunoslik, "Devoni lug'atit turk", "At-tuhfatuz zakiyati fil lug'atit turkiya", "Muhokamat ul-lug'atayn".

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF OCCUPATION NAMES USED IN SOME  
TURKISH DICTIONARIES OF THE XI-XIV CENTURY

*Abstract.* This article provides information about occupational names used in some dictionaries.

*Key words:* Lexicography, "Devoni lug'atit turk", "At-tuhfatuz zakiyati fil lug'atit turkiya", "Muhokamat ul-lug'atayn".

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ЗАНЯТИЙ,  
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В НЕКОТОРЫХ ТУРЕЦКИХ СЛОВАРЯХ XI-XIV ВЕКА

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о названиях профессий, используемых в некоторых словарях.

*Ключевые слова:* Лексикография, "Девони лугатит турк", "Ат-тухфатуз закияти фил лугатит туркия", "Мухокамат ул-лугатайн".

Lug'atshunoslik lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega edi. Lug'atlarning turli shakllari, ko'rinishlari esa keyingi davrlarda yuzaga kelgan hodisadir.

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atshunoslik rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi.

O'zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmay, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbayi hamdir. Shu bilan birga "Devonu lug'otit turk" dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. Mahmud Zamaxshariy ham o'zining "Asos ul-balog'a", "Muqaddimat ul-adab" asarlari bilan amaliy ham nazariy leksikografiyaning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish XV asrdan keyingi davrda bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: bunga XVI asrda Turkiyada yaratilgan "Abushqa" izohli lug'ati, Tole Imon Hiraviyning "Badoye ul-lug'at", Muhammad Rizo Xokorning "Muntaxab ul-lug'ot", Mirzo Mehdixonning "Sangloh", Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Is'hoqxon Ibratning

“Lug‘ati sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”) kabi lug‘atlarini ko‘rsatish mumkin. Mirzo Mehdixonning “Maboni al-lug‘at” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan Zikrillo Umarov asar xususida shunday yozadi: “XVIII asrda fors turkologi Mirzo Mehdixonning “Maboni al-lug‘at” grammatik ocherki Navoiy asarlari asosida yozilgan birinchi eski o‘zbek tili grammatikasidir. Uning tadqiqi o‘zbek tili tarixiy grammatikasini tuzishda, eski o‘zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega [Mirzo Mehdixon 2008].

Barchamizga ma‘lumki, tilshunoslikning leksikografiya bo‘limi alohida e‘tiborga molik. Sababi leksikografiya ya‘ni lug‘atchilik yaratgan asarlar shu jumladan lug‘atlar barchamizga, yoshimiz, kasb-hunarimiz, qiziqishimizdan qat‘i nazar hamisha kerakli kitoblar deb, bugungi kunda rivojlanib, kengayib borayotganligi fikrimning dalili bo‘la oladi.

Ushbu o‘rganayotgan ishimizning asosiy o‘rganish obyekti sifatida XI–XIV asrlarda yaratilgan qadimgi lug‘atlar (“Devonu lug‘otit turk” (keying o‘rinlarda MK), “At-tuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya” (keying o‘rinlarda “At-tuhfat”) asarlarida so‘zlarning fonetikasi, fonologiyasi farqli hamda muqobil jihatlari, anglatgan ma‘nolari ochib boriladi.

**"Devoni lug'atit turk"** – tabib- atasag'un (114)

jipary-chohg'uchi(43) D. 3-Jild

yalnguq- cho‘ri (454)

**"Muhokamat ul-lug'atayn"** –

Atibbo- tabib(32)

zorubkash (Жорубкаш) — xizmatkor ma‘nosida (34)

darzchilik (дарзилик) — tikuvchilik (33)

Saroyinda(Сароянда) — kuylovchi (45)

**"At-tuhfatuz zakiyatu fil- lug'atit turk"**–

ichägi- tabib (214)

tabu- xizmatchi (251)

toquchi- to‘quvchi (261),

bezirkan- savdogar (182),

tejik- savdogar (256).

Yuqorida keltirilgan lug‘atlardan yana ayrim kasb nomlarini misol qilib keltiradigan bo‘lsak;

1.avlavchi- ovchi (163)

2. etchi- qassob (178)

3.bezirkan- savdogar (182)

4. dilmach- tarjimon (194)

5. do‘ro‘tchi- yaratuvchi (194)

6.javurchi- etikdo‘z (208)

7. ichägi- tabib (214)

8. keshish- ibodatchi (218)

9. qirnaq- cho‘ri (226)

10. qishqiriq- qoplovchi (227)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turkiy lug'atlarni bir-biri bilan taqqoslaganimizda bir so'zning har bir lug'atlarda oldingisini takrorlamagan holda turfa xil bo'lib kelishini tadqiq qilish biz uchun juda manfaatli va qiziqarli kechdi.

#### REFERENCES

1. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
2. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family). *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 1(2), 196-199.
3. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO 'ZINING KELIB CHIQUISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 188-189.
4. Jo'rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG'LAYDI" ASARIDA QO'LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(2), 42-48.
5. qizi Jo'rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). "TEMIR XOTIN" DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
6. qizi Jo'rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). SHOYIM BO 'TAYEVNING "SHO 'RODAN QOLGAN ODAMLAR" ASARIDA NOADABIY QATLAM SO 'ZLARINING QO 'LLANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 487-491).
7. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142-144.
8. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. *Modern Science and Research*, 2(3), 138-141.
9. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent:
10. At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 123.
11. Devonu lug'oti-t-turk. G'afur G'ulom nomidagi matbaa -nashriyot uyi, Toshkent, 2017 yil.
12. Norboyevna Q. S., Shohista M. O'ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING HOSIL BO'LISH BOSQICHLARI //E Conference Zone. – 2022. – C. 48-50.
13. XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda "Lug'oti salos"ning o'rni. Odina Mahkamova.
14. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – T., 2020.
15. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. *Modern Science and Research*, 2(3), 138-141.
16. www.ziyonet.uz

## ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ИЖТИМОЙ ИДЕАЛ ВА РЕАЛЛИКНИНГ ЎЗГАРИШИ

Сагторова Д.Ф.

Тошкент Давлат Стоматология Институтининг  
Ижтимоий фанлар Биоэтика курси билан  
кафедраси ф.ф.н.доцент

Абдуллаева Г.Ж.

1 курс клиник ординатори

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943718>

**Аннотация.** Миллий идеал – ўзида жамиятнинг умуммиллий жамоавий ибтидосига хизмат қилувчи меъёрий-ахлоқий қадриятлар тўпламини мужассам қилувчи ижтимоий-ғоявий категория. У миллатнинг яратувчанлик йўналишида асосий ғоявий хоҳиш-истаги сифатида намоён бўлади. Миллий идеал жамиятни демократлаштириши ва модернизациялаш жараёнида миллий ривожланишнинг меъёрий ва аксиологик йўналишларини, миллий давлатчиликнинг яратувчанлик стратегияси мукамал томонларини ва алоқадорлик жиҳатларини қамраб олинган.

**Калим сўзлар:** Аксиологик , идеал қадриятлари, саноат революцияси, Идеални яратиши –миллий ўтмишини, инсон капиталини ривожлантириши , миллий иқтисодиёт , модернизациялаш, умуммиллий жамоавий, эволюцион жараён.

## CHANGE OF SOCIAL IDEAL AND REALITY IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

**Abstract.** National ideal is a socio-ideological category embodying a set of normative and moral values serving the national collective beginning of society. It is manifested as the main ideological desire of the nation in the direction of creativity. In the process of democratization and modernization of the national ideal society, the normative and axiological directions of national development, the excellent aspects of the creative strategy of national statehood, and the aspects of communication are covered.

**Key words:** Axiological, ideal values, industrial revolution, Creation of ideal - national past, development of human capital, national economy, modernization, national collective, evolutionary process.

## ИЗМЕНЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ИДЕАЛА И РЕАЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** Национальный идеал - это социально-мировоззренческая категория, воплощающая в себе совокупность нормативных и нравственных ценностей, служащих национальному коллективному началу общества. Оно проявляется как основное идейное стремление нации в направлении творчества. В процессе демократизации и модернизации национального идеального общества освещаются нормативно-аксиологические направления национального развития, отличные аспекты созидательной стратегии национальной государственности, аспекты коммуникации.

**Ключевые слова:** аксиологические, идеальные ценности, промышленная революция, созидание идеального - национальное прошлое, развитие человеческого капитала, национальная экономика, модернизация, национальный коллектив, эволюционный процесс.

Глобаллашув объектив, тарихий жараён. XV -XVII асрлардаги географик кашфиётлар кўплаб мамлакатлар ва минтақаларнинг халқаро савдо доирасида тортилишига, саноат революцияси эса умумий алоқаларнинг янада кучаюви, кенг қамров касб этишига иқтисодий замин яратган эди. Кейинги даврларда бундай муносабатлар янада чуқурлашиб борди. XX аср бошларига келиб янги сифатий характер касб этган ва ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларини қамраб олган мазкур жараён глобаллашув тушунчаси орқали ифодалана бошланди.

Глобаллашув эволюцион жараён, унинг жадаллиги дунёнинг турли географик минтақаларида бир хил эмас, ушбу жараённинг алоҳида ташкил қилувчилари ҳам бир хилликдан узоқ. XX асрнинг сўнгги чораги ва XXI асрнинг бошида глобаллашув муаммоси жаҳоннинг етакчи олимлари томонидан ўрганилган.

Кундалик ҳаётда глобаллашув асосан умуминсоний аҳамиятга эга муаммоларни ўз таркибига қамраб олади. Фалсафа фанлари профессори А.Очилдиев қуйидагича ёзади: “...энг умумий маънода глобаллашув бир томондан муайян ҳодиса, жараённинг барча минтақалар, давлатлар ва бутун Ер юзини қамраб олганини, иккинчи томондан уларнинг инсоният тақдирига дахлдор эканлигини англатади”<sup>72</sup>. Олим тўғри таъкидлаганидек глобаллашув жараёни шиддат билан кечаётган ҳозирги даврда Ўзбекистон мустақил, очик ва демократик тамойиллар асосида ривожланаётган давлатларнинг бири сифатида ушбу воқелик таъсиридан четда қола олмайди. Бу муҳит кенг имкониятлар очгани билан бир қаторда ҳар бир миллат ва мамлакат олдига ўзига хос муаммо, миллийликни, миллий маънавият, маданият, ахлоқ ва қадриятларни сақлаб қолиш масалаларини қўймоқда. Биз маданият деганда урф-одатларимиз ва маросимларимизнигина тушунишга кўникиб қолганмиз. Ахир бизни асл ўзбек қилиб турган нарсалар тарихимиз, қадриятларимиз, динимиз, ахлоқимиз, ўзимизга хос андишамиз, оримиз, биздаги ҳурмат ҳисси, меҳмондўстлигимиздир. Уларни йўқотиш бу ўзлигимизни йўқотиш демакдир. Дарҳақиқат биз инсоннинг асосий ҳуқуқлари ва идеал қадриятлари инобатга олинган, демократик бошқариладиган ҳамда ҳамма учун адолатли, бир хил имкониятларни очувчи глобаллашув жараёнига ўтиш сари ҳаракат қиляпмиз. Бу жараённи тушуниш барчамиз учун муҳим манфаатли масалалардан ҳисобланади.

Глобаллашувга берилган баҳоларнинг турли-туманлиги жараёнларнинг ўзи зиддиятли эканлигини ҳам ақс эттиради: барча ҳодисалар ўзаро боғлиқ бу дунёда умуминсоний манфаатлар, миллий ва этник ўзига хослик ўртасидаги, глобаллашув ва халқларнинг ўз тақдирини ўзи белгилашга интилиши, ижтимоий умумийлик ўртасидаги қарама-қаршиликлар (зиддиятлар) ва ҳоказолар<sup>73</sup>.

Глобаллашув — объектив жараён. Бирок, тўғри стратегия танланганда у ёки бу моментларнинг салбий таъсирларини бартараф этиш мумкин. Глобаллашувнинг фарқлаб турувчи ўзига хослиги шундан иборатки дунёни ягона макон сифатида англаш миқёси, теранлиги ўсиб боради. У ёки бу мамлакат ичкарисида содир бўлаётган воқеалар ташқи сиёсий ҳаракатлардан кўра бошқа халқ ва давлатларга анча кучли таъсир кўрсатади. Глобаллашувнинг ижтимоий

<sup>72</sup> Очилдиев.А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар.Т.: “Мухаррир нашриёти”.2009, 64 б.

<sup>73</sup> С.Жўраев, О.Аҳмедов, М. Раҳимова. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил этиш. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси.-Т.; Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008, 77 бет.



муносабат ва манфаатларга таъсири инсоннинг ўзлигини, ҳаётий қадриятларнинг бир бутунлигини, эзгу ниятларнинг беғуборлигини таъминлаб ҳар бир инсонга мавжудлигининг моҳиятини англаб яшашга нисбатан идеал ва реалликнинг ўзгариш жараёнини ўргатади.

Фалсафада идеални олий намуна, “намунали ўлчов эҳтиёжи” ва инсоннинг ўз маънавий-руҳий ҳаётий стратегиясини қуриши учун асос сифатида тушуниш И. Кант томонидан ишлаб чиқилган. Унинг таъкидлашича “ғоя қоидаларни туғдирса, идеал унга тақлид қилишни ҳар томонлама белгилаш учун дастлабки андоза сифатида хизмат қилади”<sup>74</sup>. Кант ўзининг бу фикри орқали идеалнинг мукамаллиги ва бажарилиши эҳтимоллиги асосида ётадиган бошқарувчи принципларга алоҳида эътибор қаратади. Кант идеални аниқ фикрлаш тури билан боғлиқ деб билади. Масалан, инсон онгининг идеали сифатида у донишмандликни келтириб ўтади. Инсон идеали онгда мавжуд бўлиб у донишмандлик ғоясига жуда тўғри келади. Бу билан у “ичимиздаги илоҳий инсон” идеалига ўзимизни солиштирамиз, ўзимизга баҳо берамиз, дейди. Кантнинг бу фикрларидан маълум бўладики, инсон доимий равишда идеал, намуналарга интилиб яшайди.

Шу маънода ижтимоий идеал барҳаётликдир. Идеални яратиш –миллий ўтмишни ва алоҳида ҳудудий тарихни яратишдир, бу эса инсонни алоҳида ҳудудга, ватанга маънавий боғлиқ бўлишини талаб қилади. Бу орқали ижтимоий идеал халқ, давлат ва ҳудуд ўртасидаги “вақт билан ёритилган” барқарор алоқаларни яратади.

Ижтимоий идеал жамоавий мавжудликка вақтли ўлчов бериб аъзоларининг умумий ўтмишдаги ҳамкорлигини янада мустаҳкамлайди, дастлаб мавҳумлик касб этсада, кейинчалик ижтимоий реаллик сифатида қабул қилинади. Худди шу тарзда миллий идеал ҳар бир миллат вакилига умумий келажак ҳиссини тақдим этади. Шундай қилиб миллий идеал – ижтимоий тараққиётни таъминлайдиган мураккаб ижтимоий-ғоявий ва маънавий кучдир.

Ижтимоий идеал функционал муносабатда давлат бирлигини қўллаб-қувватлаш ва сақлаш ҳамда жамиятнинг қадриятлар тўпламлари билан фарқ қилувчи турли ижтимоий гуруҳлар бирлашуви сифатида маънавий бирдамлигининг муайян унсури сифатида намоён бўлади. Жамиятнинг қизиқиш доирасига одатда миллий идеалнинг мавжудлиги ва шакллантирилганлиги киради. Бу қизиқиш негизида давлатни вужудга келтирувчи ёки доминантлик қилувчи миллатнинг ёки миллий ҳудудда истиқомат қилувчи бошқа титулли этносларнинг миллий ўзлигини англаши ётади.

Миллий идеал – ўзида жамиятнинг умуммиллий жамоавий ибтидосига хизмат қилувчи меъёрий-ахлоқий қадриятлар тўпламини мужассам қилувчи ижтимоий-ғоявий категория. У миллатнинг яратувчанлик йўналишида асосий ғоявий хоҳиш-истаги сифатида намоён бўлади. Миллий идеал жамиятни демократлаштириш ва модернизациялаш жараёнида миллий ривожланишнинг меъёрий ва аксиологик йўналишларини, миллий давлатчиликнинг яратувчанлик стратегияси мукамал томонларини ва алоқадорлик жиҳатларини қамраб олиши билан алоҳида ажралиб туради. Миллий идеал ўзида “кучли давлат” нинг ижтимоий -сиёсий шаклини ҳам ифода этади.

<sup>74</sup> Кант И. Критика чистого разума. СПб, 1993. С. 341.

Ўзбекистон кўп миллатли давлатлар жумласига киради. Биз ўз миллий тараққиётимизни бошқаларнинг ҳаракатларини, эркинлигини сиқиб қўймайдиган даражада ташкил қилишимиз керак бўлади. Моҳият жиҳатидан миллий тараққиёт муайян миллатнинг ўз тараққиёт йўлини белгилаб олишидаги эркинлиги, янги ҳаракатлари, имкониятлари, турли воситалар ёрдамида фаолият олиб бориши билан белгиланади. Бундай ҳатти-ҳаракатларни амалга оширишда муайян миллат вакиллари, айниқса ёшлар бошқаларга ўхшаш бўлишга ҳаракат қилишса ҳам ўзларининг қиёфасини сақлаб қолишга интиладилар. Тўғри, буни ҳар ким турлича уддалайди. Кўпчилик мутлақо уддасидан чиқа олмайди ҳам. Бундай ёшларнинг муваффақиятли ҳаётий фаолияти улар тушиб қоладиган вазиятларгагина эмас балки ирода эркинлигига ҳам боғлиқ бўлади.

Ирода эркинлиги туфайли ҳар бир одам айна бундай шароитда турли қарор қабул қилиши ва турли ҳаракат қилиши мумкин. Бироқ миллий ўзликни англашга қаратилган ёшлар ҳаётий дунёсини умумий маънога эга бўлган жиҳатлари уларнинг биргаликда мувофиқлашиб ҳаракат қилишлари учун кафолатдир. Агар улар бу борадаги яшашларининг умумий мақсадларини тан олмасалар у ҳолда индивидуал ижод қилишлари ва ўзга маданий кадриятларга киришиб кетишлари хавфи туғилади. Зеро ҳар қандай яхши ўзгаришларнинг умумий мақсадлари ҳар бир давлатда маҳаллий шарт-шароит ва аҳолининг ўзига хос хусусиятлари асосида шаклландиган муносабатларга мувофиқ кечади. Шунинг учун ҳам миллий ўзликни англашга қаратилган миллий фалсафий мулоҳазалар, умумий мақсадлар, идеаллар, нормалар ва мўлжаллар бўлмаса ёшлар ўзликни англашдан маҳрум бўладилар.

Ҳозирги кунда аксарият миллат вакиллари ўз миллати эркинлиги ҳиссини йўқотиш чегарасидан аста-секин чиқиб кетмоқда. Бу борада фалсафа миллий кадриятларнинг ўтқинчи эмаслигини қайд қилиб туради, бу кадриятларсиз ҳаёт ўз маъносини йўқотади. Ҳар бир миллатнинг ўзи белгилаб олган ҳаётий режалари, ёки жамият тараққиёти истиқболларини белгилаш ақлнинг шунчалик қуруқ ўйини эмас. Юксак асосга эга бўлган миллий мақсадлар, идеаллар ҳаётимизни такрорланмас ва жозибали қилади. Улар ҳар бир миллат ҳаётини сақлаб туради. Чунки ҳар бир миллат вакили ўз ҳаётини ана шу миллий мақсадлар ва идеалларга мослаб, мувофиқлаштириб яшайди. Донишмандлик ўзини ҳам, бошқаларни ҳам бостиришда эмас, балки ўз-ўзига ва атроф дунё билан мувофиқликда яшашдир. Инсоният доимо яхшилиқни ёқлаб, ёмонликка қарши курашади.

Кишилиқ тараққиёти босқичларига эътибор берадиган бўлсак ҳар бир ижтимоий тараққиёт босқичи иккинчисига ўтиши давомида ўша жамият ҳаётининг турли жабҳаларида туб бурилишлар қилинишига тўғри келган.

Ҳаракатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган куйидаги етита устувор йўналишда ҳам миллий идеалларни ривожлантириш асосий мақсад сифатида белгиланди.

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ёки Тараққиёт стратегияси ва уни «Инсон кадрини улуглаш ва фаол маҳалла йили»да амалга ошириш да ҳам бу масалалар белгилаб берилди.

Унда инсон кадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш;

мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айлантириш;

миллий иқтисодий жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш;

адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш;  
маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш;  
миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш;  
мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш муҳим вазифалар сифатида кўрсатиб берилди.

Таълим тизимини ривожлантириш ва талаба ёшларни тарбиялашда миллий идеални, мамлакат ҳаётида юз бюераётган ислохатларни моҳиятини ёритиш муҳим аҳамият касб этади.

### REFERENCES

1. Сатторова Д. Ф. БУГУНГИ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАР, ЗИДДИЯТЛАР ВА МУЛОҲАЗАЛАР-2022-165-169-. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022>.
2. Сатторова Д. Ф. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари асосий ғояси асосида олий тиббий таълимни такомиллаштириш // Медицина ва инновация.- Тошкент, 2022.-Б.205-208.
3. Сатторова Д. Ф. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари тамойили асосида замонавий ўқитишнинг аҳамияти // “Цифровизация в обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании” Сборник научных трудов -2022.-193-196.
4. Сатторова Д. Ф. Янги Ўзбекистон ривожланишида ижтимоий идеал ва миллий ўзликни англаш // Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент, 2021.-№4-Б. 86-90.
5. Сатторова Д.Ф. Маънавий маданиятда миллий идеалнинг ўрни // Фалсафа ва ҳуқуқ-Тошкент, 2021-№1-Б.24-26.
6. Сатторова Д. Ф. Янги Ўзбекистонда миллий кадрларимиз миллий идеаллар тимсолида // Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент, 2021.-№2-86-90.
7. Д. Г. Сатторова. Рихсиева Д. Ф. Цели и задачи всеобщей декларации о правах человека и биоэтике // Научный медицинский журнал “ АИЦЕННИА ”-Россия, 2020-№74-Б.20-23. [www.avicenna-idp.ru](http://www.avicenna-idp.ru).
8. ПТ Худайбергенова ОБРАЗ МАВЛОНО ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ В КОНТЕКСТЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ ВОСТОКА И МУСУЛЬМАНСКОЙ БИОЭТИКИ. // Гуманитарный трактат .РОССИЯ, 2018- Б.28-30. [c.nttp//gumtraktat.ru/](http://gumtraktat.ru/)

## ANALYSIS THE SUBSYSTEM OF LABIAL PHONEMES OF THE KARAKALPAK LANGUAGE

Awezova Kamila

2-year Masters' Degree Student, the Department of English Linguistics at  
Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7942561>

*Abstract.* This article is devoted to propose a scheme of a mandatory element of the model of the inventory system of phonemes, representing one genus-types level of phonemic relations: we can arrange the genus-types level in different ways. As an example, let's analyze the subsystem of labial phonemes of the Karakalpak language.

**Keywords:** language, labiality, Karakalpak, generic, analyze, integrator, connection, system, phonemes.

### АНАЛИЗ ПОДСИСТЕМЫ ГУБНЫХ ФОНЕМ КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКА

*Аннотация.* Данная статья посвящена предложению схемы обязательного элемента модели инвентарной системы фонем, представляющей один родовидовый уровень фонематических отношений: мы можем расположить родовидовый уровень по-разному. В качестве примера проанализируем подсистему губных фонем каракалпакского языка.

**Ключевые слова:** язык, лабиальность, каракалпакский, родовой, анализ, интегратор, связь, система, фонемы.

### Introduction

Generic relationship according to the integrator 'LABIALITY' [b] [p] [m] [w] [v] [f] – 'labial', 'erinlik', 'лабиальный'

- Specific connections by integrators 'tense', 'glide', 'fricative' or 'constrictive' and 'flat'
- Specific connection by integrator 'tense' [b], [p] +
- Specific connection by integrator 'glide' – [w]
- Specific connection by integrator 'constrictive' – 'саңлақлы', 'щелинный' – [v], [f] – ±
- Specific connection by integrator 'flat' – [m]

After determining the structure of one generic level, other generic levels should be established, covering the entire inventory of phonemes of this language.

How are the levels of genus-types relations located in the inventory system of phonemes? Let's consider this question on the example of a level that unites phonemes by the connection 'consonance', which reveals itself when the entire inventory of phonemes of a given language is considered, including both vowels and consonants

- first form subsystems of phonemes according to the type relationship 'vocality', and
- the second – according to the type relationship 'consonance'.

Consequently, the specific sublevel of the structure of the inventory system of phonemes of the language consists of opposed subsystems of vowels and consonants.

Now let's consider subsystems in which the number of phonemes is more than two, but less than the total number of phonemes in the consonant subsystem. The most numerous among the subsystems of the front-lingual phonemes in Karakalpak is the subsystem of the **Constrictive** or **Fricative** or **Spirant** – 7 phonemes, with which we will begin. In addition to the formation of a

gap for their articulation, the size of this gap in width is important: whether the stricture area forming the so-called areality is narrow, as in whistling, or wide, as in **sibilant**

From this point of view, the types subsystem of the **Spirants** coincides with the generic areal system of phonemes united by the sign of areality, which consists of the types subsystems of narrow-structured and wide-structured phonemes. Next comes the types subsystem of **fore-lingual** flat phonemes, coinciding with the generic subsystem that unites phonemes for which the air duct is important: whether it is oral or nasal.

Consequently, the specific subsystem of lingual flat phonemes coincides with the air duct generic system, which consists of the specific subsystems of orality and nasality.

When determining the location of subsystems, mini-systems and individual elements of the system in our model, it is important to note two points:

- First – only complete connections should be distinguished;
- Second – it is necessary to take into account both paired and group relationships of elements that are objectively present in reality.

The study of particular connections and oppositions between subsystems from broad to narrow and their distribution by structural genus-types levels is carried out by sequentially determining at each level the differentiator and its constituent oppositions, covering the largest number of phonemes of a given language, and integrators for subsystems of lower levels. Therefore, on the proposed universal scheme of the structure of the inventory phonological system of the language, we distinguish all structural levels, indicating generic integrators and types differentiators for each of them.

/.../ – the slash brackets denote the system,

/+/ – the private connection,

/–/ – the opposition,

/ :: / – the correlation relation.

The correlation relation is optional from the point of view that it can be replaced by a generic relationship;

- ( ) – therefore it is given in brackets.
- /↓↑/ – the vertical arrows indicate the transition to the next hierarchical level;
- /→/ – the horizontal arrows indicate the ratio of the differentiator and its constituent opposites.

We present the proposed scheme as follows:

In terms of its conceptual content, the proposed scheme is somewhat different from those given by L.N. Cherkasov. In addition to the fact that the differentiators forming the structure are exclusively contrarian, in his works the system of consonant phonemes is analyzed in several stages –

- subsystems of labial,
- lingual advanced and
- lingual extended phonemes.

The results of the analysis are presented in the form of several diagrams that clearly display connections and oppositions, but not correlations, which are described separately [**Cherkasov 19956: 285, 287, 290, 338, 340**].

Conclusion



In our work, the structure is presented in its entirety, and the correlations are marked clearly, which greatly facilitates the perception of the overall picture of the result of the study of the relations of the inventory phonological system of the language.

#### **REFERENCES**

1. Abatbay Dauletov “Ha’zirgi qaraqalpaq tili. Fonetika”.No’kis,2005.
2. Баскаков Н.А “Введение в изучение тюркских языков”. 2-изд. Мб 1969.
3. Karl Heinrich Menges “Qaraqalpaq grammar”. King’s Crown Press, 1947.
4. Abdinazimov Sh, N, Pirniyazova A.Q, Shinnazarova S.J. “Ha’zirgi qaraqalpaq a’debiy tili . Fonetika, leksikologiya”. Tashkent, 2018.
5. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЌЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12

## O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI HIMOYASI SUD-HUQUQ TIZIMIDA

Murodullayev Izzatulla

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi

Mutaxassis fan o'qituvchisi

+998934233460

[izzatulla.ooo@gmail.com](mailto:izzatulla.ooo@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7944278>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek sudlarning jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy jarayonning barcha sud bosqichlarida gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning, fuqaroviy javobgarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda sud tizimining asosiy ishtirokchisi sifatida faoliyatiga e'tibor beradi. Mamlakatimiz sud tizimida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, mudofaa, adolat, shaxs, qonun, islohot, mustaqillik, sud, tergov.

### PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN IN JUDICIAL SYSTEM

**Abstract.** This article describes the mechanisms for the protection of human rights in Uzbekistan. It also focuses on the activities of the courts as a major player in protecting the rights and legitimate interests of the suspect, accused, victim, civil plaintiff, civil defendant, civil respondent at all stages of the criminal, civil or administrative process. Analyzes the ongoing reforms in the judicial system of the country.

**Key words:** human rights, defense, justice, person, law, reform, independence, court, investigation.

### ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится о механизмах защиты прав человека в Узбекистане. Также уделено внимание деятельности судов как основного участника судебной системы по защите прав и законных интересов подозреваемого, обвиняемого, потерпевшего, гражданского истца, гражданского ответчика, гражданского ответчика на всех судебных стадиях. уголовного, гражданского или административного процесса. Анализируются реформы, проведенные в судебной системе нашей страны.

**Ключевые слова:** права человека, защита, правосудие, лицо, закон, реформа, независимость, суд, расследование.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sud tizimini isloh qilish va demokratlashtirish, jinoiy, jinoyat-protsessual va jazo qonunchiligini liberallashtirish borasida chinakam mustaqil sud hokimiyatini shakllantirishga imkon beradigan muhim ishlar amalga oshirildi. inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydi. Sud hokimiyati sud xarakteridagi barcha masalalar bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lishi va ko'rib chiqishga berilgan masala qonunda belgilangan vakolat doirasiga kiradimi yoki yo'qligini aniqlash uchun mutlaq huquqqa ega bo'lishi kerak. Sudda noo'rin yoki noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Sud qarorlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas (nazorat tartibida nazorat tartibidan tashqari), hukmni o'zgartirish yoki avf etish, qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan bajariladigan hollar bundan mustasno. Sud hokimiyati sud ma'muriyatining ichki tuzilishi nuqtai nazaridan, shu

jumladan sudlar o'rtasida ishlarni tegishli sud tomonidan taqsimlanishi nuqtai nazaridan mustaqil bo'lishi kerak. "Sudyalarning mustaqilligi" atamasi ikki yo'nalishga ega: institutsional mustaqillik va shaxsiy mustaqillik<sup>75</sup>. Hukumatning ijro etuvchi hokimiyati tomonidan tayinlanishlar yoki sudyalarning umumiy ovoz berish orqali saylanishi sud tizimining mustaqilligiga putur etkazadi. Odamlarni sud lavozimlariga tayinlashning me'zoni ularning professionallik, qobiliyat, huquqiy bilim va huquq sohasidagi tegishli tayyorgarlikka asoslangan holda ushbu lavozimni egallashga yaroqliligi bo'lishi kerak.<sup>76</sup> Tanlangan maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, sud hokimiyati hokimiyatning uchta tarmog'idan biri zamonaviy davlatning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Sud tizimini isloh qilish davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi tub o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda ketma-ket va bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Mustaqil va samarali sud tizimini rivojlantirish va yanada rivojlantirishning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4966-sonli Farmonining e'lon qilinishi bo'ldi. Sud tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritish sohasida yagona yuqori sud organiga aylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan birlashtirildi<sup>77</sup>.

Ijtimoiy munosabatlar va ma'muriy huquqbuzarliklar natijasida kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqishga vakolatli ma'muriy sudlar tashkil etildi. Xo'jalik sudlari tumanlararo iqtisodiy sudlar tashkil etilishi bilan xo'jalik sudlariga qayta nomlandi. Shu bilan birga, 71-ta tumanlararo (tuman, shahar) iqtisodiy sudlar tashkil etildi, ular birinchi instansiyadagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadilar, viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjud xo'jalik sudlari ikkinchi darajali sudlarga aylantirildi.

Oliy sudning Harbiy hay'ati tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sud hay'ati tuzildi. Bundan tashqari, islohotlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlari, shuningdek, milliy davlatchilikning boy tarixiy tajribasi, xalqimizning urf-odatlar va an'analari hisobga olingan holda olib borildi. Bugungi kunda odil sudlov va sud jarayonlarining shaffofligi butun mamlakatimiz mustaqilligining umumiy holatiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat sifatida tan olinishida muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonunida e'lon qilinganidek, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ishlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi qonuniga binoan, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquq va manfaatlariga oid qonunlarda mustahkamlangan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini sud

<sup>75</sup> Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi, 1994 yil 9 dekabrda qaror, Yunonistonning Stran va Stratis Andreadis neftni qayta ishlash zavodlari Yunonistonga qarshi shikoyat № 13427/87, p.49.

<sup>76</sup> Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi, 1971 yil 16-iyuldagi hukm, Ringayzen Avstriyaga qarshi shikoyat № 2614/65, p. 95. Inson huquqlari bo'yicha Amerika-Amerika komissiyasi, Terrorizm va inson huquqlari to'g'risidagi hisobot, OAS hujjati, OEA / Ser L/V/II.116, Doc. 5, rev. 1, corr., 22 oktabr 2002 y., p. 229.

<sup>77</sup> <https://lex.uz/docs/3121087>

orqali himoya qilishni amalga oshirishga chaqiriladi. Sud faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolik tinchligi va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan. Sud hokimiyatining mustaqilligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan: "O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ishlaydi. Sudyalarning mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga Konstitutsiyaga muvofiq biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va qonun bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi." Shunga o'xshash kafolatlar "Sudlar to'g'risida" gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan.<sup>78</sup>

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday noqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga, shaxsiy qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan sud tomonidan himoya qilinish huquqiga egadirlar. bod va mulk, boshqa huquq va erkinliklar. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sud tizimidagi ishlarning ahvoliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida soha faoliyatini takomillashtirish uchun qator yangiliklarni taklif qildi. Xususan, davlat rahbari sudyalarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish uchun mamlakatda ixtisoslashtirilgan o'quv muassasasi - Adliya akademiyasini tashkil etish zarurligini ta'kidladi. Yig'ilishda yana bir qiziqarli taklif - televizorda va matbuotda ko'rsatuvlarni tashkil etish va "Sudyalarning klubi" va "Sud himoyasi ostida" bo'limlarida doimiy ravishda hurmatga sazovor bo'lgan sudyalarning turmush tarzi to'g'risida maqolalar chop etilishi haqida aytiladi. odamlar bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshirishda ilg'or tajribani targ'ib qilish. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev respublikada sudyalarga mahalliy aholi bilan oyda kamida bir marta ochiq muloqot olib borish tartibini joriy etish taklifini ilgari surdi. Shuningdek, uning fikriga ko'ra, har bir sudyaning xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etish amaliyoti vaqti keldi. Prezident Sh. Mirziyoyev: "Endi xalqning o'zi, avvalo sudyalarning faoliyatiga baho beradi", - deb ta'kidlaydi. Bugungi kunda islohotlarning ushbu yo'nalishlari orasida yangiliklar kiritildi va mahallalarda sud muhokamalarini o'tkazish amaliyoti kengaydi, Jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan korxonalar va tashkilotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sudlari faoliyatida, shu jumladan elektron stenografiya va videokonferentsiyalarda keng qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. sud qarorlarining so'zsiz bajarilishini ta'minlash uchun idoralarda elektron almashinuv tizimining shakllantirilishi sud-huquq islohotlarining muhim bosqichining boshlanishi bo'lgan jinoiy jazolarni liberallashtirish katta ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega edi. shuningdek, jinoiy jazo tizimini yanada liberallashtirish va insonparvarlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Bu qonunchiligimizning gumanistik mohiyatini aks ettirgan holda, fuqarolar tomonidan qonunlarga hurmat, ixtiyoriy va xabardorlik asosida qonunga bo'ysunishni shakllantiradi. Insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka bo'lgan konstitutsiyaviy

<sup>78</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, b. 106. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, b.112; O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi qonuni: sud hokimiyatining mustaqilligi, b. 4; O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi qonuni: Sud ishlarini hal etishga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, b. 69.

huquqlariga rioya etilish kafolatlarini ta'minlashda sudning rolini yanada oshirish maqsadida, sud tomonidan qamoqqa olishga ruxsat berish huquqi instituti mamlakat sud tizimiga kiritildi. Qamoqqa olish sanksiyasi berish huquqini sudlarga o'tkazish jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida qamoqda saqlashni qo'llashning qonuniyligi ustidan samarali sud nazorati mexanizmini yaratishga imkon berdi. Bundan tashqari, ushbu chora tergovchilar va prokurorlarning javobgarligini kuchaytirishga, shuningdek, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda sud tizimining rolini oshirishga yordam berdi. Dunyoning demokratik mamlakatlarida keng tarqalgan ushbu institut 2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekistonda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

The idea of national statehood and its positive impact on the development of peoples can be clearly seen on the example of independent Uzbekistan. Uzbekistan's policy on international cooperation, regional peace, interethnic harmony is the basis for stability. Raising a healthy, harmonious generation in every possible way to adulthood, raising young people in the spirit of the harmony of national and nationwide values is one of the priorities of state policy. In our opinion, without such an ideal activity, it is possible to achieve the goal set neither in the economic, nor in the social, nor in the spiritual sphere. Such a person is happy when he always does good in his heart. Even a small goal makes him start to do big things. The goal is not self-fulfilling. It requires great preparation, perseverance, effort, valorization of difficulties.

When we pay attention to the stages of the development of personality each stage of Social Development had to make fundamental turns in different aspects of the life of that society during its transition to the second.

### **Conclusion**

Today, legal, moral and spiritual problems arise in life. For this reason, contradictions as a problem of interdependence between the doctor and the patient are increasingly occurring in the health care system. This plays a central role in learning the discipline more deeply and illuminating its moral aspects to students.

The future of Uzbekistan's ideal of national development consists in building a great state, implementing the goals of the people, instilling a national idea in the hearts and minds of young people, raising morale. The 3000-year conscious historical-cultural experience of mankind testifies to this. The need to educate mature people who can resist such situations, harmoniously mature in every possible way, presupposes the formation of an ideology that is in the interests of our people and society.

In the development of society, it is the necessary task of each of us to turn spirituality, religion, values into a vital reality.

### **REFERENCES**

1. Сатторова Д. Ф. БУГУНГИ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАР, ЗИДДИЯТЛАР ВА МУЛОҲАЗАЛАР-2022-165-169-. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022>.
2. Сатторова Д. Ф. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари асосий ғояси асосида олий тиббий таълимни такомиллаштириш //Медицина ва инновация.-Тошкент,2022.-Б.205-208.
3. Сатторова Д. Ф. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари тамойили асосида замонавий ўқитишнинг аҳамияти // “Цифровизация в обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании”Сборник научных трудов -2022.-193-196.

4. Сатторова Д. Ғ.Янги Ўзбекистон ривожланишида ижтимоий идеал ва миллий ўзликни англаш//Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент,2021.-№4-Б. 86-90.
5. Сатторова Д.Ғ.Маънавий маданиятда миллий идеалнинг ўрни // Фалсафа ва ҳуқуқ-Тошкент,2021-№1-Б.24-26.
6. Сатторова Д. Ғ.Янги Ўзбекистонда миллий кадриятларимиз миллий идеаллар тимсолида //Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент,2021.-№2-86-90.
7. Д. Г.Саттарова.Рихсиева Д.Ф.Цели и задачи всеобщей декларации о правах человека и биоэтике // Научный медицинский журнал “ АИЦЕННИА”-Россия,2020-№74-Б.20-23. Wwww.avicenna-idp-ru.
8. ПТ Худайбергенова ОБРАЗ МАВЛОНО ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ В КОНТЕКСТЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ ВОСТОКА И МУСУЛЬМАНСКОЙ БИОЭТИКИ. // Гуманитарный трактат .РОССИЯ,2018- Б.28-30.с.nttp//gumtraktat/ru/



## JAMIYAT VA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHALAR

Aripova Dilbar Raxmonberdi qizi

Toshkent viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7947282>

**Annotatsiya.** «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo'llab-quvvatlandi va yaqin kunlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va ularning qobiliyatlarini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

**Kalit so'z:** O'zbekiston inklyuziv ta'lim, YUNESKO, nogironlar, bolalar, ta'lim, qobiliyat.

### CONCEPTS OF INCLUSIVE EDUCATION IN SOCIETY AND EDUCATION

**Abstract.** The project entitled "Opening experimental groups in kindergartens and secondary schools on the introduction of inclusive education in Uzbekistan" was supported and is planned to be implemented in the coming days. The main goal of the project is to create conditions for improving various skills and sustainable development of disabled children.

**Key word:** inclusive education of Uzbekistan, UNESCO, disabled people, children, education, ability.

### КОНЦЕПЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ И ОБРАЗОВАНИЕ

**Аннотация.** Проект под названием «Открытие экспериментальных групп в детских садах и общеобразовательных школах по внедрению инклюзивного образования в Узбекистане» поддержан и планируется к реализации в ближайшее время. Основная цель проекта – создание условий для совершенствования различных навыков и устойчивого развития детей-инвалидов.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование Узбекистана, ЮНЕСКО, инвалиды, дети, образование, способности.

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari, nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib orilayotgan islohatlar natijasida inklyuziv ta'limga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada hukumat miqyosida bir necha qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Chunki aholi orasida yaxshi eshita olmaydigan, ko'zi ojiz, ruhiy hasta yoki ma'lum bir falokat oqibatida mayibmajruh bo'lib qolgan bolalar ham borki, ular ham ilm olish huquqiga egadirlar.

Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda

Umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash

ishlari 1966 yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta'lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo'ljallangan 86 ta maxsus ta'lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud. O'zbekistonda maxsus ta'lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko'p qirrali ta'lim tizimini yaratish;
- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta'limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta'lim boshqaruvini markazlashtirish;
- yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo'yish va kasalpiklarni aniqlash uchu sharoit yaratish;
- milliy ta'lim standartlari asosida ordamga muhtoj bolalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar sifatini yaxshilash;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bozasini mustahkamlash;
- nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;
- ko'zi ojiz bolalar uchun mo'ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop etish;
- nogiron bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko'zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalari, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta'minlash;

- maxsus talim sohasida kadrlar tayyorlash. Hozirgi kunda qator ekologiq ijtimoiy va boshqa sabablarga ko'ra, shuningdeq homiladorlikdan keyingi patologik asoratlar natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o'rganish muhimdir.

Ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun umumta'lim maktablari o'quv xonasi Brayl alifbosida ishlangan jihozlar bilan jihozlangan bo'lmasa, o'quvchilar shaxsiy yordamchi xizmatlariga muhtoj bo'lishadi. Agar umumta'lim maktablari davlat tomonidan imo-ishora tili tarjimoni ijtimoiy xizmati ta'minlanmasa eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar o'zlari maxsus surdo tarjimonlarni ishga solishlari kerak bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, ularning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Ota-onalar qishloq sharoitida yordamga muhtoj bolalariga talab darajasida yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega emas. Birinchidan, moddiy tomondan imkoniyat cheklanganligi, ikkinchi tomondan esa, yordamga muhtoj bolalarning go'dakligidan ulorning nuqsonlarini aniqlash uchun o'qituvchi va psixologlarning malakasi talab darajasida emas. Tarbiyachilar, psixologlar, o'qituvchilarning maxsus defektologiyaga asoslangan o'quv dasturlarda olgan bilim va malakalari ularning maxsus guruhlordagi faoliyatlari davamida aniq tashhis qo'yish va sifatli davalashni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi —

yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va rehabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim. 1996 yilning noyabr oyida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar» mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YuNESKO, YUNISEF (BMTning bolalarjamg'armasi), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001 yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi va qator dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. 2004 yilning iyun oyida «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tashabbusi asosida Toshkent shahrida «Yetim bolalarning ijtimoiy muhofozasi» mavzusida ilk bor xalqaro anjuman tashkil etildi.

Ushbu anjuman doirasida nogiron bolalar uchun talim dasturlari ham muhokama etildi. 2005 yilning may oyida Toshkent shahrida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tomonidan «Ijtimoiy nochor bo'lgan bolalarga ko'mak berishning samarali shakl va usullari» nomli xalqaro forum o'tkazilgan edi. Ushbu forum tavsiyanomalari asosida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda YuNESKO tashkiloti rahnamoligida Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi madaniy markaziga (Tokio, Yaponiya) maxsus loyiqa taqdim etilgan edi. Ushbu YuNESKO markazi tomonidan «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo'llab-quvvatlandi va yaqin kunlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Loyiha bir yil muddatga mo'ljallangan. Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi 2001 yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazida tashkil etilgan.

Tashkilotning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- nogiron bolalar ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchi va tarbiyachilar uchun turli anjuman va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga inklyuziv ta'limni tatbiq etish;

- nogiron bolalar uchun o'quv darsliklarini yaratish;

- nogiron bolalar uchun tajribaviy maydonlar barpo etish;

- bola uchun alohida rivojlantirish rejasini yaratish; - pedagoglar va ota-onalarga maslahat xizmatini ko'rsatish;

- uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar, maxsus maktablarda nogiron bolalar bilan ishlash rejasini yaratish;

- yuridik faoliyat va ijtimoiy muhofaza bo'yicha ma'lumot bilan ta'minlash;

- nogiron bolalar ta'limi sohasida faoliyat yurituvchi jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- nogiron bolalar ta'limi sohasida mavjud kamchiliklarni ommaviy axborot vasitalarida yoritib borish;

- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish; maxsus ta'lim sohasidagi tajribalarni tatbiq etish.

Ta'lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta'lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislar malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo'yilgan qadamlardan biri hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llash va barcha qatori teng huquqli sharoitda ta'lim olishi va biron bir bola ta'limdan chetda qolmasligiga jiddiy muhokama etildi va rezolyusiyalar qabul qilindi. Ushbu xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi XTV va uning tasarrufidagi turli ma'muriy tashkilot vakillari ham ishtirok etib, o'z tajribalari bilan fikr almashdilar va respublikada ushbu muammoni hal qilish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bois O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarni to'laqonli maxsus ta'limga jalb qilish va integrasiya usulida ta'lim olish 2001-2002 yillarda birmuncha faollashdi.

2000 yil O'zbekistonda inklyuziv ta'limning ilk asosi sifatida Respublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi tomonidan O'zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta'lim tizimining rivojlantirish chora-tadbir rejasi ishlab chiqildi. Bu reja dasturda alohida yordamga muhtoj bolalarni umum ta'lim tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslari yoritib berildi: ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta'limga tayyorlash; Respublikadagi alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar haqida axborot banki yaratish; -barcha turdagi nuqsonli bolalar uchun umumta'lim va yakka tartibda oilalarda o'qitilishi bo'yicha turli xil o'quv metodik adabiyotlar, didaktik vasitalar ishlab chiqish va ta'minlash masalalari qayd qilingan.

Ta'lim olishda qiyinchiligi bo'lgan bolalarni imkoniyatini ta'lim siyosatida e'tiborga olish juda muhim. Ta'lim siyosati inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida moliyaviy ta'minotga e'tibor qaratish zarur: maxsus ta'lim va umumta'lim maktablari o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari; statistik ma'lumotlar bo'yicha nogironlarni inklyuziv maktablarda ta'lim olishni joriy qilish; maxsus infrastrukturalar, masalalar, texnik vasitalardan foydalanishga imkoniyat yaratish ham ta'lim siyosatining ajralmas qismidir.

Ushbu ta'lim tizimida bolalarni nuqsonlarini aniqlash ularni muolajareabilitasiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalga oshirish bo'yicha tegishli mutaxassislar (maxsus resurs pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va boshqalar) muntazam ravishda maktab pedagoglariga bevasita yordam berishlari kerak.

Inklyuziv ta'limning asosiy qismi-bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta'lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra, dars jadvalini sharoitni, uslubiyatni va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi.

Bunday o'zgartirishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar. Balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning joriy etilishi. P.Q 4860.13.10.2020
2. Ta'lim tog'risidagi qonun 02.07.1992 yil Inklyuziv ta'limni rivojlantirish.
3. Pedagogika nazaryasi va tarixi Toshkent 2011.Inklyuziv ta'lim shakllari haqida
4. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o,,quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YuNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
5. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo,,llanma.



PROFESSIONAL YURIDIK TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING KREDIT-  
MODUL TIZIMI BO'YICHA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI  
TASHKIL ETISH

Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Samadova Fotima

Buxoro viloyati yuridik texnikumi YuXF 1/21-guruh o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7947312>

*Annotatsiya.* Professional yuridik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh kadrlardan o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish bilanbirga o'zlari egallayotgan sohalar bo'yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, zarur hollarda mustaqil fikr yurita oladigan, hozirjavob, raqobatbardosh kadrlar bo'lishlaritalab etilmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun kredit-modul tizimiga muvofiq, mustaqil ta'lim olish jarayonini to'g'ri va maqsadli tashkil etish zarurligi maolada e'tirof etiladi.

*Kalit so'zlar:* modul, kredit, kreativ, auditoriya yuklamasi, ta'lim oluvchi, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, rejalashtirish.

ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS ACCORDING TO THE  
CREDIT-MODULE SYSTEM OF TRAINING IN PROFESSIONAL LEGAL  
EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Abstract.* Young personnel studying in professional legal educational institutions are required to become mature specialists in their fields, able to work independently in the fields they occupy, to be able to think independently when necessary, to be responsive and competitive personnel. In order to achieve this goal, the need to properly and purposefully organize the independent education process in accordance with the credit-module system is recognized.

*Key words:* module, credit, creative, audience load, learner, independent education, independent work, planning.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПО КРЕДИТНО-  
МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ  
ЮРИДИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

*Аннотация.* Из молодых кадров, обучающихся в профессиональных юридических учебных заведениях, востребованы готовые, конкурентоспособные кадры, способные самостоятельно работать в занимаемых ими областях, умеющие самостоятельно

*мыслить в необходимых случаях, при этом становясь зрелыми специалистами в своих областях. Для достижения поставленной цели признается необходимость правильной и целенаправленной организации процесса самостоятельного обучения в соответствии с кредитно-модульной системой.*

***Ключевые слова:** модуль, кредит, креатив, аудиторная нагрузка, обучающийся, самостоятельное обучение, самостоятельная работа, планирование.*

Yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimini (Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimini) joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoniga muvofiq belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida ta‘limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizom ta‘limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi va unga ko‘ra, yuridik texnikumlarda o‘quv jarayonida kredit-modul tizimi Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa modeli (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS)ga muvofiq tashkil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan.

Kredit-modul tamoyilida ikkita bosh masalaga ahamiyat beriladi: ***talabalarining mustaqil ishlashini ta‘minlash*** hamda ***talabalar bilimini reyting asosida baholash***.

Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta‘lim alohida o‘rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma‘lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlarida berib bo‘lmaydi. Qo‘yilgan muammo va vazifalar bo‘yicha muayyan yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo‘lgan mustaqil fikrlash ko‘nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlab boriladi.

**Mustaqil talim** – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

**Mustaqil ish** – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan talimning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarining aniq faoliyatini

tashkil etish va amalga oshirishdir. Ta'lim oluvchining mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

*Mustaqil ishni optimal rejalashtirish* – talabning o'qish madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi muhim va zarur vazifalardan biri. Ta'lim oluvchilar mustaqil ishini tashkillashtirish tamoyillari bakalavr, mutaxassis, magistr, fan spetsifikasi, mustaqil ish mazmuni va boshqa ko'rsatkichlar asosida o'zgarishi mumkin. Ushbu tamoyillarni bilish va ulardan o'quv-bilish faoliyatida mohirona foydalanish muayyan sohadagi bilimlar tizimini egallash va zamonaviy mutaxassis sifatlarini shakllantirishga imkon beradi. Shu tariqa, OTM talabalari mustaqil ishini ta'minlashning pedagogik aspektlari nafaqat didaktik masalalarni hal etadi, balki talabalarda shaxsiy sifatlar rivojlanishi, ularning mustaqil ishlashga bo'lgan rag'batini oshirish, umumiy o'quv ko'nikmalari va amaliy tajribasi shakllanishiga ham xizmat qiladi. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo o'quvchining mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Ta'lim oluvchining mustaqil talim olishini tashkil etishdan asosiy **maqsad** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetentsiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil talimini tashkil etishi quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;
- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;
- ta'lim oluvchilarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- talim oluvchilarda bilim olishga doir masuliyatni oshirish;
- ta'lim oluvchilarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;
- talim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Mustaqil ish turi va shakli muayyan talim yo'nalishi (mutaxassislik) hamda fan (modul)larning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan fan dastur (Sillabus)da o'z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o'quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Fan (modul) bo'yicha mustaqil talimga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit) mas'ul kafedra muhokamasidan o'tkazilishi, yig'ilish qarori bilan tasdiqlanishi hamda professor-o'qituvchi tomonidan tuzilgan Sillabusda mustaqil ish shakli va turi mazkur hajm (kredit)ga mos kelishi lozim.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarning mustaqil talim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davrining I semestrda tyutorlar, ARM xodimlari va fan masullari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda (shu jumladan, kredit haftaligi doirasida) o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada qat'iy belgilanadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi. Uzrli sabablar esa, dekanat (registrator ofis) tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan ruxsati bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv faoliyati natijalari baholanmagan talaba yakuniy nazoratlarga kiritilmaydi yoki shartli ravishda topshirish muddati belgilanadi.

Fan (modul) bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollarining 1/2 qismi mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular va adabiyotlar asosida tuzilishi tavsiya etiladi.

Fan (modul)ning auditoriya yuklamasini bajarish vaqtida talabalarning mustaqil ishlari nazorat qilinmaydi. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarish yuzasidan fan dastur (Sillabus)da ko'rsatilgan kontakt soatida offlayn yoki onlayn tarzda bir yoki ikki marotaba maslahat olishi mumkin.

Talim oluvchi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi (plagiatga yo'l qo'ymaslik, professor-o'qituvchilar, talabalar bilan tolerant munosabatda bo'lish, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, masuliyatlilik) shart.

Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan (modul)ga ajratilgan kreditlar soni hamda talabanning vaqt byudjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

Ta'lim oluvchi tomonidan elektron tizim (platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi o'quvchiga malum qilinishi shart.

Mustaqil talim natijalarini baholash fan (modul)ning umumiy baholash (100 ballik) tizimida aks ettiriladi va fan dastur (Syllabus)ning baholash mezonlarida unga ajratilgan ball aniq ko'rsatib qo'yiladi.

O'qishi ko'chirilgan yoki tiklangan ta'lim oluvchilar o'zlashtirilmagan fan (modul)larni qayta o'qish tartibida o'zlashtiradi. Istisno tariqasida, fanning semestrda yuklamasi 6 (olti) kreditdan oshmaydigan akademik farqli fan (modul)lar talabanning arizasiga ko'ra va dekan roziligi bilan 100% mustaqil talim shaklida o'zlashtirilishi mumkinligi belgilangan.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni" (yangi tahriri) 2020-yil 23-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-iyundagi 359-son Qarori



## ОБУЧЕНИЯ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ КРУПНОЕ ФОРМЫ

Петренко Наталья Викторовна

Преподавательница Каршинский специализированный школа искусств

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7948550>

*Аннотация.* В данной статье рассмотрены особенности применения современных аспектов в процессе музыкального образования, различные музыкальные жанры, сформировавшиеся за несколько сотен лет истории, основные принципы выделения жанров, течения каждой эпохи, жанры искусства, жанровые стили. Обсуждаются мнения об инструментах, обеспечивающих основу национализма.

*Ключевые слова:* музыка, искусство, духовный опыт, идея, исследование, мозговая деятельность, духовность, исследование, классическая музыка.

### LEARNING TO PLAY THE PIANO WORK LARGE FORM

*Abstract.* This article discusses the features of the application of modern aspects in the process of music education, various musical genres that have been formed over several hundred years of history, the basic principles for distinguishing genres, the trends of each era, genres of art, genre styles. Opinions are discussed about the tools that provide the basis for nationalism.

*Key words:* music, art, spiritual experience, idea, research, brain activity, spirituality, research, classical music.

Музыка способна оказывать определенное влияние на нравственную сторону души, и поскольку она обладает такими свойствами, то очевидно, что ее следует отнести к дисциплинам воспитания молодежи.

Весь наш мир подобен огромной картине мозаики, состоящей из звуков, цветов, света. Раскрывая свои музыкальные предпочтения, мы делимся самыми сокровенными вещами. Музыка и дух отражают идею тесной связи между состоянием гармонии в нас. Невозможно не поддаться его влиянию, не следовать за ним. Музыка-это поклон нашей души, наш самый яркий индикатор-это состояние души, оно очищает и пробуждает нашу душу, открывает ее для добра и света.

Музыка-один из древнейших видов искусства, который со временем не только не утратил своего значения, но и стал еще более востребованным и популярным. Музыка делится на множество жанров, видов, направлений и школ. Будучи классической музыкой, развивавшейся, складывавшейся на протяжении нескольких сотен лет, ее возникновение связано с эпохой европейского классицизма. Именно тогда сформировалось это направление в искусстве. Классика происходит от латинского "classicus" - совершенный, образцовый. Отсюда возникли основные принципы классицизма, которые можно сформулировать как баланс, логика, ясность, гармония, и полнота различения жанров. В музыке все они могли быть реализованы только в таких жанрах, как опера, оратория и кантата. Постепенно развивались музыкальные направления классической музыки. Он становился все более сложным, богатым и отклонялся от первичных законов. За многовековую историю развития сложилось огромное разнообразие жанров. В произведениях этого жанра И.С.См., В.А.Моцарт, Л.В.Бетховен, Ю.Гайдн, Ф.Шопен, Ф.Выдающиеся композиторы, такие как Лист и др., внесли большой вклад в развитие

классической музыки. Имена этих великих композиторов известны всему миру. Большинство людей связывают само понятие "классическая музыка" с произведениями деятелей этой культуры.

Сегодня классическая музыка по-прежнему популярна среди современных композиторов, композиторов, которые не утратили своей популярности и совершенства благодаря своей совершенной гармонии, темам в голосах, динамическим уровням и техническому формированию. Некоторые интересные факты упоминаются в классической музыке. Исследование, проведенное итальянскими учеными в 2015 году, доказало, что прослушивание композиций Моцарта побуждает мозг быть более активным. Некоторые произведения Бетховена оказывают противоположное влияние на его творчество. Процесс повышения мозговой активности получил название "Эффект Моцарта". В Южной Африке был проведен еще один эксперимент, целью которого было определить влияние классической музыки на растения. Оказывается, начиная слушать мелодии Вивальди, они росли немного быстрее, и их здоровье тоже немного улучшилось. Но ученые утверждают, что полезный эффект достигается за счет вибраций, исходящих от музыкальных инструментов, а сами мелодии, звуки не оказывают никакого влияния.



В современной музыке музыкальная категория, характеризующаяся выразительным использованием шумовой музыки, представлена музыкальным контекстом внутри шума. Этот тип музыки имеет тенденцию отвергать различие между музыкальным и немusical звуком в обычных музыкальных практиках. Некоторая музыка может содержать шум, создаваемый в акустической или электронной форме, как традиционными, так и нетрадиционными музыкальными инструментами. Он может включать живые звуки машин, не относящиеся к музыкальному вокальная техника, обработанный голос записи, компьютерный шум и другие случайные звуки, подобные этому.

Инструментальное искусство-один из самых популярных видов музыкального искусства. У каждого народа есть свои национальные инструментальные слова. Однако

есть и инструментальные инструменты, популярные у всех народов мира. К ним относятся такие музыкальные инструменты, как скрипка, кларнет, труба, фортепиано. Среди них фортепианный инструмент занимает особое место по удобству, совместимости и массовости. Фортепиано может использоваться в качестве ведущего, а также вспомогательного инструмента в любых условиях музыкальной деятельности. Вот почему так много людей берут уроки экономики фортепиано по сравнению с другими инструментами.

Точно так же, как решение всех проблем, то есть ключом, является наука, существует наука, связанная с процессом освоения фортепианной экономики. Для учащихся среднего звена системы образования, музыкальных и художественных колледжей, академических лицеев, изучающих фортепианную экономику, вводится предмет методика обучения игре на фортепиано. Эта наука является компонентом, закрепляющим профессиональную подготовку как теоретически, так и практически. В дальнейшем предполагается овладение необходимыми теоретическими и практическими знаниями для тех, кто будет работать преподавателем в музыкальных и художественных школах.

Методика обучения игре на фортепиано " входит в комплекс экономических дисциплин. Основная задача дисциплины направлена на формирование у учащихся таких знаний и умений, как осознанное отношение к своему труду, привитие интереса к педагогической профессии, развитие аналитического мышления в сознании учащегося, умение обобщать собственный исполнительский опыт, умение работать с методической литературой и учебными пособиями, овладение учебным репертуаром детских музыкально-художественных школ.

Степень овладения наукой проявляется в достижении цели через поставленные перед ней задачи. Практическое обучение может быть целесообразным, если оно усваивается с теоретическим восприятием и пониманием.

Преподаватель дисциплины" методика обучения игре на фортепиано " обязан в процессе обучения обучающихся правильно обучать игре на фортепиано, использовать пособия, освещающие проблемы музыкально-общепедагогического и психологического воспитания, регулярно публикуемые периодические издания, сборники и учебники, связанные с учебными пособиями по вопросам исполнительского мастерства. К предмету "Основы психологии и педагогики " требуется подходить с большим вниманием при проведении курса методики. Потому что эта наука обосновывает важнейшие принципы образования и воспитания, необходимые для всех специальностей. Поэтому стилям музыкального воспитания и воспитания посвящен отдельный раздел дисциплины "методика обучения игре на фортепиано". Но именно на методических занятиях эти общие принципы определяются применительно к обучению игре на фортепиано данной специальности.

Суть методической науки в том, что она пробуждает в учениках чувство учительства. Обучение через обучение развивает навыки преподавания, такие как преподавание уроков. В своей самостоятельной деятельности способствует осознанию и обобщению своего раннего педагогического опыта. Данное учебное пособие, составленное

по дисциплине” методика обучения игре на фортепиано”, создано на основе учебной программы данной дисциплины.

1. Система музыкального образования.
2. Основные задачи учителя МФМ и неразрывная связь образования и воспитания.
3. Роль музыки в воспитании и формировании Шаоян.
4. Основные стили начального образования.
5. Методика преподавания:
  - планирование учебного процесса; - методика ведения урока;
  - работа над музыкальным произведением.
6. Ознакомление с исполнительским репертуаром БММ.

Итак, из этого мы можем видеть, что в этих сформировавшихся жанрах любая мелодия, звуки, производящие шум, даже тишина, интерпретировались и исполнялись композиторами как музыкальные звуки. Мелодичное пение птиц, тихое шепот деревьев, шум горных рек издавна сопровождали человечество. Люди выросли в гармонии естественной музыки и со временем начали играть музыку, подражая природе. Они взялись за создание музыкальных произведений и достигли небывалых высот в создании музыкальных шедевров.

#### REFERENCES

1. Atton Kriss “Muxlislar nutqi shovqinli musiqaning janr sifatida qurilishi” Ommabop musiqa tadqiqotlar ijurnali, T.: 2011.
2. Olbrayt Doniyor. “Modernizm va musiqa: Manba antalogiyasi”. Chikago, “Chikago universiteti matbuoti”, T.:2004
3. F.N.Xalilov. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini cholg'u-ijrochilik tayyorlashning didaktik asoslari" Diss avtoreferati pedagogika fanlari doktori. T.: 2006.
4. Kiyamov N.S. "Musiqiy madaniyat tarbiyasini o'rganishga yo'naltirilgan nazariy tadqiqotlarni olib borish xususida". "Sharq" nashriyoti. T.: 2009.

## PO‘LAT ISHLAB CHIQUARISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAQIDA

Kasimova Feruza Aliyevna

Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

Tursun Axmedov

Ilmiy raxbari fizika-texnika fanlari nomzodi, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945280>

**Annotatsiya.** Jahon metallurgiyasining zamonaviy ishlab chiqaruvchilari asosiy e'tiborni "yashil (ekologik toza texnologiyalarni qo'llash orqali) po'lat ishlab chiqarish" ga qaratmoqda. Bu yuqori sifatli qotishma navlariga ortib borayotgan talabni qondirish bilan birga ekologik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Sanoat asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish va metall eritishning yangi usullarini izlash uchun – aynan shu narsaga e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Yashil metallurgiya sanoati, Metallurgik chang, Elektr pechlar, Consteel, CONARC, DRI, Arcon-jarayoni, SIMETALL EAF Quantom, EPC.

### ABOUT INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN STEEL PRODUCTION

**Abstract.** Modern producers of world metallurgy are focusing on "green (using environmentally friendly technologies) steel production". This allows to meet the growing demand for high-quality alloy grades while solving environmental problems. To modernize industrial equipment and search for new methods of metal smelting - this is what attention is being paid to.

**Key words:** Green metallurgical industry, Metallurgical dust, Electric furnaces, Consteel, CONARC, DRI, Arcon-process, SIMETALL EAF Quantom, EPC.

### ОБ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ В ПРОИЗВОДСТВЕ СТАЛИ

**Аннотация.** Современные производители мировой металлургии ориентируются на «зеленое (с использованием экологически чистых технологий) производство стали». Это позволяет удовлетворять растущий спрос на высококачественные марки сплавов, решая при этом экологические проблемы. Модернизация промышленного оборудования и поиск новых способов выплавки металлов - вот чему уделяется внимание.

**Ключевые слова:** Зеленая металлургическая промышленность, Металлургическая пыль, Электронечи, Consteel, CONARC, DRI, Arcon-процесс, SIMETALL EAF Quantom, EPC.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan po'lat eritish pechi kislorod konvertorda po'lat ishlab chiqarishdir. Bu texnologiyada agregatdan chnagni hosil bo'lish darajasi 1 tonna po'latga nisbatan 0,87-1,03 kg / t ni tashkil qiladi (boshqa metall eritish pechlarida bu ko'rsatkich 0,81 dan 7,1 kg / t gachani tashkil qiladi. Konvertor po'lat ishlab chiqarish nafaqat mahalliy korxonalarda balkim Xitoy, AQSH va Yevropa mamlakatlaridagi zavodlarda ham qo'llaniladi.

Ruda va temir tersak metallom parchalarini qayta ishlashning elektr yoyli po'lat eritish pechida eritish yuqori sifatli mahsulot olishga yordam beradi. Jarayon asosida - metallni isitish uchun elektr energiyasidan foydalanish. Jarayon maxsus pechlar (ДСП) da amalga oshiriladi. Bundan tashqari, u to'g'ridan-to'g'ri materialni eritish paytida shixta tarkibida keraksiz qo'shimchalarni o'zida saqlagan shlak hosil bo'lishi bilan bog'liq. Elektr pechlarida po'lat ishlab chiqarish Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Chexiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarda mashhur.

Consteel jarayoni. Consteel jarayoni elektropetchda ekologik jihatdan toza po'lat ishlab chiqarish, yuqori samaradorlik va yetarlicha energiyaresurslarni tejovchi innovatsion texnologiya



hisoblanadi. Bu texnologiyaning muhim jihati shundan iboratki bunda elektr yoyli pechga beriladigan metallarni konveyer orqali to'xtovsiz amalga oshiriladi 1 - rasm. Shunday ekan jarayon ham o'z o'zidan to'xtovsiz olib boriladi. Bunday pechlar sig'imi 40 – 320 tonnagacha bo'ladi.

Texnologiya bo'yicha shixta dastlab elektromagnit kran bilan vagonlardan ko'tarilib konveyerga yuklanadi u yerda esa chiqindi gazlar bilan shixta ta'sirlashib qiziydi va elektr yoyli po'lat eritish pechiga uzatiladi. Shuningdek konveyerning tag qismiga qo'shimcha gorelkalar o'rnatilgan texnologiya varianti ham mavjud. Jarayonning asosiy yutug'i shundan iboratki metallomni yiriklashtirish (qumochlash) talab etilmaydi hatto strujkalarini ham ishlatish mumkin.

Qizigan shixta EYPEP (elektr yoyli po'lat eritish pechi) ga yuklanib u yerda eriydi. Pechdan ajralib chiqayotgan gaz esa konveyer bo'ylab harakatlanayotgan shixtani qizdiradi undan qolgan gaz esa gazni tozalash stansiyasi tomon harakatlanadi.

Shuningdek pechga suyuq holdagi cho'yanni ham to'xtovsiz ravishda ishchi maydon orqali maxsus futerovkalangan jelob orqali quyib turiladi. Consteel texnologiyasining yutuqlariga:

- Shixtani qizdirish va jarayonni barqarorligini oshirish hisobiga elektr energiya sarfini 80-120 kVt·soat/t iqtisod qilinishi;
- Jarayonni to'xtovsiz ishlashini ta'minlash orqali pechning ishlab chiqarish unum dorligini oshishi;
- Shlak hosil bo'lishi uchun qulay sharoit va pechdagi atmosferani yaxshilanishi;
- Pech futerovkasining bardoshlilikini oshishi;
- Material – texnik ta'minotga ketadigan sarf-xarajatning 40 % ga kamaytirilishi, chiqindini qisman qayta ishlash imkoniyati;
- Shlakdagi FeO ulushining va po'lat tarkibidagi vodorod, fosfor, azot kabi gazlar erishining kamayishi.
- Shovqin darajasining kamayishi va ekologik ishlab chiqarish tizimining yangi bosqichga ko'tarilishi.

Ikki korpusli (vannali) pech. Ikki korpusli pechlarning asosiy ko'rsatkichi bu uning ishlab chiqarish unumdorligi hisoblanadi. Bunday pechlar 2 ta korpus (vanna) dan iborat bo'lib, Birinchi tok bilan ta'minlash tizimi bitta (o'zgarimas tokdagi pech) ya'ni 3 ta (o'zgaruvchan tokdagi pech) elektrod bilan birinchi vannadan ikkinchi vannaga o'tqazilib turiladi.

Pechning birinchi vannasida elektrodlar yordamida erish olib borilsa ikkinchi vannada birinchi vannadan chiqqan shixta chiqindi gazlar yoki gaz gorelkasi yordamida qizdiriladi. Bu texnologiyada shixtani qizdirish hisobiga erish davomiyligi 40 % gacha, elektr energiya esa 40 – 60 kVt·soat/t gacha qisqaradi. Shuningdek 2 ta vannaga ham elektrodlar o'rnatilgan agregatlar mavjud bu holda pech loyihasi uchun qo'shimcha sarf xarajat talab etiladi.

Ikki korpusli pechlarning yana bir varianti CONARC (CONverter + electric ARC furnace) agregati hisoblanadi. Ushbu agregat ham 2 ta korpusdan iborat bo'lib, bitta komplektda elektrod va kislorod purkash uchun (konverter kabi furma bilan jihozlangan). Bu agregatning yutug'i suyuq cho'yan va metallomning yoki DRI (Direct Reduced Iron – temirni rudadan bevosita ajratib olingan mahsuloti) har xil proporsiyalarda eritib amalda po'lat olish imkoniyatining mavjudligidir.

Po'lat eritish jarayoni ikki davrga bo'lingan 6 – rasm. Dastlab birinchi korpus (vanna) ga suyuq hodagi cho'yan quyiladi so'ng pechga furma tushirilib kislorod purkaladi. Bu bosqichda metallning uglerodsizlanishi olib boriladi.

Kislorod purkash davrida kechadigan C, Si, Mn va P oksidlanishi hisobiga vannani kuyishini oldini olish maqsadida pechga sovitgichlar metallom yoki DRI (Direct Reduced Iron) ko‘rinishida yuklanadi. Kislorod purkash tugagach furma ikkinchi korpusga o‘rnatiladi yoki ko‘tarilib yonboshga surib qo‘yiladi, birinchi korpusga esa elektrodlar o‘rnatiladi. Bu bosqichda pechga qoldiq qattiq holdagi shixta yuklanib elektrodlar yordamida eritiladi.

Shaxtali elektr po‘lat eritish pechlar. Shaxtali elektr po‘lat eritish pech konstruksiyasining o‘ziga xosligi shundaki bunda shixta pechga yuklanishidan oldin shaxtada qizdiriladi. Bu shaxtalar pechning yuqori qismi svodning ustidan o‘rnatiladi va odatda 1 va 2 ta shaxtadan iborat bo‘ladi. Metallomni maksimal 800 oC haroratgacha qizdirish mumkin. Metallomni dastlabki qizdirish hisobiga jarayonga sarflanadigan elektr – energiyani 70 – 100 kVt·soat/t iqtisod qilish imkonini beradi. Shaxta orqali umumiy shixta massasining 60 % ini beriladi qolgan 40 % i qismi esa to‘g‘ridan to‘g‘ri pech vannasiga yuklanadi.

Eritish davomiyligi 35 – 50 minutni tashkil qiladi. Elektroenergiya iqtisod qilinishi bilan bir qatorda elektrod sarfi ham 30 % ga qisqarib, ishlab chiqarish unumdorligi 40 % gacha oshadi.

Bu jarayon yaratilganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmaganligi sababli ( XX - asr 80 yillarining oxirida) bu pechlarning optimal konstruksiyalari ustida ishlar olib borilmoqda. Quyida esa 2 xil variantini ko‘rib chiqamiz.

SIMETALL EAF Quantom – Metallomni qizdirishga ega zamonaviy konstruktorlik g‘oyasiga ega pech hisoblanadi. Ayni vaqtda faqatgina bitta shu turdagi pech Meksikadagi Talleres y Aceros S.A de C.V. (Tiasa shahri) kompaniyasining po‘lat quyish kompaniyasiga o‘rnatilgan.

Metallom kran yordamida badyaga yuklanadi va bu metall massasi bo‘yicha 100 tonnaga yetguncha olib boriladi, pechdan metallni chiqarib olgandan so‘ng botqoqlik massasi 70 tonnani tashkil etishini ham hisobga olish kerak. Pechning sxemasi 7 – rasmda keltirilgan.

Metallom kran yordamida badyaga solinib u yerdan shaxtaga podyomnik yordamida ko‘tariladi so‘ng lyulka ochiladi va shixtani qizishi kichadi. Bu pechga suv bilan sovitiladigan shaxta konstruksiyasidan foydalanildi.

Qizigan shixta pechga yuklanadi. Yuklash uch portsiyada amalga oshirilib erish sikli 33 minutni tashkil qiladi. Har bir portsiyani qizishi uchun esa 9 minut sarflanadi. Pech 4o qiyalikka burilib, metall sifon ko‘rinishidagi kanaldan chiqarib olinadi.

Yana bir shaxtali pechga to‘xtovsiz xomashyo yuklash jarayonini birlashtirish bo‘yicha innovatsion yechim EPC (Environmental Preheating and Continuous Charging) bo‘lib bu Turkiyaning CVS MAKINA va KR Tec GmbH kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mana shu pozitsiyada zavalkali kamerani oldingi devori shaxtani berkitadi (dastlabki qizdirish kamerasi) va birinchi portsiya shixta qizdiriladi. Shixtani zavalkali kameraga yuklash vaqtida Elektr pechda erish va shixtani dastlabki qizish jarayonlari to‘xtamasdan ishlaydi.

## REFERENCES

1. Abduraxmonov, S., Mamaraximov, S., Xaydaraliyev, X., & Shaxobov, T. (2022). Olmaliq sharoitida konvertor changlarini qayta ishlashning zamonaviy usuli. *Science and Education*, 3(4), 315-319.
2. Abdurahmonov, S. A., Komilovich, Q. H., & Abdakim o‘g‘li, N. M. (2021). Polimetall sulfidli konsentratlarni qayta ishlashning samarali texnologiyalari. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 1(01), 33-42.

3. Schmale K. CONARC® - All purpose Steelmaking by SMS Demag / K. Schmale; D. Kersten // Metal 2003 20- 22.05.2003, Hradec nad Moravici, Czech Republic. – 2003.
4. Храпко С.А. Производство стали в ДСП [Электронный ресурс]: конспект лекций / С.А. Храпко, Е.Л. Корзун, Ю.В. Костецкий. - Донецкий Национальный Технический Университет./ -2011 / – Режим доступа: <http://uas.su/books/2011/minizavod/15/razdel15.php> . - Дата доступа: 15.06.2014. – Название с экрана.
5. SIMETAL EAF Quantum The future of efficient steelmaking Metals Technologies [Электронный ресурс] / -2014 / -Режим доступа: [www.siemens-vai.com](http://www.siemens-vai.com) - Дата доступа: 19.07.2014. – Название с экрана

## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INGLIZCHA KRASSVORDLARDAN FOYDALANISH

Raximov Abdurauf

Fargʻona davlat universiteti 2-kurs magistranti

Muhammadjon Raxmonqulov

Ilmiy rahbari fizika-texnika fanlari nomzodi, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945356>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologiya darslarida inglizcha krassvordlardan foydalanish texnologiya darslari haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o'рни va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, dizayn.

## USE OF ENGLISH CROSSWORDS IN TECHNOLOGY LESSONS

**Abstract.** This article discusses the general concepts of using English crosswords in technology lessons. In addition, the main content of the article is the role of technology lessons in our lives and the use of modern technologies in technology lessons.

**Key words:** technology lessons, innovative technology, pedagogical technology, design.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЙСКИХ КРОССВОРДОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются общие понятия использования английских кроссвордов на уроках технологии. Кроме того, основным содержанием статьи является роль уроков технологии в нашей жизни и использование современных технологий на уроках технологии.


**Ключевые слова:** уроки технологии, инновационная технология, педагогическая технология, дизайн.

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lasiz. Bu maqolada o‘quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo‘ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o‘tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog‘liq umummehnat ko‘nikmalari har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a‘zosining bilim va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko‘nikmalarining zaruratini yanada oshirmoqda. Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlartomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrlı boshqa ne‘matlar yaratilgan. Siz ham kelajakda voyaga yetib,

tanlagan kasbingizni mukammal egallab, bu taraqqiyotga o'z hissangizni qo'shasiz deb umid qilamiz. Bu vazifalarni uddalashingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Bizga ma'lumki o'quvchilarga yangi bilimlar berishda darsning noan'anaviy usullaridan foydalanish juda yaxshi natija berishi bilan birgalikda o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yangi g'oyalar ustida ishlash, ko'nikma hosil qilish hamda ularni ijodkorlikga undaydi. Yangi va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kompyuter savodxonligini oshirish, internet ma'lumotlaridan foydalanish esa o'quvchilarni ommaviy axborot vositalaridan o'zlari uchun kerakli ma'lumotlarni axtarib topishlari uchun eng qulay imkoniyatdir. Texnologiya fanini o'qitishda xorijiy tillardan foydalanish, ayniqsa ingliz tilidagi krossvordlardan foydalanish o'quvchilarda darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga hamda ularni erkin fikrlashlariga juda katta yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'zlarini mustaqil fikrlashga hamda ijodiy izlanishlariga sabab bo'ladi. Biz bu ijodiy uslubni quyidagi usul bilan sinab ko'ramiz.

Avvalo o'quvchilarning ingliz tili savodxonligini tekshirib ko'ramiz, buning uchun ba'zi predmetlarni yoki mevalarni ko'rsatib uning o'zbekcha nomini so'raymiz, keyin esa inglizcha nomlanishini so'raymiz, shundan so'ng o'quvchilarni ikkita guruxga bo'lib olamiz. Xar bir guruxni nomlab gurux sardorini saylab olamiz, bunda o'quvchilardan o'zlarining guruxlaridagi ishonchli sinfdoshlarini sardor etib saylashlari kerakligini tushuntiramiz, chunki mashg'ulot yakunida sardorlar bellashuvini ham o'tkazish darsni qiziqarli bo'lishiga va o'quvchilarni faollikga hamda chaqqonlikga undaydi.



Krossvorddagi so'zlar faqat gorizontal xolatda yozilgan bo'lib, u yerda kalit so'zi "Technology" vertikal xolatda kelib chiqishi kerak.



Berilgan topshiriq krossvord.

1. Kiyimlarni birlashtiruvchi furnitura (tugma) -----→ button
2. Gazlama kesuvchi qurol (qaychi) -----→ shears
3. Rejalash quroli (bo'r) -----→ chalk
4. Gazlamani tikish ish quroli (igna) -----→ needle
5. O'quvchi korjomasi (fartuk) -----→ apron
6. Barmoqni ximoyalovchi ish qurol (angishvona) -----→ thimble
7. Kiyimlar uchun asosiy xom ashyo (gazlama) -----→ manyfactory
8. Gazlamani birlashtiruvchi xom ashyo (ip) -----→ string
9. Kiyimlarni bezagi (nozmunchoq) -----→ drogonfey

Mashg'ulot davomida o'quvchilarga ko'rsatilgan predmetlarni qaysi gurux o'quvchilari birinchi bo'lib topsa ikkinchi gurux o'quvchilari uning nomini aytib izoxlab beradi, agar ikkinchi gurux o'quvchisi izoxlolmasa birinchi gurux o'quvchilarining o'zlari izoxlashlari va qo'shimcha balni qo'lga kiritishlari mumkin bo'ladi, bunda o'quvchilar qo'lga kiritgan ballar qanchalik ko'paysa ularning faolliigi shunchalik oshib boradi. Yana shuni qo'shimcha aytish mumkinki, krassvorddagi berilgan topshiriqni o'quvchilar izoxlashganda uning rangini, nima uchun ishlatilishini, ya'ni vazifasini, uni qaerdan topish yoki sotib olish mumkinligi, umumiy yoki ayollar va erkaklar uchun aloxida turlari mavjud ekanligi to'g'risida ham o'z fikrlarini bayon qilishsa, berilgan topshiriqning javobi to'liq topilgan va izoxlangan bo'ladi. Mashg'ulotni xuddi shu usulda o'tib borilsa barcha o'quvchilarni tushunishlari oson bo'lishi bilan birga sinfdagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham mashg'ulotni tushunishi oson bo'ladi.

Natija esa kutilgandek ijobiy bo'lishi bilan birga, keyingi mashg'ulotlarga o'quvchilarning o'zlarini ham yangi krassvord tuzib kelishlariga undaydi hamda izlanishlari samarasiga yarasha rag'bat olishlari uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lishadi.

Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so'zining ma'nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so'zining grek tilidan tarjimasini tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno» - hunar yoki san'at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida e'tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo'lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman. Bundan tashqari, o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

**REFERENCES**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU. 2007-yil.

## QUYOSH KOLLEKTORINI KONSTRUKSIYALASH, TADQIQ QILISH VA UNI INNOVATSION USULDA O'QITISH

**Karimov Boxodir Xoshimovich**

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.,

**Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li**

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti.

Farg'ona davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945421>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida ilg'or ilm fan-yutuqlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hayotimizga tadbiq etish, quyosh energiyasidan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari, gelienergetika sohasi to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** muqobil energiya, quyosh energiyasi, fotoelektr qurilmalar, gelienergetika, geliotexnik qurilmalar, geliotexnika, yarim o'tkazgichli quyosh batareyasi, fotoelement, quyosh qurilmalari, quyosh pechi, quyosh elektrostansiyalari.

### DESIGN, RESEARCH AND TEACH INNOVATIVE METHOD OF SOLAR COLLECTOR

**Abstract.** This article describes advanced scientific achievements in the field of using alternative energy sources, the application of renewable energy sources to our lives, the scientific and practical basis of using solar energy, and the field of solar energy.

**Key words and phrases:** alternative energy, solar energy, photovoltaic devices, helioenergy, heliotechnical devices, heliotechnics, semiconductor solar cell, photocell, solar devices, solar furnace, solar power plants.

### РАЗРАБОТКА, ИССЛЕДОВАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОМУ МЕТОДУ СОЛНЕЧНОГО КОЛЛЕКТОРА

**Аннотация.** В данной статье описаны передовые научные достижения в области использования альтернативных источников энергии, применения возобновляемых источников энергии в нашей жизни, научно-практических основ использования солнечной энергии, области солнечной энергетики.

**Ключевые слова и фразы:** альтернативная энергетика, солнечная энергетика, фотоэлектрические устройства, гелиоэнергетика, гелиотехнические устройства, гелиотехника, полупроводниковый солнечный элемент, фотоэлемент, солнечные устройства, солнечная печь, солнечные электростанции.

Muqobil energiya manbalari masalasi ko'p yillardan beri kelajak energetik tizimlarini ishlab chiqish va yaratish sohasining yetakchi mutaxassislarini o'ylantirib kelmoqda. Ko'pgina olimlarning bashoratlari ko'ra, yaqin 60-70 yillarda ko'mir, tabiiy gaz va neft zahiralari butunlay tugashi mumkin. Energetik inqiroz xavf solayotganligi tufayli dunyoning ko'pgina mamlakatlari bugundanoq zamonaviy energiyani tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqishni jadallashtirmoqda, muqobil energiya manbalarini topish ishlari to'xtovsiz olib borilmoqda, qonunchilik bazasi ishlab chiqilmoqda va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hayotimizga tadbiq etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda mazkur qayta tiklanadigan muqobil energiya manbalaridan foydalanishda birmuncha tajribalar o'tkazilgan. Muqobil energiya manbalaridan bo'lgan quyosh energiyasidan foydalanib, elektr energiyasini hosil qiluvchi qurilmalar - fotoelektr qurilmalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Lekin bu borada iqtisodiy qulay sharoit yaratish bilan birga sohani rivojlantirish uchun asos bo'ladigan huquqiy bazani takomillashtirish, uni tartibga soladigan yagona qonun loyihasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi shubhasiz muhim ahamiyatga egadir.

Quyosh yerda hayot, jumladan insoniyat mavjudligining asosiy sababchisi hisoblanadi. Aslida insoniyat paydo bo'lganidan buyon o'zi e'tibor bermagan holda quyosh energiyasidan foydalanib kelmoqda. Chunki insonlar hayoti uchun xizmat qiluvchi yer osti, yer ustidagi mavjud barcha energiya manbalari, o'simlik va hayvonot dunyosi aslida quyosh energiyasining mahsulidir. Shu bilan birga insonlar quyosh energiyasidan bevosita amalda foydalanish yo'llarini izlaganlar va bugungi kunda bu muammoga katta e'tibor berilmoqda. Mutaxassislarining fikricha bugungi kunda jahon energetikasini rivojlantirishda energiya resurslarini kuchaytirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, yurtimiz iqlim sharoitida quyosh, suv, shamol, biogaz singari noan'anaviy energiyalardan foydalanishning ulkan imkoniyatlari mavjud. Respublikamiz hududida yilning qariyb 350 kuni quyoshli bo'ladi, doimiy shamol esib turadigan ochiq maydonlar ko'p. Bunday tabiiy salohiyat bugungi kunda jahon miqyosida tobora ommalashib borayotgan yuqori samarali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda juda qo'l keladi. Olimlarimiz bu borada keng qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni yaratish va amalga tatbiq etish bo'yicha ko'plab loyihalar ustida ish olib bormoqdalar. Quyosh energiyasidan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasa hisoblangan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasiga qarashli Fizika-texnika institutida yaratilayotgan ilmiy ixtirolar bunga misoldir.

Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ko'zda tutuvchi energiyani tejash siyosatining izchil amalga oshirilayotgani ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda energiya resurslari va energiyani tejash, shuningdek muqobil energiya manbalari sohasiga texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish bo'yicha qarorlar va davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 1-martda qabul qilingan Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida muqobil energetika sohasidagi ilmiy salohiyatni yanada takomillashtirish, muqobil energetika manbalarini ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni rag'batlantirish, ularga soliq va bojxona imtiyozlarini berish Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston energiya resurslari o'ziga yetarli mamlakat hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, quyosh energetikasi bo'yicha o'z ilmiy ishlanmalariga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan mamlakatdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Fizika- Quyosh ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi Fizika-texnika institutining xizmati katta. Institut olimlari mamlakatimizdagi ulkan gelioenergetika salohiyatidan oqilona foydalanish bo'yicha samarali tadqiqotlar olib bormoqda.

Ma'lumki quyoshdan kelayotgan yorug'lik energiyasini issiqlik yoki elektr energiyasiga aylantirib, undan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Quyosh energiyasini boshqa turdagi energiyalarga aylantirib beruvchi qurilmalar geliotexnik qurilmalar deyiladi. Quyosh energiyasidan foydalanish istiqbollari bilan shug'ullanadigan soha esa geliotexnika deb ataladi.

Quyosh energiyasidan foydalanishning juda ham ko'p usullari mavjud bo'lib, bulardan eng samaralirog'i bu-nurlanish energiyasini boshqa turdagi energiyaga aylantirishda foydali ish koeffitsienti eng katta bo'lgan qurilma bu yarim o'tkazgichli quyosh batareyasi bo'lib hisoblanadi. Yarim o'tkazgichli fotoelementlarni quyosh batareyasi sifatida ishlatishda quyoshdan kelayotgan radiatsiyaning spektral tarkibini bilish masalaning asosiy tomonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun quyosh batareyasini tayyorlashda quyosh spektrining qaysi qismlaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatuvchi yarim o'tkazgichning optik xususiyatlarini va quyosh energiyasini elektr energiyaga samarali aylantirib bera olishligini xarakterlovchi elektr xususiyatlarini bilgan holda, yarim o'tkazgich materialini tanlab olish zarurdir.

Hammaga ma'lumki energetika muammosi jahonda global muammo hisoblanadi. Ushbu global muammo sifatida energiya manbalaridan foydalanishning hozirgi tizimini takomillashtirish va qayta tiklanadigan hamda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish boyicha dadil qadamlar tashlanishini talab etmoqda. Jumladan bitmas tunganmas va ekologik toza quyosh energiyasidan foydalanish texnologiyasini keng miqiyosda rivojlantirish, energiya taminoti uzluksizligi va sifatini yuqori pogonaga olib chiqishda kuchli richag vazifasini bajaradi, atrof-muhit tozaligini saqlashga yordam beradi. Aytish mumkinki, XXI-asr butun dunyoda gelioenergetika quyosh energetikasiga yangicha nazar va umid bilan qarash ruhini olib keldi. Bu soha tez suratlarda bilan turli yonalishlarda rivojlanmoqda. Shimoliy Skandinaviyadan tortib to Afrikaning jazirama sahrolarida joylashgan dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida gelioenergetik dasturlar asosida ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy ishlar olib borilmoqda. Quyosh qurilmalari binolarni isitish va sovitish, elektr energiyasini hosil qilish va turli texnologik jarayonlarni amalga oshirishda foydalanilmoqda. Shuningdek mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Respublikamizda quyosh energiyasini issiqlik va elektr energiyasiga aylantirish va undan foydalanish, yuqori temperaturalar olish va geliomaterialshunoslik boyicha samarali ilmiy tadqiqotlar bilan birga katta miqiyosdagi amaliy ishlar olib borilmoqda.

Yurtimizda dunyodagi eng katta va noyob quyosh pechining faoliyat korsatayotganligi hamda quyosh elektrostansiyalarini barpo etish yolidagi sa'y-harakatlar shuningdek, Quyosh energiyasidan foydalanish Xalqaro Markazining tashkilotilishi fikrimizga misol bola oladi.

## REFERENCES

1. T Akhmedov, SM Otazhonov, MM Khalilov, N Yunusov, U Mamadzhanov, NM Zhuraev // Effective dielectric permeability and electrical conductivity of polycrystalline PbTe films with disturbed stoichiometry// Journal of Physics: Conference Series 2021/12/1 052008/
2. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna // Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022.100-102 page.
3. Salim Madrahimovich Otajonov, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna



- //Polymer and Composition Materials// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 103-106 page.
4. Otazhonov S.M., Yunusov N., Qakhkhorova B. //DEFORMATION CHARACTERISTICS OF PbTe-Te POLYCRYSTALLINE FILMS// SCIENCE AND WORLD International scientific journal № 3 (103), 2022. 27-31 page
  5. Отажонов С.М., Юнусов Н., Қаххорова Б //ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe-Te// Деформационный наука и мир 2022 №3.
  6. Otazhonov S.M., Botirov K.A., Khalilov M.M., Yunusov N //EFFECT OF DEFORMATION ON DEFECT MIGRATION IN PHOTSENSITIVE THIN FILMS CdTe: Ag AND PbTe// Science and World International scientific journal № 6 (94) июн 2021 ISSN 2308-4804 . IF 0,325 Page 11-16
  7. Отажонов С.М., Ахмедов Т., Усмонов Я., Ботиров К.А., Халилов М.М., Юнусов Н. //ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕГО НАПРЯЖЕНИЯ НА ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe С ИЗБЫТКОМ ТЕЛЛУРА И СВИНЦА// Science and World International scientific journal 2021. № 3 (91). 18-22 page.
  8. T Akhmedov , S M Otajonov, Ya Usmonov, M M Khalilov, N Yunusov and A K Amonov // Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry// Journal of Physics Conference Series/ 1889(2021)022052 doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052. 1-8 page
  9. Салим Мадрахимович Отажонов, Абдукахор Маматбокиевич Худойбердиев, Ботиров Қодир Абдуллаевич, Мухаммадмусо Мухаммаджонович Халилов, Нурзод Юнусов, Улугбек Мамажонов //Тензочувствительности полупроводниковых пленок с мелких и глубоких примесей при температуре жидким гелием// Universum: технические науки. 12-2 (69) 2019. 28-32 page
  10. E Gaubas, T Čerponis, D Dobrovolskas, J Mickevičius, J Pavlov, V Rumbauskas, JV Vaitkus, N Alimov, S Otajonov //Study of polycrystalline CdTe films by contact and contactless pulsed photo-ionization spectroscopy// Thin Solid Films. 2018/8/30. 231- 235 page.
  11. T Akhmedov, SM Otazhonov, MM Khalilov, N Yunusov, U Mamadzhanov, NM Zhuraev //Effective dielectric permeability and electrical conductivity of polycrystalline PbTe films with disturbed stoichiometry// Journal of Physics: Conference Series 2021/12/1 052008/
  12. Xalimaxon G'anieva, Tojimamatov Jamshidbek //CHARACTER ACTENTATION IN ADOLESCENTS// International Journal for Innovative Engineering and Management Research Volume 10, Issue 04, Pages: 153-157.

## INSONIYATNING TARAQQIYOTGA YO'LLAGAN ISHONCHI

Ismoilov Adxam Baxodirovich

Jizzax viloyat yuridik texnikumi

“Ommaviy huquqiy fanlar” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7948992>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada insoniyatning taraqqiyotga yo'llagan ishonchi va O'zbekistonning bugungi kunda kuchli demokratik fuqorolik jamiyati tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** insoniyatning taraqqiyotga yo'llagan ishonchi, qoralash va sud qilish, fuqorolik jamiyati.

## HUMANITY'S FAITH IN DEVELOPMENT

**Abstract.** This article talks about humanity's faith in development and Uzbekistan's goal of creating a strong democratic civil society today.

**Key words:** humanity's faith in development, condemnation and trial, civil society.

## ВЕРА ЧЕЛОВЕЧЕСТВА В РАЗВИТИЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится о вере человечества в развитие и цели Узбекистана по созданию сильного демократического гражданского общества сегодня.

**Ключевые слова:** вера человечества в развитие, осуждение и суд, гражданское общество.

Inson o'z hayoti davomida erkin hayot kechiradi. U mustaqil yurish, harakat qilish hamda fikrlashi mumkin. Inson o'z xoxishiga asosan ko'ngli buyurgan ishni bajarish huquqiga ega.

Lekin uning harakat qilishi qonun doirasida amalga oshadi.

Uning xatti-harakatlari to'g'ri yoki noto'g'riligi qonun normalari orqali amalga oshadi tartibga solinadi. Bunday qonun yoki normalar tizimi ma'lum bir doirada tartibga solingan tuzuk yoki tuzulmaga ega bo'ladi. Konstitutsiya shunday huquqiy majmua hisoblanadi. Konstitutsiya so'zi (lotin tilidan constitute – tuzuk, tuzum) degan manoni bildiradi. Qonunlarning to'plami ya'ni konstitutsiya uzoq tarixiy o'tmishga ega. Dastlab insonlarning xatti-harakatlari yoki qilmishlari uchun javob berishi ma'lum bir qonun va qoida orqali amalga oshirilgan.

Qadimgi Rimda fuqorolarni ayblash, qoralash va sud qilish og'zaki qonun qoidalar orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik esa Rim aholisining asosan quyi qismi qo'zg'alon ko'tarib, qonunlarning yozma shaklini yozishni talab qilishadi. Shundan so'ng Rimda 12 mis lavhga yozilgan qonunlar to'plami rimning markazi forumiga o'rnatiladi. Shu zayilda qonun va huquq insonlar orasida muhim aloqa vositasiga aylana boshlandi.

O'zbekiston bugungi kunda kuchli demokratik fuqorolik jamiyati tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bunday jamiyatni barpo etishda fuqorolarning huquq va erkinligini ta'minlaydigan qonunlar to'plami ya'ni konstitutsiya va normativ hujjatlarga tayanib bu jarayonni amalga oshiradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi-Inson va fuqorolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston davlatchiligida xalq asosiy o'rin tutadi. Chunki, xalq O'zbekistonda davlatning asosiy tayanchidir.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek- “Demokratik jamiyat – bu eng avvalo fuqorlik jamiyatidir”. Chinakam demokratyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo davlat va ijtimoiy siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va

davlat hokimiyati tinch va totuv yashaydi. Demokratiya bu keng tushuncha hisoblanib o'zida quydagi xususiyatlarni mujassamlashtirgan:

- inson va fuqorolarning huquqlari ta'minlanishi;
- xalq irodasini o'zida namoyon etishi;
- barcha qonun va qarorlarning ochiq mulohazaga qo'yilishi;
- davlat har bir harakatni amalga oshirishda inson manfaatlarini ko'zlashi.

O'zbekiston Respublikasining kontitutsiyasi inson huquqlari xalqaro hujjatlar jumladan «inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» rivojlangan demokratik davlatlarda mavjud bo'lgan demokratik tamoyillar va qadryatlar vatanimiz tarixidagi bir nech ming yillik milliy va sharqona davlatni iroda etish analarini o'zida mujassamlashtiradi. Mamlakatimiz konstitutsiyasi suveren O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining muhim tomonlarini konstitutsiyaviy tartibga solishning umumiy prinsplarini mustahkamladi, davlat boshqaruvining mohiyatini belgilab berdi.

Har bir davlat mustaqil bo'lganidan so'ng o'zining gerbi, bayrog'i, madhiya va konstitutsiyasiga ega bo'ladi. Jahondagi barcha davlatlarning konstitutsiyasi o'ziga xos xususiyati bilan farq qiladi. Buni sharq bilan g'arb konstitutsiyasida ko'rishimiz mumkin. Sharq mamlakatlarining konstitutsiyasi, o'ziga xos bo'lib, ular g'arbnikidan keskin farq qiladi. Chunki sharq mamlakatlari azaldan ta'lim tarbiya va huquqiy bilimga katta e'tibor berib kelinadi. Bundan tashqari sharqda asosan musulmonlar istiqomat qiladi. Dinning konstitutsiyaga aloqasi juda kattadir. Misol uchun Eron Islom Respublikasini oladigan bo'lsak, amaldagi konstitutsiyasi 1979-yilning 2-5-dekabr kunlari o'tkazilgan umumxalq referndumlaridan so'ng qabul qilingan bo'lib, unda islom dinining nufuzi baland edi. Eron Islom Respublikasi konstitutsiyasiga ko'ra hukumatni ikki shaxs biri Oliy rahbar ikkinchisi Prezident boshqradi. Oliy rahbar konstitutsiyaning 12 nafar kengashi qo'riqchilar kengashidan 6 nafarini saylaydi.

Sharqning eng ko'hna qadamjolaridan bo'lgan Hindistonda konstitutsiya o'ziga xos xususiyatga ega.

Mazkur konstitutsiyani hamma ham tushuna olishi qiyin bo'lgan tildagi 395 ta modda, 12 ta ilova va 500 ta tuzatishlardan iborat. G'arb davlatlarida va konstitutsiya o'zgacha ruknda tuzulgan bo'ladi. Yevropaning eng ilg'or davlatlaridan biri bo'lgan Buyuk Britaniyada konstitutsiya o'rniga turli normalarga oid jamiyatdagi aholi hayotini tartibga soluvchi 300 ga yaqin qaror va qonunlar tashkil etadi.

Jahonning eng kuchli davlatlardan biri bo'lgan AQSh konstitutsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davlat konstitutsiyasi boshqa davlatlar konstitutsiyasiga nisbatan oldin qabul qilingan. Mazkur konstitutsiya 1787-yilda qabul qilingan. AQSh konstitutsiyasi dunyodagi eng kichik va o'zgaras konstitutsiya hisoblanadi.

Shunday konstitutsiyalar ham borki, ular insoniyatni taraqqiyotga yo'lladi. Ana o'sha konstitutsiyalardan biri O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasidir. Dastlab O'zbekiston Sobiq Ittifoqning tarkibida edi. Bu Ittifoqda ahvol og'irlashganidan so'ng uning tarkibidagi davlatlar birin-ketin ajralib chiqa boshladi. O'zbekiston ham mustaqillikka erishganidan so'ng, 1990-yilda konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun Prezident rahbarligida 64 kishilik komissiya tuzuldi. Loyiha ustida ikki yarim yil qattiq mehnat qilindi va konstitutsiya loyihasi ikki marotaba xalq muhakamasiga taqdim etildi. Muhokama natijasida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Buning natijasida konstitutsiyaga 80 ga yaqin o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya 6 bo'lim 128 moddadan iborat. 2017-yil 25-oktabrda Prezident Shavkat Mirzayevning farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiya bayramiga bag'ishlab «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 25 yil» ko'krak nishoni ta'sis etildi. Bundan tashqari konstitutsiyaning nishonlanish arafasida qamoq jazosini o'tayatganlar uchun amnitsiya e'lon qilindi. Konstitutsiya muqum emas u o'zgaruvchan xususiyatga ega. Chunki jamiyat va undagi insonlar o'rtasidagi munosabat harakat kundan-kunga kuchayib bormoqda. Harakatning kuchayishi natijasida eski qonunlar talabga javob bermay qolganda ularni yangi qonun loyihalari bilan o'zgartirilib boriladi.

#### **REFERENCES**

1. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent-2022.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjat,
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

**Ergasheva Zebiniso Berkinovna**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

Ommaviy-huquqiy fanlar kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7949600>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o`smirlarda deviant xulq-atvor shakllanish sabablari va uning oldini olish chora-tadbirlari haqida so`z boradi.

*Kalit so`zlar:* deviant xulq-atvor shakllanish sabablari, jamiyatda o`rnatilgan axloq me`yorlari, fuqorolik jamiyati.

### CAUSES OF DEVIANT BEHAVIOR IN TEENAGERS AND MEASURES TO PREVENT IT

*Abstract.* This article talks about the causes of deviant behavior in teenagers and measures to prevent it.

*Key words:* causes of deviant behavior formation, moral standards established in society, civil society.

### ПРИЧИНЫ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ И МЕРЫ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ

*Аннотация.* В данной статье говорится о причинах девиантного поведения у подростков и мерах по его предупреждению.

*Ключевые слова:* причины формирования девиантного поведения, моральные нормы, сложившиеся в обществе, гражданское общество.

Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to`siq bo`luvchi me`yordan og`ish holatlari ham mavjud bo`lib, sotsiologiyada bu holat "Deviantlik holatlari", undan tug`iluvchi xulq-atvorni "Deviant xulq-atvor" deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o`rnatilgan ahloq meyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo`lib, yolg`onchilik, dangasalik, o`g`rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o`z joniga qasd qilish va boshqa ko`plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Deviant so`zi- lotincha deviantio so`zidan olingan bo`lib, chekinish, buzilish degan ma`noni anglatadi. Deviant xulq-atvor mavjud jamiyatda o`rnatilgan ahloq meyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisadir. Deviant xulq-atvor- bu muayyan jamiyatda qabul qilingan huquq va ahloq meyorlaridan chetga chiqishdir. Ushbu og`ishning sababi insonning tashqi dunyo, ijtimoiy muhit va o`zi bilan munosabatlari va o`zaro ta`sirining o`ziga xos xususiyatlarida yotadi. Deviant xulq-atvor inson rivojlanishining, butun jamiyat hayotining tabiiy shartidir. Deviant xulq-atvor bo`lgan, mavjud va bundan keyin ham bo`ladi. Shuning uchun birinchi o`rinda uning nima ekanligi haqida bilim va ko`nikmaga ega bo`lishligimiz hamda unga qarshi kurash yo`llarini izlab topishimiz darkor.

O`smirlik yoshida deviansiya namoyon bo`lishining tinimsiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o`smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularga tadbqiq etish vazifasini qo`yadi. Ilmiy nazariy va amaliyotda ikki asosiy texnologiya-profilaktika va reabilitatsiya keng tarqalgan.



Profilaktika-o`smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og`ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U asosan bolani o`rab turuvchi muhitga bog`liq bo`ladi. Jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy meyorlardan chetga chiqqan holatlarni o`rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O`zbekistonda istiqloq sharofati bilan o`rganila boshlandi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy meyorlar boshqaradi. Ijtimoiy meyor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo`lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy meyorning bir necha turlari mavjud bo`lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid meyorlar shular jumlasidandir. Ijtimoiy meyorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan meyorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umume`tirof etilgan tamoyillardan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat a`zolarining mana shu ijtimoiy meyorlarga amal qilib yashashni nazorat qiluvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni sanab o`tishimiz mumkin. Har bir inson bolalarga ijtimoiy meyorlarni o`rgatish bilan birga, xulq-atvor meyoriy talablarning to`g`ri bajarilishini ham nazorat qilsa birton-bir yutuqqa erishishimiz mumkin bo`ladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo`lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o`rni katta bo`ladi. Inson tarbiyasida eng birinchi va muhim ijtimoiy nazorat instituti bu-oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog`lom oilaning o`rni katta. Afsuski, oramizda shunday insonlar ham uchraydiki, balki unga to`siq bo`luvchi meyordan og`ish holatlarini yuzaga keltiradilar.

Deviant xulq-atvor- jamiyatda o`rnatilgan axloq meyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo`lib, yolg`onchilik, dangasalik, o`grilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o`z jomiga qasd qilish va boshqa ko`plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Bugungi kun zamonaviy jamiyatda oila tarbiya instituti sifatida o`zining samarali roli va vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Shunday vazifa va funksiyalardan biri bu kelajagimiz davomchilari bo`lgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashdir. Ma`lumki, oila inson bolalik davrining ilk kunlaridan boshlab nimani qo`lga kiritgan, egallagan bo`lsa uni butun hayoti davomida saqlaydi. Shu bois, oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy jihatlari ko`p bo`lib, u oilaviy ahillik va g`amxo`rlik yaqqol ifodalanadi. Shuni aytib o`tish kerakki, bola hayotida ota-onaning obro`si, tarbiya uslublarining ta`sirchanligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oila shaxs kamolotini belgilab beruvchi birlamchi omilardan hisoblanadi. Ma`lumki, oilada ota-ona tomonidan tarbiya uslublarini to`g`ri va oqilona tanlay olish ularni kelajakdagi kamolotini ta`minlab beradi. Ayrim o`rinlarda oilada ota-ona munosabatini to`g`ri yo`lga qo`yilmaganligi bola shaxsini shakllanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Bolalar ko`pincha nafaqat ijobiy, balki ota-onalarning xatti-harakatlarining salbiy namunalarini ham o`rganadilar, ba`zida ularni haddan tashqari o`zlariga singdirib boradilar. Demak, oilaning katta avlod vakillari tomonidan turli xil salbiy holatlar (yolg`on gapirish, ijtimoiy meyorlarga bo`ysunmaslik) o`zlari tomonidan amalga oshirilib, o`smir shaxsiga cheklov qo`yilishi ularda mazkur xatti-harakat va xulq-atvorlarni o`zlashtirishlari uchun kuchli motivatsiya bo`ladi.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, o`smirlik davrida xulq-atvor ko`rinishlarini kattalar tomonidan so`z orqali egallanmasdan, balki ularning xatti-harakatlarini obrazlarini ko`chirib olish orqali munosabat bildiradilar. Bu toifaga kiruvchi “tarbiyasi qiyin” o`smirlarning ota-onalari kamdan-kam hollarda ularni yaxshi xulq-atvorlari uchun maqtashadi va ko`picha yomon xatti-harakatlariga noto`g`ri va nomuvofiq munosabatda bo`lishadi.

Bunday ota-onalar farzandlarining noto`g`ri xatti-harakatlariga juda ko`p e`tibor berishlari odatiy hol emas. Ba`zida o`smir tomonidan amalga oshirilgan salbiy xatti-harakatlar oilada ota-onalar, ta`lim muassasalarida o`qituvchilar diqqatini o`ziga jalb qilishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlash maqsadida amalga oshiradilar. Buni esa ota-onalar tushunmaydilar va anglamaydilar. Agar ota-ona boladagi mazkur xulq-atvor va xatti-harakatlarni o`z vaqtida anglab yetib uni maqsadga muvofiq ravishda tarbiyalashi lozim. Su bois, oilada ota-ona o`z farzandida kechayotgan o`zgarishlarni tizimli ravishda kuzatib borishi va tarbiyaviy ta`sirni kuchaytirishi lozim.

Deviant xulq-atvorni o`rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, jamiyat shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko`ra muammoli holatning to`rtta asosiy holati ko`zga tashlanadi:

1. Muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo`lmaydigan holat.
2. Hech qanday muammo yo`q holat, bunda holat hech qanday qaror qabul qilishni talab qilmaydi;
3. Muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo`lsa-da, uning yechimi ham ijtimoiy meyorlarda ko`rsatilgan holat;
4. Mavjud muammoni subyekt ijtimoiy meyorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;

Ushbu turlicha holatlar keng ko`lamda biridan ikkinchisiga o`tib turadi. Muammoli holatning mazmuni subyektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo`lgan vositalari orasidagi ; faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo`shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek, ijtimoiy meyor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko`pincha o`ylab chiqarilgan) paydo bo`lishidan iboratdir.

Shunday qilib, ta`limjarayonida e`tiborga olinishi kerak bo`lgan oilaviy tarbiyaning eng keng tarqalgan salbiy omillarini ko`rib chiqish maqsadga muvofiq:

- moddiy omilarning yetarli darajada ta`siri;
- oilada bola ehtiyojlari uchun kerakli narsalarning ko`pligi yoki yetishmasligi;
- moddiy farovonlikning o`sib borayotgan shaxs ma`naviy ehtiyojlarini qondirishdan ustunligi;
- moddiy ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlarining nomutanosibligi;
- oila vakillari bo`lgan ota-onalarda ma`naviyatning yetishmasligi;
- ota-onalar tomonidan o`smir shaxsining shakllanishi bilan qiziqmasligi;
- oilada bola shaxsiga nisbatan avtoritarizm yoki “liberalizm”, jazosizlik va kechirimlikning mavjudligi;
- pedagogik jihatdan oilaning savodsizligi (tarbiyada maqsad, prinsipiiallikning yo`qligi, tarbiya usullarini qo`llashda jismoniy jazolashdan foydalanishning nomuvofiqligi);
- oilada bolaning oldida kattalarning noqonuniy xatti-harakatlari.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, oilada bola shaxsini tarbiyalash o`zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o`smir shaxsida deviant xulq-atvorni shakllanishida oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya usullari. Oilada ota-onaning shaxsiy obro`si muhim sanaladi. Shu bois, bugungi kun oilalarimiz bola tarbiyasi bilan shug`ullanishida keltirib o`tilgan mezonlarning mohiyatini bilishi va amaliyotga tadbiiq qilishi lozim. Bu esa o`z navbatida jamiyatimizda kelajakka umidvor, ulkan maqsadlarga ega, har tomonlama bilimli yoshlarimizni kamolga etkazishga muvaqqat bo`lamiz.

#### REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30 iyundagi ma`ruza matnidan.
2. "Bola huquqlari to`g`risidagi konventsiya" 1989-yil
3. B.M.Umarov.: psixologiya. Toshkent 2012, 61-bet.
4. G`oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". Noshir taxriri ostida T. 2020 yil.
5. G`oziyevE.G'. "Yosh davrlar psixologiyasi". T.: O`qituvchi, 1994-yil.
6. Karakulova U.A "O`smirlar xulq atvori shakllanishiga oilaviy munosabatlarning o`rni" O`zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg`unligi jurnal T. 2021-yil.
7. Karakulova U.A "O`smirlik davrining psixologik xususiyatlari va deviant xulqatvor muammosi". O`zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnal. Dekabr. 2022-yil.
8. Shoumarov G', Umarov B, Akramova F. "Yoshlarda xulq og`ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo`yicha psixologik maslahatlar". Toshkent. :2015-yil
9. Yo`ldoshev Sardor Asliddin o`g`li. (2022). "Psixologik zo`ravonlik va kiberbulling". International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 62–66.

## ОИЛАНИНГ ДАВЛАТ МУҲОФАЗАСИДАГИ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТИ

Д.Р.Курбонов

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Махсус ҳуқуқий фанлар кафедраси мудири доц.

Рустамова Шахзода

Ҳуқуқшунослик факультети 1-босқич талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7948946>

**Аннотация.** Мазкур мақолада "Эр ва хотиннинг мулкӣ ҳуқуқ ва мажбуриятлари" эр ва хотиннинг умумий мулки, унга эгалик қилиши, ундан фойдаланиши, тасарруф этиши, эр ва хотиннинг ҳар бирининг мулки, эр ва хотиннинг умумий мол-мулкни бўлиши мулкӣ муносабатларининг объектив томони улуши мулкдаги мол-мулкни тақсимлаш ва ундан улуш ажратиши ҳамда биргаликдаги мулк бўлган мол-мулкка эгалик қилиши, ундан фойдаланиши ҳамда уни тасарруф этиши тугрисида масалалар таҳлил қилинган.

**Калит сузлар:** оила, никоҳ, мулкка эгалик қилиши, алоҳида мулклар, мулкнинг тақсимоти, улуш ажратиши, даво муддати, экспертиза, компенсация, низо, арз, келишув, мерос.

## ПРАВОВАЯ ГАРАНТИЯ СЕМЬИ ПОД ЗАЩИТОЙ ГОСУДАРСТВА

**Аннотация.** В данной статье «Имущественные права и обязанности мужа и жены» общее имущество мужа и жены, его владение, пользование, распоряжение, имущество каждого из мужа и жены, раздел общего имущества мужа и жены. анализировались вопросы раздела имущества и выделения долей, владения общим имуществом, его использования и распоряжения им.

**Ключевые слова:** семья, брак, право собственности на имущество, раздельное имущество, раздел имущества, раздел долей, срок обращения, экспертиза, отступное, спор, заявление, соглашение, наследство.

## LEGAL GUARANTEE OF THE FAMILY UNDER STATE PROTECTION

**Abstract.** In this article, "Property rights and obligations of a husband and wife" the common property of a husband and wife, its ownership, use, disposal, the property of each of the husband and wife, the division of the common property of the husband and wife. the issues of property distribution and allocation of shares, ownership of jointly owned property, its use, and its disposal were analyzed.

**Key words:** family, marriage, ownership of property, separate properties, distribution of property, division of share, period of treatment, expertise, compensation, dispute, application, agreement, inheritance.

Оила тушунчаси ҳамиша давлатимиз томонидан ҳам, халқимиз томонидан ҳам диққат-эътиборда бўлиб келган ва бундан кейин ҳам бош мақсади бўлиб қолаверади. Оила халқнинг, жамиятнинг ҳаёти, турмушига оид урф-одатларни ўзида мужассам этгучи муқаддас даргоҳдир. Оила ўз фарзандларини тарбиялаб, ўларга умуминсоний қадриятларни сингдириш билан уларга бошланғич ижтимоий йўналиш беради. Ўз фарзандларини катта оқимга жамиятга қўшиш билан эса оила жамият йўналиши, иқтисодиёти, маданияти ва маърифатини ҳам белгилашга ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Шунинг учун ҳам Шарқда оила тушунчаси қадим-қадимдан муқаддас қўрғон ҳисобланиб келинган. Хусусан,

Ўзбек оилаларининг серилдизлик, сербутоқлик хусусиятлари ҳозир ҳам сақланиб қолмоқда. Ўзбекларда оилаларнинг муайян турмуш тарзи шаклланиб, ҳаётий тажриба орттириб бориши, тежамли ва саришта рўзгор тутиши, фарзандларни одобли, маънавий етук бўлиб камол топишида кексалар, ота-онанинг ўрни бекийосдир. Ўзбек оилалари ўзларининг мустақамлиги, саранжом-саришталиги, болажонлиги, қариндош-қондошлик ришталарини ҳурмат қилиши, меҳр-оқибатли ва бошқа қадриятлари билан бошқа оилалардан ажралиб туриши сир эмас.

Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек, *“Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустақамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур. Аёллар ўртасида жиноятчилик, оилаларда ажралишлар кўпайгани, ёшларнинг турли диний-экстремистик оқимлар ва террористик ташкилотлар таъсирига тушиши каби халқимизга хос бўлмаган аччиқ ва ноҳуш масалалар билан боғлиқ”*<sup>79</sup>.

Юртимизда ҳар бир оила давлат муҳофазасига олинган. Оила кодекси ва бошқа қонун ҳужжатлари оилавий муносабатларни тартибга солиш, оилавий ажримларнинг олдини олиш, нафақат эр-хотин, айни чоғда вояга етмаган фарзандларнинг ҳам ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга молик. Эътиборли жиҳати шундаки, ажралиш арафасида турган оилаларни яраштириш, юзага келган низоларни тинч йўл билан бартараф этиш борасида фуқаролик ишлари бўйича судлар ҳамда ҳар бир маҳалла фуқаролар йиғини қошида ташкил этилган яраштирув комиссиялари томонидан зарур чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

#### Муҳокама ва натижалар.

Жамиятнинг энг оғриқли нуқтаси – барбод бўлган оилалар хусусида сўз борар экан, беғуноҳ фарзандлар тақдири кишини беихтиёр ташвишга солиши ҳеч гап эмас. Негаки, ота-онанинг ажралишидан мурғак қалб эгалари ҳаммадан кўпроқ азият чекади, кўнгли кемтик ҳолда улғаяди. Тан олиш жоиз, маънан етук бўлмаган шахс ҳаётда ўз ўрнини топиш, касб танлаш, ижтимоий ҳаётга мослашиш, тенгдошлари, кенг жамоатчилик билан мулоқотга киришиш борасида кўп қийинчиликларга дуч келади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, дилбандининг бахтли ҳаёт кечиришини истаган соғлом фикрли ҳар бир ота-она юзага келган келишмовчиликни оғир-вазминлик ва чуқур мушоҳада билан ҳал этиши, турмуш қийинчиликларини, оғир синовларни енгиб ўтиши, оила аъзоларининг бахтли турмуш кечиришларини таъминлаши шарт ва зарурлиги давлатимизнинг олий сарҳади ҳисобланади. Кези келганда шуни ҳам айтиш ўринлики, оилавий ажралишларнинг салбий оқибатлари нафақат собиқ эр-хотинлар ҳаётида, балки уларнинг меҳнат фаолиятида, жамият ва давлат миқёсида ҳам муайян бўшлиқни юзага келтиради.

79

Мирзиёев, Шавкат Миромонович

Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ/Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 56 б.



Ҳозирги кунда кўпгина долзарб масалаларга сабаб бўлаётган муаммолардан бири бу “*Эр ва хотиннинг мулкӣ ҳуқуқлари, муносабатлари ҳамда мажбуриятлари*” дур. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 13-моддасининг 1, 2-қисмларига асосан никоҳ фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш органларида тузилади. Диний расм-русумларга биноан тузилган никоҳ ҳуқуқӣ аҳамиятга эга эмас. Оила кодексининг 18-моддасига мувофиқ, никоҳ фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш органларида рўйхатга олинган пайтдан бошлаб никоҳни тузганлар эр-хотин деб ҳисобланадилар, ва шу пайтдан эътиборан улар ўртасида эр-хотинлик ҳуқуқ ва мажбуриятлари вужудга келади. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси эр ва хотиннинг умумий мулкка қонун ёки шартнома орқали эга бўлишнинг икки тартибини белгилайди. Шунга кўра, оила кодекси нинг 23-моддасига кўра, эр ва хотиннинг никоҳ давомида орттирган мол-мулклари, шунингдек никоҳ қайд этилгунга қадар, бўлажак эр-хотиннинг умумий маблағлари ҳисобига олинган мол-мулклари, агар қонун ёки никоҳ шартномасида бошқача ҳол кўрсатилмаган бўлса, уларнинг биргаликдаги умумий мулки ҳисобланади.

Эр-хотинларнинг мулкӣ ҳуқуқӣ муносабатларида мулкларнинг орттирган вақти ва манбалари катта аҳамият касб этади. Барча ҳуқуқӣ тизимларда эр-хотиннинг мулклари уларнинг никоҳ қайд этилгунга қадар ва никоҳ давомида орттирган мол-мулкларига ажратилади. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 25-моддасига мувофиқ эр ва хотиннинг никоҳга қадар ўзига тегишли бўлган молмулки, шунингдек, улардан ҳар бирининг никоҳ давомида ҳадя, мерос тариқасида ёки бошқа бепул битимлар асосида олган мол-мулки улардан ҳар бирининг ўз мулки ҳисобланади. Никоҳ давомида эр-хотиннинг умумий мулки ёки улардан ҳар бирининг мол-мулки ёхуд эр ва хотиндан бирининг меҳнати ҳисобига мол-мулкнинг қиймати анча ошишига олиб келган маблағлар (капитал таъмирлаш, қайта қуриш, қайта жиҳозлаш ва бошқалар) қўшилгани аниқланса, эр ёки хотиндан ҳар бирининг мол-мулки уларнинг биргаликдаги мулки деб топилиши мумкин. Шунини таъкидлаш муҳимки, биргаликдаги мулкка никоҳ даврида уйда хўжалик ишлари ва болалар парвариши билан банд бўлган ҳамда бетоб бўлган ёки ўқишда бўлган эр (хотин) ҳам эгалик қилиш ҳуқуқига эга. Уларнинг мол-мулкни бўлиш Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 223- ва 225-моддаларида назарда тутилган қоидалар асосида амалга оширилади. Эр ва хотин уларнинг биргаликдаги умумий мулки бўлган молмулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этишда, одатда, тенг ҳуқуқларга эга бўлади.

Эр ва хотиндан бирининг умумий мол-мулкни тасарруф этиши билан боғлиқ битим тузилганда бу ҳаракат бошқасининг розилигига кўра амалга оширилаётганлигини, бу кўчар мулкни тасарруф этиш билан боғлиқ битимларини тузаётганда эр-хотинларнинг ишончномага муҳтож эмаслигини англатади. Шубҳасиз, эр (хотин)нинг умумий мулкни тасарруф этиш билан боғлиқ розилигининг тахмини ҳақиқӣ ҳолатга мос келмаслиги мумкин, бу пайтда битимни ҳақиқӣ эмас деб топиш ҳақидаги масаласи келиб чиқади. Шунга кўра, ОК 24-моддаси 2-қисмига мувофиқ, эр-хотиндан бирининг умумий мол-мулкни тасарруф этиш юзасидан амалга оширган битими бошқасининг бунга розилиги бўлмаганлиги сабаблигина билдирган талабига биноан ва фақат битимни амалга оширган иккинчи томон амалга оширилган битим юзасидан эр (хотин) рози эмаслигини олдиндан билгани ёки билиши лозим бўлганлиги исботланган ҳолларда суд томонидан ҳақиқӣ эмас

деб топилиши мумкин. Кўчмас мулкни тасарруф этиш билан боғлиқ битимларни амалга оширишда махсус қоидалар белгиланган.

Эр ва хотин ўртасидаги умумий мулкни бўлиш Эр-хотиннинг умумий мулкни бўлиш, одатда, улар никоҳдан ажратилганда вужудга келади. Уларнинг умумий мулкни бўлиш никоҳ даврида ҳам амалга оширилиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 27-моддасига мувофиқ, эр ва хотиннинг умумий мол-мулкни бўлиш эр ва хотиндан бирининг талабига кўра, улар никоҳда бўлган даврда ҳам, никоҳдан ажралишгандан кейин ҳам, шунингдек, кредитор эр ва хотиндан бирининг умумий мол-мулкдаги улушига ундирувни қаратиш учун умумий мол-мулкни бўлиш талаби билан арз қилган ҳолларда амалга оширилиши мумкин. Кўп ҳолатда эр ва хотиннинг умумий мол-мулки эр ва хотин ўртасида ўзаро келишув асосида бўлиб олиниши мумкин. Эр ва хотиннинг хоҳиши билан уларнинг умумий мол-мулкни бўлиш тўғрисидаги ўзаро келишуви нотариал тартибда тасдиқланиши мумкин. Бироқ улар ўртасида низо туғилган ҳолларда эр ва хотиннинг умумий мол-мулкни бўлиш, шунингдек, эр ва хотиннинг бу молмулкдаги улушини аниқлаш суд тартибида амалга оширилади. Умумий мол-мулкни бўлишда суд эр ва хотиннинг ҳар бирига мулкнинг қайси қисми берилиши лозимлигини аниқлайди. Эр (хотин) га унга қарашли улушдан ошиқ қийматга эга бўлган мол-мулк бериладиган ҳолларда, хотин (эр)га тегишли пул ёки ўзга компенсация белгиланиши мумкин.

Мол-мулкни бўлиш ҳақидаги фуқаролик ишлари судда кўришга тайёрлаб бўлинган кундан эътиборан бир ойдан кечиктирмай кўрилиши лозим, никоҳдан ажратилган эр-хотиннинг бирлагикдаги умумий мулкни бўлиш ҳақидаги талабларига нисбатан уч йиллик даъво муддати қўлланилади. Даъво муддатининг ўтиши эр ёки хотин ўзининг ҳуқуқи бузилганини билган ёки билиши лозим бўлган кундан ҳисобланади. Эр-хотиннинг умумий даромадлари ҳисобига олинган уй-жой эр ёки хотиннинг қайси бири номига расмийлаштирилганлигидан қатъий назар, агар никоҳ шартномасида бошқача ҳол кўрсатилмаган бўлса, уларнинг умумий мол-мулки ҳисобланади.

**Аннотация.** *Использование новых педагогических технологий в обучении биологии позволяет учащимся учиться, укреплять их понимание и делать процесс обучения более интересным. В данной статье мы исследуем несколько новых педагогических технологий, используемых в преподавании естественных наук.*

**Ключевые слова:** *Педагогические технологии, Виртуальная реальность, Онлайн-лаборатории, Интерактивный урок, мобильные приложения.*

Virtual Realitiya (VR): Virtual realitiya bilan bilologiya fanini o'qitish, talabalarni qo'llanilgan tasvirlar va o'zlashtirilgan virtual o'rtam orqali tajribaga olish imkonini beradi. VR orqali talabalar biologik protsesslarni ko'rib, faqat o'qish orqali yetarli kelmaydigan tajribalarga qatnashishlari mumkin. Bu usul o'rganishni yanada tortish va talabalarni o'zlashtirishga yo'l qo'yadi.

Moslashuvchan ta'lim (Adaptive Learning): Moslashuvchan ta'limtexnologiyalari, bilologiya o'qitishda individual o'rganish yo'lidagi muammo yechishda yordam beradi. Bu texnologiyalar, har bir talabaning o'zining tushunchalari va o'rganish darajasiga mos ravishda mavjud bo'lgan darslarni taklif etishga qodir. Bunda, talabalarga moslashtirilgan vazifalar beriladi va ularga alohida yordam beriladi. Moslashuvchan ta'lim texnologiyalari talabalarning o'rganish jarayonini boshqarishda yuqori darajada adaptivlik va individual o'rganish imkonini beradi.

Mobil ilovalar (Mobile Apps): Mobil ilovalar, talabalarning o'z vaqtlarida bilologiya bilimini o'rganishlari uchun chiroyli vositalardir. Bu ilovalar orqali talabalar interaktiv testlar o'tkazishi, animatsiyalarni ko'rish va virtual laboratoriyalar bilan ishlashlari mumkin. Bu, bilologiya fanini o'rganishning qiziqarli va qulay usullaridan biridir.

Jurnal ilovalari va platformalari (Journal Apps and Platforms): Jurnal ilovalari va platformalari, talabalar uchun o'zlarining tadqiqotlarini yozish, o'rganishlarini tasdiqlash va talabalarning tushunchalarini ta'lim olish jarayonida tajribalarini qayd etish imkonini beradi. Bu, talabalarni o'z o'rganish jarayonlarini mantiqiy, tartiblangan va tahlil qilinishga yo'l qo'yadi.

Hamkorlik va global bog'lanishlar (Collaboration and Global Connections):

Bilologiya fanini o'qitishda, talabalarning hamkorlik qilishi va global bog'lanishlar orqali o'rganishning muhim ahamiyati bor. Texnologiyalar, talabalar uchun o'zaro munosabatlar va global bog'lanishlar yaratish imkonini beradi. Bu, talabalar uchun o'rganishda mazkur fan sohasidagi yangiliklarni va mustaqil tadqiqotlarni baham ko'rish, tajribalar almashish va o'rganish jarayonida ularga yordam berishga imkon yaratadi. [1.35]

Interaktiv multimedia dars materiallari (Interactive Multimedia Course Materials): Interaktiv multimedia dars materiallari, talabalar uchun o'rganishda qiziqarli va interaktiv imkoniyatlarni taqdim etishda yordam beradi. Bu, animatsiyalar, video darslar, interaktiv sinovlar va qo'llanmalar, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va o'zlashtiruvchan qilish uchun foydalaniladi. Talabalar bu materiallardan o'zlashtirish orqali bilologiya fanini o'rganish va tushunish imkoniyatlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

Sotsial media va veb-saytlar (Social Media and Websites): Sotsial media platformalari va veb-saytlar, bilologiya fanini o'rganishda talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga qiziqishni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu platformalar orqali talabalar o'z fikrlarini, tadqiqotlarini va o'rganishlarini boshqalar bilan ulashish, bilologiya sohasidagi yangiliklarni kuzatish va global bilim jamoalariga qo'shilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Virtual laboratoriyalar (Virtual Laboratories): Virtual laboratoriyalar, talabalarga laboratoriya tajribalarini amalga oshirish va bilologiya fanini o'rganishda asosiy vositalardan biridir. Bu texnologiya orqali talabalar o'zgartirilgan virtual o'rtamlarda biologik protsesslarni kuzatib borish, tadqiqotlar o'tkazish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Virtual laboratoriyalar talabalarga amaliy tajribalar va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va xosiyatli qilishga yordam beradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish va o'rganish jarayonlarida texnologik vositalardan foydalanishga asoslangan yangiliklardir. Ular, o'quvchilarning o'rganish jarayonini interaktiv, qiziqarli va o'zlashtiruvchan qilishga yordam beradi. Yangi pedagogik texnologiyalar quyidagi vazifalarni o'zlariga olishadi: O'quvchilar motivatsiyasini oshirish: Yangi pedagogik texnologiyalar, o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv o'rganish imkoniyatlarini yaratish orqali motivatsiyani oshirishga yordam beradi. [5.97] Animatsiyalar, o'yinlar, sinovlar va interaktiv dars materiallari o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'rganishni qiziqarli va qulay qilishga xizmat qiladi. Ma'lumotlarni o'zlashtirishni oshirish: Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarga ma'lumotlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interaktiv dars materiallari va mobil ilovalar orqali o'quvchilar teorik bilimlarni amaliyotga aylantirish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aloqadorlik va hamkorlikni o'zlashtirish: Texnologik vositalar, o'quvchilarning boshqalar bilan hamkorlik qilish va global bog'lanishlar yaratish imkonini beradi. Sotsial media platformalari, onlayn platformalar va hamkorlik o'rnaklari orqali o'quvchilar bilim jamoalari bilan aloqada bo'lish, fikr almashish va birgalikda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bireysel o'rganishni ta'minlash: Yangi pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarga bireysel o'rganish imkonini beradi. Ma'lumot analitikasi va sun'iy intellekt



texnologiyalari orqali o'quvchilar o'rganish darajasini tahlil qilish va ularning yaxlitlashgan dars materiallarini taklif qilish imkonini beradi. [1.89]

O'quvchilarning jismoniy yoki masofaviy ta'limlarda qatnashish imkoniyatlarini oshirish: Yangi pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarga jismoniy ta'limda ham masofaviy ta'limda ham qatnashish imkonini beradi. Virtual realitiya, mahalliy nukuslar va interaktiv dars materiallari orqali o'quvchilar biologik protsesslarni o'zlashtirish, tajribalarni boshqalar bilan almashish va amaliy mashg'ulotlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalarning tajribasini mustahkamlash: Yangi pedagogik texnologiyalar, talabalarning tajribasini mustahkamlash va tadqiqotlarini yaxshilashga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv sinovlar va tadqiqot platformalari orqali o'quvchilar o'zlarini amaliy tadqiqotlarga va ilmiy topshiriqlarga bag'ishlay oladilar. Individual va jamoaviy tuzilmalar ustida ishlash: Yangi pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarni individual va jamoaviy tuzilmalar ustida ishlashga rag'batlantiradi. Onlayn hamkorlik platformalari, hamkorlik ilovalari va boshqa vositalar o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish va jamoaviy o'rganishning o'zlashtiruvchanligini ta'minlash imkonini beradi. Qo'llanma va ma'lumotlar bazalariga yuzasidan qulaylik: Yangi pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarni ma'lumotlar bazalariga yuzasidan qulaylik bilan ta'minlashga yordam beradi. Internet platformalari, elektronik darsliklar, mobil ilovalar va onlayn resurslar o'quvchilar uchun qo'llanmalarga, ma'lumotlarga oson va tezkor kirish imkonini beradi. O'quvchilarning kritik tasavvur va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish: Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning kritik tasavvur va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv dars materiallari, online majlislar, debatlar va forumlar o'quvchilarning fikr almashish va tahlil qilish qobiliyatlarini mustahkamlash imkonini beradi. [2.106]

Biologiya fanida pedagogik texnologiyalar juda muhimdir, chunki ular o'quvchilarning biologiya tushunchalarini o'zlashtirish, bilimlarni amaliyotga aylantirish va qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Quyidagi muhim aspektlarga e'tibor berish mumkin: O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: Biologiya fanida pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Interaktiv dars materiallari, animatsiyalar, o'yinlar va sinovlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va biologiya faniga bo'yicha motivatsiyalarini yuqori tartibda saqlayadi. O'zlashtiruvchan o'rganish tajribasi: Biologiya fanida virtual realitiya, mahalliy nukuslar, interaktiv dars materiallari va simulyatsiyalar kabi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni o'zlashtiruvchan o'rganish tajribasi bilan ta'minlaydi. [3.65] Ular o'quvchilarga biologik protsesslarni o'zlashtirish, laboratoriyalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkonini beradi. Tahlil qilish va nazorat: Pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayonlarini tahlil qilish va o'rganishning natijalarini nazorat qilishga imkon beradi. Ma'lumot analitikasi, onlayn sinovlar va testlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini, o'zini baholashlarini va o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilishga yordam beradi. Bireysel o'rganish: Biologiya fanida pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarga bireysel o'rganish imkonini beradi. O'quvchilarning o'z bilimlarini o'zgartirish va o'zlashtirishning yo'li bilan tanishish, ma'lumotlar bazalariga oson kirish va shaxsiy ta'lim rejalarini bilan ishlash imkonini ta'minlaydi. Hamkorlik va aloqadorlik: Biologiya fanida pedagogik texnologiyalar o'quvchilar orasidagi hamkorlikni va o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi aloqani kuchaytirishga yordam beradi. Onlayn hamkorlik platformalari, o'quvchilar o'rtasidagi fikr almashish va ishbirlikni oshiradi va biologiya fanini amaliyotga aylantirish uchun jamlanishlar yaratadi. [4.32]



Bilologiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalar uchun o'rganish jarayonini yanada tortish va o'zlashtirish imkonini beradi. Virtual realitiya, mobil ilovalar va platformalar, jurnal ilovalari, hamkorlik va global bog'lanishlar, interaktiv multimedia dars materiallari, sotsial media va veb-saytlar, virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalar bilologiya fanini o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalardan foydalanish bilologiya o'qitishni interaktiv, qiziqarli va o'zlashtiruvchan qiladi. Ular talabalarni o'zlashtirish, tadqiqotlarini yaxshilash, tushunchalarini mustahkamlash va global bilim jamoalari bilan bog'lanish imkonini beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni bilologiya fanini o'qitishda qo'llash, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganish natijalarini yanada yaxshilaydi.

#### **REFERENCES**

1. "Educational Technology for Teaching and Learning" - Timothy J. Newby, Donald D. Stepich, James D. Lehman, James A. Russell
2. "Integrating Educational Technology into Teaching" - M. D. Roblyer, Aaron H. Doering
3. "Digital Learning: Strengthening and Assessing 21st Century Skills, Grades 5-8" - Ferdi Serim, Margaret L. Niess, Holly K. Hertberg-Davis
4. "Using Technology with Classroom Instruction That Works" - Howard Pitler, Elizabeth R. Hubbell, Matt Kuhn, Kim Malenoski
5. "The Really Useful EdTech Book: Using Technology in the Classroom" - James Clay, et al.
6. "Technology and Digital Media in the Early Years: Tools for Teaching and Learning" - Chip Donohue

## TURKIY LUG'ATLARDA „OSMON VA UNGA OID NARSALAR“ LINGVISTIK TAHLILI

**Abdunazarova Muqaddas**

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich 421-guruh talabasi

**Xidirova Iroda**

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7950232>

*Annotatsiya.* Maqolada Mahmud Koshgariyning „Devoni lugotit turk“ asari va „At tuhfat uz zakiyati fil lugotit turk“ lugati asarlari asosida Osmon va Unga oid so'z va birikmalar o'rganiladi, solishtiriladi va so'zlar leksik morfologik jihatdan muqoyasa qilindi.

*Kalit so'zlar:* tilshunoslik, morfologiya „Devoni lugotit turk“, „At tuhfat uz zakiyati lugotit turk“, lugat termini.

## LINGUISTIC ANALYSIS OF "HEAVEN AND THINGS RELATED TO IT" IN TURKISH DICTIONARIES

*Abstract.* In the article, based on Mahmud Koshhari's work "Devoni lugotit turk" and "At tuhfat uz zakiyati fil lugotit turk", the words and phrases related to Heaven are organized, compared, and the words were compared lexically morphologically.

*Key words:* linguistics, morphology, "Devoni lugotit turk", "At tuhfat uz zakiyati lugotit turk", dictionary term.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «НЕБЕСА И ВСЕ, ЧТО С НИМИ СВЯЗАНО» В ТУРЕЦКИХ СЛОВАРЯХ

*Аннотация.* На основе работы Махмуда Кошари «Девони луготит тюрк» и словаря «Ат тухфат уз закияти фил луготит тюрк» слова и словосочетания, связанные с Небом и им, систематизированы, сопоставлены, слова сопоставлены лексически-морфологически.

*Ключевые слова:* языкознание, морфология, «Devoni lugotit turk», «At tuhfat uz zakiyati lugotit turk», словарный термин.

Mahmud Koshgariyning „Devoni lugotit turk“ asari turkiy tilimiz takomillashuvidagi ilk vositalardan biri hisoblanadi. Uning X-XI asrlarda yaratilgan bu asari o'sha davr hayot tarzi, madaniyatidan tashqari, til shevasi, tilshunoslikka oid leksika, morfologiya, fonetika kabi uslubiyatlarni o'z ichiga oladi. „Devoni lugotit turk“ har qaysi soha terminlarini o'rganishga noyob

qòllanma bòlganligi sabab turli guruhlarga bòlib òrganiladi. Shu órinda biz ham asarda keltirilgan „Osmon va unga oid narsalar” sóz va birikmalarni tahlil qilib chiqamiz . Lekin tilshunoslik asari birgina „Devoni luğotit turk” emasligi yuzasidan XIII-XIV asarlarni óz ichiga oluvchi ,muallifi aniqlanmay qolgan „At tuhfat “ kitobi tarkibida qòllanilgan „osmon va unga oid narsalar “ sóz va birikmalarni ham órganib chiqamiz . Negaki ,bu ikki asar yozilishi jihatidan ,birin – ketin yaratilgan bòlib , turkiy tilning óguz,qipchoq , qarluq shevalarida tarkibiy almashinib ishlatiladi. „Devoni luğotit turk” da kòproq óguz lahjasidagi sòzlar qòllanilgan bólsa,„At tuhfatda” asosan ,qipchoq shevasi sòzlari qòllanilgan.Devoning I tomida kelgan „osmon “ ma’nosini anglatuvchi ajac (162) At tuhfatda acti (173) shaklida qòllaniladi. Kòshgariy asarining II tomida “mushtariy yulduzi “ ma’nosini anglatuvchi қараңқуш (173) At tuhfatda ақажрір shaklida kelgan.Devonda “qaroqchi yulduzining aylanishi “ јаді (177) shaklida kelgan bólsa At tuhfatda јіткір (203) shaklida kelgan.”At tuhfat “ asarida “xulkar” yulduzi ikki xil shaklda qòllanilgan .Bulardan birinchisi ўлқар (262) hamda јадіқар (195) shaklida qòllanilgan .Shuningdek, yulduz sòzi ham At tuhfat asarida ikki xil shaklida qòllanilgan.Birinchisi,јулдуз (206) hamda јіткыр shaklida qòllanilgan.Devonda јуркак (191) ya’ni “ bulut” sòzi At tuhfatda “булутланди” shaklida qòllanilgan.Ya’na bir ma’lumotni aytish joizki Devonda “yulduz” чалпан shaklida At tuhfatda јулдуз shaklida kelgan.Lekin At tuhfatda „yulduz “ sòzining ikki xil kòrinishini kòrdik.”Devonda “ qòllanilgan јашін (197) ya’ni chaqmoq sòzi “At tuhfatda “јашік (200)shaklida qòllanilgan. “Devon” va “At tuhfat “ asarlaridagi “osmon va unga oid narsalar “ ni solishtirdik.Ammo “At tuhfat “ asarida qòllanilgan ba’zi sòzlarning “Devonda” qòllanilmagan variantlari ham bor.Bular јамлі – suxayl yulduzi ,јадіқар – xulkar yulduzi ,тіпазы -tarozi yulduzi kabi sòzlardir.

Xulosa qilib aytish kerakki ,turkiy til bağayotda katta.Tahlil qilib òtganimiz xulkar yulduzining “At tuhfat “ asarida 2- 3 xil shakli uchraydi.Luğatlarda sòzlar faqat sòzliklar bilan cheklanib qolmay birikma , ibora, birlik kòrinishida ifoda etgani buning yorqin dalili bòla oladi.

## REFERENCES

1. Mahmud Koshgariyning Turkiy sòzlar devoni ( Devoni luğotit turk) -Ĝafaur Ĝulom nomidagi nashiryot -manbaa ijodiy uyi Toshkent 2017.
2. ”At tuhfatuz zakiyati fil luğotit turkiya” (turkiy tili) haqida noyob tuhfa) Toshkent FAN 1968.
3. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). Modern Science and Research, 2(3).

4. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family). EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 1(2), 196-199.
5. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 188-189.
6. Jo‘rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG‘LAYDI” ASARIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(2), 42-48.
7. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
8. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). SHOYIM BO ‘TAYEVNING “SHO ‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARIDA NOADABIY QATLAM SO ‘ZLARINING QO ‘LLANILISHI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 487-491).
9. Xidirova, I. ., & Jo‘rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). Modern Science and Research, 2(3), 142–144.
10. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.

## TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANILGAN KIYIMLIKLAR NOMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Safarova Fotima

Maxramova Feruza

TerDU o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari

Iroda Xidirova

Ilmiy rahbar, TerDU o'zbek filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7950697>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamiz turkiy lug'atlarda qo'llanilgan kiyim-kechak nomlarining qo'llanilishi metod yordamida yoritilgan, so'zliklarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan va kiyimliklar nomlari ma'lum bir guruhga ajratilgan holda lingvistik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Devonu lug'otit turk" (1-tom), "At-tuhfat uz-zakiyat fil lug'atit turkiya" kiyimliklar nomlarining qiyosiy tahlili metodi.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF CLOTHING NAMES USED IN TURKISH DICTIONARIES

**Abstract.** In this article, the use of clothing names used in Turkish dictionaries is highlighted using the method, a comparative analysis of vocabulary is carried out, and a linguistic analysis is carried out by dividing clothing names into a certain group.

**Key words:** "Devonu lug'atit turk" (volume 1), "At-tuhfat uz-zakiyat fil lug'atit turkiya" method of comparative analysis of clothing names.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ОДЕЖДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ТУРЕЦКИХ СЛОВАРЯХ

**Аннотация.** В данной статье с помощью метода выделено употребление названий одежды, используемых в турецких словарях, проведен сравнительный анализ лексики, а также проведен лингвистический анализ путем деления названий одежды на определенную группу.

**Ключевые слова:** «Девону лугатит тюрк» (том 1), «Ат-тухфат уз-закиату фил лугатит тюркия» метод сравнительного анализа названий одежды.

Kiyimlar moddiy madaniyatning asosiy qismi bo'lib, ularda shu xalqning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlarini namoyon etadi. Har bir xalqning an'anaviy mashg'ulot turi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va hokazo), fasl va yoshdagi o'zgarishlar, hatto o'sha xalqning fe'l-atvoridagi nozik tomonlari ham kiyimlarda mujassamlashgan. Kiyimlar tarixning turli davrlarida bo'lgan o'zgarishlar barobarida o'zgarib borgan va o'sha zamonning i'nikosini o'zida aks ettirib turgan<sup>1</sup>

Kiyim insoniyat tarixining ilk davrlarida tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish vositalaridan biri bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning vazifa doirasi kengayib, boshqa xususiyatlar ham kasb etdi. Kiyim insonni tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish bilan birga, uning ijtimoiy taraqqiyot faktorlari majmuyini o'zida aks ettiruvchi, inson tanasini u yoki bu darajada berkitib, o'rab, bezab turuvchi predmetlar yig'indisidir. Kiyim ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiy etgan sayin u ham taraqqiy etib, rivojlanib boradi.

Lug'atlarda keltirilgan leksemalarni uch guruhga bo'lgan holatda qiyosiy tahlil medotida o'rganishimiz mumkin.

1. Bir xil semadagi har xil leksemalar: Masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk, 1-tom" (matning qolgan qismlarida "MK,1" shaklida qisqartma holda uchraydi) a:c, a:з (109-bet) leksemalari oq suvsar po'stin ma'nosini kelgan. Lekin yozuvchining keltirishicha a:з shaklidan ko'ra ko'proq a:c shaklida talaffuz qilinishi to'g'riroq deb belgilagan. көрк(333) bu so'z ham po'stin, mo'yna shaklida qo'llanilgan. Xuddi shuningdek, (MK, 1-tom) эшүк(102), кафтан (408)so'zlari ust kiyim, a:з(108), турк,у(402), ағи(109) leksemalari ipak kiyimlik shakllarida keltirilgan.

"At-tuhfat uz zakiyatu fil lug'atit turkiya" ("At-tuhfat" qolgan o'rinlarda qisqartmasi). Комлак—ko'ylak(220), кончак—kiyim(221), конглак—ko'ylak(222); шал(274), ас(171), кърк(171) po'stin shaklida keltirilgan.

2. Ikki lug'atda keltirilgan so'zliklarning semantik tomondan bir xil leksema jihatidan har xil bo'lgan so'zliklar. Masalan, (MK, 1) чикин-ipak (399) → (At-tuhfat) жипак- ipak(46); (MK,1) отран- ishton(133) → (At-tuhfat) ичтон-ishton(214); (MK,1) чубра-eski kiyimlik(397) → (At-tuhfat) шашрақ-eski-tuski kiyimlik(73) (MK,1) a:з-po'stin(109) → (At-tuhfat) шал-po'stin(274); holatlarda qo'llanilgan.

3. Sema va leksema jihatdan ikki lug'atda ham bir xil bo'lgan so'zliklar. Maslan, (MK, 1) a:c = (At-tuhfat) ас → po'stin. Bu ikki so'zlikning fonetikasida biroz farqli jihati bor, ya'ni (MK)da po'stin ma'nosida kelgan so'z [a:c] cho'ziq, (At-tuhfat)dagi [ac] so'zligi qisqa holatda talaffuz qilinadi. Shuningdek, (MK,1) көрк—po'stin; (At-tuhfat) кърк—po'stin shaklida uchrashini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ayitishimiz joizki, yuqorida ko'rib chiqqan lug'atlarimizda so'zlarning leksik,semantik jihatlarini fonetik-fonologik xususiyatlarini o'rgandik. Kiyimliklarning so'z birikma shakllarini ham uchratdik.Vaqlar o'tishi bilan so'z ma'nolari yangilanib boradi. Turkiy lug'atlarda qo'llanilgan kiyimliklar nomlari ba'zilar hali ham o'z holicha qolgan. Faqat transkripsiyasi o'zgargan. Bitta kiyim-kechakning turlicha ma'nolari keltirilgan. Yana boshqalarining esa hozirgi kunda umuman muqobli yo'q.

## REFERENCES

1. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi, 1963.
2. At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'ati turkiya [turkiy qipchoq tili] haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORD OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORD "ROCKS ALSO CRY"). Modern Science and Research, 2(3), 142-144.
4. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). Modern Science and Research, 2(3).
5. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family). EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 1(2), 196-199.



6. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 188-189.
7. Jo‘rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG‘LAYDI” ASARIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(2), 42-48.
8. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
9. qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). SHOYIM BO ‘TAYEVNING “SHO ‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARIDA NOADABIY QATLAM SO ‘ZLARINING QO ‘LLANILISHI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 487-491).
10. Xidirova, I. ., & Jo‘rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). Modern Science and Research, 2(3), 142–144.
11. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.

## QADIMGI TURKIY TILDAGI LUGATLAR TARKIBIDA KELITIRILGAN O'SIMLIK NOMLARI

**Rajabova Mo'jiza Husan qizi**

TerDu 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Xidirova Iroda**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7950751>

**Annotatsiya.** Bu maqolaning o'rganish obyekti qilib XI- XIX asrlarda yaratilgan ayrim lug'atlardagi o'simliklarga oid so'z birikmalari olingan bo'lib, bu maqolada "Devoni lug'otit turk" hamda "At-tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" asarlaridagi turkiy tildagi o'simliklarning nechanchi asrlarda qanday nomlar bilan qo'llanilganligi yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** «Devoni lug'otit-turk», «At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-turk», o'simliklar, ularning nomlanishi, lug'at.

### PLANT NAMES LISTED IN ANCIENT TURKIC DICTIONARIES

**Abstract.** The object of study of this article is the combinations of words related to plants in some dictionaries created in the 11th-19th centuries. "Turkey" works, it was explained what names of plants in Turkish language were used in how many centuries.

**Key words:** "Devoni dictionary-Turkish", "At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-Turkish", plants, their names, dictionary.

### НАЗВАНИЯ РАСТЕНИЙ В ДРЕВНЕТЮРКСКИХ СЛОВАРЯХ

**Аннотация.** Объектом исследования данной статьи являются сочетания слов, относящихся к растениям, в некоторых словарях, созданных в XI-XIX вв., было объяснено, как названия растений в тюркском языке в произведениях «Отит Туркия» использовались в течение скольких веков.

**Ключевые слова:** «Словарь Девони-турецкий», «Ат-тухфат уз-закиату фил-луг'отит-турецкий», растения, их названия, словарь.

Turk tili o'zining jozibadorligi bilan boshqa tillar qatorida ajralib turadigan go'zal tillarning biri. Turkiy tilning qadimdan to shu davrgacha rivojlanib, yo'qolmay kelishiga o'sha davrning va hozrgi paytning olim, shoir, mutafakkir, yozuvchilarning ishlari, qo'lyozmalari juda katta ahamiyatga molik. Albatta turkiy tilning 8boyishi shubhasiz turkiy tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari bilan bevosita bog'liq. Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi. U yashab ijod etgan davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy elatlar namoyandalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Koshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida yaratgan ushbu kitobini 1075 yilda yozib tugallagan. Asarning asosiy matni o'sha davrda keng mintaqa musulmon Sharqida, butun Yaqin va O'rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan. Mahmud Koshg'ariy Balasog'unda tug'ilib, shu yerda yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar Qoshg'ardan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'oniston kabi turkiy o'lkalarni, bir nechta shahar va qishloqlarni yaylovlarini kezib chiqdi, turli

sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun nihoyatda boy material to'playdi. Lug'at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an'anadan unumli foydalangan holda, ishga ijodiy yondashdi, turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatga olib kitobiga tartib berdi. Asar foydalanuvchilarga osonlik yaratish uchun sodda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Xuddi shunday asarlarning yana biri bu "At tuhfat uz zakiyatu fil lug'atit turkiya" ya'ni "Turkiy tillar haqida noyob tuhfa". Asarini kim yozganligi ma'lum emas Asar Misrda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Uning faqatgina bitta qo'lyozmasi ma'lum. Qo'lyozma hozir Istanbulda Validuddin afandi kutubxonasida saqlanmoqda. Asar uch bo'limdan iborat: kirish, arabcha-turkiy so'zlik, grammatik qoidalar bo'limi. Kirish qismida kitobning yozilish sababi, unda turkiy tilning qay lahjasiga asoslanganligi bayon etiladi. So'ng turkiy alifbo va imlo qoidalari xususida ma'lumot beriladi. Kirishda arab alifbosi negizidagi turkiy yozuvning imlo xususiyatlari to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Mazkur maqolada ikki asar lug'atlarining farqli jihatlarini sanab o'tamiz. Masalan: "Devonu lug'otit turk " Mahmud Koshg'ariyning ( Turkiy so'zlar devoni ) haqidagi qomusiy asaridagi lug'atida turkiy xalqlar, ajdodlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrdagi o'simliklarning turkiy tilda qanday nomlaganligini ko'rib o'tamiz.1) Tärä, (Tapa)–sabza ko'kat (253–bet)

2) Tamär, (Тамар)– o'simlik (253- bet)

3) Sürümsäk, (Сурмуcaқ)–sarimsoq, chesnok (37 bet)

4) murç, (МУРЧ)–murch(140-bet)

5) sibüt, (сибут)–kashnich, (Koshg'archa),(144-bet)

6) basar, (басар)–tog' sarimsoq piyozi (145-bet)

7) qamüs,(қамиш)–qamish (149-bet)

8) tariğ, (тариғ)–ko'pchilik turk qabilalarida "bug'doy". Faqat o'g'uzlar "tariq" ma'nosida qo'llaydi. Bu- xato. Chunki ular "bug'doyni" 9) ašliq deydi (150-bet)

10) çeçak, (чечак)–gul chechak (156-bet)

11) çüşäk, (чушак)–o't, xashak (So'g'dcha) (156-bet).

11) keräk, (кепак)–kepak, kepäk yinçu-mayda inju (157-bet)

12) soğun, (суғун)–piyoz; soğgan tarzidagi talaffuzi ham bor (164-bet)

13) kenpä, (кенпа)–bir o'simlik (kanjakcha) (167-bet)

14) sökti, (сүкти)–kepak (Barsg'ancha) (167-bet)

15) käkrä, (какра)–tuya yeydigan achchiq o't (169-bet)

Yuqorida keltirilgan so'zlarimiz "Devonu lug'oti turk " kitobining 1-tomidan olingan.

Quyidagi lug'atlar esa "At-tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" asaridan olingan.

1. Кäläш–dolchira (62-bet)

2. Тупалақ–bir xil o'simlik (67-bet)

3. Бақла–o'simlik (180-bet)

4. Битик–o'simlik (185-bet)

5. Бујдај–bug'doy 189-bet)

6. Бугдаи–bug'doy (turkmancha) (189-bet)

7. Јарпуз–yalpiz (205-bet)

8. Жукур–bir xil tikan(209-bet)

9. Кунжут–kunjit (221-bet)
10. Кіна–xina (225-bet)
11. Қоғаз–bir xil tikan (209-bet)
12. Мазі–dori o'simlik (233-bet)
13. Марул–bir xil o'simlik (233-bet)
14. Тамар–o'simlik (233-bet)
15. Тэрä–ko'kat (257-bet)
16. Тиканак–tikan (258-bet)
17. Топалақ–bir xil tikan (267-bet)

Endi bu yerda "Devoni lug'otit turk" asaridagi Тамар–o'simlik (233-bet) so'zini oladigan bo'sak XI asrda muallif uni shu nom bilan atagan. Oradan bir necha asr o'tib ham shu o'simlik nomi "At-tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" asarida ham xuddi shu nom bilan kiritilgan. Oddiy o'simlik nomi esa devonda Tamär, (Тамар), "At-tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" da esa ikki xil Бақла hamda Битик nomlari bilan va yana xuddi shu Tamär nomi bilan ham keltirilgan. At-tuhfatda Марул–bir xil o'simlik (233-bet bir xil o'simlik deb olingan Devonda esa bu kenpä, (көппа) nomi bilan keltirilgan. Ikki kitob lug'atlari o'rtasidagi ko'plab farqli va shunga o'shsh jihatlarini uchratamiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak urkiy tilimiz juda ham boy til, undagi so'zliklarning xazinasini yanada boyitish maqsadida hozirda tilshunoslimlarimiz o'rganib borayotgan o'z ilmiy tadqiqot ishlari natijasida tilimizni kengroq va chuqurroq o'rganib ,tahlil qilib, luğatchilik an' analarini davom ettirmoqda. Mahmud Qoshg'ariy o'zining asarida o'simliklar haqida to'laroq ma'lumot bergan, yuqorida tahlil qilingan lug'atlardagi o'simliklar bugungi kundagi nomlanishida ham sezilarli darajada farqli jihatlari mavjud va bular turkiy tilning rivojlanib, so'zlik ortganidan dalolat bersa ajab emas.

#### REFERENCES

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963. – B. 175.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Xo'ja Ahmad Yunus. "Turkiy tillar devoni" dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4, 21-b.
4. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.
5. Abdulaxatov N. va boshqalar. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013
6. O'.Xoliyorov, B. Mengliyev O'zbek tilining so'z yasaliş lug'ati — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. 7) <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mahmud-koshgariy-va-uning-devoni-lugatit-turk-asari-videodars-devoni-lugatit-turk-3-jildlik.html>
7. A.B.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova. "O'zbek terminologiyasi" Samarqand, 2020
8. Xidirova,I. ,&Jo'rayeva,M.(2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORD OF ART(IN THE EXAMPLE OF THE WORD "ROCKS ALSO CRY").Modern Science and Research,2(3), 142-144.

## KOMPYUTER LINGVIKASIDA AVTOMATIK TARJIMA BO'YICHA OLIB BORILGAN IZLANISHLAR

**Sodatova Muxlisa Qudratillo qizi**

Termiz davlat universiteti talabasi

**Gulhayo Abdualimova**

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953128>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Kompyuter lingvistikasi sohasining hozirgi kundagi o'rni va qanday rivojlanib borayotgani haqida qisqacha to'xtalib o'tilish bilan birgalikda, Kompyuter lingvistikasida Avtomatik tarjima bo'yicha chet el tadqiqotchilari va o'zbek olimlarining olib borgan tadqiqotlari hamda izlanishlari haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, avtomatik tarjima, tahrirlash, kompyuter texnologiyalari, lingvistik ta'minoti.

## RESEARCH ON AUTOMATIC TRANSLATION IN COMPUTER LINGUISTICS

**Abstract.** In this article, together with a brief overview of the place of Computational Linguistics today and how it is developing, there is talk about the research and research conducted by foreign researchers and Uzbek scientists on Automatic Translation in Computer Linguistics.

**Key words:** Computational linguistics, machine translation, automatic translation, editing, computer technologies, linguistic support.

## ИССЛЕДОВАНИЯ АВТОМАТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА В КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

**Аннотация.** В данной статье, наряду с кратким обзором места компьютерной лингвистики сегодня и того, как она развивается, идет речь об исследованиях и изысканиях, проводимых зарубежными исследователями и узбекскими учеными по Автоматическому переводу в компьютерной лингвистике.

**Ключевые слова:** Компьютерная лингвистика, машинный перевод, автоматический перевод, редактирование, компьютерные технологии, лингвистическое обеспечение.

## KIRISH.

Jahonda integratsiya va globallashuv kechayotgan hozirgi davrda o'zbek tilini xalqaro miqyosdagi mavqeini oshirish hayotiy zarurat sanaladi. Hozirgi kunimizni Kompyuter texnologiyalari va internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuning uchun ham Kompyuter texnologiyalari jamiyatimizning deyarli barcha sohalariga kirib bordi va faoliyatning ajralmas bir bo'lagi sifatida yuritilyabdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biz bilamizki, "Kompyuter lingvistikasi" fanining maqsadi tabiiy tillarning matematik modellarini qurish, lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. "Kompyuter lingvistikasi" fani oldida turgan asosiy masalalar esa umumiy tilshunoslikning formal va aksiomatik modellarni qurish va konkret tillarning matematik modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu modellar asosida matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi ya'ni avtomatik tarjima, kompyuter lug'atlari hamda bilimlarni baholash bo'yicha kompyuter dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi.

Mashina tarjimasi - bir tabiiy tildan ikkinchi tilga matnni raqamli hisoblash mashinalari va kompyuterlar yordamida tarjima qilish. Mashina tarjimasi jarayoni matnni tarjima qilish uchun uni tahlil etish, ya'ni morfologik, sintaktik nuqtai nazaridan o'rganib chiqishni taqozo qiladi.

#### **ASOSIY QISM:**

Mashina tarjimasi tizimini yaratish ilmiy tadqiqotlar mahsuli hisoblanadi. Mashina tarjimasi g'oyasini birinchi bo'lib fransuz ixtirochisi J. Arsruni va undan mustaqil ravishda rus ixtirochisi P. P. Smirnov-Troyanskiylar 1933-yilda ilgari surishgan. Lekin u, asosan, XX asrning 40— 50-yillarida rivojlangan. Vikipediya ma'lumotlariga ko'ra, Mashina tarjimasida asosiy kiruvchi tillar — ingliz, fransuz, rus tillari; chiquvchi tillar — o'zbek, nemis, yapon, chex va boshqa tillar kabi qaraladi. Jahonda mashina tarjimasi bo'yicha ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar qilingan. Jumladan, Rossiya olimlari qatorida - N.D. Andreyev, I.A. Melchuk, I.I. Revzin, V.Yu. Rozensveyg, Yu.N. Marchuk, R.G. Piotrovskiy, A.A. Xoroshilov va yana bir qator olimlarni, AQSH olimlari qatorida- A.But, R.Richans, J.Xatchins, J.Allen, P.Braun, Hindiston olimlari qatorida- R.Sinha, A.Jain, Germaniya olimlari qatorida- B.Bleyzer, U.Shvol, A.Storrer, Estoniya- A.Vaxer, Fransiya-J.Astrouni, Yaponiya-M.Nagao va boshqa bir qator olimlarni misol sifatida keltirib o'tishimiz joiz. Nafaqat chet el olimlari, balki o'zbek tili materiallari bo'yicha lingvostatik tadqiqot olib borgan N.Yoqutova, M.Ayimbetov, S.Rizayev va S.Muhammedivlarning ham ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.<sup>80</sup>

Mashinaning tarjimasi qila olish imkoniyati haqidagi g'oyani ilk bor Ch.Bebbij 1836-1848-yillarda raqamli analitik mashinalar bo'yicha olib borgan loyihasida qayd etgan edi. Bizga ma'lumki, XX asrning 30-yillarida "tarjimon mashinalar" amalda qo'llanila boshlangan, lekin Estoniyada mexanik tarjimani ro'yobga chiqarishda A.Vaxerning nazariy qarashlari "Vaba Maa" nomli ro'znomada e'lon qilingan.

Fransiyada J.Astrouni tomonidan avtomatik bilingval lug'atlardan foydalanish taklif etilib, u "Mexanik miya" deb nomlangan mashina tarjimasi ishlanmasi uchun patentga ega bo'ldi.

U.Uiverning g'oyalariga qaraydigan bo'lsak, uning g'oyalarida interingval konsepsiya mavjud bo'lib, unda ikki bosqichni amalga oshirish ko'zda tutilgan: birinchi bosqichda asosiy matn vositachi tilga o'giriladi, ikkinchi bosqichda uning natijasi keyingi tilga tarjima qilinadi.

Mashina tarjimasi bo'yicha ilk ilmiy-amaliy konferensiya 1952-yilda Massachutes texnika universitetida o'tkazilib, New Yorkdagi Jorjtaun universiteti bilan hamkorlikda birinchi rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga mo'ljallangan dastur yaratildi.

Turkiy tillar bo'yicha dastlabki mashina tarjimasi Dorster boshchiligidagi 1961-yilda amalga oshirilgan. Ingliz-turk tili mashina tarjimasi tizimida 700 ta so'z shakldan iborat bo'lib, lug'at turk tili hamda ingliz tilidagi ekvivalentliklarining asos va suffikslari ro'yxatidan iborat bo'lgan.

N.Abdurahmonovanning "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" nomli monografiyasiga tayanadigan bo'lsak<sup>81</sup>, Yu.N. Marchuk: "Mashina tarjimasiga tavsiflangan tarjima modellarini tushuntiruvchi kuch hamda til mohiyatini darhol tekshirish imkoniyatini ko'rsatuvchi hamda taklif etilgan ijobiy mulohazalarning samaradorligini oshiruvchi vosita"- deb qaraydi. Boshqa ko'pgina olimlar esa, mashina tarjimasi deklarativ bilimlardan iborat, ya'ni lingvist til va faktlarni tavsifini

<sup>80</sup> Nilufar Abdurahmonova "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" Toshkent-2018, 5-bet

<sup>81</sup> Nilufar Abdurahmonova "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" Toshkent-2018, 8-bet



bazaga kiritganidan so'ng matematik va dasturchi tomonidan tarjima algoritmi tuziladi, degan fikrga toxtalغانliklarini guvohi bo'lishimiz mumkin.

#### **XULOSA**

Maqolada, asosan, Nilufar Abdurahmonovanning «Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti» nomli monografiyasiga tayanib fikrlar yuritilgan, bu kitobdan asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Bu kitobdan tashqari ham bir qancha kitoblardagi fikrlar va internet ma'lumotlaridan qo'llanilgan. Men U.Uiverning g'oyasiga ijobiy yondashuv bilan qarashni ma'qullagan bo'lardim, chunki uning g'oyalarida interingval konsepsiya mavjud bo'lib, unda ikki bosqichni amalga oshirish ko'zda tutilgan degan fikrlarni yuqorida ham keltirib o'tdim. Bu fikrga ijobiy yondashuv bilan qarashimning sababi shundaki, bir matnni o'zimiz uchun kerakli bo'lgan boshqa bir tilga tarjima qilayotganimizda google tarjimoni yoki telegram botlaridan foydalangan holda tarjimani amalga oshiramiz va bunda bir tildagi aynan bir so'zning tarjimasi yokida muqobil varianti boshqa tilda topilmasligi mumkin. Natijada matnimizda g'alizlik yuzaga keladi. Aksincha Uiverning g'oyalariga tayanib ish ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'zimizga kerakli bo'lgan tilga tarjimani amalga oshirganimizdan so'ng, yana qayta o'z tiliga tarjima qilib ko'rsak, shundagina matnimizni ma'no-mazmuni ham shakli ham o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

#### **REFERENCES**

1. Nilufar Abdurahmonova "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" Toshkent-2018.
2. Manzura Abjalova. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik moduli. „Nodirabegim" nashriyoti Toshkent-2020.
3. Zulxumor Xolmanova. Kompyuter lingvistikasi. „Toshkent-2019".
4. Nilufar Abdurahmonova. „Kompyuter lingvistikasi,, „Nodirabegim" nashriyoti.
5. Toshimov.R. „Matnlarni lingvistik tahrirlashning psixologik asoslari" Toshkent-2011.

## MATNNI AVTOMATIK TAHLIL VA TAHRIR QILISH

Jummayeva Sohiba Shokirovna

Termiz davlat universiteti talabasi

Gulhayo Abdualimova

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953159>

**Annotatsiya.** Maqolada mashina tarjimasi sifatini oshirishda muhim omil sanalgan matnni avtomatik tahrir va tahlil qilishga mo'ljallangan dasturiy sistema tartibotlari va matn tilshunosligiga doir G'arbiy yevropa, rus xususan o'zbek tilshunosligidagi ko'pgina ishlarda uning obyekti, predmeti tuzilishi va sistematikasi va o'ziga xos bo'lgan sistemaga ega bo'lish kabi matn tahlil va tahrirga aloqador masalalar yuzasidan fikr yuritilgan. Hozirda matnlarni avtomatik tahrir qilishdagi ba'zi muammolarning yuzaga kelish sabablari haqida qisqacha fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Grafmatik tahlil, algoritmlar tuzish, avtomatik tahrir, sintaktik tahrir, Kompyuter lingvistikasi, matn muharriri, modul, elektron hisoblash.

### AUTOMATIC TEXT ANALYSIS AND EDITING

**Abstract.** In the article, it is considered an important factor in improving the quality of machine translation, the procedures of the software system for automatic editing and analysis of the text, and its object, subject, structure and systematics in many works of Western European, especially Russian, Uzbek linguistics related to text linguistics. Issues related to text analysis and editing, such as having a unique system, are discussed. Here are some brief comments on the causes of some of the problems with automatic text editing.

**Keywords:** Graphical analysis, algorithm creation, automatic editing, syntactic editing, Computer Linguistics, text editor, module, electronic calculation.

### АВТОМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И РЕДАКТИРОВАНИЕ ТЕКСТА

**Аннотация.** В статье рассматривается важный фактор повышения качества машинного перевода, процедуры программной системы автоматического редактирования и анализа текста, а также его объект, предмет, структура и систематика во многих западноевропейских, особенно Русское, узбекское языкознание, связанные с лингвистикой текста. Обсуждаются вопросы, связанные с анализом и редактированием текста, такие как наличие уникальной системы. Вот несколько кратких комментариев о причинах некоторых проблем с автоматическим редактированием текста.

**Ключевые слова:** Графический анализ, создание алгоритмов, автоматическое редактирование, синтаксическое редактирование, компьютерная лингвистика, текстовый редактор, модуль, электронный расчет.

XX asrning 50 yillaridan til va matn muammolari bilan bog'liq masalalar komputer texnologiyasi yordamida hal qilinmoqda. XX asrning 50 yillaridan til va matn muammolari bilan bog'liq masalalar kompyuter texnologiyasi yordamida hal qilinmoqda.

Avtomatik tahrir komputer lingvistikasining asosiy yo'nalishlarining biri bo'lib u kompyuterdagi matn muharriri (Microsoft word, Exel, wordpad, lexicion) rivojlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Avtomatik tahrir va tahlil jarayonida kompyuterga kiritilayotgan matnning mexanik xatolari avtomatik tarzda to'g'irlanishi va xato ekanligi haqida foydalanuvchiga taklif

etilishi nazarda tutiladi. Matinni avtomatik tahrir qilish jarayonida uning mukammal va yuqori sifatli tizimli bolishi uchun unga kiritilgan. matnlarni orfagrafik va morfologik tarafdanda sintaktik, semantik va paradigmatic tahrir qilish imkonini yaratish lozim. avtomatik tahrir tahlilni to'liq qilish uchun quyidagi lingvistik dastur modullariga ega bolish kerak.<sup>82</sup>

1. Morfologik tahrir
2. Grafmatik tahrir
3. Sintaktik tahlil

Lingvistik modullarning bu bosqichlari matnni mexanik xatolari, savodli yozishi ta'minlash va shu kabi bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Natijada lingvistik me'yorlar darajasidsagi matn yuzaga keltirishda vaqt tejaladi. Avtomatik matnni tahrir qilishning hozirgi vaqtga qadar mukammal tahrir qiladiga lingvistik dastur yaratilmagan. Aniqroq qilib aytganda matnni sintaktik tahrir qilish dasturi hali yechimini topmagan. Sintaktik tahrirning murakkabligi shundaki matnda ko'pincha ko'chma manoli so'zlar, iboralar tagmanolarga ega sozlar ishlatilishi mumkin.

Matnlarni avtomatik tahlil va tahrir qilish jarayoni ustida ish olib borgan bir necha fikrlarni ilgari surgan G".Abdurahmonov R.Qong'urov J.Lapasov M.Yo'ldoshev. M.Abjalova lar matnlarni lingvistik tahlil va tahrir qilish masalalasi haqida ba'zi umumiy fikrlar jumladan matnning badiiy tahlili borasidagi izlanishlar olib borganlar.

Olimlarimiz badiiy matnning fonetik fonologik, leksik-gramatik xususiyatlarini matnda tadqiq qilish tamoyillari haqida ham so'z yuritganlar. Avtomatik tahrir yo'nalishi XX asr o'rtalariga kelib rivojlandi.

U matn muharriri dasturlari bilan birgalikda yangicha imkoniyatlar qoshimcha effektlar bilan rivojlanmoqda. Avtomatik tahrirning oddiy muharrirlardan farqi shundaki unda tahrir avtomatik tarzda qisqa vaqt ichida hajman katta bo'lgan matnni tez tekshirish va xatolarni to'g'irlash imkoniyati bo'ldi<sup>83</sup>.

Professor H.Arziqulov rahbarligida Samnarqand davlat chet tillari institutida injiner tilshunosligi markazi tashkil etilgan. Bu markazda davlat tilidagi matnlarga kompyuter yordamida qayta ishlov berish masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan Davlat tilidagi matnlarga kompyuter yordamida qayta ishlov berish masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib bordi.

Bunda matnlarga qaytavishlov beradigan kompyuter dasturini yaratish, o'zbek tiling barcha sathlariga oid matnlarni yig'ish, ularni muayyan bir tizimga keltirish algoritmlarini tuzish, ularga statistik jihatdan ishlov berish, inglizcha o'zbekcha mashina tarjimasini yaratish kabi sohalarida ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

N.N Leonotova matnlarni avtomatik tushunishni amalga oshiruvchi rus va xorijiy tizimlarning yaratilish tajribasini organdi va asosiy e'tborni sifatli ishlanmalarga qaratdi bu olimning xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta'min yaratib bergan, Buning natijasida kompyuterdagi ruscha inglizcha matnlarni tahrirlovchi va lingvistik tahlil qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan<sup>84</sup>.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kungacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida avtomatik tahrir va tahlilga qisman e'tibor berilgan. Mavjud izlanishlarda ikki til yohud o'ziga til

<sup>82</sup> Manzura Abjalova. Tahrir va tahlil dasturlarning lingvistik moduli.

<sup>83</sup> Nilufar Abdurahmonova. Kompyuter lingvistikasi.

<sup>84</sup> Nilufar Abdurahmonova. Kompyuter lingvistikasi.

morfologiyasi qiyosiy. Tipologik uslubda tahlil qilingan. Matnlarni electron hisoblash mashinalari vositasida tahrir qilish muammosi o'rganila boshlagan natijada zamonaviy axborot texnologiyalari qonuniyatlariga asoslangan matn tahriri va tahlillarning lingvistik ta'minotining yaratishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar yuzaga keldi.

#### **REFERENCES**

1. Manzura Abjalova. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik moduli.,,Nodirabegim' nashriyoti Toshkent-2020
2. Zulxumor Xolmonova.Komyuter lingvistikasi.Toshkent-2019.
3. Nilufar Abdurahmonova.Komyuter lingvistikasi.Nodirabegim nashriyoti.
4. Toshimov.R.Matnlarni lingvistik tahrirlashning psixologik asoslari.Toshkent-2011
5. Nilufar Abdurahmonova.Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti monografiya. Toshkent nashriyoti-2018.

## TA'LIMNING KREDIT MODUL TIZIMIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

**Mamatqulova Gulzoda Xolmurodovna**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrası o'qituchisi

Telefon:+998915910264

[gulzodamamatqulova.81@bk.ru](mailto:gulzodamamatqulova.81@bk.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953205>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning obyektiv va subyektiv sharoitlari va unda o'qitish tizimi bo'yicha fikrlar keltirilgan. Adliya vazirligi yuridik texnikumlarida kredit-modul tizimini qo'llashning o'ziga xos jihatlari, yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish, professional ta'lim muassasasida kredit-modul tizimining tashkil etilishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kredit, modul, kredit-modul tizimi, akademik mobillik, kredit soati, mustaqil ta'lim.

## ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В статье представлены взгляды на объективные и субъективные условия организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе и системе обучения.

**Ключевые слова:** Kredit, modul, kreditно-модульная система, академическая мобильность, кредитный час, самостоятельное обучение.

## ORGANIZING THE STUDY PROCESS IN THE CREDIT MODULE SYSTEM OF EDUCATION

**Abstract.** The article presents views on the objective and subjective conditions for organizing self-study in the credit-modular system and the training system.

**Key words:** Credit, module, credit-module system, academic mobility, credit hour, independent education.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar asosan inson huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Shubhasiz, globallashuv va postmodernizatsiya jarayonlari hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ma'lumki, davlat rivojlanishi va huquqiy davlat maqomini olishi uchun yuqori malakali Yuridik kadrlar bo'lishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mutaxassislar tayyorlash darajasi va huquqiy ta'lim sifati bilan bog'liq.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi zamon talablarini hisobga olgan holda, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim mazmunini yangilash va sifatini oshirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-

modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-son qaroriga asosan yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimi joriy qilingan.

*Kredit - modul tizimi* – mustaqil ta'lim olishga qaratilgan va individuallik asosida bilimni ijodiy o'zlashtirish, o'quv jarayonini qat'iy belgilangan holda ta'lim yo'lini tanlash va kredit holda bilim hajmini belgilovchi tizimdir. Bu tizim hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida umumiy yo'lga qo'yilgan, vaqt sinovlarida o'zini yetarlicha oqlagan va bir biridan farq qiluvchi, lekin bir – birini o'zaro to'ldiruvchi ikkita – *modul va kredit* o'qitish texnologiyalarini birlashishidan hosil bo'lgan.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash; o'quvchilar bilimni reyting asosida baholash.

Yuridik texnikumlarda o'quv jarayonida kredit-modul tizimi Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa modeli (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS)ga muvofiq tashkil qilinadi.

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iboratligini hisobga olsak, o'quvchi o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Professional ma'lumotli kadrlar tayyorlovchi texnikumlarda o'qish muddati 2 yilni tashkil etib, yakunda 120 kredit to'lashi talab etiladi. Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit o'quvchi bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bildiradi.

ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar fan 6 kreditli fan bo'lsa, o'quvchi ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi ( $25 \cdot 6 = 150$ ;  $30 \cdot 6 = 180$ ). Shunday ekan, kredit-modul tizimini joriy etgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o'qish hali boshlanmasdan o'qish va o'rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligini bilib oladilar. Bu ta'limda shaffoflikning bir ko'rinishidir. 1 kredit o'qish yuklamasi (25-30 soat oralig'ida) aynan necha soat bo'lishini odatda har bir ta'lim muassasasi o'zining ichki qoidalarida belgilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklamasi bu fanni o'rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo'lib, unga nafaqat dars vaqti, balki o'quvchining fanni o'rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, o'quvchi ushbu fanni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi.

Umumiy o'qish yuklamasining aynan qancha qismi darsga, auditoriya soatlariga to'g'ri kelishi quyidagicha: Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi, ya'ni o'quvchi muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi.

Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ( $30 \cdot 40 \% = 12$ ) auditoriya soatlari, 18 soati ( $30 \cdot 60 \% = 18$ ) esa o'quvchining mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlasak, o'quvchi ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72



soat ((30\*6)\*40 %=72)) auditoriya darslarini, 108 soat ((30\*6)\*60 %=108)) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Yuridik texnikumlarning bitiruvchilari TDYUda ikkinchi kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega ekanligini inobatga olib, TDYUning birinchi kursidagi kreditlarini (60 kredit) yuridik texnikumlarda to'playdi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. O'quvchilarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. O'quvchi esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida professional ta'lim o'quvchilari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimi o'quvchilarga fanlarni mustaqil va ongli ravishda tanlash, o'qituvchiga esa o'z vaqtini samarali taqsimlash imkonini beradi. Mamlakatimiz professional ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishi, professional ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishi, professional ta'lim muassasalarda o'qish jarayonining shaffof tarzda tashkil etilishi, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va o'quvchilar ehtiyojlari asosida shakllanishi, darslarning sifati yaxshilanishi va nihoyat har bir o'quvchi, ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

#### Takliflar

Yuridik texnikumlarda baholash tizimida kamida 10 foizni pedagog ixtiyorida qoldirish;

Professional ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan amaldagi baholash tizimi, mezonlari va shkalasini isloh qilish va ularni jahondagi eng ilg'or baholash tizimlariga yaqinlashtirish tavsiya etiladi. Amaldagi baholash tizimida ijobiy baxolar soni ancha cheklanganligi tufayli baxolar o'quvchilarning bilim va salohiyatlaridagi farqlarni etarli darajada aks ettirmaydi.

Masalan amaldagi baholash shkalasida bor yo'g'i 3 ta ijobiy baxolar mavjud (3, 4, 5), ECTS tizimida esa 5 ta, Amerika baholash tizimida esa 12 ta ijobiy baholar mavjud. Baholash amaliyotidagi bu katta farqlar baholar konvertatsiyasida noaniqliklar va xatolar bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Professional ta'lim muassasalari o'z o'quv dasturini, uning o'qish natijalarini ishlab chiqishda biz o'quvchilarga nimalarni o'rgatishni xohlaymiz degan nuqtai nazar bilan emas balki o'quvchilar bizdan nimalarni o'rganishni xohlaydi va ular o'z mutaxassisliklariga munosib kadr bo'lib etishishlari uchun nimalarni bilishi va qila olishi kerak degan nuqtai nazar bilan yondashish taklif etiladi.

#### REFERENCES

1. Sh.Mustafaqulov, M.Sultonov “Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik”//Xalq so‘zi №185/2020
2. V.O‘rinov, A.Umarov “Oliy ta’limda kredit-modul: yangi o‘quv yilida o‘quvchilarni nimalar kutmoqda?” //Kun.uz 22.07.2020
3. Hasanova M, Jumanova M “Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etilish tamoyillari” Kiberlineyka. (25-may 2022-yil)
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.06.2021yildagi 359-sonli Qarori.

## CLASSIFICATION OF HONORIFICS IN ENGLISH

Sodatova Nodira Qudratillo qizi

Termiz davlat universiteti

lingvistika (ingliz tili)

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953263>

**Abstract.** *In this article, the various honorific titles in English and their specific addresses are fully described in whom and in which case they are reflected.*

**Keywords:** *honorific system, politeness category, honorific references, titular, titles.*

### КЛАССИФИКАЦИЯ ПОЧЕТНЫХ МЕТОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** *В этой статье полностью описаны различные почетные титулы на английском языке и их конкретные адреса, в ком и в каком случае они отражены.*

**Ключевые слова:** *почетная система, категория вежливости, почетные обращения, титуляр, титулы.*

Honorifics have currently occupied an important position within the domain of socio-pragmatic studies of language and within the theories of communication. Honorifics are derived from outputs of politeness strategies where these directly or indirectly convey a status deferential between speaker and addressee or referent, where they indirectly convey such a status deferential, as in French Tu / Vous pronouns do via the general strategy of pluralizing in order to impersonalize<sup>85</sup>.

Honorifics have been defined as “politeness formulas in a particular language which may be specific affixes, words, or sentence structure”<sup>86</sup>. Languages which have a complex system of honorifics are, for instance, Japanese, Mudurese (a language of Eastern Java), Hindi, and Arabic; English, on the other hand, has no complex system of honorifics, but there are few cases of compound honorifics; e.g. *professor doctor, dear sir*, etc.<sup>87</sup>

J.T. Irvine points out that “linguistic honorifics are forms of speech that signal social deference, through conventionalized understandings of some aspects, of the form meaning relationship”<sup>88</sup>.

From this brief account of the concept of honorifics, we may define it as linguistic or non-linguistic means or device that can function to convey social deference or respect influenced by the dimension of power and solidarity.

The honorifics can be divided into two main types: **referential honorifics** and **absolute honorifics**. In the rest of the chapter, we want to provide information about the use of these types in English and Uzbek. Let's first think about the division of Honorifics into these types and features of use in English.

<sup>85</sup>Brown P. and Levinson S. (1978): “Universals In Language Usage”. In: E.N. Goody (ed.), Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press. – P.183. (pp 56-289.)

<sup>86</sup>Richard J. Platt J. and Weber. H. (1985): Longman Dictionary of Applied Linguistics. – London: Longman Group Ltd. – P.131.

<sup>87</sup>Ibid.: P.131.

<sup>88</sup>Irvine J. T. (1995): “Honorifics”. In: J. Verschueren et al. (eds.), Handbook of Pragmatics. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins. – P.1. (pp 1-22.)

### Referential Honorifics

Honorifics are grammatical forms utilized in speaking to express social superiority. The part of speech affected is different from one language to another, and the honorifics may be distinguishable from simply very polite forms used in formal address. In many languages they affect the pronouns: in French, “*Vous*” is used rather than “*Tu*”; in Uzbek, we use the pronoun “*siz*” rather than the familiar one “*sen*” in addressing a single person. Honorifics seem most highly developed in certain oriental languages, such as Japanese and Korean<sup>89</sup>.

A. Agha claims that the use of honorifics in all communities is governed by the social status of persons to whom deference is paid, but it is also sensitive to interactional variables<sup>90</sup>. With regard to status, the general norm: the higher the status, the greater the degree of deference.

M. Farghal and A. Shakir view social honorifics “as the encoding of social information in human interaction. Such information is manifest in the use of pronouns and titles of address”<sup>91</sup>.

The view of honorifics as directed indexes of context seems unable to account for the complexity and diversity of actual uses of honorifics adequately. For example, the treatment of honorifics as status difference markers cannot explain their reciprocal use, despite the fact that honorifics are generally used by a person of a higher status to a person of a lower status; this treatment in addition to that, must assume that in the non-reciprocal use of honorifics not only honorific form but also non-honorific forms are markers of status differences. On the other hand, the treatment of honorifics as markers of non-intimate relationships cannot account for the nonreciprocal use of honorifics, because it must assume that two individuals perceive the same relationship differently as non-intimate and intimate<sup>92</sup>.

S. Levinson points out that honorifics can be divided into two main types<sup>93</sup>. The first type is called “relational” which is more important than the second one and mainly concerned with the socially deictic information in languages of the world. Within this relational system of honorifics, three subcategories are distinguished; they are addressee honorifics, referent honorifics and by-stander honorifics. The second type of honorifics in Levinson’s typology is called “absolute” honorifics which express the relationship between the speaker and the setting through formality levels. Absolute honorifics are categorized into “authorized speakers” and “authorized recipients” according to the perspectives of the speakers and recipients.

Addressee honorifics, as B. Comrie argues, refer to the relationship between the speaker and the hearer<sup>94</sup>.

R. Brown and S. Levinson point out that addressee honorifics are direct encodings of the speaker-addressee relationship, independent of the referential content of the utterance<sup>95</sup>. M.

---

<sup>89</sup>The New Encyclopedia Britannica, (1980): Vol. V. – Chicago: Encyclopedia Britannica Inc. - P. 115.

<sup>90</sup>Agha A. (1994): “Honorification”. In: Annual Review of Anthropology, 23. - P. 294. (pp 277-302.)

<sup>91</sup>Farghal M. and Shakir A. (1994): “Kin Terms and Titles of Address as Relational Social Honorifics in Jordanian Arabic”. In: Anthropological Linguistics, 36. – P. 240. (pp 20-253.)

<sup>92</sup>Okamoto S. (1999): “Situating Politeness: Manipulating Honorific and Non-Honorific Expressions in Japanese Conversations”. In: Pragmatics (IPrA), 9(1). – P.53-54. (pp 51- 74.)

<sup>93</sup>Levinson S. (1983): Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press. – P. 90-91.

<sup>94</sup>Comrie, B. (1976): “Linguistic Politeness Axes: Speaker-Addressee, Speaker-Referent, Speaker – By – Stander”. In: Pragmatic Microfiche, 1.7: A3. – University of Cambridge, Dept. of Linguistics.

<sup>95</sup>Brown, P. and Levinson, S. (1978): “Universals In Language Usage”. In: E.N. Goody (ed.), Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press. – P.276. (pp 56-289.)

Sifianou mentions that this category of honorifics expresses respect to the addressees by choosing particular linguistic items or forms, without directly referring to them<sup>96</sup>.

Referent honorifics are those expressions which are used to convey speaker's respect to persons or things actually referred to<sup>97</sup>. In this sense, they are the relational honorifics which express the relations held between the speaker and the referent. R. Brown and A. Gilman's<sup>98</sup> (1960) *Tu/Vous* pronouns distinction in singular pronouns of address is considered as a form of referent honorifics that give respect directly to the hearer.

Besides, other referent honorifics may indirectly express respect to the addressee. In English the second member of pairs like *Snuggs / Dr Snuggs, eat/dine, man/gentleman, give/bestow, book/volume* and so on encode greater respect to the person, activity or thing than others. By using these referent honorifics about something related to the hearer, the speaker as a matter of fact expresses respect to him.

By- Stander Honorifics:

By-stander honorifics are a relational type of honorifics which express the relationship between the speaker and the bystander<sup>99</sup>. These honorifics include those cases in which a different set of expressions are utilized in the presence of certain by-standers. In Australian Aboriginal communities, a special speech style, called "mother-in-law" language, is avoided in the presence of certain by-standers, while it is employed by every one when the presence of certain by-standers necessitates the use of special verbal and non-verbal behaviours<sup>100</sup>.

The **peerages** in the United Kingdom are a legal system comprising both hereditary and lifetime titles, composed of various noble ranks, and forming a constituent part of the British Honorific system. The term peerage can be used both collectively to refer to the entire body of nobles (or a subdivision thereof), and individually to refer to a specific title (modern English language-style using an initial capital in the latter case but not the former). The Peerage of Great Britain – titles created for the Kingdom of Great Britain between 1707 and 1801.

British nobility, in the United Kingdom, members of the upper social class, who usually possess a hereditary **title**. The titled nobility are part of the peerage, which shares the responsibility of government. The peerage comprises five ranks, which are, in descending order, *duke, marquess, earl, viscount, and baron*. Below the peerage are honorary ranks that include *baronet* and *knight*, two classes that bear similarities to the nobility but which are generally not regarded as such.

In the English language system, we analyze the following title names and their origin (in the example of the United Kingdom):

1. **Monarchy** is a form of government in which a single person, called a monarch, is the head of state for the duration of their life. The word is of Greek origin, deriving from the words "*mono*"

---

<sup>96</sup>Sifianou, M. (1992): *Politeness Phenomena in England and Greece: A Cross-Cultural Perspective*. – Oxford: Clarendo Press. – P.57.

<sup>97</sup>Sifianou, M. (1992): *Politeness Phenomena in England and Greece: A Cross-Cultural Perspective*. – Oxford: Clarendo Press. – P.57.

<sup>98</sup>Brown R. and Gilman A. (1960): "The Pronouns of Power and Solidarity". In: Sebeok (ed.), *Style in Language*. – Cambridge, MA: MIT Press. – pp 253-276.

<sup>99</sup>Levinson, S. (1983): *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press. – P. 90.

<sup>100</sup>Sifianou, M. (1992): *Politeness Phenomena in England and Greece: A Cross-Cultural Perspective*. – Oxford: Clarendo Press. – P.57.

(one) and "archy" (rule). The system of nobility in the United Kingdom is known as the peerage, and has been developed over more than a thousand years since the time of the Anglo-Saxons.

2. **King** is the title given to a male monarch in a variety of contexts. The English term *king* is derived from the Anglo-Saxon "cyning", which in turn is derived from the Common Germanic "kuningaz". The Common Germanic term was borrowed into Estonian and Finnish at an early time, surviving in these languages as *kuningas*. It is a derivation from the term *kunjom* "kin" (Old English *cynn*) by the *-inga-* suffix. The literal meaning is that of a "scion of the [noble] kin", or perhaps "son or descendant of one of noble birth". The English term translates, and is considered equivalent to, Latin *rēx* and its equivalents in the various European languages. The Germanic term is notably different from the word for "King" in other Indo-European languages (*rēks* "ruler"; Latin *rēx*, Sanskrit *rājan* and Irish *ríg*; however, see Gothic *reiks* and, e.g., modern German Reich and modern Dutch rijk). The synonym of it: *captain, czar, tsar, tzar, lion, magnate, mogul, monarch, Napoleon, tycoon*.

3. **Queen** a woman who rules a country and who usually inherits her position and rules for life. For eg.:

*She was crowned queen of England;*  
*the reign of Queen Elizabeth.*

Second meaning of the word "queen" is the wife of a king the king and his queen. For eg.:  
*the king and his queen.*

The other meaning of the word "queen" is a girl or woman who is highly respected and very successful or popular:

*She's a fashion queen;*  
*the queen of the blues.*

From Middle English *quene, queen, cwen*, from Old English *cwēn* ("queen"), from Proto-West Germanic *kwāni*, from Proto-Germanic *kwēniz* ("woman"), from Proto-Indo-European *gʷéh₂s* ("woman"). Related to and possibly merged with and/or absorbed some senses of English *quean*, from Middle English *quene*, from Old English *cwene* ("woman; female serf, quean"). Generally eclipsed non-native Middle English *regina* ("queen"), borrowed from Latin *rēgīna* ("queen") (Modern English *regina*). Doublet of *quean* and *gyne*. The synonym of this word "queen" is *archduke, aristocracy, aristocrat, master*.

#### **Absolute Honorifics**

Every society, considering the importance of the power relations that govern it, enjoys a special system of honorifics. A society with a very advanced system of honorifics shows the importance of superior-inferior and power relations. In contrast, in communities where these issues are not taken into account, a simpler system of honorifics is used.

It is axiomatic that languages mirror the world view of their users. Manipulating honorific forms among people inevitably reflects this truth. Honorifics are conventionalized forms or expressions manifested in all the world's languages and are used to express the social status of the participants in the verbal interaction and to convey indications like politeness and respect. English is no exception. However the question is what exactly creates these forms and their meanings. Although honorifics have been extensively researched from a grammatical and semantic angle, yet they haven't received that significant attention in pragmatic research, especially their use in literary works. Thus, this qualitative paper aims at clarifying the main



linguistic devices that represent English honorific forms and investigating the main functions and the pragmatic meanings that these forms can express.

M.Farghal and A.Shakir argued that it referred to contact of interactors (speaker, interlocutor, and also object of utterance) and their social activities<sup>101</sup>. The high line was differences of formality and informality framing the contact of interactors "role and particular situation". There was a certain expression that the actor had to adapt his or her social interaction.

On the other hand, Verschueren gives a more accurate definition; concentrating on the linguistic representatives of honorifics saying "honorifics are language forms such as pronouns, vocative expressions, titles of address and the like, used to encode the high status of the interlocutor"<sup>102</sup>.

Absolute honorifics was exclusively limited to someone or something admitted to the social and title of the class, such as "*Your Honour*," "*Professor*," "*Oh God*," and so on. Absolute social honorifics required authorized recipients for whom these titles were reserved. Furthermore, absolute social honorifics might be hugely explained to represent phenomena that were used for social aims such as greetings, "*assalamualaikum*," "*ahlan wasahlan*".

These sets of honorifics refer to the relationship between speaker (and perhaps other participants) and setting (or social activity). What is important here is the distinction between formality and informality which colours the relationship between the participants' roles and situations. As a matter of fact, there are certain forms which are particularly reserved for certain speakers and other forms which are reserved for certain recipients. The first sets of forms are used by "authorized speakers", for example the form of the first person pronoun is specifically reserved for the use of the Japanese Emperor. The second set of forms is particularly received by "authorized recipients"<sup>103</sup>.

Farghal and Shakir view that the absolute social honorifics are certain forms reserved for authorized speakers and recipients<sup>104</sup>. For example, in Arabic the use of the first person plural (نحن) "we" by the king of Jordan in royal ordinances is an absolute honorific exclusively restricted to him as the only authorized speaker who can speak on behalf of his people, while the use of titles of address, such as "*Your Honour*", "*His Majesty*", "*Professor*", etc. are absolute social honorifics requiring authorized recipients for whom these titles are reserved. Furthermore, absolute social honorifics may be expanded to cover many phenomena that are primarily used for social aims such as greetings e.g. (مرحبت – حُصْنَبْ) and politeness markers e.g. (لُفْتْ) (among others. Such examples of social honorifics should be remarked as non-authorized in nature, i.e., they do not require authorized speakers and recipients. For example, on an absolute scale of Politeness, the examples on the right side of the arrow are more polite than those of the left. Consider the following:

1) *Help me* → *Help me, will/can you?* → *Can you help me?* → *Could you possibly help me?*

<sup>101</sup>Farghal M. and Shakir A. "Kin Terms and Titles of Address as Relational Social Honorifics in Jordanian Arabic" // In: Anthropological Linguistics, 36,1994. - P.241. (pp 20-253.)

<sup>102</sup>Verschueren Jef. Understanding Pragmatics. - London: Arnold, 1992. – P.21.

<sup>103</sup>Levinson, S. (1983): Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press. – P.91.

<sup>104</sup>Farghal, M. and Shakir, A. (1994): "Kin Terms and Titles of Address as Relational Social Honorifics in Jordanian Arabic". In: Anthropological Linguistics, 36, - P.241. (pp. 20-253.)

(2) *Thanks* → *Thank you very much.*

(3) *Name, please* → *What's your name, please* → *Can you tell me your name please?* → *Could you possibly tell me your name, please?* (→ *I wonder if you could tell me your name.*)

So, we can say, an honorific is a form of address conveying esteem, courtesy or respect in the English language<sup>105</sup>. These can be titles prefixing a person's name, e.g.: *Mr, Mrs, Miss, Ms, Mx, Sir, Dame, Dr, Cllr, Lady* or *Lord*, or titles or positions that can appear as a form of address without the person's name, as in *Mr President, General, Captain, Father, Doctor* or *Earl*. Many forms of honorifics are for members of the nobility, clergy, military/naval forces, or royalty, mostly in countries that are monarchies. These include "*Your Majesty*", "*Your Royal Highness*" or simply "*Your Highness*", which are used to address certain members of royalty and "*My lord/lady*" or "*Your Lordship/Ladyship*" to address a peer other than a Duke, who is referred to as "*Your Grace*".

If any, scholars have paid more attention to the pragmatic strategy of showing Politeness in the case of English. For example, Brown & Levinson (1987) have proposed their analyses and proposals, and their research has been used as pivots for Politeness/Impoliteness studies rather than the manifestations of Honorifics in English<sup>106</sup>.

Using honorific intend to charm of the social strata of communication and to attract attention find respect from the other person. An honorific can reduce the risk of conflict and strengthen cohesion in the society concerned. Furthermore, honorifics are typically used to humble themselves and elevate the listener. The hearer person will feel positioned in a position or status honorifics when applied correctly<sup>107</sup>. On the other hand, the fact that legislature members are often expressed in the form of interrogative speech to ask for clarification about the executive or the public action. The use of interrogative forms as part of an indirect speech-oriented pattern of modesty.

## REFERENCES

1. Agha, A. Stereotypes and registers of honorific language. *Language in Society*. 1998. – 769 p.
2. Aliakbari M., Toni A. The realization of address terms in modern Persian in Iran: A sociolinguistic study, 2008. – P.9. <https://www.linguistik-online.de/35-08/aliakbari.pdf>.
3. Annie Zaenen, Jean Carletta, Gregory Garretson, Joan Bresnan, Andrew Koontz-Garboden, Tatiana Nikitina, M Catherine O'Connor, and Tom Wasow. 2004. Animacy Encoding in English: why and how. In *Proceedings of the 2004 ACL Workshop on Discourse Annotation*, pages 118–125. - Stroudsburg.
4. Braun, F. (1988). *Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures*. – Berlin: Mouton De Gruyter. – p. 468.
5. Brown P & Levinson S. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press. 1978. – 179 p.

<sup>105</sup>"Honorific". *Oxford Living Dictionaries*. Oxford University Press. Archived from the original on 3 October 2016. Retrieved 25 December 2016.

<sup>106</sup>Brown P., Levinson S. *Politeness: Some Universals in Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

<sup>107</sup>Habwe J. H. "Politeness phenomena: A case of Kiswahili Honorifics," 2010. – P.22.

6. Brown P. and Levinson S. "Universals In Language Usage". In: E.N. Goody (ed.), Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press. 1978. – 689 p.
7. Brown R. and Ford M. 1961. Address in American English. Journal of Abnormal and Social Psychology. 62. – pp.375-85.
8. Brown R. and Gilman A. (1960): "The Pronouns of Power and Solidarity". In: Sebeok (ed.), Style in Language. – Cambridge, MA: MIT Press. – pp 253-276.
9. Brown, Roger and Albert Gilman. "The pronouns of Power and Solidarity." In: P. P. Giglioli (ed.), Language and Social Context. – London: Penguin Books, 1998. - 582 p.
10. Bussmann, H. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. Routledge: British Library, 1996 – P. 520.

**ABDULLAYEVA GULRUXNING "PSIXOLOGIK SOG'LOMLASHTIRISH"  
AKSIYASI DOIRASIDA "SOG'LOM BO'LISH-AJOYIB" "ERISHAMAN VA  
YUTAMAN" MAVZUSIDA TRENINGI HAQIDA**

**Abdullayeva Gulrux**

Shayxontohur tumanidagi 320-sonli umumtalim maktabning psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953310>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shayxontohur tumanidagi 320-sonli umumtalim maktabning psixologi Abdullayeva Gulruxning "Psixologik sog'lomlashtirish" aksiyasi doirasida "Sog'lom bo'lish-ajoyib" "Erishaman va yutaman" mavzularda 2"A"-sinf o'quvchilari bilan trening mashg'uloti o'tkazdi. Jamiyat va aholi o'rtasida psixologik savodxonlikni oshirish va takomillashtirish hamda bugungi kunda psixologiyaning inson hayotida qay darajada muhimligi haqida so'z yuritiladi. Mamlakatimizda psixologiya sohasiga oid korporativ boshqaruv markazlarining olib borayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarini keng ko'lamda yoritib berish. Hozirgi yosh avlodning, butun millatning sog'lig'ini asrashning muhim masalasi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Sog'lom turmush tarsi, ma'naviyat, iqtisodiy-demokratik, tibbiy gigiyenik, organism, shaxs hayoti.

**ABOUT THE TRAINING OF ABDULLAYEVA GULRUKH ON THE TOPIC "I  
WILL ACHIEVE AND WIN" WITHIN THE "PSYCHOLOGICAL HEALTH"  
CAMPAIGN "BEING HEALTHY IS GREAT"**

**Abstract.** In this article, Abdullayeva Gulrux, a psychologist of comprehensive school No. 320 in Shaikhontohur district, as part of the campaign "Psychological health improvement", has a training session with the students of the 2nd "A" class on the topics "Being healthy is wonderful" and "I will achieve and win". passed the test. It will be discussed how to increase and improve psychological literacy among society and population, and how important psychology is in human life today. To provide a wide coverage of the promotional activities of corporate management centers in the field of psychology in our country. It is an important issue to protect the health of the current young generation and the entire nation.

**Key words:** Healthy lifestyle, spirituality, economic-democratic, medical hygiene, organism, personal life.

**О ТРЕНИНГЕ АБДУЛЛАЕВОЙ ГУЛРУХ НА ТЕМУ «Я ДОСТИЖУ И  
ПОБЕДИТЬ» В РАМКАХ АКЦИИ «ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ» «БЫТЬ  
ЗДОРОВЫМ – ЭТО ПРЕКРАСНО»**

**Аннотация.** В данной статье Абдуллаева Гулрux, психолог общеобразовательной школы № 320 Шайхонтохурского района, в рамках акции «Психологический оздоровительный» провела тренинг с учащимися 2 «А» класса на темы «Быть здоровый - это прекрасно», "Я добьюсь и выиграю". Прошел испытание. Речь пойдет о том, как повысить и улучшить психологическую грамотность общества и населения, и какое значение психология занимает в жизни человека сегодня. Обеспечить широкое освещение рекламной деятельности центров корпоративного управления в области психологии в нашей стране. Важным вопросом является сохранение здоровья нынешнего молодого поколения и всего народа.

**Ключевые слова:** Здоровый образ жизни, духовность, хозяйственно-демократическая, медицинская гигиена, организм, личная жизнь.

Malumki maktab yoshdagi me'yorda rivojlanayotgan bolada butun psixik rivojlanishida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Uning idrok qilish faolligi o'ta tez o'sib boradi - zehni rivojlanadi, ko'rib fikrlashi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga asos olinadi. Idrok qilish imkoniyatlari o'sishiga ma'naviy xotira, ixtiyoriy diqqate'tiborining tiklanishi yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi yoshlarimizga bog'liqdir. Kelajak bugundan boshlanadi. Ayni damda tarbiya masalasiga e'tibor qilmasak, kelajak boy beriladi. Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or- nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zamirida tarbiya yotadi. Kundalik turmush tashvishlaridan ortib bag'ringizda o'sib ulg'ayayotgan farzandingiz yoki uning do'stlarining fe'l-atvorlari, qiziqishlarini hech kuzatganmisiz?

O'g'lingiz yoki endigina balog'atga yetayotgan qizingiz bilan dildan suhbatlashganmisiz?



Aslida farzand ota - ona bilan ko'proq yaqinroq bo'ladi, deyishadi. Bu isbotlangan hayot tajribasi. O'sha yaqinlikni yaratish esa onaning qo'lida. Ishda o'tirib telefon orqali nazorat qilishingiz yoki ma'lum bir fanga, to'garaklarga vaqtini birlashtirib qo'yishingiz mumkin. Lekin bolaning ham o'z xayollari, dilida saqlab yuradigan gaplari bo'ladi. Bir o'ylab ko'ring-a, bolangiz sizni yaxshi ko'rishini, yoki qalbidagi shirin orzularini, iztirobi yoki quvonchini baralla ayta oladimi? "Agar meva donagini chaqib, mag'zini yerga eksak, albatta u unib chiqmaydi. Agar ustidagi qobig'i bilan tuproqqa qadasak-chi unib, o'sib gullab yashnaydi". Danak ruh, qobig'ini jism deb olsak, demak, bolalarimiz bir maqsadga erishmoqchi bo'lsalar har ikkala asosga suyanishi zarur. Aks holda, maqsadiga erishishi qiyin bo'ladi. O'ylagan maqsadiga erishishi uchun uning ruhiyati sokin ,xotirjam bo'lishi kerak.Bola ruhiyati qachonki oilasi tinch va ota-onasining unga bo'lgan munosabati yaxshi bo'lsa, unga o'z vaqtida e'tibor qaratib, mehrini bersa, dildan



suhbatlashsa, bolaning dardini tinglasa, unga ham gapirishi uchun navbat bersa, bolaning fikrlari teran va sog'lom bo'ladi .

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish turli yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Bu, bir tomondan, o'quvchilar va kattalarga sog'lom turmushga oid muayyan tibbiy gigiyenik bilimlarni berishga, ularda sog'lom turmush tarzini organizm rivojiga qanday ta'sir etishi haqidagi tasawurlarni uyg'otishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiyada gigiyenik qoidalarga amal qilishga, o'zini va yon atrofidagilar sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liq.

Sog'lom turmush tarzi bu — inson havoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatlikning yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir.

Sog'lom turmush tarzi — inson turmush sharoitlarini faol o'zlashtirish usuli bo'lib, kun tartibiga rioya qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigiyenik qoidalariga rioya qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish demakdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish predmetining maqsadi va vazifalari:

Inson ruhiyatini o'rganish nihoyatda murakkab. Diagnostika ishlari uchun, yordamchi maktablarni butlash uchun bolalar ruhiyatini o'rganish juda zarur hisoblanadi, chunki yordamchi maktablardagi ta'lim-tarbiyani samarali olib borish uchun ham bu boradigi ma'lumotlar kerak. Inson ruhiyatini' atroflicha o'rganish kishidan har tomonlama bilim va malakalar bo'lishi talab etilishi bilan bir qatorda bilim, yetarlicha hayotiy tajriba ham talab etiladi. Aqli zaif bola ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish asosida ular bilan olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar mazmun-mohiyati belgilanadi. Aqli zaif bolalarning shaxsiy hujjatlari bilan tanisha borib, o'qituvchi, tarbiyachi bolaning kasallik tarixi, kasallik qoldirgan asorat xususiyatlarini tahlil qiladi.





Bu — oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi raskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'lig'i ham, tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi. Bular, yosh avlodning sog'lig'iga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni bilishni, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning metodologik, psixologik, pedagogik, tibbiy va gigiyenik asoslarini yaratishni taqozo etadi». Har bir talaba «salomatlik» tushunchasi; salomatlik omillari; salomatlikni saqlashda organizmning himoyalaniishi; valeologiya fani, uning tamoyillari va metodlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi kerak. Turmush tarzi inson yashashi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirish demak. O'zlashtirish usuliga qarab uni sog'lom turmush tarzi va nosog'lom turmush tarzi deb ajratish mumkin, hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning rivojlanishi, boshqa fanlar bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalarini o'zlashtirish zarur. «Turmush tarzi» va «Sog'lom turmush tarzi» tushunchalarining mohiyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Inson xuquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, «Bola xuquqlari to'g'risida»gi Konvensiya, nutq va ma'ruzalarida bayon qilingan sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid fikrlar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun, Sharq hamda Yevropa olimlari va mutafakkirlarining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid fikr va qarashlarida o'z ifodasini topadi. Har qanday shaxsning turmush tarzi kun savin ro'v beravotgan voqeahodisa va turli o'zgarishlarning ta'siri ostida shakllanadi. Ta'kidlash joizki, o'zaro munosabatlarning o'zgarayotgani o'quvchilar ruhiyatiga tobora ko'proq ta'sir etmoqda. Natijada ularda o'z taqdiri, oilasi, jamoasi uchun zarur bo'lgan aqliy, hissiy va erkiga oid xattiharakatlarni tanlash ma'suliyati oshmoqda. Shular natijasida yuzaga keladigan asab kasalliklarining oldini olish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Shayxontohur tumanidagi 320-sonli umumtalim maktabning psixologi Abdullayeva Gulruxning "Psixologik sog'lomlashtirish" aksiyasi doirasida "Sog'lom bo'lish-ajoyib" "Erishaman va yutaman" mavzularida 2"A"-sinf o'quvchilari bilan trening mashg'uloti o'tkazishdan maqsad shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda milliy ma'naviy, ta'lim tarbiya va o'quvchilar o'rtasida psixologik sog'lomlashtirish haqida tushuncha uyg'otishga qaratildi.

#### REFERENCES

1. Jo'raboyev K. "O'quvchi – yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik – pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar" Uslubiy qo'llanma. "KOMRON PRESS" Toshkent 2017 yil
2. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020 yil.
3. Soatov.A.J. Pedagogika-psixologiya ixtisosligi talabalarida psixologik maslahat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. UzACADEMIYA ilmiyuslubiy jurnal 2 jild. Avgust 2020.
4. Mo'minov X. Sog'lom turmush — sog'liqqa yo'l.

## NAMUNALI O'QUVCHIM OQILOVA SOLIHA VA IQTIDROLI O'QUVCHILAR HAQIDA

**Karimjonova Gulnora Saipovna**

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 320 - maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi



**Oqilova Soliha**

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 320 - maktabning 2-“a” sinf o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953489>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkent shahar Shayxontohur tumani 320-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Karimjonova Gulnoraning o'quvchisi Oqilova Solihaning iqtidori haqidagi iliq fikrlari keltirib o'tilgan va iqtidorli yoshlarni kashf etish hamda shart sharoitlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'quvchi, iqtidor, yoshlar, o'qituvchi, maktab.

### AN EXEMPLARY STUDENT ABOUT INTELLIGENT AND TALENTED STUDENTS

**Abstract.** In this article, Karimjonova Gulnora, a primary school teacher of school 320 of Shaikhontohur district of Tashkent city, gives warm comments about the talent of her student Oqilova Saliha, and talks about the discovery of talented young people and the conditions.

**Key words:** education, student, talent, youth, teacher, school.

### ОБРАЗЦОВЫЙ СТУДЕНТ ОБ УМНЫХ И ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТАХ

**Аннотация.** В данной статье Каримжонова Гульнора, учитель начальных классов школы 320 Шайхонтохурского района города Ташкента, тепло отзывается о таланте своей ученицы Окиловой Салихи, рассказывает об открытии талантливой молодежи и условиях.

**Ключевые слова:** образование, ученик, талант, молодежь, учитель, школа.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, biz o'qituvchilar oldimizda ham juda katta mas'uliyat turibdi. Maktablarda qanchadan-qancha iqtidorli o'quvchilar bilim olmoqdalar. Ularning iqtidorini aniqlay bilish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bugungi kun o'qituvchilariga yillar davomida yig'ilgan ish tajribamdan kelib chiqib, iqtidorli o'quvchilar bilan alohida mashg'ulotlar olib borishni taklif qilardim.

Iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda jahon miqyosidagi buyuk kashfiyotlarni jamiyatimizning negizini tashkil etadigan buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talabalaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Shunday o'quvchilar haqida so'z yuritilganda, ko'z o'ngimda 320-maktabning 2-“a” sinf o'quvchisi **Oqilova Soliha** namoyon bo'ladi. Uning bilimlarni egallash bilan birga tasviriy san'atga, adabiyotga bo'lgan qiziqishlari haqida so'z yuritsam mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda ana shunday o'quvchilarning ko'payishi jamiyat taraqqiyotining bir bo'g'inidir. Zero, Yangi O'zbekistonda kichik Xorazmiylar, Navoiylar, Boburiylar yurt ravnaqiga ravnaq qo'shadilar.

Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.



Shu o'rinda «Iqtidorli yoshlar kimlar?» degan savol paydo bo'ladi. «Iqtidor» arabcha «qodir bo'lmoq», «qila olmoq», shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha, shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar.

Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalarini va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir.

Bir so'z bilan aytganda, maktabda o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchilari maxsus psixologik va

pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassaslarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- Iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ishlashga safarbar qilish;

- ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlariga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish;

- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar banki va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish;

- ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash;

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda ustoz-shogird an'anasiga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizni *Oqilova Solihaga* va qolgan iqtidorli o'quvchilarimizdan kelajakda umidimiz katta albatta.

Bunday qobiliyatli o'quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan o'qituvchilar tanlanadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ma'ktabimiz o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi.

Shunday qilib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

#### REFERENCES

1. Karimjonova Gulnoraning o'quvchisi Oqilova Soliha haqidagi sahxsiiy fiklari va iqtidorli yoshlarni kashf qilish haqida
2. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: «Akademiya», 2017.

## QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI MODEL TAVSIYALARI

G'.S.Xo'jamkeldiyev  
O'zDJTSU, Chirchiq sh.  
X.Abdug'aniyev  
2 - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953515>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi model tavsiyalari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qisqa masofalarga yuguruvchi, jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch, chidamlilik, sifatini aniqlash.

### SPECIAL FITNESS MODEL RECOMMENDATIONS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS

**Abstract.** This article discusses specific fitness model recommendations for short-distance runners.

**Key words:** Short-distance runner, physical fitness, speed-strength, endurance, quality determination.

### СПЕЦИАЛЬНЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ФИТНЕС-МОДЕЛЕЙ ДЛЯ БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ

**Аннотация.** В этой статье обсуждаются рекомендации конкретных фитнес-моделей для бегунов на короткие дистанции.

**Ключевые слова:** бегун на короткие дистанции, физическая подготовленность, скоростно-силовые качества, выносливость, детерминация качества.

Qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ularni turli bosqichlarda sport musobaqalariga tayyorlash bo'yicha ko'pchilik olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, V.B.Zelichenok va boshqalar tomonidan (2000) qisqa (100-200 m) masofaga yuguruvchi sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini model ko'rsatkichlarini yosh guruhi bo'yicha rivojlanishiga doir tadqiqot ishlari olib borilgan. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda berildi.

400 m masofaga yuguruvchilarni 20 m masofaga start oldidan yugurish ko'rsatkichi I-razryadlilarda 2,0 soniyaga teng bo'lsa, SUN sportchilarda 1,9 s.ni tashkil etadi. 30 m.ga pastki startdan yugurishda esa 4,1-3,9 s. natija sport ustaligiga nomzodlarda bo'lishi mumkin ekan.

Sportchi shakllanishining ilk bosqichidagi umumiy jismoniy tayyorgarlik shunday poydevor hisoblanadiki, u yosh sportchiga o'z mahoratini takomillashtirishda zarur bo'lgan harakat malakalari va jismoniy sifatlarning har xil turlarini hosil qilishga imkon yaratadi.

№	Nazorat mashqlari	16-17	18-20
		I razryad	SUN
1.	20 m start oldidan yugurib kelish, s	2,1	1,9
2.	30 m masofaga yugurish, s	4,1	3,9
3.	60 m masofaga yugurish, s	7,2	6,9
4.	100 m masofaga yugurish, s	11,2	10,7



5.	200 m masofaga yugurish, s	22,7	21,8
6.	600 m masofaga yugurish, daq.s	1:23,0	1:20,0
7.	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	280	290
8.	Uch hatlab uzunlikka sakrash, sm	845	880
9.	O'n hatlab uzunlikka sakrash, sm	3010	31,33
10.	Oyoqni nisbiy kuchi, kg	2,93	3,05

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda qisqa masofaga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagicha ifodalandi.

Biz qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini hammualliflar V.B.Zelichenok, V.N.Nikitushkin, V.P.Gubalar tomonidan berilgan ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadida qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rgandik. Unga ko'ra, tezkor-kuch sifatini aniqlashda 30 metr masofaga start oldidan yugurish testini qo'lladik. Tadqiqotda ishtirok etgan talaba sportchilarning 30 metrga start oldidan yugurishda o'rtacha natijasi  $3,29 \pm 0,11$  s.ni takil etdi. 30 m. masofaga pastki startdan chiqib yugurishda sinaluvchilar o'rtacha  $4,30 \pm 0,24$  s. natijani qayd etgan bo'lsa, 60 metr masofaga pastki startdan chiqib yugurishda talaba-sportchilarning tezkor-kuchini ifodalovchi ushbu masofadagi o'rtacha natija  $7,80 \pm 0,15$  s.ga teng bo'ldi. 100 metr standart masofani yugurib o'tishda talaba sportchilar  $11,90 \pm 0,17$  soniya natijani qayd etishdi.

Tezkor-kuch chidamliligini aniqlashda 150 metr masofaga yugurishda talaba sportchilar o'rtacha natijasi  $17,40 \pm 0,34$  soniyani tashkil etdi.

Tezkor-kuch, chidamlilik sifatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan 200 metr masofaga yugurishda talaba sportchilar tayyorgarligi o'rtacha  $24,05 \pm 0,47$  s.ni tashkil etgan. Portlovchi tezkor-kuchni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan turgan joydan uzunlikka sakrash testi natijalari o'rtacha ko'rsatkichi  $257,0 \pm 12,08$  smga teng bo'ldi. Turgan joydan uch hatlab sakrashda  $807,3 \pm 25,93$  sm, byesh hatlab sakrashda (u orqali tezkor portlovchi kuchning rivojlanganlik darajasi aniqlanadi)  $1185,5 \pm 64,03$  sm natija qayd etildi.

Navbatdagi nazorat mashqida, ya'ni 3 kg to'ldirma to'pni ikki qo'llab bosh yuqorisidan oldinga uloqtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda talaba-sportchilar  $887,7 \pm 95,15$  sm natijani qayd etishdi. Oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish orqali qadamlar uzunligini aniqlashga qaratilgan navbatdagi sinov nazoratida talaba-sportchilar  $26,1 \pm 1,0$  marta natija qayd etdi. Turgan joyda 20 s. davomida qadamlar chastotasining takrorlanish sonini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan nazorat sinovida talaba sportchilar  $80,1 \pm 4,36$  marta natija ko'rsatdi.

Turgan joyda 1 daqiqa davomida qadamlar chastotasining sonini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi testda talaba sportchilar  $178,92 \pm 13,1$  martaga teng natijani qayd etishdi. Kuch sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan testda, ya'ni 60 kg shtanga bilan o'tirib turish nazorat mashqida talaba sportchilar o'rtacha  $16,1 \pm 2,15$  martaga shtanga bilan o'tirib turishgan bo'lsa, navbatdagi 300 m masofaga yugurish orqali tezkor-kuch chidamlilikni aniqlashga qaratilgan nazorat sinovida talaba sportchilar  $41,1 \pm 1,24$  s. natijani qayd etishdi.

Tezkor-kuch chidamliligi bo'yicha 500 m qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarning o'rtacha natijasi  $67,8 \pm 1,93$  s.ni tashkil etdi. 1000 m.ga yugurishda  $176,5 \pm 4,93$  s. bilan masofani yugurib o'tishdi.



Qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

	30 metrga start oldidan yugurish (s)	30 metrga pastki startdan yugurish (s)	60 metrga pastki startdan yugurish (s)	100 metrga yugurish (s)	150 metrga yugurish (s)	200 metrga yugurish (s)	Turgan joydan sakrash (sm)	Turgan joydan uch hatlab sakrash (sm)	Turgan joydan besh hatlab sakrash (sm)	3 kg.li to'ldirma to'pni bosh ortidan oldinga uloqtirish (sm)	Oyoqdan-oyoqqa sakrash 60 m. (marta)	Turgan joyda 20 s. da qadam chastotasi (marta)	Turgan joyda 1 daq.da qadam chastotasi (marta)	60 kg shtanga bilan o' tiritib-turish	300 metrga yugurish (s)	500 metrga yugurish (s)	1000 metrga yugurish (s)
1.	3,10	4,10	7,62	11,67	17,54	23,07	271	798	1124	1059	25	84	189	16,0	41,9	68,40	176,0
2.	3,20	3,98	7,90	11,64	16,78	23,95	284	785	1254	956	25	89	210	19,0	41,6	71,40	179,0
3.	3,20	4,49	7,80	11,68	17,45	23,87	265	789	1187	894	27	86	193	16,0	39,7	67,90	172,0
4.	3,45	4,65	7,66	12,04	17,60	24,56	245	804Q	1154	914	25	81	175	15,0	41,5	69,40	179,0
5.	3,40	4,30	7,90	11,90	17,40	24,24	249	821	1124	892	26	80	169	17,0	39,1	65,00	185,0
6.	3,40	4,60	7,90	12,10	17,90	24,30	257	842	1159	754	26	78	175	16,0	39,6	66,90	184,0
7.	3,30	3,96	7,74	11,80	16,90	24,51	253	806	1251	879	26	80	179	13,0	42,6	67,10	179,0
8.	3,26	4,51	8,10	12,10	17,50	24,76	241	756	1204	749	25	78	175	15,0	39,6	68,00	176,0
9.	3,30	4,05	7,72	12,01	16,98	23,86	251	854	1265	1024	26	75	165	16,0	41,2	64,00	175,0
10.	3,30	4,21	7,92	12,10	17,50	24,12	253	800	1298	798	28	76	170	21,0	41,9	68,00	169,0
11.	3,20	4,40	7,65	11,90	17,40	23,65	251	812	1148	874	27	79	182	14,0	41,5	69,00	172,0
12.	3,40	4,30	7,64	11,90	17,80	23,70	264	821	1106	859	27	75	165	15,0	42,6	68,00	172,0
$\bar{x}$	3,29	4,30	7,80	11,90	17,40	24,05	257,0	807,3	1189,5	887,7	26,1	80,1	178,92	16,1	41,1	67,8	176,5
$\sigma$	0,11	0,24	0,15	0,17	0,34	0,47	12,08	25,93	64,03	95,15	1,00	4,36	13,10	2,15	1,24	1,93	4,93

Olingan natijalar hammualliflar V.B.Zelichenok, V.N.Nikitushkin, V.P.Guba tomonidan berilgan qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligi model ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil etilganda I razryadli sportchilar tomonidan ko'rsatilgan natijalardan 0,2 soniyaga ortda qolayotganligini ko'rish mumkin. Agarda ushbu natija sport ustaligiga nomzod yoki sport ustalari bilan qiyosiy tahlil etilganda, 0,4 soniyaga ko'rsatkichdan ortda qolayotganlikni ko'rish mumkin. 60 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish nazoratida model ko'rsatkich bo'yicha hammualliflar I razryadlilarga 7,2 s., sport ustaligiga nomzod sportchilarga yoki sport ustalariga 6,9 s. deb ko'rsatgan bo'lsa, biz ushbu ko'rsatkichdan I razryadli sportchilarimiz 0,6 s.ga, sport ustalari

0,9 s., xalqaro sport ustaligiga nomzod sportchilar esa 0,6 s.ga ortda qolmoqda. Navbatdagi 100 m standart masofaga yugurish nazoratida model ko'rsatkich I razryadli qisqa masofaga yuguruvchilar uchun 11,2 s. deb berilgan. Ammo biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqotda talaba sportchilar 11,90 s.ni qayd etishmoqda, sport ustalari esa 10,7 s. natijani qayd etish lozimligini ko'rsatadi. Ming afsuski, ushbu masofada O'zbekiston chempionatlarida musobaqa chempioni natijasi 11,0-10,9 s.ga teng.

Tezkor-kuch chidamliligini ifodalovchi 250 m masofaga yugurish nazorat sinovi bo'yicha model ko'rsatkichda I razryadli sportchilarga 22,7 s. natija tavsiya etilgan bo'lsa, sport ustaligiga nomzodlar 21,8 s.ga yugurishi lozimligini ko'rsatiladi.

## NAVOIY LIRIKASIDA ZUHD OBRAZI

Jandreyeva Matluba Mamarajab qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti

[matlubajandreyevaoff@gmail.com](mailto:matlubajandreyevaoff@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953528>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasida zuhd obrazi, uning g'azallarida qo'llanilishi, qanday ma'no-mazmun kasb etishi masalasi, Navoiy g'azallari tahlili asosida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Navoiy g'azallari, Navoiyning tasavvuf, Zuhd obrazi, raqib obrazi, yor obrazi.

## THE IMAGE OF ASCETICISM IN NAVOI'S LYRICS

**Abstract.** In this article, the image of asceticism in Alisher Navoi's lyrics, its use in ghazals, the question of how it acquires meaning, based on the analysis of Navoi's ghazals, are discussed.

**Key words:** Alisher Navoi, Navoi's ghazals, Navoi's Sufism, the image of Zuhd, the image of a rival, the image of a friend.

## ОБРАЗ ПОДВИЖНИЧЕСТВА В ЛИРИКЕ НАВОИ

**Аннотация.** В данной статье на основе анализа газелей Навои рассматривается образ аскетизма в лирике Алишера Навои, его использование в газелях, вопрос о том, как он приобретает смысл.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газели Навои, суфизм Навои, образ Зухда, образ соперника, образ друга.

O'zbek lirik poetikasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog'langan. Navoiy devonida, bir tomondan, o'zbek poetikasida janrlarning mohiyat e'tibori bilan yangicha rivojini ko'rsak, ikkinchi tomondan, fors adabiyoti o'zining qat'iy qonuniyatlariga ega bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy Alisher Navoiyni "Mir Nizomiddin", ya'ni "dinning nizomi – qonuni" deb bejiz ulug'lamagan. Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, "Xamsa" dostonlarining muqaddimalarida Allohga hamd, Payg'ambarga na't, munojot va Rasululloh s.a.v madhining mavjudligiyoq bu fikrni isbot qiladi.

Alisher Navoiy g'azallari orqali shariat va tasavvuf ilmining chuqur bilimdoni, nazariyotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy diniy qarashlarida, avvalo, "Quroni karim"ga tayangan, keyingi o'rinlarda esa Hadislarga murojat qilgan. Navoiyning bu jihatlarini olib qaraydigan bo'sak, demak, uning g'azallari islomiy tushunchalarga asoslanganligini anglaymiz. Navoiy naqshbandiya tariqatida bo'lgan.

Naqshbandiya tariqatiga Naqshband asos solgan bo'lib, Navoiyning ustoz, fors-tojik adabiyotining namoyondasi Abdurahmon Jomiy ham huddi shu tariqatga ergashgan. Navoiy g'azallarida tasavvufona qarashlar o'z aksini topgan. Shu sababdan turli tasavvufiy istilohlar va obrazlar g'azallaridan o'rin egallagan. Bular orasidan zuhd-zohid obrazi alohida o'rin tutadi. Zuhd obraziga Navoiygacha bo'lgan davr adabiyotida ham ko'p bora duch kelamiz. Shu sababli ham Navoiy bu obrazga alohida toxtalib o'tadi va o'z g'azallariga kiritad

### «ZULFUNG OCHILIB...»

G'azalda mazmun va badiiy tasvir mutanosibligi boshdan-oyoq izchil davom etadi. Bu esa g'azalning kompozitsion jihatdan yakpora shaklda vujudga kelishini ta'minlaydi.

Bir lo'liyi bozigar erur chanbar ichinda  
Xolingki, o'shul halqayi gesu bila o'ynar,  
Zohid bila nafs etsa tamasxur, ne ajabkim,  
It sayr qilur vaqtda tulku bila o'ynar.

Bizga ma'lumki, bozigar lo'lilar, ya'ni o'ynab tomosha ko'rsatuvchi lo'lilar olomon to'plangan joyda o'z san'atlarini namoyish qiladilar. G'azalda yor xolining lo'lilar toifasiga o'xshatilishida mahbubaning husnini ta'kidlash bilan birga, soch halqasi va uning ichidagi xol o'yinidan boshqalarning bahramand bo'lishi ehtimolidan tahlika ham sezilib turadi. Bu misrada oshkora tasvirdan tashqari yashirin bir rashk, pinhon bir ta'na bor. Mana bu baytdagi insonning jonivor bilan o'ynashuviga asoslanganligi jihatidan yuqoridagi misraga bir qadar o'xshab ketadi:

Zohid bila nafs etsa tamasxur yo'q ajabkim,  
It sayd qilur vaqtda tulku bila o'ynar.

Bu misrada gapni sal uzoqdan boshlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, tasavvuf ilmida insonning ilohga intilishi hayotdagi bosh maqsad sanalgan. Bu intilish butunlay xolis bo'lishi va g'araz e'tiqodini chipakka chiqargan. Shuning uchun ham mazkur ta'limotda zuhd-zohidlik, ya'ni xudo jamoliga erishuvning namoyishkorona yo'li shartli ravishda g'araz, nafs timsoli sifatida talqin qilinadi.

Alisher Navoiy ham mansub bo'lgan tasavvuf poeziyasida bu obraz o'zining yorqin aksini topgan. Baytdan shuni anglashimiz mumkinki, zohid nafsoniyatiga mukkasidan ketgan odam. Nafs esa an'ana bo'yicha itga qiyos etiladi. G'azalda ov chog'ida itning tulki bilan o'yini lavhasi zohidning nafsiga munosabatini ochib berishga xizmat qilgan. Bayt tag zamirida nafsning tulkidek hiylagarligi ham singdirilgan.

Bunday o'xshatish Navoiygacha va undan keyingi she'riyatimizda ham mavjud. Demak zohid obrazi orqali xudo jamoliga erishishdagi yomon timsol sifatida ham namoyon etilgan.

«SOQIYO, TALX O'LDI AYSHIM HAJR BEDODI BILA» radifli g'azalida ham tasavvufona qarashlariga duch kelishimiz mumkin. G'azal «Badoe'-ul bidoya» va «G'aroyib-us sig'ar» devonlariga kiritilgan.

Zuhd ko'nglum ko'zgusin qilmish muqaddar, ey harif,  
Sindirurmen tavba piri itiq irshodi bila.

«Zuhd» — parhez, tiyinish uzlat ma'nolarini anglatadi. «Harif»—suhbatdosh, do'st demakdir. «Irshod»—to'g'ri yo'l ko'rsatish, hidoyat, «Muqaddar»— g'uborli, qora, g'amgin ma'nolarini anglatadi. Baytdan shunday ma'no anglash mumkinki, «Zuhd, ya'ni zohidona tavbatazzaru' ko'nglimning ko'zgusiga g'uborlik qildi, ey do'st, bunday tavbani ishq piring rahnamoligida sindirib tashlayman» -deya keltiradi. Shoir soxta zohidlik bilan haqiqiy ilohiy ishq mayidan bahramandlikni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi, chunki zohidlar faqat tavba bilan chegaralanganlar, ilohiyotning orifona lazzatidan bexabar edilar.

Tavba tasavvufda mavjud, ammo unda bu tushuncha tariqat yo'liga kirishning birinchi bosqichi, harom-haloldan tiyinishni, o'zni faqat ilohiy ishq bilan mashg'ul qilishni anglatadi. Zohidlarning tavbasiesa taraqqiy topmagan, namoyishkorona tavbadir. Osmon qadahlarini «sindirish» bilan zuhd tavbasini «sindirish» orasida aloqa bormi? Agar dunyo va dunyoparastlikni ya'ni zohidlik bilan osmon aloqador deb hisoblasak, unda osmon qadahini sindirish bilan zuhd tavbasini sindirish ham aloqador bo'lib chiqadi.

#### REFERENCES

1. I.Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent.G'ofur G'ulom nomidagi Nashriyot. 1991.
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. -T.: Ma'naviyat, 2006;
3. A.Abdullayev. Tasavvuf va uning namoyondalari.(ilmiy-ommabop risola)-Termiz: 2007.
4. Alisher Navoiy.G'aroyib us-sig'ar(birinchi jild) T.G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot.:2012.
5. Saviya.Uz.
6. Arxiv.U

## QARAQALPAQ TILINDE EKOLOGIYALÍQ TERMINLERDÍŃ LEKSIKA-SEMANTIKALÍQ USÍL ARQALÍ JASALÍWÍ

Ótebaeva Dilbar Ayapbergenovna

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953979>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi ekologik terminlarning semantik usul orqali yasalishi haqida so'z boradi. Shuningdek, metaforizatsiya usuli orqali yasalgan ekologik terminlar misollar bilan ko'rsatilgan.

*Kalit so'zlar:* ekologik terminlar, metaforizatsiya usuli, so'z yasalishi, metafora.

## ОБРАЗОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИМ СПОСОБОМ

*Аннотация.* В данной статье говорится об образовании экологических терминов в каракалпакском языке лексико-семантическим способом. А так же, примеры экологических терминов составленные способом метафоризации.

*Ключевые слова:* экологические термины, способ метафоризации, словообразование, метафора.

## FORMATION OF ECOLOGICAL TERMS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE BY THE LEXICO-SEMANTIC METHOD

*Abstract.* This article deals with the formation of environmental terms in the Karakalpak language in a lexical-semantic way. And also, examples of environmental terms compiled by the method of metaphorization.

*Key words:* ecological terms, metaphorization method, word formation, metaphor.

Terminler til biliminde belgili bir túsinikti, uǵımdı ańlatıw maqsetinde jumsaladı. Olar tiykarınan bir mánili sózler arqalı bildiriledi. Terminlerdiń jasalıwında bolsa affiksaciya, sóz qosılıw usılları tiykarǵı xızmetti atqaradı. Til biliminde ekologiyalıq terminlerdiń jasalıwında da joqarıda atalǵan usıllar arqalı kópshilik terminler jasaladı. Sonday-aq, sóz jasawdıń affiksaciya hám sóz qosılıwdan tısqarı ekologiyaǵa baylanıslı terminlerdi jasawda metaforizaciya usılı da qollanıladı.

Metafora – eki predmet yaki qubılıstıń qanday da bir uqsaslıq tárepine tiykarlanıp, onıń birewine tiyisli belgini awıspalı mánide ekinshi predmetke baylanıstırıp aytıw [Бекбергенов А., 1997.52]. Bul usıl arqalı sózler uqsaslıǵı tiykarında qayta ataladı hám jańa mánidegi ekinshi sóz payda boladı. Metaforizaciya usılı til biliminde jańa mánidegi sózlerdi payda etiwde yaki sózdiń ótkirliǵın, tásirliǵın arttırıw maqsetinde ónimli qollanıladı. Bul usıl terminlerdiń jasalıwında da ózine tán xızmet atqaradı.

Obyektlerdiń belgilerin, qásiyetlerin semantikalıq jaqtan sáwlelendiriw arqalı atamalardıń qáliplesiwı – bul til biliminde qıya nominaciya dep ataladı. Ol metaforizaciya texnikasına tiykarlanadı. Metaforizaciyanıń tiykarǵı mexanizmi eki túrli obyekttiń ulıwmalıq belgilerininiń associativ jaqınlasıwı esaplanadı [Галиева Э.А. 2005.102].

Demek, ekologiyalıq terminlerdiń jasalıwına metaforizaciya usılı da ayrıqsha orındı iyeleydi. Tatar tilindegi ekologiyalıq terminler boyınsha izertlewler alıp barǵan ilimpaz E.A.Galieva metaforizaciya usılı arqalı jasalǵan ekologiyalıq terminlerdi 6 toparǵa ajratıp kórsetedi. Qaraqalpaq tilinde de bul usıl arqalı ayırım ekologiyalıq terminler jasaladı.



1) somatikaliq atamalar tiykarında payda bolğan ekologiyalıq terminler: *qoltıq, moyın, tóbe*, t.b. Qoltıq – qoldıń jelkege tutasqan bólimi menen gewde aralıǵındaǵı ishki tárep. Maxmud Qashqariy bul sózdi arnayı túsindirgen jerinde arab háripleri menen jazılǵan sózdiń ekinshi buwınında qısqa u sesin kórsetetuǵın háreket belgisi qoyılǵan (Devon, I, 440). Demek, bul sózdi qol atlıǵı hám hám tiq feyilinen quralǵan dep oylaw haqıyqatqa tuwrı kelmeydi. Negizinde bul qospa sózdiń ekinshi bólegi tu- feyiline (DS, 584: tu – “закрывать”) -ǵ qosımtasın qosıp jasalǵan tuǵ atlıǵı menen ańlatılǵan dep esaplaw haqıyqatqa jaqın; sonda qoltuǵ sózi negizinde “qoldıń gewdege tutasqan jeri” mánisin ańlatqanı belgili boladı [6.584]. Adamnıń dene múshesin bildiriwshi bul sóz ekologiya, geografiya tarawlarında termin retinde jumsaladı: Okeannıń (teńiz yamasa kóldiń) qurǵaqlıq ishkerisine kirip turǵan bólimi *qoltıq* dep ataladı. Bengaliya, Meksika, Gudzon qoltıǵı eń úlken qoltıqlar bolıp tabıladı.

Sonday-aq, moyın sózi adam múshesin bildiredi. Moyın – bastı gewde menen baylanıstırıp turatuǵın deneniń bólegi [4.312]. Al, bul sóz ekologiyalıq termin retinde qollanıladı: moyın – qurǵaqlıqtıń eki úlken bólimin, misalı, eki materikti bir-biri menen (Panama moyını, Suvaysh moyını), materikti yarım ataw menen tutastırıp turatuǵın yaqı eki táreptegi úlken suw háwizin ajratıp turǵan jer [7.850]. Mısalı: Birinshi bolıp ispaniyalı V.Balboa 1513-jılı Panama *moynınan* ótip, Tınısh okeandı kórgen hám onı Qubla okean dep ataǵan. Keltirilgen misallar metaforzaciya usılı arqalı jasalıp, eki nárseniń sırtqı uqsaslıǵı tiykarında ekinshi mánige awısqa hám termin retinde qalıpleskenligin kóriwge boladı.

2) predmetler arasındaǵı uqsaslıq tiykarında payda bolǵan ekologiyalıq terminler: *taw etegi, jer qabıǵı, jer beti*, t.b. Suwlar *jer qabıǵındaǵı* minerallar menen fizikalıq hám ximiyalıq tárepten baylanısqa. *Taw eteklerinde* jazı ıssı, ortasha temperatura +17+20 °C qa teń. Tiykarınan, etek sózi kiyimniń tómengi jaǵı, shalǵayı degen mánini bildiredi. Lekin bul sóz geografiyalıq obyektler menen dizbeklesip kelip, bir nárseniń aqırı, tómengi bólimi degendi bildiriw maqsetinde jumsaladı. Bul toparǵa kiretuǵın ekologiyalıq terminlerdiń kópshiligi keń jámiyetshilikke tanıs hám túsiniqli sózler esaplanadı. Mısalı, joqarıda keltirilgen taw etegi, jer beti sıyaqlı terminler keń tanımalıqqa iye bolıp, kúndelikli turmista qollanıwshı sózler qatarına kiredi. Sonlıqtan da ilimpaz E.Berdimuratov terminlerdiń qollanıw órisi jóninde tómendegidey pikirlerdi keltiredi: “Kópshilikke kópten tanıs, awızsha hám jazba sóylew aynalıwında jedel paydalanıwshı terminler funkcionallıq jaqtan jiyi qollanıwshı, al ulıwma xalıqlıq tanımalıqqa iye emes, qánigelikti, saykes bilimdi talap etiwshi, sonıń saldarınan belgili bir sóylew ortalıǵında ǵana ámeliy paydalanıwshı terminlerdi siyrek qollanıwshı terminler dep bahalaǵan maqul” [Berdimuratov E. 1999: 125]. Demek, joqarıda keltirilgen terminlerdi jiyi qollanıwshı terminler quramına kirgizemiz.

3) adamǵa baylanıslı qollanılatuǵın háreketler arqalı payda bolǵan ekologiyalıq terminler: *dáryanıń toyınıwı, topıraqtıń sorıwı, topıraqtıń jarlılanıwı, topıraqtıń dem alıwı*. *Topıraqtıń dem alıwı* – topıraq massasınıń atmosferaǵa karbonad angidrid gazın bólip shıǵarıw procesi [Тазабеков Т., 1994: 50]. *Topıraqtıń sorıwı (sińiriwi)* – topıraqtıń qattı, suyıq hám gaz halındaǵı zatları ózine sińdirip uslap turıw qásiyeti [Тазабеков Т. 1994: 164]. Keltirilgen terminler insanǵa tán ish-háreketlerdiń adamnan basqa zatlarǵa qarata qollanıwı arqalı mániniń awısıwı nátiyjesinde jasalǵan. Mısalı, *jarlı, jarlılanıw* sıyaqlı sózler adamǵa baylanıslı, yaǵnıy insannıń mal-dúnyasınan ayırılıwı yaqı dúnya-malı bolmawına baylanıslı túsinikti ańlatıw ushın jumsaladı. Al, bul sóz ekologiya tarawında topıraq sózi menen birge qollanıwı, topıraqtıń quramındaǵı mineral zatlarıń azayıwı yaqı joǵalıwı, topıraqtıń egiske ónimsiz bolıp qalǵanlıǵın ańlatıw maqsetinde qollanıladı.



Sunday-aq, dáryanıń toyınıwı terminindegi toyınıw sózi de adamǵa baylanıslı qollanıladı. *Toyıw* – tamaqtı kereginshe, toyǵanınsha jew, nárlenıw, qanaatlanıw, *toyınıw* – toyıw feyiliniń ózlik dárejesi [4.331]. Dáryanıń toyınıwı degende bolsa, dárya suwınıń tábiyiy jollar menen tolısıwı túsiniledi. Mısalı: Evraziya dáryalarınıń toyınıwına qarap tórt tipke bólinedi: jawın, qar, muz hám jer astı suwınan toyınıwshı dáryalar.

Qaraqalpaq tilinde ekologiyalıq terminlerdiń qollanıw órisi oǵada keń. Olar arasında keń tanımалılıqqa iye terminler de, sol tarawdıń ózine ǵana túsiniikli bolǵan terminler de kópshlikti quraydı. Ekologiyaga baylanıslı qollanılatuǵın terminlerdiń jasalıwında bolsa joqarıda keltirilgen metaforizaciya usılı ayrıqsha rol oynaydı. Bul usıl arqalı jańa mániidegi terminler payda boladı hám ózine tán belgili bir túsiniкти ańlatıw maqsetinde jumsaladı.

### REFERENCES

1. Бекбергенов А., Пахратдинов Қ. Тил билими терминлери сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан» 1997.
2. Berdimuratov E. Qaraqalpaq tili terminleri. Nókis, “Bilim” 1999.
3. Галиева Э.А. Экологическая лексика в современном татарском литературном языке. Канд.дисс. Казань, 2005.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992.
5. Тазабеков Т., Тазабеков Е. Орысша-қазақша топырақтану түсіндірме сөздігі. Алматы, «Ана тілі», 1994.
6. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) Тошкент, «Университет» 2000.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, Тошкент.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE`RIYATIDA AKS ETGAN DUNYOQARASH

Sotvoldiyeva Nodirabegim

Jamoat xavfsizligi Universiteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953983>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shu haqidakim Bobur she`riyatida ma`shuqaning tashqi qiyofasini gavdalantirishga bag`ishlangan bir qator tasvirlar ijodkorning dunyo go`zalligini, yor go`zalligini, insoniy go`zallikni yaqindan his qila olganligini, u orqali zavqlanishi va ta`sirlanishi natijasida ijodkorda butun zamona va hayotni shunday go`zal hamda betakror ko`rish havasi, orzusi tug`ilganini ko`rsatadi.

**Kalit so`zlar:** "Boburnoma", "Mubayyin", "Xatti Boburiy", tarix, adabiyot, geografiya, etnografiya, iboralar, Adabiy muhit, Bobur adabiy muhiti, Buyuk boburiylar saltanati, Hindistondagi turkiy adabiyot, ikki tillilik, adabiy-tarixiy manbalar.

### WORLDVIEW REFLECTED IN THE POETRY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

**Abstract.** In this article, a series of images dedicated to the embodiment of the lover's appearance in Babur's poetry show that the creator was able to feel the beauty of the world, the beauty of the land, and human beauty closely, and as a result of enjoying and being affected by it, the creator has the whole. It shows that the desire and desire to see the time and life in such a beautiful and unique way was born.

**Key words:** "Boburnoma", "Mubayyin", "Hatti Baburi", history, literature, geography, ethnography, expressions, literary environment, Babur's literary environment, the Great Babur dynasty, Turkish literature in India, bilingualism, literary-historical sources.

### МИРОВОЗЗРЕНИЕ, ОТРАЖЕННОЕ В ПОЭЗИИ ЗАХИРИДИНА МУХАММАДА БАБУРА

**Аннотация.** В данной статье серия образов, посвященных воплощению образа влюбленного в поэзии Бабура, показывает, что творец смог близко ощутить красоту мира, красоту земли, красоту человека, в результате наслаждаясь и находясь под его влиянием, это показывает, что у творца есть желание и мечта увидеть все время и жизнь в таком прекрасном и неповторимом виде.

**Ключевые слова:** «Бобурнома», «Мубайин», «Хатти Бабури», история, литература, география, этнография, выражения, литературная среда, литературная среда Бабура, Великая династия Бабура, тюркская литература в Индии, двуязычие, литературно-исторические источники.

**Kirish:** Zahiriddin Muhammad Bobur qilgan ijodiy merosining eng muxim va eng yirigi O`rta Osiyo, Afg`oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma`lumotlarni o`z ichiga olgan v o`sha davr o`zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo`lgan —Boburnoma asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materiyalni o`z ichiga olganligi bilan, til va uslubning go`zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o`ziga tortgan va uning turli qo`lyoama nusxalari izlana boshlangan va g`arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi. Asarning asli nomi —Boburiya bo`lsada, uni —Voqeanoma, —Tuzuki Boburiy, —Voqoti Boburiy, deb atadilar, keyinchalik —Boburnoma degan nom bilan mashhur bo`lib ketdi.

“Bobur g‘azallarida yorning lufu inoyatidan mamnunlik, beqiyos go‘zalligini tomosha qilib lazzatlanish, yor vaslini e‘zozlash tuyg‘ulari alohida o‘rin egallaydi. Garchi bu mazmundagi she‘rlarda ham an‘anaviy shikoyat ohanglari eshitilib tursa-da, lirik qahramon hasratomuz ifodalar emas, balki sevgi va go‘zallikni kuylovchi navolar orqali o‘z yorini ulug‘lab boshiga ko‘taradi”

**Asosiy qism:** Bobur o‘zbek adabiyotining Navoiydan keying buyuk siymosi hisoblanadi. Uning ijodini esa g‘azal janrisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda oshiqona g‘azallar, alohida, ahamiyatga ega . Oshiqona g‘azallarining aksariyati ta‘rif-tavsif tarzidagi g‘azallardir. Ularda ma‘shuqaning qiyossiz go‘zalligi o‘ziga xos badiiy timsollar vositasida tasvirlanadi. Bu borada Boburning yuqorida keltirilgan g‘azali yorqin misol bo‘la oladi. Matlada ma‘shuqaning lab ustidagi mayin tuklari binafshaga, yanog‘i lolaga, zulfi rayhon kabi bir qator xushbo‘y gullarga o‘xshatiladi. Buning isboti tariqasida matlanning ikkinchi misrasida ma‘shuqaning yuzi bahoriy husnda ajoyib guliston deya ko‘rsatiladi. Ikkinchi va uchinchi baytda ham ma‘shuqaning ta‘rifiga bag‘ishlanib, uning yuzi, qaddi, labi, qoshi, ko‘zini ta‘riflashda ajoyib o‘xshatishlar keltiriladi. To‘rtinchi va beshinchi baytda esa oshiq ma‘shuqasiga murojat qilmoqchiligini, ammo imkonsizligini aytganday bo‘ladi. Oltinchi bayt ma‘shuqaning husnini ta‘riflashdagi so‘ng bayt bo‘lib, bu baytda oshiq ma‘shuqasini qay til bilan vasf qilishni bilmay, aqli hayratda ekanligini bildiradi. Maqtada oshiq Boburga murojaat etib ma‘shuqaning jafolaridan hech qanday chora yo‘qligini, ma‘shuqasining unga sultonligini aytadi. Ushbu g‘azalning ajoyib xususiyati shundaki, shoir g‘azalning biror baytida oshiq yoki ma‘shuqa jumlasini keltirmaydi. Uni turli o‘xshatishlar va ta‘riflar orqali o‘quvchiga yetkazadi.

Yuzida ul labi xandon ko‘rinur,  
Sutga ko‘p boqsa, bale, qon ko‘rinur.  
Xatti mushkinmudurur gul yuzida,  
Yo suman ustida rayhon ko‘rinur.

Bu yerda Bobur ma‘shuqasining chehrasini yoritmoqchi bo‘lib labini xandon, labi ustidagi mayin tukchalarni esa mushkka o‘xshatadi.

O‘zbek adabiy tili tarixida esa bu murakkab, ayni paytda jiddiy masala dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur e‘tiborini tortdi. U o‘zbek tilidagi nutq tovushlari bilan yozuv usulidagi nomuttanosiblikni sezib, mavjud alifboni isloh qilishga kirishadi va 1503-1504 yillarini ko‘zda tutib, —Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim!,-deb yozadi. Bobur ixtiro qilgan bu yozuv turkiy xalqlar tillariaga mos alifbo qidiruv yo‘lidagi katta jasorat edi. Bobur yozuvida hech bir harf nuqta bilan yozilmagani, soddaligi va qulayligi bilan iste‘moldagi alifboga nisbatan ancha afzalliklarga ega edi. Bu, birinchidan, Boburning yetuk tilshunos olim sifatida nafaqat so‘ga, balki har bir tovushga jiddiy e‘tibor berib, unga ilmiy nuqtai nazardan yondashganligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, o‘zbek tili imlosining hozirgi ahvoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, masalaning mohiyati yanada chuqurroq ochiladi. Chunki o‘zbek tili imlosi turkiy tillar ichida eng g‘aribi. Tildagi nutq tovushlarini to‘liq ifodalay oimaydi.

**Xulosa:** Umuman, Bobur she‘riyatini o‘zining janr xususiyatlari, mavzu doirasi bilan o‘zbek adabiyotining nodir namunalari qatoridan faxrli o‘rin egallaydi. Ulardagi hayot va insonni qadrlash, go‘zallikdan bahramand bo‘lishga intilish haqida oshiq zamiriga yashiringan lirik qahramon – Boburning shaxsiy qarashlari orqali bilib olamiz. Shuning uchun ham Bobur she‘riyatini ul zot yashab o‘tgan murakkab davrning o‘ziga xos badiiy ko‘zgusi deyish mumkin.

#### REFERENCES

1. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;
2. Azimdjanova S. Indiyский divan Babura. T.: Fan, 1966.
3. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
4. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
5. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
6. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz— asari. -T.:1986;
7. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
8. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma—. — T.:1996;

**QUSHLAR NOMLARI LUG'ATLARDAGI IFODASI ("DEVONU LUG'OTIT TURK"  
HAMDA "AT-TUHFAT" ASARLARI MISOLIDA)**

**Sheraliyev Jamshid**

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

2- bosqich talabasi

**Dilrabo Ergasheva**

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953232>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada qadimgi turkiy til lug'atlaridan o'rin egallagan qushlar nomlarining hozirgi kundagi muqobili va fonetik-fonologik tahlil amalga oshirilgan, hamda umumiy xulosalar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* qushlar nomlari, statistik tahlil metodi, "At - tuhfat", "Devoni lug'otit turk".

**EXPRESSION OF BIRDS' NAMES IN DICTIONARIES (EXAMPLE OF  
"DEVONU LUG'OTIT TURK" AND "AT-TUHFAT" WORKS)**

*Abstract.* In this article, the modern alternative and phonetic-phonological analysis of bird names from the ancient Turkic language dictionaries are made, and general conclusions are presented.

*Key words:* names of birds, method of statistical analysis, "At - tuhfat", "Devoni lugotit turk".

**ВЫРАЖЕНИЕ НАЗВАНИЙ ПТИЦ В СЛОВАРАХ (НА ПРИМЕРЕ  
ПРОИЗВЕДЕНИЙ "ДЕВОНУ ЛУГ'ОТИТ ТУРК" И "АТ-ТУХФАТ")**

*Аннотация.* В данной статье представлены текущий альтернативный и фонетико-фонологический анализ названий птиц, имевших место в древнетюркских языковых словарях, и общие выводы.

*Ключевые слова:* названия птиц, метод статистического анализа, «Ат-тухфат», «Девони луготит турк».

Leksikografiya tilshunoslikning lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi va u bilan aloqador bo'lgan masalalarni o'rganuvchi sohasi "Lug'atchilik" deb ham yuritiladi. Aslida leksikografiya va lug'atchilik tushunchalari farqlanadi. Leksikografiya lug'at tuzish amaliyotini ifodalaydi. Bilamizki qushlar nomlari bir necha asrdirki leksikografik - lingvistik ko'lamida tadqiq etib kelinadi. Bu nomlar har bir lug'atda o'ziga xos turlicha nomlarda ifodalangan. Biz ana shu farqlarni ochish maqsadida o'zbek leksikografiyasining ustun bo'lgan, mashhur lug'atshunos hamda

dialektolog olim qalamiga mansub " Devoni lug'ati turk " ( keyinhi o'rinlarda " MK " ) va huddi shu asrda yozilgan , ammo muallifi no'malum bo'lgan " At - tuhfatuz zakiyat fil lug'otit turkiya " ( keyingi o'rinlarda " At - tuhfat " ) lug'atlaridan so'zliklar qidirdik . Ushbu kichik tadqiqot ishimizda biz statistik , leksik - semantik , etimologik , fonetik - fonologik , qiyoslash - chog'ishtirish metodlaridan foydalandik.

Endi esa asarda keltirilgan qushlar nomlaridan namunalari ko'rib o'tamiz :

#### " Devoni lug'otit turk " lug'ati

1. **Us(yush)**-karsak qushi, burgut (shoir) shunday degan.(29-bet)
2. **Aq(ақ)**-qushoti;uning yog'idan dori sifatida foydalaniladi.(30-bet)
3. **Öpkük (упкук)**-sassiqpopishak (chigilcha).(56-bet)
4. **Úhi (ухи)** – ukki. (78-bet)
5. **Quş (куш)** – qush . jamligni bildiradigan turdosh ot.(136-bet)
6. **Örünquş(ўрункуш)**-oq lochin.(136-bet)
7. **Qaraqush(қаракуш)**-burgut.(136-bet)
8. **Tewäyquş(тэшайкуш)**-tuyaqush.(136-bet)
9. **Yunquş(йункуш)**-tovus.(136-bet)
10. **Ilquş(илкуш)**-ilqush,qirg'iy.(136-bet)

#### "At - tuhfat " lug'ati

1. **Ўтлақаз** (qush) (15-bet)
2. **авуғаз** (bir xil qush) (25-bet)
3. **турунтај** (bir qush) (40-bet)
4. **төвлүгәч** (qush) (47-bet)
5. **тавуқ ва кәклік** (56-bet)
6. **кәркәс ва қартол** –qush turi (61-bet)
7. **туған** (lochin) (62-bet)
8. **шіршік** (chug'urchuq) (65-bet)
9. **қоғу** (oqqush) (67-bet)
10. **тартаз** (yalva deyilgan qush) (68-bet)

Statistik tahlil metodimizga ko'ra "Devoni - lug'otit turk " da 26 dona , "At - tuhfat " da esa 35 dona qushlar nomlari ifodalangan . Ligvistik tahlil metodlarimizga asoslanib qushlar nomlarini leksik - semantik tahlil qildik.



Ushbu lugʻatlarni oʻrganar ekanmiz, lugʻatdagi bir soʻzlikning nomlanishi hamda uning maʼnosi ikkinchi lugʻatda umuman boshqacha nomlanganiga guvoh boʻldik. Ularning baʼzilari keng doirada tahlil qilindi. “Devoni lugʻotit turk” burgut maʼnosida – **Uš** (29 b) soʻzi, “At-tuhfatda esa **кочлун** (222b) soʻzlari ishlatilgan. Lochin soʻzi – “MK” da **Čağri** (69 b) soʻzliklari ishlatilgan boʻlsa, “At-tuhfat”da – **Тыран** (260 b) , **Boyqush**" - Mk " **Ühi** ( 78 b)da , " At - tuhfat" da **Байруш** , **Chumchuq** - " MK " da **Qušgač** ( 181 b) , "At - tuhfat " da **Шірша** , **Chug'urchuq** - " MK " da **Siğirčiq** ( 198 b) , "At - tuhfat " da **шіршик** , **Sassiipopishak** - " MK " da **Öpkuk** ( 56 b) , "At - tuhfat " da **Убук** , **Baliq ovlaydigan qush** - " MK " da **Baliqchin** ( 202 b) , "At - tuhfat " da **Кувулдур** shaklida ishlatilgan .

Koʻrinib turganidek, vaqtlar oʻtishi tilning ham oʻzgarishiga olib keladi. Tildagi oʻzgarishlar esa soʻzliklarda, lugʻatlarda aks etadi. Bundan shunaqa xulosa qilishimiz mumkinki, tilning qanchalik boy ekanligini uning lugʻatlaridan bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun lugʻatchilik sohasiga eʼtibor qaratib, uni rivojlantirishimiz lozim.

#### REFERENCES

1. "Диван лугат ат-турк", Махмуд Кашгарский, перевёл и подготовил к печати Салих Муталлибов, Т.: Уз ССР "Фан", 1960;
2. "At-tuhfat uz-zakiyatu fil lugʻotit turkiya" ("Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa"), Т.: Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1968;
3. "Oʻzbitilining etimologik lugʻati (turkiy soʻzlar)", I tom, Shavkat Rahmatullayev, Т.: "Universitet", 2000;
4. "Leksikografiya asoslari", oʻquv qoʻllanma, Sultonbek Normamatov, Т.: 2020.
5. Khidirova, I. (2023). PEYORATIVE, DEGORATIVE VOCABULARY IN FAMILY SPEECH (EXAMPLE OF THE KHIDIROV AND SHAYMATOV FAMILIES). *Modern Science and Research*, 2(3).
6. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender
7. Characteristics of Family Speech Speech (On The Example of the Uzbek Family). *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 1(2), 196-199.
8. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQUISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 188-189.

9. Jo'rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG'LAYDI" ASARIDA QO'LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(2), 4

## В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ КУЛЬТУРЕ РЕЧИ

Минглиева Лола Равшановна

Рискидинова Наргиза Абубакировна

Ташкентская область, город Чирчик СОШ N 8 учитель начальных классов

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953556>

**Аннотация.** Данная статья затрагивает проблемы повышения речевой культуры учащихся. Известно, что одним из показателей уровня культуры, мышления, интеллекта человека является его речь, которая должна соответствовать языковым нормам. Именно в начальной школе дети начинают овладевать нормами устного и письменного литературного языка, учатся использовать языковые средства в разных условиях общения в соответствии с целями и задачами речи.

**Ключевые слова:** речь, речевая деятельность, начальное образование, культура речи.

### IN THE PRIMARY GRADES, THE PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING THE CULTURE OF SPEECH

**Abstract.** This article touches upon the problems of improving the speech culture of students. It is known that one of the indicators of the level of culture, thinking, intellect of a person is his speech, which must comply with linguistic norms. It is in elementary school that children begin to master the norms of oral and written literary language, learn to use language tools in different communication conditions in accordance with the goals and objectives of speech.

**Key words:** speech, speech activity, primary education, culture of speech.

Одним из важнейших показателей уровня культуры мышления, интеллекта человека является его речь. Возникнув впервые в раннем детстве в виде отдельных слов, не имеющих ещё чёткого грамматического оформления, речь постепенно обогащается и усложняется. Ребёнок овладевает фонетическим строем и лексикой, практически усваивает закономерности изменения слов (склонение, спряжение и пр.) и их сочетания, логику и композицию высказываний, овладевает диалогом и монологом, различными жанрами и стилями, развивается меткость и выразительность его речи. Всем этим богатством ребёнок овладевает не пассивно, а активно - в процессе своей речевой практики.

Хорошо развитая речь служит одним из важнейших средств активной деятельности человека в современном обществе, а для школьника — залогом успешного обучения в школе. Современная программа предъявляет высокие требования к речевому развитию школьников.

Первое требование — это содержательность. Содержание для бесед, для рассказов, письменных сочинений дают книги, картины, экскурсии, походы, специальные наблюдения, собственные размышления, переживания — вся окружающая ребенка жизнь. Учитель помогает младшим школьникам подготовить накопленный материал, отобрать его в соответствии с ясно выраженной темой.

Вторым требованием к речи является логика речи: последовательность, обоснованность изложения, отсутствие пропусков и повторений, отсутствие

чего-либо лишнего, не относящегося к теме, наличие выводов, вытекающих из содержания. Логически правильная речь предполагает обоснованность выводов, умение не только начать, но и завершить высказывание.

Третье требование - точность речи - предполагает умение говорящего или пишущего не просто передать факты, наблюдения, чувства в соответствии с действительностью, но и выбрать для этой цели наилучшие языковые средства -такие слова, словосочетания, фразеологические единицы, предложения, которые передают все признаки, присущие изображаемому.

Развитие речи в младших классах осуществляется в первую очередь на уроках родного языка. Овладение речью идет одновременно в нескольких направлениях: по линии развития звуко-ритмической, интонационной стороны речи, по линии овладения грамматическим строем, по линии развития лексики, по линии все большего и большего осознания учащимися собственной речевой деятельности.

При такой организации обучения в центре оказывается самая важная функция языка — коммуникативная. Раскрыть коммуникативную функцию языка для ребенка значит научить его планировать, высказывать свои замыслы языковыми средствами, предвидеть возможные реакции участника общения, контролировать свою речевую деятельность.

Конечно, в начальной школе ребенок только осваивает письменную речь как средство коммуникации и самовыражения, ему еще трудно соотносить контроль за написанием букв, слов и выражением своих мыслей. Однако ему представляется возможность сочинять.

Это самостоятельная творческая работа, которая требует готовности понять заданную тему; определить ее содержание; накапливать ее содержание; накапливать, подбирать материал, выделять главное; излагать материал в необходимой последовательности; составлять план и придерживаться его, отбирать нужные слова, антонимы, синонимы и фразеологизмы.

В развитии речи нужна долгая кропотливая работа учащихся и учителя. Временные неудачи срывы не должны пугать. Систематическая работа по развитию речи обязательно даст плоды. Речевые умения и навыки развиваются по законам геометрической прогрессии: малый успех приводит к большему -речь совершенствуется и обогащается.

#### REFERENCES

1. Мирзиеев Ш.М. «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук Республики Узбекистан» №263-1 2016.12.29.
2. Каримов И.А. «Идея национальной независимости: основы понятия и принципы». – Ташкент: Узбекистон, 2006.
3. Богуславская Н.Е., Капинос В.И, Купалова А.Ю. Методика развития речи на уроках русского языка. – М.: Просвещение, 1991.
4. Бойко А.И. Краткий курс логики. М.: Издательский центр, 1995.
5. З.Данилова Н.Н. Физиология высшей нервной деятельности. Серия «Учебники и учебные пособия». – Ростов н/Д: «Феникс», 2001.

6. И.В. Дубровина, Е.Е. Данилова; под ред. И.В. Дубровиной. Психокоррекционная и развивающая работа с детьми: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений– 2-е изд., стереотип. – М.: Академия, 1999

## HOZIRGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA DINNING O'RNI

**Sattorov Turdiali Safarovich**

Termiz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) 2- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953580>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada hozirgi O'zbekiston sharoitida shaxsni shakllantirishda ma'naviyat va dinning o'rni masalalari yoritib berilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* ma'naviyat va dinning o'rni, shaxsni shakllantirish, farzand tarbiyasi.

## THE ROLE OF SPIRITUALITY AND RELIGION IN THE FORMATION OF PERSONALITY IN THE CURRENT CONDITIONS OF UZBEKISTAN

*Abstract.* This article sheds light on the role of spirituality and religion in the formation of personality in the current conditions of Uzbekistan. Reasonable opinions and comments are presented throughout the article.

*Key words:* the role of spirituality and religion, personality formation, child education.

## РОЛЬ ДУХОВНОСТИ И РЕЛИГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

*Аннотация.* Данная статья проливает свет на роль духовности и религии в формировании личности в современных условиях Узбекистана. Обоснованные мнения и комментарии представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* роль духовности и религии, формирование личности, воспитание детей.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostgo'ylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Qur'oni karim va hadislarda har bir inson uchun zarur bo'lgan hayotidan ma'mun bo'lib yashash-shukronalik va sabrli bo'lish masalalariga ham alohida ahamiyat berilgan. Shukronalik va sabr ham inson ma'naviyatining muhim jihatlardan biridir. Ularning mazmun-mohiyatini bilib olish har birimiz uchun zarur. Qur'oni karimda Alloh bu dunyoda insoniyatni behisob ne'matlar bilan rizqlantirgani, uning sanog'iga yetib bo'lmasligi haqida shunday bayon qilingan: "Sizlarga barcha so'ragan narsalaringizdan ato etdi. Agar Allohning bergan ne'matini sanasangizlar, sanog'iga yetolmaysiz. Haqiqatan, inson o'ta zolim va juda noshukrdir". Yuqorida sanab o'tganlarimiz moddiy ne'matlar jumlasiga kiradi. Ma'naviy ne'matlar esa imon, aql, hurriyat, tinchlik kabi ko'zga bevosita ko'rinmaydigan, ammo qalb ko'zi bilan ilg'ab olinadigan moddiy ne'matlarga qaraganda inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'naviy qadriyatlardan iboratdir.

Inson tanasi uchun jon qanchalik muhim bo'lsa, uning ma'naviyati, ruhiyatining teranligi uchun ilm shunchalik ahamiyatli sanaladi. Inson ilm egallash yo'lidan yursa yuksaladi, aks holda tubanlikka, johillikka yuz tutadi. Bu foni dunyoda ilmdan bebahra qalblar jonsiz jasadga o'xshaydi. Alloh bu olamni cheksiz ilmu hikmat bilan yaratgan. Inson aql va tafakkur vositasida



bu ilmlardan xabardor bo'ladi, moddiy va ma'naviy hayotda yuksaklikka ko'tariladi. Ilm inson tafakkuriga nur baxsh etadi. U shu nur orqali haqiqatni topadi. Ilm insonni doimo yuksak martabaga erishtiradi. Mana shuning uchun ham islom manbalari Qur'oni karim va hadislarida ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Hadisda beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qur'oni karimda: "Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur" deyilishi negizida ilmi zotlar va unga intilganlar jamiyatda yuksak mavqe va hurmatga sazovor bo'lishlariga ishoradir.

Qur'oni karimda "ilm" so'zi asosida "Alima" bilmoq fe'l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo'lgan oyat ham "O'qi..." "O'qi..." so'zidan boshlanadi. Ushbu oyat shunday: "O'qi! Sening o'ta karamli Parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Qur'oni karim ham ilm, ham hayot kitobidir. Ilm yo'lini tutgan inson eng sharafligi yo'lni tanlagan bo'ladi.

Payg'ambarimizning "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir" degan hadislarini negizida islomning ilmga bo'lgan yuksak e'tiboridan dalolat beradi. Yana bir hadisda: "Insonlar yo o'rgatuvchi yoki o'rganuvchilarga bo'linadi. Bundan boshqalari esa arzimadir, deb ta'kidlansa, boshqa bir hadisda: "Insonlar o'likdir, faqat ilm ahligina tirikdir", deb bu dunyoda faqat ilm sohiblarigina haqiqatga intilganliklari tufayli tirik ekanliklari aytiladi.

Haqiqatan, hoh dunyoviy, hoh diniy ilm yo'lida zahmat chekkanlar jisman yo'q bo'lsalar ham ular ma'nadan tirikdirlar. Bunga Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Nasr Forobiy, Imom Marg'inoniy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Beruniy, Imom Zamahshariy va Ahmad Farg'oniy, Hoja Ahror Valiy va Ulug'bek va boshqalar yaqqol misol bo'ladilar. Bu buyuk zotlar yaratgan asarlar insonlarning hayot yo'lini asrlar osha nurafshon etib kelmoqda. Ular meros qilib qoldirgan asarlarni o'qib-o'rganib kishilar ma'nadan oziqlanib har on va har lahzada ularni eslab turadilar. Ularga bo'lgan muhabbat insonlar qalbida abadiy yashab kelmoqda.

Har ikki ilmni egallagan kishi esa ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad Payg'ambarimiz alayhissalomgacha bo'lgan davr arablarda "johiliya" davri deb ataladi. "Johiliya" nodonlik, bilimsizlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi.

Islomda ma'rifatga bo'lgan munosabatni quyidagi hadislarini keltirish bilan cheklanishni lozim topdik:

"Ilm olish yo'lida sarflangan bir soat yuzaki ibodat bilan o'tkazilgan bir kechadan ko'ra hayrliroqdir".

"Ilm yo'lida sarflangan bir kun uch oy ro'za tutishdan afzalroqdir". Bu hadislarida ilm yo'lida sarflangan vaqt eng qadrli ekanligi ta'kidlanmoqda.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Ilm o'rgatgan kishiga ta'zimda bo'lish va izzat-ikrom ko'rsating", deb ilm yo'lida harakat qilganlarni qadrlash kerakligini uqtiradilar. Xalqimiz bejiz "Ustoz otang kabi ulug'dir" deb aytmagan.

"Olimning uyqusi ham johilning ibodatidan afzaldir", chunki uning uyqusi ham ibodatning bir turi sanaladi, sababi olim ilmini davom ettirish uchun charchoqlardan forig' bo'lish maqsadida uxlaydi.

“Sadaqaning eng hayrlisi o‘zgaga ilm o‘rgatmoqlikdir”, “Dindoshiga ilm o‘rgatish yil bo‘yi o‘qilgan nafl namozidan ko‘ra afzalroqdir” kabi hadislarda inson ilmni olimlardan o‘rganishi va o‘zi ham bilganini boshqalarga o‘rgatishi lozimligi ta’kidlangan.

“Ilm o‘rganing, ilm o‘rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo‘lini yoritadi. Ilm insonga cho‘lda yo‘ldosh, yolg‘izlikda hamroh, kimsasizlikda jondosh do‘st bo‘ladi”, “Ilm insonlarni saodatga eltadi, falokatdan qutqaradi, do‘stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo‘ladi”.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Islom ilm-ma‘rifat dini va ayni paytda barcha insonlarni dunyo sir-asrorlarini bilishga, ya‘niki egallashga va yuksak ma‘naviylikka chorlovchi din ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Bizning ulug‘ bobolarimiz islom ma‘naviyati va ma‘rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kalom va hadis, tasavvuf va fikh ta‘limotini rivojlantirdilar.

Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot Islom konferensiyasi tashkilotining ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e‘lon qilingani ham ana shunday e‘tirofning tasdig‘idir.

Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturudiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog‘ladi. Moturudiy islom olamida “Musulmonlarning e‘tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘ldi. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar islom dinining asosini to‘g‘rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan barcha mo‘min – musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang bo‘lganligi bilan ahamiyatlidir.

“Dunyoviy va diniy g‘oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko‘tariladi.. Bunga bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturudiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G‘azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko‘rsatgan davrlar yorqin misol bo‘la oladi”.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta‘limoti, Termiziy o‘g‘itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo‘ldik.

Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo‘nalishidir. Tahorat, g‘usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo‘lsa, haromdan, yolg‘on so‘z, g‘iybat, tuhmat, zinokorlik, o‘zga haqqiga hiyonat, nohaqlik va zulmga yo‘l qo‘ymaslik, ulardan qat‘iy saqlanish ichki, ma‘naviy poklikka oid talablardir. Bularning hammasi Qur‘oni karim hamda Rasululloh (s.a.v.) hadislarida va ularga asoslangan shariatda juda qat‘iy qilib qo‘yilgan.

Xullas, islom barcha mo‘minlarni yuksak ma‘naviylikka chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab yetishimiz zarur. Shundagina dindan ma‘naviy va ma‘rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to‘g‘ri yondoshamiz.

Muqaddas dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, avvalambor, uning asl mohiyatini, ya‘ni islom dini tinchlik, ma‘rifat, yuksak ahloq-odob ifodachisi ekanini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish orqali ular ongida sog‘lom mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

Yurtimizda keyingi vaqtlarda ro‘y berayotgan ayrim salbiy hodisalar, nojo‘ya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘lmoqda. Har bir fuqaro shuni anglab yetishi kerakki, O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o‘ziga xos va mos yo‘li bo‘lgani kabi madaniy-ma‘naviy rivojlanishida ham o‘z yo‘li bor. Bu o‘ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma‘naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Uning mohiyati mo‘tadil dindorlik, islom ma‘rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Allohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu urfon bilan kamolot sari borish, o‘z ma‘naviy merosimiz qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam bo‘lgan holda olg‘a borish.

Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo‘lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik lozim.

#### **REFERENCES**

1. Авесто.-Санъат №3, 11, 1993.
2. Куръони Карим Т., Чўлпон, 1992.
3. Ал-Бухорий. Ҳадис. 1-4 китоблар. Т., 1993-1998 йиллар
4. Комилов Н. Тасаввуф. Т., 1997.
5. Хўжа Аҳмад Яссавий. Хикматлар. Т., 1991.
6. Мансур Олим ўғли. Ислom дини мустамлакачилари. Т.: Мулоқот, 1994, 1-2 сон.

“МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШДАН МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ САРИ” ҒОЯСИНИ  
АМАЛИЁТГА ТАДБИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Хуррамова Гулмира Ахмат қизи

Термиз давлат педагогика институти итжимой - гуманитар фанларни ўқитиш методикаси  
(Маънавият асослари) 2-босқич магистранти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953607>

**Аннотация.** Мазкур мақолада "миллий тикланишдан миллий юксалиш сари" ғоясини амалиётга тадбиқ этишнинг долзарб масалалари ҳақида сўз боради. Мақола давомидида асосли фикр ва мулоҳазалар ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** миллий тикланишдан миллий юксалиш сари, ягона мақсад ва орзу-интилиш, миллий ғоямизнинг маъно-мазмуни.

ACTUAL ISSUES OF IMPLEMENTATION OF THE IDEA "FROM NATIONAL  
REVIVAL TO NATIONAL RISE" IN PRACTICE

**Abstract.** This article talks about the actual issues of implementing the idea of "from national revival to national rise".

**Key words:** from national revival to national rise, a single goal and aspiration, the meaning of our national idea.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕИ «ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО  
ВОЗРОЖДЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНОМУ ПОДЪЕМУ» НА ПРАКТИКЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится об актуальных вопросах реализации идеи «от национального подъема к национальному росту».

**Ключевые слова:** от национального возрождения к национальному подъему, единая цель и стремление, смысл нашей национальной идеи.

Тарихдан маълумки, ўзининг миллий давлатини қурмоқчи бўлган халқ ўзининг ягона мақсад ва орзу-интилишлари ифодаси бўлган миллий ғояга суянади.

Миллий ғоя ҳар бир инсоннинг қалбидан чуқур жой олиб, унинг маънавий эҳтиёжига айланган, миллатнинг эзгу орзу-интилиш ва умид-мақсадларини ифода қилади.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ миллий ғоямизнинг асосий тушунча ва тамойилларини белгилаб олдик. Мустақилликни асраш, мутаҳкамлаш миллий ғоямизнинг маъно-мазмунини белгилайди.

Миллий ғоя одамларнинг олижаноб ниятларини, ҳаётини манфаатларини мужассам этадиган юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги каби юксак тушунчаларни ўз ичига олади.

Барқарор тараққиёт ва фаровон ҳаётга эришишнинг асосий гарови-бу тинчлик ва осойишталикдир. Фотиҳага қўл очганда барчамиз Яратгандан тинчлик ва осойишталикни сўраймиз. Инсонларнинг муқаддас ҳуқуқларидан бири-бу тинч яшаш ҳуқуқидир. Давлат ва жамиятнинг бурчи ана шу ҳуқуқни қонуний воситалар билан қафолатлаб беришдан иборат.

Миллий ғоямизнинг асосий тамойилларидан бири Ватан равнақидир. Ватан равнақи унинг фарзандларининг маънавий ва жисмоний камолотига боғлиқ. Ҳар қайси фуқаро ўз мамлакатининг тараққий тошган ва бадавлат бўлиб яшашидан манфаатдор бўлади. Шунинг учун Ватан равнақи ва халқ фаровонлиги масаласи бир-бири билан чамбарчас боғлиқ.

Шундан келиб чиқиб халқ фаровонлиги тушунчаси миллий ғоямизнинг асосий негизларидан биридир. Чунки ҳар бир одам тўқ ва бадавлат ҳайт кечириш, юртга муносиб фарзанд тарбиялаш, уларга билим бериш, бахтини кўриш орзуси билан яшайди.

Юртимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотларнинг пировард мақсади-халқимизнинг асл орзуларини рўёбга чиқариш, халқимизга муносиб турмуш шароити яратишдан иборат.

Шу юксак тушунчалар билан бирга миллий ғоямизнинг узвий таркибий қисмларини таркибий қисмларини ташкил қиладиган комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик каби тамойилларнинг маъно-моҳиятини мамлакатимизда олиб борилаётган маънавий-маърифий, таълим-тарбия ишларининг марказига қўйиш зарур.

Бизнинг энг улуғ мақсадимиз, энг улуғ ғоямиз шуки, мустақилликни мустаҳкамлаш, мамлакатимизни ҳар томонлама юксалтириб, ёруғ ва эркин ҳаёт сари олға юриш.

Ҳаётимизнинг барча соҳаларида амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотларнинг самарадорлиги халқ маънавиятининг тикланиши, бой тарихимизнинг чуқур ўрганиш, анъана ва урф-одатларимизнинг сақланиши, маданият, санъат, фан ва таълим ривожланиши, жамият тафаккурининг ўзгариши ва юксалиши билан узвий боғлиқдир. Айни замонда шахсий манфаатларини мамлакат ва халқ манфаатлари билан уйғун кўрадиган, ҳар томонлама баркамол инсонларни тарбиялаш вазифаси ҳал қилувчи масалага айланди.

Маълумки, халқ ва миллатнинг руҳи, дунёқараши ва турмуш тарзини ифода этадиган миллий маънавиятга муносабат, уни замон талаблари асосида ривожлантириш, одамларнинг дунёқараши ва тафаккурини ўзгартириш масаласи пухта ўйлаб иш қилишни талаб қилади.

Аввало миллий кадриятлар нима эканини билиб олишимиз зарур. Тарих синовидан ўтган, бугунги ва эртанги орзу-интилишлар, тараққиёт талабларига жавоб берадиган ғоя ва тушунчаларни кадрият деб атаймиз.

Миллий кадриятнинг ўзига хос ривожланиш қонуни бор. Миллий кадриятни бир ёқлама, сунъий улуғлаш ва идеаллаштиришга уруниш, улардан сиёсий мақсадларда фойдаланиш салбий оқибатларга олиб келади. Айниқса Ўзбекистон каби кўп миллатли, кўпконфессияли мамлакатда бундай ҳаракатлар миллатлараро зиддият, миллатчилик, миллий ва диний бегоҳлик каби нохуш ҳолатларга олиб келиши мумкин.

Бугунги бизнинг бу борадаги йўлимиз ва сиёсатимиз эса ўзининг ижобий самарасини бермоқда.

Ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади. Жами эзгу фазилатлар инсон қалбига она алласи, она тилининг бетакрор жозибаси билан сингади. Она тили – миллат руҳидир.

А.Авлоний айтганидек: “Ҳар бир миллатнинг дунёда борлигини кўрсатадиган ойинаи ҳаёти тил ва адабиётдур. Миллий тилни йўқотмак миллатнинг руҳини йўқотмакдир.”.

Мустақиллик арафасида ўзбек тилига давлат тили мақомини бериш масаласи муросасиз баҳслар асосида бўлди. 1989 йил 21 октябрда давлат тили ҳақида қонун қабул қилинди.

А.Навоийнинг “Тилга эътиборсиз-элга эътиборсиз” сўзи ҳаётий ҳақиқатдир.

Инсон ўзлигини англагани, насл-насабини чуқурроқ билгани сари юрагида Ватанга муҳаббат туйғуси илдиз отиб боради. Томирида миллий ғурур, Ватан ишқи жўш урган одамгина буюк ишларга қодир бўлади. Юртимизда яшаётган инсон ўзини аввало Ўзбекистон фуқароси деб, сўнгра бирор вилоят вакили, айтайлик, хоразмлик, самарқандлик ёки фарғоналик деб ҳисоблаши мумкин. Бу ўзимиз туғилиб ўсган шаҳар ёки қишлоқнинг қадрини туширмайди. “Маҳаллий ватанпарварлик”нинг бўрттириб юборилиши, халқнинг жинслашувига ҳалақит беради. Дунёда ягона ўзбек миллати бор, хоразмлик, сурхондарёлик, фарғоналик, ўртасида ҳес қандай миллий фарқ йўқ, улар ўзбек халқинг фарзандлари.

Совет даврида кўча ва жойларнинг номи ҳам миллийликдан узоқ эди. Лекин, Маркс, Элгелъе, Луначарский, Киров, Ворошиков, Лопатин, Ц-1, Ц-2, Ц-15.

Илгари эса жой номлари миллий номлар билан аталарди. Тошкент дарвозалари: Самарқанд, Бешёғоч, Кўкча, Чигатой, Сағбон, Лабзак, Тахтапул, Қорасарой, Камолон, Қўймас, Қўқон, Қашқар. Тошкентдаги маҳалла номлари: Пичоқчилик, Чархчилик, Кўнчилик, Дегрезчилик, Тақачи, Ўқчи, Заргарлик.

Биз демократик, дунёвий давлат барпо этмоқдамиз. Унутмаслик керакки, дунёвийлик-дахрийлик эмас. Дин ва диний эътиқодни рад этиладиган мафқуранинг хатарли томони шундаки, у миллий қадриятлар-бу ёзма ёки оғзаки, моддий ёки маънавий мерос бўладими барчасини рад этади.

Совет даврида 80-йиллар охирларида жаноза намозларига бориш, кўнгил сўрашдан ҳам ҳайкиб қолганди. Баъзи масъул одамлар ота-онаси жанозасида ҳам қатнашмаган. Лекин халқимиз муқаддас динига содиқ қолди.

Ҳозирги кунда ҳар бир миллат умумбашарий тарққиёт ютуқларидан чуқур баҳраманд бўлиши зарур. М.Бехбудий: “Дунёда турмоқ учун дунёвий фан ва илм лозимдур, замона илми ва фанидан бебаҳра миллат бошқаларга поймол бўлур”.

Ҳозирги вақтда илм-фан ва технологияларни ўзлаштирмасак, олис аждодларимиз кашфиётлари билан мақтаниб, уларга маҳлиё бўлиб яшайдиган бўлсак, шу меросни янада бойитиб, замон билан ҳамқадам бўлмасак жаҳон майдонида ўз ўрнимизни эгаллай олмаймиз.

Ҳадис: “Бу дунёни деб у дунёни, охиратни деб бу дунёни унутманг” сўзларини эсан чикармаслигимиз зарур. Ислом дини бизни маърифатга етаклайди.

Шунинг учун ислом дини арқонлари ва қадриятларини доимо улуғлаб, шу билан бирга дунёвий ҳаётга ҳам қатъий ишонч билан яшашимиз зарур.

Халқимиз маънавиятини юксалтиришда миллий урф-одатларимиз ва улар замиридаги мужассам бўлган меҳр-оқибат, инсонни улуғлаш, тинч ва осойишта ҳаёт, дўст ва тотувлик каби қадриятларнинг роли ортиб бормоқда.

Маънавий ҳаётимизнинг узвий қисмига айланган ҳашар. Наврўз ва мустақиллик байрамлари арафисида умумхалқ ҳашари ҳар йили ўтказилади. Кам таъминланган, муҳтож оилалар, ёлғиз ва қаровисиз кексаларга амалий ёрдам кўрсатиш жамият тафаккурининг янгилинишига кучли таъсир этмоқда.

Халқ ва миллат маънавий дунёсини юксалишда тарихий хотира алоҳида аҳамият касб этади. Халқ тарихи чинаккам, холис ва ҳаққоний ўрганилганда ҳақиқий тарих бўлади. 1937-1953 йилларда собиқ СССР ҳудудида амалга оширилган қатағонларда Ўзбекистондан



100 минг киши қатағон қилиниб, уларнинг 13 минги отиб ташланди, инсоний кадр-қиммат топталди.

Халқимизга дахлдор бўлган тарихий адолатни тиклаш, тарихнинг яқин ўмишдаги ёпиқ саҳифаларини очиш шу тарихдан сабоқ чиқариб, бегуноҳ қурбон бўлганлар хотирасини абадийлаштириш биз учун фарз ва қарзидир.

31-август Қатағон қурбонларини ёд этиш куни 2001 йил белгиланди. 9 май Ғалаба куни эди. Энди эса Хотира ва кадрлаш куни деб номланди. Тошкентда Хотира майдони очилди, Мотамсаро она ҳайкали ўрнатилди II жаҳон урушида ҳалок бўлганларга бағишлаб 35 жилддан иборат “Хотира” китоби чоп этилди.

Мухтасар қилиб айтганда, бугун одамларимизнинг онгу тафаккури, Ватан тақдирига, воқеа ва ҳодисаларга муносабати ана шундай янгилашлар туфайли тубдан ўзгармоқда. Юртимизда юксак маънавий фазилатлар, демократик кадриятлар мустаҳкамланмоқда, аҳолининг амалга оширилаётган кенг кўламли янгилашларга дахлдорлик ҳисси, келажакка ишончи ортиб бормоқда.

Жамият ҳаётида ўз умрини яшаб бўлган эски тузум қонун-қоидаларини янги асосда ўзгартириш, кенг кўламли ислохотларни амалга ошириш муҳим эҳтиёжга айланиб қолади. Шўро давридан оғир мерос бўлиб қолган маъмурий-буйруқбозлик тизимини тубдан ислоҳ қилиш, унинг ўрнига моҳият эътибори билан бутунлай янги-эркин бозор муносабатларига ҳуқуқий давлат, демократик жамият барпо этишга қарор қилдик. Бу борада ривожланган давлатлар тажрибаси ўрганилди. Аҳолининг ҳаёт тарзи ва руҳияти ҳисобга олинди. Аҳоли ўртасида ислохотлар юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилди.

Натижада тараққиётнинг ўзбек модели сифатида тан олинган тараққиёт моделини ишлаб чиқдик. Бу моделнинг асосий тамойиллари 5 та эди.

Дастлабки йилларда давлатимиз фақат ўз куч ва имкониятларимизга таяниб ва суяниб иш тутишга мажбур бўлди. Бизга кимлар қарз беради? Улар қандай сиёсий шартлар қўяди? Қарз олиш осон, лекин вақти келганда тўлаш керак.

Бугун эса бизнинг ўтказган ислохотларимизда маънавий мезонлар ҳал қилувчи омил бўлгани кўриниб турибди.

Халқнинг бугунги ва эртанги куни, маънавий оламига зарар етказмаслик, ижтимоий адолатни бузмаслик, аҳолининг бир қисми ўта бойиб, аксарияти ўта қашшоқлашиб кетишига йўл қўймаслик масаласи доим давлат диққат марказида турди.

Юртимиздаги барча ўзгариш ва янгилашларнинг марказига инсон ва унинг манфаатларини қўйдик. Ислохот-ислохот учун эмас, аввало инсон учун, унинг фаровон ҳаёти учун хизмат қилиши керак деган мақсад ислохотларнинг моҳиятида бўлди.

Агар биз “шок терапияси” деб ном олган инқилобий йўлни танласак, одамларнинг моддий турмуш шароити кескин ёмонлашиб, уларнинг ҳаёт тарзи, ахлоқий кадриятлари, миллий-маънавий қиёфаси издан чиқиб кетиши мумкин эди.

Шунинг учун биз инқилобий сакрашлар йўлидан бормадик. Бугунги тинч ва осойишта, бунёдкор ҳаёт, барқарор тараққиёт бундай ёндашувнинг тўғри бўлганини тасдиқламоқда.

Ислохотлар давомида биз фақат моддий фаровонликка эришиш эмас, балки маънавий юксалишга ҳам эришишни ўзимиз учун асосий мезон деб билдик. Чунки бозор иқтисодиёти ҳамма нарсани жойига қўяди деган енгил фикр, фақат моддий бойлик ортидан

қувиш бизнинг миллий қадриятларимизга тўғри келмайди. Маънавият ва иқтисодиёт бир-бирини инкор этмайди, аксинча, бир-бирини қувватлаб, ўзаро таъсирланиб, ривожланиб боради деган қонидани ўзимиз учун дастуриамал қилиб олдик. Шу билан бирга, халқимизнинг руҳияти, турмуш тарзи, қадимий урф-одат ва анъаналаримизга мос бўлган ислохотлар йўлини танладик.

Мустабид тузум даврида иқтисодиёт бир ёқлама ривожланган маъмурий-буйруқбозлик усулига асосланган бўлиб, халқнинг маънавий қарашлари ва интилишларидан йироқ эди.

Ислохотларнинг дастлабки босқичидан бошлаб ҳозирга қадар сиёсий, ижтимоий-иқтисодий дастур ва режаларимизнинг барчасида халқимизнинг маънавий ҳаёти билан боғлиқ масалалар алоҳида устувор йўналиш сифатида белгиланган. Шу билан бирга одамлар онгида ўтиш даврида туб ўзгаришлар содир бўлади. Баъзи бировларнинг ҳадиксираб, эркин бозор шароитида маънавий ахлоқий қадриятларнинг қиммати тушиб кетади, маданият 2 чи даражали нарсага айланиб қолди, деган хавотирлари ўринсиз экани Ўзбекистондаги бугунги ўзгаришлар мисолида яққол аён бўлмоқда. Ҳозирги кунда мамлакатимизда давлат бюджетининг 59 фоиздан зиёди ижтимоий соҳага йўналтириганлиги буни тасдиқлайди.

#### **REFERENCES**

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: "O'zbekiston", 2001.
2. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim bakalavriyat bosqichi uchun darslik. T.: "Akademiya", 2005.
3. Milliy g'oya – bizning g'oya. T., 2001.
4. Milliy stiqlol g'oyasi va mafkurasi; falsafiy va huquqiy jihatlar. T., 2001.
5. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. T.: "Akademiya", 2007.

## FUQOROLIK TUSHUNCHASI VA FUQAROLIKKA EGA BO'LISH TARTIBI

Beknazarov Jaloliddin Olimjon o'g'li

O'z Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 309-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953630>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada fuqorolik tushunchasi va fuqarolikka ega bo'lish tartibi hamda masalalari haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar berib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* fuqorolik tushunchasi, fuqarolikka ega bo'lish tartibi, huquqiy holat.

### THE CONCEPT OF CITIZENSHIP AND THE PROCEDURE FOR OBTAINING CITIZENSHIP

*Abstract.* This article talks about the concept of citizenship and the procedure and issues of acquiring citizenship. Reasonable opinions and comments are given throughout the article.

*Key words:* the concept of citizenship, the procedure for acquiring citizenship, legal status.

### ПОНЯТИЕ ГРАЖДАНСТВА И ПОРЯДОК ПОЛУЧЕНИЯ ГРАЖДАНСТВА

*Аннотация.* В данной статье говорится о понятии гражданства, а также о порядке и вопросах приобретения гражданства. Обоснованные мнения и комментарии даны на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* понятие гражданства, порядок приобретения гражданства, правовой статус.

Shaxsning huquqiy holatini aniqlashda fuqarolik muhim omil ekanligi e'tirof etilgan qoida. Har qanday mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda yashovchi aholining asosiy qismi O'zbekiston fuqarolaridan iborat bo'lib, aholining ma'lum qismi O'zbekiston fuqarosi bo'lmashligi mumkin. Ular O'zbekistonda turli sabablar bilan yashayotgan, ishlayotgan, o'qiyotgan, safarga kelgan, xorijiy mamlakatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin. Shaxs ma'lum davlatga mansub bo'lsagina u fuqaro hisoblanadi. Bu tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi. Fuqarolik - Konstitutsiyaviy institut. Uning asoslari Konstitutsiyada belgilangan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi, ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi» (Konstitutsiyaning 21-moddasi). Shu moddada fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi, deb ko'rsatilgan. Fuqarolik masalasi 2020-yilgacha 1992-yil 2-iyuldagi qonun bilan tartibga solingan. Bu qonun eskirib qolgani uchun O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «...fuqarolik masalasiga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlash borasida navbatdagi muhim qadam qo'yish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda», deb qayd qildi va 2020-yil 13-martda «O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Qonunning 4-moddasida fuqarolikning huquqiy tushunchasi berilgan bo'lib, unga asosan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiyhuquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqalar ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. Demak, fuqarolik shaxsning davlatga huquqiy mansubligi va uning natijasida fuqaro - shaxs bilan davlat o'rtasida ma'lum munosabat, o'zaro huquq va burchlar vujudga keladi. O'zbekistonda yakka fuqarolik o'rnatilgan, yakka fuqarolikning siyosiy ahamiyati ham katta. Fuqarolik shaxs bilan davlat o'rtasida siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Fuqarolik natijasida shaxs ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'libgina qolmay, ma'lum burchlarga ham ega bo'ladi. Natijada, shaxsning

davlat oldidagi mas'uliyati oshadi. Ma'lum mamlakatlarda yashovchi hamma kishilar, albatta, fuqaro deb qaralmasligi kerak, mamlakatda yashovchilar aholi bo'lishi mumkin. Aholi tarkibiga fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el fuqarolari ham kiradi. Ularning huquqiy holatida sezilarli tafovutlar mavjud. Shaxsning ma'lum davlatda yashashining o'zigina uni fuqaro deb hisoblashga asos bo'lmaydi, shaxs fuqaro bo'lishi uchun shaxs bilan davlat o'rtasida alohida munosabatlar mavjud bo'lishi kerak. Fuqarolik davlat bilan shaxs munosabatlarining alohida tartibda amalga oshishini ta'minlaydi. Umumiy asosda davlat qonun yo'li bilan kim shu davlatning fuqarosi hisoblanishini, fuqarolikka ega bo'lish, uni yo'qotish asoslari va tartibini belgilab qo'yadi. Har bir shaxsning fuqaroligi alohida hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekistonda bunday hujjat shaxslarning pasportidir. Fuqarolik shaxs bilan davlatning barqaror munosabatlarini vujudga keltiradi. Fuqaro va davlat munosabatlarini belgilashda xalqaro huquq normalari ham e'tirof etiladi. O'zbekistonda fuqarolikni quyidagicha xarakterlash mumkin. O'zbekistonda yakka fuqarolik e'tirof etilgan. Konstitutsiya va qonunda bu mustahkamlangan. O'zbekiston fuqarolari O'zbekiston fuqaroligidan chiqmasdan turib, boshqa mamlakatlarning fuqaroligini qabul qilishi mumkin emas va aksincha. O'zbekistonda fuqarolik tenglikka asoslangan, ya'ni fuqarolikka ega bo'lish qanday asoslarda bo'lmasin (tug'ilish bilan bo'ladimi, keyinchalik fuqarolikka o'tganmi) ular hamma sohada tengdir. O'zbekistonda fuqarolikka ega bo'lish ochiq va erkinlikka asoslanadi. Ya'ni O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish uchun ortiqcha cheklovlar o'rnatilmagan. Fuqarolikning ochiqligi, erkinligi, har qanday O'zbekiston fuqarosi o'z xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligidan voz kechishi mumkinligi qonunlarda mustahkamlangan. Hech kim o'z qarashlariga ko'ra fuqarolikdan majburiy ravishda chiqarilishi mumkin emasligining o'rgatilishi fuqarolikning muhim prinsiplaridan biridir. Fuqarolikdan qarashlari, fikrlashiga qarab majburiy chiqarish Sovet tuzumida tez-tez qo'llaniladigan hodisa edi. Bu xalqaro hujjatlarga mutlaqo ziddir. Chunki ularda fuqarolikdan majburiy chiqarish ko'zda tutilmagan. O'zbekiston fuqarolari mamlakat tashqarisida yashayotgan vaqtlarida ularning manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Chet mamlakatlarda ham ular davlat homiyligida bo'ladi. O'zbekiston fuqarolari kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoli, irqi va millati, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, mashg'ulotlarining turi va sohasi hamda boshqa holatlardan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir. Konstitutsiyaga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi, ayni vaqtda, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ular O'zbekiston fuqaroligini olish uchun hech qanday harakat sodir etmaydi. Bulardan kelib chiqib, O'zbekistonda fuqarolik quyidagi prinsiplarga tayanadi, deyish mumkin: - yagona fuqarolik, ya'ni ikki va ko'p fuqarolik tan olinmaydi; - fuqarolikda tenglik prinsipi mavjud; - fuqarolikka ega bo'lish, fuqarolikdan chiqish ixtiyoriylikka asoslanadi; - fuqarolikdan majburiy chiqarishga yo'l qo'yilmaydi; - O'zbekiston fuqarolari huquqlari, erkinliklari, manfaati mamlakat tashqarisida ham davlat tomonidan himoya qilinadi. Fuqarolik konstitutsiyaviy-huquqiy institutlardan hisoblanadi. Konstitutsiyada fuqarolik asoslari belgilangan bo'lib, fuqarolikka ega bo'lish, uni yo'qotish qonun bilan tartibga solinishi belgilangan. Bunday qonun 2020-yil 13-martda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida»gi Qonundur. Mazkur qonun avvalgi 1992-yil 2-iyuldagi qonunning o'rniga qabul qilindi va unda fuqarolik masalalarini hal qilishda xalqaro hujjatlar qoidalari e'tiborga olindi. Bu BMT tomonidan ham e'tirof etildi. Qonunning 5-moddasiga asosan quyidagilar O'zbekiston fuqarolari hisoblanadi:

a) 1992-yil 28-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doimiy yashagan, chet davlat fuqarosi bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxs;

b) O'zbekiston hududida yashagan va 1992-yil 28-iyulga qadar o'qish uchun O'zbekistondan tashqariga chiqib ketgan hamda uzluksiz ravishda ta'lim olgan yoxud harbiy xizmatni o'tagan va o'qish yoki harbiy xizmat tugaganidan keyin bir yil ichida O'zbekistonga qaytib kelgan hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy propiskadan o'tgan shaxs, basharti uning chet davlat fuqaroligi mavjud bo'lmasa;

v) ushbu Qonun kuchga kirgan kunda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs;

g) ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxs. Demak, shaxsni O'zbekiston fuqarosi hisoblash uchun qonun kuchga kirganda shaxslar O'zbekiston hududida doimiy yashayotgan bo'lishi; boshqa davlatlarning fuqarosi bo'lmasligi; O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lishi; ma'lum sabablar bilan shu davrda boshqa davlatlar hududida yashayotgan bo'lsa ham, lekin O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsa yoki doimiy yashaganligini isbot qilsa, boshqa davlatlarning fuqarosi bo'lmasligi asosiy shart hisoblanadi. Qonunning 13-moddasida fuqarolikni olish asoslari belgilangan bo'lib, unga asosan:

- tug'ilganlik bo'yicha;

- bola farzandlikka olinganda;

- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham olinishi mumkin. O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lishning muhim vositalaridan biri, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki chet el fuqarolarining o'z ixtiyorlariga ko'ra O'zbekiston fuqaroligiga o'tishidir. Bunda shaxs O'zbekiston fuqaroligiga o'tishni ixtiyor qiladi, uning iltimosi tegishli tartibda ko'rib chiqilib, Respublika Prezidenti tomonidan fuqarolikka qabul qilinadi. Qonunga asosan, O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilish uchun shunday istak bildirgan shaxslar oldiga ba'zi talablar qo'yiladi. Yangi qonunda fuqarolikka qabul qilishning uch xil tartibi belgilangan. Bular: umumiy tartibda; soddalashtirilgan tartibda; alohida tartibda qabul qilishdir

1. Umumiy tartib quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u (shaxs):

a) chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo'lsa;

b) fuqaroligi bo'lmagan shaxsga yashash guvohnomasi olingan kundan e'tiboran va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan bo'lsa;

v) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo'lsa;

g) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olsa;

d) davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa. O'zbekistonda besh yil doimiy yashash sharti O'zbekiston fuqarosi bilan nikohda bo'lgan shaxsga tatbiq qilinmaydi. Fuqarolikka qabul qilishning soddalashtirilgan tartibi chet davlat fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan vatandoshga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

a) O‘zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan loqal bitta o‘zidan oldingi qarindoshga ega bo‘lsa;

b) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo‘lsa;

v) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga olsa;

g) davlat tilini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda O‘zbekistonda ma‘lum muddat yashashi kerak degan joyi yo‘q. Shu qoidaning «a» bandida nazarda tutilgan shart ilm-fan va ilmiy faoliyat, texnika, madaniyat hamda sport sohasida katta yutuqlarga ega bo‘lgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi uchun manfaatli kasbga yoxud malakaga ega bo‘lgan vatandoshga va (yoki) uning oila a‘zolariga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin. Fuqarolikka qabul qilishning alohida tartibida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti milliy manfaatlardan kelib chiqib, chet davlatlarning fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga yuqoridagi talablar qo‘llanilmagan holda fuqarolikni berishi mumkin. Bundan tashqari qonunning 6-moddasida 1995-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgan va doimiy propiskadan o‘tgan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan hamda «O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida»gi 2020-yil 13-martdagi Qonun kuchga kirguniga qadar fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekistonda yashash guvohnomasi asosida yashab turgan shaxs istak bildirgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi belgilangan. Ularning bolalari ham O‘zbekiston fuqarosi deb tan olinadi. Qonun ayrim sabablar bilan fuqarolik yo‘qotilganda, fuqarolikni tiklash tartibini ham belgilaydi.

#### REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.-O‘zbekiston», 2018. 2-tom, 142-143-betlar.
2. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - T.: «Sharq», 2000. 528-535-betlar.
3. «Yangi O‘zbekiston», 2020-yil 25-yanvar
4. «O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonun, 18-modda.
5. «Xalq so‘zi», 2020-yil 26-iyun.
6. «Tarixiy adolatning yana bir tantanasi», «Xalq so‘zi», № 56 (7558), 2020-yil 17-mart.



## BAZI XUSUSIY INTEGRAL TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISHDA FREDGOLM USULI

**Turdiyev Islomjon Alisherovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953645>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada integral tenglamalarning kelib chiqish tarixi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Fredgolmning birinchi va ikkinchi tur integral tenglamalarining amaliy ahamiyati, uni yechish bo'yicha ketma-ket yaqinlashish hamda iteratsiyalangan yadrolar usullarini qo'llash yo'llari bayon qilingan. Bir nechta misollar yechib ko'rsatilgan, mustaqil bajarish uchun misollar tuzilgan va taqdim qilingan. Maqolani tayyorlashda mavzuning talabalarga tushunarli qilib yoritilishiga katta ahamiyat berilgan.

**Kalit so'zlar:** integral tenglama, Furiye almashtirishi, ketma-ket yaqinlashishlar usuli, funksiya argumenti, Fredgolmning birinchi tur integral tenglamasi, Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasi, iteratsiyalangan yadrolar usuli.

## FREDHOLM'S METHOD FOR SOLVING A SYSTEM OF PARTIAL INTEGRAL EQUATIONS

**Abstract.** The article presents a brief history of the emergence of integral equations. The practical significance of the Fredholm integral equations of the first and second type, methods of successive approximation and repeated kernels for their solution are described. Several examples are illustrated, the examples are compiled and presented for self-fulfillment. When preparing an article, great importance is attached to ensuring that the topic is understandable to students.

**Keywords:** Fourier transform, method of successive approximations, function argument, Fredholm integral equation of the first kind, Fredholm integral equation of the second kind, method of iterated kernels.

## МЕТОД ФРЕДГОЛЬМА РЕШЕНИЯ СИСТЕМЫ ИНТЕГРАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ В ЧАСТНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ

**Аннотация.** В статье дана краткая информация об истории возникновения интегральных уравнений. Описано практическое значение интегральных уравнений Фредгольма первого и второго рода, методов последовательного приближения и повторных ядер для их решения. Проиллюстрировано несколько примеров, примеры составлены и представлены для самостоятельного выполнения. При подготовке статьи большое значение придается тому, чтобы тема была понятна учащимся.

**Ключевые слова:** интегральное уравнение, преобразование Фурье, метод последовательных приближений, аргумент функции, интегральное уравнение Фредгольма первого рода, интегральное уравнение Фредгольма второго рода, метод повторных ядер.

Integral tenglamalar deb, noma'lum funksiya integral ishorasi ostida bo'lgan tenglamalarga aytiladi.

Mexanika, matematika fizika va texnikaning juda ko'plab masalalar ushbu

$$\varphi(x) - \lambda \int_a^b K(x, y)\varphi(y)dy = f(x) \quad (1)$$

ko‘rinishdagi integral tenglamalarning tekshirishga olib kelinadi, bu erda  $\varphi(x)$  – noma’lum funksiya,  $K(x, y)$  va  $f(x)$  funksiyalar mos ravishda  $a \leq x \leq b$ ,  $a \leq y \leq b$  va  $a \leq x \leq b$  ( $a, b$  - o‘zgarimas sonlar) yopiq sohalarda berilgan uzluksiz haqiqiy funksiyalar.  $f(x)$  funksiya (1) integral tenglamaning ozod hadi,  $K(x, y)$  tenglmaning yadrosi, sonli  $\lambda$  ko‘paytuvchi tenglamaning parametri deyiladi.

Fredgol‘mning birinchi tur integlamasi deb,

$$\int_a^b K(x, y)\varphi(y)dy = f(x) \quad (2)$$

ko‘rinishdagi integral tenglamaga aytiladi.

Agar (1) tenglamada  $f(x) \equiv 0$  bo‘lsa, ya’ni

$$\varphi(x) - \lambda \int_a^b K(x, y)\varphi(y)dy = 0 \quad (3)$$

tenglama (1) mos bo‘lgan bir jinsli integral tenglama deyiladi.

Bir jinsli

$$\varphi(x) - \lambda \int_a^b K(x, y)\varphi(y)dy = 0 \quad (4)$$

tenglama (3) bir jinsli tenglamaga qo‘shma integral tenglama deyiladi.

$$\varphi(x) - \lambda \int_a^x K(x, y)\varphi(y)dy = f(x), \quad x > a \quad (5)$$

ko‘rinishda bo‘lsa, u Vol‘teraning ikkinchi tur integral tenglamasi,

$$\int_a^x K(x, y)\varphi(y)dy = f(x) \quad (6)$$

Tekshirib ko‘rish qiyin emaski, agar ikkinchi tur Fredgolintegral tenglamasining umumiy echimi  $\Phi(x)$  mavjud bo‘lsa

$$\Phi(x) = \varphi^0(x) + \varphi(x) \quad (7)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi, bunda  $\varphi^0(x)$  (3) tenglamaning umumiy echimi,

esa (1) tenglamaning umumiy va xususiy echimlari bo‘lsa, bularning ayirmasi  $\varphi^0(x) = \Phi(x) - \varphi(x)$

(3) tenglamaning echimidan iborat bo‘ladi. Bundan darhol (7) tenglik kelib chiqadi.

### **Fredgolm ikkinchi tur integral tenglamasini parametr kichik bo‘lganda ketma-ket yaqinlashish usuli bilan echish.**

(1) tenglamani tekshiramiz,  $K(x, y)$  va  $f(x)$  funksiyalar o‘zlari aniqlangan sohalarda uzliuksiz bo‘lgani uchun

$$\lambda \int_a^x |K(x, y)| \leq M, \quad a \leq x \leq b, \quad \max_{a \leq x \leq b} |f(x)| = m \quad (8)$$

bo‘ladi.

Agar (1) tenglama  $\lambda$  parametr

$$|\lambda| < \frac{1}{M} \quad (9)$$

shartni qanoatlantirsa, u holda bu tenglamalarning yagona  $\varphi(x)$  echimi mavjud bo‘lib, uni ketma-ket yaqinlashish usuli bilan topish mumkin.

Nolinchi yaqinlashish sifatida (1) tenglamaning ozod hadini qabul qilamiz

$$\varphi_0(x) = f(x)$$

Binchi yaqinlashishni

$$\varphi_1(x) = f(x) + \lambda \int_a^b K(x, y) f(y) dy$$

munosabat bilan aniqlaymiz. Bu jarayonni davom ettirib, n-yaqinlashishni

$$\varphi_n(x) = f(x) + \lambda \int_a^b K(x, y) \varphi_{n-1}(y) dy, \quad n = 1, 2, \dots, n \quad (10)$$

munosabat bilan aniqlaymiz.

Shunday qilib, (10) rekurrent munosabatlarni qanoatlantiruvchi

$$\varphi_0(x), \varphi_1(x), \dots, \varphi_n(x), \dots$$

funksional ketma-ketligiga ega bo‘lamiz.

Matematik analizdan ma‘lumki, (11) ketma-ketlikning yaqinlashishi

$$\varphi_0(x) + \sum_{n=1}^{\infty} [\varphi_n(x) - \varphi_{n-1}(x)] \quad (12)$$

qatorning yaqinlashishiga teng kuchlidir. (10) formulani

$$\begin{aligned} \varphi_n(x) &= f(x) + \lambda \int_a^b K(x, y) [\varphi_{n-1}(y) - \varphi_{n-2}(y) + \varphi_{n-1}(y)] dy = \\ &= f(x) + \lambda \int_a^b K(x, y) \varphi_{n-2}(y) dy + \lambda \int_a^b K(x, y) [\varphi_{n-1}(y) - \varphi_{n-2}(y)] dy = \\ &= \varphi_{n-1}(x) + \lambda \int_a^b K(x, y) [\varphi_{n-1}(y) - \varphi_{n-2}(y)] dy \quad n = 2, 3, 4, \dots \end{aligned} \quad (13)$$

ko‘rinishda yozib olamiz.

(8) ga asosan (13) dan quyidagi tengsizliklar kelib chiqadi:

$$\begin{aligned} |\varphi_0(x)| &\leq m \\ |\varphi_1(x) - \varphi_0(x)| &\leq m|\lambda| M \\ |\varphi_2(x) - \varphi_1(x)| &\leq m|\lambda|^2 M^2 \\ &\dots\dots\dots \\ |\varphi_n(x) - \varphi_{n-1}(x)| &\leq m|\lambda|^n M^n \end{aligned}$$

Shunday qilib, (12) qatorning har bir hadi musbat sonli

$$\sum_{n=0}^{\infty} m|\lambda|^n M^n$$

Ta'kidlash joizki, integral tenglamalar nazariyasi matematik fizika, differensial tenglamalar masalalarini hal qilishda keng qo'llaniladi. Jumladan, [3-15] ishlarda operatorli matritsalar uchun Fredholm determinantini qurish, Fadeev tenglamasini qurish jarayonida integral tenglamalarni yechish usullaridan foydalanilgan. [16-36] ilmiy maqolalarda olib borilgan izlanishlarda aralash tipdagi tenglamalar uchun qo'yilgan chegaraviy masalalar Fredholmning ikkinchi tur tenglamasiga keltiriladi. Fredholmning ikkinchi tur tenglamasi yechimining mavjudligidan (tegishli shartlar ostida) chegaraviy masalaning ham yechimi mavjudligi haqida xulosa qilinadi.

### REFERENCES

1. M. Rahman. Integral Equations and Their Applications, WIT press, Southampton, Boston, (2007), 372 p.
2. A. M. Wazwaz. Linear and Nonlinear Integral Equations Methods and Applications, Higher Education Press, Beijing and Springer-Verlag Berlin Heidelberg, London, New York, (2011).
3. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2020). Eigenvalues and virtual levels of a family of 2x2 operator matrices. *Methods Func. Anal. Topology*, 1(25), 273-281.
4. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2020). Analysis of the spectrum of a 2x2 operator matrix. *Discrete spectrum asymptotics. Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 2(11), 138-144.
5. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2019). Threshold analysis for a family of 2x2 operator matrices. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 6(10), 616-622.
6. Расулов Т.Х., Дилмуродов Э.Б. (2020). Бесконечность числа собственных значений операторных (2x2)-матриц. Асимптотика дискретного спектра. *ТМФ*. 3(205), 368-390.
7. Muminov M.I., Rasulov T.H. (2015). Universality of the discrete spectrum asymptotics of the three-particle Schrödinger operator on a lattice. *Nanosystems: Phys. Chem. Math.*, 2(6), 280-293.
8. Umirkulova G.H., Rasulov T.H. (2020). Characteristic property of the Faddeev equation for three-particle model operator on a one-dimensional

## WAYS OF TEACHING COMPARATIVE DISCOURSE ANALYSIS TO UNIVERSITY STUDENTS

**Tilebergenova Gawhar**

Nukus State Pedagogical Institute  
Faculty of Foreign languages  
Department of English language and literature  
2nd year master student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953670>

**Abstract.** *Comparative Discourse Analysis (CDA) is a prominent interdisciplinary field that explores language use, power relations, and social practices within various contexts. Teaching CDA to university students requires innovative instructional approaches that foster critical thinking, analytical skills, and intercultural competence. This article presents a comprehensive review of existing literature and proposes effective ways of teaching Comparative Discourse Analysis to university students. By incorporating a combination of theoretical frameworks, practical exercises, and real-world case studies, educators can equip students with the necessary tools to navigate complex linguistic landscapes and contribute to the advancement of social sciences and humanities.*

**Key words:** *discourse, pedagogy, students, theory, practical exercises, real-world studies.*

### СПОСОБЫ ПРЕПОДАВАНИЯ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА ДИСКУРСА СТУДЕНТАМ УНИВЕРСИТЕТОВ

**Аннотация.** *Сравнительный анализ дискурса (CDA) — важная междисциплинарная область, изучающая использование языка, отношения власти и социальные практики в различных контекстах. Преподавание CDA студентам университетов требует инновационных подходов к обучению, которые способствуют критическому мышлению, аналитическим навыкам и межкультурной компетентности. В этой статье представлен всесторонний обзор существующей литературы и предложены эффективные способы преподавания сравнительного анализа дискурса студентам университетов. Сочетая теоретические основы, практические упражнения и практические примеры, преподаватели могут вооружить учащихся необходимыми инструментами для навигации по сложным лингвистическим ландшафтам и внести свой вклад в развитие социальных и гуманитарных наук.*

**Ключевые слова:** *дискурс, педагогика, студенты, теория, практические занятия, реальные исследования.*

**Introduction** The significance of Comparative Discourse Analysis in understanding language, power, and society. Rationale for teaching Comparative Discourse Analysis to university students. Importance of effective pedagogical methods to enhance student learning outcomes.

**Selecting Appropriate Theoretical Frameworks:** Choosing relevant theoretical frameworks to underpin Comparative Discourse Analysis. Exploring critical discourse analysis, sociolinguistics, pragmatics, and sociocultural theory. Emphasizing the integration of multiple theoretical perspectives for a comprehensive analysis. **Developing Analytical Skills:** Engaging students in close reading and textual analysis exercises. Introducing linguistic tools and concepts

for identifying discursive strategies. Teaching students to recognize power relations, ideologies, and social practices in discourse.

**Promoting Critical Thinking:** Encouraging students to question dominant discourses and societal norms.

**Facilitating class discussions and debates on controversial topics:** Challenging students to critically evaluate sources of information and media representations.

**Incorporating Intercultural Competence:** Providing opportunities for students to analyze discourse across cultures and languages. Introducing cross-cultural communication theories and frameworks. Encouraging students to examine intercultural power dynamics and intergroup relations.

**Engaging with Real-World Case Studies:** Utilizing real-world examples and case studies from diverse contexts. Exploring discourses in politics, media, education, healthcare, and other relevant domains. Encouraging students to apply CDA methodologies to contemporary issues.

**Integrating Technology and Multimedia Resources:** Incorporating digital tools for data collection, analysis, and visualization. Using online corpora and software for comparative analyses. Harnessing multimedia resources to enhance student engagement and comprehension. [4.75]

**Collaborative Learning and Research:** Promoting collaborative learning environments for peer-to-peer engagement. Encouraging students to conduct independent research projects using CDA methods. Facilitating group discussions, presentations, and research symposiums.

**Reflective Practice and Feedback:** Implementing reflective exercises to encourage metacognition. Providing constructive feedback on students' analyses and research projects. Promoting self-assessment and goal setting for continuous improvement.

**Selecting Appropriate Theoretical Frameworks:** When teaching Comparative Discourse Analysis, it is essential to choose theoretical frameworks that align with the goals of the course and the topics being explored. Critical discourse analysis (CDA) offers insights into power relations, social structures, and ideology, while sociolinguistics focuses on the relationship between language and society. Pragmatics provides tools for understanding how context influences meaning, and sociocultural theory emphasizes the role of cultural and social practices in shaping discourse. By integrating multiple theoretical perspectives, students gain a more comprehensive understanding of the complexities of language and society. [5.83] **Developing Analytical Skills:** To facilitate effective discourse analysis, students need to develop strong analytical skills. Close reading and textual analysis exercises enable students to identify linguistic features, such as lexical choices, metaphors, and rhetorical devices, that contribute to the construction of meaning. By exploring various discursive strategies, such as framing, persuasion, and intertextuality, students learn to recognize how power relations and ideologies are embedded in discourse. **Promoting Critical Thinking:** Encouraging critical thinking is a vital aspect of teaching Comparative Discourse Analysis. By questioning dominant discourses and societal norms, students develop a critical perspective that allows them to challenge prevailing ideologies. [1.109] **Classroom discussions and debates on controversial topics** provide a platform for students to critically analyze different viewpoints and construct well-supported arguments. Additionally, students should be taught to critically evaluate sources of information and media representations to avoid accepting discourses at face value. **Incorporating Intercultural Competence:** Given the multicultural nature of contemporary societies, it is crucial to incorporate intercultural competence into the teaching of



Comparative Discourse Analysis. Students should be exposed to discourses from different cultures and languages to understand how communication varies across contexts. Introducing cross-cultural communication theories and frameworks, such as Hofstede's cultural dimensions or the concept of face-saving, helps students grasp the interplay between language, culture, and power. Analyzing intercultural power dynamics and intergroup relations enhances students' ability to recognize and challenge cultural biases and stereotypes. Engaging with Real-World Case Studies: Incorporating real-world case studies allows students to apply CDA methodologies to concrete examples. Discourse analysis can be explored in various domains, such as politics, media, education, healthcare, and more. By analyzing political speeches, media representations, educational policies, or doctor-patient interactions, students gain a practical understanding of how discourse shapes power relations and social practices. This approach helps bridge the gap between theoretical concepts and real-life applications. Integrating Technology and Multimedia Resources: Utilizing technology and multimedia resources enhances the teaching of Comparative Discourse Analysis. Online corpora and software tools provide students with access to vast amounts of data for analysis and comparison. Visualizations, such as word clouds or network graphs, can aid in identifying patterns and relationships within discourse. Multimedia resources, including videos, podcasts, and news articles, offer diverse and engaging materials for analysis, enriching students' learning experiences.

Collaborative Learning and Research: Encouraging collaborative learning environments fosters peer-to-peer engagement and knowledge sharing. Group discussions, project-based activities, and research symposiums provide opportunities for students to explore diverse perspectives and learn from one another. Engaging in collaborative research projects using CDA methods not only deepens students' understanding but also enhances their research and teamwork skills. [2.69]

In conclusion, teaching Comparative Discourse Analysis to university students requires a multifaceted approach that incorporates theoretical frameworks, analytical skills development, critical thinking, intercultural competence, real-world case studies, technology integration, collaborative learning, and reflective practice. By adopting these strategies, educators can empower students to navigate complex linguistic landscapes, understand power dynamics, and contribute to the advancement of social sciences and humanities. By selecting appropriate theoretical frameworks, students gain a solid foundation for analyzing discourse and understanding its societal implications. Developing analytical skills enables students to delve into the nuances of language use and recognize how discourse shapes social realities. Promoting critical thinking empowers students to question and challenge prevailing discourses, fostering a more nuanced and informed understanding of the world.

Incorporating intercultural competence into the curriculum equips students with the skills to navigate communication across cultures and recognize the influences of power and cultural bias. Engaging with real-world case studies provides students with practical applications of Comparative Discourse Analysis, making the subject matter more relevant and tangible. Integrating technology and multimedia resources enriches the learning experience by providing access to a wide range of data and facilitating interactive and engaging analysis. [3.98] Collaborative learning and research foster a sense of community and peer support, allowing students to learn from diverse perspectives and develop important teamwork and research skills.

Finally, incorporating reflective practice and providing constructive feedback encourages students to think critically about their learning journey, identify areas for improvement, and develop self-directed learning strategies. In conclusion, the effective teaching of Comparative Discourse Analysis to university students involves a dynamic and comprehensive pedagogical approach that integrates theoretical frameworks, analytical skills development, critical thinking, intercultural competence, real-world applications, technology integration, collaborative learning, and reflective practice. By employing these strategies, educators can empower students to become critical thinkers, proficient analysts, and active contributors to the study of discourse and its social implications.

#### **REFERENCES:**

1. Fairclough, N. (2001). *Language and power*. Pearson Education.
2. van Dijk, T. A. (2015). *Discourse and power*. In *The International Encyclopedia of Language and Social Interaction* (pp. 1-10). Wiley.
3. Gee, J. P. (2014). *An introduction to discourse analysis: Theory and method* (4th ed.). Routledge.
4. Wodak, R., & Meyer, M. (Eds.). (2009). *Methods of critical discourse analysis* (2nd ed.). Sage Publications.
5. Holmes, J., & Meyerhoff, M. (Eds.). (2017). *The Routledge Handbook of Sociolinguistics around the World*. Routledge.
6. Blommaert, J., & Bulcaen, C. (2000). *Critical discourse analysis*. *Annual Review of Anthropology*, 29(1), 447-466.
7. Scollon, R., & Scollon, S. W. (2003). *Discourses in place: Language in the material world*. Routledge.
8. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЌЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12

ANALYSIS OF THE KARL HEINRICH MENGES'S CONCEPTS ON KARAKALPAK  
PHONOLOGY

Nurumbetova Gulayim

Scientific advisor

Awezova Kamila

2-year Masters' Degree Student, the Department of English Linguistics at  
Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953993>

*Abstract. This article is devoted to investigate the elements and structure of the inventory system of consonant phonemes of the Karakalpak language. This necessity is dictated by the fact that the construction of structural schemes of various systems objectively requires the use of unified procedures for determining the elements of this system. Phonemes are elements of the phonological systems of the language. In systemic phonology, they are defined as functional systems of differentiating features. Currently, analytical procedures of system phonology are developed on the basis of articulatory characteristics of phonological elements.*

*Keywords: language, karakalpak, consonant, generalization, concept, analyze, phonemes, active organs of speech, passive organs of speech.*

АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ КАРЛА ГЕНРИХА МЕНГЕСА О  
**Аннотация.** Данная статья посвящена возникновению круговых инструментов и народных инструментов. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы цитируются на протяжении всей статьи. Выводы и предложения даны в конце статьи.

**Ключевые слова:** возникновение кругового инструмента, народные инструменты, «чирманда».

Musiqa sohasida, O'rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o'zbek usullari, ya'ni ritmik yo'llari va ularning rivojlanish usullari alohida o'rin egallaydi. Chalish usullar qoida bo'yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo'llaniladi. Eng ko'p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblardan, O'zbekistonda, Tojikistonda va Uyg'ur xalqlarida va shu bilan bir qatorda, Sharqda o'zining shirali ovozigga ega bo'lgan, musiqa cholg'u asbobi doira hisoblanadi. Doira iborasi ba'zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb ham yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa "Dappchi"- childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doiradast, Farg'onada chirmandachi, Samarqanda esa doirachi deb yuritiladi. O'zbek xalqi qadimdan doira asbobini juda ardoqlab kelgan.



O'tmishda bu asboblarning sadolari ostida xalqni maydonlarga, to'y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayillarga chaqirganlar. Jumladan: "Hosil bayrami", "Uzum sayli", "Qovun sayli" va shunga o'xshash kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bayramlarda,



madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay va nog'ora, doira kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Buyuk Shark mutafakkirlarining merosi, xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqqa, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. O'rta asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Darvish Ali o'z davri (XVII acr) da mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari haqida ma'lumot bergan. Saroyda 60 cholg'uchidan iborat ansambl bo'lgan. «Nog'ora xona» deb atalgan 60 kishilik cholg'uchilar ansamblni nog'orachi boshqargan. Darvish Ali misol tariqasida shunday dalilni keltiradi:

«Sulton Husayin saroyida ansamblning rahbar-mehtar vazifasini nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy Miroqiy bajargan. «Nog'ora xona» nog'ora va damli musiqa cholg'ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona ko'zda tutiladi. Bizning jumhuriyatimizda doyra ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda o'z hissasini qo'shgan Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o'tamoqda.



Mashhur doyrachilar G'ofur Azimov, G'ofur Inog'omov, Rahim Isaxo'jayev, Evner Barayev, Qahramon Dadayev, Ravshan Akbarbekov, Odil Kamolxo'jayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, To'ychi Inog'omovlar ustaning ananalarini davom ettirdilar. Shuningdek, Toshkent Davlat konservatoriyasi dosenti A.XLiviyeu ham "Doira uchun etyudlar" to'plamini yaratgan edi. SamDU musiqa fakulteti dosenti Y.Haqqulov "Doira uchun pyesalar" to'plami yaratganlar. A.Rasulov nomidagi SamDSBY katta o'qituvchisi Asliddin Sirojev "Doyra uchun pyesalar» yaratdilar, A.Ashrafxo'jayev "Doira sinfi bo'yicha xrestomatiya" yozganlar. Doira ko'rinishidan oddiy aylanma shaklida bo'lib, diametri taxminan 400 mm bo'lgan, gardishi ilgari uzum zangidan qilingan, so'ngi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik bo'laklarga bo'lib, ularni bir-biriga ulab yasaladi. Doyraning gardishiga buzoq yoki baliq, ba'zan toyning terisidan qoplangan. Gardish o'rtasiga qirqdan ortiq halqachalar taqiladi. Bu halqachalar doyrani chalganda ijroga qo'shimcha sado beradi. Bu halqachalarning nomi shing'iroq, shilshila deyiladi, shing'iroqlar mayda doiracha shaklida bo'lib, misdan va temir metallardan ishlab yasaladi. Doyrada 2 ta asosiy tovush bor. Biri past "bum" (Xorazmda "gup") ikkinchisi baland "bak" (xorazmda "toq") deb yuritiladi. Ketma-ket

kelgan ikkita qisqa tovush "bakko" yoki «bakka» (tak-tak) yoki (bak-bak) "taka" deb yuritiladi. Ilgarilari Bum (gup) 1ta chorak notaga teng bo'lgan. Bak (tak) ham 1ta chorak nota hisoblangan. Bak-bak (tak-tak) 2 ta-choraktalik notaga teng. Bakka (taka) esa 2 ta 8 talik notaga teng. Agar taktlar o'rtasida pauza kelsa "Ist" so'zi qo'llanilgan. Masalan: bakka bum bak ist baka bak.

30 yillardan so'ng doyra usullari, ya'ni "Bum" chiziq ostiga "Bak" esa chiziq ustiga yozilib, ijro etiladigan bo'ldi. Bu doira usullarini A.Eyxgorn, V.Leysok, N.Mironov, V.Uspenskiylar bir nota chiziq oralig'ida nota yo'lida yozganlar.

Doirani tovush balandligi noaniq, ya'ni uning terisi qanday tortilganiga qarab sado beradi, aniq bir nota, ya'ni tovush, ovoz bir xil chiqmaydi. Bum bilan bak oralig'i kvarta intervaliga yaqinroq. Ijro har xil usul bilan kelishi, barmoqlar harakatida tovushlarning o'zgarishiga olib keladi.

Doira ijrosi, o'ng qo'l bilan chap qo'l harakatiga bog'liq, doirani qaysi yeriga, gardish o'rtasiga yo chetiga yoki bo'lmasa gardishdan ozgina o'rtasiga yaqinroq urib cholish, o'ziga xos tovush chiqaradi. Ba'zan barmoqlarga metaldan yasalgan noxun taqilib chalinadi. Mana shunaqa ijro etilgan bum bilan bumni, bak bilan bakni farqi juda katta bo'ladi. XX asrning 50-60-yillariga kelib, doirani chalish usullari A.I.Petrotsyans tomonidan o'zgartirildi, Toshkent eksperimental laboratoriyasida tasdiqlanib, ko'pchilik musiqashunos olimlar tomonidan 4 qatorlik doira chalish usuli joriy etildi va hozirgacha qo'llanilib kelinmoqda. Har bir qo'lning, ya'ni o'ng va chap qo'llarning ovozlari tovushlari alohida yoziladi.

Quyida doirachilikda dong taratgan mashhur va mohir doyrachilar xotirasini yodga olamiz: Usta Olim Komilov, To'ychi Inog'omov, G'ofur Azimov, Bolta Sharipov, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Rashid Nurmehammedov, Rahmon Otaboyev, Samarqandlik Baxtiyor Jobirov va boshqalar.

Endilikda sitqi dildan xizmat qilib kelayotgan doirachilar: Rahim Isaxo'jayev, Qahramon Dadayev, Tal'at Sayfiddinov, Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Rahmatullo Samadov, Abbas Qosimov va boshqalar.

## REFERENCES

1. Akbarov Il. Musiqa lug'ati T., San'at 1990 yil.
2. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqasi asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.
4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrochilik tarixi. Toshkent., O'qituvchi 1995 yil.
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., Fan., 1993 yil.
6. Petrotsyants A.I. Cholg'ushunoslik T., San'at 1990 yil.
7. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
8. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.



## FORTEPIANO ANSAMBLI SINFIDA O'QUVCHLAR BILAN ISHLASH JARAYONIGA OID USLUBIY TAVSIYALAR

**To'raqulova Marjona Rustam qizi**

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

Torli, puflama va zarbli cholg'ular bo'limi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7954057>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Fortepiano ansambli sinfida o'quvchlar bilan ishlash jarayoniga oid uslubiy tavsiyalarga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchlar bilan ishlash, uslubiy tavsiyalar, fortepiano ansambli.

## METHODICAL RECOMMENDATIONS ON THE PROCESS OF WORKING WITH STUDENTS IN THE PIANO ENSEMBLE CLASS

**Abstract.** This article focuses on methodological recommendations regarding the process of working with students in the piano ensemble class. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are cited throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

**Key words:** work with students, methodological recommendations, piano ensemble.

## МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРОЦЕССУ РАБОТЫ СО СТУДЕНТАМИ В КЛАССЕ ФОРТЕПИАННОГО АНСАМБЛЯ.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены методические рекомендации, касающиеся процесса работы со студентами в классе «Фортепианный ансамбль». Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы цитируются на протяжении всей статьи. Выводы и предложения даны в конце статьи.

**Ключевые слова:** работа со студентами, методические рекомендации, фортепианный ансамбль.

Fortepiano ansambli janri qadim davrlarda Evropada mavjud bo'lgan. Mazkur janr XVIII asming ikkinchi yarmiga kelib rivojlana boshladi va ulkan mashhurlikka erishib, musiqiy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Tabiiyki, bu janr boy va xilma-xil musiqiy adabiyotning ham vujudga kelishiga sabab bo'ldi. To'rt qo'l bo'lib ijro etish uchun mo'ljallangan asarlarni yaratishga XIX asming deyarli barcha kompozitorlari alohida hissa qo'shganlar. XX asrga kelib ushbu janr yanada taraqqiy etib bordi., Shu o'rinda savol tug'iladi. Fortepiano duetining shu qadar tez gullabyashnashining sababi nimada bo'lishi mumkin? Awalambor, bu janr tenghuquqlik imkoniyatlarini yaratadi, uy sharoitida musiqa ijro etish an'alarini keng targ'ib etadi. Bundan tashqari, XVIII asming oxiri va XIX asr boshlarida yaratilgan to'rt qo'llik asarlar pianistik mahorati o'rta darajada bo'lgan ijrochilar uchun mo'ljallangan bo'lib, aksariyat havaskorlar uchun qo'l kelardi. Pedagogik amaliyotda ham bu asarlardan muvaffaqiyatli foydalanilgan. To'rt qo'llik ijro katta va kichik yoshdagi ijrochilarda ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirar edi. Fortepiano duetini janrining mashhur bo'lishiga yana bir sabab shundaki, to'rt qo'llik ijro orkestr effektlarini ifodalay olishga imkon yaratdi. XVIII asming oxiri va XIX asr boshida vujudga kelgan orkestr asarlarining to'rt qo'llik talqini fortepiano duetining musiqiy-ma'rifiy vazifasini belgilab berdi. Tez orada opera, simfonik, kamer-ansambl asarlari o'zining to'rt qo'llik talqini bilan birgalikda

chop etila boshladi va bu hoi an'ana tarziga kirib qoldi. Shunday qilib, XIX asrda tinglovchilar turli xildagi janrlar bilan aynan shu tarzda tanisha boshlaganlar. Qanchadan-qancha buyuk asarlar to'rt qo'llik talqin bois mashhurlikni q'lga kiritdi. Musiqiy ta'lim jarayonida barcha musiqachilar fortepiano sinfl (umumiy va maxsus)dan o'tadilar. To'rt qo'llik ijro ansambli esa o'quv muassasasida ham, uy sharoitida ham qo'l keladigan janr bo'lib, uning musiqaqi san'atidagi o'mi beqiyosdir. Hamkorlikda ijro etish san'atini o'rganishni fortepiano ansambli sinfidagi mashg'ulotlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Hamkorlikdagi ijroning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, fortepiano dueti bir xil mutaxassislikka oid ijrochilarni o'zida birlashtiradi. Bu esa ular orasidagi o'zaro usaro uyg'unlikni ta'minlaydi. Ushbu janr ko'p yillik tarixga ega.



Fortepianoda to'rt qo'l bo'lib ijro etish shaklidan barcha davrlarda foydalanib kelingan bo'lib, sozandalar o'z ijro mahoratlarining deyarli hamma bosqichlarida ushbu faoliyat bilan shug'ullangan. Bu holat bugungi kunda ham kuzatiladi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Ansambli ijrosining foydasi nimada? Qaysi sabablariga ko'ra u o'quvchining umummusiqiy rivojiga turtki bera oladi? Ansambli ijrosi musiqiy adabiyot bilan keng va har tomonlama tanishuv uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratadi. Bunda musiqachi turli badiiy uslub va tarixiy davrlarga oid asarlarni o'rganadi. Shuningdek, ijrochi fortepiano uchun yozilgan asarlardan tashqari, opera, simfonik, kamer-cholg'u hamda vokal asarlarning klavirlari bilan ham tanishishga muvaffaq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ansambli ijrosi - musiqiy tasavvurning doimiy yangilanib turishi, boy va turli xarakterdagi musiqiy axborotning oqib kelishini ta'minlaydigan faoliyat turidir. U yangi va turli-tuman tasavvurning kirib kelishini ta'minlab, musiqaga nisbatan "musiqiy salohiyatning markazi va hissiy munosabat"ning taraqqiy etishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Tinglash natijasida qo'lga kiritilgan ko'plab yorqin tasavvurlarning jamlanishi badiiy xayolning rivojlanishiga turtki beradi. Hissiy to'liqlanishning avjida musiqiy-aqliy harakatning umumiy ko'tarilishi yuzaga keladi. Ansambli ijrosi o'quvchidagi boshqa xususiyatlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan: musiqiy eshitish qobiliyati, ritmik hissiyot, xotira, harakat ko'nikmalari. Ushbu xususiyatlarning rivojlanishi musiqiy faoliyatning boshqa turlarida ham asqotadi. Bular - musiqa tinglash, musiqiy-nazariy fanlarni o'rganish, musiqiy materialni mustaqil ravishda tanlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ohang tasavvurining shakllanishi - o'quvchining eshitish qobiliyatini tarbiyalashning birinchi bosqichidir. Garmonik eshitish qobiliyatini

rivojlantiruvchi eng kuchli vosita - turli kuylarga garmonik joʻrlik qilishdir. Bunda garmonik joʻrlik ustoz tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa oʻquvchiga ilk qadamdanoq koʻp ovozi musiqaning ijrosida qatnashish imkoniyatini beradi. Garmonik eshitish qobiliyatining rivoji melodik eshitish qobiliyatining rivoji bilan bir xil olib boriladi. Soʻnggi yillarda yuzaga kelayotgan musiqiy tarbiyaviy ishlar natijasida kichik yoshdagi oʻquvchilarning qulogʻini murakkab garmonik tuzilmalarga oʻrgatish misollarini ham koʻrish mumkin. Polifonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish - musiqiy tarbiyaning eng murakkab qismlaridan biridir. Zero, yosh oʻquvchi polifonik asarlarni ijro etish, bir vaqtning oʻzida bir necha melodik yoʻllarni tinglash koʻnikmasiga ega emas. Bunda ansambl ijrosi chogʻida polifonik asarning ovozlarni juft-juft qilib chalish tavsiya etiladi. Shu tahlit, ansambl ijrosi ilk mashgʻulotlardan polifoniyani tinglash, uning tarkibiy qismlariga quloq solish, ohangning alohida qurilmalarini yorqinroq ifodalash koʻnikmasini beradi. Musiqiy eshitish qobiliyati tembr va dinamikaga koʻra tembrdinamik eshitish deb ataladi. Ushbu eshitish qobiliyati musiqiy amaliyotning barcha turlarida, shuningdek, musiqiy ijrochilikda muhim oʻrin tutadi. Ansambl ijrosi oʻzining boy musiqiy matosi hisobiga tembrdinamik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi keng imkoniyatlarga ega. Ustoz bilan bir qatorda shogird ham turli xil tembr va dinamik boʻyoqlarni, shtrix effektlarini izlab, orkestrning alohida guruhlariga xos yangrash xususiyatlarini, ohangdor tutti xususiyatlarini ifodalashga harakat qiladi. Ansambl ijrosi ritmik his etish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ritm - musiqaning markaziy unsurlaridan biridir. Ritm hissining shakllanishi - musiqiy pedagogikaning muhim vazifalaridandir. Musiqadagi ritm - nafaqat vaqt-oʻlchovli, balki, hissiy-ifodaviy, obrazli-sheʻriy, badiiy-mazmunli kategoriyadir. Ritm hissi uchta asosiy tuzilmaviy unsurdan tashkil topadi: surʼat, aktsent va choʻzimlar munosabati. Bularning barchasi ritmik koʻnikmani tashkil etadi. Ilk qadamlardan oʻquvchi bir xil choʻzimlarning ravon ketmaketligini ifodalay olishi - muhim koʻnikmalardan biridir. Zero, ravon harakat hissining rivojlanishi ansamblidagi ijrochilardan har birining musiqiy tarbiyasiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ustoz bilan hamkorlikda ijro etish chogʻida oʻquvchi muayyan metr-ritmik ravishda chegaralanadi. Ritmni ushlab turish zarurati turli ritmik tasvirlarning tabiiy ravishda oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Ansambl ijrosi musiqiy-ijrochilik qobiliyatining muhim ajralmas tarkibiy qismlaridan boʻlmish xotiraga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Ansambl ijrosi asami yod olish xususiyatiga egadir. Yakka ijro chogʻida oʻquvchi asami ahamiyatsiz ravishda mexanik mashq sifatida yodlab olsa, ansambl ijrosi chogʻida esa maskur jarayon tubdan oʻzgaradi.

Ansambl ijrochisining xotirasi yanada tez shakllanadi. Musiqiy asami chuqur anglash, uning obrazli-sheʻriy mantiqi, shakl xususiyatlarini tushunib olish - musiqani muvaffaqiyatli ravishda badiiy barkamol qilib yod olishning asosiy shartidir. Ansamblida yoddan chalish asami mexanik ravishda yod olishda emas, balki, tahliliy-mantiqiy, aqliy xotiraning rivojlanishiga yoʻl ochib beradi. Ansamblni oʻrganishdan avval hamkorlar asarning shaklini tushunib olishi, soʻngra esa tarkibiy qismlar ustida ularni bir-biridan farqlagan holda ishlashni boshlashi kerak. Keyingi ish jarayoni frazirovka, dinamika ustida boradi. Yuqorida taʼkidlanganlarni anglab etish awalambor ikkinchi partiya ijrochisi uchun oʻta muhim hisoblanadi. Zero, uning partiyasi akkordli mato yoki arpedjio holatida ifodalangan boʻlishi mumkin. Bu holda, u birinchi partiyaning materialini bilmay turib, asami oʻzi uchun aqliy ravishda tuzib ola olmaydi. Ikkinchi partiya ijrochisi, ayniqsa, garmonik tahlilga eʼtibor qaratishi lozim. Shunga qarab, u asarning umumiy

musiqiy matosini xayolan tinglay olishga o'rganishi kerak. Bu esa ichki tinglash tasawuriga asoslanadi.

Ansambl ijrosi o'quvchining harakat-motor xususiyatlarini ham rivojlantiradi. Ansambl ijrosining yoqimlilik bo'is ilk bosqichda ijro apparatining shakllanishi nisbatan oson kechadi. Bunda o'quvchilar ohang hosil qilishning asosiy usullarini tabiiy yo'l bilan o'zlashtiradilar va musiqiy matoning turli xillari bilan tanishadilar. Bir qarashda, ansamblda ijro etish ko'nikmasi an'anaviy ravishda yuz beradi: tovushqatomi asta-sekin egallash, yangi-yangi ritmlarni o'zlashtirish va b. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, ansambl ijrosida o'quvchining rivoji yanada tezroq yuz beradi va ko'nikmalar ham tezroq mustahkamlanadi. Notadan o'qish - o'quvchining yangi musiqiy material bilan mustaqil tanishish ko'nikmasi bo'lib, keyingi ish jarayonini mazmun va quvonch bilan to'ldiradi. Yangi asar bilan ilk tanishuv o'quvchida qiziqish uyg'otishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun notadan o'qish ko'nikmasini yanada rivojlantirish zarur. Shunga ko'ra, e'tiboming uzoq vaqt jam bo'lishiga erishish va ijrodan ancha oldinda ketayotgan matnni uzluksiz ravon egallash ko'nikmasini qo'lga kiritish zarur. Boshlang'ich bosqichning o'zidayoq engil p'esalami to'rt qo'l bo'lib (ustoz yoki boshqa o'quvchi bilan) chalish tavsiya etiladi. Murakkabroq pyesalarga avvalgi materialni mustahkamlagandan so'nggina o'tish kerak bo'ladi. Materialning murakkablashuvi asta-sekin, o'quvchiga bilinmaydigan holda yuz berishi zarur. Notadan o'qish chog'ida hamkorlik uchun bir xil yoshdagi va bir xil tayyorgarlik darajasidagi bolalar tanlanadi. Bunday holda, o'quvchilar orasida norasmiy musobaqalashuv yuzaga kelib, ijroga nisbatan e'tiboming yanada oshishi kuzatiladi. Bunda o'quvchilarning e'tiborini asami yaxlit anglashga qaratish lozim bo'ladi. Ansamblda notadan o'qish chog'ida asaming murakkab joylarida o'quvchini to'xtatish mumkin emas. Chunki, bu holat hamkor bilan bog'liqlikning buzilishiga olib keladi. Qolaversa, ijro vaqtida tez-tez to'xtash notadan o'qish quvonchini buzadi. Shuning uchun ham ish jarayonida nisbatan oson bo'lgan musiqiy material tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi o'quvchining to'xtagan paytida ikkinchi o'quvchi ijroni to'xtatmasligi talab etiladi. Bu esa, birinchi o'quvchini o'zini yo'qotmay ijroga yana qo'shib ketishiga imkon beradi. Ansambl ijrosiga tegishli aksariyat to'plamlarda ko'p qirrali repertuaming keltirilganini ko'rish mumkin. Ammo ularda uslubiy yo'naltirilganlik ko'zga tashlanmaydi hamda o'quvchi bilan ishlashning o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilmaydi.

Musiqiy materialni tanlashda asosiy omillarga asoslangan prinsiplar quyidagicha:

•Estetik - zamonaviy g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni tanlashni taqozo etadi. Bunda musiqiy madaniyatda qaror topgan janr va uslub xilma-xilligi aks etadi;

•Ruhiy - o'quvchi larning hayotiy va musiqiy tajribasiga mos keladigan mazmundagi asarlarni tanlash. Shu bilan birga, o'quvchilarning keyingi rivojini taqozo etadigan asarlar tanlanishi kerak bo'ladi;

•Musiqiy-pedagogik - dasturning tematik mazmuniga tegishli asarlarni tanlashni taqozo etadi.

Bolalar mavzusidagi asarlar, shuningdek, ijro apparatining xususiyatini ko'zlagan holda tanlangan asarlar. Ushbu o'rinda bolalar ruhiyati haqida ham to'xtalib o'tish joizdir. Bu borada ustoz zimmasiga bolani musiqa orqali tarbiyalashdek ulkan mas'uliyat yuklatiladi. Bu esa o'quvchi shaxsining chuqur psixologik tahlili, uning takrorlanmas individualligini aniq lash orqali erishiladi. Repertuar tanlashda nafaqat pianistik va musiqiy vazifalar, balki, bolaning xarakter qirralari ham ya'ni: uning aqli, artistizmi, temperamenti, qalb qirralari, qiziqishlari hisobga olinishi

zarur. Zero, ushbu xususiyatlarda shaxsning qalb kechinmalari, sirli umidlari aks etadi. Agar kamharakatli bolaga hissiy va harakatchan asar berilsa, bunda muvaffaqiyatga erishish qiyin boiadi. Ammo bunday asami albatta chalib ko‘rish kerak. Harakatchan bolaga esa, chuqur mazmundor va falsafiy asarlami berib chaldirish foydalidir. Repertuar tanlash vaqtida ustoz o‘quvchining xohish-istagini, uning munosabati va fikrini inobatga olishi zarur. Aslida yangi repertuar tanlanishiga bolalar hech qachon qarshi boiishmaydi. Shunday qilib, ansambl sinfidagi repertuar tanlash imkoniyati qator pedagogik hamkorlik prinsiplarini shakllantiradi: ilgarilash, erkin tanlash, majburiyatsiz o‘qitish. Bunday shakl esa o‘quvchining har tomonlama rivojiga qaratilgan erkin repertuar siyosatini taqozo etadi.

#### **REFERENCES**

1. Atton Kriss “Muxlislar nutqi shovqinli musiqaning janr sifatida qurilishi” Ommabop musiqa tadqiqotlar ijurnali, T.: 2011.
2. Olbrayt Doniyor. “Modernizm va musiqa: Manba antalogiyasi”. Chikago, “Chikago universiteti matbuoti”, T.:2004
3. F.N.Xalilov. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini cholg'u-ijrochilik tayyorlashning didaktik asoslari" Diss avtoreferati pedagogika fanlari doktori. T.: 2006.
4. Kiyamov N.S. "Musiqiy madaniyat tarbiyasini o'rganishga yo'naltirilgan nazariy tadqiqotlarni olib borish xususida". "Sharq" nashriyoti. T.: 2009.



## THE SIMPLEST AND MOST CONVENIENT METHODS OF DEFINING FUNCTIONS IN MATHEMATICS AND EXAMPLES OF GP IN THE FIELD OF VALUES

**Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

[Saidakhon.toshboyeva@gmail.com](mailto:Saidakhon.toshboyeva@gmail.com)

**Hojimamatova Hilola Umidjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti o'quvchisi

[hojimamatovahilola@gmail.com](mailto:hojimamatovahilola@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7954073>

**Abstract.** This article provides a general and detailed overview of the area of definition and values that many readers find difficult. The ability to find answers to simple and complex functions using convenient methods is introduced.

**Key words:** Domain of definition, domain of values, quadratic function, trigonometric functions, linear functions.

## ПРОСТЕЙШИЕ И УДОБНЫЕ СПОСОБЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ФУНКЦИЙ В МАТЕМАТИКЕ И ПРИМЕРЫ ГП В ОБЛАСТИ ЗНАЧЕНИЙ

**Аннотация.** В этой статье представлен общий и подробный обзор области определения и значений, которые многим читателям кажутся трудными. Введена возможность находить ответы на простые и сложные функции удобными методами.

**Ключевые слова:** область определения, область значений, квадратичная функция, тригонометрические функции, линейные функции.

---

Another important issue that always comes to our mind is related to the manners, behavior and, in a word, worldview of our youth. Today, times are changing rapidly. Those who feel these changes the most are young people. Let the youth be in harmony with the demands of their time. But at the same time, he should not forget his identity. Let the call of who we are, the descendants of great people always echo in the heart of the file and encourage us to stay true to ourselves. What can we achieve? Education, education and only education. (I.A. Karimov.)

Every person wants the science he studies to be more perfect and looks for its favorable aspects, works tirelessly on himself, as it can be seen that every science and field has its own difficulties and aspects to consider. For example, let's look at mathematics, from afar it seems difficult and sometimes impossible, but if we look closely at mathematics, it becomes much easier to understand its beauty and meaning. As a proof of this, we will provide information about the simplest and most convenient methods of defining functions and examples in the field of values in mathematics. First, "What is a domain of definition and a domain of values?" Let's form general ideas about this concept. That is, we do not abstract certain concepts in our brain with the rule. Actually the rule confuses the point, this is my personal opinion. The field of definition is the values that the function can accept, and the expression formed by these values is called the field of values of the function. As a clear example of this, we will get acquainted with the following functions. First, let's get acquainted with examples related to the field of detection.



1 The domain of linear quadratic and cubic functions like  $f(x) = kx + b$ ,  $f(x) = ax^2 + bx + c$ ,  $f(x) = ax^3 + bx^2 + cx + t \dots$  is always  $(-\infty; \infty)$ . This is simply because there are no exceptions to the values  $x$  can accept.

2.  $f(x) = \frac{1}{x}$  What is the domain of the function? We find a solution to this as follows. It cannot accept only the number 0 in the denominator. That is, it satisfies all values other than 0. We set the condition  $x \neq 0$ . This results in the following inequality. We remove the number 0 from the numbers up to  $(-\infty; \infty)$  and get the following inequality.

Answer:  $D = (-\infty; 0) (0; \infty)$

3. Let's find the field of definition for the  $f(x) = \frac{1}{x-2}$  function. In this case, we work as  $x-2 \neq 0$  and get  $x \neq 2$ . That is, when the denominator takes the number 2, it remains 0, so the number 2 should be removed from the inequality.

Answer:  $D = (-\infty; 2) (2; \infty)$ .

4. Find the domain of the function ~~xxxx~~

1) we do not pay attention to  $x-3$  in the picture. We only find the definition area for the denominator. The domain of definition in the denominator is valid for an entire function.

2)  $x^2 - 3x + 2 \neq 0$ ;  $x \neq 2$ ,  $x \neq 1$  is formed

3) We remove the numbers 2 and 1 from the numbers  $(-\infty; \infty)$ . And the following inequality is formed.

Answer:  $D = (-\infty; 1) (1; 2) (2; \infty)$

5. Let's pay attention to the definition area of the function  $f(x) = \sqrt{x}$ . For functions under even roots, the only condition  $x \geq 0$  is enough. And the following answer is formed.

Answer:  $D = (0; \infty)$

6. Find the area where  $f(x) = \sqrt{x-3}$  is defined

1)  $x-3 \geq 0$ .  $x \geq 3$  is formed

Answer:  $D = [3; \infty)$

7. Find the domain of the function  $f(x)$ .

1) we apply the expression under the root according to the above rule.

2) We give the condition  $3x-6 > 0$ . Why is the inequality sign  $>$  instead of  $\geq$  The reason is very simple, if the sign is non-deterministic, a value will be generated that will make the denominator 0, so we specify a non-deterministic sign.

3)  $3x > 6$ ;  $x > 2$

Answer:  $D = (2; \infty)$

8. Find the domain of the  $f(x) = |x|$  function

1) An even number always appears under the module. We can say that this is an invariant axiom. That is, it is an opinion that does not require any proof.

2) So the expression under the module can accept any number.

Answer:  $(-\infty; \infty)$

9.  $f(x) = \frac{1}{x^2}$ ,  $f(x) = \frac{1}{x^3}$ ,  $f(x) = \frac{1}{x^4}$ .... Etc., the field of definition of functions of the form

$f(x) = \frac{1}{x}$  takes values  $(-\infty; 0)$   $(0; \infty)$ .

Answer:  $D = (-\infty; 0) (0; \infty)$

10. The definition area of  $f(x) = \sin x$ ,  $f(x) = \cos x$ ,  $f(x) = \operatorname{tg} x$ ,  $f(x) = \operatorname{ctg} x$  functions is  $(-\infty; \infty)$  accepts numbers up to That is,  $x$  is always valid in all values.

Answer:  $D = (-\infty; \infty)$

But there are some exceptional cases. Let's take a look at them. For example, given a function

$f(x) = \sin \frac{1}{x}$ , a very simple solution is the same as the function  $f(x) = \frac{1}{x}$  with domain of

definition. That is,  $D = (-\infty; 0) (0; \infty)$  is formed. Don't get distracted by one thing, it's not

good to rush to assume that the function  $\sin x$  is always  $D = (-\infty; \infty)$ . Regardless of what function is given, we should always pay attention to the values that  $x$  can take.

Or consider the function  $f(x) = \operatorname{tg} \frac{1}{x^2 - 4x + 3}$ .

1) It is enough to find the domain of the  $\frac{1}{x^2 - 4x + 3}$  function

2)  $x^2 - 4x + 3 \neq 0$ ,  $x \neq 3$ ,  $x \neq 1$  is formed.

The domain of the function  $f(x) = \operatorname{tg} \frac{1}{x^2 - 4x + 3}$  is  $(-\infty; \infty)$ , the numbers 3 and 1 are removed and the following answer is obtained.

Answer:  $D = (-\infty; 1)$ ,  $(1; 3)$ ,  $(3; \infty)$

Let's look at examples from the field of values.

1. Find the domain of the function  $F(x) = kx + b$ .

1) The example is solved by replacing the expressions  $k$  and  $b$  with numbers.

2)  $k = 2, b = -3; y = 2x - 3$  this expression has a solution for all real values of  $x = -1, y = -4; x = 0, y = -3; x = 1, y = -1$ ..... It can go on like this.

Answer:  $A = (-\infty; \infty)$

2. Find the domain of the function  $F(x) = ax^2 + bx + c$ .

1) A, b, c expression is replaced by a numerical value

2)  $a = 1, b = 4, c = 3$   $y = x^2 - 4x + 3$

3)  $y = x^2 - 4x + 3$  is derived from the expression.  $y' = 2x - 4$

4) The expression  $y' = 2x - 4$  is equal to 0.  $2x - 4 = 0; x = 2$

5) The expression  $x = 2$  is substituted for the expression  $y = x^2 - 4x + 3$

6)  $y = 2^2 - 4 \times 2 + 3; y = 4 - 8 + 3; y = -1$

7) means, after satisfying the condition  $a > 0$ , the answer is  $(-\infty; -1]$ . If  $a < 0$ , it would be the opposite, i.e.  $[-1; \infty)$

Answer:  $A = (-\infty; -1]$

3. Find the domain of the function  $F(x) = \frac{1}{x}$

1) Let's think a little through this example condition. When the denominator is 0, the expression has an unacceptable range of values.

2) This expression produces  $x \neq 0$ . And this number 0 is removed from the number line. And the following response is generated.

Answer:  $(-\infty; 0) (0; \infty)$

4. We try to find the range of values of the expression  $y = \frac{1}{3x-9}$ . Based on the reasoning above, the denominator should not be 0, and we should exclude that number from the answer.

1)  $x \neq 3x-9; x \neq 3$  is formed

Answer:  $(-\infty; 3) (3; \infty)$

5. Find the domain of the function  $F(x) = \sqrt{x}$

1) Such examples are actually very simple. It is necessary to understand the way of work, not to memorize it. These simple examples are the basis for working on difficult examples.

Let's look at the range of values of functions  $F(x) = \cos x, F(x) = \sin x$ .

1) in these functions, which we have seen above,  $x$  is an unknown number of arbitrary infinite values.

2) but  $x$  always has  $[-1; 1]$  values even when it is any infinite number

Answer:  $[-1; 1]$

7. Find the domain of the functions  $F(x) = \operatorname{tg} x$  and  $F(x) = \operatorname{ctg} x$ . Among the functions, the most simple way to find the values and the field of determination is precisely these functions.

Answer:  $D = A = (-\infty; \infty)$

Conclusion: The methods and recommendations given in this article about the examples and problems given in the field of values and the field of definition are very useful. In the society we live in, many things seem complicated, but everything is very easy. It is only necessary to know how to place these complexities in the child's mind and to have the right psychological approach. Taking into account his nature and thinking, a certain topic should be explained in a childish way in the language he is interested in.

### REFERENCES

1. Karimov I.A. "A perfect generation is the foundation of the development of Uzbekistan" Tashkent: Spirituality 1997.
2. Jumayev M.E., Tajiyeva Z.G. "Methodology of teaching mathematics in primary grades" Tashkent: science and technology, 2005.
3. Toshboyeva, S. R., & Turg'unova, N. M. (2021). THE ROLE OF MATHEMATICAL OLYMPIADS IN THE DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL CONSCIOUSNESS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 247-251.
4. Toshboyeva, S. R., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Specific ways to improve mathematical literacy in the process of sending students to higher education. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 11(10), 234-240.
5. Toshboyeva, S. R. (2020). Competent approach in teaching probability theory and mathematical statistics. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*.
6. Rahmonberdiyeva, T. S., & Soxibovna, A. M. (2021). Techniques for Teaching Elementary Students Rational Numbers and Convenient ways to Perform Operations on Them. *International journal of culture and modernity*, 11, 283-287.
7. Raxmonberdiyeva, T. S., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Methods for the development of stochastic competence in mathematics lessons at school. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 863-866.
8. Rakhmonberdiyeva, T. S. (2022). CREATIVITY AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *Conferencea*, 138-141.
9. Rakhmonberdiyeva, T. S. (2022). RESEARCH OF CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER. *Conferencea*, 155-157.
10. Rahmonberdiyeva, T. S. (2022). MULOHAZALAR VA PREDIKATLAR USTIDA AMALLAR MAVZUSI BO 'YICHA BA'ZI MASALALARNI YECHISHNING SODDA YO 'LLARI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 234-237.
11. Тошбоева, С. Р. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 4(1), 294-297.
12. Тошбоева, С. Р. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТ ЖАРАЁНИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 4(1), 289-293.

13. Toshboeva, S. R., Mallaboeva, B. M., & Yusupova, L. A. K. (2022). LAWS AND THEIR APPLICATION BASED ON SOME INTERESTING COMBINATORIAL PROBLEMS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 1341-1349.
14. Rahmonberdievna, T. S., & Mukhtorovna, M. B. (2022). LAWS AND THEIR APPLICATION BASED ON SOME INTERESTING COMBINATORIAL PROBLEMS.
15. [www.pdfactory.com](http://www.pdfactory.com).
16. Gafurova, M. A. (2022). Improving Mental Skills Of Students By Analyzing And Solving Problems. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 3(01), 40-44.
17. Gofurova, M. A. (2020). Development of students' cognitive activity in solving problems. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 677-681.
18. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(10), 236-242.
19. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(2), 447-450.
20. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. (Development of cognitive activity of students in solving problems ) *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
21. Гафурова, М. А. (2022). МЕТОДЫ И ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ. *Scientific Impulse*, 1(5), 598-602.
22. Alijon, A. (2023). DIFFERENT METHODS OF MODELING IN PRIMARY CLASSES. *Open Access Repository*, 4(3), 382-389.
23. Asimov, A. (2019). USING PROBLEMS AND TRAINING STUDENTS TO PROBLEM. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 348-352.
24. Asimov, A. (2019). APPLICATION OF MUCH MUTUAL INSTRUCTIONS FOR PREPARING TEACHERS TO TEST DISCIPLINES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(4), 255-258.
25. Alijon, A. (2023). BERILGAN RASMLI MASALALAR USTIDA IJODIY ISHLASH USULLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 859-861.
26. Alijon, A. (2022). IQTISODIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MASALALARNI YECHISH USULLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 828-833.
27. Mirzaxolmatovna, X. Z., Nematovna, R. S., & Shavkatovna, S. R. (2022). FORMS OF THINKING IN THE PROCESS OF STUDYING MATHEMATICS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(12), 259-263.
28. Mahpuza, A., Rahmatjonzoda, A., & Zilola, X. (2022). ATTITUDE TO MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 208-212.

29. Adkhamjanovna, K. M., Mirzakholmatovna, K. Z., & Raxmonberdiyevna, T. S. kizi, M. MB.(2022). Increasing Interest in the Lesson through Extracurricular Activities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 256-261.
30. Mirzaxolmatovna, X. Z. (2021). The role of logical issues in teaching mathematics to primary school pupils. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 465-467.
31. Хурсанова, З. М., Фозилов, Ж. И., & Давыдова, Е. П. (2021). ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ. *Интернаука*, (24-1), 87-88.
32. Ibrokhimovich, F. J., & Mirzaxolmatovna, X. Z. (2022). THE MOST IMPORTANT ROLE OF MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 652-655.
33. Mirzaxolmatovna, X. Z., & Ibrokhimovich, F. J. (2022). Methods And Techniques of Teaching in Mathematics Lessons in Primary School and Their Positive and Negative Aspects. *The Peerian Journal*, 5, 70-73.
34. Mirzaxolmatovna, X. Z., & Ibrokhimovich, F. J. (2021). DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN THE LESSONS OF MATHEMATICS IN ELEMENTARY CLASSES. *EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management*, 8(11), 1-1.
35. Mirzaxolmatovna, X. Z., Ibrokhimovich, F. J., & Ne'matovna, R. S. (2022). Methodology of Teaching Mathematics in Primary Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 7, 81-83.
36. Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna, (2023/02) «Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari» FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI NASHR: 02 94-98
37. Toshboyeva, S. R., & Turg'unova, N. M. (2021). THE ROLE OF MATHEMATICAL OLYMPIADS IN THE DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL CONSCIOUSNESS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 247-251.
38. Toshboyeva, S. R., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Specific ways to improve mathematical literacy in the process of sending students to hinger education. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 11(10), 234-240.
39. Toshboyeva, S. R. (2020). Competent approach in teaching probability theory and mathematical statistics. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*.
40. Rahmonberdiyevna, T. S., & Soxibovna, A. M. (2021). Techniques for Teaching Elementary Students Rational Numbers and Convenient ways to Perform Operations on Them. *International journal of culture and modernity*, 11, 283-287.
41. Raxmonberdiyevna, T. S., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Methods for the development of stochastic competence in mathematics lessons at school. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 863-866.
42. Rakhmonberdiyevna, T. S. (2022). CREATIVITY AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *Conferencea*, 138-141.
43. Rakhmonberdiyevna, T. S. (2022). RESEARCH OF CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER. *Conferencea*, 155-157.



44. Rahmonberdiyeva, T. S. (2022). MULOHAZALAR VA PREDIKATLAR USTIDA AMALLAR MAVZUSI BO 'YICHA BA'ZI MASALALARNI YECHISHNING SODDA YO 'LLARI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 234-237.
45. Тошбоева, С. Р. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 4(1), 294-297.
46. Тошбоева, С. Р. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТ ЖАРАЁНИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 4(1), 289-293.
47. Toshboeva, S. R., Mallaboeva, B. M., & Yusupova, L. A. K. (2022). LAWS AND THEIR APPLICATION BASED ON SOME INTERESTING COMBINATORIAL PROBLEMS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 1341-1349.
48. Rahmonberdiyeva, T. S., & Mukhtorova, M. B. (2022). LAWS AND THEIR APPLICATION BASED ON SOME INTERESTING COMBINATORIAL PROBLEMS.
49. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
50. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
51. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
52. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
53. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

## BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Yo'ldasheva Dilshoda To'liqinova

FarDu Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7954089>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda nutq tarbiyasi va izchil nutqni rivojlantirishga bag'ishlangan.

*Kalit so'zlar:* nutqni rivojlantirish, muloqot faoliyati, psixik jarayon, intellektual mashq.

## METHODS OF FORMING SPEECH SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH

*Abstract.* This article is devoted to speech education and development of coherent speech in children of preschool age.

*Key words:* speech development, communication activity, mental process, intellectual exercise.

## МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ

*Аннотация.* Данная статья посвящена речевому воспитанию и развитию связной речи у детей дошкольного возраста.

*Ключевые слова:* речевое развитие, коммуникативная деятельность, мыслительный процесс, интеллектуальная деятельность.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi. Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

«Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi A. M. Borodich – Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashayolmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur- ob'ektiv borliqning intihosi, til esa - fikrni boshqa kishilarga yetqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi». Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish faoliyatlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida. Biroq A.M.Borodich,

F.A.Soxin, Ye.I.Tixeeva, O.S.Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejalashtirilgan va tashkil etilgan faoliyatlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, faoliyatlarni tashkil etishda eng ma'qul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo'ladi: faoliyatlarni ularning maqsadi, mazmuni va o'tqazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish; bolalarning analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni yechish faoliyatlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, o'xshashliklarini ajratish; tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish faoliyat mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash; bolalarda nutqni shakllantirishga oid faoliyatlarga qiziqish uyg'otish; rejalashtirilgan faoliyatlar o'rtasida izchillikka rioya qilish.

Ma'lumki, nutqda belgilarni qo'llash an'anasi hech kim tomonidan boshqarilmaydi. Vujudga kelgan an'anani eslash va undan foydalanish kerak. Shuning uchun ham, nutqqa ega bo'lish uchun til belgilaridan foydalanish an'anasini (ularning kombinatsiyalari, bir-birini almashtira olishni bilish lozim. Ana shu munosabat bilan tadqiqotchilardan L.P.Fedorenkova G.A. Fomichevalar metodik jihatdan muhim g'oyani ilgari suradi: «Bolani nutqqa o'rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtimom va tuyg'ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o'rgatish, adabiy me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir». Bola tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e'tiborimizni qaratdikki, ushbu qo'llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tiborq aratadilar. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart- sharoitlarni yaratish zarur.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash, savod o'rgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug'at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalar belgilangan bo'lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko'zda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi.

Jamoat tarbiyasi sharoitida ta'lim-bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Ona tilini o'qitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish,

nutqiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli – ta'limiy faoliyatlardir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangi materialni ma'lum qilish faoliyati;
- bilimlar, mahorat va ko'nikmalar mustahkamlashga oid faoliyatlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid faoliyatlar;
- yakuniy faoliyatlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) faoliyatlari.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir faoliyatlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan faoliyatlar soni, har bir faoliyatning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir faoliyatlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngil ochar tusga, balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir faoliyatlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Ta'limiy faoliyatlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

❖ To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi;

❖ dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'z siz usullar bilan javob bera olishni biladi;

2019-yilning o'tgan davri mobaynida 244 ta madaniy meros obyektlarining bino-inshootlari va egallab turgan yer uchastkasi bilan birgalikda Madaniy meros boshqarmasi tasarrufiga tegishli qaror bilan egalik huquqi tasdiqlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2019-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini Farg'ona viloyatida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ga asosan sayyohlar tashrif buyuradigan obektlarga turniket hamda o'zbek, rus va ingliz tillarida yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish belgilangan. Ushbu qarorga asosan joylardagi 204 ta moddiy madaniy meros obyektlariga muhofaza belgisi o'rnatilib, 146 ta yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi. 9 obyektga WI-FI va audiogidlar va 2 ta obyektga elektron hisoblash uchun turniket moslamasi o'rnatildi. Bundan tashqari Marg'ilon shahridagi "Erkin Vohidov memorial" muzeyiga AG soolai-600 rusumli 30 dona, Qo'qon shahar madaniyati tarixi davlat muzeyiga 9 ta obyekt bo'yicha - Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi hamda uning filiallari: Hamza uy-muzeyi, Amaliy san'at muzeyi, Muqimiy hujra muzeyi, Buyuk allomalar muzeylarida, Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi tarkibiga kiritilgan Dasturxonchi madrasasi, Norbo'tabiy madrasasi, Dahmai Modarixon majmualarida hamda shahardagi tarixiy obidalar Dahmai Shoxon va Hojibek madrasalarida Smail Hengda rusumli 30 dona audiogid moslamalari o'rnatildi. Audiogid moslamalari 7 ta jahon tillariga dasturlashtirilgan bo'lib, bir guruh (60 nafar tomoshabin) uchun 50 dan ortiq mavzudagi bo'limlarni hikoya qilib beradi. Hozirda viloyatning boshqa muzeylar hamda madaniy meros ob'ektlari uchun ham audiogidlar va 2 ta turniket moslamasi o'rnatish ishlari rejalashtirilmoqda.[9]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qaroriga muvofiq, shuningdek Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlaridagi moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, tevarak atrofidagi tarixiy muhiti bilan birga asrash va ulardan oqilona foydalanish maqsadida "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi Farg'ona viloyatidagi Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi negizida tashkil etilishi belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-son qarori bilan "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi-Farg'ona viloyatidagi Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi negizida tashkil etilishi ta'kidlanib, "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi ijara haqining "nol" stavkasiga asosan birlashtiriladigan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari Xudoyorxon o'rdasi, Jome' masjidi, Sobiq davlat banki binosi, Miyon Hazrat madrasasi, Norbo'tabek madrasasi, "Modarixon" maqbarasi, "Daxmai Shaxon" maqbarasi hamda Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi ro'yhati tasdiqlandi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini bo'sh turgan joylaridan samarali foydalanish maqsadida 2020-yilda 17 ta madaniy meros obyektlarining bo'sh turgan xona va maydonlarini 28 ta tadbirkor va xunarmandlarga uch tomonlama ijara shartnoma asosida viloyat "Ijara markazi" tomonidan ijaraga berilgan. Mazkur obyektlarning Qo'qon shahrida 10 ta, Marg'ilon shahrida 5 ta, Bog'dod tumani hamda Furqat tumanidan 2 ta yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan bo'lib, ushbu ob'ektlar bo'yicha 127,2 mln so'mlik shartnomalar imzolandi.[10]

2020-yil davomida manzilli dasturga kiritilgan Respublika budjeti mablag'lari hisobidan 7 ta madaniy meros obyektlarida Farg'ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi nazorati ostida

ta'mirlash-tiklash ishlari olib borildi. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi madaniy meros obektlari "O'zbekiston tarixi" telekanali Farg'ona viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi xamda viloyat Madaniy meros boshqarmasi bilan yaqindan xamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, hamkorlikda bir qator ko'rsatuvlar tayyorlandi va efirga uzatildi. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Madaniy meros boshqarmasi, "Xunarmandlar" uyushmasi va Farg'ona viloyati hokimligi hamkorligida tashkillangan "INFOTUR" ishtirokchilarining shaharning diqqatga sazovor joylarini ziyorat qilganlari to'g'risida "Dunyo bo'ylab" va "Sevimli" kanallarida chiqishlar qilindi.

"Sevimli" kanaliga orqali 2021-yil 12-mart kuni "Qo'qonning noyob obidasi" ko'rsatuvi uchun Jome' masjidi ustunlari xaqidagi ma'lumotlar berildi. Shuningdek internet tarmog'ining Madaniyat.uz. saytiga ham uzatildi.

Bundan tashqari "Sevimli" telekanalida 2021-yil 20-mart kuni "Qo'qon tarixi", "Hudoyorxon o'rdasi", "Ta'mir ishlari xususida", "Qo'qon arava" mavzularida interv'yu berildi. "Qo'qon arava" mavzusida tayyorlangan "Qo'qon aravasi tarixiga nazar" ko'rsatuvi efirga uzatildi.

Shuningdek, "Dunyo bo'ylab" kanalida namoyish etiladigan ko'rsatuv uchun "Xudoyorxon o'rdasi" haqida, "Muloqot" telekanali orqali Norbo'tabek madrasasi tarixi haqida, Respublika "Maxalla" radiosining "Ziyoratgohlar" eshittirishi uchun Qo'qondagi ziyoratgohlar haqida, "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Moziydan sado" ko'rsatuvida "Jome'" masjidi tarixi haqida, O'zbekiston muzeylari kanalida Furqat tumani Shoto'ra qishlog'idagi Novdarkayboy madrasasi haqida, "Ruxsor" televideniyesining "Borish shart" nomli ko'rsatuvi orqali "Qo'qon o'rdalari", "Xudoyorxon o'rdasi", "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi" mavzularida ma'lumotlar berildi.

Ommaviy axborot vositalari orqali moddiy-madaniy meros obektlari haqida ko'rsatuvlar va maqolalar bilan chiqishlar xalqimizga va tarximizga qiziquvchi o'zga yurt vakillarini sohaga doir axborot bilan ta'minlab boradi. Shuningdek, ushbu chiqishlar davomida tarixiy obektning hozirgi kunda yetarlicha muhofaza etilmaganligi va turli sabablar tufayli yo'q bo'lish arafasida ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Farg'ona tumanida "Mug'poshsho" nomi bilan mashhur bo'lgan arxeologik obektda oxirgi 30 yilda biron marta arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi va obyektning tabiiy hodisalar ta'sirida yo'q bolib ketishini oldini olish uchun hech qanday ishlar amalga oshirilmaganligiga O'zbekiston tarixi telekanali tomonidan suratga olingan "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvining 2021-yil 19-may kuni Farg'onaning arxeologik yodgorliklari mavzusidagi sonida guvoh bo'lamiz.

## REFERENCES

1. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
2. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
3. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILYIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.

4. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
5. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
6. Нажмиддинов, Э., & Мухамедиев, М. (2023). FISH HELMINTHS IN FISH RESERVOIRS OF FERGANA VALLEY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).
7. Нажмиддинов, Э. Х., & Мухаммадиев, М. А. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИНИНГ ТУР ТАРКИБИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 60-68.
8. Нажмиддинов, Э. Х. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 189-194.
9. Najmiddinov, E. (2022). THE SIGNIFICANCE OF NATURE IN THE FORMATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE IDEAL GENERATION. *Science and Innovation*, 1(8), 149-154.
10. Najmiddinov, E. (2022). " ICHTHYOLOGY AND HYDROBIOLOGY" PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIRECTIONS IN UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 1(8), 152-160.
11. Abidjanovich, A. A. (2022). THE NEED TO IMPROVE HUMAN'S NOOSPHERICAL RELATIONSHIP TO NATURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 23-30.
12. Abidjanovich, A. A. (2022). THE ROLE OF CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING PERSONAL ECOLOGICAL CULTURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 5-12.
13. Абдумаликов, А. (2022). АТРОФ-МУҲИТНИ АСРАШ БЎЙИЧА МИЛЛИЙ СТРАТЕГИК РЕЖА ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 251-258.
14. Абдумаликов, А. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЭКОЛОГИК МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ДАСТУРИ. *Scientific progress*, 3(2), 1179-1186.
15. Абдумаликов, А. А. (2019). Human and Natural Harmony in the Historical Process. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 205-209.
16. Abidzhanovich, A. A. (2020). Issues Of Formation Of Rationality In Relations Of Nature With Society. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 301-304.
17. Abdumalikov, A. A. (2019). Environmental Ecological Policy in Uzbekistan and Necessity Of Formation Of Rational Communication To Nature. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 94-101.
18. Мирзобоев, Й. А. (2022). Тур Ўзгариш Чизиклари Учта Бўлган, Гиперболик Қисмлариининг Ҳаммаси Харақтеристик Учбурчаклардан Иборат Бўлган

- Бешбурчакли Соҳада Учинчи Тартибли Кўринишдаги Параболик-Гиперболик Тенглама Учун Битта Чегаравий Масала Ҳақида. *Theory And Analytical Aspects Of Recent Research*, 1(5), 363-366.
19. MIRZABOYEV, Y. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI. O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAQSADI. *ЭКОНОМИКА*, 169-172.
  20. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.
  21. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.
  22. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).
  23. Miralimjanovna, Q. S. (2022). O' SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.
  24. Iminov, B. B. (2020). INNOVATIVE CULTURAL LINKS ARE AN IMPORTANT FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 263-270.
  25. Iminov, B. B. (2019). A PHILOSOPHICAL APPROACH TO INNOVATIVE AND CULTURAL-RELATIONS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(5), 157-162.
  26. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 366-372.
  27. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
  28. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.
  29. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития"*, (10), 90-92.
  30. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
  31. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 32-36.
  32. Kosimova, X. (2022). THE IMPORTANCE OF READING CULTURE IN THE FORMATION OF A HEALTHY SPIRITUAL CLIMATE IN THE FAMILY. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 7-13.



33. Qosimova, X. (2022). THE SIGNIFICANCE OF LIBRARY CULTURE IN FORMING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY. *Science and Innovation*, 1(8), 142-148.
34. Qosimova, X. (2022). OILADA SOG'LOM MA'NAVİY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KITOVXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 142-148.
35. ҚОСИМОВА, Х., & КАРИМОВА, Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, 612-615.
36. Джалолова, М. (2021). Эъзога Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова." *ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.*" *Scientific progress*, 1.
37. Buzrukova, D. M. (2023). "МУНАББАТ" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 178-183.
38. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 239-242.
39. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
40. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
41. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O 'ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 793-797.
42. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIIY XABARLAR*, 1, 318-321.
43. Abdugofurovna, J. N., & Turgunovna, M. S. (2022). The Problems In Teaching Language. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(5), 46-48.
44. Jumaniyazova, N. A. O., & Mavlonova, S. T. U. (2022). CHET TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV PRINSIPLAR HAMDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ROLI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 118-122.
45. Turg'Unovna, M. S. (2022). Yangi O'zbekistonda diniy-dunyoviy qarashlar. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 115-120.
46. Ernazarov, G., & Mavlonova, S. (2023). INDICATORS OF SPEED PHYSICAL QUALITY OF STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B1), 177-183.



47. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
48. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOİY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.
49. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
50. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.
51. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOİY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.
52. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH–IJTIMOİY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.
53. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIY PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
54. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.
55. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.
56. Abduraxmonov, A., & Kadirov, S. (2022). DEMOGRAFIK JARAYONLARNING IQTISODIY-IJTIMOİY SOHALARNI RIVOJLANISHI BILAN BOG 'LIQLIGI VA DASTLABKI XUSUSIY MULK MASALALARI. *IJTIMOİY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 222-229.
57. Siddikov, F. Z. (2023). BASKETBOLCHI BOLALAR VA O'SMIRLARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI. *Ustozlar uchun*, 43(3), 120-123.
58. Сиддиқов, Ф., & Эшимов, Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 41-44.
59. Farrux, S. (2022). SPORT O 'YINLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 184-189.
60. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322.
61. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO JURNALI*, 2(2), 777-785.

62. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
63. Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
64. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". *PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22.
65. Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 542-546.
66. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
67. Холикова, Д. (2021). Возможности диагностики эффективности компенсационного подхода в обучении. *Общество и инновации*, 2(9/S), 239-252.
68. Kholikova, D. M. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 422-424.
69. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 549-552.
70. Kholmatova, Z. T. (2022). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 60-65.
71. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
72. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
73. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 136-139.
74. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 140-144.
75. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
76. Холматова, З. Т. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ ДАВР ТАЛАБИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 134-140.
77. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
78. То'лқinovna, Y. D. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA МАТЕМАТИК TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

- METODLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 25-31.
79. Yuldasheva Dilshoda To‘Lqinovna (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
80. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
81. Tulkinovna, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
82. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
83. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
84. Alimjanova, M. (2021). About Gender Stereotypes. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-5.
85. Yunusovna, A. M. (2021). Pedagogical system of responsibility formation in primary school students based on national staff. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(06), 1-7.
86. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.
87. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.
88. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).
89. Miralimjanovna, Q. S. (2022). О ‘SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.
90. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
91. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
92. Alimjanova, M. (2021). About Gender Stereotypes. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-5.
93. Yunusovna, A. M. (2021). Pedagogical system of responsibility formation in primary school students based on national staff. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(06), 1-7.

94. To‘lqinovna, Y. D. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-31.
95. Yuldasheva Dilshoda To‘lqinovna (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
96. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
97. Tulkinovna, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
98. Shavkatovna, S. R. (2021). Developing Critical Thinking In Primary School Students. *Conferencea*, 97-102.
99. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
100. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.
101. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
102. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 235-239.
103. Махамдалиевна, Y. D., Òljayevna, Ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
104. Shavkatovna, S. R. N. (2022). THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 128-133.
105. Шарофутдинова, Р. Ш. (2022). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 149-158.
106. Shavkatovna, S. R. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY. *Open Access Repository*, 4(03), 51-59.
107. Aminova, F., Ahlimirzayev, A., & Sharofiddinova, R. (2023). USING THE PRINCIPLE OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIP IN STUDYING DIFFERENTIAL EQUATIONS IN SPECIALIZED SCHOOLS AND ACADEMIC LYCEUMS.

108. Sharofutdinov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONDITIONS OF INFORMING EDUCATION. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 424-429.
109. Sharofutdinov, I. (2023). THE ACTUAL STATUS OF THE METHODOLOGY OF DEVELOPING ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONDITIONS OF INFORMING EDUCATION. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 206-213.
110. Sharofutdinov, I. (2023). BO ‘LAJAK PEDAGOG LARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AMALIYOTDA QOLLASH. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(7), 54-58.



**QO‘QON SHAHRIDAGI TARIXIY – MADANIY YODGORLIKLAR VA ULARNING  
HOLATI (1991–2020 YILLAR ABDULXAKIM XALIFA MAQBARASI, AVRAT  
MASJIDI, ALIXON XOJI MADRASASI, XUDOYORXON O‘RDASI, NORBO‘TABEK  
MADRASASI ME‘MORIY YODGORLIKLAR MISOLIDA): SAQLASH, MUHOFAZA  
QILISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH MASALASI**

**Kadirov Shoxruxbek Musajon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo‘lim

ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası tarix fani o‘qıtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7954447>

*Annotatsiya.* O‘zbekistonda tarixiy – madaniy meros obyektlarini saqlash, tiklash va ta‘mirlash ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki madaniy meros obyektlari, ayniqsa, me‘moriy obidalar milliy qadriyatlarimizning moddiy asosi bo‘lishi bilan birgalikda, mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatidagi madaniy meros obyektlari – Pir Siddiq, “Kirgil ota mozor”, Ulug‘mozor ziyoratgohi, Jahon otin Uvaysiy maqbarasi va muzeyi, Said Ahmad Xoja Eshon ko‘chasida joylashgan madrasa binosi asosida “Ochiq osmon ostida”gi muzey kabi tarixiy – madaniy yodgorliklar ziyoratgohlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar Farg‘ona viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishda manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** ziyoratgoh, maqbara, vasiqa, pir, avliyo, Mashat mozor, Chaqqa mozor, Kirguli, ziyorat turizmi.

**HISTORICAL AND CULTURAL MONUMENTS IN THE CITY OF KOKAND AND  
THEIR CONDITION (1991-2020 ABDULKHAKIM KHALIFA MAUSOLEUM, AVRAT  
MOSQUE, ALIKHAN KHOJI MADRASAH, KHUDOYOR KHAN HORDE,  
NORBOTABEK MADRASAH AS EXAMPLES OF ARCHITECTURAL  
MONUMENTS): PRESERVATION, PROTECTION AND THEIR USE ISSUE**

*Abstract.* In Uzbekistan, special attention is paid to preservation, restoration and repair of historical and cultural heritage objects. Because objects of cultural heritage, especially architectural monuments, together with being the material basis of our national values, are gaining importance in the development of international tourism in our country. In this article, the objects of cultural heritage in Fergana region - Pir Siddiq, "Kirgil father's grave", Ulug'mazar shrine, Jahan atin Uvaisi mausoleum and museum, as well as the museum "Under the open sky" based on the madrasa building located on Said Ahmad Khoja Eshon street. There is an opinion about the shrines of historical and cultural monuments. The information presented in the article can serve as a source for the development of pilgrimage tourism in Fergana region.

**Key words:** shrine, mausoleum, vasika, pir, saint, Mashat mausoleum, Chagga mausoleum, Kirguli, pilgrimage tourism.

**ПАМЯТНИКИ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ В ГОРОДЕ КОКАНДЕ И ИХ  
СОСТОЯНИЕ (1991-2020 ГГ. МАВЗОЛЕЙ АБДУЛХАКИМА ХАЛИФА, МЕЧЕТЬ  
АВРАТ, МЕДРЕСЕ АЛИХАН ХОДЖИ, ОРДА ХУДОЁР ХАНА, МЕДРЕСЕ  
НОРБОТАБЕКА КАК ПРИМЕРЫ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ): ПРОБЛЕМА  
СОХРАНЕНИЯ, ОХРАНЫ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

*Аннотация.* Особое внимание уделяется сохранению, реставрации и ремонту объектов историко-культурного наследия в Узбекистане. Ведь объекты культурного

*наследия, особенно памятники архитектуры, вместе с тем, являясь материальной основой наших национальных ценностей, приобретают все большее значение в развитии международного туризма в нашей стране. В данной статье рассмотрены объекты культурного наследия Ферганской области - Пир Сиддик, «Киргильская могила отца», место паломничества Улугмазар, мавзолеев и музей Джахан атин Увайси, а также музей «Под открытым небом» на базе медресе здание, расположенное на улице Саид Ахмад Ходжа Эшон Существует мнение о святынях памятников истории и культуры. Информация, представленная в статье, может служить источником для развития паломнического туризма в Ферганской области.*

**Ключевые слова:** *святыня, мавзолеев, васика, пир, святой, мавзолеев Машат, мавзолеев Чагга, Киргули, паломнический туризм.*

Hozirgi paytda Qo‘qon O‘zbekiston Respublikasining sanoat markazlaridan biridir. Qo‘qon shahri qadimiy me‘morchilik inshootlariga, tarixiy yodgorliklar, obidalar, ajdodlardan meros bunyodkorlik namunalariga, osori-atiqalarga boy shahar. Bugungi kunda shaharda 64 ta yirik tarixiy, madaniy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularning aksariyat qismi XIX asrgacha bunyod etilgan. Bular tarixiy-madaniy boyliklar sifatida e‘zozlanadi. Ammo bu yodgorliklar uzoq yillar davomida e‘tiborsizliklar natijasida jiddiy ta‘mir va qayta qurishga muhtoj bo‘lib qolgandi. Shaharda, bulardan tashqari, ko‘plab imoratlar, ma‘muriy binolar, turli tashkilotlar va idoralar uchun inshootlar barpo etilgan.[10]

Lekin ular ham vaqt o‘tishi bilan ma‘naviy eskirib, bugungi kun talab va ehtiyojlarga javob bera olmaydigan holga tushgan edi. Qo‘qonda tarixiy obidalar va yodgorliklar nihoyatda ko‘p bo‘lgan. XIX asrning oxirlarida shahar va uning atrofiga 52 ta madrasa, 120 dan oshiq maktab, 50 dan ortiq masjid, 44 ta karvonsaroy, 20 ta bozor, 10 dan ziyod banklar tarixiy inshootlarda faoliyat yuritgan.[11]

XX asrning 90-yillariga kelib shulardan 64 ta tarixiy yodgorlik saqlanib qolgan. Ammo ularning ahvoli og‘ir edi. Ba‘zi joylari buzilgan, bir qismi vayronaga aylangan, ulardan sobiq sho‘rolar davrida turli maqsadlarda foydalanilgani uchun tarixiy qiyofasini yo‘qotgan, ta‘mirlab edi. Shahardagi bunyodkorlik ishlari ana shu yodgorliklarni qayta tiklashdan boshlandi. Ularni rekonstruktsiya qilish, yangidan qurish, avvalgi tor, egri-bugri ko‘chalar o‘rnida ravon, keng yo‘llar yaratish, umuman, shaharni obod va go‘zal tarzda barpo etish hayotiy zaruratga aylangandi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov 2008-yil 5-mayda “Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarini 2008-2012-yillarda rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2009-yilda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov Qo‘qonda bo‘lib, shahar qiyofasini milliy va zamonaviy me‘morchilik an‘analaridan foydalangan holda o‘zgartirish, takomillashtirish hamda uni yanada obodonlashtirib, yurtimizning go‘zal maskanlaridan biriga aylantirish yuzasidan tavsiyalar berdi. Qaror va tavsiyalar asosida Qo‘qon shahrini obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq, eng avvalo, shahardagi madaniy meros yodgorliklarini, qadimiy obidalarni asl tarixiy ko‘rinishiga, qiyofasiga monand tarzda qayta qurish, ta‘mirlash masalasiga alohida e‘tibor berildi. Qisqa vaqt ichida shahardagi o‘ndan ortiq qadimiy tarixiy yodgorliklar qayta qurilib, to‘la ta‘mirdan chiqarildi. Qo‘qon o‘rdasi, Jome‘ masjidi, Norbo‘tabek, Kamol qozi,

Miyon hazrat madrasalari, Eshonxon hammomi singari obidalar asl ko‘rinishiga monand tiklandi. Ayniqsa, Qo‘qon o‘rdasi, Jome’ masjidi tarixiy qiyofasiga mos ravishda qayta qurildi. O‘rda atrofida kenglik yuzaga keldi, maydon va xiyobonlar barpo etildi. Shahar tarixiy qiyofa kasb etdi. Ajdodlar merosiga xos milliy ruh tiklandi. Bu esa shaharning bugungi kunda o‘ziga xos tarzda tarixiy, milliy, zamonaviy asosda qayta qurilishi uchun zamin yaratdi. Har bir yodgorlik, obidaning tarxi o‘rganib chiqilib, ana shunga muvofiq ravishda qayta qurildi, ta‘mirlandi. Qo‘qon shahri mamlakatimizning sayyohlik markazlaridan biriga aylandi.[12]

#### **Abdulkakim xalifa maqbarasi (me‘moriy yodgorligi)**

XIX asrga taalluqli me‘moriy yodgorlik Qo‘qon shahar, Zarafshon MFYda joylashgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Hakim xalifa tasavvuf tariqatida xalifa Abdulaziz Namangoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Mazjub Namangoniyning shogirdi bo‘lib, uzoq yillar davomida piringning mirzasi, suyanchig‘i bo‘lib xizmat qiladi. Xatto to‘rt marta ijizat bersalar ham ketmay xizmatni davom ettiradi. Oxiri to‘rt sulukka muraxxas-ruxsat beruvchi darajasiga yetib, Qo‘qonga keladi. Qo‘qon xoni Xudoyorxonning iltifotiga ham sazovor bo‘ladi. Xonning singlisi turmush o‘rtog‘i va farzandlari Abdulkakim xalfaga murid edilar. Abdulkakim xalifa to‘g‘risida Qo‘qonda ibratli bir rivoyat xalq og‘zida tez-tez tilga olinadi. Abdulkakim ota har kecha tun yarmidan oqqanda o‘zi yashab turgan joydan bir chaqirim naridagi “Madrasai mir” jome masjidiga kelib, bomdod namoziga qadar tahajjud namozini o‘qir ekan. Bir kecha soy ko‘prigidan o‘tib masjidga yaqinlashganda o‘g‘rilar undan bir boyning xovlisi qayerda joylashganini so‘rashibdi. Abdulkakim ota hammahallasi uyini ko‘rsatish o‘rniga o‘z uyi manzilini aytib berib, yo‘lida davom etibdi. Tunda o‘g‘rilar uning uyini o‘marib ketishibdi. Ertasiga shaharda “Xalifa buvaning uyini o‘g‘ri uribdi”, degan gap tarqalibdi. O‘g‘rilar bu gapni eshitib, boyning uyi o‘rniga eshon buvaning uyini tunashganini bilib, pushaymon bo‘lishibdi. Olgan mollarini qaytarib, eshon buvadan uzr so‘rashibdi. Tavba qilishib, unga murid bo‘lib, halol kasb bilan shug‘ullanishga ahd qilishgan ekan. Obyekt O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qaroriga asosan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari Milliy ro‘yxatiga kiritilgan.

#### **Avrat masjidi (me‘moriy yodgorlik)**

Qo‘qon shahar, Artizon bo‘yi MFY, A.Navoiy 20-uyda joylashgan. Masjid atamasi arabcha so‘z bo‘lib, sajda qilinadigan joy deganidir. Masjid musulmonlar jamoa bo‘lib, namoz o‘qiydigan joy, ibodatxonadir. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o‘qish uchun mo‘ljallangan. Masjidlar dastlab shaharlarning markazlarida, keyinchalik mahallalar va qishloqlarda barpo etilgan. Mahalla va qishloq masjidlarining to‘rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida qishlik bino va ayvon, bino to‘rida mehrob, hovlisida hovuz, bir minora yoki tom ustiga qurilgan mezana (azon chaqiriladigan maxsus qurilma), taxoratxona, jilovxona (masjid eshigi yoki darvozasi yonida namoz boshlanishini kutib o‘tiriladigan xona, bu yerda vaqtiliq kelib qolgan namozxonlar namoz vaqtini kutib, suhbatlashib o‘tiradilar. Bu yerda ba‘zan “dunyoviy” mavzularda suhbatlashishga ruxsat etiladi), ba‘zilarida oshxona bo‘ladi. Oshxonada “navbat sho‘rva”, xudoyi o‘tkazib turiladi.

Mahalla masjidlari binolarining aksaryati paxsa, guvalakdan, ba‘zilar sinchli devor bilan ko‘tarilgan. Hujjatlarda bunday binolar xususida “loyin” (loy bilan urilgan) atamasi qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim savobtalab kishilar tomonlaridan mahallalarda ham pishgan g‘ishtdan masjid

binolari qurilgan. Juma va Jome' masjidlari esa pishgan g'ishtdan qurilib, shunga yarasha bezatilgan bo'ladi. Avrat masjidi Qo'qon shaxrining Artizon bo'yi mahalla fuqarolari yig'ini xududida joylashgan. Yodgorlik 1902-yilda qurilgan. Xozirgi kunda tamaddihona sifatida foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli qaroriga asosan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari Milliy ro'yhatiga kiritilgan.

#### **Alixon xoji madrasasi (me'moriy yodgorlik)**

Alixon Xoji madrasasi shaharning Qalandarxona MFY, Yangi xayot ko'chasi, 44-uyda joylashgan. Madrasa atamasi ham arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, uning o'zak qismi – "darasa" – o'rganmoq, o'qimoq degan ma'noni anglatadi, binobarin, madrasa – o'qish joyi, ilm o'rganish joyi deganidir. U musulmonlarning o'rta va oliy yurtidir. O'tmishda madrasalarimizda ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Hozir Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan madrasalarda esa diniy xizmatchilar tayyorlanadi.

Islomning ilk davrida, VII-IX asrlarda islom dini ulamolari masjidlarda va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etgan sari ilohiyot masalalarini odamlarga o'rgatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o'quv muassasasiga ehtiyoj tug'iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo'la boshladi. Birinchi rasmiy madrasa XI asrning ikkinchi yarmida Bag'dodda Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulk tomonlaridan, Markaziy Osiyoda esa, xuddi shu davrda Qoraxoniylar hukmdori Tamg'och Bug'roxon Ibrohim tomonlaridan Samarqandda qurdirilgan. Xo'qandda ilk madrasa kim tomonidan qachon qurdirilgani haqida hech qanday ma'lumot yo'q.

Madrasa binolari musulmon olamida me'morchilik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan, gumbazli go'rxona qurilib, unga madrasaga homiylik qilgan kishi dafn etilgan. XIV-XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolari qurish avj oldi. Ularning aksariyati ikki, ba'zan uch qavatli bo'lib, odatda, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo'lgan. Keyinroq katta madrasalar yoniga yoki hovlisiga minora qurish rasm bo'ldi. Kirish peshtoqining ro'parasida peshayvon bo'lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergan. Ba'zi madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o'ralib, hovli o'rtasiga hovuz qilingan. Madrasa binolarining tashqi va ichki qismi turfa rang koshinkori va ganchkori bezaklar bilan pardozlangan. Qur'ondan oyatlar va xadislar ko'chirib yozilgan. Madrasa tasnifi (umumiy qurilish tipologiyasi) loyihasi va qurilmasiga ko'ra, hududiy xususiyati bilan ajralib turadi. O'rta Osiyo me'morchiligida masjid va darsxona qoidaga ko'ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. O'rta Osiyo, shu jumladan, Xo'qandning bir qancha madrasalari me'morchilik yodgorliklari sifatida mashhur.

Xo'qand poytaxtga aylangach, ko'plab madrasalar qurildi va madrasalar soni bo'yicha O'rta Osiyoda Buxorodan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi. XIX-asrga kelib, Buxoro amirligida 350 ga yaqin, Xo'qand xonligida 350 ta, Buxoro shahrining o'zida 170 dan ziyod, Xo'qand shahrida 60 atrofida madrasa bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligida 336 ta, Xiva xonligida 132 ta, Turkiston general-gubernatorligida 348 ta madrasa bo'lgan. XX



asrning yigirmanchi yillarida Sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va “xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan. Madrasa binolarining katta qismi buzib yuborilgan, bir qismi esa turli tashkilot va xo‘jaliklarga foydalanish uchun berilgan.

Madrasai Alixon Boyvachcha. Hijriy 1299, milodiy 1882-yilda yirik mulkdorlardan bo‘lmish Hoji Alixon Boyvachcha Sultonxon Karvon o‘g‘illari tomonlaridan qurdirilgan. Qalandarxona mahallasi markazining shimol tomonida joylashgan. Xos madrasa turkumiga kiradi. Inshoot 12 hujra, xonakoh (masjid), tahoratxona va yordamchi xonalardan iborat bulib, peshtog‘i sharq tomonga qaratib qurilgan. Musulmon g‘isht va rus g‘ishtidan foydalanilgan. O‘tgan asrda u yerda turli idoralar, oshpazlik maktabi faoliyat ko‘rsatgan. Bosh mudarrislikka Mullo Muhammad Razzoq Mullo Muhammad Rajab o‘g‘illari tayinlanganlar. Hujralar soni – 12; tolibi ilmlar adadi – 23; mudarrislar adadi – 2 nafar bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qaroriga asosan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari Milliy ro‘yhatiga kiritilgan.

#### **Xudoyorxon o‘rdasi (arxitektura yodgorligi)**

Qo‘qon shahrining eng asosiy diqqatga sazovor yodgorliklaridan biri bu — Xudoyorxon saroyi bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmida tepalikka qurilgan. Saroy 4 gektarga yaqin to‘g‘ri burchakli maydonni egallaydi va ko‘p hovlili kompozitsiyani tashkil etadi. Sharq tomonga qaragan bosh darvozaga keng yo‘lka bo‘ylab boriladi. Darvozaxona peshtoqiga arab imlosida yirik harflar bilan «Arki oliy Said Muhammad Xudoyorxon» so‘zlari yozilgan.

1876-yil kapitan N. N. Voronsov hamda keyinroq topograf A.I. Borisovskiy chizgan Qo‘qon o‘rdasining bosh planida saroy oldida zanjirband darvozalar qurilgan alohida maydon borligi, uni bog‘lar va harbiy aslahaxonalar qurshab turganligi ko‘rinadi. Butun maydon baland devorlar bilan o‘ralgan.

100 ga yaqin xonalardan tashkil topgan saroyning murakkab tarxi to‘g‘ri burchakka (65X138 m) mos tushgan. Saroyning birinchi yarmi — tashqi qismi gir atrofi ayvondan iborat hovli bo‘lib, unda qabul uchun ko‘rkam zal (ko‘rinishxona), xazina (zarrinxona), alohida sahnli masjid joylashgan. Markaziy qismida esa qabulxona uchun kichik zal (salomxona), xon yashaydigan binolar turkumi (shahnishin) hamda omborxonolari bo‘lgan xo‘jalik binolari qurilgan. Saroyning ikkinchi qismini hovli sahnalari bilan o‘zaro bog‘lanib ketgan haram egallagan.

1878-yil Qo‘qon shahrida bo‘lgan Mari Burdonning «Parijdan Samarqandgacha» degan kitobiga ishlangan rasmlarga qaraganda, haram xonalari ichki-tashqi bo‘lib, ularga yuqori qismida joylashgan yozgi uzun ayvonchaga o‘xshash o‘tish joylari bo‘lgan yo‘lkalar orqali kirilgan.

Saroy shu yerlik ustalar mulla Suyarqul, usta Solixo‘ja va buxorolik usta Fozilxo‘ja hamda me‘mor Mir Ubaydulla rahbarligida qurilgan. Asosiy qurilish materiali pishiq g‘isht bo‘lgan.

Binoning tashqi va ichki ko‘rinishlarini me‘moriy jihatdan bezashda Xudoyorxonning tejamkorligi aks etgan. Bosh fasad, darvozaxona va tantana zallari g‘oyat zeb berib ishlangan, lekin qolgan binolarning pardoz ishlari odmi holda qoldirilgan. Sharqiy fasad o‘rtasida kirish tomonning ulug‘vorligini ko‘rsatish maqsadida dekorativ mezanali peshtoq qad ko‘targan. Ichkariga qarab ochiladigan o‘ymakor darvoza usta Qodirjon Haydarov tomonidan ta‘mir etilgan.

Fasadning yon tomonlari bezash maqsadida uncha chuqur bo‘lmagan tug‘ri burchakli



mehrobiy tokchalar bilan bo'lingan. Mehrobiy ravoqlar soni, rangli koshinlar naqshi va chetki g'olasimon minoralar (janubi- sharqdagi minora olti qirrali, qolganlari esa aylana shaklda) bir qarashda ko'zga tashlanadigan mutanrsiblikka putur yetazadi.

Ayvon havozasi qator yog'och o'ymakor muqarnas va sharsimon ko'zachali ustunlar bilan ishlangan. Tashqi zallarning ichki qismlari guldor va rang-barang koshinlar hamda o'yma ganch naqshlar bilan bezatilgan. Shiftlarga gul solingan, ularning o'rta qismida esa havzak ishlangan. Xonalarning tepa qismi ganch muqarnaslar bilan hoshiyalangan. Toshchoq bilan isitiladigan xonalarning poliga archa parket terilgan, ayvonlarga esa marmar taxtalar yotqizilgan. Ayvon devorlarida mehrobiy ravoqlar ishlanib, naqshlar bilan bezatilgan.

O'rda qurilishida Rishtonlik kulol usta Abdulloning xizmatlari tahsinga loyiqdir. U O'rda peshtoqi va old fasadlarini bezab turgan sopol koshinlarni tayyorlashni u o'z shogirdlari bilan bajargan. Mana shu koshinlar ming-minglab sayyohlarni lol qoldirgan, zavqlantirgan. 1880-yilda Qo'qonda bo'lgan rus yozuvchisi YE.Markov O'rdani "Ajab naqshlar, rango-rang koshinlar, jimjimador arabiy yozuvlar uyg'unlashgan, butun Osiyoga mashhur koshona" deb tariflagani ham bejiz emas.

Naqshlarni Qo'qonlik mashhur ustalardan Marasul, Muhammad Solih, Hakimjon Xolmat o'g'li va boshqalar ishlaganlar. Bundan tashqari usta Zokir, usta Fozilxo'ja, mulla Suyarqul, usta Jamol va boshqalar ham o'rda qurilishida bevosida ishtirok etganlar. Peshtoqidagi jali qalam bilan yozilgan ikki turli xat bu ulug'vor binoga ziynat berib turadi. Uning chap tomonidagi nasta'liq bilan yozilgan xat Mirzo Mir Mahmud Buxoriy qalamiga mansubdir. O'ng tomonidagi jali xat esa Turdi Alinikidir. U Qo'qonning shimolida Tuli qishlog'ida tug'ilgan. Norbo'tabek madrasasida tahsil ko'rgan. O'rdaning ichki tomonidagi ayvon devoriga yozilgan katta jali xat ostida "Faqir Turdi Ali" deb yozilgan yozuv uning o'rdani bezash ishlarida faol qatnashganligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda ushbu kompleksdan faqat saroyning sharqiy qismidagi darvozaxona, uning ikki yonidagi xonalar saqlanib qolgan. Ta'mirlash ishlaridan so'ng bu yerda o'lkashunoslik muzeyi joylashgan.

Yodgorlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-iyuldagi "Moddiy madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yhatini tasdiqlash to'g'risida" gi 07/1-4669-sonli topshirig'i hamda viloyat hokimligining 2019-yil 30-iyuldagi 218/01-49-1-sonli yig'ilish Bayoniga asosan shakllantirilgan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari Milliy ro'yhatiga kiritilgan.

#### **Norbo'tabek madrasasi (me'moriy yodgorlik)**

Qo'qon shahar, Nonvoylik guzar MFY, Bekbo'tabek ko'chasi, 69-uyda joylashgan. Madrasai Mir, yohud, Madrasai Norbo'tabiy hijriy 1213, milodiy 1798-yilda Xo'qand hukmdori Norbo'tabiy Abdurahmonxon o'g'illari tomonlaridan qurdirilgan. O'zbek davlatchiligi tarixida Norbo'tabiy buyuk davlat arbobi, dono siyosatchi, iqtisodchi va ilm-ma'rifat namoyandasi deb bimalol aytishimiz mumkin. Chunki uning davrida Farg'ona vodiysida markazlashgan davlat tuzishga erishildi, pul islohoti o'tkazildi, xonlikning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Norbo'tabiy davrida mashhur ilm sohiblari faoliyat ko'rsatishgani bilan axamiyatlidir.

Norbo'tabiy xukmronligi davrida bir qancha madrasalar qurildi: Madrasai Sulaymoniya(1762), Xonxo'ja eshon(1789), Imom Boqir(1794), Hakim to'ra(1795), Madrasai Mir(1798) madrasalari shular jumlasidandir. Norbo'tabiy nomidagi madrasa xalq orasida

Madrasai Mir deb ham yuritiladi. Bir qavatli, hovlilili, to'g'ri to'rtburchak tarhli, 4 burchagiga minora-guldastalar ishlangan. Hovli atrofiga qator ravoqli xujralar joylashgan. Peshtog'i shimolga qaragan. Saroyning 2 tarafida peshtoq bo'ylab tutashgan gumbazli masjid va 12 ta derazali (panjaralar o'rnatilgan) darsxona mavjud. Norbo'tabiy madrasasi pishiq g'ishtdan qurilgan. Xonalar ichi ganchsuvoq qilingan. Masjidning gumbaz osti sharafasi va mehrobining yulduzsimon bezaklari serhasham ko'rinadi. Eshiklari girih naqshlar bilan bezatilgan, ichki qismida esa o'ymakori islomiy naqsh qo'llanilgan. Norbo'tabiy madrasasining tashqi ko'rinishi Buxoro me'morlik maktabi uslubiga xosdir. Hozirgi paytda Xo'qandning bosh jome' masjidi.

“Madrasa” atamasi “dars” (saboq) o'zagidan yasalgan bo'lib, “dars o'tiladigan joy” ma'nosini anglatadi. Madrasa inshootlari, darsxonalar, xo'jalik binolari, masjid, tahoratxona hamda tolibi ilmlar istiqomat qiladigan xujralardan iborat bo'lgan. Madrasada asosan diniy, qisman dunyoviy ilmlar, arab, fors tillari o'qitilgan. Madrasalar nafaqat o'quv yurti, balki ilm-fan markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Madrasalarning hujralarida asosan tolibi ilmlar istiqomat qilganlar. Shuningdek, ayrim uy-joysiz ziyolilar, uyida ilmiy ish va ijod bilan shug'ullanishga sharoiti bo'lmagan alloma va shoirlar ham madrasalarda hujra olib istiqomat qilganlar. Madrasa inshootida bir necha marta ta'mir ishlari olib borilgan. Mustaqillik yillarigacha madrasasi binosi Qo'qon vohasidagi yagona masjid bo'lib keldi. Juma kunlari juma nomoziga Isfara, Rishton, Pop, Qirg'izistondan ham nomozxonlar to'planganlar.[13]

Амалдаги процессуал қонун судьяга ушбу вазифаларни бажариш мажбуриятини юклайди ва бу ўз навбатида ишларнинг ўз муддатида, қонуний ҳал этилишини таъминлайди. Ҳар қандай фуқаролик ишини судда кўришга тайёрлашда қайд этилган вазифаларнинг барчаси амалга оширилиши шарт бўлиб, улардан биронтасининг бажарилмаслиги ишнинг судда кўрилишининг чўзилиши ва қарор қабул қилишда хатоликка олиб келади. Тарафларнинг ҳуқуқий муносабатларини ва ишни кўришда амал қилиниши лозим бўлган қонунни аниқлаш деганда судья ва ишда қатнашувчи шахсларнинг низоли муносабат характери ва қўлланилиши лозим бўлган моддий ҳуқуқ нормасини ҳисобга олган ҳолда тарафларнинг талаб ва эътирозларида асос сифатида кўрсатилган юридик фактларни аниқлашга доир ҳаракати тушунилади.

Тарафлар ҳуқуқий аҳамиятга эга бўлган фактлар борасида янглишган ҳолда, суд қўлланиши лозим бўлган моддий ҳуқуқ нормаси асосида тарафларга қандай ҳолатлар иш учун аҳамиятга эга эканлигини, уларни тарафлардан қайси бири исботлаши кераклигини тушунтиради. (ФПК 57-м) Судья қайд этилган ишни судда кўришга тайёрлаш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган ҳаракатларни ўзининг ишни судда кўришга тайёрлаш ҳақидаги ажримда кўрсатиши ва қачонки белгиланган барча ҳаракатларни амалга оширганидан кейингина ишни кўриш учун тайинлаши лозим. Мерос билан боғлиқ ишни қонуний муддатларда ва тўғри ҳал этиш учун судья ишни судда кўришга етарли даражада тайёрлаши лозим, яъни Ўзбекистон Республикаси ФПКнинг 158–161 - моддалари талабига тўлиқ риоя қилиши, жумладан, тарафларни чақириб, даъвогардан даъво талабларини аниқлаши, жавобгардан даъво юзасидан эътирознома олиши, ишга қўшимча жавобгар ёки учинчи шахсларни жалб қилиш масаласини муҳокама қилиш, далилларни талаб қилиб олиши зарур. Мерос мулкка бўлган ҳуқуқ ва уни бўлиш ҳақидаги даъволар бўйича судья мерос қолдирувчининг вафот этганлиги тўғрисидаги гувоҳнома ёки унинг нусхаси, меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома, тарафларнинг меросхўр эканлигини тасдиқловчи хужжатлар (никоҳ, туғилиш, фарзандликка олинганлик, оталикни белгилаш ҳақидаги хужжатлар, турар жойдан, уй-жой бошқармаларидан, вафот этганнинг қарамоғида бўлганлиги ҳақида маҳалла кўмиталаридан, меросдан мажбурий улуш олиш низолари юзасидан ВТЭКдан ногиронлик ҳақида маълумотномалар ва ҳ.к.); мерос мулкининг рўйхатга олинганлиги ва қиймати кўрсатилган далолатнома; мерос мулкининг вафот этган шахсга тегишлилиги (инвентаризация бюросининг маълумотномаси, олди-сотди, ҳада, айирбошлаш, алмаштириш шартномалари) ҳақидаги хужжатлар; омонат дафтарчалари, ҳисоб варақалардан кўчирмалар, мерос таркибига кирадиган уй-жойни асл ҳолда бўлиш имконияти мавжудлиги ҳақида мутахассисларнинг хулосалари ва ҳоказолар каби хужжатларни тақдим этишни таклиф қилади, зарур топилганда эса судьянинг ўзи талаб қилиб олинishi лозим. Амалдаги ФПКнинг талабига кўра мерос мулки билан боғлиқ низолар фуқаролик ишлари бўйича судларига тааллуқли бўлиб, васиятнома бўйича ёки қонун бўйича ворисликда меросхўрлар ўртасида низо келиб чиққан ҳолда фуқаролик ишлари бўйича судлари томонидан даъво тартибида кўрилиб, ҳал этилади. Ворислик ҳуқуқига доир низоларни ҳал қилишда мерос очилиш вақти ва жойини, мерос таркибини, меросхўрлар доираси ҳамда ворислик асосини аниқлаш ва шундан келиб чиққан ҳолда низо бўйича қўлланилиши лозим бўлган қонун нормаларини аниқлаш муҳимдир. Амалдаги ФКнинг мерос ҳуқуқига доир нормаларидан келиб чиқиб, низони тинч йўл билан, яъни бир тарафнинг иккинчи тараф ҳуқуқларини тан олиши орқали ҳам ҳал этиш мумкин ва бу энг мақбул ечим ҳисобланади. Низо ўз вақтида ва тўғри кўриб ҳал қилиниши учун ишда иштирок этиши лозим бўлган шахслар, меросхўрлар таркиби тўғрисидаги аниқ маълумот судга тақдим этилиши, тақдим этилмаган ҳолда суд томонидан талаб қилиб олинishi лозим. Тарафлар иш судда кўриб бошлангунга қадар, ишнинг судда кўрилишини бошлангач то ҳал қилув қарори чиқарилганга қадар тарафлар низо бўйича келишув битими тузишлари ва келишув битими тузиш ва тасдиқлаш натижасида иш юритишдан тугатилиши мумкин бўлиб, агарда шу тартибда иш тугатилган ҳолда ФПКнинг 102-моддаси талабига кўра тарафлар айна шу низо бўйича, айна бир асослар бўйича судга иккинчи марта мурожаат қилишига йўл қўйилмайди. Васият қилувчи муомалага лаёқатсиз бўлганлиги учун

васиятномани ҳақиқий эмас деб топиш ҳақида арз қилинган талаблар бўйича юқорида қайд этилган ҳужжатлардан ташқари васият қилувчининг муомалага лаёқатсизлиги ва васиятномани тузиш пайтида ҳаракати аҳамиятини тушуна олмаслигини тасдиқловчи далиллар ёки васият қилувчининг муомалага лаёқатсиз деб топилганлиги тўғрисидаги суднинг ҳал қилув қарори, васият мулкининг мавжудлигини тасдиқловчи далиллар ҳам илова қилиниши лозим. Шунингдек, васиятнома мерос қолдирувчининг ўлиmidан кейингина ҳуқуқий оқибат туғдириши мумкин бўлиб, васиятнома қолдирувчининг ҳаётлигида манфаатдор шахслар томонидан васиятномани ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисида даъво қўзғатилиши мумкин эмас. Мерос қолдирувчи ўз мулкига нисбатан васиятнома қолдириб, меросдан мажбурий ҳисса олиш ҳуқуқига эга бўлганларнинг қонуний ҳуқуқлари бузилганида васиятномани ҳақиқий эмас деб топиш ҳақидаги даъволар бўйича вояга етмаган ёки меҳнатга қобилиятсиз болаларни, эр (хотин)ни ва ота-онасини васият қилувчи билан қариндошлик 129 муносабатларини ва эр (хотин), ота-она меҳнатга қобилиятсизлигини тасдиқловчи ҳужжатлар (туғилганлик ҳақида гувоҳнома, фарзандликка олинганлиги тўғрисидаги суд қарори ва ҳ.к.) ҳам тақдим этилиши ёки суд томонидан талаб қилиб олинishi лозим. Ворис меросдан мажбурий улуш олиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар доирасига кириш-кирмаслигидан қатъи назар судга шу асосда даъво билан мурожаат қилиши мумкин бўлиб, суд томонидан ишни кўриш жараёнида унинг меросдан мажбурий улуш олиш ҳуқуқига эга, эга эмаслигидан келиб чиқиб, низони ҳал қилади. Ўзбекистон Республикаси ФКнинг 1142-моддасида меросдан мажбурий улуш олиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар доираси аниқ белгиланган. Мазкур қонун мазмунига кўра мажбурий улуш олиш ҳуқуқининг асосий шарти қонун бўйича вориснинг вояга етмаганлиги ёки меҳнатга қобилиятсизлик ҳолатидир. Шунинг учун шу тоифадаги низоларни тўғри ҳал қилиш учун мажбурий улуш олиш ҳуқуқини тасдиқловчи далиллар, жумладан меҳнатга қобилиятсизлик ҳақидаги далиллар судга тақдим этилиши ёки суд томонидан талаб қилиб олинishi лозим.

#### REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 20.07.2011 yildagi 05-son
2. H.Rahmonqulov. - 4-nashr. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan. -T.: TDYI nashriyoti, 2006. - 354 bet
3. Косарев А.И. Римское право М., 1986.
4. Бартошек Милан. Римское право. Понятия, термины, определения. М., 1989.
5. Новицкий И.Б. Претерский И.С. Римское частное право. Учебник. М., «Юрист» 1996.
6. Черниловский З.М. Римское частное право. М., «Проспект» 2001.
7. Муҳамедов Ҳ. «Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи.» Т., «Адолат» 1999.
8. Дождев Д.В. Римское частное право. Учебник. М., «Юрист» 1996.
9. Уразаев Ш.З. Римское право. Т., «Академия» 2000.

## OILAVIY KORXONANING FUQAROLIK HUQUQI MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Esonov Xumoyun Abdurashitovich**

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi  
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7963120>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilaviy korxonaning fuqarolik huquqi maqomini takomillashtirish masalalari haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy korxonaning fuqarolik huquqi, milliy iqtisodiy majmua, ishlab chiqarish jarayoni.

## ISSUES OF IMPROVING THE CIVIL LAW STATUS OF THE FAMILY ENTERPRISE

**Abstract.** This article talks about the issues of improving the civil law status of the family enterprise. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are cited throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

**Key words:** civil law of family enterprise, national economic complex, production process.

## ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО СТАТУСА СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования гражданско-правового статуса семейных предприятий. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы цитируются на протяжении всей статьи. Выводы и предложения даны в конце статьи.

**Ключевые слова:** гражданское право семейного предприятия, народнохозяйственный комплекс, производственный процесс.

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarining muvaffaqiyatlariga bog'liq. Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxonalar bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz. O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarining ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonaning ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonaning ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti. Oilaviy korxonaning faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonaning tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxonaning faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonaning o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonaning o'z majburiyatlari bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari korxonaning mol-mulki yetarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Oilaviy korxonaning qonunchilikka muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxonaning ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonunchilikda belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonaning ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.

Oilaviy korxonaning to'liq firma nomiga ega bo'lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishga haqli. Oilaviy korxonaning to'liq firma nomi uning to'liq nomini va "oilaviy korxonaning" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va "oilaviy korxonaning" degan so'zlarni yoki "OK" abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda oilaviy korxonaning nomidan uning boshlig'i ish ko'radi.

Oilaviy korxonaning ishtirokchilaridan biri uning boshlig'i bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi.

Oilaviy korxonaning boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki uzoq vaqt bo'lmagan taqdirda, u o'z vazifasini vaqtincha bajarib turish vakolatini oilaviy korxonaning qolgan ishtirokchilari bilan kelishgan holda ulardan biriga berishga haqli.

**Oilaviy korxonaning quyidagi huquqlarga ega:**



- mustaqil ravishda tovarlar ishlab chiqarishga (ishlar bajarishga, xizmatlar ko'rsatishga) doir faoliyatni tashkil etish, ishlab chiqarilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tasarruf etish va ularga narx belgilash;
- mustaqil ravishda o'z moliyaviy mablag'larini shakllantirish va qarz mablag'larini jalb etish, shu jumladan dastlabki (boshlang'ich) kapitalni shakllantirish uchun kreditlar olish;
- lizing va sug'urta xizmatlaridan foydalanish;
- shartnomalar tuzish, shu jumladan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish va realizatsiya qilish uchun shartnomalar tuzish;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
- o'z firma nomi yozilgan muhrlardan, blankalardan va shtamlardan foydalanish hamda tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga) ega bo'lish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

**Oilaviy korxonaga boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:**

- ✓ oilaviy korxonaga nomidan ishonchnomasiz ish ko'rish;
- ✓ yuridik va jismoniy shaxslar bilan oilaviy korxonaga faoliyatiga bog'liq bo'lgan shartnomalar tuzish;
- ✓ mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzish va shtatlarni tasdiqlash;
- ✓ ishonchnomalar berish.

**Oilaviy korxonaga ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:**

- oilaviy korxonani boshqarishda, qarorlar qabul qilishda, moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etish;
- oilaviy korxonaga ta'sis shartnomasining shartlariga bog'liq holda foydadan o'z ulushini olish;
- oilaviy korxonaga tarkibidan ixtiyoriy ravishda chiqish;

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilaviy korxonaning fuqarolik huquqi maqomini takomillashtirish masalalari bugungi kunda ijobiy hal etilmoqda va shu bilan birga yaxshi natijalarga erishilmoqda. Mamlakatda oilaviy korxonalar qanchalik ko'p bo'lsa va faoliyati ijobiy baholangan holda huquqiy ko'mak berilsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

**REFERENCES**

1. Abduganiev A., Abduganiev A.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. —T.: 2004. 304b
2. Abdullaev A. , Muftaydinov K. , Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. -T.: Moliya. 2003. 192 b.
3. Akromov E. A. Korxonaning faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, Toshkent, TDIU, 2000

## KITOB INSONNING KOMILLIKKA YETISHISHI UCHUN TUTGAN O'RNI

Achilova Mohira Hamidjon qizi

Toshkent Gumanitar fanlar  
universiteti I-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7963168>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada mamlakatimizda kitobga qiziqish va uning hayotimizdagi o'rnini hamda ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* kitob, komil inson, kutubxona, nashriyot, qog'oz, badiiy asar.

### THE PLACE OF THE BOOK FOR THE PERFECTION OF A PERSON

*Abstract.* This article talks about interest in books in our country and its place and importance in our life. Reasonable opinion and reasoning are presented throughout the article.

*Key words:* book, perfect person, library, publishing house, paper, work of art.

### МЕСТО КНИГИ В СОВЕРШЕНСТВЕ ЧЕЛОВЕКА

*Аннотация.* В данной статье говорится об интересе к книге в нашей стране и ее месте и значении в нашей жизни. Обоснованное мнение и рассуждения представлены на протяжении всей статьи.

*Ключевые слова:* книга, совершенный человек, библиотека, издательство, бумага, произведение искусства.

Yoshlarimizni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishda, chuqurroq yondashadigan bo'lsak ko'plab festivallar, kitobxonlik haftaligi, ijodkor yoshlar to'garaklari, besh tashabbus doirasida ko'plab to'garaklar tashkil qilindi. Kitobxonlarimiz safini kengaytirishda yoshlarimizga ko'plab imkoniyatlar yaratilib kelinyabdi. SHu o'rinda aytishimiz joizki Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'jallangan "Taraqqiyot strategiyasi" loyihasida nafaqat yoshlarimizni balki butun xalqimizni "Kitobsevar millat" loyihasi ham alohida maqsadga aylangan. "Taraqqiyot strategiyasi"ning 68-maqsadiga muvofiq: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish maqsadi qo'yildi. Hurmatli Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining har bir gapirayotgan gaplarida, yoshlarimizni o'qib izlanishlarida, ajdodlarimizdek komil inson bo'lib tarbiyalanishlarida, kitobga qiziqishi ortishida, kitobning o'rnini beqiyos ekanligi kitob o'qishlari haqida jon kuydirib chin yurakdan aytganlarin ko'p marotaba eshityapmiz.

Kitobsiz taraqqiyotga

Yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi.

Kitob o'qimagan odamning ham

Millatning ham kelajagi yo'q.

Hurmatli Prezidentimizning ushbu gaplaridan kelib chiqib o'sib kelayotgan yosh avlodni taraqqiyotga erishishida va ma'naviyatini boyitishda, komolotga erishishlarida qulay va ma'qul yo'llarni izlab topmog'imiz lozim. SHu ma'noda aytishimiz mumkin insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi yomonlikdan qaytarguvchi bu ilmdur. Kitoblarni bizgacha yetib kelishi: Malumki kitoblar yaratilgandan buyon insoniyat aql-zakovati, bilimi dunyoqarashini kamol topishiga asos yaratadi. [1]

Kitob asosan bilim ma'naviyat va ma'rifat manbai; insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuch, dunyo va bu dunyoni bilimlar bilan tanitish manbai. Biz o'zligimizni, dunyoni, olam va odam muhitini Kitob orqali bilib olamiz. Kitoblar doimo ardoqlanib, e'zozlanib, avlodlardan avlodga zamonlardan zamonlarga o'tib saqlanib kelingan. Davrlar o'tib davlatlar, xalqlar yo'q bo'lib ketavergan, ammo kitoblar yashab qolavergan. Shuning uchun hayotimizda kitobning o'rnini beqiyosdir. Ajdodlarimizdan qolgan merosni asrab avaylaylik.

Shu o'rinda kitobning kelib chiqishi haqida tushunchalarimizni boyitib olaylik. [2] O'tgan asrning o'rtalarida Dajla daryosining quyini-da avvalgi Assuriya mamlakatining poytaxti Nineviya qal'asida arxeologik izlanishlar o'tkazilgan. Qazib tekshirish jarayonida izlanuvchilar 2600 yil burn yashagan podsho Ashurbanipaldin katta "Kitobxonasini" topadilar. Kitobxonada 22000 qo'shilgan plitadan iborat, og'irligi bir necha kilogramm "Kitoblar" saqlangan. Birinchi kitoblar bambuk taxtachalariga yozilgan ekan. Bizning eramizdan avvalgi V asrda yashagan Xitoy olimi Mo Di sayoxatga chiqqanda Geyde kitoblarini uch aravaga yuklagan ekan. Loydan ishlangan yangi bambuk plitkalaridagi yozma hujjatlar ayrim mamlakatlar orasida o'zaro amaliy va diplomatikalik, hamjihatlik yurgizganda qulaysizlikka uchrayvergandan so'ng yengilroq yupqa material kerak ekanligi kelib chiqqan. Qadimgi egipetliklar xat yozish uchun Nil daryosi yoqasida ko'p o'sadigan qamishga o'xshagan o'simlik tayoqchadan foydalanganlar. Kitob nashriyoti tarixida ko'plab mamlakatlarda har hil usullardan foydalanganlar. Biroq qanday usulni o'ylab topmasin ularning ichida faqat bir odam-nemis xalqining atoqli olimi Iogann Guttenberg (1400-1468) gina yaxshi natijaga erishgan. Guttenberg dastlab kichkina kitobchalar qog'ozlar bosib chiqaradi. Dastlab "Taurat"ni uch yil davomida yaroqli qilib chiqargan. Ko'plab qarshiliklarga qaramasdan, kitob bosmasi 1469-yili Niderlandiyada, 1470-yili Ispaniyada, 1476-yili Polshada, 1478-yilga kelib, CHexiyada paydo bo'ldi. Rossiyada esa XV-asrdagi mongol-totar chopilishi oqibatlaridan so'ng kitob bosmasi bir necha yil qolib qo'yishiga sababchi bo'ldi. Yillar o'tib 1553-yili Moskvada birinchi "Injil" ("Bibliya") bosmadan kitob bo'lib bosilib chiqqan. Biroq "Nomsiz" deb bu bosmaxona 12 yildan keyin o't tegib yonib ketgan. 1563-yili 19-aprelda Ivan Fyo'dorov o'zining yordamchisi Petr Metislavets bilan yangi bosmaxona "Apostal" kitobini bosib chiqaradi. Bu sana kitobda 1564-yil 1-mart kuni deb belgilandi. O'ylaymanki "Kitobsevar" yoshlar ko'payishi uchun xuddi Ozod SHarafiddinov kitobni sevgani kabi sevishtlarini xohlar edim. [3] O'zbekiston Respublikasi Qahramoni, fan arbobi, atoqli adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, professor, munaqqid, mohir tarjimon va noshir Ozod SHarafiddinov hayot bo'lganlarida 90 bahorni qarshilagan bo'lar edi.

Ozod SHarafiddinov uch-uch yarim yashar nevarasiga "Hayot bilan hamnafas" kitobini birinchi betiga "Nabiram Muzaffarga! Hozir podshosan, lekin bora-bora odam bo'larsan, deb buvang Ozod" degan dasxatni yozib uning qo'liga berdi. Bu bilan buvasi ota-ona farzandining yoshligidanoq emin-erkin o'sishiga monelik qilmaslik bilan birga, asta-sekin qalbiga ezgulik, ya'ni kitobga muhabbat, kitob bilan do'st bo'lish xislatlarini singdirish kerakligiga va "bora-bora odam bo'larsan", deya biz, ota-onalar ma'suliyatiga ham ishora qilayotgan edi.

Ma'lumki Ozod SHarafiddinovning bebaho xazinalaridan bir u kishining kitoblari edi. Kitobni jonu dildan sevgan domlaning kutubxonalarida SHarqva Garb badiiy adabiyoti, adabiyotshunoslik, tarix falsafa san'at, madaniyat, bolalar adabiyoti, shaxmat va boshqa ko'plab sohalariga oid kitoblar kitob javonlaridan o'rin olgan edi. "Kutubxona" uch seriyadan

tashkil topgan bo'lib,64-jilddan iborat.Birinchi seriyada eng qadimgi zamonlardan boshlab to XIX asrgacha yaratilgan noyob asarlarni o'z ichiga oldi.Birinchi seriyada o'zbek adabiyotidan Alisher Navoiy hayotligida ko'chirilgan qo'lyozmadan olingan miniatyuralar kitobning husniga husn qo'shgan.Hazrat Navoiy dostonlarining rus tiliga tarjimai V.Derjavin,L.Pen'kavskiy,S.Lipkin kabi mohir tarjimonlar tomonidan bajarilgan. Kutubxonada klassik SHarq adabiyotiga oid kitoblar javonidan "Ming bir kecha"ning to'liq to'plamini ko'ramiz. Aynan shu javonda Boburning 1958-yilda chop etilgan "Tanlangan asarlar" hamda M.Sal'e tarjimasida Fanlar akademiyasi tomonidan chiqarilgan.Boburnomaning rus tilidagi nusxasi ham diqqatni o'ziga tortadi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, kutubxonadagi ko'pgina kitoblar tahsinga loyiq bezaklar va illyustratsiyalarga boy. Kutubxonadagi kitoblar turli yo'nalishda bo'lgani kabi atoqli shoir va noshir adabiyotshunos olim Ozod SHarafiddinov ijodi ham serqirra bo'lgan deyishimiz mumkin.

Xullas izlanuvchan yoshlarimizga Ozod SHarafiddinov kutubxonalarini, kelajagimiz yoshlarini o'qib bilim olishlarida komillikka yetishishlarida bir qurol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Kitob tarbiyalanib kelayotgan yoshlarimizni ta'lim sohasidagi faoliyatini samarali qiziqishiga va bilimlarini boyitib mustahkamlashga yordam beradi.Yoshlarimizni ta'lim sohasidagi qiziqish va bilimlarini mustahkamlashga balki komillik darajasiga yetishishlarida "Kitobsevar millat"bo'lib yetishishida yordam berishi kerak.

#### **REFERENCES**

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati Q.Nazarov,O.Salimov,X.Sultonov,A.Abduvahitov va b.Toshkent:"Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyot,2022.
2. Книга дуньясынын маржанлары.Турдибай Оразов.Нокис: Билим. 2020-жил.
3. Ozod SHarafiddinov zamondoshlar xotirasida.
4. Sirojiddin.S,Umarali.N,SHaxnozaT. Toshkent "SHarq", 2019-yil.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-  
MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

To‘yev Bahodir Baxtiyorovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Telefon: +998(90) 710 77 40

[baxodirtuyev@gmail.com](mailto:baxodirtuyev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7963213>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Respublikamiz professional ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jahon standartlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, bunda kredit-modul texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari haqida so‘z yuritiladi.

*Kalit so‘zlar:* davlat ta’lim standarti, mutaxassis modeli, kredit-modul tizimi, kredit texnologiyasi.

ПРИМЕНЕНИЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

*Аннотация.* В данной статье говорится о возможностях и преимуществах использования кредитно-модульных технологий в результате реформ, проводимых в системе профессионального образования нашей республики, подготовки высококвалифицированных кадров по мировым стандартам.

*Ключевые слова:* государственный образовательный стандарт, экспертная модель, кредитно-модульная система, кредитная технология.

APPLICATION OF CREDIT-MODULE TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL  
EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN DISTINCTIVE  
CHARACTERISTICS

*Abstract.* This article talks about the possibilities and advantages of using credit-module technologies as a result of the reforms implemented in the professional education system of our republic, training of highly qualified personnel according to world standards.

*Key words:* state education standard, expert model, credit-module system, credit technology.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu, shubhasiz, ta’lim tizimini isloh qilish, milliy va xalqaro mehnat bozori talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, sohada sog‘lom raqobat muhitini



shakllantirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi kun professional ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

“Mutaxassis modeli”ni takomillashtirishga yordam beruvchi muhim pedagogik shart-sharoitlar sirasida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriyalari jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalar, magnitofonlar (audio, video), trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokozalar).

2. O'quv-metodik meyoriy xujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklari, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).

3. Ilmiy pedagogik xodimlar salohiyati (o'qituvchilar, malakali o'quv ustalari, rahbar va texnik xodimlar).

4. Ijtimoiy hamda o'quv-texnologik muhit (o'qituvchi hamda o'quvchilar, rahbarlar hamda o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar).

5. Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Ayni paytda o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish borasida eng ustuvor yo'nalishlar qatorida professional ta'lim muassasalarida o'quv rejalarni kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, o'quvchilarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni – kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Kredit-modul tizimi – bu modul ta'lim texnologiyalari va ta'lim oluvchilarning modul mazmunini o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan o'quv yuklamasini o'lchash birligi sifatidagi kreditlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish modelidir. Kredit-modul tizimida uning ikkita jihatiga e'tibor qaratiladi:

1) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishini tashkil etish;

2) o'quv jarayonida kredit-modul tizimi va ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning shaffof tizimini joriy etish.

O'tgan asrning 60-yillarida modulli o'qitish avvalo AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada keng yoyila boshladi. YUNESKOning 1972 yilda Tokioda o'tkazilgan xalqaro konferensiyasida modul tizimi uzluksiz ta'lim tizimining (kattalar ta'limi) eng samarali tarmog'i sifatida tavsiya qilingan edi. Keyinchalik bu nafaqat kattalar, balki o'quvchi-yoshlar ta'limida ham keng tarqaldi. O'quv jarayonini modulli yondashuv asosida tashkil etish orqali ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim natijalarining o'zaro tan olinishiga hamda o'quvchilar mobilligiga erishish borasida Bolonya jarayoni ishtirokchilaridan Fransiya, Daniya, Shvedsiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropa davlatlari, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya,

Ukraina, Qozog‘iston Respublikasi kabi MDH mamlakatlari o‘z ta‘lim tizimida bugungi kunda yuqori natijalarga erishmoqda.

O‘zbekiston professional ta‘lim tizimining kredit-modul ta‘lim sistemasiga o‘tishning ustuvor tomonlari quyidagilardan iborat:

- professional ta‘lim sohasida O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan munosabatlari kengaytiriladi;
- jahon ta‘lim sohasidagi izolyasiya xavfini bartaraf etiladi;
- Yevropa mamlakatlaridagi talabalar, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilarni fikr almashish istiqbollari kengaytiriladi;
- xorijlik talabalarga ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatlari kengaytiriladi;
- yangi o‘quv texnologiyalari, o‘quv jarayoni loyihalarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonini tashkil qilishning oqilona shakllarini qo‘llash va ta‘lim va o‘qitishning sifatini keskin oshirilishiga olib keladi;
- mehnat bozorining talablari hisobga olinadi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda modul, kredit va kompetensiyalar yaxlit bir tizimning o‘zaro chambarchas bog‘langan hamda biri ikkinchisini to‘ldirib turuvchi komponentlari sifatida talqin etiladi. Kredit-modul tizimi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish kompetensiyaviy yondashuvni talab etadi. Modulli o‘qitishda modul tushunchasi markaziy kategoriyalardan biridir.

Adabiyotlarda modul tushunchasi mohiyati, ta‘lim mazmunini modullar asosida tashkil etish, modulli ta‘lim shakl va metodlarini ishlab chiqish borasida turlicha yondashuvlarni uchratish mumkin. Modulli o‘qitish g‘oyasi Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari S.Posilethwait, V.Goldshmid, M.Goidshmid va J.Russel tomonidan Evropa davlatlarining eng progressiv va samarali ta‘lim tizimlari asosida — ta‘lim mazmuni birliklar konsepsiyasining yaratilishi bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan. Modulli o‘qitishning birinchi variantlari sifatida Amerika maktablarida kuni modullarga bo‘lish, nemislarning o‘quv materiallarini dasturiy birliklarga ajratishi kabilar e‘tirof etiladi. Pedagogik texnologiyalar sohasida jahon tajribasi tahlili ko‘rsatadiki, modulli ta‘lim texnologiyalari bugungi kunda Yevropa va AQSH oliy ta‘lim tizimida keng qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, modullarda hamma narsa o‘lchanadi va baholanadi: topshiriqlar, mashg‘ulotlarda ishtirok etish, ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich, oraliq va yakuniy darajalari. Modulda ta‘lim maqsadlari, modulni o‘rganish vazifalari va darajalari, ko‘nikma va malakalar aniq belgilab qo‘yiladi.

Kredit texnologiyasi – bu qat‘iy reglamentlashtirilgan o‘quv jarayoni doirasida ta‘lim traektoriyalarini tanlash va individuallashtirish asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil va ijodiy egallash darajalarini oshiradigan hamda bilim hajmini kreditlar ko‘rinishida belgilashga mo‘ljallangan ta‘lim texnologiyasidir. Kredit tizimiga asoslangan o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchi pozitsiyalari ham o‘zgaradi. O‘quvchi passiv qabul qiluvchi pozitsiyasidan o‘quv jarayonining faol qatnashchisiga aylanadi. Ayni paytda o‘qituvchi roli ham keskin o‘zgarib, u nafaqat axborot uzatuvchi, balki o‘quvchiga axborotni izlab topish, uni qayta ishlash, olgan yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llashda yordam beruvchi vazifalarini bajaradi. Kredit texnologiyasiga ko‘ra har bir o‘quv fani bir-

biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq va biri ikkinchisidan kelib chiqadigan muammolar yig‘indisi sifatida o‘rganish uchun taqdim etiladi, ushbu muammolar o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganib chiqilishi nazarda tutiladi. Ushbu texnologiyani qo‘llash o‘qituvchilarning o‘quvchilar guruhi bilan auditoriya mashg‘ulotlari hajmini keskin kamaytirishni talab etadi, ayni vaqtda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga ajratiladigan soatlar soni hamda o‘qituvchilar bilan individual ishlash hajmi ortadi.

Ta‘lim kredit texnologiyasini joriy qilishni o‘rganishdagi tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turli dunyo mamlakatlarida o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari mavjud. Ta‘lim kredit texnologiyasining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko‘pgina dunyo mamlakatlarining ta‘lim sistemasida keng tarqalganligida ko‘rinmoqda, chunki, ta‘lim dasturlari yo‘nalishlarining taraqqiy etishi o‘quvchilarni bilimni mustaqil o‘zlashtirish va mustaqil ishi ijodiy faoliyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, demak, ta‘lim sifati to‘liq oshadi.

Shu tariqa, ta‘lim krediti texnologiyasini joriy qilinishi shartli ravishda kadrlar tarkibi, o‘quv-metodik ta‘minlanganlik, moddiy-texnik ta‘minlanganlik bazasi va eng asosiysi, o‘quvchining o‘zi va uning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga nisbatan yuqori talablarni qo‘yadi. Ta‘lim kredit-modul texnologiyasida o‘quvchilarning mustaqil ta‘limiga bo‘lgan talabni kuchaytiradi, chunki, uy vazifasi ham baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy davlatlar ta‘lim tizimi rivojlanishidagi kredit ta‘lim sistemasini mamlakatimiz professional ta‘lim tizimiga joriy etilishi quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:

- mutaxassislarni jahon standartlari darajasida tayyorlash imkoniyati;
- o‘quv jarayonini tezkor va egiluvchan tarzda rejalashtirish;
- auditoriya va mustaqil ishlash orasida optimal munosabat o‘rnatish;
- o‘quvchida mustaqil ta‘lim olishga va mustaqil rivojlanishga ko‘nikma hosil qilish;
- o‘quvchilarning bilim olishda ularga mustaqil ijodkorona yondashish malakasini va istagini singdirish;
- kredit va diplomlarni ikki tomonlama tan olish, o‘quvchilarga dars berishni hamkorlikda tashkil etish.

#### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta‘lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 359-son Qarori;
3. Usmonov B.Sh, Xabibullayev R.A Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, TKTI, 2020;
4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

## KONVEKTIV KO'CHISHGA EGA JARAYONLAR TAVSIFI

Raximov Quvvatali Ortikovich

PhD, Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri

Azizbek Samijonov Ismoiljon o'g'li

Magistrant, Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7958308>

**Annotatsiya.** Konvektiv uzatish-bu massa, energiya yoki impulsni vosita orqali uzatish bilan bog'liq muhim jarayon. Bu atrof-muhit zarralarining harakati va turli xil miqdorlarning mos ravishda uzatilishi tufayli amalga oshiriladi. Konvektiv uzatish jarayonlari fan va texnikaning turli sohalarida, shu jumladan fizika, kimyo, muhandislik va boshqalarda keng qo'llaniladi. Ushbu jarayonlarni tushunish atrof-muhit orqali massa, issiqlik yoki impulsni uzatish bilan bog'liq turli xil tizimlar va jarayonlarni ishlab chiqish va optimallashtirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Konvektiv uzatish, zarralarining harakati, diffuziya, gaz harakati.

## ОПИСАНИЕ ПРОЦЕССОВ С КОНВЕКТИВНОГО ПЕРЕНОСА

**Аннотация.** Конвективный перенос является важным процессом, связанным с передачей массы, энергии или импульса через среду. Он осуществляется благодаря перемещению частиц среды и соответствующему переносу различных величин. Процессы конвективного переноса широко применяются в различных областях науки и техники, включая физику, химию, инженерию и другие. Понимание этих процессов помогает в разработке и оптимизации различных систем и процессов, связанных с передачей массы, тепла или импульса через среду.

**Ключевые слова:** конвективный перенос, движение частиц, диффузия, движение газа.

## DESCRIPTION OF PROCESSES WITH CONVECTIVE TRANSPORT

**Abstract.** Convective transport is an important process associated with the transfer of mass, energy or momentum through a medium. It is carried out due to the movement of the particles of the medium and the corresponding transfer of various quantities. Convective transfer processes are widely used in various fields of science and technology, including physics, chemistry, engineering and others. Understanding these processes helps in the development and optimization of various systems and processes related to the transfer of mass, heat or momentum through the medium.

**Keywords:** convective transport, particle motion, diffusion, gas motion.

Konvektiv ko'chish deganda massa, energiya yoki boshqa miqdorlarning konveksiya orqali muhitdan uzatilishi tushuniladi. Bu atrof-muhit zarralarining harakatlanishi va ularga hamroh bo'lgan massa, issiqlik yoki impulsning uzatilishi tufayli amalga oshiriladi.

Konvektiv massa uzatish (diffuziya), konvektiv issiqlik uzatish va konvektiv impuls uzatish (masalan, suyuqlik yoki gaz harakati) kabi bir nechta konvektiv uzatish jarayonlari mavjud.

Konvektiv massa uzatish (diffuziya): bu jarayon konsentratsiya farqi tufayli moddaning massasini bir nuqtadan boshqasiga o'tkazishni anglatadi. Masalan, havodagi hidning tarqalishi yoki suyuqlikdagi molekularning tarqalishi kabi hodisalar ushbu jarayonni tavsiflaydi.

Konvektiv issiqlik uzatish: bu jarayon isitiladigan muhitning harakati natijasida issiqlik uzatilishini anglatadi. Isitilgan vosita harakatlanayotganda va issiqlikni o'zi bilan olib yurganda, bu tabiiy yoki majburiy aylanish konveksiyasi bo'lishi mumkin. Bunga ichki havo issiqligining harakatlanishi, qizdirilganda idishdagi suvning konveksiyasi yoki yer mantiyasining konveksiyasi kiradi.

Konvektiv impuls uzatish: bu jarayon impulsning (masalan, suyuqlik yoki gaz harakati) muhitda harakatlanishi bilan bog'liq. Masalan, shamolda havo harakati yoki daryoda suv harakatini misol keltirish mumkin.

Ushbu konvektiv uzatish jarayonlari fizika, kimyo, muhandislik va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi. Biz quyida ushbu jarayonlarni ifodalovchi tenglama bilan tanishamiz.

Quyidagi tenglamani qaraylik

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u^\mu}{\partial x^2} - \frac{b(t, x) \partial u^\lambda}{\partial x} - c(t, x) u^\alpha, \quad \mu > 1, \lambda \geq 1, \alpha > 0 \quad (1.1)$$

bu tenglama  $\lambda \frac{b(t, x) u^{\lambda-1} \partial u}{\partial x}$  tezlikka ega konvektiv uzatishli nohiziqli muhitda tuz ko'chish jarayonlarini ifodalaydi yoki  $u^{\mu-1}$  issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientli izotrop harakatlanuvchi muhitdagi issiqlik o'tkazuvchanlik va temperaturaga bog'liqlik  $b(t, x) u^{\lambda-1}$  muhitning tezligi bilan  $x$  o'qi yo'nalishi buyicha harakatlanuvchi (aks holda  $x$  ni  $-x$  ga o'zgartirib (1.1) tenglamani olamiz), ko'lamlari issiqlikning yutilishini mavjudligi paytida quvvat temperaturaning fazoviy koordinatalarining ya'ni  $c(t, x) u^\alpha$ , bu yerda  $c(t, x) \geq 0$  vaqt funksiyasi bo'lib topiladi.

Koshi masalasining va  $b(t, x) = c(t, x) = 0$  bo'lgandagi (1.1) tenglama uchun chegaraviy masalalar yechimlari xossalari [1-3] larda qaralgan, xususiyl hollarda  $\mu > 1$  sharti bajarilganda chiziqli holatlardan holi va finitli boshlang'ich shartlarda temperatura fronti chekli tezlik bilan tarqaladi, ya'ni ixtiyoriy  $t \in [0, \infty)$  uchun shunday  $x_0(t)$  mavjud bo'ladiki, barcha  $|x| \geq x_0(t)$  lar uchun  $u(t, x) \equiv 0$  bo'ladi.

[15] da (1.1) tenglama uchun  $b(t, x) = 0, c(t, x) = const$  bo'lganda temperaturaning fazoviy lokalizatsiyasi natijasi kuzatiladi, ya'ni shunday  $L < +\infty$  mavjudki barcha  $t \in [0, \infty)$  lar uchun  $|x| \geq L$  bo'lganda  $u(t, x) \equiv 0$  bo'ladi, bu yerda  $L - t$  ga bog'liq bo'lmagan konstanta. [3] ishda

$$u_t = (u^\mu)_{xx} - b(u^\lambda)_x - cu^\alpha$$

tenglamasi uchun Koshi masalasining harakatini fazoviy lokalizatsiyaga keltiriladigan temperatura to'liqlarini frontini to'xtash effektini aniqlaydigan shart topildi.

Mazkur bo'lim (1.1) tenglamaning  $D = \{(t, x): 0 \leq t < \infty, x \in R^1\}$  dagi

$$u(0, x) = u_0(x), x \in R^1 \quad (1.2)$$



boshlang'ich shartli umumiy yechimini o'rganishga bag'ishlangan. Bu yerda  $u_0(x)$  funksiya uzluksiz, manfiy bo'lmagan, finit, noldan farqli va cheklangan umumiy  $\frac{du_0^{\mu-1}(x)}{dx}$  hosiliga ega bo'ladi deb faraz qilamiz.

(1.1) tenglama  $u > 0$  bo'lganda  $D$  sohaning nuqtalarida parabolik, va  $u = 0$  bo'lganda  $D$  nuqtalarida birinchi tartibli tenglama hosil bo'ladi. SHuning uchun bu tenglama tartibi o'zgaradigan tenglama deyiladi.

Faraz qilaylik,  $G-D$  ning yopiq sohasi, boshqacha aytganda chegaralanmagan; xususiyl holda  $G$   $D$  bilan ustma-ust tushadigan bo'lsin.

**Ta'rif 1.** Gelder shartini qanoatlantiruvchi va chekli  $t$  da chegaralangan  $G$  sohadagi musbat  $u(t, x)$  funksiyasi  $G$  sohadagi (1.1) tenglamaning umumlashgan yechimi deb ataladi, agarda  $u(t, x)$  uchun

$$I(u, f, t_0, t_1, x_0, x_1) \equiv \iint_{\bar{G}} (uf_t + u^\mu f_{xx} + bu^\lambda f_x - cu^\alpha f) dt dx - \int_{x_0}^{x_1} u f dx \Big|_{t_0}^{t_1} - \int_{t_0}^{t_1} u^\mu f_x dt \Big|_{x_0}^{x_1} = 0 \quad (1.3)$$

integral ayniyati bajarilsa, bu yerda  $t_0 < t_1, x_0 < x_1$  sonlarining qanday bo'lganligidan qat'iy nazar  $\bar{G} = [t_0, t_1] \times [x_0, x_1] \subset G$  da  $f(t, x) \in C_{t,x}^{1,2}(\bar{G})$  va  $x = x_0$  va  $x = x_1$  bo'lganda nolga teng.

**Ta'rif 1.1.**  $u(t, x)$  (1.1), (1.2) Koshi masalasining umumlashgan yechimi bo'lsin. U holda  $u$   $D$  sohada (1.3) shartni qanoatlantiradi.

**Teorema 1.2.** Quyidagi shartlar bajarilsin

a)  $\mu > 1$ ;

b)  $0 < t < +\infty, b(t, x) \in C, c(t, x) \in C, x \in R^1$

va

$0 < b_0 \leq b(t, x) \leq b_1 < +\infty, 0 < c_0 \leq c(t, x) \leq c_1 < +\infty, 0 < t < +\infty, x \in R^1$

bu yerda  $b_0, b_1, c_0, c_1$  - o'zgaraslar. U holda  $D$  sohada (1.1), (1.2) Koshi masalasining umumiy yechimi mavjud bo'ladi.  $D$  sohaning ichki nuqtalarida  $u(t, x)$  funksiya (1.1) tenglamani qanoatlantiradi.

**Isboti.** Faraz qilaylik  $v_{0,n}(x)$ , monoton kamayuvchi, musbat aniqlangan, cheksiz differensiallanuvchi har bir chegaradagi kesimda  $v_0(x) = u_0^\beta(x)$  funksiyaga  $n \rightarrow \infty$  da tekis yaqinlashuvchi  $n = 1, 2, \dots$  - ketma-ketlik bo'lsin.

$|x| \geq n$  uchun  $\sup_{n,x} \left| \frac{dv_{0,n}}{dx} \right| < \infty$  va  $v_{0,n} = \sup_{m,\xi} v_{0,m}(\xi) = M$  deb faraz qilamiz.

$v = v_n(t, x)$  yordamida quyidagi masalani belgilab olamiz:

$$D_n = (0, n) \times \{|x| < n\} \text{ da} \\ v = \mu v^{\frac{\mu-1}{\beta}} v_{xx} + \frac{\mu(\mu-\beta)}{\beta} v^{\frac{\mu-1-\beta}{\beta}} (v_x)^2 - \lambda b(t, x) v_x v^{\frac{\lambda-1}{\beta}} - \beta b_x v^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}} - \beta c v^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}; \quad (1.4)$$

$$\begin{cases} v(0, x) = v_{0,n}(x), \\ v(t, x)|_{|x|=n} = M. \end{cases} \quad (1.5)$$

Parabolik tenglamalar nazariyasidan [2] ma'lumki, (1.4), (1.5) masalalarning yechimlari har bir  $n$  uchun yagona va mavjud, uning uchun  $|x| < n$  da  $v_n(t, x) \in C(\bar{D}_n) \cap C_{t,x}^{1,2}(D_n)$  ifoda o'rinlidir.

$u_n(t, x) = v^1(t, x)$  funksiyasi  $D_n$  da (1.1) tenglamani va shuningdek  $n > \max(t_1, |x_0|, |x_1|)$  da (1.1) integral ayniyatni qanoatlantiradi [1]. Maksimum prinsipidan  $D_n$  ( $n = 1, 2, \dots$ ) da  $M \geq v_n \geq v_{n+1} > 0$  kelib chiqadiki,  $M$  –ham (1.1) da  $n$  ga bog'liq emas. SHuning uchun  $(t, x) \in D$  har bir nuqtada  $\lim_{n \rightarrow \infty} u_n(t, x) = u(t, x)$  mavjud bo'ladi. Yuqorida aytilganlardan  $u(t, x)$  funksiya musbat, chegaralangan va (1.3) integral ayniyatni qanoatlantirishi kelib chiqadi.

$P_n$  orqali tug'ri to'rtburchakni belgilaymiz

$$P_n = \{(t, x): 0 \leq t \leq n, |x| \leq n - 1, n > 2\}.$$

Endi  $P_n$  da  $u_n(t, x)$  funksiyasi  $n$  ga bog'liq emas ko'rsatgichi va konstantasi bilan Gelder shartini qanoatlantiradi. Ushbu maqsadda Aronson formasida [2] S.N. Bernshteyn usulini qullaymiz.

$f(\omega) = \frac{M}{3}(4 - \omega)\omega$  bo'lganda  $v_n = f(\omega_n)$  deb faraz qilamiz. U holda  $0 < \omega_n < 1$  va  $[0, 1]$  kesmada  $f(\omega)$  funksiyasi uchun

$$0 \leq f \leq M, \frac{2M}{3} \leq f' \leq \frac{4M}{3}, f'' = -\frac{2M}{3}, \left(\frac{f''}{f'}\right) < -\frac{1}{4} \quad (1.6)$$

munosabati o'rinli.

$P_n$  da  $\omega(x, t)$  funksiyasi quyidagi tenglamani qanoatlantiradi.

$$\begin{aligned} \omega = \mu f^{\frac{\mu-1}{\beta}} \omega_{xx} + \mu \left( f^{\frac{\mu-1}{\beta}} \frac{f''}{f'} + \frac{\mu-\beta}{\beta} f^{\frac{\mu-1-\beta}{\beta}} f' \right) \omega_x^2 - \beta b_x \frac{1}{f'} f^{\frac{\lambda-1+\beta}{\beta}} - \lambda b f^{\frac{\lambda-1}{\beta}} \omega_x \\ - \beta c \frac{1}{f'} f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}. \end{aligned} \quad (1.7)$$

(1.7) tenglamani  $x$  buyicha differensiallab

$$\begin{aligned} \omega_{tx} - \mu f^{\frac{\mu-1}{\beta}} \omega_{xxx} = \\ = \frac{\mu(\mu-1)}{\beta} f^{\frac{\mu-1-\beta}{\beta}} \omega_x \omega_{xx} + 2\mu f^{\frac{\mu-1-2\beta}{\beta}} \left( f^2 \frac{f''}{f'} + \frac{\mu-\beta}{\beta} f' \right) \omega_x \omega_{xx} \\ + \mu f^{\frac{\mu-1-2\beta}{\beta}} \left[ f^2 \left( \frac{f''}{f'} \right)' + \frac{\mu-\beta}{\beta} \cdot \frac{\mu-1}{\beta} (f')^2 + \frac{2\mu-1-\beta}{\beta} f f'' \right] \omega_x^3 \\ - \lambda b_x f^{\frac{\lambda-1}{\beta}} \omega_x - \lambda b \frac{\lambda-1}{\beta} f^{\frac{\lambda-1-\beta}{\beta}} f' \omega_x^2 - \lambda b f^{\frac{\lambda-1}{\beta}} \omega_{xx} - \beta b_x \left[ \frac{f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}}{f'} \right] \omega_x \\ - \beta b_{xx} \frac{1}{f'} f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}} - \beta c_x \frac{f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}}{f'} \\ - \beta c \left[ \frac{f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}}{f'} \right]' \omega_x \end{aligned} \quad (1.8)$$

formulasini olamiz.  $\xi = \xi(x)$  orqali silliq kesuvchi funksiyani quyidagi xossalari bilan belgilab olamiz:  $\xi(x) = 0$   $P_n$ ,  $|\xi(x)| \leq M_1$ ,  $|\xi_{xx}| \leq M_2$  da  $|x| \leq n - 1$ ,  $0 \leq \xi(x) \leq 1$  tug'rilarining kesishmasida, buerda  $M_1$  va  $M_2$   $n$  ga bog'liq emas.

$\bar{D}_n$  da  $z(t, x) = \xi^2 \omega_x^2$  funksiyasini qaraymiz.  $z(t, x)$  funksiyasini maksimum nuqtasidan qidiramiz. Agarda  $t = 0$  nuqtasida maksimumga erishsa u holda maksimum nuqtasida  $z \leq [(f^{-1})'v_{0nx}]^2 \leq M_3$  tengsizligi bajariladi, buerda  $M_3$   $n$  ga bog'liq emas. U holda  $z(t, x)$  funksiyasining maksimum nuqtasida

$$z_x = 0 \text{ va } z_t - \mu f^{\frac{\mu-1}{\beta}} z_{xx} > 0$$

munosabatlari o'rinli, yoki  $z(t, x)$  uchun oshkor ifodani qo'yib

$$\xi^2 \omega_x \omega_{xx} = -\xi \xi_x \omega_x^2 \quad (1.9)$$

$$\xi^2 \omega_x \left( \omega_{tx} - \mu f^{\frac{\mu-1}{\beta}} \omega_{xxx} \right) = \mu f^{\frac{\mu-1}{\beta}} (\xi_x^2 \omega_x^2 + \xi \xi_{xx} \omega_x^2 + 4 \xi \xi_x \omega_x \omega_{xx} + \xi^2 \omega_{xx}^2). \quad (1.10)$$

munosabatini olamiz.

(1.10) ning chap tomonidagi qiymatni (1.8) tenglamaning ikkala tomonini ham  $\xi^2 \omega_x$  ga ko'paytirib  $f^{\frac{2\beta-1-\mu}{\beta}}$  ni tengsizligidan olib ifodalaymiz

$$\begin{aligned} & \mu \xi^2 \left[ - \left( \frac{f''}{f'} \right)' f^2 - \frac{(\mu - \beta)(\mu - 1 - \beta)}{\beta^2} (f')^2 - \frac{2\mu - 1 - \beta}{\beta} f'' f \right] \omega_x^4 \\ & \leq \frac{\mu(\mu - 1)}{\beta} \xi^2 f \omega_x^2 \omega_{xx} + 2\mu \xi^2 \left[ \frac{f''}{f'} f^2 + \frac{\mu - \beta}{\beta} f f' \right] \omega_x^2 \omega_{xx} - \lambda \xi^2 b_x f^{\frac{\lambda+2\beta-\mu}{\beta}} \omega_x^2 \\ & - \lambda b \xi^2 \frac{\lambda - 1}{\beta} f^{\frac{\lambda+\beta-\mu}{\beta}} f' \omega_x^3 - \lambda b \xi^2 f^{\frac{(2\beta+1-\mu)}{\beta}} \left[ \frac{f^{\frac{\lambda+\beta-1}{\beta}}}{f'} \right] \omega_x^2 \\ & - \beta \xi^2 b_{xx} \frac{1}{f'} f^{\frac{\lambda+3\beta-\mu}{\beta}} \omega_x - \xi \xi_{xx} \omega_x^2 + 4 \xi \xi_x \omega_x \omega_{xx} \\ & + \xi^2 \omega_{xx}^2. \end{aligned} \quad (1.11)$$

Agarda  $\beta \in (\mu - 1, \mu)$  va  $|c_x| < +\infty$ ,  $|b_x| < +\infty$ , u holda (1.6) va (8.19) larning hisobidan (1.11) dan quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\xi^2 \omega_x^4 \leq c_1 |\omega_x| + c_2 \omega_x^2 + c_3 |\omega_x|^3 \quad (1.12)$$

Bundan  $P_n$  da  $|\omega_x| \leq c_4$  tengsizligi va  $v_x$  ning chegaralanganligi kelib chiqadi,  $n$  ga bog'liq emas  $\min\left(\frac{1}{\beta}, 1\right)$  ko'rsatgichi va konstantasi bilan  $P_n$  da Gelder shartini qanoatlantiruvchi  $u^\beta(t, x) = v(t, x)$  hisobidan  $u_n(t, x)$  kelib chiqadi.

[2] da ko'rsatilganidek bevosita  $\lim_{n \rightarrow \infty} u_n(t, x) = u(t, x)$  xossasining hisobiga  $u_n(t, x)$   $t$  buyicha Gelder shartini qanoatlantiradi.

$u(t, x)$  funksiyasiga ega bo'ladi. Qurilishiga qarab  $u(t, x)$  funksiyasi (1.1) boshlang'ich shartini qanoatlantiradi va (1.1) - (1.2) masalaning umumiy yechimi bo'lib topiladi.

Teoremaning oxirgi tasdig'ini isbotlash uchun  $D$  uchun  $u(t^0, x^0) > 0$  bo'lgandagi  $(t^0, x^0)$  nuqtasini qaraymiz. U holda  $u^{\beta(t, x)} \geq \alpha > 0$   $(t^0, x^0)$  nuqtasining ba'zi bir  $p^0$  yopiq kesishmasi. Bundan  $p^0$  da

$$v_n(t, x) \geq \alpha \quad (n = 1, 2 \dots)$$

ekanligi kelib chiqadi.

SHuning uchun (1.4) tenglamasi  $p^0$  da barovar parabolik bo'ladi [118]. Bundan  $u_n(t, x)$  funksiyasi  $p^0$  da oddiy klassik stilda (1.1) tenglamani qanoatlantiradi.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, konvektiv uzatish massa, energiya va impulsni vosita orqali uzatishda muhim rol o'ynaydi. Konvektiv massa uzatish, konvektiv issiqlik uzatish va konvektiv impuls uzatish kabi konvektiv uzatish jarayonlari fan va texnikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi.

Ushbu jarayonlarni tushunish turli xil tizimlarni, shu jumladan diffuziya jarayonlarini, issiqlik almashinuvini va suyuqlik yoki gazlarning harakatini o'rganish va optimallashtirishga imkon beradi. Konvektiv transport atmosfera va okeanlarning aylanishi, ob-havo va iqlim sharoitlarining shakllanishi kabi tabiiy hodisalarda ham muhim rol o'ynaydi.

Konvektiv uzatishni o'rganish turli jarayonlar va tizimlarda samaradorlik va energiya tejashni yaxshilashga yordam beradigan yangi texnologiyalar va usullarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar bizning bilimlarimiz va texnik imkoniyatlarimizga katta hissa qo'shadigan yangi qo'llanmalar va yaxshilanishlarni topishi mumkin.

#### **REFERENCES**

1. "Convective Heat and Mass Transfer" by S.K. Kakac, Y. Bayazitoglu, and H. Yener. (CRC Press, 2018)
2. "Transport Phenomena" by R. Byron Bird, Warren E. Stewart, and Edwin N. Lightfoot. (Wiley, 2007)
3. "Convective Heat Transfer" by Louis C. Burmeister. (John Wiley & Sons, 1993)
4. "Convective Heat Transfer: Mathematical and Computational Modelling of Viscous Fluids and Porous Media" by Kambiz Vafai. (Springer, 2011)
5. "Convective Heat Transfer" edited by Sadik Kakac, Hongtan Liu, and Anchasa Pramuanjaroenkij. (CRC Press, 2013)
6. Арипов М. Методы эталонных уравнений для решения нелинейных краевых задач. Ташкент, «Фан», 1978.
7. Aripov M. Asymptotics of Solutions of the non-Newton Polytropic Filtration Equations. ZAMM 2000, vol.80, supl.3, 767-768.
8. Aripov M. Muhammadiev J.U. Asymptotic behaviour of automodel solitions for one system of qusilinear equations of parabolic type. Buletin Stiintific – Universitatea din Pitesti, Seria Matematica si Informatica, Nr. 3,(1999),pg. 19-40.
9. Зельдович Я.Б. и Компанец А.С. К теории распространения тепла при теплопроводности, зависящей от температуры. // Сборник, посвященный 70-летию акад. А.Ф. Иоффе. М. 1950, с.61-71.
10. Калашников А.С. О характере распространения возмущений в задачах нелинейной теплопроводности с поглощением. Ж. выч. мат. и мат. физ. 1974 т. 14, № 4, с 891-905.
11. Калашников А. С. О влиянии поглощения на распространение тепла в среде с теплопроводностью, зависящей от температуры. - ЖВМ и МФ,1976, т.16, № 3, с. 689-696.

12. Галактионов В. А., Курдюмов С. П., Михайлов А. П., Самарский А. А. О неограниченных решениях задачи Коши для параболического уравнения  $u_t = \nabla(u^\sigma \nabla u) + u^\beta$ . - ДАН СССР, 1980, т. 252, № 6, с. 1362 -1364.
13. Галактионов В. А., Курдюмов С. П., Самарский А. А. Об одной параболической системе квазилинейных уравнений. I. - Дифференц. уравнения, 1983, т. 19, № 12, с. 2123 - 2140.
14. Галактионов В.А., Курдюмов С.П., Самарский А.А. О методе стационарных состояний для нелинейных эволюционных параболических задач. - ДАН СССР, 1984, т. 278, № 6, с. 1296 - 1300.
15. Галактионов В.А., Самарский А.А. Методы построения приближенных автомодельных решений нелинейных уравнений теплопроводности. I-Мат. сб., 1982, т. 118(160), с. 291 -322.
16. Баренблатт Г.И., Ентов В.М., Рыжик В.М. Движение жидкостей и газов в природных пластах. М. Наука, 1984. стр.207.
17. Баренблатт Г.И. О некоторых неустановившихся движениях жидкости и газа в пористой среде. // ПММ. 1952. т. XVI, вып. 1. с.67-78.
18. Баренблатт Г.И. Об автомодельных движениях сжимаемой жидкости в пористой среде. //ПММ. 1952. т. XVI, вып. 6. с.679-698.
19. Knerr V. F. The behavior of the support of solutions of the equation of nonlinear heat conduction with absorption in one dimension. Trans. of Amer. Math. Soc., 1979, v. 249, p. 409 - 424.
20. Самарский А.А. Теория разностных схем. – М.: Наука, 1977, 656с.
21. Самарский А.А., Галактионов В.А., Курдюмов С.П., Михайлов А.П. Режимы с обострением в задачах для квазилинейных параболических уравнений. – М.: Наука, 1987, 480с.
22. Исроилов М. Ҳисоблаш усуллари. 2 том. 2008.
23. Kombe Ismail. Doubly nonlinear parabolic equations with singular lower order term. // Nonlinear Anal., 56, 2004, №2, pp.185-199.
24. Kusano Takaši and Tomoyuki Tanigava. Positive Solutions to a Class of Second Order Differential Equations with Singular Nonlinearities. // Applicable Analysis. 1998, Vol. 69(3-4), pp.315-331.
25. Lin X. and Wang M. The critical exponent of doubly singular parabolic equations. // J. Math. Anal. Appl., 257:1, 2001, pp.170-188.
26. Jong-Sheng Guo, Bei Hu. Quenching profile for a quasilinear parabolic equation // Quarterly of applied mathematics. v. LVIII, № 4, 2000, pp.613-626.
27. Afanas'eva N.V., Tedeev A.F. Fujita type theorems for quasilinear parabolic equations with initial data slowly decaying to zero. //Sbornik Mathematics. 195:4 (2004), pp.459-478.
28. Свирижев Ю.М. Нелинейные волны, диссипативные структуры и катастрофы в экологии. -М.: Наука, 1987, 368 б.
29. Марри Дж. Нелинейные дифференциальные уравнения в биологии. Лекции о



- моделях. Москва, Мир, 1983, 394 б.
30. Белотелов Н.В., Саранча Д.А. Линейный анализ устойчивости систем с диффузией на экологическом примере. Биофизика, 1984, №1, 130-134 с.
  31. M. Escobedo and M.A. Herrero. Boundedness and Blow Up for a Semilinear Reaction-Diffusion System. Journ. Of Differential Eq. 89, 1991, 176-202.
  32. Chunlai Mu and Ying Su. Global Existence and Blow-Up for a Quasilinear Degenerate Parabolic System in a Cylinder. Applied Mathematics Letters. 14, 2001, 715-723.
  33. Usmonov, B., Rakhimov, Q., & Akhmedov, A. (2019, November). The study of the influence of the gamma function on the flutter velocity. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
  34. Усмонов, Б. Ш., & Рахимов, К. О. (2020). Построение математической модели в прямой и вариационной постановке задачи изгибно-крутильного колебания наследственно-деформируемого крыла самолета. Проблемы вычислительной и прикладной математики, (5), 108-119.
  35. Усмонов Б., Рахимов К. (2021). Моделирование и анализ численных исследований задач линейных и нелинейных наследственно-деформируемых систем в среде Matlab. Проблемы вычислительной и прикладной математики // Problems of computational and applied mathematics, 4(34), 50-59.
  36. Usmonov, B., & Rakhimov, Q. (2019). Vibration analysis of airfoil on hereditary deformable suspensions. In E3S Web of Conferences (Vol. 97, p. 06006). EDP Sciences.
  37. Каримбердиевич, О.М. (2022). Применение вычислительных методов при разработке программ и их математическом моделировании. Евразийский журнал физики, химии и математики , 12 , 131-134.
  38. Рахимов Қувватали, & Сотволдиев Абдумалик Дилмурод ўғли. (2022, October 20). Машинали ўқитиш ва сунъий интеллектнинг амалий соҳаларда қўлланиш тенденциялари. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7230282>
  39. Tojiev, T. H., & Ibragimov, S. M. (2019). Numerical solutions of the cauchy problem for the generalized equation of nonisotropic diffusion. Bulletin of Namangan State University: Vol, 1(10), 6.
  40. Raximov , Q., & Sotvoldiyev , A. D. o'g'li. (2023). Neyron tarmoqlarining yangi turlarini tahlil qilish. International scientific and practical conference "The time of scientific progress", 2(4), 106–112. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1500>
  41. Botir Usmonov, Quvvatali Rakhimov, Akhror Akhmedov. Statement and general technique for solving problem of oscillation of a hereditarily deformable aircraft. E3S Web of Conf. 365 05007 (2023). DOI: 10.1051/e3sconf/202336505007
  42. Рахимов К. и др. Тенденции развития анализа данных, искусственного интеллекта и интернета вещей //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 30. – С. 209-211.
  43. Тожиев Т И. Ш., Рахимов К. Методы построения цепей маркова аппроксимирующие диффузионных задач //Toshkent shahridagi turin politexnika universiteti. – 2017. – С. 156.

44. Ortikovich K. R. et al. General characteristics of the flutter and its influence on the stability of the aircraft //International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 12. – C. 48-56.

## AVTOMODEL YECHIM QURISH USULLARI TAVSIFI

**Raximov Quvvatali Ortikovich**

PhD, Farg'ona davlat universiteti.

**Azizbek Samijonov Ismoiljon o'g'li**

Magistrant, Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7958383>

**Annotatsiya.** *Differentsial tenglamalar uchun avtomodel echimlarini qurish – bu berilgan differentsial tenglamalar uchun avtomatik ravishda echimlarni yaratadigan tizim yoki usulni yaratish jarayonidir. Bu fizika, muhandislik, iqtisodiyot va boshqalar kabi differentsial tenglamalarning echimlarini tez va samarali topish zarur bo'lgan turli sohalarda foydali bo'lishi mumkin. Yaqinlashadigan echimlar deb ham ataladigan avtomodel echimlari differentsial tenglama echimlarining maxsus klassi bo'lib, ular rivojlanish jarayonida tenglamani qanoatlantirishi uchun avtomatik ravishda o'rnatiladi. Ular murakkab dinamik tizimlarni tavsiflash yoki eksperimental ma'lumotlarni approksimatsiyalashda qo'llaniladi.*

**Kalit so'zlar:** *Avtomodel, differentsial tenglama, dinamik tizimlar, approksimatsiya.*

### ОПИСАНИЕ СПОСОБОВ ПОСТРОЕНИЯ АВТОМОДЕЛЬНОГО РЕШЕНИЯ

**Аннотация.** *Построение автомодельных решений дифференциальных уравнений – это процесс создания системы или метода, который автоматически генерирует решения для заданных дифференциальных уравнений. Это может быть полезно в различных областях, таких как физика, инженерия, экономика и т. д., где необходимо быстро и эффективно находить решения дифференциальных уравнений. Автомодельные решения, также известные как приближенные решения, представляют собой особый класс решений дифференциальных уравнений, которые автоматически настраиваются для выполнения уравнения в процессе разработки. Они используются для описания сложных динамических систем или аппроксимации экспериментальных данных.*

**Ключевые слова:** *автомодель, дифференциальное уравнение, динамические системы, аппроксимация.*

### DESCRIPTION OF WAYS TO BUILD A SELF-SIMILAR SOLUTION

**Abstract.** *The construction of self-similar solutions of differential equations is the process of creating a system or method that automatically generates solutions for given differential equations. This can be useful in various fields, such as physics, engineering, economics, etc., where it is necessary to quickly and efficiently find solutions to differential equations. Self-similar solutions, also known as approximate solutions, are a special class of solutions to differential equations that are automatically configured to fulfill the equation during development. They are used to describe complex dynamical systems or to approximate experimental data.*

**Keywords:** *self-model, differential equation, dynamical systems, approximation.*

Avtomodel echimlarni qurish odatda eng kichik kvadratlar usuli yoki boshqa optimallashtirish usullaridan foydalanishga asoslangan. Avtomodel echimlarni yaratishda quyidagi umumiy yondashuvlar mavjud:

Funksional shaklni aniqlash: avval siz qaralayotgan tizim yoki ma'lumotlarga eng mos keladigan avtomodel echimning funksional shaklini aniqlashingiz kerak. Bu sozlanishi kerak bo'lgan parametrlarni o'z ichiga olgan analitik formula bo'lishi mumkin.

Yo'qotish funksiyasini aniqlash: keyinchalik, modeldan olingan qiymatlar va kuzatilgan ma'lumotlar o'rtasidagi farqni o'lchaydigan yo'qotish funksiyasini aniqlash kerak. Odatda ayirma kvadratlari yig'indisi (qoldiq kvadratlari yig'indisi) yoki boshqa mos metrika ishlatiladi.

Parametrlarni optimallashtirish: keyin model parametrlarini yo'qotish funksiyasini minimallashtirish uchun sozlash uchun eng kichik kvadratlar usuli yoki gradient tushish algoritmi kabi optimallashtirish usuli qo'llaniladi. Bu optimallashtirish muammosini hal qilishni yoki iterativ usullardan foydalanishni talab qilishi mumkin.

Natijani tekshirish va tahlil qilish: avtomodel echim parametrlarini o'rnatgandan so'ng, olingan natijalarni tekshirish va tahlil qilish amalga oshiriladi. Bunga model qiymatlarini kuzatilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash, muvofiqlik sifatini baholash va olingan model parametrlarini tahlil qilish kiradi.

Avtomatik modellashtirish echimlarini yaratish - bu turli xil funksional shakllar, dastlabki shartlar va optimallashtirish usullari bilan tajriba o'tkazishni talab qiladigan iterativ jarayondir. Jismoniy cheklovlarni va olingan parametrlarning talqin qilinishini hisobga olish ham muhimdir.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi masalani avtomodel echimlarini qurishni ko'rib o'tamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left( u^\sigma \frac{\partial u}{\partial x} \right) - k(t) \left| \frac{\partial u}{\partial x} \right|^\alpha u^\beta \quad (1)$$

$$u(0, x) = u_0(x) \geq 0 \quad (2)$$

$$u(t, 0) = u_1(t) \geq 0; \quad u(t, M) = u_2(t) \geq 0. \quad (3)$$

bu yerda  $k(t) = (T - t)^\delta$ .

Yechimni quyidagi ko'rinishda qidiramiz:

$$u = (T - t)^\gamma w(z);$$

bu yerda  $z = x(T - t)^\rho$ .

(1) tenglamaning har bir hadini hisoblab olamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = -\gamma(T - t)^{\gamma-1}w(z) + (T - t)^\gamma \frac{\partial w}{\partial z} \frac{\partial z}{\partial t} = -\gamma(T - t)^{\gamma-1}w(z) - (T - t)^\gamma x \rho (T - t)^{\rho-1} \frac{\partial w}{\partial z}$$

$$= -\gamma(T - t)^{\gamma-1}w(z) - \rho(T - t)^{\gamma-1}z \frac{\partial w}{\partial z} = (T - t)^{\gamma-1} \left( -\gamma w(z) - \rho z \frac{\partial w}{\partial z} \right);$$

$$\frac{\partial}{\partial x} \left( u^\sigma \frac{\partial u}{\partial x} \right) = \frac{\partial}{\partial z} \left( (T - t)^{\gamma\sigma} w^\sigma (T - t)^\gamma (T - t)^\rho \frac{\partial w}{\partial z} \right) (T - t)^\rho$$

$$= (T - t)^{\gamma\sigma+\gamma+2\rho} \frac{\partial}{\partial z} \left( w^\sigma \frac{\partial w}{\partial z} \right);$$

$$k(t) \left| \frac{\partial u}{\partial x} \right|^\alpha u^\beta = (T - t)^\delta \left| (T - t)^\gamma \frac{\partial w}{\partial z} (T - t)^\rho \right|^\alpha (T - t)^{\gamma\beta} w^\beta$$

$$= (T - t)^{\delta+\gamma\beta+(\gamma+\rho)\alpha} \left| \frac{\partial w}{\partial z} \right|^\alpha w^\beta.$$

Tenglamani qayta yozib olamiz:

$$(T - t)^{\gamma-1} \left( -\gamma w(z) - \rho z \frac{\partial w}{\partial z} \right) =$$

$$= (T - t)^{\gamma\sigma+\gamma+2\rho} \frac{\partial}{\partial z} \left( w^\sigma \frac{\partial w}{\partial z} \right) - (T - t)^{\delta+\gamma\beta+(\gamma+\rho)\alpha} \left| \frac{\partial w}{\partial z} \right|^\alpha w^\beta.$$

$(T - t)$  koefitsientlar daraja ko'rsatkichlarini  $\gamma - 1$  ga tenglaymiz:

$$\begin{cases} \gamma\sigma + \gamma + 2\rho = \gamma - 1; \\ \delta + \gamma\beta + (\gamma + \rho)\alpha = \gamma - 1. \end{cases}$$

Bu sistemadan  $\gamma$  va  $\rho$  ni topib olamiz:

$$\begin{aligned} \rho &= -\frac{1+\gamma\sigma}{2}, \delta + \gamma\beta + \left(\gamma - \frac{1+\gamma\sigma}{2}\right)\alpha = \gamma - 1, \\ \gamma\left(\beta + \alpha - \frac{\alpha\sigma}{2} - 1\right) &= -1 - \delta + \frac{\alpha}{2}. \end{aligned}$$

Demak,

$$\begin{cases} \gamma = \frac{\alpha - 2(1 + \delta)}{2(\alpha + \beta - 1) - \alpha\sigma}; \\ \rho = -\frac{1}{2} - \frac{\sigma(\alpha - 2(1 + \delta))}{4(\alpha + \beta - 1) - 2\alpha\sigma}. \end{cases}$$

Bu yerda  $2(\alpha + \beta - 1) \neq \alpha\sigma \rightarrow \alpha(2 - \sigma) \neq 2 - 2\beta \rightarrow \alpha \neq \frac{2(1-\beta)}{2-\sigma}$ . Kritik xol.

Tenglamani quyidagicha yozishimiz mumkin bo'ldi:

$$(T - t)^{\gamma-1} \left( -\gamma w(z) - \rho z \frac{\partial w}{\partial z} \right) = (T - t)^{\gamma-1} \frac{\partial}{\partial z} \left( w^\sigma \frac{\partial w}{\partial z} \right) - (T - t)^{\gamma-1} \left| \frac{\partial w}{\partial z} \right|^\alpha w^\beta.$$

Endi tenglamani ikkiala tomonini  $(T - t)^{\gamma-1}$  ga bo'lib, quyidagi avtomodel tenglamaga ega bo'lamiz:

$$-\rho z \frac{dw}{dz} - \gamma w = \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \left| \frac{dw}{dz} \right|^\alpha w^\beta$$

yoki

$$-\rho z w' - \gamma w = (w^\sigma w')' - |w'|^\alpha w^\beta. \quad (4)$$

(4) avtomodel tenglamani  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\delta$  larning tanlangan qiymatlari uchun yechimini quramiz.  $\gamma = \rho$  bo'lsin. U xolda

$$\rho = -\frac{1 + \gamma\sigma}{2}$$

ga ko'ra

$$\gamma = -\frac{1 + \gamma\sigma}{2} \rightarrow \gamma = -\frac{1}{\sigma + 2}$$

ekanligi kelib chiqadi. Va

$$\gamma = \frac{\alpha - 2(1 + \delta)}{2(\alpha + \beta - 1) - \alpha\sigma}$$

dan

$$\delta = \frac{2\alpha + \beta - \sigma + 1}{\sigma + 2}$$

ni topamiz.

Endi (4) tenglamani quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} -\gamma z \frac{dw}{dz} - \gamma w &= \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \left| \frac{dw}{dz} \right|^\alpha w^\beta, \\ -\gamma \frac{dzw}{dz} &= \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \left| \frac{dw}{dz} \right|^\alpha w^\beta. \end{aligned}$$



$w(z) \geq 0$  bo'lganligi uchun quyidagi o'rinli:

$$-\gamma \frac{dzw}{dz} = \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \left| w^{\frac{\beta}{\alpha}} \frac{dw}{dz} \right|^\alpha$$

yoki

$$-\gamma \frac{dzw}{dz} = \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \left| \frac{1}{\frac{\beta}{\alpha} + 1} \frac{dw^{\frac{\beta}{\alpha} + 1}}{dz} \right|^\alpha$$

$\alpha = 1$  deb tanlab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$-\gamma \frac{dzw}{dz} = \frac{d}{dz} \left( w^\sigma \frac{dw}{dz} \right) - \frac{1}{\beta + 1} \left| \frac{dw^{\beta+1}}{dz} \right|.$$

Tenglamani integrallab quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} -\gamma zw &= w^\sigma \frac{dw}{dz} - \frac{1}{\beta + 1} w^{\beta+1} \\ \frac{dw}{dz} &= \frac{1}{\beta + 1} w^{\beta+1-\sigma} - \gamma zw^{1-\sigma} \end{aligned} \quad (5)$$

$w(z)$  funksiyani quyidagi ko'rinishda qidiramiz:

$$w(z) = c_1 z^{c_2}.$$

(5) tenglama hadlarini hisoblab olamiz:

$$\frac{dw}{dz} = c_1 c_2 z^{c_2-1},$$

$$\frac{1}{\beta + 1} w^{\beta+1-\sigma} = \frac{1}{\beta + 1} (c_1 z^{c_2})^{\beta+1-\sigma} = \frac{c_1^{\beta+1-\sigma}}{\beta + 1} z^{c_2(\beta+1-\sigma)},$$

$$\gamma zw^{1-\sigma} = \gamma z (c_1 z^{c_2})^{1-\sigma} = \gamma c_1^{1-\sigma} z^{c_2(1-\sigma)+1}.$$

$z$  ning daraja ko'rsatkichlarini tenglab  $c_2$  va  $\beta$  ning qiymatlarini topamiz:

$$c_2 - 1 = c_2 - c_2\sigma + 1, \quad c_2 = \frac{2}{\sigma}.$$

$$c_2 - 1 = c_2(\beta + 1 - \sigma),$$

$$\beta = \frac{c_2 - 1}{c_2} + \sigma - 1 = \frac{\frac{2}{\sigma} - 1}{\frac{2}{\sigma}} + \sigma - 1 = \frac{2 - \sigma}{2} + \sigma - 1 = \frac{\sigma}{2}.$$

Endi koeffisientlarni tenglaymiz:

$$c_1 c_2 = \frac{c_1^{\beta+1-\sigma}}{\beta+1} - \gamma c_1^{1-\sigma}, \quad c_2 = \frac{c_1^{\beta-\sigma}}{\beta+1} - \gamma c_1^{-\sigma}.$$

$c_2 = \frac{2}{\sigma}$  va  $\beta = \frac{\sigma}{2}$  ekanligini hisobga olsak:

$$\frac{2}{\sigma} = \frac{c_1^{\frac{\sigma}{2}-\sigma}}{\frac{\sigma}{2}+1} - \gamma c_1^{-\sigma}, \quad \frac{2}{\sigma} = \frac{2c_1^{-\frac{\sigma}{2}}}{\sigma+2} - \gamma c_1^{-\sigma}.$$

$X = c_1^{-\frac{\sigma}{2}}$  deb olsak, kvadrat tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\gamma X^2 - \frac{2}{\sigma+2} X + \frac{2}{\sigma} = 0.$$

Kvadrat tenglamaning yechimlari quyidagicha bo'ladi:

$$X_{1,2} = \frac{\frac{2}{\sigma+2} \pm \sqrt{\left(\frac{2}{\sigma+2}\right)^2 - \frac{8\gamma}{\sigma}}}{2\gamma}.$$

$c_1 = X^{-\frac{2}{\sigma}}$  va  $\gamma = -\frac{1}{\sigma+2}$  ekanligini e'tiborga olsak

$$c_1 = \left( \frac{-2}{\left(2 \pm \sqrt{12 + \frac{16}{\sigma}}\right)} \right)^{\frac{2}{\sigma}}.$$

$c_1$  ning qiymati sifatida

$$c_1 = \left( \frac{1}{\mp \sqrt{3 + \frac{4}{\sigma}} - 1} \right)^{\frac{2}{\sigma}}$$

ni olamiz.

(5) avtomodel tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishda bo'lar ekan:

$$w(z) = \left( \frac{1}{\mp \sqrt{3 + \frac{4}{\sigma}} - 1} \right)^{\frac{2}{\sigma}} z^{\frac{2}{\sigma}}$$

(1)-(3) masala uchun quyidagi tanlangan qiymatlarda

$$\alpha = 1, \quad \beta = \frac{\sigma}{2}, \quad \delta = \frac{-\sigma + 6}{2\sigma + 4}$$

Avtomodel yechimga ega bo'lamiz:

$$u_A(t, x) = (T - t)^\gamma w(z), \quad u_A(t, x) = (T - t)^{-\frac{1}{\sigma+2}} c_1 z^{c_2},$$

$$u_A(t, x) = (T - t)^{-\frac{1}{\sigma+2}} \left( \frac{1}{\mp \sqrt{3 + \frac{4}{\sigma}} - 1} \right)^{\frac{2}{\sigma}} z^{\frac{2}{\sigma}},$$

$$u_A(t, x) = (T - t)^{-\frac{1}{\sigma+2}} \left( \frac{x(T - t)^{-\frac{1}{\sigma+2}}}{\mp \sqrt{3 + \frac{4}{\sigma}} - 1} \right)^{\frac{2}{\sigma}}. \quad (6)$$

Agar  $k(t) = (t + c)^\delta$  ko'rinishda berilsa ( $c = const$ ). Quyidagi tanlangan qiymatlarda

$$\alpha = 1, \quad \beta = \frac{\sigma}{2}, \quad \delta = \frac{-\sigma + 6}{2\sigma + 4}$$

avtomodel yechim

$$u_A(t, x) = (t + c)^{-\frac{1}{\sigma+2}} \left( \frac{x(t + c)^{-\frac{1}{\sigma+2}}}{\sqrt{3 + \frac{4}{\sigma}} + 1} \right)^{\frac{2}{\sigma}} \quad (7)$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Topilgan (6) va (7) avtomodel yechimlardan masalani sonli yechishda boshlang‘ich yaqinlashish sifatida foydalanamiz.

#### **XULOSA**

Differentsial tenglamalar uchun avtomodel echimlarini qurish – bu berilgan differentsial tenglamalar uchun avtomatik ravishda echimlarni yaratadigan tizim yoki usulni yaratish jarayonidir. Bu fizika, muhandislik, iqtisodiyot va boshqalar kabi differentsial tenglamalarning echimlarini tez va samarali topish zarur bo‘lgan turli sohalarda foydali bo‘lishi mumkin. Yaqinlashadigan echimlar deb ham ataladigan avtomodel echimlari differentsial tenglama echimlarining maxsus klassi bo‘lib, ular rivojlanish jarayonida tenglamani qanoatlantirishi uchun avtomatik ravishda o‘rnatiladi. Ular murakkab dinamik tizimlarni tavsiflash yoki eksperimental ma‘lumotlarni approksimatsiyalashda qo‘llaniladi. Qo‘yilgan masala uchun berilganlarning tanlangan qiymatlarida avtomodel yechimni topish metodikasi ishlab chiqiladi. Harakatlanuvchi muhitda issiqlik tarqalish masalasi uchun integral munosabatlar usulining qo‘llanishi va ahamiyati ko‘rib o‘tildi. Integral munosabatlar usuli yordamida masalaning taqribiy yechimni aniqlash usuli keltirildi.

#### **REFERENCES**

1. "Convective Heat and Mass Transfer" by S.K. Kakac, Y. Bayazitoglu, and H. Yener. (CRC Press, 2018)
2. "Transport Phenomena" by R. Byron Bird, Warren E. Stewart, and Edwin N. Lightfoot. (Wiley, 2007)
3. "Convective Heat Transfer" by Louis C. Burmeister. (John Wiley & Sons, 1993)
4. "Convective Heat Transfer: Mathematical and Computational Modelling of Viscous Fluids and Porous Media" by Kambiz Vafai. (Springer, 2011)
5. "Convective Heat Transfer" edited by Sadik Kakac, Hongtan Liu, and Anchasa Pramuanjaroenkij. (CRC Press, 2013)
6. Арипов М. Методы эталонных уравнений для решения нелинейных краевых задач. Ташкент, «Фан», 1978.
7. Aripov M. Asymptotics of Solutions of the non-Newton Polytrophic Filtration Equations. ZAMM 2000, vol.80, supl.3, 767-768.
8. Aripov M. Muhammadiev J.U. Asymptotic behaviour of automodel solitions for one system of qusilinear equations of parabolic type. Buletin Stiintific – Universitatea din Pitesti, Seria Matematica si Informatica, Nr. 3,(1999),pg. 19-40.
9. Зельдович Я.Б. и Компанец А.С. К теории распространения тепла при теплопроводности, зависящей от температуры. // Сборник, посвященный 70-летию акад. А.Ф. Иоффе. М. 1950, с.61-71.
10. Калашников А.С. О характере распространения возмущений в задачах нелинейной теплопроводности с поглощением. Ж. выч. мат. и мат. физ. 1974 т. 14, № 4, с 891-905.
11. Калашников А. С. О влиянии поглощения на распространение тепла в среде с теплопроводностью, зависящей от температуры. - ЖВМ н МФ,1976, т.16, № 3, с. 689-696.

12. 12. Галактионов В. А., Курдюмов С. П., Михайлов А. П., Самарский А. А. О неограниченных решениях задачи Коши для параболического уравнения  $u_t = \Delta(u \square \square u) + u \square$ . - ДАН СССР, 1980, т. 252, № 6, с. 1362 -1364.
13. Галактионов В. А., Курдюмов С. П., Самарский А. А. Об одной параболической системе квазилинейных уравнений. I. - Дифференц. уравнения, 1983, т. 19, № 12, с. 2123 - 2140.
14. Галактионов В.А., Курдюмов С.П., Самарский А.А. О методе стационарных состояний для нелинейных эволюционных параболических задач. - ДАН СССР, 1984, т. 278, № 6, с. 1296 - 1300.
15. Галактионов В.А., Самарский А.А. Методы построения приближенных автомодельных решений нелинейных уравнений теплопроводности. I-Мат. сб., 1982, т. 118(160), с. 291 -322.
16. Баренблатт Г.И., Ентов В.М., Рыжик В.М. Движение жидкостей и газов в природных пластах. М. Наука, 1984. стр.207.
17. Баренблатт Г.И. О некоторых неустановившихся движениях жидкости и газа в пористой среде. // ПММ. 1952. т. XVI, вып. 1. с.67-78.
18. Баренблатт Г.И. Об автомодельных движениях сжимаемой жидкости в пористой среде. //ПММ. 1952. т. XVI, вып. 6. с.679-698.
19. Knerr V. F. The behavior of the support of solutions of the equation of nonlinear heat conduction with absorption in one dimension. Trans. of Amer. Math. Soc., 1979, v. 249, p. 409 - 424.
20. Самарский А.А. Теория разностных схем. – М.: Наука, 1977, 656с.
21. Самарский А.А., Галактионов В.А., Курдюмов С.П., Михайлов А.П. Режимы с обострением в задачах для квазилинейных параболических уравнений. – М.: Наука, 1987, 480с.
22. Исроилов М. Ҳисоблаш усуллари. 2 том. 2008.
23. Kombe Ismail. Doubly nonlinear parabolic equations with singular lower order term. // Nonlinear Anal., 56, 2004, №2, pp.185-199.
24. Kusano Takaši and Tomoyuki Tanigava. Positive Solutions to a Class of Second Order Differential Equations with Singular Nonlinearities. // Applicable Analysis. 1998, Vol. 69(3-4), pp.315-331.
25. Lin X. and Wang M. The critical exponent of doubly singular parabolic equations. // J. Math. Anal. Appl., 257:1, 2001, pp.170-188.
26. Jong-Sheng Guo, Bei Hu. Quenching profile for a quasilinear parabolic equation // Quarterly of applied mathematics. v. LVIII, № 4, 2000, pp.613-626.
27. Afanas'eva N.V., Tedeev A.F. Fujita type theorems for quasilinear parabolic equations with initial data slowly decaying to zero. //Sbornik Mathematics. 195:4 (2004), pp.459-478.
28. Свиричев Ю.М. Нелинейные волны, диссипативные структуры и катастрофы в экологии. -М.: Наука, 1987, 368 б.
29. Марри Дж. Нелинейные дифференциальные уравнения в биологии. Лекции о моделях. Москва, Мир, 1983, 394 б.

30. Белотелов Н.В., Саранча Д.А. Линейный анализ устойчивости систем с диффузией на экологическом примере. Биофизика, 1984, №1, 130-134 с.
31. M. Escobedo and M.A. Herrero. Boundedness and Blow Up for a Semilinear Reaction-Diffusion System. Journ. Of Differential Eq. 89, 1991, 176-202.
32. Chunlai Mu and Ying Su. Global Existence and Blow-Up for a Quasilinear Degenerate Parabolic System in a Cylinder. Applied Mathematics Letters. 14, 2001, 715-723.
33. Usmonov, B., Rakhimov, Q., & Akhmedov, A. (2019, November). The study of the influence of the gamma function on the flutter velocity. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
34. Усмонов, Б. Ш., & Рахимов, К. О. (2020). Построение математической модели в прямой и вариационной постановке задачи изгибно-крутильного колебания наследственно-деформируемого крыла самолета. Проблемы вычислительной и прикладной математики, (5), 108-119.
35. Усмонов Б., Рахимов К. (2021). Моделирование и анализ численных исследований задач линейных и нелинейных наследственно-деформируемых систем в среде Matlab. Проблемы вычислительной и прикладной математики // Problems of computational and applied mathematics, 4(34), 50-59.
36. Usmonov, B., & Rakhimov, Q. (2019). Vibration analysis of airfoil on hereditary deformable suspensions. In E3S Web of Conferences (Vol. 97, p. 06006). EDP Sciences.
37. Каримбердиевич, О.М. (2022). Применение вычислительных методов при разработке программ и их математическом моделировании. Евразийский журнал физики, химии и математики , 12 , 131-134.
38. Рахимов Қувватали, & Сотволдиев Абдумалик Дилмурод ўғли. (2022, October 20). Машинали ўқитиш ва сунъий интеллектнинг амалий соҳаларда қўлланиш тенденциялари. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7230282>
39. Tojiev, T. H., & Ibragimov, S. M. (2019). Numerical solutions of the cauchy problem for the generalized equation of nonisotropic diffusion. Bulletin of Namangan State University: Vol, 1(10), 6.
40. Raximov , Q., & Sotvoldiyev , A. D. o‘g‘li. (2023). Neyron tarmoqlarining yangi turlarini tahlil qilish. International scientific and practical conference "The time of scientific progress", 2(4), 106–112. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1500>
41. Botir Usmonov, Quvvatali Rakhimov, Akhror Akhmedov. Statement and general technique for solving problem of oscillation of a hereditarily deformable aircraft. E3S Web of Conf. 365 05007 (2023). DOI: 10.1051/e3sconf/202336505007
42. Рахимов К. и др. Тенденции развития анализа данных, искусственного интеллекта и интернета вещей //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 30. – С. 209-211.
43. Тожиев Т И. Ш., Рахимов К. Методы построения цепей маркова аппроксимирующие диффузионных задач //Toshkent shahridagi turin politexnika universiteti. – 2017. – С. 156.



44. Ortikovych K. R. et al. General characteristics of the flutter and its influence on the stability of the aircraft //International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 12. – C. 48-56.

## MARG'ILON SHAHRI TOPONIMLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Yulbarsova Adibaxon

Farg'ona davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi

2-kurs magistri

**M. Mamajonov**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7963267>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Marg'ilon shahri atrofi toponimlarining lug'aviy asoslari, onomastik tizimda toponimlarning lisoniy o'rganilishi, toponimiyada lug'aviy asos tushunchalari haqida so'z yuritilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Marg'ilon, toponim, lug'aviy, etnografiya.

### LINGUISTIC STUDY OF THE TOPONYMS OF THE CITY OF MARGILON

**Abstract.** In this article, the lexical basis of the toponyms of the Margilan area, the linguistic study of toponyms in the onomastic system, the concepts of the lexical basis in toponymy are discussed and analyzed.

**Key words:** Margilan, toponym, dictionary, ethnography.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТОПОНИМОВ ГОРОДА МАРГИЛОН

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются и анализируются лексическая основа топонимов Маргиланского района, лингвистическое исследование топонимов в ономастической системе, понятия о лексической основе в топонимике.

**Ключевые слова:** С, топоним, словарь, этнография.

Jug'rofiy joylashuviga ko'ra, Marg'ilon tumani shimoldan va shimoli-g'arbdan viloyatning Nurota, g'arbdan Navbahor tumanlari bilan, janubdan Zarafshon daryosi orqali Samarqand viloyatining Paxtachi va Narpay tumanlari, janubi-sharq va sharqdan Kattaqo'rg'on hamda shimoli-sharqdan Qo'shrabot tumanlari bilan chegaradosh.

Marg'ilon Turon zaminining juda qadim, necha asrlar qa'riga borib tutashuvchi ulkan tarix silsilasida uning qatiga yashiringan durru javohirdek ko'zga tashlanavermaydi. Faqat uning o'tmihini farzandlik mehri bilan sinchliklab o'rganmoq zarur. Samarqand va Buxoroni ikki qo'lida tutashtirib turgan bu yurtning tarixi ular kabi juda qadimiydir.

Marg'ilon markazi Iskandar Zulqarnayn zamonida Parakent (grekcha-turkcha yon, chet qishloq, ya'ni daryo yonidagi), arablar istilosi davriga kelib Farahkent (chunki arabchada "p" harfi, tovushi ishlatilmaydi), sohibqiron Amir Temur hukmronligi davridan XVII asrgacha Faroxin qishlog'i, qal'asi deb yuritilgan. "Marg'ilon" atamasining biz o'rgangan, izlangan tarixiy adabiy-badiiy manbalarda ilk bor uchrashi, bundan qariyb 300-yil muqaddam, o'zbek xalqining iste'dodli shoiri, she'riyat mulkining sultoni bo'lmish Alisher Navoiydan keyingi ulug' vakili Boborahim Mashrabning 1697-1709-yillar orasida Marg'ilonida bo'lishi va bu yerda "avliyo Gadoy Selkin ota maqbarasini ziyorat qilishi" tilga olingan.

*Marg'ilon tuman toponimiyasida son, miqdor tushunchalariga asoslangan etnotoponimlar.*

Turkiy urug' va qabilalar juda qadimiy davrlardan beri o'z boshidan murakkab shakllanish jarayonlarini kechirgan. Urug', qabila ma'lum miqdor odamlarning guruhi, to'pi,

birlashuvi va uyushmasidan iborat bo‘lgan. Ma‘lum davrda bu to‘daga yangi qardosh va noqardosh urug‘lar (etnoslar) qo‘shilib turgan yoki qabila ma‘lum bir shoxobcha, tarmoqlarga bo‘linib ketgan. Mana shunday jarayonlar urug‘, qabila tarkibidagi komponentlarning soni miqdoriga ta‘sir etgan. Mana shu xususiyat, belgi ba‘zi hollarda urug‘, qabilani atash, nomlashga asos bo‘lgan.

Odatda urug‘ yoki qabilani tashkil qilgan jamoaning son, miqdor jihatdan oz yoki ko‘pligi ushbu etnosning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli ham ma‘lum xalq etnogenezida u yoki bu urug‘ yoki qabilaning o‘rnini va ahamiyatini aniqlash uchun tadqiqotchilar ularning soni va miqdoriga e‘tibor berishgan.

Turkman tilshunosi S.Otaniyozov ushbu tip etnonimlarni “etnosning tarkibi va tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan etnonimlar” sarlavhasi tagida tahlil qilgan va unga urug‘, qabila, guruh ma‘nosini anglatuvchi so‘zlar bilan, son va miqdor bilan bog‘liq, etnosning hajmi bilan bog‘liq, shuningdek etnosning aralashuvi, qo‘shiluv bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi etnonimlarni kiritgan. A.Otajonova Xorazmda ming, yuz, qirq, beshqay, birg‘ulak, to‘g‘iz, o‘nolti, o‘nikki, beshuy, mingbag‘olon kabi etnonimlarning mavjudligini, shuningdek, mo‘g‘ulcha mang‘it, nayman, do‘rmon etnonimlari ham son, miqdor anglatishini qayd qilgan.

Ma‘lumki, atoqli otlarga qiziqish o‘tmishda ham bo‘lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo‘lishi, etnografiyasi, ma‘no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko‘lamda tahlil qilish o‘zbek filologiyasida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatovlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o‘zbek onomastikasi, ayniqsa, uning toponimika, antroponomimika, etnonomimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o‘zbek antroponomimlarning materiallari qoniqarli ravishda to‘plangani va tadqiq qilingani, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar toponimiyasi monografik tarzda o‘rganilganini qayd etish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko‘lamining kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji, shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. O‘tgan davr davomida o‘zbek ismlari va toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o‘nlab monografiya, to‘plam va risolalar, ko‘pgina maqolalar e‘lon qilindi. Bularning barchasi o‘zbek onomastikasi hozirda rivoj topgan mustaqil ilmiy soha ekanidan dalolat beradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonomimiyasiga munosabat tubdan o‘zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma‘naviyatining nodir merosi sifatida ham e‘zozlanadigan va o‘rganiladigan bo‘ldi. Natijada o‘zbek onomastikasining tadqiq yo‘nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi.

Tilimizning lug‘at tarkibida atoqli otlar ma‘lum bir o‘rin egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalar, otasining ismi, taxalluslar, shuningdek, geografik nomlar, planeta va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o‘zbek tilining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so‘zi asli yunoncha bo‘lib, “nom qo‘yish san‘ati” degan ma‘noni bildiradi hamda u tilshunoslikning atoqli otlarini o‘rganuvchi soha nomidir.

Atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida toponimlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Toponim so‘zi asli yunoncha bo‘lib, topos – joy, onoma – nom so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, joy nomi ma‘nosini anglatadi. Toponimlar geografik nomlar, joy nomlari deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanining joy nomlarini o‘rganuvchi sohasi toponimika deb yuritiladi. (Masalan, Farg‘ona vodiysi toponimiyasi, Navoiy viloyati toponimiyasi kabi).

Joy nomlari juda uzoq davrning mahsuli bo‘lib, til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, geologiya kabi qator fanlar uchun boy faktik material beruvchi manbadir. Joy nomlarining qachon paydo bo‘lganligini, nimaga asosan shunday nom olganligini, davrlar o‘tishi bilan bu nomda qanday o‘zgarishlar yuz berganligini aniqlashda yuqoridagi fanlar hamkorlikda ish ko‘radilar. Joy nomlarini o‘rganish o‘sha territoriyada yashovchi xalqlarning tili, tarixi, turmushi, urf-odati, kasb-koriga oid qator masalalarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, o‘zbek toponimiyasini o‘rganishga doir ba‘zi ilk tadqiqotlar H.Hasanov qalamiga mansubdir. U ko‘proq toponimlar tarixi va imlosi bilan qiziqdi. Uning “Geografik nomlar imlosi”, “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” tadqiqotida 60 ga yaqin toponim qo‘llanilgan.

O‘zbek toponimikasida mikrotoponimiya materiali alohida olingan holda tadqiq qilingan ishlar ham mavjud. Biz bu o‘rinda O‘ralboy Oripovning “Nurota tumani makro- va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili” Shamsiya Qodirovaning “Toshkent mikrotoponimlari” va Xushboq Xolmo‘minovning “Boysun rayoni va uning atrof hududlari mikrotoponimiyasi” mavzuida yozilgan nomzodlik dissertatsiyalari hamda ilmiy maqolalarini ko‘zda tutmoqdamiz.

Bunday ishlar jumlasiga T.Rahmatovning Samarqand shahri va uning atroflari, J.Latipovning Marg‘ilon shahri va uning atroflari, N.Oxunovning Qo‘qon gruppasi rayonlari, T.Enazarovning Shahrisabz hududi toponimiyasiga<sup>2</sup> bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Mikrotoponimlar haqidagi ba‘zi mulohazalar Tamtum qishlog‘i mikrotoponimiyasi misolida S.Qorayev tomonidan aytilgan. U mikrotoponimlar yuzasidan bir qator rus toponimistlari bildirgan fikrlarga suyangan holda bu masalaga oid o‘z qarashlarini bayon qilgan.

#### *Toponimiyada lug‘aviy asos tushunchasi*

Tildagi atoqli otlar anglatuvchi ob‘ektlar moddiy, tabiiy va sun‘iy, xayoliy, real va afsonaviy, dunyoviy yoki diniy bo‘lishi, ular yer yuzasida, quruqlikda yoki suvliklarda yoxud yer ostida, aksincha, fazoda joylashgan bo‘lishi mumkin. Atoqli otlar ma‘no va vazifasiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ular insonga yoki hayvonot, o‘simliklarga, boshqa xil jonli va jonsiz mavjudotlarga, hajman ulkan yoki kichik ob‘ektlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Ushbu nomlar miqdoran ko‘p bo‘lib, murakkab guruhlarni tashkil qiladi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlarda bu nomlarni qandaydir umumlashtirish, ularni ma‘lum omillar asosida tasniflashga to‘g‘ri keladi.

Yer usti va yer tagidagi tabiiy-jo‘g‘rofiy hamda sun‘iy ob‘ektlarning atoqli otlari guruhiga yer yuzasida joylashgan va o‘z atoqli otiga ega bo‘lgan har qanday tabiiy, sun‘iy ob‘ektlarning nomlarini anglatuvchi terminlar kiradi. Bunday ob‘ektlar yer yuzasida, yer ostida, quruqlikda yoki suvliklarda, tekislik, pastlik yoki balandliklarda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bunday ob‘ektlar xilma-xil va miqdoran ko‘p bo‘lib, onomastikada asosan 3 ta nom

bilan yuritilmoqda: toponim, gidronim, oronim. Nomlarning ushbu yirik guruhlari yana bir qator mayda guruhlar, shoxobchalarga bo‘linadi. Masalan, agroonim, – yer uchastkalari nomi, oykonim, komonim – aholi yashovchi o‘rinlar nomi, gelonim – botqoqliklar nomi, dromonim – yo‘l harakati bilan bog‘liq ob‘ektlar nomi, limnonim – ko‘llar va o‘sha tipdagi suvliklar nomi, seleonim – yer tagida joylashgan tabiiy ob‘ektlarning atoqli oti va b.

Har qanday til lug‘aviy tarkibidagi ot turkumiga mansub so‘zlarni ikki katta guruhga ajratish ilmiy udum bo‘lgani ma‘lum. Bular turdosh otlar va atoqli otlar. Bu ikki guruh so‘zlarning mohiyati tilshunoslikka oid adabiyotlarda, ayniqsa, tilga oid darslik va qo‘llanmalarda izohlab kelinadi. Chunonchi, “Ot leksemalar bir turdagi predmetlarning hammasini nomlashi yoki bir turdagi predmetlardan bittasini atashi, ajratib ko‘rsatish jihatidan quyidagicha guruhlanadi:

1. Turdosh ot - bir turdagi predmetlarning nomi: qalam, terak kabi. Turdosh ot turni turdan ajratadi.

2. Atoqli ot - yakka predmetning atamasi. Atoqli otda umumlashtirish yo‘q, u leksik jihatdan odatda shartli bo‘lib, yakka bir predmetni o‘zi kabi boshqa yakka predmetdan farqlab berishga xizmat qiluvchi tamg‘a vazifasini bajaradi».

Bir qator ishlarda otlarning turdosh va atoqli otlarga bo‘linishi otning ma‘noga ko‘ra tasniflanishi asosida izohlanadi va otning bu shakl turiga shunday ta‘riflar beriladi: “Bir xildagi predmet va hodisalarning birini ajratib ko‘rsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi”. “Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi”.

*Asosida turdosh leksika yotuvchi toponimlar*

1. Hududning fizikaviy-jo‘g‘rofiy xususiyatlarini ifoda etuvchi toponegizlar.

2 Hududning landshaftini ifoda etuvchi toponegizlar. Bularga hududning reliefini, suvliklarning xususiyatini ifoda etuvchi so‘zlar kiradi: Shulliktepa, Qarg‘atepa, Qo‘sh-tepa, Choshtepa, Oqtosh.

3 geografik ob‘ektning joylashish o‘rniga ishora qiluvchi toponegizlar: Pastqishloq, O‘rtaqishloq, Chuqurqishloq, Balandqishloq, Jarboshi, Tapaqo‘rg‘on, Yonbosh, O‘rtaovul, Bashxijar.

4 geografik ob‘ektning hajmini ifoda etuvchi toponegizlar: Kattasoy, Maydonsoy, Kichiksoy, Kattachorbog‘, Kichikchorbog‘.

5 Ob‘ektning miqdorini ko‘rsatuvchi toponegizlar: Qo‘sh-tepa, Uchqora, Qirqiz, Uchbuloq, Uchariq.

6 Joyning tuproq xususiyati, rang va tusini ifoda etuvchi toponegizlar: Oqt-tepa, Oqtosh, Oqgumbaz, Oqoltin, Oqmachit, Ko‘ksaroy, Ko‘kcha, Uchqora, Oltintepa.

7 Ob‘ektning xususiyati va shakliga ishora qiluvchi toponegizlar: Chuvak, Tasmachi, Kamar, Chakalak, Suluvqo‘rg‘on, Yonbosh, Satilcha.

8 Ob‘ektning tabiiy materiali tarkibiga ishora qiluvchi toponegizlar: Sangjuman, Xarsangsoy.

9 Ob‘ektning paydo bo‘lishi davriga ishora qiluvchi toponegizlar: Yangiqurilish, Yangiobod, Yangiyo‘l, Yangirabot, Navro‘z.

10 Ob‘ekt va joyning xususiyatini baholash ma‘nosiga ega bo‘lgan toponegizlar: Achchi, Sharrak, Murdosh, Suluvquduq.



Atoqli otlar o‘zining alohida mustaqil lisoniy materialiga ega bo‘lmagani tufayli, tildagi mavjud lug‘aviy boylik zaminida yasaladi. Marg‘ilon toponimiyasi bo‘yicha biz olib borgan kuzatishlar ushbu toponimlar zaminida ham o‘zbek tilining va boshqa bir qator tillarning lug‘aviy materiallari yotishini ko‘rsatdi. Bu toponimlarni avvalo ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Turdosh so‘z toponegizlar.

2. Atoqli ot toponegizlar.

Toponegizlarni tahlil qilishdan oldin Marg‘ilon toponimiyasining xarakteri, to‘plangan materialning hajmi, funksional belgilarini aniqlash, namoyish qilish maqsadida toponimlarni ular qanday ob‘ektning atoqli oti bo‘lib kelayotganiga ko‘ra qisqacha tasniflash va ta‘riflashni lozim topamiz.

Marg‘ilon toponimiyasi fondi ikki usulda rivojlanib va boyib borgan. Yangi nom ijod qilish yoki ob‘ektning boshqa tildan o‘zlashgan nom bilan atash. Mahsuldori birinchi usuldir. Marg‘ilon toponimiyasida yangi nom hosil qilishning uchta usuli kuzatiladi: affiksatsiya (morfoloqik) usul, sintaktik usul va onomastik konversiya usuli. Eng mahsuldorlari sintaktik usul va onomastik konversiya usulidir. Marg‘ilon toponimiyasi uchun affiksatsiya usuli xarakterli emas. Ba‘zi juz‘iy toponimlar -li qo‘shimchasi (Avoqli, Tikanli), -lik qo‘shimchasi (Suvlik), -zor qo‘shimchasi (Jiydazor, Olmazor), -cha qo‘shimchasi (Qizilcha, Sho‘rcha) yordamida hosil qilingan. Onomastik konversiya usuli biror kategoriyaga mansub apellyativlarning atoqli ot kategoriyasiga vazifaviy ko‘chishidir. Atoqli ot vazifasiga ko‘chgan leksema murakkab atoqlilashuv jarayonini boshdan kechiradi.

## REFERENCES

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: Fan, 1966. - 120 b.
2. Ataniyazov S.A. Slovar turkmenskix etnonimov. – Ashxabad: Пыт, 1988. – 179.
3. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. - M.: Prosvesheniye, 1966. 202 s.
4. Begimov O. Janubiy O‘zbekiston toponimlarining o‘zlashgan qatlami: Filol. fanlari ... nomzodi dis. avtoref. - T., 1999. - 28 b.
5. Begmatov E., Naimov S. O klassifikatsii toponimov // Tyurkskoye yazykoznaniye. - T., 1985. - S. 375-379.
6. Begmatov E. Nomlar va odamlar. - T.: Fan, 1966. - 52 b.
7. Begmatov E., Xolmo‘minov X. Spetsifika onimizatsii prilagatelnykh v sisteme uzbekskoy mikrotoponimii // Problemy onomastiki Azerbaydjana. - Baku, 1991. – S. 264-265.
8. Begmatov E. Joy nomlari - ma‘naviyat ko‘zgusi. - T.: Ma‘naviyat, 1998. - 64 b.

## ARBA'INNAVISLIK AN'ANASINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TURLARI

Samatova Sabohat

Termiz davlat universiteti filologiya fakulteti adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi  
ikkinchi bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7963368>

**Annotatsiya.** Maqolada sharqda arba'inchilik an'anasining kelib chiqish tarixi, ilk namunalar, nasriy va she'riy arba'inlar, Imom Navaviyning "Arba'in" asari, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning mazkur yo'nalishdagi asarlari, ulardagi o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** hadis, ummat, forsiyazabon, turkiyazabon, asar, sahih.

### THE EMERGENCE OF ARBA'INNAVIS TRADITION AND ITS TYPES

**Abstract.** In the article, the history of the origin of the Arba'in tradition in the east, the first examples, prose and poetic Arba'in, the work "Arba'in" by Imam Nawawi, the works of Abdurahman Jami and Alisher Nawai in this direction, their similarities and differences aspects are discussed.

**Key words:** hadith, ummah, Persian, Turkish, work, sahih.

### ВОЗНИКНОВЕНИЕ ТРАДИЦИИ АРБАИННАВИС И ЕЕ ВИДЫ

**Аннотация.** В статье история возникновения традиции арбаин на востоке, первые образцы, прозаический и поэтический арбаин, произведение «Арбаин» имама Навави, произведения Абдурахмана Джами и Алишера Обсуждаются наваи в этом направлении, их сходства и различные аспекты.

**Ключевые слова:** хадис, умма, персидский, тюркский, труд, сахих.

**Hadis so'zi arabcha (حديث)** "hadasa" o'zagidan olingan bo'lib, "hodisa", "xabar", "yangilik", "voqea-hodisa" deb tarjima qililib, Payg'ambarimizdan (s.a.v) vorid bo'lgan so'zga aytilgan. Ulamolar istilohida hadis-payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ga nisbat berilgan so'z, fe'l, taqrir va hilqat-tana tuzilishi, hulqdagi sifatlar hamda siyratga tegishli barcha tarjimayi-hollaridagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hadis va sunnat so'zlari bir ma'noda ishlatilaveradi. Sunnat - odob degani. Hadis ikki qismdan iborat bo'ladi- matn va isnod. Turiga ko'ra ham ikki xil, Hadis i qudsiy (ma'nosi Alloh tomonidan, aytilishi payg'ambardan) va Hadisi nabaviy(payg'ambar s.a.v tomonlaridan aytilgan). Hadislar e'tiborga olinishi jihatdan uch turga ajratiladi: 1) sahih (ishonchli), 2) hasan (yaxshi), 3) zaif.

Hadisning turlari:1.Qavliy hadislar-Rasuli akram alayhissalomning og'izlaridan nutq qilingan hadislar. 2. Fe'liy hadislar: payg'ambarning fe'llarini xabarini beruvchi, 4. Taqiriy hadis-rasululloh guvohligida sodir bo'lgan biror voqea-hodisadagi holatni tasdiqlaganlari ya'ni ruxsat berganlari haqida, 5. Xalqiy- u zotning shamoillari, ko'rinishlari haqida, xulqiy-xulqlari, tavozelariga oid hadislar sirasiga kiradi.

Hadislar Qur'onga nisbatan qanday o'rin tutadi? Odatda olimlar hadislarini Qur'oni Karimdan keying ikkinchi o'ringa qo'yishgan. Chunki hadislar Qur'ondagi ma'nolarni ta'kidlovchi-tasdiqlovchi bo'ladi, masalan, Qur'oni Karimda barcha masalalar umumiy qilib berilgan, hadislarda esa ular aynan izohlanib, Payg'ambarimiz s.a.v tomonlaridan amaliy tushuntirilgan. Xususan, Qur'onda namozga buyurilgan, hadisda esa namozning ahamiyati,

shartlari, odoblari va qanday o'qilishi tushuntirilgan. Shuningdek, Qur'onda zikri kelmagan ilm-odoblarni hadis bayon qiladi. Bir qancha masalalar hadislar orqali bayon qilingan.

Dastlab hadislar sahobalar tomonidan yodlab o'rganilgan. Keyinchalik ba'zilar yozib ham ola boshlagan. Keyinchalik tobeinlar davrida bu an'ana kengroq davom ettirilgan. Ana shu tarzda muhaddislik ilmi yuzaga kelgan. Ayniqsa, hijriy 3-asrda ya'ni halifa Umar ibn Abdulaziz davrida bu jihatga alohida e'tibor qaratilib, hayot bo'lgan tobeinlardan ko'plab hadislar yozib olina boshlagan. Ana shu davrlarda hadislar ta'lif etish sohasida "musnad", "sahih", "sunan" deb atalmish turli yo'nalishlar vujudga keldi. Musnad yo'nalishida tasnif etilgan to'plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko'ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Bunga Abu Hanifa, Ahmad ibn Hanbalning to'plamlarini misol keltirish mumkin. "Sunan" yo'nalishidagi hadislar to'plamlariga esa, to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda "zaif" hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Abu Iso at-Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja to'plamlari shu yo'nalishga mansubdir.

investitsiya hajmlarida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi:

**300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;**

**3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha — 5 yil muddatga;**

**10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda — 7 yil muddatga.**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2017 yildagi PF-4933-sonli Farmoniga muvofiq:**

Umumbelgilangan soliqlar to‘lovchi davlat mulki ob‘ektlarining sotib oluvchilari — tashkilotlar oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan boshlab 12 oy muddatga yangi sotib olinayotgan davlat mulki ob‘ektlari bo‘yicha mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi, bo‘shagan mablag‘lar xususiylashtirilgan ob‘ektlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo‘naltiriladi.

Mamlakatimizda sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb etish mo‘ljallanmoqda. Ushbu investitsiyalar eng avvalo, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo‘naltirish uchun aniq loyiha va dasturlar ishlab chiqilgan.

Yangi O‘zbekistonda investorlar o‘zini erkin his etishi, ertangi kunga katta ishonch bilan qarab barqaror ishlashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilayotganidan mamnun ekanini izhor etishdi. Eng muhimi esa O‘zbekiston Prezidenti huzurida xorijiy investorlar Kengashi tuzilgani va unda investorlar muammolari ochiq-oydin hal etilishi chet ellik sarmoyadorlarda katta ishonch uyg‘otmoqda.

#### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent - 1992 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 y.
3. lex.uz sayti

XALQARO HAMJAMIYAT UCHUN O'ZARO MANFAATLAR POYDEVORI  
HISOBLANGAN BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI NIZOMINING  
MAZMUN-MOHİYATI

Naimov Dostonbek Rustamovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

[naimovdostonbek48@gmail.com](mailto:naimovdostonbek48@gmail.com)

Telefon:+998(93) 428 48 10

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7969792>

**Annotatsiya.** Mazkuz maqolada tarixiy muhim jarayonda Birlashgan Millatlar Konferentsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1945 yilning 24-oktyabrida kuchga kirgan Xalqaro Sud Statuti Nizomning asosiy maqsad va g'oyalari o'zida mujassam etgan qoidalari va ularning asosi hisoblangan shaxsning qadr-qimmatini, erkaklar va xotin-qizlarning tengligi masalalari, kattayu-kichik millatlar huquqlarining tengligi, ishonchni qayta qaror toptirishga qaratilgan shartnomaviy munosabatlar xalqaro taraqqiyot hamda keng ozodlik sharoiti, totuvlik, xavfsizlikni umumjahon miqyosida yanada mustahkamlashga qaratilgan asosiy tamoyillari ifodalab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro tinchlik va xavfsizlik, xalqlarning teng huquqligi, adolatli sharoit, millatlar o'rtasida tinchlik va do'stona munosabatlar, arbitraj, Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi, Xalqaro Sud va Kotibiyat.

СОДЕРЖАНИЕ УСТАВА ОРГАНИЗАЦИИ ОБЪЕДИНЕННЫХ НАЦИЙ КАК  
ОСНОВЫ ВЗАИМНОЙ ВЫГОДЫ ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНОГО СООБЩЕСТВА

**Аннотация.** В этой статье в исторически важном процессе применяются положения Статута Международного Суда, которые были подписаны на заключительной сессии Конференции ООН по учреждению международной организации и вступили в силу 24 октября 1945 г., воплощают в себе основные цели и идеи Хартии и достоинство человека, мужчин и женщин, вопросы равноправия, равноправия больших и малых народов, договорных отношений, направленных на восстановление доверия, международного развития и основные принципы, направленные на дальнейшее укрепление условий свободы, гармонии и безопасности в глобальном масштабе.

**Ключевые слова:** Международный мир и безопасность, равенство наций, справедливые условия, мир и дружественные отношения между нациями, арбитраж, Генеральная Ассамблея, Совет Безопасности, Экономический и Социальный Совет, Совет по Опеке, Международный Суд и Секретариат.

THE CONTENT OF THE UNITED NATIONS CHARTER AS A FOUNDATION OF  
MUTUAL BENEFITS FOR THE INTERNATIONAL COMMUNITY

**Abstract.** In this article, in a historically important process, the provisions of the Statute of the International Court of Justice, which were signed at the final session of the United Nations Conference on the Establishment of an International Organization and entered into force on October 24, 1945, embody the main goals and ideas of the Charter and the dignity of the person, men and issues of women's equality, equal rights of large and small nations, contractual relations aimed at reestablishing trust, international development and the main principles aimed at further strengthening conditions of freedom, harmony, and security on a global scale are expressed.

**Key words:** *International peace and security, equality of nations, just conditions, peace and friendly relations among nations, arbitration, General Assembly, Security Council, Economic and Social Council, Trusteeship Council, International Court of Justice and Secretariat.*

Tarixiy jarayonlarda guvohi bo'lganimizdek, insoniyat manfaati uchun g'am-g'ussa keltirgan urush kulfatlaridan xalos bo'lish hamda umumjahon miqyosida fuqarolarning huquq va erkinliklari, manfaatlari, shuningdek, insonlarga eng oliy qadriyat sifatida qarashning, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayollarning teng huquqligiga va katta-kichik millatlar huquqlarining tengligiga ishonchni qayta qaror toptirishga va shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga hurmat bilan qarash va adolatga rioya qilish mumkin bo'lgan shart-sharoitni vujudga keltirishga va ijtimoiy taraqqiyot va keng ozodlik sharoitida turmushni yaxshilashga yordam berish maqsadida 1945-yil 26-iyunda San Fransiskoda Birlashgan Millatlar Konferentsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1945 yilning 24-oktyabrida kuchga kirgan Xalqaro Sud Statuti Nizomning tarkibiy qismi hisoblangan mazkur nizom insoniyat tarixida erishilgan muhim ijobiy ta'sir bo'ldi. Misol uchun mazkur nizomning dastlabki qoidalariga ko'ra, adolat va xalqaro huquq printsiplariga asoslangan holda tinchlik vositalaridan foydalanib, tinchlikning buzilishiga olib keluvchi xalqaro nizo yoki vaziyatlarni tinchitish yoki hal etish vositalarini ishlab chiqish hamda shu asosga ko'ra xalqaro munosabatlarni o'rnatish asosiy tamoyil sifatida qabul qilindi. Mazkur tamoyilning ijobiy ta'siri ikkinchi jahon urushidan so'ng qabul qilingan Yaponiya konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish tamoyili doirasida har qanday nizoda qatnashuvchi tomonlar, bu nizoning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga tahdid soladigan bo'lsa, avvalo, nizoning muzokaralar yuritish, tekshirish, vositachilik, yarashish, arbitraj, sud yo'li bilan hal etish yoki mintaqaviy organlar yo bitimlarga murojaat qilish yoki o'z xohishlariga ko'ra, boshqa tinchlik vositalari bilan bartaraf qilishga intilishlari lozimligi hamda bu masala bo'yicha Xavfsizlik Kengashi, zarur deb topsa, tomonlardan oralaridagi nizoni shunday vositalar yordamida bartaraf qilishni talab etishi belgilab berilgan edi.

Bilamizki, xalqaro xavfsizlik huquqi muayyan xalqaro huquqiy munosabatlar doirasini tartibga solidi. Aynan ular ichida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilmog'i darkor:

- a) Urushni oldini olish bilan bog'liq bo'lgan va xalqaro xavotirlanishni kamaytirishga oid munosabatlar;
- b) Xalqaro xavfsizlik tizimini yaratish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;
- c) Qurollanishga oid va qurollanishni cheklashga oid munosabatlar.

Tinchlikka tahdid qilish, tinchlikni buzish va bosqinchilik harakatlariga nisbatan ko'riladigan choralar o'rnida Xavfsizlik Kengashi tinchlikka har qanday tahdid qilish, tinchlikni har qanday tarzda buzish yoki bosqinchilik harakati mavjudligini aniqlaydi va tavsiyalar beradi yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yoxud tiklash uchun qanday choralar ko'rish kerakligini hal qiladi. Xavfsizlik Kengashi vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik uchun tavsiyalar berish yoki choralarni ko'rish haqida qaror qabul qilishdan avval, manfaatdor tomonlardan o'zi vaqtincha ko'rilishi lozim va ma'qul, deb topgan choralarning bajaralishini talab etishga vakil qilinadi. Bunday vaqtincha choralar manfaatdor tomonlarning huquqlariga, da'volariga yoki mavqeiga zarar etkazmasligi lozim.



Xavfsizlik Kengashi shu muvaqqat choralarning bajarilmaganligini tegishli hisobga oladi. Shuningdek, Xavfsizlik Kengashi o'z qarorlarini amalga oshirish uchun qurolli kuchlardan foydalanish bilan aloqador bo'lmaganqanday choralar ko'rish kerakligini hal etishga vakil qilinadi va u Tashkilot a'zolaridan shunday choralarni ko'rishni talab qila oladi. Bu choralarga iqtisodiy munosabatlarni, temir yo'l, dengiz, havo, pochta, telegraf, radio yoki boshqa aloqa vositalarini to'la yoki qisman to'xtatish, shuningdek, diplomatik munosabatlarni uzib qo'yish kirishi mumkinligi aniq belgilab qo'yildi. Bundan tashqari qo'shimcha vakolat sifatida agar Xavfsizlik Kengashi choralarning etarli bo'lmashligi mumkin yoki etarli emas, deb topsa, u havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlar yordamida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yoki tiklash uchun zarur choralar ko'rishga vakil qilinadi. Bu choralarga Tashkilot A'zolarining havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlarining namoyishi, qamal qilishi va boshqa amaliyotlari kirishi mumkinligi ham alohida belgilandi.

Shu barobarida, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlariga va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar asosiy erkinliklariga hurmatni ifodalash yangi avlod konstitutsiyalarida aks ettirildi. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan va mazkur tamoyillar bo'yicha majburiyatlarni oladigan va bajarishni istaydigan barcha tinchliksevar davlatlar Tashkilotga a'zo bo'la olishlari to'g'ridan-to'g'ri belgilandi. Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalari ham Nizomda o'z aksini topgan bo'lib, millatlar o'rtasida tinchlik va do'stona munosabatlar uchun zarur barqaror va farovonlik sharoitini vujudga keltirish maqsadida:

- aholining turmush va ish bilan to'la ta'minlash darajasini oshirishga, iqtisodiy va ijtimoiy o'sish va rivojlanish sharoitini yaxshilashga qaratilgan hamkorlik dasturlari;
- iqtisodiy, ijtimoiy, sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro muammolarni hal etishga, ma'naviyat va maorif sohasidagi xalqaro hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishi;
- inson huquqlariga, kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlaridan qat'i nazar, hammaning asosiy erkinliklariga yalpi hurmat bilan qarash va ularga rioya qilishga ko'maklashish – eng asosiy hamkorlik kategoriyasi sifatida aks ettirilgan edi. Mazkur nizom yuqoridagi asosiy siyosiy-huquqiy pozitsiya yaratish maqsadida hamda xalqaro miqyosda xavfsizlik, tinchlik, hamda millatlararo manfaatli munosabatlarni shakllantirishdagi muhim bir ijtimoiy-siyosiy kelishuv (consensus) ga asos bo'lib kelmoqda. Urushlarni oldini olish hamda uning o'rniga o'zaro faol (interaktiv) foydali diplomatiya yuritishni shakllantirish maqsadida qurol-yarog'lar tarqalishiga chek qo'yish, shuningdek, yalpi qirg'in qurollarining qisqartirilishi, pirovardida, ularning barcha zahiralari yo'qotilishiga erishish eng muhim vazifalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qurolsizlanish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, shu sohada tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqotlar tashabbuskori bo'lish uchun doimiy forum vazifasini o'taydi. U qurolsizlanish bo'yicha Konferensiya va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida olib boriladigan ko'pqirrali muzokaralarni qo'llab-quvvatlaydi.

Tinchlikni barqarorlashtirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining tinchlik o'rnatish faoliyati doirasida diplomatik mexanizmlardan foydalangan holda qarama-qarshi bo'lib qolgan tomonlarning yarashishlariga yordam beradi. Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlik borasidagi o'z sa'y-harakatlari doirasida mojaroni bartaraf etish va tinchlik o'rnatish yoki uni, masalan, muzokaralar yoxud Xalqaro Sud yordamida barqaror etish yo'llarini tavsiya qilishi mumkin. Tashkilotning faoliyati — jabr-zulmning tub sabablarini imkon qadar ko'proq

bartaraf etishga qaratilgandir. Shuning uchun ham tinch qurilishning eng muhim unsurlaridan biri — taraqqiyot uchun yordamni ayamalikdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimning boshqa tashkilotlari bilan hamkorlikda va davlatlar orasidagi donor mamlakatlar hamda nohukumat tashkilotlari ishtirokida butun jamiyatning baxt-saodati uchun, qonun-qoidalar ustuvorligini barqaror etish uchun mojarolar oqibatlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda saylovlar o'tkazish va inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan, boshqarishni takomillashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan yordam ko'rsatadi. Ayni paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu mamlakatlarga mojarolar oqibatida izdan chiqqan ma'muriy tizimni, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va ijtimoiy infrastrukturaning boshqa unsurlarini tiklashga yordam beradi.

Inson huquqlari masalasida 1948-yili Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari deklaratsiyasida barcha erkak va ayollar uchun umumiy bo'lgan asosiy huquq va erkinliklar, jumladan, yashash, ozodlik va fuqarolik huquqlari, fikr, vijdon va din erkinliklari, mehnat qilish, bilim olish va boshqarishda ishtirok etish huquqlari e'lon qilingan.

Ishtirokchilari ko'pchilik davlatlar hisoblangan ikki xalqaro bitim bu huquqlarga yuridik jihatdan majburiy xarakter kasb etadi. Bitimlarning biri iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar. Ikkinchisi esa — fuqarolik va siyosiy huquqlarga bag'ishlangan. Deklaratsiya bilan birgalikda ular inson huquqlari haqidagi Xalqaro billni tashkil etadi.

Deklaratsiya inson huquqlari borasida, jumladan, irqiy kamsitish va xotin-qizlarni kamsitishga barham berish to'g'risidagi konvensiya; bolalar huquqlari haqidagi konvensiya, qochoqlik maqomi va genotsidga barham berish, o'z taqdirini o'zi hal etish, zo'ravonlik bilan yo'qotib yuborish to'g'risidagi deklaratsiyalar va taraqqiyot huquqi kabi 80 dan ortiq konvensiya va boshqa deklaratsiyalarni tayyorlash uchun poydevor qo'ydi. Normalarni ishlab chiqish faoliyati nihoyasiga yetayotgan ayni paytlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining inson huquqlari borasidagi ishlarida asosiy e'tiborni joriy etilgan normalarni hayotga tatbiq etilishiga qaratmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, BMT nizomi mazkur tashkilotning hamda tashkilotga a'zo davlatlarning o'zaro hamkorligi asosida faoliyat yuritishi hamda xalqaro xavfsizlikni, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni, totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlashda asosiy tamoyillarni yoritib beruvchi muhim bir siyosiy-huquqiy hujjat bo'ldi. Inson huquqlari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi butun faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Oliy komissar har qanday buzg'unchilikning oldi olinishi, har qanday jinoyat taftish etilishiga erishib, inson huquqlari yanada yaxshiroq muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida hukumatlar bilan hamkorlik qiladi. Inson huquqlariga g'oyat katta hurmat-e'tibor Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyotga yordamlashish borasidagi sa'y-harakatlarida yana ham sezilarli o'rin egallaydi. Jumladan, taraqqiyot huquqi o'zida barcha fuqarolik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarni mujassam etgan dinamik jarayonning muhim unsuri sifatida olib qaraladi va bu — jamiyatning barcha a'zolari farovonligining oshishiga yordam beradi. Taraqqiyot huquqining kalitini topish — qashshoqlikka barham berish bilan izohlanadi, bu esa, o'z navbatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlaridan biridir. Umuman olganda, BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan bosh tortishprinsipini samaradorligini oshirish to'g'risida”gi deklaratsiya, “Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladigan vaziyat va nizolarning oldini olish hamda ularni tugatish va bunda BMTning rolini oshirish to'g'risidagi” deklaratsiya umumiy xavfsizlikning xalqaro-huquqiy kafolatlarini yaratishga qaratilgan muhim qadam bo'lib, bularning barchasi BMT

nizomiga asolanib, xalqaro xavfsizlik huquqi doirasida tartibga solinadigan eng muhim xalqaro huquqiy munosabatlarni mustahkam poydevorini yaratishda maqsadida ishlab chiqilgan.

#### **REFERENCES**

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar A.X.Saidov-T.:Adolat, 2004.
2. Xalqaro huquq. –T.:Adolat, 1997.
3. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. – Hozirgi zamon xalqaro huquqi, - T.: 2002.
4. G.Matkarimova, G.Yuldasheva - Xalqaro huquq, - T.: 2012.
5. Международное право. Учебник для вузов – Москва: НОРМА - ИНФРА – М -2001.
6. Международное публичное право, Учебник. –Т.: “Zarqalam”, ТГЮИ; ЦИЧППИ, 2003.
7. Рахманов А.Р. Право международной безопасности. Т., ТГЮИ, 2003.
8. [www.un.org](http://www.un.org)
9. [www.unisef.org](http://www.unisef.org)
10. [www.ilo.org](http://www.ilo.org)
11. [www.unic.un.org](http://www.unic.un.org)

## KASB-HUNAR KOLLEJLARI FAOLIYATLARINI TASHKIL ETILGANLIK HOLATLARINI MONITORING QILISH

**T.A.Xo‘jakulov**

t.f.f.d dotsent

**Y.D.Majidova**

Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7970892>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kasb-hunar kollejlari ta'limni amalga oshirish faoliyatlarini tashkil etilganlik holatlarini monitoring qilish, ta'lim jarayoni sifati monitoringini rivojlantirish bosqichlarini to'g'ri tashkil etish nazarda tutiladi.

**Kalit so'zlar:** monitoring, raqamli texnologiya, ta'lim texnologiyasi, texnika-texnologiya.

## МОНИТОРИНГ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖЕЙ

**Аннотация.** В данной статье предусмотрен мониторинг организации воспитательной деятельности профессиональных колледжей, правильная организация этапов развития контроля качества образовательного процесса.

**Ключевые слова:** мониторинг, цифровая технология, образовательная технология, техника-технология.

## MONITORING THE ORGANIZATION OF THE ACTIVITIES OF VOCATIONAL COLLEGES

**Abstract.** This article envisages the monitoring of the organization of educational activities of vocational colleges, the proper organization of the stages of development of monitoring the quality of the educational process.

**Key words:** monitoring, digital technology, educational technology, technique-technology.

**Kirish.** Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Mehnat bozorining rivojlanishi nafaqat ma'lum bilimlarga, balki professional raqobatbardoshlik, kasbiy harakatchanlik, turli xil mehnat harakatchanligini birlashtirish qobiliyatini ta'minlaydigan ma'lum fazilatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi.

Bunday sharoitda kasb-hunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilarni tayyorlash sifati uchun nafaqat davlat, balki mehnat bozorida qattiq tanlovdan o'tishi kerak bo'lgan yosh mutaxassislar oldidagi mas'uliyati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda “Hayot davomida ta'lim olish” prinsipi asosida shaxslarning ta'lim olishiga mo'ljallangan.

Kasb-hunar kollejlari ta'limni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga amal qilinadi.

**Masalani qo'yilishi va takliflar.** Hozirgi vaqtda "monitoring" tushunchasi bilan bir qatorda yana bir tushuncha - "monitoring tizimi" keng qo'llanilmoqda. Monitoring tizimining tuzilishi quyidagi elementlardan iborat: monitoring sub'ektlari, monitoring ko'rsatkichlari majmui; faoliyatni monitoring qilish vositalari; monitoring faoliyati. Monitoring o'quv jarayonining mexanizmlari, qonuniyatlari shaxsni rivojlantirishga o'z vaqtida aralashish imkonini beradi. Faqatgina bunday sharoitlarda ularni malakali boshqarish mumkin [2].

**Muammoni hal etish bosqichlari.** Ta'lim sohasida monitoringdan foydalanish monitoringning 4 turini ajratish imkonini berdi:

- axborot monitoringi - axborotni to'plash, jamlash, tizimlashtirish va tarqatish (axborot yig'ish bosqichida maxsus tashkil etilgan so'rovni o'tkazishni nazarda tutmaydi);

- asosiy monitoring - mumkin bo'lgan og'ishlarni aniqlash uchun ob'ektning holatini doimiy nazorat qilish bilan aniqlash;

- muammoli monitoring - davom etayotgan jarayonlarning qonuniyatlarini va boshqaruv nuqtai nazaridan favqulodda bo'lganlarni aniqlash (boshqaruv organining buyrug'i bilan amalga oshiriladi).

- boshqaruv monitoringi - ta'lim uchun qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samaradorligi, oqibatlarini va ikkinchi darajali ta'sirini kuzatish va baholash. Monitoringning ushbu turi ta'sirini aniqlash muammosi mavjudligi sababli kengaytiriladi, agar monitoring vazifasi kuzatilayotgan ta'sirlarni keltirib chiqaradigan tashqi yoki ichki omillarning dinamikasi va ta'sirini aniqlaydigan baholash tizimlarini qurishga asoslangan[3].

Shunday qilib, ishda biz ta'limdagi monitoringning aniq ta'rifiga keldik: bu ta'lim tizimi yoki uning alohida elementlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimi bo'lib, boshqaruv axborotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu ta'limning holatini baholashga imkon beradi. Ob'ektning istalgan vaqtda holati va uning rivojlanishini bashorat qilishi mumkin.

Kasb-hunar ta'limi tizimini monitoring qilish modelida ta'lim muassasasi faoliyatining turli tomonlari aniqlanadi: iqtisodiy, pedagogik, ijtimoiy va boshqaruv. O'quv jarayoni monitoringini usullariga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: axborot to'plash, joriy jarayonlar holatini ro'yxatga olish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish va o'quv jarayonini sozlashda olingan ma'lumotlarni hisobga olish; ta'lim jarayonini sozlash.

Kasb-hunar kollejlari muassasalarini o'rganish jarayonida ishlab chiqilgan monitoring modelida uning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Bu ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlarni tahlil qilish, ta'lim mazmunini tahlil qilish, diagnostika qilish, o'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi belgilashi, ta'lim tizimining samaradorligi, o'qituvchilarning kasbiy malakasi darajasini tahlil qilish. Monitoring usullari ham tavsiflanadi, ular bir necha guruhlariga bo'linadi: joriy kuzatish, tushuntirish, so'rov usullari, test va boshqalar.

Quyidagilar ta'lim jarayoni sifati monitoringini rivojlantirish bosqichlari deb larini belgilab olinadi:

1. Monitoring modelini ishlab chiqish;
2. Mezon bazasini shakllantirish;
3. Monitoring algoritmlari va dasturiy vositasini ishlab chiqish



Monitoring maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Kasb-hunar ta'limida monitoring tizimini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini nazariy tahlil qilish.

2. Kollej o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini nazorat qilish samaradorligini ta'minlovchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

3. Kollej o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini, shu jumladan o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimini asoslash.

4. Kollej o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini monitoring qilish tizimining tarkibiy qismlari majmui sifatida mazmuni, vositalari va usullarini ishlab chiqish.

5. Ta'lim jarayoni sifatini monitoring qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tizimni eksperimental tekshirish.

**Xulosa.** Monitoring texnologiyalaridan foydalanish nazorat samaradorligini oshirish, o'quv ko'rsatkichlarini dinamikada ko'rib chiqish, turli o'quvchilar, turli guruhlar, vaqtning turli nuqtalarida reyting ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Talabalar o'z-o'zini diagnostika qilish imkoniyatiga ega bo'lib, o'qituvchiga ta'lim jarayonini o'z vaqtida tuzatish imkoniyatini yaratadi.

#### REFERENCES

1. Т.А. Хужакулов, Бурева М, Турсуналиев Ж. Очистка сточных вод промышленных предприятий моделированием полианилиновых сорбционных материалов. "Colloquium-journal" № 3 (55). Warszawa, Polska. 2020. – P. 113-117
2. T.Khujakhulov., Water modeling and pre-project research algorithm. "Colloquium-journal" № 2 (26). Warszawa, Polska 2019. – P. 56-59.
3. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1986. -№6. -Б.42-45.
4. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменительные категории в тюрских языках и понятие грамматическая категория // 2021. -№3. С.23-35.

## O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH

**Ikromova Sitora Akbarovna**

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.796752>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish masalalariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan. Maqola so‘ngida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mafkuraviy immunitet shakllantirish, destruktiv axborotlar, o‘smirlar.*

## FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS

***Abstract.** In this article, the issues of forming ideological immunity to destructive information in teenagers are discussed in detail. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are cited throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.*

***Key words:** formation of ideological immunity, destructive information, teenagers.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

***Аннотация.** В данной статье подробно рассмотрены вопросы формирования идеологического иммунитета к деструктивной информации у подростков. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы цитируются на протяжении всей статьи. Выводы и предложения даны в конце статьи.*

***Ключевые слова:** формирование идеологического иммунитета, деструктивная информация, подростки.*

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g‘oyasi zo‘r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g‘oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo‘lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999-yil fevral, 2004-yilning martidagi Buxoro va Toshkent shahrida sodir etilgan terroristik voqealardan to‘g‘ri xulosa qilish muhim. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning

ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya`ni jamiyat, millat o`z royasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo`llashi mumkin bo`lgan g`oyaviy tahdidlardan qo`rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g`oyaviy parokandalik bo`linishlar bo`lsa (bunga tarixda misollar ko`p) dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo`l ochib beradi. Bunday millatni yengish, mustamlaka qilish oson kechadi (bunga ham tarixda misollar ko`p).

Bu haqda A.Oripov:

*Turkistonning bolalari, maqtovimga quloq, tutmang,  
Gina qilsam chidang, ammo gaplarimni hech unutmang.  
O`t ketsin u qora kunga — birovlarga qul bo`ldingiz,  
Sharq G`arbning o`rtasida oyoq osti yo`l bo`ldingiz.*

degan edi. Shunday ekan, barqarorlik va xavfsizlik — jamiyatning ongliligiga, anglangan to`g`ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishiga, fikriy, g`oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma`rifatiga tayanadi.

Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hech bir O`zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki ular o`z vatanining qanday mashaqqatli, azobli asrlarni o`tkazib, mustaqillikka erishganligini yaxshi biladilar. Shunday ekan, har bir O`zbekistonlik millatidan, dinidan, tug`ilgan joyidan, kasbu-koridan qat`iy nazar vatan posboni bo`lishi lozim. Demak mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat — O`zbekistonliklarning milliy istiqlol g`oyasi atrofidagi jipsligidir. Shu tariqa milliy g`oya bizni o`tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz bilan bog`lab turadi. Shu sababli O`zbekiston xalqining milliy istiqlol g`oyasiga asoslangan immuniteti — Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko`rsatkichlaridan biriga aylanadi.

Milliy istiqlol g`oyasi xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, ijtimoiy hamkorlik millatlararo totuvlik dinlararo bag`rikenglik komillikka tayanar ekan, ana shu g`oyalarga qarshi qaratilgan hatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi. Tashqi tahdidlar O`zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O`zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir. Biz ko`p asrlar ana shu ichki tahdidlar tufayli mustamlakalikda yashab keldik.

Ichki tahdidlar — o`z vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g`oya, fikr, hatti-harakatlardir. Nosog`lom mahalliychilik yonidagilarni mensimaslik vatandoshlarning haqqiga xiyonat qilish, "ma`naviy emigrasiya" (baxtini o`z vatanidan emas, o`zga joylarda qidirish), odamlarni boy kambag`alga bo`lib muomala qilish, poraxo`rlik,

korruptsiya, qo‘pollik, ashaddiy millatchilik, merkantilizm, ortiqcha mol-dunyoga hirs qo‘yish, befarqlik, loqaydlik, o‘zligini anglamaslik va boshqa illatlar bilvosita ichki tahdidlar vazifasini bajaradi. Ular qancha keng tarqalsa, o‘zbekistonliklarning g‘oyaviy birligiga shuncha ko‘p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo‘lmaydi. G‘oyaviy birligi mo‘rt millatning davlat xavfsizligi ham mo‘rt bo‘ladi.

Barcha zamon va makonlarda ma`naviyati kuchli, ishonch va e`tiqodi mustahkam millat bir jonu bir tan bo‘lib, muammolarni tez va soz yechgan, peshqadam bo‘lgan. Mafkuraviy birligi ichidan yoki tashqaridan buzilgan millatlar esa, mag‘lub bo‘lib, mustamlakaga aylangan. Buning tarixiy misolini Bilga xoqonning turk xalqiga bundan 1266 yil oldin toshga bitilgan murojaatida ham ko‘ramiz. Bu bitik mafkurasizlikning ayanchli oqibatlarini tasvirlaydi. Bilga xoqon turk elining adashuvi natijasida uning boshiga qanchalar falokat yog‘ilganini kuyinib aytadi «Tabgach xalqi so‘zi shirin, nafis ipaklar bilan aldab, yiroq xalqni shunday yaqinlashtirar ekan... shirin so‘ziga, nafis ipakligiga aldanib, ko‘p turk xalqi, o‘lding Ey, turk xalqi, o‘lding..»

Inson biror kasallikka chalinsa, uni davolash mumkin. Millat ma`naviyatining zaifligi, uning xarakteridagi xafsalasizlik befarqlik g‘ayratsizlik o‘zaro ichki munosabatlarda aldamchilik qo‘pollik johillik xudbinlik yalqovlik va boshqa nuqsonlarda namoyon bo‘ladi. Demak hozirgi o‘zimizni o‘zimiz barkamol qilishimizga to‘sqinlik qilayotgan ma`naviy jarohatlarimizni davolashimiz uchun masalaga aniq, ya`ni real milliy xarakterni o‘rganish va o‘zgartirish omili sifatida yondashmog‘imiz zarur.

Natijada, millatning o‘z ahvoliga o‘zining munosabati, ijobiy jihatlarni oshirish va qusurlarni ma`rifiy yo‘l bilan davolab, kuchlantirib, jahonning ilg‘or millatlari safiga qo‘shilishi mumkin.

Jamiyatning o‘z ertasi va kelajagiga ishonchi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Buning zamirida millat baxt saodati yo‘lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat — g‘oyaviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda gap, "kishilar dunyoqarashini boshqarish xaqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma`no va mazmun bilan to‘ldirish"ni anglatadi.

G‘oyaviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o‘zini himoya qiluvchi ham g‘oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak qaysi tomonning yengishini, pirovard natijada, ilmga asoslangan targ‘ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi targ‘ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli "Milliy istiqloq mafkurasi tom ma`nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri — har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olishidir».

Jamiyatga yot mafkuraviy g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Ular, avvalo, mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan narsalarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Natijada, mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi — millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshladi. Azaliy qadriyatlarga amal qilinmay qo'yiladi, odamlarda ularga amal qilmayotganlarga loqayd munosabat urf bo'ladi. Qadriyatlar, g'oyalar qadrsizlanadi, ahamiyatsiz narsalarga aylanib qoladi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, "ochib olinadi".

G'oyaviy bo'shliq ochib olingach, endi uning o'rnini to'ldirish uchun o'z g'oyasini jozibali qilib tasvirlay boshlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos "yangilik" va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i hamda ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldira boshlanadi. Yolg'on g'oya odamlar ongiga kirsam, u ham katta kuchga aylanadi.

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyasiya (tapiz — qo'l) so'zi, ya'ni «obyekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik mahorat talab qilish ko'zda tutiladi. Shu sababli, "manipulyasiya"ni ko'chma ma'noda "odamlar bilan obyekt sifatida munosabatga kirishish" deb ham tushunish mumkin. 1969-yil Nyu Yorkda chop qilingan "Zamonaviy sosiologiya lug'ati"da bu haqda "boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan xulq-atvorni shakllantirish" deyiladi.

Biz uchun muhim jihati shundaki, ushbu vaziyatda shaxs va uning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni manipulyasiya tushunchasida aks etadi. Chunki, "da'vatchi"ning ta'siri birinchidan shaxsga nisbatan zo'rlik kuch ishlatilmaydi, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega; ikkinchidan, bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham "islom dini niqobida" degan ibora ishlatiladi; uchinchidan, g'oyaviy manipulyasiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shunday ekan, g'oyaviy manipulyasiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni manipulyasiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ'ibot va tashviqotdan farqli), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga qiladi.

G'oyaviy manipulyasiya jarayonlari qanday kechadi? Avvalo, g'oyaviy manipulyator (da'vatchi) ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan odam tasavvurlarini o'zgartirishga olib keluvchi bilimlar bera boshlaydi. Natijada, obyekt (shaxs)ning dunyo qarashida qadriyatlari tizimida da'vatchi manipulyator kutayotgan tartib paydo bo'ladi va yetakchilik qila boshlaydi. Bu esa shaxsning



xulq-atvoriga taʼsir koʻrsatadi, shaxs oʻz xarakteridagi oʻzgarishlarni sezmaydi va "men toʻgʻri yoʻl tutayapman, chunki ...", degan asosga ega boʻlib qoladi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh boʻlishimiz mumkin. Butun xalqni birlashtiradigan bayroq boʻlmish milliy gʻoyani shakllantirish ahamiyatini ifoda etuvchi fikrlar insoniyat tarixining turli davrlarida bitilgan bitiklarda ham oʻz ifodasini topgan, uning yorqin ifodasini qadimgi Sharq va islom falsafasining buyuk namoyandalari ijodida ham uchratish mumkin.

Insoniyat tarixida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, bunga erishilmaganda bu qanday fojialarga olib kelishi mumkinligi haqida bitiktoshlarda qoldirilgan millatga ogohlantirish daʼvatlari mavjud. Mana shulardan biri:

*“Samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni xam tanimaysan. Oʻshandayliging uchun tarbiyat silgan xoqoningning soʻzini olmayin nomnishonsiz ketding”.*

Kul tigin bitigi

“Azizim, sen dushman soʻzlariga darhol ishonib qoʻya qolma, uning soʻzlari hiyla va aldovdan iborat boʻlib, u oʻz maqsadiga erishish uchun oʻzini nihoyatda muloyim qilib koʻrsatadi. Ichki olamini tashqi olami bilan boʻyab koʻrsatadi. Seni gafatda koʻrgach, tadbir oʻqini maqsad nishoniga uradi. U paytda sen uchun chora-tadbir koʻrish fursati oʻtgan boʻlib, hasrat va nadomat yordam bermaydi. Chunonchi aytadilar:

*Dushman ishi avval xiylayu, nayrang*

*Soʻng hujum boshlaydi qiladi garang.*

*Bu selning yoʻllari toʻsilmasa gar,*

*Yuzlanar bexisob fitna-yu zarar.*

Xoʻja Samandar Termiziy

Xalqchil talqinda mafkuraviy tahdidni — daʼvatchining suhbatdoshini oʻziga ogʻdirib olish uchun qiladigan urinishlariga, mafkuraviy immunitetni esa shaxsning "ogʻmasdan", oʻzligida sobit va sodiq tura olishiga oʻxshatish mumkin. Shuning uchun oʻz qarashiga, shaxsiy fikriga ega boʻlmagan ogʻmachi odamlarni oʻzbeklar "betuturiq", "subutsiz", "unga ishonib boʻlmaydi", "ikkiyuzlamachi", "sotqin", "xoin" kabi soʻzlar bilan ataydi.

## REFERENCES

1. Milliy istiqlool gʻoyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Masʼul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.

2. G'oya va mafkura. Mas`ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
3. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. Mas`ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
4. Markaziy Osiyo: G'OYAVIY jarayonlar va mafkuraviy tahdid. Mas`ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
5. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas`ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.

## JISMONIY MADANIYATNING SPORTCHILAR JISMONIY VA PSIXOLOGIK SALOMATLIGIDAGI O'RNI

Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li

[Shohjahon1300146@gmail.com](mailto:Shohjahon1300146@gmail.com)

FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964324>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola jismoniy madaniyatning sportchilar jismoniy va psixologik salomatligidagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar.** funktsiya, apatiya, identifikatsiya, funktsional, antidepressant, stress, ichki yadro.

## THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN THE PHYSICAL AND PSYCHOLOGICAL HEALTH OF SPORTSMEN

**Abstract.** This article presents the recommendations of scientific studies on the role of physical culture in the physical and psychological health of athletes. Also, in the article, the scientific proposal and practical recommendations formed by the author on this issue were also expressed.

**Keywords:** function, apatia, identification, functional, antidepressant, stress, inner core.

## РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ФИЗИЧЕСКОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗДОРОВЬЕ СПОРТСМЕНОВ

**Аннотация.** В данной статье представлены рекомендации научных исследований о роли физической культуры в физическом и психологическом здоровье спортсменов. Также в статье были высказаны сформулированные автором научное предложение и практические рекомендации по данному вопросу.

**Ключевые слова:** функция, апатия, идентификация, функционал, антидепрессант, стресс, внутренний стержень.

Ijtimoiy salomatlik - bu ijtimoiy muhitga moslashish, ijtimoiy funksiyalarni to'liq bajarish qobiliyati. Ijtimoiy salomatlik ijtimoiy aloqalar, resurslar, muloqot qobiliyatlari va uning sifatini aks ettiradi. Ijtimoiy salomatlik darajasi ijtimoiydir faoliyat va inson ko'pgina mualliflar psixologik jihatdan sog'lom kattalarning xususiyatlarini tasvirlaydi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport shunday ijtimoiy kuch va ahamiyat kasb etganki, ular jamiyat tarixida hech qachon bo'lmagandek tuyuladi. Jismoniy tarbiya va sport nafaqat jismoniy rivojlanishning samarali vositasi, balki insonning psixologik salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi<sup>131</sup>. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport ma'naviy boylik, ma'naviy poklik va jismonanlikni ta'minlaydi. Rivojlanishni uyg'unlashtirgan shaxsni tarbiyalash muhimdir

Barkamollik hayotdagi eng go'zal qadriyatlardan biridir. Kashfiyot sportining eng yuqori qiymati sanaladi. A. P. Nechayev o'z tadqiqodida shunday yozgan edi : "Harakat tarbiyasi bo'lmagan joyda bmlar yo'q. To'liq bilim olish haqida gapirish o'ta mushkil sanaladi. Qaysidir

<sup>131</sup> Озеров В.П. Основы здоровой жизнедеятельности. Активизация психофизической работоспособности человека. [Текст] / В.П. Озеров. - Ставрополь «Сервисшкола» 2006. – 472 с

ma'noda, chaqqonlik, chidamlilik va qat'iyatni mushak xususiyatlari va charchoq deb atash mumkin, apatiya, kayfiyat o'zgarishi, zerikish, tashvish, va mushaklarning muvozanati ham tadqiqodlarda keng o'rganilgan. Ko'plab mualliflar psixologik jihatdan sog'lom sportchining xususiyatlarini tasvirlab berishga harakat qilishgan. A. Maslou psixologik sog'lomlikning quyidagi jihatlarini ajratib o'tadi<sup>132</sup>:

- Haqiqatga yo'nalganlik;
- O'zingiz va boshqalar qanday bo'lsa, shunday qabul qilish;
- O'zingizga emas, muammoga ko'proq e'tibor qarating;
- Odamlarning hodisalarni idrok etishda faolligi;
- Insoniyat bilan identifikasiya qilish;
- Qobiliyatlari o'xshash odamlar bilan munosabatlar;

K. Rodjyersning fikricha, inson "to'liq funksional" tizimdir, ya'ni psixologik salomatlikdir quyidagi individual xususiyatlarni bog'ladilar:

– Amaliyotga ochiqlik, bu ularning fikrlari va his-tuyg'ularini chuqur va etarli darajada bilishni talab qiladi;

– Salbiy his-tuyg'ulardan etarli darajada psixologik himoyani rivojlantirish ten densiyasining yo'qligi, xulq-atvorni tanlash uchun asos sifatida xizmat qobiliyati ham bor. Shunday qilib, psixologik jihatdan sog'lom odam harakatchan va tashqi o'zgarishlarga sezgir muayyan ichki yadro, xavfsizlik marjasi mavjudligi psixologik himoyaning samarali usullariga ega voqe'lik va hayotiy faoliyatning halokatli omillariga qarshi turish optimallashtirish imkonini ob'yek. Sportda o'z ixtiyori bilan, ob'yektiv va sub'yektiv qiyinchiliklarni engishga qodir emas, u bilan samarali natijaga erishib bo'lmaydi. Kunning har soatida o'ziga qarshi kurashni namoyish qilish hayotiy insoniy fazilatlarini shakllantirishda qat'iyatlilik, maqsadga muvofiqlik, jasorat, o'z-o'zini tarbiyalash va tashabbuskorlik kabi ob'yektiv sharoitlar yaratish uchun qulay muhit yaratiladi. Bundan tashqari, sportning jamiyat va shaxslar uchun yaxshi foydasi kattadir. Jismoniy faoliyat muntazam ravishda shug'ullanadigan odamlarda tashvish, taranglik va tajovuz kamayadi. N.N.Rudenkoning so'zlariga ko'ra, sport – bu muammolaringizni unutish, yengillik va dam olishga yordam ob'yekdan antidepressant turi mashg'ulotlar sonini normada bo'lishi, qondagi shakar muvozanatlashtiradi va mushaklarning surunkali kuchlanishini engillashtiradi. Doimo asabiylashadigan odamlarga xos bo'lgan narsalarni yo'q qiladi. Bunday jismoniy faoliyat stress darajasini pasaytiradi to'plangan tajovuz qarindoshlari va sport sizni nazorat qilish imkonini ob'yek, chunki ziddiyatga emas, balki tashqi va foydaga hissa qo'shadi<sup>133</sup>.

Ye.R. Kaliteyevskayaga ko'ra, mashqlanish paytida tanada endorfin ishlab chiqariladi - tabiiy antidepressantlar. Endorfinlar (miya neyronlarida tabiiy ravishda paydo bo'ladigan afyunga o'xshash kimyoviy birikmalar. Endorfinlar ko'pincha, "baxt gormonlari" yoki "quvonch gormonlari" deb ataladi<sup>134</sup>. Jismoniy faollik tananing barcha qismlariga, shu jumladan miyaga kislorodning faol oqimini keltirib chiqaradi. Bu umidsizlik, depressiya, stress, uyqusizlik kabi

<sup>132</sup> Озеров В.П. Основы здоровой жизнедеятельности. Активизация психофизической работоспособности человека. / В.П. Озеров. - Ставрополь «Сервисшкола» 2006. – 472с

<sup>133</sup> Руденко Н. Н. Актуальность оценки физического развития детей / Н. Н. Руденко, И. Ю. Мельникова // Практическая медицина. - 2009. - № 39. - С. 31-34

<sup>134</sup> Калитеевская Е.Р. Психическое здоровье как способ бытия в мире: от объяснения к переживанию. [Текст] / Е.Р. Калитеевская // Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии. - М.: «Смысл», 1999. – С. 231 – 239.

ko'plab muammolarni oldini oladi. Qolaversa, ayrim psixologik kasalliklarning alomatlarini kamaytirishga yordam keng yordam beradi. M.F.Sautkinning yozishicha, jismoniy faollik kayfiyatga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun, birinchi tadqiqod 1970-yilda o'tkazilgan. Unda ikki guruh erkaklar ishtirok etgan. Birinchisi olti hafta davomida mashq qiladigan yugurish, suzish va velosipedda yurish kabilar kiradi. Ikkinchisi - muntazam harakasiz turmush tarzini olib borgan kishilar kiritiladi. Natijada, sub'ektlarning birinchi guruhidagi erkaklar tushkunlikka tushib qolishdi, avvalgidan ancha tez chiqib ketishgan<sup>135</sup>. Demak, sport mashqlari ham sportchining psixologik salomatligiga keng ta'sir etadi.

Har qanday sportning o'ziga xos xususiyati bu musobaqalar. Ular insoniy axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sport bilan shug'ullanadigan, musobaqalarda qatnashadigan shaxs individualdir sifatlarini rivojlantiruvchi "sog'lom" raqobatni o'rganadi. Musobaqaning joriy qoidalari nafaqat kurashning borishini, balki unga tayyorgarlikni ham belgilaydi.

## REFERENCES

23. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li. (2022, January 23). THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, Canada.
24. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li. (2022). SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117–121.
25. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.
26. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahan. "Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 256-259.
27. Dilshodbek o'g'li R. S. Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 256-259.
28. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.
29. Dilshodbek o'g'li, Rakhmatdjonov Shokhjahan. "PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS." *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.11 (2022): 215-221.
30. Dilshodbek o'g'li R. S. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS // *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 215-221.

---

<sup>135</sup> Сауткин М.Ф. Материалы многолетних исследований физического развития школьников / М.Ф. Сауткин, Г.И. Стунеева // *Здравоохранение Рос.Федерации*. - 2005.- №1. – С.55-57.



31. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.
32. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon. "TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA." *Gospodarka i Innowacje.* 30 (2022): 66-70.
33. Dilshodbek o'g'li R. S. TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 30. – C. 66-70.
34. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
35. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon, and Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li. "XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 39-47.
36. Dilshodbek o'g'li R. S., Boxodirjon o'g'li V. A. XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 39-47.
37. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.
38. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon. "SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS." *IQRO JURNALI* 2.2 (2023): 503-511.
39. Dilshodbek o'g'li R. S. SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 503-511.
40. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
41. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
42. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
43. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
44. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

## HAYDOVCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGINING YO'L HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Usmonov Rahim Raxmonovich

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964354>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada haydovchi psixologik salomatligining yo'l harakati xavfsizligiga ta'siri shuningdek, yo'l harakat xavfsizligi sohasidagi inson omilini baholash haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqoladaning aksariyat qismi tezlik yoki traektoriyaning o'zgarishida haydovchi harakatlarini o'rganish, o'zgarishini aniqlash va baholashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Ruhiiy salomatlik, haydovchining ruhiy salomatligi, yo'l, haydovchining salomatligi, reaksiya, harakat xavfsizligi, haydovchining idroki, haydovchining reaksiyasi, yo'l harakat xavfsizligi, asabiylashish, haydovchining ruhiy holati.

### DRIVER SAFETY ON THE ROAD

**Abstract.** This article discusses the impact of the psychological health of the driver on road safety, as well as the assessment of the human factor in the field of road safety. Also, most of the article consists of studying, determining and evaluating the actions of the driver when changing speed or trajectory.

**Key words:** Mental health, driver mental health, road, driver health, road, driver's health, reaction, traffic safety, driver's perception, driver's reaction, traffic safety, nervousness, driver's mental state.

### НАДЕЖНОСТЬ ВОДИТЕЛЯ ПРИ ДВИЖЕНИИ ПО ДОРОГУ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние психологического здоровья водителя на безопасность дорожного движения, а также оценка человеческого фактора в сфере безопасности дорожного движения. Также большая часть статьи состоит из изучения, определения и оценки действий водителя при изменении скорости или траектории.

**Ключевые слова:** Психическое здоровье, психическое здоровье водителя, дорога, здоровье водителя, дорога, здоровье водителя, реакция, безопасность движения, восприятие водителя, реакция водителя, безопасность дорожного движения, нервность, психическое состояние водителя.

Haydovchining yo'ldagi favqulodda holatdagi xatti-harakati va xulqini faqat kichik ehtimollik darajasi bilan taxmin qilish mumkin. Yo'l harakati xavfsizligini boshqarish sohasida haydovchi ishidagi ishonchlilikni oshirish - "haydovchi - avtomobil - yo'l - atrof-muhit" tizimida boshqaruv elementi sifatida yo'l harakati xavfsizligini takomillashtirish siyosati sohasidagi asosiy vazifadir. Haydovchi uchun asosiy ma'lumot manbai yo'l bo'lib, u birinchi navbatda yo'lni vizual analizator orqali idrok qiladi. Yo'l holatini idrok etishning 95% ko'rish orqali amalga oshiriladi. Yo'l sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, haydovchi avtomobilning tegishli haydash rejimini tanlaydi va shu asosda eng maqbul va xavfsiz rejimni belgilaydi. Yo'lning geometrik parametrlariga, tartibga solish vositalariga, ustun bo'lgan harakat intensivligiga, marshrut bo'ylab harakatlanish jarayonida yo'l bo'yidagi landshaftga qarab, harakat rejimi juda keng o'zgaradi. Avtomobil haydovchisi tanlangan rejimning xususiyatlarini va hozirgi harakat holatini doimiy ravishda taqqoslaydi. Haydovchi biror obyekt oldidan xavfsiz o'tish uchun amalga oshirilishi

kerak bo'lgan harakatlari haqida qo'shimcha ma'lumot oladi va kerak bo'lganda joriy holatdagi rejimga tuzatishlar kiritadi. Shunday qilib, yo'l holatini tashkil etishda haydovchining psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Shunday qilib "haydovchi - avtomobil - yo'l - atrof-muhit" tizimida havfsizlikni ta'minlashda haydovchining yo'ldagi harakatining ishonchliligi masalasi eng muhimdir. Bunga harakatni boshqarish vositalarining samarali bo'lishi, haydovchining ko'rish maydonidagi harakatni boshqarish vositalarini oqilona o'rnatish, haydovchining e'tiborini chalg'itadigan va uning hissiy holatini oshiradigan narsalarni yo'l bo'yida joylashtirishni optimal cheklash orqali erishish mumkin. Haydovchidagi foydali ish foefitsentini yuqori darajada bo'lishiga erishish faqatgina u tomonidan qabul qilinayotgan informatsiyalarning ma'lum bir meyyorda bo'lishini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Haydovchining ishonchliligi va harakat xavfsizligi to'g'ridan-to'g'ri haydovchining hissiy holatiga bog'liq. Bu esa ko'p jihatdan yo'l haqidagi ma'lumotlarning ko'pligi yoki yetishmasligiga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, reaksiya vaqti juda katta farq qiladi va u har jihatdan transport holatiga bog'liq. Misol uchun, aytishlariga qaraganda haydovchining reaksiya vaqti har qanday transport holati uchun nazariy jihatdan doimiy ya'ni bir xil deb hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir qilish sohasidagi inson omilini baholashni aniqlashga qaratilgan tadqiqotning aksariyat qismi tezlik yoki traektoriyaning o'zgarishida haydovchi harakatlarini o'rganish, o'zgarishini aniqlash va baholashdan iborat. Ammo shuni hisobga olish kerakki, harakat tezligini yoki traektoriyasini o'zgartirish yo'lda harakatlanayotganda transport holatini idrok etishdek murakkab jarayonining yakuniy bosqichidir.

Aksariyat, avariya sabablarini o'rganayotganda, haydovchining e'tibori ayni holatida reaksiyasi tezlikni o'zgartirishga emas, balki yo'l holatining ba'zi bir elementiga qaratilganligi ko'zga tashlanadi. Asabiylashishning kuchayishi, bosh miyya po'stlog'ida tarqaladi va haydovchiga ta'sir qiladi. Haydovchi nafaqat favqulodda vaziyatda, balki muncha vaqt o'tib undan muvaffaqiyatli chiqib ketgandan keyin ham haydovchi xato qila boshlaydi. Ayrim yo'l-transport hodisalari yo'lning eng xavfli yoki murakkab qismida emas, balki ancha olisda masofada yoki qatnov murakkab bo'lmagan joylarda sodir bo'lishini ham shu fakti tasdiqlaydi. Yo'l harakatini tartibga solish vositalaridan foydalanish samaradorligi, ushbu vositalarning yo'l sharoitlari qanchalik to'g'ri hisobga olinganligi va ular haydovchilarning psixofiziologik xususiyatlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agar yo'l harakatini tartibga solish vositalari haydovchi idrokining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlansa, baxtsiz hodisalarni kamaytiradi va mehnat sharoitlarini yaxshilaydi. Moskva davlat avtomobil yo'llari institutida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yo'lda mashina haydash vaqtidagi haydovchi diqqatining 95% yo'l uchun ajratilgan bo'ladi. Harakat tezligidagi o'zgarishlar diqqat maydonining hajmiga ta'sir qiladi. Yo'l holati tushuntiruvchi elementlarini o'z vaqtida va to'g'ri idrok etish, ularni idrok etish uchun kerak bo'ladigan vaqtning yetarli yoki yetarli emasligiga bog'liq. Haydovchi tomonidan yo'l elementlarini va belgilarni tanib olishi, mohiyatini anglashi, tushunishi uchun elementlarning soni va diqqatini jamlashiga sarflangan vaqt bir biriga mos bo'lishi kerak. Masalan, "cheklangan tezlik" belgisini tanib olish uchun, belgining foni aniq ko'rinadigan vaqtda taxminan 0,1 s, yomon kontrast bilan - 0,5 s, kechqurun esa - 0,7-0,8 s vaqt talab qilinadi. Yo'l belgilarini o'tkazib yuborish yoki ularni noto'g'ri idrok etish, haydovchi tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilishini yoki xatoga yo'l qo'yilishi ehtimoli borligi tajribalarda aniqlangan.

Misol qilib Rossiya Federatsiyasining transport xavfsizligi kontsepsiyasi olaylik. U quyidagilarni o'z ichiga oladi. Transport infratuzilmasi sohasidagi milliy xavfsizlik ta'riflari, harakat xavfsizligi manfaatlariga tahdid soluvchi sabablarni tadqiq etish va aniqlash. Yo'l muhitiga salbiy omillar ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan tizimni yaratish. Xalqaro standartlarga muvofiq Rossiyada transport xavfsizligi darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Rossiyaning transport xavfsizligi tizimi mamlakat milliy xavfsizlik tizimining bir qismidir. Uning tashkiliy asosining asosiy elementlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Rossiya Federatsiyasining transport xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etadigan prezidentdan tortib fuqaroga qadar bo'lgan butun hokimiyat vertikalidir.

Davlatning fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlariga qaramay, Rossiya yo'llarida o'limlar soni kamaymoqda, ammo Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda bu yuqori darajada qolmoqda. Rossiyadagi baxtsiz hodisalar darajasiga ko'ra, 100 ming aholiga to'g'ri keladigan o'limlar soni Buyuk Britaniya va Shvetsiyaga qaraganda uch baravar, Germaniya, Daniya va Kanadaga qaraganda ikki baravar yuqori. Yo'l-transport hodisalari oqibatlarining og'irligi Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlar bilan solishtirganda yo'l-transport hodisalarining asosiy ko'rsatkichlaridan 5-6 baravar yuqori. Ko'rinib turibdiki, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida mamlakat demografik salohiyatiga putur yetkazuvchi buzg'unchi jarayonlarni to'xtatish imkonini beruvchi kompleks chora-tadbirlar zarur[2.35].

Hozirgi vaqtda Rossiyada avtomobillar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, transport hajmi oshdi, transport oqimlarining intensivligi, odamlarning harakatchanligi ortib bormoqda, hududlarning transportdan foydalanish imkoniyati kontsepsiyasi o'zgarib bormoqda. Shunga ko'ra, bu avtohalokat holatiga ta'sir ko'rsatadigan haydovchilar va tashuvchilar sonining ko'payishiga olib keladi. Oxirgi 10 yilda yo'l-transport hodisalarida 300,98 ming kishi halok bo'lgan, 2 millionga yaqin kishi jarohatlangan. Yo'l-transport hodisalarida halok bo'lganlarning to'rtidan bir qismi 26 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan faol mehnat yoshidagi odamlardir.

Texnogen avariylar va ayniqsa og'ir oqibatlarga olib keladigan baxtsiz hodisalarning sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati inson omili tufayli sodir bo'ladi.

Yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq davom etayotgan murakkab vaziyatning sabablari aholining doimiy ravishda o'sib borayotgan harakatchanligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari avtoturargohlar soni va yo'l tarmog'ining uzunligi, ular o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishi ham sabab bo'ladi. Chunki bu sharoit transport oqimlarining hozirgi intensivligi uchun mo'ljallanmagan. Natijada, yo'l harakati sharoitlarining yomonlashishi, tirbandlik, yoqilg'i sarfining oshishi, atrof-muhitning yomonlashishi va baxtsiz hodisalar sonining ko'payishi yuzaga kelmoqda.

Aksariyat baxtsiz hodisalarning asosiy sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati qatnashchilari yo'l harakati qoidalarini ataylab buzadilar. Bunga misol qilib aniq shartlarga mos kelmaydigan tezlikni oshirishni keltirish mumkin. Bu esa yo'l madaniyatining nihoyatda pastligi va yo'l harakati qatnashchilarining mas'uliyatsizligidan dalolat beradi.

Rossiya Federatsiyasi ekspertlarning fikriga ko'ra, ushbu mamlakatda motorizatsiya o'sishi davom etadi. Shuning uchun bugungi kunda shahar, mintaqaviy, federal darajadagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, yo'l harakati xavfsizligini oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmada yo'l-transport hodisalaridan yetkaziladigan zararni kamaytirish uchun

yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi davlat tizimini doimiy ravishda rivojlantirish zarur. Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini hal qilishda tegishli izchillikning yo‘qligi butun yo‘l harakati xavfsizligi jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Mohiyatan eng muhim mezon xavfsizlik muammosi – inson va butun jamiyatni himoya qilishdir. Yo‘l harakati xavfsizligining mohiyati ham shunda.

## REFERENCES

1. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A Study Of Memory Processes And Their Development In Preschool. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 62-65.
2. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
3. Usmonov, R. (2022). O‘SMIRLAR XULQIDA NAMOIYSHKORLIK G‘AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 127-135.
4. Usmonov R. O‘SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 120-126.
5. Usmonov, R. "O‘SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 120-126.
6. Usmonov, R. (2022). O‘SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 120-126.
7. Raxmonovich U. R. O‘SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G‘AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 87-97.
8. Raxmonovich, Usmonov Rahimjon. "O‘SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G‘AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 87-97.
9. Raxmonovich, U. R. (2022). O‘SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G‘AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.
10. Raxmonovich U. R. O‘SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G‘AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 87-97.
11. Raxmonovich, Usmonov Rahimjon. "O‘SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G‘AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 87-97.



12. Raxmonovich, U. R. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA NAMOYISHKORLIK, G'AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.
13. Rakhmonovich U. R. CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 820-824.
14. Rakhmonovich, Usmanov Rahimjon. "CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 820-824.
15. Rakhmonovich, U. R. (2022). CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 820-824.
16. Rakhmanovich R. U., Rakhmanovna U. F. EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 3.
17. Rakhmanovich, Rahim Usmanov, and Usmanova Feruza Rakhmanovna. "EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.3 (2023).
18. Rakhmanovich, R. U., & Rakhmanovna, U. F. (2023). EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).
19. Rakhmanovich R. U., Rakhmanovna U. F. EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 3.
20. Rakhmanovich, Rahim Usmanov, and Usmanova Feruza Rakhmanovna. "EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.3 (2023).
21. Rakhmanovich, R. U., & Rakhmanovna, U. F. (2023). EASTERN THINKERS'VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).
22. Vasiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
23. Vasiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.

24. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
25. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
26. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

**METHODOLOGY FOR TEACHING THE NOUN PHRASE CATEGORY:  
ENHANCING LANGUAGE LEARNING IN STUDENTS**

**Yo'Ichiboyeva Lolaxon Qalandarovna**

FSU teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964381>

**Abstract.** *This thesis explores effective methodologies for teaching the noun phrase category to students, aiming to enhance their language learning abilities. The article discusses various strategies, activities, and instructional approaches that can be employed by educators to facilitate students' understanding and mastery of noun phrases. By employing a well-rounded methodology, teachers can create engaging and interactive learning experiences that promote students' language acquisition and communication skills.*

**Keywords:** *noun phrase, methodology, teaching, language learning, students, instructional approaches, language acquisition, communication skills.*

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ КАТЕГОРИИ ИМЕННЫХ ФРАЗ:  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** *В диссертации исследуются эффективные методики обучения студентов категории именных словосочетаний с целью повышения их способностей к изучению языка. В статье обсуждаются различные стратегии, виды деятельности и учебные подходы, которые могут быть использованы преподавателями для облегчения понимания и усвоения учащимися словосочетаний с существительными. Используя всестороннюю методологию, учителя могут создавать увлекательные и интерактивные учебные программы, которые способствуют овладению учащимися языковыми навыками и коммуникативными навыками.*

**Ключевые слова:** *именное словосочетание, методика, обучение, изучение языка, студенты, подходы к обучению, овладение языком, коммуникативные навыки.*

The study of the noun phrase category is an essential part of language learning for students. This category plays a crucial role in developing students' abilities to comprehend, express, and communicate ideas effectively. In this article, we will discuss a comprehensive methodology for teaching the noun phrase category in Uzbek, focusing on strategies and approaches that enhance students' language learning experience. By implementing these methodologies, educators can foster students' understanding and mastery of noun phrases, enabling them to become proficient users of the Uzbek language.

Teaching the noun phrase category requires a systematic and engaging methodology. Here, we outline a step-by-step approach that can be adopted by educators to effectively teach noun phrases to students:

At this stage, students learn to recognize objects and words by their names. Emphasis is placed on the lexical meaning of words, and students develop the skill to group words based on their meanings. Grouping exercises based on the lexical meaning of words help students compare and identify similarities, thereby fostering abstract thinking.

In this stage, students learn to distinguish nouns that answer the question "who" or "what." They identify words that serve as answers to these questions. This stage enhances students' ability to differentiate words based on interrogations and cultivates their grammatical thinking skills.

Additionally, students begin to recognize and write nouns with the appropriate letter changes (e.g., plural forms).

To develop a comprehensive understanding of noun phrases, students need to categorize them into lexical groups. Teachers introduce words denoting objects early in the lessons and identify common signs that are applicable to all noun phrases. By answering questions related to these words, students grasp the concept of noun phrases. To emphasize the significance of noun phrases in speech, teachers can select texts from reading materials and instruct students to identify and read them without noun phrases. By experiencing the impact of noun phrase omission on text comprehension, students realize the indispensability of noun phrases in effective communication.

In the 2nd grade, students deepen their knowledge of noun meanings, proverbs, and related nouns. They are introduced to singular and plural forms of nouns, learning to differentiate between them by meaning and suffix. Students develop skills to convert singular nouns to plural and vice versa, considering the connection of words in sentences and using nouns correctly in speech. The topic of possessive suffixes may be complex for elementary students. Teachers can begin by explaining the lexical meaning of the word "possessive" to help students understand the concept of ownership. Students learn that possessive suffixes indicate ownership and establish a connection between the noun and its possessor. Through analysis and exercises, students become familiar with the composition and usage of possessive suffixes.

In language, there are three persons: the speaker or 1st person, the listener or 2nd person, and others or 3rd person. As I speak to you now, explaining the topic, I am the speaker (1st person), and you are the listener. This means there are others who are not currently participating in the conversation. They are considered the 3rd person. Nouns can be applied in singular and plural forms. It is known that something can belong to one person or to two or more people. The possessive suffixes attached to the noun indicate that an object belongs to one of the three persons in either unity or plurality. For example, the suffix -im added to the word "my book," as you have identified, indicates that the book refers to the 1st person, meaning the owner of the book is the 1st person. (The suffixes -im, -ing, and -I are also explained in the same way.) From this, we can draw the conclusion that these suffixes added to nouns are called possessive suffixes, and they indicate possession.

Possessive suffixes are added to nouns in two different forms: to nouns ending with a vowel (-m, -ing, -si), and to nouns ending with a consonant (-im, -ing, -I, -imiz, -ngiz, -si). After that, the students read the rule in the "Uzbek Language" textbook and analyze the table.

Exercises such as finding a noun applied with a possessive suffix from the text, analyzing it based on its composition, determining the number of persons indicated by the possessive suffix, adding a possessive suffix to the given noun in the text, and stating which person or persons the subject belongs to, are conducted. The study of possessive suffixes does not end there. In the process of studying noun agreement, a noun with a possessive suffix is associated with another noun. Similarly, in the process of studying possessive pronoun agreement, a noun with a possessive suffix is associated with the possessive pronoun. This provides knowledge about vocabulary formation.

Agreement expresses the relationship between nouns and other words in a sentence. This means that when changing agreements, students understand the connection between words in a sentence. Work on stems begins after students learn to distinguish between meaning and

grammatically linked syllables in a sentence. Working on words also involves working on the connection between words in a sentence.

**Conclusion.** To understand the words, readers must know exactly which word the noun is associated with in the sentence. The change of a noun in a sentence with suffixes along with other words is observed much earlier. In fact, students are practically familiar with the change in word forms from Grade 1, but they may not know what a word form is. Children are introduced to form-making (word-shifting) suffixes in the next grade, which they understand serve to connect words in a sentence.

#### REFERENCES

1. Abdullayeva, G., & Alimova, N. (2019). Improving students' knowledge of the noun phrase in Uzbek: An analysis of teaching strategies. *Journal of Uzbek Linguistics*, 33(2), 54-68.
2. Azizov, A. (2015). Teaching the noun phrase in Uzbek: A communicative approach. *Uzbekistan Journal of Linguistics and Literature*, 19(1), 32-46.
3. Ergasheva, S., & Turaeva, D. (2020). Developing noun phrase skills in Uzbek: A task-based approach. *International Journal of Uzbek Studies*, 5(2), 78-92.
4. Karimova, D. (2018). Enhancing noun phrase understanding in Uzbek: The role of explicit instruction. *Uzbek Language Education Journal*, 22(1), 18-30.
5. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
6. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
7. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
8. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
9. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).



## METHODS FOR GROWING SPEECH SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Yo'lchiboyeva Lolaxon Qalandarovna

FSU teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964386>

**Abstract.** This thesis aims to explore and analyze various methods for promoting the growth of speech skills in primary school students. Effective communication is a vital aspect of a child's development, impacting their academic achievements, social interactions, and overall confidence. By investigating different approaches and strategies, this study seeks to provide educators with valuable insights into the most effective methods for fostering speech skills in young learners.

**Keywords:** speech skills, primary school students, methods, development, language acquisition, communication, teaching.

### МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** Целью данной работы является изучение и анализ различных методов, способствующих развитию речевых навыков у учащихся начальных классов. Эффективное общение является жизненно важным аспектом развития ребенка, влияющим на его академические достижения, социальные взаимодействия и общую уверенность в себе. Изучая различные подходы и стратегии, это исследование направлено на то, чтобы дать педагогам ценную информацию о наиболее эффективных методах развития речевых навыков у младших школьников.

**Ключевые слова:** речевые навыки, младшие школьники, методика, развитие, овладение языком, общение, обучение.

Developing strong speech skills is vital for primary school students as it enables effective communication, enhances academic performance, and fosters social interactions. This article explores a range of methods and strategies that educators can employ to promote the growth of speech skills in young learners. By implementing these techniques, teachers can create a supportive and stimulating environment where students can develop their speaking abilities with confidence and fluency.

Creating a classroom environment that values and encourages oral expression is essential for speech skill development. Teachers can provide opportunities for students to speak in front of their peers, engage in class discussions, and participate in group activities. Encouraging students to share their ideas, ask questions, and express themselves verbally helps build their vocabulary, fluency, and overall communication skills.

Active listening is a fundamental component of effective communication. Teachers can incorporate activities that enhance students' listening skills, such as audio recordings, listening comprehension exercises, and interactive discussions. By promoting active listening, students develop their comprehension, critical thinking, and ability to respond appropriately in various communication contexts. Offering opportunities for public speaking builds students' confidence and enhances their speech skills. Teachers can organize class presentations, debates, or speech contests, allowing students to showcase their speaking abilities in front of an audience. These activities develop students' public speaking skills, self-assurance, and ability to organize their thoughts coherently.

Reflection is an essential aspect of speech skill development. Teachers can guide students in reflecting on their speaking abilities, identifying areas for improvement, and setting goals for further development. Regular feedback, self-assessment, and goal-setting help students become aware of their strengths and weaknesses, motivating them to continuously work on enhancing their speech skills.

For speech activities, it is also necessary to comply with several conditions in order to enhance students' speech skills:

1. There must be a requirement for the student's speech to come to the surface. The methodological requirement for cultivating expressive speech is to create situations where students express their opinions, desires for oral or written statements, and the need to communicate.
2. Any speech should have meaningful content. The more complete, rich, and valuable the material is, the more meaningful the statement becomes.
3. An idea becomes understandable only if it is expressed using words, vocabulary, sentence structures, and speech patterns that the listener understands. Therefore, the third condition for successful speech development is equipping students with the necessary language tools.

When growing speech skills, three directions are clearly distinguished: working on individual words, developing vocabulary and sentence structures, and enhancing connected speech. Lexicology, morphology, and syntax serve as the linguistic foundations for working on individual words, vocabulary, and sentence structures. On the other hand, the development of connected speech relies on logic, literary studies, and the comprehensive study of syntactic structures.

Speech cultivation is ensured by increasing students' ability to adhere to four conditions: consistency, perspective, variety, and alignment with a common goal.

Speech is an important tool in fostering students' thinking. It is not just a means of expressing thoughts but also a weapon for their formation. Thought serves as the psychological basis of speech, and its cultivation relies on enriching thought processes. Effective speech cultivation is only possible through mastery of the system of mental activities, including preparation, material improvement, topic selection, logical operations, and placement.

Thinking develops successfully when it is formed and articulated orally using language material. Concepts are represented by words or word combinations, making them essential materials for communication. Understanding a word (or combination of words) representing a concept provides the foundation for thinking in external speech based on that concept.

Speech and thought are closely interconnected. Without speech, contemplation is impossible, and without language material, thoughts cannot be expressed. Forming an opinion through speech ensures clarity, understandability, purity, consistency, and logic. Language acquisition provides the conditions for learning phonetics, vocabulary composition, grammatical structures, and thought improvement. Knowledge, facts, and various forms of information serve as materials for both thinking and speech.

Speech plays a vital role in studying the thought process and serves as a primary measure of a student's development of their opinions. Assessing how a child can express a particular topic in their speech (through essays, information sharing, retelling, answering questions) is a crucial aspect of evaluating their assimilation of materials across subjects and overall mental

development. The cultivation of students' speech skills is closely linked to activities in other educational subjects. In native language classes, students learn about nature and individual lives using language. They develop observation skills, critical thinking, and the ability to express themselves accurately based on what they see, hear, and read. Native language lessons effectively contribute to enriching students' vocabulary and teaching them how to structure their speech compositions.

**In conclusion**, by adhering to the necessary conditions and integrating speech cultivation into various educational activities, primary school students can develop strong speech skills that will enhance their communication abilities, cognitive growth, and overall academic success. Developing speech skills in primary school students is crucial for their academic, social, and personal growth. By implementing effective methods such as encouraging oral expression, engaging in storytelling and reading aloud, practicing pronunciation and articulation, conducting role-play and drama activities, fostering active listening, providing public speaking opportunities, and encouraging reflective practice, educators can empower students to become confident and effective communicators.

#### REFERENCES

1. Bowey, J. A. (2005). Socioeconomic status differences in preschool phonological sensitivity and first-grade reading achievement. *Journal of Educational Psychology*, 97(3), 457-464.
2. Estigarribia, B., & Rodriguez, B. (2016). Developing vocabulary through explicit teaching strategies in preschool. *Early Childhood Education Journal*, 44(2), 203-210.
3. Nelson, K. E., & Lindeman, D. P. (2016). Vocabulary growth of kindergarten students with and without specific language impairment: Contributions of phonological short-term memory and speed of processing. *Language, Speech, and Hearing Services in Schools*, 47(3), 215-227.
4. Snow, C. E., Burns, M. S., & Griffin, P. (Eds.). (1998). Preventing reading difficulties in young children. National Academy Press.
5. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
6. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
7. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
8. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
9. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH CHORA TADBIRLARI

Soxibov Salohiddin Anvar o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

*e-mail: Soxibovfardu@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964340>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari, qonunchilik asoslari va mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsion munosabatlarning yuzaga kelish sabablari va ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, monitoring, korrupsiya, korrupsiyaon munosabatlar, davlat, qonun, poraxo'rlik, vijdon, halollik, xalqaro standartlar.

### MEASURES TO FIGHT AGAINST CORRUPTION

**Abstract.** This article analyzes the measures to increase the effectiveness of the fight against corruption, legal bases and mechanisms. Also, the reasons for the emergence of corrupt relations and socio-philosophical aspects have been researched.

**Key words:** civil society, public control, monitoring, corruption, corrupt relations, state, law, bribery, conscience, honesty, international standards.

### МЕРЫ ПО БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ

**Аннотация.** В данной статье анализируются меры по повышению эффективности борьбы с коррупцией, правовые основы и механизмы. Также исследуются причины возникновения коррупционных отношений и социально-философские аспекты.

**Ключевые слова:** гражданское общество, общественный контроль, мониторинг, коррупция, коррупционные отношения, государство, закон, взяточничество, совесть, честность, международные стандарты.

Mamlakatimizda shiddatli ravishda xalq va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o'zgarib boruvchi sharoitlariga insonlarni va ayniqsa yoshlarni tayyorlash, ularning kasbiy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni yo'lga qo'yish, tadbirkorlik-tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ularning tadbirkor sifatida iqtisodiy-ijtimoiy nuqtai-nazarini ishlab chiqishga qaratilgan bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish, kelajak rejalarni amalga oshirishga qaratilgan biznes loyihalariga innovatsion loyihalarni joriy qilishni nazarda tutgan bilimlarini yuksaltirish o'z navbatida ularning ijtimoiy manfaatlarini, ehtiyojlarini, kelajakdagi istiqbollari belgilab olish va ro'yobga chiqarish bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning talabidir.

Bizga ma'lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omil sifatida baholanadi. Ko'pchilik ekspertlar tomonidan jamiyatda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash samarali hisoblanmasligi qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekt sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralari namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil etishda quyidagi-larni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjat-larini zamon va islohotlar talablari darajasida takomillashtirish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimiz ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni muntazam ravishda shakllantirib borish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga izchil tadbir qilish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish va oqibatlarini keng jamoatchilikka tushuntirish, korrupsiyaga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va bu sohada xalqaro hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada jamiyat a'zolarini mazkur davlatning organlariga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi.

*"Jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim. Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslar qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli bu kodekslar bugungi kun talablariga javob bermay qoldi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sud'yaning ixtiyoriga, ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi. Shuning uchun jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilikni tubdan qayta ko'rish zarur"* [1].

Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarini rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarni talablariga muvofiq Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslar loyihasi norma ijodkorligi asosida ishlab chiqish jamiyatda jinoyatlarni shu jumladan korrupsion jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan normalarni mustahkamlash jamiyatda jinoyatlarni hamda korrupsion jinoyatlarni oldini olinishiga xizmat qiladi.

Hozirgi glabollashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko'rish mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo'lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Davlat hokimiyati organlarining korrupsiyaning zararli ta'siridan saqlash zaruriyati AQSH hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrdayoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga olib kelgan.



1978 yilda AQSH Kongressi “Hukumatdagi axloq to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilgan. Ushbu Qonunning vazifasi davlat amaldorlari va muassasalari haloliligini saqlash hamda bunga imkoniyat yaratishdan iborat.

Kanadaning jinoyat qonunchiligida “mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”, “Hukumatni aldash”, “mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiste‘mol qilish” mansabdorlik jinoyatlari hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat yuzaga kelgan holda ular amal qilishi shart bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini o‘zida mujassam qilgan Kodeks qabul qilingan.

Kanadalik qonun ijodkorlarining fikriga ko‘ra, ushbu qonunlardan ko‘zlangan maqsad – davlat apparati va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirishga qaratilganligini qayd etishadi.

Davlat xizmati tizimida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish va barham berish maqsadida Fransiyada XX asrning 90 yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilari va korrupsiya ta‘siriga berilishi mumkin bo‘lgan jamoat xizmati kadrlariga o‘z mol-mulki va daromadlari haqida tegishli davlat idoralariga ma‘lumot berish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Shuningdek, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklaratsiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta‘minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar qonun ijodkorligi asosida yaratilgan.

Korrupsiyani oldini olishning nazariy poydevori “ta‘lim, xabardorlik va targ‘ibot” (Education, Awareness and Advocacy) tamoyillariga asoslanib, amaliy tomondan esa “samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik” (effectiveness, transparency, accountability) tamoyillari asosida aniq davlat siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada davlat siyosati dunyoda (xususan, Singapurda) “one size fits all” (“barcha uchun bir xil mezon”) tamoyillari ishlab chiqilgan va o‘zining ijobiy natijasini bergan[2].

“Respublika bo‘yicha 2018 yilda 1561 nafar turli toifadagi mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bularning aksariyatini – 580 nafar xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari, 257 nafari – ta‘lim sohasi, 83 nafari – sog‘liqni saqlash tizimi, qolgan qismini boshqa soha vakillari tashkil qiladi. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 39 nafari respublika, qolganlari viloyat tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelgan. Jinoiy javobgarlikka tortilgan bu xodimlarning 821 nafari o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, 138 nafari pora olish va berish, qolganlari esa boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgar bo‘lgan”[3]. Mazkur tahliliy materillardan ham ko‘rinib turibdiki, keyingi ikki yilda mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonidan izchil ravishda amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahnomaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri korrupsiyaga qarshi tizimli ravishda kurashish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi xalqaro huquqiy talablar asosida belgilandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) qo‘shilishi jamiyat taraqqiyotini amalga

oshirishning milliy mexanizmi sifatida “Korrup-siyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining samaradorligini ta‘minlashda quyidagilarni e‘tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishish modeli ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institutsional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta‘minlab turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi aniq qonunchilikda mustahkamlanishi lozim. Amaldagi qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining yuqoridagi sanab o‘tilgan huquqiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy elementlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bir-biriga ta‘sir qilish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yaxlit kompleks tizimning uzviy ishlashini jamiyatda yo‘lga qo‘yish uning samaradorligini ta‘minlaydi;

ikkinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida innavatsion yondashuvni samarali qo‘llash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta‘minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor berish. Bunda, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integratsiyaga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri – jinoyat va jinoyat prsessual qonunchiligini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha moddalarini mukammal ishlab chiqish hamda korrupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlarni o‘rganish, tahlil qilish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chor-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiiq qilishda aniq statistika hamda dalillarga asoslangan ma‘lumotga tayangan holda ish olib borish korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi;

uchinchidan – jamiyatning ijtimoiy sohalarida xususan, tadbirkor-lik, ta‘lim, sog‘liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, korrupsiya bilan bog‘liq ayrim xatti-harakatlarni barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarda ta‘minlash hamda xalqaro tajribani o‘rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlarni qonunchilikda mustahkamlash yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi;

to‘rtinchi – korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturini ijrosini jamiyatda ta‘minlanishi va bu borada tizimli monitoring qilish bo‘yicha samarali huquqiy mexanizmning islohotlar talablari darajasida ishlab chiqish hamda davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish darajasining talab darajasidan pastligi, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda ta‘minlanishi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish jamiyatda ijtimoiy adolatni o‘rnatishga xizmat qiladi.

beshinchi – korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish asosida zamonaviy tendensiyaga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish masalan mamlakatimizda davlat xizmatlari agentligini tashkil etilganligi va xalqimizga xalqaro talablar asosida xizmat qilinayotganligi jamiyatda korrupsiyaga

qarshi kurashishining yangi bosqichini boshlab berib, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish daxldorligini oshirishda muhim qadamlardan bo'layotganligini qayd etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

oltinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish, korrupsiyaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatini yaratish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish, korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning izchil tizimini yaratish va hayotga tadbiiq qilish;

yetinchidan, O'zbekistonda har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, korrupsiya holatlari oldini olishga qaratilgan yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish va qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va baholash jamiyatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

“2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan dastur ishlab chiqishimiz zarur[7]”.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda bo'lib o'tgan uchinchi sessiyasida 217A (III)- qabul qilingan) 8-moddasiga ko'ra har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda vakolatli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarni samarali tiklanish huquqiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambeyasining 1985 yil 29 noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan maqullangan “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” birinchi bo'limining 1-bandiga ko'ra sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi hamda konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yiladi. Barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar sud organlari mustaqilligiga hurmat bilan qarashlari va bunga rioya qilishlari shart”[8].

Xulosa qilganda, mamlakatimizda keyingi yillarda Davlatimiz rahbari tomonidan xalq manfaatlari e'tiborga olingan holda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning mazmun mohiyati insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'rifiy hamda ma'naviy, tadbirkorlik huquqlarini ro'yyobga chiqarishga qaratilganligi va ularning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi hamda islohotlar yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarga muvofiq amalga oshirilayotganligi xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
2. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi Inson va Qonun / gazetasi. 2018 yil 8 dekabr № 48 (1148)-soni,
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi Xalq so‘zi gazetasi 2018 yil 29 dekabr №271-272 (7229-7230)-soni 1-4 betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 4 maydagi Farmoni ( Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni ( Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
6. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
7. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ( Qonun hujjat-lari ma’lumotlari milliy bazasi).
8. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
9. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
10. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
11. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
12. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
13. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – DOLZARB VAZIFA

Soxibov Salohiddin Anvar o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [Soxibovfardu@gmail.com](mailto:Soxibovfardu@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964363>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional tizimini yaratish va bu orqali tizimli kurash olib borish asoslari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, bu illatga qarshi kurashning huquqiy asoslari, qonunchilik normalari va xalqaro tashkilotlarning munosabati tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, korrupsiyaon munosabatlar, davlat, qonun, poraxo‘rlik, vijdon, halollik, korrupsiyadan xavfsizlik.

## THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IS A HUGE TASK

**Abstract.** In this article, a socio-philosophical analysis of the foundations of corruption, the creation of an institutional system of anti-corruption and systematic struggle through it is made. Also, the legal basis of the fight against this disease, legal norms and the relationship of international organizations were studied.

**Key words:** corruption, corrupt relations, state, law, bribery, conscience, honesty, security from corruption.

## БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ – БОЛЬШАЯ ЗАДАЧА

**Аннотация.** В данной статье произведен социально-философский анализ основ создания институциональной системы противодействия коррупции и борьбы с ней. Также были изучены правовые основы борьбы с этим заболеванием, правовые нормы и взаимоотношения международных организаций.

**Ключевые слова:** коррупция, коррупционные отношения, государство, право, взяточничество, совесть, честность, защищенность от коррупции.

Korrupsiya ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqaruvchi, davlat organlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi illat sifatida o'ta dolzarb va birinchi navbatda bartaraf etilishi kerak bo'lgan muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda «korrupsiya tufayli dunyo iqtisodiyoti 2,6 trillion dollarni yo'qotmoqda, bu dunyodagi mavjud yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlar hukumatlari korrupsiyaga qarshi kurashish uchun davlat dasturlarini qabul qilayotgan bo'lsalarda, uning samarasi kutilgandek bo'lmayapti.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: “Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”[1].

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunida “korrupsiya” tushunchasiga quydagicha ta'rif berildi:



“Korrupsiya” deganda - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi; shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi”[2]. Shuningdek, qonunda manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasiga ham izoh berilgan bo‘lib - u shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat anglanadi.

Barcha xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy normalari BMTning “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi” tomonidan muvofiqlashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste’mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, yana uning quyidagi amalda namoyon bo‘lishi shakllarini bir-birlaridan farqlash mumkin:

-mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;

-o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;

-mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

-tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQShda korrupsiyaning “kikbeking” degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydi. Tafvutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin tarzda pora beriladi. Pora olishning bu kabi shakli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham uchrab turibdi.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so‘ragan mansabdorlar

ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki, odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini samara berishiga unchalik ishonmaydi. Bu holatga doir milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan obyektiv va subyektiv sabablar mavjuddir. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham korrupsiya o‘ta moslashuvchan jinoyatdir. Korrupsiya va uni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabablar va omillarning oldini olish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar tashkil etish, ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish hamda davlat organlari tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Lekin, mamlakatimizda 2017 yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtiradigan, bu kurashni qonuniyligi va shaffofligini ta‘minlaydigan maxsus qonun qabul qilingmagan edi. Mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va u 2017 yil 4 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko‘zlangan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. Unda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi tushunchalarga izohlar berildi.

Qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi: Bosh prokuratura; Davlat xavfsizlik xizmati; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Shu bilan birga, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq tarzda idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkil etish;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ko‘rish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

–hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat[3].

Ma‘lumki, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishda keng jamoatchilikning ishtiroki ta‘minlanmasa, undan kutilgan natijalarga erishib bo‘lmaydi. Mazkur qonunning e‘tiborli jihati shundaki, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning va ommaviy axborot vositalari kabi fuqarolik jamiyati

institutlarining ham korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishiga doir yangi huquqiy asoslar va qoidalar mustahkamlab qo'yildi. Unga asosan keng jamoatchilik, o'zini o'zi boshqarish organlari yoki nodavlat tashkilotlar qonunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi; korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

2016 yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda korrupsiyaga barham berish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 2017 yil 2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli qarori mamlakatda korrupsiyaga barham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

-korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

-korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish[4].

2017 yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoi ish qo'zg'atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin, bu davrda 2016 yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoi ishlar 22 foizga kamaydi. Korrupsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararining 77 foizi undirildi. 374 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlandi[5].

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi – korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq

tahdidlardan himoyalanişini ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu davlating korrupsiyaning oldini olish, u paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuidir.

#### REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston NMIU, 2017.- B.110.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 4 yanvar 2017 y. // <http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165/>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 2 fevralda qabul qilingan PQ-2752-sonli qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 982-modda.
5. В Узбекистане коррупция пошла на спад//<http://regnum.ru/news/2360143.html>.
6. Глава МВД Узбекистана признал наличие среди милиционеров вимогательей и взяточников. 19.02.2018. <http://интерфакс.аз/визэw/726256>.
7. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
8. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
9. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
10. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
11. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH METODIKASI

Gulnoza Rahimjonova

FarDu Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964376>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda so'zlarning morfemik tabiatini o'rganish metodikasi va yasash usullarini o'rgatish prinsplari muhokamaga tortilgan

**Kalit so'zlar:** o'zak, so'z yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, so'zning morfemik tarkibi, o'zakdosh so'z, leksik ma'no, grammatik ma'no, yasama so'z, yangi ma'no, umumiy ma'no.

## METHODOLOGY OF STUDYING MORPHEMIC COMPOSITION OF WORDS IN PRIMARY GRADES

**Abstract.** This article discusses the methodology of learning the morphemic nature of words and the principles of teaching formation methods in primary grades.

**Key words:** root, word-forming suffix, word-changing suffix, morphemic structure of the word, cognate word, lexical meaning, grammatical meaning, artificial word, new meaning, general meaning.

## МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ MORFEMICHESKOGO СОСТАВА СЛОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается методика изучения морфемной природы слов и принципы обучения методам образования в начальных классах.

**Ключевые слова:** корень, словообразовательный суффикс, словоизменяющий суффикс, морфемная структура слова, родственное слово, лексическое значение, грамматическое значение, искусственное слово, новое значение, общее значение.

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega.

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi. Morfema ikki turga bo'linadi;

1. O'zak morfema – so'zda, albatta, qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema

2. Affiksial morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksikva grammatik ma'nolarining shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema.

Qo'shimchalar ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar. So'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

2. SHakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarning grammatik formalarini shakllantirib, turli grammatik ma'nolarini ifodalaydi.

So'zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar so'zining leksik ma'nosini aniqlashning asosiy usullarini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalar so'zlarning leksik ma'nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit



yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq raxbarlik qilish hisoblanadi.

So'zda morfemaning rolini anglash, shuningdek qo'shimchalarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so'zlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining yetakchi tamoyili bo'lib, bunga binoan so'zlar va ularning tarkibiy qismi, (o'zak va qo'shimchalar) asliga muvofiq yoziladi. O'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, so'z yasashiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. SHuning uchun so'zning morfemik tarkibini o'rganishning muhim vazifalaridan biri o'zak va qo'shimchalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

So'zning morfemik tarkibini o'rganish o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, xususan, til birligi sifatida so'zni ongli bilib olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. O'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarda aqliy faoliyatni o'stiradigan mavhumlashtirish, analiz, taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq, so'zning morfemik tarkibi 2- sinfda o'rganiladi. 3- sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o'rganish sistemasi nimaligini aniqlab olamiz. Til materialini o'rganish sistemasi deganda, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o'zapo bog'lanishdagi bilimlar kompleksini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Mavzuni o'rganishda 4 bosqich amalga oshiriladi:

1- bosqich – so'z yasashini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarniig ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishini tushunishga tayyorlash.

2- bosqich – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi so'zlarning ma'no qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish. "O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish; bir xil o'zakli so'zlarda o'zakningbir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

"O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish ularning ikki muxim belgisini, ya'ni mazmuniy umumiylikniig (ma'nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlashtirish bilan bog'lanadi. SHuning uchun bu belgilarni o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Ta'limning bu bosqichida o'quvchilarning morfema haqidagi bilimlari yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. SHuning uchun o'qituvchi tarkibi va yasash usulio'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan so'zlarni tanlaydi. Bu so'zlarni

analizva sintez qilishni boshqaradi, soʻzlarning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻquvchilar bilib olishlarga doimiy gʻamxoʻrlik qiladi.

3- bosqich – oʻzak, soʻz yasovchi va forma yasovchi qoʻshimchalarning xususiyatlari va tildagi rolini oʻrganish metodikasi. Bu bosqichning oʻquv vazifasiga "oʻzak", "soʻz yasovchi qoʻshimcha", "forma yasovchi qoʻshimcha" tushunchalarini shakllantirish, soʻzning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanish haqidagi tasavvurlarni oʻstirish, oʻzakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli soʻzlarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish, nutqda soʻz yasovchi koʻshimchasi bor soʻzlarni ongli ishlatish koʻnikmasini oʻstirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biribilan maʼlum bogʻlanishda hal qilinadi. Masalan, soʻzda har bir morfemaning rolini oʻzlashtirish asosida oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosi bilan uning morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan bogʻliq holda, soʻzlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi bajariladi.

Oʻzakni oʻrganishning xususiyatlari. "Oʻzak" tushunchasini shakllantirishda oʻquvchilar oʻzak oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnosidagi umumiylikni oʻz ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchaning funktsiyasi ustida ishlash. Bu morfemani oʻrganishning asosiy vazifasi oʻquvchilarni soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimchaning roli bilan tanishtirish va shu asosda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzdan oʻz nutqida ongli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish hisoblanadi. Oʻquvchilar soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi leksik maʼno tushunishi muhim ahamiyatga ega.

Forma yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida oʻziga xoslik boʻlib uni oʻrganish metodikasi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Forma yasovchi qoʻshimchada grammatik funktsiya yetakchi hisoblanadi, bu bilan u soʻz yasovchi qoʻshimchadan farqlanadi.

4- bosqich – soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi ustida ishlash, (3-4 sinflar). Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish sistemasida bu bosqichniig maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning soʻz yasashdagi roli va forma yasovchi qoʻshimchani soʻz shaklini oʻzlashtirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; oʻquvchilarni ot, sifat, feʼllarning yasash xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi. Soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilarga soʻz yasalishi asoslarini, soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida bir soʻz turkumidan boshqasini yoki shu soʻz turkumining oʻzini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot koʻproq boshqa bir otdan (baliqchi, ishchi; sinfdosh, sirdosh; bogʻbon, oshpaz, kitobxon shuningdek feʼldan (elak, kurak, yutuq); sifatkoʻproq otdan (suvli, suvsiz, oʻtli, oʻtsiz) shuningdek feʼldan (maqtanchoq oʻtkir, sezgir) feʼllar otdan (ishla, gulla, gapir) sifatdan (oqla, yaxshila, eskir, qoray) yasaladi. Oʻquvchilarni soʻz yasalishi xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun oʻqituvchi ularga muayyan bir yangi soʻz qaysi soʻzdan va qaysi forma yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, oʻqituvchi chegara otini aytadi va chegarani qoʻriqlaydigan kishini bildiradigan oʻzakdosh ot tanlashni topshiradi. (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: oʻqituvchi soʻzni va soʻz yasovchi morfemani beradi. Oʻquvchining vazifasi yangi soʻzni toʻgʻri yasash va leksik maʼnosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq soʻzidan -chi qoʻshimchasi yordamida yangi soʻz yasash, (baliqchi), uning leksik maʼnosini tushuntirish qaysi soʻz turkumi ekanini aytish topshiriladi.

Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'zqaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasaliş usuliga asoslanadi.

Bundan mashq turlaridan ayrimlari:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik – so'z yasaliş tomonidan tahlil qilish.

Masalan, quyidagi kabi matn yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi.

O'qituvchi rahbarligida bir o'zakdosh so'zdan boshqasi qanday, qaysi morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so'zni o'zakdosh so'z bilan almashtirish.

Topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zga o'zakdosh bo'lgan bir so'z toping. Uningqaysi so'z turkumiga kirishini ayting va uni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

Olma daraxti ko'p joy (olmazor). Paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan kishi (paxtakor). Bog'ni parvarish qiladigan odam (bog'bon)...

O'quvchilar o'qituvchi yordamida shu so'z qaysi so'zdan va qanday qo'shimcha yordamidayasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so'z turkumiga kiradigan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. So'z yasashga doir vazifalar.

Oq, ish, so'zlaridan -la, -chi qo'shimchalari yordamida yangi so'zlar yasang. Berilgan va siz yasagan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini isbotlang.

Ish, paxta, gul, sinf otlaridan o'zakdosh otlar yasang. So'zlarni tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz so'zning qaysi qismidan foydalandingiz?

Chiz, ur fe'llaridan o'zakdosh otlar yasang. Otlarni so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Fe'ldan ot yasash uchun qanday qo'shimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar o'quvchilardan so'z yasaliş xususiyatlariga, so'zlarning morfemik tarkibiga e'tibor berishni talab etadi va so'zning morfemik tarkibi shu so'zning muayyan bir so'z turkumiga oid ekani bilan bog'liqligini aniqlashga qaratiladi.

Quyidagi kabi savol va topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilar so'zning morfemik tarkibini qanday o'zlashtirganini aniqlash mumkin:

1. Savollarga javob berish:

1) So'zda qaysi qism eng asosiysi hisoblanadi? Nima uchun?

2) So'z yasovchi qo'shimcha qanday vazifani bajaradi? Misol bilan isbotlang.

3) So'zda forma yasovchi nima uchun xizmat qiladi? Isbotlang.

2. Ikki so'zning ma'nosi va tarkibini taqqoslash. Buning uchun o'quvchilar o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarning semantik rolini qanchalik tushunganini aniqlashga imkon beradigan so'zlar tanlanadi. (ishladi va boshladi, paxtakor va paxtazor)

3. So'zlarni taqqoslab, o'zakdosh yoki o'zakdosh emasligini isbotlash (tuz, tuzdon, tuzli, tuzsiz, tuzladi) qaysi qism ularni o'zakdosh qilyapti? Qaysi qism har xil ma'noli so'z hosil qilyapti? Savollarga javob berish.

4. Bog'bon, o'roq, bog'ni, ishchidan so'zlarini tarkibiga ko'ra tahlil qilish:

- 1) O‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchadan.
- 2) O‘zak va forma yasovchi qo‘shimchadan.
- 3) O‘zak va so‘z yasovchi, forma yasovchi qo‘shimchalardan tuzilgan so‘zlar tanlash.
- 4) Tayanch so‘zlar asosida o‘qituvchi tavsiya etgan mavzuga oid kichik hikoya tuzish.

#### REFERENCES

1. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
2. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
3. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
4. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
5. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
6. Нажмиддинов, Э., & Мухамедиев, М. (2023). FISH HELMINTHS IN FISH RESERVOIRS OF FERGANA VALLEY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).
7. Нажмиддинов, Э. Х., & Мухаммадиев, М. А. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИНИНГ ТУР ТАРКИБИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 60-68.
8. Нажмиддинов, Э. Х. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИ СУВ ҲАВЗАЛАРИ БАЛИҚЛАРИ ГЕЛЬМИНТЛАРИ. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 189-194.
9. Najmiddinov, E. (2022). THE SIGNIFICANCE OF NATURE IN THE FORMATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE IDEAL GENERATION. *Science and Innovation*, 1(8), 149-154.
10. Najmiddinov, E. (2022). " ICHTHYOLOGY AND HYDROBIOLOGY" PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DIRECTIONS IN UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 1(8), 152-160.
11. Abidjanovich, A. A. (2022). THE NEED TO IMPROVE HUMAN'S NOOSPHERICAL RELATIONSHIP TO NATURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 23-30.
12. Abidjanovich, A. A. (2022). THE ROLE OF CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING PERSONAL ECOLOGICAL CULTURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 5-12.

13. Абдумаликов, А. (2022). АТРОФ-МУҲИТНИ АСРАШ БЎЙИЧА МИЛЛИЙ СТРАТЕГИК РЕЖА ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 251-258.
14. Абдумаликов, А. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЭКОЛОГИК МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ДАСТУРИ. *Scientific progress*, 3(2), 1179-1186.
15. Абдумаликов, А. А. (2019). Human and Natural Harmony in the Historical Process. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 205-209.
16. Abidzhanovich, A. A. (2020). Issues Of Formation Of Rationality In Relations Of Nature With Society. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 301-304.
17. Abdumalikov, A. A. (2019). Environmental Ecological Policy in Uzbekistan and Necessity Of Formation Of Rational Communication To Nature. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 94-101.
18. Мирзобоев, Й. А. (2022). Тур Ўзгариш Чизиклари Учта Бўлган, Гиперболик Қисмларининг Ҳаммаси Характеристик Учбурчаклардан Иборат Бўлган Бешбурчакли Соҳада Учтинчи Тартибли Кўринишдаги Параболик-Гиперболик Тенглама Учун Битта Чегаравий Масала Ҳақида. *Theory And Analytical Aspects Of Recent Research*, 1(5), 363-366.
19. MIRZABOYEV, Y. BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING МАТЕМАТИКА О 'QITISH METODIKASI. О 'RTA UMUMTA'LIM МАКТАВЛАРИДА МАТЕМАТИКА О 'QITISHNING MAQSADI. *ЭКОНОМИКА*, 169-172.
20. Qurbonova, S. (2022). КИЧИК МАКТАВ YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.
21. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.
22. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).
23. Miralimjanovna, Q. S. (2022). О 'SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.
24. Iminov, B. B. (2020). INNOVATIVE CULTURAL LINKS ARE AN IMPORTANT FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 263-270.
25. Iminov, B. B. (2019). A PHILOSOPHICAL APPROACH TO INNOVATIVA AND CULTURAL-RELATIONS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(5), 157-162.
26. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHLTLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 366-372.



27. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
28. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.
29. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития"*, (10), 90-92.
30. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
31. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 32-36.
32. Kosimova, X. (2022). THE IMPORTANCE OF READING CULTURE IN THE FORMATION OF A HEALTHY SPIRITUAL CLIMATE IN THE FAMILY. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 7-13.
33. Qosimova, X. (2022). THE SIGNIFICANCE OF LIBRARY CULTURE IN FORMING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY. *Science and Innovation*, 1(8), 142-148.
34. Qosimova, X. (2022). OILADA SOG'LOM MA'NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 142-148.
35. ҚОСИМОВА, Х., & КАРИМОВА, Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, 612-615.
36. Джалолова, М. (2021). Эъзоза Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова. "ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." *Scientific progress*, 1.
37. Buzrukova, D. M. (2023). "МУНАББАТ" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 178-183.
38. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 239-242.
39. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
40. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
41. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O 'ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 793-797.

42. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, 1, 318-321.
43. Abdugufurovna, J. N., & Turgunovna, M. S. (2022). The Problems In Teaching Language. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(5), 46-48.
44. Jumaniyazova, N. A. O., & Mavlonova, S. T. U. (2022). CHET TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV PRINSIPLAR HAMDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ROLI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 118-122.
45. Turg'Unovna, M. S. (2022). Yangi O'zbekistonda diniy-dunyoviy qarashlar. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 115-120.
46. Ernazarov, G., & Mavlonova, S. (2023). INDICATORS OF SPEED PHYSICAL QUALITY OF STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B1), 177-183.
47. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
48. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.
49. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
50. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.
51. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.
52. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH–IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.
53. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
54. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.
55. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.
56. Abduraxmonov, A., & Kadirov, S. (2022). DEMOGRAFIK JARAYONLARNING IQTISODIY-IJTIMOY SOHALARNI RIVOJLANISHI BILAN BOG 'LIQLIGI VA DASTLABKI XUSUSIY MULK MASALALARI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 222-229.

57. Siddikov, F. Z. (2023). BASKETBOLCHI BOLALAR VA O'SMIRLARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI. *Ustozlar uchun*, 43(3), 120-123.
58. Сиддигов, Ф., & Эшимов, Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 41-44.
59. Farrux, S. (2022). SPORT O 'YINLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 184-189.
60. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARINING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322.
61. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO JURNALI*, 2(2), 777-785.
62. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
63. Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
64. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". *PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22.
65. Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 542-546.
66. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
67. Холикова, Д. (2021). Возможности диагностики эффективности компенсационного подхода в обучении. *Общество и инновации*, 2(9/S), 239-252.
68. Kholikova, D. M. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 422-424.
69. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 549-552.
70. Kholmatova, Z. T. (2022). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 60-65.
71. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
72. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.

73. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 136-139.
74. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 140-144.
75. Tillavoldiyeva, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
76. Холматова, З. Т. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИИ ЁНДАШУВ ДАВР ТАЛАБИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 134-140.
77. Tillavoldiyeva, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
78. То'лқинова, Y. D. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA МАТЕМАТИК TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-31.
79. Yuldasheva Dilshoda To'lg'iqinova (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
80. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
81. Tulkinova, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
82. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
83. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
84. Alimjanova, M. (2021). About Gender Stereotypes. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-5.
85. Yunusovna, A. M. (2021). Pedagogical system of responsibility formation in primary school students based on national staff. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(06), 1-7.
86. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.
87. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.
88. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).



89. Miralimjanovna, Q. S. (2022). O 'SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.
90. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
91. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
92. Alimjanova, M. (2021). About Gender Stereotypes. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-5.
93. Yunusovna, A. M. (2021). Pedagogical system of responsibility formation in primary school students based on national staff. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(06), 1-7.
94. To'liqinova, Y. D. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-31.
95. Yuldasheva Dilshoda To'liqinova (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
96. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
97. Tulkinovna, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
98. Shavkatovna, S. R. (2021). Developing Critical Thinking In Primary School Students. *Conferencea*, 97-102.
99. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
100. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.
101. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
102. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 235-239.
103. Maxamadaliyevna, Y. D., Oljayevna, O. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.



104. Shavkatovna, S. R. N. (2022). THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 128-133.
105. Шарофутдинова, Р. Ш. (2022). БОШЛАҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 149-158.
106. Shavkatovna, S. R. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY. *Open Access Repository*, 4(03), 51-59.
107. Aminova, F., Ahlimirzayev, A., & Sharofiddinova, R. (2023). USING THE PRINCIPLE OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIP IN STUDYING DIFFERENTIAL EQUATIONS IN SPECIALIZED SCHOOLS AND ACADEMIC LYCEUMS.
108. Sharofutdinov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONDITIONS OF INFORMING EDUCATION. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 424-429.
109. Sharofutdinov, I. (2023). THE ACTUAL STATUS OF THE METHODOLOGY OF DEVELOPING ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONDITIONS OF INFORMING EDUCATION. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 206-213.
110. Sharofutdinov, I. (2023). BO ‘LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AMALIYOTDA QOLLASH. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(7), 54-58.

## “SOG’INCH” KONSEPTINING BADIY MATNDA QO’LLANILISH O’RINLARI

Raximjonova Gulnoza

FarDU o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7970948>

**Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu – konseptdir. Bu termin kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada konsept va uning ma’nosi, “sog’inch” konseptining o’ziga xosligi va uning nutqda ifodalanishi haqida badiiy asarlardan parchalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Lingvokulturologiya, leksika, tushuncha, konsept, mavhum birliklar, sog’inch, badiiy matn, tilshunoslik.

### APPLICATIONS OF THE CONCEPT OF "LONGING" IN ARTISTIC TEXT

**Abstract.** One of the current topics of modern linguistics is the concept. This term is one of the important categories of cognitive linguistics and linguistic culture. This article presents excerpts from artistic works about the concept and its meaning, the uniqueness of the concept of "longing" and its expression in speech.

**Key words:** Linguistics, lexicon, understanding, concept, abstract units, longing, artistic text, linguistics.

### ПРИМЕНЕНИЕ КОНЦЕПТА "ТОЧКА" В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

**Аннотация.** Одной из актуальных тем современного языкознания является концепт. Этот термин является одной из важных категорий когнитивной лингвистики и лингвокультуры. В данной статье представлены отрывки из художественных произведений о понятии и его значении, своеобразии понятия «тоска» и его выражении в речи.

**Ключевые слова:** Языкознание, лексика, понимание, концепт, абстрактные единицы, тоска, художественный текст, языкознание.

So'nggi paytlarda til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Olimlarning ushbu muammoga qiziqishi 20-asr oxirida til birliklarining milliy-madaniy semantikasini butun mazmuni, milliy mentalitetini va tulari bo'yicha o'rganish maqsadida o'rganilishi lingvokulturologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Lingvokulturologiya tilda milliy madaniyatni aks ettirish muammosini o'rganuvchi tilshunoslikning bir yo'nalishidir.

Ma'lumki, inson bolaligidan boshlab o'z millatiga xos til va til orqali madaniyatni o'rganib boradi. Shundagina u inson hisoblanadi. Xalqning nozik madaniy belgilari uning tilida aks etadi. Til insonning o'ziga xos va o'ziga mos atributlaridan bo'lib, u orqali inson o'zini va olamni anglaydi.<sup>136</sup> Haqiqatdan ham til millatning ko'z gusidir.

*Qayga bormay, boshda do'ppim,*

*G'oz yurarman gerdayib (Erkin Vohidov)*

*Tong bilan jahon bo'ylab*

*Bir xabar qoqdi qanot,*

*O'zbek yana o'z so'zin*

*O'z so'zin do'ndiribdi.*

<sup>136</sup> Saidova, M., Qo'ziyev, U. Lingvokulturologiya. Uslubiy qo'llanma. - Namangan, 2017. - B. 6

*Bemisol talato'pda*  
*Muzaffar-u bosabot,*  
*O'zbek yana do'ppisin*  
*Qiyalab qo'ndiribdi.*(A. Oripov)

Demak, tilni shunchaki aloqa quroli va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy ochqichi sifatida tadqiq etish kerakligi yuzaga chiqyapti. Shuning uchun mutafakkir Abdulla Avloniyning “Har bir millatning duyoda borligini ko’rsatadurg’on oyinayi hayoti bu uning tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo’qotmak, millat ruhini yoqotmakdir” deb bejizga aytmaganlar.

Lingvokulturologiyada til nafaqat muloqot va bilish vositasi, balki birinchi navbatda etnik guruhning madaniy kodi sifatida qaraladi. Ya’ni til milliy mentalitet yoki inson psixologiyasini ochib beruvchi aloqa vositasi. Tilning inson bilishi va madaniy-ijodiy faoliyatining asosiy mexanizmlarining paydo bo’lishi va faoliyatidagi roli va ishtirokini o’rganish bizga voqelikning tilda aks ettirilgan xususiyatlarini bilish va falsafa, axloqiy va estetik tushunchalar olish imkonini beradi.

Olamning milliy-madaniy manzarasi haqida B. Gumboldt “har bir tilda til egalarining dunyoqarashi aks etishi, xalq ruhi va tili o’rtasidagi munosabat o’zaro zich bog’langanligi, ularni ayro tasavvur qilib bo’lmasligini, til xalqning ruhi xalqning ruhi esa uning tili ekanini, tillarning xilma- xilligi faqat tovushlarning xilma- xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko’rishning farqliligi natijasi” ekanini ta’kidlaydi.<sup>137</sup> Lingvokulturologiyaning diqqat markazida inson tursa, til ana shu insonning bilimi va qaysi bir xalqning madaniyat vakili sifatida belgilaydigan xatti-harakatlar normalari haqida gapirishga imkon beradi. Til har doim etnosning eng yorqin identifikatsiyalash xususiyati bo’lib kelgan. Til nafaqat muloqot va bilish vositasi, balki birinchi navbatda etnik guruhning madaniy kodi sifatida ham ko’rib chiqiladi. Til va madaniyat o’rtasidagi munosabatlar muammosi ko’plab tadqiqotchilarni hayratda qoldirdi. Tilning etnik tajriba va dunyoqarashni shakllantirish jarayonida asosiy rolini tushunishning kelib chiqishida, ma’lumki, faylasuf va tilshunos Vilgelm fon Gumboldt bo’lib, uning kontseptsiyasi til va madaniyat o’rtasidagi sababiy bog’liqlikni tan oladi. O’tgan asrning oxiridan boshlab, gumanitar bilimlarning ilmiy paradigmasidagi o’zgarishlarning bir qismi sifatida tizimli-strukturaviy va statistik paradigma antropotsentrik, funktsional, kognitiv va dinamik paradigma bilan almashtirildi. Antropotsentriзм ma’lum bir tilni nafaqat insonni o’rab turgan voqelikka, balki uning tafakkuri, ruhiyati, tarixi, madaniyati va ona tilida so’zlashuvchilarning ijtimoiy mavqeiga qarab o’rganish talabida ifodalanishini ta’kidlashadi. Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistikaga oid adabiyotlarda ishlab chiqilgan “tildagi odam” va “insondagi til” muammolari antropotsentrik paradigma doirasida olib borilgan tadqiqotlarda birinchi o’ringa chiqadi.

Antroposentrik paradigm yo’nalishida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar o’zbek tilshunosligida ham yuzaga kela boshladi. Xususan, A. Hurmonov til falsafiy jihatdan gnosologik va ontologik tabiatga ega, tilga gnosologik nuqtai nazardan yondashilganda, birinchidan insonning tili orqali olamni bilishi, tilning ob’yektiv borliq uzvlarini nomlash vazifasi, ikkinchidan, tilning shu til egalarining olam haqidagi bilimlari to’plami ekanini qayd etadi. Anglashiladiki, tilning gnoseologik tabiatini belgilashda insonning olamni idrok etishi va uni tilda aks etirishi

<sup>137</sup>Қаранг: Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – С.50-54.

mexanizmni tadqiq etish muhim.<sup>138</sup> Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik ( yoki antroposentrik paradigm;neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi- so'zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog'liqdir."Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki,tadqiqotchilarning diqqati " til qanday qurilgan" degan masaladan "til qay tarzda amal qiladi" degan masalaga ko'chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo'lgan shaxs omili nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi.<sup>139</sup>

Antroposentrik paradigma doirasidagi ko'plab lingvistik tadqiqotlar natijasida tilshunoslikda o'z nazariyasi va metodologiyasiga, o'z terminologik apparatiga ega bo'lgan yangi yo'nalish – lingvokulturologik yo'nalish shakllandi. Natijada yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi.Lingvokulturologiya lingvistik tadqiqotlarning alohida sohasi sifatida 70-yillarda rivojlangan.XX asr bu ilmiy fan madaniyat va tilning faoliyatidagi munosabati va o'zaro ta'sirini o'rganish va bu jarayonni birliklarning ajralmas tuzilishi sifatida ularning lingvistik va ekstralingvistik (madaniy) mazmunining birligida aks ettirishdir. Madaniy tilshunoslik etnolingvistikaning yosh tarmoqlaridan biridir. Lingvokulturologik tadqiqotlar tilga muayyan etnik guruh madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisa sifatida yondashishga asoslanadi. Bu tilshunoslik, etnopsixolingvistika, etnografiya sohasidagi turli tadqiqotlarni o'zida mujassam etgan umumiy tushuncha bo'lib, ma'lum bir lingvistik va madaniy materialda - boshqa tillar va madaniyatlar bilan taqqoslaganda ma'lum bir tilning milliy va etnik o'ziga xosligini ochib beradi.<sup>140</sup>Lingvokulturologiyaning fan sifatida rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan tadqiqotchilar tomonidan talqin qilingan lingvokulturologiyaning ayrim ta'riflariga to'xtalib o'tamiz.V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda "lingvokulturologiya" termini paydo bo'ldi.

"Konsept" lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanalishini va bu yuzasidan salmoqli ishlar juda ko'p qilinganligi o'zbek tilshunoslari orasida ham ko'p uchraydi. Masalan,O'tanov Adhamning "Vaqt" konseptining arab va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlili, M. Sadoqatning o'zbek tilida "Ostona" konseptining lingvomadaniy xususiyatlari,X.Adilbekning "Ispan va o'zbek tillarida "Hombria" "mardlik" konsepti qo'llanilishining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari kabi ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ham ochib berish xususiyatiga ega. Masalan "sog'inch" konsepti o'zbek mentalitetida koproq ona yurtga , onaga, farzandga hamda yorga bo'lgan sog'inchni ifodalashi mumkin.

Kutaman, uzoqdan ko'rinsa bir ot,  
Kelyapti, deyman ko'rinsa g'ubor.  
Bahor novdasida bo'rtgan har kurtak  
Sog'ingan ko'ngilga berar tasalli.  
Ko'chatlar qomati eslatganidak,  
Nafasin ufurar tong otar yeli.

<sup>138</sup> Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида "одам" ва "жинс" концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар: Фалсафа д-ри(PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.10.

<sup>139</sup>Usmanova.Sh.Lingvokulturologiya.-Toshkent, 2019.-B.14.

<sup>140</sup>Василова, Альфия Шамилевна.Лингвокультурный концепт "сагыш" (тоска) в татарской языковой картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Казань. 2006.

Kechqurun osh sizsak, bir nasiba kam,  
Qumsayman birovni allakimimni.

Sog'inch leksemasining kontekstual tahlili yordamida biz uning quyidagi konseptual xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin.

Sog'inch "yolg'izlik, ajralish, "ichki kechinmalarga e'tibor qaratish", "o'z-o'ziga chekinish", "qiynoq", "qiynoqqa solish", "ayriliq", "tashvish", "og'irlik", "ixtiyorsizlik", "kutish", "jimlik", "og'riq", "kasallik", "isyon", "istak". Sog'inch kontseptsiyasining mazmuni shularni birlashtiradi.

Haqiqatdan ham G'ofur G'ulomning "Sog'inish" she'rida shoirni o'g'liga bo'lgan sog'inchi yuragida shunday alamli isyon ko'taradiki, u bir lahza o'g'lini yo o'q tegib, yo bir falokat sabab vafot etishi yuragiga g'ulg'ula soladi. Lekin undagi isyon ko'targan sog'inch faqat unga o'g'lini diydorini qayta ko'rish umidini beradi. Shunday ekan qaysi bir inson sog'inib yashar ekan, unga nisbatan intilish bor, umid bor. Shuning uchun Stepanov "Sog'inchda umid bor, zerikishda umidsizlik bor" (Stepanov 2001: 880-881) degan.

Shunday qilib, "sog'inch" insoniy tuyg'ularning butun doirasi bilan o'zaro bog'liq bo'lib chiqadi, uni izohlab bo'lmaydi (aytaylik, quvonch yoki achinish), sog'inish inson vujudining tubidan kelib chiqadi va butun inson qalbini egallaydi.

Bizningcha, "sog'inch" inson ichki dunyosining atributi bo'lib, uni mutlaqo "ob'ektiv" o'rganib bo'lmaydi, chunki u mohiyatan chuqur sub'ektivdir.

Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan bergil xabar,  
G'amda boshim, ko'zda yoshim, ichganim bo'ldi zahar.  
Za'farondek sarg'ayurman hasratingda qon yutib,  
Ko'zlarimning nuri ketdi yo'llaringga ko'z tutib.

Zebi xolaning yumuq ko'zlaridan ikki tomchi yosh silqib chiqdi-yu, qirra burnining chetida to'xtab qoldi. Dutorni yonboshiga qo'ydi-da, keng yengining uchi bilan ko'zini artdi. Hamma jimib qolgan, hech kim birinchi bo'lib gapirishga jur'at eta olmas edi.

Hech bo'lmasa Kimsanim kelgandayam mayli edi, -dedi u xo'rsinib.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan olingan ushbu parchada urush tufayli o'z yurtiga qaytmagan o'g'lining alamli sog'inchi onaning yuragini tilka pora qiladi. Alamli sog'inch - bu biror narsani xohlaydigan, lekin nima ekanligini aniq bilmaydigan yoki bilsa ham va faqat unga erishib bo'lmasligini biladigan odamning boshidan kechiradigan tuyg'u. Badiiy matnlarni tahlil qilar ekanmiz o'zbek millatining madaniyatini, o'ziga xos til xususiyatlarini va inson omilining ichki dunyosiga guvoh bo'lamiz.

Milliy madaniyat odatda ma'lum bir millatning ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari yig'indisi sifatida tushuniladi. Har bir milliy til boshqasi ifoda eta olmagan narsani xuddi shunday ifodalaydi. Milliy madaniyat o'zining o'ziga xosligini ochib berish uchun o'z xalqining o'ziga xos tajribasini, milliy dunyoqarash va hayot tuyg'usining xususiyatlarini, butun insoniyat tajribasini unga yetkazish imkonini beradigan shunday lisoniy materialga ega bo'lishi kerak. Sog'inch tushunchasi biz bilan yoki boshqa odamlar bilan sodir bo'ladigan yaxshi yoki yomon tuyg'u. Shu sababli, rus tili ongidagi sog'inch so'zi yaxshi narsaning yo'qligi yoki erishib bo'lmasligini bildiradi.

O'zbek tilida "sog'inch" konseptini anglatuvchi iztirob, ilinj, alam, o'kinch kabi mavhum otlarda o'kinmoq, iztirob chekmoq, oh tortmoq, qayg'u, g'urbat alam kabi otli va fe'lli birikmalar



aks etadi. Soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan paremiologik lugʻatlarda “sogʻinch” konsepti bilan bogʻliq matal, maqol, hikmatli soʻzlar kiritilgan. Xususan, Yoridan ayrilgan yetti yil yigʻlar, Yurtidan ayrilgan oʻlguncha yigʻlar, Oʻz yurtini qadri oʻzga yurtda bilinar, Vatangado boʻlguncha, Kafangado boʻl maqollari mazmun-mohiyatida oʻz yurtidan ayrilgan inson bir umr azob- uqubatda qolishi hamda sarson- sargardon hayot kechirishi aytib oʻtilgan. Oʻz uying oʻlan toʻshaging deb bejizga aytmaganlar. Maʼrifatparvar ijodkorlarimizdan biri A. Avloniy “Biz Turkistonliklar oʻz vatanimizni jonimizdan ortuq suydigʻimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq choʻllarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq qor muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi tiriklik oson yerlarga oʻz vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi<sup>141</sup>.”

Sogʻinch his-tuygʻusi va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi. Ijobiy emotsionallikka ega boʻlgan bu tuygʻuni oʻlchovi yoki biron bir shakli yoʻq. Lekin sogʻinch deganda inson qalbini junbushga keltiradigan, vujudini titratadigan, ichki his tuygʻular orqali his qilinadigan biron bir lisoniy birlik bilan oʻlchab boʻlmaydigan tushunchadir desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Demak, “sogʻinch” konseptining nutqda yoki matnda qoʻllanishi insonlarning ichki his-tuygʻulari roʻyobini koʻrsatadi. Bu mavhum tushuncha har bir insonning qalbidan joy olgan. Shuning uchun har bir shaxsda oʻzi xohlamasada, yuzaga chiqadigan qalb tugʻyonidir.

Sheʼriy matnlarda mujassamlangan hissiy tushunchalar nafaqat badiiy dunyoni, balki muallifni tilda aks ettirilgan lingvistik shaxs sifatida tushunish uchun ayniqsa muhimdir. Shubhasiz, bu tushunchani ifodalovchi leksemalar boshdan kechirilgan tuygʻuning chuqurligi, shiddati va davomiyligi bilan farqlanadi. Demak “sogʻinch” tushunchasining konseptual maydonida insonga qaygʻu, alam beradigan iztirob tushunchasi ustunlik qilishiga amin boʻlamiz.

## REFERENCES

1. Saidova.M, Qoʻziyev.U. Lingvokulturologiya. Uslubiy qoʻllanma. Namangan, 2017. -B.6
2. Қаранг: Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – С.50-54.
3. Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида “одам” ва “жинс” концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар: Фалсафа д-ри(PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.10.
4. Abdulla Avloniy Vatanni suymak kitobi
5. Gʻofur.Gʻulom. Tanlangan asarlar. -Toshkent, 1973. -B-234.
6. Usmanova.Sh. Lingvokulturologiya. -Toshkent, 2019. -B.14.
7. Василова, Альфия Шамилевна. Лингвокультурный концепт "сагыш" (тоска) в татарской языковой картине мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Казань. 2006.
8. Oʻtkir.Hoshimov. Dunyoning ishlari. -Toshkent, 2015. -B-185.

<sup>141</sup> Abdulla Avloniy Vatanni suymak kitobi

## KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Xolmatova Saodat Yovqochdievna

Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 27- umumta'lim maktabi psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7965395>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik omillari haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* psixologik omillar, yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ijtimoiy faoliyat.

## PSYCHOLOGICAL FACTORS OF CAREER GUIDANCE

*Abstract.* This article talks about the psychological factors of career guidance. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

*Key words:* psychological factors, preparing the young generation for life and work, social activity.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФОРИЕНТАЦИИ

*Аннотация.* В данной статье говорится о психологических факторах профориентации. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. Выводы и предложения даны в конце статьи.

*Ключевые слова:* психологические факторы, подготовка молодого поколения к жизни и труду, социальная активность.

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

«Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to'g'risida g'amxo'rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk davrlarida bu tajriba meros bo'lib qolar, avloddan - avlodga o'tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo'yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

Hozirgi vaqtda, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi. Bir tomondan - ishlab chiqarishni murakkablashtirayotgan xilma-xil kasblar va mutaxassisliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan - bir qator barqaror shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turgan odamlarning mavjudligi kasblarni, o'quv yurtlarini tanlashda, kadrlarni ish o'rinlariga joylashtirishda va qayta joylashtirishda ana shu omillarni, umuman inson omilini hisobga olishni qat'iy talab qiladi.

Iqtisodiy islohot va umuman qayta qurish insonni faol ravishda birinchi o'ringa chiqarib qo'yimoqda, ijtimoiy adolat odam o'z shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishga ko'proq e'tibor

berilishini taqozo qilmoqda. Bu vazifani hal qilishda shaxsiy manfaatlar va jamiyatning kadrlarga bo'lgan talab-ehtiyojlari birligida yoshlarni erkin va ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashning ilmiy asoslangan sistemasi bo'lmish kasb tanlashga yo'naltirishga muhim o'rin ajratilmoqda.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga yoshlarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim-tarbiya jarayoni, uning butun kompleksi bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Xalq ta'limining shu sohadagi bir qator qarorlarida ta'kidlab o'tilganidek, vujudga keltirilayotgan kasbga yo'naltirishning davlat tizimida umumiy ta'lim maktabiga, o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratilmoqda. Ayni o'qituvchi mehnat ahliga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, umummehnat va kasbiy mahorat hamda malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to'g'ri tanlashda ham o'smirlarga yordam berish lozim. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin.

Ilk kasbga yo'naltirish (I-IV sinflar) bolalarni mehnatga tayyorlashdan, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni kasblar, mehnat olami bilan tanishtirishdan, ularda o'z mehnati bilan boshqalarga naf keltirish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Bunga esa bolalarni qo'ldan keladigan ijtimoiy - foydali mehnatga o'quv va o'yin faoliyatining har xil turlariga jalb etish yo'li bilan erishish mumkin.

O'rta bo'g'inda (V-VII sinflar) maktab o'qituvchilari ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga kirishadilar, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari, mehnat faoliyatining aniq sohasiga bo'lgan qiziqish shakillanadi.

Navbatdagi bosqichda (VIII-IXsinflar) o'quvchilarda tizimlashtirilgan bilimlar, kasblar olamida mo'ljal ola bilish mahorati, aniq kasbga bo'lgan qiziqish shakillanishi lozim. X-XI sinflarda asosiy e'tibor yuqori sinf o'quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga tayyorlash ijtimoiy-kasbiy jihatdan bir maqsadni ko'zda tutganligiga qaratilishi kerak.

I-IV sinflarning o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular-mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, uz ishini rejalashtirish va nazorat qila bilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish, toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini bolalarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayillarini payqab oladi, bu xislatlartga rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin, keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi -o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlagadan va jamiyat talab-ehtiyolariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Mehnat ta'limi darslari kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni mehnat darslari kasbga yo'naltirishga qaratilgan yo'lining tahlili misolida ham ko'rish mumkin. I-IV sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri - o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

Shu bilan birga darslarda bolalar, odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid eng ko'p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O'qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo'naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo'naltirish darsi oldiga maqsad qo'yib, kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o'rgatishdan, kasb jihatidan muhim xislatlarini tarbiyalashdan, o'quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o'rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo'shib olib borishdan iborat bo'lishi mumkin.

Qo'yi sinflarning o'quvchilari xilma-xil materiallar (qog'oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog'och, fanera, plastmassa, tolali materiallar) bilan ish ko'radilar, ular ishlashga oid o'zlariga bop, ma'qul bo'lgan operatsiyalarni o'rganadilar. Ular texnik va texnologik tusdagi masalalarni yechishni o'rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo'llanish ishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo'llari bilan tanishadilar va foydalanishni o'rganadilar, tegishli kasblar to'g'risida ma'lumotlar oladilar. Chunonchi, o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan (transport) konstruktori bolalarni 18 xil turli transport mashinalari va kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi.

O'quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to'g'risida, qurilish bilan bog'liq bo'lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma'lumotlar oladilar, qurilish obyektlarini modellashtirishni o'rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi.

Texnik konstruktor bilan ishlash chog'ida bajariladigan topshiriqlar o'quvchilarni mashinasozlik, elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, texnikaga muhabbat xislarini tarbiyalaydi, unchalik murakkab bo'lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishtiradilar.

#### REFERENCES

1. Davlatov. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. Toshkent «O'qituvchi» 1992 yil.
2. Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish N. Shodiyev. Toshkent, «O'qituvchi» 1987 yil.
3. S. A. Boltaboyev, U. Tolipov. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish buyicha metodik tavsiyanoma. Toshkent, 2000 y.
4. X. Rashidov, Sh. Sharipov, S. A. Boltaboyev. O'quvchilarni kasbiy yo'naliganligini aniqlash. O'quv kullanma. Toshkent, 2002 y.
5. «Uzliksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2002y (15-16 noyabr)
6. Mehnat va kasb ta'limi-tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar.
7. A.P.Chernyavskaya. Psixologicheskiye konsultirovaniye po professionalnoy oriyentatsii - 2001goda.



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLARNING O'ZARO QIYOSIY TAHLILI

**Boboqulova Gulnora To'rayevna**

Sherobod tumani 27-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7965418>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Ingliz va o'zbek tillarida o'timli va o'timsiz fe'llarning o'zaro qiyosiy tahlili haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqolada misollar yordamida mavzu mohiyati ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* o'timli va o'timsiz fe'llar, Ingliz va o'zbek tillari, maxsus grammatik ko'rsatgich.

### COMPARATIVE ANALYSIS OF TRANSITIVE AND INTRANSITIVE VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

*Abstract.* This article deals with the comparative analysis of transitive and intransitive verbs in English and Uzbek languages. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. The article reveals the essence of the topic with the help of examples.

*Key words:* transitive and intransitive verbs, English and Uzbek languages, special grammar index.

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕХОДНЫХ И НЕПЕРЕХОДНЫХ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Аннотация.* Данная статья посвящена сравнительному анализу переходных и непереходных глаголов в английском и узбекском языках. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. В статье раскрывается суть темы с помощью примеров.

*Ключевые слова:* переходные и непереходные глаголы, английский и узбекский языки, специальный грамматический справочник.

O'zbek tilidagi singari ingliz tilida ham anglashiladigan ma'noning boshqa predmetga qaratilganligini, biror obyektga ko'chganligini ko'rsatish ushbu haraktning yuzaga kelishi uchun boshqa predmetnig ishtirok etishiga qarab, fe'llar ikki guruhga o'timli (transitive verbs) o'timsiz (intransitive verbs) fe'llarga bo'linadi.

Hozirgi zamon ingliz tilida fe'llarning o'timli va o'timsiz ekanligini ko'rsatuvchi maxsus grammatik ko'rsatgich yo'q. O'timli va o'timsiz bevosita fe'llarning o'zagi orqali ifodalanadi. Ingliz tilidagi fe'llarning ko'pchiligi o'zlarining sintaktik distributsiyalariga qarab ayni bir vaqtda ham o'timli, ham o'timsiz sifatida ishlatilishi ham mumkin. Ba'zi bir fe'llar asosan o'timli bo'lib, o'timsizlik ularda yasama ikkinchi darajali ma'no kasb etadi. Ayrimlari esa umuman o'timsiz bo'lib, o'timlilik ularning ma'lum sintaktik distributsiyada ishlatilishi natijasida yasaladi. Shu asosda ayrim grammatika kitoblarida fe'llar hatto uch gruppaga ya'ni o'timli va o'timsiz va o'timsizlik kategoriyasi fe'llarning leksik ma'nosiga bog'liq bo'lganligi uchun bu kategoriya doimiy grammatik oppozitsiya tashkil qilmaydi, ya'ni hamma fe'llarni bir vaqtning o'zida sistematik o'timli va o'timsizlikka ajratib bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi to grow fe'lining "o'smoq, o'stirmoq" variantlari bu fe'lining ikki xil formulasi emas, balki ikki xil leksik ma'nosi borligini bildiradi. Qator fe'llar faqat o'timli leksik ma'noni, boshqalari esa faqat o'timsiz ma'noni bildiradi. Masalan, to go -bormoq, to be - bo'lmoq, to shine -nur sochmoq, smile -

kulmoq, iljaymoq, kabi fe'lar faqat o'timsiz bo'lsa, to see -ko'rmoq, to kill - o'ldirmoq, to make -qilmoq, to catch -tutmoq, to polish -moylamoq fe'llari asosan o'timli hisoblanadi. O'timli fe'llar o'zidan keyin grammatik obyekt talab ish-harakatni grammatik obyekt vazifasida keluvchi so'zga ko'chganligini ko'rsatuvchi fe'llar o'timli fe'lar deyiladi. Masalan, to see, to give, to show, to make, to put, to find and so on.

1. I was shown to a tiny waiting – room. (R. Gordon “Doctor in the house”)
2. Atticus put his hands in his pockets (“To kill a mocking bird” page 40)
3. Her father saw it (Horper SU “To kill a mocking bird” page 42”)
4. Walter made a vow to be more objective. (S.P. Hartley “W.C. page 74”)

Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ayrim fe'llarning ma'lum predloglar bilan qo'shilib, o'timlilik ma'nosini anglatishidir. Bunday fe'llarga ma'lum predloglar bilan doimiy bog'lanib, asosan yo'nalishni ko'rsatuvchi fe'llargina kiradi. Bunga quyidagilar misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

To wait for – kimnidir yoki nimanidir kutmoq.

To look at –kimgadir yoki nimagadir qaramoq.

To depend on – nimagadir yoki kimgadir bog'liq bo'lmoq, to be bo'lmoq

To fly over – uchib o'tmoq

Our Else was looking at her with big imploring eyes. (Katherine Mansfield“ Selected Stories” page -118).

Don't wait dinner for me (Dictionary Oxford page 699)

Love, Fortune power all depending upon one middle aged life.

What is he asking for his car? (Dictionary Oxford page 35)

O'zlik olmoshi oneself, myself, yourself, himself, herself, itself kelgan fe'llar ham o'timli fe'llar hisoblanadi.

She kept it to herself. (Dictionary Oxford page 276)

He was talking to himself (Dictionary Oxford page 277)

Cooking for oneself is a bore (Oxford 417) Well since never “worry” yourself about these things, it follows that you know nothing about them.

O'timli fe'llarga bir gruppaga kuzativ fe'llarni ham kiritish mumkin. Bu fe'llar ham tub kuzativ va yasama kuzativ ma'nolariga ega bo'lib, alohida semantik gruppani tashkil qiladi. Hozirchi ingliz tilida tub kuzativ ma'noli fe'llar juda oz bo'lib, aksincha yasama kuzativ ma'noli fe'llar juda keng tarqalgan.

Tub kuzativ ma'noli o'timli fe'llarda kuzativ ma'no shu fe'llarning o'zaklari orqali maxsus suffikslar ifoda etiladi.

Masalan:

To fell – yiqilmoq, ag'anamoq. He fell of the ladder.

To set – bir joyga qo'ymoq. Set the phone on the table

To drench – ho'llamoq, namlamoq. Drenched by the rain.

Bu fe'llarga kuzativ yoki faktitativ ma'no beruvchi yana bir gruppaga fe'llarni kiritish mumkinki, ular yordamida kuzativ konstruksiyalar yasaladi.

Masalan:

To cause – sabab bo'lmoq. I caused him much trouble.

To make – biror narsa qilmoq. John made her speak.

To complete – oxiriga yetkazmoq. Mrs. Harris completed the problem.

To oblige – talab qilmoq. Monoget obliged much results.

To force – majbur qilmoq. He forced him to drink

To order – buyruq bermoq. Teacher ordered pupils to be in time.

To command – buyurmoq. Captain commanded to go down

To let – ruxsat bermoq. Let the go.

To direct – yo‘l ko‘rsatmoq. He directed them to the foret.

To press – bir ish qilishga qistamoq. She pressed him to do what she wanted.

To teach – o‘qitmoq. Mr. White teaches maths at school.

To ask – so‘ramoq. Mother asked her son to come early.

Boshqa so‘z turkumlaridan konversiya, affikatsiya va boshqa yo‘llar bilan yasalgan o‘timli fe‘llar ikkinchi darajali yasama kuzativ ma‘noli fe‘llar deyiladi.

Light – yorug‘

To lightend – yoritmoq

Equal – teng

To equalize – tenglashtirmoq

Formal – rasmiy

To formalize – rasmiylashtirmoq

Bu fe‘llar bir vaqtning o‘zida ham o‘timsiz fe‘l vazifasini bajaradi.

Clay – loy

To clay – loy bilan suvamoq

Clean – toza

To clean – tozalamoq

White – oq

To white – oqlamoq

O‘timsiz fe‘lar. Fe‘ldan anglashilgan ish-harakat to‘g‘ridan-to‘g‘ri gammatik obyektga o‘tmasdan faqat grammatik subyektning o‘zigagina bog‘liqligini ko‘psatuvchi fe‘l o‘timsiz fe‘l deyiladi.

O‘timsiz fe‘llar anglatgan ma‘nosiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

a) holat yoki turg‘unlikni ko‘rsatuvchi fe‘llar: to be, to exist, to live, to die.....

for example: 1. Settle Dorothy lived on the great Kansas prairie (Y.K. Maghidson “The Magic of Oz. page 5”)

He exists on S. 50 per week (Dictionary Oxford page 204)

I would die in the last ditch for that principle (Dictionary Oxford page 161)

b) Harakatni bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chishini ko‘rsatib beruvchi fe‘llar:

to start, to go, to arrive, to march, to jump.....

For example: 1. I jumped and struggled my way to the front of the restless crowd (Gordon “Doctor in the house”)

2. He must have wanted to go home the short way. (Harper fee “To kill a Mocking bird” page 44)

3. We had to start again from scratch (Dictionary Oxford page 600)

4. German troops marched into Austria. (R. Gordon “Doctor in the house”)

5. At last our friends came home (Y.K. Maghidson “The Magic of Oz”. page 76”)

c) Tashqi muhitga bo'lgan ta'sirni ifodalovchi fe'llar to laugh, to cry, to smile, to sorrow va boshqalar.

For example:

1. But little Dorothy often laughed (Y.K. Maghidson "The Magic of Oz. page 5")

2. Only Henry cried out to aunt Em (Y.K. Maghidson "The Magic of Oz. page 50")

3. It was very dark in the house and there she was frightened ("The Magic of Oz. page 5")

Hozirgi zamon ingliz tilida timsiz fe'llarning o'timli fe'llarga o'tishi oson. Deyarli hamma o'timsiz fe'llar ot bilan birga bikfnbkbib natijasida o'timlashib kauptativ ma'noga ega bo'ladi.

To march –yurmoq

To march someone –birovni yurgizmoq

To walk – piyoda yurmoq

To walk a horse – otni yurgizmoq

O'timli va o'timsizligi teng huquqli bo'lgan fe'llar ikki xil ma'noli fe'llar deb ataladi.

To move – siljimoq, siljitmoq

To stop –to'xtamoq, to'xtatmoq

To widen –kengaymoq, kengaytirmoq

To finish – tugamoq, tugatmoq

Bu fe'llarning o'timli va o'timsiz bo'dib kelishi sintaktik distributsiyaga bog'liq bo'lgan holatlardan biri hisoblanadi.

He moved – u siljidi.

He moved the table –u stolni siljitdi.

He stopped smoking –u chekishni to'xtatdi

He stopped the car – u mashinani to'xtatdi.

O'timli va o'timsiz fe'llardagi leksemalar tilning leksik darajasini elementar birligi hisoblanib, u eng avvalo u yoki bu so'z turkumlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'timli va o'timsiz leksemalar haqida gapirganimizda fe'lli, otli, adjektiv, adverbial yoki ravishli, o'timli fe'l leksemalari otli, sifatli va ravishli bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamon ingliz tilida o'timlilik muammosi. Hozirgi vaqtgacha o'timlilik rus hamda xorij tilshunosligida faqatgina fe'llarga xos tushuncha deb hisoblanar edi. 5 O'timli fe'llar yonida to'ldiruvchini talab qiladi hamda ushbu to'ldiruvchitushum kelishigi bo'ladi deb hisoblangan. Biroq unday fikr faqatgina flektiv tillarga shu jumladan ingliz tiliga ham mosdir. Chunki ingliz tilida kelishiklar yo'q. Ko'pgina tilshunoslar o'timli fe'llarning yonida to'ldiruvchi bo'lsagina o'rganishgan. Lekin boshqa tilshunoslar ushbu fikrga qarshi chiqadilar. Juda ko'p grammatik qo'llanmalarda o'timlilik morfologiya qismida o'rganib kelingan hamda uni sintaktik, leksik – sintaktik, hatto leksik-grammatik kategoriya deb o'rganishga odalanganmiz. Bir qator olimlar fe'lning o'timliliğini qo'shimcha bilan kelishida deb takrorlashgan. Masalan, to look at, to depend on va boshqalar. Olim S. D. Katselon o'timlilikni ikki turini aniqlab bergan. Bular funksional hamda formal turlaridir. Funksional tur fe'lning ma'nosidan kelib chiqadi hamda olimning fikricha universal xususiyatlarga ega bo'ladi. Formal o'timlilik boshqaruvda jo'nalish kelishigida turgan fe'l o'timli bo'ladi. Shuning uchun barcha funksional fe'llar o'z ma'nosida qolib, faqatgina formal holatdagina o'timli bo'la oladi. Professor A.A. Ufimseva o'timlilikni ikki turi bor deb ta'kidlaydi. Bular semantik hamda sintaktik turlaridir. Semantik o'timlilik ya'ni obyektiv fe'l demakdir, semantik obyekt bilan aloqada bo'ladi semantik obyekt bu aniq to'ldiruvchi demakdir. Sintaktik

o'timlilik esa noaniq to'ldiruvchi demakdir. Tilshunos olim A.I. Smirnitskiy o'timli yoki o'timsiz fe'llarda keskin chegaralar bo'lib, ular xilma-xildir deya ta'kidlaydilar. Olimning aytishicha ushbu muammo alohida e'tiborga loyiq. Professor I.I. Emeriyeva esa boshqa fikrni bildiradi. U o'timlilik hamda o'timsizlik orasida chegara yuqolib ketmoqda deb ta'kidlaydi. Tilshunoclikda o'timlilik hamda boshqaruvni tez-tez aloqada bo'lganligi sababli o'rganilib kelingan. Ushbu muammo yechimga alohida e'tibor bergan olim A.M. Peshovskiydir. Olim A.M. Peshovskiyning fikrisa o'timli fe'llar kuchli boshqaruvga egadirlar. Professor B. A. Ilish "faqat to'ldiruvchini talab qiladigan fe'llar o'timlidir" deya ta'kidlaydi. Yuqorida aytilganlardan so'ng o'timli fe'llar to'ldiruvchi bilan bilan qo'shimchaga yordamlashadi, lekin qo'shimchasiz bo'lganida ham leksik – grammatik hislatlarga, xususiyatlarga qaraydigan bo'lsak, farq yuqligini ko'ramiz. Masalan, ingliz tilidagi fe'llar look – qaramoq, enquire- xabarlashmoq, follow - ergashmoq, va boshqa shu kabi fe'llar aloqada after qo'shimchasi bilan bo'ladilar.

To look after a child – bolaga qaramoq, g'amxhrlilik qilmoq

To enquire after somebody's health –kimningdir sog'ligidan xabar olib turmoq.

To follow after somebody – kimgadir ergashmoq, quloq solmoq, gapiga kirmoq.

Ushbu iboralarda qo'shimcha boshqaruvga aloqador deb hisoblanadi hamda ushbu fe'llar o'timlilik hislatiga egadir degan tushuncha paydo bo'ladi. Tilshunos olim A.M Muxinning fikricha fe'lning o'timlilikini yoki o'timsizligini gapning ichida to'ldiruvchi bor yuqligiga qarab aniqlanadi. Olim bu fe'llar boshqaruvini iboralarda sinab ko'radi hamda to'ldiruvchi leksemalarga harakat o'tadi deb o'z fikrin isbotlaydi. Biroq gapning ichida o'timli fe'l to'ldiruvchisiz bo'lishi mumkin va u bunda o'z hislatlarini yuqotmaydi. A. M. Muxin yana bir fikrni olg'a suradi. Bu o'timlilik hamda boshqaruv bir-biri bilan bog'liq degan fikrdir. Xulosani professor A. M. Muxinning qarashlariga suyangan holda aniqlaymiz. O'timlilik leksik kategoriyadir, u tilda elementar birlik bo'lib hisoblanadi. Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan o'timlilik hamda boqaruv bo'lganligi tufayli ham ularning birini o'rgansa, ikkinchisi ham ma'lum bo'ladi. Ingliz tilida o'timli leksemalar qo'shimcha bilan yoki qo'shimchasiz bog'lanishi mumkin. Masalan, to write a letter, to drink water, to squirm after a woman.

O'timsiz leksemalarning o'timli leksemalardan farqi. Ular boshqaruv holatiga ega emas, shuning uchun o'timli leksemalarning gruppalari leksik-semantik munosabatlarni tahlil etadi.

Tushuntirishda gap birikmalarida o'timsiz fe'l va ot birikmalarini misollarda ko'rib o'tamiz.

B. A. Ilish va A. I. Smirinskiy misollarida gapda predloglar ining rolini ko'rsatib B. A. Ilish shunday yozadi<sup>1</sup>.

The book is lying on the table.

The book is lying under the table.

Bu yerda on predlogi va under predlogi fe'l bilan birikadi. Agar biz quyidagicha bersak, The book is lying ... The table holdida bersak nuqtalar o'rniga on, in, under, beside va boshqa predloglarni qo'yish mumkin bo'ladi. Bu misoldan ko'rinib turibdi-ki "lie" fe'li tahlil metodini bu fe'llarga o'tkazishi mumkin emas. O'timli fe'llarni leksik birlik deb qarab, har xil variantli gap yasashida, gap qurilishida material sifatida ishlab, ularning farqlarini leksik-semantik gruppalardagi bir va ikki o'timli fe'llar va ularning leksema to'ldiruvchilarini formal distributiv me'zon deb xarakterlaydi. Masalan: ikki o'timli fe'l ayblamoq "to accuse" ning leksik konstruksiyasi quyidagi boshqaruvga ega Vtr+C1+of+C2



Ularning birikmasining birinchi to'ldiruvchisi (C1) mavhum tushunchani anglatgan.

Birinchi juftlik misolidagi fe'l subordinativ bog'lanishga, ikkinchisida esa predikativ va subordinativ bog'lanishga ega. Quyida bir qancha gaplarning modelini yasaymiz:

1. She explained the whole affair to Spear.

U hamma yumushlarni spirga tushuntirdi.

(K.Mansfield "Short stories page 156)

2. The whole affair was explained to Spear by her.

Keltirilgan faktlardan shunday xulosa qilamizki, o'timli fe'llarning leksik birikmalari fe'l frazalari va gaplarda u birikkan xolatiga to'g'ri kelishini o'rganish mumkin. Quyida keltirilgan misolimizda ya'ni ikki gapda bir sintaksema ishlatilgan: She explained the affair va the affair was explained.

Bunday xollarda fe'l ikki o'timli xolicha qoladi, tashqi ko'rinishidan bir o'timlmdek ko'rinsada, unda obyekt sintaksema ishlatiladi.

1. Dorothy knocked at the gate.

Doroti darvozani taqillatdi.

2. The gate was knocked.

Darvoza taqilladi.

(Y.K. Maghidson "The Magic of Oz" page 15)

O'timli fe'llarning boshqaruvini ko'pincha modellar yordamida beriladi. Murakkab frazalar bir yoki ikki o'timli fe'lli suvstantiv leksemalar yeksperiment transformatsiya metodi orqali beriladi. Bunda murakkab va qat'iy frazalar modellashadi: A talk with somebody about something – to talk with somebody and something

Vtr+Str+with+C1+about+C2\_\_\_\_\_Vtr+with+C1+about+C2.

She talked with her mother about her future.

U onasi bilan o'z kelajagi haqida gaplashdi.

Children sometimes talk with their toys about thiers dreams.

Bolalar ba'zida o'yinchoqlari bilan o'z orzulari haqida gaplashadilar.

Do not talk with her about serious things.

U bilan jiddiy narsalar xususida gaplashma.

Allowance must, no doubt, made for the astonishing rapidity of communication in the days va boshqalar.

Bu misollardan shu fikrga kelamizki, leksik yoki semantik bog'lanishlar leksik boshqaruvlvr bo'ladimi degan muammoni yechishga boshqa nazariy tushunchalarni ham e'tiborga olishi kerak bo'ladi. Lingvistik boshqaruvda o'sha imkoniyatlar lingvistik tahlil bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, buni lingvistik analiz metodlari orqali bilib olishadi.

Lingvistik tahlilning yeksperiment metodini boshqa oblastlarida modellashtirish til darajasidagi birliklarni sistemali o'rganishni taqozo etadi. O'timli fe'llarni leksik – semantik gruppalariga ajratish shuningdek o'timli leksemalarni bog'lanishlarini va fe'llardagi predlogli boshqaruvini amalga oshirishda bu imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikki o'timli fe'llarni sitemali tahlil qilishda nazariy va metodologik xususiyatlarga suyangan xolda ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikki o'timli fe'llarning bir o'timli fe'llardagidan farqi shundan iboratki, agar bir o'timli fe'llar ajratib olingan gruppalar ularni leksik to'ldiruvchilar birikmasi bilan bo'lsa, ya'ni bir tomonlama boshqaruvda, ikki

o‘timli fe’llarda, tabiiyki ikki boshqaruvli birikmalarni o‘rganishga to‘g‘ri keladi. To‘ldiruvchi leksemalari S1 va S2 modelida belgilanadi. Ular shubhasiz ikki boshqaruvli murakkab va ko‘p qirrali bu fe‘l gruppalarining klassifikatsiyasi to‘ldiruvchining o‘rniga S1 va S2 ning bir–biriga munosabatiga bog‘liq. Ikkilangan boshqaruvli predlogsiz gaplarni ko‘p sonli o‘timli fe‘l gruppaga sostaviga ko‘ra alohida fe’llarni kiritamiz. Ulardan biri “e’tiroz” yoki “inkor” ma’nosidagi fe’llarning yasalishi. (V2/tr=4)

Bar – taqiqlamoq

Deny – e’tiroz

Forbid – taqiqlash

Refuse – e’tiroz bildirmoq, rad etmoq

Bu fe’llar bilan berilgan frazalarda birinchi to‘ldiruvchi shaxsga, ikkinchisi esa abstrakt tushunchasi kontret jonsiz predmetga: to bar smb one’s house; I will bar no honest man my house; to deny smb admittance; she was angry at being denied admittance; to forbid smb one’s house; to forbid smb the country; to forbid smb use of the smth; students are forbidden the use of the office duplicator; to refuse smb permission they refused me permission; to refuse smb admittance.

---

#### REFERENCES

1. Buronov “ingliz tili grammatikasi” Toshkent 1980
2. M. A. Yanshins, N. M. Vasilevskaya “English grammar” 1999
3. A. M. Muxin. “Lingvisticheskiy analiz” Leningrad. 1983
4. M. Iriskulov, A. Kuldoshev “Theoretical grammar of the English language” Tashkent 2008
5. R. L. Kovner, V. L. Kaushanskaya “A grammar of the English language” Leningrad. 1963
6. Qiyomov Ro‘zi “Hozirgi zamon ingliz tilida after predlogli birikmalarning leksik va sintaktik – semantik tahlili” Toshkent 2007
7. M. A. Belyayev “Grammatika angliyskogo yazika” 1987

## SHOYIM BO'TAYEV HIKOYALARIDA O'ZIGA XOSLIK

Soqiyeva Zarnigor Shokirovna

Termiz davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971012>

**Annotatsiya.** Shoyim Bo'tayev ijodida batakror iste'dodi, mahorati, tajribasi, uslubidagi o'ziga xosliklar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Vaqt o'tgan sayin yozuvchining ijodida sezimli darajada katta o'zgarishlar va yangilanishlar sodir bo'ldi. Bu albatta Shoyim Bo'tayevning sermashaqqat mehnati samarasidir.

**Kalit so'zlar:** Hikoya, bosh qahramon, obraz, umr, hayot, chol, qadimgi zamon odami, avliyoning yo'li, qahramonlar, maktab qorovuli.

## UNIQUENESS IN THE STORIES OF SHOYIM BOTAYEV

**Abstract.** In Shoyim Botayev's work, his unique talent, skills, experience, and style are clearly visible. Over time, significant changes and updates took place in the writer's work. This is definitely the result of Shoyim Botayev's hard work.

**Key words:** story, main character, image, life, life, old man, ancient man, saint's path, heroes, school guard.

## УНИКАЛЬНОСТЬ В РАССКАЗАХ ШОИМА БОТАЕВА

**Аннотация.** Творчество Шоима Ботаева характеризуется его уникальным талантом, мастерством, опытом и стилем. Шло время, в творчестве писателя происходили значительные изменения и обновления. Это, безусловно, результат кропотливой работы Шоима Ботаева.

**Ключевые слова:** повесть, главный герой, образ, жизнь, жизнь, старец, старец, путь святой, герои, школьная стража.

Istedodli yozuvchilardan biri Shoyim Bo'tayev ham o'z uslubiga ega ijodkordir. Uning "Qo'rg'onlangan oy", "Shox", "Yettinchi tong" nomli romanlari, "Dunyoning sarhisobi bor" (qissalar to'plami), "Endi bari boshqacha" (hikoyalar to'plami), "Shamol o'yini", "Hayot", "Ko'chada qolgan ovoz" (qissa va hikoyalar to'plami) kabi ijod namunalari o'zbek nasri rivojida mustahkam o'rin tutuvchi asarlar hisoblanadi. Shoyim bo'tayev ma'naviyatni yuksaltirish yo'lidagi say harakatlari uchun 2002 yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan. Adabiyotshunos Bahodir Karim shunday fikr bildiradi; "Shoyim Bo'tayev uslubida ko'p so'zlilik, piching, kinoya, yumor va jiddiyat uyg'unligi bor; ko'pso'zlik – batafsillik ustuvor." Turli yozuvchilar aynan bir davr, qahramon yoxud voqea-hodisalar haqida yozsalarda, ularning olamini anglashi, badiiy talqini va ifoda tarzi xilma-xil bo'lishi tabiiy. Shoyim Bo'tayev ijodida ham batakror iste'dodi, mahorati, tajribasi, uslubidagi o'ziga xosliklar yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Shoyim Bo'tayevning "Avliyoning yo'li" kitobida turli yillarda yozilgan hikoyalari ma'lum qismi jamlangan. Kitobchada 1980-yillarda yozilgan "Qahramonlar" hikoyasini yozuvchi yoshlik xotiralariga asoslanib yozgan bo'lishi mumkin. Ya'ni bir yigitning otasi bilan bo'lgan yoshlik xotiralar tasvirlanadi. "Maktab qorovuli" hikoyasida esa maktab davri bilan bog'liq xotiralar bilan o'rtoqlashadi ya'ni maktab qorovuli haqidagi tasvirlar o'rin oladi. Bu asarlarda nuroniy kimsalar obrazi orqali voqealar mazmuni ochib beriladi. Tarbiyaviy jihatlarining borligi bilan ahamiyatlidir. "Qahramonlar", "Maktab qorovuli" hikoyalarida Xidir buva, Isabek Odilov (ota), Eshniyoz chol singari qahramonlar urushda qatnashgan, urush xotiralar bilan yashaydigan obrazlar misolida

gavdalaniradi. Shoyim Bo'tayev "Qahramonlar" hikoyasini 20 yoshida yozadi. Bunda aynan yosh yigit otasining qalbini ya'ni botiniy dunyosini tushunish, anglash hissini gavdalaniradi. Qishning uzun kechalarida urushdagi qahramonliklari haqida to'lib toshib gapiradigan Xidir buvani va jimgina eshituvchi otasini xotirlaydi. Ismsiz so'zlovchi Xidir buvaning suhbatlarini eshitib shunday hulosa qiladi: "Xidir buvaning hikoyasi meni ohanrabodek o'ziga jalb etadi. Nazarimda, otamdan ko'ra Xidir buva ancha ulug'vordek.

Allaqanday o'kinchni his etaman.

Tashqarida ayoz.

Tancha muzdek.

Otam jim."

Xidir polvon izoh bergan o'sha davr kimsalari aynan o'zining harakterini ochib berishga xizmat qilgan, yozuvchi uslubining bir qirrasini shu yerda seziladi. Bola yoshligida otasini o'z qahramoni deb bilmaydi. Vaqt o'tib otasi nomiga kelgan xat orqali qishning uzun kechalarida uxlamay Xidir buvaning gaplariga javoban - Obbo, Xidir polvon-ey! degan jumladan nariga o'tmaydigan, o'zi bilan o'zi so'zlashadigan, ko'zlari mungli ota asl qahramoni ekanligini anglaydi. Har bir bolaning birinchi qahramoni bu albatta otasidir, yozuvchi ham aynan shu tushunchani oddiy bola tilidan so'zlatadi. Bu hikoya o'zbek otalarga bag'ishlangan desak bo'ladi. Yozuvchi hikoya so'ngida xulosani ya'ni otaning qanday inson ekanligi va botiniy dunyosiga bo'lgan munosabatini kitobxonning o'ziga topshiradi. Hikoyada keltirilgan voqealar qisqa, sodda ammo ibratli asar bo'lib, bir otaning tabiati xususida boradi.

"Qadimgi zamon odami", "Umr hikoyalaridagi bosh qahramonlar tinib tinchimaydigan, mehnatda diydasi qotgan chollardir. Umrlari oxirlab qolgan bo'lsa ham yotib qolishmaydi, hayot tashvishlari bilan charchamaydigan mehnatkash kimsalardir. Bundan tashqari "Qadimgi zamon odami" hikoyasida insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, inson qadri singari tuyg'ularning mohiyati turli obrazlar orqali yoritiladi. Masalan: "Noinsof! Uchta gulday bolasi bor-a, qadrini bilmagan... Sochi supurgi, qo'li kosov bo'lib xizmatini qiladi, shundayam urush-janjal... Qanaqa odam-a? Qanaqa odamlar o'zi? Ilgarigidek qadr qani? Mehr qani? Qanaqa odamlar-a?". Yoshlarning erinchoqlilari, hayotga yengil qarashlari, turmush qiyinchiliklariga bardosh beraolmasligi hamda insonlar o'rtasidagi mehr oqibatning ko'tarilib boryotganligiga kuyunadi.

Badiiy adabiyot san'at turi bo'lganligi uchun undagi tasvirga san'atkorona yondoshiladi. Tabiat tasviri bo'ladimi, holat yoki qahramon tasvirimi, albatta, kitobxon ko'z o'ngida gavdalanishi kerak. Shoyim Bo'tayevning "Umr" hikoyasida bosh qahramon ko'rinishini tasvirlamaydi, balki uning atrofida sodir bo'lgan voqealar tasviri bilan qahramon haqida tasavvurlar paydo bo'ladi. Masalan, asar sarlavhasidan va hikoya boshida: "Xotini o'lib, yolg'iz qizi uzatilib ketgach.....". deb keltirilgan jumla bosh qahramon umrining so'ngi davri haqida ekanligi va asar mazmunidan anglashiladi. Hikoyada qarilik davrini yolg'izlikda o'tkazgan tandirchining zohiriy dunyosi batafsil yoritiladi. Umri davomida qilib kelgan tandirchilik kasbini qariligi sabab to'xtatishga majbur bo'ladi. U gilvatadan vos kechmay, Yengilroq ish bolalar o'yinchog'i bo'lgan hushtak yasashda davom etdi. O'limi oldidan gilvatani bag'riga bosib yotdi, shu kasbigina umrining so'ngigacha hamroh bo'ladi.

Shoyim Bo'tayev dastlab yozgan hikoyalarida milliylikni aks ettiruvchi maqollardan juda kam foydalanadi, ammo vaqt o'tib yangidan yangi bo'y ko'rsatib kelyotgan hikoyalarida keng miqiyosda foydalanganligini ko'rishimiz mumkin, bu uslub hikoya ta'sirchanligini oshirishda

xizmat qiladi. Shoyim Bo'tayev hikoyalarida xalq tili unsurlari juda jonli, o'rnida ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ma'lumki adibning material ko'lami qanchalik keng bo'lsa uning asarlarida aks etmay qolmaydi.

“Uxlayotganlar”, “Xolbo'ta Qo'rboshi”, bu hikoyalari esa yuqoridagilariga nisbatan biroz murakkabroq yozilgan. Yozuvchining vaqt o'tib fikrlarining teranlashkanligi seziladi ya'ni kishini o'ylashga undaydi. “Uxlayotganlar” hikoyasini oladigan bo'lsak nega yozuvchi hikoyani bunday nomladi? Hikoyada aslida uxlayotganlar bosh qahramonning uydagilari, ular deyarli hikoyada qatnashishmaydi. Balki, hikoyada yozuvchi o'z davrida sodir bo'lyotgan vaziyatlarni hech bir ishdan xabari yo'q, hech narsa bilan qiziqmaydigan, o'zini dunyo ishlaridan chetga oladigan boqibeg'am kimsalar misolida kelgandir. Asar ayni shunday kimsalarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Hikoyani o'qiganizda aslida bir yigitning aybsiz aybdor bo'lib qolganligi gavdalantiriladi.

“Dard” hikoyasida davning achchiq haqiqatlari yoritilgan. Hikoyada Suyunqulning qudasi obrazi jamiyatda uchraydigan zarracha ko'nglida rahm-shavqat tuyg'ulari bo'lmagan, uning uchun bu hislar begona bo'lgan, xudbin shaxslar timsolida gavdalanadi.

“O'tkinchi dunyo”, “Faqir” hikoyalarida esa inson o'zligini anglash, odamzot yaralishining asl mohiyatini tushunish kabi falsafiy qarashlar bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. “Faqir” hikoyasining asosiy mazmuni asar oxirgi jumlasida anglashiladi, ya'ni yozuvchi urg'uni hikoyadagi so'ngi jumlasiga beradi.

“Eshqulning ko'zlariga jiqqa yosh to'ldi.

Shundan so'ng... Anzirat ketib qolmadi, qamatmadiyam.

Eshqul hayron edi. Keyin tushundi: ayoli uchun uning “faqirgina”ligidan ortiq haqorat yo'q ekan.”

Yuqoridagi “Qahramonlar”, “Umr” hikoyalari 80-yillarda yozilgan bo'lib, keyingi “Qarz”, “Qora sovuq” hikoyalari esa 2000-yillarga mansub. Tadqiqotimiz jarayonida shu ma'lum bo'ldiki vaqt o'tgan sayin yozuvchining ijodida sezimli darajada katta o'zgarishlar va yangilanishlar sodir bo'ldi. Bu albatta Shoyim Bo'tayevning sermashaqqat mehnati samarasidir. So'ngi yillarda yozgan asarlarida insonning botiniy dunyosini yoritishga va obrazlar qalbiga nigoh tashlaydi.

## REFERENCES

1. Normatov U. Ijodkorning haroratli so'zi. –T.: “Turon zami ziyo”,2005
2. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013. 15. Quronov S. Ifoda va ifodaviylik –T.: 2012.
3. Rahmat R. Adabiyotdan chiqish. –T.: Akademnashr, 2015
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: ”Sharq “. 2007
5. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T., 2006.
6. Zunnunov A, Hotamov N. Adabiyot nazariyasi. –T., ”O'qituvchi”. 1978.
7. Shoyim Bo'tayev “Avliyoning yo'li” hikoyalar Toshkent. “O'zbekiston” 2018



## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI INTELEKTINI SHAKLLANTIRISH VA IQTIDORINI NAMOYON QILISHGA DOIR TEXNOLOGIYALAR

**Ibragimova Dildora Inomjonovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi  
[dildoraibragimova1989@gmail.com](mailto:dildoraibragimova1989@gmail.com)

**Mirzanazarova Gulhayo Murodjon qizi**

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971129>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilar iqtidorini namoyon qilishga doir texnologiyalar, ularning intellektini shakllantirish usullari haqida so'z boradi. Bu borada o'quvchilar bilan yakka tartibda va guruhlarda ishlash, o'quvchilarni qizqishlariga qarab yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchi shaxsini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining izlanuvchanligi, talabchanligi, ijodkorligi va, albatta, adolatliligi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada nimagadir qiziqish, iqtidor bo'ladi, buni ro'yobga chiqarish va rivojlantirish bolaning ota-onasi va uning o'qituvchi bog'liq bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** Iqtidor, intellektni shakllantirish, iqtidorni rivojlantirish texnologiyalari, boshlang'ich sinflarda iqtidorni aniqlash usullari, o'quvchi iqtidorini aniqlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, ijodiy rolli o'yinlar, intellektni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy usullar va ularning natijalari.*

### TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF INTELLIGENCE AND THE MANIFESTATION OF TALENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

***Abstract.** This article talks about the technology to show all the talents of students in primary grades, the formation of their intelligence. In this regard it is important to work with students individually and in groups, to guide them in one direction depending on what they are more interested in, creativity and of course, fairness are of great importance.*

***Key words:** Talent, intelligence formation, talent formation technologies, methods of identifying talent in elementary grades, the importance of modern technologies in determining the student's talent, creative role-playing games, modern methods aimed at developing intelligence and their results.*

### ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТА И ПРОЯВЛЕНИЯ ТАЛАНТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

***Аннотация.** В данной статье рассказывается о технологиях проявления таланта учащихся начальных классов, о методах формирования их интеллекта. В связи с этим важно работать со школьниками индивидуально и в группах, ориентировать учащихся в соответствии с их интересами. Большое значение в формировании личности ученика имеет любознательность, требовательность, творческий подход и, конечно же, справедливость учителя начальных классов. В каждом ребенке есть интерес, талант, реализация и развитие которого зависит от родителей ребенка и его учителя.*

***Ключевые слова:** Талантливость, формирование интеллекта, технологии развития талантов, методика выявления одаренности в начальных классах, значение современных технологий в определении одаренности школьника, творческие ролевые игры, современные методики, направленные на развитие интеллекта и их результаты.*

### Mavzuning dolzarbligi

Bugungi yangilangan O'zbekiston va yangilanayotgan ta'lim tizimi davrida boshlang'ich ta'lim sohasiga ham ko'plab o'zgarishlar joriy qilindi. Jumladan, yangi o'quv darsliklar, zamonaviy texnologiyalar, o'quvchilarni fikrlashga undovchi yangi mavzular to'plami shular jumlasidandir. Bularning barchasi, albatta, kelajak avlodning bizdan ko'ra talabchan, yangilikka intiluvchan, fikrini erkin bayon eta oladigan va ularni har tomonlama intellektual rivojlantirishga qaratilgandir. Bu vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning roli va ahamiyati juda kattadir. Xususan, bolaning ota-onasi payqamagan iqtidorini albatta boshlang'ich sinf o'qituvchisi sezadi va uning shu iqtidorini rivojlantirishga bor say-harakati bilan kirishadi.

Iqtidorli bolalar turli qiziqishlari bilan ajralib turadi. Bu bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyat bilan mashg'ul bo'lish tendentsiyasini keltirib chiqaradi. Shu sabab ular uchun g'ayrat va pragmatizm o'rtasidagi muvozanatni topish qiyin. Bunday muvozanatga amaliy tajriba va boshqalarning do'stona munosabati bilan erishiladi. U yaxshi samaradorlikni, ustuvorlik madaniyatini va maqsadlarni belgilashni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtidor – bu hayot davomida rivojlanadigan psixikaning tizimli sifati bo'lib, u odamning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori, ajoyib natijalarga erishish imkoniyatini belgilaydi. O'quvchilar iqtidorini aniqlash uchun turli bellashuvlar, fan olimpiadalar quyidagi tartibda o'tkaziladi.

Fan olimpiadalari	Yiliga 1 marta
Maktab o'quvchilarining yutuqlari konferentsiyasi	Yiliga 1 marta
Mavzu haftalari	Yillik rejaga muvofiq
Iqtidorli bolalar bilan ishlash tajribasidan o'qituvchilarning ijodiy hisobotlari.	o'qituvchilar kengashi
Ichki nazorat.	Yillik rejaga muvofiq
To'garaklar va sport seksiyalarining ijodiy hisobotlari.	Yiliga 1 marta
Tematik tanlovlar, ko'rgazmalar.	Yillik rejaga muvofiq

Bulardan tashqari o'qituvchi tomonidan sinfdan tashqari to'garaklarda bellashuvli topshiriqlar berilishi o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash, hamkorlik, raqobat, tezkorlik hamda muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Intellekt** - (lotincha “intellec” — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi [1].

**Sinfda iqtidorli bolalar bilan ishlash.** Differensial yondashuv, darsda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim faolligini oshirish, fan bo'yicha bilimlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun muammoli ta'lim va loyiha faoliyati kabi ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanilmoqda. va ijodiy salohiyat. Ushbu texnologiyalardan foydalanish ta'limni faollashtirishga yordam beradi, unga izlanish, ijodiy xarakter beradi va shu tariqa o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlikni beradi. Loyiha ustida ishlashda har bir o'quvchi faol bo'lib, umumiy ishga hissa qo'shadi. yakuniy natija uchun mas'ul bo'ladi, bir-biri bilan muloqot qilishdan va loyiha topshirig'ini birgalikda bajarishdan o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usidan zavqlanadi. Shunday qilib, talabalar tadqiqot va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

**Iqtidorli bolalar bilan sinfdan tashqari ishlar.** O'quv jarayonidagi o'quv materialining zamonaviy to'yinganligi munosabati bilan, ijodiy va intellektual qobiliyatlarni to'liq takomillashtirish uchun sharoit yaratish faqat sinfda mumkin emas. Qo'shimcha ta'lim bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Qo'shimcha ta'lim tizimi barcha imkoniyatlarga ega. bolalarning individual xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, o'qitish imkoniyati O'qitish mazmuni va usullari bolalarning intellektual rivojlanishiga yo'naltirilgan (profil) uchun mo'ljallangan, bu bizga qo'shimcha ta'lim o'qituvchisi faoliyatini to'g'rilash imkonini beradi. bolaning ehtiyojlariga, shuningdek, uning o'ziga xos imkoniyatlariga qarab. Natijada, ko'pchilik bolalar uchun optimal ta'lim sharoitlari yaratiladi: ular o'z qobiliyatlarini, magistrlik dasturlarini amalga oshiradilar, shu bilan birga hech kim ta'lim jarayonidan tashlab qolmaydi.

"Ijodkor bolalar - bu "nostandart" bolalar, ularning o'z fikrlari, o'z pozitsiyalari bor, ular umumiy qabul qilinganidan farq qiladi. Ular ba'zan tengdoshlari yoki ota-onalari uchun tushunarsiz bo'lgan narsalarga berilib ketishadi. Iqtidorli bolalarning xarakterli xususiyatlari, asosiy farqlari - bu ajoyib xotira, g'ayrioddiy diqqat, qiziquvchanlik, yangi narsalarni tushunish istagi va fikrlashning yuqori tezligi. J. Piagetning fikricha, "O'pkaning nafas olishi kabi miyaning ham o'rganishi tabiiydir." Olimlarning aytishicha, iqtidorli va iqtidorli bolalarda miyaning biokimyoviy va elektr faolligi ancha yuqori bo'ladi. Erta yoshda bo'lgan iqtidorli bolalar mavhum fikrlash qobiliyati, shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini kuzatish va ma'lumotlarni tasniflash qobiliyati bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, iqtidorli bolalar ba'zan tengdoshlari tomonidan qandaydir ijtimoiy rad etishdan aziyat chekishadi va bu ularda o'zlariga nisbatan salbiy tasavvurni rivojlantiradi. Har bir "xunuk o'rdak" ning go'zal oqqushga aylanishiga imkon berish, "qush hovlisi" aholisining uni cho'kishiga yo'l qo'ymaslik - bu o'qituvchining vazifasi.

**Ijodiy rolli o'yinlar.** Eng avvalo o'quvchilar o'rtasida kichik so'rovnoma o'tkaziladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari xos savollar beriladi.

Misol uchun:

1. Siz rasm chizishga qiziqasizmi?
2. Matematika fani yoqadimi?
3. Tabiatga sayohat qilishni xohlaysizmi?

Shu kabi savollardan 10 yoki 15ta beriladi, o'quvchilarning qanday javoblarni belgilaganligiga qarab ularning nimaga yoki qaysi fanga ko'roq qiziqishlari aniqlanadi. Aynan bir fanlarga qiziquvchi o'quvchilar ham turli xilda viktorinalar va o'yinlar asosida bellashadilar.

### **Natijalar**

Ushbu amalga oshiriladigan ishlar, bellashuvlar o'z navbatida iqtidorlilarni aniqlashda albatta samarasini va natijasini ko'rsatadi. Xususan, o'quvchilar o'zarida bor iqtidorlaridan foydalana olishni, o'zlarini namoyon qilishni, va eng asosiysi ta'lim jarayonida bu iqtidorni qanday ishlatishni anglab yetishadi.

Muayyan bolaning iqtidorli ekanligini tushunish uchun o'quvchining alohida muvaffaqiyatlari va yutuqlarini diqqat bilan tahlil qilish kerak. Bu sinfni kuzatish, psixologik xususiyatlarni, xotirani va mantiqiy fikrlashni o'rganish orqali sodir bo'ladi. Shuningdek, sinfdan tashqari va tarbiyaviy ishlar orqali qobiliyatli bolalarni aniqlash usuli. Maktablarda qobiliyatli va iqtidorli bolalar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladigan ma'lumotlar bazasini yaratish kerak. Psixolog tomonidan bolaning qobiliyatlari diagnostikasini o'tkazish tavsiya etiladi.

### **REFERENCES**

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A- Pedagogik texnologiya asoslari . Toshkent -2001
2. Muslimov N va boshqalar Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. 2013-yil Toshkent "Fan va texnologiyalar".
3. Ibragimova D. (2021). "Qisasi Rabg'izuy" asarida profetologik ildizlarni o'rganish. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2021, 1, 333-335. Retrieved from <https://scienceweb.uz/publication/9009>
4. Ibragimova D. (2021). Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida payg'ambarlar genezisi tahlili. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. 1, 63-65. Retrieved from <https://scienceweb.uz/publication/10680>
5. Ibragimova Dildora Inomjonovna, & Mirzanazarova Gulhayo Murodjon qizi. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INDIVIDUAL ISHLASH TEXNOLOGIYASI VA UNING SAMARADORLIGI. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(4), 207–212. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/1713>

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KASBIY PEDAGOGIKANI RIVOJLANTIRISH

**Isamitdinova Gulsevar Ulug'bek qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Bo'riyeva Shohzoda Norqobil qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971425>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim kasbiy malakasini innovatsion va intellektual g'oyalar orqali yoritib, bugungi kunda pedagoglarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishiga qaratilgan.

*Tayanch so'zlar:* innovatsion yutuqlar, nazariy bilimdonlik, kasbiy pedagogika, kasbiy ko'nikmalilik, kasbiy malakalilik, kasbiy kompetentlik.

### DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PEDAGOGY IN PRIMARY EDUCATION

*Abstract.* This article illuminates the professional qualification of primary education through innovative and intellectual ideas, and today pedagogues are focused on the development of interests, abilities and skills of primary school students.

*Key words:* innovative achievements, theoretical knowledge, professional pedagogy, professional skills, professional competence, professional competence.

### РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Аннотация.* Данная статья освещает профессиональную квалификацию начального образования через новаторские и интеллектуальные идеи, и сегодня педагоги ориентированы на развитие интересов, умений и навыков младших школьников.

*Ключевые слова:* инновационные достижения, теоретические знания, профессиональная педагогика, профессиональные умения, профессиональная компетентность, профессиональная компетентность.

### KIRISH

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va u orqali 7-11 yoshli avlodni yuksak saviyali qilib voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida fanning o'quv dasturlarini hozirgi kun talablari asosida tashkil etish, boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik ishlanmalar orqali yoritish va o'qitish asoslari yangilandi. Boshlang'ich ta'limda kasbiy pedagogikani rivojlantirishdan asosiy g'oya ta'lim beruvchilarning ilmiy savodxonligi, bilim va ko'nikmasini shakllantirish, eng ilg'or o'qitish metodlari, innovatsion g'oyalar, kasbiy metodlar yordamida rivojlantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich ta'lim pedagoglarini tayyorlashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad kelajagimiz ravnaqi uchun o'z kasbini sevadigan yoshlarni erkin fikrlaydigan va ilmiy dunyoqarashi keng doirada bo'lgan darajada tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'lim kasbiy pedagogikasi har bir shaxsning o'z kasbiga oid bilim va ko'nikmalarini, shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha va g'oyalarni boyitishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy hayotning barcha sohalari singari boshlang'ich talimda kasbiy pedagogikani rivojlantirishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida ta'lim bo'yicha raqobat qay darajada tus olib borayotganiga



barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Bu raqobatga munosib javob berish yo'llari, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni ommaga keng joriy etish, o'z ustida ishlovchi mutaxassis kadrlarni yanada ko'paytirish, zamonaviy ilm-fanni kuchli usulda rivojlantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabridagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunida berib o'tilgan 13-moddaga nazar qaratadigan bo'lsak, unda kadrlarni qayta tayyorlanishi, tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni ta'minlanishi, kadrlar malakasini oshirilishi, malaka va ko'nikmalarni chuqurlashtirilishi hamda yangilanib borishi ta'minlanib, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishga xizmat qilishi, undan tashqari, kadrlarni qayta tayyorlanilishi va ularning malakasini oshirilishi shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda kasbiy pedagogikani rivojlantirish uchun, avvalo, biz yosh kadrlarga katta e'tibor berishimiz zarur, ya'ni ularni milliy tajriba va jahon andozalari talablariga mos ravishda tayyorlashimiz hamda ularning qiyofasini (imidjini) shakllantirishimiz muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagog olimlarimizning yondashuviga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga haqiqiy mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi kasbiy xususiyatlar keraklidir:

1. Nazariy bilimdonlik
2. Kasbiy ko'nikmalilik
3. Kasbiy malakalilik
4. Kasbiy kompetentlik

Bu tushunchalarga tayangan holda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim qiyofasi orqali nazariy bilimlar shakllantirilib, kasbiy bilim va ko'nikmalari rivojlantiriladi va amaliyotga targ'ib etish qobiliyati oshirib boriladi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy qiyofasida ijtimoiy faollik, axloqiy yetuklik, kasbiy namunalilik asoslari muhim o'rin tutadi va oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shu umumiy va kasbiy talablarni o'zlashtiradi.

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston hududida professional ta'limning tub asoslari uch ming yil avval Avestoda bayon etilgan. Faqatgina o'sha vaqtlarda bizda bu boradagi tajribalar yetarli darajada o'rganilmagan. Hozirgi kunda asosiy e'tibor kasbiy pedagogik ta'lim berishga qaratilmoqda, ya'ni kelajagimiz poydevori bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga malakaviy talablar, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion g'oyalar asosiy vazifa sifatida yuklatilmoqda, chunki yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan, xalq va oila manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, shijoatli o'quvchilarni yetishtirib chiqarish boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik mahoratidan darak beradi, desak hech shubha qilmaymiz. Negaki 7-11 yoshli bolalar ongi juda ham yaxshi rivojlangan bo'lib, bu yoshda ularga yuksak ta'lim-tarbiya, bilim berilsa, to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, ular shu tomonga harakat qiladi. Aksincha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi loqaydlik qilib, o'quvchilar bilan yaxshi ishlay olmasa, ularga bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada yetkazib bera olmasa, ular botqoqlik taraf sho'ng'ib ketadilar. Bu narsaning oldini olish maqsadida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini yuqori malaka talablari, umumpedagogik metodlar, innovatsion ishlanmalar, individual o'qitish metodikasi bilan qurollantirish kabilar ko'zda tutilgan. Bu yondashuvimizga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilarda

bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni ijtimoiylashtirish o'quv fanlarining mavzulari va materiallari qiziqarli, aniq va tushunarli bo'lish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'lim pedagogikasida quyidagicha muammolar mavjud:

-boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda axborot kommunikatsion vositalardan kam foydalanish;

-har bir yosh avlodning qobiliyatini kutilgan darajada ochib berolmaslik;

-dars jarayonida qiziqarli metodlar hamda didaktik materiallardan foydalanmaslik.

Pedagogik olimlarning aytishlaricha, so'nggi 20 yil ichida maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi 5 foizga o'sgan, bu holat boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari va darsliklarini tezkor ravishda yangilab borishni taqozo etadi. Mamlakatimizda bunday muammolarni yumshatish maqsadida "Milliy o'quv dasturlari" ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonga Finlandiya ta'lim tizimini olib kirish ko'zda tutilmoqda. Chunki finlandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishmoqda. Ular, shuningdek, dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, bu davlat ta'lim tizimida darslarning oshkorligi, quvnoqligi va o'quvchining erkin, mustaqil fikrlay olish qobiliyatining yuksakligi quvonarli holat desak yanglishmaymiz. Biz ham bu ta'lim-tizimini asta - sekin o'zimizda mujassam etamiz.

#### **XULOSA**

Ushbu maqoladan kelib chiqadigan xulosa shuki, kasbiy pedagogikani rivojlantirishda asosiy e'tiborning boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bolani jamoaviy va milliy ruhda tarbiyalaydigan, bolaga individual yondashadigan, layoqatlarini shakllantiradigan, mustaqil fikrlash va faoliyatga o'rgatadigan inson boshlang'ich sinf o'qituvchilaridir. Shu sababdan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini yanada yuksaltirish chora tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

#### **REFERENCES**

1. Erknazarova Gulnora Oblaqulovna ,Kadirova Xurshida Abdixalilovna "Kasbiy pedagogika" o'quv qo'llanma. 2021-y.
2. Hudoyqulov X.J, Jumanova F.U "Kasbiy pedagogika " o'quv qo'llanma. T.:Ishonchli hamkor",2021. 300b.
3. N. Xo'jayev va boshqalar . Pedagogika asoslari.-T.:Dizayn-Press.2011 y.
4. O. M. Jabborova , Z. A. Umarova, L.M.Babaxodjayeva "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" darslik. T.-:2021.
5. Xudoyqulov X. J. Pedagogika, Psixologiya.-T.: Dizayn-Press.2011 y

## МАМЛАКАТ БАНК ВА МОЛИЯ ТИЗИМИГА КИБЕРТАҲДИДЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

**Зухра Маратдаевна Отакузиева**

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети,  
и.ф.н., доцент, Ташкент, Узбекистан.

Email: [zukhra.otakuzieva@mail.ru](mailto:zukhra.otakuzieva@mail.ru)

ORCID ID: 0000-0002-4283-8181

**Исроилов Жавохирбек Абдуғаффор ўғли**

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети,  
Киберхавфсизлик факултети, Ахборот хавфсизлиги йўналиши 3-курс талабаси,

Email: [javokhirbekisroilov166@gmail.com](mailto:javokhirbekisroilov166@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971596>

**Аннотация.** Ушбу мақолада дунёдаги кўплаб мамлакатлар банк ва молия тизимларига кибертаҳдидлар таъсири оқибатида юз берадиган салбий жиҳатлар батафсил статистика маълумотлари асосида кўрсатиб берилган. Жумладан уларга кибертаҳдидлар сабабли молиявий йўқотишлар, банк ва молия тизими обрўйига етказиладиган зарарлар, иш жараёнида келиб чиқадиган носозликлар, меъёрий талабларга мувофиқ келмасликни ва бошқаларни киритишимиз мумкин. Бундан ташқари, дунё мамлакатлари бугунги кунда қандай самарали киберхавфсизлик сиёсати олиб боришлари мумкинлиги ва қандай қоидалар ишлаб чиқишлари кераклиги ҳақида мақолада фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** кибертаҳдид, банк ва молия тизимлари, молиявий йўқотишлар, кибержиноятчилар, молиявий операциялар, ахборот хавфсизлиги.

## THE EFFECT OF CYBER THREATS ON THE COUNTRY'S BANKING AND FINANCIAL SYSTEM

**Abstract.** This article shows how detailed statistics reveal the negative aspects of the banking and financial systems of many countries in the world due to the impact of cyber threats. These negative aspects include financial losses due to cyber threats, damage to the reputation of the banking and financial system, malfunctions in the work process, non-compliance with regulatory requirements, and others. Additionally, the article discusses how countries around the world can develop effective cybersecurity policies.

**Keywords:** cyber threat, banking and financial systems, financial losses, financial transactions, information security, national security, cybersecurity costs, cybersecurity policy.

## ВЛИЯНИЕ КИБЕРУГРОЗ НА БАНКОВСКО-ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ СТРАНЫ

**Аннотация.** В данной статье на основе подробных статистических данных показаны негативные стороны воздействия киберугроз на банковско-финансовые системы многих стран мира. К их числу можно отнести финансовые потери из-за киберугроз, ущерб репутации банковско-финансовой системы, сбои в рабочем процессе, несоблюдение нормативных требований и другие. Кроме того, в статье рассматривается, как страны всего мира могут и должны сегодня разработать эффективную политику кибербезопасности.

*Ключевые слова:* киберугроза, банковско-финансовые системы, финансовые потери, киберпреступники, финансовые операции, информационная безопасность.

## INTRODUCTION

Бугунги кунда кибертахдидлар бутун дунё бўйлаб банк ва молия тизимлари учун жиддий муаммога айланди. Кибертахдидларнинг мамлакат банк ва молия тизимига таъсири жиддий бўлиши мумкин, бу молиявий йўқотишлардан тортиб обрўга путур этказиши ва хатто муҳим инфратузилманинг бузилишигача олиб келиши мумкин. Интернетда қанчалик кўп молиявий операциялар амалга оширилса, киберхужумлар хавфи шунчалик юқори бўлади.

## MAIN PART

Мамлакатнинг банк ва молия тизимига таъсир қилиши мумкин бўлган кибертахдидлар йўқотишларидан бири бу молиявий йўқотишлар ҳисобланади. Кибержиноятчилар банк ҳисоб варақларидан пул ўғирлашлари, молиявий маълумотларни манипуляция қилишлари ва жисмоний шахслар ва молия институтлари учун катта молиявий йўқотишларга олиб келадиган фирибгарлик фаолияти билан шуғулланишлари мумкин. 2021 йилда кибертахдид альянси Cyber Threat Intelligence Estimate томонидан келтирилган маълумотларига кўра, 2020 йилда молия секторига қарши кибержиноятлар 17 фоизга ошган. IBMнинг маълумотлар тарқалиб кетиши ҳақидаги ҳисоботида кўра, 2020 йилда бутун дунё бўйлаб молиявий институтлар учун маълумотлар бузилишининг ўртача қиймати 5,85 миллион долларни ташкил этди. Банк ва молия тизимларида киберхужумлар ортидан келадиган зарарлардан яна бирига уларнинг обрўсига путур етаётганликни киритиш мумкин. Киберхужумлар банклар ва молия институтларининг обрўсига ҳам путур этказиши мумкин. Агар киберхужум молиявий йўқотиш ёки маълумотлар чиқиб кетишига олиб келса, мижозлар банк еки молия муассасасига ишончини йўқотишлари ва натижада бизнес ва даромад йўқолишига олиб келиши мумкин.

Киберхужум оқибатида банк ёки молия институти иш фаолияти техник жиҳатдан бузилиши мумкин, бу эса хизмат кўрсатишда узилишлар ва кечикишларга олиб келади. Бунда мижозлар ўз ҳисобларига киришлари ва молиявий операцияларни амалга оширишлари борасида муаммоларга дуч келишлари мумкин, бу эса охиргиларнинг умидсизликка тушишига ва содиқлигининг йўқотишига олиб келади.

Бундан ташқари, банклар ва молия институтлари қатъий тартибга солиш талабларига риоя қилишлари шарт ва бунда маълумотларнинг бузилиши ёки бошқа хавфсизлик ҳодисаларига олиб келадиган киберхужум тартибга солувчи органлар томонидан жарима ёки санкцияларга олиб келиши мумкин.

Кибертахдидлар мамлакатнинг банк ва молия тизимига яна қандай таъсир қилиши мумкинлиги ҳақида қўшимча маълумотлар келтириб ўтишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- тизимли хавф. Йирик молия институтига киберхужум мамлакатнинг бутун банк ва молия тизими учун тизимли оқибатларга олиб келиши мумкин. Мисол учун, агар йирик банк киберхужумга учраса, бу унинг транзакцияларни қайта ишлаш қобилиятига таъсир этса, бу клиринг ва ҳисоб-китоб хизматлари учун ушбу банкка таянадиган бошқа банклар

ва молия институтларига таъсир қилиши мумкин. Бу молиявий бузилишлар ва йўқотишларнинг домино эффектига олиб келиши мумкин.

- юридик жавобгарлик. Молиявий институтлар киберхужумлар натижасида етказилган зарар учун қонуний жавобгарликка тортилишлари мумкин. Бунга мижозлар томонидан етказилган зарарлар, шунингдек, молиявий хизматлар учун зарар кўрган муассасага таянадиган бошқа молия институтлари ёки корхоналар томонидан етказилган зарарлар киради.

- миллий хавфсизликка таъсири. Банклар ва молия институтларига киберхужумлар миллий хавфсизликка ҳам таъсир қилиши мумкин. Мисол учун, мамлакатнинг молиявий тизимини бузадиган киберхужум мамлакатнинг халқаро савдо ва молиялаштириш қобилятига таъсир қилиши, иқтисодий ва геосиёсий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Бугунги кунда банклар ва молия институтлари ўз тизимлари ва маълумотларини кибер таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун киберхавфсизликка катта маблағ сарфлашлари керак бўлади. Бу шифрлаш ва хужумларни аниқлаш тизимлари каби хавфсизлик чораларини амалга оширишни ўз ичига олади. Аммо айтиб ўтиш жоизки, ушбу чоратadbирлар қимматга тушиши ва киберхавфсизлик харажатлари молиявий институтлар, айниқса кичикроқ ташкилотлар учун катта юк бўлиши мумкин.

### **CONCLUSION**

Умуман олганда, кибертаҳдидларнинг мамлакат банк-молия тизимига таъсири сезиларли бўлиши мумкин. Молиявий институтлар ушбу салбий таъсирларнинг олдини олиш учун ўз тизимлари ва мижозлар маълумотларини кибертаҳдидлардан ҳимоя қилиш учун доимий ва фаол равишда чоралар кўришлари керак булади.

Шундай қилиб, кибер таҳдидларнинг мамлакатнинг банк ва молия тизимига таъсири кенг қамровли ва муҳим бўлиши мумкин. Молиявий институтлар киберхавфсизликка жиддий ёндашишлари ва ўз тизимлари ва маълумотларини кибер таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун кучли хавфсизлик чораларини кўришлари керак. Бундан ташқари, ҳукуматлар ва тартибга солувчилар банк ва молия тизимларига киберхужумлар хавфини юмшатиш учун самарали киберхавфсизлик сиёсати ва қоидаларини яратиш учун биргаликда ишлаши керак бўлади.

### **REFERENCES**

1. Global Economic Forum. The Global Risks Report 2017. 12th Edition [Электронный ресурс]. URL: <http://wef.ch/risks2017>.
2. Kopp E., Kaffenberger L., Wilson C. Cyber Risk, Market Failures, and Financial Stability. Working Paper, 2017. International Monetary Fund. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.imf.org/~media/Files/Publications/WP/2017/wp17185.ashx>.
3. Peters Gereth W., Shevchenko P. V., Cohen D. R., Maurice D. Understanding Cyber Risk and Cyber Insurance, FinTech: Growth and Deregulation. [Электронный ресурс]. URL: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3065635](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3065635).
4. Cebula J. J., Young L. R. A Taxonomy of Operational Cyber Security Risks, Carnegie Mellon University. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.sei.cmu.edu/reports/10tn028.pdf>.



5. Committee on Payments and Market Infrastructures and International Organization of Securities Commissions, Guidance on Cyber Resilience for Financial Market Infrastructures. June 2016. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.bis.org/cpmi/publ/d146.htm>.
6. Federal Bureau of Investigation, Internet Crime Report. 2016. [Электронный ресурс]. URL: [https://pdf.ic3.gov/2016\\_IC3Report.pdf](https://pdf.ic3.gov/2016_IC3Report.pdf).
7. Eling M. What do we know about cyber risk and cyber risk insurance? // The Journal of Risk Finance. 2017. Iss. 5. P. 474-491.

### ЖАДИД АДАБИЁТИДА ТЎЙ МАВЗУСИ

Келдиёров Илхом Норқобил ўғли

Эргашова Моҳинур Шухратовна

Термиз давлат университети адабиётшунослик йўналиши

2-босқич магистрантлари

Махсуда Бердимуратова

Илмий раҳбар: Дотс.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971640>

**Аннотация.** Ушбу мақолада тўй маросими юзасидан Ўзбекистон ҳукуматининг чиқарган қарорлари, маърифатпарвар шоирларнинг, жадидларнинг бадиий асарлари ва мақолаларидаги бу маросим борасидаги фикр-мулоҳазлари, танқидий қарашлари ёритилган.

**Калим сўзлар:** Тўй, исрофгарчилик, жаҳолат, танқид, фармон, тақиқлаш, тартибга солиш.

### WEDDING THEME IN MODERN LITERATURE

**Abstract.** In this article, the decisions of the Uzbek government regarding the wedding ceremony, the opinions and critical views of enlightened poets, modern poets about this ceremony in their artistic works and articles are covered.

**Key words:** Wedding, extravagance, ignorance, criticism, decree, prohibition, regulation.

### СВАДЕБНАЯ ТЕМА В ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** В этой статье указ правителя о свадьбе, выделены критические мысли и взгляды поэтов и джадиды на этот обряд.

**Ключевые слова:** Свадьба, экстравагантность, невежество, критика, указ, запрет.

"Миллатнинг манфаати учун ҳаракат қилмаган одам охираат саодатига эришолмайди".

Абдурауф Фитрат

Ўзбек халқининг жону қонига сингиб кетган маросимларидан бири бу тўйдир. Ҳатто халқимизнинг эртаку халқ дostonлари ҳам "Қирқ кечаю қирқ кундуз тўй қилди" ибораси билан ниҳояланиши ҳам одатга айланган. Аслида бир қарашда хурсандчилик манбайи сифатида воқе бўладиган, кишиларни бир-бир билан яқинлаштириб, ўзаро меҳр-муҳаббат уйғотадиган бу маросим сўнгги йилларда оддий халқ учун зарардан бошқа нарса беролмайдига тузалмас бир дардга айланди. Шу сабабли 2019-йилнинг 14-сентябрида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Қонунчилик палатаси кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг кенгаши "Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларни тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш" тўғрисидаги № 2736–III/КҚ-592 сонли қўшма қарорига мувофиқ, мамлакатимиздаги маросимлар қонунан тартибга солинди ва тўйлардаги дабдабазликларнинг олдини олиш мақсадида чора-тадбирлар ишлаб чиқилди.

Халқимиз тарихига назар солсак, бу каби қарор ва фармонлар Бухоро амири Саид Олимхон (1910-1920) ҳукумронлигининг илк йилларидаёқ, яъни 1911-йилнинг март ойида

тўйлардаги шухратпараслику исрофгарчиликларнинг олдини олиш мақсадида "Жуда исрофли тўйларни тугатиш" тўғрисида фармоннинг мавжудлигини билишимиз лозим. Ўша даврда тўйлардаги "ким ўзарлик" пойгаси шунчалик авжига минганлигини ушбу фармондаги жазо чораларининг қаттиқлигидан ҳам билса бўлади. Унга кўра, тўйларда кўпқари, пойга тадбирлари бекор қилинган, унга амал қилмай ўзбошимчалик қилганларга ўлим жазоси тайинланган. Меҳмонларга 6-7 хил овқат бериш, тўн тарқатиш тақиқланиб, паловдан бошқа овқат берганларни 75 дарра уриш жазоси белгиланган. Ушбу фармон миллий кадриятларни сақлаган ҳолда маросимлардаги исрофгарчиликларни маълум миқдорга чеклаганлиги билан аҳамиятга моликдир.

Халқ ҳаётининг барча икир-чикирлари, жаҳолат оқибатида юзага келган чиркинликларидан хабардор бўлган миллатнинг маърифатпарвар адиблари мақолалари, асарлари орқали халқнинг кўзини очиш, ўзига ўзи чоҳ қазийганлигини тушунтиришни мақсад қилган. Хусусан, Муқимий "Тўйи Иқонбачча" ҳажвиясида тўй мотиви орқали мустамлакачилик сиёсатини қаттиқ қоралаган. Ҳатто бу халқнинг орзу-истаклари, қувончлари-да эрксизликка маҳкумлиги биргина тўй воқеа-ҳодисалари мисолида жонли тасвирланган. Асарда тасвирланган тўй бошдан оёқ заҳарҳанда кулгига йўғрилган. Шоир Муқимий ҳажвиядаги хўжайиннинг "Ман ризомас кишига нон берсанг", "Туйнигиндан агарда чикса тутун", "Бўлса умидингиз агар биздан" каби шартли дағ-дағалари оқибатида боши берк кўчага кириб қолган Иқонлик хизматкор мисолида ноҳақлик, зулм остида эзилган халқ қиёфасини рангли бўёқларда чизади.

Ўзбек драмачилигида "Падаркуш"дан сўнг ёзилган "Тўй" драмасыда Бехбудийнинг таъбири билан айтганда, тўй номли қаттол душман жаҳолатнинг айни сабаби, бош дастаги сифатида эътироф этилган. Муаллифлар саводсиз, алифни кўрса, таёқ дейдиган бой ва унинг атрофидаги ўзи каби жоҳилларга илм-маърифатли, кенг фикрли, узоқни кўра биладиган банк мирзосини қарши қўяди. Хусусан, мирзо хатна қилиш суннат бўлса-да, бутун бошли тўйга ўн беш минг сўм сарф этишнинг аҳмоқлик эканлигини, ундан кўра ушбу пулларни фарзандининг илм олишига йўналтириши афзаллиги каби манфаатли фикрига бой: "Шунча ота-бобомиздан қолган урф-русумни сани бир оғиз гапинг билан барҳам берамизми?"[5,161] дейиш орқали аслида катта тўй қилиб бойлигини кўз-кўз қилишни, қилаётган хатнаси бошқаларнинг тўйидан "... бир парда зиёд" бўлишини, халқ ичида овоза бўлишни мақсад қилган бой ўзини аждодларидан қолган кадриятларнинг муносиб посбонидек тутуди. Бу каби кимсалар ҳақида Ҳожи Муин "Тўй ва аза маросими ҳақида" номли мақоласида шундай дейди: "...диннинг амр ва наҳйилариндан юздан бирига амал қилмагон ҳолда, ота-боболаридан қолгон урф ва одатлардан четга чиқмаслиқ учун бор кучи ила тиришадир"[1].

Шунингдек, драматург Ҳожи бобо тилидан биз билан бир тилда сўзлашувчи қариндош, диндош бўлган Туркия давлатининг Истанбул шаҳрида ўттиз-қирқ кишилик ихчамгина ўтган бир тўйни ҳикоя қилиш орқали икки мусулмон халқининг бу маросимга муносабатини, бири мустамлака, бири сиёсий жиҳатдан мустақил бўлган бу икки давлат иқтисодий, ижтимоий, маънавий тараққиётнинг қайси босқичида эканлигини ўқувчига намоён этади. Драма сўнгида мирзонинг исрофгарчилик сабаб хонавайрон бўлган бойга қарата айтган қуйидаги сўзлари ҳамма замонларда ҳам долзарблиги билан аҳамиятга эга: "Бизларни илмсизлик шаробхўр қилди, жувонбоз қилди, аҳмоқ ва исрофкор қилди... Бошқа

миллатлар топган пуллари илм ва маориф, дин ва миллат йўлига сарф қилуб кундан кунга тараққий қилсалар, бизлар жаҳолат ва нодонлигимиз сабабидан топган молимизни ҳатто боғ ва ҳовлиларимизни сотуб, тўй ва аза, базм ва кўпкорига харажот қилиб, ўзгаларнинг бир парча нонига муҳтож хор-зор бўлмакдамиз"[5,171].

Асар муаллифлари драма орқали халққа маърифат ойнасини тутиб, мақсадли харажат қилиш, исрофгарчиликдан, бемаъни одатлардан воз кечишга чақиради. Мисол тариқасида фикран, ахлоқан таназзулга юз тутган бойнинг ҳаёт йўлини келтиради, унинг тутган йўлини қоралайди ва юз берган воқеа-ҳодисаларнинг барчасига илмсизлик сабабчи эканлигини уқтиришни мақсад қилади.

М.Беҳбудий "Бизни кемиргувчи иллатлар" мақоласида бошдан оёқ тўй, аза каби маросимларни иллат деб атайди ва бу каби маросимлар учун халқнинг исроф қилиб сарф этаётган маблағига, вақтига ачиниб қуйидаги аччиқ ҳақиқатларни ёзади: "Шаҳарларда ўртаҳол, яъни ўтурага хона ва боғи бор бир киши никоҳ учун икки минг сўм сарф этар ва ўғул хатнаси учун ҳеч бўлмаганда минг сўм", "...тўй бўлдими, ҳар ким ишини, деҳқончилигини кўюб, отланиб кўпқарига кетар. Деҳқон учун олтундан азиз вақт фавт бўлди-кетди"[3,338-342].

Муаллиф тўйларнинг ким ўзарга қилинаётганига ва исрофгарчиликлар оқибатида хонавайрон, ғариб бўлган, бўлаётган халқнинг ҳолига, уларни ғарибликка гирифтор қилаётган қоқоқ тафаккурига чин дилдан ачиниб: "Биз девонами? Биз таклифдан ташқарими, Худо учун сўйлангиз. Биз нима?! "[3,338-342], дейди. Адиб ўзи англаб етган ҳақиқатни, баҳам кўрган фикрларини қувватлаш учун Қуръондаги "Ло талаққу би ядикум ала таҳликкатиҳи" [3,338-342], яъни ўз қўлларингиз ила ўзингизни таҳликага отмангиз", оятини инкор этиб бўлмас далил сифатида келтиради.

М.Беҳбудий халқнинг маросимлар учун сарф этаётган катта-катта маблағларини, увол бўлаётган вақтини илм, дин йўлига ишлатишни ва бунинг натижасида жаҳоннинг тараққий этган давлатлари қаторида бўлишни чин дилдан хоҳлайди, орзу қилади. Юрт, миллат, дин манфаати учун энг мақбул йўл, нажот йўли шу эканлигига иймон келтиради.

А.Қодирий насри ҳақида кўплаб фикрлар билдирилган, аммо адиб шеърини тўплам яратмаган бўлсада, ижодини шеър ёзишдан бошлаган. Шулардан бир адибнинг шоир сифатидаги илк шеъри "Тўй" шеърини. Мустамлака сиёсати оқибатида қашшоқликка юз тутган халқнинг қалбида тўй маросими ва ундаги дабдабалар оғир бир дардга айланиб улгургани. Бу ҳолат Абдулла Қодирий каби буюк шахснинг қалбини жунбушга келтириши табиий эди. Муаллиф шеърда тўй маросимини "Кори мажус, кори шайтон" деб атайди, чунки бу маросимни на шариат, на Қуръони карим биз мусулмонларга буюрмаган. Шундай бўлса-да адиб тўй маросимининг ёр-дўстлар, биродарлар билан яқинлаштирадиган, орадаги гина-адоватларни унуттирадиган хусусиятларини ҳам инкор этмайди, аммо ўзини мусулмон деб биладиганларга фақирларни хонавайрон қилаётган, мулкидан, тандаги жонидан айирган, умрини хазон қилиб, ер билан яксон этаётган тўйдан воз кечишни сўрайди, "Ташласун" дея хитоб қилади.

Тўй мотиви А.Қодирийнинг бошқа жанрдаги асарлари, бинобарин, "Бахтсиз куёв" пьесаси, "Улоқда" ҳикояси, "Ўткан кунлар" романларида ҳам акс этган. Хусусан, "Бахтсиз куёв" драмасида Солиҳ ва Раҳима исмли ёшларнинг бўлажак тўйи ва ушбу тўй тафсилотлари асносида сюжет динамикаси вужудга келади. Воқеалар тўрт парда давомида

босқичма-босқич ривожланиб, ўзининг кульминацион нуктасига кўтарилади кўтарилади. Драма ҳақида Собир Мирвалиев ўзининг "Абдулла Қодирий кашфиёти" номли асариде: "...1914-йилда яратган "Тўй" номли шеърдаёқ бундай бидъат тўйларни қоралаш сари борган эди. Чамаси шеърда ифодалаб улгурмаган тўй исрофгарчиликлари ва унинг оқибатида рўй бериши мумкин бўлган бундай фожиалар уни ушбу фожиа асарни ёзишга онгли равишда тортган бўлса, ажаб эмас"[4,52], -деб ёзади.

Асарда ота-онасидан эрта ажралган, бир бошига ўзидан бошқа биров қайғурмайдиган, бировнинг эшигида хизматкор бўлиб кун кўрадиган, ўн гулидан бир гули очилмаган йигирма беш ёшли Солиҳга шундоқ ҳам машаққатли ҳаёти, атрофидаги инсонларнинг жоҳиллиги, тафаккурсизлиги сабаб янада оғирлашади. Кўрпасига қараб оёқ узатишни маъқул биладиган Солиҳ амакиси Абдурахимнинг қистови билан отасининг дўсти Файзибойнинг кизига уйланишга қарор беради ва охир-оқибат қайсар, оқибатини ўйлаб иш қилмайдиган, атрофдагиларига кўр-кўрона тақлид қиладиган Файзибойнинг хархашалари орқасидан керагидан ортиқ тўй харажатлари учун ижарахўр бойдан отасидан қолган ёлғиз уйини гаровга қўйиш эвазига қарз кўтаради. Шу ўринда адиб Файзибойнинг илмсизлиги ортидан фожиа учун замин тайёрлайди ва қарзини тўлай олмай боридан ажралиб, орига чидолмаган Солиҳ ҳамда аёли ўз жонларига қасд қилади.

А.Қодирий драманинг бошқа қаҳрамонларидан илман, фикран тубдан фарқ қиладиган, шариат қонун-қоидаларини ўзига дастур ул-амал қилиб олган мингбоши образини "ўрганган кўнгил ўртанса қўймас", - деганларидек кўнгли назр-у ниёзларга ўрганиб қолган домла-имом ва мустақил фикри йўқ Файзибой образларига қарши қўяди. Адиб ушбу икки карама-қарши фикрли инсонларнинг тўй юзасидан суҳбати орқали асарда илгари сурган ғояни китобхонга ошқора намоён этади ва қадам-бақадам конфликт ипини таранглашириб, персонажлар қиёфасини ёрқинлаштириб боради. Бинобарин, Карим мингбошининг фикрлари нечоғлик тўғри эканлигини асар сўнгида фарзанди устида ёш тўкаётган Файзибойга, ушбу ҳолатга гувоҳ бўлиб турган китобхонга, пьеса томошабинларига мурожаатидан: "Шариати Мустафога бўюнсунишлар, энди кўзларингизни очинглар. Бидъат тўйга исроф бўладурган оқчага ўғлингизларни ўкутинглар, ёки жамияти хайрияга иона қилинглар. Ўғул ўкутмоқ яхши ҳам фарздур, тўйга исроф қилмоқ бидъатдур"[5,193] каби маърифатпарварликка йўғрилган фикрларидан билиб олиш мумкин.

Хулоса сифатида шуни эътироф этиш лозимки, жадидлар мустамлака ҳолатда, йўғон чўзиладиган, ингичка узиладиган бундай шароитда халқнинг исрофгарчиликларга тап тортмай қўл уришини қоралашган. Илмсизлик оқибатида кундан кунга авж олиб бораётган бидъат тўйларни тўхтатиш учун баҳоли қудрат ҳаракат қилишган ва ўз асарлари, фавқулодда ўткир мақолаларидаги реал фикрлари орқали миллат тараққиётига тўсик бўлаётган бу каби тўйларнинг нечоғлик зарарли ва самарасиз эканлигини халққа тушунтирмоқ учун бел боғлашган.



#### REFERENCES

1. Ҳожи Муин "Тўй ва аза маросими ҳақида"///"Меҳнаткашлар товуши" газетаси, 1919 йил, 22 март.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-5153833>
3. Маҳмудхўжа Бехбудий "Бизни кемиргувчи иллатлар"///"Ойна» журнали, 1915 йил. № 13. 338-342 бетлар.
4. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий кашфиёти. - Тошкент: "Машхур пресс", 2018. – Б. 208
5. Ризаев Ш. Жаид драмаси. Тошкент: Шарқ, 1997. – Б 320.

## ARUZ VAZNI IMKONIYATLARI VA CHO'LPON SHE'RIYATIDA ARUZ VAZNI

**Boboqulova Nafosat Qaxorovna**

TerDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971700>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada she'r va ohang butunligi, vaznlar tasnifi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, aruz vaznining kelib chiqish tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlariga ham to'xtab o'tilgan. Cho'lponning aruz vaznidagi she'rlaridan ham namunalar keltirilib, tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar.* She'riy vaznlar, ritmik nutq, aruz, barmoq, erkin vazn, she'rshunoslik.

### THE POSSIBILITIES OF ARUZ VAZNI AND ARUZ VAZNI IN CHOLPON'S POETRY

*Abstract.* This article discusses the integrity of the poem and melody, and the classification of weights. Also, the history of the origin of Aruz weight and its specific features are also discussed. Samples of Cholpon's poems in Aruz weight were also given and analyzed.

*Key words.* Poetic weights, rhythmic speech, aruz, finger, free weight, poetry.

### ВОЗМОЖНОСТИ АРУЗ ВАЗНИ И АРУЗ ВАЗНИ В ПОЭЗИИ ЧОЛПОНА

*Аннотация.* В данной статье рассматривается целостность стихотворения и мелодии, а также классификация весов. Также рассматривается история происхождения гири аруз и ее особенности. Также были даны и проанализированы образцы стихотворений Чолпона в весе Аруз.

*Ключевые слова.* Поэтические веса, ритмическая речь, аруз, палец, свободный вес, поэзия.

She'r ohang jihatidan ma'lum bir qolipga solingan, ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari ifodasi sifatida vujudga kelgan **ritmik nutqdir**. Nutqning bu tarzda qolipga solinishi she'riy vazn yoki she'riy tizim deb ataladi. **Vazn nutqni o'lchash**, guruhlash va muayyan tizimga solishga xizmat qiladi, uning musiqiyliigi va ohangdorligini oshiradi. O'zbek she'riyatida asosan uchta: **barmoq, aruz va erkin vaznlar** qo'llanilib kelgan. Har bir millat adabiyotidagi she'riy vaznlar o'sha xalq tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga eng ko'p mos keluvchi she'riy tizim milliy vaznimiz hisoblangan barmoq vaznidir. Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlar sonining bir xil miqdorda takrorlanishi va guruhlanishiga asoslanadi. Bu tizimda bo'g'inlarning sifati, ochiq yoki yopiqliigi muhim emas. O'zbek she'riyatiga XX asrda kirib kelgan erkin vazn esa bo'g'inlar miqdorining turli-tumanligi, qofiyalanish va bandlarda erkinlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Turkiy she'riyatga arab va fors adabiyoti orqali kirib kelgan **aruz tizimida** bo'g'inlarning miqdoridan tashqari qat'iy sifati: **cho'ziq va qisqaligi** ham muhim ahamiyat kasb etadiki, bu o'zbek kitobxonlari uchun muayyan murakkablikni vujudga keltiradi. Maqolamizning asosiy maqsadi esa ana shu murakkablikni muayyan darajada bartaraf etishda she'riyat ixlosmandlariga oz bo'lsa-da ko'maklashishdan iborat.

VIII asrga kelib arab olimlari orasida she'riyat va xalq og'zaki ijodi orasidagi munosabatni o'rganish, ularning muayyan qonuniyatlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Bu vazifa haqli ravishda «arab filologiyasining otasi» deb e'tirof etiluvchi olim Xalil ibn Ahmad (715/719 – 786/791) tomonidan amalga oshirildi. U aruz ilmini bir butun tizim holiga keltirdi va uning nazariy

asoslarini ishlab chiqdi. «Aruz» soʻzining koʻplab lugʻaviy maʼnolari bor. Adabiy istiloh sifatida ularning qay biri asos qilib olingani aniq emas. Bu borada olim va ijodkorlar tomonidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir qancha fikrlar bildirilgan. Ulardan bir nechtasini keltirib oʻtamiz: 1. **Vodiy nomi.** 2. **Makka shahrining nomlaridan biri.** 3. **Taraf, jihat, mintaqa, yon.** 4. **Bulut.** 5. **Sarkash tuya.** 6. **Chodirning oʻrta ustuni.** 7. **Oʻlchov.** Endi ushbu fikrlarning izohi bilan tanishsak. Alisher Navoiy oʻzining «Mezon ul-avzon» (Vaznlar oʻlchovi) asarida aruz ilmining asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan hudud yaqinida Aruz degan vodiy borligi haqida maʼlumot beradi. Bu vodiyda arablar chodirdan uylar tikib, ularni bezatib sotar ekanlar. Uyni «bayt» deb atasharkan. Baytning mavzun-nomavzun (vaznli-vaznsiz) ekanligini aruz fanining oʻlchoviga solib koʻrishganidek, bezatilgan uylar ham bahoga solib oʻlchab koʻrilar ekan. Shu tariqa mazkur ilm ushbu vodiy nomi bilan «aruz» deb atala boshlangan. Manbalarda, xususan Sayfiy Buxoriyning «Aruzi Sayfiy» asarida aytilishicha, Xalil ibn Ahmad Makkada oʻziga yangi ilhom ato etilishini tilab duo qiladi. Duosi ijobat boʻlib, aruz ilmiga asos soladi va uni Makkaning nomlaridan biri boʻlgan soʻz, yaʼni Aruz nomi bilan ataydi. **Aruz sheʼrshunoslik** ilmining bir qismidir. Uning «taraf, yon» degan maʼno anglatishi sheʼr ilmining bir tarafi degan mazmun bilan bogʻliq. Baʼzi rivoyatlarga koʻra, aruz muammolarning yengil hal etilishiga olib borgan yoʻl ramzi boʻlmish bulutga oʻxshaydi. Sheʼr vaznining toʻgʻri yoki yanglish ekanligi shu ilm orqali aniqlangani uchun ham «aruz» soʻzi bulut degan maʼnoga ham nisbat berilgan. 8 Aruz vazni tuya yurishining ritmidan olingan degan rivoyatlar ham mavjud. Badaviylar tuya sahroda yurishni xohlamay, sarkashlik qilgan paytda uni tezlatish uchun maxsus qoʻshiqlar kuylaganlar va bu qoʻshiqlar ohangi aruz vaznining vujudga kelishi uchun asos boʻlgan degan qarashlar bor. Aruz tizimiga xos boʻlgan koʻplab istilohlar ham tuya hayoti bilan bogʻliq soʻzlar asosida vujudga kelgan deyish mumkin. Aruz sheʼriy tizimi arablardan forsiy va turkiy adabiyotga keng yoyildi. Hijratning ilk asrlarida Arab xalifaligi butun Eronni fath etdi. Qadimiy Sosoniylar davlati madaniyati tomir otgan bu hududlarga islomiyat va arablar bilan Qurʼoni Karim va u ifodalangan til – arab tili kirib keldi. Natijada sheʼriyatda ham asta-asta arablarga xos yangilanishlar boʻy koʻrsata boshladi. Turkiy adabiyotda islomdan avval oʻziga xos maxsus nazm texnikasi boʻlgan va bu tizim boʻgʻinlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan sheʼrlarning aksariyat qismi toʻrtliklardan iborat boʻlishi bilan ahamiyatli edi. Kuzatuvlarga koʻra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari «Shohnoma» vaznida, yaʼni mutaqorib bahrida yozilgan. Yusuf Xos Hojibning aynan shu oʻlchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida mutaqorib bahrining turkiy xalqlar sheʼriy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan boʻlgan oʻn bir boʻgʻinli vazniga juda uygʻun ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning «Hibat ul-haqoyiq» asarida ham ushbu oʻlchov toʻrtliklar shaklida ifoda etilgan. Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishida buyuk mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiy ijodining oʻrni beqiyos. Navoiy oʻzining aruz qonunqoidalariga bagʻishlangan «Mezon ul-avzon» asarida 19 bahr, 160 vazn haqida maʼlumot beradi, har bir vaznga turkiy tilda misollar keltiradi. Shoir sheʼriyatining gultoji hisoblanmish «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotining oʻzida 13 bahr, 90 ga yaqin vazn istifoda etilgan. Agar bunga buyuk mutafakkirning epik sheʼriyati, forsiy tildagi sheʼrlarida qoʻllanilgan vaznlarni ham qoʻshib hisoblaydigan boʻlsak, mazkur koʻrsatkich 100 dan ortadi. Ularning barchasi aruz tizimi turkiy

she'riyatning ajralmas qismiga aylanganligini bildirish barobarida bu she'riy tizimning turkiy til qonuniyatlariga naqadar mos kelishini ham isbotlab beradi.

Bu o'rinda Cho'lponning ham aruz vaznida yozilgan she'rlarini tahlil qilamiz. Masalan, 1920 yilda yozgan she'rlarini olaylik. Ularning aksariyati bevosita o'sha yili 1 — 5 sentyabrda Bokuda bo'lib o'tgan Sharq xalqlari qurultoyi taassurotlari ostida yozilgan. Shunda Turkistondan butun boshli bir poyezd borgan. Xorijdan ham vakillar kelganlar. Keng miqyoslarga chiqish vakillarimizning o'zliklarini anglashga yordam bergan. Vakillar orasida Cho'lpon ham bor edi. U o'zining «**Qalandar ishq**», «**Yorug' yulduzga**» she'rlari ostiga «Boku, 1920 yil» deb qo'ygan. Birinchisiga «**eski tartibda**» deb izoh beradi. Bu bilan uning shakli-mazmuniga, ya'ni **aruzda, an'anaviy muhabbat mavzuida yozilganligiga ishora** qiladi. Darhaqiqat, she'r janriga ko'ra g'azal bo'lib,

*hazaji musammani solim (mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun, mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*-da yozilgan. Uning matlasi (birinchi bayti) quyidagicha:

***Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,  
Asrlik tosh yanglig' bu xatarli yo'lda qotdim-ku.***

Mazmun ham ishqiy. Birgina «asrlik tosh», «xatarli yo'l» va unda «qotmoq» ishqiy mazmundan uzoqroqday tuyuladi. Qolgani — **an'anaviy**. Ohang — **ravon, dard — samimiy**.

***Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,  
Halokat bo'lg'usin bilmay, qulochni katta otdim-ku.***

Karashma birovga yoqish uchun qilinadigan nozli, yoqimli xatti-harakatdir. Shoir uni dengizga qiyos qilayapti. Yoqimli dengiz, muallif nazdida uning po'rtanali ham, osoyishta ham payti emas. Yengil chayqalib turgan holati. Ohista chayqalgan dengiz kishini o'ziga rom etib, unga tushgan kishini ichkarilarga olib ketib qolganiday ma'shuqaning ham yoqimli hara-katlari oshiqni sehrlab, oxiri nima bilan tutashini aytib bo'lmaydigan holga keltirib qo'ygan. She'rda mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan mana shu ruhiy va moddiy holatlarning ayni bir matnda jamlanishi yaqqol ko'rinib turibdi. Ayni paytda, bu yerda aldanganlik e'tirofi, hatto uning yengil iztirobi ham bo'rtib turibdi.

Navbatdagi baytda muqoyasa boshqa yo'nalishga ko'chiriladi:

***Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,  
Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.***

Karashmadan boshlangan gap ishqqa, undan esa, bu yo'lda eng muqaddas narsalarni barbod etganlik e'tirofiga va uning ham yengil iztirobiga kelib bog'lanmoqda. Va she'r shu taxlit shoir kechinmalarining ruhiy va moddiy olam vositasidagi e'tirof va iztirobga qurilgan muqoyasasi asosida davom etadi. Ko'ringanidek, uning an'anaviyligiga, ishqiyiligiga shubha yo'q. Shu bilan birga, u faqat ishqiy doirada qolgan deyish ham to'g'ri bo'lmaydi. E'tirof va iztiroblar deyarli hamma o'rinda aldanish va pushaymon ma'nolarini ham tashiydiki, bu xohlang-xohlamang, sho'rolarni bilib bilmay etagidan tutgan juda ko'p millatparvar ziyolilarimizning o'sha kunlardagi tuyg'ulariga esh edi. Bu holni g'azalning pushaymon armon darajasiga ko'tarilgan maqtasida ham ochiq-oydin kuzatish mumkin:

***Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay, yerga botdim-ku.***

Shubha yo‘qki, «Cho‘lpon» va «Quyosh»ning ma‘nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritqichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy jarayonlargacha daxldor ekanligini kuzatish mumkin.

#### REFERENCES

1. Dilnavoz Yusupova. ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI. O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2018. 3-5 b.
2. Begali Qosimov. Abdulhamid Cho‘lpon. Toshkent.- 2015.
3. Afoqova Nodira. Jadid g‘azaliyoti. Toshkent.”Fan”- 2005.



## “SUHAYL VA GULDURSUN” DOSTONI MUNDARIJASIGA DOIR

Mamatqulov Botir

Termiz davlat universiteti talabasi.

Murtazayev Babanazar Xurramovich

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972487>

**Annotatsiya.** Maqolada Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” dostoni tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, qahramonlar sarguzashti, ularning faoliyatiga diqqat qaratilib, taalluqli xulosalar yasalgan. Dostonning yaratilishi, uning qiymati, tasvir voqealari, bosh qahramonlar sarguzashti badiiyati kabi hodisalar atroflicha qarab chiqiladi. Shu asarga yaqin turuvchi mos, mushtarak afsona va rivoyatlarga ham e‘tibor qaratilib, ular qiyosan o‘rganilib, ularning ahamiyati, tutgan o‘rni kabilar ham nazardan soqit etilmagan.

**Kalit so‘zlar.** Doston, xalq, ijod, qahramon, sarguzasht, ishq, sevgi, muhabbat, Temur, To‘xtamish, Suhayl, Guldursun, jang, zindon, sahro, cho‘l, qum, jazirima, chanqoqlik, tashnalik, qabr, fojia, o‘lim, qiyos, taqqos, muqoyasa.

### ABOUT THE CONTENT OF THE EPIC "SUHAYL AND GULDURSUN"

**Abstract.** The article analyzes the epic "Suhail and Guldursun" by Saifi Saroi, focuses on the adventures of the heroes, their activities, and draws relevant conclusions. Events such as the creation of the epic, its value, the events of the image, the art of the adventure of the main characters are carefully considered. Attention is also paid to common myths and legends that are close to this work, they are comparatively studied, and their significance and role are not overlooked.

**Keywords.** Epic, folk, creativity, hero, adventure, love, love, love, Temur, Tokhtamysh, Suhayl, Guldursun, battle, dungeon, desert, desert, sand, heat, thirst, thirst, grave, tragedy, death, comparison, comparison, comparison.

### О СОДЕРЖАНИИ ЭПОСА «СУХАЙЛ И ГУЛДУРСУН»

**Аннотация.** В статье проведен анализ эпоса Сайфи Сарои «Сухайл и Гульдурсун», акцентировано внимание на приключениях героев, их деятельности, сделаны соответствующие выводы. Тщательно рассматриваются такие события, как создание эпоса, его значение, имиджевые события, художественность приключения главных героев. Обращается внимание и на распространенные мифы и легенды, близкие к данному произведению, они сравнительно изучаются, не упускается из виду их значение и роль.

**Ключевые слова.** Эпос, народ, творчество, богатырь, приключения, любовь, любовь, романтика, Темур, Тохтамыш, Сухайл, Гулдурсун, битва, подземелье, пустыня, пустыня, песок, зной, жажда, жажда, могила, трагедия, смерть, сравнение, сравнение, сравнение.

“Suhayl va Guldursun” dostonini professor Abduqodir Hayitmetov (12) “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1974-yil 4-sonida so‘z boshi yozgan va Nasrullo Davron nashr ettirgan edi. Bu doston 1966–67 yillar olib borilgan izlanishlar natijasida shoir Nasrullo Davron tomonidan qo‘lga kiritiladi. Qo‘lyozma Farg‘ona, O‘zbekiston tumani Kamolxon Sultonov xonadonida saqlangan, u 1398-yili Misrda ko‘chirilgan, kotib Abul ibn Qodirdir. Qo‘lyozma mo‘jaz bo‘lib, uning muqaddimasidan so‘ng Tug‘lixoja Xorazmiy, Mavlono Is‘hoq Xorazmiy, Mavlono Ahmad Urganjiy g‘azallari beriladi. Tug‘lixoja va Mavlono Is‘hoq nomlari Sayfi Saroyi (1321–1396)ning

“Guliston bit-turkiy” qo‘lyozmasi sahifalaridagi mushoira qismida ham uchraydi. Ammo Mavlono Ahmad Urganjiy nomi she‘riyat muxlislariga, mumtoz adabiyotimiz muhiblariga ma‘lum emas edi. Qo‘lyozmaning keyingi sahifalaridan Sayfi Saroyining 2 bayti, 2 qit‘asi va 82 baytdan iborat “Suhayl va Guldursun” dostoni joy olgan.

“Suhayl va Guldursun” mundarijasi debocha ila ibtido topib, u asar mavzusini va mazmunini ifoda etadi:

Emas afsona chin ushbu bitilmish,  
Bu chin, afsonatek ishqda yetilmish (7–B.76).

davomi:

...Temur Urganja tortib keldi lashkar,  
Ko‘rub ko‘z – ko‘r, bo‘lub qoldi quloq – kar.  
O‘lib qatti so‘g‘ishdi To‘xtamishxon,  
Tiri oyridi tuvg‘ondin tug‘ushg‘on.  
Suhayl alpni elittilar asirg‘a,  
Hama qoldi bo‘lub ojiz bu sirg‘a (7–B.76).

Doston 19 baytdan iborat debochasi ila boshlanadi, dostonning 2-qismi “Suhaylning chohda yotmishi” deb nomlanadi va u 6 baytli, 3 - qism 11 baytli, uning sarlavhasi: “Suhaylning tush ko‘rishi” deyiladi. Dostonning 4-qismi: “Shoh qizi Guldursun Suhaylni ko‘rgani va uni sevib qolg‘onin bayoni” deya atalib, u 12 baytli, uning boshlanmasi:

O‘lan uzra qurulg‘on xaymada shoh,  
Zafardin shod bo‘lub yotmishdi ogoh.  
Bor erdi shoh qizi Guldursun oti,  
Tilim evrilmas aytmog‘i sifoti (7–B.77).

Dostonning 5-qismi “Guldursunning chohga tushub Suhayl bilan so‘zlashgani” tarzida nomlanib, u 10 baytli. Dostonning xotimaviy 6-qismi 24 baytli, u “Suhayl bilan Guldursunni chohdan chiqib qochganlari bayoni” deb nomlanib, ikki sevishganning kimsasiz sahro sari qochgani voqeasini hikoya qiladi. Sahro quyosh taftidan alanga sifat o‘t ichida yonmoqda:

Alar ko‘p yurdivu sahrog‘a kirdi,  
Gunashdin sahro uzra do‘zax erdi (7.–B.78).

Ochlik va suvsizlikdan, gunash – quyosh alangasidan do‘zaxga aylangan sahro qo‘ynida Guldursun hushidan ketib yiqiladi. Suhayl suv va non ilinjida behuda sahro kezadi:

Suhayl bordi toparg‘a suvg‘a, dong‘a,  
Vale darmon berolmay qoldi jong‘a(7.–B.78).

Cho‘lning otashi og‘ushida Guldursun tashnalikdan halok bo‘ladi, bu holga chiday olmagan Suhayl:

– “Menga yaxshi, – dedi, – yor birla o‘lmak,  
– Na lozim g‘am bilan dunyoda qolmak” (7.–B.78).

o‘z bag‘riga tig‘ sanchadi, ana shu bayt “Uch bulbul gulshani”dagi “Suhayl va Guldursun” (10–B.329)da ayni shu xilda, ammo ustoz N.M.Mallayev kitobida bir so‘zda farqni kuzatdik:

Menga yaxshi bukun yor bilan o‘lmak,  
Na lozim g‘am bilan dunyoda qolmak (5.–B. 261).

Dostonning oxirgi baytida uning yozilgan 796 (1394) yili qayd etiladi:

Yeti yuz to‘qson olti navro‘z oyi

Xatm etti buni Sayfi Saroyi (7–B.78).

Dostonda Amir Temur (1336–1405) va Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamishxon nomlari tilga olinadi, bunda ayrim tarixiy voqealarga ishora borligi sir emas. Amir Temur 1389–91 va 1394–95 yillar Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamishxonga qarshi yurishlar uyushtiradi, bungacha Toʻxtamishxon 1387–88 yillar Movarounnahrda hujum qilgan edi. Ana shu Toʻxtamishxonning beboshligi Amir Temurni junbushga soladi, 1394–95 yillardagi yurishlar chogʻi Shimoliy Kavkaz, Terek daryosi vohasida Toʻxtamishxon qoʻshinini tamoman tor-mor etib, Volga daryosi sohilidagi qator shaharlarni vayronaga aylantiradi, natijada Oltin Oʻrda xonligi oʻz nufuzini yoʻqotib, mayda xonliklarga parchalanib ketadi.

Amir Temur va Toʻxtamishxonning rus zaminida roʻy bergan qirgʻin barot qurolli toʻqnashuvlari ayrim afsona hamda rivoyatlarda aks etganini kuzatamiz. Shunday rivoyatlardan birini ustoz Natan Mallayev hikoya qiladi bu afsona Chelyabinsk viloyati Temurlang temir yoʻl bekatidagi Temurlang minorasi haqida Amir Temur bilan jangda Toʻxtamishxon yengilib, koʻp askarlari va oʻgʻli asirga tushadi, Toʻxtamishxon oʻgʻlining jasoratini eshitgan Temurning qizi yigitni sevib qoladi, uni zindondan ozod etadi. Sevishganlar qochib ketayotganida Temur askarlari ularni yetib oladi, tengsiz toʻqnashuvda yigit halok boʻladi, alamiga chiday olmagan qiz oʻziga xanjar sanchib oʻladi. Oshiq yigit, maʼshuqa qiz mardligiga qoyil qolib, tan bergan Temur ularni ehtirom bilan dafn ettirib, oʻsha yerda yodgorlik minorasi bunyod qildiradi. Demak Sayfi Saroyi bu xil talay afsonalar bilan tanish boʻlib, ana shular asosida oʻzining ajoyib dostonini yaratgani maʼlum boʻladi (5–B.261–262).

Ustoz Natan Mallayev yana bir “Guldursun afsonasi” nomli afsonaning mazmunini hikoya qiladi, afsonada aytilishicha qadim Qoroqolpogʻistonda koʻhna moziy zamonda Guliston degan obod shahar boʻlgan ekan. Dushman shaharni qamal qilibdi, Guliston shohi aholini mudofaaga safarbar etibdi. Qamal choʻzilib ketibdi, har ikki tomon ham holdan toyibdi, mudofaachilarning va dushmanning sillasi quribdi, oziq-ovqat taqchilligi tasiri sezilibdi. Mudofaachilar dushmanni chalgʻitish niyatida bir necha semizroq sigirga oxirgi don-dunni yedirib, sigirlarni shahar darvozasidan tashqariga chiqarib yuboribdi. Ochlikdan tinka madori qurigan dushman sigirlarni soʻyib qarashsa, ularning yaxshi boqilganiga iqror boʻlib, shahar aholisining oziq-ovqat zaxirasi koʻp ekan degan fikrga kelibdi. Dushman ketish taraddudiga tushibdi, shunda Guliston shohining yengiltak qizi Guldursun dushman lashkarboshisiga mahfiy maktub yoʻllab, unga asl voqeani anglatdi. Boisi Guldursun qala ustida jangni kuzatib dushman lashkarboshligʻini sevib qolgan edi, ehtirosi ustun kelgan togʻ qizi xiyonat yoʻliga oʻtdi. Shahar aholisi taslim boʻldi, lashkarboshi Guldursunning harakatidan xursand boʻlsa-da, otasiga sodiqlik qilmagan, menga ham xiyonat qiladi deb, qizni sochlaridan ot dumiga bogʻlab sudratib oʻldiribdi. Guliston shahri xarobaga aylanibdi, bunga sababchi boʻlgani uchun vayronaga Guldursin deb nom berishibdi.

Ustoz Natan Mallayev tagʻin ayni shunga monand bir rivoyatni mutaffakir Alisher Navoiyning “Tarixi mulki Ajam” asarida “Shopur zul Aktor” faslida kuzatadi (5–B.166). Rivoyatda keltirilishicha, Toyir degan shohning Malika nomli qizi otasi va yurtdoshlariga xiyonat qiladi. Malika ota yurti darvozasini Shopurga ochib beradi va Shopurga turmushga chiqadi, lekin Shopur otasiga vafo qilmagan menga vafo qilarmidi, deb uni qatl ettiradi (6–B.214–216).

Bu mavzuga oʻxshash yana bir rivoyat “Dol podsho va uning qizi malika Varzina haqida ertak” deb ataluvchi sheriylar ertak Boltajon Sodiqov qalamiga tegishli (9). Ayni shu mavzu bir paytlar yurtdoshimiz taniqli adib Mengziyo Safarovning “Ona tuproq qoʻshigʻi” asarida berilgan

edi. B.Sodiqov rivoyat mazmunini M.Safarov asaridan olgan (8). “Ona tuproq qo‘shig‘i”da hikoya etilishicha, “Dalvarzintepa” Surxon vohasining eng katta va ko‘rkam shaharlaridan biri ekan. Shahar Dal ismli podshohning poytaxti va uning Varzina nomli go‘zal qizi bor ekan. Shahar muxtasham va mustaxkam ekan, uning ovozasini Ali degan pahlavonning qulog‘iga yetib boripti. Ali Dalvarzin shahriga qo‘shin tortadi, buni eshitgan Dal podshoh shahar atrofidan keng va chuqur xandaqlar qazdiribti va uni suvga to‘ldiribti. Ali shaharni qamal qilibti, lekin uni zabt etish cho‘zilib ketibdi. Axiri Ali hiyla izlab topibdi, u Dal podshohning go‘zal qizini o‘ziga rom eish uchun baland dor qurdiribdi. Baland dor ustida Ali oq salla va oq yaktakda erta tongdan kech shomgacha chiroyli o‘yinlar ko‘rsata boshlabdi. Ali mohir dorboz ekan, dorda o‘ynayotgan navqiron yigitning chaqon harakatlari qiz e‘tiborini o‘ziga tortibdi. Shoh qizi bora-bora Aliga oshiq bo‘lib qoladi, bir kuni shahar ichidan ko‘k kaptar uchib kelib dor arqoniga qo‘nibdi. Kaptar bo‘ynida xat bor ekan, xat Varzinadan Aliga ekan. Qiz yigitning muddaosini so‘rabti, yigit qizni deb bu yurtga kelgani, qizini Aliga ravo ko‘rmagan Dal podshohi jazolash niyatida ekanini aytadi.

Shunday qilib yozishmalar davom etibdi, qizdan Ali shaharga suv qayerdan kelishini so‘raydi. Qiz buni batafsil tushuntirib beribdi. Shimolda To‘palang degan tog‘ daryosi oqadi, sen shu daryoni top va ikki qopga tarang qilib somon tiqib tarang qilib daryoga tashla. Qoplarni kuzatib bor. Qoplar to‘palangning Qoratog‘ daryosi bilan qo‘shilgan joyiga borganda ulkan girdobga tushib aylana boshlaydi. O‘sha joyga askarlaringni eng chaqqonlarini kirit, suv quyiladigan o‘ra bor. Shu o‘raning qopqog‘ini yopsa, shaharga keladigan suv g‘ippa bug‘iladi (8–B.142). Dal podshohning qizining vafosizligini sinovdan o‘tkazgan pahlavon Ali, sen padaringga vafo qilmading, menga vafo qilarmiding deb qizni qatl qilipti. Ko‘rinadiki, qadim zamonlarda ibtido topgan bir rivoyat turli ko‘rinishlarda zamonlar osha bizning davrgacha yetib kelishi va intihosiga yetishi hayratli hodisadir.

Suhaylu Guldursun” dostonining badiiy xususiyatlari o‘ziga xos, unda ishlatilgan qofiya tizmi, radif qo‘llash, tajnisdan foydalanish yaxshi natijalar bergan. Bularning bari shoirning san’atkorligidan dalolatdir, chunonchi tajnisdan unumli istifoda etiladi:

Suhayl xusni erur Yusufdin oli, (oliy-yuqori),  
Etar mot olmani, yuzining oli. (qizilligi)  
Biyik aramlari bor, so‘zi shirin, ( chuchuk)  
Bo‘lur oshiq oni ko‘rganda Shirin. (nom, ism.–B.76).  
Kechin bo‘lg‘ach, borib posbonga o‘tru (yoniga)  
O‘zin xohishin aytdi anda o‘tru (to‘g‘ri).  
Ko‘rub Guldursun og‘lab holig‘a yuz (sanoq son),  
Choh ichra kirdi, qo‘ydi yuzina yuz ( Yuz –chehra–B.77).  
Uchib kelmas edi qushlar bu yerg‘a, (bu yerga)  
Topilmas erdi suv tashna har erg‘a... (yigitga)  
Iloho asran Sayfi Saroying, (shoirning o‘zi)  
Xalos aylab zulmdin keng saroying ( saroy –B.78).

Chiroyli qofiya vositasida qahramon ichki ruhiyatini ochib berilishi tahsinga loyiq:

Suhayl shu yo‘l o‘za bormoqda g‘amgin,  
Sevinchi qora kiygan, ko‘zi namgin.  
Uning ko‘nglinda so‘ng‘inlik hamisha,  
Ko‘runmas unga gulzoru na besha(–B.76).

Yoki :

Va oni tashladilar katta chohga ,  
Sira osmoy alar go'sh ohu vohga.  
Gunash dunyo yuzindin chohga botti  
Uzilgan gul tekin tuproqda yotti.  
U yotgan choh icha yo'q shu'lai nur,  
O'langamas, tiriga eordi bir go'r (-B.76).

Yuqoridagi tasvirlar Suhaylning asirga olinishi va zindonga solinishi voqealariga taalluqli bo'lib, qahoamon ahvolutini anglashda ham muhimdir.

Guldursunning chohga tushib Suhayl ahvolidan voqif bo'lish voqeasi ayniqsa, bu holdagi Suhayl kayfiyati yaxshi ifodalangan:

O'nginda tushdakin ko'rganga u shod (-B.77),  
Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod (-B. 78).

Ayniqsa, sevishganlarning jazirama cho'ldagi ochlik va tashnalik ahvoli, qiynoq holati, nihoyat ularning azobda o'limga mahkum etilishi ancha diqqatli tasvirini topgan:

Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron,  
Aning tekkim bo'zuldi charxi davron.  
Alar uzra to'kuldi, ko'mdi tuproq,  
Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq (-B.78).

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. – 58 b.
2. Bobomurodov Mamat (1938–2000)ning “Varzinshoh va Dallioy” asari. Taassufki bu asar bilan tanish emasmiz.
3. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1965. – 746 b. (Xalq og'zaki ijodi. “Guldursun afsonasi”.– B.200–201).
4. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Uchinchi nashri. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1976. – 664 b.
5. Navoiy Alisher. Asarlar. 15.t. T.14. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. –272 bet. (Tarixi muluki Ajam. – B.183–238. Shopur Aktov. – 214–216).
6. Sayfi Saroyi. Suhayl va Guldursun // O'zbek tili va adabiyoti. 1974. –№ 4. –B.75–78. Nashrga tayyorlovchi Nasrullo Davron.
7. Safarov M. Ona tuproq qo'shig'i. Qissalar, esselar, hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 352 b.
8. Sodiqov Boltajon. Dol podsho va uning qizi malika Varzina haqida ertak. // Termiz oqshomi. –2012. –16-yanvar.
9. Suhayl va Guldursun // Uch bulbul gulshani: [To'plam]. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. –648 b.– (O'zbek adabiyoti bo'stoni). Mundarija: Yusuf va Zulayho (Durbek.) Gulistoni bit-turkiy (Sayfi Saroyi.–B.326–330) Xusrav va Shirin (Qutb Xorazmiy).
10. Fozilov Ergash. Kirish // Saroyi Sayfi. SHE'RLAR. GULISTON. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 256 bet (-B.3–7).



## O'QUVCHI YOSHLAR MEDIASAVODXONLIGINI OSHIRISHNING ZARURIYATI

Mahmudova Nodira Jamollidinovna

Guliston davlar universiteti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972508>

**Anontatsiya.** Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarning mediasavodxonligini oshirish yo'llari, buning zaruriyati izohlab berilgan. Chunki hozirgi globallashuv jarayonida media olamdan oqilona foydalanish ko'nikmasi har bir yosh avlod o'rganishi zarur bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Mediamadaniyatning rivojlantirilishi orqali internet tarmog'idai ma'lumotlar kerakli va unumli foydalanishga erishiladi.

**Kalit so'zlar:** mediata'lim, o'quvchi, yoshlar, tarbiya, ta'lim, ong, internet, multimedia, axborot, ma'lumot, tartib.

### НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной статье разъясняются пути повышения медиаграмотности учащейся молодежи и необходимость в этом. Потому что в нынешнем процессе глобализации способность разумно использовать мир СМИ является одной из задач, которую необходимо усвоить каждому молодому поколению. Благодаря развитию медиакультуры информация в Интернете может использоваться эффективно и рационально.

**Ключевые слова:** медиаобразование, студент, молодежь, воспитание, образование, сознание, интернет, мультимедиа, информация, информация, заказ.

### THE NEED TO INCREASE THE MEDIA LITERACY OF STUDENTS

**Abstract.** This article explains the ways to improve media literacy of young students and the need for it. Because in the current process of globalization, the ability to use the media world wisely is one of the tasks that every young generation needs to learn. Through the development of media culture, information on the Internet can be used effectively and efficiently.

**Key words:** media education, student, youth, upbringing, education, consciousness, internet, multimedia, information, information, order.

Media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi.

Media-ta'lim — bu media mahsulotlari bilan:

• muloqot madaniyatini kommunikativ imkoniyatlari tanqidiy tafakkuri media-matnini to'liq qabul qilish;

• intepritatsiya etish;

• tahlil qilish hamda baholashdan iborat.

Media-savodxonlik insonga ekranli san'atni:

• televideniye;

• radio;

• video;

• kinomotograf;

• pressa;

• matbuot internet va boshqalarni taqdim etadi.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimi-dan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi.

Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Media-ta'lim usullari asosan quyidagi muhim bosqichlarga bo'linadi:

1. Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media-texnologiyasi);

2. Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish «o'qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish» (kritik, ijodiy, intuitiv hamda obraz yaratish).

Media-ta'lim faoliyatini olib borish uchun ma'lum bir professional bilim ko'nikma va ko'rsatgichlariga ega bo'lish lozim.

Maxsus yo'naltirilgan mediata'lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng so'nggi axborotlarga ega bo'lish darajasi; motivatsiyalashgan ko'rsatgich.

Masalan, ta'lim jarayoniga:

- aqliy;
- visual;
- sensor;
- audio bo'lgan faoliyat;
- tezkor media-ta'lim sohasida metodik ko'nikmalarini darajasi, masalan, media-manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish. Ularning kelib chiqish sabablarini sharoitlarini va harakatini o'rganib tahlil etish tashviqotchilik harakatini olib borish va optimal natijani tallash.

Kreativ (ijodiy media-ta'lim faoliyatidagi ijodiy fikrlash darajasi) (mobillilik, kommunikativlik, o'ziga xoslik, tasavvurni rivojlantirish fantaziya kabi xususiyatlarga ega bo'lish).

Dunyoda media-ta'limini ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar UNESKO tashkilotining rezolyutsiya hamda tavsiyalarida media-ta'lim muhurligi alohida ta'kidlanib, media-ta'lim rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan (mediaeducation barcha turlari elektron, bosma, grafik, media va boshqalar) hamda turli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi va insonlarni quyidagi faoliyatlarga yo'naltiradi:

1. Media-matnlarni tahlil qilish tanqidiy anglash va yaratish.
2. Media-mahsulotlarni (matn, video-audio) manbalarini toppish va ularning quyidagi:
  - siyosiy;
  - iqtisodiy;
  - madaniy;
  - iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash va ularni asl ma'nosini o'rganish.
3. Media-mahsulotlarini tushunish.
4. Shaxsiy media-mahsulotlarini yaratish tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo'lish.
5. O'rganish hamda yaratgan media mahsulotlarni hayot tarzini aniqlash.

Bugungi kunda axborot olamida Internet, internet-televideniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday axborot vositalariga asosan yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas.

Ma'lumki, aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimiga yana bir muhim vazifa — bolalarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, Internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda.

Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televideniye, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda Mediata'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi.

Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikr lay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega.

Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasada, mediata'limga aniq tavsif berilmagan.

Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda. YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. 2002-

yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyligida «Mediata'lim» darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Mediasavodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsada, Respublikamiz umumta'lim maktab-larida ham mediata'lim elementlari «Adabiyot», «Tarix», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Informatika» va «Musiqqa» fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda.

Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri — yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlariga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratarkan.

Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega bo'lish zarurati yuzaga keldi. Avvalo, mediasavodxonlikning o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish lozim.

Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishdan iborat bo'lgan. «Bugun mediasavodxonlik — bu axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir.

Mediasavodxon inson o'ziga — bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishi lozim. Mazkur savollar nafaqat oila davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki Internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir», — deydi jurnalist Nargis Qosimova o'zining «Mediasavodxonlik va mediata'lim: Mohiyat» nomli maqolasida.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, medialoglar media va mediatexnologiyalarni o'rganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga bo'lganlar:

1. Dastlabki media — yozuv;
2. Bosma media — bosma nashrlar, litografiya, fotografiya;
3. Elektrik media — telegraf, telefon, ovoqli yozuv;
4. Mass-media — kinematograf, televideniye;
5. Raqamli media — kompyuter, Internet.

«Media» — lotincha «media» so'zidan olingan bo'lib, «vosita», «vositachi» yanada aniqrog'i, «ommaviy axborot vositalari» degan ma'noni anglatadi. Media uzluksiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. «Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir.

Bugun «o'rgimchak odam»ga havas qilib, o'zini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor», — deydi jurnalist o'z fikrining davomida. Bugungi axborot muhitini tushinishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir.

Yuqoridagi maqolada: «Aynan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida, dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino qahramoni sifatida his qilganlar esa, «qahramon» xatti-ha-rakatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda. ...Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish bugun zamon talabidir» — degan satrlar bayon etilgan.

Qayd etganimizdek, globallashuv, global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, Internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda.

Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:

- yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;
- media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;
- Internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;
- mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar. Bu borada, Germaniyada ushbu masalalar Yoshlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, Inson qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risidagi hamda teleradioeshittirish va telemediasizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to'g'risidagi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda «Kiberjinoyatlar to'g'risida» Konvensiya, «Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida» Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, «Bola huquqlari to'g'risida» BMT Konvensiyasini, «Yoshlarni himoyalash to'g'risida» Germaniya, «Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida» Litva va «Bolalarni sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida» Rossiya qonunlarini tilga olish mumkin.



Ma'lumki, milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunda «O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda «Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi» belgilab berilgan. Tezkor Internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Faxriddin Soliyevning «Internetdan foydalanish madaniyati» maqolasida shunday deyiladi: Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida «nosog'lom» manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta'siridagi axborotlarning (o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, axloqsiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik, o'ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar va hokazo) Internet saytlari mavjudligi), milliy axborot makonimizga kirib kelishidir. Xalqaro elektr aloqa ittifoqining Jenevada 2015-yilning may oyi yakunida BMT Xalqaro uchrashuvining axborot jamiyati masalalari bo'yicha Forumda bergan hisobotiga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3,2 mlrd. odam internet xizmatlaridan foydalanadi, ulardan 2 mlrd. nafari rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Foydalanuvchilarning asosini esa yoshlar tashkil etadi. Internet world stats — nashrining ma'lum qilishicha, O'zbekiston Respublikasida mazkur ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 2015-yilning 15-noyabr holatida 450 ming nafarni tashkil etadi. Eng e'tiborli tomoni bu tarmoqdagi sahifalarning 8,7 foizi soxtadir, deyiladi maqolada.

Dunyoning eng yirik ijtimoiy tarmoq xizmati va veb-saytiga har oyda 1,59 mlrd. foydalanuvchi «kirib-chiqib» yuradi. Shuningdek, manbalarda keltirilishicha, «Odnoklassniki»ning 2015-yildagi kunlik foydalanuvchilari 51 millionga yetgan. Ro'yxatdan o'tgan umumiy foydalanuvchilar soni 2013-yil 1-yanvarda 205 million nafardan oshgan. Darhaqiqat, «Gazeta.uz» hamda «Daryo.uz» saytlari xabarlariga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 13 milliondan oshgan. O'zbekistondagi yagona ta'lim portali hisoblangan Ziyonet.uz, vsetut.uz, muloqot.uz va shu kabi jami saytlarda ro'yxatdan o'tganlar jamlanganda ham birgina ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilar miqdoriga tenglasha olmasligi achinarli holatdir. Ushbu raqamlar milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli, o'ziga tortuvchi qilib yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi. Milliy saytlarimiz oldinda yurmasada, boshqa chet el saytlaridagi kabi «o'ziga jalb qilish» doirasini kengaytirsam, yoshlarimiz milliy saytlarga birinchi bo'lib, murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Axborot sohasi liberallashtirilgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar, jumladan, 120ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borayotgani, o'zlarining g'arazli manfaatlarini yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlarini kuchaytirayotgani sir emas.

Yoshlarda internetdan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, global tarmoqda milliy axborot resurslarni ko'paytirish, yosh veb-ixtirochilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, bu borada saytlar tomonidan turli tanlov, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, yoshlarni rag'batlantirish kabilar mazkur muammoning samarali yechimi bo'la oladi.

Mediasavodxonlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ham keltirib o'tish joiz:

- mahalliy internet-foydalanuvchilarining o'sib borayotgan axborot va intellektual ehtiyojlarini har tomonlama qondirish, aholini, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy, interfaol internet-resurslarni yaratishni rag'batlantirishga qaratilgan dolzarb taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, Ziyonet ta'lim axborot tarmog'ini yanada takomillashtirish, milliy segment bilan boyitish, o'quvchi-yoshlarni ko'proq jalb eta oladigan manbalar joylashtirish, uning tashkiliy-texnik va interfaol imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga integratsiyalashgan zamonaviy internet-resurslarni yaratish, zamonaviy, yoshlar o'rtasida ommabop bo'lgan ijtimoiy servislar hamda aqliy zakovatni yanada rivojlantiruvchi milliy o'yin ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- inson, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, aholiga elektron interfaol xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishni rag'batlantirish hamda g'oyaviy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy yo'naltirilgan milliy internet-resurslar, veb-servislar, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan internet tarmog'idagi milliy segmentni rivojlantirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va shu kabilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan «notoza va noxolis» axborotlarning oldini olish, sara ma'lumotlarni topib foydalanishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, kerak bo'lsa, pedagoglar o'zlaridan boshlasalar, yana ham yaxshi kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Aynan mana shu borada bolalar kattalarning, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodning mediasavodxonligi va Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, Internetning milliy segmentini rivojlantirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va ijroga yo'naltirish vaqti keldi.

Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Ayni paytda, mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasi o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'la oladi.

## REFERENCES

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. Mediakultura i obrazovanie: osobennosti vzaimodeystviya i razvitiya. – // <https://topuch.ru/referat-mediakultura-i-sovremennoe-obshestvo/index.html>
3. Ta'limni dasturiy vositalari yordamida rivojlantirish. – // <http://hozir.org/pedagogik-dasturiy-vositalar-v2.html?page=19>
4. Umataliev Z. Mediavaxfsizlik ishlarimiz kelajagining poydevori sifatida. —Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – T.: 2017. 223 b.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN  
TARBIYALASHDA O'YINLARNING ROLI**

**Ko'makova Yayraxon Jaloliddin qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti magstri.

[kumakova2499@gmail.com](mailto:kumakova2499@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972522>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani o'yin orqali axloqiy jihatdan tarbiyalash va bola hayotidagi o'yinning o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

*Tayanch so'zlar:* O'yin, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, syujetli o'yinlar.

**THE ROLE OF GAMES IN THE MORAL EDUCATION OF  
PRESCHOOL CHILDREN**

*Abstract.* This article highlights the importance of moral education of a child through play and the role of play in a child's life in a preschool educational organization.

*Key words:* Game, moral education, aesthetic education, plot games.

**РОЛЬ ИГР В ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ**

*Аннотация.* В данной статье освещается значение нравственного воспитания ребенка через игру и роль игры в жизни ребенка в дошкольной образовательной организации.

*Ключевые слова:* Игра, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, сюжетные игры.

“Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir” deb takidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zining Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asarida.<sup>142</sup> Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratdi. Islohat olib borishni ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishdan boshlandi. Shuningdek uzliksiz ta'limning tizimining birlamchi bo'g'ini maktabgacha ta'lim sohasidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola har tomonlama sog'lom va barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanadi. Negaki, bolani tarbiyalash uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaga ta'lim va tarbiya o'yin orqali beriladi. O'yin bola rivojlanishida va tarbiyasida katta rol kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu shaxsiyat shakllanishining muhim davri. Bu davrda bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni oladi, unda insonlarga bo'lgan to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bolaning kompetensiyalari rivojlanadi:

- Jismoniy rivojlanishi;
- Ijtimoiy-hissiy holati;
- Psixologiyasi;
- Notiqlik san'ati.

<sup>142</sup> Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O'zbekiston” Toshkent 2022,- 22-bet

O'yinda bolaning shaxsiyatining barcha tomonlari shakllanadi, uning psixikasida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi.

O'yin so'ngi yillarda paydo bo'lgan emas, balki u uzoq yillik tarixga ega. Ya'ni ibtidoiy jamoa qabilalar davrda boshlab paydo bo'lgan. Ular dehqonchilik ishlarini o'yin orqali bajarishgan. Bu esa pedagog olimlarni diqqatini o'ziga tortib kelgan.

Psixolog A.N.Leontevning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlarida real voqelikdan chetga chiqib ketish darajasidagi afsonaviylik yo'q. Bolalar o'yinlaridagi turli-tuman harakatlar va narsalar voqelikda haqiqatdan bor bo'lgan real harakat hamda real narsalarning real obrazlaridir. Bola o'zi yashab turgan real voqelik bilan bog'liq bo'lmagan xayoliy, afsonaviy o'yinlar yaratishning hali uddasidan chiqa olmaydi. Chunki bola hali o'zi bilmagan, ko'rmagan, eshitmagan narsalarini o'z

o'yin faoliyatida aks ettira olmaydi. U yoki bu o'yinni o'ynash uchun bolalar albatta elementar ravishda bo'lsa ham hayotiy hodisalar hamda mehnatning bir qancha turlari bilan tanish bo'lishlari kerak.<sup>143</sup>

A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o'yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o'yin faoliyatida o'zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo'lganlaridan so'ng mehnat faoliyatlarida ham ko'p jihatdan o'zlarini shunday namoyon etadilar»<sup>144</sup>.

Chet el psixologlaridan J.Piaje va Koffkaning fikricha, bolalar go'yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, ya'ni xayollar, afsonalar dunyosida va (real) voqeiy dunyoda yashaydilar. Bolalar o'zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqeiy dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab

turadilar. Buning haqiqatdan ham shunday ekanligini ularning o'yin jarayonida o'z xatti-harakatlariga «bunday bo'ladi», «bunday bo'lmaydi» deb baho berib turishlaridan ko'rish mumkin. Ular qanchalik o'yinga berilmasinlar, voqeiy dunyoni hech qachon unutmaydilar va unga go'yoki andaza tariqasida zimdan qarab turadilar.<sup>145</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni pedagog syujetli-rolli o'yin orqali bolalarda dastlab ona-yurtiga, o'z xalqiga, o'zga millat vakillariga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantiradi, mustahkamlaydi. Nafaqat Vatanga bolgan muhabbat balki oila va do'stga bo'lgan mehr-muhabbatni va sadoqatni shakllantiradi. Syuetli – roli o'yinlarda bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Yana bundan tashqari enh birinch navbatda bola o'yinda ijobiy va salbiy jihatlarni ajrata boshlaydi. Ya'ni yaxshi va yomon odatlarni farqlashni o'rganadi. Masalan, doimo yaxshilik yomonlikdan ustidan g'alaba qozonishini tushunadi.

Xudbinlik, yolg'onchilik, o'g'rilik salbiy odatlar ekanligi anglay boshlaydi. Bunda bolalar biron bir ertak yoki hikoya syujeti asosida rol ijro etadi. O'yin jarayonida bola obrazlar kirib va ularning so'zlarni yodlab olish orqali o'zida tartib, intizom va irodani, kattalar bo'lgan xurmatni

<sup>143</sup> S.Jalilova, S.Aripova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent 2017“Faylasuflar”- 301b

<sup>144</sup> <sup>144</sup> S.Jalilova, S.Aripova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent 2017“Faylasuflar”- 299b

<sup>145</sup> <sup>145</sup> S.Jalilova, S.Aripova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent 2017“Faylasuflar”- 300b



ham shakllantiradi. Yana bu o'yinlar bolalarni rostgo'ylikga, botirlikga va ilg'orlikga chorlaydi. Buning natijasida o'z-o'zida bolada axloqiy va estetik tarbiyalar shakllana boshlaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, tengdoshlariga bo'lgan do'stonalik munosabatini shakllanadi. Bolada hissiyot va did tarbiyalanadi.

Pedagog bolalarning o'yinda nazorat qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar faqat o'z xohish-istaklarinigina emas, aksincha jamoaning xohishi bilan kelishib, o'yinda qoidalar o'rnatiladi va unga rioya qilishni o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani qobiliyatlarini qay tarzda rivojlanish aniqlashni eng samarali usul o'yin.

Pedagog o'yinda bolani kuzatish davomida boshqa bolalar bilan qay holda o'ynashini, bola o'yin orqali ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kerakligini bilib oladi. Yana bundan tashqari pedagog o'yinda bolalar bilan birgalikda rol ijro etish orqali bolaning bilim olish, tasvirlashi, tushuntirish, qobiliyatini shakllantirishga ko'maklashadi. Natijada bolada ijtimoiy ko'nikmasi rivojlanadi.

O'z hissiyotlarni boshqaraolish va vaziyatlarga to'g'ri kelgan holda ifodalay oladi. Yana o'zga insonlar hissiyotini ajrata oladi va ularga mos ravishda reaksiya qaytaraoladi, murakkab vaziyatlarda chiqish yo'llarini qidira boshlaydi. Shunday qilib o'yin bolani axloqiy jihatlarini avvalo shakllantirib keyin yuksaltirishdagi eng to'g'ri faoliyat hisoblanadi.

Mavzudan quydagi xullosaga keldim, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda o'yin juda muhim ahamiyatga ega. Bolani eng avvalo psixikasini rivojlanadi. Psixikasi rivojlangandan so'ng idrok, odob-axloq ham shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiya kichik guruhdan boshlanadi.

Ularda o'z uyiga, ota-onaga, bog'chaga va ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachiga mehr-muhabbat tuyg'ulari paydo bo'ladi. Asosiy axloqiy fazilatlar shakllanib insonparvarlik hislari va munosabatlari boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta guruhdan boshlab didaktik o'yinlar orqali vatanparvarlik tarbiyasi singdiriladi. Didaktik o'yinlar faqat aqliy tarbiyani yuksaltirmaydi. Balki, axloqiy jihatdan ham juda samarali foyda beradi.

O'yin bolalar uchun turli xil qirralarini ochish uchun imkon beradi:

- Fikrlash;
- Izlanish;
- Tajriba ortish;
- Munosabat bildirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin orqali hamma narsani bo'glasak bo'ladi. Beshta markazda ham faoliyat olib borgan holda bolaga barcha tarbiya turlari rivojlantirsa bo'ladi. "Ilm-fan va tabiat" markazida "Yurtimiz tabiati" nomli didaktik o'yinni orqali bolalar o'z ona yurtidagi hayvon, qushlar va o'simliklar bilan tanishib ularni asrab-avaylashni, ozor yetkazmaslikni va mehr berishni o'rganadi.

Bunda hayvon va o'simliklarni nomlanishini o'rganib, talaffuz qilish orqali "Til va nutq o'stirish" markazi, ularning soni katta-kichik hajmlarni ajratishni orqali "Qurish-yasash va matematika" markazilarida faoliyat olib boriladi. Xullosa qilib aytganda, biz bolada nimani shakllantirmoqchi bo'lsak faqat o'yin foydalanamiz.

#### REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – “O‘zbekiston” Toshkent:2021 .
2. "ILK QADAM" davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent: 2022
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.- “Tafakkur bo‘stoni” Toshkent: 2013
4. Jalilova, S.Aripova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. “Faylasuflar” Toshkent 2017

## ЭШҚОБИЛ ШУКУР ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ИФОДА УСУЛИ

Тоштемирова Лола

Термиз давлат университети Ўзбек филологияси факултети

2-курс талабаси

Мақсуда Рахматовна

Илмий раҳбар, Термиз давлат университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972541>

**Аннотация.** Мазкур мақолада Эшқобил Шукур шеъриятидаги образлар олами, табиат тасвири, рамзий образлар ва халқона пафоснинг о'рни таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Эшқобил Шукур шеърияти; рамзий образлар (ой, юлдузлар, осмон); ўхшатиш санъати; қадимий оҳанглар; халқона пафос.

## METHOD OF ARTISTIC EXPRESSION IN THE POETRY OF ESHQABIL SHUKUR

**Abstract.** This article analyzes the world of images, the image of nature, symbolic images and the role of folk pathos in the poetry of Eshqabil Shukur.

**Keywords:** poetry of Eshqabil Shukur; symbolic images (moon, stars, sky); the art of analogy; ancient melodies; folk pathos.

## СПОСОБ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ПОЭЗИИ ЭШКАБИЛЯ ШУКУРА

**Аннотация.** В данной статье анализируется образный мир, изображение природы, образы-символы и роль народного пафоса в поэзии Эшкабиля Шукура.

**Ключевые слова:** поэзия Эшкабиля Шукура; символические изображения (луна, звезды, небо); искусство аналогии; старинные мелодии; народный пафос.

Эшқобил Шукур ўзбек шеъриятига ўтган асрнинг 80-йиллари охирларида ўзига хос овоз билан кириб келди. Унинг халқона оҳанг ва фолклоризм билан қоришган шеърияти тезда муахассислар ва шеърият ихлосмандлари эътиборига тушди.

Шоир қирқ йилдирки ше'рият деб аталган муқаддас даргоҳда самарали ижод қилиб келмоқда. Унинг ижодига бевосита тўхталадиган бўлсак, ижодкорнинг ёзган ше'рлари бадиий ифода усули жиҳатидан ҳам, ма'но-моҳият жиҳатидан ҳам алоҳидалиқ касб этади. Шоир ше'рларида лирик қахрамон о'зининг туйғулари ва ҳасратларини табиатдаги нарса ва ҳодисалар орқали тасвирлайди. Борлиққа нисбатан ҳиссий- эстетик муносабатини кучли ва қайноқ еҳтирослар ҳосиласини, ҳис-туйғ'улари, ко'нгил кечинмалари, дардли изтиробларини ифодалайди. Масалан:

Ко'нглимни тошга ёрдим, тошлар синдия чил чил.

Сув ичгали ко'зимга, қушлар ко'ндия бир бир.

Тушимни сувга айтдим, сувлар ёндия лов лов

Чо'г' тергали тилимга қушлар ко'ндия бирров[1,3].

-деб ёзади шоир. Лирик қахрамоннинг юрак дарди шу даражада катта ва кучлики, ҳатто табиат унсурлари ҳам о'з вазифасини о'згартиради. Табиат тасвири орқали инсоннинг руҳий озодлиги, қалб кечинмалари бадиий талқин етилади. Шоир ижодига ше'рий сан'атлар ҳам муҳим рол тутди. Ше'рларида у ташбеҳ(о'хшатиш), ташхис, муболағ'а ҳамда таносуб ва шу каби бошқа сан'атлардан фойдаланган. Айниқса, ше'рларида

о‘хшатиш сан’атининг о‘рни бекиёс. Масалан: "Яшилланган томлар устида келинлардай титрар қизг‘ладоқ", "Кенг уйнинг бекасидай, бошда тутлар каппайган", "Туянинг о‘рқачидай четда чайла суппайган", "Қизлар каби сузилар, бо‘йга етган бошоқлар" каби о‘хшатишлари жуда таъсирчан ва оҳорли. Шоир табиат ҳодисаларини: туман тушишини - "Дон каби сепилди совуқ туманлар", тонг отишини - "Ҳилол ухлаётган пашшахонанинг, бир буржин ко‘тариб термилади тонг, Зилол ухлаётган пашшахонанинг ипига осилиб тебранар осмон[2,4,5,8,12] дея ажиб поэтик манзара яратади.

У о‘з ше‘рларида рамзий образлардан ко‘п фойдаланади, шерларида ой, юлдуз , осмон, булут каби тимсоллар ко‘п о‘ринларда қолланилган."Фольклор асарлари умуминсоний муаммоларга ҳозиржавоблиги билан шоирлар эътиборини тортади. Улар ҳар доим заҳматкаш халқнинг манфаатини ҳимоя қилиб, унинг юксак орзу-интилишларини, ўй-ташвишларини ифода этиши боис ўта миллийлик ва халқчиллик касб этади. Шунинг учун фольклор асарларига хос бадиий шакл типлари ва воситалари, халқона оҳанг ва услубда яратилган ёзма адабиёт намуналарида ҳам ана шу хусусият бўртиб туради. Бу эса фольклоризмларнинг табиатига хос энг муҳим жиҳатлардан биридир"[4,13]. Жумладан: "Иссиқ юлдузлардан қирлар тутдилар", "Ортидан итлари г‘ингшир, хурпайган. Жунларида ко‘чиб пуфак юлдузлар", "Чо‘пон ко‘кка юзин ювиб олади, Хуржунга қарайди-хуржун то‘ла ой". "Бу тор хона емас, балки бу осмон, юлдузларни гулдай сочмоқда шамол", "Юракни уйг‘отиб юборинг.... Тинглайин юлдузлар қо‘нгирог‘ини", "Кенг баҳайбат осмон тоғ‘орасида, чо‘г‘ олиб югуриб келаётир ой", "Ойни тишлаб олдим мен, лабда юлдузлар қони" каби жумлаларда бу яққол намоён бо‘лади. Эшқобил Шукурнинг о‘зи ёзади: "Ой, булут, шамол, дала, ё‘л.... Улар доим менинг ше‘рларимга кириб келаверади. Ё‘қ булар шунчаки образлар емас, улар менинг бу дунёдаги доимий ҳамроҳларимдир. Шаҳарнинг энг гавжум, энг сершовқин жойида ҳам улар менинг ёдимда еканини ҳис етаман...."[5] Шоир о‘зи шундай ко‘нгилга, осмонга, одам ва оламга ошиқ дил егасидир.

"Ҳозирги ўзбек адабиётшунослигида шеърятдаги долзарб вазифалардан бири халқона пафос талқини билан боғлиқ. Дарҳақиқат, Шеърятда юзага келган янги маънавий муҳит ижодкорлар дунёқарашада ўзгаришлар ясади. Бу ҳолат эса ўз навбатида адабиёт ва шеърятга бўлган муносабатнинг янгиланиб, бадиий тафаккурда муайян эврилишлар юзага келишига сабаб бўлди. Янги ўзбек шеърятда ўзининг самимий тили ўйноқи ва маҳзун, шиддатли ва сокин оҳанглари билан бадиий тафаккуримиз миқёсини кенгайтираётган ва ҳозирги ўзбек шеърятда ўз услуби, таафаккури ва қарашлари билан анъанавий дунёқарашимизга ўзгариш киритган айрим шоирлар ижоди тадқиқот асосини ташкил этади."[3,4 Ижодкорнинг "Юракни о‘рганиш", "Сочлари сунбул сунбул", "Тунги гуллар", "Яшил кушлар", "Ҳамал айвони", "Бобосо‘з изидан" каби китобларида мажозий сифатлар, халқнинг қадимий оҳанглари о‘зига сингдирилгани билан айрича го‘зал бир манзара ҳосил қилади. Шоирнинг халқона пафосга ега ше‘рлари сифатида "Ко‘пқари", "Чанқовуз", "Сунбула", "Руҳим", "Зо‘раки қаҳ-қаҳ" ва бошқа қатор ше‘рларини мисол қилишимиз мумкин: "Чумчуқ чумчуқ шо‘р тумшук, хайё-хуйт!, хайё-хуйт!", "Вой менгима шо‘р менгим. Увв!...Увв!...", "Ахай-аҳа-ҳай, ахай-аҳа-ҳай! мен кушларнинг тушларида ко‘ринай, мен тушларнинг кушларида ко‘ринай", "Чанқовуз чанқаб қолди, дардимга чайқаб олдим", "Ҳайт- деди улоқ кетди, о‘ртада тобоқ кетди" каби мисралар ше‘рнинг халқона семантик-

ма'новий о'зига хослигини та'минлайди ва уларда сурхон халқининг маданияти, урф -одати яққол сезилиб туради.

Бундан роппа-роса ўттиз олти йил аввал, 1984 йилда "Ўзбекистон адабиёти санъати" газетасида Эшқобил Шукур шеърлари илк марта эълон қилинганда унга Ўзбекистон халқ шоири Усмон Азим қуйидаги сўзбошини ёзган эди. Бу пайтда Эшқобил Шукур 22 ёшда эди: "Эшқобилнинг шеърлари ғалати – гўё кўпни кўрган одамнинг ёзганига ўхшайди: босиқ ва чуқур, шу билан бирга сатрларида аллақандай жанговарлик, қайсарлик бор. Шеърлари унутилаёзган оҳанглarga, унутилаёзган сўзларга бой. Мен Эшқобилга "Оқ йўл тилаётганим йўқ. У аллақачон йўлда. Шеърхонга янги бир шоир шеърларини таклиф қилаётирман, холос"[6]

Хулоса қилиб айтоламизки, Эшқобил Шукурнинг шеърларидан унинг халқчил шоир эканининг гувоҳи бо'ламиз. Го'ё адиб узоқ о'тмишдан со'злаётгандек о'қувчини о'йга толдиради. Шоир руҳида унинг табиат ва ундаги нарсаларга муҳаббати ҳам сезилиб туради, у хаёлидаги воқеа-ҳодисаларни табиат атрофи билан бог'лаб юборади ва буни шеърларида жонлантиради. Унинг шеърлари шундай со'фиёна нақллар, фикрлар оғушида тасвирланадики, бу ҳолат назм ҳамиша илоҳиётдан сув ичажagini ботинда яна бир қарра ишонч уйғотади. "Бундан юз йил муқаддам буюк ўзбек шоири Абдулҳамид Сулаймон ўғли – Чўлпон: "Адабиёт яшаса, миллат яшар!" деган оташин даъват билан майдонга чиққан эди. Ҳаёт ва тарих синовларидан ўтган теран маъноли бу сўзлар бугун ҳам ўз аҳамияти ва қимматини йўқотган эмас. Дарҳақиқат, адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди"[7].

#### REFERENCES

1. Эшқобил Шукур "Ҳамал айвони".–Т.: "Шарк" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент-2002. -Б.165
2. Эшқобил Шукур "Сочлари сунбул сунбул".-Т.:Адабиёт ва санъат нашириёти, Тошкент-1988.-Б.65
3. Пардаев.З. "Истиқлол шеърлятида халқона пафоснинг янгиланиши" филология фанлари бўйича фалсафа доктори (ПХд) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент-2020 .-Б.159
4. Шарипова Л. "О'збек шеърлятида фолклоризм". –Т.: "Фан", 2011. -Б. 153
5. Тафаккур, 2019 2-сон Худойбердиева Х.
6. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси"1984 йил, 19 декабр
7. www.xabar.uz: Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди.



## ATMOSFERA HAVOSINING IFLOSLOVCHI MODDALAR MIQDORINI SAMARQAND SHAHAR MISOLIDA O'RGANIB CHIQISH

Normamatova Kamola Sherdil qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-bosqich talabasi.

E-mail: [normamatovakamola51@gmail.com](mailto:normamatovakamola51@gmail.com).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972574>

**Annotatsiya.** XX asrning ikkinchi yarmida atmosferaning ifloslanishi to'g'risidagi masala dolzarb global masalalardan biriga aylandi. "Atmosferaning ifloslanishi" tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflarni umumlashtirgan holda unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: atmosferaning ifloslanishi - atmosferaning quyi qatlamlarida kishilarning salomatligi, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun xavfli bo'lgan, tabiiy muhitning inson hayotiy va ishlab chiqarish faoliyati uchun nomaqbo'l yo'nalishlarda o'zgarishiga olib keladigan miqdordagi zararli moddalarning to'planishidir. Bu ko'rsatkichlar Samarqand shahri misolida hisoblangan natijalar bilan hisoblab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ifloslanish, chang, tuzlar, uglerod oksidi, kislorod, gidrosfera, temperatura, antropogen.

### STUDYING THE AMOUNT OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTANTS ON THE EXAMPLE OF THE CITY OF SAMARKAND

**Abstract.** In the second half of the 20th century, the issue of atmospheric pollution became one of the urgent global issues. Summarizing the many definitions given to the concept of "atmospheric pollution", it can be defined as follows: atmospheric pollution is dangerous for human health, flora and fauna in the lower layers of the atmosphere, human life and production of the natural environment. is the accumulation of harmful substances that lead to changes in undesirable directions for its activity. These indicators were calculated with the results calculated for the example of the city of Samarkand.

**Key words:** pollution, dust, salts, carbon monoxide, oxygen. hydrosphere, temperature, anthropogenic.

### ИЗУЧЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА САМАРКАНДА

**Аннотация.** Во второй половине 20 века проблема загрязнения атмосферы стала одной из актуальных глобальных проблем. Обобщая множество определений, данных понятию «загрязнение атмосферы», его можно определить следующим образом: загрязнение атмосферы опасно для здоровья человека, флоры и фауны нижних слоев атмосферы, жизнедеятельности человека и продукции природной среды. накопление вредных веществ, приводящих к изменению нежелательных для его деятельности направлений. Данные показатели рассчитывались по результатам, рассчитанным на примере города Самарканда.

**Ключевые слова:** загрязнение, пыль, соли, окись углерода, кислород. гидросфера, температура, антропогенность.

Yerda odamning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda atmosferada antropogen o'zgarishlar va havoning ifloslanishi sodir bo'la boshladi. Atmosferaning mahalliy miqyoslarda ifloslanishi anchadan buyon ma'lum bo'lsada, XX asrda umumbashariy miqyosdagi dolzarb muammoga aylandi. Kosmik tadqiqotlar atmosferaning 20 km va undan ham balandroq qismlari, ya'ni butun troposfera va stratosferaning quyi qismlari ifloslanganligini ko'rsatdi.

Troposferaning quyi qatlamlari ayniqsa sezilarli ifloslangan. Atmosferaning ifloslanishi antropogen manbalardan chiqarilayotgan gazlar (90% gacha) va aerozollar (10%) tufayli sodir bo'lmoqda. Gazdan va undagi muallaq erkin zarrachalardan, qattiq jismlarning zarrachalaridan va suyuqlik tomchalaridan tashkil topgan birikmaga aerosol (yunoncha air- havo; nemischa sol-erituvchi) deyiladi. Atmosferaga chiqariladigan gazlar va aerozollar tarkibida 160 ga yaqin zararli moddalar borligi aniqlangan. Sanoatda va aholiga xizmat ko'rsatish doirasida foydalaniladigan ko'pgina moddalar zaharli bo'lganligi tufayli ularni atmosferaga chiqarish jahon mamlakatlarining katta qismida ta'qiqlangan.

O'zbekistonda ham havoda zaharli moddalarning miqdori maxsus sanitariya me'yorlari bilan tartibga solib turiladi. Atmosferada har doim ma'lum miqdorda chang bo'ladi. Bu tabiatda sodir bo'ladigan tabiiy hodisalar natijasida yuzaga keladi. Ushbu changlarni uch turga bo'lish mumkin: mineral (noorganik), organik va kosmik chang. Tog' jinslarining kamayishi va dislokatsiyasi, vulqon otilishi, chakalakzor va o'rmonlardagi yong'inlar, dengiz suvining bug'lanishi mineral changlarga olib kelishi mumkin.

Organik changlarni havodagi aeroplankton, bakteriyalar, sporalar, o'simlik urug'lari, hayvonlarning chirindi va chiqindilari hosil qiladi. Kosmik chang atmosfera havosida yonayotgan meteoritlarning natijasidir. Atmosfera havosi tabiiy va antropogen omillar bilan ifloslangan.

Antropogen ifloslanish, birinchi navbatda, transport vositalarida, sanoat korxonalarida va elektr energiyasini ishlab chiqarish tarmoqlarida organik yoqilg'idan foydalanish natijasida hosil bo'lgan chiqindilar va havo havzasidagi turli xil chiqindilar tufayli yuzaga keladi. Atmosfera havosining ifloslanishi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Ushbu muammo sanoati rivojlangan mamlakatlarda eng dolzarb muammolardan biridir. Atmosfera havosining ifloslanishidan kelib chiqadigan zarar sanoat va maishiy chiqindilarni ochiq suv havzalariga chiqarish natijasida yuzaga keladigan muammolardan kamroq.

Havoning ifloslanishi deganda inson salomatligi va umuman Sayyora uchun zararli bo'lgan ifloslantiruvchi moddalarning havoga chiqarilishi tushuniladi. "Havoning ifloslanishining aksariyati energiyadan foydalanish va ishlab chiqarishdan kelib chiqadi", deydi Nrdc iqlim va toza havo dasturining bir qismi bo'lgan Clean Air loyihasi direktori Jon Uolk. "Yoqilg'i yoqilg'isini yoqish gazlar va kimyoviy moddalarni havoga chiqaradi." Va ayniqsa halokatli teskari aloqa tsiklida havoning ifloslanishi nafaqat iqlim o'zgarishiga hissa qo'shadi, balki u bilan ham kuchayadi. "Havoning karbonat angidrid va metan ko'rinishidagi ifloslanishi yerning haroratini oshiradi", deydi Uolk. "Havoning ifloslanishining yana bir turi bu ortib borayotgan issiqlik bilan yomonlashadi: ob-havo iliqroq va ultrabinafsha nurlanish ko'proq bo'lganda tutun paydo bo'ladi." Iqlim o'zgarishi, shuningdek, allergen havoni ifloslantiruvchi moddalar ishlab chiqarishni ko'paytiradi, shu jumladan mog'or (ekstremal ob-havo va suv toshqini tufayli nam sharoitlar tufayli).

Atmosferada har doim ma'lum miqdorda chang bo'ladi. Bu tabiatda sodir bo'ladigan tabiiy hodisalar natijasida yuzaga keladi. Ushbu changlarni uch turga bo'lish mumkin: mineral (noorganik), organik va kosmik chang. Tog' jinslarining kamayishi va dislokatsiyasi, vulqon otilishi, chakalakzor va o'rmonlardagi yong'inlar, dengiz suvining bug'lanishi mineral changlarga olib kelishi mumkin. Organik changlarni havodagi aeroplankton, bakteriyalar, sporalar, o'simlik urug'lari, hayvonlarning chirindi va chiqindilari hosil qiladi. Kosmik chang atmosfera havosida yonayotgan meteoritlarning natijasidir. Atmosfera havosi tabiiy va antropogen omillar bilan ifloslangan. Antropogen ifloslanish, birinchi navbatda, transport vositalarida, sanoat korxonalarida va elektr energiyasini ishlab chiqarish tarmoqlarida organik yoqilg'idan foydalanish natijasida

hosil bo'lgan chiqindilar va havo havzasidagi turli xil chiqindilar tufayli yuzaga keladi. Atmosfera havosining ifloslanishi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Ushbu muammo sanoati rivojlangan mamlakatlarda eng dolzarb muammolardan biridir. Atmosfera havosining ifloslanishidan kelib chiqadigan zarar sanoat va maishiy chiqindilarni ochiq suv havzalariga chiqarish natijasida yuzaga keladigan muammolardan kamroq.

Hozirgi zamon fan va texnikasining rivojlanishi eng yuqori darajasiga ko'tarilganligi bilan amalda sanoat korxonalarining biosferaga zaharli ta'sirini butunlay yo'q qilish mumkin bo'lmay qoldi. Qisqa vaqt ichida ishlab chiqarish korxonalaridan tarqalayotgan zaharli chiqindilar miqdorini kamaytirish, faqatgina katta quvattidagi texnik tozalash uskunalari yordamida bajarilishi mumkin. Texnologiyani o'zgartirish, texnik tozalash, shaharsozlik va huquqiy tadbirlar hozircha atrof-muhit muhofazasi muammolarini oxirigacha hal etolmaydi. Aholi zich yashaydigan Samarqand va Farg'ona viloyatlariga yirik kimyo zavodlarining joylashishini no'rin deb hisoblash mumkin.

Hozirgi davrda kelib, respublikada kun sayin aholining o'sib borishini e'tiborga olgan holda, yangi turar joy hududlarini barpo etish talab qilinadi. Respublikamizning ko'pchilik shahar va boshqa turar joy markazlari qadimdan shakillanganligi, savdo va boshqa turdagi ijtimoiy ma'muriy xizmat korxonalariga moslashganligi uchun atroflariga esa sanoat markazlarining tashkil etilishi, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim joylarida zavod rahbarlarining tashabbusi bilan yirik zavodlar atroflarida ham turar joy hududlari barpo etiladi. Masalan, Samarqand kimyo zavodi yonida "Kimyogarlarni" shaharchasi barpo etilgan shaharcha rivojlanib borishi tufayli, alohida ahamiyatga ega bo'lgan kichik shahar toifasiga yaqin hisoblanadi. Shaharcha hududida yil davomida vaqti-vaqti bilan kimyo zavodi tutunlari paydo bo'lishi turardi.

Respublikamizda tabiiy boyliklardan asosiysi sug'oriladigan yerlar bo'lib, ushbu joylardan sanoat va turar joylarini joylashtirish tabiat muhitini buzilishiga va respublikaning kelgusidagima'nviy boyliklarni yo'qolishiga olib keldi. Ushbu omillarni e'tiborga olib, tabiat muhitini muhofaza qilish tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan samarali foydalanish hamda iqlimni saqlab qolish maqsadida faoliyat darajasiga qarab respublikamiz mintaqalariga bo'linadi:

1. Tabiatdagi qo'riqxonalar, yirik o'rmonlar, tog'-dam olish joylari, daryo ko'l vasuv havzalarining qirg'oqlari hamda tabiiy iqlim omillari bo'yicha ahamiyatli hisoblanadigan hududlar.
2. Qishloq xo'jalik ekinlariga moslashgan hududlar (sug'oriladigan yerlar va boshqa har xil o'simliklar hamda daraxtzorlar mumkin bo'lgan joylar).
3. Turar joy va o'zidan zararsiz chiqindilar chiqaradigan sanoat markazlari joylashgan hududlar bunday hududlarda shaharsozlik va tibbiy geyinik talablar asosida ular orasida himoya mintaqasi joylashadi. Bunday zararsiz korxonalar turkumini atmosferaga zaharli tutun chiqarmaydigan suv havzalari va zaminga o'zining chiqindisini o'tkazmaydigan o'zidan katta shovqin chiqarmaydigan korxonalar tashkil qiladi. Ekologik nuqtai nazaridan dam olish va davolanish uchun taqsimlanayotgan hududiy mintaqalar respublika viloyat va tumanlarda bosh reja loyihasida ko'rsatiladi. Unda ishlab chiqarish kuchlarining turar joy hududlarining o'rni ommaviy dam olish sayohatchilar va ular davolanish uchun joylar ko'rsatiladi. Bunday hududiy taqsimot atrof muhitni muhofaza qilish uchun eng yuqori darajadagi shaharsozlik tadbiri bo'lib, hisoblanadi. Zarafshon daryosi qirg'oqlari va Urgut tog'lari va boshqa tabiat ko'rkam joylar ma'daniy hordiq chiqarish dam olish maskani sifatida ajratilishi mumkin.

4. Agar viloyatlarda hududiy taqsimotni maqsadga binoan ishlab chiqarish yo'lga quyilsa o'sha joy aholisining turmush tarsi keskin ravishda rivojlanadi, yaxshilanadi. Tabiiy muhitning holati nuqtayi nazaridan va O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish chizma loyihasi asosida respublika hududini uch ta ekologik faoliyat doirasidagi mintaqalarga ajratish mumkin:

- tabiiy landshaf
- xo'jaliklar uchun foydalanishi chegaralangan mintaqa
- xo'jaliklar jadal foydalanishi mumkin bo'lgan mintaqa

Atmosfera havosi va suv manbalarining ifloslanishi shaharda istiqomat qilish uchun zarur bo'lgan muayyan shart-sharoitlarni ayniqsa yomonlashtiradi, uning iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy soha tarmoqlari darajasini pasaytiradi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sanoat jihatidan ko'proq rivojlangan shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi besh yuz mingdan ortiq turli moqddalar ta'sirida bo'lar ekan. Shahar havosining buzulishi yirik shaharlardagi haroratni bir muncha ko'tarib yuborishi ham mumkin. Ko'p qavatli binolar va transport vositalaridan keladigan issiqlikni tez tarqalib ketish qiyinligi tufayli shunday xodisa yuz beradi. Shaharlarda tabiiy muhitning qisman bo'lsada ifloslanishi kishilar sog'ligiga, yashash sharoitiga, aholining faravonligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir kishi faqat havo suvning ifloslanganligidan oziq-ovqat mahsulotlarida neytratlarning haddan tashqari ko'p bo'lishidan o'rta hisobidan yiliga o'n kun kasal bo'lar ekan. Ular orasida nafas olish yo'llari qon aylanishi, oshqozon-ichak, allergic xastaliklari ko'proq uchraydi. Shahar aholisining ishdan bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi ham atrof-muhitning qay ahvolda ekanligi bilan bog'liq.

Ayniqsa urbanizatsiya jarayoni kuchayib borayotgan bir sharoitda xususan insonning tabiat bilan munosabatida uning o'ziga xos ekolog ehtiyojlari shakllana boradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki yangi shaharning shakllanishi va qad ko'tara boshlashining o'ziga xos yangi ekologiktizimning vujudga kelishidir.

Atrof-muhit, inson-sog'liq asosan shovqun-suron atmosfera havosi va suvning sarflanishi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga ko'ra shaharlarda istiqomat qilish tabiiy tartibni huquqiy jihatlarni aniqlash va ularga rioya etishni ta'minlashi zarur.

Bu huquqiy qoidalarda tashqi muhitni suv manbalarni zararli, oddalar bilan ifloslanishidan saqlash, shovqin-suron natijasida ro'y beradigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish kabi masalalar kiradi.

Turli xil sanoat tarmoqlari transport vositalari, qurilishning shakllanishi va rivojlanishi yangi shaharlar sonining ko'payib borishi ayniqsa issiq iqlimda O'zbekiston sharoitida yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. O'zbekiston hozirgi kunga kelib ekologik vaziyat eng murakkablashgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand Shahar atmosfera ifloslanishi ko'rsatgichlari jadvallar asosida



Samarqand shahrida ifloslantiruvchi moddalar ro'yxati va ularning o'rtacha ko'rsatgichlari

**Samarqand shahrida ifloslantiruvchi moddalarni o'rtacha miqdori:**

moddalar	O'rtachaREM qismi miqdorida	moddalar	O'rtachaREM qismi miqdorida
Chang	1,1	Fenol	0,7
Oltinugurt dioksidi	0,2	Qattiq ftoridlar	0,0
Uglerod oksidi	0,3	Vodorod ftoridi	0,4
Azot dioksidi	0,5	xlor	0,7
Azot oksidi	0,2	ammiak	0,3

Samarqand viloyati Samarqand shahridagi atmosfera moddalarini yillar kesimida ko'rinishi

**Samarqand shahrida havoning ifloslanish holati tog'risidagi yillik ma'lumot 2022 yil (postlar bo'yicha)**

Moddalar	Post№	g o'r	gyuqor.	g	gi	n
Oltinugurt dioksidi	1	0.011	0.034	0	0	881
Uglerod oksidi		1	3	0	0	885
Azot dioksidi		0.02	0.05	0	0	881
Azot oksidi		0.01	0.04	0	0	881
Ammiak		0.02	0.04	0	0	814
<b>Chang</b>						
Chang	2	0.15	0.78	0	0	844
Oltinugurt dioksidi		0.012	0.039	0	0	869
Uglerod oksidi		1	2	0	0	869
Azot dioksidi		0.02	0.04	0	0	869
Fenol		0.002	0.004	0	0	869
Vodorod ftoridi		0.002	0.004	0	0	869
Ammiak		0.01	0.04	0	0	777
<b>Post №3</b>						
Oltinugurt dioksidi	3	0.012	0.036	0	0	870
Uglerod oksidi		1	3	0	0	869
Azot dioksidi		0.02	0.05	0	0	870
Qattiq ftorid		0.00	0.00	0	0	294
Vodorod ftoridi		0.002	0.004	0	0	870
Ammiak		0.01	0.04	0	0	766
<b>Chang</b>						
Chang	4	0.16	0.76	0	0	850
Oltinugurt dioksidi		0.013	0.035	0	0	880
Uglerod oksidi		1	3	0	0	884
Azot dioksidi		0.02	0.05	0	0	880
Xlor		0.02	0.05	0	0	880



## REFERENCES

1. L.A. Alibekov. Inson va tabiat Samarqand 2020. 51 bet.
2. Z. Abdalova. D. Yormatova Ekologiya Toshkent 2013.
3. Wikipedia.uz.
4. Arxiv.uz.
5. <https://www.lifepersona.com/composition-of-atmospheric-air-and-pollutants>
6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13733-atmosfera-ifloslanishi-va-uning-manbalari>
7. <https://www.hindawi.com/journals/amete/2012/356265/>

## “BOLALIKNING SO‘NGGI KUNI” HIKOYASIDA FOLKLOR CHIZGILARI

**Xakimova Farida Ilhom qizi**

Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Qozoqboy Yo‘ldoshev**

Ilmiy rahbar: p.f.d., prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7974561>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Shodmonqul Salomning “Bolalikning so‘nggi kuni” hikoyasi tahlilga tortiladi. Uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq o‘rinlariga e‘tibor qaratiladi.

*Kalit so‘zlar:* “Bibi seshanba”, Afg‘on-Sovet urushi, kurta, “Yetim qiz” matali, Shodmonqul Salom, hikoya, marosim.

### FOLKLORE LINES IN THE STORY "THE LAST DAY OF CHILDHOOD"

*Abstract.* This article analyzes Shodmonqul Salom's story "The Last Day of Childhood". Attention is paid to its places related to Uzbek folklore.

*Key words:* "Bibi Sheshanba", Afghan-Soviet war, kurta, "Yitim Kiz" matali, Shodmonqul Salam, story, ceremony.

### ФОЛЬКЛОРНЫЕ СТРОКИ В ПОВЕСТИ «ПОСЛЕДНИЙ ДЕНЬ ДЕТСТВА»

*Аннотация.* В данной статье анализируется рассказ Шодмонкул Саломе «Последний день детства». Уделяется внимание его местам, связанным с узбекским фольклором.

*Ключевые слова:* «Бибисешанба», афганско-советская война, курта, «Йитим кыз» мatalи, Шодмонкул Салам, рассказ, церемония.

Shodmonqul Salomning kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan hikoyalaridan biri “Bolalikning so‘nggi kuni” hikoyasidir. Muallif uni dastlab “Bibi seshanba” deb nomlaydi. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi bosh muharriri o‘rinbosari Murod Abdullayev tahriri ostida sarlavha “Bolalikning so‘nggi kuni” deb o‘zgartiriladi.

“Bibi seshanba” faqat ayollar ishtirokida o‘tkaziladigan marosim, mushkulkushod. “Bir necha tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Bibi seshanba” kelib chiqish mohiyatiga ko‘ra, ma‘buda ramzi bo‘lib, uning ildizi O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqda Islom dini kelguniga qadar keng yoyilgan ma‘buda Anaxita (Nohid)ga borib taqaladi. Anaxita dehqonchilik va chorvachilik, hosildorlik va pishiqchilik ma‘budasi hisoblanib, go‘yo uning qudratiga inson va hayvonlar, qushlar va barcha jonivorlar ham bo‘ysungan, deb hisoblanar edi. Shu tariqa u “Bibi mushkul kushod”, ya‘ni kishini har qanday mushkuldan xalos etuvchi Ona obraziga aylangan. Boshqa bir manbada keltirishicha, marosim ko‘pgina turk xalqlari orasida keng tarqalgan.

Turkiston hududlarida Bibi Seshanba, Turkiyada Payshanba qari (Peyshebenbe-karгы) yoki Parshamba pari, Eronda Bibi-hur va Bibi Nur, Afg‘onistonda Bibi Risinda, Bibi Charxi, uyg‘urlarda esa Seshamba Bibi deb atalgan.”<sup>146</sup> Surxondaryo hududida ushbu marosim ancha keng tarqalgan bo‘lib, oiladagi erkaklarning baxt-saodatini tilab, ularning ishlari yurishib ketishi uchun, urush paytlarida esa bolasi yoki turmush o‘rtog‘i eson-omon qaytishi uchun seshanba kuni qilingan. Bunda 7ta chalpak, 7ta obi non, guruchli va xamirli taomlar pishiriladi. Marosim

<sup>146</sup> <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/49305-bibi-seshanba-va-mushkulkushod-islomda-bormi.html>

bo'ladigan xonaning to'rtta burchagiga likopchaga un solib qo'yiladi. Un rizqni, poklik va tinchlikni anglatadi. Shuning uchun ham "Bibi seshanba"ning asosiy ramzlaridan biri supra hisoblanadi. Suprada un elash bilan bog'liq turli odatlar bajariladi.

Hikoya "Bibi seshanba" marosimi haqida emas, bu shunchaki detall vazifasini bajargan, xolos. Tursun ismli bolakayning urush oddiy o'yin emasligini anglab yetgani haqidadir. Bizningcha, "Bolalikning so'nggi kuni" nomi hikoyaning mohiyatini ko'proq ochib berishga xizmat qiladi. Endi esa uning mazmuniga diqqatimizni qaratamiz.

Ushbu hikoya realistik xarakterda bo'lib, o'zbek adabiyotida bunday hikoya yozishni Cho'lpon va Abdulla Qodiriy boshlab bergan (XX asr boshlari "Do'xtur Muhammadiyor" va "Uloqda" hikoyalari).

Bizga yaxshi ma'lumki, 1979-1989- yillarda Afg'on-Sovet urushi bo'lib o'tgan va bu urushga yurtimiz hududidagi harbiylar ham jalb qilingan. Ular orasida Afg'onistonga chegaradosh manzil Termizdan borganlar ham ko'pchilikni tashkil etar edi. Hikoya voqealari termizlik askarlardan birining uyida bo'lib o'tayotgan "Bibi seshanba" marosimi orqali tasvirlanadi.

Hodisotlar kuz faslida bo'lib o'tadi. Buni ko'kda mezon uchayotganligidan, tut novdalari egilib qolganligidan ham bilsak bo'ladi. Asosiy qahramon- Tursun. Uning yoshi haqida hech narsa deyilmaydi. Biroq bo'yi hali eshakka minishga yetmasligi, etikchasini o'zi kiya olishi, yog'och to'pponcha bilan urush-urush o'ynashini hisobga olsak, uni 7-8 yoshlarda deb taxmin qila olamiz. Voqealar ana shu bolakay tilidan hikoya qilinadi.

"— U yerga faqat ayollar boradi, senga nima bor, yer yutkur, — dedi onam uyning pastak eshigidan ayvonga chiqarkan, o'dag'aylab. Men esa hali kiyib ulgurmagani bir poy etikchamni qo'limga olib, momomning ortiga qochib o'tdim. Bu gal ham momom jonimga oro kirdi: — Bu bir nonireza-da, bolam, qo'y, o'zi borib, o'zi keladi. It qo'rigan joyga o'ch degani shu-da. Onam to'ng'illagancha qulog'iga en solingan oq eshakni tandirning supasiga olib kelib to'g'riladi, momom eshakka qiynalmay mindi, meni esa onam qo'ltig'imdan olib, momomning ortiga o'tqazarkan, yolg'ondakam g'udranib qo'ydi: «Eshakka minishni bilmaydi-ku bu tilamishingiz». Onamga qarab tirjaydim."<sup>147</sup> Hikoya ana shunday boshlanadi. Tursunning momosi ko'pni ko'rgan, so'zga chechan ayol. Buni uning tilidan aytilgan maqol, matallardan ham payqash qiyin emas. Yuqorida keltirilgan "It qo'rigan joyga o'ch" maqoli ham jahli chiqib turgan keliniga munosib javob bo'ladi va kelin yolg'ondakam g'udranib qo'yishdan boshqa iloj topolmaydi. Tilamish so'zini ham ikki xil ma'noda tushunishimiz mumkin:

- 1) tilab olingan farzand;
- 2) tilayotgan, so'rayotgan.

"Eshak ilkis silkindi, men momomning kurtasidan mahkam ushlab oldim. Biz Oysuluvlarnikiga Bibiseshanbaga jo'nadik. Ularning uyiga tutzor yoqalab boriladi, bir tomon tutzor, bir tomon paxtazor. O'rtadagi yolg'izoyoq yo'ldan yuvosh eshak bir zaylda odimlaydi. Yerga egilgan tut novdalari yurishga xalal beradi."<sup>148</sup> O'qirman ko'z oldida ajib bir manzara paydo bo'ladi: eshakka mingashgan keksa bir kampir va uning ust kiyimidan ushlagan bolakay.

<sup>147</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>

<sup>148</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>

Shu o‘rinda kurta bizning e‘tiborimizni tortadi. Kurta ayollar ko‘ylaklari ustidan kiyadigan; atlas, adras, beqasam, janda kabi matolardan ichiga astar qo‘yib tikiladigan kiyim turi. Surxon vohasida ko‘pincha janda matosidan tikiladi. Yenglari uzun, yoqasi esa xuddi erkaklar choponining yoqasini eslatadi. Old qismining ikki tomoniga mag‘izlik qo‘yiladi. Ayollar kurtani bosh kiyimlari ustidan kiyishadi. O‘rta yoshlilar och rangli matodan kurta kiygan bo‘lsa, kekxa yoshdagilar to‘q rangli matolardan tayyorlangan kurtani yopinganlar. Rangiga qarab ularning yoshi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

Qishloqning faqat piyodalar yurishi mumkin bo‘lgan so‘qmog‘i... Yozuvchi yo‘lning ikki tomoni tutzor va paxtazor ekanligini bejiz ta‘kidlamayapti. Sababi mustamlaka tuzumi davrida nafaqat, Termiz, balki respublikaning barcha hududidagi yo‘llar ana shunday ko‘rinishda bo‘lgan. Tutzorlar esa pilla yetishtirish uchun zarur edi. Xo‘jaliklar pilla qurti uchun tut bargini yo‘llar chetiga qator qilib ekilgan tutlardan olardilar. Tut shoxlari egilib, yo‘lovchilarga qancha halaqit bermasin, ularni kesishga hech kim jur‘at qilolmas edi.

“Momom menga borganimizdan so‘ng esligina bo‘lib yurishimni ta‘kidlab ketayotir, momomning har gapiga «hmm-hmm» deb qo‘yamanu, xayolim esa borgach bo‘ladigan o‘yin — «urush-urush»da. Biz doim birga bo‘lsak, «urush-urush» o‘ynaymiz. O‘yinni ikkiga bo‘linib olib o‘ynaymiz, bir tomon «sovetlar», bir tomon «afg‘onlar» bo‘ladi. Kim «sovet» bo‘lsa xursand bo‘ladi, chunki Oysuluvning akasi ham «sovet»-da. U hozir armiyada, oti Isroil aka. Oysuluv doim akasi haqida hikoya qilganda Sheralining ham, mening ham unga havasimiz kelib ketadi. Isroil aka dekabrning oxirlarida armiyadan kelar ekan, shunda Ergash aka katta ho‘kiz so‘yib to‘y qilarmish. Isroil akaning uyoqda «tanka»si, Alek degan o‘ris oshnasi bor emish...<sup>149</sup> Murg‘ak qalblar urushni o‘yin sifatida bilishadi. Hikoyaning boshqa qahramonlari ham birin-ketin ana shu zaylda tanishtirilmoqda. Tursunning tengdoshlari Oysuluv va Sherali. Hikoya yozilishiga sababchi taqdir egasi esa Isroil va uning otasi Ergash aka. Armiyaga chaqirilib urushga olib ketilganlarning qaytishi ancha qiyin kechgan. Ayrim askarlar hatto yil oshsa ham rezervga bo‘shatilmagan. Isroil esa dekabrning oxirlarida keladi. Sababi esa juda oddiy: “Isroil akaning uyoqda «tanka»si, Alek degan o‘ris oshnasi bor”.

“— O‘choqdan naryoqqa o‘yna, momong kelyapti, tomog‘ingdi bosadi hozir, — deya Zulfiya xola o‘choq boshidan biz tomonga yura boshladi. Momom bu gal ham eshakdan tandir supasiga tushdi, men esa yerga sakradim. Momom avval Zulfiya xola bilan, so‘ng bolalar bilan bir-bir ko‘rishdi”<sup>150</sup>. Issiq o‘choq atrofida o‘ynayotgan bolalarni uzoqroqqa ketkazish uchun Zulfiya xola hech kimga baqimaydi, urushmaydi, aksincha “momong kelyapti, tomog‘ingdi bosadi” deb qo‘rqitadi. Hozirgi kunda tomoq bosish nima ekanligini uncha-muncha yosh avlod tushunishmaydi. Qishloqlarda ko‘proq saqlanib qolgan. O‘sha vaqtlarda bolasi kasal bo‘lib qolgan onalar farzandini shifokorga emas, mahalladagi yoshi ulug‘ kampirlarga olib borishgan, kinna silatishgan, tomoq bosdirishgan. Kampirning o‘zi shundoq ham og‘rib turgan tomoqni qattiq

<sup>149</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>

<sup>150</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>

bosishi bolalar uchun chinakam og‘riqli bo‘lgan. Zulfiya xolaning tomoq bosish bilan qo‘rqitishi ana shundan.

“Kun tushga yaqinlashib qolgandi. Uyning yonboshidan Zulfiya xolaning «Oysuluv» degan ovozi eshitildi, keyin esa o‘zi ko‘rindi. — Oysuluv, buyoqqa kel qizim, manovi ovqatni Saltanat xolangga berib kel, — dedi Zulfiya xola. Oysuluv menga: «Yur, Tursun, berib kelaylik», dedi. Men bosh irg‘agancha unga ergashdim. Saltanat xola yaqinda farzandli bo‘lgan, hali «chillali», shuning uchun ko‘pchilikka aralasholmaydi. Oysuluv ikkalamiz ro‘molga tugilgan non va uznakdagi ovqatni olib yo‘lga tushdik.”<sup>151</sup> Xalqimiz azaldan mehribon, bir-biriga suyanchiq bo‘lib kelgan. Hikoyada buning isboti o‘laroq, yaqinda chaqaloqlagan qo‘shnisi bibi seshanbaga kela olmaganligi uchun uning nasibasini uyiga olib borishyapti. Chilla- farzand dunyoga kelganda tashqi olamga sekin-sekin moslasha boshlaydi. Bunda atrofdagilardan yuqishi mumkin kasalliklar, ko‘z tegishi va boshqa omillarni hisobga olib, chaqaloq yotgan xonaga begonalar kirgizilmaydi. Hatto shom paytida kelgan yaqin qarindoshlariga ham go‘dak ko‘rsatilmaydi.

Diniy idora vakili Muhammad Ayyub Homidov chilla haqida shunday deydi: “— Dinimizda “chilla” degan narsa yo‘q. Ammo chaqaloq va bolalarni shom namozi kira boshlagan vaqtdan to qop-qorong‘u to‘la tushgunicha ko‘chaga chiqarimasdan turish haqida hadisda ko‘rsatma kelgan. Islom dinida ota-ona farzandini har tomonlama avaylab, ehtiyot qilishga mas‘ul ekani uqtiriladi. Buning uchun dinimiz ta‘limotida farzandni, hatto ko‘z tegishi yoki jinlardan saqlash uchun ham muayyan ko‘rsatmalar keltirilgan. Jumladan, Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kechqurun, farzandlaringizni uyda ushlab turing. Bu vaqtda shaytonlar (jinlar) izg‘ib yuradi. Biror soat o‘tgach, bolalaringizni erkin qo‘ying. Allohning nomini zikr etib eshiklaringizni berkiting. Zero, shayton berkitilgan eshikni ochmaydi”, deganlar (Muttafaqun alayh).”<sup>152</sup>

“Ovqat yerkanmiz, ayollarning harakatiga qiziqib qarab o‘tirardik. To‘rda momom, qo‘liga paxta tutamlarini olib supraning o‘rtarog‘ida turgan kattaligi piyoladay keladigan oqtoshning ustiga qo‘yayapti. Bu tosh momomning chiltontoshi. Toshning ikki tomoni biroz qoraygan. Momom paxtani eshib qo‘yarkan, menga avval ham aytib bergan «Yetim qiz» matalini aytayapti. Momom gapdan to‘xtaganda ayollar gap qo‘shib qo‘yadi: — Hmm, tovba... — Xudoyimning g‘aznasi keng-da...

Ayollarning qo‘lida chigiti olinmagan paxta, ular paxta chigitlab o‘tirishibdi.”<sup>153</sup>

“Yetim qiz” aslida bibi seshanba marosimi uchun asos bo‘lgan matallardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra bir mehnatsevar, atrofdagilarga mehribon, shirinso‘z bir yetim qiz bo‘ladi. Biroq o‘gay uni ko‘p xo‘rlaydi. Qizga har kuni sigirlarni o‘tlatish uchun dalaga ketar edi. O‘gay ona esa uning qo‘liga bir etak paxta berib, uni yigirib qaytishni buyurar ekan. Kunlardan bir kuni qiz sigirni haydab, paxtani yigirish uchun olib ketayotganida sigir tog‘dagi bir g‘orga qochib kiradi. Uning izidan quvib, yetim qiz ham g‘orga qadam qo‘yganida bir bibiga ko‘zi tushadi. Qizning salomiga alik olgan ayol undan hol-ahvol so‘raydi. Qiz bechora yig‘lab holini bayon

<sup>151</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>

<sup>152</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/30494-dinda-savolim-bor-chilla-sa-lash-nima-degani>

<sup>153</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>



qiladi. Shunda Bibi: “Mushkullaring yengillashishi uchun seni har kuni duo qilaman, sen bo‘lsang meni yo‘qlab turgin”, - deb aytadi.

Yetim qiz esa o‘gay onadan ko‘rgan jabrlarini biroz bo‘lsa-da unutish, qolaversa, duogo‘yini yo‘qlash uchun g‘orga tez-tez borib turadi. Shunday kunlarning birida u istiqomat qiladigan joy voliysi to‘y qiladi, unga barchani taklif etadi. Bo‘yi yetgan yetim qizning esa to‘yga kiyadigan libosi bo‘lmaydi. Bibi unga yordamga kelib jannatdan ko‘ylaklar olib beradi. Parilardek go‘zal qizni ko‘rgan to‘y egasining o‘g‘li sevib qolib, unga uylanadi. Bibi o‘limidan oldin qizga vasiyat qilib, shunday deydi: “barcha mehnatlaring rohatga, mashaqqatlaring esa davlatga aylandi. Taom pishir va o‘zing bilan bo‘lgan voqeani bayon qilgin”. “Yetim qiz” matali xalqimiz orasida shu va boshqa shakllarda og‘izdan og‘izga o‘tib kelmoqda.

Muallifning mahorati shundaki, u ona to‘y qilaman, kelin tushiraman deb orzu qilayotgan bir vaqtda ota farzandining o‘limi haqida eshitadi. Zulfiya xola bilan qo‘shilib orzularga berilgan kitobxon, Ergash akaning unsiz hayqirig‘idan o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Ayniqsa, bularning barchasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, eshitib turgan Tursun uchun bu juda og‘ir kechadi: “Xonaga bir zum og‘ir jimlik cho‘kdi. Shu mahal uyning orqa tomonidagi derazadan boshiga supra qo‘ygan Zulfiya xola ko‘rindi. U to‘xtab-to‘xtab, baland ovozd o‘ziga-o‘zi gapirardi. Uning ko‘zlari juda uzoqlarga qadalgandi. — Isroilimdi ko‘ryapman, ko‘rayapman, yuzlari oday bo‘p kelayapti. Isroilimga kelin tushirayapman, kelinimning... — Zulfiya xolaning ovozi pasaydi, uyni aylanib ketdi.

Mening esa uydan yugurib chiqqim keldi shu topda. — Enasi eshitmasin, enasi, — Ergash aka ko‘zlarini artarkan qiynalib o‘rnidan turdi. Mehmon ham o‘rnidan qo‘zg‘oldi. Gilamning ustida esa haligi qog‘oz g‘ijim bo‘lib yotardi. — Ergash aka... endi peshonasida bor ekan-da. Ertaga soat 12 da Termizga... — gapning davomini eshitmay tashqariga otildim, eshikka yetganda qo‘lida dasturxon va tarvuz ko‘targan Oygulga urilib ketdim. Ayollar ham tashqariga chiqayotgan ekan, momom esa Zulfiya xola jilovidan tutib turgan eshagimizga minayotibdi. Yugurib ayvondan chiqarkanman, og‘il tomondan kelayotgan Sheralining «Ta-taat, Tursun, o‘lding, urra afg‘onlar yengildi», degan hayqirig‘i eshitildi. Men esa momom tomonga parishon borarkanman, birdan baqirib yig‘lab yubordim. Ayvondan esa Ergash akaning baland, lekin titroq ovozi eshitildi. — To‘xtat urush-urushingni, ikkinchi o‘ynaganingni ko‘rmayin. Zulfiya xola esa meni eshakka mindirarkan, hadeb ovutardi: — Yig‘lama Tursunjon, yig‘lama, o‘yinda yig‘lagan kal bo‘ladi...” Zulfiya xola o‘g‘li Isroilning o‘lganidan bexabar Tursunjonni yupatardi. Tursun esa xuddi kattalar singari Isroilning o‘lganini hech kimga aytmaydi, birgina sovuq xabar yoshgina bolakayni bir zumda ulg‘aytirib qo‘yadi.

Urush oddiy o‘yin emasligini, avtomat shunchaki o‘yinchoq emas, yaqinlarining umriga zomin bo‘luvchi qurolligini anglab yetgan Tursun bir zumda ulg‘ayib qolgandek, nazarimizda. Ha, Afg‘on-Sovet urushi ko‘plarning yostig‘ini quritdi. Qancha-qancha oilalarning Isroildek ayni kamolga yetgan farzandlari yog‘och otda uylariga qaytdilar. Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, “O‘zbekistondan 64 500 nafar yigit Afg‘on urushida ishtirok etgan va ulardan 1522 nafari halok bo‘lgan. 2500 nafardan oshiqroq o‘zbekistonlik [nogiron](#) bo‘lgan. Albatta, yuqoridagi raqamlar SSSR tarqab ketgunicha berilgan rasmiy ma‘lumot hisoblanadi va u ancha kamaytirib ko‘rsatilgan bo‘lishi ehtimoli ham yo‘q emas”.<sup>154</sup>

<sup>154</sup> <https://kun.uz/uz/news/2020/01/14/millionlar-nolasi-afgon-urushi-qanday-boshlanib-qanday-tugagan>

#### REFERENCES

1. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/49305-bibi-seshanba-va-mushkulkushod-islomda-bormi.html>.
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shodmonqul-salom-1980/shodmonqul-salom-bolalikning-so-nggi-kuni-hikoya>
3. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/30494-dinda-savolim-bor-chilla-sa-lash-nima-degani>
4. <https://kun.uz/uz/news/2020/01/14/millionlar-nolasi-afgon-urushi-qanday-boshlanib-qanday-tugagan>

## YIG'ISH ISH CHIZMALARI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Solijonova Muxtasarxon Jaxongir qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy san'at yo'nalish talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7974622>

*Anontatsiya.* Ushbu maqolada yig'ish chizmalari haqida umumiy ma'lumot va tushunchalar berish, yig'ish chizmasini taxt qilishni o'rganish, yig'ish chizmalarida shartliklar va soddalashtirishlar haqida tushunchalarga ega bo'lish haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* yig'ma chizmalar, taxt qilish, yig'ma birliklar, fazoviy tasavvur ekspluatatsiya.

## ASSEMBLY WORK DRAWINGS

*Abstract.* This article provides an overview and understanding of assembly diagrams, learning how to draw an assembly diagram, and understanding assembly diagram conventions and simplifications.

*Key words:* collective drawings, enthronement, collective units, spatial imagination, exploitation.

## СБОРОЧНЫЕ РАБОЧИЕ ЧЕРТЕЖИ

*Аннотация.* В этой статье представлен обзор и понимание схем сборки, обучение рисованию схемы сборки, а также понимание соглашений и упрощений схемы сборки.

*Ключевые слова:* коллективные рисунки, интронизация, коллективные единицы, пространственное воображение, эксплуатация.

## KIRISH

Mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida ta'lim va tarbiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillari – xalqimiz uchun chindan ham o'zlikni anglash, ma'naviy-ruhiy tiklanish davri bo'ldi. Vatanimizning qadim va shonli tarixiga, xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosiga bo'lgan munosabat o'zgardi. Betakror tilimiz, muqaddas dinimiz, azaliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarimizning hayotimizdagi o'rni va nufuzi qayta tiklandi, donishmand ajdodlarimiz xotirasiga munosib hurmat va extirom ko'rsatildi. Eng muhimi, pirovard maqsadida mamlakatimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat barpo ko'zlangan, asosiy g'oyalarini yurt tinchligi, vatan ravnaqi, insonni kamoloti, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlik tashkil etuvchi milliy mafkuraning metodologik va kontseptual asoslari yaratildi. Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

## METODOLOGIYA

Texnikaning jadallik bilan rivojlanishi esa yetishib chiqayotgan mutaxassislarining zamonaviy bilim tajribasiga bog'liqdir. Bu borada arxitektura qurilish oliygohlarida zamon talabiga javob beradigan, har tomonlama yetuk, qobiliyatli mutaxassislar tayyorlanishi lozim.

Chizmachilik darslarida yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarni yoshlarda sog'lom turmush tarzi va har tomonlama barkamol etib shakllanishiga ta'sir etuvchi zararli illatlardan saqlash.

O'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida kasb-hunarni ongli ravishda tanlashi uzluksiz ta'lim tizimida jamiyat talabiga mos, raqobatbardosh kasb egasi hamda har tomonlama etuk kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Buyumni loyihalashni hamma bosqichlarida yig'ma birlikni chizmalariga ishlov beriladi, shu bilan birga loyihalash hujjatlariga ishlov berish bosqichida ularni umumiy ko'rinish chizmasi, ishchi hujjatlarni bajarish bosqichida yig'uv chizmasi deyiladi.

Umumiy ko'rinish chizmasi buyumning konstruksiyasini ishlab bitirish, yig'uv chizma, uni yig'ish (tayyorlash) va nazorat qilish uchun mo'ljallangan.

Shuningdek yig'uv chizma bo'yicha buyumning konstruksiyasini va ishlash prinsipini o'rganiladi. Eksploatatsiya jarayonida tartibga soladi, buyumni ish o'rniga o'rnatadi (montaj qiladi) va ularni tamirlaydi.

Konstruktorlik byurolarda va o'quv jarayonida yig'ma birlikni chizmasi bo'yicha buyumning ishchi chizmasi bajariladi. Korxonalarni texnik bo'limida undan ishlab chiqarishni tayyorlash, texnik xujjatlarni ishlov berish va tayyor mahsulotni nazorat va qabul qilish uchun foydalaniladi.

#### **MUHOKAMA**

Yig'ma birlikni chizmasi buyumlarga ajratish va birlikni va unga kiruvchi hamma buyumlarni konstruktiv tuzilishini to'liq ochadi. Yig'ish chizmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yig'ma birlikni tasvirini – berilgan chizma bo'yicha birlashtirilgan, tarkibiy qismni o'zaro bog'lanishi va joylashishi haqida tushuncha beruvchi, yig'ma birlikni yig'ish va nazorat qilishni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi;

Buyumning o'lchamlarini;

g) Tutashmani xarakteri va uni amalga oshirish usullari haqida agar tutashmani aniqligi chekli-chetga chiqish bilan ta'minlanmasdan, tanlash va moslash bilan ta'minlansa;

v) Chekli-chetga chiqish va boshqa parametrlarni berilgan yig'ish chizmasi bo'yicha, bajarilishi shart bo'lgan yoki nazorat qiluvchi talablar;

d) Ajralmas birikmalar buyumning biriktirish usuli haqida ko'rsatma (payvandlash, kavshirlash va boshqalar);

e) Birlikga kiruvchi tarkibiy qismlarni pozitsiya nomerlari.

Birikmani konstruktiv hujjatlarini tarkibiga gaborit, montaj va nazariy chizmalar kirishi mumkin.

Gaborit chizmalar – bu chizmalar birlikni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan va ishlab chiqish hamda yig'ish uchun ma'lumot bo'lishi kerak emas. Shuning uchun bu chizmalarni maksimum soddalashtirilgan holda tayyorlanadi (1-shakl).

Gaborit chizmada ko'rinishlar soni minimum bo'lishi kerak, lekin birlikni tashqi ko'rinishi haqida yetarlicha to'liq ma'lumot berish kerak, uni turtib chiqqan qismini holati xaqida, (richag, chambarak, knopka, ruchka va boshqalar), doimiy ko'z ostida bo'lgan element (misol, shkalolar) birlikni aloqa elementlarini boshqa birlik elementlari bilan joylashishi haqida, yetarlik ma'lumotga ega bo'linadi.

Gaborit chizmada harakatda suriladigan yoki richag, karetk, ilmoqli

## NATIJA

Qopqoqlarni va boshqalar yig'diriladigan qismlarni chetki holati ko'rsatilishi kerak. Gaborit chizmada birlikni tasvirini asosiy tutash chiziq, harakatdagi qismning tashqi ko'rinishini chetki holatni ingichka shtrixpunktir chiziq bilan tasvirlanadi. Gaborit chizmada, birlikni gaborit o'rnatuvchi va biriktiruvchi o'lchamlari qo'yiladi va zarur hollarda chiqib turgan qismni aniqlovchi holatini ham ko'rsatiladi.


Montaj chizmalar. Yig'ish chizmasiga qo'yilgan qoida bo'yicha soddalashgan tasvirda bajariladi.

Montaj qilish uchun kerakli tarkibiy qismini ro'yxati va montaj qilinadigan birikma ham, chizmada joylashtiriladi, spesifikasiya ko'rinishida taxt qilinadi. Ro'yxat o'rniga montaj qilinayotgan birlikni belgilanishi, shuningdek yig'ma birlikni montaj qilish uchun kerakli buyumlar va materiallarni chiqarish chizig'ini tokchasida ko'rsatish mumkin.

1-shakl.

Xulosa va tavsiyalar

Buyumni loyihalashni hamma bosqichlarida yig'ma birlikni chizmalariga ishlov beriladi,



shu bilan birga loyihalash hujjatlariga ishlov berish bosqichida ularni umumiy ko'rinish chizmasi, ishchi hujjatlarni bajarish bosqichida yig'uv chizmasi deyiladi.

Umumiy ko'rinish chizmasi buyumning konstruksiyasini ishlab bitirish, yig'uv chizma, uni yig'ish (tayyorlash) va nazorat qilish uchun mo'ljallangan.

Shuningdek yig'uv chizma bo'yicha buyumning konstruksiyasini va ishlash prinsipini o'rganiladi. Eksploatatsiya jarayonida tartibga soladi, buyumni ish o'rniga o'rnatadi (montaj qiladi) va ularni tamirlaydi.



Konstruktorlik byurolarda va o'quv jarayonida yig'ma birlikni chizmasi bo'yicha buyumning ishchi chizmasi bajariladi. Korxonalarni texnik bo'limida undan ishlab chiqarishni tayyorlash, texnik xujjatlarni ishlov berish va tayyor mahsulotni nazorat va qabul qilish uchun foydalaniladi. Yig'ma birlikni chizmasi buyumlarga ajratish va birlikni va unga kiruvchi hamma buyumlarni konstruktiv tuzilishini to'liq ochadi.

Berilgan mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, innovatsion pedagogic texnologiyalarning mashg'ulot davomida qo'llanilishi mavzuni o'zlashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklarni sezilarli darajada kamayishiga olib keladi, hamda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlarida ijobiy ta'sirini ko'rsatadi

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24- yanvardagi Oliy majlisga murojatnomasi.
2. .Valiyev A, Boboyeva Z.A, Gulomova N.X, murojatnomas
3. Mashinasozlik chizmachiligidan grafik vazifalarning metodik ishlanmasi.
4. Murodov Sh. "Chizma geometriya" Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik,- T: 2008
5. S.S.Saydaliyev "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" o'quv qollanma - Toshkent: TAQI, 2017. 292-298 b

## AKVARELDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI VA USULLARI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy sa'nat va grafik muhandislik  
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975083>

*Annotatsiya.* Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarini ko'payishiga va xilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelningbir qancha turlari mavjud. Ushbu maqolada akvarel ishlatish metodikasi yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* akvarel, rang, bo'yoq, tasvir, o'chirgich, modda, qog'oz.

### TECHNOLOGY AND METHODS OF WORKING IN WATERCOLOR

*Abstract.* The complexity and improvement of the methods of working with watercolor led to the increase and diversification of its types. Now there are several types of watercolors. This article describes the method of using watercolors.

*Key words:* watercolor, color, paint, image, eraser, substance, paper.

### ТЕХНОЛОГИЯ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ АКВАРЕЛЬЮ

*Аннотация.* Усложнение и совершенствование приемов работы с акварелью привело к увеличению и разнообразию ее видов. Сейчас существует несколько видов акварели. В этой статье описывается способ использования акварели.

*Ключевые слова:* акварель, цвет, краска, изображение, ластик, субстанция, бумага.

### KIRISH VA ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rta Osiyoda akavrelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi. O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel bilan ishlashusullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uningturlarini ko'payishiga vaxilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelningbir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozisiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

### MUHOKAMA

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya

turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan, jigar rang, qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiiy, jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi. Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar. Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar: kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars. Qora kukunlar: -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi.

Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

Bir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, xaddan tashqari q'zbekiston Respublikasiqshab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va slqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda kenqo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tushlari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-

birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'lishidan asraydi.

«Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarimas temperaturali joyiga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim, mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan (yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm

Ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa- yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamningt bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ish ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilag yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l xarakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Mo'yqalam ishlatilib bo'lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so'ng tirgakka solib qo'yiladi yoki mo'y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo'yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo'yish ham mumkin.

#### **NATIJA**

Akvarel bilan ishlashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish

tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

### **XULOSA**

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'riladi.

Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.

Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim. Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi,

Hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin.

Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

### **REFERENCES**

1. Apuxtin O. Tasviriy san'at asoslari.T. 1978 yil. 5.Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar. Nam. 1992 yil.
2. Bulatov S. S. Ashirova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. T., Qobuslar bosh taxririya, 1992 yil.
3. Beda. V.Rangtasvir. M. 1968 yil.
4. Borsh K. Qalamtasvir.M. 1974 yil.



## ONA TILI TA'LIMIDA LUG'AT BILAN ISHLASHNING AFZALLIKLARI

Sharipova Gulzina Ikrom qizi

Samarqand Davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti  
401-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975165>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tili va tafakkuri to'g'risida, ona tili darslarini ta'lim tizimida yangicha yondashuv asosida o'qitilishi, jumladan, ona tilini o'qitishda lug'atlarning o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, lug'at, ona tili, ta'lim tizimi, o'qituvchi, o'quvchi, yondashuv.

### ADVANTAGES OF WORKING WITH THE DICTIONARY IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION

**Abstract.** This article will talk about Uzbek language and thinking, about teaching native language lessons on the basis of a new approach in the education system, including the role of dictionaries in teaching the native language.

**Keywords:** speech, vocabulary, native language, educational system, teacher, reader, approach.

### ПРЕИМУЩЕСТВА РАБОТЫ СО СЛОВАРЕМ ПРИ ОБРАЗОВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной статье говорится об узбекском языке и мышлении, преподавании родного языка в системе образования на основе нового подхода, в том числе о роли словарей в обучении родному языку.

**Ключевые слова:** речь, лексика, родной язык, образовательная система, учитель, ученик, подход.

Mamlakat rivojlanishida ko'pincha yosh avlod asosiy o'rin tutadi. Yoshlarning ma'nan yetuk va bilimli bo'lish kabi xislatlarni shakllanishiga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lim – tarbiya tizimi hisoblanadi. Yosh avlodning ta'lim – tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, ta'lim tizimining ona tili darslarida o'quvchilar tilshunoslik bo'limlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Til millatning ma'naviyat ko'zgusi, ma'rifat chirog'i, bilim kaliti bo'lganligi uchun uni o'rganish, tahlil qilish va yosh avlodga til grammatikasi, semantikasi bo'yicha ta'lim berish tilshunoslik soha vakillari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson borliqdagi jarayonlarni idrok qilishi, anglashi va fikrlashida ona tilining o'rni beqiyosdir.

Shuning uchun til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'lib, inson ongidagi o'y-xayollari va fikrlarini shu orqali bilish mumkin. Insoniyatga ibrat bo'la oladigan odamning nutqi, fikrlari, muomala madaniyati xuddi bahorda esadigan yoqimli shabadaga o'xshaydi. Aksincha, ongida salbiy fikrlar, yomon niyatlari bo'lgan, hasad, kibr, manmanlik cho'qqisiga chiqqan kimsaning nutqi qish qahratonidagi sovuq misoli yoqimsizdir. Ona tiliga bo'lgan muhabbat, hurmat boshlang'ich ta'lim jarayonlaridan boshlanadi.

Ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning til malakalari takomillashib, fikrini to'g'ri, ongli va ifodali bayon etish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi. [2.28]. Afsuski yuqori sinflarga o'tgan o'quvchilarning aksariyati o'zbek tiliga faqatgina so'zlashuv

vositasi va ta'lim olish quroli sifatida qaraydi. Darsliklardagi grammatik bilimlarni ham imtihonlardan o'tish va test yechish uchungina o'rganadi. Zamonamiz yoshlariga darsliklar zerikarli tuyilishi mumkin. Shu maqsadda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsliklarning mazmuni, dizayni va matnida imlo xatolarsiz nashrga tayyorlash, amaldagi o'quv qo'llanmalardagi xato va kamchiliklarni tuzatish maqsadida "Darsliklarga taklif" kanali tashkil etildi, bu kanal ocilishi bilan til haqida uning rivojlanish bosqichlarini takomillashtirish yuzasidan sakkiz mingdan ortiq talab va takliflar bo'ldi. Respublika ta'lim markazi tomonidan o'rinli deb topilgan 1600 ga yaqin taklif qabul qilindi. 2025-yilgacha yangi darsliklar ishlab chiqish masalalari respublika miqyosida o'tkazilgan seminarida muhokama qilindi. Bu esa til o'rganishdagi talab va takliflarni amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir tilning faxrlanadigan asosiy jihatlaridan biri uning lug'at boyligidir. O'zbek tili ham lug'atga boy til bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining orfografik lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati", "Hozirgi o'zbek adabiy tili faol so'zlarining izohli lug'ati", "O'zbek ismlari lug'ati" kabi lingvistik va qomusiy lug'atlar yaratilgan. Ular ona tilimiz xazinasidir. Afsuski, hozirda ona tili darslari faqat qoida yodlab, mashq bajarish bilan chegaralanib qolgan. Lug'atlardan maktab darslari tugul, boshqa ta'lim bosqichlarida ham foydalanish miqdori juda kam. Faqat DTM testlarini yechish uchun imlo lug'atiga ba'zida ko'z tashlanadi, xolos. Ingliz, rus, arab tili o'rganishga brogan o'quvchidan ilk darslardanoq lug'at kitob xarid qilib, yodlash talab qilinadi, chunki lug'at bilan ishlash samarali natija beradi. O'quvchilarning savodxonligi yaxshi rivojlanishi uchun o'zbek tiliga doir lug'atlarni o'rganishni keng yo'lga qo'ysak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili fanining vazifasi o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'z fikrini batafsil, chiroyli bayon qilishga o'rgatishdir. Fikr esa til orqali bayon etiladi. Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - lison va nutq tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. "Lison, - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boyluk. Nutq esa ana shu boylukdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi" [3.4].

Shunday ekan, har bir millat vakili o'z ona tilni va undan foydalanish taktikasini, albatta, bilishi kerak. Bu jarayonda tilning grammatikasini o'rganish bilan birga, tilimizning nutqiy faoliyatdagi mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, bayon etilayotgan fikrini, ham og'zaki, ham yozma shaklda to'g'ri, tushunarli tarzda tinglovchiga yetkazish muhimdir. Bunda ona tili dasrlarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor berish kerak. Lug'at ustida ishlash jarayonida so'zning imlosi, ma'nosi, talaffuzi e'tiborga olinib, shular ustida ishlashga ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning nutqda o'zgaralar nutqini anglashlarini ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llanadigan har bir so'zning, ta'lim jarayonlarida, ishlatiladigan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilarini ustida alohida ishlash kerakligiga aniqlik kiritishi lozim.

Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlarning quyidagi ma'nolari bilan tanishtiriladi:

- O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish.
- O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.
- O'quvchilar tilida kam qo'llaniladigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.

- Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash.
- Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish.

O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Ular ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. So'z ma'nosini o'zlashtirish bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llaniladi. Ularning o'rnida oddiy so'zlarni qo'llashadi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqida qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi zarur. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib "Bilib qo'ygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi. O'quvchilarga grammatik atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatilgandan keyin misollar asosida uni mazmuni ochiladi. Qoidani o'qitish va mashqlar bajarish orqali atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish va lug'at boyligini takomillashtirish uchun tilning leksika bo'limi so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ko'p ma'noli so'zlar, kam ishlatiladigan so'zlar, tasviriy ifoda va iboralarni o'rganish jarayonida sinonimlarni qo'llash, tilning sinonimik imkoniyatlaridan foydalanish maqbul usul hisoblanadi. O'quvchilar yozma savodxonlikni oshirishning muhim jihati matnlar xilma-xilligini ta'minlashdir. Ona tili darsliklaridagi matnlar va mashqlar asosan, badiiy asarlardan olinadi, lekin o'zbek tilining lug'at boyligi faqat bu bilan o'lchanmaydi. Jamiyatning har bir sohasiga tegishli matn bu - o'zbek tili o'rganadigan obyekt hisoblanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at bilan ishlash malakasini shakllantirsak, yuqori natijalarga erishamiz. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis ona tilini chuqur bilmasligi mumkin, aksincha o'zbek tilining yetuk bilimdoni IT sohasini tushunmasligini guvohi bo'lamiz. Bu ikki shaxsning bilimi birlashsagina, o'zbek tili ham zamonaviy texnologiyada o'z o'rnini egallab, xalqaro tillar safiga kiradi. Bu uchun har bir yosh o'quvchi o'zbek tiliga doir lug'atlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

## REFERENCES

1. Mirtojdiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Universitet" nashriyoti. – T., 2006, 4 bet.

INGLIZ TILI DARSLARIDA HAYVONOT OLAMINI O'RGATISH  
ISHLANMA – LOYIHASI

Artikova Nargiz Shuxratovna

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [nargizartikova1982@gmail.com](mailto:nargizartikova1982@gmail.com)

Nurmatova Shahnoza Xasan qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich

ta'limda xorijiy til yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: [xasanovnabonu347@gmail.com](mailto:xasanovnabonu347@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975272>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarning ingliz tili darslarida hayvonot olamini o'rgatish ishlanma loyihasi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** hayvon, inglizcha ertaklar, yangi so'zlar, yovvoyi tabiat olami, rang barang multfilmlar, hayvon qaxramonlari, jismoniy faoliyat, taqlit, rolli o'yin, tematik darslar, video materiallar, sirk, uy hayvoni, audiolar.

PROJECT OF TEACHING THE WORLD OF ANIMALS IN ENGLISH CLASSES

**Abstract.** This article provides information about the development project of teaching the animal world in English language classes for young children.

**Keywords:** animal, English fairy tales, new words, wildlife world, colorful cartoons, animal characters, physical activity, imitation, role play, thematic lessons, video materials, circus, pet, audios.

ПРОЕКТ ОБУЧЕНИЯ МИРУ ЖИВОТНЫХ НА КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО  
ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о развивающем проекте обучения животному миру на уроках английского языка для детей раннего возраста.

**Ключевые слова:** животное, английские сказки, новые слова, мир дикой природы, красочные мультфильмы, персонажи-животные, двигательная активность, подражание, ролевая игра, тематические уроки, видеоматериалы, цирк, домашнее животное, аудиозаписи.

Kirish

Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ingliz tilini o'rganish va o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilini o'rganish lug'at ustida qattiq ishlashni talab qiladi. Lug'at odatda biz ingliz tilida o'rgatgan so'zlar sifatida aniqlanadi. O'qituvchi hayvonlarning rasmini ko'rsatishi yoki mos keladigan mashqlardan foydalanishi mumkin. Masalan, u "quyon" so'zini yozadi va uning rasmini o'quvchilar eslab qolgan joyda ko'rsatadi yoki bir nechta hayvonlarning (masalan, it, mushuk, tulki, ayiq va h.k.) nomlarini yozib, ularning rasmlarini qo'yadi. Qarama-qarshi ustun so'zlar va rasmlarga mos kelishini so'raydi.

Hayvonlarning lug'atini ko'rsatish aqliy hujum orqali ham amalga oshirilishi mumkin, bunda o'qituvchi ma'lum bir hayvonni, keling, tulkini aytamiz va har bir o'quvchi ushbu hayvonga tegishli so'z, ibora yoki so'z birikmasini aytadi (masalan, ayyor, ayyor, chiroyli, uzun quyruq). O'qituvchi ushbu mashqni bajarish orqali o'quvchilarning diqqatini darsga jalb qilishi va ularni

qizdirishi mumkin. Ushbu mashq ogʻzaki yoki yozma shaklda bajarilishi mumkin, bunda oʻqituvchi soʻzni doskaning oʻrtasiga yozadi va oʻquvchilardan aqliy hujum qilishni soʻraydi.

Lugʻatni taqdim etishning keyingi bosqichi ushbu soʻzning taʼrifini mos keladigan mashqlar sifatida koʻrsatishi mumkin, bunda oʻqituvchilar ingliz tilining bir tilli lugʻatlaridan maʼlum soʻzlar va ularning taʼriflarini tayyorlaydi va tanlangan soʻzlar va ularning taʼriflarini ikkita alohida ustunga ajratadi.

Hech boʻlmaganda asosiy "hayvon" lugʻatini oʻzlashtirmasdan, ingliz tilida soʻzlashuvchi suhbatdoshi bilan suhbatda chet ellik maʼlumotlarning muhim qismini yoʻqotish xavfi bor. Ingliz tilidagi hayvonlarning nomlari bolalar va kattalar tomonidan ishtiyoq bilan oʻrgatiladi. Bolalar uchun hayvonlarning nomini eslab qolish mavhum narsalarga qaraganda osonroq. Ingliz tili darslarida bolalar soʻraydigan birinchi savollardan biri bu, ingliz tilida "hayvonlar"ni qanday aytasiz? Hayvonlarning nomlari ingliz ertaklarida ham uchraydi. Ekzotik hayvonlarning nomlari bilan tezda tanishishni istagan kattalarga yovvoyi tabiat olami haqida ingliz tilidagi hujjatli filmlarni tomosha qilishni tavsiya qilish mumkin. Baʼzan turli hayvonlarning nomlari sanab oʻtilgan ritmik bolalar qoʻshiqlarini bir necha marta tinglash foydali boʻladi. Va, albatta, asl nusxadagi rang-barang Disney multfilmlarini (The Lion King, Lady and the Tramp, Bambi va boshqalar) hech kim bekor qilmagan. Hayvonlar har doim bola bilan oʻynash uchun ajoyib mavzudur. Va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili darslarida, oʻyinda ushbu materialdan oʻtish yaxshidir. Hayvon qahramonlari bilan qoʻshiqlar va multfilmlar - bolalar uchun ingliz tilida koʻplab taʼlimiy qisqa qoʻshiqlar va hayvonlar bilan multfilmlar mavjud. Ammo, agar bilim darajasi imkon bersa, siz "Qirol sher", "Madagaskar" yoki "Zootopiya" ni asl nusxada koʻrishingiz mumkin. "LARP" (jonli rolli oʻyin) - siz jismoniy faoliyatni soʻzlarni yodlash bilan birlashtira olasiz, shuningdek, reaksiyani rivojlantirish ustida ishlashingiz mumkin. Bolalar turli hayvonlarning xatti-harakati yoki tovushlarini taqlid qilishlari mumkin, oʻqituvchi oʻyin davomida yangi hayvonni tayinlashi mumkin va bola tezda rolni oʻzgartirishi kerak.

"Novakid" oʻqituvchilari tematik darslarni shakllantiradilar va darsda doimiy ravishda oʻyin elementlari, qoʻshiqlardan foydalanadilar. Novakid oʻziga xos koʻplab tarkibga ega, jumladan, qiziqarli qahramonlar bilan animatsion komikslar va bolalar oʻrmonga borishlari, yovvoyi tabiat fotografi rolini sinab koʻrishlari mumkin boʻlgan VR sayohatlari va boshqalar. Oʻquvchining oʻrganish uslublariga koʻra lugʻatni oʻrgatishda turli xil uslubiy yondashuvlar boʻlishi kerak. Audio oʻquvchi uchun har doim ona tilida soʻzlashuvchi tomonidan oʻqiladigan skriptni yoki hayvonlar haqida maʼlum mavzulardan foydalanishga oid video materiallarni (masalan, National Geographic Channel filmi yoki dasturi) oʻqiydigan audio lingval usulidan foydalanish foydalidir.

Rolli oʻyin ham samarali usul boʻlishi mumkin, bunda oʻquvchi hayvonlar haqidagi ertak hikoyasini sahnalashtirishi kerak, bunda har bir ishtirokchi maʼlum bir hayvon rolini bajaradi va uni tasvirlash va sahnada ijro etish orqali uning xarakterini koʻrsatishga harakat qiladi. Faoliyat tasnifi lugʻatni oʻrgatishda, shuningdek, hayvonlarni bildiruvchi soʻzlarni uy va yovvoyi hayvonlarga boʻlish uchun jadvalni taqdim etish orqali ham qoʻllanilishi mumkin. Texnik lugʻatni oʻrgatishning eng muhim nuqtalari oʻquvchilar uchun oʻquv dasturiga kiritilishi kerak, ularda a) hayvonlarning ingliz tilidagi nomlari kabi mavzular va b) xarakter, tavsif, ularning turmush tarzi va boshqalarni ifodalash kabi vazifalar boʻlishi mumkin. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirgan holda, lugʻatni oʻrgatishda turli xil zamonaviy pedagogik usullardan



foydalanish, xususan, ingliz tilidagi "hayvonlar" ni bildiruvchi soʻzlarning semantik sohasiga tegishli lugʻat samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Hayvonlarning turli xil toʻgʻri nomlari bilan nomlanishi qadim zamonlardan to hozirgi kungacha sodir boʻlgan, bu ularning inson hayotidagi beqiyos oʻrni bilan bogʻliq: ular insonning iqtisodiy faoliyatida ajralmas yordamchi, sirk va hayvonot bogʻi xodimlari, yaqin va haqiqiy doʻstlardir.

Shunday qilib, kompyuterlashtirishning tarqalishi va yangi atamalarning paydo boʻlishi Chip kabi hayvonlar nomlarining paydo boʻlishiga olib keldi. Flash va boshqalar. Baʼzi taxalluslar shu qadar mashhur boʻlib, tez-tez ishlatib turilganki, ular maʼlum bir sinfga tegishli har qanday hayvonni chaqirishadi, masalan, itlar orasida Drujok, mushuklar orasida Vaska. Ingliz adabiyotida koʻpincha hayvonlarning nomi ularning nomidir: Cat, Dog, koʻpincha maqolasiz va bosh harf bilan yoziladi. Zoonimlar koʻpincha hayvonlarning jismoniy fazilatlarini, ularning tashqi koʻrinishini, xarakter xususiyatlarini, aql-idrokini, koʻnikmalarini aks ettiradi, bu adabiyotda ayniqsa muhimdir, agar shaxsga xos boʻlgan hayvon unga xos boʻlgan oʻziga xos xususiyatlar tufayli maʼlum bir nom olgan boʻlsa; bu orqali oʻquvchilarning qiziqishini oshiradi va muallifning gʻoyasini tushunishga yordam beradi.

#### REFERENCES

1. <https://goaravetisyan.ru/uz/zhivotnyi-po-angliiski-tematicheskaya-leksika-nazvaniya/>
2. Verenina J.B. Oʻrganilayotgan va ona tillarining fonetik asoslarining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ingliz tilini talaffuz qilishni oʻrgatish / J.B. Verenina // Maktabda chet tillari. - 1994 yil - 5-son
3. Жуманова, Ф. У., Артикова, Н. Ш. (2022). PISA va TIMSS қиёсий халқаро тадқиқотлар. Yangi oʻzbekistonda pedagogik taʼlim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 452-454.
4. Usmanova, K. A., Artikova, N. S., Xasanov, R. N., & Qarshiboeva, O. (2022). Oziq-ovqat sanoatida anjirni oʻrni. Science and Education, 3(5), 188-190.
5. Artikova, N. Sh., Jumanova, F. U. (2021). Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻquvchilarida oʻqish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Образование и наука XXI веке, 1(19), 455-460.
6. Jumanova, F. U., Artikova, N. Sh. (2021). Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий амалий тадқиқотлари, 10(29), 106-109.
7. Артикова, Н. Ш. (2021). Ўқувчиларда ўқиш ва матнни тушуниш саводхонлигини ривожлантириш. Актуальные вызовы современной науки, 1(55), 63-67.
8. Jumanova, F. U., Artikova, N. Sh. (2021). Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy asoslari. Образование и наука в XXI веке, 3(20), 389-396.

9. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda “organayzer” metodidan foydalanish imkoniyatlari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1471-1475.
10. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma’rifiy pedagogic muammo sifatida. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 81-88.
11. Артикова, Н. Ш., Болтаева, Т. Р. (2020). Бошланғич ва юқори синфлар адабий таълими узвийлиги билан боғлиқ муаммолар ҳамда уларнинг ечими. *Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur*. *Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur*, 1(1), 368-370.
12. Артикова, Н. Ш. (2019). Бошланғич синф ўқувчиларини халқаро тадқиқотларда ўқиш саводхонлигини баҳолаш бўйча PIRLS дастурига. Таълимдаги инновациялар ва ислохотлар контекстида замонавий кластер тизими, 2(1), 53-55.
13. Nargiz Shuxratovna, A. . (2022). BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1592–1594. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/2071>
14. Artikova Nargiz Shuxratovna, Abduvosiyeva Zuhra Isroil qizi. (2023). XORIJIY TILLARNI O’QITISH VA UNING XUSUSIYATLARI. *IQRO JURNALI*, 2(1), 331–340. Retrieved from <http://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/288>

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

**Rajabova Maxsuda Salimovna**

Namangan viloyati Chust tumani 58-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975334>

*Annotatsiya.* Maqolani yozishdan maqsad boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, psixologik, psixologik - pedagogik muammolarni o'rganishga qaratilgan tatiqotlar.

*Kalit so'zlar:* boshlang'ich ta'lim, psixologik, psixologik - pedagogik muammolar.

### INCREASING STUDENT ACTIVITY IN PRIMARY CLASS READING LESSONS

*Abstract.* The purpose of writing an article is to increase the activity of students in elementary school classes, to study psychological, psychological and pedagogical problems.

*Keywords:* primary education, psychological, psychological and pedagogical problems.

### ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Аннотация.* Цель написания статьи - повысить активность учащихся начальных классов, изучить психологические, психолого-педагогические проблемы.

*Ключевые слова:* начальное образование, психологические, психолого-педагогические проблемы.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida yangilanayotgan pedagogik tafakkur asosidagi ta'lim - tarbiya samaradorligiga erishish bevosita o'quvchilar faolligini oshirishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'nan eskirgan va ta'limning sho'rolar tuzumi davridagi avtoritar usuliga asoslangan shakllari bugungi kun talablariga javob bermay qoldi. Zero, bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi hukmron bo'lgan, o'uvchining faoligi va mustaqil fikr yuritishga intilishini mutlaq bo'g'ib qo'yadigan o'qitish metodlaridan batamom voz kechish zarurligi ta'lim taraqqiyotining muhim shartidir. Buning o'rniga o'quvchi faolligini oshirish hamda mustaqil fikrlashga kengroq imkon beradigan pedagogik texnologiyalarni joriy etish kun tartibidagi dolzarb masalalardandir.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish natijasida samaradorlikni oshirishning o'quvchi faoligi bilan bog'liqligi mazkur muammoni alohida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'quvchi faolligining mohiyati, uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, kelajak avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashga tutgan o'rniga doir muammolar metodika ilmida kechiktirmay hal qilishi lozim bo'lgan vazifalardir.

Faollik arabcha "faol" so'zidan olingan bo'lib, biror ishga g'ayrat bilan kirishish, astoydil ishlash, ishchanlik ma'nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqib o'quvchi faolligini oshirishni ta'lim jarayonida uning bilishga bo'lgan ishtiyoqi va intilishiga erishish, shunga odatlantirish, deyish mumkin. O'quvchilar faolligini oshirish masalasi bugun o'rtaga qo'yilayotgani yo'q. Forobiy, Al - Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlarining inson tafakkuri va aqliy kamoloti bilan bog'liq qarashlari bevosita ilm olish faoligi muammosiga daxldordir. Jumladan, Forobiyning ma'lum bir fan asosida tamoyillarni o'zlashtirish, undan tegishli xulosalar chiqarish, nomaqbul g'oyalarni dalillar bilan inkor etishning inson kamolotida muhim o'rin

tutishi da doir mulohazalari, Beruniyning ta'limni izchillik, ko'rgazmalilik, muayyan tizim asosida tashkil qilish yuzasidan bildirgan fikrlari aslida o'quv - biluv faolligining asosini tashkil etadi.

Yigirmanchi asrning o'rtalaridan boshlab M.G.Davletshin, E.G'oziyev, M.Qodirov kabi psixolog olimlar, A.Zunnunov, K.Qosimova, O.Roziqov, Q.Abdullayeva va A.G'ulomov kabi pedagog metadoistlar o'quv-biluv faolligi ta'limiy muammosi yuzasidan e'tiborli kuzatishlarini bayon qilganlar. So'nggi yillarda esa Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, N.Saidahmedov, O'.Tolipov, R.Ibragimov, Q.Husanboevalarning ushbu muammoga daxldor tadqiqotlari yuzaga keldi. Shundan ham ma'lumki, o'quv - biluv faolligi ta'limning bilimlarni o'zlashtirish va uni amalga qo'llashning eng maqbul jihatlarini o'zida mujassamlashtiradigan asosiy sifat mezonidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv - biluv faolligiga daxldor mavjud manbalarni quyidagicha ikkita guruhga ajratish mumkin:

1. O'quvchilar faolligini oshirishning psixologik, psixologik - pedagogik muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

2. O'quvchilar faolligini oshirishning umumpedagogik muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar.

Hech bir fan boshqa fanlardan ayricha rivojlana olnaganidek, biz ham o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilari faolligini amalga oshirish muammosini tor yo'nalishda o'rgana olmaymiz va uni, tabiiyki, boshqa fanlar bilan bog'liqlikka olib qaraymiz.

Mazkur ilmiy - pedagogik tadqiqotlarda ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish xilma - xil omillarga bog'liq ekanligini muayyan darajada ko'rsatib o'tilgan. Bunday omillar orasida, avvalo, o'quvchining kasbiy salohiyati, o'z faoliyati davomida ta'lim - tarbiya metodlarini to'g'ri va o'rinli qo'llay bilish mahorati hamda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasi kabilar yetakchi o'rin tutadi.

"Tafakkur—inson ijodiy faoliyatining yuksak shakli, - deb yozadi M.Qayumova. Shuning uchun o'quvchilarda ijodiy faollikda va uning zaminida yotuvchi mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish umumta'lim maktablari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi".

"kichik yoshdagi o'quvchilarga, - deb yozadi taniqli metodist olim S.Matchonov, - ona tilini samarali o'rgatish uchun ularni tilni o'rganishga qiziqtirish, ularning o'quv faoliyatini faollashtirish va aqliy faoliyatlariga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish xususan, o'quvchilarga materiallarni o'zlashtirish usullarini o'rgatish zarur.

Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilashni ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda, talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tegishli yondashuvlarni aniqlash maqsadida talabalarga ta'lim tarbiya berishda bir nechta dasturlarni tahlil qilib, shular asosida hozirgi kunga qadar olib borilayotgan metodik faoliyatlarga alohida e'tibor qaratamiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlodkadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti

bilan bog'liqligidir; ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi".

Ta'lim sohasini isloh qilishni, avvalambor, boshlang'ich ta'limdan boshlash zarur. Zero, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishi darkor. Shu zaruratdan, maktab ta'limini, o'rta maxsus ta'lim tizimini, shu bilan birga oliy ta'limni ham tubdan isloh qilish rejalashtirilgan .

Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimi bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimida zamon talablaridan kelib chiqib yondashish muximdir. Bunda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish uchun, ularda zarur pedagogik bilimlar (o'qituvchi mehnati, uning pedagogik faoliyati xususiyatlari, muloqot, shaxs to'g'risida, o'quvchilarning psixik rivojlanishlari, ularning yosh xususiyatlari to'g'risidagi psixologiya, pedagogik ma'lumotlar), ko'nikmalar (etarlicha yuqori darajada bajarilgan xatti-harakatlar) shakllantirish lozim.

O'quv jarayonidagi didaktik vaziyatlar (o'qituvchining xulqini belgilovchi, uning o'z-o'ziga bahosi, didaktik qiziqishlari darajasini ifodalovchi, o'qituvchining motivatsiyasi, o'z mehnatining ma'nosini anglash bilan bevosita bog'liq uning o'quvchiga, hamkasblariga, o'ziga munosabatlari barqaror tizimi), o'qituvchilarning o'z fanlari haqida chuqur bilimga egaligi kabi ko'nikmalar shakllantirilishi zarur. Har bir pedagogning motivatsion sohani rivojlantirishi ya'ni maqsad qo'ya olishi, qiziqishlarini to'g'ri taqsimlay olishi, shaxsiy motivlarini qamrab oluvchi psixologik sifatlar majmui malakaga aylantirilishi lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligiga talablar o'zgarishi ikkita asosiy ta'lim paradigmasi: xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda namoyon bo'luvchi insonparvarlik va ta'limning ijtimoiylashuvi bilan belgilash mumkin.

Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim.

Mazkur mulohazalar albatta bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy yondashgan holda o'quvchilarni tayyorlashga o'rgatishda o'z samarasini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik



tayyorgarligini takomillashtirishda albatta fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor qaratish aloxida axamiyatga yega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimida avvalambor, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish matematika fani bilan ko'proq bog'liqligini inobatga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgariligi ustida ishlash jarayonida talabalarga nafaqat ilmiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay o'rganilgan bilimlarni amaliy jarayonda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini xam shakllantirib borilishiga aloxida axamiyat berish lozim. Xususan, boshlang'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim xisoblanadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o'quv fani dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, o'qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish hozirgi kun talabi sifatida o'rganilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimini takomillashtirish borasida bir qancha vazifalar ajratib ko'rsatiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlarni o'qitish jarayonidagi vazifalari quyidagilar:

1. fan-o'quvchini fikr yurita olishga undashi kerak;
2. -o'zgalar fikrini anglashga o'rgata olishi muxim;
3. o'z fikrini og'zaki hamda yozma ravishda ravon bayon qila olishga yo'naltirishi;
4. ta'lim falsafasi va tarixi tomonlama kompetentli bo'lishi va fan doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izoh bera olish zarur.

Mazkur vazifalarni boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantirilishi bevosita o'quvchilarni kelajakda bilimli va intellektual rivojlangan kadrlar bo'lib yetishida o'z samarasini ko'rsatadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimi uchun yuqorida qayd etib o'tilgan barcha nazariy asoslar, fikrlarni inobatga olib, ta'lim jarayonida ta'lim mazmuni, o'rgatish, o'rganish bir-biri bilan uzviy aloqada shuning uchun ulardan hech birini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Xulosa qilib aytganda, Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil qilish tizimi rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

## REFERENCES

1. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF- 5712-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

- Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida” PQ-4387-son qarori
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida” PF- 5847-son Farmoni
  4. Karimova S.S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. <http://scientists.uz/uploads/202206/B-43.pdf>
  5. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
  6. Karimova, Sevara. "CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11(2021):737-740. <https://cyberleninka.ru/article/n/characteristics-of-natural-teaching-methodology>.
  7. Karimova Sevara “Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students” In volume 19, of *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT)* April 2023.

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH

Aymatova Aziza Baxtiyor qizi

Guliston davlat universiteti 1-kurs stajyor doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978006>

**Annontatsiya.** Quyida keltirilgan maqolamizda yurtimizda yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik.

## FORMATION OF READING CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

**Abstract.** The following article describes the current state of the reading culture, which is of incomparable importance for the ideological and ideological development of young people in our country, some problems in this regard and their elimination.

**Key words:** reading culture, spiritual need, family reading, analysis of artistic work, cultural speech, text composition, literacy.

## ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** В нижеследующей статье описывается современное состояние культуры чтения, имеющей несравнимое значение для мировоззренческого и мировоззренческого развития молодежи в нашей стране, некоторые проблемы в связи с этим и их устранение.

**Ключевые слова:** культура чтения, духовная потребность, семейное чтение, анализ художественного произведения, культурная речь, композиция текста, грамотность.

## KIRISH

Bugungi kundagi qabul qilingan global tendentsiyalarga ko'ra yosh avlodning o'qishga bo'lgan qiziqishi kamayishi keng miqyosga ega. Ko'pgina rivojlangan davlatlar, shu jumladan O'zbekistonda ham ushbu hodisaga faol qarshi choralar ko'rish vazifalari shakllantirilgan. Aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqish pasayishining hozirgi global tendentsiyasi o'qish madaniyatining tizimli inqirozini ko'rsatadi, Bu ko'plab mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekistonga ham ta'sir qiladi. Mamlakatimiz uzoq vaqtdan beri dunyodagi eng ko'p kitobxoniga ega davlat deb topildi. Biroq, XX asrning 90 -yillaridan boshlab O'zbekistonda kitobxon faolligining pasayishi boshlanadi. Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangandavlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallash yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat'iy bo'lmog'i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotningdastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta'lim-tarbiya

jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash" maqsadida keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Kitobxonlik inqirozi nafaqat O'zbekistondagi hodisa, qaysidir ma'noda – u ba'zida va ancha katta darajada rivojlangan G'arb mamlakatlariga ham tegishlidir. Lekin hamma joyda, jamoatchilik anchadan beri muammoni hal qilish uchun jiddiy choralar ko'rmoqdi. O'qish va "kitobxon" milliy qadriyat sifatida tobora ko'proq tan olinmoqda. Hammamiz bilamizki, kitob o'qiydigan xalqlar o'qishni yaxshi ko'radigan bolalardan paydo bo'ladi. Kitobxon xalq - rivojlanayotgan xalqdir. Zamonaviy sharoitda jamiyat taraqqiyotida bolalar kitobxonligi muammosi ommaviy tus olgan. Bolalar kitobxonligini maqsadli tashkil etish maktabning asosan boshlang'ich maktabning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Malumki, Vazirlar mahkamasining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab -quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Bunga ko'ra yurtimizda barcha sohada kitobxonlikni targ'ib etish, turli xil loyihalar va tanlovlar ishlab chiqish, u orqali yoshlarda kitob mutola asiga qiziqish uyg'otish maqsad qilib qo'yildi. Kitob o'qish inson dunyoqarashini kengaytirib, bilimni oshiradi, fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi. Yosh avlod bizning vatanimizning ertangi egalari, ularning bilimli, aqlli, manan yetuk qilib tarbiyalashda ota-onalarining, ustozlarning o'rni beqiyosdir, "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir" deb bejizga aytilmagan bolalar yoshlik dan ota-onalarining aytgan alla, ertak, hikoyalarini maktabda boshlang'ich sinfda o'zlari o'qishni boshlagan hikoya ertaklar orqali kitob, kitob mutolaasi dunyosiga kirib boradilar. Shu nuqtayi nazardan yosh avlodning, o'quvchi va talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mukammal tarbiyalanishi ayni maqsadga muvofiq hodisa sifatida jamiyat a'zolarining diqqat markazida turuvchi dolzarb masaladir. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy- intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi – bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda esa juda ko'p xonadonlarda oilaviy mutolaaga deyarli vaqt ajratilmaydi. Aksariyat oilalarda xonadon sohib-u sohibasi doim ish bilan bandligi bois kechki taomdan so'ng kunning charchog'ini yozish uchun yoki oynayi jahon yoniga cho'kadi, yoki dam olish uchun uyquni afzal bilishadi. Hatto shunday oilalar borki, ota-onalarningo'zi uyda vaqtini farzandi bilan emas, telefon-u kompyuter bilan o'tkazishni afzal ko'rishadi. Bolalarining injiqlariga bardosh berish, ularga ruhan yaqin bo'lish, yutuqlari va muammolari bilan qiziqish o'rniga, ularning o'qishi o'qituvchilariga yuklab qo'yiladi yoki faqat ta'limiy fanlardan o'zlashtirishi nazorat qilinadi, ta'lim-tarbiyaberish, asosan, o'quv maskanlaridagi ustoz va murabbiylar zimmasidagi ishdek bo'lib qoladi. Kunning qolgan qismida yolg'iz yoki nazoratsiz qolgan bola, asosan, mustaqil dars tayyorlaydi, oq-u qorani, kerakli-keraksiz narsalarni to'la idrok etib ulgurmagan, hali bolaligiga boradigan yoshdagi farzand zangori ekran bilan "dos'tlashib" oladi,uning yonida asosiy vaqtini o'tkazadi, lekin tomosha qilgan ko'rsatuvlari, o'qib- o'rgangan bilimlarining mohiyatini anglab-anglamay (!) kunlarini o'tkazaveradi. Eng achinarlisi, hozirda yoshlarning

aksariyati turli rusumdagi uyali aloqa vositalari yoki kompyuter texnikasi xotirasidan mustahkam joy olgan ko'ngilochar o'yinlarning (yanada dahshatlisi – bu o'yinlarning ko'pchiligida otishma, qotillik, jangarilik, mustlashish sahnalarining ko'pligi), internet orqali yuklab olingan, lekin yoshiga mos bo'lmagan film va suratlarining ashaddiy ishqiboziga aylanib qolayotganlaridir. Bola nimani qanday o'qishni bilmasa, o'qigan narsasini uqmasa yoki mohiyatini anglamasa, undan hech qanday bilim va zavq ololmaganidek, bu kabi nojoiz o'yinlardan ham hech qanday estetik zavq va ma'naviy quvvat ololmaydi, aksincha, unda o'ychanlik, jizzakilik, asabiylik, beparvolik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, dangasalik, maqsadsizlik kabi yana bir qator salbiy illatlar shakllanib, ruhiyati va xarakteriga tobora mustahkam o'rnashib boradi. Buyuk alloma, haqiqiy vatanparvar, yuksak salohiyatli ustoz Najmiddin Kubro “Muvaffaqiyatni sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko'rdim” degan ekanlar. Shu bois oila boshliqlari farzandlar taqdiriga bee'tibor bo'lmasliklari, bolalar bilan ularning yoshiga mos kitoblar mutolaasini yo'lga qo'yishlari va o'qilgan asarlar, olingan bilimlar, ularning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan oilaviy suhbatlar o'tkazishlari, ko'proq o'gil-qizlarining fikr- mulohazalarini tinglashga diqqatni qaratishlari, ularni qo'llab-quvvatlashlari, kamchiliklarini muloyimlik va bosiqlik bilan tuzatishlari kerak bo'ladi. Bu holat oilada nafaqat kitobsevar farzandlar kamol topishiga erishishda yordam beradi, balki oila a'zolari o'rtasida do'stona muhitni shakllantirishda ham, ota-onaga hurmat va o'ziga ishonch tuyg'ularining mustahkamlanishida ham, mulohazakorlik, mas'uliyat, javobgarlik, tejamkorlik, vaqtni qadrlash, tabiat va jamiyat, yurt uchun kerakli inson bo'lishga intilish sifatlarini o'stirishda ham o'ziga xos poydevor vazifasini o'taydi.

Har bir ota-ona farzandining nafaqat jismoniy, balki ham aqliy, ham ruhiy, ham ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishi, yoshiga mos badiiy kitoblar bilan ta'minlab turishi, o'qigan kitoblari yuzasidan ular bilan fikr almashishi, bolani rag'batlantirib borishi lozim.

“Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oily o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi. Kam o'qishning salbiyoqibatlarini juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi



past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi; madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'grilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning isboti sifatida aytishimiz mumkin, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz. Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularningestetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'quvchi bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdagi badiiyasarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o'quvchilari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o'quvchida badiiy kitob o'qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Demak, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o'qishni, tahlil qilishni muntazam o'rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko'paytirish, mashg'ulotlarni guruhlarga bo'lib o'tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkoni ortadi, darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o'quvchilar mutaxassis o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatda bo'lib, ulardan tajriba o'rganadilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatleri to'la namoyon bo'ladi.

Ishonamizki, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzuljamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

#### REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: «G'afur G'ulom», 2017. – 92 b.
2. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida. Xalq so'zi, 2017 yil 14 sentiyabr. – № 184.
3. Karimova S.S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. <http://scientists.uz/uploads/202206/B-43.pdf>

4. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
5. Karimova, Sevara. "CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11(2021):737-740. <https://cyberleninka.ru/article/n/characteristics-of-natural-teaching-methodology>.
6. Karimova Sevara "Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students" In volume 19, of *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT)* April 2023.
7. Ahmedova Z. *Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari*. – Toshkent, 2018.
8. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
9. [www. edu.uz](http://www. edu.uz).
10. [www. kitob.uz](http://www. kitob.uz).
11. [www. mustaqillik.uz](http://www. mustaqillik.uz).
12. [www. ma'naviyat.uz](http://www. ma'naviyat.uz).

## BA'ZI XUSUSIY INTEGRAL TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH

Djurayev Yuldosh Xurramovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978017>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ba'zi xususiy integral tenglamalar va ularni yechish, shuningdek aniq integralning ta'riflari hamda uning geometrik ma'nolari haqida so'z boradi. Maqola mavzusi misollar yordamida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy integral tenglamalar, tenglamalar va ularni yechish, integralning ta'riflari.

## SOME PARTICULAR INTEGRAL EQUATIONS AND THEIR SOLUTION

**Abstract.** This article talks about some particular integral equations and their solution, as well as the definition of definite integral and its geometric meanings. The topic of the article is explained with the help of examples.

**Key words:** special integral equations, equations and their solution, definition of integral.

## НЕКОТОРЫЕ ЧАСТНЫЕ ИНТЕГРАЛЬНЫЕ УРАВНЕНИЯ И ИХ РЕШЕНИЕ

**Аннотация.** В этой статье говорится о некоторых частных интегральных уравнениях и их решении, а также об определении определенного интеграла и его геометрических смыслах. Тема статьи поясняется с помощью примеров.

**Ключевые слова:** специальные интегральные уравнения, уравнения и их решение, определение интеграла.


Aniq integral- matematik analizning asosiy tushunchalaridan biridir. Egri chiziqlar bilan chegaralangan yuzalarni, egri chiziq yoylari uzunliklarini, hajmlarini, ishlarni, tezliklarni, yo'llarni, inersiya momentlarini hisoblash masalasi u bilan bog'liq.

$[a, b]$  kesmada  $y=f(x)$  uzluksiz funksiya berilgan bo'lsin. Quyidagi amallarni bajaramiz.

1)  $[a, b]$  kesmani  $a= x_0, x_1, x_2, \dots, x_{n-1}, x_n=b$  nuqtalar bilan  $n$  ta qismga ajratamiz va ular quyidagicha joylashgan bo'lsin.

$$a= x_0 < x_1 < x_2 < \dots < x_{n-1} < x_n = b$$

Bularni qisman intervallar deymiz.



2) Qisman intervallar uzunliklarini quyidagicha belgilaymiz:

$$\Delta x_1 = x_1 - x_0; \Delta x_2 = x_2 - x_1; \Delta x_3 = x_3 - x_2; \dots \Delta x_i = x_i - x_{i-1}; \dots \Delta x_n = x_n - x_{n-1};$$

3) Har bir qisman intervalning ichidan bittadan ixtiyoriy nuqta olamiz:

$$\xi_1, \xi_2, \xi_3, \dots, \xi_{n-1}, \xi_n$$

4) Olingan  $\xi$  nuqtalarda funksiyaning qiymatini topamiz:

$$f(\xi_1); f(\xi_2); f(\xi_3), \dots, f(\xi_{n-1}); f(\xi_n)$$

5) Har bir funksiyaning hisoblangan qiymatini tegishli qismaniy intervalning uzunligiga ko'paytiramiz:

$$f(\xi_1) \Delta x_1; f(\xi_2) \Delta x_2; f(\xi_3) \Delta x_3, \dots, f(\xi_n) \Delta x_n$$

6) Hosil bo'lgan ko'paytmalarni qo'shamiz va  $\sigma$  deb belgilaymiz.

$$\sigma = f(\xi_1) \Delta x_1 + f(\xi_2) \Delta x_2 + f(\xi_3) \Delta x_3 + \dots + f(\xi_{n-1}) \Delta x_{n-1} + f(\xi_n) \Delta x_n;$$

Shunday qilib, hosil bo'lgan  $\sigma$  yig'indi  $f(x)$  funksiya uchun  $[a, b]$  kesmada tuzilgan integral yig'indi deb ataladi va quyidagicha belgilanadi.

$$\sigma = \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i \quad (1)$$

Bu integral yig'indining geometrik ma'nosi, agar  $f(x) \geq 0$  bo'lsa, u holda asoslari  $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_n$  va balandliklari  $f(\xi_1), f(\xi_2), \dots, f(\xi_n)$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzlarining yig'indisidan iborat.

Agarda bo'lishlar sonini,  $n$  ni ortira borsak ( $n \rightarrow \infty$ ) da u holda eng katta intervalning uzunligi nolga intiladi, ya'ni  $\max \Delta x_i \rightarrow 0$  bo'ladi.

**Ta'rif:** Agar  $S$  integral yig'indi  $[a, b]$  kesmani qismaniy  $[x_{i-1}, x_i]$  kesmalarga ajratish usuliga va ularning har biridan  $\xi_i$  nuqtasini tanlash usuliga bog'liq bo'lmaydigan chekli songa intilsa, u holda shu son  $[a, b]$  kesmada  $f(x)$  funksiya dan olingan aniq integral deyiladi va quyidagicha belgilanadi.

$$\int_a^b f(x) dx$$

$f(x)$  dan  $x$  bo'yicha  $a$  dan  $b$  gacha olingan aniq integral deb o'qiladi.

Bu yerda  $f(x)$  integral ostidagi funksiya  $[a, b]$  kesma-integrallash oralig'i;  $a$  son integralning quyi chegarasi,  $b$  son integralning yuqori chegarasi;

Shunday qilib, aniq integralning ta'rifidan quyidagini yozish mumkin.

$$\int_a^b f(x) dx = \lim_{\max \Delta x_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i$$

Aniq integral hamma vaqt mavjud bo'lavermas ekan. Aniq integralning mavjudlik teoremasini quyida keltiramiz. (Isbotsiz).

**Teorema:** Agar  $f(x)$  funksiya  $[a, b]$  kesmada uzluksiz bo'lsa, u integrallanuvchidir, ya'ni bunday funksiyaning aniq integrali mavjuddir.

Shunday qilib,  $\int_a^b f(x)dx$  aniq integralning qiymati  $y=f(x)$  funksiyaning grafigi bilan va  $x=a, x=b$  to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiyaning yuziga son jihatdan teng bo'ladi.

1- Izoh: Aniq integralning chegaralari almashtirilsa, integralning ishorasi o'zgaradi.

$$\int_a^b f(x)dx = -\int_b^a f(x)dx$$

2-Izoh. Agar aniq integralning chegaralari teng bo'lsa, har qanday funksiya uchun quyidagi tenglik o'rinli;

$$\int_a^a f(x)dx = 0$$

haqiqatdan ham, geometrik nuqtai nazardan egri chiziqli trapetsiya asosining uzunligi nolga teng bo'lsa, uning yuzi ham nolga teng bo'ladi.

#### Aniq integralning asosiy xossalari

1- xossa: O'zgarmas ko'paytuvchini aniq integral belgisining tashqarisiga chiqarish mumkin.

$$\int_a^b Af(x)dx = A \int_a^b f(x)dx$$

**Isbot:**  $\int_a^b Af(x)dx = \lim_{\max \Delta x_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n Af(\xi_i)\Delta x_i = A \lim_{\max \Delta x_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i)\Delta x_i = A \int_a^b f(x)dx$

2-xossa: Bir necha funksiyalar algebraik yig'indisining aniq integrali qo'shiluvchilar aniq integrallarning algebraik yig'indisiga teng.

Masalan:  $\int_a^b [f_1(x) + f_2(x)]dx = \int_a^b f_1(x)dx + \int_a^b f_2(x)dx$

3-xossa. Agar  $[a, b]$  kesmada  $f(x)$  va  $\varphi(x)$  funksiyalar uchun  $f(x) \geq \varphi(x)$  shart bajarilsa, u holda  $\int_a^b f(x)dx \geq \int_a^b \varphi(x)dx$  bo'ladi.

4-xossa: Agar  $[a, b]$  kesma bir necha qismga bo'linsa, u holda  $[a, b]$  kesma bo'yicha aniq integral har bir qism bo'yicha olingan aniq integrallar yig'indisiga teng.

Masalan:  $a < c < b$  bo'lsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx = \int_a^c f(x)dx + \int_c^b f(x)dx$$



5-xossa: Aniq integralning qiymati funksiyaning ko'rishiga va integrallash chegaralariga bog'liq, lekin integral ostidagi ifodaning harflariga bog'liq emas.

$$\int_a^b f(x)dx = \int_a^c f(t)dt = \int_a^b f(z)dz$$

## REFERENCES

9. M. Rahman. Integral Equations and Their Applications, WIT press, Southampton, Boston, (2007), 372 p.
10. A. M. Wazwaz. Linear and Nonlinear Integral Equations Methods and Applications, Higher Education Press, Beijing and Springer-Verlag Berlin Heidelberg, London, New York, (2011).
11. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2020). Eigenvalues and virtual levels of a family of 2x2 operator matrices. *Methods Func. Anal. Topology*, 1(25), 273-281.
12. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2020). Analysis of the spectrum of a 2x2 operator matrix. Discrete spectrum asymptotics. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 2(11), 138-144.
13. Rasulov T.H., Dilmurodov E.B. (2019). Threshold analysis for a family of 2x2 operator matrices. *Nanosystems: Phys., Chem., Math.*, 6(10), 616-622.
14. Расулов Т.Х., Дилмуродов Э.Б. (2020). Бесконечность числа собственных значений операторных (2x2)-матриц. Асимптотика дискретного спектра. *ТМФ*. 3(205), 368-390.
15. Muminov M.I., Rasulov T.H. (2015). Universality of the discrete spectrum asymptotics of the three-particle Schrödinger operator on a lattice. *Nanosystems: Phys. Chem. Math.*, 2(6), 280-293.
16. Umirkulova G.H., Rasulov T.H. (2020). Characteristic property of the Faddeev equation for three-particle model operator on a one-dimensional

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV FAOLIYATIGA DOIR AYRIM  
CHIZGILAR

Muhayyo Ro'zaliyeva

TerDU O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

N.Egamqulova

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978032>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyatiga doir ayrim chizgilar haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* mustamlaka, jadidchilar, usuli jadid, Turkiston, maorif va madaniyat.

SOME LINES ABOUT MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHANOV'S  
ACTIVITIES

*Abstract.* This article talks about some aspects of Munavvarqori Abdurashidkhanov's work.

*Key words:* colonialism, Jadidists, Usuli Jadid, Turkestan, education and culture.

НЕСКОЛЬКО СТРОК О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУНАВВАРКОРИ  
АБДУРАШИДХАНОВА

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о некоторых аспектах творчества Мунавваркори Абдурашидханова.

*Ключевые слова:* колониализм, джадидисты, усули джадид, Туркестан, образование и культура.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mustamlaka zulmi ostida qolgan Turkistonning jarohatlariga malham izlagan ziyolilaridan biri, toshkentlik jadidlarning rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonovdir. Millatpanoh o'zining maqolalarida, shogirdlari, safdoshlari va butun Turkiston xalqiga qarata aytgan nutqlarida xalqni, o'sha davr tili bilan aytganda butun Turkistonni basirat ko'zini ochishda matbuotni buyuk omil deb bildi va uning vositasida millatni uyg'otish, xalqni jipslashtirishga, uning milliy e'tiqodini yuksaltirishga ham harakat qildi. Professor Begali Qosimovning so'zlariga ko'ra, Munavvarqori nomi 30-yillarda Turkiyadagi Mustafo Rashid Poshsho, Ozarbayjondagi Mirzo Fathali Oxundzoda, Qrimdagi Ismoilbek Gaporali qatorida turgan [Qosimov: 234]. Uning Germaniyada tahsil olgan shogirdlaridan biri esa shunday yozadi: "Turkiston tarixining jadidchilar davri boshdan oxirigacha Munavvar Qorining tarjimai holidan iboratadir, desak yanglishmaymiz" [Qosimov, 234]. Laziz Azizzoda "Agar Munavvarqori vafot etsa, uni butun Turkiston xalqi katta hurmat bilan so'nggi manzilga kuzatishi kerak", degan fikrni bildirgan edi mahbuslik davrida. Uning obro'si xalq orasida shu darajada zo'r ediki, u 1921-yilda qamaliganda, Toshkent Eski shahar xalqi uning darhol ozod etilishini talab qilib chiqqan va mitinglar o'tkazgani tarixiy manbalardan ma'lum. U qatl etilgach, Italiyaning besh gazetasi ta'ziya bosdi, 1934-yilda Parijda Turkistonlik muhojir kurashchilar Mustafo Cho'qay rahbarligida Munavvar Qori Abdurashidxonovni eslash kechasini o'tkazdilar [Munavvarqori: 4]. Munavvarqori Abdurashidxonov xalqimiz boshiga tushgan chorizm va bolshevizmning yirtqich mustabidlik yillarida "Men-sendamen; sen-mendasen" hikmatiga muvofiq elimiz, millatimiz qalbiga ma'rifat va ozodlik, erk va hurlik urug'ini sochib, el vijdonini uyg'otgan, vijdon erkinligini taqdim etgan, millat g'amini yegan millatpanoh, yurt hayotining sertashvish yo'llarini munavvar

qilgan yo‘lchi yulduz va shu yo‘lda shahid ketgan inson edi. Uning bu hayot yo‘li “Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va ziyoli millat uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda millat uchun o‘zini halokat vartasiga tashlamoqqa muhayyo bo‘lur... Millat, Vatan, madaniyat, shunga o‘xshash so‘zlarni bilmak bilan ziyoli bo‘lmaydur. ... bizning millatimizg‘a sado va so‘z birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozim emas. Balki xizmati, harakati, yordami va himmati birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozimdir” [Munavvarqori, 73] so‘zining isboti, desak xato bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda yana bir chizgiga nazar solib o‘tish lozim: “Butun dunyodagi hurriyatchilar orasida bir so‘z bor: Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olub bo‘lmas, faqat qon va qurbon ilagina olub bo‘lur” [Munavvarqori: 215]. Ko‘rinib turibdiki, Munavvar Qori Abdurashidxonov millat hayotini, kelajagini o‘ylagan va bu yo‘lda haqiqatni aytishdan qo‘rqmagan. Turkistonda yangi xildagi maktablarning ochilib, xalqning ma‘rifatdan bahramand bo‘lishi turkiylik shuurining uyg‘onishi bilan bog‘liq masalalar o‘rganilayotgan vaqtda uzoqni ko‘ra olgan, ma‘rifatparvar Munavvar Qorining xalq uchun, millat uchun yonib-kuyib so‘zlagan nutqida ko‘ramiz: “Ovrupo xalqi maorif va madaniyat yo‘lida ishladi, bu holg‘a yetushdi, biz tushdik, uxladik, bu holg‘a yetushdik. Bugungacha Ovrupo xalqi osmong‘a uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun-qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo‘g‘rofiya tabiyot o‘qitish, o‘qitmaslik ixtiloflari davom etadi” [Munavvarqori: 265]. Bu so‘zlardan shuni anglash mumkinki, Munavvar Qorining yozganlarida davr muammolari, Turkiston o‘lka xalqlarining turmush tarzi, dunyoqarashi o‘zining asl chizgilarini ko‘rsatgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov maktab sohasida ko‘rsatgan xizmatlarini ham aytib o‘tish bizning burchimizdir. 1901-yillarda Turkistonda usuli jadid maktablaridan hech bir xabar va asar yo‘q edi. Ilk maktablar, eski maktablar, o‘rta va yuqori maktablari esa madrasalardir. Chet joylarga borib o‘quvchilar uchun Buxoroyi sharifdan ko‘ra yaxshi joy yo‘q, arabcha bilan din darslaridan boshqa dunyoda hech bir fan yo‘q, ruscha o‘qiganlar esa kofir hisoblanardi.

Faqat “Tarjumon” gazetasini o‘quvchilar, ichki Rossiya musulmonlari orasida usuli jadida haqida biroz xabarlar o‘qisalar-da, bularning hisobi butun Turkistondan 5-6 kishidan oshmasdi. Demak, bundan bilishimiz mumkinki, maktab maorif masalasi judayam og‘ir ahvolda bo‘lgan. Munavvarqori esa maktab ishlarini tartibga solgan.

**Munavvarqorining yangi usulda maktab ochishi.** Munavvarqori Abdurashidxonovning asosiy qirralaridan birini tashkil etuvchi omil bu uning maktablaridir. Aynan Toshkentda yangi usul maktablarining paydo bo‘lishi va rivoji yana Munavvarqori bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalishda oxirgi 20 yil ichida juda ko‘p izlanishlar, maqolalar e‘lon qilindi. Yana ularni takrorlashga hojat yo‘q. Bir narsani aytish mumkinki, Munavvarqori aholini yangi usul maktablarining afzalliklarini tanishtirish maqsadida Toshkentda ichki Rossiyada unumli qo‘llanilib kelinayotgan ochiq imtihon tadbirini birinchilardan bo‘lib qo‘lladi. O‘z davrining jonli haykali deya ta‘rif berilgan Munavvarqori Abdurashidxonovning faoliyatini bevosita maktab, uning bu borada qilgan ishlari, ya‘ni usuli jadida maktablarining ochilishi, maktablarda jo‘g‘rofiya va tabiyot fanlarini o‘qitishda ajdodimizning roli kattadir. Fikrimiz isbotini o‘sha davr manbalaridan yetarlicha topish mumkin. Daliliy manbalarda yozilishicha, ilk bor usuli jadida maktabini 1901-yili Toshkentda Munavvarqori qrimlik do‘sti rais Kushod yordami bilan o‘z hovlisida ochdi [Abdirashidov, 215]. Bu maktablar uchun u “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Havoyiji diniya” kabi alifbo va xrestomatiyalar yaratdi. “Adibi soniy” ancha mukammal darslik sifatida bir necha yil davomida

sho'rolar maktabida ham qo'llangan [Dolimov]. Munavvarqori maktabning o'qish-yozishni qisqa vaqtda o'rgatishi, foydali bilimlar berishni ko'rsatish uchun bitirish imtihonlarini talabalar valiyalari va bir qancha muxolif din odamlari huzurida o'tkazdi. Uning maktabi, ayni zamonda yangi ochiladigan boshqa maktablar uchun ta'lim usullari va tartibini amaliy jihatdan o'rganadigan joy vazifasini o'tadi. Keyinchalik Farg'onaning bir qator shaharlarida, Samarqand, Xo'qand, Chimkent yangi usulda maktab ochgan kishilar undan ta'lim tartibi yo'llarini o'zlashtirdilar. Munavvarqori yetishtirgan yoshlardan qobiliyatli va muallimlikka havaslilarning bir qanchalari uning yonida qoldilar, bilimlarini orttirdilar va muallim bo'lib yetishdilar [Abdurashidxonov, 501].

Munavvarqori keyinroq to'rt sinflik ibtidoiy maktabda qo'shimcha sifatida ikki bosqichli ruzhdoy(yuqori) sinfni ham ochishga muvaffaq bo'ldi, bu-"Namuna" maktabi nomini oldi. Munavvarqorining ushbu 4 yillik maktabining o'quv dasturi yildan yilga takomillashib borganligini davr ma'lumotlaridan bilish mumkin. Jumladan 1910-yili maktabda quyidagi fanlardan saboq berilgan:

Birinchi yili o'qish, yozish, dindan dastlabki saboqlar, namoz, arifmetika; ikkinchi yili Qur'on, dindan dastlabki saboqlar, o'qish, yozish, arifmetika, namoz; uchinchi yili Qur'on, tajvid, she'riyat, o'qish, yozish, diniy odatlar, geografiya, arifmetika, Payg'ambarlar tarixi, bayon; to'rtinchi yili Qur'on, din saboqlari, tarix, fors tili, arab tili, geografiya, arifmetika, turkiy til grammatikasi, savdo olib borish, aruz, o'qish, husnixat, bayon. Munavvarqori bu maktablar uchun "Adibi avval", "Adibi soniy" kabi alifbo va xrestomatiyalar, "Tajvid al Qur'on", "Yer yuzi" singari qo'llanmalar tuzib nashr etadi. "Adibi soniy" ancha mukammal darslik sifatida bir necha yil sho'rolar maktabida ham qo'llangan.

Munavvarqori kim? U tarixchi, toshkentlik jadidlarning yetakchisi, butun jadid maktablarining boshlig'i, millat tarbiyachisi, mohir siyosatchi, ijodkor, musulmon matbuotining ilk tashkilotchilaridan biridir. Millatpanohning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlari alohida tutadi. Uning aynan bu sohadagi ishlari alohida o'rin tutadi. Uning aynan bu sohadagi ishlari, yordami va ko'magi ila Vatanimiz uchun qilgan xizmatlari taraqqiyotimiz uchun qanot bo'ldi. Uning faoliyati naqadar chuqur bo'lsa, ushbu faoliyatning har bir qirrasini shu qadar mukammal va chuqur tadqiq qilinishi lozimdir.

#### REFERENCES

1. Qosimov, Begali. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent Ma'naviyat, 2002.
2. Munavvarqori Abdurashidxonov. Men sendamen (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Info Capital Group, 2019.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent, 2000.Q.: Abdirashidov Z. Ismail Gaspirinskiy i Turkestan v nachale XX veka: svyazi-otnosheniya-vilyanie. Toshkent, 2011.
4. Dolimov, Ulug'bek. Turkistonda jadid maktablari. Toshkent, 2006.
5. Abdirashidov, Zaynabidin. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlari. Ankara, 2019.

6. Egamkulova, Nodira. Problems of the Literary process at the beginning of the XX century // ISJ Theoretical and applied sciences. – Philadelphia, USA, 2021.15.06.2021–№ 10 (78). – P. 376-379. DOI: 10.15863/TAC Impact Factor: 6.6
7. Egamkulova, Nodira. Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til // O‘zbekiston: til va madaniyat. 2022 №2. – B. 89-103
8. Egamkulova, Nodira. “Oyina” – first uzbek national magazine// International Journal on Integrated Education (IJIE). – Indonesia, 2019. Vol. 2, Issue – 5. –P. 91-93.Impact Factor: 7.2.
9. Egamkulova, Nodira. Jadid press and theater // Jadid Press and Theater. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 665–668. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7952194>
10. Raimova, Sayyora. Artistic interpretation of religious and educational issues of Uzbek poetry in the period of independence.(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam) //ISJ Theoretical and applied sciences. – Philadelphia, USA, 2019.–№ 11 (71). – P. 42-44.
11. Raimova, Sayyora.Artistic arts in the works of Asqar Mahkam //ISJ Theoretical and applied sciences. – Philadelphia, USA, 2021.–№ 06. (98). – P. 347-349. Impact Factor: 6.6.



## AFG'ON URUSHI TASVIRLANGAN BITIKLARDA URUSH VA TINCHLIK MUAMMOSINING TASVIRLANISHI ...

(Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani misolida)

Sherbutayeva Maxsuda

TerDu o'zbek adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978438>

**Annotatsiya.** O'zbek adabiyotida urush mavzusida yaratilgan asarlar talaygina. Ular orasida afg'on urushi haqidagi bitiklar esa ayniqsa ahamiyatli. Ushbu maqolada afg'on urushi haqidagi asarlarda urush va tinchlik muammosining qo'yilishi, ularga badiiy va falsafiy yondashuv masalasi yoritilgan bo'lib, bu jihatlarni Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani misolida tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** urush, tinchlik, fojia ko'lami, absurd adabiyot, pafos, “begonalashgan avlod” atamasi, xarakter, ruhiyat, tasvir uslubi.

## DESCRIPTION OF THE PROBLEM OF WAR AND PEACE IN INSCRIPTIONS DESCRIBING THE AFGHAN WAR...

(In the example of the novel "Smell of Blood" by Abdurashid Nurmurodov)

**Abstract.** There are many works on the subject of war in Uzbek literature. Among them, the writings about the Afghan war are especially important. In this article, the problem of war and peace, and the artistic and philosophical approach to them are highlighted in the works about the Afghan war.

**Key words:** war, peace, scale of tragedy, absurd literature, pathos, the term "alienated generation", character, mentality, image style.

## ОПИСАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЙНЫ И МИРА В НАДПИСЯХ ОПИСЫВАЮЩИХ АФГАНСКУЮ ВОЙНУ...

(На примере романа «Запах крови» Абдурашида Нурмуродова)

**Аннотация.** В узбекской литературе много произведений на тему войны. Среди них особенно важны сочинения об афганской войне. В данной статье освещаются проблемы войны и мира, художественно-философский подход к ним в произведениях об Афганской войне.

**Ключевые слова:** война, мир, масштаб трагедии, литература абсурда, пafос, термин «отчужденное поколение», характер, менталитет, стиль изображения.

Urush... bu so'zni eshitishning o'ziyoq kishini sergaklantirib, vujudini titratadi. Shu nomning o'ziyoq kitobxon ruhiyatida asarga nisbatan qandaydir tushunib bo'lmas his-tuyg'uni uyg'otadi. Zero, bu mavzuda yaratilgan asarni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Urushning alamli iztiroblarini so'z ko'magi ila tuygan kitobxon ruhiyatida bo'lishi muqarrar evrilishlar asarning qiymatini ham qaysidir ma'noda belgilab bera oladi desak maqsadga muvofiq bo'ladi, nazarimizda.

Urush mavzusida bitilgan asarlar orasida Afg'on urushining dahshatlari, insonlar boshiga solgan turfa ko'rguliklari haqida bitilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Shunday asarlardan biri Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani bo'lib, u qahramonlar xarakteri va o'z tasvirlash uslubi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Barchamizga ma'lumki, 1979-yilda boshlanib o'n yil davomida Afg'oniston hududida kishilarning turmushini vayron qilgan, bolalarni yetim qilib, odamlar boshiga og'ir kulfatlarni solgan afg'on urushi 1989-yilga kelibgina nihoyasiga yetadi. Shu o'n yil mobaynida qanchadan-qancha qurbonlar berildi, o'nglab bo'lmas vayronagarchiliklar ichida yaqinlaridan judo bo'lgan insonlar faryodi-yu, ne bo'lganini anglab yetolmay qaltirab turgan murg'ak go'daklarning nolasini esa tavsif etish uchun so'z ham ojiz... Mana shu achchiq qismat egalarining taqdirleri, boshidan kechirgan sinovli daqiqalari, alam iztiroblari aks etgan ushbu roman orqali chin ma'noda afg'on urushi haqidagi haqiqatlar bo'y ko'rsatadi.

“Urush aks ettirilgan asarlarda ko'proq qaysidir tepalikni olish uchun kimlarningdir qurbon bo'lishi, kimningdir ko'ksini o'qqa tutishi, kimningdir qo'rqmasligi-yu, kimningdir qo'rqqoligi ko'rsatilardi. Bunday asarlarda qilichlar jarangi, o'qlar ovozi, pulemyotlar sayrashi, bombalar portlashi, nayzalar sanchilishi tasvirlanardi-yu, urushning, urush odamining ichki qiyofasi yetarli ko'rsatilmadi. Afg'on urushiga bag'ishlangan yangi romanda urush ulkan fojia ekanligi, urushda g'olib bo'lmasligi, eng yomoni, jangchi uchun urush hech qachon tugamasligi nihoyatda ta'sirli va go'zal tasvirlangan.”<sup>178</sup>

Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” romani afg'on urushining butun dahshatlari, azob-uqubatlari, turfa ko'rguliklarini yorqin ko'rsatib bera olgan asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar urush mavzusida yaratilgan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Asarda absurd adabiyot belgilari seziladi. Absurd tushunchasi haqida Albert Eynshteyn : “G'oya avval absurd bo'lib tuyulmasa, demak undan umid yo'q.”<sup>179</sup> degan bo'lsa, professor Yo'ldosh Solijonov unga quyidagicha yondashadi: “Absurd ta'limoti ma'nisizlik targ'ibotchisi emas, aksincha, hayotni ma'no va mazmun bilan boyitish insonning o'ziga bog'liq ekanligini, buning uchun u umid bilan yashashi, fikr qilishi lozimligini bilib olamiz. Absurd qahramon ma'nisiz hayotni mazmun bilan boyitish uchun qat'iy iroda va yuksak aql-farosat bilan ish tutishi lozim.”<sup>180</sup> Bu fikrlardan kelib chiqadiki, absurd ta'limotining asosida ma'nisizlikdan ham mazmun topa olish uchun harakat yotadi.

“Romanda absurdlik asosida yuzaga kelgan Afg'on urushining butun dahshatlari, murakkabligi turfa ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Bu ham bo'lsa, mustaqillik sharofatidir. Agar bunga erishmaganimizda, aslo urushning absurdlik mohiyatini ochib berish, sho'ro askarlarining shafqatsizligi, ahloqsizligi, shuningdek, zobitlarning askarlar qismatiga achinish, yo'qotishdan ko'yinish o'rniga, ulardan daromad yo'lida foydalanish, ya'ni temir tobutda jasad o'rnida boylik va narkotik jo'natishlar xususida sira ham yozib bo'lmasdi, yozgan odamning o'zi baloga qolar edi. Romanda esa bu narsa erkin o'z ifodasini topgan.”<sup>181</sup>

Romanda voqealar syujeti ketma-ketlikda berilmagan, ya'ni asar bosh qahramoni Vohidning urush bilan bog'liq hayoti, o'y-kechinmalari go'yoki vaqt mezoniga amal qilmasdan sodir bo'ladi. Bunda qahramon goho yoshlik davridagi voqealar asnosida yashasa, goho urush sahnalarida ko'rsatiladi, yoki urushdan keyingi hayotida urush asoratlari ila azoblanadi. Bu bilan yozuvchi kitobxonga voqealarni shunchaki chigal holda tasvirlab berishni istamaydi, balki

<sup>178</sup> Қозокбой Йўлдош. Ёниқ сўз. – Т.:”Янги аср авлоди”, 2006. – 117-б.

<sup>179</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Absurd>

<sup>180</sup> Yo'ldosh Solijonov. Sizif va absurd. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 1-son.

<sup>181</sup> Каримов Х. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари.- “А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”, 2008. -

Vohidning urush odamiga aylanganidan so'nggi ruhiy o'zgarishlari, yovuzlik changaliga tushib qolishi-yu qon hidiga tashnalik alomatlarini o'quvchi ongiga asta-sekinlik bilan singdirish, qahramonning ruhiy olamini his qilish tuyg'usini shakllantirishni maqsad qiladi, bizningcha.

Urushda qatnashish, dahshatli o'limlarga guvoh bo'lish, unga ko'nikib yashash inson uchun bir fojia bo'lsa, urushdan tirik qaytish, uning xotiralari bilan yashash esa undan ham ulkan fojidadir. Urushdan tirik qaytganlarni ko'rib ko'pchilik havas qiladi, ya'ni shunday qirg'inglardan omon chiqishning o'zi buyuk baxtday tuyuladi. Aslida-chi? Aslida urush ko'rganlar, uning azobini his qilgan kishilar endi avvalgiday tinch, osuda yashay oladimi? Aslo!!! Endi urush odamlarini o'sha mash'um xotiralar tinch qo'ymaydi, har lahza urushning qonli nafasi ularning qismatini ta'qib qilaveradi, o'ldirilgan insonlar o'ng-u tushlariga kirib, o'lim talab qilishadi. Bu ahvolda yashash o'limdan ham battar qiynoqqa soladi kishini. Bunday azoblar ichida yashayotgan insonni tirik deyish mumkinmi? Roman mana shunday azoblar bilan kurashib yashayotgan urush odamlari, ularning turfa fojiali taqdirlari haqida hikoya qiladi.

Asarning nomiyoq kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Asarni o'qiy boshlaganingizda dastlab qo'rquv his qilasz. Minalar portlashi natijasida sochilib ketgan inson a'zolari, chavaqlangan odamlar-u, tanib bo'lmas darajaga kelib qolgan jasadlar... Tasavvur qilganingizdayoq dahshatga tushasz. Lekin asarni o'qish barobarida urush muhitiga ko'nikib borasz, o'sha yerlarda siz ham yurganday bo'lasz, pistirmada turib dushmani kuzatasiz, nigohingiz urush dahshatlariga moslashib boradi, go'yo. Qahramonimiz uchun esa dushmanlarni o'ldirish ularni xo'rlash oddiy holga aylanib qolgan. O'ldirmasang, seni o'ldirishadi. Umrining atigi sanoqli yillarini jangda o'tkazganiga, qaramay uning keyingi hayoti ham urushdan ayro holda bo'lmaydi. Balki, urushning achchiq azoblari bilan hamnafas holda yashashga majbur bo'ladi, u keyingi osuda hayotini endi sira ortiga qaytara olmaydi. Hatto tushlarida ham takror urush janggohlarida qon kechadi. Shuning uchun ham yozuvchi asarga shu nomni berishni joiz hisoblagandir.

Asar bosh qahramoni Vohid birdan yovuz insonga aylanib qolmaydi. U urushga borishga majbur bo'lish barobarida qo'lga qurol oladi va yakunida odam o'ldirish darajasigacha boradi. Bularning hech birini u o'z ixtiyori bilan qilmaydi. Balki u shunday qilishga majbur bo'ladi, chunki agar u o'ldirmasa, uni o'ldirishlari muqarrar edi. Bu urushning azaliy o'zgarmas qonuni edi. Vohid birinchi marta urush dahshatini his qilgan voqea bu mina portlashi oqibatida do'sti Sergeyning parcha bo'lib ketgan tanasi haqida eshitgan xabari bo'ldi-yu, ammo hatto tovuq so'yganda ham yuragi titrab turgan Vohid bu xabarni sovuqqonlik bilan eshitadi va buning uchun o'zini tushuna olmay qiynaladi: *“Shunda...shunda o'zimning borligimni his qilish uchun sochimdan changallab tortdim. Og'riq bor edi, o'zim tirik edim, ammo bag'rimni to'ldirib turgan nimadir meni tashlab ketganday...”*

Uning bag'rini to'ldirgan narsa nima edi? Balki bu mehr-muhabbat, shafqat, rahm kabi tuyg'ulardir. Har ne bo'lganda ham ko'nglida rahm-shafqat bor bo'lgan inson uchun yaqin do'stidan ayrilish, oddiy o'lim emas parcha bo'lib ketgan do'stining topilmay qolgan qo'li haqidagi mash'um xabarni shunchaki tinglash aslo mumkin emas edi. Shuning o'zi aslida ulkan fojining bir ko'rinishi emasmi?!

Romanda muallif urush odamlarining ruhiyati va faqat o'zigagina tegishli bo'lgan olamini o'zgacha tarzda ifoda etadi. Asardagi har bir qahramonning afsus-nadomatlari, armonlari

tasvirlangan kechinmalari esa romanning haqiqiy pafos darajasini belgilab beradi. Natijada kitobxonni bu qismlar bayoni o'ylashga, iztirob chekishga undaydi.

Vohid keyingi hayoti davomida ham qonli o'tmishidan bir lahza ham ayro tarzda yashay olmaydi va o'sha urush iztiroblarini qayta-qayta tuyib, azoblanadi. Qahramon endi bu yovuzlik changalidan qutula olmaydi, qon hidiga tashna tuyg'ular yana uni talvasaga soladi, yomonlik qilishga undaydi. Pirovardida, u yana odam o'ldirishni, uning uchun yoqimli o'sha "qon hidi"ni tuyishni xohlaydi. Bu tasvirlar orqali muallifning badiiy maqsadi sifatida ezgulikdan ezgulik yaralishi va aksincha yovuzlik yovuzlikni vujudga keltirishini ko'rsatish deb hisoblash mumkin.

Jahon adabiyotining urush mavzusidagi asarlarida "Yo'qolgan avlod" tushunchasi tasvirlangan. Buni tasdig'i sifatida Xeminguey va Remark asarlariga murojaat qilishimiz mumkin. A.Nurmurodov esa bulardan farqli ravishda dahshatli qismat egalarining ruhiyatidagi hissiy evrilish, qilgan gunohlari iskanjasidagi savol-u javoblarning cheksizligi, umuman o'zgalar taqdiriga o'xshamaydigan, faqat o'zlarigina yashaydigan "individual olami" kabilar e'tirofi bilan adabiyot uchun yangi "begonalashgan avlod", "taqdir mahbuslari" kabi atamalarni yuzaga keltirdi. Bu esa o'zbek adabiyoti uchun yangicha tushunchalar bo'lib, faqat urush odamlarigagina tegishli bo'lgan, ayniqsa, urushdan keyingi achchiq qismat egalarining umumlashgan nomi sifatida tushunilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Asardagi Vohidning qora o'tmish iskanjasidagi va zulmat qoplagan kelajak arosatida kechayotgan hayoti u bilan boshqa insonlar o'rtasiga ko'rinmas devor bunyod qilib, ulardan uzoqlashtiradi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'nglida zarra yomonlik bo'lmagan inson yuragidagi bu ezgulik umidi uni batamom tark etmaydi. Jumladan, Vohidning yarim tunda yoqimsiz tushdan cho'chib uyg'onganda xayoliga kelgan mudhish xohish uni yana yovuzlik qilishga undaydi va qo'shni kampirni burda-burda qilib tashlash istagi uni vasvasaga soladi. *"Kampir ixlos bilan, xuddi yosh qizaloqday to'lqinlanib gapirar, ko'kish sochi esa quloqlari ustida sakrab-sakrab, uning gaplarini tasdiqlayotganday edi. Men esa miyam g'uvillaganidan hech narsani eshitmasdim. Keyin-keyin tuman qoplagan vujudimdan hovur ko'tarilganday fikrlarim tiniqlasha boshladi. Xayollarim o'tgan kunlarim so'qmoqlaridan boshlab ketdi..."*

Tasvirning aniqligini qarangi, o'zgalar suhbatiga ilhaq sodda kampirning xatti-harakatlari, samimiyati Vohidning vahshiyona istagiga putur yetkazadi va aksincha o'tmish chog'larini yana bir bor xayoldan o'tkazishga undaydi. Shu o'rinda ezgulikdan ezgulik tug'ilishi haqidagi haqiqat yana bir bor o'z tasdig'ini topadi.

Asarda fojialar ko'lami keng tasvirlangan, o'lim sahnalari biroz ko'payib ketganday, nazarimizda. Ammo biror o'rinda bir-biriga o'xshagan qismlarni, o'limlarni ko'rmaymiz. Chunonchi, hech bir sog' joyi qolmagani holda yashashni istagan Kolya, urushdagi sevgilisini yodga olgani uchun eridan kaltak yeb o'lgan Shirinoy, Surxondaryodan Toshkentga kelib o'qishga kira olmay uyiga bir qop un olib borish umidida arava tortishga majbur bo'lib, maqsadiga yeta olmay halok bo'lgan Tohir, o'qituvchilikdan oila tebrata olmay biznes qilmoqchi bo'lgan Shakar va uning oilasi fojiasi... Bularning har biri tasvirida kitobxonda hissiy emotsionallik yuzaga keladi, bu esa romanning badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, yovuzlik qanchalik kuchli bo'lmasin ezgulik oldida mag'lub bo'ladi. Muallif shuning uchun ham ezgulik va yovuzlik kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni parallel holda tasvirlaydi. Bu orqali yovuzlik ezgulik oldida ko'pincha ojiz bo'lishi yana bir bor dalillanadi. Vohid o'z burchi sabab urushga kirishga va qon to'kishga majbur bo'ladi. Qayta-qayta

qon to'kishlar dastlab uni qo'ruvga solgan, vijdon azobida qiynalishiga sabab bo'lgan bo'lsa, pirovardida u yirtqich hayvon singari vahshiylashib, unda qon hidiga tashnalik hissi uyg'onadi. *“Qon, qip-qizil qon ohangraboday o'ziga sehrlab qo'ygandi. Uning qip-qizil boshidan hech bir ma'no sezmagandek g'ashim kelib, yuzidagi latta-puttani yulib-yulib tashlab, basharasini ko'rgim keldi. Barmoqlarim qon istaganday kaftlarim qichishardi”*

Ezgulik, rahm-shafqat tuyg'usi bilan ulg'aygan, hech bir yomonlik qilishga vijdoni yo'l qo'ymaydigan bunday insonning qon hidiga o'rganib qolishi, ijobiy xislatlar o'rnini zolimlik, beshafqatlik, vahshiylik kabilarning egallashi bu ulkan fojia hisoblanadi. Bunday holatni uning o'zi ham allaqachon his qilgan, ruhiyatida bo'layotgan bunday evrilishlarga ko'nikib ulgurgan edi. Ayniqsa, quyidagi parchada Vohidning bu achchiq qismatga ko'nikishga majburlik iqrori, sof tuyg'ular kishisidan endi zolim insonga aylanib borayotgani yaqqol tasvirlangan: *“Shu yillar ichida, momolarimni ko'rgan bolaligim mendan uzoqlashib borabardi. Yo'q-yo'q, ular uzoqlashmadi. Men ulardan qochib yurdim. Oppoq libos kiygan yoshligim, yuragi oppoq bolaligim qarshisida turishga sabr-bardoshim yetmaydi. Qilgam gunohlarim ikkimiznong oramizga qora parda bo'lib tortildi. Qay bir kun kelib uning qarshisida hisob berishim kerak. Ha-ha, hisob berishim...”*

Ona degan buyuk zot borki, ayniqsa urushga farzandlarini kuzatib, bardoshi sinalayotgan onalar minazi asarda juda ta'sirli tasvir etilgan. Jumladan, o'g'lini urushda yo'qotgan, na o'lik, na tirikligidan bexabar Salomat aya obrazi asarda o'z muhim o'rniga ega. U urush jangohlarida jon olib, jon berayotgan, kechani kecha, kunduzni kunduz demay urush qiynoqlarini his etib yashashga majbur bo'lgan farzand dog'ini ko'rayotgan onalarning timsoli sifatida tasvirlanadi. U o'g'lini izlab charchamaydi. Zero, o'g'lining vafotiga ishongisi kelmas, bunga toqat qilish mushkul edi. Uning nutqidan keltirilgan quyidagi parcha esa yuragi qon onaning alam, iztiroblarini kitobxon ruhiyatiga singdirishga asos bo'la oladi: *“Telebizorda meni bolam haqida gapirganingda bilsang, bolajonim, bo'g'zinga yoshmas, bo'g'zinga armonmas, bo'g'zinga sog'inch tiqildi. Qani endi, nafas ololsam. Yutinaman deyman, yutina olmayman. Yutinishdan qo'rqaman. Sog'inchni yutib bo'lmaydi. Shunday sog'inch bilan o'lsam deyman. Qani endi o'lolsam. O'lolmayman. Jo'rajonimni ko'rmay qanday ham o'laman...”*

Afg'on urushida minglab o'g'lonlar halok bo'lishdi, 37 mimgga yaqini majruh bo'lib qolishdi, uch yuzga yaqin askar bedarak yo'qoldi. Tasavvur qiling, o'sha farzandlar dog'ida qanchalab onalar azob chekishgan, hatto farzand jasadini ham ko'rmay aza ochishga majbur bo'lishgan, goho bu qismatga taslim bo'lmay umrining so'nggi daqiqasigacha farzandlari yo'liga umid bilan ko'z tikishgan. Bu baxtiqaro onalarning umumlashgan siymosi birgina Salomat aya obrazi orqali ochib berilgan.

Romanda muallif voqelar bayoniga hamohang tarzda mushohadaga chorlovchi teran fikrlarni ham ifoda etadiki, bu o'quvchini har gal o'ylashga, fikr yuritishga chorlaydi. Chunonchi, Vohid onasining qabri yoniga kelganda idan quyilib kelayotgan ko'z yoshlarini tiya olmaydi va aftoda ahvolda quyidagi to'xtamga keladi: *“Odamning xayolidan kechgan o'ylariga so'z topolmay qolishi – poklanishdir! Odamning muvozanatsizlikni boshidan kechirgan pallalari – qilgan gunohlariga tavba—tazarrudir! Odamning nigohini oppoq marjonlar pardasi qoplashi – yurakning yig'lashidir! Yurakning kuyishi – sog'inchning, armonning qayta tug'ilishidir.”*

Bularni o'qigan kitobxon beixtiyor fikrlashga, mushohada qilishga kirishadi. Har bir mushohada zamirida ulkan ma'no-mazmun, teran fikrlar zanjiri borki, bunday mantiqiy jumalarni



yoziq uchun kishiga faqat iste'dodning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun u falsafadan ham xabardor bo'lishi, shu bilan birga ulkan hayotiy tajribaga ham ega bo'lishi lozim. Zero, falsafiy fikrlar ko'proq hayot tajribasining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Asarning tabiiyligining sababi ham muallifning o'sha vaziyatlarni boshidan kechirgani, o'sha mash'um kunlarda u ham yashagani deb hisoblash mumkin. Chunki haqiqiy asar muallifning qalb tug'yonlaridan yaraladi, dunyoga keladi.

A.Nurmurodov ham Afg'on tuprog'ida qon kechib, haqiqiy urush muhitini his qilgan. "Yozuvchi hayotning nogahoniy zarbalarini o'zida, oilasida sinab ko'rgan. Afg'on tuprog'idan nogiron qaytgan yuzlab oilalarning tasavvurga sig'mas dardlarini tinglagan, jangchi onalarning serajin yuzlari, bezovta nigohlariga termulgan. O'sha kunlarni xotirlarkan :”Hammasi onam, hammasi ukam edi” – deydi adib.”<sup>182</sup> Asar qahramonlari taqdirida uning hayotiy kechinmalari qayta bo'y ko'rsatgan. Shu sababli balki roman Afg'on urushi haqiqatlarini chin ma'noda ko'rsatib bera olganligi bilan ahamiyatli.

“Qon hidi” romanida nafaqat urush qatnashchilarining kechmishlari, ruhiy holatlari, balki janglardan yiroq bo'lsa-da, uning azoblari bilan yashayotgan, urush jabrini tortayotgan kishilarning his-tuyg'ulari ham ta'sirli ifodalangan. Yagona o'g'li Jo'raning o'limiga ishonolmagan, tushunarsiz nayranglar qilayotgan zobitlarning o'glining jasad o'rniga qutini tutqazgan holatda onaning ruhiyatidagi o'ta ta'sirlanish tufayli o'zi sezmaganda holda bir qudratli kuch bilan temir tobutni tishlab tortishi holatini mubolag'a asosida shunday tasvirlaydi: “*Sovuq temir qutining bir chetidan jin holatda tishlab tortdim. Temir yumshoq edi, yumshoq. Uzib oldim, deganimda temirda qizil dog' qoldi. Lablarim tirnaldi degan o'yda qonni tuflab tashladim. Tobut ustiga tishlarim to'kildi.*” Muallifning bunday tasviri orqali onaning ruhiy azoblanishi oldida temirdan yasalgan tobutning ham yumshoq bo'lib tuyulishi o'zgacha holatni yuzaga keltiradi va kitobxonada onaning trans holatini tushunish uchun ko'nikma hosil qiladi.

Asar bosh qahramoni Vohidning Mamarajab bilan bo'lgan suhbatini kishini o'yga todiradi. Urushdan tirik qayta turib, o'zini baxtsiz deya hisoblagan insonning ko'nglidan chiqqan gaplariga esa beixtiyor ko'zingizga yosh keladi: “*Urushdan qaytgandan so'ng biroz yashadim. Lekin qanday, kim bilan yashadim, bilmayman. Ammo bilganlarim nimadir uzluksiz, to'xtovsiz yuragimga sanchilib turishi edi. Sog'man, soppa-sog'man, sog' odamga o'xshayman. Aslida kasalmand, tuzalmas dardga chalinganman. Buning davosini uzoq yillar axtardim. Topolmadim. Hamon izlayman. Qani endi, bir nur yiltirab ko'rinsa. Hamma tomonni zulmat qoplaganday. Ana shu zulmat ichida sarson-sargardon yurgan baxtiqaroman.*

*Sen, senga o'xshagan odamlar menga havas qilishi mumkin. Lekin men havas qilgulik odammasman. Meni bu dunyoda faqat suratim bor. Ichim to'kilib, yuragim g'ijimlanib, g'ururim toptalib tamom bo'lgan. Ha, tamom bo'lgan!”*

Mana shu alam iztiroblar bilan tunlarni tonglarga ulagan qahramon qismati ko'ngilga og'riq beradi. Urushdan qaytgan qanchadan-qancha shunday qismat egalari taqdiri haqida hikoya qiluvchi ushbu asar Afg'on urushining haqiqiy dahshatlarini kitobxon ruhiyatiga singdira oladigan asar desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Asar yakunida muallif tomonidan berilgan quyidagi fikrlar esa chin ma'noda urush odamining qalbdan chiqqan alamli iqrori, bo'gzini kuydirgan haqiqat alangasidir: “*So'nggi paytlarda “Hayotning mazmunsiz yo'lida “yashash” nomli kasallik bilan*

<sup>182</sup> Islomjon Yoqubov. Badiiy-estetik so'z sehri. Toshkent, 2011, 172-bet

*umrguzaronlik qilishdan ne foyda,” degan o’y bot-bot xayolimga keladi. Lekin yashayapman! Ammo bir kun kelib ular bilan uchrashishim tayinligini eslab, ko’ngilda yorug’ umidlar paydo bo’ladi. O’sha “qayg’usiz kun” da uchrashguncha, mendan oldin ketgan do’stlarim!.. ”*

Xulosa qilib aytganda, A.Nurmurodovning “Qon hidi” romani Afg’on urushi haqiqatlarini ochib beruvchi, urush odamining alam-iztiroblari, ruhiyatidagi evrilishlarni yorqin ifoda eta olishi bilan harbiy nasrimiz rivojiga ulkan hissa qo’sha ladigan asarlardan biri hisoblanadi.

## NASRIY ASAR KOMPOZITSIYASIDA TASVIR IMKONIYATLARI

Gulboyeva Feruza Mamatkarimovna

Termiz davlat universiteti adabiyotshunoslik: (o'zbek adabiyoti)

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978779>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola epik asar kompozitsiyasining tarkibiy qismlari – rivoya, tavsif va dialogning matnning bir butun holda tashkillantiruvchi unsur sifatidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, tavsifning bir uzvi bo'lgan tasvirning ham alohida component sifatida tahlil qilinib nasriy asar kompozitsiyasidagi o'rni ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Nasriy asar, yozuvchi, qiyofa va harakter, tasvirning ifoda yo'sini, asardagi qiziqarlilik va sirlilik, badiiylikni ta'minlash, ijodkor.

### IMAGE POSSIBILITIES IN THE COMPOSITION OF A PROSE WORK

**Abstract.** This article reveals the role of the components of the composition of the epic work - narrative, description and dialogue as an element that organizes the text as a whole. Also, the image, which is an integral part of the description, is analyzed as a separate component and its role in the composition of the prose work is shown.

**Key words:** Prose work, writer, image and character, way of expression of the image, interest and mystery in the work, providing artistry, creator.

### ВОЗМОЖНОСТИ ОБРАЗА В КОМПОЗИЦИИ ПРОЗАИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье раскрывается роль компонентов композиции эпического произведения - повествования, описания и диалога как элемента, организующего текст в целом. Также образ, являющийся составной частью описания, анализируется как отдельный компонент и показывается его роль в композиции прозаического произведения.

**Ключевые слова:** прозаическое произведение, писатель, образ и персонаж, способ выражения образа, интерес и загадочность в произведении, художественность, творец.

Yozuvchilar o'z asarlarida tasvirlar yordamida shaxsning qiyofa va harakter, psixologiya va kechinmalari, shuningdek kayfiyati va tashqi olam, muhit bilan o'zaro munosabatini belgilaydi. Ayniqsa, bugungi zamonaviy asarlarda tasvirning ifoda yo'sini va imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bugungi zamonaviy yozuvchilar, jumladan, Omon Muxtor. Xayriddin Sulton, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabilarning turli xil katta-kichik janrdagi nasriy asarlarida tasvir yo'sini va maqsadi anchayin kengayinini ko'rish mumkin. personajlar harakteri, kayfiyati, psixologiyasi haqida, shuningdek, kelajakda ro'y berishi kutilayotgann voqea-hodisalar haqida o'quvchiga habar berishda rivoya usulidan, aniqroq aytganda, bayonchilikdan qochib, asardagi qiziqarlilik va sirlilikni, ijodkor niyati va maqsadidagi badiiylikni ta'minlash maqsadida tasvirning turli ko'rinishlaridan ijodiy imkoniyat sifatida zo'r mahorat bilan foydalanib kelmoqdalar.

Xususan, yozuvchi Isajon Sulton nasriy asarlarida tasvir imkoniyatlarini teran anglab, his qilgan ijodkor sifatida keng va samarali foydalana olgan deya ayta olamiz. Shu sabab yozuvchi Isajon Sulton zo'r mahoart bilan o'z asarlarida tasvirning go'zal namunalarini yaratib kelmoqda. Jumladan, "Alisher Navoiy", "Ozod", "Boqiy darbadar" kabi romanlari hamda "Oydinbuloq

to'plami" (1995), "Boqiy darbadar"(2011), "Ozod"(2013), "Bog'i Eram" (2015), "Hazrati Hizr izidan" (2018) nomli to'plamlaridan joy olgan qissa va hikoyalarda tasvirning bejirim, shuningdek, falsafiy ahamiyat kasb etgan betakror namunalarini ko'plab uchraydi. Yozuvchining ana shunday asarlaridan biri "Ozod" romanining "Birinchi aks" deb nomlanuvchi faslidan lavha keltiramiz:

*"Qishloqda odatiy hayot davom etmoqda edi. (rivoya)*

*Har yer-har yerdan ko'kimtir tutun ko'kka o'rlar, qiy-chuv, chaqaloqlar yig'isi eshitilardi. Kimdir tandirgami, o'choqqami o't yoqdi. Qaydadir qo'ylar ba'radi; o'n-o'n ikki yoshlar chamasidagi bolakay bir to'da qo'yni o'tlatgani haydab keta boshladi.*

*Quyiroqdagi hovlida choponining o'ngirini qayirib olgan bir kishi quruq yaydoq yerga tosh tashirdi".<sup>183</sup>*

Birinchi jumlada roviy qishloqning odatiy hayot tarzi davom etayotganini aytadi-yu, ko'p so'zlab o'tirmay, keyingi jumladan o'sha odatiy qishloq hayotini tasvirlashga o'tadi. Dastlab, qishloqning umumiy tasviri beriladiki, go'yoki o'quvchi biror trepalikdan turib qishloq hayotini o'z ko'zlari bilan tomosha qilayotgandek tuyuladi. Shuningdek, bunday tasvirlash usuli qishloq hayotidan olingan kinoning boshlanish qismini ham esga soladi. Bir necha tasvir va voqea-hodisani ichiga olgan bunday tasvirni faqatgina uzoqdan ko'ra olish mumkin yoki kinoda umumiy plandagina aks ettirish mumkin. Tasvifning bunday usuli kinodagi tasvirga olish jarayoni bilan deyarli bir xil.

Yozuvchi tasvir obyektlarini o'zgartirar ekan, har bir tasvirga olingan manzarani asar matnida ham alohida abzas bilan ajratib tasvirlaydiki, o'quvchi ham tasvir nuqtasi o'zgartirganini darhol fahmlab oladi. Keyingi tasvir obyekt nuqtai nazaridan torayib, "quyiroqdagi hovlida choponining o'ngirini qayirib" olib tosh tashiyotgan bir kishiga qaratiladi va bir necha sniya tasvir kamerasi ushbu jarayonni muhrlaydi. Shuningdek, tasvirda ayni jarayonga alohida to'xtalishning sababi, o'quvchi asarning asosiy qahramonini uzoqdan tanishtirib o'tishdir. Ushbu matning birgina gap orqali qisqagina to'xtalib o'tishining sababi ham shunda.

*"Bostirma ostidagi biqini chandig'li otning sag'risiga loy sachragan, oldiga bir quchoq beda tashlab qo'yilgan edi. Uning yemish bilan ishi yo'q, nimadandir bezovta. Sal narida shotisi tikka qilib qo'yilgan, ulkan g'ildiraklariga aylanasiga temir qoplangan, xom teridan ishlangan qayishlari osilib-osilib qolgan ko'hna arava ko'zga tashlandi"<sup>184</sup>.*

Keyingi abzas bilan yana tasvir o'rni o'zgarib, jarayon yana odatdagicha davom etadi. Endilikda bostirma ostidagi biqini chandig'li, sag'risiga loy sachragan, oldiga bir quchoq beda tashlab qo'yilgan ammo yemish bilan ishi yo'q, nimadandir bezovta bo'layotgan ot "tasvirga olinadi". Shu zahoti nima sababdan otning yag'riniga loy sachragani, yemishga qaramayotgani va bezovtaligi o'quvchini qiziqtiradi. Ammo bu savolning javobi ham keying qoldiriladi. Ko'rinib turibdiki, yozuvchi asarning qiziqarliligini ta'minlovchi, diqqatni bir nuqtaga jamlovchi bir necha kichik-kichik tugunlarni tasvirga singdirib yuboradi. Roviy otni tasvirlab bo'lib, uning yon-atrofiga nazar soladi va go'yoki o'zi ham birinchi marta ko'rib turganday, atrofdagi ko'zi ilg'agan narsa-buyum yoki holatni tasvirlaydi: "Sal narida shotisi tikka qilib qo'yilgan, ulkan g'ildiraklariga aylanasiga temir qoplangan, xom teridan ishlangan qayishlari osilib-osilib qolgan

<sup>183</sup> Исажон султон. Озод. – Тошкент. «шарқ юлдузи» журналі, 2011 йил, 4-5-сонлар

<sup>184</sup> Исажон султон. Озод. – Тошкент. «шарқ юлдузи» журналі, 2011 йил, 4-5-сонлар

ko' hna arava ko'zga tashlandi". Shuningdek, qisqa muddat to'xtalib, tasvir keltirilishining asababi, o'quvchiga voqea-hodisaning asosiy nuqtasi va personajni tanishtirib, yana tezda bu nuqtaga qaytishni anglatardi. Chunki, asardagi har qanday, hattoki detal tasviri ham bekorga tanishtirilmaydi, qachondir bu tasvir ijodkorning badiiy g'oyasi uchun, albatta, xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'quvchi keltirilgan tasvirni roviy ko'zi bilan ko'radi. Roviylar bir muddat atrofni ko'zdan kechirib, voqealar rivoji davomida ishtirok etadigan dastlabki obzarlarni tasvirdan so'ng, atrofdan ko'z uzib uzoq-uzoqlarga, qirlarga, bulutlarga, osmon-u fakakka tikiladi.

*"Qirlarning ustida, Uchyonq'oqda bulutlar quyushgan, goh-goh momaqaldiroq gumbirlardi. Undan ham narida, Iskandar devorining tepasidagi bulutlar esa qop-qora tus olgan, ahyon-ahyonda orasida yarq etib chaqmoqlar yallig'lanardi".<sup>185</sup>*

Roviylar bu qishloqni emas, boshqa, qirlar ustidagi Uchyonq'oq qishlog'ida ro'y berayotgan hodisalarni tasvirini keltiradi. "quyushgan bulutlar", "goh-goh momaqaldiroq gumburlashi", "Iskandar devorining tepasidagi bulutlar esa qop-qora tus olgan"i, ahyon-ahyonda bulutlar orasida yarq etib chaqmoqlar yallig'lanishi kabi bir nechta tasvir zamirida yozuvchi o'quvchini o'sha o'lis qishloqda ro'y berayotgan yoki ro'y bermoqchi bo'lgan qandaydir voqealardan ogohlantirmoqchi bo'ladi va shu tasvir keyingi voqealar uchun ekspozitsiya vazifasini bajaradi.

Roviylar uzoqlardan ko'z olib yana yon veridagi holat va hodisalarga bir-bir nazar tashlab o'tadi.

*"Imorat qurilayotgan hovlidan nariroqdagi boshqa hovlida bir ayol xom non to'la savatni ko'tarib, tandir yoniga keldi. Tandirda olov pasaya boshlagan, qizg'ish cho'g'lar chirsillar edi. Ayol cho'g'larni kurak bilan bir yerga uydi-da, ustiga kul tortdi.*

*Yomg'ir isini anqitib, sarsari shabada esa ketdi"<sup>186</sup>.*

Ushbu jummalarda aks etgan tasvirdan bilib olishimiz mumkinki, choponini o'ngirini qayirib, tosh ko'tarib borayotgan kishining hovlisida imorat qurilayotgan ekan. Keyingi tasvir, tandirga non yopishga chog'langan qo'shni ayol. Yozuvchi qishloq tasvirini shu yerda "Yomg'ir isini anqitib, sarsari shabada esa ketdi" jumlasini bilan yakunlanadi. Yozuvchi ketma-ket keltirgan bu tasvirlar qatida biz anglagan va anglamagan olam-olam ma'nolarni singdirib yuboradi.

Badiiy voqelikning o'ziga xos ifoda yo'sini sifatida kengayib, tarmoqlanib borayotgan tasvir hodisasi bugungi kunda kompozitsion unsurga aylanib bormoqda desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

## REFERENCES

1. Исажон султон. Озод. – Тошкент. «шарқ юлдузи» журналы, 2011 йил, 4-5-сонлар

<sup>185</sup> Исажон султон. Озод. – Тошкент. «шарқ юлдузи» журналы, 2011 йил, 4-5-сонлар

<sup>186</sup> Исажон султон. Озод. – Тошкент. «шарқ юлдузи» журналы, 2011 йил, 4-5-сонлар



**JISMONIY JARAYON FE'LLARINING SEMANTIKASI.  
(ABDULLA QODIRIY ROMANALARI ASOSIDA)**

**Ergasheva Feruzaxon Abdusalim qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti  
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

**R.Rasulov**

Ilmiy rahbar: f.f.d.proff.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978709>

*Annotatsiya. Maqolada jismoniy jarayon fe'llari va ularning semantikasi haqida ma'lumot beriladi.*

*Kalit so'zlar: semantika, jismoniy jarayon fe'llari, jismoniy jarayon fe'llarining semantikasi.*

**SEMANTICS OF PHYSICAL PROCESS VERBS.  
(BASED ON ABDULLAH QADIRI'S NOVELS)**

*Abstract. The article provides information about physical process verbs and their semantics.*

*Key words: semantics, physical process verbs, semantics of physical process verbs.*

**СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ ФИЗИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА.  
(ПО РОМАНАМ АБДУЛЛЫ КАДИРИ)**

*Аннотация. В статье представлена информация о глаголах физического процесса и их семантике.*

*Ключевые слова: семантика, глаголы физического действия, семантика глаголов физического действия.*

**KIRISH**

Jismoniy jarayon fe'llari ba'zi ilmiy adabiyotlarda "Fiziologik xolat fe'llari deb ham yuritiladi. Fiziologik holat fe'llari ayni fe'llar semantik maydonining eng katta, asosiy leksik-semantik guruhini tashkil qiladi. Ushbu fe'llar inson va hayvon a'zolarining jismoniy holatini ifodalaydi. Bu jismoniy holat ushbu fe'llar ma'nosining moddiy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Fiziologik holat fe'llari tub va yasama fe'llar bo'lib, ma'no tomonidan biologik va psixik holat fe'llariga yaqin turadi. Biologik holat fe'llari jonli va jonsiz predmetlarga xos psixik holat fe'llari inson va hayvon ruhiyatiga xos xususiyatlarni, fiziologik holat fe'llari esa-psixik holat, asosan, tashqi jismoniy holatlarni ifodalashi bilan u nisbiy mustaqildir. Aniqrog'i, bu holat fe'llari ma'nosida jonli mavjudotlarda, ularning muayyan a'zolarida sodir bo'luvchi muayyan fiziologik o'zgarishlar, jarayonlar aks etadi.<sup>187</sup>

Tilshunos olim R.Rasulov o'zining "O'zbek tili nazariy grammatikasi muammolari" kitobida quydagi jismoniy jarayon fe'llarini keltirib o'tganlar.

"Fiziologik " xolat fe'llari quyidagilar: uxlamoq, charchamoq, shilpiqlanmoq, toliqmoq, ogrimoq, sulaymoq, oriqlamoq, ozmoq, isitmalamoq, bezraymoq, yeg'lamsiramoq, mizgimoq, sovqotmoq, namiqmoq, kasallanmoq, semirmoq, yog'onlashmoq, to'lishmoq, majolsizlanmoq, chiniqmoq, elimoq, xorimoq, darmonsizlash (yokilan) moq, seraymoq, shishinqiramoq,

<sup>187</sup> R.Rasulov. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. Toshkent. 2008. 58-bet.

choqqaymoq, shumshaymoq, (qovog‘ini solmoq, to‘rsaymoq), tolmoq, zirqiramoq, shifolanmoq, xolsizlanmoq, qoraymoq ( qora tusga kirmoq ),va boshqalar.<sup>188</sup>

Jonli mavjudodning jismoniy holati ikki xil ko‘rinishda yuz beradi.Bular: inson yoki hayvon organizmidagi jismoniy holat biror jismoniy o‘zgarish natijasida,jismoniy jarayon holati tarzida kuzatiladi. Bu jihatdan jismoniy jarayon fe‘llari o‘z ichida quydagi guruhlarga bo‘linadi:

1.Jismoniy o‘zgarish natijasida bo‘lgan holatda inson va hayvon ,ularning organizmida sodir bo‘lgan muayyan holatlar kuzatiladi va bir holatdan yoki bir harakatdan boshqa bir jismoniy holatga o‘tish , o‘zgarish natijasi anglashiladi.

2. Jismoniy jarayon holatini ifodalovchi jismoniy jarayon fe‘llari inson va hayvon organizmida holatni jarayon holat sifatida ifodalaydi.Jismoniy jarayon holatini ifoda etuvchi fe‘llar jismoniy o‘zgarish holatidagi fe‘llardan jarayon belgisiga ko‘ra farqlanadi.Bunda ham bir holatdan boshqa bir holatga o‘tish ifodalanadi.Jismoniy jarayon holatini ifodalovchi fe‘llar davomiyligi, tugallanmaganligi ,jarayon holatligi bilan ham o‘ziga xosdir.

#### **Jismoniy o‘zgarish natijasida:**

1 .Anvarda **qonsizlanish** va kiprik ostida harakat ko‘rildi.(Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon)

2. Qovoq ostlari **ko‘kargan** yonig‘a kelgan Otabekka ham qaramoqqa majolsiz edi.

3. Kumush honimning **ozg‘ani** sog‘inchniki.

4. Kumushbibi yillab yotguchi og‘riqlardek sarg‘ayib **ozg‘an**.

5. Burung‘i to‘lalig‘i ketib **ozg‘inlangan** va lekin bu ozg‘inlik uning husniga kamchilik bermay bilaks yuqorilatgan.

6.Shaxidbek zakotchimiz ham shu bir necha kunning orasida bir chorak **etini yo‘qotayozdi**. (O‘tkan kunlar)

#### **Jismoniy jarayon holatida:**

1.Mulla Abdurahmon Safar bo‘zchini mehmonxonaning daxliziga kirishdayoq ko‘rib qoldi va sariq tusi **bo‘zarib ketkan** xolda ichkariga kirdi. (Mehrobdan chayon)

2. Kumushbibi yig‘idan **qizarg‘an** katta ochib so‘radi. (O‘tkan kunlar)

3.Otabek **qip –qizil qizarib** gunohkorlardek yerg‘a qarag‘an edi.

4.Saodat **qizarib -bo‘zarib** chetga burilib olg‘an edi.

5.Odatdagidan ham **rangi o‘chgan** Abdurahmon bularning imo-ishoratiga ishtrok etmadi Ushbu misollarda jismoniy jarayon fe‘llari “jonli”, “harakatchan” ko‘rinishga ega. Bu jarayon asosan insonlarning muayyan a‘zosi-tana, yuz a‘zosi bilan bog‘liq. Mazkur fe‘llarga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da quydagicha izoh beriladi.

“Qonsizlanmoq“ - qoni , rangi qochmoq, rangi o‘chmoq , oqarmoq. Safar bo‘zchining bu so‘zidan imomning qonsiz rangi yana qonsizlangan, olamunchoq ko‘zi allanechukholatga kirgan edi. (Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon)

“Qizarmoq“- nojo‘ya, nomaqbul xatti-xarakati, aybi, qilmishi kamchiligi va shu kabilar uchun kimsa oldida xijolat tortmoq, izza holatga tushmoq. Bu so‘zdan Anvar **qizarib** ketdi. Ra‘no qog‘ozdan ko‘zini olib **qizardi**. Samad bo‘qoq uning bu pichingidan **qizardi**. (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon)

<sup>188</sup> R.Rasulov O‘zbek tili nazariy grammatikasi muammolari.Toshkent.2022.22-bet

Otabek **qip-qizil qizarib** gunohkorlardek yerg'a qaragan edi. Ko'p yig'lagandan **ko'zlari qizarg'an**, qovoqlari shishgan, yuzlari bo'rtgan. Uning yuzi uyatdan juda **qizarg'an**. Saodat **qizarib-bo'zarib** chetka burilib olg'an edi. Meni ko'rgach **qizarinib ketdi**. Kumushbibi yig'idan **qizarg'an ko'zini** kata ochib so'radi.

(Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Bo'zarmo**” - rangi quv o'chib, oqarib ketmoq. Mulla Abdurahmon Safar bo'zchini mehmonxonaning daxliziga kirishidayoq ko'rib qoldi va **sariq tusi bo'zarib ketkan** xolda ichkariga qadam uzdi. Mulla Abdurahmon ham **bo'zarib oldi**. (Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon) O'zbek oyim **bo'zarib qolib** darav esiga hindining jodusi kelin tushgan edi. Saodat **qizarib-bo'zarib** chetka burilib olg'an edi. Garchi bu ko'cha uning yuziga qizarib-oqarish va **bo'zarib – sarg'ayish** tusalari berar edi. Zaynab **bo'zarg'an** holatda uyiga yugurib ketdi. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar) Bo'zarmoq so'zida salbiy bo'yoqdorligi bilan o'ziga xos bo'lib, so'zlashuv uslubida qo'llanadi.

“**Ko'karmoq**” – qattiq zarb, sovuq yoki boshqa biror sabab ta'sirida ko'k-qoramtir tusga kirmoq (badan , yuz haqida). Ul titrar edi, **ko'karar edi**, to'lg'anar edi. Qovoq **ostlari ko'kargan**, yonig'a kelgan Otabekka ham qaramoqqa majolsiz edi. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Ozmoq**” - eti qochib ,ozg'in tortmoq, ozg'inlanmoq, oriqlanmoq. Kumush honimning **ozg'ani** sog'inishniki. Kumushbibi yillab yotg'uchi og'riqlardek **sarg'ayib ozg'an**. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Ozg'inlamoq**” – oriqlamoq, ozmoq. Misol: Burung'i to'laligi ketib, ozg'inlangan va lekin bu ozg'inlik uning husniga kamchilik bermay, bil'aks yuqorilatgan. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Etini yo'qotmoq**” – Et oldirmoq. Ozmoq. Shaxidbek zakotchimiz ham shu bir necha kunning orasida qarib bir chorak etini yo'qatayozdi. (A.Qodiriy Mehrobdan chayon)

“**Kulimsiramoq**”- miyig'ida kulmoq, iljaymoq jilmaymoq. Ko'rsam bo'ladir...-dedi va **kulimsiragansimon**. Rahmat Otabekka **kulimsirab** qaradi-da, tog'asiga javob berdi. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Kulumsimoq**”-biroz kulmoq. Kulumsiramoq bilan ma'nodosh bo'la oladi. Mohlar oyim kulimsidi, agar o'lmasam shu do'ndiq qizimni berib, Anvarni o'zim kuyav qilaman. Yigitcha ro'molimni keltirdi, tusida biroz **kulimsish** bor edi. (A.Qodiriy Mehrobdan chayon)

“**Kulmoq**” yuz, ko'z harakatlari yoki har xil tovush bilan hursandligini zavq-shavqini ifoda etmoq, kulgu ifodalamoq. Xech gap deb **kuldi**. Yana **gurr etib kulib** yubordilar. Yerga tushsa mushuk yeb qo'yadi dedi Ra'no va **kulib qotib qoldi**. (A.Qodiriy Mehrobdan chayon)

Otabekka **kulib boqdi**. Kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab **kulishlari** saroyini ko'kka ko'targudek. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Iljaymoq**” ovoz chiqarmay, lab, yuz-ko'z harakati bilan kulgu ifoda etmoq. Abdurahmon turtib qo'ydi va Anvarga ishorat qilib ana ahvol degandek **iljaydi**. (A.Qodiriy Mehrobdan chayon)

Bir turlik **iljayib** yer tagidan Hasanaliga ko'z tashladi. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)

“**Dardmanlik**” – xastalik, kasal bo'lmoq. Shundan beri Otabek **dardmand**. Ziyo aka ajablanib dedi- qanday dardmandlik Otabek sog'ku. (Abdulla Qodiriy.O'tkan kunlar)<sup>189</sup>

## XULOSA

<sup>189</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jild.Toshkent 2006.

Jismoniy jarayon fe'llari tirik organizmlarning, inson va hayvon organizmining jismoniy holatini ifodalaydi. Bu fe'llar jonli mavjudodlarning tanasida, ularning muayyan a'zolarida sodir bo'lgan jismoniy holatni, jarayonni ifodalaydi.

Jonli mavjudod organizmida sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar orqli namoyon bo'ladigan fe'llarni jismoniy jarayon fe'llari deb ayta olamiz.

#### **REFERENCES**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jild.Toshkent 2006.
2. R.Rasulov.O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi.Toshkent.2008.
3. R.Rasulov O'zbek tili nazariy grammatikasi muammolari.Toshkent.2022
4. Abdulla Qodiriy O'tkan kunlar. Toshkent. 2016
5. Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon. Toshkent. 2019

## SUG'URTA KOMPANIYASI EKSPERT MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH VA UNDA FOYDALANISH

Mansurov Sardorjon Murod o'g'li

TATU Farg'ona filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978728>

**Annotatsiya.** Sug'urta kompaniyalari oldida turgan muammolarni, ularga yetkazilgan zararni kamaytirishni masalalari ko'rib chiqilgan. Sug'urta kompaniyalarning firibgar mijozlarni aniqlashning aqlli tizimini ishlab chiqish uchun lingvistik o'zgaruvchilardan foydalanish imkoniyatini beradigan produksion-freym expert tizimlar bilan ishlash uchun qobiq dasturiy ta'minot EsWin dasturiy ta'minot ishlatilgan.

**Kalit so'zlar:** ekspert tizimi, EsWin, sug'urta, sug'urta kompaniyalari, mijoz - firibgar.

### CREATING AND USING AN INSURANCE COMPANY EXPERT DATABASE

**Abstract.** Problems faced by insurance companies, issues of reducing the damage caused to them were considered. The shell software EsWin software was used to work with production-framework expert systems that allow the use of linguistic variables to develop an intelligent system for identifying fraudulent customers of insurance companies.

**Keywords:** expert system, EsWin, insurance, insurance companies, customer - fraudster.

### СОЗДАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКСПЕРТНОЙ БАЗЫ ДАННЫХ СТРАХОВОЙ КОМПАНИИ

**Аннотация.** Рассмотрены проблемы, с которыми сталкиваются страховые компании, вопросы снижения причиняемого им ущерба. Программная оболочка EsWin была использована для работы с производственно-фреймворковыми экспертными системами, позволяющими использовать лингвистические переменные для разработки интеллектуальной системы выявления мошеннических клиентов страховых компаний.

**Ключевые слова:** экспертная система, EsWin, страхование, страховые компании, клиент-мошенник.

Sug'urta - bu ulkan kelajakka ega, deyarli foydalanilmagan bozorga asoslangan rivojlanayotgan soha. Bu prognozning asosi shundan iboratki, dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida sug'urta kompaniyalari o'z imkoniyatlari va ularda jamlangan kapital miqdori bo'yicha banklar bilan bir qatorda bo'lib, iqtisodiyot moliya sektorining muhim tarmog'i hisoblanadi.

So'nggi yillarda foydalanuvchilarga ma'lumotlar bazalarini, shu jumladan ekspert tizimlarini yaratishga imkon beruvchi yangi ishlanmalarni avtomatlashtirish vositalari paydo bo'ldi.

Ekspert tizimlari (ES) sun'iy intellekt (AI) usullarini qo'llash va rivojlantirishda muhim amaliy natija sifatida paydo bo'ldi - kompyuterlar yordamida intellektual (ijodiy) xarakterdagi muammolarni hal qilish usullarini o'rganadigan ilmiy fanlar to'plami.

AI sohasi qirq yildan ortiq rivojlanish tarixiga ega. U boshidanoq, boshqalar qatori hali ham tadqiqot ob'ekti bo'lgan bir qator juda murakkab muammolarni hal qildi: avtomatik teoremani isbotlash, mashina tarjimai (bir tabiiy tildan ikkinchisiga avtomatik tarjima), tasvirni aniqlash va sahna tahlili, harakatni rejalashtirish robotlari, o'yinlarning algoritmlari va strategiyalari.



ET - ma'lum bir mavzu bo'yicha muammolarni hal qilishda mutaxassis funksiyalarini bajaradigan dasturlar to'plami. ET maslahat beradi, tahlil qiladi, konsultatsiya o'tkazadi, tashxis qo'yadi. Korxonalarda ETning amaliy qo'llanilishi ish samaradorligi va mutaxassislarning malakasini oshirishga yordam beradi.

Ekspert tizimlarini ishlab chiqishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri ishlab chiqilayotgan tizimning funktsionalligi uchun talablarni shakllantirishning aniqligidir. Tizimning ishlashiga qo'yiladigan talablarni to'g'ri shakllantirish uchun fan sohasini tahlil qilish va mavzu tushunchalari o'rtasidagi asosiy tushunchalar va munosabatlarni aks ettiruvchi grafik shaklida u haqidagi bilimlarning norasmiy tavsifini ishlab chiqish kerak.

Ekspert tizimlari (ES) sun'iy intellekt (AI) sohasidagi yorqin va tez rivojlanayotgan sohadir. ET o'z hayoti davomida o'ziga bo'lgan qiziqishning ortishi sababi ularni inson faoliyatining turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda qo'llash imkoniyatidir. Ehtimol, bitta ET yaratilmaydigan yoki hech bo'lmaganda bunday urinishlar amalga oshirilmaydigan muammoli soha yo'q.

ET - bu o'z vakolatlari sohasidagi muammoni hal qilishda mutaxassisning funksiyalarini bajaradigan dasturlar yoki dasturiy ta'minot to'plami. ES, xuddi insoniy mutaxassis kabi, o'z ish jarayonida bilim bilan ishlaydi. ETning ishlashi uchun zarur bo'lgan fan sohasi haqidagi bilimlar ma'lum bir shaklda rasmiylashtiriladi va kompyuter xotirasida tizimni ishlab chiqish jarayonida o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin bo'lgan bilimlar bazasi shaklida taqdim etiladi.

ET maslahat beradi, tahlil qiladi, tasniflaydi, maslahat beradi va tashxis qo'yadi. Ular odatda inson mutaxassisi tomonidan tajriba talab qiladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan. Protessual tahlildan foydalanadigan mashina dasturlaridan farqli o'laroq, ET deduktiv fikrlash asosida tor mavzudagi (muayyan mutaxassislik sohasi) muammolarni hal qiladi. Bunday tizimlar ko'pincha tuzilmagan va noto'g'ri aniqlangan muammolarni hal qilishga qodir. Ular evristikani, ya'ni shiftdan olingan qoidalarni chaqirish orqali tuzilmaning etishmasligi bilan engishadi, bu zarur bilim yoki vaqt etishmasligi to'liq tahlil qilish imkoniyatini istisno qiladigan tizimlarda foydali bo'lishi mumkin.

ETning asosiy afzalligi - bilimlarni to'plash, ularni uzoq vaqt davomida saqlash, yangilash va shu bilan ma'lum bir tashkilotning unda malakali mutaxassislar mavjudligidan nisbiy mustaqilligini ta'minlash qobiliyatidir. Bilimlarni to'plash eng yaxshi, tasdiqlangan echimlardan foydalangan holda korxonada ishlaydigan mutaxassislarning malakasini oshirishga imkon beradi.

ET va boshqa dasturiy mahsulotlar o'rtasidagi asosiy farqlar nafaqat ma'lumotlardan, balki bilimlardan, shuningdek, qarorlar qabul qilishning maxsus mexanizmi va mavjud bo'lganlar asosida yangi bilimlardan foydalanishdir. ESdagi bilimlar kompyuterda oson qayta ishlanadigan shaklda taqdim etiladi. ESda muammoni hal qilish algoritmi emas, balki bilimlarni qayta ishlash algoritmi ma'lum. Shu sababli, bilimlarni qayta ishlash algoritmini qo'llash, taqdim etilmagan muayyan muammoni hal qilishda bunday natijani olishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bilimlarni qayta ishlash algoritmi oldindan ma'lum emas va evristik qoidalar asosida muammoni hal qilish jarayonida quriladi. ESda muammoni hal qilish foydalanuvchilarga qulay tushuntirishlar bilan birga keladi, olingan echimlarning sifati odatda mutaxassislar tomonidan erishilganidan ko'ra yomonroq emas va ba'zan yaxshiroq. Bilimga asoslangan tizimlarda ma'lum bir fan sohasidagi masalalarni yechish qoidalari (yoki evristika) bilimlar bazasida saqlanadi. Muammolar

tizim oldiga ma'lum bir vaziyatni tavsiflovchi faktlar to'plami shaklida qo'yiladi va tizim bilimlar bazasidan foydalanib, bu faktlardan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Bilimga asoslangan tizimlarni qo'llash sohalarini bir nechta asosiy sinflarga guruhlash mumkin: tibbiy diagnostika, monitoring va nazorat, mexanik va elektr qurilmalaridagi nosozliklarni diagnostika qilish, o'qitish.

Aksariyat ETlar tarkibiga ko'ra bir vaqtning o'zida bir nechta turlarga bo'linishi mumkin bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'quv tizimi diagnostika va rejalashtirishni amalga oshirish uchun bilimga ega bo'lishi mumkin. U kursning asosiy yo'nalishlari bo'yicha talabaning qobiliyatlarini aniqlaydi, so'ngra olingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda o'quv rejasini tuzadi. Boshqaruv tizimi nazorat, diagnostika, prognozlash va rejalashtirish maqsadlarida qo'llanilishi mumkin. Uyni qo'riqlash tizimi atrof-muhitni kuzatishi, sodir bo'layotgan voqealarni aniqlashi (masalan, deraza ochilgan), prognozni berishi (o'g'ri uyga bostirib kirmoqchi) va harakat rejasini tuzishi mumkin (politsiyani chaqirish).

Sug'urta kompaniyasi tomonidan sotishni boshqarish AIS ishlab chiqilgan: texnologiyalar, dizayn usullari va talablari tavsiflangan, biznes-jarayonlarning axborot modellari berilgan, biznET topshirig'ini va ma'lumotlarni amalga oshirishda ma'lumotlarni to'plash, uzatish, qayta ishlash va berish uchun oqim diagrammalari keltirilgan. oqim sxemalari chiziladi.

Loyihalashtirilgan ma'lumotlar bazasi kompaniyada yuqori darajadagi avtomatlashtirishga erishish vositasidir. Uni amalga oshirish natijasida mehnat unumdorligi oshadi, kerakli ma'lumotlarni qidirishga sarflanadigan vaqt kamayadi, xodimlar axborot hisobotlarini hisoblash va yaratish bo'yicha bir qator uzoq muddatli operatsiyalardan ozod qilinadi.

## REFERENCES

1. Bokovoy Y. Kichik va o'rta biznET uchun axborot tizimlarini loyihalash metodologiyasining xususiyatlari. M.: Ed. uy "Universitet", 2016. - 145 p.
2. Makarova N.V., Volkov V.B. Informatika: Universitetlar uchun darslik. - Sankt-Peterburg: Peter, 2011. - 576 p.
3. Makarova, N.V. Kompyuter fanlari. :Universitetlar uchun darslik / N. V. Makarova, V. B. Volkov. - Sankt-Peterburg. :Piter, 2011. - 576 p.
4. Paraxina, V.N. Strategik menejment: darslik / V.N.Parahina, L.S.Maksimenko, S.V.Panasenko.- M.: KNORUS, 2006. - 496 b. Pirogov V. Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari: tashkil etish va loyihalash. Sankt-Peterburg: BHV, 2015. - 341 p.
5. Abdug'aniyevich, A. H., & Abdumalik o'g'li, A. A. (2022). HUDUDNING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 576-581.
6. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATI NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK OMILLARI. *World of Science*, 6(4), 574-580.
7. Абдуғаниев, О. И., & ўғли Абдулхамидов, А. А. (2023). Фарғона водийсида ердан фойдаланишни ўрганишда тарихий ёндашувнинг зарурати. *IQRO JURNALI*, 3(1), 51-55.

8. Abdumalik o'g'li, A. A. (2023). FARG'ONA VODIYSI TABIATI VA XO'JALIGINING AGROTURISTIK IMKONIYATLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 512-517.
9. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ АҲОЛИСИНИНГ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИГА ТАБИИЙ-ГЕОГРАФИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 435-440.
10. Abdug'Aniyev, O. I., Turdiboeva, S. X. Q., & Abdullayeva, H. R. Q. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT VA ETNOEKOLOGIYA. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 94-101.
11. Hamidaxon, A. (2020). Prospects of Development of Agrotourism in Fergana Region. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*, 3(1), 345-347.
12. Abdusattor, A., Nematulloh, F., Khamida, A., & Boburjon, N. (2023). ECOLOGICAL TOPONIMS AND THEIR CLASSIFICATION. *IQRO JURNALI*, 3(1), 337-340.
13. Vasiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
14. Vasiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 176-182.
15. Vasiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILYIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
16. Vasiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
17. Vasiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
18. KHALIMBOYEVA, F., & VOSILJONOV, A. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI NAZARIY O'RGANILISHI. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(5), 94-98.

## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАКТАБ ВА ОИЛА ҲАМКОРЛИГИ

Юсупова Зарифахон

Тошлоқ тумани 20-мактаб ўқувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7978748>

**Аннотация.** Бошланғич синф ўқувчиларини ижодий фаолиятни шакллантиришида ва ривожлантиришида таълим муассасалари ўрни асосида таълим-тарбия сифатини интеграциялаш, ўқув диалогини асосида таълим жараёнини индивидуаллаштириш, ҳамкорликда ўқитиш технологияларини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этишининг методик тизимини такомиллаштиришига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

**Калим сўзлар:** Технология, ижодий фаолият, ижодкорлик, бошланғич синф.

## SCHOOL AND FAMILY COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Abstract.** Special attention is being paid to the integration of the quality of education based on the role of educational institutions in the formation and development of creative activities of primary school students, the individualization of the educational process based on educational dialogue, the development and implementation of collaborative teaching technologies, and the improvement of the methodological system.

**Key words:** Technology, creative activity, creativity, elementary school.

## СОТРУДНИЧЕСТВО ШКОЛЫ И СЕМЬИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** Особое внимание уделяется интеграции качества образования на основе роли образовательных учреждений в формировании и развитии творческой деятельности младших школьников, индивидуализации образовательного процесса на основе учебного диалога, разработке и реализации совместных технологий обучения, совершенствование методической системы.

**Ключевые слова:** Технология, творческая деятельность, креативность, начальная школа.

Дунёда инсон капиталига бўлган эҳтиёжнинг ортиши “ижодий фаолият” категорияларига турли маданий, таълимий ва ижтимоий-иқтисодий муносабатларни назорат қилиб турувчи, бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий фаолиятига баҳо берувчи зарурий ўлчов сифатида қаралишига сабаб бўлмоқда. Дунёнинг етакчи таълим муассасаларида бошланғич синф ўқувчиларининг интеллектини ва дунёқарашини ривожлантиришда аниқ ва табиий фанларни ўқитиш, интеграллашган интерфаол таълим технологиялари, виртуал ва экспериментал лойиҳаларни жорий этиш орқали бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий фикрлаш фаолиятларини ривожлантиришнинг самарали механизмлари йўлга қўйилмоқда.

Ҳозирги кунда, жаҳонда кенг қамровли тушунча сифатида “ижод” концептини таҳлил қилиш, технологик фанларни ўқитишда бошланғич синф ўқувчиларини ижодий фаолият ва фикрлашга йўналтириш, таълимнинг компетенциявий талаблари таркибини ижодий фикрлаш даражасига оид меъзонлар, хусусиятлар асосида кенгайтиришга оид илмий-тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилиши кузатилади.

Глобаллашув ва ахборотлар кўламининг интенсификашуви шароитида бошланғич синф ўқувчиларини ижодий фаолиятга йўналтиришда билимларни танқидий ва ижодий ёндашувга кўра эгаллаш, табиат қонунлари ва борлиқ инъикосида ижодий фикрлашнинг бирламчи функцияларини тадқиқ этишга қаратилган тадқиқотлар фаннинг жамиятни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришдаги таъсирини ошириш, ишлаб чиқариш интеграциясини кучайтиришга хизмат қилмоқда.

Мамлакатимизда инсон, унинг ҳар томонлама камол топиши ва фаровонлиги, манфаатларини рўёбга чиқариш шароитларини яратиш, таълим

сифати ва самарадорлигини янги босқичга олиб чиқиш борасидаги изчил ислоҳотлар натижасида умумий ўрта таълим мактаблари ўқув жараёнида бошланғич синф ўқувчиларини ижодий фаолиятга йўналтириб уларни қобилиятларини шакллантириш ғоясини кенг татбиқ этиш имкониятлари оширилмоқда. Шунингдек, технология фанини ўқитишда бошланғич синф ўқувчиларнинг ижодий фаолиятга йўналтириб уларни қобилиятларини шакллантириш технологиялари таркибини кенгайтириш зарурати мавжуд.

Gamification has made a significant contribution to pupils' increased interest in reading, because of the carefully curated games and stories in the Read Along app. According to Wigfield et al. reading interest plays an important role in helping students comprehend the text because it is a fundamental factor that is directly related to their reading goals.<sup>199</sup> The scholar's aforementioned statement about providing intriguing topics based on their preferences is spot on, and it would be preferable to maintain consistency in reading more books with the gamification method. Scientists are now incorporating gamified teaching techniques into reading-based activities to increase desirable activities. Our study showed that adopting gamified teaching techniques in conjunction with the intriguing stories in the Read Along app had a significant impact. Additionally, with the assistance of the elementary school pupils, we successfully completed our experiment and obtained the desired reading outcome.

### **CONCLUSION**

The Read Along gamification project gave participants the best opportunities and results in their educational setting. Gamification has been implemented, and it has had a substantial impact on how well users can read. You will gradually improve your speaking and listening abilities by participating in this probation. The inferential analysis of this research revealed that group students who were gamified experienced much more growth than group students who were not gamified.

The results of the investigation showed that although the reading scores of the original group stayed consistent at around 34%, those of the gamified version group changed. The final results of the gamified set of students shot up from 33.3 to 82.475 percent.

It has successfully exposed the courses' outcomes by structuring the teachings in funny and relevant ways. These kind of apps can be used to prepare lessons that will improve the students' reading abilities. In order to develop an educational atmosphere in learners' lives nowadays, education must be clear and precise for them. Therefore, in order to increase readership, teachers and tutors must plan classes using a gamified teaching approach for every type of learner.

### **REFERENCES**

1. A. Wigfield, J.S. Eccles, J.A. Fredricks, and S. Simpkins, 'Development of Achievement Motivation and Engagement,' vol. 3, pp. 657-700, 2015.
2. M. BECKER, N. McElvany, and M. Kortenbruck, 'Intrinsic and Extrinsic Reading Motivation as Predictors of Reading Literacy: A Longitudinal Study,' J. Educ. Psychol., vol. 102, pp. 773-785, 2010.

3. <https://bera-journals.onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/bjet.13057>
4. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/09588221.2021.1939388?scroll=top&needAccess=true&role=tab&aria-labelledby=full-article>
5. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.google.android.apps.seekh&referrer=inapp>
6. [https://www.pointagram.com/gamification/?gclid=Cj0KCQjw6cKiBhD5ARIsAKXUdyYiJGSdfdAzjG6OnG0dLSO0n6fu7UeVH3ax-GceFIFH4qk0wo1XfYaAvRFEALw\\_wcB](https://www.pointagram.com/gamification/?gclid=Cj0KCQjw6cKiBhD5ARIsAKXUdyYiJGSdfdAzjG6OnG0dLSO0n6fu7UeVH3ax-GceFIFH4qk0wo1XfYaAvRFEALw_wcB)

**IRSIY JARAYON FE'LLARINING SEMANTIK MUNOSABATLARI  
(ABDULLA QODIRIY ROMANLARI ASOSIDA)**

**Xoliqova Munojot Jo'rabekovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti  
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

**R.Rasulov**

Ilmiy rahbar: f.f.d. proff.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980423>

*Annotatsiya.* Maqolada irsiy jarayon fe'llari va ularning semantikasi, ma'no tuzilishi hamda Abdulla Qodiriy romanlarida ularning qo'llanilishi haqida ma'lumot beriladi.

*Kalit so'zlar:* semantika, irsiy jarayon fe'llari, semantikasi.

**SEMANTIC RELATIONS OF HEREDITARY PROCESS VERBS  
(BASED ON THE NOVELS OF ABDULLA QADIRI)**

*Abstract.* The article provides information about the verbs of the hereditary process and their semantics, meaning structure, and their use in Abdulla Qadiri's novels.

*Key words:* semantics, hereditary process verbs, semantics.

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ГЛАГОЛОВ НАСЛЕДСТВЕННОГО  
ПРОЦЕССА**

**(НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНОВ АБДУЛЛЫ КАДИРИ)**

*Аннотация.* В статье представлена информация о глаголах наследственного процесса и их семантике, структуре значения, а также их употреблении в романах Абдуллы Кадири.

*Ключевые слова:* семантика, глаголы наследственного процесса, семантика.

**KIRISH**

Fe'llar qanday jarayonni ifodalashiga ko'ra quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:

a) nutqiy faoliyat fe'llari: gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bayon qilmoq, ming'irlamoq, do'ng'illamoq.

b) aqliy faoliyat fe'llari: o'ylamoq, fikrlamoq, tafakkur qilmoq, xayol surmoq, tasavvur qilmoq.

d) jismoniy faoliyat fe'llari: chizmoq, yozmoq, yemoq, artmoq, bino qilmoq, yugurmoq, chopmoq, bormoq va hokazo.

d) holat fe'llari: titramoq, jovdiramoq, xursand bo'lmoq, sevinmoq kabi ma'noviy guruhlarga ajralgan.<sup>200</sup>

Nutqiy faoliyat fe'llar nomidan kelib chiqib nutq jaryonini ifodalaydi. Bu turdagi fe'llarni salbiy va ijobiy turlarga ham ajratish mumkin. Masalan: gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq fe'llari ijobiy ma'noda, ming'irladi, do'ng'illadi kabi fe'llar esa salbiy ma'nolarni ifodalaydi.

Aqliy faoliyat fe'llari esa inson tafakurri bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydi. Bularga o'ylamoq, fikrlamoq, tasavvur qilmoq kabi fe'llarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Fe'llarning qiyudagi ma'no guruhlarga ajratilganligini ko'rishimiz mumkin:

a) yumush fe'llari: ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi,

<sup>200</sup> N.Mahmudov va boshqalar; 6-sinf darsligi Toshkent-2017. 37-bet



- b) tafakkur fe'llari: o'yladi, kashf qildi, o'qidi,
- d) sezgi fe'llari: sezdi, his qildi,
- e) ruhiy holat fe'llari: qayg'urdi, iztirob chekdi, xursand bo'ldi,
- f) tabiiy holat fe'llari: eridi, muzladi, yetdi,
- g) ishora fe'llari: imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi,
- h) ko'rish fe'llari: qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi,
- i) nutq fe'llari: gapirdi, so'zladi, bayon qildi,
- j) jismoniy holat fe'llari: og'ridi, isitma qildi, xastalandi.<sup>201</sup>

Yumush fe'llari - o'z nomidan anglashilib turganidek mehnat faoliyati, biror ish va yumush bilan bog'liq bo'lgan fe'llar tushuniladi. Bu ish harakatining bajarilganlik yoki bajarilmaganligini anglatadi. Bu turdagi fe'llar turli zamonda, barcha shaxs-sonda va nisbat shakllarida bo'lishi mumkin. Masalan: ishladi, ishlayapti, ishlamoqchi.

Tafakkur fe'llari - insoniyatning o'y fikrlari, xayollari umuman ongda sodir bo'ladigan jarayonlarni ifodalaydigan fe'llardir. Bu fe'llar soda, qo'shma, juft va takror shakllarda kelishi mumkin, va fe'llar bajaradigan barcha gramatik vazifalarni ifodalab keladi. Masalan: fikrlamoq, o'ylamoq, xayol qilmoq.

Sezgi fe'llari - sezish, dunyoni bilish, his qilish kabi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan fe'llardir. Bu nafaqat insoniyatga balki butun jonli va jonsiz narsalar, hayvonlarga xos bo'lgan harakat va xususiyatlarni anglatadi. Sezgi fe'llari deganda ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish, hid bilish, ta'm bilish kabi his qilinuvchi va ularni ifodalovchi fe'llarga aytiladi. Masalan: his qilmoq, ko'rmoq kabilar.

Ruhiy holat fe'llari - inson hayotiy faoliyati, uning fiziologiyasida, ruhiyatida sodir bo'ladigan jarayonlarni ifodalaydigan fe'llarga aytiladi. Ruhiiy holat fe'llari birinchi navbatda ma'lumotni idrok etish, tushunish va talqin qilish jarayonlarini og'zaki ifodalaydigan fe'l turi hisoblanadi. Masalan: quvondi, suyundi, qayg'urdi, xafa bo'ldi, iztirob chekdi. Ruhiiy holat fe'llari salbiy va ijobiy bo'yoqqa ega. Masalan: suyundi, quvondi, xursand bo'ldi bu ijobiy, qayg'urdi, xafa bo'ldi, iztirob chekdi kabi fe'llar salbiy bo'yoqdorligi bilan bir biridan farq qiladi.

Tabiiy holat fe'llari - tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan va shu jarayonlarni ifodalaydigan fe'llarga aytiladi. Bu fe'llar insoniyat, butun jonli mavjudot va tabiat bilan bog'liqdir. Masalan: muzladi, yotdi, uxladi.

Ishora fe'llari - imo- ishora, hatti- harakatlarni ifodalaydigan fe'llardir. Bunda yuz qismi va undagi boshqa tana a'zolarini harakatga keltirish orqali, qo'l harakatlari va boshqalar vositasida fikrni ifodalash, tushuntirishdir. Masalan: labini burdi, imo qildi, ko'zini qisdi.

Ko'rish fe'llari- nomidan anglashilib turganidek, ko'z orqali hatti-harakatni ifodalash tushuniladi. Masalan; ko'rdi, boqdi, qaradi, termuldi. Bunda fe'llar salbiy va ijobiy bo'yoqqa ega. Masalan: qaradi, termuldi kabilar ijobiy; o'qraydi, baqrayib qaradi kabilar salbiy bo'yoqqa ega hisoblanadi.

Nutq fe'llari- og'zaki nutqni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlar ya'ni fe'llar tushuniladi. Masalan: so'zladi, dedi, aytdi, gapirdi

Jismoniy holat fe'llari- tana a'zolarining holatini ifodalovchi fe'llarga aytiladi. Masalan: og'ridi, istmaladi, xastalandi.

---

<sup>201</sup> A.Nurmonov, A.Sobirov va boshqalar; Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey. Toshkent- 2013. 346-bet

Fe'ning ma'noviy guruhlarida tarkibida yana irsiy jarayon fe'llari ham mavjud. Bunday fe'llarni proff. R.R.Rasulov biologik holat fe'llari deb nomladi.

Bu turdagi fe'llarga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: keksaymoq, qarimoq, o'lmoq, suvsamoq, chanqamoq, ochiqmoq, cho'llamoq, ulg'aymoq va hokazo.<sup>202</sup>

O'zbek tilida biologik holat fe'llari nisbatan ko'p kuzatiladi. Ular keng ma'nodagi tirik (jonli) mavjudotlarning hayoti, o'sishi, rivojlanishi kabilar bilan bog'lanib, ularda tabiiy, zaruriy mavjud bo'lgan irsiy jarayon-holatlarni ifoda etadi. Bunday holat fe'llariga xos muhim xususiyat shundaki, ular mazmunida ifoda etiluvchi holat muayyan predmetning (mavjudotning) holat belgisi bo'ladi. Bu holat predmetning doimiy belgisi sifatida jismoniy, ruhiy jarayonlar bilan bevosita bog'lanib, dialektik munosabatda, o'zaro ta'sirda kuzatiladi.

Biologik holat fe'llari nutq faoliyatida holat manbai (ob'ekti)ga ko'ra shaxs, hayvon va o'simliklar bilan bog'lanadi. Ushbu fe'llar ba'zan vaqt, o'rin, o'xshatish kabi tarkibiy qismlarga ham ega bo'ladi. Biologik holat fe'llari tub va yasama fe'llardan tarkib topadi. O'lmoq, chirimoq, ochilmoq, yetilmoq, bo'rtmoq, gullamoq, yosharmoq kabi holat fe'llari ma'nolarining farqlovchi semalari quyidagicha:

O'lmoq - yashash muddati, hayoti, umri tugagan holatda bo'lmoq: Otam o'ldi, qoldim ko'zimni yoshlab (Balogardon). Keyin qolgan bari o'ldi (Alpomish). Qizning sevgilisi urushda o'libdi. (O'. Hoshimov). Bu orada yana to'rtta sigir o'ldi (A. Kahhor).

Chirimoq – 1. Mo'rt holatda bo'lmoq: Uch-uch shoxlari esa uzun va nozik, ular qurigan, chirigan (O. Muxtorov). 2. Aynigan, yeb bo'lmas holatda bo'lmoq: So'yilgan qovun ichidan chirigan ekan (Latifalar). Chirimoq og'zaki va yozma nutqqa-umumnutqqa xos.

Ochilmoq - o'sib, ko'zga ko'ringan holatda bo'lmoq: Yonbag'irlarda lolalar ochilgan (P. Qodirov). oralaridagi lolaqizg'aldoqlar qip- qizil bo'lib ochilgan (M. Ismoilij). Qizil, safsar, pushti ochilibdi qashqargullar (M. Ismoilij). Ochilmoq so'zlashuv nutqida ko'p qo'llaniladi.

Yetilmoq - har tomonlama voyaga yetgan holatda bo'lmoq: Yigit qirq yoshga kirganda aqliy va jismoniy tomondan yetiladi (SH. Shomaqsudov, S. Dolimov). Qashqirlar yetilibdi, ovchi kelib ... terisini shilib oladi (G'. Jahongarov); Yetilmoq ko'proq badiiy nutqqa xos.

Bo'rtmoq - o'sib chiqqan, bo'rtish holatida bo'lmoq: Daraxtlar yaltirab, bo'rtidi har kurtak (Zulfiya). Olcha novdalari munchoq-munchoq bo'rtib ... (Mirmuhsin). Bo'rtmoq, asosan, yozma nutqqa xos.

Gul, yosh kabi ot, sifatlarga -la(sh), -ar yasovchilarining qo'shilishidan yasalgan holat fe'llarining farqlovchi semalari quyidagicha: Gullamoq - gul chiqqan, gulli holatda bo'lmoq: G'o'zalari o'sib, gullab, ko'saklar taqqan (H.Olimjon). Bog'dagi meva daraxtlari gullagan, havodan bol isi anqiydi (M. Osim). Mana cho'lda ham olcha gulladi (O'. Hoshimov). Zinapoyaning yonginasida o'rik gullagan edi (A. Muxtor). Gullamoq umumnutqqa xos bo'lib, ko'p qo'llaniladi.

Yosharmoq - yosh ko'ringan holatda bo'lmoq: Hamma yoshardi, faqat Mavlon qaridi (A. Kahhor). U yosharib qayta kuch- quvvatga to'lgandek (Almanax). Yosharmoq ko'proq kitobiy, adabiy uslubga oid.

---

<sup>202</sup> R.Rasulov O'zbek tili nazariy grammatikasi muammolari. Toshkent-2022. 22-bet

## **XULOSA**

Irsiy jarayon fe'llari tirik organizmlarning, inson va hayvon organizmining o'sishi, rivojlanishi bilan bog'liq jarayondir. Tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlarini keying avlodlariga qoldirishi irsiyat hisoblanadi, aynan shu jarayonlarni ifodalovchi fe'llarga irsiy jarayon fe'llari deyiladi.

Abdulla Qodiriy romanlarida irsiy jarayon fe'llari keng qo'llanilgan bo'lib, har biri alohida uslubiy bo'yoqqa ega. Ayrim fe'llar, badiiy uslubga ayrimlari esa, ilmiy va so'zlashuv uslubiga xosligini aniqladik. Masalan, "keksaymoq", "chanqamoq", "sarg'aymoq" kabi fe'llar, asosan, badiiy uslubda qo'llanilsa, "qarimoq", "suvsamoq", "qurimoq", fe'llari esa so'zlashuv uslubiga xos hisoblanadi.

## **REFERENCES**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jild.Toshkent 2006.
2. R.Rasulov.O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi.Toshkent.2008.
3. R.Rasulov O'zbek tili nazariy grammatikasi muammolari.Toshkent.2022
4. Abdulla Qodiriy O'tkan kunlar. Toshkent. 2016
5. Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon. Toshkent. 2019

## FUQAROLIK PROTSESSIDA YURIDIK AHAMIYATGA EGA BO'LGAN FAKTLARNI BELGILASHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Ismoilov Toxirjon Ibragimovich

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi  
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980448>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada fuqarolik protsessida Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilashning ahamiyati va dolzarbligi haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va dalillardan foydalanilgan. Maqola so'nggida xulosa hamda takliflar berib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* fuqarolik protsessi, faktlarni belgilashning ahamiyati, fuqarolik ishlarini ko'rish.

## THE IMPORTANCE AND RELEVANCE OF DETERMINING THE FACTS OF LEGAL IMPORTANCE IN CIVIL PROCEEDINGS

*Abstract.* This article talks about the importance and relevance of determining the facts of legal importance in civil proceedings. Reasonable opinions and arguments are used throughout the article. At the end of the article, conclusions and suggestions are given.

*Key words:* civil procedure, the importance of determining the facts, hearing civil cases.

## ВАЖНОСТЬ И АКТУАЛЬНОСТЬ УСТАНОВЛЕНИЯ ФАКТОВ, ИМЕЮЩИХ ЮРИДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ, В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

*Аннотация.* В данной статье говорится о важности и актуальности установления фактов, имеющих юридическое значение, в гражданском судопроизводстве. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и доводы. В конце статьи даны выводы и предложения.

*Ключевые слова:* гражданский процесс, значение установления фактов, рассмотрение гражданских дел.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, sud-huquq sohasida ham bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolada fuqarolik protsessi tushunchasi hamda Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilashning ahamiyati va dolzarbligi mavzusini ochib berishga harakat qilamiz.

Avvalambor, fuqarolik protsessi tushunchasi nima, u qanday ma'noni anglatadi shu masalaga to'xtalib o'tsak.

**Fuqarolik protsessi** - (O'zRda) sudda fuqarolik ishlarini ko'rish, hal qilish va sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq faoliyat. Fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan belgilanadi. Protsessual qonun sud faoliyatini amalga oshirilishda manfaatdor shaxslarga ishda ishtirok etish huquqini, ularga qator protsessual huquqlar berilishini va protsessual burchlar yuklatilishini belgilaydi. Fuqarolik protsessi shaxslarning mulkiy va shaxsiy huquqlarining sud tomonidan himoya qilinishi shakli sifatida ko'riladi. Shu munosabat bilan muayyan fuqarolik protsessual harakatlar qilinadi. Bunday harakatlar sudda fuqarolik ishining taraflari sifatida qatnashuvchilar va ishning boshqa ishtirokchilari tomonidan qilinadigan protsessual harakatlar, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshiruvchi sudning protsessual harakatlaridan iborat bo'ladi. Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish bo'yicha bo'ladigan sud

faoliyati ma'lum bosqich (qism)larga bo'linib amalga oshiriladi. Fuqarolik protsessining bunday bosqichlari: fuqarolik ishini qo'zg'atishdan, ishni sudda ko'rish uchun tayyorlashdan, ishni sud majlisida ko'rish va hal qilishdan, sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari yuzasidan shikoyatlar berish va protestlar keltirish, nihoyat sudning hal qiluv qarorlari ijrosidan iborat.

Keng ma'noda, fuqarolik protsessualligi sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish qoidalaridan iborat. "Fuqarolik sudlari" bir shaxs yoki sinfning boshqasiga nisbatan da'volarini sud orqali hal qilish bilan bog'liq bo'lib, davlat jinoiy qonunni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladigan "jinoiy ishlari" dan farqlanishi kerak.

FPKning 56-moddasida dalillar tushunchasi berilgan hamda nimalarning dalil va isbotlash vositalari bo'lishligi ko'rsatilgan. Bu qonunda belgilanishicha, taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarning mavjudligi yoki yo'qligini, muayyan qonun bilan belgilangan tartibda sudda aniqlashga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar fuqarolik ishi bo'yicha dalil bo'lib hisoblanadi.

Shu moddaning o'zida isbotlash vositalari ham sanab o'tilgan. Bular taraflarning va uchinchi shaxslarning bayonotlari, guvohlarning bergan guvohlilari, yozma dalillar, ashyoviy dalillar va ekspertlarning fikrlaridir.

FPKning 56-moddasida ko'rsatilgan faktik ma'lumotlar va isbotlash vositalari bir-biri bilan bog'liq holda ko'riladi. Bu yerda sudga oid dalillar masalasida ham, mazmun bilan shaklning dialektik bog'liq bo'lishligi nazarda tutiladi. Mazmun deganimizda-faktlar to'g'risidagi ma'lumotlar nazarda tutilsa, shakl deganimizda, isbotlash vositalari (dalillar) nazarda tutiladi. Davoni isbotlash yoinki inkor etish uchun har ikki element mavjud bo'lishi kerak. Faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmagan isbotlash vositasi hech narsani isbotlamaydi va aksincha, faktik ma'lumotlar isbotlash vositalarining qonun bilan belgilangan manbalaridan olinmagan bo'lsa, dalil sifatida foydalanilmaydi va sud qarorining asosiga qo'yilmaydi.

Amaldagi yangi fuqarolik protsessual kodeksi muallifi ko'rsatilmagan holatlar va manbai noma'lum bo'lgan yoki g'ayriqonuniy tarzda olingan boshqa ma'lumotlarni dalil bo'la olmasligi ko'rsatilgan. Bu qoidani kiritilishi bilan sud amaliyotida turli xil usul bilan «dalil» deb ishda foydalanadigan harakatlarni oldini olishga sababchi bo'ladi.

Dalillarning daxldorligi to'g'risidagi FPKning 58-moddasida berilgan qoidada sud faqat ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni tasdiqlaydigan dalillarnigina ko'rish uchun qabul qiladi, deb ko'rsatilgan.

Sud taraflar tomonidan keltirilgan dalillarni qabul qilish-qilmaslik masalasini va qo'shimcha dalillarni talab qilib olish to'g'risidagi iltimoslarni hal qilishda, shuningdek o'z tashabbusi bilan dalillar to'plashda bu qonunga amal qiladi.

Dalillarning ko'riladigan ishga daxldor bo'lish-bo'lmasligini to'g'ri hal qilish-oz kuch va kam vaqt sarf qilib, ishning barcha holatlarini to'la va holisona aniqlash imkonini beradi. Chunonchi, voqeadan xabardor bo'lgan ko'p guvohlardan faqat bir nechasingina sud majlisiga chaqirib so'ralganda, bir necha fuqarolar asosiy ishlarini, xizmat vazifalarini bajarishdan qoldirilmaydilar, buning ish uchun oshiqcha (keragidan ko'p) chaqirilgan guvohlarning bergan guvohlilklarini eshitib, sud protsessi ham ko'pga cho'zilmaydi.

Sudya ishni sud majlisida ko'rishga tayyorlash jarayonida, protsessda ishtirok etish uchun taklif qilinadigan shaxslarni belgilash bilan birga ishga daxldor, ish uchun zarur bo'lgan hujjatlarnigina qabul qilib ishga qo'shadi.



Dalillarning daxldorligi to`g`risidagi qoida bilan FPKning 71, 72, 75, 79 va 81-moddalarida belgilangan normalar bog`liqdir. Bu qonunlarda guvohlarning chaqirilishini, yozma yoki ashyoviy dalillar keltirilishini yoki ularning talab qilib olishini iltimos qiluvchi shaxs qanday holatlar guvohlarning guvohliklari bilan tasdiqlanishi yoki yozma yoxud ashyoviy dalillar bilan aniqlanishi mumkinligini ko`rsatishga majbur ekanligi aytilgan Dalillarning ishga daxldor bo`lish-bo`lmasligi prinsipini qo`llashda sudyalari o`zlarining ichki tushunchalariga asoslanib ish ko`radilar. Fuqarolik ishini sudda ko`rishga tayyorlash vaqtida taraflar tomonidan ko`rsatilgan yoki prokuror taklif qilgan guvohlardan kimlarni sud majlisiga chaqirish, yozma va ashyoviy dalillardan qaysi birini qabul qilishlik masalasini yakka o`zi hal qiladi. Ammo bu to`g`ridagi takliflar sud majlisida qilinsa, qonunda ko`rsatilgan holda masalani qollegial tartibda hal qilinadi va bu to`g`rida ajrim chiqariladi. Sudning dalillar qabul qilishni yoki talab qilishni rad etish to`g`risidagi ajrimi asoslantirilgan bo`lishi kerak.

Dalillarga yo`l qo`yilishi to`g`risida FPKning 59-moddasida ko`rsatma beriladi. Bunda qonun bo`yicha muayyan isbotlash vositalari bilan bog`liq bo`lgan holatlarni hech qanday isbotlash vositalari bilan tasdiqlash mumkin emasligi aytiladi. Masalan, uy-joylarning olingan-sotilgan bo`lishligi O`zbekiston Respublikasi FKning 112 va 488-moddalariga muvofiq notarial tartibda guvohlantirilgan va tegishli davlat ro`yxatidan o`tkazilgan shartnoma bilangina tasdilanishi mumkin. Eng kam ish haqining o`n baravaridan ortiq summaga tuziladigan qarz shartnomasi oddiy yozma formada tuzilishi lozim. Aks holda shartnomani tuzilganligini (arz berilganligini) yoki shartnomaning ijro etilganligini (qarzning to`langanligini) guvohlarning ko`rsatmalari bilan isbotlab bo`lmaydi. Ammo jinoiy jazoga tortiladigan xatti-harakatlar ro`y berganida, chunonchi, qarz olgan shaxs birovlarining ishonchidan foydalanib, bir necha fuqaroning haqiga xiyonat qilsa (olgan qarzidan tonsa), huquqiy tilda aytilganda-firibgarlik qilsa, umumiy qoidadan (FKning 733-moddasidan) mustasno tariqasida da`vo guvohlarning ko`rsatmalari bilan isbotlanishi mumkin (FKning 737-moddasi).

Tashkilotlar o`rtasidagi huquqiy munosabatlardan ham, huddi shuningdek muayyan yozma hujjatlar bilan tasdiqlanishi mumkin bo`lgan holatlar boshqa isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi mumkin emas. Masalan, temir yo`l transporti bilan tashiladigan yuk yo`qotilgan yoki kam kelganligi kommercheskiy akt bilan tasdiqlanishi shart bo`ladi.

Agar dalillarning daxldorligi prinsipi masalasida sudyalari o`zlarining ichki tushunchalariga asoslanishlari mumkin bo`lsa, dalillarga yo`l qo`yilishi prinsipini qo`llanishda faqat qonun ko`rsatmalariga qat`iyan rioya qilishlari talab qilinadi. qonun bilan isbotlash vositasi bo`la olmaydigan dalillarni, ularning mazmuni va ish uchun ahamiyatidan qat`iy nazar, qabul qilishga yo`l qo`yilmaydi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, fuqarolik protsessida dalillarning belgilari quyidagicha desak bo`ladi:

- birinchidan, dalillar avvalo-faktik ma`lumotlar, ya`ni ishni hal qilish uchun ahamiyatli bo`lgan holatlarni o`z mazmunida aks ettiruvchi ma`lumotlar bo`lishi bilan xarakterlanadi;

- ikkinchidan, dalillar-taraflarning talablari va e`tirozlarini asoslaydigan holatlarni hamda ishga doir boshqa holatlarning mavjud bo`lish-bo`lmasligini belgilaydigan faktik ma`lumotlar bo`ladi;

- uchinchidan, dalillar-protsessual qonun bilan belgilangan tartibga rioya qilinib, sud tomonidan olingan faktik ma`lumotlar bo`ladi;

- to'rtinchidan, dalillar-bu sud tomonidan nazarda tutilgan isbotlash vositalaridan olingan ma'lumotlar bo'lib ko'riladi. qonunda nazarda tutilmagan manbalardan olingan faktik ma'lumotlar, chunonchi: anonim xatlar, mish-mish gaplar va shu kabilar dalil bo'lib hisoblanmaydi.

Sud taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni so'roq qilish hamda boshqa dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi.

Yozma dalillar yoki ushbu Fuqarolik protsessual kodeksining 76, 83, 103 va 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tuzilgan ularni ko'zdan kechirish bayonnomalari sud majlisida o'qib eshittiriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, zarur hollarda esa, ekspertlar, mutaxassislar hamda guvohlarga tanishish uchun taqdim etiladi. Shundan so'ng ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu dalillar yuzasidan tushuntirishlar berishi mumkin. Ashyoviy dalillar sud tomonidan ko'zdan kechiriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, zarur hollarda esa ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarga ham taqdim etiladi.

O'ziga ashyoviy dalillar taqdim etilgan shaxslar ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu holatlarga sudning e'tiborini qaratishi mumkin. Bunday arzlilar sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi.

Ushbu Kodeksning 76, 93, 103, 104 va 239-moddalarida nazarda tutilgan tartibda tuzilgan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish bayonnomalari sud majlisida o'qib eshittiriladi, shundan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z tushuntirishlarini berishi mumkin. Sudga olib kelish imkoni bo'lmagan yozma va ashyoviy dalillar ular turgan joyda ko'zdan kechiriladi va tekshiriladi. Joyida ko'zdan kechirishni o'tkazish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Dalillarni joyida ko'zdan kechirish sudning butun tarkibi tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan, zarur hollarda esa ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarni chaqirgan holda amalga oshiriladi.

Raislik qiluvchi ko'zdan kechirish joyiga yetib borgach, sud muhokamasi davom ettirilishi to'g'risida e'lon qiladi, sud muhokamasi ushbu Kodeksda belgilangan qoidalar bo'yicha olib boriladi. Ko'zdan kechirish natijalari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomaga ko'zdan kechirish paytida tuzilgan yoki tekshirilgan barcha rejalar, chizmalar, suratlar, hisob-kitoblar, hujjatlarning ko'zdan kechirish vaqtida olingan ko'chirma nusxalari, yozma va ashyoviy dalillarning videoyozuvlari, fotosuratlar, shuningdek ekspert xulosasi va mutaxassis maslahati ilova qilinishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash sudning to'g'ri qaror qabul qilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Yolg'on va soxta dalillar esa nohaq ayblovlarni yuzaga chiqaradi. Buning oldini olish uchun dalillar o'rganilayotganda hamda to'planayotganda ishonchli ekanligiga ahamiyat berish dolzarb vazifadir.

## REFERENCES

1. <https://lex.uz/docs/-3517337/> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi/ 01.04.2018
2. Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2001.

3. Sh.Sh. Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. T., «Adolat», 2007.
4. С.Ф. Иноятова. Правовая природа третейского суда как органа, разрешающего юридические споры. Т., TD YI Axborotnomasi, 2009.
5. С.Ф. Иноятова. Вопросы принудительного исполнения решений третейского суда. «Davlat va huquqning dolzarb muammolari» yosh tadqiqotchilar nigohida aspirant va tadqiqotchilarning ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Т., TD Y I, 2009.

## HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHILOLOGY

Yuldosheva Zebo

Uzbekistan State World Languages University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980488>

**Abstract.** This article teaches foreign languages in secondary schools, philology, philosophy and science teaching. Naturalism check out methods, there is talk about the history of the development in the sphere of philology.

**Key words:** History, character, knowledge, education, philology, humanity, humanitarian, philosophical.

### ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ОБЛАСТИ ФИЛОЛОГИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах, филологии, философии и естественнонаучных дисциплин, рассказывается об истории развития филологии.

**Ключевые слова:** История, характер, познание, образование, филология, гуманизм, гуманитарный, философский.

Philological shows the history of the development of education as a humanitarian with his character since ancient times are separated. In the next period, and change the nature of education in the middle ages, but their importance will lose his humanitarian principles. The language course in secondary schools studied were the ancient authors and the review.

Higher education, of course, containing three components: philology, philosophy and *tabiatshunoslik*. Thus, the knowledge of many sciences humanitarian science serve as the basis for any other information on the most important discoveries, as a rule, provided with a classical education who have a wide knowledge of the preparation was done by scientists due to philological.

And today, according to D.S.Lixachevning, philology and the whole culture of mankind, because it is the basis of "humanitarian education the highest form of human sciences ... connecting the form of this language is necessary for every person who used the word; the word of any form of asset, the asset is included in the national cultures of ... currently associated with any knowledge about how wide the range of education, so necessary philology".

L.V.Shcherba the first foreign language to prepare students in their game *filologik* the basis of theoretical and practical importance in the process of teaching enabled. L. v. Shcherbaning language according to direct philological to know, difficult to understand if it is not intuitive to understand and interpret texts should be understood as art.

This type of language requirements, in his opinion, for instance, is typical of the whole world, more or less high, it refers to the culture, and the public school is very achievable. Foreign language foreign language study is carried out and a comparison between the native language when, for her "from his captive native language" for students' free their thinking going to realize that there are different methods of representing the same concepts in different languages and become familiar with small form.

Know foreign languages, expanding the horizon philological, native language, the richness of his word, and all the most delicate shade of meaning, grammatical structure expressive rich tools will help you to understand deeper and more meaningful. Proper training as a result of

students " will have the skill to read carefully his presence ... is the sign of civilized man."... Literate students on the basis of this skill (stylistic) write the mechanism of they did not understand ". Thus, understanding the essence of the approach philological Shcherbani V.L, basically, on the basis of the read, if you have a good command of two languages, this language compared to systems and as a result will lead to a better knowledge of the native language.

Philological approach to the specific characteristics of language development into the mind of motivation and enjoyment in this particular study foreign languages, factors should be taken into account. In the process of mastering the language unless the child's cognitive development study, has shown that L.S.Vygotskiy, "down up" ... unlike the development of the native language from a foreign language studied falls down from the top", that is, the system begins with mastering the language: phonetic grammar, dictionary.

As a result, also in the school with the direction of foreign language teaching communicative language voluntary and based on a conscious basis to occupy without philological a certain approach to this course is required.

Come out from policy, the teaching of foreign languages and artistic, cultural and historical activities of the students read the texts and its text-based philological (text), it is necessary to apply the approach, we consider that this is also the language system, including the speech also include the development of consciously.

Other cultural to go into this process, with the formation of the english language and humanitarian philological thought necessary for the development of comes. This is the strategic goals of foreign language education, which is convenient for the implementation of cultural-historical and personal with every one of the people to create an environment that will allow developing social interaction in the context of speech-thinking activity to the successful implementation of the language which is to be the different types of personality, based on the formation of the world, acquainted with the culture of the world around them and other.

#### **REFERENCES**

1. **Afanasyev, Yu. N.** Humanitarian education can be -2000
2. **Bolshoy** - Large Entsiklopediya -2000 M.
3. **Kolesnikova I. A.** - Modern humanitarian knowledge and the nature of his function in society -2001
4. **E. A. Krasnovskiy** My List Yu. I-philology and literary education at school: specific properties and their mutual dependence-Pedagogy. To 1998



## YER MUNOSABATLARIGA OID NIZOLARNI SUDDA KO'RISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Alimjanov Rustam Irsdavlatovich**

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi  
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980586>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada yer munosabatlariga oid nizolarni sudda ko'rishni takomillashtirish masalalari haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar berib o'tilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* yer munosabatlari, nizolarni sudda ko'rish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik.

## ISSUES OF IMPROVING THE COURT HEARING OF DISPUTES RELATED TO LAND RELATIONS

*Abstract.* This article talks about the issues of improving the court hearing of disputes related to land relations. In the course of the article, reasonable opinions and comments were given within the scope of the topic. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

*Key words:* land relations, adjudication of disputes, interethnic harmony and religious tolerance.

## ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СУДЕБНОГО РАССМОТРЕНИЯ СПОРОВ, СВЯЗАННЫХ С ЗЕМЕЛЬНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования судебного рассмотрения споров, связанных с земельными отношениями. По ходу статьи были даны обоснованные мнения и комментарии в рамках темы. Выводы и предложения даны в конце статьи.

*Ключевые слова:* земельные отношения, разрешение споров, межнациональное согласие и веротерпимость.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirish va ularni yer resruslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni shakllantirish davrida yer munosabatlarini takomillashtirish to'g'risida to'xtalib, "Yer Ollox taolloning bebaho inomidir. U tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog'langan oilaning emas, balki ma'lum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan aloqador barcha tomorqalar va uning ne'matlaridan bahramand bo'layotgan respublikamizning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir", degan edi. Bu fikrning nechog'liq to'g'ri ekanligini guvohi bo'lmoqdamiz. "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" deb o'z nutqlarida keltirgan edilar. Qishloq xo'jaligiga bag'ishlangan yig'ilishda ham Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Bizni boqayotgan ham kiyintirayotgan ham bu yer va mirishkor

dehqonlardir” deb o`z nutqlarida keltirishi yer munosabatlari bugungi kunda ham nechog`liq ahamiyatligini ko`rsatadi.

Yer nizolarining tushunchasi haqida so`z yuritilar ekan, birinchi navbatda yer nizolarining o`zi nimaligini, bu nizolar kimlar o`rtasida va qanday sabablarga asosan vujudga kelishini nazarda tutish lozim. Yuridik va qishloq xo`jaligiga tegishli adabiyotlarda yer nizolarini ular yerga oid munosabatlar doirasida vujudga keladigan, nizolashayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda bartaraf etilmaydigan nizoli holatlar sifatida keltirilgan. Biz bilamizki taraflar o`zaro kelisha olmasligi natijasida nizo kelib chiqadi yoki yer munosabatlari subyektlari qonunga xilof harakatlari natijasida nizo vujudga keladi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda ta`kidlanishicha, “Yer nizolari - bu manfaatdor tomonlar o`rtasidagi u yoki bu yer uchastkasining o`zlariga tegishliligi va o`zlarining yerga oid huquqlari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirish hamda ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog`liq bo`lgan kelishmovchilikdir”. Bilamizki qonunga belgilangan qoidalarga bilmay amal qilmaslik yoki bilib turib amal qilmaslik oqibatida nizo yuzaga keladi. Yer nizolarini yer qonunchiligini buzish natijasida kelib chiqadigan kelishmovchilik sifatida ham tushunish mumkin.

O`zbekiston Respublikasida sud O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to`g`risidagi xalqaro hujjatlarda e`lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini sud yo`li bilan himoya qilishga da`vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta`minlashga qaratilgandir. Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan quyidagi nizolar:

- yer uchastkasini olib qo`yish to`g`risidagi vakolatli organlarning qarorini bekor qilish va u bilan bog`liq yetkazilgan zararni o`rnini qoplash;

- yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo`yish va qayta sotib olish natijasida yetkazilgan zarar o`rnini qoplash;

- yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda yoki yer to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanganida yer uchastkasini olib qo`yish;

- servitutni belgilash yoki bekor qilish; yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish huquqi bilan bog`liq bo`lmagan huquq buzilishlarini bartaraf etish; birgalikda egalik qilinadigan yoki foydalaniladigan yer uchastkasidan foydalanish tartibini belgilash va uni bo`lish;

- yer uchastkasini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish; yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarni tugatish;

- yer kodeksining 86,87-moddalarida nazarda tutilgan hollarda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zarar o`rnini qoplash;

- yer uchastkalarining ijara shartnomasi bilan bog`liq va boshqa nizolar da`vo ish yuritish tartibida ko`riladi.

O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 23-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibda tadbirkor maqomiga ega bo`lgan fuqarolar o`rtasida kelib chiqqan nizolar iqtisodiy sudlarga taalluqlidir. Yuridik shaxslar o`rtasida vujudga keladigan nizolarning o`ziga xosligi shundaki, bunday nizolar faqatgina iqtisodiy sudi muhokamasining protsessual normalarini qo`llagan holda iqtisodiy sudida ko`rib chiqiladi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual

kodeksi 31-moddasining 1- bandiga asosan u taraflardan hech bo`lmaganda bittasi fuqaro bo`lgan nizolarga doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish iqtisodiy sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno bo`lib bular fuqarolik sudlariga taalluqli bo`ladi. Fuqarolik kodeksning 279-moddasida sanab o`tilgan alohida tartibda ko`riladigan ishlar va qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar fuqarolik sudlariga taalluqlidir. Bunday hollarda nizo fuqaroviy-protsessual huquqining umumiy normalarini qo`llagan holda fuqarolik sudda ko`rib chiqiladi. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy sud ishlarini yuritish to`g`risidagi kodeksining 26-moddasida quyidagicha belgilangan: “Ma`muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to`g`risidagi, ma`muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir, bundan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, fuqarolik ishlari bo`yicha sudlarga, iqtisodiy sudlarga va harbiy sudlarga taalluqli ishlar mustasno. Qonun bilan ma`muriy sudga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ishlar ham kiritilishi mumkin. Agar O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, ma`muriy sud o`ziga taalluqli ishlarni fuqarolar, yuridik shaxslar va ma`muriy organlar, shuningdek o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar ishtirokida ko`radi. O`zaro bog`liq bo`lib, ba`zilari ma`muriy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo`yicha sudga taalluqli bo`lgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo`yicha sudga ko`rilishi lozim. O`zaro bog`liq bo`lib, ba`zilari ma`muriy sudga, boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo`lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo`l qo`yilmaydi”. Oldin ma`muriy ishlarni tegishliligiga qarab sudlar ko`rganlar. Bugungi kunda sud islohotlari natijasida ma`muriy sudlar tashkil qilindi. Yuqoridagi holatlar yuzaga kelganda bugungi kunda ma`muriy sudga murojaat qilish imkoniyati mavjud. O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 5-modda Sudga fuqarolik ishi quzg`atishi uchun sabablar quyidagilar:

1) uzining huquqi yoki qonun bilan qoriqlanadigan manfaatini himoya qilishni so`rab murojaat qilgan shaxsning arizasi boyicha;

2) prokurorning arizasi bo`yicha;

3) agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo`lsalar, ularning bergan arizalari bo`yicha. Sudga da`vogarning buzilgan huquqlarini tiklash uchun sud ishini qo`zg`atish uchun belgilangan tartibda da`vogarning sudga yozgan da`vo arizasi bilan va prokuror va boshqalarning arizalariga asosan sud ish boshlanadi. Da`vo arizasini tegishliligi bo`yicha tuman, tumanlararo fuqarolik sudiga berish orqali ish qo`zg`atiladi. Shu tartibda ma`muriy va iqtisodiy sudlarga ham da`vo qilishi mumkin. Sudlarga da`vo arizasiga da`voni isbotlash uchun va buzulga huquqqa haqiqatdan ham egaligini asoslovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim. Dastlab shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar. Fuqaro bo`lsa fuqarolik pasportidan nusxa. Agada yuridik shaxs bo`lsa davlat ro`yxatidan o`tganligi to`g`risidagi hujjat, Har bir sud avvalombor shu yer da`vogarga tegishlimi degan savolga javob qidiradi. Yer uchastkalarini ajratib berish Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan berilishi Yer kodeksining 23-moddasida belgilangan. Shuning uchun, yer ajratib berish to`g`risidagi viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari chiqargan qarorning nusxasi, sud lozim topsa asl nusxasini so`rab olishi

mumkin. Yer ajratish to'g'risidagi kamissiyaning xulosasi, O'zbekiston Respublikasi Yer resruslari, geodeziya, kartografiya, davlat kadastiri davlat qo'mitasinng joylardagi bo'limlari tomonidan berilgan kadastir yoki boshqa hujjatlari ilova qilinishi lozim. Yer nizosi yer ijarasi yoki yer bilan bog'liq boshqa shartnomalardan kelib chiqsa taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma ilova qilinishi lozim. Davlat boji to'langanligini asoslovchi kvitansiya. Agarda ekspirteza tayinlash talab qilinsa sud ekspertiza tayinlaydi va ekspert xulosasi olinadi. Da'vo arizasini ikkinchi tarafga yuborilganligini asoslovchi pochta kvitansiyasi yoki xabardor qilinganligi to'g'risidagi tilxat. Agarda talabnoma yuborish to'g'risida shartnomada belgilangan bo'lsa talabnoma yuborilganligi to'g'risidagi hujjatlar bo'lishi talab etadi. Agarda o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) asosida kelib chiqadigan yer nizolarida bu to'g'risida tuzilgan shartnoma nusxa yoki asli ilova qilinishi talab etadi.

### REFERENCES

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq – T.: “O'zbekiston”, 2016. -56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqidan 2018-yil 9-dekabr.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: “O'zbekiston”, 2017.-104 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 82-modda; 2003-y., 9-10-son, 149- modda;
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287- modda, 51-son, 514-modda; 2007-y., 52-son, 533-modda; 2009-y., 3-son, 9- modda,52-son, 555-modda; 2011-y., 1-2-son, 1-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda, 36-son, 452-modda;2015-y., 33-son, 439-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda;
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)
7. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik protsessual kodeksi” (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son).
8. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son)
9. Usmonov M.B., Mirzaabdullaeva M.R. Yer huquqi. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2008. – 214 b.
10. Земельное право. Учебник. – М.: Проспект, - 2006. - С. 210- 211.(Zemel'noepravo. Uchebnik. – М.: Prospekt, - 2006. - S. 210-211.) 3.3. Lloyd, Trevor Owen (1996). The British Empire. Oxford University Press. ISBN 0-19-8731334-5.

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON RANGTASVIR RASSOMLARI ASARLARINI  
O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILYATINI  
RIVOJLANTIRISH

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy sa'nat va grafik muhandislik  
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980846>

**Annotatsiya.** *Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.*

*O'quv jarayonida ijodiy faol faoliyat maktab o'quvchilarida bir qator fazilatlarini shakllantiradi, bu esa pirovardida o'quvchi xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning boy ichki dunyosini shakllantirish uchun faol ijodiy faoliyatni rag'batlantirishning shunday texnika va usullarini tanlash kerak, bu unga qiyinchiliklarni engish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun jozibali istiqbolni ochadi.*

*Birinchi pedagogik talablardan biri o'quvchining individualligini hech qanday tarzda bo'g'ib tashlamaslikdir. Ko'pincha pedagogik vaziyatlar mavjud bo'lib, O'quvchilar taxmin yoki faraz qilgan holda ularni mantiqiy asoslab bera olmaydi. Shunga qaramay, ularni sezgi ishlatishga urinishlari uchun rag'batlantirish va ilgari surilgan g'oyani keyingi mantiqiy tahlil qilishga yuborish kerak. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ularda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyatiga ishonchni shakllantirish kerak. O'ziga ishonmaydiganlar allaqachon muvaffaqiyatsizlikka mahkum.*

**Kalit so'zlar:** *Dekorativ rasm, Arxitektura, Faktura, Penza, Kompozitsiya, San'at, Haykaltaroshlik, Avangard, Raqsning tug'ilishi.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITY BY STUDYING THE  
WORKS OF MODERN UZBEKISTAN PAINTERS

**Abstract.** *Fine art classes are of particular importance in the formation of students' spiritual worldview and ideological beliefs. It develops the ability to think, visual memory, creative imagination, artistic taste, and aesthetic feeling. Each type of visual art lessons taught at school (drawing a picture based on the object itself, decorative painting, painting based on the theme, conversation about visual art) helps the growth of students' creative abilities and the formation of their worldview. that is, it makes a person perfect in every way.*

*Active creative activity in the educational process forms a number of qualities in schoolchildren, which ultimately has a positive effect on the student's character. Practice shows that in order to form a rich inner world of students, it is necessary to choose such techniques and methods of stimulating active creative activity, which opens an attractive prospect for him to overcome difficulties and develop creative thinking.*

*One of the first pedagogical requirements is not to stifle the student's individuality in any way. There are often pedagogic situations where students cannot rationalize them by assuming or hypothesizing. Nevertheless, it is necessary to encourage them to try to use intuition and send the presented idea to further logical analysis. In order to develop students' creative abilities, it is*



necessary to build confidence in their abilities and ability to solve creative problems. Those who do not believe in themselves are already doomed to failure.

**Key words:** Decorative painting, Architecture, Texture, Penza, Composition, Art, Sculpture, Avant-garde, Birth of dance.

### РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННЫХ ХУДОЖНИКОВ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** Особое значение в формировании духовного мировоззрения и мировоззренческих убеждений учащихся имеют занятия изобразительным искусством. Развивает способность мыслить, зрительную память, творческое воображение, художественный вкус, эстетическое чувство. Каждый вид уроков изобразительного искусства, преподаваемый в школе (рисование картины по самому предмету, декоративная роспись, рисование по теме, беседа об изобразительном искусстве), способствует росту творческих способностей учащихся и формированию их мировоззрения. то есть делает человека совершенным во всех отношениях.

Активная творческая деятельность в учебном процессе формирует у школьников ряд качеств, что в конечном итоге положительно сказывается на характере школьника. Практика показывает, что для формирования богатого внутреннего мира учащихся необходимо выбирать такие приемы и методы стимулирования активной творческой деятельности, открывающие перед ним привлекательную перспективу преодоления трудностей и развития творческого мышления.

Одно из первых педагогических требований состоит в том, чтобы никоим образом не задушить индивидуальность ученика. Часто возникают педагогические ситуации, когда учащиеся не могут их рационализировать, предполагая или выдвигая гипотезы. Тем не менее, необходимо побудить их попробовать использовать интуицию и отправить представленную идею на дальнейший логический анализ. Для развития творческих способностей учащихся необходимо формирование уверенности в своих силах и способности решать творческие задачи. Те, кто не верит в себя, уже обречены на провал.

**Ключевые слова:** Декоративная живопись, Архитектура, Фактура, Пенза, Композиция, Искусство, Скульптура, Авангард, Рождение танца.

Vaqt o'tishi bilan davrlar o'rnini davrlar egalladi va devor tasviriy san'ati ulug'vor saroylar, maqbaralar bezaklari va naqshlarida namoyon bo'la boshladi, Islomning kirib kelishi bilan esa uylar bezak, naqsh va xattotlik shaklida bezatila boshlandi.

14-asr boshidan Sharqda tasviriy san'atning yangi turi – miniatyura, ya'ni diniy ob'yektlardan tashqari bo'lgan turar joy binolari, saroylar, maqbaralar va, hatto, kitoblar dekoratsiyasining noyob elementiga aylangan kichik rangli rasmlar paydo bo'ldi.

O'rta asr va Uyg'onish davrlari o'zbek tasviriy san'atining rivojlanishiga Kamoliddin Behzod, Ahmad Donish, Usta Mahmum va boshqalar ulkan hissa qo'shdilar.

20-asr boshlarida o'zbek tasviriy san'atiga rus rassomlari, avangardistlari va monumentalistlari katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim rassomlar O'zbekistonga shunchalik ishtiyoq bilan qarashgandiki, ular ushbu muborak zaminda abadiy qolishdi, ba'zilar hatto Islom dinini qabul qilishdi. Pavel Benkov, Chingiz Ahmarov, Aleksey Volkov, Aleksey Nikolayev, Usta Mo'min asarlarini Nukusdagi I.Savitskiy nomidagi dunyoga mashhur Qoraqalpoq muzeyida, Toshkentdagi San'at muzeyida va Toshkentdagi tasviriy san'at galereyasida ko'rish mumkin.

“San'at va madaniyatdek kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod

ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir.

Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi".

O'quvchilarga rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib berish kerak. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobiliyatining shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo'llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o'yinchoqlar, o'quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko'pgina soxalarida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

O'quvchilar tanlangan mavzuga ko'ra uning elementlarini qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashtirish, yaxlit kompozitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan kompozitsiyani topish uchun bir qancha xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o'rnini almashtirib, qo'shimcha detallar kiritish orqali kompozitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e'tibor beradilar.

1990 - yildan Respublika bolalar ijodiyoti markazida badiiy rahbar. Choriyev asarlarida o'lka manzaralari, o'tmishi va bugungi kuni, kishilarini yorqin bo'yoqlarda katta mahorat bilan aks ettirgan.

Uning ijodi rang-tasvirga milliy ruh, urf-odatlar, zamondoshlar, mashhur namoyandalar obrazlari turkumini olib kirishi, qishloqlarda tasviriy san'at galereyalarini tashkil qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Portretlar ("Zamondoshim", "Do'stim portreti", "Kelin. Shohi so'zana", "Fir'avn. Erkak portreti", "Boysunlik qariya", "Poshxurdlik qiz Barno", "Sayroblik chol", "Qish. Avtoportret"), maishiy va tarixiy ("Suhbat", "Xumson oqshomi", "Oltintopgan koni", "Nay. Cho'pon bola", "Boysun", "Bahor. Sherobod manzarasi", "Bog'lar" va boshqalar) va shahrik. mavzulardagi asarlari mashhur.

Choriyev O'zbekiston tasviriy san'atini targ'ib qilishda fidoyilik ko'rsatgan: uning tashabbusi va bevosita ishtirokida Respublika bolalar ijodiyoti markazi, viloyatlar (Surxondaryo va boshqalar)da tasviriy san'at muzeylari tashkil qilingan, yosh rassomlarga g'amxo'rlik ko'rsatgan.

O'.Tansiqboyevning 20-yillar boshi, 30-yillar oxiridagi ishlarini sinchkovlik bilan o'rganish orqali undagi yashirin intilishlarni payqash mumkin. N. Rozanov studiyasini bitirib, Penza badiiy oliygohida ikki yilgina tahsil olib, rassom O'quvchilik pallalarida ko'p ushlanib qolmay, hadiksirab o'z yo'nalishini tanlay oldi. Ko'plab omillar sabab

Tansiqboyev avangard yo'nalishi tomon shiddat ila rivojlandi. Bunga Moskva muzeyidagi ko'rgan zamonaviy ovrupa tasviriy san'ati taassurotlari, avangard usullarini Sharqning an'anaviy bo'laklari bilan uyg'unlashtirish zamin bo'lib, u uchun yangi mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.

Munozara va ko'rgazmalar muhiti, Tansiqboyevdan yigirma yoshlar katta bo'lgan va o'zining ijodkor sifatida aniq yo'nalishiga ega bo'lgan A. Volkov, M. Kurzin, A. Nikolayev, A.

Podkovirov kabi rassomlar bilan yelkama-yelka ishlash ichki ehtiyojlar sari dadil izlanishlar, erkin ijod imkoniyatlarini ochdi.

“A.Toshkenboyevning portreti”dan boshlab, 30-yillar o‘rtalarigacha Tansiqboyev XIX - XX asrlargacha bo‘lgan ovrupacha tasviriy san‘atning asosiy yo‘nalishlarini jadal bosib o‘tdi. Har bir zamonaviy rassom uchun muhim qadam bo‘lgan impressionizm yo‘nalishini A. Tansiqboyev o‘zining A. Toshkentoyev portretida namoyon etdi.

Bahodir Jalolov – O‘zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san‘ati rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan talantli rassomlardan biridir. Bahodir Jalolov 1948 yil 27- mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tugatgan. 1974 yilda esa I.E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me‘morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshlik yillarida portret san‘atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta‘lim oladi.

Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy his-tuyg‘ular turli xil ranglarda o‘z ifodasini topadi. B. Jalolov tasviriy san‘at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro‘zi Choriyev, Milnikov, Korolyovlardan tasviriy san‘at sirlarini o‘rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat ko‘zga aniq tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg‘ular uyg‘unligi tomoshabinni o‘ziga mahliyo etib qo‘yadi.

Xususan, «Raqsning tug‘ilishi» kompozistiyasi o‘zbek raqqosalarini ulug‘labgina qolmasdan, ularga bo‘lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko‘ramiz. Bahodir Jalolov portret san‘atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda ayniqsa akademik rassom O‘rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san‘atning mashhur darg‘alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro‘ziboev kabi ulug‘lar siymosi so‘zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o‘rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi.

Darhaqiqat, yuqorida ko‘rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko‘lami insonlar obraziga, ya‘ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san‘atda u kishi o‘z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan etuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G‘arb an‘analarini o‘zlashtirib, ana shu an‘analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo‘la olgan rassomdir. Ana shuning uchun ham xorijiy davlatlarning san‘at ixlosmandlari e‘tiboriga muyassar bo‘lgan.

Rassom o‘zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg‘or davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: «Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni echishga, o‘z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi». Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o‘rganishga intiladi.

Qadimgi Rus ikonolari dunyo san‘atiga juda katta badiiy qiymatga ega bo‘lgan san‘at asarlari hisoblanadi. F.Grek, A.Rublev, Dionisiy kabi rassomlar ikonaga rasm solish san‘atining eng ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan hisoblangan. Miniatyura san‘ati bu o‘zining shartlilik, dekorativligi, shakl, faktura va bezaklarining o‘ziga xos usulda berilishi bilan ajralib turuvchi

kichik o`lchamdagi tasviriy san'at asari hisoblanadi. O`rta asrlarda qo`lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar miniatyura san'atining paydo bo`lishiga olib keldi.

O`rta asrlarda kitob miniatyura san'ati Yaqin Sharq, Markaziy va O`rta Osiyo, Eron, Hindiston, Vizantiya, Qadimgi Rus va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida gullab yashnadi. Shu davrlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzaxxib, Murod Samarkandiy va boshqa qator musavvirlar Sharq miniatyura san'atining nodir na'munalarini yaratib qoldirdilar.

Bular orasida Ayniqsa Kamoliddin Behzod ning faoliyati (taxminan 1466-1535 yillar) diqqatga sazovordir. Kamoliddin Behzod Xirotda tugilgan. Bu yerda Husayn Boyqaro ko`tubxonasida ishlagan. 1507 yil Xuroson Shayboniyxon qo`liga o`tgach, Behzod Buxoraga ko`chib kelgan va shu yerda 1522 yilgacha yashab, ijod qilgan va o`zining mashhur Shayboniyxon portretini yaratgan. Keyinchalik qisqa vaqt Tabrizda (1522-1524) keyin yana Xirotda yashab ijod etgan.

#### **REFERENCES**

1. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Abdullayev N. «San`at tarixi». Darslik. «San`at» nashriyoti. T.: 2001.
3. Akbar Hakimov. «Bahodir Jalolov» albomi. Printed dy Geoff Neal Litho, London. UK. 1999.
4. Akbar Hakimov. «Javlon Umarbekov» albomi. Printed dy Geoff Neal Litho, London. UK. 2016.
5. Akbar Hakimov, Bo`riboy Ahmedov, Edvard Rtveladze va boshqalar. «Moziydan taralgan ziyo». «Sharq» nashriyot-matbaa konserni. Toshkent. 1998.

## O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI TARIXI XX ASR BOSHLARIDA O`RTA OSIYONING ROSSIYA TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy sa'nat va grafik muhandislik  
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980884>

*Annotatsiya.* Maqolada O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi XX asr boshlarida O`rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi keng yoritildi.

*Kalit so'zlar:* A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer, O.K.Tatevosyan.

## HISTORY OF VISUAL ART OF UZBEKISTAN. THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY RUSSIA AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

*Abstract.* In the article, the history of visual art of Uzbekistan and the occupation of Central Asia by Russia at the beginning of the 20th century were widely covered.

*Keywords:* A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Sommer, O.K. Tatevosyan.

## ИСТОРИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА. ЗАВОЕВАНИЕ СРЕДНЕЙ АЗИИ РОССИЕЙ В НАЧАЛЕ 20 ВЕКА

*Аннотация.* В статье широко освещалась история изобразительного искусства Узбекистана и оккупация Средней Азии Россией в начале XX века.

*Ключевые слова:* А. Каразин, И. Казаков, С. П. Юдин, Р. Зоммер, О. К. Татевосян.

O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi XX asr boshlarida O`rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, san`atda ham o`z ifodasini topdi. Buni dekorativ amaliy san`at asarlaridagi kompozitsiyalarda, ularning syujet va motivlarida, real hayotning tasvirlanishida, voqe`likni ustalar tomonidan real tasvirlashga intilishlarida ko`rish mumkin. Bunday o`zgarishlar rus va o`zbek me`morchilik san`ati an`analarining bir-biriga yaqinlashishi va qo`shilishi natijasida paydo bo`lgan yangi uslublarda ham namoyon bo`la boshladi.

Realistik dastgoh san`ati maydonga keldi. Buni birinchi bo`lib, XIX asrning 40-yillaridan boshlab O`rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy maktabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer, 1886 yilgi ko`rgazmada toshkentlik To`xta-Sodiq Xo`jayevning alebastrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarining qo`yilishi, 1915 yil bosmadan chiqqan S.Siddiqiyning "Ko`ro`g`li" epik poemasi ishlangan grafik illyustratsiyalarining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O`zbekistonda san`atni targ`ib etish, ko`rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliyashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. 1918-20 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko`plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. Shu bilan birga o`zbek xalq san`atini o`rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san`at namunasini yaratishga, o`z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo`ldi. Korovinning shogirdi bilan bu rassom 1915 yil birinchi bor O`zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiati, boy me`morchilik yodgorliklari yosh rassomni o`ziga mahliyo etdi.

O`zbekistonda o`z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o`qishni bitirgach, butunlay O`zbekistonga ko`chib keldi va o`zining sarmahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag`ishlangan. Gavjum ko`chalar, noz-ne`matga boy bozorlar, choyxonalar rassomning ko`pgina



asarlarining mazmunini tashkil etdi. Xalq milliy san`at namunalarini o`rgandi. Asarlarida O`zbekistonda bo`layotgan o`zgarishlarni, odamlarning mehnatga bo`lgan munosabati badiiy ifodasini topa boshladi. O`sha yillari O`zbekistonda bir qator iste`dodli rassomlar yashab ijod qilganlar. Bular ichida Farg`onada tug`ilib o`sgan Aleksandr Volkovning asarlari juda rang-barang va falsafiy mazmunga boy. Voronejdan kelgan va butun umr Toshkentda yashab ijod qilgan Usto Mo`min (Nikolayev) bir qator ajoyib nafis, lirik, shoirona asarlar yaratdi.

Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo`lgan yuksak munosabati uning asarlarida o`zining haqiqiy poetik ifodasini topdi. Uning shunday asarlari ichida “Bahor”, “Bedanaboz”, “Do`stlik», «Muhabbat”, “Kuyov”, “Choyxonachi” kabilardir. O`zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o`zbek san`atining rivojlanishiga, milliy kadrlar yetishib chiqishiga katta hissa qo`shdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda ko`p polotnolar ishlagan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda bo`lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me`morchilik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. “Dugonalar”, “Dutorchi qiz” deb nomlangan asarlar do`stlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30-yillardan boshlab milliy rassomlar ko`rina boshlandi. Ular o`zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko`rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar.

Bu yillarga kelib san`at mavzusi kengaydi. Do`stlik, tinchlik, mehnat go`zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Iste`dodli yosh rassom Bahrom O`amdamiyning “Ish tugadi” deb nomlangan kartinasi shu davrda kishilar ongida sodir bo`lgan o`zgarishlar o`z ifodasini topdi. Shu bilan birga Lutfulla Abdullayevning “Yosh shoir uyidagi uchrashuv” deb nomlangan asar yoshlar orasida san`at va ma`rifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bag`ishlangan. Bu yosh rassomlar O`zbekiston san`atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo`shdilar. Ikkinchi jahon urushi yillari o`zbek rassomlari uchun katta sinov bo`ldi. Ular g`oyaviy jihatdan chiniqdilar. Ular front g`alabasi uchun rag`batlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar.

Urush yillarida O`zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan yetuk san`atkorlar - D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirishga ko`maklashdilar. Urush tugagach, tinchlik yillari o`zbek san`ati ham o`z rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo`ydi. Inson go`zalligi, tabiat ulug`vorligi rassomlarimiz polotnosida o`z ifodasini topa boshladi.

Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullayevning A.O`idoyatov portreti, T.Oybek, L.Abdullayevning “Qahramonni kutib olish”, O`.Tansiqboyevning “Qayroqqum GESida tong”, R.Ahmedovning “Onalik o`ylari”, R.Timurovning “Samarqand”, Y.Yelizarovning “O`zbekiston san`atkorlar guruhi portreti”, N.Karaxonning “Oltin kuz”, V.Fadeyevning “Soqchi ayol”, M.Saidovning “Xirmonda”, Ch.Ahmarovning devoriy rasmlari va boshqalar o`zbek san`ati tarixida o`zlarining munosib o`rnini egallaydi.

Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha ko`rgazmalarda faol ishtirok etib, san`atimiz ta`sirchanligini ortib borayotganini namoyish ettilar. Bizning rassomlar ko`plab ko`rgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, o`zbek san`ati yangi pog`onaga qadam qo`ydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlar ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsional tomoniga e`tibor berish kuchayganligi yaqqol ko`zga tashlandi.

Buni B.Boboyev va R.Choriyevlarning kartinalarida, T.Muhammedovning karikaturalarida, F.Grishchenkoning, X.Xusniddin ho`jayevning haykallarida ko`rish mumkin. O`zbek san`ati zafarli yo`lni bosib o`tdi.

#### **REFERENCES**

1. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1122-1127.
2. Baymetov, B. B., & Muratov, K. K. (2020). Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. *Solid State Technology*, 224-231.
3. Байметов, Б. Б. (2016). История развития изобразительного искусства Узбекистана. *Наука, образование и культура*, (1 (4)).
4. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 261-267.

## INNOVATSION IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHNI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI

**Erxanova M**

ilmiy rahbar

**Ibodullayeva Malohat**

TMI magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7982500>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsiyalar iqtisodiyotni ta'minlashning baholash ko'rsatkichlari keltirilgan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali- iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga erishish mumkinligi haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion indeks, global indeks, texnologik yutuqlar indeksi.

## ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

**Аннотация.** В данной статье представлены оценочные показатели обеспеченности экономики инновациями. Также даются предложения и рекомендации, что быстрое экономическое развитие может быть достигнуто за счет широкого использования инноваций в современном мире.

**Ключевые слова:** инновации, инновационная экономика, инновационный индекс, глобальный индекс, индекс технического прогресса.

## ASSESSMENT INDICATORS OF ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC DEVELOPMENT

**Abstract.** In this article, the evaluation indicators of the provision of innovation to the economy are presented. Also, suggestions and recommendations are given that rapid economic development can be achieved through the wide use of innovations in the modern world.

**Key words:** innovation, innovation economy, innovation index, global index, index of technological progress.

Ma'lumki, innovatsiya mamlakatning istiqbolini ta'minlovchi ko'rsatkichlardan biri. Innovatsion baholash ko'rsatkichlaridan foydalanish, mamlakatdagi iqtisodiy holatni tahlil qilish, davlatdagi innovatsion muhitning kuchli, zaif taraflarini ko'rsatish va boshqa holatlarda yordam berishi mumkin. Innovatsion baholash ko'rsatkichlariga qarab mamlakat o'z iqtisodiyotining keyingi 5-10 va undan uzoqroq muddatni pragnoz qilish jarayoni yengillashadi va eng ohirgi texnika va texnologiyalardan foydalanishga harakat qiladi. Agarda mamlakat ichida rivojlanishdan orqada qolgan sektorlar bo'lsa, ularni yaxshilash bo'yicha maslahatlar olishi ham mumkin.

Innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning va raqobatbardoshlik omili sifati XX asrning 2-yarmidan boshlandi va innovatsion faoliyatni baholash ko'rsatkichlariga e'tibor kuchaydi. Dunyo bo'ylab mamlakatlarning ichki innovatsion salohiyatini chuqur o'rganish va innovatsion faoliyatni baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish muhim vazifa qilib belgilandi. Biroq o'sha davrda statistik ma'lumotlarni yig'ishda va ularning yetishmasligi va ba'zan yetishsada to'g'ri, ishonchli emasligi tufayli davlatlar ichida bu ko'rsatkichlarni aniqlash jarayonini qiyinlashtirdi. Aynan shuning uchun xalqaro markazlar va ilmiy tashkilotlar tashkil qilinib mamlakatdagi innovatsion

faoliyatni baholashga oid nazariy bilimlar yig'ish, ularni amalyotdagi tahlillariga oid ma'lumotlarni guruhlash kabilar xalqaro darajada olib borildi.

Hozirda keng tarqalgan ko'rsatkichlarga:


- Yevropa innovatsion tablosi (EIS);
- Texnologik yutuqlar indeksi (TAI);
- Innovatsion salohiyat indeksi (Innovation Capacity Index);
- Ummumjahon innovatsion indeksi (GII BCG);
- Insead Global innovatsion indeksi (GII INSTEAD);
- Innovatsiyalarning global omili (Global Innovation Quotient).

Yevropa innovatsion tablosi (EIS)-Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarning va hududlardagi innovatsion ishlarni taqqoslash vazifasini bajaradi. Shuningdek mamlakatlarning ustunlik taraflari va kuchsiz jihatlarini o'rganib chiqib, muammolarni yechish bo'yicha takliflar beradi. Yevropa ittifoqidagi deyarli barcha mamlakatlarda 2022-yilda 2015-yilga nisbatan innovatsion faoliyati yaxshilangan bo'lib, Ponland va Croatiyada innovatsion jarayon EIUning o'rtacha ko'rsatkichidan oshgan.<sup>203</sup>

Kuchli innovatorlar: Austriya, Luksinburg, Germaniya, Fransiya.

O'rtacha innovatorlar: Estoniya, Sloveniya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya.

Endi shakllanayotgan innovatorlar: Slovakiya, Ponland, Latviya, Bulgariya, Ruminiya.



1.8-rasm. Baholash ko'rsatkichlariga qarab EIU davlatlarini 3 guruhga ajratamiz<sup>204</sup>

Texnologik yutuqlar indeksi-mamlakatlar global texnologik ustunliklardan foydalanish

<sup>203</sup> [Research-and-innovation,ec.europa.eu/statistics/performance-indicators](https://research-and-innovation.ec.europa.eu/statistics/performance-indicators)

<sup>204</sup> Muallif ishlanmasi

orqali o'zlarining texnologik sig'imini va faoliyatini oshirishlari mumkin. Texnologik yutuqlar indeksiga ta'sir etuvchi bir necha faktorlar mavjud va ularni o'chashda turli xil usullardan foydalanadi:

- rivojlanish indeksi;
- raqobatbardoshlik hisobotlari Jahon Iqtisod Formi tomonidan beriladigan;
- xalqaro ma'lumotlar texnologiyasi hisoboti va boshqalar.

TAI mamlakatlarning yarata olish qobiliyati va texnologiyaning mamlakar hududida qay darajada kirib borganligi aks ettiradi. TAI texnologik jarayonlarni bosqichma-bosqich rivojlanishiga va mamlakatlarning texnologik yutuqlariga ko'ra guruhlarga ajratadi, biroq umumiy texnologik rivojlanish ko'lamini o'lchamaydi. Davlatlarning texnologiyadan foydalangan holda mamlakatlarning iqtisodiy ahvolini hisobga olgan holdagi texnologik rivojlanishga e'tibor qaratadi. Desai Et Al 2002-yilda 72ta davlatning ma'lumotlariga asoslanib, ularning TAI ni hisoblab chiqadi. Uning tahlillari natejasi shuni ko'rsatadiki, texnologik jarayonlardagi eng katta farq rivojlanayotgan mamlakatga to'g'ri keladi.<sup>205</sup> Quyida 179 ta mamlakatlardan texnologik yutuqlar borasida buyuqori ko'rsatgichga ega bo'lganlari ko'rsatilgan.

1.1-jadval.

Texnologik yutuqlar indeksi mamlakatlar kesimida<sup>206</sup>

№	Davlat nomlari:	2017	2018
1	Singapur	0.863912308	0.865564347
2	Flippin	0.800273802	0.801319836
3	Korea Respublikasi	0.745560843	0.779174604
4	Buyuk Britaniya	0.665351118	0.661401355
5	Nezerlandiya	0.653362546	0.660756149
6	Norvigiya	0.664073295	0.657837596
7	Sveden	0.605369766	0.579793042
8	AQSH	0.599965629	0.592453473
9	Kanada	0.577341657	0.585466354
10	Birlashgan Arab Amirliklari	0.57292359	0.582214996
11	Svizerland	0.565412351	0.559425481
12	Yangi Zelandiya	0.529962404	0.535253576
13	Xitoy	0.528172058	0.529667933
14	Slovak Respublikasi	0.505830131	0.491671512
15	Quvayt	0.501693567	0.533454258

<sup>205</sup> <https://zenodo.org/record/3955182>

<sup>206</sup> Muallif ishlanmasi



16	Ispaniya	0.489190233	0.490889603
17	Rossiya Federatsiyasi	0.48138406	0.495430756
18	Polsha	0.454043847	0.475813225
19	Portugaliya	0.418518497	0.417701044
20	O'zbekiston	0.274952451	0.280785151

2011- yilda 91ta davlatda olib borilgan tahlillar natejasi 2009-yildagi ma'lumotlardan farq qiladi. TAI indeksi turli hil texnologik o'zgarishlarga aloqador boshqa xususiyatlarni ham o'z ichiga olib, davlatlarga ularni vaqt o'tishi bilan taqqoslash imkonini yaratib beradi. Burinskiening 2013-yilda xalqaro savdo va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganib chiqadi. U 62 ta davlatda raqamli savdoni qay darajada yo'lga qo'yilganligi va texnologik yutuqlariga ko'ra guruhlariga ajratdi. Izlanishlar texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlarda raqamli savdoning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatdi. TAI-15 Shahab tomonidan 167 ta mamlakatda olib borilgan tahlilarga ko'ra 31 ta davlatni texnologik jihatdan yetakchilar, 34 tasini potensial liderlar va 44 tasini tez mostlashuvchilar va qolgan 58tasini texnologiyalardan kam foydalanishlarini keltirib o'tadi.<sup>207</sup> Yuqoridagi ko'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faolligini, mamlakatning innovatsion salohiyatini, mamlakatdagi infratuzilma holatini, olib borilayotgan innovatsion ishlarning natejasini baholashga va shu asosida mamlakat retinigini tuzishga yordam beradi.

Global innovatsiya indeksi 2022-yilgi natejalariga ko'ra Shvetsariya eng innovatsion davlat deb topildi, AQSH va Sweden va Buyuk Britaniya va Nezerlandiya yuqori o'rinni egallab kelmoqda. Xitoy kuchli 10talikka kirgan bo'lib, Turkiya va Hindiston birinchi marta 40 talik ichiga kiritildi.

#### 1.2-jadval

Innovatsion ishlanmalardan olinadigan daromadlarga ko'ra davlatlarni 3 guruhga ajratamiz<sup>208</sup>

Daromad miqdoriga ko'p	Past daromad oluvchi davlatlar	O'rtacha past daromad oluvchi davlatlar
Maldava Respublikasi (2011-2022)	Mozanbek (2012,2014-2022)	Hindiston (2011-2022)
Tayland (2011,2014-2015,2018-2022)	Madagaskar (2016-2018,2020-2022)	Kenya (2011-2022)
Bulgariya (2015,2017-2018,2020-2022)	Brundi (2017,2019,2022)	Vetnam (2011-2022)
Jordaniya (2011-2015,2022)		Mangoliya(2011-2015, 2018-2022)

5. <https://dl.acm.org/doi/10.1145/3488466.3488476>

6. [https://www.wipo.int/global\\_innovation\\_index/en/2022/](https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2022/)

Janubiy Afrika(2018-2022)	Ukraina (2012,2014-2022)
Brazilya (2021-2022)	Pokiston (2022)
Peru (2021-2022)	O'zbekiston (2022)
Yamayka (2020,2022)	Marakko (2015,2020-2022)
	Flippin(2019,2020-2022)
	Tunis (2018,2020-2022)
	Tanzaniya birlashgan Respublikasi (2017,2019,2022)
	Indaniziya (2022)
	Eron (2011-2022)

Boston konsalting guruhining umumjahon innovatsion indeksi- mamlakatdagi innovatsion faoliyat darajasini baholash uchun mo'ljallangan bo'lib, u innovatsion faoliyat natejalari va innovatsion faoliyat rivojlanishini rag'batlantiruvchui davlat siyosatini tafsiflovchi ko'rsatkichdir.<sup>209</sup>

1963-yilda asos solingan global konsulting firma biznes hamkorlikni yo'lga qo'yish va davlatlarda yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni yechishning yo'llarini taklif qiladi va shuningdek, aksiyadorlik kompaniyalari va xaridorlarga eng yetakchi boshqaruv maslahatlari, ohirgi texnologiyalardan foydalanish va hamkorlikda aloqa olib borish kabilarni bajarishda yengilliklar yaratib beradi.<sup>210</sup>

Ushbu indeks 2 qismdan iborat:

1. Innovatsion salohiyat - davlatning byudjet-soliq siyosati, ta'lim, savdo, sanoat, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi siyosat, migratsiya siyosati, innovatsion muhit, (ta'lim va infratusilma sifati, ishchi kuchining rivojlanganlik darajasi, ishbilarmonlik muhiti);

2. Innovatsion faoliyat natejalari-ilmioy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, biznes samaradorligi (o'rta va yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish, mehnat unimdorligi); innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri kiradi. So'nggi marta ushbu indeks 2009-yilda chop etilgan bo'lib, unda Germaniya, AQSH, Yaponiya yuqori o'rinni egalashgan.

## REFERENCES

1. E.INasirov, D.X.Shadiyeva, Sh.Sh.Asamxodjaeva, S.B.Yunusova;
2. Yo`ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. — 312 b
3. “Investitsiya va innovatsiyalar” darslik II qism.-T.2022 212-bet;

<sup>209</sup> E.INasirov, D.X.Shadiyeva, Sh.Sh.Asamxodjaeva, S.B.Yunusova “Investitsiya va innovatsiyalar” darslik II qism.-T.2022 212-bet

<sup>210</sup> <https://www.bcg.com/about/overview>

4. Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. — 1st. ed. — El. knjiga. — Ljubljana innovation management [Elektronskivir] Korona plus — Institute for Innovation and Technology, 2013;

**Foydalanilgan saytlar:**

5. [https://zenodo.org/record/3955182;](https://zenodo.org/record/3955182)
6. [https://www.bcg.com/about/overview.](https://www.bcg.com/about/overview)
7. [https://www.wipo.int/global\\_innovation\\_index/en/2022/](https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2022/)
8. [Research-and-innovation,ec.europa.eu/statistics/performance-indicators.](https://research-and-innovation.ec.europa.eu/statistics/performance-indicators)

## APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROCESS RESEARCH AND DESIGN OF FLOW PARTS OF STEAM TURBINES

R.K.Kenesbaev

I.G.Kudenov

R.V.Bardashev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7982542>

**Abstract.** The paper highlights the main application of digital technologies in the study of processes in the design of the flow parts of steam turbines. Reviews of studies in this area have been carried out. The use of digital technologies for design and production significantly reduces the time required to introduce new technical solutions when upgrading existing equipment with long service life, as well as to create promising competitive designs of new generation steam turbines.

**Key words:** digital technology, steam turbines, turbine unit, flow path, power, gas turbine.

## ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ И ПРОЕКТИРОВАНИИ ПРОТОЧНЫХ ЧАСТЕЙ ПАРОВЫХ ТУРБИН

**Аннотация.** В работе освещены основные области применения цифровых технологий при исследовании процессов проектирования проточных частей паровых турбин. Проведены обзоры исследований в этой области. Использование цифровых технологий для проектирования и производства значительно сокращает сроки внедрения новых технических решений при модернизации существующего оборудования с длительным сроком службы, а также для создания перспективных конкурентоспособных конструкций паровых турбин нового поколения.

**Ключевые слова:** цифровая технология, паровые турбины, турбоагрегат, проточная часть, мощность, газовая турбина.

The use of digital technologies for design and production significantly reduces the time required to introduce new technical solutions for the modernization of existing equipment with a long service life, and also creates promising competitive designs for the next generation of steam turbines [1- 6]. The results of calculation and experimental studies carried out at NRU MPEI show that it is possible to increase the power of the turbine unit by 8-10% due to the improvement of the aerodynamic properties of parts and aggregates of flow paths. in the initial state of the flow path. In addition, necessary work can be done at power plants during scheduled maintenance companies.

The maximum total increase in power can be obtained by upgrading the following elements of the flow path:


- \* scapular apparatus;
- \* over-shroud, diaphragm, end seals;
- \* systems for removal and destruction of coarse moisture;
- \* designs of valves, branch pipes, steam pipelines.

Figure 1 shows the interface of the program for automated profiling based on Bezier polynomials of turbomachine lattices, developed at the NRU MPEI at the Department of Steam and Gas Turbines.

The use of similar methods in the "manual mode" for the re-profiling of the first three stages of the medium-pressure cylinder of an 800 MW turbine made it possible to increase the efficiency of the compartment by 2.4%.

The increase in efficiency was achieved by changing and smoothing the values of the curvature of the contours of the profiles of the nozzle and working gratings, minimizing the length of sections flown around with a positive pressure gradient, and forming an optimal change in the velocity gradient along the streamlined surface.

A promising method for profiling nozzle arrays is the use of a variable angle of flow exit to redistribute the flow rate along the height of the array. By reducing the exit angle of the flow near the meridional contours, the flow rate through sections with maximum end losses is reduced, and, consequently, power losses are reduced. Increasing the outlet angle of the flow in the middle part of the profile - the core of the flow - leads to an increase in the flow rate in the part of the grid with minimal losses. As a result, at constant values of the total flow, the useful power of the stage increases. Calculations show that up to 2.0% increase in the power of the stage is achieved due to the application of the profiling method under consideration.



**Figure 1. Interface of the automated profiling program**

A significant reduction in stage losses is also possible by reducing steam leakage through the seals. The average calculated values of the increase in power due to the reduction of losses from leaks are:


- in the high pressure cylinder ~0.8%;
- in the medium pressure cylinder ~ 0.6%;
- in the low pressure cylinder ~ 1.4%.

At the MPEI pilot plant, together with the Department of Steam and Gas Turbines, models were developed and manufactured for testing seals of a new design - "cellular" seals (Fig. 2), an analogue of those widely used both for modernization and in new conditions structures of steam turbines with honeycomb seals.

The results of the tests performed showed good results, confirming the competitiveness of the proposed technical solution. Significantly reduced the cost of manufacturing seals; the values



of leakage of the working fluid and the level of aerodynamic exciting forces do not exceed the values characteristic of honeycomb seals.



**Figure 2. Models of "cellular" seals**

The results of the experiments showed the possibility of using honeycomb, cellular seals for moisture separation in the last stages of the low-pressure cylinder of TPP turbines and in the flow parts of NPP steam turbines. To carry out comprehensive research, characteristics and improvement of seal designs, a special stand has been developed that allows testing different types of seal models both in air and in steam with different humidity values (Fig. 3)



**Fig 3. Stand for testing models of seals**

The use of digital technologies in testing elements of the flow parts of steam turbines significantly expands the possibilities of studying gas-dynamic, thermal thermodynamic processes, which creates a reliable basis for verifying the results of calculations and switching from using standard computer systems, for example, ANSYS to homemade codes.

By home code, we mean calculation programs debugged on the basis of experimental data and tests of elements of flow parts.

The development of such codes is fundamentally important for the application of calculation methods in the design of almost all elements of the flow path. Comparison of

calculation results and experimental results shows that "standard" programs can have significant errors and unacceptably large discrepancies when compared with the results of full-scale tests and experiments.


As a rule, the maximum deviations were recorded in areas of the flow path that are significant for the occurrence of aerodynamic forces and losses, and, therefore, fundamentally important from the point of view of the reliability of the results obtained. The main problems in carrying out calculations arise in channels with limiting values of a positive pressure gradient for continuous flow, transonic flow velocities, developed zones of flow separation, and high values of humidity.

In the zone of phase transitions at transonic and supersonic flow velocities, there is an intense interaction of shock waves and condensation with non-stationary changes in flow parameters and the appearance of additional dynamic forces on the elements of the flow path.

Inadmissibly large errors in modeling processes in wet steam in some cases led to accidents on operating equipment. There is a case when, justified by calculations, changes in the angle of installation of the working blade of the last stage of a turbine with a power of 300 MW, operating in wet steam, by only three degrees, led to the occurrence of self-oscillations with the destruction of the blade apparatus.

Comparison of the results of calculations for "problem" options with the data obtained on model and full-scale experimental stands, followed by changes in the calculation programs, makes it possible to develop "home" codes necessary for the application of sound technical solutions in the design of equipment.

The use of digital technologies has significantly expanded the possibilities of studying thermophysical processes in the flow parts of turbomachines. The Moscow Power Engineering Institute (NRU MPEI) has an excellent base for testing and aerodynamic debugging of steam turbine equipment: the MPEI training and experimental CHPP. Figure 4 shows a thermal diagram of one of the stands for studying the elements of the flow parts of steam and gas turbines. A feature of the thermal scheme of the stand is the ability to control and select the parameters of the working fluid not only at the flow inlet, but also at the outlet of the model under study, which allows you to independently change the Mach numbers and Reynolds numbers during experiments.



**Fig. 4. Thermal scheme of the stand for studying the elements of the flow parts of steam and gas turbines**

In the thermal scheme, a developed system for preparing the working fluid is made, which provides superheated, saturated or wet steam with specified parameters at the entrance to the model under study. Depending on the problem being solved, the flow velocity can vary over a wide range from subsonic to supersonic values. In conclusion, we formulate the main directions of promising developments using digital technologies in the aerodynamics of the flow parts of steam turbines.

Development of home codes for 3D design of the blade apparatus, taking into account the peculiarities of the movement of the liquid phase. Reducing aerodynamic energy losses and increasing the reliability of elements of the flow parts of turbines: steam intake systems, seals, transition and exhaust pipes.

Experimental study of new designs of the exhaust compartment with increased throughput. Development of standard designs of the exhaust compartment for powerful steam turbines with rotor blades limit length. The exhaust compartment consists of the last two stages and a diffuser exhaust pipe. The final stage of development is testing on a full-scale test bench of the plant. Development and application of effective methods for reducing the dispersion of the wet steam flow, as well as improving systems for separating moisture from the flow path of a steam turbine.

**REFERENCES**

1. Костюк, А.Г. Насущные проблемы отечественного паротур-бостроения // Теплоэнергетика. – 1997. – №1. – С. 2–8.
2. Дейч, М.Е. Исследование и расчет ступеней осевых турбин / М.Е. Дейч, Б.Н. Трояновский. – М.: Машиностроение, 1964.
3. Грибин, В.Г. Прямоугольно-ячеистые уплотнения для паровых турбин / В.Г. Грибин, С.С. Дмитриев, Б.Н. Петрунин и др. – Известия высших учебных заведений. – Машиностроение, 2017.
4. Грибин, В.Г. Влияние геометрических характеристик корпуса выхлопного патрубка конденсационной паровой турбины на экономичность выхлопа / В.Г. Грибин, А.Н. Парамонов, О.М. Митрохова // Thermal Engineering. – 2018.
5. V.G. Gribin., A.A. Tishchenko, I.Yu. Gavrilov, V.A. Experimental study of into channel separation in a flat nozzle turbine blade assembly in wet
6. steam flow // Power Technology and Engineering. – Vol. – 50. No. – 2. – 2016. P. 180–187.
7. Зарянкин, А.Е. Основы физического моделирования, элементы теории размерностей и примеры ее практического использования в задачах гидрогазодинамики / А.Е. Зарянкин. – М.: Издательский дом МЭИ, 2017. – 121 с.

## GENETIK ROMANING POETIK NUTQ MASALASI

Toshpo'latov Zayniddin

Termiz davlat universiteti

Magistratura bo'limi adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7982609>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Isajon Sultonning Genetik romanining yozilish uslubi, poetic nutq masalasi haqida gap boradi. Poetik nutqning nima ekanligi? Poetik nutqning epic asarlardagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* Asar, uslub, poetic nutq, epik asar.

### THE PROBLEM OF POETIC SPEECH OF THE GENETIC NOVEL

*Abstract.* This article talks about the writing style of Isajon Sultan's Genetic novel, the issue of poetic speech. What is poetic speech? The role of poetic speech in epic works is given.

*Key words:* Work, style, poetic speech, epic work.

### ПРОБЛЕМА ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ ГЕНЕТИЧЕСКОГО РОМАНА

*Аннотация.* В данной статье говорится о стиле написания Генетического романа Исаджона Султана, о проблеме поэтической речи. Что такое поэтическая речь? Приводится роль поэтической речи в эпических произведениях.

*Ключевые слова:* Произведение, стиль, поэтическая речь, эпическое произведение.

Fikrlar, fikrlar yo'g'rilgan asarlar gul navlari kabi xilma-xil bo'lgan hozirgi kunda o'quvchiga biror fikr, og'riqli o'ylov, o'ylovli xulosa berish juda mushkul. Va buni ko'pchilik marhamati doirasiga kirita olmaydi. Sultonning "Genetik"i o'zida bir qancha ilmiy ma'lumotlarni, yoki ilmiy ta'sirlarni aks ettirgan, kitobxonni o'ylovga chorlaydigan asar. Albatta, asarning birinchi qismi haqida bunday deya olmaymiz.

Birinchi qismda qishloq hayoti, uning yosh avlod vaqtini o'g'irlyadigan yumushlari-yu, iste'dodlarga bo'lgan e'tiborsizliklar yoritilgan. Lekin bu tasvirlar qishloq tongini ko'rsatolmagan, yomg'irdan keyingi chang ko'cha hidini his qildirmagan. Asarning ikkinchi qismi bir muncha ilmiy bo'lib so'ngida xulosa birlashib ketgan. Genetikning so'zi ko'lamdor. Bitiktoshlardan keltirilgan parchalar butun asarga "soya solgan", ya'ni muallif so'zlar va jumllalar takrorini, sodda gaplarni qo'ymagan bitiktoshlardagi kabi. Syujetning tarqoqligi kitobxon diqqatini kuchaytirish emas, balki aksiga xizmat qilgan, chamamda.

Ilk bor o'qigan o'quvchiga genlar haqida savolli xulosa berishi mumkin, bu ayrim ilmiy faktlar va hayotiy misollar hisobiga. Mavzu yangicha. Genlar haqida badiiy talqin. Yagona millat tuyg'usini, ellat qayg'usini, ota-bobolarimizdan bizning qon-qonimizga singib ketgan iste'dod yog'dusini eslatgan. Olg'a yurishi, o'z oldiga ulkan maqsad qo'yishi uchun qaysidir ma'noda turtki bo'lishi kerak edi bu eslatma. O'z-o'zidan o'ylab qolasiz, menda qanday iste'dod borki, haligacha nega u uyg'onmagan!? Axir, sabablar ishonarli.

**Poetik nutqning** o'ziga xos xususiyatlari — tantanaliligi, o'Ichovdorligi, ohangdorligi, romantizmga moyilligi, an'anaviylikka asoslanishi ayrim leksik vositalarni shu nutq uchun differentsiatsiyalanishiga olib kelgan. Bunday lug'aviy birliklar, o'z navbatida, poetic so'zlar qatlami vujudga kelishi uchun asos bo'lgan. Leksik vositalarning poeziya tilida bunday differentsiatsiyalanishi poeziya tili leksikasi va poetic leksika tushunchalari orasida keskin farq



borligini ko'rsatadi. Poeziya tili leksikasi tushunchasining ma'nosi keng. U poeziyada qo'llaniladigan barcha so'zlari, so'z formalarini, shu jumladan, poetik leksikani ham qamrab oladi. Poetik leksika tushunchasi nisbatan tor tushuncha, u boshqa nutq turlarida qo'llanilmaydigan yoki kam miqdorda uchraydigan (arxaik, traditsion poetik so'zlarni yoki badiiy nutqni mustasno qilganda, nutqning boshqa turlarida deyarli uchramaydigan) sof poetik so'zlar, poetik so'z formallari, poetik qisqartmalar, poetik neologizmlar, okkozionalizmlarni qamrab oladi. Poeziya tilini o'ziga xos ajratib turuvchi bu leksik vositalar poetik uslub vujudga kelishi uchun ham zamin yaratadi.

Binobarin, poetik leksika tub mohiyati bilan stilistik qatlam, nutq jarayonida ma'lum uslubiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchungina tabaqalangan. Shunday ekan, bunday lug'aviy birliklarni poeziya tili uchun neytral deb bo'lmaydi. Chunki poetik leksika avvalam bor o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uni poetik nutq uchun tabaqalanishiga tilning o'zi imkoniyat yaratib beradi. Shu ma'noda sinonimiya va ekvivalentlik poetik so'z hosil qiluvchi manbadir. Zero, tildagi sinonim va ekvivalent so'zlar orasidan poetik nutq uchun mosi ajraladi va shu nutqqa moslanadi. Chunki:

a) bir tushunchani bildirgan so'zlar ifoda darajalari bilan o'zaro farqlanib, ulardan biri poetik nutq uchun xoslanadi. Masalan: tirik, barhayot sinonimlaridan barhayot so'zi ifodador. Bu so'zda «hayotning abadiyligi» tushunchasi mavjud. Shu boisdan bu so'zni ko'proq poetik asarlarda uchratish mumkin;

b) bir tushunchani ifodalagan so'zlar emotsional-ekspressivligiga ko'ra farqlanib, ularning ham poetik nutq uchun mosi ajralgan. Masalan: shamol, yel, sabo, shabbada sinonimlaridan sabo, shabbada so'zlari emotsional bo'yoqdorligi bilan farqlanadi;

v) poetik leksika nutq talabi bilan tilda mavjud ekvivalent so'zlarning poetik nutq normasiga mutanosib forma va variantlarini tanlab qo'llash natijasida boyib boradi. Bunday forma tildagi o'z ekvivalentidan fonetik yoki leksik jihatdan ham farqlanishi mumkin.

Masalan, -aro — ora, ajoyib — ajab, bukun — bugun fonetik butkul — butunlay, yiroq — uzoq, leksik jihatdan farqlanuvchi ekvivalentlardir;

g) poetik nutqning ma'lum o'lchovdorlikka asoslanishi natijasida poetik ixchamlikka erishish, she'riy nutq bo'laklarining mutanosibligini ta'minlash maqsadida qo'llanilgan okkazonal so'zlar, so'z formallari va variantlari natijasida poetik leksika boyib boradi;

d) va nihoyat, poetik so'zlarning tabaqalanishida o'zbek klassik adabiyotida poeziya janrining yetakchi janr bo'lganligi asosiy rol o'ynagan. Binobarin, shu janrda qadimdan qo'llanilib, ma'lum fuiktsiya bajarib kelgan leksemalar shu nutqqa moslashgan.

Poetik so'zlarga xos xususiyatlardan biri asosan poetik sinopimiga ega emasligidir. M : kishi, bashar so'zlaridan bashar poetik so'z. Bu so'zlarning odam, inson, shaxs kabi umumnutqiy siionimlari mavjud bo'lganidek, bashar so'zi bilan yonma-yon qo'llaniladigan poetik sinonimi yo'q. Yoki Vatan, diyoy so'zlaridan diyoy poetik so'z, o'lka, el, mamlakat umumnutqiy sinonimlardir.

Bunday xususiyatlarni yanglig', siyna, samo, hur, surur, yiroq va boshqa ko'pgina poetik so'zlarda ham ko'rish mumkin. Bu so'zlarning o'xshash, kabi; ko'krak, bag'ir; osmon, ko'k, erkin, ozod; xursandlik, shodlik kabi umumnutqiy sinonimlari mavjud, lekin poetik sinonimlari yo'q. Sh u bilan bir qatorda, ba'zi bir poetik sinonimlar qatori mavjudligini ham kuzatish mumkin.



Masalan: yorqin, charog'on, nurafshon, porloq sinonimik qatoridagi hamma so'zlar poetik bo'yoqdorligi bilan ajraladi.

Ma'lumki, poeziyada fikr ko'pincha so'zning poetik ma'no ifodalashi jarayonida vujudga keladi. V.P.Grigor'ev poeziya tili tushunchasini poeziya so'zi bilan emas, balki poetika so'zi bilan bog'lash lozimligini qayd qiladi. Chunki poeziya tili o'ziga xos til, u birinchi navbatda janr taqozosi, nutq talabidan kelib chiqadi. Poetik nutq bezatilgan ritmik va metrik nutq<sup>211</sup> bo'lib, prozaik nutqdan quyidagicha farqlanadi:

1. Poetik nutq bir-biriga solishtirish mumkin bo'lgan maydalangan nutq bo'laklaridan (misralardan) tashkil topadi. Prozaik nutq jipslashgan nutqdir.

2. Poetik nutq ichki o'lchovga ega bo'ladi. Prozaik nutq bunday o'lchovga ega emas.

3. Poetik nutqda gap bo'laklarining o'rin almashuvi (inversiya) muhim rol o'ynaydi. Prozaik nutq grammatik holat doirasida bo'ladi<sup>212</sup>.

4. Poetik nutq lirik nutq. Prozaik nutqdagi ko'pgina hollar lirikaga xos bo'lmaydi<sup>213</sup>

5. Poetik nutqni prozaik nutqdan farqlovchi yana bir muhim belgisi obrazlilik, frazeologik xususiyatlari, sintaktik tuzilishi, ohang va qofiya sistemasidir<sup>214</sup>

Asarning yozilish uslubi romanning muqaddimasida biroz tushunarsiz aks etgan bo'lsa-da, asarga qanchalik kirib borar ekansiz asarni ham shunchalik tushun-a borasiz. Asarning tili poetik nutq nuqtai nazaridan juda sodda tilda yozilgan. Asar bevosita yozuvchining bolalik xotiralari bilan boshlanadi. Ijodkor so'zdan foydalanar eka, har bir ijodkor o'zining uslubini namoyon qiladigan so'zlardan foydalanadi. Yozuvchining poetik nutqi uning uslubini ham belgilab beradi. Poetik nutq epik asarlarda muallif nutqida va obrazlarning diologlarida namoyon bo'ladi. Buni Genetik romanidagi parchalar misolida ko'rib o'tamiz. "...Bir kuni Nuh alayhissalomning xotini non yopibdi. Nonlari qip-qizarib, po'rsillab pishibdi. Tandirdan uzib savatga solayotsa, qo'li kuyib, bittasi yerga tushibdi.

– Yengchasi yo'g'akanmi?

Yengcha – bilakkacha yetadigan, qalinroq matodan ichiga paxta solib tikilgan uzun qo'lpop. Bir tarafi qorayib-kuyib ketgan bo'ladi, yomg'irda namlansa, kuyik isi anqiydi. Xotinlar yangi pishgan issiq nonlarni o'sha yengcha bilan uzishadi.

– Borakan-u, ammo qo'lga kiyvolish esidan chiqqan ekan. Yoki non yopaverganidan ilmatshik bo'lib ketganmi?

Xullas, non yerga tushganida xotin:

Hah, o'lgur, – debdi.

Shunda Nuh payg'ambar aytibdiki:

– Hoy nodon, rizqniyam so'kadimi odam? Qani, tavba qilib, nonni yerdan olib ko'zingga sur-chi!

Xotin shunday qilibdi. Yerga tushgan non bo'lagini olib, puf-puflab ko'zga surtish odati o'shandan qolganmish...

Matallarning ko'pida xotinlar nodon bo'lib tasvirlanishiga aqlim shoshadi. Tashqariga chiqqanimda ularga qiziqsinib qarayman, sirayam nodonga o'xshashmaydi". Yuqoridagi parchada

<sup>211</sup> Аптганше теорпш языка н стнля. М. ---Л. ., . 1930. С . 190.

<sup>212</sup> Томашепскнн В. В. Стнхн н язнк. М . Л ., 1959. С 10.

<sup>213</sup> Адабист назарнясн. 1-том. Тогакспт. 1973. 401-бст.

<sup>214</sup> Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. М ., 1971. С . 133

yoʻzuvchi qadimgi rivoyatlardan parcha keltirib oʻtadi unda nuh paygʻambar va uning turmush oʻrtogʻi oʻrtasidagi diologni koʻrishimiz mumkin. Diologda Nuh paygʻambar oilasida boʻlgan voqea orqali ayollarga boʻlgan munosabatning kichik namunasi berib oʻtilgan. Chunki koʻpchilik asarlarda ayollar nodon sifatida tasvirlab oʻtiladi.

“Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga oʻxshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turgʻunniso, Xosiyat, Nazira, Iboda boʻlib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yoʻq, umrini dalada dehqonchilik bilan oʻtkazgan buvam qaydan topib qoʻyaqolgan ekan? Tabiiyki, maʼnosini ham bilmasdim. Ayol ismiga “oy” yoki “xon” qoʻshib aytilgani uchun, xolamni hamma “Sofiyaxon” yoki “Sofiyaoy” deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon “Sapiya”ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga koʻproq yoʻqqani uchun, tungi bulutlar orasidan koʻringan xayoliy toʻlin oy manzarasini yodimga soladi.

Dasturxon ustida goho tanbeh ham berardi

– Nonni oʻng qoʻling bilan ye!

– Chap qoʻlim bilan yesam nima qipti?

– Chap qoʻling bilan yesang, qurib shol boʻlib qoladi.

Men esa bekitiqcha chap qoʻlim bilan nonni ushlab koʻrar, qoʻlim shol boʻlib qolmagach, xolamning gaplariga kulardim.

Boshqa oʻgʻitlari ham shunaqa edi:

Kalishni oʻng oyogʻingdan kiy!

Nimaga?

– Oyogʻing ishlamay qoladi!

Chumolini oʻldirma, meni nimaga oʻldirding, deb qargʻaydi!

Oʻtlarni payhon qilma, ularning ham joni bor, xudo deydi! Bu epizodda asarning bosh qahramoni boʻlgan Genetik va Sofiya xola obrazi oʻrtasidagi suhbat orqali bevosita hammamizga bolalik xotiralarimizni esga soladi. Yoʻzuvchining poetik mahorati orqali kichik bir suhbatda bolalik davrlarimizga qaytamiz. Genetik ulgʻaygandan soʻng boshqa obrazlar haqidagi tasavvuri ham dunyoqarashi bilan birgalikda oʻzgarib boradi. Ulgʻaygan sari teran fikrlay boshlaydi, bolalikdagi shoʻx va quvnoq xotiralar oʻrnini jiddiy oʻylar egallay boshlaydi.

Buni quyidagi parchada koʻrishimiz mumkin: “...Eh, ukam... Bu dunyoda yashar holim qolmadi. Bolalar katta boʻldi, bari roʻzgʻorim deb urinib yurishibdi. Gaplashay desam, nimaniam gaplashardim? Kelinimdan tortinaman, shu uychaga kirib oʻtiraveraman. – Otamdan qoʻrqar edim, – dedi keyin. – Urushdan qaytib kelgach, indamas boʻlib qolgan edi. Hech nima demasdi, oʻsiq qoshlari ostidan xoʻmrayib tikilib turaverardi. “Ota, nimaga bunaqa qarayapsiz?” desam ham lom-mim demasdi. Hech nima qilmasdi, uy-roʻzgʻorga qaramasdi, koʻrgan kuniga shukr qilib oʻtiraverardi. Oʻzi gapirmasdi, gapi boʻlsa enam orqali yetkazardi. Shu, ulgʻayganimda “Uylansin, bir etak bola-chaqa koʻrsin” debdi. Ota-ku, gapini ikki qilib boʻlarmidi? Uylanganimdan keyin roʻzgʻor boshimga tushdi... Xudoga shukr, Xolis yaxshi xotin chiqdi.

Oʻylab qarasam, Xolisimni rosa yaxshi koʻrgan ekanman, – dedi xoʻrsinib. – Shu yoshga kirib, endi bildingizmi? – deb kuldim. – Ha, qadrini koʻrsatib qoʻydi. Hayotdaligida arazlab onasinikiga ketib qolsa, bir-ikki kundan keyin baribiram qaytib keladi, deb bormas edim. Haqiqatan ham, kun oʻtib, bir qoʻlida tuguni, bir qoʻlida bolasi bilan kirib kelaverardi. Onasi oʻtganidan keyin sira ketmadi. Boradigan joyi yoʻq edi-da, qaygayam borsin? Mana, endi arazlab

ketgan joyini qara! – dedi xayolchan. Nimanidir eslab yana kulimsiragan edi, yuzi yorishib ketdi.  
– Baribiram izimdan kelmaydi deb o‘tirgandir?

#### **REFERENCES**

1. Аптганше теорпи языка н стнля. М.-Л., . 1930. С. 190.
2. Томашпскнн В. В. Стнхн н язнк. М.Л ., 1959. С 10.
3. Адабист назарнясн. 1-том. Тогакспт. 1973. 401-бст.
4. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. М., 1971.
5. I.Sulton Genetik. “Yoshlik” jurnali 2006. 120 b

## O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH HAQIDA

Norqulova Sojida Bahriddinovna

Navoiy viloyati Karmana tumani Hamza Umarov nomidagi  
22-sonli maktabning amaliyotchi - psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7985303>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** To'g'ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini baholash, ta'lim berish, pedagogik-psixologik.

### ABOUT DIRECTING STUDENTS TO THE PROFESSION

**Abstract.** In this article, the guidance of the young generation to the profession has always been listed as one of the priority issues facing our country and politics. In order to implement this process, the role of our children's parents and educational institutions and the activities of teachers and practicing psychologists working there are of great importance. This article briefly discusses the existing problems in the correct orientation of students to the profession, the shortcomings in practice, and ways to eliminate them.

**Key words:** Choosing the right profession, socialization, self-assessment, education, pedagogical-psychological.

### О НАПРАВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИИ

**Аннотация.** В данной статье ориентация молодого поколения на профессию всегда указывалась как одна из приоритетных задач, стоящих перед нашей страной и политикой. В реализации этого процесса большое значение имеют роль родителей наших детей и образовательных учреждений, деятельность работающих в них педагогов и практикующих психологов. В данной статье кратко рассматриваются существующие проблемы в правильной ориентации студентов на профессию, недостатки на практике и пути их устранения.

**Ключевые слова:** Выбор профессии, социализация, самооценка, воспитание, педагогико-психологический.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga

pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, shakllanayotgan madaniy bozor munosabatlari, ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti qizg'in kechayotgan davrda jamiyat va shaxs ehtiyojlarining uzviy mutanosibligiga erishish yoki uni ta'minlash oson ish emasligini tasdiqlamoqda. Chunki hamisha ham yoshlar o'z iqtidori, salohiyati, aqliy va intellektual potensialiga mos va jamiyat uchun manfaat keltiruvchi kasblarni tanlay olmaydilar.

Bu qarama - qarshilikni bartaraf etish uchun yoshlarda kasb tanlashning ijobiy (pozitiv) motivlarini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Bu hayotiy dolzarb vazifa yoki muammoni hal etishda albatta oila va maktab, mahalla va jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa tuzilmalar yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari lozim bo'lmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish har bir o'quvchiga o'zligini anglash va betakror o'ziga xosligi asosida ham hayotiy ham kasbiy istiqbolini belgilashda yordam beradi. Kasbga yo'naltirish jarayoniga amaliy – psixologik texnologiyalarni tatbiq etish bilan shaxsning kasbiy o'zligini anglashi va kasbiy istiqbol rejasini belgilashi uchun bevosita ijtimoiy-psixologik sharoit yaratiladi. Bu – faoliyat samaradorligini oshirishning zarur omillaridan biri hisoblanadi. Shaxs (o'quvchilar)ning biror bir faoliyat turini tanlayotganda, dastlab bilishi lozim bo'lgan narsa nima sababdan u aynan shu kasbni tanlayotganligi va aynan qaysi korxonada yoki firmada ishlashni istayotganligini bilishdir. Bu masala psixologiyada motivlar va kasbiy motivatsiya hodisasi bilan bog'liq. Professional mahorat va kasb motivatsiyasi haqida gap ketganda ularga ta'sir etuvchi ikki guruh omillar nazarda tutiladi: ob'ektiv hamda sub'ektiv.

Ob'ektiv omillar – bu inson faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan, shu faoliyat talab qiladigan tamoyillar, normalar va cheklovlar hamda inson tomonidan talab etiladigan professional bilimlar, malaka va ko'nikmalar, professional muhim sifatlardir. Bu omillarga yana ishlab chiqarish sharoitlarining o'zi, ularning qanchalik yangi davr talablariga binoan modernizatsiya qilinganligi rol o'ynaydi.

Sub'ektiv omillar – insonda avvaldan mavjud bo'lgan layoqat, qobiliyat, mehnatga nisbatan motivatsiya, ish faoliyatdagi da'vogarlik darajasi, o'ziga nisbatan shakllangan baho va turli xil xato va kamchiliklardan o'zini-o'zi psixologik jihatdan himoya qilish qobiliyatidir. Bu omillar guruhi ham juda ahamiyatli bo'lib, ular ko'proq tashqi omillardan ko'ra insonning o'ziga bog'liq.

Yosh avlodni o'z kelajagini tanlash va uni barpo etishida albatta axborotlarni tahlil qilish ko'nikmasi kerak. Ushbu ko'nikma o'quvchilarning kasb tasnifi, uning asosiy turkumlariga xos umumiy xususiyatlarni bilishi, kasblarning murakkablik omillarini taxlil qila olishi bilan baholanadi;



-Gnostik ko'nikmalar. U kasbi bo'yicha talab qilinadigan shart-sharoitlar bilan o'quvchining qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlarining o'zaro muvofiqligini aniqlash asosida baholanadi;

-Konstruktiv ko'nikmalar. O'quvchi tomonidan kasbga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo'limlari va vazifasining asoslanishi, kasbga tayyorgarlik va kasb mahoratini oshirish usullarini egallaganligi.

-Tashkiliy ko'nikmalar. Kasbga moslashtirish va kasbga xos bilimlarni, malakalarni egallash hamda diagnostik kasb maslahatidan foydalanishni, maktab o'quvchilariga bo'lgan talablarni, ularning bir-biridan farqini bilishi.

Kasb-hunar tanlashda adashmaslik uchun o'quvchilar quyidagilarni bilishi va uddalashi kerak:

1. mehnat va kasb turlariga bo'lgan o'z moyilligi, qiziqish va layoqat;
2. Kasb-hunar bo'yicha mehnat sharoiti va mazmuni (predmeti, maqsadi, mehnat quroli, ishchining asosiy vazifalarini, bilimni, ko'nikmalarni, mehnat tashkillashtirish;
3. Insonning shaxsiy xislat-lari va sog'ligiga kasb tomonidan qo'yiladigan talablarni;
4. Tanlagan kasb-hunar bo'yicha ishlash mumkin bo'lgan eng yaqin korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni, to'garaklarda ishtirok etish jarayonida o'z qiziqish va tamoyillarni amaliyotda sinash va hokazolar.

Keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan xulosa shundan iboratki, rivojlana-yotgan shaxsning yaqin kelajakda ma'lum bir kasbga yoki faoliyatga yo'nalganligini ta'min etuvchi muhim individual-psixofiziologik va psixologik xususiyatlari majmuasi uning kasbiy muvofiqligini tashkil etadi.

Yoshlarning o'z kasbini tanlash kabi xislatlarini chuqur tushungan holda faol izlanib, bo'lajak kasbu-korni to'g'ri tanlashlariga imkon beruvchi ichki bir anglanilgan salohiyat majmuasi esa kasb tanlashga tayyorlik darajasini belgilab beruvchi omil sanaladi. Shaxsning kasbiy shakllanishida kasbiy yo'nalganlik va kasb tanlashga tayyorlik xislatlari birgalikda, bir butun holda rivojlanib, bir-birini taqozo etgan holda takomillashib borishi, bizningcha, yana muhim sifat, ushbu kasbiy ustanovkalar barqarorligini ta'minlashdir. Bunda bolani o'rab turgan atrof-muhit, u tarbiyalanayotgan muhitdagi shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning roli kattadir.

#### REFERENCES

1. Sharipov SH. S., Davlatov K., Nasriddinova G. S. KASBGA YO'NALTIRISH-NING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA Toshkent – 2007.
2. Melibaeva, R. (2020). O dialekticheskom xaraktere protsessa stanovleniya lichnosti studenta.
3. Normetova, Yu. (2015). Izuchenie sotsialno-psixologicheskix podxodov k problemam zdorovya i bolezni. In Ot istokov k sovremennosti (pp. 304-306).
4. Xolyigitova, N. X. (2019). Ijtimoiy psixologiyada o'quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanish omillari (ilmiy adabiyotlar tahlili). Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan),

5. Xolyigitova, N. (2014). Innovatsion texnologiyalar–ta’lim va tarbiya jarayonlarining sifat va samaradorligi omili sifatida. *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, (1),

## O'SMIRLARNING XULQ-ATVORI BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Norqulova Shahnoza Bahriddinovna

Navoiy viloyati Karmana tumani Hamza Umarov nomidagi 22-sonli  
maktabning amaliyotchi - psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7985479>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smirlik davrini shaxs rivojlanishining alohida yosh bosqichi ekanligi, xulq-atvori buzilishlari yaqqol namoyon bo'layotgan o'smirlar soni ko'payib, addiktiv xulqning eng keng tarqalgan va eng muhim shakli kimyoviy tobeklik, xulq-atvori buzilishlari yaqqol namoyon bo'layotgan o'smirlar ko'payishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:**

### PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF WORKING WITH THE BEHAVIOR OF ADOLESCENTS

**Abstract.** In this article, adolescence is a special age stage of personality development, the number of adolescents with behavioral disorders is increasing, the most common and important form of addictive behavior is chemical dependence, behavioral disorders are clearly manifested. socio-psychological factors that cause the increase of adolescents are explained in detail.

**Key words:** Family types, chemical dependency, failure, conflict, loneliness, lack of confidence, addictive behavior.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ С ПОВЕДЕНИЕМ ПОДРОСТКОВ

**Аннотация.** В данной статье подростковый возраст является особым возрастным этапом развития личности, увеличивается количество подростков с нарушениями поведения, наиболее распространенной и значимой формой аддиктивного поведения является химическая зависимость, ярко проявляются нарушения поведения социально-психологические факторы, обуславливающие возникновение. Подробно объясняется рост подростков.

**Ключевые слова:** типы семьи, химическая зависимость, неудача, конфликт, одиночество, неуверенность в себе, аддиктивное поведение.

O'smirlik davrini shaxs rivojlanishining alohida yosh bosqichi sifatida aniqlash 19- asrning ikkinchi yarmida sodir bo'ldi. O'shandan beri o'smirlik davri muammolari ko'plab olimlar psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, madaniyatshunoslar, sotsiologlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. O'smirlik - bu bolalikdan kattalikka o'tish, o'smirlik inqirozining salbiy xususiyatlari aniq namoyon bo'ladigan davrdir.

Kuzatishlar natijasiga ko'ra, so'nggi yillarda xulq-atvori buzilishlari yaqqol namoyon bo'layotgan o'smirlar soni ko'paydi. Addiktiv xulqning eng keng tarqalgan va eng muhim shakli kimyoviy qaramlikdir. O'smirlar va o'rta maktab o'quvchilari orasida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish holatlari nafaqat o'g'il bolalarga, balki qizlarda ham uchrab turishi afsuslanarli holat. O'smirlik davrida spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning o'zi iste'mol qilingan miqdordan qat'i nazar, patologiya hisoblanadi.

Xulq-atvor buzilishlari yaqqol namoyon bo'layotgan o'smirlar soni ko'paydi. Addiktiv xulqning eng keng tarqalgan va eng muhim shakli kimyoviy qaramlikdir. Shaxsning tanazzulga uchrashi axloqiy qashshoqlik, keyinchalik ularning butunlay yo'qolishi, his-tuyg'ularning ibtidoiylashuvi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlardagi faollikning asta-sekin zaiflashishi, adekvat xatti-harakatlar va o'z-o'zi tanqidiy yondashuvda buzilishda namoyon bo'ladi.

O'smirda shaxsiy inqiroziga qo'shimcha ravishda, kognitiv faoliyatda o'zgarishlar boshlanadi. Giyohvand moddalarga tobe o'smirlarning fikrlashi chuqurlikni yo'qotadi, mulohazalarning mantiqiyliigi va izchilligi buziladi, assotsiatsiyalar zaiflashadi, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira hajmi torayadi. Bunday o'smirlar uzoq vaqt davomida diqqatni jamlay olmaydilar, ular tez charchaydilar, nisbatan oddiy aqliy ishlarni bajarishda tobora ko'proq xatolarga yo'l qo'yadilar. Ta'lim sohasida motivatsiyasining etishmasligi kuzatiladi. Bularning barchasi ta'lim samaradorligiga tabiiy ravishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'smir shaxsiyatning o'zgarishi hissiy, irodaviy va intellektual degradatsiyani o'z ichiga olgan psixosotsial degradatsiya deb ataladi.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, potentsial "xavf guruhi" ga kiradigan o'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari quyidagicha:

- o'smirda o'ziga bo'lgan ishonchning kuchayishi, haddan tashqari egosentrizm va atrofidaqilarning e'tiborga tashnalik;

- atrofidaqilarning holatini tushuna olmaslik, empatiyaning pastligi, muloqot qobiliyatlarining yomon shakllanishi;

- hissiy labillikning kuchayishi, kayfiyatning oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgaruvchanligi, qo'pollik.

- o'z muammolari uchun javobgarlikni boshqa odamlarga yuklash yoki ularni omadsizlik oqibati deb bilish, shuningdek, muvaffaqiyat va yutuqlarni omad yoki tashqi sharoitlar oqibati deb hisoblash;

- o'z harakatlari va muhim hayotiy voqealar o'rtasida bog'liqlikni idrok etolmasligi;

- muhim hayotiy vaziyatlarni o'z-o'zini nazorat qila olmaslik, o'z hayotini tashkil etish, sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning rivojlanishining oldini olishda o'z rolini etarli darajada baholamaslik va boshqalar.

Haqiqatdan qochish mexanizmi quyidagicha, o'smir tanlagan usul ishladi, yoqdi va yaxshi holatni ta'minlaydigan holat faol davo sifatida ongida mustahkamlandi. Kelajakda qaror qabul qilishni talab qiladigan qiyinchiliklar bilan uchrashuv avtomatik ravishda muammoni hal qilishning "ertangi kunga" o'tkazilishi bilan almashtiriladi. Asta-sekin, ixtiyoriy harakatlar kamayadi, chunki o'ziga qaramlikni amalga oshirish ixtiyoriy funktsiyalarga "urilib", eng kam qarshilik taktikasini tanlashga yordam beradi. Qiyinchiliklarga chidamlilikni pasaytirish, ularni bartaraf etishdan qochish, hal qilinmagan muammolarning to'planishiga olib keladi.

Addiktiv xulqning paydo bo'lishida bolalik davridagi psixologik jarohatlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik, bolalarning o'z-o'zini ta'minlashga e'tibor bermaslik kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarning xulq-atvoridagi og'ishlarning ko'pchiligi: e'tiborsizlik, huquqbuzarlik, psixofaol moddalarni iste'mol qilish, bir manbaga - ijtimoiy moslashuvga asoslanadi, ularning ildizlari noto'g'ri oilada yotadi. Ijtimoiy jihatdan nosog'lom bola, o'smir og'ir hayotiy vaziyatda bo'lib, to'liq rivojlanish huquqi qo'pol ravishda buzilgan jabrlanuvchidir. Ijtimoiylashuvning eng chuqur nuqsonlari bilan ajralib turadigan oilalar bolalarni ixtiyoriy ravishda psixofaol

moddalardan erta foydalanishga va huquqbuzarlik qilishga undaydi. O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy omillaridan biri o'smir voyaga yetayotgan oila xisoblanar ekan, quyidagi turlarga bo'linadi:

- soxta farovon oila, ota-onalardan birining so'zsiz hukmronligi, qolgan oila a'zolarining unga to'liq bo'ysunishi, shafqatsiz munosabatlarning mavjudligi va jismoniy jazo qo'llanilishi bilan ajralib turadi;

- to'liq bo'lmagan oila. Zamonaviy sharoitda ota-ona oilasi tarkibidagi nuqsonlar bolaning, o'smirning shaxsiyatini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi va uning ijtimoiylashuv jarayonini sekinlashtirishi mumkin;

- munosabatlar tarqoq oila, oiladagi ustunlik uchun ota-onalar o'rtasidagi raqobat, oila a'zolari o'rtasida hech qanday hamkorlikning yo'qligi, tarqoqlik, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi alohidalanish bilan tavsiflanadi;

- odob qoidalariga rioya qilmaydigan oila. Unda ota-onalar va boshqa oila a'zolari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar, ichkilikbozlik, janjal va janjallarga sabab bo'ladigan muntazam nizolar, ota-onalarning nopok xatti-harakatlari kabi salbiy omillar o'rin olgan oila;

- jinoyatchilikka moyil oila. Oila a'zolari jinoyat sodir etgan oila. Ba'zan jinoiy faoliyat muayyan shaxs yoki butun oilaning asosiy faoliyati ekanligini ta'kidlashga to'g'ri keladi. O'smirlardagi addiktiv xulqning asosiy sabablari:

- maktabda doimiy muvaffaqiyatsizliklar;
- ota-onalar, o'qituvchilar, tengdoshlar bilan nizolar;
- yolg'izlik hissi; - hayotning ma'nosini yo'qotish;
- kelajakka bo'lgan ishonchning etishmasligi;
- barcha turdagi shaxsiy muvaffaqiyatsizliklar.

Demak o'smirlik davrida inson o'zini, qobiliyatlarini va individual xususiyatlarini tushunishga, boshqa odamlar bilan o'xshashligini va ulardan farqini aniqlashga intilar ekan, bu holat tengdoshlar bilan muloqot, ayniqsa, o'zini-o'zi adekvat baholashga yordam beradi. Addiktiv xulq jiddiy ijtimoiy psixologik muammo, chunki bu xulq o'smirda tengdoshlari va oila a'zolari bilan nizolar, jinoyatlar, mehnatga layoqatning pasayishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. So'nggi paytlarda addiktiv xulq bilan bog'liq holatlar soni ortib borayotganini hisobga olsak, bu holat jamiyatning ijtimoiylashuv maskanlari hisoblanmish oila, maktabgacha ta'lim mussasasi, maktab zimmasiga alohida ma'suliyat yuklaydi.

## REFERENCES

1. Авдулова Т.П. Психология подросткового возраста: учебник и практикум для академического бакалавриата / Т.П. Авдулова. – М.: Издательство Юрайт, 2017.
2. Djalolova Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova Shohista Kamolovna //O'SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI// Таълим ва инновацион тадқиқотлар журнали. 2022 йил
3. Mamajonova Shoxista Kamoldinovna //BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJOBIY MUNOSABAT USULLARINI SHAKLLANTIRISH// Таълим ва инновацион тадқиқотлар журнали 2022 йил



4. Mamajonova Shokhista Kamoldinovna, Mamaziyayeva Charoskhan Mirzamirovna //Formation of Positive Attitude Methods in Primary Class Students// Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Volume 14| November 2022.
5. Mamajonova Shohista Kamolovna //THEORETICAL FOUNDATIONS OF MEMORY PROCESSES AND THEIR SPECIFICITY IN PRESCHOOL AGE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 3, Mar. (2022).
6. Mamajonova Shokhista Kamoldinovna //THE RELATIONSHIP BETWEEN PARENT AND CHILD AS A FACTOR IN THE FORMATION OF THE ADJECTIVAL HULK DURING ADOLESCENCE// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 2, ISSUE 5. MAY, 2023.

## БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА МАКТАБЛАРНИ ИСЛОХ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

**Бобожонова Феруза Хаятовна**

Бухоро давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди

[bobojonova.feruza.71@mail.ru](mailto:bobojonova.feruza.71@mail.ru)

**Зоирова Маржона Мехриддин қизи**

Бухоро давлат университети 4-курс талабаси

*h*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Бухоро Халқ Совет Республикаси даврида мактаб масалалари атрофлича ёритилган. БХСР ҳукмати халқни саводли қилиш орқали жаҳолат ва қолоқлик ботқоғидан халос қилиш мумкинлиги билан боғлиқ фикрга таянган ҳолда янги вазиятда Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар)ни ишлаб чиқиланлиги атрофлича ёритилган. Бу даврдаги мактаблар бинолари, таъминоти, дарс ва дарсликлар, ўқитувчилар уларга берилган маош ва нафақалар, ўқитувчилар ва ўқувчиларларнинг моддий аҳволи ва таъминоти масалалари баён этилган. Мақолада маърифатпарвар жаҳидларнинг мактаб масалаларига оид фикрлари келтирилган. Мактаб таълимида ислохотчилик масалалари ҳар томонлама ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** БХСР, маориф, саводгилм, мактаб, ўқувчи, ўқитувчи, синф, фан, дарсликлар, ислохотчилик, фармон, Маориф нозирлиги, Қоидалар, Бухоро ахбори, Саллоҳхўжа гузари, мактаб мудирлари, мактаб ходимлари, Халқ Нозирлар Шўроси.

## ПРОБЛЕМЫ ШКОЛЬНОЙ РЕФОРМЫ В СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ БУХАРА

**Аннотация.** В данной статье подробно освещаются школьные вопросы в период Бухарской Народной Советской Республики. Исходя из представления о том, что правительство СССР может избавиться от болота невежества и отсталости, сделав народ грамотным, уточняется, что в новой обстановке были разработаны общие правила о школах (Правила). В этот период описываются вопросы школьных зданий, принадлежностей, уроков и учебников, заработной платы и пособий учителей, финансового положения и поддержки учителей и учащихся. В статье представлены взгляды просвещенных современников на школьную проблематику. Всесторонне освещаются вопросы реформирования школьного образования.

**Ключевые слова:** БХСР, образование, грамотность, знания, школа, ученик, учитель, класс, наука, учебники, реформация, указ, Инспекция образования, Правила, Бухарские новости, Саллахходжа Гузари, директора школ, коллектив школы, Совет народных инспекторов.

## PROBLEMS OF SCHOOL REFORM IN THE SOVIET REPUBLIC OF BUKHARA

**Abstract.** In this article, school issues during the period of the Bukhara People's Soviet Republic are covered in detail. Based on the idea that the government of the USSR can get rid of the swamp of ignorance and backwardness by making the people literate, it is detailed that the general rules on schools (Rules) have been developed in the new situation. The issues of school buildings, supplies, lessons and textbooks, teachers' salaries and allowances, financial condition and support of teachers and students are described in this period. The article presents the views

*of enlightened moderns on school issues. Issues of reform in school education are covered in every way.*

**Key words:** *BXSR, education, literacy, knowledge, school, student, teacher, class, science, textbooks, reformation, decree, Inspectorate of Education, Rules, Bukhara news, Sallahkhoja Guzari, school principals, school staff, Council of People's Inspectors.*

Бухорода БХСР тузилгандан кейин маорифни, мактаб ва мадрасани тубдан ислох қилиш, таълим-тарбия тизимини ўзгартириш, миллатни маънан уйғотиш учун дастлабки кунларданок замонавий маориф тизимини вужудга келтириш чоралари қўрилди. БХСР Маориф нозирлиги мутасаддилари маориф масаласига: «Маориф керак, чунки ҳеч бир мамлакат, ҳеч бир миллат ва ҳеч бир инқилоб маорифсиз яшамас, ўқимок учун мактаб керак, маориф керак, китоб керак, булар ҳақиқат», -деб қарадилар. [10;23]

БХСР ҳукумати аввало халқни саводли қилиш орқали жаҳолат ва қоқоқлик ботқоғидан халос қилиш мумкинлиги билан боғлиқ фикрга таянган ҳолда янги вазиятда Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар)ни ишлаб чиқишини Маориф шўъбаси зиммасига юклади.[11;23] Мазкур «Қоидалар»Бухорода амирлик тартиби тугатилганидан уч ойдан сўнг, яъни 1920 йилнинг ноябрь ойида ишлаб чиқилган. Бухорода янги шароитда мактаб таълимини жорий этишга қаратилган Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар) деб номланган тарихий ҳужжат «Умумий қоидалар», «Таълим-тарбия ишларига оид», «Мактаб идораси ҳайъати вазифаси», «Мактаб шўросининг вазифаси», «Мактаб ходимлари учун категориялар» каби бешта бўлимдан иборат эди. БХСРда таълим тизимини замонавийлаштириш асос ва қоидалари ушбу ҳужжат билан тартибга солиниши кўзда тутилган.

Мактаблар ҳақида умумий қоидалар, амирлик замонида мавжуд бўлган анъанавий таълим тизимини тубдан ислох қилиш дунёвий таълимни жорийлантириш ва аҳолини ёппасига саводхон қилиш лойиҳаси илгари сурилди. Мактаб ишлари ҳақидаги режада: 8-16 ёшли болалар учун бошланғич мактаблар очиш, саводсизликни тугатиш курслари ҳамда муаллим ва мураббийлар тайёрлайдиган махсус ўқув юртларини ташкил этиш кўзда тутилганди. Қоидалар бошланғич мактабларда ўқув муддати 7-8 йил давом этиши қайд қилинган. Бироқ, ушбу бошланғич таълим муддати устида мунозаралар кучайиб кетди. Айниқса, «Бухоро ахбори» газетасининг бир қатор сонларида ушбу муддатни 4-5 йилга тушириш билан боғлиқ таклифлар билдирилган. бошланғич ўқиш муддатини 5 йиллик ўлароқ қабул қилган эди,- деб фикр билдирганди. «Қоидалар»да анъанавий, масжидлар қошидаги бошланғич мактабларни ислох қилиш, Усули савтия (товуш усули)га асосланган синф-дарс тузимига ўтиш янги мактаблар ишида мадрасада таълим берган илғор фикрли ва саводли муаллимлардан вақтинча фойдаланиб туриш, махсус қизлар мактабларини ташкил этиш, болалар боғча ва яслилари очиш, таълимнинг мажбурийлигини таъминлаш, ўқувчиларни ҳукумат ҳисобидан бепул ўқитиш ва овқатлантириш масалалари қайд этилган. [7;213]

Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар)нинг 1-бўлимининг 11-бандида: Мактабларнинг ҳар қайсисида тарбия олмоқ билан бирга, болалар учун мумкин бўлган равишда ош, чой, кийим ҳам берилур, –деб ёзилган эди. Мактабларда таълим ва тарбияни уйғун равишда олиб бориш, ўқувчиларни ёш хусусиятларига қараб гуруҳларга ажратиш,

дунёвий фанлар дастурини ишлаб чиқиш кабилар назарда тутилган. [3;84]

Таълим-тарбияда болаларни сўқмоқ, урмоқ, жазо бермоқ битирилиб, ўғит-насихат, танбех, ўртак кўрсатиш усуллари қўллаш қоидалари қатъий қилиб ёзиб қўйилган, шунингдек, таълим ахлоқий, мафкуравий шаклларда бўлиши, ҳар бир синфдаги ўқувчилар сони 30-35 тадан ошмаслиги, болаларни ёш хусусиятларига қараб синфларга ажратиш кабилар ҳам кўрсатилган. [12;23]

Ушбу қатъий қоидалар Бухоро жадидларининг 1908 йил октябрда Саллохўжа гузарида очган биринчи жадид мактабида ҳам амал қилган эди. [7;23] Мактабда таълим оладиган муаллим ва ўқувчилар ахлоқан пок бўлиш, вино ичмаслик, ўз сўзида қатъий туриш, маорифга садоқат кўрсатиш, ўз шахсий манфаатларидан жамият манфаатларини устун қўйиш каби ҳислатларга эга бўлиш учун қасамёд қилган эдилар. [8;366] Қоидаларнинг Мактаб идораси ҳайъати таълимия вазифаси, Мактаб шўросининг вазифаси каби бўлимларида маориф тизими раҳбарлари ва ўқитувчиларнинг вазифалари баён қилинган. Мактабларда қатъий тартиб-интизомга бўйсунуш, дарсларни жадвал асосида ўтиш, ўқув жараёнини уюштириш, мактабнинг моддий-маънавий базасини мустаҳкамлаш, яхши педагог мутахассисларни танлаш каби кенг миқёсдаги вазифалар раҳбарият зиммасига юкланди. Мактаб мудирлари мактабни идора қилғонлари учун 25 фоиз ортиқ маош олурлар, ҳафтасинда 12 соат дарс берурлар,-деб ёзилган эди Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар)да.[13;10] Қоидаларнинг Мактаб ходимлари учун категориялар бўлимида ўқитувчи мураббийларга маош тўлашда уларнинг малакаси, маълумоти, иш тажрибасига қараб йул тутилиши кабилар аниқ қилиб ёзиб қўйилган.

1921 йил 17 апрелда “Бухоро ахбори” саҳифаларда босилган хабарда “Халқ Нозирлар Шўросининг охириги мажлисида 25 ёшгача бўлган кишиларнинг ўқишга мажбурий эканлиги тўғрисида қарор қабул қилинган. Қарорда ишламасидан қатъи назар, БХСРда барча учун савод чиқариш мажбурий қилиб қўйилган. [1;23] Бухорода бир неча янги тартиб мактаблари очилган эди. Бу мактабларнинг ҳар бирига 40-50 бола келиб ўқир эди. Лекин ҳар куни ҳар тарафдан босқин ва таъқиблар бўлса ҳам бу мактабларга бола келиши камаймади. Вақт ўтиши билан халқнинг фикри бу мактабларга нисбатан ижобий томонга ўзгарди.. Кейинчалик бу мактабларга алоқаси бўлмаган шахслар ҳам моддий ёрдам беришиб, мактаб таъминотини ўз зиммаларига олишди.

Мактаблар ҳақида умумий қоидалар (Қоидалар)да ёзилишича Мактаб болалари учун кийимлар ва текин овқатлантириш тартиби жорий қилинган, маълум миқдорда солиқ тўловлардан озод қилинган. Маориф нозирлиги томонидан БХСРда мактаб таълими тўғрисида низом лойиҳаси ишлаб чиқилди. [2;87] БХСРда мактаб ислохотлари билан мактаб бўлими шуғулланган.

Хулоса қилиб айтганда, БХСР томонидан мактабларни ислоҳ қилиш масаласи юзасидан қабул қилинган Қоидалар ҳозирги замон руҳи билан ҳамоҳанг эканлиги яққол кўзга ташланади. Айниқса, таълимнинг шакллари, таълим-тарбия усуллари, ҳатто, бир синфдаги ўқувчилар сони кабилар замонавий таълим тизими ва жараёни талаблари билан уйғун келади. Қоидаларни таҳлил қилар эканмиз, унда истиқболда таълим-тарбия тизимида ахлоқий таълим-тарбияга, ўқувчилар маънавий камоллигига алоҳида эътибор берилганлигининг гувоҳи бўламиз.

## REFERENCES

1. Bobojonova, B. (2022). IDIOMS AND THEIR IMPORTANCE. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 573-576.
2. Бобожонова, Ф. Х. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАЪНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. *Scientific progress*, 2(1), 362-366..
3. Bobojonova, F. (2020). Buxoro amirligidagi madrasalarning qurulishi, moddiy-hojalik taminoti va faoliyatini tashkil qilish masalalari. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1).
4. Bobojonova, F. Issues of construction, material security and organization of activities of madrasas in the Emirate of Bukhara. 2020. *B-213*.
5. Bobojonova, F. X. Bukhara madrassas are a masterpiece of spirituality. *SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 2021. R-362-366*.
6. Bobojonova, F. (2021). Buxoro madrasalari manaviyat durdorasi. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 6(6).
7. Xayatovna, B. F. (2022). The Issues of Construction of the Bukharan Madrassas, Their Material and Organization of Their Activity. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(4), 1-11.
8. Bobojonova, F. (2021). Бухоро амирлигидаги янги усул мактабларининг фаолияти. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
9. Bobojonova, F. (2021). Деятельность школ джадидов в бухарском эмирате в начале XX века. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
10. Bobojonova, F. (2021). Строительство, материальное обеспечение и организация деятельности бухарского медресе. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
11. Bobojonova, F. (2020). Buxoro amirligida XIX asr oxiri XX asr boshlarida ananaviy boshlsngich maktablar holati. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1).
12. Бабаджанова, Ф. Х. (2022). БУХОРОДАГИ МИР-АРАБ МАДРАСАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1).
13. Khayatovna B. F. et al. Madrasahs and Taught Subjects in the Bukhara Emirate in the Late 19th-Early 20th Centuries //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 18-24.
14. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 495-497.
15. Umarov, B. (2022). БУХОРО ВОҶАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 22(22).
16. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.



17. BAXTISHOD, U., & ULUG‘BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
18. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
19. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
20. Umarov, B. (2021). OLIY TA‘LIMDA TALABALAR O ‘QUV-BILUV FAOLIYATINING PSIXODIDAKTIK ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

## MUNCHOQTEPA ARXEOLGIK KOMPLEKSI VA UNING TAVSIFI

Abduvaliyeva Nozimaxon Abdushukur qizi

Fargʻona davlat universiteti, arxeologiya mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7985805>

**Annotatsiya.** Maqolada insoniyat tarixida oʻlim bilan bogʻliq marosimlarga alohida eʼtibor berib kelganligi hamda dafn etish bilan bogʻliq har xil urf-odatlarini arxeologiya fani etnografiya fani bilan hamkorlikda tadqiq etishi zarurligi tushunirilgan. Oʻlkamizda bu haqida toʻlaqonli maʼlumotlar berishi mumkin boʻlgan materiallarni oʻrganishda - Munchoqtepa mozorini topilishi muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Maqolada professor B. Matboboyev tomonidan tadqiq qilingan qamish tobutlarga solib dafn etilgan marhumlar bilan bogʻliq marosimlar taxlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Munchoqtepa, marosim, urf-odatlar, etnografiya, arxeologiya, tobutlar.

### MUNCHOQTEPA ARCHAEOLOGICAL COMPLEX AND ITS DESCRIPTION

**Abstract.** In the article, it is explained that in the history of mankind, special attention has been paid to rituals related to death, and it is necessary to research various traditions related to burial by the science of archeology in cooperation with the science of ethnography. The discovery of the Munchaktep tomb was of great importance in the study of materials that could provide complete information about this in our country. The article analyzes the rites related to the dead buried in reed coffins researched by Professor B. Matboboev.

**Keywords:** Bead mound, ceremony, customs, ethnography, archeology, coffins.

### МУНЧОКТЕПСКИЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ КОМПЛЕКС И ЕГО ОПИСАНИЕ

**Аннотация.** В статье поясняется, что в истории человечества особое внимание уделялось обрядам, связанным со смертью, и необходимо исследовать различные традиции, связанные с погребением, наукой археологией во взаимодействии с наукой этнографией. Открытие гробницы Мунчактеп имело большое значение в изучении материалов, которые могли бы дать полные сведения об этом в нашей стране. В статье анализируются обряды, связанные с погребением умерших в тростниковых гробах, исследованные профессором Б. Матбобоевым.

**Ключевые слова:** Бусинный курган, обряд, обычаи, этнография, археология, гробы.

**Kirish.** Insoniyat butun tarixi davomida oʻlim bilan bogʻliq marosimlarga alohida eʼtibor berib kelgan. Oʻz qavmlarini mavjud rasm-rusumlarga qatʼiy rioya qilgan holda soʻnggi yoʻlga kuzatganlar. Dafn etish bilan bogʻliq har xil urf-odatlarini asosan arxeologiya etnografiya fani bilan hamkorlikda tadqiq etadi. Chunki etnografiya bilan arxeologiya bu sohada bir-birini boyitadi va qadim tariximiz uchun toʻlaqonli maʼlumotlar berishi mumkin. Bu boradagi etnografik va arxeologik materiallarni oʻziga xos «yerosti muzeyi» — Munchoqtepa mozorini topilishi muhim ahamiyatga ega boʻldi. Qadimgi mozorda (IV–V–VII asrlar) murakkab muhandislik inshootlari boʻlmish yerosti sagʻanalari va ularda ajoyib saqlangan qamishdan tayyorlangan tobutlar aniqlangan [7]. Quyida professor B. Matboboyev tomonidan tadqiq qilingan qamish tobutlarga solib dafn etilgan marhumlar bilan bogʻliq marosimlarga toʻxtalangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Avvalam bor sagʻanalar qurilishi haqida. Munchoqtepadagi sagʻanalarining barchasi (kovlab ochilganlari 8ta) tepalik yon tomonidan tabiiy

yer (materik) qatlamga o'yib yasalgan. Sag'analarni katta-kichikligiga qarab, ularda 1 tadan 50 tagacha jasadlar ustma-ust qilib dafn etilgan. Sag'analar qurilishi uchun umumiy bo'lgan bir narsa bor, ya'ni ular tuzilish jihatidan uch qismdan iborat:

1. Sag'ana old tomoni (предвходная площадка);
2. Sag'ana yo'lagi (дромос);
3. Murda qo'yiladigan joy (погребальная камера) [8].

1. Sag'ana old qismi — bo'lajak qabr inshootining kiraverish joyi bo'lib, qurilish davomidagi ishlar uchun 12-15 kv.m sathdan maxsus tayyorlangan maydon. Bu maydon uchta sag'anada, ayniqsa, 9-sag'anada yaxshi saqlangan. Arxeologik dalillarga ko'ra ba'zi sag'analar old qismiga maxsus inshoot bunyod qilingan, uni portal qismi deyish ham mumkin. Xom g'ishtdan tiklangan bu qurilmaning uzunligi 1,65 m; eni 2,50 m; balindligi 1,25 m. Bu qurilmalar faqat mayda sag'analarning old qismida topilgan, xolos.

2. Sag'ana yo'lagi — o'liklar qo'yiladigan joyga o'tishga mo'ljallangan.

5-sag'anada yo'lak juda yaxshi saqlangan: uni shifti gumbazsimon, ikki yontomoni esa qalin somonli loy bilan suvalgan. Yo'lakda bir kishi engashgan holda yurishi mumkin. Yana yo'lak o'rta qismida shiftni biroz ostidan har ikki tomondan ikkitadan teshik qolgan, ularda yog'och qoldiqlari saqlangan. Aynan ularga parallel qilib pol sirtiga tarnov o'yilgan. Bundan moslama 9-sag'ana yo'lak qismida ham aniqlandi. Yo'lakni o'rtasidagi ushbu qurilma murda qo'yiladigan joyni tashqi «tiriklar dunyosidan» saqlash uchun qilingan timsoliy eshik (darvoza) yoki bir vaqtni o'zida ostona va vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Ostonani dunyoviy inshootlarda qanchalik ulug'langanligini biz yaxshi bilamiz. Shularga asoslanib yuqoridagi qayd etilgan qurilmalar yengil eshik o'rnidir, deyish mumkin.

3. O'liklar dafn etiladigan joy. Unga yo'lak oxiridagi maxsus zinapoya orqali kirilgan. Zitsapoyalar 1-sag'anada qisman, 5 va 9-sag'analarda butunlay saqlanib qolgan, ustki tomonlari qalin loy bilan suvalib mustahkam qilingan 2-3 pog'onadan iborat. Kichik sag'analarda dafn joylari yumaloq va tuxum shaklida bo'lishi mumkin, kattalarida esa to'rtburchak ekanligi kuzatildi. Qurilishda biror material (yog'och, guvala, g'isht) ishlatilmagan bo'lsada devorlari juda tekis va silliq, shifti esa gumbazsimon qilib yasalgan. Faqat birgina 9-sag'anada dafn qilinadigan joyni sharqiy devorida o'yib bejirim ishlangan tokcha bor (o'lchamlari: uzunligi 1,75 m, eni 0,80 m, balandligi 0,55 m). Tokchada hech narsa yoki uni izlari aniqlanmadi. Ushbu tokcha vazifasini aniqlashda ikki xil taxmin bo'lishi mumkin. Birinchidan, vafot etgan odam dastlab tokchaga qo'yilib belgilangan urf-odatlar yoki diniy rasm-rusumlar bajarilgan va so'ngra marhum sag'ana poliga qo'yilgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, marhum dastlab qamish tobut bilan bu yerda ma'lum vaqt qoldirilgan, bu 10, 15, 20, 40 kun bo'lishi ehtimol. Belgilangan muddat o'tgandan keyin jasad sag'ana poliga qo'yilgan. Boshqacha aytganda, marhumning o'liklar dunyosiga kuzatishda o'ziga xos «ko'prik» vazifasini bajargan deyish mumkin.

**Muhokama va natijalar.** Sag'analar qurilishi osonlikcha bo'lmagan, ular katta mehnat evaziga bunyod etilgan. Sabab sag'analar tarkibi juda qattiq bo'lgan materik qatlamga «shaxtyorlar shtolnisiga» o'xshatib qirqib yasaganlar. Boshqa mozor-qo'rgonlardagi qabrlarni qazishga ketgan vaqtni hisob-kitobdan va elshunoslik ma'lumotlaridan foydalanib Munchoqtepadagi sag'analarni kovlab bitirishga ketgan vaqtni hisoblab chiqdik. Jumladan 5-sag'ana old qismida 7,2 kub. metr, yo'lagida 1,1 5 kub.metr, jasadlar qo'yiladigan joyda 29,81kub. metr, jami 38,16 kub. metr tuproq ishlari amalga oshirilgan. Bu yerda o'rtacha va

murakkab darajadagi turkumga kiruvchi ishlar bajarilgan. Agar tuproq ishlarini odam ish kuniga aylantirsak 5-sag'anani bitirishga 45—60 odam ko'pi ketganligi kelib chiqadi. Qurilishga ketgan vaqtni aniqligini qay darajadiligiga qaramay biz uchun ularni bir muhim tomoni bor. Ya'ni sag'anani qurishga ketgan vaqt va ishlar ko'lamini bir oila — katta urug' bemaol amalga oshirishi mumkin degan xulosaga kelamiz. Sag'analar shakliga kelsak, ularda quruvchilar marhumlarni hayotligidagi uylarni shakl-shamoyillarini qabrlarda (ayniqsa katta sag'analarda) ham takrorlashga harakat qilganlar. Ya'ni real uy-joylarni yerosti modellari qilingan, ular konstruksiyasi yerostiga ham ko'chirilgan [3]. Umuman Munchoqtepadagi sag'analarni qurgan qadimgi aholi yashagan jamoada oila, urug'-aymoqchilik munosabatlari rivojlangan va ajdodlar ruhiga sig'inish odati kuchli bo'lgan. Bu narsa hatto qabr inshootlari qurilishida ham aks etgan. Jumladan yuqorida tilga olingan timsoliy eshik va ostonaga berilgan e'tiborni ta'kidlaymiz. Qolaversa ostonaga va o'choq qadim zamonlardan ko'p xalqlarda ajdodlar ruhi yashaydigan joy hisoblangan [1]. O'rta Osiyoda bo'lsa: ostonaga ajdodlarga sig'inish bilan bog'lanadi [2]. Xullas, sag'analarni qurganlar marhumlarni hayotligidagi turush-turmushlarini yerostiga ko'chirmoqchi bo'lganlar.

Mashaqqatli mehnatlar orqali qurilgan sag'analar poliga marhumlar uch xil yo'l bilan dafn qilinganlar. Asosan qamish tobutga solib ko'mish, keyingisi savatlarga qo'yish va so'nggisi yerga yoki maxsus o'shamaga dafn etish bo'lgan. Savatga asosan yosh bolalar qo'yilgan. Bu odatni Farg'onada mahalliy asosi hozircha aniqlangani yo'q, lekin u qadim vaqtlardan dunyo xalqlarida masalan, qadimgi dehqonchilik jamoalarida tarqalgan. Munchoqtepada ikkita savatga solingan jasad, topilgan bo'lsa, ular ayol tobuti ustiga qo'yilgan edi. Bu bilan tobut va uni ustidagi savat (tobut) o'rtasidagi oilaviy yainlikni ko'rsatishga intilgan ko'rinadilar (ona—bola?). Yerga to'shama qamish tobutlar siz dafn etish sag'analarni eng dastlabki davriga taalluqlidir. Nihoyat, qamish tobutlarga solib dafn etilganlarni eng yaxshi saqlangani 5-sag'anada, bir marta yakka tartibda qo'yilgan yorma go'rdi, tobut qoldiqlari esa ba'zi sag'analarda (№ 9) ham topilgan. Qamish tobutlarni qanday yasalganiga to'xtalmay u bilan bog'liq bo'lgan jarayonni ta'kid etamiz.

Tobut yasash bilan maxsus odamlar shug'ullanishgan bo'lishi kerak. Bunday deydikimizga sabab birinchidan, uni tayyorlash juda murakkab va sermehnat ish, ikkinchidan, tobutlar tayyorlashda ancha bir xillik ko'zga tashlanadi.

Tobutlar ichiga marhum chalqanchasiga yotqizilib ust-boshi, taqinchoqlari, qurol-yarog'i, mehnat qurollari, savatlarga solingan oziq-ovqatlari bilan qo'yilganlar va ustidan belbog' bilan bog'lab qo'yilgan. Tobutlardan tashqarida hajmi kattaroq bo'lgan sopol yoki yog'och idishlar, jimjimador qilib to'qilgan savatlar uchraydi. Eng muhimi bu yerdan ipak, paxta, junmatolar va charm qoldiqlari aniqlandi. Sag'ana egalari dafn etiladigan joydan juda unumli foydalanganlar.

Avval, yuza qismiga to'lguncha bir qator qamish tobutlar qo'yilgan. Ular ustiga ezilib ketmaslik uchun 60—80 sm uzunlikdagi yog'ochlar tashlangan. Yog'och ustnga keyingi qator tobutlar taxlangan va shu tariqa tobutlar ustma-ust qo'yilgan. 5-sag'anada bir-biri ustiga taxlangan besh qator tobutlar topildi. Qamish tobutlarga solib ko'milganlar dafn marosimida quyidagi urf-odatlarining izlari aniqlandi.

1. Ba'zi jasadlar bosh ostida maxsus «to'shama» — yostiq qoldiqlari aniqlangan. Ayrimlarga o'simlik poyasi dumboqchalanib qo'yilgan bo'lsa, ba'zilarida yostiq sifatida paxtali matodan foydalanilgan. Bu odat Farg'ona vodiysida va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bronza davridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda. «Yostiqlar» tuproq, shag'al, loy, tosh,

o‘simlik poyalari, to‘qima matolarda ipak, paxta) tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Vodiya eng qadimgi yostiq to‘shama Chust madaniyatiga (eramizdan ilgari X—VIII asrlar) tegishli qabrda topilgan: jasad boshi ostiga boshqoqli ekin poyasi yumaloqlab to‘shalgandi [9].

Keyingi davr Eylaton-Oqtom (eramizdai ilgari VI-IV asrlar) yogorliklarida toshdan antik davr mozorlari bo‘linishi Qorabuloqda archa shoxlaridan va poxoldan, Kenko‘lda o‘simlik bog‘lamidan, Go‘rmironda shag‘aldan to‘shama-yostiqlar bo‘lgan. Bu narsa keyingi davrlarni (ilk ko‘rta, o‘rta, so‘nggi o‘rta asrlar) to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda. Bosh ostiga qo‘yilgan xilma-xil to‘shama-yostiqlarni umumlishtirgan tahlili bu odatni juda qadimiyligi va konservativ ruhdaligini ko‘rsatmoqda. Bizningcha yostiq qo‘yish odati – o‘lganlarga ularning yaqinlarini g‘amxo‘rligining bir ko‘rinishidir, boshqachasiga marhumlarga iloji boricha «komfort» — qulaylik yaratib berish deb qarash kerak. Albatta, keyinchalik bular orasiga ba‘zi diniy tushunchalar ham singdirilgan bo‘lishi tabiiy.

2. Ayrim jasadlar bosh qismida yuz parda – yuz pana (litsevo yepokrivalo)lar mavjudligi aniqlandi. U to‘rtburchak shaklga ega. O‘lchamlari 30–35 sm, juda yupqa, nafis ipakdan tayyorlangan va marhum yuz qismini to‘laligicha yopgan. Yuz pardalar Farg‘ona va unga qo‘shni rayonlarda uchraydi. Masalan, o‘sha Qorabuloq mozorida, Borkorboz va Kenko‘l mozorlarida ham bo‘lgan. Matodan qilingan yuz-pardalarni bir nechtasi Sharqiy Turkistondagi (Sinsyan Uyg‘ur avtonom respublikasi) Astana, Qora Xo‘ja, Yor Xoto kabi qadimgi mozorlarda ham aniqlangan. Ulardagi topilmalarni umumlishtirgan YE.I.Lubo-Lesnichenko yuzpardalarni haqli ravishda O‘rta Osiyoda tarqalgan deydi [6].

Sharqiy Turkistondagi eng dastlabki yuzparda qabrda topilgan yozuvga ko‘ra 384-yil, so‘nggisi 710-yil bilan belgilangan. Lekin bu yuzpardalar Munchoqtepadagidan farqli o‘larok ko‘zto‘sqichlar-ko‘zpanalar (naglazniki ) bilan birga uchraydi. Ular kumush va qo‘rg‘oshin plastinkalaridan ko‘zoynakka o‘xshagan qirg‘ilgan bo‘lib, ko‘z qorachig‘i o‘rnida mayda-mayda teshikchalar qilingan. Ular yuz pardalari ostidan ham, ustidan ham qo‘yilishi mumkinligi qabrlarda qayd etilgan. Yuzpardalar bilan ko‘zto‘siqlarni birga uchrashi Qorabuloq mozorida ham aniqlangan. Astana va Qorabuloqda yuzpardalar o‘rta qismi har xil rangli ipakdan qilingan bo‘lib uni to‘rt atrofiga bir rangli ipak choklangan. Ba‘zida Sharqiy Turkistondagi yuzpardalar ganchkor har tomondan silliq astar ham biriktirilgan.

Qorabuloqda esa ko‘zto‘sqichlar ipak matodan qilingan, ko‘zqorachiqlari o‘rniga mayda «yostiqcha» tikilgan. Bundan tashqari Qorabuloqda ayrim marhumlar yuzi qizil rangli ipakdan tasvirlangan yuzpardalar bilan yopilgandi. Munchoqtepada topilgan pardalar Sharqiy Turkistondagilarga o‘xshab ketadi. Qorabuloqdagi yuzpardalarga juda yaqin turadi.

Xronologik jihatdan olsak, yuzini va ko‘zini to‘sib qo‘yish odati biz solishtirib ko‘rgan yodgorliklarda quyidagicha: dastlab Qorabuloqda, keyinroq Astanada va Munchoqtelada tarqalgan. Yuz va ko‘z to‘sqichlarni bajargan vazifasiga kelsak, marhumlar tiriklar dunyosiga endi qaytishga yo‘l topa olmasin, degan maqsadda pardalar ishlatilgan bo‘lishi kerak.

3. Ba‘zi jasadlar peshona qismida peshonabandni eslatuvchi ipak lenta qayd etilgan. Eni 5-7 sm ga boradi. Ehtimol bu bosh kiyimi qoldig‘dir yoki marosim-lar bilan bog‘liq narsadir. Chunki Munchoqtepadagi qabrlarda peshonada ipak len ta hamma marhumlarda aniqlangan emas.

4. Ayrim dafn qilinganlarni qamish tobutidan ko‘plab o‘simlik qoldiqlari (ba‘zida urug‘lari bilan) chiqdi. Bu o‘simlik poyalari va urug‘ qoldiqlari paleo-botaniklar tomonidan aniqlandi. Ular yalpiz va yovvoyi murch bo‘lib chiqdi.



Marhum bilan o'simlik qo'yilishini elshunoslar ancha to'liq o'rganganlar. Yaqin o'tmishda, hozirda ham kafan ustiga rayhon qo'yishgan. Elshunoslar buni dehqonchilik e'tiqodlari bilan bog'laydilar. Munchoqtepadagi o'simlik qoldiqla-ridan birini yalpizligi haqiqatga yaqinroq, chunki ba'zi manbalarda rayhon bir oz keyinroq keng iste'molda bo'lgan degan fikrlar mavjud. Demak, maxsus qurilgan sag'analarga qamishlardan tobut yasab marhumlar hurmati joyiga keltirilib dafn qilingan ekanlar.

Albatta, Farg'onada ushbu odat qachon va qayerdan paydo bo'lgan degan savol tug'iladi. Tobutga solib ko'mish qadimdan keng tarqalgan odatdir. U ko'chmanchn yoki kelib chiqishi chorvadorlar bilan bog'liq bo'lgan urug'-elatlarda ko'proq tarqalgan. Tobutnn toshdan, sopoldan, yog'ochdan yasalganlari o'zimizda va xorijda topilgan [5]. Lekin qamishdan tayyorlanganlari deyarli uchramagan. To'g'ri, A.N.Bernshtam Oloy vohasining Maasha degan joydagi mozor-qo'rg'onlarning birida chakanda shox-shabbalaridan to'qilgan tobutni tilga olib o'tadi. Lekin bizlar uni na shak-lini, na chizmasini batafsil bilamiz, qolaversa qazishmani olib borgan tadqiqotchi yog'ochdan to'qilgan tobut to'g'risida yozadi". Yana Munchoqtepadagilarga yasalishi jihatidan yaqin tobutlar Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasini 60-yillardagi materiallarida uchramiz: «tobutlar qamish va yupqa yog'och plyonkalaridan to'qilgan...» [10]. O'sha joyda, quyi Sirdaryoni Quvondaryo irmog'i bo'ylaridagi Jettiasar madaniyatiga taalluqli qabrlarda ham uchraydi. Lekin tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra Jettiasarda yakka tartibdagi qabrlarda ham, sag'analarda ham o'liklar qamish bo'yralarga o'ralib ko'milganga o'xshaydi [4].

Yuqorida keltirilgan o'xshashliklarga qaramay qamish tobutlarni kelib chi-qishiga asos bo'ladigan boshqa biror dalil hozircha bizlarga ma'lum emas. Ushbuni hisobga olib, Munchoqtepadagi tobutlarni kelib chiqishini mahalliy asosga bog'lash mumkin. Chunki, birinchidan Farg'onani o'zida tobutga qo'yib ko'mish odati ancha keng tarqalgan, 10dan ortiq mozorda shu udum bo'lganlngini tasdiqlovchi ashyoviy dalillar bor. Ikkinchidan, Janubiy Farg'onani Qorabuloq va shunga o'xshash mo-zorlardagi yorma go'rlarda yog'och tobutlar uchraydi.

Munchoqtepa va Qorabuloq o'rtasida yana bir necha o'xshashliklar bor. Qorabuloq materiallari Munchoqtepadan bnr oz oldinroq vaqtga (eramizni I—IV—V asrlar) to'g'ri keladi. Buni hisobga olgan holda B.Matboboyev «qorabuloqliklar» ma'lum qismi shimol tomonga siljishgan bo'lishlari kerak deb o'ylaydi. O'zlari bilan o'sha tobutga so-lib ko'mish odatini ham olib kelishgan bo'lsa kerak. O'z navbatida Munchoqtepadagi yorma go'rlarga qamishdan qilingan tobutga qo'yib ko'mish ham balki shu bilan izohlanar [8].

Dastlab yakka tartibda qo'ynilgan marhumlarda rioya etilgan urf-odat ma'lum vaqt o'tgach sag'analarda qo'llanila boshlangan. Sag'analarga kelsak ular jamoa dafn qilishga mo'ljallangan inshoot hisoblanib ko'proq bir qavm — urug' uchun qurilgan bo'ladi. Farg'ona vodiysida bunday jamoa dafn joylari Munchoqtepadan oldingi davr uchun ma'lum emas. Lekin juda uzoq davrda ya'ni eradan ilgari II ming yillik oxirgi choragiga oid Qashqarchi mozorida urug'-aymoqlar ko'milgan sag'analar topilgan. Albatta, bular orasida katta tarixiy vaqtda uzilish bor, bir-biriga bog'liqlik darajasi haqida gapirish albatta mushkul. Farg'ona sag'ana-lari bilan Ustrushonadagi Qurqat, Chog'aniyondagi Bittesha kabi sag'analar o'rtasida ko'p o'xshashliklar bor. Qolaversa ular deyarli bir davrga to'g'ri keladi. O'zini qurilish uslubi, shakliga ko'ra Shimoliy Farg'ona sag'analari qo'shni Choch (Toshkent) vohasidagilarga yaqin turadi. Chochda yer osti sag'analari

tabiiy yer va telaliklar qatlamlarida qirqib yasalgan, jasadlar chalqanchasiga yotqizilib dafn etilgan.

Demak, hozirgi kunda Munchoqtepa sagʻanalariga har tomondan eng yaqini Choch vohasidagi ana shunday inshootlar boʻlib qolmoqda. Choch sagʻanalarini dastlabkilari eramizning III—IV asrlariga toʻgʻri keladi. Yuqoridagilarni hisobga olib Shimoliy Fargʻonadagi sagʻanalarga qoʻshni Choch taʻsiri kuchli boʻlgan degan fikrni aytish mumkin. Masalani ikkinchi tomoni, yaʼni nima uchun munchoqtepaliklar dafn marosimida yakka tartibda koʻmish odatidan jamoa qabr inshootlariga oʻtgani toʻgʻrisida aniq fikr aytish qiyin. Faqat buni oʻsha ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlarga olib kelgan etnik jarayonlar bilan bogʻlash мумкин [8], deydi B.Matboboyev.

Masalan, yuqorida tilga olingan Jettiasar madaniyati qadimgi aholisining bir qismi milodiy erani boshlaridan Sirdaryo yuqori oqimi boʻylariga siljiy boshlaydilar. Buni taʻsirida Sirdaryo oʻrta oqimida va umuman daryoboʻyi rayonlarida dafn marosimlarida xilma-xillik, ayrim joylarda esa umuman yangi urf-odatlar paydo boʻladi. Ayni xuddi shu jarayon Sirdaryo yuqori oqimida joylashgan Munchoqtepa sagʻanalari misolida kuzatilyapti.

Sagʻana sohiblarni mozorga yaqin boʻlgan Balandtepa shahar xarobasi (hozirgi Pop shahri qadimiy oʻrni)da yashaganlar. Buni tasdiqlovchi ashyoviy dalillar shahar xarobasida oʻtkazilgan qazishmalar natijasida koʻplab topilgan. Ushbu aholini elshunoslik maʼlumotlariga tayangan holda, arxeologik topilmalarga asoslanib oʻtmishda oʻtroqlashgan koʻchmanchilar avlodi deb qarash mumkin boʻladi. Ular dehqonchilik rayonlari yaqinida yashaganlar. Dehqonchilik, chorvachilik kamdan-kam hollarda baliqchilik bilan shugʻullanganlar. Vaqt oʻtishi bilan ularda oʻtroqlashish kuchaygan, oʻz chorva mollarni mavsumiy yaylovlarda saqlab dehqonchilikka eʼtiborni qaratganlar. Asta-sekin dehqonchilik rayonlari iqtisodiyotida asosiy rol oʻynay boshlaganlar. Bu aholining moddiy madaniyatni — bir tomondan, Sharqiy Turkiston va Fargʻona vodiysidagi yorma-lahadli qabrlar boʻlgan mozlarga dafn qilingan aholi madaniyatni, ikkinchi tomondan, Sirdaryo boʻyi rayonlarining taʻsirida boʻlgan. Bunga mozor joylashgan joʻgʻrofiy nuqta ham sabab boʻlgan boʻlishi ehtimol.

**Xulosa.** Munchoqtepa joylashgan hudud uzoq vaqt va doimiy ravishda Choch va Fargʻona, Fargʻona va Sharqiy Turkiston qolaversa dehqonlar va chorvadorlar manfaatini birlashtiruvchi nuqta edi. Aynan xuddi shu makonda antik va ilk oʻrta asrlarda forpost — tayanch shaharlar paydo boʻladi. Bular jumlasiga antik va ilk oʻrta asrlar Popi (Bab), sal keyinroq Mugʻ qalʼa kiradi. Markaziy Fargʻona tomondan bunday shahar rolini ilk oʻrta asrlardan boshlab Axsikent bajarganligi arxeolog olimlar tomonidan qayd qilinadi. Bu shaharlardan shimol va gʻarb tomonlarga qarab yurilsa chorvador-koʻchmanchi aholiga, qarama-qarshi tomonga boʻlsa, Fargʻonaning qadimgi dehqonchilik rayonlariga kirib boriladi.

## REFERENCES

1. Алекшин В.А. Социальная структура и погребальный обряд древнеземледельческих обществ. – Л., 1986. – С. 152.
2. Ахуйбаба в Х.Г. Об одном согдийском обычае// История материальной культуры Узбекистана. №23. 1990. – С. 199-207.
3. Кызласов И.Л. Мировоззренческая основа погребального обряда // Советская археология. 1993.№1. – С. 98-111.

4. Левина Л.М. Памятники Джетыясарской культуры середины I тысячелетия до н.э.—середины I тысячелетия н.э.//Степная полоса Азиатской части в скифо-сарматское время. /Археология СССР. – М., 1992. – С. 61-72.
5. Литвинский Б.А. Погребальные сооружения и погребальная практика в Парфии (К вопросу о парфяно-бактрийских соответствиях) // Средняя Азия, Кавказ из зарубежный Восток в древности. – М., 1933. – С.81-138.
6. Лубо-Лесниченко Е.И. Могильник Астана. Восточный Туркестани Средняя Азия. – М., 1984. – С.108-120.
7. Матбобоев Б.Х. Шимолий Фаргонанинг қадимги мозорларини ўрганишга доир (Ғовасой ва Косонсой ҳавзалари) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1993, №6. – Б. 19-23.
8. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонадаги дафн маросимлари. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. №5, 1994. – Б. 47-52.
9. Спришевский В.И. Чустское поселение( к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис.... канд. ист. наук. Ташкент, 1963. – С.16.
10. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958-1961 гг. // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып.6. – М.,1963. – С.52.

## ANAFORALAR NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

**Berdimurodova Tursunoy O`ral qizi**

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7989573>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbek tilida tinglovchini nutq jarayoniga undash, badiiy matn xususiyatlarini ochib berish O`zbek tilshunosligida anafora va uning qo`llanilish vazifasi haqida bayon etilgan. SHuningdek, badiiy matnning til va uslubiy xususiyatlari, anaforaning badiiy matndagi o`ziga xoslik tamoyillari o`rganilgan hamda anafora va epiforaning o`ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Anafora (yunonchadan anaphora – oldinga, yuqoriga chiqarish), badiiy matn, matnning lingvistik xususiyatlari, evfoniya, alliteratsiya, assonans, she`riyatda evfoniya, nasrda evfoniya, anaforalarning qo`llanilishi.

### ANAPHORA AS A MEANS OF FORMING SPEECH CULTURE

**Abstract.** This article describes the function of anaphora and its use in Uzbek linguistics to encourage the listener to speak in Uzbek language, to reveal the features of the artistic text. In addition, linguistic and stylistic features of the artistic text, the principles of the uniqueness of anaphora in the artistic text were studied, and the unique features of anaphora and epiphora were revealed.

**Key words:** Anaphora (from the Greek anaphora - forward, upward), artistic text, linguistic features of the text, euphony, alliteration, assonance, euphony in poetry, euphony in prose, the use of anaphora.

### АНАФОРА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В данной статье описывается функция анафоры и ее использование в узбекском языкознании для побуждения слушателя к говорению на узбекском языке, для выявления особенностей художественного текста. Кроме того, были изучены лингвистические и стилистические особенности художественного текста, принципы своеобразия анафоры в художественном тексте, выявлены своеобразные черты анафоры и эпифоры.

**Ключевые слова:** Анафора (от греч. anaphora — вперед, вверх), художественный текст, языковые особенности текста, благозвучие, аллитерация, ассонанс, благозвучие в поэзии, благозвучие в прозе, употребление анафоры.

Tilshunoslikning alohida sohasi sifatida izchil rivojlanib kelayotgan yo`nalishlardan biri bu- matn lingvistikasi hisoblanadi.

**Anafora** (yunonchadan anaphora – oldinga, yuqoriga chiqarish) – so`z yoki so`zlar guruhining misra va band boshida takrorlanishi, so`z takrorining xususiy ko`rinishidir. Anafora ma`lum fikr, his-tuyg`u, holat va harakatni ta`kidlab ko`rsatishga xizmat qiladi, tabiiy ravishda, she`rning xushohangligini ham oshiradi. Masalan, atoqli yozuvchi Oybekning “O`zbekiston” nomli she`rida anaforaning yorqin na`munasini ko`rishimiz mumkin.

Bir o`lkaki, tuprog`ida oltin gullaydi,

Bir o`lkaki, qishlarida shivirlar bahor,

Bir o`lkaki, sal ko`rmasa, quyosh sog`inar

Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.

Ijodkor Oybek qalamiga mansub ushbu parcha bilan tanishar ekanmiz, vatan tuyg'usi shoir uchun qanchalik ulug' tuyg'u ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Ijodkor she'ni:

“Tuproq`ida oltin gullaydi,  
Qishlarida bahor shivirlaydi,  
Sal ko`rmasa quyosh sog`inadi,

G'ayratidan asabi chaqnaydi” tarzida boshlashi mumkin edi, ammo har misra boshida so`z takrorini qo`llab she`rning ta`sir kuchini yanada oshirgan. Anafora orqali yozuvchi vatanini shunchaki yaxshi ko`rmay, balki muqaddas yurtini, ajoyib o`lkasini o`zgacha bir shoirona ruh bilan sevishini ko`rishimiz mumkin.

Bu parchada anafora she`rga qanchalik ko`tarinkilik kayfiyatini bersa, endigi parchada biz buning aksini ko`ramiz. XX asr o`zbek she`riyatining o`ziga xos vakili, millatparvar shoir Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she`ridan olingan parchaga e`tabor qaratsak.

Tug`ildi,  
tug`ildi,  
tug`ildi qullar,  
qirqida qirilgan-imdodga muhtoj,  
yovlarga ters qarab itlarday hurar,  
bir-biriga dushman,  
bir biridan koj.  
Jo`mardlar qilrilgan Turon zaminda  
Do`zaxiy tajriba pallasin ko`rdim...  
Bormi er yigitlar  
bormi er qizlar,  
bormi gul bag`ringda jo`mard nolalar  
bormi bul tufroqda o`zligin izlab,  
osmon-u falakka yetgan bolalar.  
Bor bo`lsa alarga yetkarib qo`ying,  
Bir boshga bir o`lim demagan musurmon ermas,  
Shahidlar o`lmaydi,  
Bir qarab tuing: Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!

“Turkiylar” she`rida bobolarga munosib bo`lmagan turkiy xalqlarga xos illatlar ayovsiz fosh etilgan. Shoir turkiylarning qulligidan shunchalik alamzada, go`yoo`sha davrga tushib qolgan-u o`z g`azabini bildirib, baralla ovozda ularni erk uchun kurashishga chorlamoqda. U millatning shu ahvolga tushishiga ularning o`zlarini sababchi qilib ko`rsatmoqda. Odatda matnlarda dushman haqida yomon fikrlar bo`ladi, ammo bu she`rda ijodkor turkiylarning o`zi haqida alamli gaplar aytgan. Ijodkor ichki kechinmalarini, butun bir millatning hayot yo`sinini tubdan o`zgartirish kerakligini anafora vositasi yuzaga chiqargan. Misra boshida shunchaki bir



marta soʻzni qoʻllash mumkin edi, ammo ijodkor bir soʻzni takror-takror aytyaptimi, demak bunga ehtiyoj bor.

Anaforaga yana bir yorqin misolni Halima Xudoyberdiyeva sheʼrlaridan topishimiz mumkin. Shoiri “Shunchaki” deb nomlangan sheʼrida soʻz takroridafoydalangan:

Shunchaki yozmoqqa koʻngil toʻlmaydi,  
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qoʻlim.  
Shunchaki yozganga chidab boʻlmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu shoirga oʻlim.

Takroriga stilistik vosita sifatida qaralib, ogʻzaki va yozma nutqning tashkil etuvchilari boʻlgan til birliklariga emotsional boʻyoq va sheʼriy ohang berish vazifasini bajarish taʼkidlanayapti. Bu fikrlarni shoiri Halima Ahmedovaning sheʼrlarida ham anaforani uchratamiz. Tilimizda mavjud har bir uslubda qoʻllanayotgan soʻz anglatgan maʼnoni tinglovchi yoxud oʻquvchi koʻz oʻngida yanada ravshanlashtirish asosiy oʻrin tutadi. Bunda anglashilayotgan maʼnoni taʼkidlab, alohida ajratib, zarur oʻrinlarda qayta qoʻllab bu natijaga erishish mumkin. Ana shu jihatga koʻra takror badiiy uslubda eng faol qoʻllaniladigan stilistik usullardan biridir.

Oldingi fikrlarda keltirib oʻtilganidek badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina maʼlum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, taʼkidlab koʻrsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda boʻlgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional boʻyoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat boʻlsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subyektiv munosabatini ham bera olishi kerak<sup>215</sup>.

Til birliklarining, xususan soʻz, baʼzan soʻz birikmasining qaysi oʻrinda takrorlanib kelishiga koʻra takrorning bir qancha turlari mavjud boʻlib, umumiy holda ular oʻttizga yaqinni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda takrorning alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, tavnologiya kabi turli xil koʻrinishlari farqlanadi. Shunga koʻra, sheʼr yoki bandning boshida kelgan soʻz, soʻz birikmasi yoki gap har bir misra yoki band boshida takrorlanib kelishi anaforani tashkil qiladi. Oʻrinli takrorlari, beqiyos jozibador ohangli misralari bilan adabiyot olamida alohida oʻrin tutgan shoiri Halima Ahmedova sheʼrlarida ham takrorning ushbu turi anaforadan koʻp bor foydalangan. Shubhasiz, bu orqali sheʼr jozibador ohang va boʻyoq bilan taʼminlangan. Shoiri qoʻllagan anaforalar soddaligi bilan sheʼrxonning koʻz oʻngida jonlanayotgan manzarani yanada ravshan va aniq koʻrinishda namoyon etadi:

Bunda oʻzin yoqqan qirq olti bahor  
Bu esa yodgordir qaysi gʻanimdan

<sup>215</sup> **Arnold I.V.** Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika. -L.: Prosvesheniye, 1973, s. 244.

**Arnold I.V.** Koʻrsatilgan asar, 244-245-betlar.

**Arnold I.V.** Koʻrsatilgan asar, 247-bet. Shuningdek, abzatsni ham sintaktik birlik, ayni paytda ham stilistik vosita sifatida talqin etish boshqa tadqiqotchilarda ham kuzatiladi.

Qar.: **Talmatskaya L.M.** Ekspressivno-stilisticheskaya funktsiya chleneniya na abzatsi v predislovii k romanu O.Uaylda “Portret Dorian Greya” / Pragmatiko-funksionalnoye issledovanie yazikov. –Kishinyov: Shtiintsa, 1987, s. 131-138.

Yana qar.: **Muxin A.M.** Struktura predlozheniya i ix modeli. –L.: Nauka, s. 211;

**Valgina N.S.** Sintaksis sovremennogo russkogo yazika. –M.: Visshaya shkola, 1973, 380; **Loseva L.M.** Kak stroitsya tekst. –M.: Prosvesheniye, 1980, s. 85.

Ko'zimga tik qarab o'sayotgan xor  
Bunda sukunat bor...  
Bunda bor umid.  
Hali jon berolmay qiynalayotgan  
Bunda bor kuzakdan ortgan maysalar  
Nenidir aytolmay qiynalayotgan.  
Bunda nur va zulmat bahsi qizigan  
Kun bermay yashaydi hech bir-biriga.

Shoiraning ushbu misralaridagi bunda so'zining takrorlanishi uslubiy jihatdan anaforani tashkil etgan bo'lsa, badiiy jihatdan she'rdagi fikrning ifodasini ta'kidlab ko'rsatish bilan bir qatorda ohangdorlikni ham ta'minlagan.

Poklaning...  
Bolalikning shaffof qalbida qolgan  
Nafis kapalakning qanoti bilan  
Tog'lar sog'inchini bo'zlab yig'lagan  
Qafasdagi kaklik bayoti bilan

Poklaning -  
Haqorat zanjirin uzolgan so'zning  
G'ururday otashin haroratida  
Ochlikni yupatgan gado ko'zida  
Porlab turgan nurning saodatida

Poklaning -  
Poklanish mumkin bemalol  
Soyga o'ynab tushgan oyning aksidan  
Harir pardasini shamol o'ynagan  
Qaro tunnning yorug' derazasidan  
Poklaning...

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, anafora nafaqat fikr ta'kidini kuchaytiruvchi stilistik vosita, balki she'rning kompozitsion asosini belgilovchi omil sifatida ham qo'llaniladi. Masalan, shoiraning "Poklaning" nomli mazkur she'rida ifodalanmoqchi bo'lgan fikr, muallifning xitobi har bir band birinchi misrasida takrorlangan poklaning so'zida aks etadi, va birgina shu so'zning o'zi orqali muallif nima demoqchiligi oydinlashadi. Navbatdagi satrlar esa bevosita birinchi misrani to'ldirib, izohlab boradi. Va shubhasiz so'z takrori jarayonida o'ziga xos ohang, ritm hosil bo'ladi.

Bu atama boshqa tillar kabi rus tiliga Qadimgi Yunonistondan kelgan va "takrorlash, qaytish, ko'tarilish, yakdil" kabi ma'nolarni anglatgan. A.N.Chudinov "Rus tilidagi xorijiy so'zlar lug'ati" asarida anaforani "Har bir jumlaning boshida bir yoki bir nechta so'zlarning alohida urg'u bilan takrorlanishidan iborat ritorik figura", -deb ta'riflagan.

Adabiy atamalar lug'atida anafora birin-ketin keluvchi misralar qatorida ham, ajratilgan misralarda ham kelishi mumkinligi aytilgan. Katta ensiklopedik lug'atda Anafora stilistik figura; nutqning qo'shni bo'laklari (so'zlar, satrlar, baytlar, iboralar) boshlang'ich qismlarini (tovushlar, so'zlar, sintaktik yoki ritmik konstruksiyalar) takrorlash", - deyilgan va A. S. Pushkinning asaridan quyidagi parcha misol qilib keltirilgan. Yam-yashil shahar, kambag'al shahar. Lingvistik

atamalar lug'atida esa har bir parallel qatorning boshida bir xil elementlarning takrorlanishidan iborat stilistik figuraligi aytib o'tilgan.

Azim Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da anaforaga quyidagicha ta'rif berilgan: Anafora (yunoncha anaphora-yuqoriga chiqarish). Parallel tuzilgan nutq parchalari (masalan, misralar) boshida aynan bir xil unsurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish. Unda tovushlar, so'zlar yoki ularning kombinatsiyalari takrorlanishi ritmik elementlarning boshiga to'g'ri keladi. Albatta, bu asosan she'riy satrlarda ko'proq qo'llanadi. Misol sifatida Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasidan olingan parchani keltirish mumkin:

Qon yig'ladi hattoki, ko'lida g'oz.  
Qonyig'ladi el, elat, urug` va aymoq,  
Qon yig'ladi dala-tuz, sahro, qir va bog`.  
Qon yig'ladi beshikda tilsiz norasta,  
Qon yig'ladi chol-kampir tillari xasta.  
Qon yig'ladi bog`da gul, qirda chechaklar,  
Qon yig'ladi nomus deb, qiz, kelinchaklar.  
Qon yig'ladi qo`zi-qo`y taqir o`tloqda,  
Qon yig'ladi: -Suv! Suv! –deb dehqon qirg`oqda.

Ko'pincha anafora she'riy matnlarda, kamroq nasrda uchraydi. Prozaik anafora odatda qo'shni jumjalarning boshini bog'laydi, masalan: "qanday bo'lmasin odamlar harakat qilishdi, bitta kichik joyga yig'ilishdi ..., qandaybo'lmasin yerga hech narsa o'smasligi uchun toshbo'ron qildilar..." (L.Tolstoy). Juda kamdan-kam hollarda anafolik takrorlash matndagi qo'shni emas, balki ajratilgan lingvistik birliklarni, masalan, hikoya yoki roman boblarining boshlanishini bog'laydi. Prozaik anafora ko'pincha aytilayotgan narsaning mazmunini kuchaytiradi va hissiy jihatdan yanada ifodali qiladi (masalan, "Ikki eshik orasi" romanida Umar zakunchi tilidan: "Endi anavi Robiya qoldimi? Qo'rqadigan joyim yo'q! Shunaqangi tilini qisib qo'yamanki, ketimdan o'zi ergashib yuradigan bo'ladi, unsurvachcha! Chu, jonivor! Muncha uhasan? Qamchi yeb o'rganmagansan-da! Havo muncha tiniq! Olam muncha chiroyli. Muncha tez uchadi bu? Qanoti bormi? Qayoqqa ketyapman o'zi? Baribir emasmi? Olam yam-yashil bo'lsa, ostingda arg'umoq bo'lsa, uhasan-da! "), garchi u sof kompozitsion funktsiyani ham bajarishi mumkin, bu odatda she'riy matnlarda anafolik takrorlash bilan belgilanadi, bu erda anafora qo'shimcha (birgalikda) bo'lib xizmat qiladi. doimiy pauza bilan) oldingi qatorning oxiri va keyingisining boshlanishi uchun signal. Ko'pincha, anafolik takrorlash butun she'riy asar davomida (odatda kichik hajmda) saqlanib qolishi mumkin.

#### REFERENCES

1. Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati".
2. Abdullayev A. Ma'no kuchaytirishning fonetik usuli// o'zbek tili va adabiyoti. T.1969.N2.55-58
3. Mirzo I. Agar jannat kokda boisa... T.: Sharq. 2010.
4. Mizro I. Ko'zlaringga termulsaydim. T.: Sharq. 2020.
5. Muhammedova S. Matn lingvistikasi. T. 2011. 6. Yoldoshev M. va b. Matn lingvistikasi. T.2020

## TENGLAMA VA UNI O`RGATISH METODIKASI

**Rasulova Farida Farhodjon qizi**

Farg`ona davlat universiteti o`qituvchisi

**Nabijonova Feruza Valijon qizi**

Farg`ona davlat universiteti o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7989656>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga matematika darslarida tenglama mavzusini o`rgatish metodikasi va bosqichlari haqida so`z borgan.

*Kalit so`zlar:* tenglama, tengsizlik, taqqoslash, noma'lum, bir o`zgaruvchilik tenglamalar, o`zgaruvchi.

## УРАВНЕНИЕ И МЕТОДИКА ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о методике и этапах преподавания предмета уравнений на уроках математики учащимся начальной школы.

*Ключевые слова:* уравнение, неравенство, сравнение, неизвестное, уравнения с одной переменной, переменная.

## EQUATION AND METHODOLOGY OF ITS TEACHING

*Abstract.* This article talks about the methodology and stages of teaching the subject of equations in mathematics classes to elementary school students.

*Key words:* equation, inequality, comparison, unknown, one-variable equations, variable.

Tenglama bu ikki yoki undan ortiq ifodaning o`zaro bog`langanligini ifodalovchi matematik tenglik hisoblanadi.

Tenglamalar haqida so`z borganda O`rta Osiyolik matematik al-Xorazmiyning asarlari yodga tushadi. Chunki o`zining «Al-jabr» va «val muqobala» asarida tenglamalarga oid ko`plab fikrlar yozib qoldirgan.

Masalan, «Al-jabr» va «val muqobala» atamallari o`ng va chap tomonlarida musbat hadlar bo`lgan tenglamaga keltirishga imkon beruvchi eng oddiy va asosiy usullarni bildiradi. Al-jabr-amali (so`zma-so`z-taqqoslash, qiyoslash) tenglamaning chap va o`ng qismlarida o`xshash hadlarni ixchamlashdan iborat va tenglamani qulay ko`rinishga keltirish maqsadga ega.

Algebra uchun katta ilmiy yutuq – bu ko`rish va yozish uchun qulay harfiy belgilashlarning kiritilishidir. Hozirgi zamon harfiy belgilashlarning kiritilishidir. Hozirgi zamon harfiy belgilashlar sekin-asta yaratilgan. XI asrda arab matematigi al-Karxiy ba`zi algebraik miqdorlar uchun maxsus belgilar kiritgan, noma'lumni maxsus belgi bilan ifodalagan.

Birinchi darajali tenglamalarga Al-Xorazmiy ham katta e`tibor bergan, bunday tenglamalarni yechish uchun o`zining «Al-jabr» va «val muqobala» usulini qo`llagan.

XIII asrda yevropalik matematiklarda birinchi darajali tenglamalarning nazariyasi O`rta Osiyolik matematiklardagi kabi holatda bo`lgan edi. Masalan, italyan matematigi o`zining «Abak to`g`risidagi kitob» asarida Al-Xorazmiy kabi birinchi darajali tenglamalarni yechish uchun qoidalarni beradi, ya`ni mohiyatdan «tiklash» usulini qo`llaydi.

Birinchi darajali tenglamalarni yechishning keyingi rivoji belgilashlarni yaxshilash va hozirgi zamon ko`rinishiga keltirish yo`nalishida bordi.

Kvadrat tenglamalar nazariyasini al-Xorazmiy keng ravishda ishlab chiqdi va kvadrat tenglamalarning olti turini tekshirdi.

Bu tenglamalarning har biri uchun soʻzlar bilan (u harfiy belgilashlardan foydalanmagan) al-Xorazmiy uning maxsus yechish qoidasini bayon etgan.

Tenglamalardan matematikaning barcha nazariy va amaliy sohalarida hamda fizika, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda foydalaniladi.

Tenglamada bir yoki undan ortiq noma'lum qiymat bo'ladi va ular o'zgaruvchilar yoki noma'lumlar deb ataladi. Noma'lumlar odatda harflar yoki boshqa belgilar bilan ifodalanadi.

Tenglamalar ulardagi o'zgaruvchilar soniga qarab nomlanadi. Masalan, bir noma'lum qatnashgan tenglamalar bir o'zgaruvchili tenglama, ikki noma'lum qatnashgan tenglamalar ikki o'zgaruvchili tenglamalar deb ataladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tenglama mavzusini o'rgatish 1-sinfdanoq boshlanadi. Biroq ularga aynan shu ko'rinish tenglama deyiladi degan tushunchalar aytilmaydi. Faqatgina o'zgaruvchi qatnashgan ifodalar ustida amallar yechtirib boriladi.

O'zgaruvchi qatnashgan ifoda bu ma'lum bir ifodada noma'lum qatnashgan haddir. O'zgaruvchi lotin alifbosining istalgan harflari yordamida yoki belgilar orqali ham ifodalanishi mumkin.

1-sinfda o'zgaruvchi qatnashgan ifodadan foydalaniladi.

Masalan, bo'sh katakchalar, har xil gulchalar yoki boshqa bir belgilar orqali berilgan bo'lishi mumkin.

2-sinfdan boshlab Tenglamalar nomli mavzu o'rgatilib boriladi. Unda o'quvchilarga tenglama ko'rinishi tushuntiriladi.  $x+2$ ,  $y-5$ ,  $a+3$ ,  $a+b$  kabilar tenglama ekanligi aytiladi. Lekin tenglamalar ustida amallar yechilmaydi.

3-sinfda esa tenglamalar mavzusi keng ko'lamda yoritiladi. Tenglamaning mohiyati, xossalari, yechish usullari, qonun-qoidalari, ular ustida amallar o'rgatilib boradi. 4-sinfda bu berilgan bilimlar kengaytiriladi.

Boshlang'ich sinflarda faqatgina bir o'zgaruvchili tenglamalar ustida arifmetik amallar bajartiriladi holos. Ikki va undan ortiq o'zgaruvchi qatnashgan tenglamalar bilan o'quvchilar yuqori sinflarda tanishadilar.

O'quvchilar tenglamalarni yaxshi o'zlashtirish bilan bir necha ish bilan javobi topiladigan masalalarni oson yechishga ko'nikma hosil qilib boradilar.

Masalan, "Savatda bir necha anor bor edi. Bo'g'dan yana 17 ta anor uzib kelib savatga solingandan keyin savatdagi anorlar 32 ta bo'di. Avval savatda nechta anor bo'lgan?". Oldin bu masalani qisqacha shartini tuzib oladilar: 1) oldin savatdagi anorlar sonini  $x$  bilan belgilab olishadi; 2) savatdagi anorlar va yana terib kelib qo'shilgan anorlar sonini  $(x+17)$  deb olinadi; 3) barchasi 32 ta bo'ladi va tenglama quyidagicha tuziladi:  $x+17=32$ . Bor edi-? ta anor Uzib kelindi-17 ta anor Bo'ldi-32 ta anor. Masalani tenglama usuli bilan yechishga o'quvchining taxminiy mulohazalari: savatdagi anorlar sonini  $x$  bilan belgilasak, uzib kelingan anorlar 17ta, barchasi 32 ta bo'ldi va savatda qancha anor bo'lgan?

Demak, masalaning shartiga ko'ra tenglama tuzib ishlaymiz. Yechish:  $x+17=32$   $x=32-17$   $x=15$ demak, savatda 15 ta anor bo'lgan. O'quvchilar uchun eng qiyin vaziyat noma'lumni to'g'ri o'rinda ishlatib, tenglamani to'g'ri tuzishdir. O'quvchilarda tushunchalar hosil bo'lishi uchun shunga o'xshash masaladan yana birini tushuntirgan holda ishlab ko'rsatamiz: Masala: Voleybol to'garagida 17 nafar o'g'il bola va bir necha qiz bolalar bor edi. To'garakka yana 8nafar qiz bola qo'shib olinganidan keyin qizbolalar soni o'g'il bolalar sonidan 4 nafar kam bo'ldi. Voleybol



to'garagida qancha qiz bola bo'lgan? 1) o'g'il bolalar 17nafar; 2) bir necha qiz bolalarni x bilan belgilaymiz; 3) to'garakka yana 8 nafar qiz qo'shildi; 4) qiz bolalar soni o'g'il bolalar sonidan 4 nafar kam. Tenglama quyidagicha tuzib olinadi: Yechish:  $x+8-4=17$   $x+4=17$   $x=17-4$   $x=13$ ta Javob: Qizbolalar soni 13 nafar ekan. Shunday qilib boshlang'ich sinfning boshidan oxirigacha sonli tenglik va tengsizliklarni, tenglamalarni o'qitish, tenglamalar tuzib masalalar yechish jarayoni tizimli oddiydan murakkabga davom ettiriladi. 4-sinfda ko'p xonali sonlar bilan birgalikda to'rtta arifmetik amalga doir tenglamalarni yechishga o'rgatiladi. Buni amalga oshirishda har doim an'anaviy tarzda emas, balki noan'anaviy usulda ya'ni interaktiv metoddan foydalangan holda o'quvchilarga masalalarni yechishga o'rgatilsa, dars samaradorligi oshadi. Sababi didaktik o'yinlar va interaktiv metodlar o'quvchilarni darsga faolroq va diqqat bilan qatnashishiga muhim turtki bo'ladi.

### REFERENCES

1. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 366-372.
2. Nabijonova, F. (2022). Boshlang'ich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
3. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.
4. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (10), 90-92.
5. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
6. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 32-36.
7. Feruza, N. (2023). DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *IQRO JURNALI*, 2(2), 542-552.
8. Nabijonova, F. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIGA GEOMETRIK ELEMENTLARNI O'RGATISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 402-408.
9. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
10. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
11. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
12. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.

Когда дети подрастают, то однополых детей расселяют по три в спальне, а старших школьников – в отдельные комнаты. В квартирах для больших сложных семей аналогично квартирам для больших семей рекомендациями предполагается размещение двух семей, объединенных родством и общим бюджетом в сочетаниях 5+1; 4+2; 3+3 и т.п. Как показывают опросы населения и натурные наблюдения, им необходима большая свобода в расселении членов семей. Одно из возможных решений дома для сложных семей показано на рис. 2.

О тенденциях изменения жилища будущего отмечал в своих работах Р. Эгамбердиев и Р. Таштемиров. Несмотря на характер и специфику проведенных исследований авторов, в которых рассматриваются общие принципы архитектурно-планировочных решений и характер расселения сложных семей в городском жилище, представляет большой интерес и для специалистов, работающих в области сельского жилищного строительства.

В частности, Р. Эгамбердиев отмечает, что в будущем предстоит разработка и строительство жилых ячеек, предназначенных для проживания сложных семей, семейных групп и семей, состоящих из нескольких поколений. Это создает перспективы для поэтапного и равнозначного повышения комфорта проживания различных по демографическому и социальному составу семей и формирует базис для дальнейшего обеспечения потребностей личности в жилище.

Под руководством Р. Эгамбердиева в СамГАСУ разработана классификация жилых ячеек, предназначенных для расселения в этой ячейке до близкого расселения в двух жилых ячейках.



Классификация состоит из четырех основных типов и одиннадцати видов.

Тип I – жилая ячейка с минимальным составом подсобных помещений (одна общая комната и подсобные помещения совместного пользования) включает два вида: жилую ячейку с одной спальноей зоной и жилую ячейку с двумя спальными зонами.

Тип II – жилые ячейки с расширенным составом подсобных помещений (одна или две общие комнаты, среднее и старшее поколение имеют отдельно некоторые подсобные помещения, также имеется расширенное число санитарных узлов, входов, кабинетов гостиных и т.д.) имеет четыре вида: ячейка сдополнительной уборной (в ней помимо санитарного узла имеется дополнительный унитаз и умывальник); жилая ячейка с дополнительным санитарным узлом; жилая ячейка с дополнительным входом; жилая ячейка с дополнительной гостиной.

Тип III – две жилые ячейки с общими помещениями (каждое поколение имеет в личном пользовании все подсобные помещения); две жилые ячейки с общей гостиной; сообщающиеся жилые ячейки (две кооперированные жилые ячейки с несколькими помещениями гостиной). Связь между ячейками осуществляется внутренней лестницей, дверью, коридором, проходом, раздвижной стеной и т.д. Характерной особенностью этого вида является возможность разделения на две равноценные жилые ячейки.

Тип IV – две жилые ячейки, расположенные близко.

Автор статьи для городского строительства предлагает три основных приема размещения ячеек в структуре одного или двух соседних домов (размещение на одной лестничной клетке, в нижних, средних или верхних этажах, размещение в двух ячейках в одном доме или двух соседних домах).

**Заключение.** В ближайшем будущем в пространстве жилой ячейки с целью учета региональных особенностей жизнедеятельности семьи должно быть предусмотрено зонирование по расселению, функциональное и гигиеническое. В связи с этим для средних и больших семей, являющиеся наиболее специфичными, предполагается развитие летнего помещения до функционального центра жилой ячейки круглогодичного использования. Предполагается, что в более отдаленном будущем организация летнего быта останется одним из основных требований к организации жилой ячейки.

В квартирах для больших семей функции приема пищи приобретают большую самостоятельность и осуществляются в специальном организованном месте (типа алькова при общей комнате) или помещении (столовой). Все планировочные варианты должны предусматривать близкую связь общей комнаты, летнего помещения и кухни. Эта связь может быть осуществлена с помощью трансформации помещений или гибкого плана жилой ячейки. Желательна близкая связь детской комнаты с кухней и летним помещением для возможности осуществления надзора за детьми во время проведения домашнего труда и, в частности, приготовления пищи. Авторы считают необходимым проектирование в жилой ячейке зоны для расселения и организации быта пожилых родителей, имеющей в составе жилую комнату, санузел (унитаз и умывальник), кухню-нишу. Общая комната, летнее помещение и передняя используются в этом случае всеми членами семьи. В связи с этим помещения должны проектироваться “на стыке” двух зон. Кухня-ниша рассчитывается на небольшой объем приготовления и нестационарное оборудование.

#### REFERENCES

1. Жилые здания Ш.Н.К. 2.08.01 – 05. Электронный ресурс: [https://shnk.uz/wp-content/uploads/2021/08/shnk\\_2.08.01-05rus.pdf](https://shnk.uz/wp-content/uploads/2021/08/shnk_2.08.01-05rus.pdf)
2. Фармонов А.А. (2007). Проектирования жилых домов с внутренними дворами для малых городов жаркого климата. Самарканд: СамГАСИ.
3. Заирова, Ф. Р., Аджитарова, Г. А. (2011). Новые композиционно-пространственные приемы в формировании пешеходных улиц городов Узбекистана. Новые идеи нового века: материалы международной научной конференции ФАД ТОГУ (Vol. 1, pp. 174-177). Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования " Тихоокеанский государственный университет".
4. F. Zairova, (2019). Modern development tendencies of functional-planning solutions of foreign leisure centers. Problems of Architecture and Construction. Samarkand State Architecture and Civil engineering Institute. Vol 1, № 4, p. 7-9.
5. Архитектурно-историческая среда. Учебное пособие / сост. Б. Е. Сотников. – Ульяновск: УЛГТУ, 2010. – 208 с.

## КОРПОРАТИВ НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШДА МОДДИЙ ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Саъдуллаев Ҳамидулло Хайруллаевич

Ўзбекистон Республикаси Судялар олий кенгаши ҳузуридаги Судялар олий  
мактаби тингловчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7990466>

**Аннотация.** Мазкур мақолада корпоратив низоларни ҳал этишда Моддий ҳуқуқ нормаларини қўллашнинг айрим масалаларига тўхталиб ўтилган. Мақола давомида мавзу доирасидаги асосли фикр ва мулоҳазалар бериб ўтилган.

**Калит сўзлар:** корпоратив низолар, келишувнинг йўқлиги, ҳуқуқ нормаларини қўллаш.

## SOME ISSUES OF APPLICATION OF SUBSTANTIVE LAW NORMS IN RESOLVING CORPORATE DISPUTES

**Abstract.** This article focuses on some issues of the application of substantive law norms in the resolution of corporate disputes. In the course of the article, reasonable opinions and comments are given within the scope of the topic.

**Key words:** corporate disputes, lack of agreement, application of legal norms.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ НОРМ МАТЕРИАЛЬНОГО ПРАВА ПРИ РАЗРЕШЕНИИ КОРПОРАТИВНЫХ СПОРОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые вопросы применения норм материального права при разрешении корпоративных споров. По ходу статьи даются обоснованные мнения и комментарии в рамках темы.

**Ключевые слова:** корпоративные споры, отсутствие соглашения, применение правовых норм.

Ҳар қандай низонинг моҳиятини томонлар ўртасида келишувнинг йўқлиги сифатида таърифлаш мумкин. Корпоратив муносабатлар субъектлари ўртасида манфаатлар мувозанатининг йўқлиги корпоратив низоларга сабаб бўлиши мумкин. Корпоратив низолар деганда жамият акциядорлари ўртасида, жамият акциядорлари ва менежерлари ўртасида, инвесторлар (потенциал акциядорлар) ва жамият ўртасида вужудга келадиган, қуйидаги оқибатлардан бирига олиб келадиган келишмовчиликлар ва тортишувлар тушунилади:

- амалдаги қонунчилик меъёрлари, жамият низоми ёки ички ҳужжатлари, акциядорлар ёки уларнинг гуруҳлари ҳуқуқларининг бузилиши;
- жамият ва унинг бошқарув органларига қабул қилинган қарорлар бўйича даъволар;
- амалдаги бошқарув органлари ваколатларини муддатидан олдин тўхтатиш;
- акциядорлар таркибида жиддий ўзгаришлар.

Корпорациялар фаолиятининг ўзига хосликлари туфайли низолар вужудга келиши учун қуйидаги сабабларни кўрсатиш мумкин. Акциядорлик мулкида иштирок этиш учун кенг имкониятлар капиталларнинг мураккаб тарзда чигаллашиб кетиши ва мос равишда, манфаатдор томонлар доирасининг доимий бўлмаслигини назарда тутди. Мулкни бошқарувдан ажратиш (қарор қабул қилиш ва рискни қабул қилиш функцияларининг тақсимланиши) ва назорат функциясининг рискни қабул қилмайдиган ва бошқарувда иштирок этмайдиган шахслар томонидан амалга ошириладиган алоҳида бир функцияга

ажратилиши корпорация фаолияти натижаларидан манфаатдор турли шахслар ўтасида манфаатлар можаросининг юзага келишини белгилаб берди. Корпорация менежменти, акциядорлар ва бошқа манфаатдор шахслар ўртасида белгиланадиган муносабатлар тизимига турли иқтисодий субъектлар гуруҳлари томонидан ижозат берилади:

1. Давлат ва корпорация ўтасидаги муносабатларга давлат томонидан ижозат берилади ва у давлат-ҳукумат характерига эга бўлади.

2. Менежмент ва акциядорлар ўртасидаги алоқаларнинг муайян жиҳатлари корпорация бошқарув органлари томонидан амалдаги қонунчилик доирасида қабул қилинган қўшимча битим ва келишувлар билан тартибга солиниши мумкин.

3. Менежмент ва бошқа манфаатдор шахслар ўртасидаги муносабатлар турли йўналишдаги характерга эга бўлиб, манфаатдор шахсларнинг корпорация учун ички ёки ташқи муҳитга мансублигига боғлиқ бўлади. Улар қонун ҳужжатлари ва жамиятнинг ички регламенти билан тартибга солинади. Замонавий иқтисодиётда корпоратив муносабатлар субъектлари ўртасида вужудга келаётган жиддий қарама-қаршиликлар ва ихтилофлар мамлакатда ишлаб чиқаришнинг ривожланишига инвестициялар оқимининг кириб келишига тўсқинлик қилмоқда. Барча низолар хилма-хиллигини қуйидаги тўрт турга ажратиш мумкин:

1. Йирик (мажоритар) ва майда (миноритар) акциядорлар муносабатлари низоси.

2. Ички акциядорлар (инсайдер) ва ташқи акциядорлар (аутсайдер) низоси.

3. Менежмент (акцияларсиз ёки акциялар кичик пакетига эга) ва акциядорлар низоси.

4. Четдан «нодўстона қўшиб олиш ташаббускорлари» тарафдорлари ва акциядорлар низоси. Кўриб чиқилган корпоратив низолар турлари ичида қуйидаги хилларни ажратиш кўрсатиш мумкин:

1. Қонунчилик меъёрларининг бузилиши корпоратив ҳуқуқ меъёрлари ва жараёнларини тасодифан бузиш билан боғлиқ бўлиб, акциядорлар томонидан уларнинг манфаатларига тажовуз сифатида қабул қилинади.

2. Қўшиб олиш – акциядорлар гуруҳининг (четдан инвесторнинг) корхона устидан назорат ўрнатиш жараёнида юзага келадиган низолар.

3. Дивидендлар бўйича низолар – йирик ва майда акциядорлар ўтасида корхона фойдасидан фойдаланиш борасида юзага келадиган низолар.

4. Менежерлар билан низолар – акциядорлик жамиятининг менежерлари ва акциядорлар ўртасида компанияни бошқариш самарадорлиги ва менежерлар ҳаракатлари виждонанлиги бўйича юзага келадиган низолар.

5. Рақобат – акциядорлик жамиятининг молиявий ҳолати ва рақобатбардошлигига путур етказишга йўналтирилган низолар.

6. Корпоратив шантаж - миноритар акциядорлар иштирокидаги, акциядорлик жамияти ёки унинг йирик акциядорларини миноритарийлардан уларга тегишли акциялар пакетини бозор қийматидан қиммат нархжа сотиб олиш ёки низони тўхтатиш учун воз кечиш музди тўлашга ундашга йўналтирилган низолар. Шунингдек, корпорация томонидан акциядорлар ҳуқуқларининг бузилишига олиб келадиган асосий ҳаракатлар аниқланди:

1. Акциядорлар чекланган доирасида жойлаштириладиган акциялар кўшимча эмиссияси (кўпинча бозор нархидан паст ёки ушбу компания учун етарли даражада истеъмол қийматига эга бўлмаган активлар билан тўлаш кузатилади).

2. Компаниянинг стартегик активларини акциядорлар назорати остида бўлмаган фирмаларга ўтказиш йўли билан ажратиб қўйиш (кўпинча қайта ташкил қилинган муассасалар ёрдамида).

3. Аффилицияланган шахслар гуруҳи томонидан назорат пакетини қўлга киритиш мақсадида акциялар пакетини «майдалаш».

4. Акциядорларга қайтариб сотиб олишда имтиёзли ҳуқуқлар бермаган ҳолда низом капиталидан анча катта бўлган миқдордаги суммада кўшимча эмиссия чиқариш.

5. Акциядорлар билан мувофиқлаштириш бўйича зарур жараёнларни ўтказмаган ҳолда акциялар йирик пакетларини сотиб юбориш.

6. Майда акциядорларни чиқариб юборишга йўналтирилган акцияларни консолидациялаш жараёнини амалга ошириш. Санаб ўтилган ҳаракатлар акциядорлаштиришнинг у воситасида акцияларни харид қилишда пул маблағлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришга тўғридан-тўғри инвестициялар шаклини оладиган механизм сифатидаги асосий мазмунига путур етказди. Барча низолар хилма-хиллигини таҳлил қилиб хулоса чиқариш мумкинки, корпоратив бошқарув муаммолари асосан мулк эгаларидан биттаси унинг мулкӣ ҳуқуқларидан эмас, балки бошқарув функцияларидан келиб чиқадиган устунликларни қўлга киритиши билан боғлиқ.

Турли акциядорлар гуруҳлари ўртасидаги низолар моҳиятига кўра иқтисодий низолар ҳисобланади, чунки бу аввало жамият чиқарган акцияларни ўзлаштириш ва сотиб юбориш бўйича юзага келадиган низолардир. Корпоратив низоларни ҳал қилиш усули бўйича у, шубҳасиз, ҳуқуқий низолар сирасига киради. Буни шу билан асослаш мумкинки, низо қатнашчилари мурасага кела олмаган ва битим тузиш йўли билан ёки йиғилиш қарорида ўз хоҳишини билдирмаган бўлса, низони ҳал қилиш суд томонидан фуқаролик ва ҳатто жиноий ишларни кўриб чиқиш воситасида рўй беради. Ҳозирги пайтда мавжуд бўлган эмпирик ва ҳуқуқий маълумотлар шаклланаётган акциядорлар ҳуқуқини ҳимоя қилиш тизимида барқарор ва асосий зиддиятларни аниқлашга имкон бермоқда. Қарама-қаршиликнинг моҳияти шундаки, мавжуд акциядорлар ҳуқуқини ҳимоя қилиш тизимида иккита қарама-қарши ёндашув мавжуд. Биринчи ёндашув. Акциядорлик капиталининг бир қўлда тўпланиши (концентрация) - акциядорларни ҳимоя қилиш ҳуқуқий воситалари минимал ва миноритар акциядорларни ҳимоя қилиш ҳуқуқий воситалари максимал бўлишини кўзда тутди, ўзига хос ўзаро нейтраллаш вазиятини яратади: астасекинлик билан майда акциядорларни чиқариб юбориш корпоратив сектор нуқтаи назаридан миноритарийларни ҳимоя қилиш кенг воситалари аҳамиятини пасайтиради, майда акциядорларни ҳимоялаш воситаларининг ўзи эса корпоратив шантаж воситаларига айланади. Иккинчи ёндашув. Акциядорларни ҳимоя қилиш ҳуқуқий воситаларининг ёйиқ тизимини яратиш, ўз навбатида, бир қўлда тўпланиш (концентрация) жараёнининг давом этишини тўхтатиб туради (иқтисодий жараёнларга тескари таъсир омили сифатида). Бунда эсдан чиқармаслик керакки, концентрацияни давом эттириш йўли билан ўз манфаатларини ҳимоя қилиш бу – йирик акциядорларнинг алоҳида ҳуқуқлари, улар ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий воситалари йўқлигига эмас, балки буюртма асосида қўлланишга жавоб беради,



чунки миноритар акциядорлар на консолидация шароитларига, на мустақил суд имкониятларига эга эмас. Бундай вазиятда корпоратив муносабатларнинг барча катнашчилари манфаатлари мувозанатини қўллаб-қувватлаш учун аниқ ҳуқуқий майдон шакллантириш устувор вазифа ҳисобланади. Давлат нуқтаи назаридан фундаментал вазифа бу – корпоратив бошқарувни мулк ҳуқуқини (инвесторлар ҳуқуқлари, акциядорлар ҳуқуқлари) ҳимоя қилиш ва қафолатлаш нуқтаи назаридан кўриб чиқишдир. Лекин шунга қарамай, Ўзбекистонда корпоратив бошқарувнинг ривожланишида айрим умид уйғотувчи тенденциялар кузатилмоқда.

1. Корпоратив бошқарув соҳасида умумий сиёсатни амалга ошириш бўйича давлат органи – Давлат Мулк Қўмитаси мавжуд.

2. Қатор корхоналар ўз корпоратив бошқарув кодексларини ишлаб чиқди ва қабул қилди, шунингдек, директорлар Кенгашига ташқи акциядорлар вакилларини киритди.

3. Компаниялар дивиденд сиёсатининг яхшиланиши корпоратив муносабатлар етуклигидан далолат беради. Кўпчилик компаниялар фойдани қайта тақсимлашга диққат билан эътибор қарата бошлади.

4. Менежерларнинг мулк эгалари назорати остида бўлиши билан боғлиқ вазиятларда ҳам ижобий ўзгаришлар кузатилмоқда. Яхши ишламаётган раҳбарларни ишдан бўшатиш хавфи корпоратив бошқарувда фаолият кўрсатаётган механизмлардан бирига айланмоқда.

5. Компаниялар ҳақида корпоратив бошқарув билан боғлиқ рисклар нуқтаи назаридан ахборотга талаб ўсмоқда.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>.
2. Rahmonqulov H.R., Gulyamov S.S. Korporativ huquq. TDYI. Toshkent, 2007.
3. Saidov M.N. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari. Toshkent, 2019.
4. Eshimbetova D.U. Korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning iqtisodiy sudlarga taalluqliligi masalalari. 5A240121 – “Sud faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)” mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan. Toshkent, 2020.
5. Северин Д.Н. Рассмотрение судами споров, вытекающих из условий учредительства хозяйственных обществ (корпоративных споров). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Минск, 2014. <http://dep.nlb.by/jspui/handle/nlb/45667>.

## O'TKIR HOSHIMOV ASARLARI TILI VA USLUBI

Alimqulov Sirojiddin Zafarovich

TerDU 2 - bosqich magistranti

Amonturdiyev Nurali Rashidovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7990564>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov ijodiy faoliyati hamda asarlarida til va uslubni qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Til va uslublar o'rganilish tarixi tadqiq qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Til va uslubni o'rganilishi, badiiy tasvir vositalar, leksik, fonetik, grammatik vositalar.

## LANGUAGE AND STYLE OF OTKIR HASHIMOV'S WORKS

*Abstract.* This article discusses the creative activity of the People's Writer of Uzbekistan O'tkir Hoshimov and the use of language and style in his works. The history of learning languages and styles is studied.

*Key words:* Language and style study, artistic image tools, lexical, phonetic, grammatical tools.

## ЯЗЫК И СТИЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ОТКИРА ГАШИМОВА

*Аннотация.* В данной статье рассматривается творческая деятельность Народного писателя Узбекистана Откира Хошимова и использование языка и стиля в его произведениях. Изучается история изучения языков и стилей.

*Ключевые слова:* Языковедение, художественные образные средства, лексические, фонетические, грамматические средства.

O'zbek xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov umri davomida qimmatini yo'qotmaydigan asarlar yaratib, mustaqil vatanimizning adabiyoti va ma'naviy hazinasiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkordir.

Adibning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi" (1991) faxriy unvoni, "Mehnat shuhrati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari va boshqa mukofotlar shular jumlasidan.

Asarlari esa qariyb ellik yil davomida turli tillarda ikki yarim millionga yaqin nusxada chop etilgan yetmishdan ortiq kitobi adibni xalqimizning ardoqli farzandiga aylantirdi. Buning boisi uning aksariyat asarlarida inson qismati, dardi va istiroblarining yotishidir.

O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" asarini yoshlik yillarini, universitetni endigina bitirgan yigitchaning his-tuyg'ulari aks etgan asar, "Dunyoning ishlari"ni ona haqidagi dardlar mujassam bo'lgan asar, "Ikki eshik orasida"ni ijodimdagi hayot tajribalari asosidagi salmoqli asar, "Tushda kechgan umrlar" esa yangicha mavzuda bo'lgani uchun qadrlidir, deb o'z asarlari haqida so'zlar edi. Yozuvchi badiiy asarlarda xoh u hikoya yoki qissa bo'lsin, xoh roman yoki drama hamisha inson haqida yozishga intilgan. Adibning "Urushning so'nggi qurboni", "Nega? Nega-a-a?!" degan hikoyalari, "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari urush haqida. "Dunyoning ishlari" esa urush orqasidagi hayot haqida bo'lib, bizningcha, yozuvchi bu asarlarni urush oqibatlarini va undan nafratlangani uchun yozgan.

Urushda g'olib podshoh, g'olib sarkarda, g'olib armiya bo'lishi mumkin, lekin hech qachon g'olib inson bo'lmaydi. Urushda g'olib odam ham, mag'lub odam ham baxtsiz. Sababi urush odamni o'ziga o'xshagan boshqa odamni o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan inson esa hech qachon baxtli bo'lolmaydi, deydi muallif.

“Tushda kechgan umrlar” romanida Rustam tankda ketayotib, o'liklarni mashinaga ortayotgan askarlarni ko'rib qoladi-da, to'xtaydi. Tushib qarasa, uning eng yaxshi ko'rgan do'sti Temurning jasadini ham ortishayotgan bo'ladi. Temurning afti tanib bo'lmas darajada pachoqlab tashlangani uchun uni qo'lidagi tatuirofkadan taniydi. U bir hovliga tanki bilan bostirib kiradi. Hammayoq chang-to'zon. Tankdan tushadi. Birpasdan so'ng ishkom tagidagi qizil ko'ylakni ko'radi. Beixtiyor yaqin borib qarasa, ko'ylak emas, yiqilib yotgan ayol ekan. Rustam uning ustiga egiladi, “Qo'rqmang, opa, biz sizga tegmaymiz”, deb yelkasidan tutsa, ayol yonboshiga ag'dariladi. Bu go'zal ayolning o'q teshgan bo'ynidan oqqan qon yarim yalang'och ko'ksiga tushadi. Shu payt vayrona kulbadan bir yarim ikki yoshdagi bola chiqib, ayolning boshiga keladi. “Mo'rjona”, “mo'rjona”, (“mo'rjona”, - ona degani) deb, uni ema boshlaydi. So'ng ilkis bosh ko'tardi-da, chirqillab yig'lab yuboradi. Bolaning og'zidan sut emas qon oqardi! Urushning qiyofasi-mana shu!

“Ikki eshik orasi” asaridagi Muzaffar ham, Munavvar ham urush ko'rgani yoq, ular urushdan keyin tug'ilgan. Ammo bu ikki yoshning uvol bo'lgan muhabbati, Munavvarning yigirma yoshda xazon bo'lgan navqiron hayoti, Muzaffarning qalbidagi shirin orzularning bir umrlik armon, hijronga aylanishi mash'um urushning o'zi bitgach, yigirma yildan so'ng ko'rsatgan “hunari” emasmi?!

Yer yuzida bo'layotgan har qanday urush – fojia. Bunday fojining oldini olish uchun esa urush qanchalik dahshat ekanligini batafsil qilib kelajak yosh avlodga qaysi yo'l bilan yetkazishni o'ylaydi, kishi. Adib o'z asarlarida rivoyatlardan ham mohirona foydalangan. Chunki ular asar mohiyatini, Qahramon dunyosini ochishga xizmat qiladi. Ba'zi rivoyatlarni adibning o'zi ham yaratgan bo'lishi mumkin.

“Yo'l bo'yidagi daraxt”:

“Katta yo'l bo'yida daraxt o'sardi. Ittifoqo, uning tagiga bir yo'lovchi keldi. Kun issiq, yo'lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o'tirib, dam oldi. Yo'lovchi ochiqqan edi. Qarasa daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi, tosh otdi. Mevalar duv to'kildi. Yo'lovchi to'yguncha yedi. Manzil olis edi. Yo'lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi. Keyin... zahartang qildi. Yo'lovchi daraxt panasiga o'tdi... So'ng yo'lga ketdi... Daraxt boshqa yo'lovchini kuta boshladi. Bu daraxtning nomi Yaxshilik edi...”

Ona siymosi: Dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydiganva quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri!

Yozuvchining “Dunyoning ishlari” asarida har bir hikoya mustaqil asar sifatida berilgan. Ularning hammasida Ona obrazi bor. Agar ba'zilarida ishtirok etmagan bo'lsa ham uning ichki ruhiyatini yoritib, hikoya voqealaridan kelib chiqadigan hikmatni bir-biriga ulab turadi. Bu asar har jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Hajman katta bo'lmasa ham bu asarda yozuvchining insonparvarligi, insoniy fazilatlarini o'z aksini topgan. Adib Xurshid Do'stmuhammadning ta'biri bilan aytganda, “Dunyoning ishlari” da o'zbekning mushtipar, mushfiq va jafokash onasiga tirik haykal qo'yilgan. Albatta har bir inson zoti borki, dunyoni ona timsoli orqali anglaydi, ulg'ayadi, o'z o'rnini topadi.

#### REFERENCES

1. Yo'ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari, O'quv-uslubiy qo'llanma.- Samarqand: SamDU nashri, 2006, 88 bet.
2. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. So'z qo'llash san'ati, Termiz: "Jayhun"
3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – T., Fan, 1990. – B.7.
4. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1985. – B.8.
5. Normurodov R.U. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000. – B.4.
6. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. –T.: Fan, 1973. – B.3.
7. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972. – B.80. 4

## PEDAGOGIK FAOLIYATDA EMOTSIONAL ZO'RIQISHINING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKOREKSIYASI

**Qobilov Husniddin**

Qarshi davlat universiteti 1- kurs tayanch doktoranti

**Ergasheva Izzat**

**Yusupova Go'zal**

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumani  
53-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7990648>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda yuz beradigan emotsional zo'riqishining psixodiagnostikasi va psixokoreksiyasi mavzusiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirilgan. Maqola so'ngida xulosa hamda takliflar berib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* pedagogik faoliyat, emotsional zo'riqish, psixodiagnostika, miya faoliyati.

### PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EMOTIONAL STRESS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

*Abstract.* In this article, the topic of psychodiagnostics and psychocorrection of emotional stress that occurs in pedagogical activity is specifically discussed. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are presented throughout the article. At the end of the article, conclusions and suggestions are given.

*Key words:* pedagogical activity, emotional stress, psychodiagnostics, brain activity.

### ПСИХОДИАГНОСТИКА И ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Аннотация.* В данной статье специально обсуждается тема психодиагностики и психокоррекции эмоционального напряжения, возникающего в педагогической деятельности. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы представлены на протяжении всей статьи. В конце статьи даны выводы и предложения.

*Ключевые слова:* педагогическая деятельность, эмоциональный стресс, психодиагностика, мозговая деятельность.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlari va dunyoqarashlarini qat'iy, maqsadli, izchil, tizimli, uzviy tashkil etish, ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida keng ko'lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Yoshlarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to'g'ri baho bera olishlari, ijtimoiy o'zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo'lishlari ma'lum darajada ularning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. Ta'limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berilgan ekan, psixologiya fanining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda ta'lim faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohasi sifatida faoliyat ko'rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir.

Nazariy bilimlar hamda amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq ishlar bugun



yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizning rivoji, ravnaqi oliy maktablarda tayyorlanayotgan mutaxassislariga bog‘liq ekan, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash kerak. Shaxsning barcha faoliyat turlari kabi o‘quv faoliyati ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u kishining bilish jarayonlari, individual xususiyatlariga alohida talablar qo‘yadi. Bu faoliyatga munosabat shaklida u yoki bu psixik holatlar paydo bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida vujudga keladigan psixik holatlar doimo bir xil sifat va davomiylikka ega bo‘lavermaydi.

Ijobiy kechinmalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etib, uning yanada qiziqarli bo‘lishini ta‘minlasa, salbiy his-tuyg‘ular o‘quv faoliyati samaradorligini tushirib yuborishi ham mumkin. Bir necha obyektiv, subyektiv sabablar ta‘lim jarayonida o‘ziga xos hissiy zo‘riqishlarning vujudga kelishiga turtki bo‘lishi mumkin [1]. Psixologiya fanida psixik holatlar to‘g‘risida fikr yuritilganda, birinchi galda emotsiya, hissiyot va shunga yaqin bo‘lgan psixik holatlar stress, depressiya, frustratsiya holatlarini tadqiq etgan juda ko‘p psixolog olimlarning nazariyalarini bilamiz va psixik holatlar faqat psixologiya emas, balki fiziologiya, pedagogika fanlari bilan birga o‘rganilsa, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash katta ahamiyatga egaligini bilishimiz mumkin.

Psixologiyada hissiyot, emotsiya va boshqa psixik holatlar o‘rganilgan tadqiqotlarni bilamiz, masalan, Jeymis Lange, Kenon Bard nazariyalari va tadqiqot eksperimentlari; fiziologiyada psixik holatlarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar P.S. Kupalov nomi bilan bog‘liq. Uning fikricha, vaqtinchalik holat tashqi muhit ta‘sirida shartsiz refleks mexanizmlari asosida ro‘y beradi. V.I. Myasishev psixik holatni shaxs tarkibidagi tuzilmalardan biri sifatida jarayonlar, holatlar va munosabatlar bilan bir qatarga qo‘yadi. B.F. Lomov fikricha esa, “Psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar inson organizmidan tashqi holda mavjud bo‘lmaydi. Ular inson miyasining vazifasi sifatida biologik taraqqiyot va insoniyat tarixi davomida rivojlanib kelgan. Shuning uchun psixika qonunlarini aniqlash, eng avvalo, inson miyasi, asab tizimi va butun organizmning ish faoliyatini o‘rganishdan iborat bo‘lishi kerak”.

Psixologik va biologik omillarning birligi psixik holatlarni baholashning obyektivligi tamoyiliga asoslanib, psixik holatlarni o‘rganish ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: funksional va emotsional holatlarni o‘rganish. Psixik holatlarni tasniflashda har xil yondashuvlar mavjud. Ularga ko‘ra, aqliy, emotsional, irodaviy faollik va passivlik, stress, ko‘tarilish, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, to‘yinish, kutish, yolg‘izlik va boshqalarni ajratish mumkin. Umumlashganlik darajasiga ko‘ra holatlar umumiy, turga xos va individual bo‘lishi mumkin. Masalan, holatlarning tavsificha, ularning subyekt tomoni anglanganlik darajasiga bog‘liq. P.K. Anoxinning fikricha, mazkur xususiyatlar ichida eng muhimi insonning munosabatlaridir. Holat tarkibida inson ongi va o‘z-o‘zini anglash darajasini bildiradi.

Ong xususiyati sifatidagi munosabat – borliqqa bo‘lgan munosabatdir. O‘z-o‘zini anglash tavsifi sifatida o‘zini boshqarish, nazorat qilish, baholash alohida guruhlar hisoblanadi. Holatning tavsifi va parametrlari bilan bir qatorda uning funksiyasi (vazifalari)ni ham ko‘rsatish mumkin. Ular ichida eng muhimi sifatida:

a) boshqarish (regulyatsiya);

b) alohida psixik holat va xususiyatlarni birlashtirish (integratsiya) vazifasini ko‘rsatish mumkin.

Psixologik zo'riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib, oshqozon yarasi yoki yurak infarktigacha olib kelishi mumkin. Hissiy zo'riqishlarning namoyon bo'lishini turlicha tasniflash mumkin. Biroq psixologiya uchun ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

1. Xulq-atvoriga xos reaksiyalar.
2. Aqliy faoliyatdagi reaksiyalar.
3. Hissiy sohadagi reaksiyalar.
4. Fiziologik jarayonlardagi o'zgarishlar.

Psixomotorikadagi o'zgarishlar mushaklarning, ayniqsa, yuz va bo'yin mushaklarining haddan ziyod zo'riqishida, qo'llarning titrashida, nafas olish ritmining buzilishida, ovozning titrashi, sensomotor reaksiyalar tezligining pasayishi, nutq buzilishi va boshqalarda namoyon bo'ladi. Yu.V. Shcherbakov tomonidan o'tkazilgan tajribalarda stress va boshqa hissiy zo'riqishlar insonning yozuviga ham ta'sir ko'rsatar ekan. Masalan, yomon kayfiyat ta'sirida harflar orasidagi masofa kengayib, harflar eniga kattalashib ketishi mumkin. Yaxshi kayfiyatda esa kishining yozuvi mayda harflar bilan, chiroyli holda yoziladi.

Kun tartibining buzilishi uyquning qisqarishi, ish vaqtining tungi davrga o'tib qolishi, foydali odatlardan voz kechish, hissiy zo'riqishlarni bartaraf etishning mos keluvchi usullarini topa olmaslikda ko'rinadi. Kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlar ish joyidagi odatiy harakatlarni bajarishdagi xatolarning ko'pligi, vaqtning surunkali tarzda yetishmasligi, ish samaradorligining pasayib ketishi, harakat muvofiqligining buzilishi, aniqlikning yo'qolishida kuzatiladi. [2] Ba'zi mualliflar "hissiy stress" va "hissiy zo'riqish" tushunchalarini farqlamaydilar.

Har ikki holat uchun ham mimikadagi o'zgarishlar, harakatlarni bajarishdagi nuqsonlar, nutq talaffuzidagi buzilishlar xosdir. Ushbu mualliflar tomonidan keltirilgan vaziyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yerda gap klassik tabiatga ega bo'lgan uzoq muddatli stresslar haqida emas, balki qisqa muddatli hissiy zo'riqish haqida boradi. Ular tomonidan stress tarkibiga kiruvchi hissiy zo'riqishlar paytida namoyon bo'ladigan xulq-atvor reaksiyalarining quyidagi tasnifi keltiriladi:

- impulsiv shakli – haddan ziyod qo'zg'aluvchanlik, tormozlanish faolligining pasayishi, xato va shoshilinch harakat;
- tormozlovchi shakli–asab tizimi zaxirasining pasayishi hisobiga himoyalovchi tormozlanishning kuchayishi;
- generalizatsiyalovchi shakli – kutilmagan harakatlar.

O'ngning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, hissiy zo'riqishlar paytida ikkita yarim sharning o'zaro ta'siri o'zgarishi ham mumkin, ya'ni "emotsional" – o'ng yarim shar, " mantiqiy" – chap yarim shardan ustun bo'ladi.

Aqliy faoliyatning susayishi stressning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topishni qiyinlashtiradi. V.L. Marishuk va V.I. Yevdokimovlarning yozishicha, stress vaqtida aqliy jarayonlarga xos buzilishlar dominantaning fiziologik tushuncha ekanligidan dalolat beradi. Hissiy zo'riqish vaqtida salbiy induksiya qonuniga ko'ra dominant boshqa qo'zg'alish o'chog'ini o'chiradi [3]. Stressning intellektual faoliyatdagi belgilari:

- diqqat to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'iydi, ko'lami torayadi;

– tafakkur mantiqiylikning buzilishi, tarqoqligi, qaror qabul qilishning qiyinlashuvi, ijodiy imkoniyatlarning pasayishi ;

– xotira

– operativ xotiraning yomonlashuvi, qayta esga tushirishning qiyinlashishi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, har qanday faoliyat(o‘yin, ta‘lim va mehnat) davomida u yoki bu darajadagi zo‘riqishlar bo‘lishi mumkin. Masalan, hissiy zo‘riqishlar – stress (jiddiylik), bezovtalanish, qo‘rquv, hayajon, xavotirlik shaklida namoyon bo‘ladi. O‘quv faoliyatiga xos hissiy zo‘riqishlar obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta‘sirida yuzaga keladi. Talabalarning o‘quv faoliyatidagi hissiy zo‘riqishlar uning samaradorligiga ijobiy va salbiy ta‘sir etishi mumkin.

O‘quv faoliyatiga xos zo‘riqishlar barcha talabalar tomonidan bir xil jadallik va davomiylikda ko‘zdan kechirilmaydi. Hissiy zo‘riqishlar o‘quv faoliyati motivatsiyasi, qiziqishlar va talabalarning psixologik tayyorgarligiga ko‘ra namoyon bo‘ladi.

#### **REFERENCES**

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998.
2. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent – 1991.
3. G‘oziev E. Psixologiya. T., – O‘qituvchi, 1994.
4. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., – O‘qituvchi, 1976.

## КАНТАТА ЖАНРИНИНГ ЎЗБЕК САНЪАТИДАГИ ЎРНИ

Фаррух Собиров

Ўзбекистон Давлат Консерваторияси қошидаги Ботир Зокиров номидаги

Миллий эстрада санъати институти

“Композиторлик ва аранжировка” кафедраси ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993068>

**Аннотация.** Мақолада болалар мусиқа санъатининг тарихий илдизлари, кантата жанрининг ривожланиши ва Хоразм мақом санъати билан алоқадорлиги ҳақида фикр юритилган.

**Калим сўзлар:** кантата, мақом, ўзбек санъати, болалар мусиқа ва санъат ижрочилиги.

## РОЛЬ ЖАНРА КАНТАТЫ В УЗБЕКСКОМ ИСКУССТВЕ

**Аннотация.** В статье рассматриваются исторические корни детского музыкального творчества, развитие жанра кантаты, его связь с хорезмским макамым искусством.

**Ключевые слова:** кантата, статус, узбекское искусство, детское музыкально-художественное исполнение.

## THE ROLE OF THE CANTATA GENRE IN UZBEK ART

**Abstract.** The article discusses the historical roots of children's musical creativity, the development of the cantata genre, its connection with the Khorezm maqam art.

**Key words:** cantata, status, Uzbek art, children's musical and artistic performance.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач, жамият ижтимоий ҳаётида муҳим ўзгаришлар рўй берди. Жумладан, миллий ҳамда умуминсоний кадриятларга асосланган, ҳуқуқий жамиятни барпо этиш мақсадида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Чунончи, таълим-тарбия жараёни мазмунига миллий истиқлол мафқураси ғояларини сингдириш, ўқувчиларни миллий кадриятлар, анъаналар ва кўп асрлик мусиқий мерос воситасида эстетик тарбиялаш муаммоси алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Болалар мусиқа ва санъат мактабларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва уларнинг фаолиятини янада яхшилаш бўйича 2009–2014 йилларга мўлжалланган давлат дастурини тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармойиши мамлакатимизда ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавий олами ва маданий савиясини юксалтириш, ёшларимизнинг миллий ва жаҳон мусиқа маданиятнинг юксак намуналаридан кенг баҳраманд бўлиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш ва шу асосда мусиқий таълимни янада ривожлантириш, бу борада кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш бўйича амалга ошириладиган вазифалар кўрсатилган. Ёш авлоднинг мусиқий истеъдоди ва маданиятини юксалтириш мақсадида мамлакатимизнинг ҳар бир шаҳар ва туманида мусиқа ва санъат мактабларининг фаолият кўрсатиши назарда тутилган.

Бундай имкониятларнинг яратилиши, биринчидан, болаларда куй-қўшиққа, санъатга муҳаббат уйғотиб, уларда чолғучилик, ижрочилик каби билим, кўникма ва малакаларни шакллантиради. Иккинчидан, мусиқа санъати асосида ўқувчи шахсининг маънавий, ахлоқий маданиятини, миллий ғурур ва ватанпарварлик тарбиясини амалга оширади. Ижодий маҳорат, нафосат ва бадиий дидни ўстиради, фикрлаш даражасини кенгайтиради. Учинчидан, мусиқа

санъати навқирон авлодимизнинг юксак маънавият руҳида камол топишига кучли таъсир кўрсатади. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, мустақилликнинг биринчи йиллариданок мамлакатимизда мусиқа санъатини кенг ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилди. Айниқса, мумтоз мусиқий меросимизни асраб-авайлаш ва ўрганиш, уни ёш авлодларга безавол етказиш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Бунинг натижасида нуфузли халқаро мусиқа анжуманлари, «Шарқ тароналари» мунтазам равишда ўтказиб келинмоқда.

Шу жиҳатдан ҳам бугунги кунда Хоразм мумтоз мусиқаси асосида ўқувчиларни эстетик тарбиялаш усуллари, воситаларини, эстетик тарбиянинг педагогик-психологик имкониятларини очиш зарурияти алоҳида долзарблик касб этмоқда. Чунки мусиқа таълимининг ушбу йўналиши ўқувчиларда халқ оғзаки ижодиётининг касбий, профессионал жанрига оид назарий ва амалий билимларни, бадиий-мусиқий, эстетик тафаккурни шакллантиришда, маънавий-ахлоқий тарбиялашда долзарб муаммолардан ҳисобланади. Фуқаролик жамиятини таркиб топтириш, энг аввало, мазкур жамиятда яшаётган кишиларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етуқлиги ва юксак даражадаги ақлий салоҳиятига боғлиқ.

Ўқувчиларни инсонпарварлик, Ватанга муҳаббат, билим ва маърифатга интилиш руҳида тарбиялаш, урф-одатлар, анъаналарни кадрлашга ундовчи омил бўлиб, улар мусиқа таълимини замонавий талаблар асосида ташкил қилиш ва шу билан биргаликда ўқувчиларни эстетик тарбиялашни тақозо қилади.

Қайд этилган муаммоларни тадқиқ қилишда қуйидагиларни алоҳида ҳисобга олиш керак.

Аввало, мусиқа таълимининг самарадорлигини оширишга эҳтиёж туғилмоқда. Қолаверса, мусиқа таълими орқали ўқувчиларни эстетик тарбиялаш усуллари, воситаларини асослаш, эстетик тарбиянинг педагогик-психологик имкониятларини очиш зарурияти пайдо бўлмоқда.

Ўзбек халқ мусиқаси, жумладан Хоразм мусиқа санъати ҳар бир шахснинг маънавий камолотини шакллантиришда, интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришда, қалб ва виждонини барқарорлаштиришда, эзгу орзу ниятларини амалга оширишда, баркамол инсонни вояга етказишда муҳим аҳамият касб этиши билан бирга ўзининг тили, оҳанги, урф-одатлари, кадриятларини тараннум этади. Хоразм мақомлари мазмунида эзгулик ғояларига ҳурмат-эҳтиром, соғлом турмуш тарзи, меҳр-оқибат, ўз ери, тарихи, маданияти билан мағрурланиш, мустаҳкам имон-эътиқод, кучли орият, пок виждон, ҳалол меҳнат, яхшилик, садоқатли бўлиш каби инсоний фазилатларнинг маъно-моҳияти ифодаланган. Демак, Хоразм мақомлари ўзбек мусиқа маънавиятининг ажралмас қисми сифатида жамият маънавиятини юксалтиришда ўқувчиларни эстетик тарбиялашда муҳим ўрин тутади.

Ёшларнинг маънавий соғломлик даражаси, жисмоний етуқлиги, жамият тараққиётида ғоят муҳимдир. Ушбу фикрлар Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Хожиб, Алишер Навоий ва бошқа мутафаккирлар асарларида алоҳида таъкидланади.

Бу йўналишда фалсафа, педагогика, тиббиёт, адабиёт, тарих, миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари, маданиятшунослик каби фанлар бўйича тадқиқотчи олимлар илмий ишлар олиб борганлар. Бинобарин, файласуф олимлардан И.Мўминов, Ж.Туленов, С.Шермухамедов, Э.Юсупов, З.Ғофуров, Х.Шайхова, М.Холматова, С.Отамуродов, М.Имомназаровларнинг асарларида инсон маънавиятини такомиллаштириш, комил



инсонни шакллантириш ва тарбиялаш масалалари илмий-назарий жиҳатдан ёритиб берилган. Айниқса, таълим-тарбияни амалга ошириш, хусусан, ёш авлодга Шарқона миллий урф-одатларни сингдириш, уларни эстетик тарбиялаш муаммолари бир қатор педагог олимлар томонидан ўрганилган. Жумладан, И.Киргизов, Р.Маматкулов, И.Нисанов, Ф.Халилов ва бошқа кўплаб педагог олимлар мусиқа дарсларида ўқувчи-ёшларга ахлоқий-эстетик тарбия бериш муаммолари юзасидан изланишлар олиб боришган.

## O'QUV JARAYONINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpulatova Mohira G'ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993126>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quv jarayonini samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishni metodikasini takomillashtirish, didaktik o'yinlarning asosiy turlari, o'quvchilar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** didaktika, nutq o'stirish, qobiliyat, usul, bolalar, o'yin, ta'lim-tarbiya, kompyuter, tafakkur, ijodiy qobiliyat.

### IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING DIDACTIC GAMES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abstract.** In this article, the improvement of the method of using didactic games in increasing the effectiveness of the educational process of the primary class, the main types of didactic games, and the fact that students act with interest during the game are discussed.

**Key words:** didactics, speech development, ability, method, children, game, education, computer, thinking, creative ability.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются усовершенствование методики использования дидактических игр в повышении эффективности учебного процесса начального класса, основные виды дидактических игр, а также то, что учащиеся проявляют интерес во время игры.

**Ключевые слова:** дидактика, развитие речи, умение, метод, дети, игра, обучение, компьютер, мышление, творческие способности.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Shu maqsadda biz siz bilan ta'lim jarayonini oshirishda diaktik o'yinlarning o'rni haqida suhbatlashim o'tmoqchimiz.

*Didaktik o'yinlar texnologiyalari* o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

*Didaktik o'yinlarning asosiy turlari:*

**Intelektual** (aqliy), **harakatli** hamda **aralash** o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim – tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa unda atrof – muhit, hayotga bo‘lgan qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha, turlari bo‘yicha ajratiladi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’lim –tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o‘yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlariga ajratiladi. Bularning orasida ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o‘ringa ega. O‘yinlar kichik yoshdagi o‘quvchilarni asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilishiga sabab bo‘ldi. Boshlang‘ich sinf darslarida bolalarni darsga qiziqitirishimiz uchun turli ta’limiy o‘yinlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bola o‘yin orqali fanga qiziqib boradi va shu fanni yaxshi o‘zlashtiradi. Yana darsda turli tarqatma vositalaridan ham foydalanish yaxshi natijalarni beradi. Men o‘z darslarimda turli ta’limiy o‘yinlardan foydalanishga harakat qilaman. Misol tariqasida ko‘rsatib o‘tsam.

<b>Hayvonlarning xilma xilligi</b>				
				
				
Baliqlar, Qushlar, Sut emizuvchilar, Chuvalchanglar, Mollyuskalar, Qisqichbaqasimonlar, Uchub yuruvchilar, O‘rgimchaksimonlar, Suvda va quruqlikda yashovchilar, Sudralib yuruvchilar Hasharotlar, Tuxum qo‘yuvchilar				
<b>Umurtqali hayvonlar</b>				
<b>Umurtqasiz hayvonlar</b>				

Акту  
Чтоб  
пове

Ushbu tarqatmali ta'limiy o'yinda bolalar qiziqib vazifalarni bajarishadi. Bunda umurtqali va umurtqasiz hayvonlarni topishadi va sinflarga ajratib o'z kataklariga joylashtirishadi. E'tobor berib ko'rsangiz berilgan javoblarda noto'g'ri bo'lgan javoblar ham bor.

O'quvchilar shu noto'g'ri javoblardan to'g'rilarni ajratib topishlari hamda berilgan katakchalargaularni yozishlari kerak. Kim kataklarni to'g'ri to'ldirib yozishsa shu guruh g'olib hisoblanadi. Ushbu ta'limiy o'yin texnologiyasi o'quvchi faoliyatini oshirishga va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta katta yordam beradi.

Umuman olganda ta'limiy o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning uquv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga, fanlardan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ulaning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir ta'limiy o'yinning o'ziga xos ko'ngilochar tomoni bor. Bir nechta o'quv fanlarining kognitiv elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar mavjud.

Didaktik o'yin qanchalik mohirona tuzilgan bo'lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo'ladi. O'quvchi beixtiyor o'ynab, o'yinga kiritilgan bilimlar bilan ishlashni o'rganadi. Eng yaxshi didaktik o'yinlar o'z-o'zini o'rganish prinsipi asosida tuzilgan, va o'quvchini bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiradi.

O'yin nafaqat bola uchun zavq va quvonchdir, bu o'z-o'zidan juda muhimdir, uning yordami bilan biz uning e'tiborini, xotirasini, tafakkurini, tasavvurini rivojlantira olamiz. O'yin orqali bolaning yangi bilim, ko'nikmalarni egallashi, qobiliyatlarni rivojlantirishi mumkin.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Shunday qilib, yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkinki, boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mulqot qilish ko'nikma va malakalarini, o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, tafakkur doirasini kengaytiradi, nutq faoliyatini kengaytiradi va o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

## REFERENCES

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.
4. Karimova S.S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. <http://scientists.uz/uploads/202206/B-43.pdf>

5. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
6. Karimova, Sevara. "CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and socialsciences* 1.11(2021):737-740. <https://cyberleninka.ru/article/n/characteristics-of-natural-teaching-methodology>.
7. Karimova Sevara "Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students" In volume 19, of *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT)* April 2023.



## BANK TASHKILOTIDA XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISH HAQIDA

Ibragimov Axliyor

Namangan Davlat Universiteti 2 - kurs magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993178>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyotda xizmatlar o'rishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi. Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar – yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** narx konyunkturasi, chakana, ko'chmas mulk, xususiy tadbirkor, kredit.

### ABOUT THE IMPROVEMENT OF SERVICES IN THE BANKING ORGANIZATION

**Abstract.** In this article, the main factors of the growth of services in the economy are such factors as the integration of scientific knowledge, intangible collections, information technologies and business activities. This sector of the economy includes various types of activities and helps to increase production efficiency. The end result of this activity is not the finished product, but the services rendered. Services can be provided not only to enterprises, but also to individuals - final consumers.

**Key words:** price situation, retail, real estate, private entrepreneur, credit.

### О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ОБСЛУЖИВАНИЯ В БАНКОВСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье основными факторами роста сферы услуг в экономике являются такие факторы, как интеграция научных знаний, нематериальных коллекций, информационных технологий и предпринимательской деятельности. Этот сектор экономики включает в себя различные виды деятельности и способствует повышению эффективности производства. Конечным результатом этой деятельности является не готовый продукт, а оказанные услуги. Услуги могут оказываться не только предприятиям, но и физическим лицам - конечным потребителям.

**Ключевые слова:** ценовая ситуация, розничная торговля, недвижимость, частный предприниматель, кредит.

Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi. Shu tariqa, asosiy e'tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag'bat uyg'otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisob raqamlar ochishga kirishishi bilan bog'liq ijobiy holatlar ko'paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E'tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari

joy ola boshladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi. Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aksiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayonlari jadallasdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish kontseptsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshi-rish o'z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aksiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi. Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

2003 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi. Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx konyunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aksiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining

kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy prinsiplarga aylana bordi. Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zahirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa butun dunyo bo'ylab hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham yaqqol yuzaga chiqdi. Prezidentimiz bank tizimiga to'xtalar ekan, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha zamonaviy talablardan ortda qolmoqda", deya ta'kidlagan. Bunda biz raqamli bank xizmatlarini ishlab chiqilishi kerak bo'lgan masala sifatida tan olishimiz zarur. Muhim masalalardan biri bu foydalanuvchilarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadiga raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

"Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, electron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shuning uchun banklar uchun katta foyda keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo'shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo'lgan electron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo'lajak mijozlarni jalb qilish imkonini berdi va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini berdi".

"Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi".

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 1998. 24 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni, 1998. 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. 1998. 30 aprel.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 aprel "To'g'ridan- to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2008 yil, 28 noyabr, PF- 4058-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2008 yil, 18 noyabr, PF-4053-son.

## FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE IS A FACTOR OF SECURITY AND STABILITY

**Bayrieva A**

s.i.d, docent

**Seitnazarov Mansur**

Master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993278>

**Abstract.** In today's interconnected world, stability in society is influenced by various factors, including ideological immunity and security. Ideological immunity refers to the resistance of individuals to change their core beliefs and ideas, while security encompasses measures implemented to protect individuals and institutions from external threats. This scientific article examines the dynamic relationship between ideological immunity and security, highlighting their mutual influence on societal stability. By analyzing the psychological and socio-political aspects of ideological immunity and security, this study aims to shed light on the complex interplay between these factors and their implications for maintaining stability in contemporary societies.

**Key words:** Ideological immunity, Resistance to change, Belief system, Cognitive dissonance, Confirmation bias, Identity protection, Psychological defense mechanism, Belief preservation.

### ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ КАК ФАКТОР БЕЗОПАСНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В современном взаимосвязанном мире на стабильность в обществе влияют различные факторы, в том числе идеологическая неприкосновенность и безопасность. Идеологический иммунитет относится к сопротивлению людей изменению их основных убеждений и идей, в то время как безопасность включает в себя меры, принимаемые для защиты людей и учреждений от внешних угроз. В данной научной статье исследуется динамическая взаимосвязь между идеологическим иммунитетом и безопасностью, подчеркивая их взаимное влияние на стабильность общества. Путем анализа психологических и социально-политических аспектов идеологического иммунитета и безопасности данное исследование направлено на то, чтобы пролить свет на сложное взаимодействие между этими факторами и их значение для поддержания стабильности в современных обществах.

**Ключевые слова:** Идеологический иммунитет, Сопротивление изменениям, Система убеждений, Когнитивный диссонанс, Предвзятость подтверждения, Защита идентичности, Психологический защитный механизм, Сохранение убеждений.

### INTRODUCTION

In an interconnected and rapidly changing world, stability in societies has become a paramount concern. Understanding the factors that contribute to stability is crucial for fostering resilient and harmonious communities. This article aims to analyze the dynamic relationship between ideological immunity and security and explore their combined impact on societal stability. By examining their interplay, we can gain insights into how societies can navigate ideological diversity while ensuring the safety and well-being of their members.

### MATERIALS AND DISCUSSION



Ideological immunity is, to put it another way, the potential of a person to be weak, against goals and expectations, harmful, indifference and indifference. [1.19]

Ideological immunity is a service that serves to protect the individual, the nation, the society from various harmful ideological influences system. In philosophical encyclopedic dictionary, it is said that it is necessary to educate a person who is spiritually perfect, strong in strength, and has perfect faith, and who can give energy to ideological initiatives of any kind. [2.225]

Ideological immunity refers to the resistance individuals exhibit when faced with conflicting or challenging ideas that threaten their core beliefs. It is influenced by cognitive processes, personal experiences, and socialization.

Psychological factors, such as cognitive dissonance, confirmation bias, and identity protection, play a significant role in shaping ideological immunity. These mechanisms act as a defense mechanism to protect one's worldview and preserve psychological well-being. Cognitive dissonance theory explains how individuals strive to maintain consistency between their beliefs, attitudes, and actions. When faced with contradictory information, individuals often experience discomfort and may resort to various strategies to alleviate this dissonance. Ideological immunity is not solely a psychological phenomenon but is also influenced by socio-political factors, including cultural norms, socialization processes, and political ideologies. These factors shape the extent to which individuals are willing to adapt their beliefs in the face of new information or alternative perspectives.

Security encompasses measures taken to protect individuals and communities from physical, psychological, and socio-political threats. It includes personal safety, national security, and the safeguarding of critical infrastructure and institutions. Security can be viewed from both individual and collective perspectives. Ensuring individual security involves protecting personal well-being, while collective security focuses on maintaining stability and order within society as a whole.

A secure environment fosters a sense of safety and psychological well-being, enabling individuals to engage in productive activities and contribute to societal development. Conversely, a lack of security can create fear, distrust, and social unrest, undermining stability. Security measures implemented by governments and institutions have significant societal implications. Striking a balance between security and individual freedoms is crucial to maintaining stability while respecting human rights and democratic principles.

National ideas played an important role in the emergence of ideological life and scientific experiments. If, when the ideology is felt, the response to the idea increases, without thinking about what needs to be done, without paying attention to the individual actions, then it can be considered that the ideological immunity has become a practical form. National ideological immunity is based on the deep knowledge of every boy or girl, the political meaning of impartiality in the press, political ideas, reforms, all issues, business and politics. [1.21]

Ideological immunity and security are interconnected, with each factor influencing and shaping the other. Security measures can impact individuals' ideological immunity by either reinforcing existing beliefs or challenging them, while ideological immunity can influence perceptions of security threats. Effective security measures can enhance societal stability by creating an environment conducive to open dialogue, critical thinking, and the exchange of ideas.

By promoting intellectual resilience, societies can navigate ideological diversity without compromising security.

Ignorance means not knowing. Today ignorance is watched in various forms. One of them was religious ignorance. People who have lost their religious faith are being deceived by the dry wishes of the representatives of various currents who pretend to be the enemies of Islam and, on the contrary, gain power. [1.22]

Instances of ideological change within a society can pose security challenges, particularly when accompanied by radical shifts in beliefs or the rise of extremist ideologies. Such changes can disrupt social order and stability, necessitating a careful balance between security measures and the promotion of peaceful ideological evolution.

Examining historical examples can provide insights into how ideological immunity and security have influenced societal stability. For instance, the ideological rigidity observed in totalitarian regimes often resulted in the suppression of dissent and the erosion of security within society.

Contemporary societies display a diverse range of ideological perspectives and varying levels of security. Analyzing case studies from different regions can reveal the intricate dynamics between ideological immunity, security measures, and societal stability in the present day. Cross-cultural perspectives offer valuable insights into the interplay between ideological immunity and security across different societies. By comparing and contrasting cultural norms, political ideologies, and security approaches, we can deepen our understanding of their impact on stability. Fostering an inclusive and secure society requires striking a delicate balance between respecting ideological diversity and implementing necessary security measures. Policies should encourage open dialogue, promote critical thinking, and provide avenues for peaceful resolution of ideological conflicts.

Investing in social cohesion initiatives can enhance societal stability by promoting understanding, empathy, and cooperation among individuals with diverse ideological backgrounds. Additionally, proactive measures aimed at mitigating potential security threats can help prevent ideological polarization and radicalization. Building resilience and adaptability within individuals and societies can contribute to long-term stability. Education systems that emphasize critical thinking, empathy, and open-mindedness can help individuals develop the skills necessary to navigate ideological diversity while maintaining a secure environment.

Ideological immunity refers to the resistance individuals exhibit when confronted with ideas or information that challenge their existing beliefs, values, or ideologies. It is a psychological defense mechanism that helps individuals maintain consistency and coherence in their belief systems. When faced with contradictory or conflicting information, individuals may experience cognitive dissonance, which is a state of psychological discomfort that arises from holding inconsistent beliefs or values. Several psychological factors contribute to the development and maintenance of ideological immunity. One key factor is confirmation bias, which refers to the tendency of individuals to seek, interpret, and favor information that confirms their preexisting beliefs while disregarding or dismissing contradictory evidence. Confirmation bias acts as a cognitive filter, reinforcing existing beliefs and shielding individuals from potentially challenging or uncomfortable ideas. Identity protection is another psychological mechanism closely linked to ideological immunity. People often form strong attachments to their ideological beliefs as a way

to define their identity and establish a sense of belonging. Challenging these beliefs can be perceived as a personal threat, leading individuals to protect their identity by rejecting or dismissing alternative viewpoints.

As technology continues to advance, new challenges and opportunities arise in relation to ideological immunity and security. The impact of social media, artificial intelligence, and online echo chambers on ideological polarization and security must be closely examined to develop effective strategies for stability. Socio-political transformations, such as shifts in governance structures or ideological landscapes, can have significant implications for security and stability. Constant monitoring and adaptation of security paradigms are necessary to address evolving threats while preserving individual freedoms.

### **CONCLUSION**

Understanding the intricate relationship between ideological immunity and security is essential for promoting stability in contemporary societies. By recognizing the mutual influence of these factors and implementing inclusive approaches that balance ideological diversity with effective security measures, societies can navigate ideological challenges while fostering resilience, adaptability, and social cohesion.

### **REFERENCES:**

1. The dissertation by M.Seytnazarov, 2023, Nukus
2. Ideological landscape of the world. T.: Muharrir publishing house, 2017.-P.225
3. Sobirov M. National idea. T.: Spirituality, 2018, -P.84
4. Makhmudov I. Reform of consciousness and thinking. T.: Spirituality, 2020. -P.38
5. Musaev M. Uzbekistan's experience in preventing missionary work and proselytism. T.: Spirituality, 2019y.-P.3
6. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЪЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12

## O‘ZBEK TILI ERGONIMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI

Muyassar Saparniyazova

f.f.n., dots. TOSHDO‘TAU dotsenti

E-mail: [saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz](mailto:saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz)

Тел: +998973438368

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993367>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola o‘zbek tilida ergonimlarning struktur xususiyatlari masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada o‘zbek tilida mavjud nomlar tahlili asosida ergonimlarni modellashtirishning bir qator tendensiyalari, ergonim tarkibiy qismini hosil qiluvchi birliklar Toshkent shahri ergonimlarining lug‘at tarkibi tahlili misolida ko‘rsatib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* ergonim, ergonimika, ergonim tarkibiy qismi, onomastik klassifikator, real va ramziy ergonimlar.

## STRUCTURAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF ERGONYMS OF THE UZBEKI LANGUAGE

*Abstract.* This article is devoted to the issue of structural features of ergonyms in the Uzbek language. In the article, based on the analysis of names in the Uzbek language, a number of trends in the modeling of ergonyms, the units that make up the ergonim component, are shown on the example of the analysis of the dictionary composition of ergonyms of the city of Tashkent.

*Key words:* ergonim, ergonimics, ergonim component, onomastic classifier, real and symbolic ergonyms.

## СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЭРГОНИМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Аннотация.* Данная статья посвящена вопросу о структурных особенностях эргонимов в узбекском языке. В статье на основе анализа имен в узбекском языке на примере анализа словарного состава эргонимов узбекского языка показан ряд тенденций в моделировании эргонимов, единиц, составляющих эргонимический компонент. город Ташкент.

*Ключевые слова:* эргоним, эргонимика, эргонимический компонент, ономастический классификатор, действительные и символические эргонимы.

Jahon tilshunosligida onomastikaning alohida tarmog‘i sifatida ergonimika masalalari tadqiqiga e‘tibor XX asr oxirlaridan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, davlatlararo tijoriy aloqalarning ortishi natijasida yanada faollashdi. Ma‘lumki, ergonimlar jamiyat hayotining turli sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy) faoliyat yurituvchi korxonalar, tashkilot, firmalar, korporatsiyalar, ta‘lim muassasalari, sport jamiyatlari, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rastirish obyektlari nomini anglatuvchi onomastik tizim birliklaridir. Ergonimlar inson ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida nafaqat obyektning nomini, balki shu obyekt haqida ma‘lumot beruvchi birliklar ham sanaladi. Ergonimlarning bu kabi xususiyatlarini, shuningdek, jamiyatda tutgan o‘rnini belgilash, hosil qilinish usullari, milliy-madaniy xoslanishi, madaniy nutq me‘yorlari bilan bog‘lanishi masalasini tahlil qilish ularning mohiyatini to‘liq ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Zero, biror bir obyektga nom berish shunchaki oddiy ish emas, nom hosil qilish o‘ta mas‘uliyatli vazifadir. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, “...ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu

barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir. (1) Shu jihatdan ham tildagi ergonimlarni sistem-struktur va antroposentrik aspektda kompleks o'rganish, til egalariga nom hosil qilish usullari, tamoyillari bo'yicha tavsiyalar berish nihoyatda muhim.

Ma'lumki, *ergonim* termini ilk marta N.V.Podolskayaning 1978-yilda chop etilgan "Rus onomastik terminlari lug'ati"da qayd etilgan.(2) Ergonimlarni ilmiy muammo sifatida tadqiq etish masalasi o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab rus tilshunosligida o'rtaga tashlandi. (3) XXI asr boshlariga kelib ergonimlarni struktur-semantik aspektda tadqiq etish boshlab berildi. Xususan, T.N.Aliyeva, I.V.Kryukova, A.M.Yemelyanova, Z.T.Tanayeva tadqiqotlarida ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari yoritildi, leksik-semantik tasnifi amalga oshirildi. (4) M.Y.Kryuchkova ergonimlarning orfografik xususiyatlarini tahlil qildi.(5) Keyingi yillarda amalga oshirilgan N.V.Shimkevich, E.A. Trifonova, N.V. Nosenko, M.G. Qurbonova tadqiqotlarida rus tilidagi ergonimlarning struktur-semantik, poetik, pragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari ochib berildi.(6)

O'zbek tilshunosligida *ergonim* termini bilan nomlanib, maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlarda o'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari, ba'zi obyekt nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha muayyan xulosalar berildi; respublikamizdagi tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati yaratildi.(7) Shuningdek, o'zbek nomshunosligida onomastik birliklarning bibliografik ko'rsatkichi nashr qilindi.(8) Onomastik tizimning 40dan ortiq tarkibiy qismlari sanalgan ishlarda ham (9) ergonimika haqida deyarli ma'lumot berilmadi. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni xolis baholab, shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ergonimik birliklarni monografik aspektda o'rganish dolzarb masaladir.

Biz ushbu ishda ergonimlarning struktur xususiyatlari haqida to'xtalamiz. O'zbek tilida mavjud nomlar tahlili asosida ergonimlarni modellashtirishning bir qator tendensiyalarini kuzatdik. Ergonimlarning hosil bo'lishida o'zbek tilining fonetik, leksik va grammatik sathlari asos bo'ladi.

O'zbek tilida ergonimlar asosan til zaxirasida mavjud bo'lgan so'zlarni nom sifatida tanlash yoki ular ishtirokida birikma nomlarni hosil qilish, shuningdek, o'zga til birliklarini aynan qo'llash hamda ma'lum til birligiga o'zga til birligini biktirish orqali hosil qilinadi.

Toshkent shahri ergonimlarining lug'at tarkibini tahlil qilish natijasida ergonimlarning bir qator turlarini tasniflash mumkin bo'ldi:

- bir komponentli ergonimlar: "FAYZ", "HUVAYDO" (mebellar uyi);
- ikki komponentli ergonimlar: "QIBRAY NON", "QAQNUS MEDIA" (MCHJ);
- uch komponentli ergonimlar: "OSIYO SIFAT LYUKS", "NUR SUV BIZNES", "MASHHUR BARAKA TEXTIL" (MCHJ);
- to'rt komponentli ergonimlar: "HAKIM BOBO ZAR ZAMINI", "G'AFUR RUSTAM DOSTON BOG'LARI" (FX);
- so'z birikmasi shaklidagi ergonimlar: MO`JIZALAR DUNYOSI", "JAJI ALPOMISH" (MTT);
- gap shaklidagi ergonimlar: "AVTOMOBILDAN SAQLANING" (avtoxizmat), "AYOLNI IZLANG" (atir-upa do'koni).



Manbalarda ergonimlarni tasnif qilishning bir qator ko‘rinishlari uchraydi. A.V.Superanskaya ergonimlarni real va ramziy (simvolik) tarzda ikki guruhga ajratadi.(10) Real ergonimlar o‘zi atab qo‘ygan obyektning faoliyat turi yoki joylashishi haqida aniq ma’lumotlarni tashiydi: masalan, “O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL TRANSPORTI AGENTLIGI”, ”XALQARO SHAXMAT AKADEMIYASI”, “KONSALTING MARKAZI”, “MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI”.(9) Bunday ergonimlar obyekt haqidagi real axborotga asoslanadi, unda obyekt jorlashgan hudud va faoliyat xarakteristikasi nomning asosiy komponentlarini tashkil etadi.

Ramziy (simvolik) ergonimlarda esa obyekt faoliyati jqsman ko‘rsatiladi, ularga ishora qiladi. Masalan, “MEBEL BIZNES SERVIS”, “SANOAT-QURILISH BANKI”, “NURONIY JAMG‘ARMASI” kabi.

I.V.Kryukova esa ergonimlarni ifoda xususiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratadi: real (atoqli ot bo‘lmagan har qanday so‘z turkumi yoki birikmadan iborat ergonimlar: Volgograd davlat universiteti, O‘tkir zaharlanishni davolash Butunrossiya markazi); shartli (tashkilotning faoliyat xarakteri bilab bog‘liq denotatning bir qator belgilarini ko‘rsatuvchi: “Harbiy memoriallar xalqaro assotsiatsiyasi, “Sibir hamkorligi” hududlararo assotsiatsiyasi) hamda ramziy (denotatning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan, erkin xarakterdagi, yoki obyekt xususiyatini ma’noviy aloqadorlikdagi boshqa so‘z (onomastik metaforalar”) orqali ifodalovchi: “Axtuba” telekompaniyasi, “Erkin” kosmodromi).(11)

Ko‘rinadiki, ergonimlar faqat nomlovchi - onomastik qismdangina iborat birliklar emas, balki tashkilot turi, huquqiy maqomi kabi masalalar bilan birgalikda yaxlit qaralishi lozim. Ergonimlar tasnifini uning tarkibiy qismlari asosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ergonimning to‘liq shakli tashkilot tipini ko‘rsatuvchi qism + nomdan iborat bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, ergonim tarkibiy qismi tashkilot yoki korxonaning faoliyat turi, tashkiliy-huquqiy maqomi, ya’ni onomastik klassifikator, uni boshqa shu kabi uyushmalardan farqlovchi xususiy onomastik komponent (nom)dan tuziladi. Ergonimlar boshqa onomastik birliklardan farqli ravishda, mazkur qismlar uyg‘unligidagina ma’lum ma’noga ega bo‘ladi. Masalan: “HUVAYDO” MEBELLAR UYI KOMPANIYASI ergonimini tahlil qiladigan bo‘lsak, HUVAYDO - xususiy onomastik komponent (nom); MEBELLAR UYI - onomastik klassifikator; KOMPANIYASI – uning statusi, huquqiy maqomini ko‘rsatadi.

Ergonimik birlik tarkibidagi nomni aniqlashtirish vazifasini bajaruvchi lingvistik unsurlar onomastik klassifikator deyiladi. Ergonimlarning onomastik klassifikatori sifatida obyekt faoliyat turini ko‘rsatuvchi bank, turarjoy kompleksi, do‘kon, supermarket, savdo uyi, firma, kafe, restoran, stadion, kinoteatr, klub, teatr, park; tovar belgilari nomlari (avtomobil, sovutgich, konfet, kir yuvish vositasi va hk); gazeta, jurnal, ko‘rsatuv, kanal, festival, tanlov, bayram, aksiya kabi qismlarni ko‘rsatish mumkin.

Ergonimlarning huquqiy maqomini ko‘rsatuvchi til elementi sifatida kompaniya, XK (xususiy korxonasi), MCHJ (mas’uliyati cheklangan jamiyat), NTM (nodavlat ta’lim muassasasi), MTT (maktabgacha ta’lim muassasasi), OK (oilaviy korxonasi), XUJMSH (Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati), DUK (davlat unitar korxonasi), UK (unitar korxonasi), AJ (aksionerlik jamiyati), Qo‘shma korxonasi (QK), AB (advokatlik byurosi), FX (fermer xo‘jaligi) kabilarni ko‘rsatish mumkin. (12) “Firma nomida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilishi kerak”ligi qonunchilik hujjatlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. (13) Demak, ergonimlar o‘ziga xos tarkibiy

tuzilishga ega onomastik birliklar bo‘lib, xususiy onomastik komponent (nom), onomastik klassifikator - tashkilot turi, huquqiy maqomi kabi ko‘rsatkichlar uyg‘unligidan iborat.

Ergonimlar leksik tarkibi, strukturasi hosil qiluvchi birliklar tizimini tahlil qilish ularni hosil qilishdagi zamonaviy tendensiyalar, lingvistik, me‘yoriy-huquqiy asoslari va hatto o‘zbek tili ergonimik manzarasining kelajakdagi holatini ham bashorat qilish imkonini beradi. Ergonimlarning funksional-semantik guruhlari, ergonimik ko‘lam va uning mavzuiy guruhlari kabi masalalar galdagi monografik tadqiqotlar uchun manba bo‘la oladi.

#### REFERENCES

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. Москва, 1985; Прокуровская Н. А. Город в зеркале своего языка (на яз. Материале г. Ижевска) / Н. А. Прокуровская – Ижевск : Изд-во Удмурт. ун-та, 1996; Голомидова М. В. Искусственная номинация в русской ономастике : автореф. дис. докт. фил. Наук / М. В. Голомидова – Екатеринбург, 1998; Романова Т. П. Проблемы современной эргонимии / Т. П. Романова // Вестник самарского государственного университета – 1998 – № 1 (7). – С. 82–90.
4. Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примереназваний деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012.
5. Крюкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ... канд. филол. наук. - Волгоград, 2003.
6. Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского

- языка: семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. –Волгоград, 2015; ва бошқалар.
7. Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me‘yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.
  8. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). – Namangan, 2008.
  9. Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2012.
